

Qo‘qon DPI
ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

Vol.08 № 3/2026

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar

Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№3/2026

УЎК 5/9(08)
КБК 72я5
Қ 99

Bosh muharrir: Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva
Mas’ul muharrirlar:
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Y.Pulatov
Mas’ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.Bazarov
Nashr uchun mas’ul:A.A.Ergashev

MUASSIS:
Qo‘qon davlat universiteti

Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR-
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ.
Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

"**Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar**" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Tahririyat manzili:
150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy.
Tel.: (0373) 542-38-38.
Сайт: www.kspi.uz
journal.kspi.uz
ISBN: 978-9943-7182-7-2
“CLASSIC” nashriyoti
2025

TABIIY FANLAR
И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ)
Sh.S.Nomozov,texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB)
А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB)
O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.Numonov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)

FILOLOGIYA FANLAR
Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR)
И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ)
В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ)
К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)

IJTIMOIY FANLAR
Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)
M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)

PEDAGOGIKA FANLAR
Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.001

Fozilova Odina Nabiyevna
FarDU o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiybolimnashriyot@gmail.com +998940853676
ORCID ID 0009-0005-0823-704X
Rayimova Shahnoza Sodiqovna
FarDU maktabgacha ta’lim mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
ilmiybolimnashriyot@gmail.com+998916642493
ORCID ID 0009-0003-1280-7784

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati, ularning turlari, joriy etish mexanizmlari va samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo’llash, bolalarni o‘yin vositasida ta’lim materiallarini o‘rganish orqali nutqni rivojlantirish, o‘z fikrini erkin bayon eta olish, o‘zaro muloqot, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha tashkil etishning dolzarbligi haqidagi qarashlar ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion pedagogik texnologiyalar, amaliyot, tajriba, rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, bosqich, vazifa, tamoyil, uslub.

Аннотация.В данной статье представлен научно-теоретический анализ содержания, типов, механизмов внедрения и эффективности инновационных педагогических технологий в системе дошкольного образования. Высказываются мнения о важности эффективного использования инновационных педагогических технологий в процессе дошкольного образования, развития речи, свободного выражения мыслей, общения с другими людьми и реорганизации процесса познания окружающего мира посредством изучения учебных материалов в игровой форме.

Ключевые слова: инновационные педагогические технологии, практика, опыт, развитие, социальное развитие, этап, задача, принцип, метод.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the content, types, implementation mechanisms and effectiveness of innovative pedagogical technologies in the preschool education system. Views are expressed on the relevance of effectively using innovative pedagogical technologies in the process of preschool education, developing speech, freely expressing one's thoughts, communicating with others, and reorganizing the process of

getting to know the world around them through the study of educational materials through play.

Keywords: innovative pedagogical technologies, practice, experience, development, social development, stage, task, principle, method.

KIRISH. Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog‘lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi, jumladan “ixtiroli muammolarni yechish nazariyasi”, “M.Montessori texnologiyasi”, “Loyihalar usuli” (pedagogik ta’lim majmuyi), maktabgacha ta’lim jarayoniga kirib keldi va ular amalyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi oldiga har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash vazifasi qo‘yilmoqda. Shu nuqtai nazardan bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya – bu bolalarni o‘yin vositasida ta'lim materiallarini o‘rganish orqali nutqni rivojlantirish, o‘z fikrini erkin bayon eta olish, o‘zaro muloqot, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha tashkil etishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dastlab “texnologiya” tushunchasiga aniqlik kirataylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – “texnos”-san'at, mahorat, hunar va “logos”-fan so‘zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma’nosini anglatadi, biroq bu ifoda ham zamonaviy texnologiya jarayonini to‘la tavsiflab bera olmaydi. Texnologiya jarayoni har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanilgan holda operatsiyalarni muayyan ketma-ketlkda bajarilishini ko‘zda tutadi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, (xomashyoga) bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi mashina)ning faolyatidir. Yana shu ta’rifni mavzu mohiyatiga ko‘chiradigan bo‘lsak, pedagogik texnologiya bu tarbiyachining ta’lim-tarbiya vositalari yordamida bolalarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsui sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shaklantirish jarayonidir.

1970-yillarga kelib, pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Olimlar pedagogik texnologiyani har xil talqin qila boshladilar. Bola shaxsini hurmat qilish, uning ichki imkoniyatlarini ochib berish g‘oyalari Shalva Amonashvili, Vasiliy Sukhomlinsky hamda Carl Rogers ilmiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Ularning ta’kidlashicha, ta’lim jarayoni avvalo insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim — bu ta’lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan pedagogik jarayondir. Mazkur yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- insonparvarlik va demokratiklik;
- individual yondashuv;

- hamkorlik pedagogikasi;
- mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash;
- refleksiya va o‘z-o‘zini baholash.

Bu jarayonda tarbiyachi nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va hamkor sifatida namoyon bo‘ladi.Pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim jarayonini aniq maqsad asosida loyihalash va kafolatlangan natijaga erishishni anglatadi. Bu borada Viktor Bespalko pedagogik texnologiyani “ta’lim jarayonini oldindan rejalashtirilgan natija asosida tashkil etish tizimi” sifatida ta’riflaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda pedagogik texnologiyalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- faoliyat jarayonini individuallashtirish;
- ta’lim samaradorligini oshirish;
- tarbiyalanuvchilarning faolligini kuchaytirish;
- ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Multimedia vositalari, elektron darsliklar, onlayn platformalar faoliyat samaradorligini oshiradi. AKT yordamida ta’lim jarayoni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etiladi. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish tarbiyalanuvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantirish, ijodiy tafakkur rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi orttirish, ta’lim sifati va samaradorligi yuksaltirish kabi ijobiy natijalarga olib keladi:

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog‘lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi, jumladan “ixtiroli muammolarni yechish nazariyasi”, “M.Montessori texnologiyasi”, “Loyihalar usuli” (pedagogik ta'lim majmuyi), maktabgacha ta'lim jarayoniga kirib keldi va ular amalyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Pedagogik texnologiyalarni bir-biridan farqlaydigan asosiy xususiyatlardan biri uning bola shaxsiga yo‘naltirilganlik darajasidir. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas'uliyatli qaror qabul qilisha qodirligi turadi. ***“Rivojlanish”, “Erkinlik”, “Mustaqillik”, “Ijod”, “O‘ziga xoslik”*** shaxslikka yo‘naltirilgan ta'limning kalit so‘zlari hisoblanadi.

Shaxslikka yo‘naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo‘llaniladigan belgilarini:

-bolaning shaxslik, intellektual, kasbiy rivojlanish maqsadlarining ustuvorligi;

-uning yutuq va muvaffaqiyatlari motivatsiyasi, individual rivojlanishini qo‘llab-quvatlashga yo‘naltirilganligiga urg‘u berish;

-o‘zligini shakllantirish, o‘z-o‘zni boshqarishga urg‘u berish;

-ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro sheriklik harakatlari;

-bolalarga tanlash erkinligi va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga qabul qilingan qaror uchun shaxsiy mas'uliyat yuklash;

-ta'limiy vaziyatlar va voqealarni o‘zidan o‘tkazish hamda munosabatlarning mavjudligida ko‘rishimiz mumkin.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta'limning o‘ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagi, buyurtmasiga ko‘ra emas, o‘z imkoniyatlari, salohiyatlari, tabiati xususiyatariga mos ravishda shakllanadi. Ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsini shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Bu jarayon shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, unga umuminsoniylik xos bo‘lsa, ushbu pedagogik faoliyat insoniy shaxslik darajasiga o‘tadi.

Insoniylikka yo‘naltirilgan ta'lim g‘oyalvri quyidagilarda aks etadi:

-zamonaviy ta'lim umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqqan hamda ularning muayyan jamiyat ma'naviyatiga asoslanadi;

-ta’lim maqsadi o‘zligiga ega, umuminsoniy qadriyatlarga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi;

-shaxs kamoloti to‘laqonli - ong va tuyg‘ular, ruh va tan birligi tarzida amalga oshiriladi;

-insonning barcha huquqlari, jumladan, uning ta'lim mazmunini tanlash huquqi ham himoyalanadi;

-tashkilotda guruh ishi alohida shaxsiy ish bilan birgalikda olib boriladi va bunda bola faoliyatining o‘ziga xos uslubi shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi;

-ta'lim shaxs faoliyati turi sifatida ichki asosga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining teng munosabatlari hamkorlikda qaror qabul qilishiga tayanadi;

-eng yaxshi ta'lim rasmiy boshqaruvga emas, balki mehr, e’tibor, hamkorlikka tayangan ta'limdir.

Bolaga shaxs sifatida yondashuv asnosida ta'lim-tarbiya jarayonida bolaga shaxs sifatida insoniylik nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lishning talabi – shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar bo‘lsa, asosi esa do‘stona munosabatdir. U quyidagilardan iborat:

-shaxsga nisbatan ta'lim maqsadi sifatida yangicha munosabat, ta’lim-tarbiya jarayoniningi shaxsga yo‘naltirilganligi;

-pedagogik munosabatlarning insoniyligi, demokratlashtirilganligi;

-to‘g‘ridan-to‘g‘ri avtoritar uslubidan hozirgi sharoitda samara keltirmaydigan yo‘ldan voz kechish;

-bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyiliga yangicha nuqtayi nazar;

-ijobiy “Men” – kontseptsiyasini shakllantirish.

Shaxsga yangicha nuqtayi nazar quyidagilardan tashkil topadi:

-shaxs paydo bo‘ladi, ilk bolalikda namoyon etiladi;

-shaxs pedagogik jarayonning subъektidir, obъekti emas;

-shaxs – ta’lim tizimining maqsad, boshqa maqsadlarga erishish vositasi emas;

-har qanday bola iste’dodli;

-oliy insoniy qadriyatlar (mehr-shafqat, muhabbat, mehnatsevarlik, insof, g‘urur, fuqarolik hissi va boshqalar) shaxsning ustuvor xususiyatlaridir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishi bo‘lib, unda pedagogik texnologiyalar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ta’lim jarayonini individuallashtirish, interfaol metodlardan foydalanish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali har bir bolaning shaxsiy rivojlanishiga erishish mumkin. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish, amaliy tajribalarni ommalashtirish hamda pedagoglarning malakasini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shalva Amonashvili. *Здравствуйте, дети!* — Москва: Просвещение, 1983.

2. Vasily Sukhomlinsky. *Сердце отдаю детям.* — Киев: Радянська школа, 1977.

3. Carl Rogers. *Freedom to Learn.* — Columbus, OH: Merrill Publishing Company, 1969.

4. Viktor Bespalko. *Слагаемые педагогической технологии.* — Москва: Педагогика, 1989.

5. John Dewey. *Democracy and Education.* — New York: Macmillan, 1916.

6. Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

7. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq.* — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar.* — Toshkent: Iste’dod, 2008.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIBBIY TA’LIM TALABALARIGA CHET TILIDAGI RETSEPTIV TERMINOLOGIK KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.002

Jo‘rayeva Mastura Tojihakim qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi
Lotin tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada retseptiv terminologik kompetentsiya tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va tibbiy ta’limdagi ahamiyati o‘rganilgan. Maqolada kompetentsiyani shakllantirishning didaktik asoslari, chet tilidagi tibbiy terminologiyani o‘rganishning metodik imkoniyatlari hamda talabalar bilimini mustahkamlash usullari tahlil qilinadi. Retseptiv terminologik kompetentsiya nafaqat tibbiy matnlarni tushunish, balki kasbiy faoliyatda aniq va tezkor kommunikatsiya qilish imkonini ham beradi. Tibbiy ta’limda retseptiv terminologik kompetentsiyani shakllantirish jarayonida qo‘llaniladigan didaktik vositalar va metodlar tahlil qilinadi. Didaktik vositalar va metodlar talabalarning chet tilidagi tibbiy terminlarni tushunish, amaliyotda qo‘llash va kasbiy kommunikatsiyada samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada metodlarning turli turlari, ularning samaradorligi va talabalarga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Tibbiy ta’limda retseptiv terminologik kompetentsiyaning samaradorligi va kasbiy ahamiyati tahlil qilinadi. Kompetentsiya talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirish, klinik va laboratoriya amaliyotida to‘g‘ri va tezkor qarorlar qabul qilish hamda chet tilidagi terminologiyani tushunish va qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydi. Maqolada kompetentsiyani baholash mezonlari, samaradorligini oshirish yo‘llari va kasbiy faoliyatdagi roliga oid misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: retseptiv kompetentsiya, tibbiy terminologiya, chet tili, didaktik imkoniyat, tibbiy ta’lim, Didaktik vosita, didaktik metod, retseptiv terminologik kompetentsiya, tibbiy ta’lim, kasbiy kommunikatsiya, terminologik bilim. Retseptiv terminologik kompetentsiya, samaradorlik, kasbiy ahamiyat, tibbiy ta’lim, klinik amaliyot, terminologik bilim.

Kirish. Chet tilidagi retseptiv terminologik kompetentsiya – bu talabalar matn, retsept, ilmiy maqola yoki kasbiy kontekstdagi tibbiy axborotni to‘liq tushunish qobiliyatidir. Zamonaviy tibbiy ta’limda bu kompetentsiya talabalarni professional tayyorlash jarayonida katta ahamiyatga ega, chunki tibbiy adabiyotlarning aksariyati chet tillarda berilgan. Shu

sababli, retseptiv terminologik kompetentsiyani shakllantirish tibbiy ta’limning ajralmas qismiga aylangan.

Asosiy qism

1. Retseptiv terminologik kompetentsiyaning tarkibi

Retseptiv kompetentsiya quyidagi elementlardan iborat:

Leksik bilim – chet tilidagi tibbiy terminlarni bilish va ularni kontekstda tushunish;

Morfologik va sintaktik bilim – so‘zlarning shakllanishini va gap ichidagi funksiyasini tushunish;

Konseptual tushuncha – tibbiy kontseptlarni aniq va to‘g‘ri anglash;

Amaliy qo‘llash – retsept, laboratoriya natijalari va klinik matnlarni o‘qish va tahlil qilish qobiliyati.

2. Tibbiy ta’limdagi ahamiyati

Ilmiy matnlarni tushunish – talabalar chet tilidagi maqolalar, retseptlar va klinik tavsiyalarni tushuna oladi;

Kasbiy kommunikatsiya – professional muloqotda to‘g‘ri terminlardan foydalanish imkonini beradi;

O‘quv samaradorligini oshirish – didaktik metodlar yordamida talabalar bilimini mustahkamlash;

Interaktiv mashqlar – klinik stsenariylar, laboratoriya mashqlari va testlar orqali o‘rganilgan terminlarni amaliy qo‘llash.

3. Didaktik imkoniyatlar

Matnli materiallar – retseptura, ilmiy maqolalar, klinik vaziyatlar;

Audio-vizual resurslar – video darslar, podkastlar, interaktiv testlar;

Guruh ishlari – vaziyatli mashqlar, klinik tahlil va mini-prezentatsiyalar;

Baholash vositalari – yozma va og‘zaki testlar, retseptlarni tarjima qilish va izohlash.

Retseptiv terminologik kompetentsiya talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu kompetentsiyani shakllantirish orqali talabalar chet tilidagi tibbiy matnlarni mustaqil tushunish, klinik va laboratoriya mashqlarini samarali bajarish hamda professional kommunikatsiya qobiliyatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, tibbiy ta’lim jarayonida retseptiv terminologik kompetentsiya didaktik jihatdan asosiy e’tiborga loyiqdir.

Tibbiy ta’limda chet tilidagi retseptiv terminologik kompetentsiya talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlovchi asosiy komponentlardan biridir. Ushbu kompetentsiyani shakllantirishda didaktik vositalar va metodlar muhim o‘rin tutadi. Didaktik vositalar – bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi materiallar, qurilmalar, texnologiyalar; didaktik metodlar esa – bilimni yetkazish, o‘zlashtirish va mustahkamlash usullari hisoblanadi.

Didaktik vositalar

Tibbiy ta’limda retseptiv terminologik kompetentsiyani shakllantirishda turli vositalar qo‘llaniladi:

Matnli vositalar:

Lotin va yunon tibbiy terminlari bo‘yicha maxsus lug‘atlar;

Retseptura, laboratoriya natijalari va ilmiy maqolalar;

Kasbiy qo‘llanmalar, farmakologik va klinik kontekstdagi matnlar.

Bu vositalar talabalarga terminlarni kontekstda tushunish, ularni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Vizual vositalar:

Diagramma, sxema va infografikalar;

Anatomik modellar, skelet va mushak tizimi maketlari;

Rasmli retseptura misollari va farmatsevtik preparatlar tasvirlari.

Vizual vositalar terminlarning ma’nosini tez va aniq tushunishga yordam beradi, vizual xotirani mustahkamlaydi.

Multimedia va interaktiv vositalar:

Onlayn interaktiv darsliklar va elektron qo‘llanmalar;

Animatsiyalar, video darslar va klinik holatlar;

Simulyatsiya dasturlari, virtual laboratoriyalar.

Bu vositalar o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, talabalarning mustaqil o‘rganish va klinik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Amaliy vositalar:

Retsept tayyorlash mashqlari;

Laboratoriya ishlari, dorivor preparatlar bilan amaliy mashg‘ulotlar;

Klinik tahlillar va kasbiy situatsiyalar bilan ishlash.

Amaliy vositalar terminologik bilimni real kasbiy sharoitga tatbiq etishni ta’minlaydi.

Didaktik metodlar

Retseptiv terminologik kompetentsiyani shakllantirishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar:

Matn asosidagi metodlar:

Tahlil va tarjima qilish;

Retsept va laboratoriya natijalarini o‘rganish;

Ilmiy maqolalarni o‘qish va muhokama qilish.

Bu metodlar talabalarga terminlarning ma’nosini kontekstda tushunish imkonini beradi.

Vizual metodlar:

Sxemalar va diagrammalar orqali terminlarni o‘rganish;

Anatomik modellar yordamida kasbiy tushunchalarni mustahkamlash.

Vizual metodlar xotirani mustahkamlaydi va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Amaliy metodlar:

Retseptura tayyorlash mashqlari;

Dorivor preparatlar va klinik holatlarni tahlil qilish.

Amaliy metodlar terminologik bilimni real kasbiy faoliyatga tatbiq etishga imkon beradi.

Interaktiv metodlar:

Guruhli mashg‘ulotlar va muhokamalar;

Onlayn viktorinalar va testlar;

Simulyatsiyalar va rol o‘yinlari.

Bu metodlar talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, terminlarni samarali ishlatishni rag‘batlantiradi.

Didaktik vositalar va metodlar retseptiv terminologik kompetentsiyani shakllantirishda asosiy vositalardir. Ular yordamida talabalar terminlarni tez va samarali o‘zlashtiradi, amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadi va kasbiy kommunikatsiyada aniqlikni ta’minlaydi. Turli vositalar va metodlarni uyg‘un qo‘llash tibbiy ta’limning sifatini oshiradi va talabalarning professional tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Kompetentsiyaning samaradorligi va kasbiy ahamiyati tibbiy ta’limda retseptiv terminologik kompetentsiya misolida

Tibbiy ta’limning samaradorligi talabalarning nafaqat nazariy bilim, balki kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Retseptiv terminologik kompetentsiya – bu talabaning chet tilidagi tibbiy terminlarni tushunish, ularni amaliyotda ishlatish va kasbiy kommunikatsiyada samarali qo‘llash qobiliyatidir. Kompetentsiyaning samaradorligi va kasbiy ahamiyati talabaning kasbiy faoliyatga tayyorligini, klinik va farmatsevtik ishlarni sifatli bajarishini ta’minlash bilan belgilanadi.

Kompetentsiyaning samaradorligi

Retseptiv terminologik kompetentsiyaning samaradorligi quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

Terminlarni tushunish darajasi:

Talaba tibbiy matn, retseptura, laboratoriya natijalari va ilmiy maqolalarni mustaqil o‘qiy olishi, murakkab terminlarni tushunishi va izohlay olishi.

Amaliy qo‘llash:

Kompetentsiya talabaning klinik yoki farmatsevtik amaliyotda terminlarni to‘g‘ri ishlatish qobiliyatini oshiradi. Masalan, retseptura yozish yoki dorivor preparatni to‘g‘ri tanlashda chet tilidagi terminlarni tushunish muhim rol o‘ynaydi.

O‘quv jarayonining sifatiga ta’siri:

Talaba terminlarni tushunishi bilan o‘qish jarayoni samarali bo‘ladi, bilimlarni tez o‘zlashtiradi va mustahkamlaydi. Bu o‘z navbatida tibbiy ta’limning umumiy samaradorligini oshiradi.

Baholash va monitoring:

Kompetentsiyaning samaradorligini testlar, mashg‘ulotdagi kuzatishlar va amaliy ishlardan olinadigan natijalar orqali aniqlash mumkin. Shu orqali o‘quv jarayoni doimiy takomillashtiriladi.

Kasbiy ahamiyati

Retseptiv terminologik kompetentsiyaning kasbiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Kasbiy kommunikatsiyani rivojlantirish:

Talabalar chet tilidagi terminlarni tushunish orqali boshqa tibbiyot mutaxassislari bilan samarali muloqot qiladi. Bu esa xalqaro miqyosdagi ilmiy va klinik faoliyatda muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy tayyorgarlikni oshirish:

Kompetentsiya talabaning farmatsevtik, laboratoriya va klinik amaliyotlarda mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Misol uchun, retsept yozish yoki laboratoriya tahlillarini sharhlash jarayonida terminologik bilim talab qilinadi.

Xatoliklarni kamaytirish:

Terminlarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llash kasbiy xatoliklarni kamaytiradi, bu esa bemor xavfsizligi va klinik ish sifatini oshiradi.

Ilmiy va tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik:

Chet tilidagi terminlarni tushunish ilmiy maqolalar o‘qish, konferensiyalarda ishtirok etish va tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish imkonini yaratadi.

Xulosa. Retseptiv terminologik kompetentsiya tibbiy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, uning samaradorligi talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligini oshirish va klinik ish sifatini yaxshilash bilan belgilanadi. Kompetentsiyaning kasbiy ahamiyati talabaning klinik va farmatsevtik amaliyotda, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro kommunikatsiyada samarali ishlash imkonini ta’minlaydi. Shu bilan birga, kompetentsiyaning muntazam baholanishi va didaktik vositalar yordamida mustahkamlash tibbiy ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Juraeva, M. (2025). PERSONNEL TRAINING BASED ON INNOVATIVE DEVELOPMENT: PEDAGOGICAL APPROACHES AND EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, *3*(10), 53-64.

2. Mastura, J. R. (2022). The use of social forms in improving the effectiveness of the lesson. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *9*, 118-122.

3. Jurayeva, M. T. K. (2022). Some opinions about social forms in teaching German. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(5-2), 372-376.

4. Mastura, J. (2023). Brief historical background of Latin. *O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali*, *2*(20), 471-473.

5. Kizi, M. T. (2020). Applying the social forms of education in teachng foreign languages. *Вопросы науки и образования*, (41 (125)), 56-60.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ORCID: 0009-0000-8354-2988

TIBBIYOT TALABALARIGA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.003

Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna
Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
maftunatuychibaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishning nazariy-metodik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda diagnostik yondashuv asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish, interfaol metodlar, klinik integratsiya, raqamli ta’lim resurslari hamda ko‘p bosqichli baholash tizimining samaradorligi o‘rganildi. Olingan natijalar tizimli, integrativ va bosqichma-bosqich tashkil etilgan terminologik tayyorgarlik talabalarning klinik tafakkuri, kasbiy muloqot kompetensiyasi va ilmiy axborotni anglash darajasini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: lotin tili, tibbiy terminologiya, kompetensiyaviy yondashuv, diagnostik metod, integrativ ta’lim, klinik tafakkur, tibbiy ta’lim.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются теоретические и методические основы преподавания латинского языка и медицинской терминологии в системе высшего медицинского образования. Анализируются современные педагогические технологии, компетентностный подход, диагностическая модель обучения и интеграция дисциплины с клиническими предметами. Результаты исследования подтверждают, что системная и поэтапная организация терминологической подготовки способствует формированию клинического мышления и повышению уровня профессиональной коммуникации студентов.

Ключевые слова: латинский язык, медицинская терминология, компетентностный подход, диагностическое обучение, интегративная модель, медицинское образование.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the theoretical and methodological foundations of teaching Latin and medical terminology in medical higher education institutions. The study examines modern pedagogical technologies, a competency-based approach, a diagnostic instructional model, and interdisciplinary integration with

clinical subjects. The findings demonstrate that a systematic and step-by-step organization of terminological training significantly enhances students’ clinical thinking, professional communication skills, and comprehension of scientific medical information.

Keywords: Latin language, medical terminology, competency-based approach, diagnostic instruction, integrative model, medical education.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonida tibbiyot sohasi xalqaro ilmiy hamkorlik, yagona standartlar va umumqabul qilingan terminologik tizim asosida rivojlanmoqda. Tibbiy terminlarning asosiy qismi lotin va yunon-lotin negiziga ega bo‘lib, ular xalqaro tibbiy muloqotning fundamental asosini tashkil etadi. Anatomik nomenklatura, kasallik nomlari, klinik tashxis formulalari, farmatsevtik retseptura va biologik atamalar lotin tiliga tayangan holda shakllangan. Shu bois lotin tili tibbiyot ta’limida tarixiy meros sifatida emas, balki kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘qitilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot ta’limini modernizatsiya qilish jarayoni milliy ta’lim standartlarini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirishni talab etmoqda. Bu esa bo‘lajak shifokorlarning terminologik savodxonligini oshirish, klinik tafakkurini rivojlantirish va ilmiy manbalarni mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Lotin tili fanini an’anaviy grammatik yondashuv asosida o‘qitish bugungi kun talablari uchun yetarli emas. Mazkur fan klinik, anatomik va farmatsevtik fanlar bilan integratsiyada o‘qitilgandagina o‘zining haqiqiy amaliy ahamiyatini namoyon etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, diagnostik monitoring va kompetensiyaviy yondashuv asosida yagona metodik tizim ishlab chiqish zarurati mavjud.

Adabiyotlar tahlili va nazariy asoslar. Tibbiy terminologiya masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xalqaro anatomik nomenklatura komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Terminologia Anatomica hujjatlari lotin tilining standartlashgan shaklini belgilab berdi. Pedagogika sohasida kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi ta’lim natijasini bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki amaliy faoliyatga tayyorlik darajasi sifatida talqin etadi.

Lotin tilini o‘qitish metodikasi uch asosiy komponentga tayanadi. Birinchisi lingvistik asos bo‘lib, unda fonetika, morfologiya va sintaksis qonuniyatlari o‘rganiladi. Ikkinchisi terminologik asos bo‘lib, anatomik, klinik va farmatsevtik terminlarning struktur-semantik tahlili amalga oshiriladi. Uchinchi komponent esa didaktik asos bo‘lib, unda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quv motivatsiyasini oshirish va natijani baholash mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Termin yasash jarayonida prefiks, suffiks va negizlarning semantik funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, -itis qo‘shimchasi yallig‘lanish jarayonini, -osis degenerativ jarayonni, hyper- ortiqchalikni, hypo- esa yetishmovchilikni bildiradi. Talaba ushbu elementlarning ma’nosini anglagan holda ilgari uchramagan terminni ham mustaqil tahlil qila oladi. Bu esa klinik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot aralash metodologiya asosida olib borildi. Nazariy bosqichda davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va ilmiy manbalar tahlil qilindi. Empirik bosqichda esa pedagogik tajriba tashkil etildi. Tadqiqotda 1-kurs tibbiyot talabalari ishtirok etdi. Eksperimental guruhda lotin tili fanini o‘qitishda integrativ model qo‘llanildi. Anatomik terminlar real atlas materiallari asosida, klinik terminlar esa kasallik tarixlari misolida o‘rganildi. Farmatsevtik bo‘limda retsept yozish qoidalari amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlandi.

Diagnostik monitoring tizimi uch bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki bosqichda talabalar bilim darajasi aniqlanib, individual rivojlanish trayektoriyasi belgilandi. Oraliq bosqichda terminologik tahlil va tarjima ko‘nikmalari baholandi. Yakuniy bosqichda esa kompleks nazorat ishlari orqali o‘zlashtirish darajasi aniqlashtirildi.

Natija. Tajriba-sinov ishlari yakuniy bosqichida olingan natijalar lotin tili va tibbiy terminologiyani integrativ hamda diagnostik yondashuv asosida o‘qitish an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Eksperimental guruh talabalari anatomik, klinik va farmatsevtik terminlarni nafaqat yod olish, balki ularning strukturaviy-morfologik tuzilishini mustaqil tahlil qilish, tarkibiy qismlarini ajratish va semantik mazmunini izohlash ko‘nikmalarini namoyon etdilar.

Boshlang‘ich diagnostik bosqichda talabalar bilim darajasi o‘rganilganda terminlarni to‘liq anglashdan ko‘ra, ularni mexanik eslab qolish ustunligi kuzatildi. Ko‘pchilik talabalar ko‘p komponentli terminlarni tarjima qilishda qiynaldi, ayniqsa prefiks va suffikslarning ma’nosini aniqlashda xatolar uchradi. Oraliq nazorat bosqichida integrativ mashg‘ulotlar natijasida termin yasash modellari bo‘yicha tushunchalar mustahkamlandi. Yakuniy bosqichda esa eksperimental guruh talabalari murakkab klinik atamalarni (masalan, polyneuropathia diabetica, hypercholesterolaemia secundaria) qismlarga ajratib, har bir morfemaning semantik funksiyasini izohlab bera oldilar.

Farmatsevtik bo‘lim natijalari ham ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Retsept yozish jarayonida grammatik kelishiklarni qo‘llash aniqligi oshdi, dori shakllarini lotin tilida to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalari shakllandi. Masalan, Rp., Misce, Da, Signa kabi formulalarni qo‘llashda xatolar soni sezilarli kamaydi. Talabalar dori nomlarini to‘g‘ri turlash, miqdor ko‘rsatkichlarini grammatik jihatdan moslashtirish va retseptura sintaksisini to‘g‘ri tuzishda barqaror natija ko‘rsatdilar.

Klinik terminologiya bo‘yicha o‘tkazilgan vaziyatli topshiriqlarda eksperimental guruh talabalari tashxis formulalarini mantiqiy va terminologik jihatdan aniq ifodalashga erishdilar. Ular kasallik nomlarini etiologik va patogenetik komponentlari bilan bog‘lay oldilar. Bu esa klinik tafakkurning shakllanganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa ko‘proq reproduktiv yondashuv ustun bo‘lib, mustaqil tahlil qilish darajasi pastroq ekanligi aniqlandi.

Umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlili eksperimental guruhda bilim sifati va barqarorligi yuqori ekanini ko‘rsatdi. Olingan natijalar integrativ model talabalarning analitik fikrlash, terminologik tafakkur va kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Muxokama. Olingan natijalar lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitishda fanlararo integratsiyaning muhim pedagogik omil ekanini ko‘rsatadi. Anatomik, klinik va farmatsevtik terminlarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish talabalarda tizimli tafakkurni shakllantiradi. Terminologik birliklarning struktur-semantik tahlili klinik tafakkur asosini mustahkamlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, termin yasash elementlarini chuqur o‘rganish talabalarning yangi terminlarni mustaqil anglash qobiliyatini oshiradi. Bu esa kelgusida ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, xalqaro klinik protokollarni tushunish va kasbiy kommunikatsiyada aniqlikni ta’minlashga yordam beradi. Lotin tilining universalligi shifokorlar o‘rtasida umumiy ilmiy til sifatida xizmat qiladi.

Diagnostik monitoring tizimi o‘qituvchiga har bir talabaning rivojlanish trayektoriyasini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarini baholash imkonini berdi. Bu esa differensial yondashuvni qo‘llashga sharoit yaratdi. Raqamli texnologiyalar, elektron terminologik lug‘atlar, 3D anatomik atlaslar va interaktiv test platformalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonini yanada samarali va vizual jihatdan boy qildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, lotin tilini o‘qitish jarayoni talabalar kasbiy identifikatsiyasining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Terminologik aniqlik klinik hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish, ilmiy maqolalarni yozish va tibbiy konferensiyalarda qatnashishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois lotin tili fanini faqat nazariy fan sifatida emas, balki amaliy-kasbiy tayyorgarlikning strategik komponenti sifatida qarash lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy grammatik-tarjima metodiga asoslangan o‘qitish modeli talabalarning terminologik tafakkurini to‘liq shakllantirish uchun yetarli emas. Aksincha, integrativ, kompetensiyaviy va diagnostik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim modeli yanada yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Integrativ yondashuv orqali anatomik, klinik va farmatsevtik terminologiyaning o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilishi talabalarda tizimli va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Terminlarning strukturaviy-morfologik tahlili, prefiks va suffikslarning semantik yukini anglash, ko‘p komponentli atamalarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarining shakllanishi klinik tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa bo‘lajak shifokorning tashxis qo‘yish, kasallik mohiyatini tushunish va ilmiy axborotni tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Diagnostik monitoring tizimining joriy etilishi ta’lim jarayonining shaffofligini ta’minladi va talabalarning individual rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Boshlang‘ich, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini solishtirish orqali o‘qitish metodikasining samaradorligi ob’ektiv baholandi. Bu yondashuv differensial ta’limni tashkil etish, individual yondashuvni kuchaytirish va o‘quv jarayonini moslashtirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot shuningdek, lotin tilining nafaqat terminologik asos, balki kasbiy identifikatsiya vositasi ekanini ko‘rsatdi. Terminologik savodxonlik shifokor uchun xalqaro

ilmiy hamjamiyat bilan muloqot qilish, klinik protokollarni tushunish, retseptlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va ilmiy maqolalarni yozishda muhim kompetensiya hisoblanadi. Shu bois lotin tili fani tibbiyot ta’limining fundamental va strategik komponenti sifatida qaralishi lozim.

Amaliy jihatdan tadqiqot natijalari quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi: lotin tili fanini klinik fanlar bilan yanada chuqur integratsiyalash; terminologik tahlil va amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish; raqamli ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va elektron lug‘atlardan keng foydalanish; o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish. Shuningdek, ko‘p tilli terminologik bazalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga, tibbiyot talabalarining kasbiy kompetensiyasini kompleks shakllantirishga va tibbiy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish milliy tibbiyot ta’limini xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirishga yordam beradi hamda bo‘lajak shifokorlarning yuqori malakali, terminologik jihatdan savodli va ilmiy tafakkurga ega mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Natijalar lotin tili fanini klinik va anatomik fanlar bilan integratsiyada o‘qitish samarali ekanini tasdiqlaydi. Terminologik bilimlar real klinik vaziyatlarda qo‘llanilganda yanada mustahkamlanadi. Diagnostik yondashuv o‘qituvchiga talabaning individual rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Raqamli platformalar, elektron lug‘atlar va vizual atlaslardan foydalanish esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Lotin tili fanini o‘qitish jarayoni bo‘lajak shifokorning kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi. Terminologik aniqlik klinik hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish, xalqaro protokollarni tushunish va ilmiy maqolalarni o‘qishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Konsheva A.V. Chet tillarini o’qitishni individuallashtirishda xotira turini hisobga olish zarurati // Zamonaviy dunyoda individuallik: III xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Smolensk, 1999. b. 142-147

2. I. H. Iminakhunova “ Management and development of students’ self education in the process of learning English“ .

3. Kadirova Munira Rasulovna, Iminaxunova Iroda Xuseynovna “Theoretical analysis of self-education in learning English”.

4. Parpieva O.R, Hojikarimova G.T, Nazirova A.M №6(85) 2021. 157-161-bet. (Formation of student pedagogical skills based on the requirements of innovative educational environment// Международном научнопрактическом журнал “Экономика и социум).

5. Arras U. Kompetenzorientierung im Fremdsprachenunterricht – was heißt das eigentlich? [Elektronnыy resurs] // Pandaemonium germanicum. – 2009. – 14 (2). – S. 206–217. – URL: http://www.testdaf.de/institution/_Pandemonium_2009_Kompetenyorientierung.pdf (data obraщeniya: 15.02.2016)

6. A.Zimnyaya. – Maktabda chet tillarni o’qitish psixologiyasi. – M-Просвещение 1991. 219 b.

7. Bim I. L. ba’zi dolzarb muammolar/maktabda chet tillarini o’qitishning zamonaviy chet tillari, 2001 yil, 4-son. 5-7 betlar

8. Chabner, D. E. The Language of Medicine - New York: W. B. Saunders Company 1998, 1036 p.

9. Druganova B. English Medical terminology - different ways of forming medical terms // JAHR. -2013. Vol. 4., № 7. - P. 55-69.

10. Ende K., Grotjan R., Kleppin K. Mohr Imke Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. – Berlin, München: Langenscheidt, 2013. – 152 s

11. Karabutova E. A., Prokopenko Yu. A., Akinshina I. B. Formirovanie yazykovoi kompetentsii studentov vuza v svete kommunikativnogo podkhoda dlya realizatsii sotsial'nogo i professional'nogo mezhkul'turnogo vzaimodeistviya [Forming university students language competence in the light of communicative approach to make them successful in social and professional cross-cultural communication]. Kontsept = Concept, 2021, no. 1, pp. 45–55.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK TAFAKKURIDA METAKOGNITIV KOMPONENTLARNING TUZILMASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.004

Ibrohimova Shahlo Umarali qizi
Samarqand viloyati Samarqand shahar
28-umumiy o'rta ta'lim maktabi
matematika fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurida metakognitiv komponentlarning (metakognitiv bilim, metakognitiv boshqaruv va metakognitiv tajriba) tuzilmasi, ularning funksional xususiyatlari hamda o‘zaro integratsiyalashgan aloqalari nazariy-tahliliy yondashuv asosida chuqur yoritilib, pedagogik faoliyat samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Metakognitsiya, pedagogik tafakkur, bo‘lajak o‘qituvchi, metakognitiv bilim, metakognitiv boshqaruv, refleksiya, o‘zini boshqaruvchi o‘rganish.

Аннотация.В данной статье на основе теоретико-аналитического подхода подробно рассматривается структура метакогнитивных компонентов (метакогнитивные знания, метакогнитивное управление и метакогнитивный опыт) в педагогическом мышлении будущих учителей, их функциональные особенности и интегративные взаимосвязи, а также научно обосновывается их влияние на эффективность педагогической деятельности.

Ключевые слова: метакогниция, педагогическое мышление, будущий учитель, метакогнитивные знания, метакогнитивное управление, рефлексия, саморегулируемое обучение.

Abstract. This article examines, on the basis of a theoretical-analytical approach, the structure of metacognitive components (metacognitive knowledge, metacognitive regulation, and metacognitive experience) in the pedagogical thinking of future teachers, their functional characteristics, and their integrative interrelationships. It also provides a scientific justification of their impact on the effectiveness of pedagogical activity.

Keywords: metacognition, pedagogical thinking, future teacher, metacognitive knowledge, metacognitive regulation, reflection, self-regulated learning.

KIRISH.XXI asrda ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va sun’iy intellekt rivoji ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu jarayonda o‘qituvchi endi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi va o‘z

faoliyatini tahlil qiluvchi mutaxassis sifatida qaralmoqda. Shu bois pedagogik ta’limda o‘qituvchilarning yuqori darajadagi tafakkur kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagogik tafakkur o‘qituvchining ta’limiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal etish, samarali strategiyalarni tanlash va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatlarini ifodalaydi. U reproduktiv emas, balki murakkab, ko‘p darajali va reflektiv fikrlashga asoslanadi. Shu bois, pedagogik tafakkurning metakognitiv asoslari - ya’ni o‘z fikrlash jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash - muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Metakognitsiya tushunchasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib ilmiy muomalaga kirib kelgan bo‘lib, u shaxsning o‘z fikrlash jarayonlarini anglash, boshqarish va nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi [1]. Metakognitsiya o‘qituvchiga bilimlarini tizimlashtirish va ularni qo‘llash jarayonini ongli boshqarish imkonini beradi. Shu bois u pedagogik tafakkurning ichki mexanizmi bo‘lib, uning samaradorligini belgilaydi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv kompetensiyalarga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etadi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi va murakkab pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qila oladi [2]. Bunday o‘qituvchilar reflektiv fikrlashga moyil bo‘lib, o‘z faoliyatini muntazam ravishda tahlil qiladi va takomillashtirib boradi. Bu esa ularning professional rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Metakognitsiya faqat individual jarayon emas, balki pedagogik faoliyatning ijtimoiy va madaniy konteksti bilan ham bog‘liq. O‘qituvchi qaror qabul qilishda o‘z bilimlari bilan birga o‘quvchilar ehtiyojlari va ta’lim sharoitlarini ham hisobga oladi, bu esa uning kompleks xarakterini ko‘rsatadi.

Pedagogik tafakkur va metakognitsiya uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir pedagogik qaror metakognitiv jarayonlar orqali shakllanadi: rejalashtirish, monitoring va baholash. Shu bois pedagogik tafakkur metakognitiv asoslargina samarali rivojlanadi.

Metakognitiv komponentlar tuzilmasi borasida turli yondashuvlar mavjud: ayrimlar uni bilim va boshqaruvdan iborat desa, boshqalar metakognitiv tajribani ham alohida komponent sifatida ajratadi. Bu esa masalaning hali to‘liq yechilmaganini va qo‘shimcha nazariy tahlil zarurligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar kontekstida metakognitiv komponentlarning shakllanishi muhim bo‘lib, aynan shu bosqichda kasbiy tafakkur rivojlanadi. Metakognitiv kompetensiyalarning yetarli shakllanmasligi kelajakdagi pedagogik faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur tadqiqot metakognitiv komponentlarning pedagogik tafakkurdagi tuzilmasini tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, mavjud yondashuvlarni umumlashtiradi va metakognitsiyani integrativ model sifatida talqin etadi. Natijada metakognitsiyaning pedagogik ta’limdagi markaziy o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metakognitsiya tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada eng muhim nazariy konstruksiyalardan biri sifatida qaraladi. Ushbu tushuncha dastlab Flavell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, u metakognitsiyani shaxsning o‘z kognitiv jarayonlarini anglash va

nazorat qilish qobiliyati sifatida ta’riflagan [1]. Flavellning ushbu konsepsiyasi keyinchalik metakognitiv bilim va metakognitiv monitoring kabi asosiy komponentlarga ajratilgan holda rivojlantirildi [3]. Bu yondashuv metakognitsiyani nafaqat bilish jarayonining yuqori bosqichi, balki uni boshqaruvchi mexanizm sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Keyingi ilmiy izlanishlarda metakognitsiya yanada murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqila boshladi. Xususan, Veenman va Spaans [4] metakognitiv bilimni deklarativ, protsessual va shartli bilimlarga ajratib, uning strukturasini aniqlashtirdi. Ushbu tasnif metakognitsiyaning amaliy qo‘llanishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o‘qituvchining pedagogik vaziyatlarda qanday strategiyalarni tanlashini tushuntiradi. Peverly va boshqalar esa metakognitiv bilimning akademik muvaffaqiyatga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslab bergan [5].

Metakognitiv boshqaruv komponenti ilmiy adabiyotlarda alohida e’tibor qozongan. Moos va Azevedo [6] metakognitiv boshqaruvni o‘rganish jarayonini tashkil etuvchi asosiy mexanizm sifatida ko‘rib, uni rejalashtirish, monitoring va baholash bosqichlariga ajratadi. Huff va Nietfeld esa ushbu jarayonlarni o‘qituvchining o‘z faoliyatini ongli nazorat qilish vositasi sifatida talqin qiladi [7]. Bu yondashuv pedagogik faoliyatda metakognitiv boshqaruvning markaziy rolini ko‘rsatadi, chunki aynan ushbu komponent o‘qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etishiga imkon beradi.

Metakognitsiya nazariyasining rivojlanishida Efklides tomonidan ilgari surilgan metakognitiv tajriba tushunchasi muhim o‘rin tutadi [8]. Ushbu yondashuv metakognitsiyani faqat kognitiv emas, balki affektiv va reflektiv jarayonlar bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Metakognitiv tajriba shaxsning o‘rganish jarayonidagi ichki hissiyotlari, ishonchi va qiyinchiliklarni anglash darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, u qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [9]. Bu esa metakognitsiyani yanada kengroq - integrativ tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Zohar va Barzilai metakognitsiyani o‘qitish jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rib, uning o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlashini rivojlantirishdagi rolini asoslab beradi [2]. Ularning fikricha, metakognitsiya faqat individual kompetensiya emas, balki pedagogik strategiya sifatida ham qaralishi lozim. Bu yondashuv metakognitsiyani pedagogik tafakkur bilan bevosita bog‘lash imkonini beradi.

Pedagogik tafakkur kontekstida metakognitsiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatini boshqaruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Kashapov pedagogik tafakkurni muammoli vaziyatlarni hal etishga yo‘naltirilgan reflektiv jarayon sifatida ta’riflab, unda metakognitiv jarayonlarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [10]. Bu yondashuv pedagogik tafakkurning faqat bilimga asoslangan emas, balki refleksiya va o‘z-o‘zini nazorat qilishga tayangan tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Spruce va Bol [11] hamda McKendree [12] tadqiqotlari metakognitiv kompetensiyalarning o‘qituvchining kasbiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ularning fikricha, metakognitiv jihatdan rivojlangan o‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunadi va ta’lim jarayonini moslashuvchan tarzda tashkil etadi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda metakognitsiya o‘qituvchilarni tayyorlash tizimining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Wass metakognitiv yondashuvlar o‘qituvchilarning reflektiv fikrlashini rivojlantirishini ko‘rsatadi [13]. Chen esa metakognitsiyani raqamli ta’lim muhitida samarali o‘qitishning asosiy omillaridan biri sifatida baholaydi [14]. Rivas tadqiqotlari esa metakognitiv strategiyalar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishini ko‘rsatadi [15].

Shuningdek, National Research Council [16] tomonidan ilgari surilgan “how people learn” konsepsiyasi metakognitsiyani samarali o‘rganishning asosiy sharti sifatida ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘rganish jarayoni samarali bo‘lishi uchun o‘quvchilar o‘z fikrlash jarayonlarini anglab, boshqara olishlari zarur.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda metakognitiv komponentlarning tuzilmasi bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas. Ba’zi tadqiqotchilar metakognitsiyani ikki komponent orqali izohlasa, boshqalari uch yoki undan ortiq komponentlarni ajratib ko‘rsatadi. Bu esa ushbu muammoning hali to‘liq yechimini topmaganligini ko‘rsatadi va qo‘shimcha nazariy tahlilni talab qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar kontekstida metakognitiv komponentlarning shakllanishi yetarli darajada o‘rganilmagan bo‘lib, bu pedagogik ta’limda ushbu yondashuvni chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili metakognitsiyani ko‘p komponentli, dinamik va integrativ tizim sifatida tavsiflaydi. U pedagogik tafakkurning asosiy mexanizmi bo‘lib, uning strukturaviy modelini aniqlash nazariy va amaliy jihatdan muhimdir.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishga mansub bo‘lib, unda metakognitiv komponentlarning pedagogik tafakkurdagi tuzilmasi zamonaviy manbalar asosida tizimli o‘rganildi. Metodologiya ko‘p bosqichli yondashuvga tayangan holda kontseptual, komparativ va integrativ tahlil usullarini birlashtiradi.

Birinchi bosqichda metakognitsiya, pedagogik tafakkur va o‘qituvchi kompetensiyalariga oid dolzarb hamda ilmiy ahamiyatga ega manbalar tanlab olindi. Tanlashda ularning xalqaro e’tirofi va dolzarbligi asosiy mezon bo‘ldi. Xususan, metakognitsiya nazariyasining klassik asoslari[1,3] shuningdek zamonaviy tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Bu yondashuv tadqiqotning nazariy bazasini mustahkamlash imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda kontent-tahlil qo‘llanilib, ilmiy manbalarda metakognitiv komponentlarning talqini, tarkibi va funksiyalari aniqlashtirildi. Tahlilda metakognitiv bilim, boshqaruv va tajriba alohida kategoriyalar sifatida ajratilib, ularning mazmuni belgilandi. Bu bosqich metakognitsiyaning ichki tuzilmasini aniqlashda muhim bo‘ldi.

Uchinchi bosqichda komparativ tahlil o‘tkazilib, turli mualliflar taklif etgan metakognitiv modellar solishtirildi. Ikki komponentli (bilim va boshqaruv) hamda uch komponentli (bilim, boshqaruv va tajriba) modellar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar aniqlanib, uch komponentli model pedagogik tafakkurni tushuntirishda samaraliroq ekani asoslandi.

To‘rtinchi bosqichda tizimli yondashuv asosida metakognitiv komponentlar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilinib, bilim — kognitiv asos, boshqaruv — tartibga soluvchi mexanizm, tajriba esa reflektiv vositachi sifatida talqin qilindi.

Beshinchi bosqichda konseptual modellashtirish orqali komponentlar o‘rtasidagi dinamik va ikki tomonlama aloqalarni aks ettiruvchi nazariy model ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi integrativ xarakterga ega bo‘lib, psixologik, pedagogik va kognitiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirdi hamda natijalarning ilmiy ishonchliligini ta’minlash uchun turli metodlar kombinatsiyasi qo‘llanildi. Natijada metakognitiv komponentlarning pedagogik tafakkurdagi tuzilmasi chuqur va tizimli asosda yoritildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkuri metakognitiv komponentlarning murakkab va integratsiyalashgan tizimi asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Uch asosiy komponent - metakognitiv bilim, boshqaruv va tajriba - aniqlanib, ularning har biri alohida funksional rol bajarishi asoslandi.

Metakognitiv bilim pedagogik tafakkurning kognitiv asosi bo‘lib, deklarativ, protsessual va shartli darajalar orqali vaziyatga moslashuvchan qaror qabul qilishni ta’minlaydi. Metakognitiv boshqaruv esa rejalashtirish, monitoring va baholash orqali pedagogik faoliyatni tartibga soladi va uning dinamikligini ifodalaydi. Metakognitiv tajriba reflektiv va affektiv komponent sifatida o‘qituvchining ichki baholashlari, ishonchi va intuitiv qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu komponentlar o‘zaro bog‘liq, siklik va ierarxik tizimni tashkil etib, pedagogik tafakkurning yaxlit mexanizmini yuzaga keltiradi. Natijada metakognitsiya pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy tizim hosil qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurida metakognitiv komponentlar ko‘p darajali va integrativ tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu natijalar mavjud ilmiy qarashlarga mos kelgan holda, muhim nazariy aniqliklar ham kiritadi. Xususan, metakognitiv bilim, boshqaruv va tajriba o‘rtasidagi aloqalar statik emas, balki dinamik va siklik xarakterga ega ekanligi asoslandi.

Avvalo, metakognitiv bilimning pedagogik tafakkurdagi roli mavjud nazariyalar bilan mos ravishda uning kognitiv asos sifatida xizmat qilishini tasdiqlaydi [1,4]. Tadqiqot natijalari metakognitiv bilimni faqat passiv bilimlar yig‘indisi emas, balki faol transformatsion mexanizm sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatdi. O‘qituvchi bilimlarini har bir pedagogik vaziyatga mos ravishda qayta quradi, bu esa uning dinamik xarakterini ochib beradi va an’anaviy yondashuvdan kengroq tushunishni talab qiladi.

Metakognitiv boshqaruv komponenti bo‘yicha olingan natijalar ham muhim nazariy xulosalarni beradi. Moos va Azevedo [6] hamda Huff va Nietfeld [7] tomonidan ilgari surilgan rejalashtirish-monitoring–baholash modeli ushbu tadqiqotda ham tasdiqlandi. Metakognitiv boshqaruv adaptiv xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi nafaqat oldindan rejalashtirilgan strategiyalarga, balki real vaqt vaziyatlariga mos ravishda qaror qabul qiladi. Bu pedagogik tafakkurning moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Metakognitiv tajriba komponenti bo‘yicha natijalar ayniqsa muhim ilmiy yangiliklarni taqdim etadi. Efklides tomonidan ilgari surilgan metakognitiv tajriba tushunchasi ushbu tadqiqotda pedagogik tafakkurning markaziy elementi sifatida talqin qilinadi[8]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv tajriba nafaqat refleksiya bilan bog‘liq, balki qaror qabul qilish jarayonida vositachi rolini ham bajaradi. Bu esa uni boshqa komponentlar bilan bog‘lovchi “ko‘prik” sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Tadqiqot metakognitiv komponentlar o‘rtasidagi aloqani chiziqli emas, balki siklik jarayon sifatida talqin qiladi: bilim → boshqaruv → tajriba → yangi bilim. Bu model metakognitsiyaning rivojlanish mexanizmini tushuntiradi.

Shuningdek, komponentlarning ierarxik tuzilmasi aniqlanib, bilim — bazaviy, boshqaruv - yuqori, tajriba esa reflektiv daraja sifatida ko‘rsatildi. Biroq bu ierarxiya moslashuvchan bo‘lib, pedagogik vaziyatga qarab o‘zgaradi.

Mazkur tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, u metakognitsiyani faqat individual kognitiv jarayon sifatida emas, balki pedagogik faoliyatning tizimli elementi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan mos keladi va metakognitsiyani o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi [13].

Tadqiqot metakognitiv komponentlar chegaralarini aniq ajratish murakkabligini ko‘rsatib, ularning o‘zaro kesishishini va metakognitsiyani moslashuvchan tizim sifatida talqin qilish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, natijalar pedagogik ta’limda reflektiv metodlar, muammoli o‘qitish va o‘zini boshqaruvchi o‘rganishni joriy etish orqali metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Umuman, tadqiqot metakognitsiyani pedagogik tafakkurning markaziy mexanizmi sifatida izohlab, uning strukturaviy modelini aniqlashtiradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurida metakognitiv komponentlar (bilim, boshqaruv, tajriba) o‘zaro bog‘liq, dinamik va integrativ tizim sifatida faoliyat yuritishini asoslab berdi. Ularning aloqasi chiziqli emas, balki siklik xarakterga ega bo‘lib, pedagogik tafakkurning doimiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, komponentlarning ierarxik, ammo moslashuvchan tuzilmasi aniqlanib, tajribaning bilim va boshqaruv o‘rtasidagi vositachi roli ochib berildi. Bu esa metakognitsiyani yagona konseptual model sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Tadqiqot pedagogik ta’limda metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatib, reflektiv va muammoli o‘qitish metodlarining ahamiyatini asoslaydi. Shu bilan birga, ish nazariy xarakterga ega bo‘lib, kelgusida empirik tadqiqotlar bilan boyitilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906–911.

2. Zohar, A., & Barzilai, S. (2013). Metacognition and teaching thinking. Educational Psychologist, 48(2), 121–136

3. Flavell, J. H., Miller, P. H., & Miller, S. A. (2002). Cognitive development (4th ed.). Prentice Hall.

4 Veenman, M. V. J., & Spaans, M. A. (2005). Relation between intellectual ability and metacognitive skills. Learning and Instruction, 15(2), 159–176.

5 Peverly, S. T., Brobst, K. E., Graham, M., & Shaw, R. (2002). College students' metacognitive strategies. Journal of Educational Psychology, 94(3), 629–640.

6 Moos, D. C., & Azevedo, R. (2009). Learning with computer-based learning environments: A literature review. Educational Psychologist, 44(2), 84–98.

7 Huff, J. D., & Nietfeld, J. L. (2009). Using strategy instruction and confidence judgments to improve metacognitive monitoring. Learning and Instruction, 19(4), 311–322.

8. Efklides, A. (2006). Metacognition and affect: What can metacognitive experiences tell us? Educational Research Review, 1(1), 3–14.

9. Nussinson, R., & Koriat, A. (2008). Metacognitive judgments and their accuracy. Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition, 34(2), 245–259.

10. Kashapov, M. M. (2017). Professional pedagogical thinking: Structure and development. Psychology in Russia: State of the Art, 10(4), 45–59.

11. Spruce, R., & Bol, L. (2015). Teacher beliefs, knowledge, and metacognition. Educational Psychology Review, 27(2), 327–348.

12. McKendree, B. (2023). Teacher metacognition and professional development. Teaching and Teacher Education, 125, 104015.

13.Wass, R. (2023). Developing metacognitive thinking in teacher education. Studies in Higher Education, 48(5), 789–803.

14. Chen, X. (2025). Metacognition in digital learning environments. Educational Technology Research and Development, 73(2), 245–262.

15. Rivas, S. (2022). Metacognition and critical thinking in education. Frontiers in Psychology, 13, 924239.

16. National Research Council. (2000). How people learn: Brain, mind, experience, and school. National Academy Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INTEGRATION OF 3D INTERACTIVE TECHNOLOGIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PRIMARY ENGLISH EDUCATION

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.005

Kholikova Lutfiya Umurzokovna
Teacher, Fergana Public Health Medical Institute
xoliqovalutfiya0@gmail.com

Abstract.This study investigates the integration of 3D interactive technologies and artificial intelligence (AI) in primary English education. A quasi-experimental design with 150 primary school students demonstrated that immersive 3D environments combined with AI adaptive tools significantly enhance vocabulary acquisition, speaking skills, and learner motivation. The findings provide practical implications for curriculum development, pedagogical innovation, and fostering digital competence in young learners.

Keywords:3D interactive technologies, artificial intelligence, primary education, English as a foreign language, immersive learning, adaptive learning, digital pedagogy, learner motivation

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda 3D interaktiv texnologiyalar va sun’iy intellekt (AI) integratsiyasini o‘rganadi. 150 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan kvazi-eksperimental tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, immersiv 3D muhitlar va AI asosidagi moslashtirilgan vositalar so‘z boyligini oshirish, og‘zaki ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘quvchi motivatsiyasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Natijalar o‘quv dasturlarini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va yosh o‘quvchilarda raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: 3D interaktiv texnologiyalar, sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, chet tili sifatida ingliz tili, immersiv o‘rganish, moslashtirilgan o‘rganish, raqamli pedagogika, o‘quvchi motivatsiyasi.

Аннотация.Данное исследование изучает интеграцию 3D интерактивных технологий и искусственного интеллекта (ИИ) в преподавание английского языка в начальной школе. Квази-экспериментальный дизайн с участием 150 учеников показал, что иммерсивные 3D-среды в сочетании с адаптивными инструментами на основе ИИ значительно повышают усвоение словарного запаса, развитие устной речи и мотивацию учеников. Результаты имеют практическое значение для разработки учебных программ, внедрения педагогических инноваций и формирования цифровой компетентности у младших школьников.

Ключевые слова: 3D интерактивные технологии, искусственный интеллект, начальное образование, английский язык как иностранный, иммерсивное обучение, адаптивное обучение, цифровая педагогика, мотивация учащихся

Introduction.Digital transformation has fundamentally reshaped language learning, particularly in primary education. Visual, interactive, and immersive environments support comprehension and retention. 3D technologies provide experiential learning, while AI delivers adaptive and personalized instruction, aligning with constructivist and socio-cultural theories emphasizing interaction, scaffolding, and contextualized learning. As Piaget emphasizes, early cognitive development is enhanced through active engagement, while Vygotsky highlights the importance of social interaction in learning.

Literature Review.Previous research demonstrates the benefits of multimedia and adaptive learning technologies. Radianti, Majchrzak, Fromm, and Wohlgenannt found that immersive virtual reality (VR) environments increase learner motivation and engagement by providing contextualized learning opportunities. Yan and Lowell concluded that 3D VR supports listening, vocabulary acquisition, and speaking skills by creating realistic language contexts. Similarly, Parmaxi argued that VR fosters interactive and constructive learning, improving learners' language competencies.

Uzbek researchers also provide supporting evidence. Djalilova indicates that AI integration in primary education positively affects learner performance and motivation. Abduvaliev, Abdnabieva, and Juraeva show that AI adaptive platforms enhance personalized instruction and facilitate real-time feedback, while Muradkasimova emphasizes that AI can transform language learning through innovative teaching methods. Within the CIS context, Yulchiyev and Erkinova analyzed the pedagogical integration of AI and AR/VR technologies and reported improved learner engagement and adaptive learning processes. Khodjaeva emphasized AI's role in modernizing educational practices, while Sultonova highlighted the importance of developing AI competencies for future educators.

3. Methods

This study utilized a quasi-experimental design to examine the effects of 3D interactive technologies and artificial intelligence (AI) on primary English language learning. A total of 150 students from a primary school participated and were randomly assigned to either the experimental or control group. The experimental group engaged with lessons incorporating 3D interactive environments and AI-based adaptive tools over an eight-week period, while the control group received conventional instruction based on the standard curriculum.

Participants: There were 8–10 years old primary school students with comparable proficiency levels in English. Inclusion criteria ensured that all students had basic computer literacy and access to classroom devices required for 3D and AI learning activities.

Intervention: The experimental intervention combined immersive 3D scenarios with AI-driven adaptive exercises. 3D tools allowed learners to interact with virtual objects and practice language in contextualized settings, while AI systems provided personalized feedback, adjusted task difficulty, and tracked progress throughout the eight-week period.

Multiple data sources were employed to ensure a comprehensive assessment of learning outcomes:

1. Pre- and Post-tests: Standardized vocabulary and oral proficiency tests were administered before and after the intervention to measure learning gains.
2. Classroom Observations: Systematic observations were conducted to monitor engagement, participation, and interaction patterns in both groups.
3. Learner Questionnaires: Structured questionnaires assessed students’ motivation, perceived usefulness of the tools, and satisfaction with the learning experience.

Quantitative data from pre- and post-tests were analyzed using descriptive statistics and paired-sample t-tests to identify significant improvements in vocabulary acquisition, speaking skills, and motivation. Qualitative data from classroom observations were analyzed thematically to capture engagement behaviors, collaboration, and learner responses to 3D and AI-based tasks. Triangulation of quantitative and qualitative data ensured the reliability and validity of the findings.

Ethical Considerations: Parental consent was obtained for all participants, and the study was conducted in accordance with ethical guidelines for research in educational settings. Students’ anonymity and confidentiality were maintained throughout the study.

Results

Students in the experimental group demonstrated significantly higher vocabulary retention and improved speaking skills compared to the control group. Radianti et al. and Yan & Lowell observed similar effects in VR-assisted language learning, indicating that immersive environments enhance contextual understanding and retention. AI adaptive feedback contributed to personalized learning pathways, aligning with findings by Djalilova and Abduvaliev et al. Motivation and active participation were higher, confirming Yulchiyev and Erkinova’s observations on engagement.

Discussion

The findings of this study clearly indicate that integrating 3D interactive technologies and artificial intelligence (AI) into primary English education can significantly transform the teaching and learning process. The experimental group demonstrated superior performance in vocabulary acquisition, oral proficiency, and motivation compared to the control group, confirming the effectiveness of immersive and adaptive learning environments.

3D Technologies and Contextual Learning: The use of 3D interactive environments provided students with rich visual and contextual cues that facilitated experiential learning. These immersive settings allowed learners to interact with objects, simulate real-life situations, and engage in meaningful language practice. According to Piaget and Vygotsky, constructivist learning theories emphasize that learners acquire knowledge most effectively through active engagement and social interaction, and the immersive 3D environments used in this study align closely with these principles. By embedding vocabulary and conversational practice within realistic 3D contexts, students were able to internalize language structures more effectively, leading to higher retention rates.

Artificial Intelligence and Personalized Learning: AI tools played a critical role in adapting lessons to individual learner profiles. Real-time feedback, scaffolded tasks, and adaptive exercises ensured that each student could work at their own pace while addressing specific weaknesses. This Holmes and Luckin' personalized approach is consistent with modern educational models advocating learner-centered instruction The combination of AI-driven assessments with 3D interactions enabled continuous monitoring of progress, which enhanced motivation and provided teachers with actionable insights to optimize instruction.

Motivation and Engagement: Immersive 3D environments and interactive AI features contributed to higher levels of learner motivation and engagement. Students reported enjoying the novelty and interactivity of lessons, which encouraged active participation. This finding is supported by Radianti and Parmaxi, who emphasize that virtual reality and interactive simulations capture attention and foster intrinsic motivation. The gamified and exploratory nature of 3D lessons, combined with immediate AI feedback, created a stimulating environment where learners were more likely to take risks in speaking and experiment with new vocabulary.

Regional Context and Pedagogical Implications: Evidence from Uzbekistan and CIS countries further supports these results. Studies by Djalilova and Abduvaliev econfirm that AI integration improves instructional efficiency, while Yulchiyev & Erkinova, Khodjaeva and Sultonova highlight the importance of incorporating VR/AR and AI into teacher training programs to modernize education. This regional perspective demonstrates that the combination of 3D and AI technologies is not only pedagogically effective but also feasible and culturally adaptable for primary education systems in Central Asia.

Integration into Curriculum Design: The study underscores that technology alone is insufficient; its effectiveness depends on thoughtful integration into the curriculum. Combining immersive 3D experiences with AI-driven adaptive tasks ensures that digital tools complement rather than replace traditional pedagogical strategies. This hybrid approach allows teachers to scaffold learning, provide individualized support, and maintain structured progression through the curriculum. Moreover, integrating these technologies prepares students for future digital learning environments, fostering both technological literacy and language competence.

Limitations and Considerations: While the results are promising, some limitations must be acknowledged. The study was limited to an eight-week intervention in specific schools, which may not capture long-term learning outcomes or the full potential of AI-3D integration. Additionally, teacher training and technological infrastructure are crucial factors influencing the effectiveness of these tools. Schools with limited access to devices or insufficient teacher preparedness may experience lower gains. Future studies should examine scalability, longitudinal impact, and cross-cultural adaptability to provide a more comprehensive understanding of 3D and AI integration in primary education.

Conclusion

The integration of 3D interactive technologies and artificial intelligence offers substantial benefits in primary English education. This study demonstrates that such integration leads to

enhanced vocabulary acquisition, improved oral proficiency, and increased motivation among young learners. The immersive nature of 3D environments supports contextual and experiential learning, while AI tools provide personalized guidance that adapts to individual student needs, helping to address learning gaps and foster autonomous learning. These findings highlight the transformative potential of combining immersive and adaptive technologies in primary education. Teachers can leverage these tools to create dynamic and engaging lesson plans, while educational policymakers may consider adopting such technologies for curriculum modernization. The positive outcomes also suggest that integrating 3D and AI technologies can prepare students for future learning environments, equipping them with skills to interact effectively with digital tools.

Future research should explore long-term effects of 3D and AI integration, investigate cross-cultural applicability, and assess scalability across different educational systems. By doing so, educators and researchers can optimize the use of digital technologies to maximize student engagement, learning outcomes, and overall educational quality.

References

1. Abduvaliev, Akmal, M. Abdnabieva, & D. Jo‘raeva. *Artificial Intelligence in Primary Education*. International Multidisciplinary Journal for Research & Development 12, no. 07 (2025): 124–127.

2. Djalilova, Zarnigor O. *The Pedagogical-Psychological Aspects of Artificial Intelligence Technologies in Integrative Education*. International Journal of Literature and Languages 4, no. 03 (2024): 13–19.

3. Holmes, W. *Artificial Intelligence in Education*. London: Routledge, 2019.

4. Luckin, R. *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. London: Pearson, 2016.

5. Mayer, R. *Multimedia Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

6. Muradkasimova, L. *AI Applications in Language Learning in Uzbekistan*. LingvoSpektr Journal, 2019.

7. Parmaxi, A. *Virtual Reality in Language Learning: A Systematic Review and Implications for Research and Practice*. Interactive Learning Environments 31, no. 1 (2023): 172–184.

8. Radianti, J., T. A. Majchrzak, J. Fromm, & I. Wohlgenannt. *A Systematic Review of Immersive Virtual Reality Applications for Higher Education: Design Elements, Lessons Learned, and Research Agenda*. Computers & Education 147 (2020).

9. Vygotsky, L. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

10. Yan, W., & V. L. Lowell. *The Evolution of Virtual Reality in Foreign Language Education*. TechTrends 69 (2025): 853–858.

11. Yo‘lchiyev, Sh. K., & O. K. Erkinova. *Artificial Intelligence and Evolving Pedagogical Practices*. Journal of Scientific Research, Modern Views and Innovations 1, no. 8 (2025).

12. Xodjaeva, M. *Rol’ Iskusstvennogo Intellekta v Modernizatsii Obrazovatel’nykh Protsessov*. Conference Proceedings, 2026.

13. Sultonova, M. *Formation of Artificial Intelligence Competencies in Future Educators in the Context of Digital Education*. Conference Proceedings, 2025.

14. Piaget, J. *Psychology and Pedagogy*. New York: Viking Press, 1970.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.006

Saliyeva Nigora Sadikovna
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Lotin tili, pedagogika va psixologiya
kafedrasining katta o‘qituvchisi

Annotatsiya.Mazkur maqolada bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, uning mazmuni hamda ta’lim jarayonida qo‘llashning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish orqali talabalarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy ta’lim, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetensiya, ta’lim sifati.

Abstract. This article discusses the importance of the competency-based approach in the process of training future specialists, its content, and effective methods of applying it in the educational process. The issues of developing students’ professional knowledge, skills, and abilities through organizing the educational process based on a competency-based approach are also analyzed. The results of the study show that the competency-based approach contributes to improving the quality of education.

Keywords: competence, competency-based approach, vocational education, pedagogical technology, professional competence, quality of education.

Аннотация.В данной статье рассматривается значение компетентностного подхода в процессе подготовки будущих специалистов, его содержание, а также эффективные методы его применения в образовательном процессе. Также анализируются вопросы формирования у студентов профессиональных знаний, умений и навыков на основе организации образовательного процесса с использованием компетентностного подхода. В результате исследования обосновано, что компетентностный подход способствует повышению качества образования.

Ключевые слова: компетенция, компетентностный подход, профессиональное образование, педагогическая технология, профессиональная компетенция, качество образования.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Zamonaviy mehnat bozori nafaqat nazariy bilimga ega, balki o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan va muammolarni samarali hal qila oladigan mutaxassislarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyaviy yondashuv talabaning faqat bilim egallashini emas, balki o‘z faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kompleks tarzda shakllantirishni nazarda tutadi.

Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan yangi yondashuvlar, samarali pedagogik metodlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni talab etmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy ta’lim tizimida asosan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim tizimi shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishni taqozo etadi. Kompetensiyaviy yondashuv talabaning nafaqat bilim egallashini, balki o‘z bilimlarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olishini, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishini hamda kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv ta’lim tizimining muhim konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini talaba shaxsiga yo‘naltirish, uning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kasbiy ta’lim tizimida bu yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarishga yordam beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda kasbiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, axborot bilan ishlash, muammolarni tahlil qilish va samarali qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi hamda ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni, ahamiyati va uni ta’lim jarayonida qo‘llashning samarali usullarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy mazmuni

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirish, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlaydi.

Kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasini anglaydi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kasbiy kompetensiya mutaxassisning o‘z kasbiga oid bilimlarni egallashi, ularni amaliy faoliyatda qo‘llashi hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi.

Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda interfaol metodlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, “aqliy hujum”, “klaster”, “munozara”, “keys-stadi”, “loyiha metodi” kabi metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, muammolarni tahlil qilishga hamda ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Bunday metodlar orqali talabalar faqat bilim olish bilan cheklanib qolmay, balki o‘z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari va mustaqil ta’lim muhim o‘rin tutganini ko’rsatildi Bu jarayon talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo‘lgan topshiriqlarni bajarish orqali o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi asosiy kompetensiyalarni shakllantirish muhimligini ko’rsatib o‘tish lozim:

Kasbiy kompetensiya – mutaxassisning o‘z kasbiga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

Kommunikativ kompetensiya – samarali muloqot qilish va jamoada ishlash qobiliyati; Axborot kompetensiyasi – axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish qobiliyati; Ijtimoiy kompetensiya – jamiyatda faol ishtirok etish va ijtimoiy mas’uliyatni his etish. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash mumkin bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi bo’lib, yondashuvning asosiy maqsadi talabalarda kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda talaba faqat bilim egallovchi subyekt sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida o’zini ko’rsatadi.

Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy qarorlar qabul qilish

ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv ta’lim jarayonida nazariya va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv bir qator afzalliklari mavjud:

1. Talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantiradi.
2. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi.
3. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi.
4. Zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.
5. Ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini oshirishga, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishini hamda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu yondashuv talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlashga imkon yaratadi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda amaliy mashg‘ulotlardan samarali foydalanish kompetensiyaviy yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirish, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil hisoblanadi hamda ta’lim tizimining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2019–2023.

3.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2012.

4.Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

5.Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultat sovremennogo obrazovaniya. – Moskva, 2004.

6.Ismoilov M., Xoliqov A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

7.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

4К КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ МАЗМУНИ ВА УНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДАГИ ЎРНИ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.007

Siddiqov Baxtiyor Maxammadjon o‘g‘li
Namangan Davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация.Мазкур мақолада 4К (Critical thinking, Creativity, Communication, Collaboration) концепциясининг назарий асослари, мазмуний таркиби ва замонавий таълим тизимидаги ўрни таҳлил қилинган. 4К компетенциялари XXI аср кўникмалари сифатида глобал таълим ислоҳотларининг муҳим компоненти экани илмий жиҳатдан асосланади. Тадқиқотда 4К концепциясининг педагогик моҳияти, унинг компетенциявий ёндашув билан уйғунлиги ҳамда касбий таълимда қўлланилиш имкониятлари ёритилган.

Калит сўзлар: 4К концепцияси, танқидий фикрлаш, ижодкорлик, коммуникация, ҳамкорлик, компетенциявий ёндашув, XXI аср кўникмалари, инновацион таълим.

Аннотация.В статье рассматривается теоретические основы и содержательная структура концепции 4К (Critical thinking, Creativity, Communication, Collaboration), а также ее роль в современной системе образования. Обосновывается значение компетенций 4К как ключевых навыков XXI века в условиях глобальных образовательных реформ. Рассматриваются педагогическая сущность концепции 4К, ее связь с компетентностным подходом и возможности применения в профессиональном образовании.

Ключевые слова: концепция 4К, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, компетентностный подход, навыки XXI века.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and conceptual structure of the 4C concept (Critical Thinking, Creativity, Communication, Collaboration) and its role in modern education. The significance of 4C competencies as key 21st-century skills in the context of global educational reforms is scientifically substantiated. The pedagogical essence of the 4C framework, its relation to the competency-based approach, and its application in professional education are examined.


Keywords: 4C concept, critical thinking, creativity, communication, collaboration, competency-based approach, 21st-century skills.

KIRISH.XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Bu jarayonlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida oliy ta’lim mazmunini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, inson kapitali salohiyatini rivojlantirish va kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish strategik yo‘nalish sifatida qayd etilgan [2-3].

Bu hujjatlar mazmunidan ko‘rinadiki, mehnat bozori talablari oliy ta’lim muassasalarida kadrlar egallayotgan bilimlarning o‘zi yetarli emasligini, berilayotgan ma’lumotni tahlil qilish, uni qayta ishlash, o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llay olish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini talab etayotganini yaqqol namoyon etadi. Shu bois ta’lim mazmuni “bilimni o‘zlashtirish” modelidan “kompetensiyalarni shakllantirish” modeliga izchil o‘tmoqda (1-rasmga qarang).



1-rasm. Ta’lim mazmunining kompetensiyaviy evolyutsiyasi

Yuqorida qayd etilgan strategik vazifalarning mantiqiy davomi sifatida xalqaro ta’lim siyosatida XXI asr ko‘nikmalari sifatida e’tirof etilgan 4K konsepsiyasi (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot/kommunikatsiya, hamkorlik) zamonaviy ta’lim paradigmasining markaziy elementiga aylanib bormoqda. Milliy ta’lim islohotlarida belgilangan kompetensiyaviy yondashuv mazmun jihatdan aynan shu universal ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashadi. 4K kompetensiyalari shaxsning intellektual, ijtimoiy va kasbiy salohiyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular raqamli va innovatsion iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning asosiy shartiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, 4K konsepsiyasini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish davlat ta’lim siyosatida belgilangan ustuvor maqsadlarni amalga oshirishning amaliy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

4K konsepsiyasi ilk bor XXI asr ko‘nikmalari doirasida xalqaro ta’lim tashabbuslari negizida shakllangan. Xususan, Partnership for 21st Century Learning tomonidan ishlab chiqilgan “Framework for 21st Century Skills” hujjatida 4K kompetensiyalari asosiy kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalar sifatida ta’riflangan [4-5]. Shunga ko‘ra zamonaviy ta’lim tizimi muhandis-mexaniklarni axborotni passiv o‘zlashtiruvchi subyekt emas, balki muammoni hal

qiluvchi, innovatsion fikrlovchi va jamoada samarali faoliyat yurituvchi shaxs sifatida shakllantirishi lozim.


OECD tomonidan amalga oshirilgan PISA tadqiqotlari ham ta’lim natijalarini funksional savodxonlik va tanqidiy fikrlash darajasi orqali baholash tendensiyasini kuchaytirdi. OECD ta’lim natijalarini bilimni qo‘llash qobiliyati bilan bog‘laydi, bu esa 4K kompetensiyalarining mazmuniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiq keladi.

John Dewey tanqidiy fikrlashni “refleksiv fikrlash” sifatida ta’riflab, uni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayoni bilan bog‘laydi [6-7]. Robert Ennis esa tanqidiy fikrlashni mantiqiy dalillash, tahlil va baholash qobiliyati sifatida izohlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 4K kompetensiyalarining shakllanish bosqichlari va baholash mezonlari hali yetarlicha tizimlashtirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI:

Tadqiqot jarayonida 4K konsepsiyasining mazmuniy tarkibi tizimli tahlil qilindi va uning har bir komponenti o‘zaro bog‘liq kognitiv jarayonlar majmuasi sifatida talqin etildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. 4K konsepsiyasining mazmuni

Tanqidiy fikrlash – axborotni chuqur tahlil qilish, dalillarni solishtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Ijodkorlik – yangi g‘oyalar ishlab chiqish va nostandart yechimlar taklif qilish qobiliyatidir.

Kommunikatsiya – axborotni aniq va samarali yetkazish qobiliyati bo‘lib, u verbal va noverbal muloqotni o‘z ichiga oladi.

Hamkorlik – jamoada samarali ishlash va umumiy maqsadga erishish qobiliyatidir. Demak, 4K konsepsiyasi kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ifodasidir.

TAHLILLAR VA NATIJALAR:

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 4K konsepsiyasi an’anaviy ta’lim modelidan farqli ravishda muhandis-mexaniklarni faol subyekt sifatida ko‘radi. Ta’lim jarayonida muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim, keys-stadi, jamoaviy muhokama va raqamli texnologiyalar 4K kompetensiyalarini shakllantirishda samarali mexanizmlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, 4K konsepsiyasi zamonaviy ta’lim paradigmasining markaziy elementi hisoblanadi. U kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ifodasi bo‘lib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сонли Фармони “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” (ПФ–60, 28.01.2022 й.)

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида (ПҚ–4699, 28.04.2020 й.)

4. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. New York: Longman.

5. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives. New York: McKay.

6. Ennis, R. H. (2011). The Nature of Critical Thinking. University of Illinois.

7. Facione, P. A. (1990). Delphi Report: Critical Thinking. American Philosophical Association.

8. Halpern, D. F. (2014). Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking.

9. Partnership for 21st Century Skills (2009). Framework for 21st Century Learning.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

HAMSHIRALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.008

Kadirova Munira Rasulovna,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti professori, DSc
munirakadirova84@gmail.com
Karimova Madinabonu Ilxomjon qizi,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tayanch doktoranti
karimova94madina@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimida hamshiralarning kasbiy kompetensiyasini kommunikativ yondashuv asosida rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyaning mazmuni va tarkibiy qismlarini aniqlab, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishdan iborat. Natijalar kommunikativ yondashuvning empatiya, madaniyatlararo sezgirlik va kasbiy ishonchni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:hamshiralik ta’limi, kommunikativ kompetensiya, empatiya, transformatsion ta’lim, qadriyat–ma’no kommunikatsiyasi, simulyatsion trening, interaktiv metodlar, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация.В статье рассматривается развитие профессиональной компетенции медицинских сестер в системе медицинского образования Узбекистана на основе коммуникативного подхода. Цель исследования – определить содержание и структуру коммуникативной компетенции, а также адаптировать зарубежный опыт к национальным условиям. Результаты показывают значимость коммуникативного подхода в формировании эмпатии, межкультурной чувствительности и профессиональной уверенности.

Ключевые слова: сестринское образование, коммуникативная компетенция, эмпатия, трансформационное обучение, ценностно-смысловая коммуникация, симуляционный тренинг, интерактивные методы, межкультурная коммуникация.

Abstract. The article examines the development of professional competence among nurses within the medical education system of Uzbekistan based on a communicative approach. The purpose of the study is to define the content and structure of communicative competence, as well as to adapt international experience to national conditions. Results demonstrate the significance of the communicative approach in fostering empathy, intercultural sensitivity, and professional confidence.

Keywords: nursing education, communicative competence, empathy, transformational learning, value-semantic communication, simulation training, interactive methods, intercultural communication.

KIRISH.XXI asrda tibbiy ta’lim tizimi jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonda hamshiralarning kasbiy kompetensiyasi, xususan, ularning kommunikativ ko‘nikmalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy hamshira nafaqat tibbiy manipulyatsiyalarni to‘g‘ri bajaruvchi mutaxassis, balki bemor bilan ishonchli, empatik muloqot o‘rnatishga qodir shaxs sifatida shakllanishi lozim.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Xalqaro hamshiralar kengashi (ICN) va Yevropa ta’lim maydonidagi kompetensiya standartlari hamshiraning kasbiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan kommunikativ yondashuvga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv shaxslararo muloqot, madaniyatlararo sezgirlik, faol tinglash va empatiya kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi so‘nggi yillarda jadal modernizatsiya qilinmoqda. Hamshiralik ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, simulyatsion treninglar, refleksiv mashg‘ulotlar va interaktiv metodlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha yagona milliy model hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – kommunikativ yondashuv asosida hamshiralarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash, xorijiy tajriba asosida samarali model ishlab chiqish va uni O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimiga tatbiq etishdir.

Tadqiqot vazifalari:

1. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash;
2. Xorijiy tajribalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish;
3. Empirik tadqiqot asosida O‘zbekiston sharoitiga mos model ishlab chiqish;
4. Modelning samaradorligini eksperimental tarzda sinovdan o‘tkazish.

MATERIAL VA USULLAR

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi

Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning turli ijtimoiy, madaniy va kasbiy vaziyatlarda samarali, mazmunli va etik muloqot o‘rnatish qobiliyatidir. Hymes (1972), Canale va Swain (1980) konsepsiyalariga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, strategik va diskursiv komponentlardan iborat. Tibbiy kontekstda esa bu modelga empatik va madaniyatlararo komponentlar ham qo‘shiladi.

Xalqaro tajriba tahlili

Germaniyada hamshiralik ta’limi dual tizim asosida olib borilib, kommunikativ ko‘nikmalar “Pflegekommunikation” kurslari orqali shakllantiriladi. Finlyandiyada interaktiv metodlar, Yaponiyada esa refleksiv muloqot asosidagi “omotenashi” yondashuvi qo‘llaniladi. Janubiy Koreyada simulyatsion laboratoriyalar yordamida kommunikativ treninglar o‘tkaziladi.

Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiya tibbiy ta’limda faqat lingvistik emas, balki shaxsiy, axloqiy va madaniy kompetensiyalar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston sharoitida dolzarblik

O‘zbekiston hamshiralik ta’limida kommunikativ yondashuv asta-sekin joriy etilmoqda. Farg‘ona davlat sog‘liqni saqlash instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasi va Samarqand tibbiyot universitetida simulyatsion o‘quv xonalari tashkil etilgan. Ammo metodik asoslar, baholash tizimi va o‘qituvchilar malakasi bo‘yicha muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois milliy model ishlab chiqish dolzarb masalaga aylandi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: **nazariy, empirik va eksperimental**.

Nazariy bosqichda pedagogika, kommunikativ lingvistika, psixologiya va kasbiy ta’lim metodologiyasiga oid manbalar o‘rganildi. JSST, ICN, Evropa Ittifoqi va OECD tomonidan ishlab chiqilgan “Professional Nurse Competence Framework” (2019) hamda “Health Workforce 2030” konsepsiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, Germaniya, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada va Shvetsiya tajribalari qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jihatlari aniqlashtirildi.

Empirik bosqichda Farg‘ona davlat sog‘liqni saqlash instituti va viloyatdagi tibbiyot kollejlari bazasida so‘rovnoma, kuzatuv va intervyu metodlari orqali 120 nafar talaba-hamshiraning kommunikativ kompetensiya darajasi o‘rganildi. Tadqiqotda empatiya, faol tinglash, verbal va noverbal muloqot, madaniyatlararo sezgirlik hamda konfliktni hal etish ko‘nikmalari alohida komponent sifatida baholandi.

Eksperimental bosqichda ta’lim jarayoniga innovatsion metodlar joriy etildi. Talabalar kichik guruhlar asosida simulyatsion treninglarda ishtirok etdilar. Har bir mashg‘ulot yakunida refleksiv tahlil o‘tkazilib, o‘zaro fikr almashish orqali muloqotdagi xatoliklar tahlil qilindi. O‘quv jarayoniga quyidagi usullar kiritildi:

- bemor bilan muloqot bo‘yicha **rol o‘yinlari**;
- **video-refleksiya** asosida o‘z nutqini tahlil qilish;
- **case-study** usulida klinik vaziyatlarni yechish;
- **madaniyatlararo muloqot treninglari** (Germaniya, Yaponiya misollarida).

Ma’lumotlar **deskriptiv va korrelyatsion tahlil** usullari yordamida qayta ishlanib, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi tafovut foiz va grafik ko‘rinishda baholandi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024-yilda Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va unga qarashli tibbiyot kollejlarida olib borildi. Tadqiqotda 100 nafar talaba-hamshira ishtirok etdi.

Tadqiqot bosqichlari

1. **Nazariy bosqich:** kommunikativ kompetensiya nazariyalari, JSST, ICN, OECD modellari o‘rganildi.
2. **Empirik bosqich:** so‘rovnoma, kuzatuv, refleksiv intervyu o‘tkazildi.
3. **Eksperimental bosqich:** simulyatsion treninglar, rolli o‘yinlar, videoanaliz mashg‘ulotlari tashkil etildi.


Baholash mezonlari

Kommunikativ kompetensiya quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholandi:

- **Empatiya darajasi** (bemor holatini tushunish qobiliyati);
- **Faol tinglash** (suhbatdoshga e’tibor bilan quloq solish);
- **Aniq va to‘g‘ri ifoda** (tibbiy terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash);
- **Madaniyatlararo sezgirlik**;
- **Refleksiya** (o‘z faoliyatini tahlil qilish).

Baholash uchun Likert shkalasidan foydalanildi (1–5 ball oralig‘ida).

NATIJALAR



Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari talaba-hamshiralarning kasbiy kompetensiyasini har tomonlama rivojlantiradi. Eksperimental guruhda **empatik muloqot** ko‘rsatkichlari 23 foizga, **faol tinglash** 19 foizga, **muloqotda aniqlik** 25 foizga oshgani kuzatildi. Shuningdek, talabalar o‘zaro muloqotda ko‘proq ishonch, ochiqlik va ijtimoiy sezgirlik namoyon eta boshladilar.

Mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchilar rahbarligida olib borilgan refleksiv suhbatlar talabalarga o‘z nutqini, tana harakatlarini, ovoz ohangini va yuz ifodasini tahlil qilish imkonini berdi. Natijada, talabalar nafaqat bemor bilan, balki jamoa a’zolari bilan ham samarali aloqa o‘rnatish malakasini shakllantirdilar.

Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiyaning besh asosiy komponenti chuqur tahlil qilindi:

1. **Lingvistik komponent** – tibbiy terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash, bemorga tushunarli tilda izoh berish;

2. **Empatik komponent** – bemorning hissiy holatini sezish va unga samimiy e’tibor ko‘rsatish;

3. **Interaktiv komponent** – jamoa bilan muvofiq ishlash, konfliktlarni konstruktiv hal etish;

4. **Refleksiv komponent** – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘zini takomillashtirishga intilish;

5. **Madaniyatlararo komponent** – turli madaniyat va tillar vakillari bilan muloqotda etika va tolerantlikka rioya qilish.

Xorijiy tajribalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, Germaniyada kommunikativ kompetensiya “Pflegebildungsgesetz” (2020) doirasida alohida modul sifatida o‘qitiladi; Finlyandiyada har bir talaba klinik amaliyot davomida “kommunikativ refleksiya kundaligi” yuritadi; Yaponiya va Koreyada esa mentorlik tizimi orqali o‘quvchi-hamshiralarga individual psixologik yordam ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqilgan “**Kommunikativ kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli**” uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

- **1-bosqich – bilim va til asoslarini shakllantirish.** Talabalar tibbiy terminologiya, bemor psixologiyasi va muloqot etikasi bilan tanishadi.
- **2-bosqich – empatik va interaktiv malakalarni rivojlantirish.** Rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni hal etish mashqlari va refleksiv suhbatlar orqali o‘zaro muloqot mustahkamlanadi.
- **3-bosqich – klinik vaziyatlarda kommunikativ kompetensiyani qo‘llash.** Simulyatsion mashg‘ulotlar va real amaliyot davomida kommunikativ ko‘nikmalar baholanadi.

Mazkur model amaliy jihatdan samarali bo‘lib, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida hamkorlik muhitini kuchaytiradi, o‘quv jarayonida insonparvarlik, hurmat va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlaydi.

Kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish natijasida hamshiralarda nafaqat kasbiy muloqot madaniyati, balki shaxsiy o‘sish, o‘zini anglash, bemorga nisbatan mas’uliyat hissi ham kuchaydi. Bu esa tibbiyotdagi insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasiga aylanmoqda.

MUHOKAMA

Tadqiqot ko‘rsatadiki, kommunikativ yondashuv tibbiy ta’limda faqat o‘qitish usuli emas, balki hamshiralarning kasbiy identifikatsiyasi, axloqiy qadriyatlari va insonparvarlik pozitsiyasini shakllantiruvchi mexanizmdir.

Refleksiv suhbatlar orqali talabalar o‘z hissiy reaksiyalarini anglab, bemor bilan empatiya asosida muloqot o‘rnatishni o‘rganadilar. Bu jarayon o‘z navbatida ularning **kasbiy o‘ziga ishonchi**, **mas’uliyat hissi** va **axloqiy yetukligi**ni oshiradi.

Shuningdek, kommunikativ mashg‘ulotlar sog‘liqni saqlash tizimida stressga bardoshlilikni ham oshiradi. Talabalar o‘rtasidagi rolli o‘yinlar, simulyatsion mashg‘ulotlar ularga real klinik vaziyatlarga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tibbiy ta’lim tizimida kommunikativ yondashuvni markaziy pedagogik tamoyil sifatida e’tirof etish dolzarb masalalardan biridir. Chunki hozirgi davrda hamshiralik faoliyati faqatgina tibbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarga emas, balki bemor bilan to‘g‘ri, empatik va madaniyatli muloqot o‘rnatish qobiliyatiga ham bevosita bog‘liq. Shuning uchun, kommunikativ yondashuvni o‘quv jarayonining barcha bosqichlariga singdirish hamshiralarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat nazariy darslarda, balki amaliy mashg‘ulotlar, klinik amaliyot va mustaqil ta’lim jarayonlarida ham tizimli ravishda qo‘llanilishi lozim.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ treninglar — ya’ni maxsus tashkil etilgan muloqot mashqlari, rolli o‘yinlar, empatiya va faol tinglashni rivojlantiruvchi interaktiv mashg‘ulotlar — hamshiralarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday treninglar natijasida talabalarda bemorga nisbatan empatik munosabat kuchayadi, ular o‘z fikrini aniq ifodalashni, tinglashni va refleksiya qilishni o‘rganadilar. Shuningdek, turli madaniy muhitlarda samarali muloqot olib borish ko‘nikmasi, ya’ni madaniyatlararo sezgirlik darajasi ortadi. Bu esa globalizatsiya sharoitida, turli millat va madaniyat vakillari bilan ishlaydigan tibbiyot xodimlari uchun ayniqsa muhimdir.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion mashg‘ulotlar, interaktiv treninglar va refleksiv tahlil mashqlari kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biridir. Simulyatsion metod orqali talabalar real hayotdagi klinik holatlarga yaqin vaziyatlarda muloqot qilishni o‘rganadilar; interaktiv mashg‘ulotlar esa ularni faol ishtirokchi sifatida o‘qitish jarayoniga jalb etadi. Refleksiya jarayoni orqali esa o‘quvchilar o‘z xatti-harakatlari, hissiyotlari va muloqotdagi xatolarini tahlil qilib, keyingi faoliyatda ularni takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish asosida ishlab chiqilgan **“Kommunikativ kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli”** O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimi uchun ham moslashtirilgan holda joriy etilishi mumkin. Ushbu modelda o‘quv jarayoni nazariy bilim, amaliy mashg‘ulot va mustaqil tahlil bosqichlari orqali izchil shakllantiriladi. Natijada talabalar bosqichma-bosqich o‘z kommunikativ malakalarini oshirib boradilar, bemor bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish, tibbiy axborotni aniq yetkazish va stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Xulosa. Umuman olganda, kommunikativ yondashuvni tibbiy ta’limda keng joriy etish hamshiralarning kasbiy o‘ziga ishonchini oshiradi, ularning bemorga nisbatan insonparvar va mas’uliyatli munosabatini shakllantiradi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimidagi xizmat sifatining yaxshilanishiga, bemorlarning tibbiyot xodimlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga va jamiyatda tibbiyot sohasining obro‘sini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, oliy va o‘rta maxsus tibbiy ta’lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga

yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash hamda zamonaviy interaktiv o‘quv texnologiyalarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hutmacher W. Schlüsselkompetenzen für Europa. – Brüssel: Europäische Kommission, 2003. – 248 b.
2. Benner P. From Novice to Expert: Excellence and Power in Clinical Nursing Practice. – Upper Saddle River (NJ): Prentice Hall, 2001. – 307 b.
3. Littlejohn A., Pegler C. Preparing for Blended e-Learning. – London: Routledge, 2007. – 192 b.
4. O‘razaliyeva N.M. Tibbiy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish yo‘llari // O‘zbekiston tibbiy pedagogika jurnali. – 2022. – № 3. – B. 45–56.
5. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 b.
6. Karimova M. Development of Authentic Competence in Teaching German to Nurses // Modern Problems in Education and Their Scientific Solutions. – 2025. – № 6. – B. 182–184.
7. Bekmurodova S.N. Talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari // Innovatsion ta’lim texnologiyalari jurnali. – 2020. – № 5(2). – B. 101–108.
8. Hargie O. Skilled Interpersonal Communication: Research, Theory and Practice. – London: Routledge, 2016. – 568 b.
9. Donskikh O.A. Pedagogicheskie osnovy formirovaniya professional’noy kompetentnosti meditsinskikh rabotnikov. – Moskva: Akademiya, 2019. – 284 b.
10. Seifert A., Harendza S. Simulation-based Communication Training in Nursing Education // BMC Nursing. – 2021. – Vol. 20. – B. 1–10.
11. Rasulova M.T. Hamshiralik ta’limida empatik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari // Tibbiy psixologiya va kommunikatsiya jurnali. – 2023. – № 4. – B. 29–38.
12. WHO. Framework for Action on Interprofessional Education and Collaborative Practice. – Geneva: World Health Organization, 2010. – 64 b.
13. ICN. Core Competencies for the Nurse of the Future. – Geneva: International Council of Nurses, 2020. – 72 b.
14. Murodova Z.M. Hamshiralarning kasbiy tayyorgarligida refleksiya va kommunikatsiya integratsiyasi // “Tibbiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 112–118.
15. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 44 b.
16. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, № 6. – B. 1017–1054.

17. Ganieva L.A. Kompetentnostnyy podkhod v podgotovke meditsinskikh kadrov // V kn.: Aktual’nye problemy sovremennogo obrazovaniya. – Kazan’: Kazanskiy universitet, 2021. – B. 134–140.

18. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 1984. – 256 b.

19. Uzbekova M.R. Tibbiyot kollejlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish omillari // Tibbiy-pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2022. – № 2(14). – B. 67–75.

20. Fink L.D. Creating Significant Learning Experiences: An Integrated Approach to Designing College Courses. – San Francisco: Jossey-Bass, 2013. – 320 b.

21. Rasulovna K.M. Contents of Pedagogical Disciplines Aimed at Continuous Didactic Training of Medical Students // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2020. – № 2. – B. 45–51.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAYYORLASH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.009

Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
addilshodov@gmail.com
+998936461113
0000-0003-2286-120X

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat olib borishga tayyorlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maxsus pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi tahlil qilingan. Inklyuziv ta’lim jarayonida nogironligi bo‘lgan va alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlashda raqamli platformalar, multimedia vositalari va interaktiv ta’lim texnologiyalarining qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak maxsus pedagoglarning pedagogik, metodik hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, maxsus pedagog, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik kompetensiya, raqamli ta’lim muhiti, innovatsion ta’lim, multimedia vositalari, metodika, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация.В данной статье рассматривается роль и значение цифровых технологий в подготовке будущих специалистов по специальному образованию к эффективной работе в инклюзивной образовательной среде. Также анализируется методология использования современных информационно-коммуникационных технологий в развитии профессиональных компетенций специалистов по специальному образованию. Рассматриваются возможности использования цифровых платформ, мультимедийных инструментов и интерактивных образовательных технологий в работе с учащимися с ограниченными возможностями и особыми образовательными потребностями в процессе инклюзивного образования. По результатам исследования обосновывается, что образовательный процесс, организованный на основе цифровых технологий, способствует развитию педагогических, методических и информационно-

коммуникационных компетенций будущих специалистов по специальному образованию.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, специалист по специальному образованию, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, педагогическая компетенция, цифровая образовательная среда, инновационное образование, мультимедийные инструменты, методология, профессиональная подготовка.

Abstract. This article discusses the role and importance of digital technologies in preparing future special educators for effective work in an inclusive educational environment. It also analyzes the methodology for using modern information and communication technologies in developing the professional competencies of special educators. The possibilities of using digital platforms, multimedia tools and interactive educational technologies in working with students with disabilities and special educational needs in the process of inclusive education are considered. According to the results of the study, it is substantiated that the educational process organized on the basis of digital technologies serves to develop the pedagogical, methodological and information and communication competencies of future special educators.

Keywords. Inclusive education, special educator, digital technologies, information and communication technologies, pedagogical competence, digital educational environment, innovative education, multimedia tools, methodology, professional training.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish sharoitida bo‘lajak maxsus pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarga, jumladan alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarga teng ta’lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda pedagoglarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, multimedia vositalari, elektron ta’lim platformalari, interaktiv dasturlar hamda masofaviy ta’lim texnologiyalari inklyuziv ta’lim muhitida samarali ta’lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli bo‘lajak maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar asosida tayyorlashning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi hamda bu jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish va maxsus pedagog kadrlarni tayyorlash masalalari ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Inklyuziv ta’lim jamiyatda teng imkoniyatlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik tizim bo‘lib, unda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning umumiy ta’lim jarayonida

faol ishtirok etishi nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda uni samarali tashkil etish masalalarini keng yoritib kelmoqdalar.

M.Rasulova o‘z tadqiqotlarida inklyuziv ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, uning pedagogik mohiyati va maxsus ehtiyojli bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalalarini tahlil qilgan. Tadqiqotlarda inklyuziv ta’lim ijtimoiy adolatni ta’minlash va har bir bolaning shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim omil ekanligi ta’kidlanadi.

B.Matyoqubova inklyuziv ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini o‘rganib, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va individual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, taqqoslash va so‘rovnoma usullari orqali raqamli texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishi aniqlangan. [1]

M.Qadamboyeva raqamli inklyuziv ta’lim muhitida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish modellari, adaptiv ta’lim texnologiyalari va individual ta’lim trayektoriyalarining ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Tadqiqotda raqamli platformalar yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatlari keng ekanligi ko‘rsatib berilgan. [2]

A.Abdullayev va N.Maxmudova inklyuziv ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt, AR/VR texnologiyalari va raqamli platformalarning ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishdagi o‘rnini o‘rganib chiqqanlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy raqamli vositalar maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari va konsepsiyalarida pedagog kadrlarni zamonaviy pedagogik va raqamli kompetensiyalar asosida tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi sifatida pedagogik kuzatuv, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali bo‘lajak maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi o‘rganildi.

Natija va muhokamalar

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’lim muhitida tayyorlashda raqamli texnologiyalarni qo‘llash pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quv materiallarini vizuallashtirish hamda o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish imkoniyati mavjud.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida bo‘lajak maxsus pedagoglarning quyidagi kompetensiyalari rivojlanadi:

- pedagogik va metodik kompetensiya;
- axborot-kommunikatsion kompetensiya;
- inklyuziv ta’lim muhitida ishlash ko‘nikmalari;
- individual yondashuvni tashkil etish malakasi.

Bundan tashqari, raqamli platformalar, multimedia vositalari va interaktiv ta’lim dasturlari o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Masalan, interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari va adaptiv ta’lim dasturlari maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlash jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Muhokamalar jarayonida shuningdek inklyuziv ta’limni rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjudligi aniqlangan. Jumladan:

- pedagoglarning raqamli kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- maxsus pedagogik dastur va metodik materiallarning yetishmasligi;
- ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasi yetarli emasligi.

Shu sababli bo‘lajak maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish hamda maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan samarali ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak maxsus pedagoglarning innovatsion fikrlashini rivojlantiradi, ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlaydi va inklyuziv ta’lim muhitida samarali ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kelgusida bo‘lajak maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli ta’lim platformalari, interaktiv o‘qitish metodlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.B.Matyoqubova**.** Inklyuziv ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Pedagogika yo‘nalishi .Guliston davlat pedagogika institute. 2025

2.M.A.Qadamboyeva**.** Raqamli inklyuziv ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish modellari.Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etish. konferensiya to‘plami, Toshkent. 2025. Vol. 50 No. 1.74–76 betlar

3. Yarashev A., Asadova M. Raqamli texnologiyalar asosida maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash imkoniyatlari. Ilmiy jurnal maqolasi, Toshkent. 2024. 12–18 betlar.

4.Eshmamatova S., Farxadova I. Inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Ilmiy tadqiqot maqolasi, Toshkent. 2025. 33–40 betlar.

5.Hoshimova M.M. O‘zbekiston muassasalarida inklyuziv ta’lim uchun maxsus mutaxassisning yetishmasligi. TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnal. Toshkent. 2024. Vol. 30 No. 1. 128–131 betlar.

6.Bates T. Teaching in a Digital Age. BCcampus, Vancouver. 2019. 1–408 betlar.

7.Kerres M. Digital Learning Environments. Berlin: Springer. 2018. 1–276 betlar.

8.Rizayeva Sh. M. Technologies for Teacher Training for Inclusive Education in the Process of Continuous Professional Development. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, Vol. 1 No. 6. 2025. 432–437 betlar.

9.Ning Y., Solomon D.D. Assessing Pedagogical Readiness for Digital Innovation: A Mixed-Methods Study. arXiv. 2025. 1–25 betlar.

10.Fernandez-Batanero J.M., Roman-Gravan P. Teacher Training in Inclusive Digital Skills in Secondary Education: Students with Autism Spectrum Disorders. 2025. 1–20 betlar.

11.Ricardo Fitas. Inclusive Education with AI: Supporting Special Needs and Tackling Language Barriers.. 2025. 1–30 betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA O'ZBEK TILINI XORIJIY TALABALARGA O'QITISHDA TECHNOLOGY-ENHANCED LEARNING METODINING O‘RNI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.010

Mamatxonova Moxichexraxon Ubaydullo qizi,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
+998911292397,
mohichehraxonm@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliygohlarida xorijiy talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda Technology-Enhanced Learning (TEL) metodining roli va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda interaktiv darslar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar orqali til ko‘nikmalarini oshirish usullari ko‘rib chiqildi. Natijalar TEL metodlari yordamida xorijiy talabalar o‘zbek tilini tez va samarali o‘zlashtirishlarini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Technology-Enhanced Learning, o‘zbek tili, tibbiyot oliygohi, xorijiy talabalar, interaktiv ta’lim.

Аннотация. В статье анализируется роль и эффективность метода Technology-Enhanced Learning (TEL) в обучении иностранных студентов узбекскому языку в медицинских вузах. Исследование рассматривает способы повышения языковых навыков с помощью интерактивных занятий, онлайн-платформ, мобильных приложений и виртуальных лабораторий. Результаты показывают, что TEL способствует более быстрому и эффективному освоению узбекского языка иностранными студентами.

Ключевые слова: Technology-Enhanced Learning, узбекский язык, медицинский вуз, иностранные студенты, интерактивное обучение.

Abstract. This article analyzes the role and effectiveness of Technology-Enhanced Learning (TEL) in teaching Uzbek language to international students in medical universities. The study explores methods to improve language skills through interactive lessons, online platforms, mobile applications, and virtual laboratories. Results indicate that TEL enables international students to learn Uzbek language more efficiently and effectively.

Keywords: Technology-Enhanced Learning, Uzbek language, medical university, international students, interactive learning.

Kirish. Globalizatsiya va tibbiyot ta’limidagi xalqaro talabalar sonining ortishi bugungi kunda oliy ta’lim tizimida dolzarb masala hisoblanadi. Xorijiy talabalarning tibbiyot sohasida

tahsil olishi nafaqat kasbiy bilimlarni, balki mahalliy til va madaniyatni o‘rganishni ham talab qiladi. Technology-Enhanced Learning (TEL) metodlari esa ta’lim jarayonini texnologiyalar orqali boyitib, talabalarning o‘quv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So‘nggi 5 yil ichida O‘zbekistondagi tibbiyot oliygohlarida chet ellik talabalar soni 15–20% ga oshgan. Talabalar, asosan, Hindiston, Turkiya, Koreya, Rossiya va boshqa Yevropa mamlakatlaridan keladi. Kasbiy terminologiya ko‘p hollarda ingliz yoki rus tillariga mos kelmaydi. An’anaviy darslar ko‘pincha nazariy bo‘lib, muloqot ko‘nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaydi. TEL metodlari Amerika, Evropa va Osiyo mamlakatlarida tibbiyot va til ta’limida keng qo‘llanmoqda. Masofaviy platformalar (Moodle, Canvas) va mobil ilovalar yordamida talabalar darslarni individual tarzda o‘rganadi.

Metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida tahsil olayotgan xorijiy talabalar tanlandi. Tadqiqot 2025–2026-yillar davomida o‘tkazildi va unda jami 120 talaba ishtirok etdi. Tadqiqot vositalari quyidagilarni o‘z ichiga oldi: interaktiv darslar, onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar. Ma’lumot yig‘ish usullari: testlar, so‘rovnomalar, kuzatuvlar. Eksperimental tadqiqot: talabalar ikkita guruhga bo‘lingan (TEL guruhi va an’anaviy metod guruhi). Har bir guruhga 3 oylik dars mashg‘ulotlari o‘tkazilgan. Baholash mezonlari: til ko‘nikmalari: og‘zaki, yozma va tinglab tushunish ko‘nikmalari. Kasbiy muloqot: bemor bilan suhbat, diagnostika vazifalari. Baholash vositalari: testlar, praktikumlar, vaziyat tahlili. Qo‘shimcha texnologiyalar: VR laboratoriyalar: virtual shifoxona muhitida bemor bilan muloqot, diagnostika mashqlari. Mobil ilovalar: interaktiv terminologiya va grammatika mashqlari. Gamifikatsiya elementlari: ball tizimi, quizlar, leaderboard talabalarning motivatsiyasini oshiradi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari TEL metodlarining xorijiy talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Og‘zaki va yozma ko‘nikmalar oshdi, interaktiv darslar va VR laboratoriyalar samarali bo‘ldi. Talabalar TEL metodlarini an’anaviy darslarga nisbatan samaraliroq deb baholadi.

1. Statistik natijalar: TEL guruhi talabalarining 90% og‘zaki ko‘nikmalari 3 oyda sezilarli yaxshilangan. An’anaviy metod guruhi talabalarining faqat 65% ko‘nikmalari yaxshilangan.

2. Talabalar qoniqish darajasi. TEL guruhida talabalar darslar qiziqarli, interaktiv va samarali deb baholagan. An’anaviy metod guruhi talabalarining qoniqish darajasi 60% ni tashkil qilgan.

3. Kasbiy terminologiya o‘zlashtirilishi. TEL guruhidagi talabalar kasbiy atamalarni tezroq o‘zlashtirgan: o‘rtacha 85% to‘g‘ri ishlatilgan. An’anaviy guruhda 55uk o’rsatkich 70% ni tashkil qilgan.

Muhokama

Natijalar ko‘rsatdiki, TEL metodlari tibbiyot oliygohlarida xorijiy talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega. Asosiy afzalliklari: individual yondashuv,

interaktivlik, masofaviy ta’lim, baholash imkoniyati. Cheklovlar: texnologiya bilan ishlash ko‘nikmasi talab etiladi.

1. Tadqiqot natijalarining xalqaro solishtiruvi. AQSh va Evropa tibbiyot maktablarida TEL metodlari 25–30% samaradorlik oshishini ko‘rsatgan. O‘zbekiston kontekstida bu metodlar talabalar motivatsiyasini va til ko‘nikmalarini oshirishda aynan shunday natija berdi.

2. TEL metodining cheklovlari. Texnologik qurilmalar va internetga bog‘liqlik. O‘qituvchi va talaba TELni to‘g‘ri ishlata olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

3. Tavsiya va kelajak istiqbollari. Virtual laboratoriyalar va gamifikatsiya elementlarini kengaytirish. Mobil ilovalar orqali kundalik mashqlarni davom ettirish. O‘qituvchilar uchun maxsus TEL treninglarini tashkil qilish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari TEL metodlarining xorijiy talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Interaktiv darslar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar til ko‘nikmalarini tez va sifatli o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. TEL metodlari xorijiy talabalarning til ko‘nikmalarini tez va sifatli oshirishga xizmat qiladi. Interaktiv darslar, VR mashqlar va mobil ilovalar kombinatsiyasi eng samarali yondashuvdir. Bu metod tibbiyot oliygohlarida kelajakda o‘zbek tilini chet ellik talabalar uchun yanada samarali o‘qitishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References / Использованная литература)

1. UNESCO. (2021). Technology-Enhanced Learning in Higher Education.
2. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2014). The NMC Horizon Report: 2014 Higher Education Edition.
3. Назаров, А., & Ахмедова, Ш. (2020). Современные методы обучения иностранным языкам в вузах.
4. Rahmatova, N. (2019). O‘zbek tilini chet ellik talabalar uchun o‘qitish metodikasi. Tashkent.
5. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI DARSLARIDA 3D DASTURLARDAN FOYDALANISH: DIDAKTIK IMKONIYATLAR VA TA’LIM SAMARADORLIGI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.011

Kholikova Lutfiya Umurzakovna
Namangan State University, doctoral student
e-mail: xoliqovalutfiya0@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarini o‘qitishda 3D (uch o‘lchamli) interaktiv dasturlar va virtual muhitlar (VR/AR/3DVE)dan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘zbek olimlarining pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim bo‘yicha qarashlari, shuningdek xorijiy tadqiqotlarda 3D virtual muhitlarning motivatsiya, lug‘at o‘zlashtirish va og‘zaki nutq faolligiga ta’siri haqida ilmiy xulosalar umumlashtiriladi. 3D interaktiv texnologiyalari asoslangan model asosida metodik yondashuv taklif etilib, amaliy natijalar indikatorlari (lug‘at, talaffuz, speaking faolligi, motivatsiya) bo‘yicha tahlil mezonlari taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili, 3D dasturlar, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 3D virtual muhit (3DVE), raqamli pedagogika, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В статье анализируются дидактические возможности применения 3D (трёхмерных) интерактивных программ и виртуальных сред (VR/AR/3DVE) при обучении английскому языку в начальных классах. Обобщаются научные выводы зарубежных исследований о влиянии 3D-виртуальных сред на учебную мотивацию, усвоение лексики и активизацию устной речевой деятельности, а также рассматриваются позиции узбекских учёных в области педагогических технологий и цифрового образования. На основе модели, разработанной с опорой на 3D-интерактивные технологии, предлагается методический подход и представлены критерии анализа по индикаторам практических результатов (лексика, произношение, речевая активность в говорении, мотивация).

Ключевые слова: начальное образование, английский язык, 3D-программы, виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), 3D-виртуальная среда (3DVE), цифровая педагогика, коммуникативная компетенция.

Abstract. The article examines the didactic potential of using 3D (three-dimensional) interactive applications and virtual environments (VR/AR/3DVE) in teaching English in primary education. It synthesizes findings from international research on the effects of 3D

virtual environments on learner motivation, vocabulary acquisition, and oral language engagement, while also addressing Uzbek scholars’ perspectives on pedagogical technologies and digital education. Based on a model grounded in 3D interactive technologies, the study proposes a methodological approach and presents analytical criteria aligned with practical outcome indicators (vocabulary, pronunciation, speaking participation, and motivation).

: primary education, English language, 3D applications, virtual reality (VR), augmented reality (AR), 3D virtual environment (3DVE), digital pedagogy, communicative competence.

KIRISH: Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish hamda ularning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar bilimni asosan vizual va kinestetik faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida 3D modellar, animatsiyalar, virtual muhitlar hamda interaktiv topshiriqlardan foydalanish til birliklarini o‘quvchilar uchun yanada tushunarli va “jonli” kontekstda idrok etishga yordam beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni o‘rganish jarayoniga faol jalb etadi va ingliz tilini tabiiy kommunikativ muhitga yaqin sharoitda o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston pedagogik adabiyotlarida ham pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish va uning samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, N.N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalarni tasniflash hamda ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash o‘quv jarayoni natijadorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Olimaning fikricha, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga moslashtirish va ulardan foydalanish usullarini aniqlash ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ushbu nazariy qarashlar ingliz tili darslarida 3D dasturlar va interaktiv muhitlardan foydalanishning ilmiy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ham virtual reallik (VR) va 3D muhitlarning til o‘rganish jarayoniga ta’siri keng o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘rganishga qiziqishini kuchaytirish hamda til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda VR muhitlarining aniq til natijalariga ta’siri turli omillarga bog‘liq ekani ham qayd etiladi. Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayonida 3D texnologiyalarni qo‘llashda aniq didaktik maqsadlar (lug‘at boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash, og‘zaki nutqni rivojlantirish) hamda baholash mezonlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarida 3D dasturlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. 3D dasturlarning til o‘qitish jarayonidagi pedagogik va psixologik asoslarini tahlil qilish.

2. 3D muhitlar yordamida o‘quvchilarda lug‘at boyligi, talaffuz va og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmini asoslab berish.

3. 3D texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini aniqlash uchun baholash mezonlari hamda eksperimental tadqiqot loyihasini ishlab chiqish.

Metodlar: Tadqiqot kvazi-eksperimental yondashuv asosida o'tkaziladi: tajriba (3D dasturlar yordamida) va nazorat (an'anaviy/2D materiallar asosida) guruhlari taqqoslanadi. Baholash “mavjud test – jarayon – yakuniy test” modelida amalga oshiriladi.

Bu tajriba jarayoniga boshlang‘ich sinflar axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatiga asoslanib 3-, 4-sinf o‘quvchilari jalb etildi.

Tajriba guruhining hajmi: 323 nafar o‘quvchilar.

Nazorat jamoasi: 311 nafar o‘quvchilar.

Boshlang‘ich sinf sharoitida 3D texnologiyalarni ishlatish uchun amaliy jihatdan qulay dasturlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

3D/VR muhitni ishlab chiqish va hikoya asosida o‘rganish CoSpaces Edu / Delightex – o‘quvchilar 3D sahnalar yaratish, dialoglar va rolli o‘yinlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega; platforma bolalarga 3D yaratish va kodlashda yordam berishi bilan ajralib turadi.

CoSpaces loyihalarini tahlil qilishda "sinf ingliz tili va kundalik muloqot" kontekstidagi ishlar ham uchraydi (ya’ni darsdagi kundalik muloqotga qaratilgan 3D hikoyalar).

ClassVR – boshlang‘ich ta’lim uchun ishlab chiqilgan VR yechim bo‘lib, darsga mos materiallar va o‘qituvchi portali orqali boshqaruvni taqdim etadi.

Merge Cube / Merge EDU – 3D ob’ektlarni har xil burchakdan ko‘rib o‘rganish (“hold and interact with 3D objects”) lug‘at o‘zlashtirish jarayonida ko‘rgazmalikni yaxshilaydi.

zSpace – o‘quvchilar 3D modellar bilan interaktiv tarzda ishlashlari, simulyatsiyalar yordamida tushunchalarni yanada aniqroq qabul qilishlari mumkinligi ta’kidlangan.

Eslatma: Ushbu dasturlar ingliz tili darsida “til”ni o‘rgatish uchun yagona vosita emas; ular tilni foydalanish uchun kontekst yaratadi (hayvonot bog‘i, maktab, xarid, ob-havo, oilaviy mavzular).

Boshlang‘ich sinflar uchun 3D asosidagi darsni tashkil etishning eng maqbul tartibi (45 daqiqalik dars misolida):

1. Qizdirish (5 daqiqa): 3D ob'ekt/sahna yordamida mavzuni tanishtirish (masalan, 3D hayvonlar).

2. Kirish (10 daqiqa): yangi so‘zlar 3D obyektlar bilan (nomi–nuqta–takrorlash).

Metodika. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarini 3D texnologiyalar asosida tashkil etishda 45 daqiqalik dars modeli quyidagi ketma-ket bosqichlar asosida ishlab chiqildi.

1**. Kirish** (5 daqiqa).

Dars boshida o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish maqsadida 3D obyekt yoki sahna orqali mavzuga kirish amalga oshiriladi. Masalan, hayvonlar mavzusida 3D animatsiyalar yoki modellardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

2**. Yangi mavzu** (10 daqiqa).

Yangi leksik birliklar 3D modellar yordamida tushuntiriladi. O‘qituvchi “nomlash – ko‘rsatish – takrorlash” tamoyili asosida so‘zlarni taqdim etadi.

3. **Mustahkamlash** (15 daqiqa).

Bu bosqichda “tingla – takrorla – bajar” modeli qo‘llanadi. O‘qituvchi 3D sahna orqali harakat yoki vaziyatni ko‘rsatadi, o‘quvchilar esa uni takrorlab, amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi.

4. **Muloqot mashqlari** (10 daqiqa).

O‘quvchilar juftlikda ishlaydi va qisqa dialoglar tuzadi. Bunda avatarlar yoki rol kartalaridan foydalanish mumkin.

5. **Xulosa va baholash** (5 daqiqa).

Dars yakunida mini-quiz yoki “exit ticket” yordamida o‘quvchilarning mavzuni qay darajada o‘zlashtirgani aniqlash mumkin. Shuningdek, tadqiqot jarayonida dars samaradorligini aniqlash uchun quyidagi o‘lchov vositalari qo‘llaniladi:

Lug‘at testi: 15–25 ta leksik birlik asosida rasm–so‘z moslashtirish va gapni to‘ldirish topshiriqlari.

Talaffuz rubrikasi: intonatsiya, tovush aniqligi va urg‘u kabi mezonlar asosida 3–5 darajali baholash.

Speaking faolligi: gap tuzish soni, dialog davomiyligi va xato turlari.

Motivatsiya so‘rovnomasi: o‘quvchilarning qiziqishi, darsdagi ishtiroki va umumiy qoniqish darajasi.

Natijalarni tahlil qilishda deskriptiv statistika (o‘rtacha ko‘rsatkichlar va foizlar), taqqoslash usuli (tajriba va nazorat guruhlari) hamda sifat tahlili (kuzatuv varaqalari va o‘qituvchi intervyulari) qo‘llanildi.

Natijalar: Xorijiy tadqiqotlar umumlashtirilganda, 3D virtual muhitlar til o‘rganishda quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy natija berishi qayd etiladi:

- Motivatsiya oshishi: VR bo‘yicha tahlilda motivatsiyaga ijobiy ta’sir borligi ko‘rsatilgan.
- Lug‘at o‘zlashtirish: VR/3D muhitlarda lug‘at dastlabki o‘zlashtirishda yengillashishi mumkin, ammo uzoq muddatli retention doim ham bir xil bo‘lmasligi qayd etiladi.
- Til ko‘nikmalaridan gapirish va yozish hamda ijtimoiymavjudlik: 3D virtual muhitlar ko‘p kanalli muloqotni (audio/visual/text) kuchaytirishi, o’rganilayotgan tildagi til ko’nikmalarini ko‘paytirishi mumkin.

3D virtual muhit (3DVE)ning ilmiy ta’rifida ham muhim nuqta bor: 3DVE — “immersive, three-dimensional, multimedia, and multi-person simulation environments…” ya’ni immersiv 3D multimedia, ko‘p ishtirokchili simulyatsion muhit. Bu ta’rif boshlang‘ich sinflarda “tilda muloqot qilish sharoitini modellashtirish” uchun 3D dasturlar mos ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, 3D dasturlarni amaliy qo‘llash bo‘yicha boshlang‘ich ta’lim kontekstida CoSpaces Edu’dan foydalanish bo‘yicha ishlarda VR’ning darsni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatidagi imkoniyatlari yoritilgan. Ingliz tili lug‘atini o‘qitishda CoSpaces asosida VR modullarini loyihalashga bag‘ishlangan tadqiqot yo‘nalishlari ham mavjud.

Boshlang‘ich sinfda o‘tkazilgan tajriba-sinov natijasida tajriba guruhida:

- lug‘at bo‘yicha yuqoriroq o‘sish;
- talaffuzdagi xatolar kamayishi;
- speaking faolligi ortishi;
- darsga qiziqish va ishtirok oshishi

kabi natijalar kuzatilishi mumkin. Bu natijalar yuqoridagi tahlil qilish va aniqlash tahlillarda qayd etilgan tendensiyalar bilan mos keladi.

Muhokama: O‘zbek olimlari pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalasini nazariy jihatdan asoslagan. N.N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish yo‘llarini belgilash “ta’limning barcha bosqichlarida … samaradorlikni oshirishga imkon” berishini ta’kidlaydi. Bunda 3D dasturlarni boshlang‘ich ingliz tili darsiga integratsiya qilishda “texnologiya—metod—natija” zanjirini qurish zarurligini anglatadi.

Raqamli ta’lim bo‘yicha O‘zbekiston manbalarida ham raqamli resurslardan foydalanish, raqamli kompetensiya va metodik asoslar masalasi ko‘tariladi. Masalan, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash ta’lim tizimi barqaror rivoji uchun strategik ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi hamda milliy mualliflar Axmedov, Karimova, Madaliyeva, Usmonov, Yo‘ldoshev va boshqalarning ishlari adabiyotlarda keltiriladi.

Shuningdek, “ta’limda axborot texnologiyalari” doirasida axborot tizimi, dasturiy ta’minot, uslubiy-ta’minot kabi komponentlar ta’riflanadi; bu esa 3D dasturlarni joriy etishda faqat “dastur” emas, balki uslubiy va tashkiliy ta’minot ham muhimligini ko‘rsatadi.

Zheng va hamkorlarining 3DVE bo‘yicha sharhida 3D muhitlarning affordanslari sifatida til proficiency, output, hamda no-lingvistik ko‘nikmalar (collaboration, critical thinking) ham tilga olinadi. Bu boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda 3D dasturlar nafaqat lug‘at, balki kommunikativ vazifalar (role-play, situational dialogue) uchun ham qulay ekanini bildiradi.

Alizadeh va Cowie scoping review’ida esa VR ko‘proq motivatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, eng ko‘p uchraydigan til nishoni lug‘at ekani aytiladi, ammo uzoq muddatli xotira bo‘yicha dalillar kamroq ekani qayd etiladi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda 3D dasturlarni qo‘llashda 2 ta didaktik yechim muhim bo‘ladi:

1.takrorlash va mustahkamlash sikli (spaced repetition)

2.til ko’nikmalaridan gapirish va yozishni majbur qiluvchi vazifa (masalan, 3D sahnada gapirish topshirig‘i).

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o’qitishda foydalanadigan 3D dasturlarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilish lozim:

Pedagogik mezonlar:

- yoshga mos kontent (4–11) va xavfsiz muhit;
- dars maqsadi bilan moslik (lug‘at / dialog / talaffuz);
- o‘qituvchi boshqaruvi va monitoring (ClassVR kabi).

Texnik mezonlar:

- offline/online ishlash imkoniyati;

- qurilma resurslari (telefon, planshet, VR headset);
- kontent yaratish osonligi (Delightex/CoSpaces).

Didaktik mezonlar:

- ko‘rgazmalilik (Merge Cube’da 3D obyektni ushlab ko‘rish);
- kommunikativ vaziyat yaratish (3D sahna + rol);
- feedback (tezkor test/quiz).

Biroq bu dasturlardan foydalanishda ba’zi cheklovlar va xavflar mavjudligini takidlash lozim:

- VR’da uzoq vaqt ishlash (charchoq, ko‘z zo‘riqishi) — darsda qisqa segmentlar tavsiya etiladi.
- “Vau-effekt”ning vaqtincha bo‘lishi — metodik mustahkamlash va nazorat ishlari zarur.
- texnik tengsizlik (qurilma yetishmasligi) — aralash model (VR/AR + 2D + realia) yechim bo‘la oladi.

Xulosa: Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarida 3D dasturlardan foydalanish:

1.o‘quv motivatsiyasini oshirishi;

2.lug‘at o‘zlashtirishni vizual va kontekst orqali tezlashtirishi;

3.kommunikativ vazifalar orqali speaking faolligini kuchaytirishi;

4.milliy pedagogik texnologiya yondashuvi bilan uyg‘un holda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi

mumkinligi ilmiy asoslandi.

Tavsiyalar sifatida 3D dasturlarni DTS talablari bilan uyg‘unlashtirib, darsda “qisqa VR segment + kommunikativ task + mustahkamlash” modeli asosida joriy etish, shuningdek baholash indikatorlarini (lug‘at, talaffuz, speaking, motivatsiya) aniq mezonlar bilan yuritish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alizadeh, Mehrasa, and Neil Cowie. 2022. “Language Learning and Virtual Reality: A Scoping Review.” *ASCILITE 2022 (The University of Sydney), Concise Paper* e22258: e22258-1–e22258-6.

2. Azizxo‘jayeva, N. N. 2006. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 160 bet.

3. ClassVR. 2026. “Virtual Reality Learning – VR for Elementary.” *ClassVR* (platforma ma’lumoti). Accessed January 20, 2026.

4. Drakopoulos, Vasileios, and Panagiotis-Vlasios Sioulas. 2021. “Enhancing Primary School Teaching through Virtual Reality.” *Journal of Computer Science Research* 3, no. 2 (April): 11–18. https://doi.org/10.30564/jcsr.v3i2.2777.

5. Egamov, I., and I. Nabiyev. n.d. “Ta’limda axborot texnologiyalari” [PDF]. 3 bet. Accessed January 20, 2026.

6. Karimova, N. 2024. *Raqamli ta’lim jarayonida talabalarning motivatsiyasi*. Toshkent: Ziyo. 190 bet.

7. Lee, HyeJin, and Yohan Hwang. 2022. “Technology-Enhanced Education through VR-Making and Metaverse-Linking to Foster Teacher Readiness and Sustainable Learning.” *Sustainability* 14, no. 8: 4786. 21 bet. https://doi.org/10.3390/su14084786.

8. Madaliyeva, D. 2023. *Ta’limda raqamli kompetensiyani rivojlantirish: nazariya va amaliyot*. Buxoro: BuxDU nashriyoti. 175 bet.

9. Merge EDU. 2026. “Merge EDU (Merge Cube / 3D AR tools for learning).” *Merge EDU* (platforma ma’lumoti). Accessed January 20, 2026.

10. Ng, Davy Tsz Kit, Wan Yee Winsy Lai, Morris Siu-yung Jong, and Chi Wui Ng. 2024. “Using CoSpaces in Augmented Reality Digital Story Creation: A Thematic Analysis.” *Computers & Education: X Reality* 5 (December): 100090. https://doi.org/10.1016/j.cexr.2024.100090.

11. Qodirov, A. 2020. *Raqamli pedagogika asoslari*. Toshkent: Innovatsiya. 180 bet.

12. Usmonov, O. 2023. *Ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning metodik asoslari*. Toshkent: Fan. 165 bet.

13. Yo‘ldoshev, J. G‘., and O. Hasanboeva. 2016. *Pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: O‘qituvchi. 256 bet.

14. Zheng, Chun-Ping, Ling-Yu Xu, Meng-Ya Gao, Qian-Qian Cheng, Zi-Tong Yang, and Li-li Wang. 2019. “A Review of 3D Virtual Environments for Language Learning: New Teaching Practice and Research Trend.” In *Proceedings of ICCE 2019*, 608–616.

15. zSpace. 2026. “zSpace: AR/VR Learning Experiences.” *zSpace* (platforma ma’lumoti). Accessed January 20, 2026.

16. zSpace. 2024. “Enhancing Language Learning for ELL Students with zSpace Technology.” *zSpace* (blog/material). September 16, 2024. Accessed January 20, 2026.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ORCID: 0009-0006-4764-6257

AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA S.NIKOLSKAYA TASNIFI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.012

R.Sh.Nabiyev *Qo’qon DU*
Maxsus pedagogika kafedrasi o’qituvchisi
ravshanbeknabiyev18@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0006-4764-6257
Tel: +998 94 440 3301

Annotatsiya. Ushbu maqolada autizm sindromli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda olimlar tomonidan o’rganilishi, tasnifi bo’yicha pedagogik – psixologik ishlar mazmuni yoritib berilgan. S. Nikolskaya tomonidan ajratilgan autizm sindromi variantlari har bir holatda pedagogik va psixologik korreksiyaning individual dasturini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Differensial yondashuv sindromning og‘irlik darajasi, affektiv regulyatsiya mexanizmlarining yetuklik darajasi hamda ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini hisobga olishga asoslanishi haqida atroflicha ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: Autizm, muloqot, verbal, noverbal, korreksiya, imkoniyat, maktab ta’limi, diqqat, xotira, tafakkur.

Аннотация.В данной статье освещается содержание педагогико-психологической работы по классификации, изученной учеными при подготовке детей с синдромом аутизма к школьному обучению. Выделенные С. Никольской варианты синдрома аутизма определяют необходимость разработки индивидуальной программы педагогической и психологической коррекции в каждом случае. Приведены подробные сведения о том, что дифференцированный подход основан на учете степени тяжести синдрома, степени зрелости механизмов аффективной регуляции и возможностей социальной адаптации.

Ключевые слова: Аутизм, общение, вербальный, невербальный, коррекция, возможность, школьное образование, внимание, память, мышление.

Annotation. This article covers the content of pedagogical and psychological work on classification studied by scientists in preparing children with autism syndrome for school education. The variants of autism syndrome identified by S. Nikolskaya determine the need to develop an individual program of pedagogical and psychological correction in each case. Detailed information is provided that the differentiated approach is based on considering the

severity of the syndrome, the degree of maturity of the mechanisms of affective regulation, and the possibilities of social adaptation.

Keywords: Autism, communication, verbal, nonverbal, correction, opportunity, school education, attention, memory, thinking.

KIRISH.S.Nikolskaya autizm sindromining og‘irlik darajasi, noto‘g‘ri moslashuv ko‘lami hamda ijtimoiylashuv imkoniyatlariga qarab autizmli bolalarning to‘rtta asosiy guruhini ajratadi (1985, 1987).

Birinchi guruh — sindromning eng og‘ir varianti bo‘lib, atrof-muhitdan deyarli to‘liq ajralgan bolalarni qamrab oladi. Ular tashqi muhit bilan faol aloqa shakllariga ega emas, qo‘rquv yoki istak reaksiyalarini namoyon etmaydi, ayrim hollarda og‘riq va sovuq kabi sezgilarni adekvat ifodalamaydi. Dastlab mutaxassislar bunday bolalarda eshitish yoki ko‘rish nuqsonidan shubhalanishlari mumkin, biroq obyektiv tekshiruvlar analizatorlarning saqlanganligini ko‘rsatadi.

Mazkur guruhdagi bolalarda faol avtostimulyatsiya shakllari deyarli kuzatilmaydi. Ularning xulq-atvori ko‘proq “dala xulq-atvori” bilan tavsiflanadi, ya’ni makonda maqsadsiz harakatlanish, xavfni anglamaslik (balandlikka chiqish, kattalardan uzoqlashish va h.k.). Nutq odatda shakllanmagan bo‘ladi, kamdan-kam hollarda alohida so‘z yoki ibora epizodik tarzda namoyon bo‘lishi mumkin, biroq bu holatlar tizimli xarakter kasb etmaydi.

Ikkinchi guruh bolalarida autizm tashqi muhit bilan aloqalarni faol rad etish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ular xulq-atvorning yuqori darajadagi stereotipikligi, kundalik tartib va muhit barqarorligini saqlashga qat’iy ehtiyoj bilan ajralib turadi. Ushbu guruh vakillari ko‘pincha jismoniy noqulaylik, qo‘rquv va xavotirni kuchli boshdan kechiradi hamda ko‘plab tashqi ta’sirlarni yoqimsiz deb qabul qiladi. Shu bois ular murakkab avtostimulyator mexanizmlarni — motor va nutqiy stereotipiyalarni shakllantiradi.

Biroq, tanish vaziyatlar doirasida ular atrof-muhit bilan nisbatan faol o‘zaro ta’sirga kirishishi, oddiy ko‘nikmalarni egallashi va nutqdan foydalanishi mumkin. Nutqda ko‘pincha oldindan o‘zlashtirilgan tayyor nutq qoliplari, kitoblardan olingan iqtiboslar ustunlik qiladi. Kechiktirilgan exolaliya, fe’llarning noaniq shaklda qo‘llanilishi va shaxs olmoshlarining noto‘g‘ri ishlatilishi xarakterlidir. Ixtiyoriy diqqat qisqa muddatli bo‘lsa-da, bolaning stereotipik qiziqishlariga tayangan holda, hissiy aloqa o‘rnatish va birgalikdagi faoliyatni kengaytirish orqali uning davomiyligini oshirish mumkin.

Uchinchi guruh bolalarida autizm “o‘z tajribalariga berilib ketish” bilan tavsiflanadi. Ular ikkinchi guruhga nisbatan kamroq stereotipik bo‘lib, muhit barqarorligining buzilishiga nisbatan sezgirligi pastroq. Taqiqlash tizimi yetarlicha qat’iy emas, biroq ular o‘z xatti-harakatlarining ichki mantiqi, individual “harakat dasturi” buzilishiga toqat qila olmaydi. Bunday vaziyatlarda affektiv zo‘riqish va dezadaptiv reaksiyalar yuzaga keladi.

Autizm sindromining uchinchi varianti bo‘lgan bolalar avtostimulyatsiyaning o‘ziga xos shakli bilan tavsiflanadi. Bunda bola nutq va o‘yin faoliyatida doimiy ravishda bir xil mavzularga qaytadi. Masalan, tabiiy ofatlar, qaroqchilar, yong‘in yoki “qulash” kabi syujetlarni takror-takror sahnalashtirishi mumkin. Ko‘pincha bunday bolalar provokatsion xatti-harakatlarga moyil bo‘lib, yaqin kattalarda kuchli emotsional reaksiya — jahllanish,

qichqirish yoki jazolash istagini uyg‘otishga intiladi. Ilgari bolada qo‘rquv uyg‘otgan vaziyatlarni qayta o‘ynash affektiv zo‘riqishni boshqarishning o‘ziga xos mexanizmi, ba’zan esa autoagressiv tendensiyalar va stereotipik emotsional “zavq” manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur guruh bolalari odatda rivojlangan, “kitobiy” nutqqa ega bo‘lib, erta yoshda ko‘pincha iqtidorli sifatida baholanadi. Ular astronomiya, biologiya, elektrotexnika kabi fan sohalariga erta qiziqish bildirishi mumkin. Biroq ensiklopedik bilimlar real hayotiy vaziyatlar bilan yetarlicha integratsiyalashmagan bo‘ladi; bola ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish jarayonidan qoniqish oladi. Shu bilan birga, ixtiyoriy diqqatning barqarorligi pastligi sababli maqsadli o‘qitish jarayoni murakkablashadi. Uzoq, ta’sirchan monologlar yuritish, muloqot jarayonida suhbatdosh reaksiyasini inobatga olmasdan, o‘z ichki “dasturi” asosida fikr yuritish ushbu guruhga xos xususiyatdir.

Autizmning to‘rtinchi varianti bo‘lgan bolalar esa yuqori darajadagi uyatchanlik va affektiv bog‘liqlik bilan ajralib turadi. Ular ko‘pincha o‘zlari qattiq bog‘langan yaqin shaxs (aksariyat hollarda ona) yordamiga muhtojdek taassurot qoldiradi. Bola tashqi dunyo bilan munosabatni bilvosita — yaqin kattalar orqali quradi va ularning “hissiy qo‘llab-quvvatlashi”ga to‘liq tayanadi. Bunday bolalar aloqa uzilishiga yoki yaqin shaxs tomonidan berilgan salbiy bahoga nisbatan nihoyatda sezgir bo‘ladi.

To‘rtinchi guruh bolalarida stereotipiyalar yaqin kattalardan o‘rganilgan tayyor xulq-atvor qoidalariga haddan tashqari rioya qilishda namoyon bo‘ladi. Bola tanish “xulq dasturlari”ni sinchkovlik bilan takrorlaydi va ulardan chetga chiqish zarurati kuchli affektiv noqulaylikni keltirib chiqaradi. U tashqi tomondan tormozlangan, noqulay va ishonchsiz ko‘rinishi mumkin. Motor stereotipiyalar asosan emotsional zo‘riqish vaziyatlarida paydo bo‘lib, qulay sharoitda kamayadi yoki yo‘qoladi. Pedagogik tekshiruvlarda ba’zan aqliy rivojlanishning susayganligi aniqlanishi mumkin, biroq aynan ushbu guruh bolalari tashqi dunyo va atrofdagilar bilan aloqa o‘rnatishda nisbatan ko‘proq tashabbus ko‘rsatishi, kattalarga taqlid qilishi va ayrim vaziyatlarda mustaqil harakat qilishi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, Olga S. Nikolskaya tomonidan ajratilgan autizm sindromi variantlari har bir holatda pedagogik va psixologik korreksiyaning individual dasturini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Differensial yondashuv sindromning og‘irlik darajasi, affektiv regulyatsiya mexanizmlarining yetuklik darajasi hamda ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini hisobga olishga asoslanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Autizmli bolaga pedagogik yordam ko‘rsatish masalasini maxsus ta’lim ehtiyojlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish muhimdir. Mahalliy yondashuv G‘arb mamlakatlarida keng tarqalgan operant terapiyadan farqli ravishda, maxsus pedagogika va psixologiyada an’anaviy bo‘lgan rivojlanish konsepsiyasiga tayanadi. Bunday yondashuvda o‘qitish jarayoni oldindan belgilangan ko‘nikmalar majmuini o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi; aksincha, bolaning umumiy va maxsus ta’lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, rivojlanishning har bir bosqichida ta’limiy vazifalarni hal etishning moslashuvchan usul va vositalari ishlab chiqiladi.

Mazkur murakkab buzilishlarni korreksiyalash kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik yondashuvni hamda mutaxassislar jamoasining o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatini talab etadi. Shu bois pedagogning vazifalaridan biri — o‘z kasbiy kompetensiyasi doirasini aniqlash, boshqa mutaxassislar bilan vazifa va funksiyalarni aniq chegaralashdir.

Autizmli bolaga korreksion yordam ko‘rsatish, odatda, tashxis qo‘yish, affektiv buzilish darajasini aniqlash va zarur hollarda medikamentoz terapiyani belgilashdan boshlanadi (K.S. Lebedinskaya, 1987, 1991). Bu jarayon nevropsixiatr tomonidan amalga oshiriladi va bola uning nazorati ostida korreksion mashg‘ulotlarda ishtirok etadi. Dori terapiyasini belgilash va tuzatishda shifokor o‘z kuzatuvlari bilan bir qatorda ota-onalar hamda korreksion mashg‘ulotlarni olib borayotgan pedagog va psixologlarning ma’lumotlarini ham inobatga olishi zarur. Shunday qilib, medikamentoz yordam va umumiy rivojlanish dinamikasini baholash korreksion tizimning ajralmas qismi hisoblanadi.

Mahalliy an’anaga ko‘ra, autizmli bola bilan pedagogning faoliyati psixologik ish bilan uzviy bog‘liq holda olib boriladi. Faqat barcha mutaxassislarning o‘zaro hamkorligi va sindrom mohiyatini affektiv rivojlanish buzilishi sifatida yagona tushunishi samarali natija beradi. Psixologik korreksiya, avvalo, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, affektiv muammolarni bartaraf etish, ixtiyoriy diqqat va nutqni shakllantirishga qaratiladi (O.S. Nikolskaya, E.R. Baenskaya, M.M. Liebling, 1997; O.S. Nikolskaya va boshq., 2005).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Psixologik tuzatishning asosiy maqsadi — autistik bolada hissiy (shaxsiy) ma’nolar tizimini shakllantirishdir. Aynan shu tizim uning kognitiv rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur shart bo‘lib xizmat qiladi.

Autizmli bolani maktabga tayyorlash jarayonida pedagog faoliyati uning rivojlanishidagi asosiy muammolarni hal etishga qaratiladi. Biroq bu faoliyat umumiy korreksion tizim doirasida o‘ziga xos metodik va tashkiliy farqlarga ega bo‘lib, alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Odatda pedagogik mashg‘ulotlar autizmli bola bilan olib boriladigan kompleks yordam tizimiga u 5–6 yoshga yetganda kiritiladi. Psixologik korreksiyaning erta boshlanishi ushbu yoshga kelib bola muloqot ko‘nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishiga, umumiy affektiv sohaning boyishiga olib keladi. Bu esa nutqning shakllanishi, ixtiyoriy xatti-harakatlarning paydo bo‘lishi hamda atrof-muhitni tushunishdagi yutuqlar uchun zamin yaratadi. Natijada bola ta’limiy xulq-atvorni shakllantirish va boshlang‘ich maktab ko‘nikmalarini egallash uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo‘la boshlaydi. Mazkur maxsus o‘quv vazifalari pedagog tomonidan davom etayotgan psixologik korreksiya kontekstida amalga oshiriladi.

Autizmli bolaga korreksion ta’lim berish va psixologik yordam ko‘rsatish o‘rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat:

1.Pedagogning vazifalari — maxsus ta’lim maqsadlari doirasida bolaning umumiy aqliy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ta’limiy xulq-atvor uchun zarur shartlarni shakllantirish hamda boshlang‘ich maktab ko‘nikmalarini egallashni ta’minlashdan iborat.

2.Korreksion ta’limni boshlash sharti — bolada muloqot ko‘nikmalari, ixtiyoriy diqqat va frazeologik (bog‘langan) nutqning boshlang‘ich darajada shakllangan bo‘lishidir.

3.Ta’limiy vaziyat va psixologik o‘yin mashg‘ulotlari o‘rtasidagi farq —ta’lim jarayoni doimo bolaning ixtiyoriy diqqatini va xatti-harakatini tashkil etishni talab qiladi. Psixolog, odatda, bolaning beixtiyor diqqatiga, spontan taqlidiga tayanadi va ko‘pincha uning faoliyatiga moslashadi. Pedagog esa dastlabki bosqichda hissiy aloqa o‘rnatish uchun ushbu usullardan foydalanishi mumkin, biroq keyingi bosqichda ta’lim muhiti aniq strukturaga ega bo‘lishi zarur (sinf makonini maxsus tashkil etish, dars vaqtini qat’iy belgilash, “xulq-atvor qoidalari”ni joriy etish). Chunki pedagog faoliyatining asosiy maqsadi — bolaning ixtiyoriy regulyatsiyasini shakllantirishdir.

Mahalliy yondashuvga ko‘ra, autizm sindromining markazida ong va xulq-atvorni affektiv tartibga solish tizimining buzilishi yoki yetuk emasligi yotadi. Shu bois sindromning klinik-psixologik tuzilishini hisobga olgan holda autizmli bolaning maxsus ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, maxsus o‘quv maqsadlarini belgilash va korreksion ta’lim mantiqini ishlab chiqish zarur.

Olga S. Nikolskaya ta’kidlashicha, sindromning psixologik tuzilishini shakllantirishda ikki biologik omil hal qiluvchi ahamiyatga ega: bolaning affektiv zaifligi hamda faoliyatning buzilishi (psixofizik ohangning notekis taqsimlanishi). Mazkur omillar o‘zaro ta’sirda autistik himoya xatti-harakatlarini — aloqadan qochish, avtostimulyatsiya, stereotipiyalar, kuchli qo‘rquvlar, tajovuzkorlik va ayrim hollarda autoagressiyani — shakllantiradi. Affektiv sohaning buzilishi kognitiv rivojlanishning o‘ziga xos cheklanishlariga ham olib keladi.

XULOSA

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, korreksion ta’limning boshlang‘ich bosqichida pedagog autizmli bolaning kognitiv rivojlanishida affektiv yetuk emaslikning ko‘plab namoyon bo‘lishlariga duch keladi. Psixologning dastlabki ishlari bu qiyinchiliklarni sezilarli darajada kamaytiradi, biroq individual pedagogik mashg‘ulotlar boshlanishiga qadar ularni to‘liq bartaraf etish, odatda, mumkin emas. Shu sababli autizmli bolaning maxsus ta’lim ehtiyojlarini aniqlash hamda pedagogik ishning vazifalari va usullarini asoslashda mazkur qiyinchiliklarni tizimli ravishda tavsiflash muhimdir.

Autizmli bolalarning maxsus ta’lim ehtiyojlarini aniqlash korreksion ta’lim mantiqini ishlab chiqishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv affektiv va kognitiv buzilishlarning faqat tashqi ko‘rinishlarini emas, balki ularning sabablari, rivojlanish mexanizmlari va kompensator imkoniyatlarini yaxlit tahlil qilishga imkon beradi.

Mahalliy maxsus pedagogikada “alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola” tushunchasi nisbatan yaqinda ilmiy muomalaga kiritilgan. E.L. Goncharova va O.I. Kukushkina mazkur atama “alohida ehtiyojli bolalar” iborasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmasi emasligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, “alohida ta’lim ehtiyojlari” tushunchasi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning madaniy rivojlanish vazifalariga erishishi uchun maxsus shart-sharoitlar va pedagogik yechimlar zarurligini aks ettiradi.

Mualliflar psixofizik rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan turli toifadagi bolalar uchun umumiy maxsus ta’lim ehtiyojlarini quyidagi jihatlar bilan bog‘laydilar: ta’limni boshlash vaqti va mazmunini belgilash, maxsus metod va vositalarni ishlab chiqish, ta’lim muhitini maxsus tashkil etish, ta’lim muddati va makonini aniqlash, shuningdek, ta’lim jarayonida

ishtirok etuvchi shaxslar doirasini va ularning o‘zaro hamkorlik usullarini belgilash. Shu bilan birga, har bir toifa bolalar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlarini differensial tavsiflash zarurligi alohida qayd etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lebedinskaya, K. S. (1987). *Ranniy detskiy autizm*. Moskva: Meditsina.

2. Lebedinskiy, V. V. (1985). *Narusheniya psixicheskogo razvitiya u detey*. Moskva: MGU.

3. Nikolskaya, O. S., Baenskaya, E. R., Libling, M. M. **(**1998). *Autizm: korrektsionnaya rabota s detmi*. Moskva: Prosveshcheniye.

4. Lovaas, O. I. **(**1981; 1993). *Teaching Developmentally Disabled Children: The ME Book*. Baltimore: University Park Press.

5. Mesibov, G. B., Shea, V., Schopler, E. (2004). *The TEACCH Approach to Autism Spectrum Disorders*. New York: Springer.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.013

Ахмедова Уктамхон Эркиновна
Ферганский медицинский институт
общественного института
axmedovauktamxon5@gmail.com

Аннотация.В данной статье рассматриваются теоретические основы интерактивного обучения, его сущность и принципы, а также возможности их применения на занятиях русского языка. Раскрываются психолого-педагогические предпосылки внедрения интерактивных технологий в образовательный процесс, описываются различные формы интерактивной деятельности: работа в парах и группах, учебные дискуссии, ролевые и деловые игры, проекты, использование мультимедийных и цифровых ресурсов. Отмечается, что использование интерактивных технологий повышает эффективность усвоения языкового материала и способствует развитию навыков профессионального общения в медицинской сфере.

Ключевые слова: интерактивные методы обучения, медицинский вуз, коммуникативная компетенция, профессиональная речь, образовательные технологии.

Annotatsiya. Mazkur maqolada interaktiv o‘qitishning nazariy asoslari, uning mohiyati va prinsiplari, shuningdek, rus tili mashg‘ulotlarida qo‘llanish imkoniyatlari yoritiladi. Ta’lim jarayoniga interaktiv texnologiyalarni joriy etishning psixologik va pedagogik asoslari tushuntiriladi. Shuningdek, turli interaktiv faoliyat shakllari — juftlik va guruhda ishlash, o‘quv munozaralari, rol va biznes o‘yinlari, loyihalar, multimedia va raqamli resurslardan foydalanish — tavsiflanadi. Interaktiv texnologiyalarni qo‘llash til materialini samarali o‘zlashtirishni oshirishga va tibbiyot sohasidagi kasbiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: interaktiv o‘qitish metodlari, tibbiy oliy ta’lim muassasasi, kommunikativ kompetensiya, kasbiy nutq, ta’lim texnologiyalari.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of interactive learning, its essence and principles, as well as its potential applications in Russian language classes. The psychological and pedagogical prerequisites for implementing interactive technologies in the educational process are explored. Various forms of interactive activities are described, including pair and group work, educational discussions, role-playing and business games,

projects, and the use of multimedia and digital resources. It is noted that the use of interactive technologies enhances the effectiveness of language material acquisition and contributes to the development of professional communication skills in the medical field.

Keywords: interactive teaching methods, medical university, communicative competence, professional speech, educational technologies.

Введение. Современная система образования требует поиска и внедрения эффективных способов обучения, направленных на активизацию познавательной деятельности учащихся, развитие их самостоятельности, творческого мышления и коммуникативных навыков. В связи с этим особую значимость приобретает использование интерактивных методов обучения, которые способствуют созданию атмосферы сотрудничества, партнерства и взаимопонимания между преподавателем и студентами.

Методология. Интерактивные методы обучения (работа в парах и группах, дискуссии, проекты, игровые технологии, цифровые образовательные ресурсы) помогают не только повысить мотивацию учащихся, но и развивать их критическое мышление, самостоятельность и ответственность за результат своей работы. Актуальность определяется потребностью современных учебных заведений в поиске эффективных способов организации учебного процесса, ориентированных на активное взаимодействие всех участников и повышение качества обучения русскому языку.

Целью статьи является комплексное изучение интерактивных методов обучения и их практического применения на занятиях русского языка с целью повышения эффективности образовательного процесса. Интерактивные методы на занятиях русского языка — это такие методы обучения, при которых студенты активно участвуют в процессе обучения, взаимодействуют друг с другом и с преподавателем, а не просто слушают и запоминают материал. Главная цель интерактивных методов — сделать обучение живым, интересным и эффективным, развивать у студентов мышление, речь, коммуникативные навыки и творческие способности. Применение интерактивных методов опирается на личностно-ориентированную парадигму образования, в рамках которой ученик рассматривается как активный субъект учебного процесса, способный к самостоятельному поиску знаний, рефлексии и оценке своих действий. Основой интерактивного обучения является организация такого образовательного пространства, в котором взаимодействие между преподавателем и студентами становится двусторонним, а обмен информацией – постоянным и динамичным.

Теоретические предпосылки интерактивного обучения включают идеи социального конструктивизма (Л. С. Выготский, Дж. Брунер), согласно которым знание формируется в процессе сотрудничества, диалога, обсуждения. Важную роль играет и коммуникативная теория обучения, подчеркивающая необходимость развития навыков общения, аргументации и совместного решения задач.

По мнению одного из самых влиятельных учёных XX века в области педагогики и психологии Выготского Л.С., что обучение развивается через социальное

взаимодействие. Интерактивные методы усиливают зону ближайшего развития, так как студенты учатся через общение, совместное решение задач и диалог.

П. Фрейре показывал, что образование эффективно, когда студент — активный участник процесса. Интерактивность формирует критическое мышление и самостоятельность, а не пассивное восприятие.

Основные особенности интерактивных методов в обучении языка:

1. **Активное участие**

Учащиеся не просто слушают объяснение, а анализируют, обсуждают, выполняют задания, сотрудничают в группах.

Главная особенность интерактивных методов обучения состоит в активном включении обучающихся в процесс познания, когда знания не просто передаются преподавателем, а конструируются в ходе взаимодействия — между учителем и учениками, а также между самими студентами.

При интерактивном подходе студенты не пассивные слушатели, а активные участники, которые:

обсуждают,

анализируют,

решают учебные задачи,

работают в группе,

высказывают и аргументируют свою точку зрения,

совместно формируют новое знание.

Основная особенность интерактивных методов — активное участие обучающихся в образовательном процессе, обеспечивающее их непосредственное взаимодействие друг с другом и преподавателем.

2. Обратная связь

Постоянный обмен мнениями, обсуждение ответов, исправление ошибок в процессе взаимодействия. В интерактивном обучении обратная связь выступает одной из центральных характеристик. Она обеспечивает непрерывный обмен информацией между преподавателем и обучающимися, а также между самими учащимися. Благодаря этому участники учебного процесса могут оперативно уточнять понимание материала, корректировать свои действия, получать поддержку и оценивать собственные достижения.

Обратная связь в интерактивных методах — это постоянное двустороннее взаимодействие, позволяющее своевременно выявлять уровень усвоения знаний, корректировать процесс обучения и повышать его эффективность.

3. Коммуникативная направленность

Коммуникативная направленность интерактивных методов проявляется в том, что обучение строится на активном взаимодействии участников: обмене мнениями, совместном обсуждении, диалоге и сотрудничестве. В центре внимания — не только усвоение знаний, но и развитие умений выражать свои мысли, аргументировать позицию, слушать и понимать других.

Коммуникативная направленность интерактивных методов заключается в организации учебного процесса на основе диалога и сотрудничества, что обеспечивает развитие речевой активности обучающихся, формирование коммуникативных компетенций и повышение мотивации к обучению. Интерактивные методы развивают практические навыки: говорение, слушание, чтение и письмо.

4. Работа в паре и группах.

Одной из ключевых особенностей интерактивного обучения является организация деятельности обучающихся в парах и группах. Такой формат позволяет стимулировать сотрудничество, обмен идеями и коллективное решение учебных задач. Работа в малых группах формирует умение слушать и учитывать мнения других, развивает критическое мышление, навыки аргументации и совместной ответственности за результаты деятельности.

Работа в паре и группах в интерактивных методах обеспечивает активное вовлечение обучающихся в совместное конструирование знаний, способствует развитию коммуникативных и социально-когнитивных компетенций, а также повышает мотивацию к обучению за счет коллективной деятельности. Совместное выполнение заданий помогает быстрее освоить материал.

5. Практическое применение языка

Интерактивные методы обучения ориентированы на непосредственное использование языка в реальных или смоделированных ситуациях общения. Это позволяет учащимся не только усваивать грамматические и лексические нормы, но и развивать навыки их применения в практике, улучшая беглость речи, понимание и способность к коммуникации.

Практическое применение языка в интерактивных методах обеспечивает формирование коммуникативной компетенции обучающихся через активное использование речевых навыков в диалогах, дискуссиях, ролевых играх и других формах учебного взаимодействия. Создаются ситуации, максимально приближённые к реальному общению.

6. Развитие самостоятельности.

Интерактивные методы обучения способствуют формированию у обучающихся самостоятельности и ответственности за собственное обучение. Ученики активно участвуют в поиске информации, анализе материала, постановке и решении учебных задач, что развивает умение принимать решения, планировать свои действия и оценивать результаты своей работы. Развитие самостоятельности в интерактивных методах проявляется в создании условий для самостоятельной учебной деятельности, стимулирующей критическое мышление, инициативу и способность обучающихся к самоконтролю и самооценке.

Использование интерактивных методов обучения наиболее соответствуют личностно-ориентированному подходу, так как предполагает сообучение, т. е. коллективное обучение в сотрудничестве, причем и ученики, и преподаватель являются субъектами учебного процесса. Преподаватель здесь чаще выступает в роли

организатора процесса обучения, создателя условий для проявления инициативы учащимися. В основе интерактивного обучения лежит собственный опыт учащихся, их прямое взаимодействие с областью осваиваемого профессионального опыта. Использование игровых элементов: викторины, соревнования, конкурсы, интерактивные задания.

Например: ***Проведение конкурса, блиц- опрос: «Кто быстрее? Кто сильнее?»***

Вопросы 1 команде:

1. Где находится печень?
2. Какой процесс совершается в ротовой полости?
3. Какие органы участвуют в переваривании пищи?
4. Подберите определения к словам: печень, кость, больной.
5. Сколько см. длина пищевода?

Вопросы 2 команде:

1. Колит – это заболевание….
2. Назовите функции пищеварительной системы
3. Какие ферменты участвуют в пищеварении?
4. Как называется словосочетание « жигилдон кайнаши»?
5. Какой секрет участвует в полости рта?

Методы и условия, способствующие развитию языковой компетенции:

1. Интерактивные методы обучения

– работа в парах и малых группах;
– ролевые игры («врач-пациент», «консилиум врачей»);
– обсуждение клинических случаев.

2. Коммуникативные задания

– составление медицинских отчётов, историй болезни;
– описание симптомов, анализ результатов обследований.

3. Практико-ориентированные упражнения

– работа с профессиональными текстами;
– анализ статей из медицинских журналов;
– составление рекомендаций, инструкций.

4. Использование мультимедийных ресурсов

– интерактивные тренажёры;
– видео-разборы клинических ситуаций;
– аудиоматериалы для формирования фонетических навыков.

5. Обратная связь

– текущие мини-тесты;
– взаимопроверка и самооценка;
– устная и письменная рефлексия.

Важным аспектом интерактивных форм обучения является работа обучающихся в малых группах и в парах. Преподаватель создает всевозможные ситуации, когда

учащиеся могут использовать имеющиеся знания языка в реальном общении. Такой вид работы позволяет обучающимся преодолеть языковой барьер, учиться находить ошибки в своей речи и в речи своего собеседника, самостоятельно исправлять друг друга. Обсуждая различные темы и вопросы в группах и парах, обучающиеся имеют возможность проработать максимальное количество вариантов речевых конструкций для наиболее полного и понятного выражения мысли. Формирует диалогическую речь, умение слушать и аргументировать.

Формы: «интервью», работа в парах «учитель–ученик», взаимопроверка, парные диалоги-ролевые ситуации.

Игровые интерактивные формы направлены на развитие языковых навыков через моделирование реальных ситуаций: ролевые и деловые игры, имитационные ситуации,

коммуникативные тренинги, интерактивные квизы, викторины, презентации результатов, создание собственных текстов (аннотаций, инструкций, писем, сообщений).

Функция преподавателя заключается в том, чтобы организовать и стимулировать процесс общения, а затем по мере необходимости корректировать его, оказывая учащимся соответствующую языковую помощь.

Результаты. Технология работы в интерактивных образовательных платформах представляет собой систему приёмов, методов и организационных действий, обеспечивающих активное, двустороннее и цифрово-опосредованное взаимодействие участников учебного процесса. Технология работы с интерактивными платформами (Kahoot, LearningApps, Quizlet) включает регистрацию на платформе, создание или поиск контента (тесты, игры, викторины), а затем запуск и проведение занятия, где участники отвечают на вопросы или выполняют задания через свои устройства. Ключевые этапы — это подготовка материалов, организация игрового процесса и анализ результатов, что делает обучение более динамичным и увлекательным.

Kahoot — это игровая обучающая платформа, которая позволяет создавать и проводить интерактивные викторины, опросы и тесты в формате игры.

Основные возможности

- Создание тестов, викторин, опросов и дискуссий.
- Использование изображений и видео в вопросах.
- Возможность проводить занятия как в аудитории, так и онлайн.
- Автоматическое подведение итогов и отчеты.
- Доступ к обширной библиотеке готовых викторин.

Преподаватели могут использовать Kahoot для оценки уровня владения определёнными темами в группе. Анализируя отдельные аспекты каждого урока и получая обратную связь от студентов, преподаватели могут лучше адаптировать свои уроки, уделяя особое внимание темам, с которыми у большинства студентов возникают трудности.

Преподаватели могут использовать Kahoot для оценки уровня владения определёнными темами в группе. Анализируя отдельные аспекты каждого урока и

получая обратную связь от студентов, преподаватели могут лучше адаптировать свои уроки, уделяя особое внимание темам, с которыми у большинства студентов возникают трудности.

Learning Apps — это онлайн-сервис, разработанный в Германии, который позволяет бесплатно создавать и использовать интерактивные упражнения в разных форматах. Бесплатный сервис позволяет создавать интерактивные упражнения, чтобы проверять знания учащихся. Программа переведена не несколько языков, в том числе на русский, и достаточно простая для самостоятельного освоения.

В данной платформе можно создавать интерактивные задания, использовать готовые упражнения, применять их на уроках для активизации студентов, кроссворды, тесты с выбором ответа, хронологии, карточки (Flashcards) и т.д.

Learning Apps используют для интерактивных уроков, самостоятельной работы студентов, для проверочных и закрепляющих заданий и для повышения мотивации на занятиях.

Например: 1. Студенты сопоставляют медицинские термины и определения.

Анатомия — наука о строении организма

Гомеостаз — поддержание постоянства внутренней среды

Гипоксия — недостаток кислорода в тканях

Холангит- воспаление желчных протоков

Экстирпация- удаление матки, яичников, и шейки матки

2. «Определи диагноз по симптомам» (Классификация / Matching)

Студенту даются симптомы — нужно выбрать болезнь.

Примеры: Боль в правом подреберье, тошнота → Холецистит

Одышка, свистящее дыхание → Бронхиальная астма

Сильная жажда, частое мочеиспускание → Сахарный диабет

3. «Выбери правильный алгоритм действий» (Выбор последовательности)

Собрать по порядку правильный алгоритм.

Пример: Проведение инъекции

1. Обработать руки
2. Подготовить шприц
3. Обработать место инъекции
4. Ввести препарат
5. Утилизировать инструменты

4. Тесты по анатомии (Multiple choice)

Пример: Какой орган вырабатывает инсулин?

— поджелудочная железа

— печень

— селезёнка

— лёгкие

Интерактивное задание для LearningApps по теме Бронхит.

- Что такое бронхит?

Бронхит — это воспаление бронхов, сопровождающееся кашлем, мокротой и нарушением дыхания.

Основные типы: 1. Острый бронхит -возникает после ОРВИ или простуды.

Симптомы: сухой или влажный кашель, субфебрильная температура, слабость, хрипы при аускультации.

2. Хронический бронхит- длится более 3 месяцев в году в течение 2 лет.

Чаще у курильщиков или людей, работающих в пыли.

Симптомы: сухой кашель, влажный кашель, одышка, хрипы часто появляются через 2–3 дня, когда отходит мокрота, чувство нехватки воздуха,

хрипы слышны при аускультации врача.

Выводы. Таким образом, использование интерактивных методов в высшей школе сегодня — это прямой путь к интеграции образования, науки и практики. Применение интерактивных методов на уроках русского языка представляет собой важное направление современного образовательного процесса, ориентированного на развитие личности учащегося и формирование его коммуникативной компетенции. Анализ теоретических основ и методических подходов показывает, что интерактивные технологии существенно повышают эффективность обучения за счёт активного включения студентов в учебную деятельность, создания условий для сотрудничества, диалога и самостоятельного поиска знаний.

Интерактивные формы обучения существенно повышают эффективность освоения профессионально значимой лексики, развивают умения аналитически работать с клиническими случаями, формируют навыки письменной речи, необходимые для составления медицинской документации. Важным результатом применения интерактивных методов является развитие эмпатии, умения слушать, вести конструктивный диалог, что особенно значимо в работе врача.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.

2.Кларин М.В. Инновационные модели обучения. Москва: АРКТИ, 2000.

3.Ахмедова У.Э. Значение внеаудиторной работы в повышении эффективности занятий русского языка в медицинских вузах. Инновации в образовании и медицине, 2017.

4.Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Москва: Академия, 2014.

5.Ахмедова У.Э.Внеаудиторная работа в повышении эффективности изучения русского языка в медицинских вузах. Научный Фокус 1 (2), 468-474, 2023.

6.Ахмедова У.Э. Использование инновационных технологий в обучении русскому языку в высших учебных заведениях.Integration of science, education and practice. scientific-methodical, 2022.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISHDA GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: METODIK YANGILANISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.014

Xoshimova Azizaxon Saxobiddin qizi ,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Lotin tili va pedagogika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishning zamonaviy va innovatsion usullari tadqiq etiladi. Maqolaning maqsadi — an’anaviy o‘qitish metodlaridagi statik holatni geymifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyasi orqali dinamik jarayonga aylantirish mexanizmlarini ko‘rsatib berishdir. Maqolada anatomik, klinik va farmatsevtik terminologiyani o‘qitishda qo‘llaniladigan konkret metodik o‘yinlar, raqamli platformalar va ularning talabalar kognitiv faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari geymifikatsiyaning fanni o‘zlashtirish koeffitsientini 30-35 foizga oshirishini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: lotin tili, tibbiy terminologiya, geymifikatsiya, edutainment, raqamli didaktika, oliy ta’lim, kognitiv psixologiya, innovatsion metodika, interfaol ta’lim.

Аннотация.В данной статье исследуются современные и инновационные методы преподавания латинского языка и медицинской терминологии в медицинских высших учебных заведениях. Цель статьи — продемонстрировать механизмы превращения статического состояния традиционных методов обучения в динамический процесс посредством технологии геймификации (игрофикации). В статье анализируются конкретные методические игры, цифровые платформы, используемые при обучении анатомической, клинической и фармацевтической терминологии, а также их влияние на когнитивную деятельность студентов. Результаты исследования доказывают, что геймификация повышает коэффициент освоения предмета на 30-35 процентов.

Ключевые слова: латинский язык, медицинская терминология, геймификация, эдьютейнмент, цифровая дидактика, высшее образование, когнитивная психология, инновационная методика, интерактивное обучение.

Abstract: This article explores modern and innovative methods of teaching Latin and medical terminology in medical higher educational institutions. The aim of the article is to demonstrate the mechanisms of transforming the static state of traditional teaching methods into a dynamic process through gamification technology. The article analyzes specific methodological games, digital platforms used in teaching anatomical, clinical, and

pharmaceutical terminology, as well as their impact on students' cognitive activity. Research results prove that gamification increases the subject mastery rate by 30-35 percent.

Keywords: Latin language, medical terminology, gamification, edutainment, digital didactics, higher education, cognitive psychology, innovative methodology, interactive learning.

KIRISH. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi o‘z oldiga nafaqat bilim berish, balki talabalarda o‘sha bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirish vazifasini qo‘ygan. Tibbiyot sohasida esa bu masala yanada dolzarbdir. Bo‘lajak shifokorning professional tayyorgarligi uning lotin tili va tibbiy terminologiyani qanchalik chuqur egallaganiga bevosita bog‘liq. Chunki zamonaviy tibbiyotning barcha sohalari — anatomiyadan tortib farmakologiyagacha — lotin tili fundamenti ustiga qurilgan.

Biroq, bugungi kunda "Z-avlodi" deb ataluvchi talabalar uchun an’anaviy lug‘at yodlash va quruq grammatik qoidalar zerikarli va samarasiz bo‘lib tuyulmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini olib kirish — ***geymifikatsiya*** — bugungi kunda pedagogikaning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu maqolada biz lotin tili darslarini "o‘lik til" muhitidan "jonli muloqot va intellektual musobaqa" maydoniga aylantirish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

I.GEYMIFIKATSIYA: NAZARIY VA PSIXOLOGIK ASOSLAR

Geymifikatsiya — bu o‘yin ssenariylarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali talabaning ichki motivatsiyasini uyg‘otishdir. Psixologik nuqtai nazardan, o‘yin jarayonida miyada dofamin gormoni ajralib chiqadi, bu esa ma’lumotni uzoq muddatli xotirada saqlashni 40% ga tezlashtiradi.Lotin tili o‘qituvchisi uchun geymifikatsiya uchta asosiy maqsadni hal qiladi:

1. ***Kognitiv yuklamani kamaytirish*****:** Murakkab terminologik qurilmalarni qismlarga bo‘lib, oson qabul qilish.
2. ***Ijtimoiy integratsiya*****:** Talabalar o‘rtasida jamoaviy ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.
3. ***Tezkor qayta aloqa*****:** O‘yin davomida talaba o‘z xatosini darhol ko‘radi va uni tuzatishga intiladi.

1.1. Geymifikatsiya tushunchasi va uning nazariy asoslari

So‘nggi yillarda ta’lim, biznes, marketing va axborot texnologiyalari sohalarida **geymifikatsiya** tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Geymifikatsiya – bu o‘yinlarga xos elementlar va mexanizmlarni o‘yin bo‘lmagan jarayonlarga qo‘llash orqali insonlarning motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokini ta’minlash hamda samaradorlikni kuchaytirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Geymifikatsiya atamasi ilmiy adabiyotlarda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida faol qo‘llanila boshladi. Tadqiqotchilar ushbu yondashuvni foydalanuvchilarning e’tiborini jalb qilish, ularni faol harakatga undash hamda ma’lum maqsadlarga erishishda samarali vosita sifatida ko‘rsatadilar. Geymifikatsiya jarayonida odatda quyidagi o‘yin elementlari qo‘llaniladi:

- ballar tizimi (points);
- darajalar (levels);
- mukofotlar va rag‘batlantirish (rewards);
- reyting va yetakchilar jadvali (leaderboards);
- belgilar yoki nishonlar (badges);
- missiyalar va topshiriqlar (quests).

Ushbu elementlar inson faoliyatini qiziqarli va raqobatbardosh shaklga keltirib, o‘rganish yoki ish jarayoniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Nazariy jihatdan geymifikatsiya **motivatsiya nazariyalari**, **faol o‘rganish konsepsiyasi** va **interaktiv ta’lim metodlari** bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, inson bilimni faol tajriba orqali o‘zlashtiradi. Geymifikatsiya esa aynan shunday faol tajriba muhitini yaratadi.

1.2. Geymifikatsiyaning psixologik asoslari

Geymifikatsiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan inson psixologiyasi bilan bog‘liq. O‘yin elementlari insonning tabiiy qiziqishi, raqobat hissi va muvaffaqiyatga erishish istagini rag‘batlantiradi. Shu sababli geymifikatsiya psixologik motivatsiya mexanizmlariga asoslanadi.

Psixologiyada motivatsiya **ichki (intrinsic)** va **tashqi (extrinsic)** motivatsiyaga bo‘linadi. Ichki motivatsiya insonning qiziqishi, zavqi yoki shaxsiy ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya mukofot, baho yoki rag‘batlantirish kabi tashqi omillar orqali yuzaga keladi. Geymifikatsiya ushbu ikki turdagi motivatsiyani birgalikda qo‘llash imkonini beradi.

Masalan:

- ballar va mukofotlar tashqi motivatsiyani kuchaytiradi;
- qiziqarli topshiriqlar va o‘yin muhiti ichki motivatsiyani rivojlantiradi.

Bundan tashqari, geymifikatsiya **o‘zini o‘zi belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory)** bilan ham bog‘liq bo‘lib, u uchta asosiy psixologik ehtiyojni ta’kidlaydi:

1. **Avtonomiya** – insonning mustaqil qaror qabul qilish istagi;
2. **Kompetentlik** – o‘z qobiliyatini namoyish etish va rivojlantirish ehtiyoji;
3. **Ijtimoiy aloqadorlik** – boshqa insonlar bilan muloqot qilish va hamkorlik qilish ehtiyoji.

Geymifikatsiya ushbu ehtiyojlarni qondirish orqali foydalanuvchilarning faolligini oshiradi. Masalan, darajalar tizimi insonning kompetentlik hissini mustahkamlaydi, reytinglar esa raqobat va ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi. Shuningdek, geymifikatsiya **muvaffaqiyat hissi** va **tezkor fikr-mulohaza (feedback)** mexanizmlariga ham asoslanadi. O‘yin jarayonida foydalanuvchi o‘z natijasini darhol ko‘ra oladi, bu esa uning motivatsiyasini yanada oshiradi.

1.3. Ta’lim jarayonida geymifikatsiyaning ahamiyati

Ta’lim tizimida geymifikatsiya o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, faol ishtirokini ta’minlash hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. An’anaviy

ta’lim jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha passiv tinglovchi bo‘lsa, geymifikatsiya ularni faol ishtirokchiga aylantiradi.

Geymifikatsiya asosida tashkil etilgan darslar quyidagi afzalliklarga ega:

- o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi;
- o‘rganish jarayoni qiziqarli va interaktiv bo‘ladi;
- mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- jamoaviy hamkorlik kuchayadi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida geymifikatsiya innovatsion pedagogik texnologiyalardan biri sifatida qaralmoqda.

II. Metodik ishlanmalar: anatomiya, klinika va farmatsevtika

Xalqaro tajribalardan olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, millatlararo totuvlikni ta'minlash faqatgina axborot berish bilan cheklanib qolmayapti. Aksincha, bu jarayon shaxsning ijtimoiy, axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Pedagogik muhit, ta’lim texnologiyalari va tarbiyaviy faoliyat shakllari hamjamiyatdagi totuvlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi.

Pedagogik texnologiya nuqtai nazaridan interfaol usullar, masalan, debatlar, keys-stadi, simulyatsiyalar va rolli o‘yinlarning samaradorligi ta’kidlandi. Bunday uslublar o‘quvchilarga muloqot madaniyatini rivojlantirish, boshqa millat va din vakillariga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish, konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rgatishda yordam beradi.

Ta'lim tizimida madaniyatlararo kompetensiyalarni baholash masalasiga alohida e'tibor berildi. An'anaviy testlardan tashqari, kompetensiyaga asoslangan baholash modellarini taklif qilindi, bunda muloqot madaniyati, konfliktlarni yechish qobiliyatlari, boshqalarga nisbatan hurmat va hamkorlikda ishlash qobiliyati kabi ko‘rsatkichlar asos qilib olindi.

O‘quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanish jarayonida sinf rahbari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas'ul xodimlarning roli alohida ta'kidlandi. Ularning tegishli tayyorgarligiga ega bo‘lishlari va “millatlararo muloqat madaniyati” treninglarida ishtirok etishi talab qilinadi. Shuningdek, maktabda ommaviy tadbirlar, “madaniy xavfsizlik” tamoyillari asosida yaratilgan muhit va millatlararo totuvlik madaniyatini targ‘ib etuvchi tadbirlar o‘tkazilishi muhimligi qayd etildi.

Xorijiy ilmiy-metodik manbalar tahlili va O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi mavjud holatni qiyoslash natijasida o‘quvchilarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning bir necha muhim jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot davomida Portera (2025) va Grant (2011) tomonidan ilgari surilgan interkultural va multikultural yondashuvlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, multikulturalizm ko‘proq turli madaniyatlarning parallel yashashini (tinch-totuv, lekin alohida) ta’minlasa, interkulturalizm madaniyatlararo faol muloqot va umumiy ijtimoiy makon yaratishni ko‘zda tutadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida faqatgina "bag‘rikenglik" (tolerantlik) yetarli emas, balki o‘quvchilarda interkultural kompetensiya — ya’ni boshqa madaniyat vakili bilan umumiy maqsadlar yo‘lida hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirish zarurati aniqlandi.


Rader (2018) va Akkari (2022) asarlarida tavsiya etilgan interaktiv metodlarning o‘quvchilar dunyoqarashiga ta’siri tahlil qilinganda, quyidagi natijalar qayd etildi:

Rolli o‘yinlar va simulatsiyalar: O‘quvchilarda "etnik empatiya" darajasini oshiradi. O‘quvchi o‘zini boshqa millat vakili o‘rniga qo‘yib ko‘rish orqali yashirin stereotiplardan xalos bo‘ladi.

Media savodxonlik darslari: Ijtimoiy tarmoqlardagi milliy nizo qo‘zg‘atuvchi feyk xabarlarni farqlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Statistik tahlil: Ushbu metodlar qo‘llanilgan guruhlarda o‘zaro nizo darajasi an’anaviy dars o‘tiladigan guruhlarga nisbatan 25-30% ga kamayishi xalqaro tajribalarda isbotlangan.

Tahlillar natijasida o‘quvchining millatlararo totuvlik darajasini baholashning to‘rt komponentli modeli shakllantirildi:



Xorijiy manbalar (Akkari va Radhouane, 2022) o‘qituvchining shaxsiy bag‘rikengligi darslik mazmunidan ko‘ra muhimroq ekanini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agar pedagog yashirin stereotiplarga ega bo‘lsa, u beixtiyor o‘quvchilarda ham "biz va ular" degan ajratish tuyg‘usini shakllantiradi. O‘zbekiston pedagogika institutlari o‘quv dasturlariga "Madaniyatlararo pedagogika" modulini kiritish zarurati ilmiy asoslandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, milliy va global ilmiy yutuqlar asosida uyg‘unlashgan tarbiya modeli orqali o‘quvchilarda millatlararo hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlik fazilatlari shakllanadi, bu esa kelajakda sog‘lom, barqaror va totuv jamiyat – Yangi O‘zbekistonning mustahkam ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy poydevorini yaratadi.

Integratsiyalashgan yondashuv: Millatlararo totuvlik tarbiyasi faqat "Tarbiya" fani bilan cheklanib qolmasdan, adabiyot, tarix, musiqa va chet tili darslarining mazmuniga (cross-curricular approach) singdirilishi kerak.

Yashirin o‘quv dasturi (Hidden Curriculum): Maktabning umumiy muhiti, devoriy gazetalar, bayram tadbirlari va hatto tanaffusdagi muloqotlar ham millatlararo totuvlik g‘oyasiga xizmat qilishi shart.

Raqamli platformalar: O‘quvchilar uchun "Do‘stlik ko‘priklari" nomli virtual platformalar yaratish, u yerda turli millat vakillari bo‘lgan tengdoshlari bilan qo‘shma loyihalar ustida ishlash imkonini berish.

Maqolada keltirilgan xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston sharoiti uchun **"Maktab — Oila — Mahalla"** zanjiri doirasida millatlararo totuvlikni monitoring qilishning sotsio-pedagogik kartasini joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent. «O’zbekiston» nashriyoti, 2021. 312-bet.

2. Portera A., Trevisan M., Milani M., eds. Intercultural Education, Curriculum Development, Assessment and Teaching: Global Perspectives. London: Routledge, 2025. 368 p. ISBN 978-0-367-
3. Grant C.A., Portera A., eds. Intercultural and Multicultural Education: Enhancing Global Interconnectedness. London; New York: Routledge, 2011. 412 p. ISBN 978-0-415
4. Rader D. Teaching and Learning for Intercultural Understanding: Engaging Young Hearts and Minds. London: Routledge, 2018. 256 p. ISBN 978-1-138-
5. Akkari A., Radhouane M. Intercultural Approaches to Education: From Theory to Practice. Cham: Springer, 2022. 310 p. ISBN 978-3-030-

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK 371.014.23:316.6

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINI MILLATLARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASh: ARTPEDAGOGIK DISKURS

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.021

Boltayev Baxtiyor Rustamovich (PhD)
Ish joyi: Samarqand davlat pedagogika instituti
Lavozimi: dotsent
Manzil: Samarqand shahri, Spitamen shoh ko’chasi, 166
Mail: bboltayev060@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-9148-8634

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari yoritiladi. Millatlararo bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirishning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarda turli millat va madaniyat vakillariga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar, tarbiyaviy usullar hamda amaliy yondashuvlar taklif etilgan. Maqolada millatlararo totuvlik tarbiyasini tashkil etishda sinf rahbari, maktab ma’muriyati, ota-ona va mahalla hamkorligining o‘rni alohida ta’kidlanadi. Xulosa qismida maktab muhitida ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlash uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda tarbiya ishlarini tizimli tashkil etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, multikulturalizm, ijtimoiy hamjihatlik, o‘zaro hurmat, milliy qadriyatlar, tarbiya texnologiyalari, maktab muhiti, pedagogik hamkorlik, fuqarolik madaniyati.

Abstract. This article examines the pedagogical foundations of educating school students in the spirit of interethnic harmony within the general secondary education system. The scientific and theoretical significance of forming tolerance, mutual respect, and social cohesion in the educational process is analyzed. The study proposes pedagogical mechanisms, educational methods, and practical approaches aimed at developing students’ positive attitudes toward representatives of different nations and cultures. Special attention is given to the role of cooperation between class teachers, school administration, parents, and local communities in promoting interethnic harmony. The conclusion emphasizes the necessity of systematically organizing educational activities based on the integration of national and universal human values to ensure social stability, unity, and harmony in the school environment.

Keywords: interethnic harmony, tolerance, multiculturalism, social cohesion, mutual respect, national values, educational technologies, school environment, pedagogical cooperation, civic culture.

KIRISH. Bugungi kunda jahon miqyosida yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq dolzarb muammolar qatorida millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, jamiyatda bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik madaniyatini shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoev «Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, turli diniy konfessiyalar uchun teng va qulay sharoit yaratishga qaratilgan siyosat bundan buyon ham izchil davom ettiriladi», deya alohida ta’kidlaydi[9].[1, 312-b.].

Globallashuv sharoitida axborot maydonining keskin kengayishi, internet tarmoqlari orqali turli g‘oyalar va madaniy ta’sirlarning tez tarqalishi ayrim hollarda yoshlarda noto‘g‘ri tasavvurlar, stereotip fikrlar va millatlararo munosabatlarga salbiy ta’sir qiluvchi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli maktab ta’limi tizimida o‘quvchilarni millatlararo totuvlik, o‘zaro hurmat va tinchlik ruhida tarbiyalash pedagogik jihatdan dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga millatlararo munosabat madaniyatini singdirish, ularda boshqa millatlarga nisbatan hurmat va bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirishni strategik ahamiyatga ega tarbiyaviy vazifaga aylantiradi. Millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, avvalo, o‘quvchilarda “Biz bir mamlakat farzandlarimiz”, “Barchamiz yagona Vatan — O‘zbekiston uchun mas’ulmiz” degan fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirishni taqozo etadi.

Maktab o‘quvchilarini millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayoni tasodifiy yoki epizodik tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayon tizimli, rejali va artpedagogik texnologiya sifatida tashkil etilgandagina samara beradi. Chunki millatlararo munosabat madaniyati oddiy bilim emas, balki o‘quvchining ongi, his-tuyg‘usi va xulq-atvorida shakllanadigan ma’naviy-axloqiy sifatlar majmuasidir. Demak, bu jarayonni tashkil etishda bilim berish bilan bir qatorda, o‘quvchilarni amaliy muloqot muhitiga kiritish, ijtimoiy hamkorlik va jamoaviy faoliyatga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya masalalarida shaxs kamolotini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida shakllantirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan [2, 45-b.]. Oila institutining ma’naviy tarbiyadagi o‘rni va bag‘rikenglikni shakllantirishdagi ahamiyati ham alohida ta’kidlanadi [3, 78-b.].

Maktabda millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning muhim artpedagogik asoslaridan biri — milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishdir. O‘quvchilar o‘z millati tarixi, urf-odatlari, madaniy merosi bilan faxrlanishi bilan birga, boshqa millatlarning ham qadriyatlariga hurmat bilan qarashni o‘rganishi kerak. Bu esa o‘quvchilarda millatchilik, tor fikrlash, etnik ustunlik kabi salbiy qarashlarning oldini

[9] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент. «O’zbekiston» нашриёти, 2021. 312-бет.

oladi. Aksincha, ularda insonparvarlik, bag‘rikenglik, hamjihatlik va do‘stlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

M.Quronovning Milliy tarbiya nomli asarida milliy tarbiya faqat o‘z millatini sevish emas, balki boshqa millat va elatlarga hurmat ruhini ham shakllantirishi lozim diyiladi. Uning fikricha, haqiqiy vatanparvarlik millatlararo hamjihatlik bilan uyg‘un bo‘lgandagina barqaror bo‘ladi. [2, 45-b.]

Shuningdek asarda O‘zbekiston kabi ko‘pmillatli mamlakatda tinchlik va taraqqiyot millatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hurmatga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Muallif yoshlarda «biz» tuyg‘usini shakllantirishni muhim deb biladi.[2,62-b.]

Maktab va oila tarbiyasida turli xalqlar madaniyati, urf-odatlari haqida bilim berish orqali bag‘rikenglikni kuchaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu — millatlararo totuvlikni ta’minlashning pedagogik sharti sifatida baholanadi. [2, 88-b.]

Muallif milliy o‘zlikni anglash boshqa millatlarni kamsitishga olib kelmasligi kerakligini uqtiradi. Aksincha, milliy g‘urur umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitilganda jamiyatda totuvlik mustahkamlanadi. [2, 101-b.]

Pedagogika fanlari doktori Oynisa Musurmanovaning “Oila – jamiyat tayanchi”nomli monografiyasida quyidagi fikrlarni bildiradi “Oilada farzandlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash – bu avvalo o‘z xalqi tarixini, madaniyatini sevish bilan birga, yon-atrofda yashayotgan boshqa millat vakillarining ham urf-odatlari, tili va diniga nisbatan yuksak hurmat munosabatini shakllantirish demakdir.” [3, 42-b.]


“O‘zbek oilalariga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik va andisha kabi xislatlar millatlararo totuvlikni ta’minlovchi ma’naviy poydevordir. Zero, oilada o‘zga millat vakillariga nisbatan adovat emas, balki samimiyat va insoniylik ko‘rgan bola jamiyatda ham tolerant shaxs sifatida kamol topadi.” [3, 68-b.]

“Millatlararo totuvlik – jamiyat barqarorligining kafolatidir. Ushbu tuyg‘uni shakllantirishda oilaviy muhitning o‘rni beqiyos bo‘lib, u yosh avlod ongiga tinchlikning oliy ne’mat ekanligini singdirish orqali amalga oshiriladi.” [3, 114-b.]

T. Matibaevning “Ijtimoiy hamkorlik – millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlash vositasi” nomli kitobda ijtimoiy hamkorlikni shunchaki guruhlar o‘rtasidagi aloqa emas, balki davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi tizimli muloqot sifatida talqin qiladi. Kitobda jamiyatdagi turli qatlamlarning bir maqsad — tinchlik va taraqqiyot yo‘lida birlashishi ijtimoiy barqarorlikning bosh omili ekanligi asoslab berilgan.

Asarda O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashning huquqiy va ma’naviy asoslari tahlil qilinadi. Matibaev milliy o‘zlikni anglash boshqa millatlarni kamsitish emas, balki ularning madaniyatiga hurmat bilan qarash orqali rivojlanishini ta’kidlaydi.

Kitobning muhim qismi diniy bag‘rikenglik masalasiga qaratilgan. Muallif quyidagilarni tahlil qiladi:



M.Ganieva tadqiqotlarida millatlararo totuvlikni ta'minlashda jamoatchilik fikrini o'rganish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Sotsiologik so'rovlar natijasida aholining turli millat vakillari bilan yonma-yon yashashga bo'lgan ijobiy munosabati jamiyatdagi integratsiyalashuv darajasini ko'rsatadi.

"O‘zbekistonda jamoatchilik fikri millatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini oluvchi muhim ma’naviy-psixologik omil bo‘lib xizmat qiladi." [5, 12-b.]

Shuningdek Tadqiqotlar jarayonida millatlararo totuvlikning sotsiologik qirrasi sifatida aholining kundalik turmushdagi (ish joyida, mahallada, do'stlik aloqalarida) bag'rikenglik darajasi tahlil qilinadi. Bu jarayonda milliy markazlarning sotsiomadaniy roli yuqori baholanadi.

"Turli millat vakillari o‘rtasidagi ijtimoiy masofaning yaqinligi va o‘zaro ishonch ko‘rsatkichlari mamlakatdagi barqaror taraqqiyotning sotsiologik poydevorini tashkil etadi." [5, 18-b.]

Ganiyeva millatlararo munosabatlarni boshqarishda sotsiologik monitoring tizimini joriy etish zarurligini asoslab beradi. Bu tizim jamiyatdagi kayfiyatni va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavflarni barvaqt aniqlashga yordam beradi.

"Millatlararo totuvlik g‘oyalarini jamiyat ongiga singdirishda sotsiologik tahlillarga asoslangan maqsadli dasturlarni amalga oshirish milliy xavfsizlikning muhim shartidir." [5, 22-b.]

Mazkur tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayonini artpedagogik diskurs doirasida o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, madaniyatlararo muloqot, kompetensiyaviy yondashuv hamda artpedagogikaning integrativ tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy o‘rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish. Ushbu metodlar orqali millatlararo totuvlik tushunchasining mazmuni, artpedagogikaning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi ochib berildi.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, suhbat, testlash va pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Kuzatuv metodi orqali o‘quvchilarning turli millat vakillariga nisbatan munosabati, jamoada hamkorlik ko‘nikmalari va bag‘rikenglik darajasi aniqlashtirildi. So‘rovnoma va suhbatlar yordamida o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda ota-onalarning millatlararo totuvlik haqidagi qarashlari o‘rganildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari. Aniqlovchi bosqichda o‘quvchilarning millatlararo bag‘rikenglik darajasi diagnostika mezonlari asosida baholandi. Shakllantiruvchi bosqichda musiqa, tasviriy san’at, drama va integrativ ijodiy mashg‘ulotlar asosida ishlab chiqilgan artpedagogik mashg‘ulotlar tizimi amaliyotga joriy etildi. Nazorat bosqichida esa tajriba samaradorligi statistik tahlil asosida aniqlanib, dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar qiyoslandi.

Natijalarni qayta ishlashda miqdoriy va sifat tahlili, foizli taqqoslash, diagramma va jadval usullaridan foydalanildi. Baholash mezonlari sifatida kognitiv (bilim), emotsional-qadriyatli (munosabat) va xulq-atvor (amaliy ko‘nikma) komponentlari belgilandi.

Tanlangan metodologiya o‘quvchilarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda artpedagogik yondashuvning samaradorligini kompleks ravishda baholash va ilmiy asoslash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda masalaning dolzarbligi yangi sharoitda, yangi - Z avlodni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash borasida tobora oshib bormoqda.

Millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda maktabdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ayniqsa, madaniy-ma’rifiy tadbirlar alohida o‘rin tutadi. Chunki madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilarning faqat aqliy tafakkuriga emas, balki ularning his-tuyg‘usiga ham ta’sir qiladi. Hissiy ta’sir orqali esa qadriyatlar ongda mustahkam o‘rnashadi va xulq-atvorga aylanadi. Shu sababli “Xalqlar do‘stligi kuni”, “Millatlar madaniyati festivali”, “Do‘stlik bayrami”, “O‘zbekiston — umumiy uyimiz” kabi mavzuli tadbirlarni maktab hayotiga tizimli ravishda kiritish zarur.

Bu tadbirlar doirasida turli millatlarning milliy qo‘shiqlari, raqslari, xalq og‘zaki ijodi, milliy taomlari, hunarmandchilik an’analari namoyish qilinishi o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, ularning madaniy dunyoqarashini kengaytiradi. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘zlari sahna ko‘rinishlarida ishtirok etishi, turli millat qahramonlarini ijro etishi, milliy liboslar bilan chiqish qilishi millatlararo muloqot madaniyatini amaliyotda his qilishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarda “boshqalarga hurmat qilish — o‘zingni hurmat qilishdir” degan ma’naviy xulosani shakllantiradi.

Maktab o‘quvchilarini millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda artpedagogik resurslar, ya’ni adabiyot va san’at vositalarining tarbiyaviy imkoniyatlari juda kattadir. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar turli millat vakillarining hayoti, urf-odatlari, ma’naviy dunyosi bilan

tanishadi. Qahramonlar taqdiri orqali insonparvarlik, adolat, hamdardlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni anglab yetadi. Masalan, xalqlar do‘stligi, tinchlik va hamjihatlik mavzusidagi she’rlar, hikoyalar, romanlar va sahna asarlari o‘quvchilarning ma’naviy dunyosiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Musiqa va tasviriy san’at ham millatlararo totuvlik ruhini tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Turli xalqlar musiqasi bilan tanishish, milliy cholg‘u asboblari haqida ma’lumot olish, rassomlik ko‘rgazmalari orqali xalqlar hayotini tasvirlaydigan asarlarni tahlil qilish o‘quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantiradi va ularda madaniyatlararo hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi. Teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari esa o‘quvchilarda jamoaviylik, hamkorlik va ijtimoiy his qilish qobiliyatini shakllantirib, millatlararo munosabatlarda muhim bo‘lgan muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Maktab ta’lim muassasalarida millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash samaradorligi ko‘p jihatdan pedagog kadrlar va sinf rahbarlarining tarbiyaviy kompetensiyalariga bog‘liq. O‘qituvchi va tarbiyachi o‘zining nutqi, munosabati, muloqot uslubi va shaxsiy namunasi bilan o‘quvchilar uchun axloqiy etalon vazifasini bajaradi. Shu sababli pedagog kadrlarda millatlararo muloqot madaniyatiga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni tarbiyaviy tadbirlarni innovatsion va interaktiv usullar asosida tashkil etishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy hamkorlik millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlashning muhim mexanizmi sifatida talqin etiladi [4, 156-b.]. Jamiyatdagi ijtimoiy fikr va ommaviy qarashlar esa millatlararo munosabatlar rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi [5, 112-b.].

Millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayonida “Oila — mahalla — maktab” hamkorligi alohida o‘rin tutadi. Chunki o‘quvchi faqat maktabda emas, balki oilada, mahallada, ko‘cha muhitida ham tarbiyalanadi. Agar maktabda bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyasi targ‘ib qilinsa, ammo oilada yoki atrof-muhitda boshqa millatlarga nisbatan salbiy munosabat shakllansa, tarbiya samarasi susayadi. Shu sababli maktab rahbariyati, sinf rahbarlari, mahalla faollari va ota-onalar o‘rtasida milliy totuvlik g‘oyasini mustahkamlashga qaratilgan ma’rifiy hamkorlik ishlari yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayoni milliy tarbiya konsepsiyasi va ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida tashkil etilganda yuqori samara beradi [2; 4].

Maktab o‘quvchilarini millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda debat, munozara, rolli o‘yinlar, keys texnologiyasi va simulyatsiya kabi interaktiv usullardan foydalanish ham yuqori samara beradi. Masalan, o‘quvchilarga “Inson qadri nima?”, “Do‘stlikning ma’naviy asoslari” kabi mavzularda ijtimoiy vaziyatlar asosida muhokama tashkil etish ularda mustaqil fikrlash, tolerantlik, muloqot madaniyati va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, maktab o‘quvchilarini millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan artpedagogik tarbiyaviy yo‘nalish hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi madaniy-ma’rifiy tadbirlarning tizimli tashkil etilishi, pedagogik texnologiya sifatida rejalashtirilishi, interaktiv usullar bilan boyitilishi va natija indikatorlari asosida

baholanishiga bog‘liqdir. Millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalangan o‘quvchi kelajakda fuqarolik jamiyatini mustahkamlovchi, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlovchi ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

Shu ma’noda, maktabda millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning artpedagogik diskursini ilmiy o‘rganish va kuchaytirish, uni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish va ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish kelajak avlodning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va mamlakat barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalasining ayrim artpedagogik qirralari tahlil qilindi. Millatlararo bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va madaniy hamjihatlikni shakllantirish jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim tarbiyaviy omil ekanligi asoslab berildi.

Shuningdek, millatlararo totuvlik tarbiyasi samaradorligi sinf rahbari, fan o‘qituvchilari, maktab ma’muriyati, ota-onalar va mahalla hamkorligiga bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgan taqdirda o‘quvchilarda turli millat va madaniyat vakillariga nisbatan ijobiy munosabat, bag‘rikenglik va tinchlikparvarlik ruhi mustahkamlanadi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

- Har bir sinf uchun yillik tarbiya rejasida “bag‘rikenglik”, “madaniy xilma-xillik”, “o‘zaro hurmat” mavzulariga alohida fakultativ modul ajratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, millatlararo munosabatlarni shakllantirishda artpedagogik debat, rolli o‘yinlar, keys-stadi, treninglar va jamoaviy loyihalar samarali natija beradi.
- Maktablarda “Do‘stlik haftaligi”, “Millatlar festivali”, “Birlik kuni” kabi tadbirlar o‘quvchilarda hamjihatlik ruhini oshiradi. Shuningdek, tarix, adabiyot, tarbiya, geografiya, musiqa kabi fanlarda turli xalqlarning madaniy merosi haqida ma’lumotlar berish millatlararo hurmatni mustahkamlaydi.
- Ota-onalar yig‘ilishlarida “Oilada bag‘rikenglik tarbiyasi” mavzusida ma’ruzalar, muloqotlar va psixologik maslahatlar tashkil etish taklif etiladi. Maktab psixologi va Tarbiya o‘qituvchilari ishtirokida mediativ mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘quvchilarga murosa madaniyatini o‘rgatish muhim hisoblanadi. Shuningdek, videoroliklar, hujjatli filmlar, ma’naviy tarbiyaviy roliklar va ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot materiallari orqali o‘quvchilarda ijobiy fikrlashni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent. «O’zbekiston» nashriyoti, 2021. 312-bet.

2. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. «MA’NAVIYaT» 2007;

3. Musurmanova O. Oila – jamiyat tayanchi. Monografiya. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019 y. – 252 b.

4. Matibaev T. Ijtimoiy hamkorlik – millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlash vositasi. – Toshkent: Yangi kitob, 2016. – B. 156.;

5. Ganieva M.X., Общestvennoe mnenie kak faktor razvitiya mejnatsionalnых otnoщeniy v Uzbekistane./dis.d-ra sotsiol.nauk. T., UzMU, 2010.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA 4K KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.022

Doniyorova Dildora Nuritdin qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi
Pedagogika kafedrasi stajyor o‘qituvchi
ddoniyorova42@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bo‘lajak pedagoglarini kasbiy tayyorlash jarayonida zamonaviy 4K modeli (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya va kommunikatsiya) komponentlarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari hamda ularning talabalarning kognitiv va amaliy faoliyatiga ta’siri o‘rganilgan. Maqolada raqamli didaktika sharoitida talabalarning loyihaviy faoliyatini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: 4K modeli, maktabgacha ta’lim , multimedia texnologiyalari, raqamli didaktika, kasbiy kompetensiya, kreativ yondashuv, kollaborativ ta’lim, bo‘lajak tarbiyachi.

Abstract. This research analyzes the issues of developing the modern 4C model components (critical thinking, creativity, collaboration, and communication) in the process of professional training of future preschool educators. The didactic potential of multimedia technologies and their impact on the cognitive and practical activities of students are studied as the main object of the research. The article provides methodological recommendations for organizing student project-based activities within the framework of digital didactics.

Keywords: 4C model, preschool education, multimedia technologies, digital didactics, professional competence, creative approach, collaborative learning, future educator.

Аннотация:В данной статье анализируются вопросы формирования компонентов современной модели «4К» (критическое мышление, креативность, коллаборация и коммуникация) в процессе профессиональной подготовки будущих педагогов дошкольных образовательных организаций. В качестве объекта исследования изучены дидактические возможности мультимедийных технологий и их влияние на когнитивную и практическую деятельность студентов. В статье представлены методические рекомендации по организации проектной деятельности студентов в условиях цифровой дидактики.

Ключевые слова: модель 4К, дошкольное образование, мультимедийные технологии, цифровая дидактика, профессиональная компетенция, креативный подход, коллаборативное обучение, будущий воспитатель.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli transformatsiya va globallashuv davrida maktabgacha ta’lim tizimi tub islohotlar markazida turibdi. Zamonaviy pedagogika oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirgan, balki murakkab professional muhitda moslashuvchan, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qila oladigan va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir. Xususan, **“**Alfa avlodi**”** (2010-yildan keyin tug‘ilgan, tug‘ilganidan boshlab smart texnologiyalar va sun’iy intellekt qurshovida o‘sayotgan bolalar) bilan muloqotga kirishish bo‘lajak tarbiyachilardan mutlaqo yangicha pedagogik tafakkurni talab etadi. Ushbu avlod vakillari axborotni vizual va interaktiv shaklda qabul qilishga moyil bo‘lgani sababli, tarbiyachining an’anaviy “ma’ruzachi”lik roli o‘z ahamiyatini yo‘qotib, fasilitator (yo‘naltiruvchi) va “moderator”lik roliga almashmoqda. Ushbu transformatsiyaning zarurligi K.Robinson [1] va J.Bellanka [2] tadqiqotlarida ta’limni kreativlashtirishning asosi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, multimedia vositalarini (R.Mayer nazariyasiga asoslangan audio-vizual materiallar [3], Virtual borliq (Virtual Reality), Kengaytirilgan borliq (Augmented Reality) elementlari) o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabaning kognitiv faolligini oshiradi. B.Blum taksonomiyasining zamonaviy interpretatsiyasida multimedia orqali “Yaratish” (Creating) darajasiga chiqish eng yuqori natija hisoblanib [4], bu 4K modelining har bir komponentini amaliyotda mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, jahon ta’lim tajribasida keng e’tirof etilgan 4K modeli (Kritik fikrlash, Kreativlik, Kollaboratsiya va Kommunikatsiya) bo‘lajak tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Biroq, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan aksariyat an’anaviy metodlar talabalarda ushbu ko‘nikmalarni kompleks rivojlantirishda yetarli samaradorlikni ko‘rsatmayapti. Shu sababli, multimedia vositalarini (interaktiv o‘yinlar, audio-vizual materiallar, Virtual borliq (Virtual Reality), Kengaytirilgan borliq (Augmented Reality) elementlari va raqamli platformalar) o‘quv jarayoniga shunchaki ko‘rgazmali qurol sifatida emas, balki didaktik transformatsiya quroli sifatida integratsiya qilish zarurati tug‘iladi. Multimedia vositalari talabaning kognitiv faolligini oshirish bilan birga, ularni real pedagogik vaziyatlarning raqamli modellarini tahlil qilishga va ijodiy yechimlar yaratishga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-faoliyatli yondashuv hamda kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari tanlab olindi. Tadqiqot jarayoni oliy ta’limning didaktik muhitida 4K ko‘nikmalarini shakllantirishning obyektiv qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u quyidagi uchta mantiqiy bosqichda amalga oshirildi:

1. Diagnostik-prognostik bosqich. Ushbu bosqichda talabalarning boshlang‘ich professional tayyorgarlik darajasi va raqamli savodxonligi tahlil qilindi.

- Metodlar: So‘rovnomalar, test sinovlari va amaliy keyslar.
- Vazifa: Talabalarning multimedia vositalari (Canva, Quiver, Learning Apps, Story Jumper) bilan ishlash bo‘yicha bazaviy ko‘nikmalari hamda 4K modelining har bir komponenti bo‘yicha subyektiv tushunchalari diagnostika qilindi. Olingan ma’lumotlar eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

2. Eksperimental-formativ (shakllantiruvchi) bosqich. Ushbu bosqichda o‘quv jarayoniga maxsus ishlab chiqilgan “4K-Multimedia” integratsiyalashgan ta’lim modeli joriy etildi.

✓ Mazmuni: An’anaviy ma’ruzalar o‘rniga “Project-based learning” (Loyihaviy ta’lim) va “Flipped classroom” (Teskari o‘qitish modeli) texnologiyalari qo‘llanildi.

✓ Amaliyot: Talabalar “Raqamli hikoyachilik” (Digital Storytelling) orqali mustaqil ssenariylar yaratishdi va bulutli texnologiyalar (Google Workspace, Miro) yordamida “Virtual bog‘cha” modellarini ishlab chiqishdi. Bu bosqichda pedagogning roli faol instruktordan maslahat beruvchi kouch (coach) darajasiga transformatsiya qilindi.

3. Analitik-umumlashtiruvchi bosqich. Eksperiment yakunida olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilindi. Metodlar: Matematik-statistik tahlil (Styudent t-kriteriyasi), pedagogik kuzatuv va portfoliolar baholash. 4K ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi maxsus ishlab chiqilgan 4 darajali (past, o‘rta, yetarli, yuqori) indikatorlar tizimi asosida tekshirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari 4K ko‘nikmalarini rivojlantirishda shunchaki “yordamchi” emas, balki “katalizator” vazifasini bajaradi. Quyidagi jadvalda ushbu jarayonning metodik zanjiri va erishilgan natijalar batafsil keltirilgan:

4K ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik matritsasi

Komponent	**Didaktik instrument va metod**	**Pedagogik natija va transformatsiya**
Kritik fikrlash	"Raqamli ekspertiza": Tayyor media-mahsulotlarni pedagogik audit qilish.	Talabalarda axborot oqimidagi psixologik xatolar va pedagogik nomuvofiqliklarni aniqlash, kontentni bolalar yoshiga moslash mahorati shakllandi.
Kreativlik	"Digital Storytelling": Multimedia ssenariylari asosida animatsion didaktik o‘yinlar yaratish.	Standart ishlanmalardan voz kechilib, mualliflik yondashuvi paydo bo‘ldi; talabalar vizual metamodel va metaforalar bilan ishlashni o‘rgandilar.
Kollaboratsiya	"Virtual loyiha boshqaruvi": Jamoaviy platformalarda rollar taqsimoti asosida ishlash.	Guruhda o‘zaro yordam, jamoaviy mas’uliyat va virtual muhitda konstruktiv hamkorlik qilish madaniyati yuksaldi.
Kommunikatsiya	"Interaktiv prezentatsiya": O‘z loyihalarini multimedia formatida himoya qilish.	Murakkab g‘oyalarni vizual vositalar (infografika, video) orqali sodda va ishonarli yetkazish, auditoriya bilan qayta aloqa o‘rnatish qobiliyati rivojlandi.

Statistik va sifat tahlili. Eksperiment yakunida talabalarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 22-25% ga yuqori ekanligi aniqlandi. Ayniqsa,

Kreativlik va Kollaboratsiya ko‘rsatkichlari eng yuqori dinamikani ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim paradigma shuki, multimedia muhiti talabani passiv retsipientdan (axborot qabul qiluvchi) faol produserga (kontent yaratuvchi) aylantiradi. Bu jarayon Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari - “Tahlil”, “Baholash” va “Yaratish” bosqichlarining avtomatik tarzda ishga tushishini ta’minlaydi. Natijada, nazariy bilimlar shunchaki yod olingan axborot sifatida qolmasdan, real professional faoliyatda qo‘llaniladigan amaliy kompetensiyalarga (skills) aylandi. Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarni zamonaviy mehnat bozorida yuqori adaptivlik darajasiga ega bo‘lishlarini kafolatlaydi. Tadqiqot jarayonida Canva kabi multimedia platformalarining integratsiyalashuvi shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki kognitiv vizuallashtirish (cognitive visualization) jarayonini jadallashtiruvchi omil ekanligi isbotlandi. Nazariy bilimlarni vizuallashtirish tezligining 45% ga oshishi talabalarning axborotni qabul qilish, saralash va uni semantik (ma’noviy) bloklarga ajratish mahorati oshganligidan dalolat beradi.

1. Abstrakt tushunchalarni vizual modellashtirish. Pedagogik nazariyalar, xususan, “tarbiyaviy metodlar iyerarxiyasi” yoki “shaxs rivojlanishi bosqichlari” kabi murakkab va abstrakt tushunchalar an’anaviy matnli bayonda talabalar tomonidan passiv o‘zlashtiriladi. Canva platformasidagi grafik organayzerlar, aqlli xaritalar (mind-maps) va infografik elementlar talabalarga ushbu tushunchalarni mantiqiy iyerarxiya ko‘rinishida modellashtirish imkonini berdi. Bu jarayonda talaba:

- ✓ Axborotning mohiyatini ajratadi;
- ✓ Komponentlar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatadi;
- ✓ Ma’lumotni auditoriya (ota-onalar, hamkasblar) uchun didaktik soddalashtiradi .

2. Vizual kommunikatsiya mahorati. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislar uchun vizual kommunikatsiya - bu nafaqat chiroyli dizayn yaratish, balki pedagogik g‘oyani vizual dalillar bilan isbotlash san’atidir. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, multimedia vositalari bilan ishlash jarayonida talabalarda quyidagi professional kompetensiyalar transformatsiya bo‘ldi:

✓ Ma’lumotlar dizayni (Data Design): Murakkab pedagogik statistikani (masalan, bolalar rivojlanish dinamikasi) tushunarli diagrammalar ko‘rinishida taqdim etish.

✓ Adaptivlik: Professional axborotni turli auditoriyalar (ilmiy hamjamiyat uchun murakkab, ota-onalar uchun sodda va ta’sirchan) ehtiyojlariga moslab vizuallashtirish.

3. Metodik samaradorlik va kognitiv yuklama. An’anaviy o‘qitish metodlarida talabaning kognitiv resurslari matnni yod olishga sarflansa, multimedia muhitida bu resurslar ijodiy sintezga yo‘naltiriladi. Mazkur yondashuv talabalarning nafaqat AKT-savodxonligini, balki ularning 4K modeli doirasidagi “Kreativlik” va “Kommunikatsiya” ko‘rsatkichlarini ham o‘zaro bog‘liqlikda (synergetic effect) rivojlanishini ta’minladi.

Natijada, bo‘lajak pedagoglar o‘z loyihalarini himoya qilishda faqat nutqqa tayanmasdan, multimedia kontenti orqali argumentlash texnikasini egalladilar. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida yuqori adaptivlik darajasiga ega bo‘lgan "raqamli pedagog" portretini shakllantirishning asosiy omilidir.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar va eksperimental natijalar shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalari bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini modernizatsiya

qilishda strategik ahamiyatga ega. Multimedia vositalari orqali 4K ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni talabani ta’limning passiv obyektidan loyihaviy-tadqiqotchi subyektiga aylantiradi. Tadqiqot yakunida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi: Multimedia vositalari (interaktiv topshiriqlar, raqamli keyslar) talabalarda axborotni tanqidiy tahlil qilish (Kritik fikrlash) hamda mavjud muammolarga nostandart, texnologik yechimlar topish (Kreativlik) ko‘nikmalarini barqarorlashtiradi. Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarga kelajakda “Alfa avlodi’’ uchun yuqori sifatli, rivojlantiruvchi raqamli kontent yaratish imkonini beradi. Bulutli texnologiyalar va jamoaviy multimedia loyihalari ustida ishlash talabalarda virtual muhitda hamkorlik qilish (Kollaboratsiya) va o‘z g‘oyalarini multimedia elementlari orqali professional tarzda yetkazib berish (Kommunikatsiya) madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, multimedia vositalarining ta’limiy samaradorligi ularning miqdori bilan emas, balki aniq pedagogik maqsad va 4K modelining har bir komponentiga yo‘naltirilgan metodik mazmuni bilan belgilanishi isbotlandi. Binobarin, ushbu innovatsion yondashuvni oliy ta’lim amaliyotiga tizimli tatbiq etish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy adaptivligini oshirish bilan bir qatorda, maktabgacha ta’lim mazmunini raqamli transformatsiya qilishning fundamental asosi bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, 4K modelining multimedia texnologiyalari bilan uyg‘unlashuvi nafaqat talabalarning o‘quv faoliyatini jonlantiradi, balki maktabgacha ta’lim tizimi uchun global mehnat bozorida raqobatbardosh, texnologik jihatdan ilg‘or va kreativ fikrlovchi yangi avlod pedagog kadrlarini tayyorlashning eng samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, 4K ko‘nikmalari va multimedia vositalarining integratsiyasi bo‘lajak pedagoglarni shunchaki axborot yetkazuvchi mutaxassisdan, raqamli ta’lim muhitida innovatsion g‘oyalar generatori va texnologik yechimlar me’moriga aylantirishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives.*

2. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning.* Cambridge University Press.

3. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times.* John Wiley & Sons.

4. Bellanca, J., & Brandt, R. (2010). *21st Century Skills: Rethinking How Students Learn.* Solution Tree Press

5. Robinson, K., & Aronica, L. (2015). *Creative Schools: The Grassroots Revolution That’s Transforming Education.* Penguin Books.

6. F.M Zakirova, DU Qarshieva Quest for pedagogical technology and its use in education systems // International Journal on Integrated Education, Research Parks Publishing- 2020/5, 12-16.

7. Boboev, S. (2021). Ta’limda 4K modelining ahamiyati . Toshkent: Fan va texnika, 89-95 betlar.

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda steam ta'lim texnologiyasidan foydalanish B.M. Raxmatillayevna - Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2024

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LG‘USI MUSIQA O‘QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.023

Qobilova E’zozxon Bakirovna
Qo‘qon davlat universiteti professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Identitet tushunchasining psixologik va pedagogik talqinlari yoritilib, musiqa ta’limi jarayonida kasbiy o‘zlikni shakllantirish omillari, mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlari asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim konsepsiyalari asosida kasbiy identitetni rivojlantirishning metodik yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy identitet, pedagogik identitet, musiqa ta’limi, professional o‘zlik, kompetensiya, refleksiya, pedagogik faoliyat, kasbiy o‘zlik,kreativlik, ilmiy-nazariy tahlil, pedagog shaxsi, musiqiy ta’lim ,ma’naviyat.

Abstract. This article analyzes the scientific-theoretical foundations of the formation of professional-pedagogical identity in future music teachers. The psychological and pedagogical interpretations of the concept of identity are explored, and the factors, mechanisms, and pedagogical conditions for developing professional selfhood in the music education process are substantiated. In addition, methodological approaches to developing professional identity based on modern educational concepts are outlined.

Keywords: professional identity, pedagogical identity, music education, professional selfhood, competence, reflection, pedagogical activity, professional self-concept, creativity, scientific-theoretical analysis, pedagogical personality, music teaching, morality.

Аннотация.В данной статье анализируются научно-теоретические основы формирования профессионально-педагогической идентичности у будущих учителей музыки. Рассматриваются психологические и педагогические интерпретации понятия идентичности, обосновываются факторы, механизмы и педагогические условия формирования профессионального «я» в процессе музыкального образования. Кроме того, описываются методические направления развития профессиональной идентичности на основе современных образовательных концепций.

Ключевые слова: профессиональная идентичность, педагогическая идентичность,музыкальное образование, профессиональное «я», компетенция, рефлексия, педагогическая деятельность, профессиональное самосознание, креативность, научно-теоретический анализ, педагогическая личность, преподавание музыки, духовность.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan talablar ortib borayotgan sharoitda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda barqaror kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, musiqa o‘qituvchisi faoliyati ijodiylik, estetik tafakkur va emotsional ta’sirchanlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli uning kasbiy o‘zligini shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayondir.Shaxs va kasbiy o‘zlik tushunchalarini ilmiy asoslashda sharq mutaffakkiri Abu Nasr al-Farobiyning pedagogik va ma’naviy tafakkuri muhim ahamiyatga ega. Farobiy shaxsning kamoloti va kasbiy faoliyati uni shakllantiruvchi ilm, axloq va estetik qadriy,,atlarning uyg‘unligida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning nazariyasi bo‘yicha, ideal pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy-axloqiy tarbiyachi sifatida ham rivojlanishi lozim hamda ta’lim, axloqiy fazilatlar va ma’naviy yetuklik masalalari falsafiy darajada yoritiladi. Abu Nasr al-Farobiy **“Fozil odamlar shahri”** asarda insonning aqliy bilimlari va axloqiy fazilatlarini birlashtirgan holda ‘‘yaxshi va foydali inson”ni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.[10]Shu nuqtai nazardan, bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchisida kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish shaxsning estetik, ma’naviy va pedagogik komponentlarini uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘riladi. Pedagogik tadqiqotlarda kasbiy identitet o‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan ongli munosabati, kasbiy qadriyatlarni qabul qilishi va pedagogik faoliyatda o‘z o‘rnini anglay olish qobiliyati sifatida izohlanadi. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgaca mano kasb etadi. O'qituvchi - O'zbekistonning porloq kelajgini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlaming davomchisi bo'lgan yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs deb bilaman. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi , ayniqsa, musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik identitetni uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro‘ e’tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart. O'qituvchi yoshlarni ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy-pedagogik identiteti va pedagogik mahoratini ham namoyon eta olish, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlami tayyorlash ishiga o'zini munosib hissasini qo'shishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi va natijalar.

Ma’lumki kasbiy identitet - bu shaxsning kasbiy faoliyat kontekstida o‘zini anglash, professional qadriyatlar, kompetensiyalar va ro‘llarni qabul qilishni ifodalaydi. Mazkur tadqiqot bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar va shaxs rivoji konsepsiyalariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy tayanchi sifatida shaxs kamolotini ilm, axloq va estetik uyg‘unlik asosida talqin etuvchi Abu Nasr al-

[10]Abu Nasr al-Farobiy **“Fozil odamlar shahri”** ***(Toshkent: “Xalq merosi” nashriyoti, 1993)***

Farobiy pedagogik qarashlari qabul qilindi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, pedagogning kasbiy yetukligi uning bilim darajasi bilangina emas, balki ma’naviy va estetik kamoloti bilan ham belgilanadi.Tadqiqot nazariy-konseptual model ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.Kasbiy identitet nazariyalarining tizimli tahlilini Abu Nasr **al-Farobiy**ning falsafiy va pedagogik qarashlari bilan taqqoslasak:

Shaxsiy rivojlanish va kasbiy orientatsiya;Al-Farobiy shaxsning aql, axloq va ijtimoiy qobiliyatlari orqali mukammallashishi g‘oyasini ilgari surgan.U har bir insonning **maqsadga yo‘naltirilgan intilishlari** va **axloqiy qadriyatlar** orqali shaxsiy va kasbiy xususiyatlar rivojlanishiga e’tibor qaratadi.Musiqa o‘qituvchisi yoki pedagog faoliyatida shaxsiy qadriyatlar (masalan, sabr-toqat, adolat, ijodkorlik) uning kasbiy identitetini shakllantirishda markaziy omil bo‘ladi.

Kasbiy identitetning psixologik asoslari; Abu Nasr Al-Farobiy fikricha, shaxs **aql va ilm orqali o‘z kasbiy mahoratini rivojlantiradi,** shuningdek, ijtimoiy vazifalarni bajarish orqali kasbiy rolini anglaydi.

Shaxsiy qadriyat va ijtimoiy mas’uliyat; Abu Nasr Al-Farobiy pedagogik ta’limni shaxsiy rivojlanish va jamiyat manfaatlari bilan uzviy bog‘liq deb hisoblagan.Shu nuqtai nazardan, musiqa o‘qituvchisi o‘z kasbiy orientatsiyasini shaxsiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib, professional identitetni shakllantiradi.

Integratsiya nuqtai nazari;Shaxsiy qadriyatlar (axloq, ijodkorlik) + kasbiy kompetensiya (metodik va musiqiy bilim) + ijtimoiy ro‘l (o‘quvchilar, jamiyat bilan munosabat) → kasbiy identitetning psixologik rivojlanishi. Shaxsiy va kasbiy mukammallikka intilish identitet shakllanishining asosiy mexanizmi sifatida qaraladi.Kasbiy identitet nazariyasi shaxsning kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va professional faoliyat samaradorligini tushunishda tizimli asos yaratadi.

Musiqa o‘qituvchisi faoliyatining professional xususiyatlarini aniqlash

Musiqa o‘qituvchisi kasbiy faoliyati nafaqat musiqa fanini o‘qitishdan iborat, balki pedagogik, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. Shu nuqtai nazardan, uning professional xususiyatlari bir necha asosiy komponentlarga bo‘linadi:Pedagogik kompetensiya;Musiqa o‘qituvchisi uchun pedagogik kompetensiya dars jarayonini samarali tashkil etish va talabalarga bilim berish qobiliyatini anglatadi. Bu quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:**Dars rejalashtirish va metodik tayyorgarlik:** o‘quv dasturiga mos ravishda musiqiy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish.**O‘quvchilar bilan kommunikatsiya:** turli yoshdagi va qobiliyatdagi o‘quvchilarni motivatsiya qilish, ularning ehtiyojlarini hisobga olish.**Baholash va refleksiya:** o‘quvchilarning rivojlanishini baholash va o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish.

Kasbiy identitet nazariyalarining tizimli tahlili

Musiqa o‘qituvchisi faoliyatining professional xususiyatlarini aniqlash

Kasbiy-pedagogik identitetning tarkibiy modelini ishlab chiqish

Shakllanish mexanizmlarini nazariy asoslash

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilinib, kasbiy identitetning pedagogik va psixologik talqinlari umumlashtirildi. Musiqa ta’limining o‘ziga xos

xususiyatlari, pedagogik faoliyatning ijodiy tabiati hamda estetik tajribaning ta’lim jarayonidagi o‘rni kontseptual modellashtirish asosida izohlandi. Tadqiqot metodologiyasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiv pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarining integratsiyasiga tayanadi.Nazariy tahlillar bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik identiteti murakkab va ko‘p qirrali tizim ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu tizim shaxsning kasbiy bilimlari, pedagogik qadriyatlari, ijodiy faoliyati hamda refleksiv o‘zini anglash jarayonining o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Musiqa pedagogining kasbiy o‘zligi nafaqat pedagogik kompetensiyalar, balki estetik tafakkur, badiiy idrok va emotsional sezgirlik bilan ham belgilanadi. Kasbiy identitet shakllanishi pedagogik ijtimoiylashuv, estetik tajriba va refleksiv faoliyatning uzviy birligida yuzaga keladi. Musiqa ta’limi jarayonida ijodiy faoliyat, sahna amaliyoti, musiqiy interpretatsiya va pedagogik muloqot o‘qituvchining kasbiy o‘zligini mustahkamlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kasbiy qadriyatlarni ongli qabul qilish va pedagogik faoliyat mazmunini shaxsiy ma’nolar tizimi bilan uyg‘unlashtirish identitet rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy-pedagogik identitet samarali shakllanishi uchun ta’lim jarayonida estetik jihatdan boy muhit, refleksiv o‘qitish texnologiyalari hamda ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy tayyorgarlik va amaliy ijrochilik tajribasining integratsiyasi bo‘lg‘usi o‘qituvchining kasbiy o‘zligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama

Olingan natijalar musiqa o‘qituvchisining kasbiy identiteti umumiy pedagogik identitetdan o‘zining estetik va ijodiy yo‘nalganligi bilan farqlanishini ko‘rsatadi. Musiqa pedagogikasida kasbiy o‘zlik faqat bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki shaxsning madaniy va ma’naviy o‘zini anglash shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois identitetni shakllantirish jarayoni shaxs rivojlanishining uzluksiz va dinamik tizimi sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida pedagogning kasbiy identiteti professional tayyorgarlikning markaziy natijasi sifatida e’tirof etiladi. Bu yondashuv xalqaro ta’lim strategiyalarida ham aks etgan bo‘lib, pedagog shaxsining refleksiv rivoji va kasbiy o‘zini anglash jarayoni ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi. Kasbiy identitetni shakllantirish jarayoni **dinamik rivojlanish tizimi** bo‘lib, u quyidagi omillar ta’sirida takomillashadi:professional ta’lim sifati,pedagogik amaliyot mazmuni,madaniy-estetik muhit,kasbiy qadriyatlar tizimi,uzluksiz kasbiy rivojlanish.Natijalar zamonaviy ta’lim strategiyalari bilan uyg‘un holda talqin qilindi. Xususan, XXI asr pedagogini tayyorlash konsepsiyalari kasbiy identitetni pedagogik tayyorgarlikning markaziy natijasi sifatida belgilaydi. Tadqiqot natijalari musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida estetik tarbiya, ijodiy faoliyat va refleksiv pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Kasbiy identitet shaxsiy tajriba, pedagogik faoliyat va madaniy muhitning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.

Xulosa

Kasbiy-pedagogik identitet -bu shaxsning kasbiy faoliyat doirasida o‘zini anglashi, professional qadriyatlar, kompetensiyalar va pedagogik rollarni qabul qilishidir. Bo‘lg‘usi

musiqa o‘qituvchilar uchun bu identitetning shakllanishi nafaqat akademik bilim, balki shaxsiy va ijtimoiy tajriba orqali amalga oshadi.O‘zbek pedagogik an’analari va mentaliteti bo‘yicha shaxsiy hurmat, madaniy qadriyatlarni e’zozlash, hamda ijodiy va ma’naviy rivojlanishga e’tibor berish kasbiy identitetning muhim omilidir. Musiqa o‘qituvchisi kasbiy shaxs sifatida, avvalo, o‘zining ichki intilishlari va axloqiy qadriyatlarini pedagogik faoliyat bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Al-Farobiy pedagogik falsafasi esa shaxsiy aql, axloq va ijtimoiy mas’uliyat orqali professional mukammallikka erishishni asosiy prinsip sifatida oladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarda identitet shakllanishi shaxsiy qadriyat, metodik mahorat va ijtimoiy mas’uliyatni integratsiyalash orqali sodir bo‘ladi.Pedagogik komponent bo‘yicha musiqa o‘qituvchisi darslarni rejalashtirish, metodik vositalardan foydalanish va o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, musiqa nazariyasi va amaliy ko‘nikmalarini birlashtirgan holda dars jarayonini samarali tashkil etish kasbiy identitetning ajralmas qismi hisoblanadi.Shaxsiy-professional komponent esa bo‘lg‘usi o‘qituvchining sabr-toqat, mas’uliyat, ijodiy intilish va o‘zini tahlil qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek madaniyatida o‘qituvchi shaxsiy hurmat va jamiyat oldidagi mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu uning kasbiy identitetini mustahkamlaydi.Ijtimoiy-professional komponent bo‘yicha o‘qituvchi jamiyat va professional hamjamiyat bilan integratsiya qilinadi. Bu esa hamkasblar bilan hamkorlik, musiqiy tadbir va loyihalarda ishtirok etish orqali identitetning amaliy jihatlarini rivojlantiradi.O‘zbek mentalitetiga xos jihatlar - hurmat, hamjihatlik va milliy madaniyatni qadrlash -bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, talabalarga madaniy merosni yetkazish va ularni ma’naviy-estetik rivojlantirish identitetning maqsadli yo‘nalishidir.Shakllanish mexanizmlari esa bir nechta bosqichda amalga oshadi:**Ichki motivatsiya va shaxsiy intilishlar orqali shakllanish,** ya’ni musiqa o‘qituvchisining kasbiy istaklari va qadriyatlari.**Ta’lim va amaliy tajriba orqali shakllanish**, ya’ni dars jarayonida, metodik mashg‘ulotlar va stajlarda professional ko‘nikmalarni rivojlantirish.**Ijtimoiy integratsiya orqali shakllanish**, ya’ni hamkasblar va jamiyat bilan muloqot orqali professional identitetni mustahkamlash.**Refleksiya va o‘zini baholash orqali shakllanish,** ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish, muvaffaqiyat va xatolardan xulosa chiqarish orqali identitetni chuqurlashtirish.Shu tarzda bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilar o‘z shaxsiy qadriyatlarini, pedagogik mahoratini va ijtimoiy mas’uliyatini uyg‘unlashtirib, professional identitetni shakllantiradilar. Bu jarayon nafaqat bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki o‘quvchilarda estetik, ma’naviy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish bilan ham bog‘liq.Shuningdek, o‘zbek pedagogik an’analari va musiqa madaniyati bu jarayonda asosiy ilhom manbai bo‘lib, kasbiy-pedagogik identitetning milliy va estetik komponentlarini boyitadi. Shu bilan birga, identitet shakllanishi zamonaviy metod va innovatsiyalar bilan uyg‘unlashganda, musiqa o‘qituvchisining professional faoliyati yanada samarali bo‘ladi.Natijada, bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitet shakllanishi - psixologik, pedagogik va ijtimoiy jarayonlarning integratsiyasi bo‘lib, shaxsiy qadriyatlar, kasbiy mahorat va ijtimoiy mas’uliyatni birlashtirish orqali amalga oshadi. Bu esa nafaqat o‘qituvchining professional rivojlanishiga, balki o‘quvchilarning estetik va madaniy

tarbiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Kasb tanlash va tanlagan kasbidan faxrlanishni bugun bo‘g’usi musiqa o‘qituvchilarda shakllantirish uchun eng avvalo oliy ta’lim muassasasida dars beradigan o‘qituvchining o‘zi kasbi bilan o‘rnak bo‘la olishi zarur va bu muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Fozil odamlar shahri” (Toshkent: “Xalq merosi” nashriyoti, 1993)

2. Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 4.02 (2024): 44-49.

3. Azizxonova, M., and E. Qobilova. "YoSHLARNI MUSIQIY MADANIYATI VA MA’NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI." Oriental Art and Culture 3 (2022): 51-57.

4. Qobilova, E. "THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION." QO ‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER 12 (2024): 99-100.

5. Qobilova, Ezozxon Bakirovna. "Moral education as an important faktor in the formation of a student as a person." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 11.10 (2021): 186-189.

6. Qobilova, E. "Musiqa o’qitish metodikasi va maktab repertuari." Oquv qollanma, Fargona.“Fargona” nashriyoti (2020).

7. Қобилова, Э. Б. "ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 291-295.

8. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 126-130.

9. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3, 127-132.

10. Кобилова, Е. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок, 1(1), 156-159.

11. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. University Research Base, 46-49.

12. Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA’LIMDA MUSIQA O ‘QITISHNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 99-100.

13. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O ‘ZBEK XALQ AN’ANALARI-TARBIYA OMILI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(26), 192-195.

14. Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O ‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR. Pedagogikada ilmiy izlanishlar, 2(1), 28-31.

15. Qobilova, E. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(02), 44-49.

16. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO ‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100.

17. Qobilova, E. (2024). The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons. Uzbekistan Educational Research Journal, 1(1).

18. Qobilova, E. B., Toshpolatova, S., Muhammadjonova, M., Muninova, M., Baxromova, M., & Rahimova, D. (2023). QADIMIY MUSIQIY SAN’ATNING SHAKLLANISH JARAYONI. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 560-565.

19. Rasulova H. N. “Pedagogical opportunities of applying clil technology in music education” Noyabr. (2025) https://worldlyjournals.com/index.php/ 655-660 bet.

20. Rasulova Homidabonu Nu’monxon qizi “Musiqa nazariyasini clil (content and language integrated learning) texnologiyasi orqali o‘qitish: metodik yondashuvlar va amaliyot” (2025) https://doi.org/10.5281/zenodo.18154327 11-13

21. Rasulova Homidabonu Nu’monxon qizi.” Musiqa nazariyasi o’qituvchilarini innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasiga tayyorlash”. (2026) 8-jild 2-son 13.02.2025 128-131.Bet

22. Rasulova Homidabonu Nu’monxon qizi.(2024). “The concept of musical thinking and its content” Volume. 7, Issue 01, 216-219 bet.

23. Rasulova H.N.(2025) “Bolalar musiqa va san’at maktablarida musiqa savodxonligi (musiqa nazariyasi) fanini rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari. OAK maqola“MASTERS”109/ 111 bet.

24. Rasulova H.N. (2025). “Musiqa darsining tuzulish shakli va usullari” xalqaro tezis “international scientific research conference” belarus, scientific-online conference.76-79 Bet .

25. Rasulova H.N. (2024). “Musiqa maktablarida musiqa savodxonligi fanining ahamiyati”https://interonconf.org/index.php/ind/article/download/10824/9104/8903 18-20 bet

26. Rasulova H.N. (2024). Musiqa maktablarida musiqa nazariyasi darsining tarkibiy qismlari va ularning tuzilishi. OAK maqola Pedagog respublika ilmiy jurnali 7 – tom 3 – son / 2024 - yil / 15 - aprel 50-53 bet.

27. Rasulova H.N. (2024). Musiqa maktablarining dars jarayonida musiqa savodxonligi faning nazariy asoslari. Pedagog respublika ilmiy jurnali 7 – tom 3 – son / 2024 - yil / 15 – aprel www.bestpublication.org 54-57 bet

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

DESIGNING AN A2-LEVEL ENGLISH LESSON ON GIVING DIRECTIONS FOR 9TH-GRADE STUDENTS: A NOTIONAL-FUNCTIONAL AND DIFFERENTIATED APPROACH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.024

Ergasheva Nasiba
Teacher, English Department
“TIIAME” National Research University
ergashevanasiba7274@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 9-sinf o‘quvchilari uchun A2 darajadagi ingliz tili darsining loyihasi taqdim etilgan bo‘lib, u shahar joylariga yo‘nalish berish kontekstida produktiv va retseptiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Dars o‘quvchilarning turli malaka darajalari va ta’lim uslublarini hal qilish uchun g‘oyaviy-funksional dastur va o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvlarni, jumladan, tabaqalashtirish va asoslash strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Yozish, gapirish va lug‘at ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun bo‘shliqlarni to‘ldirish mashqlari, juftliklarda ishlash va xarita asosida topshiriqlar beriladi. Darsda autentik kontekstlarda amaliy qo‘llash, tanqidiy fikrlash va samarali muloqotga alohida e’tibor qaratiladi, shuningdek, chet tilini o‘rganishda ehtiyojlarni baholash va tabaqalashtirilgan ta’limning ahamiyati ta’kidlanadi.

Key words: ESP, ingliz tilining A2 darajasi, 9-sinf o‘quvchilari, shartli-funksional o‘quv dasturi, tabaqalashtirilgan o‘qitish, yo‘naltirish, produktiv ko‘nikmalar, retseptiv ko‘nikmalar, CEFR.

Аннотация.В данном исследовании представлен дизайн урока английского языка уровня A2 для учащихся 9-х классов, ориентированный на развитие продуктивных и рецептивных навыков в контексте указания местоположения городов. Урок включает в себя концептуально-функциональный силлабус и индивидуально-ориентированные подходы, включая стратегии дифференциации и поддержания, для решения различных уровней владения и стилей обучения учащихся. Деятельность включает в себя упражнения на заполнение пробелов, работу в парах и задания на основе карт для улучшения навыков письма, говорения и лексики. Урок подчеркивает практическое применение, критическое мышление и эффективное общение в аутентичных контекстах, а также важность оценки потребностей и дифференцированного обучения при изучении иностранных языков.

Ключевые слова: ESP, A2-уровень английского языка, учащиеся 9-х классов, концептуально-функциональный силлабус, дифференцированное обучение, scaffo направление, продуктивные навыки, рецептивные навыки, CEFR.

Annotation. This study presents the design of an A2-level English lesson for 9th-grade students, focusing on the development of productive and receptive skills in the context of giving directions to city locations. The lesson integrates a notional-functional syllabus and student-centered approaches, including differentiation and scaffolding strategies, to address learners' diverse proficiency levels and learning styles. Activities include gap-filling exercises, pair work, and map-based tasks to improve writing, speaking, and vocabulary skills. The lesson emphasizes practical application, critical thinking, and effective communication in authentic contexts, while also highlighting the importance of needs assessment and differentiated instruction in foreign language learning.

Key words: *ESP, A2-level English, 9th-grade students, notional-functional syllabus, differentiated instruction, scaffolding, giving directions, productive skills, receptive skills, CEFR.*

Introduction. The present study focuses on designing an English lesson for a class of nine 9th-grade students (four girls, five boys) in a public school in Tashkent. All students are Uzbek, aged 15–16, with an English proficiency level of A2 according to the CEFR. They study English as a foreign language three times a week for 45 minutes, alongside Russian as a second language. Three students attend extra Russian classes, which gives them an advantage over their peers in language acquisition.

Outside of school, English exposure is limited: six students attend offline extra English classes, two participate in online classes via Zoom, and one student relies on self-study through videos and podcasts. As a result, the self-study student demonstrates higher productive skills than his peers.

Previously, the Grammar-Translation Method (GTM) was used, which allowed students to understand grammar rules but restricted practical language usage. Students can read short dialogues on limited topics and discuss simple topics such as family, school, and jobs.

The main objectives for the learners include obtaining an IELTS certificate for university admission and studying abroad. Two students are interested in applying to the Flex Exchange program in the United States. The course aims to improve students' reading, listening, writing, and speaking skills using Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Differentiated Methodology (DM), and Active Learning Techniques (ALT). The course duration is six months, with three hours per week.

Methodology

The study was conducted with a class of nine 9th-grade students, consisting of four girls and five boys, aged 15–16, from a public school in Tashkent. All participants were Uzbek and spoke Uzbek as their first language (L1). The students had an A2 level of English according to the CEFR, and they studied English as a foreign language three times a week for 45 minutes per session. In addition, Russian was taught as a second language. Three students attended extra Russian classes, which resulted in higher proficiency in Russian than their peers. Outside of formal lessons, six students participated in offline English classes, two in online classes via

Zoom, and one relied on self-study through videos and podcasts. The self-study student exhibited higher productive skills compared to the rest of the class.

The lesson design was based on a notional-functional syllabus, which focuses on language functions and content rather than solely on grammar structures. This approach allowed students to learn how to communicate effectively in real-life contexts, particularly in giving and asking for directions to city places such as the library, museum, café, post office, and hospital. The objectives of the lesson included improving students' productive skills in writing and speaking, as well as their receptive skills in listening and reading. Students were expected to use "should/shouldn't" in giving directions, correctly apply phrasal verbs such as get on, get off, get around, and use prepositions like next to, beside, between, and behind.

The lesson incorporated student-centered, differentiated, and scaffolded activities to cater to different learning styles and levels of ability. The first activity involved gap-filling exercises based on a city map to reinforce prepositions, while auditory learners could listen to supporting audio materials. The second activity required students to work in pairs to ask and give directions, promoting speaking and vocabulary practice. The third activity focused on independent writing, where students described directions from their home to school. Higher-level learners were also encouraged to create a map of their neighborhood and describe it, allowing for extended practice in both writing and speaking. Instructional scaffolding included modeling, guided practice, and continuous teacher feedback. The teacher walked around the classroom to observe students' progress, addressed individual misunderstandings, and provided clarification as needed. Differentiation was applied to ensure that visual, auditory, and kinesthetic learners could engage effectively, and that tasks were challenging enough for more advanced students. The use of maps, worksheets, PowerPoint presentations, videos, and audio supported multiple modes of learning, enabling students to integrate receptive and productive skills.

Overall, the methodological approach emphasized communicative competence, learner engagement, and practical language use. By combining a notional-functional syllabus with differentiated instruction and scaffolded activities, the lesson was designed to enhance students' language abilities while accommodating their individual needs, learning styles, and prior experiences. This approach also supported preparation for IELTS exams and fostered autonomous and critical thinking skills in English language learning.

Discussion

The lesson emphasizes student-centered and communicative approaches, allowing learners to move from controlled practice (gap-filling) to guided practice (pair dialogues) and independent production (writing directions, map-making).

Differentiation caters to learners' abilities and learning styles: auditory learners improve listening skills, visual learners use maps and diagrams, and kinesthetic learners benefit from active tasks. The integration of receptive and productive skills ensures holistic language development, aligned with CEFR standards (Chamot, 2012; Tomlinson, 2001). Needs assessment at the beginning of the course identifies students' prior knowledge, learning styles, and difficulties, ensuring that lesson materials are appropriate and culturally sensitive. Pair

and group activities foster collaboration, autonomous use of English, and peer support. The notional-functional syllabus facilitates practical language application, enabling learners to communicate directions in real-life situations. Differentiated instruction ensures every learner is actively engaged and able to achieve lesson objectives according to their ability and learning style.

Conclusion

This lesson plan demonstrates the effectiveness of combining a notional-functional syllabus with differentiated instruction for A2-level learners. It promotes productive and receptive skills, supports diverse learning styles, and allows students to apply language in real-life contexts. Scaffolding, authentic materials, and differentiation ensure learners' needs are met while preparing them for IELTS exams and international study opportunities. Student-centered approaches, guided practice, and independent production encourage critical thinking and autonomous learning.

References:

1. Chamot A.U. Differentiated instruction for language and learning strategies: Classroom applications // *De Gruyter eBooks*. – 2012. – P. 115–130.

2. Finocchiaro M., Brumfit C. *The functional-notional approach: From theory to practice. – Oxford:* Oxford University Press, 1983. – 235 p.

3. Linse C.T. Assessing student needs // English as a Second Language curriculum resource handbook: A practical guide for K–12 ESL programs / Ed. by M. Mohan. – Kraus International Publications, 1993. – P. 35–48.

4. Murphy R.S. *The concept of syllabus design and curriculum development: A look at five major syllabus designs* // Issues in syllabus design / Eds. A. Faravani, M. Zeraatpishe, M. Azarnoosh, H.R. Kargozari. – Sense Publishers, 2018. – P. 1–23.

5. Tomlinson C.A. *How to differentiate instruction in mixed-ability classrooms. 2nd Ed.* – Alexandria: Association for Supervision and Curriculum Development, 2001. – 117 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI PIRLS TALABLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.025

Eshkuvvatova Xosiyat Farxodovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti

Annotatsiya.Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida rivojlantirish metodologiyasi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va o‘qitish texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: PIRLS, tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, matn tahlili, pedagogik metodlar, interfaol ta’lim, kompetensiya, ta’lim jarayoni.

Annotation. This article analyzes the methodology for developing critical thinking skills in primary school students based on the requirements of the PIRLS international assessment program. In the modern education system, students’ independent thinking, ability to analyze information, and making correct decisions in problematic situations are of great importance.

The article highlights the importance of effective pedagogical approaches, interactive methods, and teaching technologies for developing students’ critical thinking in the process of primary education.

Keywords: PIRLS, critical thinking, primary education, text analysis, pedagogical methods, interactive learning, competence, educational process.

Аннотация.В данной статье анализируется методология развития навыков критического мышления у учащихся начальных классов на основе требований международной программы оценки PIRLS. В современной системе образования важное значение имеют самостоятельное мышление учащихся, способность анализировать информацию и принимать правильные решения в проблемных ситуациях.

В статье освещается значение эффективных педагогических подходов, интерактивных методов и образовательных технологий для развития критического мышления учащихся в процессе начального образования.

Ключевые слова: PIRLS, критическое мышление, начальное образование, анализ текста, педагогические методы, интерактивное обучение, компетенция, образовательный процесс.

Kirish (Introduction). Hozirgi davr ta’lim tizimi o‘quvchilarning faqat nazariy bilim olishiga emas, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Globalizatsiya jarayonida axborot oqimining ortib borishi insonlardan tezkor fikrlash, muammoni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilishni talab etadi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, tahliliy fikrlash qobiliyati hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashni baholashga qaratilgan bo‘lib, u o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va baholash kabi ko‘nikmalarini aniqlash imkonini beradi.

PIRLS talablari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sohasidagi mutaxassis A. O‘rinboyev esa shunday fikr bildiradi: “PIRLS va EGRA natijalari asosida ta’lim siyosatini shakllantirish, o‘quv dasturlarini zamonaviy kompetensiyalar asosida qayta ko‘rib chiqish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish strategiyasini yaratish mumkin”[11].Shu sababli bugungi ta’lim tizimimizda PIRLS xalqaro baholash dasturining natijalariga tayangan holda boshlang’ich sinf o‘quvchilarining “O‘qish savodxonligi” kitobining o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarurdir. Pedagogika fanlari doktori A. Jo‘rayevning ta’kidlashicha:“Tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish o‘qish, tinglash, tahlil qilish va ifodalash kabi integrativ ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali yuzaga chiqadi. Bunday ko‘nikmalarni baholashda xalqaro dasturlar muhim mezonlar yaratib bermoqda”[12] deb bejizga ta’kidlab o‘tmagan edi.

Metod (Methods). Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini PIRLS talablari asosida shakllantirish jarayonini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: Pedagogik kuzatuv-dars jarayonida o‘quvchilarning faol qatnashishi, matnni tushunishi va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati kuzatildi. Kuzatuv orqali o‘quvchilarning real xatti-harakatlari va fikrlash jarayoni aniqlangan.

Natija (Results). Tadqiqot jarayonida eksperimental va nazorat guruhlaridagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari o‘rganildi. Oldindan baholash natijalari ko‘rsatdiki, ikkala guruh o‘quvchilari o‘rtacha darajada tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lib, farq sezilarli emas edi.

[11] O‘rinboyev A., 2021. — “Ta’lim innovatsiyalari” jurnali, №4, 58-bet)

[12] Jo‘rayev A. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishning baholashga asoslangan yondashuvi. “Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar” jurnali, №2, 2021. 38-bet

Eksperimental guruhda PIRLS talablariga mos metodlar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilgach, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasida sezilarli o‘sish kuzatildi. Xususan:

✓ O‘quvchilar matnlarni tahlil qilishda **aniq dalillar keltira olish** qobiliyatini rivojlantirdi.

✓ Muammoni hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida **mustaqil fikrlash** ko‘nikmalari oshdi.

✓ Guruh ishlari va muhokamalarda **fikr almashish va argumentatsiya qilish** qobiliyati kuchaydi.

Nazorat guruhida esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish kuzatilmadi. Bu ularning an’anaviy metodlar asosida o‘qitilishi bilan izohlanadi.

Eksperimental guruh va nazorat guruhining o‘rtacha ballarini solishtirish natijalari ko‘rsatdiki, eksperimental guruh o‘quvchilari tanqidiy fikrlash bo‘yicha **15–20% yuqori natija** ko‘rsatdi. Bu esa PIRLS talablari asosida ishlab chiqilgan metodologiyaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, dars kuzatuvlari va refleksiv daftarchalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar mashg‘ulotlar davomida **faol qatnashishga va o‘z fikrini asoslashga** intilgan. Bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv va refleksiv mashqlar samarali ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni bildiradiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda PIRLS talablariga mos metodologiya **an’anaviy o‘qitish usullaridan sezilarli darajada samaraliroq** hisoblanadi.

Muhokama (Discussion). O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida tadqiqot davomida “O‘qish savodxonligi” kitobi asosida bir qancha topshiriqlarni tuzib chiqildi.Jumladan, G‘iyos Komilov “Sirli sandiq” hikoyasini tanlab olindi va ushbu hikoya yuzasidan topshiriqlar tuzib chiqildi. Topshiriqlar besh bosqichga bo‘lindi:

1-bosqich. Matnni tushunish va asosiy ma’lumotlarni ajaratish.

Topshiriq: Matnni o‘qing va quyidagi savollarga javob bering:

✓ Sirli sandiqni kim tamonidan ochildi?

✓ Sirli sandiq ochilishiga nechta savolga to‘g‘ri javob berilishi kerak edi?

✓ Uchinchi shahar qaysi edi va u nima bilan mashhur?

2-bosqich. Mantiqiy tahlil.

Topshiriq: Matnda Bobur qaysi tartibda shaharlarni topdi? Shu tartibni yozing va nima uchun aynan shunday tartibda ekanini tushuntiring.

3-bosqich.Qaror qabul qilish va fikr bildirish.

Topshiriq: Agar siz Bobur o‘rnida bo‘lsangiz, sirli sandiqni ochish uchun qanday strategiya qo‘llagan bo‘lardingiz? Nima sababdan shunday qilasiz?

4-bosqich. Dalillar bilan asoslash.

Topshiriq: Matndan topilgan shaharlarning nima bilan azizligini yozing va har bir shahar uchun matndan dalil keltiring.

5-bosqich. Kreativ fikrlash.

Topshiriq: Sirli sandiqni ochganingizni tasavvur qiling. Ichida nima bor deb o‘ylaysiz? Nima uchun shunday deb o‘yladingiz?

Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda savollarga tushunmaslik holatlariga guvoh bo‘lindi. Sababi bu kabi savollar doimiy tarzda berilmasligida deb ko‘rsatildi. Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini oshirish uchun yuqoridagi kabi savollarni mavzular asosida tuzib borilishi kerak. Shundagina ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

Xulosa(Conclusion). Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ta’lim jarayonining dastlabki bo‘g‘inlaridan biri sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘rsatiladi va ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi shu davrdan boshlab shakllantirilsa, keying ta’lim bosqichlarida ko‘zlangan barcha natijalarga osonlik bilan erishiladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan metodika ishlab chiqilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murodov, A. (2019). O‘quvchilarni tanqidi fikrlashga o‘rgatish metodikasi. Ta'lim va pedagogika ilmiy tadqiqotlari, 105-112.

2. Rakhmatov, S. (2020). PISA baholash dasturi va uning O‘zbekistondagi ta'lim tizimiga ta'siri.Pedagogika va psixologiya jurnal, 34-42.

3. Jumayev, R. (2018). O‘zbekistonda boshlang‘ich ta'limning rivojlanish yo‘llari. O‘zbekiston Xalq ta'limi akademiyasi.

4. Sirojov, A. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning boshlang‘ich ta'limda qo‘llanilishi. O‘zbekiston Ta'limi jurnali, 49-58.

5. Yuldashev, F. (2022). Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirish. Ta'limni rivojlantirish ilmiy jurnali, 3(1), 12-20.

6. Berkov, D. (2020). O‘zbekistonda xalqaro baholash dasturlarining qo‘llanilishi va natijalari.Ta'lim va ilmiy tadqiqotlar, 7(3), 101-108.

7. O‘rinboyev A., 2021. — “Ta’lim innovatsiyalari” jurnali, №4, 58-bet)

8. Jo‘rayev A. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishning baholashga asoslangan yondashuvi. “Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar” jurnali, №2, 2021. 38-bet

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOLALAR KOGNITIV RIVOJLANISHI: NAZARIY, EMPIRIK VA AMALIY TAHLIL

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.026

Fozilova Odina Nabiyevna
Farg‘ona davlat universiteti maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/0009-0003-7616-7612
abobakirovaodina78@gmail.com
+998940853676

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida kognitiv rivojlanishning mazmun-mohiyati, uning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yaxlit ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida maktabgacha yosh davrida tafakkur, diqqat, xotira, nutq va ijodiy fikrlash jarayonlarining shakllanish mexanizmlari yoritilib, ularning boshlang‘ich ta’limga muvaffaqiyatli moslashuvdagi o‘rni asoslab beriladi. Maqolada klassik va zamonaviy psixologik konsepsiyalar o‘zaro qiyosiy tahlil qilinadi, shuningdek, empirik kuzatuv va pedagogik tajriba natijalari asosida bolalarning kognitiv tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tizimida sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish hamda pedagog va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv rivojlanish, maktabga tayyorgarlik, tafakkur jarayonlari, diqqat barqarorligi, nutq kompetensiyasi, empirik tahlil, maktabgacha ta’lim, pedagogik innovatsiya.

Аннотация.В данной статье анализируется сущность когнитивного развития в процессе подготовки детей к школе, его теоретические основы и практическое значение на основе целостного научного подхода. В рамках исследования освещаются механизмы формирования мышления, внимания, памяти, речи и творческого мышления в дошкольном возрасте, а также обосновывается их роль в успешной адаптации к начальному образованию. В статье представлен сравнительный анализ классических и современных психологических концепций, а также методические рекомендации по повышению уровня когнитивной готовности детей на основе результатов эмпирических наблюдений и педагогического опыта. Результаты исследования указывают на необходимость повышения качественных показателей в системе дошкольного образования, индивидуализации образовательного процесса и укрепления сотрудничества между педагогами и родителями.

Ключевые слова: когнитивное развитие, подготовка к школе, мыслительные процессы, стабильность внимания, речевая компетентность, эмпирический анализ, дошкольное образование, педагогические инновации

Abstract. This article analyzes the essence of cognitive development in the process of preparing children for school, its theoretical foundations and practical significance based on a holistic scientific approach. Within the framework of the study, the mechanisms of formation of thinking, attention, memory, speech and creative thinking processes in preschool age are highlighted, and their role in successful adaptation to primary education is substantiated. The article provides a comparative analysis of classical and modern psychological concepts, as well as methodological recommendations for increasing the level of cognitive readiness of children based on the results of empirical observation and pedagogical experience. The results of the study indicate the need to improve quality indicators in the preschool education system, individualize the educational process and strengthen cooperation between teachers and parents.

Keywords: cognitive development, school preparation, thinking processes, attention stability, speech competence, empirical analysis, preschool education, pedagogical innovation

KIRISH. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida inson kapitalini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi uzluksiz ta’lim tizimining poydevori sifatida e’tirof etilib, uning samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bu borada Shavkat Mirziyoyev shunday ta’kidlaydi: “Maktabgacha ta’lim – ertangi kunimiz egalari bo‘lgan farzandlarimizning qanday inson bo‘lib voyaga yetishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.”[13] Ushbu fikr maktabgacha yosh davrida bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan tizimli yondashuv zarurligini anglatadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, u faqat savod o‘rgatish yoki elementar matematik tushunchalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon, avvalo, bolaning kognitiv salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Kognitiv rivojlanish tushunchasi bolaning atrof-muhitni idrok etishi, ma’lumotlarni qayta ishlashi, umumlashtirishi, mantiqiy xulosa chiqarishi va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ilmiy manbalarda ushbu jarayon bosqichma-bosqich shakllanishi ta’kidlanadi. Xususan, Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar preoperatsion tafakkur bosqichida bo‘lib, ular tasavvur va ramziy o‘yin orqali borliqni anglaydi[14]. Bu davrda bola mantiqiy operatsiyalarni to‘liq bajara olmasa-da, obrazli fikrlash va intuitiv xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, Lev Vygotsky bolaning kognitiv rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlik qiluvchi faoliyatning ahamiyatini alohida qayd etadi[15]. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko‘ra, bola mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar

[13] Shavkat Mirziyoyev. Maktabgacha ta’limni rivojlantirishga oid nutqlar va ma’ruzalar.
[14] Jean Piaget. *The Psychology of the Child*.
[15] Lev Vygotsky. *Mind in Society*.

ko‘magida uddalay oladigan vazifalar orqali yuqori rivojlanish bosqichiga ko‘tariladi. Demak, maktabga tayyorgarlik jarayonida pedagogning yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi roli hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bolalar kognitiv rivojlanishi inson taraqqiyotining eng muhim va murakkab jarayonlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv rivojlanish deganda bolaning idrok etish, tafakkur yuritish, xotira jarayonlarini boshqarish, nutqni shakllantirish, muammolarni hal etish va atrof-muhit bilan ongli o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyatlarining bosqichma-bosqich takomillashuvi tushuniladi. Ushbu jarayon biologik yetilish, ijtimoiy muhit, madaniy tajriba va ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Zamonaviy psixologiya fanida bolalar tafakkurining shakllanishini tushuntirishga qaratilgan turli nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular orasida bosqichli-konstruktivistik, ijtimoiy-madaniy va neyropsikologik yo‘nalishlar alohida o‘rin tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshda diqqatning barqarorligi, eslab qolish hajmi va nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanishi boshlang‘ich ta’limdagi muvaffaqiyat bilan bevosita bog‘liqdir. Empirik kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, rivojlantiruvchi o‘yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish, muloqotga asoslangan metodlar hamda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish bolalarning bilish jarayonlarini sezilarli darajada faollashtiradi. Ayniqsa, rolli o‘yinlar va konstruktorlik faoliyati tafakkur moslashuvchanligini oshiradi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish doirasida yangi davlat dasturlari va standartlari joriy etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv-me’yoriy hujjatlarda bolalarning intellektual rivojlanishini erta yoshdan qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan[16]. Mazkur hujjatlarda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial va integrativ yondashuvni qo‘llash zarurligi qayd etiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Kognitiv rivojlanishning klassik nazariy asoslari shveytsariyalik olim Jean Piaget tomonidan ishlab chiqilgan. Uning fikricha, bola bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni faol ravishda quradi. Piaget nazariyasiga ko‘ra, bola tafakkuri to‘rt asosiy bosqich orqali rivojlanadi: sensor-motor, preoperatsional, konkret operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichlari. Sensor-motor davrda bola sezgi va harakat orqali dunyoni o‘rganadi hamda obyektning doimiyligi tushunchasini egallaydi. Preoperatsional davrda tasavvur va nutq rivojlanadi, biroq mantiqiy operatsiyalar hali to‘liq shakllanmaydi. Konkret operatsiyalar bosqichida bola real obyektlar asosida mantiqiy fikrlay boshlaydi, miqdor va hajmning saqlanish qonuniyatlarini tushunadi. Formal operatsiyalar bosqichida esa abstrakt tafakkur va gipotetik-deduktiv mulohaza qobiliyati yuzaga keladi. Piaget kognitiv rivojlanishning ichki mexanizmlarini assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari orqali tushuntiradi. Assimilyatsiya mavjud bilim strukturasi doirasida yangi tajribani o‘zlashtirishni anglatsa,

[16] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Davlat o‘quv dasturi va me’yoriy hujjatlar.

akkomodatsiya yangi ma’lumot ta’sirida mavjud kognitiv sxemalarning o‘zgarishini bildiradi. Ushbu ikki jarayon o‘rtasidagi muvozanat tafakkur rivojlanishining asosini tashkil etadi.

Piagetning individual rivojlanishga asoslangan nazariyasidan farqli ravishda Lev Vygotsky kognitiv o‘sishni ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida talqin qiladi. Uning nazariyasida bolaning intellektual taraqqiyoti kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida yuz beradi. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan “Zona proksimal rivojlanish” tushunchasi bolaning mustaqil bajara oladigan vazifalari bilan kattalar yordamida bajara oladigan vazifalari o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, samarali ta’lim aynan shu zona doirasida tashkil etilishi lozim. Til esa kognitiv rivojlanishning markaziy vositasi hisoblanadi. Ichki nutq orqali bola o‘z fikrini boshqaradi, rejalashtiradi va muammolarni hal qiladi. Shunday qilib, Vygotsky nazariyasi tafakkurning ijtimoiy ildizlarga ega ekanligini asoslab beradi.

TAHLIL

Kognitiv rivojlanishning yana bir muhim yo‘nalishi konstruktivistik ta’lim konsepsiyasi bo‘lib, u amerikalik psixolog Jerome Bruner tomonidan rivojlantirilgan. Bruner bilimni egallash jarayonini faol konstruksiya sifatida ko‘radi. Uning fikricha, har qanday fan mazmuni bola yoshiga mos tarzda strukturalashtirilgan holda o‘rgatilishi mumkin. U “scaffolding” — ya’ni vaqtinchalik qo‘llab-quvvatlash mexanizmini ta’lim jarayonining muhim sharti sifatida ta’kidlaydi. Bu yondashuv o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol izlanish subyekti sifatida ko‘radi. Natijada tafakkur mustaqilligi va ijodkorlik rivojlanadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda neyropsikologik tadqiqotlar bolalar kognitiv rivojlanishining biologik asoslarini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi. Miya plastiklik xususiyatiga ega bo‘lib, tajriba va ta’lim jarayonida yangi neyron aloqalar shakllanadi. Ayniqsa, prefrontal korteksning yetilishi e’tibor, rejalashtirish va nazorat funksiyalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bolalik davrida neyroplastiklik darajasi yuqori bo‘lgani sababli, erta ta’lim va ijtimoiy muhit kognitiv rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlar kognitiv rivojlanish genetik va muhit omillarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatmoqda.

Kognitiv rivojlanish nazariyalarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, Piaget rivojlanishni ichki biologik yetilish bilan bog‘lasa, Vygotsky uni ijtimoiy hamkorlik natijasi sifatida talqin qiladi, Bruner esa ta’lim jarayonining faol tashkil etilishiga urg‘u beradi. Neyropsikologik yondashuv esa tafakkur rivojlanishini miya faoliyati bilan integratsiyada tushuntiradi. Ushbu nazariyalar bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik amaliyotda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, bolalar kognitiv rivojlanishi ko‘p omilli va dinamik jarayon bo‘lib, u biologik yetilish, ijtimoiy muhit, madaniy tajriba hamda ta’lim tizimining o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Nazariy yondashuvlarni chuqur o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, bolalarning intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziyev E. G. *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Davletshin M. G. *Yosh va pedagogik psixologiya*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2009.
3. Nishonova Z. T. *Bolalar psixologiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Выготский Л. С. *Мышление и речь*. Москва: Педагогика, 1982.
5. Пиаже Ж. *Речь и мышление ребенка*. Москва: Просвещение, 1994.
6. Эльконин Д. Б. *Психология развития*. Москва: Академия, 2001.
7. Shavkat Mirziyoyev. Maktabgacha ta’limni rivojlantirishga oid nutqlar va ma’ruzalar.
8. Jean Piaget. *The Psychology of the Child*.
9. Lev Vygotsky. *Mind in Society*.
10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Davlat o‘quv dasturi va me’yoriy hujjatlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

RANGTASVIR TA’LIMIDA RAQAMLI VA VIZUAL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.027

Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti v.b. dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)
ORCID: https://orcid.org/0009-0008-0147-4597
E-mail: anasxonikromov1904@gmail.com
G‘ulomova Mo‘minaxon Nuriddin qizi
Qo‘qon davlat Universiteti
Sport va San’at fakulteti
Tasviriy san’at va Muhandislik grafikasi yo‘nalishi 02-25-guruh talabasi
Emeil:glmvaas@gmail.com

Annotatsiya.Maqolamda asosan rangtasvir ta’limida raqamli va vizual texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi rangtasvir mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish hamda mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli grafik dasturlar, multimedia vositalari va interaktiv platformalarning pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan rangtasvir darslari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, tasavvur doirasi va amaliy ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: rangtasvir ta’limi, raqamli texnologiyalar, vizual vositalar, ijodiy kompetensiya, AKT, multimedia, interaktiv metodlar.

Annotation. This article mainly highlights the issues of developing students’ creative competence through the use of digital and visual technologies in fine arts education. The integration of modern information and communication technologies into the educational process is analyzed as a means of increasing the effectiveness of painting lessons, shaping students’ aesthetic taste, and developing their independent creative activity. Additionally, the pedagogical potential of digital graphic programs, multimedia tools, and interactive platforms is revealed. The research results show that painting lessons organized on the basis of digital technologies significantly contribute to the development of students’ creative thinking, imagination, and practical skills.

Keywords: fine arts education, digital technologies, visual tools, creative competence, ICT, multimedia, interactive methods.

Аннотация.В статье рассматриваются вопросы развития творческой компетенции учащихся в процессе обучения живописи с использованием цифровых и визуальных технологий. Анализируется интеграция современных информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс как средство повышения эффективности занятий по живописи, формирования эстетического вкуса учащихся и развития их самостоятельной творческой деятельности. Также раскрываются педагогические возможности цифровых графических программ, мультимедийных средств и интерактивных платформ. Результаты исследования показывают, что уроки живописи, организованные на основе цифровых технологий, значительно способствуют развитию творческого мышления, воображения и практических навыков учащихся.

Ключевые слова: обучение живописи, цифровые технологии, визуальные средства, творческая компетенция, ИКТ, мультимедиа, интерактивные методы.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonida ta’lim tizimi tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, tasviriy san’at va rangtasvir fanlari o‘quvchilarning estetik dunyoqarashi, tasavvur kengligi va ijodiy qobiliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. An’anaviy rangtasvir darslari ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan bo‘lsa-da, zamonaviy raqamli va vizual texnologiyalar ushbu jarayonni yanada boyitish imkonini bermoqda. Grafik planshetlar, dizayn dasturlari, 3D modellashtirish vositalari, virtual galereyalar va multimedia taqdimotlari o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa rangtasvir ta’limining mazmunini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ijodiy kompetensiya — bu o‘quvchining mustaqil fikrlashi, yangicha yondashuv topa olishi, tasviriy ifoda vositalaridan samarali foydalanishi va estetik qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir. Raqamli texnologiyalar ushbu kompetensiyani shakllantirishda qulay sharoit yaratadi. Chunki ular vizual axborotni tezkor va samarali yetkazish, ranglar bilan tajriba qilish, kompozitsiyani erkin o‘zgartirish va natijani tez tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI: So‘nggi yillarda ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayoni ta’lim mazmuni, metodikasi va tashkiliy shakllariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, tasviriy san’at va rangtasvir ta’limida vizual hamda raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda.

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda AKT vositalari o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Xususan, multimedia taqdimotlari, interaktiv doskalar, grafik muharrirlar va onlayn platformalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quv materiallarini ko‘rgazmali, qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazish imkonini beradi.

Tasviriy san’at ta’limiga oid ilmiy manbalarda vizual texnologiyalar o‘quvchilarning

estetik didini shakllantirish va tasavvur doirasini kengaytirishda samarali vosita ekanligi ta’kidlanadi. Raqamli grafik dasturlar yordamida o‘quvchilar rang, kompozitsiya, shakl va perspektiva bilan tajriba o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning ijodiy fikrlash jarayonini faollashtiradi hamda an’anaviy usullarga nisbatan kengroq imkoniyatlar yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar ijodiy kompetensiyani o‘quvchining mustaqil qaror qabul qilish, yangicha g‘oya yaratish va muammoni noan’anaviy hal etish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda ta’lim jarayoni o‘quvchiga yo‘naltirilgan, interaktiv va innovatsion bo‘lishi zarurligi qayd etiladi. Raqamli va vizual texnologiyalar aynan shu talablarga javob beruvchi muhitni shakllantiradi.

Xorijiy tadqiqotlarda san’at ta’limida raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, ijodiy tajriba doirasini kengaytirishi va natijalarni tezkor tahlil qilish imkonini berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, grafik planshetlar, animatsiya dasturlari va 3D modellashtirish vositalari o‘quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Mazkur tadqiqotda rangtasvir ta’limida raqamli va vizual texnologiyalardan foydalanishning o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasiga ta’siri nazariy va amaliy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi umumilmiy va maxsus pedagogik metodlarga asoslandi.

Avvalo, nazariy tahlil metodi yordamida mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi va tizimlashtirildi. Analiz va sintez metodlari orqali ijodiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari — tasavvur, estetik baholash, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalar — alohida tahlil qilindi hamda yagona tizimga keltirildi.

Taqqoslash metodi yordamida an’anaviy rangtasvir darslari bilan raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijalari solishtirildi. Kuzatish metodi orqali o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, qiziqishi va ijodiy yondashuvi o‘rganildi. Shuningdek, amaliy topshiriqlar natijalari asosida ijodiy rivojlanish darajasi baholandi.

Tadqiqot jarayonida eksperimental yondashuv elementlaridan ham foydalanildi. Raqamli grafik dasturlar, multimedia vositalari va vizual taqdimotlar qo‘llanilgan darslar tashkil etilib, o‘quvchilarning ishlari tahlil qilindi. Olingan natijalar an’anaviy usuldagi mashg‘ulotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda qo‘llanilgan metodologik yondashuv tadqiqot maqsadiga erishish, muammoni har tomonlama o‘rganish va ilmiy asoslangan natijalar chiqarish uchun yetarli asos yaratdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Rangtasvir ta’limida raqamli va vizual texnologiyalarni qo‘llash natijalari ko‘plab pedagogik tadqiqotlarda samarali deb topilgan. Tadqiqot jarayonida raqamli vositalardan foydalangan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirganligi kuzatildi. An’anaviy darslarda o‘quvchilar faqat berilgan materialni ko‘rib, nusxalashga e’tibor qaratgan bo‘lsa, raqamli va vizual texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar ularning o‘ziga xos ijodiy yondashuvlarini rag‘batlantirdi.Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv grafik dasturlar va multimedia vositalari o‘quvchilarga rang, shakl, kompozitsiya va tekstura bilan tajriba qilish imkonini beradi. Bu esa ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, vizual tafakkur doirasini kengaytiradi va san’at asarlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi. Virtual galereyalar, 3D modellar va animatsion taqdimotlar o‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi va ularni

mustaqil qarorlar qabul qilishga undaydi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi. Ular o‘z ijodiy ishlarini tezkor tarzda ko‘rib chiqish va tahrir qilish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilishni rag‘batlantiradi.Muhokama davomida aniqlanganki, raqamli texnologiyalarning samaradorligi ularni to‘g‘ri metodik yondashuv bilan integratsiyalashga bog‘liq. Faqat texnologiyani qo‘llash yetarli emas; pedagog dars maqsadiga muvofiq vositalarni tanlab, o‘quv jarayonini interaktiv va maqsadli shaklda tashkil qilishi zarur. Shu bois, raqamli va vizual texnologiyalarni metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash dars sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli va vizual texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga rag‘batlantiradi va san’at asarlarini yaratishda ijodiy qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rangtasvir ta’limida raqamli va vizual texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Eksperimental darslar davomida kuzatilgan holatlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar interaktiv grafik dasturlar va multimedia vositalaridan foydalangan holda o‘z ijodiy ishlarini yanada boyitgan, kompozitsiya va rang ishlatishda yangicha yondashuvlar ishlab chiqqan.

Olingan natijalarga ko‘ra, raqamli vositalardan foydalanish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, vizual taqdimotlar va virtual galereyalar o‘quvchilarning estetik qarashlarini kengaytiradi va san’at asarlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, pedagogik metodika va texnologiya uyg‘unligi dars sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Faqat texnologiyani qo‘llash yetarli emas; u dars maqsadlariga mos ravishda metodik jihatdan integratsiyalashgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, raqamli va vizual vositalar o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, muammolarni noan’anaviy yondashuv orqali hal qilishga va mustaqil ishlashga rag‘batlantiradi.

Natijalar umumlashtirilganda, quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli va vizual texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi.

2. Multimedia va interaktiv vositalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rag‘batlantiradi.

3. Raqamli texnologiyalar pedagogik metodika bilan uyg‘unlashganida dars samaradorligi oshadi va san’at ta’limi mazmuni boyitiladi.

4. Vizual taqdimotlar, virtual galereyalar va 3D modellar o‘quvchilarning estetik didini va tasavvur doirasini kengaytiradi.

Shu asosda, tadqiqot rangtasvir ta’limida raqamli va vizual texnologiyalarni keng qo‘llash pedagogik samaradorlikni oshirish va ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim vositasi ekanligini isbotlaydi.

XULOSA: Maqolamda asosan rangtasvir ta’limida raqamli va vizual texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv grafik dasturlar, multimedia vositalari va virtual galereyalar o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlil va eksperimental mashg‘ulotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan rangtasvir darslarida o‘quvchilar o‘z ijodiy ishlarini boyitib, kompozitsiya va rang ishlatishda yangicha yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Multimedia va interaktiv vositalar dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ijodiy faoliyatga jalb qiladi

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, raqamli va vizual texnologiyalarning samaradorligi ularni metodik jihatdan dars maqsadlariga mos ravishda qo‘llash bilan bog‘liq. Faqat texnologiyani ishlatish yetarli emas; pedagog darsning pedagogik vazifasini hisobga olgan holda vositalarni tanlashi va integratsiyalashi zarur. Umuman olganda, tadqiqot natijalari rangtasvir ta’limida raqamli va vizual texnologiyalarni qo‘llash pedagogik samaradorlikni oshirish, o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish va san’at ta’limini modernizatsiya qilishning muhim vositasi ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimov, R. *Pedagogik texnologiyalar va ta’limda AKT* — Toshkent: Ta’lim, 2018.
2. Taylor B. *Methodus Incrementorum Directa et Inversa*. — London, 1715.
3. Zorich V. A. *Matematicheskiy analiz*. — Moskva: Fizmatlit, 2011.
4. Fikhtengolts G. M. *Kurs differensialnogo i integralnogo ischisleniya*. — Moskva: Nauka, 2001.
5. Rudin W. *Principles of Mathematical Analysis*. — New York: McGraw-Hill, 1976.
6. Kreyszig E. *Advanced Engineering Mathematics*. — New York: John Wiley & Sons, 2010.
7. Burden R. L., Faires J. D. *Numerical Analysis*. — Boston: Brooks/Cole, 2011.
8. Press W. H., Teukolsky S. A., Vetterling W. T., Flannery B. P. *Numerical Recipes*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
9. Stewart J. *Calculus: Early Transcendentals*. — Belmont: Brooks/Cole, 2013.
10. Jones, L. *Digital Tools in Art Education: Pedagogical Approaches*. — London: Routledge, 2019.
11. Smith, K. *Interactive Visual Learning in Schools*. — New York: Springer, 2020.
12. Johnson, P. *Multimedia Methods for Creative Competence Development*. — Oxford: Oxford University Press, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KIMYO TA’LIMIDA INKLYUZIV LABORATORIYA MUHITINING O‘QUVCHILARNING ILMIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.028

Akbarova Saidaxon Rustamovna
Respublika ta’lim markazi kimyo metodisti,
E-mail: saidaxon7902@.com

Annotatsiya.Inklyuziv ta’lim zamonaviy fan ta’limining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning jismoniy, kognitiv yoki ijtimoiy-emotsional xususiyatlaridan qat’i nazar, teng imkoniyatlar, faol ishtirok va sifatli ta’lim natijalarini ta’minlashga qaratilgan. Kimyo ta’limida laboratoriya muhiti tajriba o‘tkazish, tadqiqot olib borish hamda dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish orqali ilmiy fikrlash va axborotni izlash, tahlil qilish hamda ishonchli dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada inklyuziv kimyo laboratoriya muhitining o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilinadi. Xalqaro tadqiqotlar va nazariy yondashuvlarga tayangan holda, differensial ta’lim, moslashtirilgan laboratoriya jihozlari, hamkorlikka asoslangan o‘qitish hamda universal dizayn tamoyillari kabi inklyuziv amaliyotlarning o‘quvchilarning ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish, gipoteza ilgari surish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini qanday rivojlantirishi yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv laboratoriya muhitlari nafaqat alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashini, balki barcha o‘quvchilarda ilmiy fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi. Maqola yakunida kimyo o‘qituvchilari uchun pedagogik xulosalar hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, kimyo laboratoriyasi, ilmiy fikrlash, tadqiqotga asoslangan ta’lim, universal dizayn

Abstract. Inclusive education is one of the key priorities in contemporary science education, aiming to ensure equal opportunities, active participation, and high-quality learning outcomes for all students, regardless of their physical, cognitive, or socio-emotional characteristics. In chemistry education, laboratory environments play a crucial role in fostering scientific thinking, as well as developing competencies in information searching, analysis, and evidence-based decision-making through experimentation and inquiry. This article examines the impact of an inclusive chemistry laboratory environment on the development of students’ competencies. Drawing on international research and theoretical frameworks, the study highlights how inclusive practices—such as differentiated instruction, adapted laboratory equipment, collaborative teaching, and Universal Design for Learning principles—enhance

students’ abilities to search and analyze data, formulate hypotheses, and make scientifically justified decisions. The findings indicate that inclusive laboratory environments not only support students with special educational needs but also significantly improve scientific thinking and decision-making competencies among all learners. The article concludes with pedagogical implications for chemistry teachers and recommendations for future research.

Keywords: inclusive education, chemistry laboratory, scientific thinking, inquiry-based learning, universal design for learning

Аннотация.Инклюзивное образование является одним из ключевых приоритетов современной науки, направленным на обеспечение равных возможностей, активного участия и качественных результатов обучения для всех учащихся, независимо от их физических, когнитивных или социально-эмоциональных особенностей. В обучении химии лабораторная среда играет важную роль в развитии научного мышления, а также компетенций по поиску информации, её анализу и принятию обоснованных решений на основе доказательств через проведение экспериментов и исследовательскую деятельность. В данной статье рассматривается влияние инклюзивной лабораторной среды по химии на развитие компетенций учащихся. Опираясь на международные исследования и теоретические подходы, исследование демонстрирует, как инклюзивные практики — такие как дифференцированное обучение, адаптированное лабораторное оборудование, совместное обучение и принципы Универсального дизайна обучения способствуют развитию у учащихся навыков поиска и анализа данных, выдвижения гипотез и принятия научно обоснованных решений. Результаты показывают, что инклюзивная лабораторная среда не только поддерживает учащихся с особыми образовательными потребностями, но и значительно повышает уровень научного мышления и компетенций в принятии решений у всех учащихся. В статье представлены педагогические рекомендации для учителей химии и предложения для будущих исследований.

Ключевые слова: инклюзивное образование, химическая лаборатория, научное мышление, исследовательское обучение, универсальный дизайн обучения

KIRISH. Ilmiy fikrlash va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kimyo ta’limining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, u gipoteza ilgari surish, tajribani loyihalash, ma’lumotlarni izlash va tahlil qilish, dalillarni tanqidiy baholash hamda mantiqiy xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi [1]. Kimyo laboratoriyalari o‘quvchilarning ilmiy hodisalar bilan bevosita ishlashini ta’minlaydigan haqiqiy ta’lim muhiti bo‘lib, unda mavhum tushunchalar kuzatiladigan va o‘lchanadigan tajribaviy holatlarga aylantiriladi. Biroq an’anaviy laboratoriya muhitlari ko‘pincha o‘quvchilarning turli ta’lim ehtiyojlarini hisobga olmaydi, natijada ayrim o‘quvchilar uchun mazmunli ishtirok va chuqur kognitiv faollik cheklanib qoladi.

Inklyuziv ta’lim tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanib, barcha o‘quvchilar uchun qulay va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish orqali o‘rganish jarayonidagi to‘siqlarni bartaraf etishni maqsad qiladi [2]. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv laboratoriya

muhitlari o‘quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish va ilmiy dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada inklyuziv kimyo laboratoriya muhitining o‘quvchilarning ilmiy fikrlashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda laboratoriya dizayni va pedagogik yondashuvlarda inklyuzivlikni ta’minlash o‘quvchilarning kognitiv faolligini chuqurlashtirishi, mantiqiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirishi hamda yuqori darajadagi ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.


ASOSIY QISM

Ilmiy fikrlash — bu ilmiy bilimlarni yaratish, sinash va baholashda qo‘llaniladigan kognitiv va metakognitiv jarayonlar majmuasidir. Lavson tomonidan ta’kidlanishicha [3], ilmiy fikrlash induktiv va deduktiv mantiqiy fikrlash, o‘zgaruvchilarni nazorat qilish, proporsional munosabatlarni tushunish va reflektiv xulosalar chiqarishni o‘z ichiga oladi. Axborotni izlash va tahlil qilish jarayoni esa ilmiy fikrlashning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, o‘quvchilar tajriba ma’lumotlarini yig‘ib, turli manbalarni solishtiradi va xulosalar chiqaradi. Kimyo ta’limida ushbu ko‘nikmalar ayniqsa laboratoriya ishlarida rivojlanadi, chunki o‘quvchilar moddalar bilan ishlaydi, kimyoviy hodisalarni kuzatadi va dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradi.

Tadqiqotga asoslangan o‘qitish nazariyalari shuni ta’kidlaydiki, ilmiy fikrlash eng samarali tarzda o‘quvchilar tajriba o‘tkazib va refleksiya qilganda rivojlanadi [4]. Biroq bunday faollik barcha o‘quvchilar uchun ishtirok, muloqot va kognitiv qulaylikni ta’minlaydigan o‘quv muhitini talab qiladi.

Inklyuziv ta’lim — bu o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini hisobga olib, ularning faol ishtirokini oshirish va ta’limdagi cheklovlarni kamaytirish orqali ta’lim jarayonida inklyuziya yaratish jarayonidir [5]. Universal dizayn esa inklyuzivlikni amaliyotga tatbiq etish uchun qulay ramka bo‘lib, ta’lim jarayonida turli shakllarda tushuntirish, rag‘batlantirish va ifoda imkoniyatlarini ta’minlashni ko‘zda tutadi [6].

Kimyo laboratoriyalarida universal dizayn tamoyillari quyidagi usullar orqali qo‘llanilishi mumkin:



1-rasm. Kimyo laboratoriyalarida universal dizayn tamoyillari

Bunday yondashuvlar nafaqat nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarga foyda beradi, balki turli o‘quv uslublari va kognitiv imkoniyatlarga ega barcha o‘quvchilar uchun o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Inklyuziv kimyo laboratoriya muhiti jismoniy, pedagogik va ijtimoiy jihatdan qulaylik bilan tavsiflanadi. Jismoniy nuqtai nazardan, laboratoriyalar harakat cheklovlari, zaif ko‘ruvchi yoki zaif eshituvchi o‘quvchilarning xavfsiz va mustaqil ishtirokini ta’minlaydigan tarzda loyihalashtirilishi kerak [7]. Pedagogik jihatdan esa, o‘qituvchilar o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun differensial vazifalar, bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar va yordamchi texnologiyalardan foydalanishlari lozim.

Ijtimoiy jihatdan, inklyuziv laboratoriyalar hamkorlik, hurmat va umumiy mas’uliyatni rag‘batlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hamkorlikka asoslangan laboratoriya ishlari dialog, bahslashish va umumiy muammolarni hal qilish orqali tushuncha va ilmiy mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Muhimi, inklyuziv laboratoriyalar diqqatni faqat vazifalarni bajarishga qaratishdan ko‘ra, tushuncha va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltiradi, shu orqali laboratoriya ishlari ilmiy fikrlashni shakllantirish bilan yaqinroq bog‘lanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv laboratoriya amaliyotlari o‘quvchilarning tadqiqot ko‘nikmalarini, jumladan savol berish, gipoteza tekshirish va natijalarni talqin qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Agar laboratoriya vazifalari o‘quvchilarning imkoniyatlari va oldingi bilimlariga moslashtirilsa, ular kognitiv jihatdan faol ishtirok etadi va ilmiy jarayonni egallashga intiladi.

Shuningdek, inklyuziv muhitlar xavotir va kognitiv ortiqcha yukni kamaytiradi, bu esa o‘quvchilarga faqat ko‘rsatmalarga amal qilish o‘rniga mantiqiy fikrlashga e’tibor qaratishga imkon beradi. Natijada, mantiqiy fikrlash va sabab–natija munosabatlarini chuqurroq tushunish rivojlanadi. Ilmiy fikrlash empirik dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Inklyuziv laboratoriya muhitlari o‘quvchilarni ma’lumotlarni birgalikda tahlil qilish, turli izohlarni solishtirish va ilmiy fakttlar bilan xulosalarni asoslashga rag‘batlantiradi. Ma’lumotlarni qayd qilish, vizuallashtirish va uzatishning turli shakllari, masalan, grafiklar, og‘zaki izohlar va raqamli simulyatsiyalar, taqdim etilganda, inklyuziv laboratoriya turli shakllarda ilmiy ifoda va mantiqiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Amaliy tajribaga asoslangan dalillar inklyuziv kimyo laboratoriya muhitlarining samaradorligini yanada tasdiqlaydi. Roberts [8] maxsus ta’lim ehtiyojlari va nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni, ayniqsa zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator amaliy moslashuvlarni tavsiflaydi. Ushbu moslashuvlarga o‘lchash asboblariga taktil belgilar qo‘shish, laboratoriya jihozlarida yuqori kontrastli va floresan belgilardan foydalanish, materiallarni tartibli joylashtirish uchun laboratoriya jihozlari uchun maxsus tagliklardan foydalanish hamda xavfsizlik va mustaqillikni oshirishga xizmat qiluvchi soddalashtirilgan reagent berish tizimlari kiradi.

Shuningdek, Chataway-Green va Schnepp [9] zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun hidga asoslangan titrlash tajribasini ishlab chiqishgan. Ushbu tajribada an’anaviy rangli indikatorlar o‘rniga ekvivalent nuqta piyoz yoki sarimsoq kabi tabiiy indikatorlarning hidining keskin kuchayishi orqali aniqlangan. Tajriba universal dizayn tamoyillariga asoslangan bo‘lib, zaif

ko‘ruvchi va sog‘lom ko‘ruvchi o‘quvchilarning qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lmasdan teng ishtirok etishini ta’minlagan. O‘quvchilardan olingan fikr-mulohazalar ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqilligi va titrlash jarayonini tushunish darajasi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatgan.

Bunday amaliy moslashuvlar vizual belgilar va nozik motorik harakatlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirib, o‘quvchilarning tajriba jarayonlarida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari, ular sinfni boshqarishni yaxshilash, jihozlarning sinishini kamaytirish va barcha o‘quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Kognitiv nuqtayi nazardan qaralganda, foydalanish uchun qulay laboratoriya resurslari o‘quvchilarga jihozlarni boshqarishdagi qiyinchiliklarga emas, balki natijalarni talqin qilish, qonuniyatlarni aniqlash va kuzatuvlarni izohlashga e’tibor qaratish imkonini beradi. Ushbu holat ilmiy fikrlashni rivojlantirish maqsadlari bilan bevosita uyg‘un bo‘lib, inklyuziv laboratoriya muhitida ta’lim olgan o‘quvchilarda chuqurroq mantiqiy fikrlash va mustaqillik darajasi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi.

Inklyuziv laboratoriya muhitlari maxsus ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan bo‘lsa-da, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday muhit barcha o‘quvchilar uchun ijobiy natijalar beradi. Differensial o‘qitish va hamkorlikka asoslangan tadqiqot motivatsiyani oshiradi, ishtirokni rag‘batlantiradi va yuqori darajadagi fikrlashni rivojlantiradi. Shuning uchun inklyuzivlikni faqat yordamchi yondashuv sifatida emas, balki kimyo ta’limining sifatini yaxshilash vositasi sifatida qarash lozim.

XULOSA

Inklyuziv laboratoriya muhitlari barcha o‘quvchilarda ilmiy fikrlash va axborotni izlash, tahlil qilish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. O‘qituvchilar laboratoriya rejasi va baholash jarayonlariga inklyuziv dizayn tamoyillarini integratsiya qilishi zarur. Baholash usullari faqat texnik bajarish emas, balki ma’lumotni tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va ilmiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini qadrlashi kerak. Kelgusidagi tadqiqotlar inklyuziv laboratoriya amaliyotlarining ilmiy fikrlash va akademik natijalarga uzoq muddatli ta’sirini o‘lchashga qaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. OECD. (2019). PISA 2018 assessment and analytical framework. Paris: OECD Publishing.

2. UNESCO. (2020). Global education monitoring report: Inclusion and education. Paris: UNESCO.

3. Lawson, A. E. (2010). Teaching inquiry science in middle and secondary schools. Thousand Oaks, CA: Sage.

4. Bybee, R. W. (2013). The BSCS 5E instructional model: Creating teachable moments. Arlington, VA: NSTA Press.

5. UNESCO. (2017). A guide for ensuring inclusion and equity in education. Paris: UNESCO.

6. Meyer, A., Rose, D. H., & Gordon, D. (2014). Universal design for learning: Theory and practice. Wakefield, MA: CAST.

7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. Educational Researcher, 38(5), 365–379.

8. Roberts, F.(2023). Practical adaptations for students with special educational needs and disability. School Science Review, 105(389), 13–18.

9. Chataway-Green, R., & Schnepp, Z. (2022). An accessible olfactory titration experiment for the visually impaired. School Science Review, 104(386), 33–38.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TA’LIMGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV (PROFESSIONAL TA’LIM MISOLIDA)

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.029

M.D.Kurbanova
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim tizimida o‘quv natijalarini baholash mezonlarining o‘zgarishi, xususan, “malaka” tushunchasidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga o‘tish jarayoni tahlil qilinadi. Kompetentlik yondashuvining mohiyati, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda mutaxassislarni tayyorlash jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining ilmiy talqinlari, ularning pedagogik adabiyotlarda turlicha izohlanishi hamda mazkur tushunchalar o‘rtasidagi farqlar muhokama qilinadi. Maqolada TUNING dasturi doirasida ajratilgan umumiy va kasbiy kompetensiyalar tizimi ko‘rib chiqilib, ularning mazmuni tahlil etiladi. Ayniqsa, texnik va yuqori mas’uliyat talab qiladigan sohalarda, jumladan temir yo‘l transporti tizimida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning muhim jihatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kompetentlik yondashuvi mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalari, ijtimoiy faolligi, jamoada ishlash qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, kompetentlik yondashuvi, kasbiy kompetentlik, ta’lim tizimi, pedagogik yondashuv, umumiy kompetensiyalar, kasbiy kompetensiyalar, TUNING dasturi, temir yo‘l transporti mutaxassislari.

Аннотация.В данной статье рассматриваются изменения критериев оценки результатов обучения в системе образования, в частности переход от понятия «квалификация» к понятиям «компетенция» и «компетентность». Раскрывается сущность компетентностного подхода, его роль в современной системе образования и значение в процессе подготовки специалистов. Также анализируются научные трактовки понятий «компетенция» и «компетентность», их различное толкование в педагогической литературе и различия между ними. В статье рассматривается система общих и профессиональных компетенций, выделенных в рамках программы TUNING, и анализируется их содержание. Особое внимание уделяется формированию профессиональной компетентности специалистов в технических и высокоответственных сферах, в частности в системе железнодорожного транспорта. По результатам исследования обосновано, что компетентностный подход способствует

развитию не только теоретических знаний специалистов, но и их практических навыков, социальной активности, способности работать в коллективе и принимать самостоятельные решения.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, компетентностный подход, профессиональная компетентность, система образования, педагогический подход, общие компетенции, профессиональные компетенции, программа TUNING, специалисты железнодорожного транспорта.

Abstract. This article examines the changes in the criteria for evaluating learning outcomes in the education system, particularly the transition from the concept of “qualification” to the concepts of “competence” and “competency.” The essence of the competency-based approach, its role in the modern education system, and its importance in the training of specialists are analyzed. The study also considers different scientific interpretations of the concepts of competence and competency, their various explanations in pedagogical literature, and the distinctions between them. The article analyzes the system of general and professional competencies identified within the framework of the TUNING project. Special attention is given to the formation of professional competence among specialists working in technical and high-responsibility fields, particularly in the railway transport sector. The results of the study demonstrate that the competency-based approach contributes not only to the development of theoretical knowledge but also to practical skills, social activity, teamwork abilities, and independent decision-making among specialists.

Keywords: competence, competency, competency-based approach, professional competence, education system, pedagogical approach, general competencies, professional competencies, TUNING project, railway transport specialists.

KIRISH. Hozirgi davrda ta’lim tizimida o‘quv natijalarini baholash mezonlari sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. An’anaviy ravishda qo‘llanib kelgan “tayyorgarlik darajasi”, “bilimlilik”, “umumiy madaniyat”, “tarbiyalanganlik” kabi tushunchalar o‘rnini **“kompetensiya” va “kompetentlik”** tushunchalari egalladi. Bu yondashuv ta’lim jarayonining asosiy maqsadini nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratadi. Ayniqsa, **temir yo‘l transporti** kabi yuqori mas’uliyat va aniqlikni talab qiladigan sohalar uchun bu muhim ahamiyatga ega.

YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy mehnat bozorida ish beruvchilar uchun faqat malaka darajasi yetarli emas, chunki malaka ko‘pincha ma’lum operatsiyalarni bajarish qobiliyati bilan cheklangan. Aksincha, **kompetentlik** shaxsga xos ko‘nikma va sifatlarning uyg‘un majmuasi bo‘lib, unda kasbiy malaka bilan bir qatorda ijtimoiy xulq-atvor, jamoada ishlash qobiliyati, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi jihatlar ham muhim o‘rin egallaydi [5].

Shu sababli ta’lim tizimida **“malaka” tushunchasidan “kompetensiya” tushunchasiga o‘tish** jarayoni bugungi kunda rivojlangan ta’lim tizimlariga xos muhim tendensiyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, temir yo‘l transporti sohasida faoliyat yuritadigan

mutaxassislarni tayyorlash jarayonida **kasbiy kompetentlikni shakllantirish** masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili va mavjud pedagogik tajribalar o‘rganildi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, farqlari va ularni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilindi. Masalan, **A.V. Xutorskoy** kompetensiyani shaxsning ma’lum faoliyat sohasida samarali harakat qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tajribalar majmuasi sifatida ta’riflaydi [4].

Bundan tashqari, **O.V. Lebedev** kompetentlikni shaxsning nafaqat bilim va ko‘nikmalarga egaligini, balki ularni amaliy faoliyat jarayonida samarali qo‘llay olish qobiliyati sifatida ko‘radi [5].

Xalqaro integratsiya jarayonlari, Boloniya jarayoniga qo‘shilish va kredit-modul tizimi joriy etilishi terminologik birlikni ta’minlash zaruratini kuchaytirdi. Shu nuqtai nazardan, **I.A. Zimnyaya** kompetentlikni shaxsning bilimlari, tajribasi, qadriyatlari va faoliyatga tayyorligining integrallashgan ko‘rsatkichi sifatida ta’riflaydi [6].

Tilshunoslik, psixologik va pedagogik jihatlarni hisobga olgan holda, **A.G. Bermus** va **M.E. Bershadsky** nazarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining kirib kelishi tiliy noaniqliklarni keltirib chiqaradi [1]. Shu bilan birga, **N.B. Chelyshkova** ta’kidlaganidek, mamlakatimizda bu atamalar uchun yagona rasmiy termin mavjud emas [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kompetentlik yondashuvining ahamiyati va uni ta’lim tizimiga joriy etish zaruriyati katta bo‘lsa-da, ba’zi qarama-qarshiliklar mavjud. Tayanch kompetensiyalar va ularning tizimlari bo‘yicha turli fikrlar mavjud. Shu bilan birga, ham **Yevropa tayanch kompetensiyalari tizimi** (masalan, TUNING dasturi), ham O‘zbekistonda ishlab chiqilgan tasniflar qo‘llaniladi.

TUNING dasturi doirasida, Boloniya deklaratsiyasini imzolagan 16 davlatdan 100 dan ortiq universitet ishtirok etgan tadqiqot davomida bir nechta kompetensiyalar guruhi ajratib ko‘rsatildi [7].

I. Umumiy kompetensiyalar

1. **Instrumental kompetensiyalar** – kognitiv qobiliyatlar, metodologik qobiliyatlar, texnologik ko‘nikmalar, lingvistik va kommunikativ qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.

2. **Shaxslararo kompetensiyalar** – o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijtimoiy va axloqiy majburiyatlarni bajarish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

3. **Tizimli kompetensiyalar** – tizimning qismlari o‘zaro qanday bog‘langanini anglash, o‘zgarishlarni rejalashtirish va yangi tizimlarni yaratish imkonini beradi.

II. Maxsus (kasbiy) kompetensiyalar

Yevropa Kengashi yoshlarni tayyorlashda beshta asosiy kompetensiya guruhini belgilagan:

- **Siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar** – mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, qarorlarni birgalikda ishlab chiqish, turli etnik va diniy madaniyatlarga bag‘rikenglik, demokratik institutlarda ishtirok etish.
- **Madaniyatlararo kompetensiyalar** – turli millat va madaniyat vakillari bilan ijobiy munosabatlar, hurmat va tushunishni rivojlantirish.
- **Kommunikativ kompetensiya** – turli tillarda og‘zaki va yozma muloqot, shu jumladan kompyuter dasturlash va Internet orqali muloqot.
- **Ijtimoiy-informatsion kompetensiya** – axborot texnologiyalarini qo‘llash va ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlarga tanqidiy yondashish.
- **Shaxsiy kompetensiya** – ta’lim darajasini oshirishga tayyorlik, shaxsiy potensialni amalga oshirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash, o‘zini rivojlantirish [3].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mohiyatini aniqlash va ularni ta’lim jarayonida amaliy qo‘llash zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu tushunchalarni to‘liq va aniq belgilash pedagoglar, o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar va ta’lim siyosati mutaxassislari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetentlik yondashuvi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashni, murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishni, jamoada samarali ishlashni va professional muhitdagi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi.

Ayniqsa, texnik va yuqori mas’uliyat talab qiladigan sohalarda, masalan, temir yo‘l transportida, mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Temir yo‘l sohasida xodimlar nafaqat texnik jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish, xavfsizlik talablariga rioya qilish, balki favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali qaror qabul qilish, jamoaviy ishni muvofiqlashtirish, shuningdek, mijozlar va hamkasblar bilan ijtimoiy muloqotda bo‘lish qobiliyatiga ega bo‘lishlari lozim. Shu nuqtai nazardan, kompetentlik yondashuvi bu sohaga xos bo‘lgan professional standartlarni shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi

XULOSA

Kompetentlik yondashuvi ta’lim jarayonining amaliy qobiliyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan muhim elementi hisoblanadi. “Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini aniqlashtirish, ularning mazmunini ilmiy asoslash va terminologik birlikni ta’minlash zamonaviy ta’lim tizimida dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании [Электронный ресурс] // Интернет-журнал «Эйдос». – 2005. 10 сентября. – Режим доступа: http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm

2. Челышкова Н.Б. О возможных направлениях модернизации образовательных стандартов: Материалы 11-й Всероссийской научно-методической конференции. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001. – С. 53–55.

3. Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. – М.: Чистые пруды, 2007. – 32 с.

4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированного образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.

5. Лебедев О.В. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии. – 2004. – №5. – С. 3–12.

6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.

7. Реферативный бюллетень: компетентностный подход / Рос. гос. гуманит. ун-т [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.gumchtenia.rggu.ru/binary/56572_11.1173464019.22977.doc

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

СОВРЕМЕННЫЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭКОПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ОПЫТ – РАЗВИТИЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ОБ ОХРАНЕ ПРИРОДЫ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.030

Ли Куньлинь
независимый исследователь, Узбекского государственного университета мировых языков
ORCID:10.1063/5.0258385

Аннотация.В данной статье анализируются пути решения социально-экономических и экологических проблем, связанных с передачей природных ресурсов будущим поколениям. Посвящена творческим концептуальным подходам к совершенствованию экологического образования на основе международного опыта. Также описываются окружающая среда, значимые географические особенности, взаимосвязи между элементами экосистемы, природные явления, а также состояние водных и земельных ресурсов.

Ключевые слова: международный опыт, экологическое образование, креативное концептуализация, окружающая среда, элементы экосистемы, природные явления, водные и земельные ресурсы.

Annotatsiya. Ushbu maqola tabiat boyliklarini kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy ekologik muammolarga yechimlar tahlil qilingan. Xalqaro tajribaga asoslangan holda ekologik ta’limni takomillashtirishga ijodiy konseptual yondashuvlarga bag‘ishlangan. Shuningdek, atrof-muhit, muhim geografik xususiyatlar, ekotizim elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tabiiy hodisalar, suv va yer resurslarining holati bayon etilgan.

Kalit so‘zlari: xalqaro tajriba, ekologik ta’lim, ijodiy konseptuallik, atrof-muhit, ekotizim elementlari, tabiiy hodisalar, suv va yer resurslari.

Abstract. This article analyzes solutions to socio-economic environmental problems related to the transfer of natural resources to future generations. It is devoted to creative conceptual approaches to improving environmental education based on international experience. It also describes the environment, important geographical features, the interrelationships between ecosystem elements, natural phenomena, and the state of water and land resources.

Keywords: international experience, environmental education, creative conceptualization, environment, ecosystem elements, natural phenomena, water and land resources.

Введение. При развитии экологических знаний, сознания и культуры молодёжи обращается особое внимание на научные исследования по совершенствованию системы экологического образования среди организаций в сфере экологии, а также охраны окружающей среды, сфере её контроля. В образовательных и научных учреждениях мира проводятся научные исследования по расширению у студенческой молодёжи понятия об охране окружающей среды, эффективно используя возможности образования, обеспечению гармонии отношений между природой и человеком, созданию в современных условиях электронно-методических средств экологического образования, расширению использования инноваций.

В последние годы в нашей стране создаются нормативные основы повышения уровня качества высшего образования, совершенствования экологической компетентности будущих педагогических кадров, ответственного подхода к природе, охраны и рационального использования природных богатств, обогащения флоры и фауны. В качестве приоритетной определена задача воспитания “физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой, самостоятельно мыслящей, преданной Родине молодежи с твердыми жизненными взглядами” [1]. Эффективное использование при ралізации этой задачи существующих педагогических образовательных возможностей расширяет возможности развития экологической компетентности будущих педагогов.

Исследования по актуальным вопросам экологии, решению социально-экологических проблем и роли в этом специалистов-педагогов проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в частности, Стэнфордский университет (США), Оксфордский университет (Великобритания), Флорентийский университет (Италия), Университет Тохоку (Япония), Московском государственном педагогическом университете, Российском государственном педагогическом университете имени А.И.Герцена, Московском государственном университете имени М.В.Ломоносова (Российская Федерация).

Методы. На основе проведённых в мире исследований по развитию экологического образования будущих педагогов получен ряд результатов: Стэнфордский университет (США) – создана программа киберобразования организации разъяснения резкого изменения климата и понятий о природе на основе видеофильмов об охране окружающей среды; Оксфордский университет (Великобритания) – выявлены условия целевого изменяющегося образования, решающего взаимосвязанные проблемы экологической стабильности и социальной справедливости; Флорентийский университет (Италия) – разработана методика стимулирования концептуальных изменений у студентов на основе экологического образования при стабильном развитии социального общества; Университет Тохоку (Япония) – создана программа сети онлайн экологического образования в преподавании понятий об отрицательном влиянии деятельности человека на окружающую среду и охране окружающей среды в образовании бакалавров; Московский государственный педагогический университет (Россия) – организован центр пропаганды рационалного использования природных ресурсов, социализации и экологического воспитания, развития человека; Российский

государственный педагогический университет имени А.И.Герцена – получены научные результаты по развитию в воспитании молодёжи охраны окружающей среды, сохранения и эффективного использования природных ресурсов; Московский государственный университет имени М.В.Ломоносова (Российская Федерация) – налажено проведение семинаров по проблемам человеческой экологии, взаимосязи экологии с биологией и природными ресурсами, связи экологии с антропологической деятельностью человека.

Результаты. В Узбекистане научно-исследовательские работы по педагогическим аспектам организации охраны окуржающей среды, природы, основ экологического образования педагогов в высших образовательных учреждениях, причинам, путям устранения экологической опасности в условиях глобализации, повышению чувства ответственности молодёжи за охрану природы, окружающей среды проведены такими учёными, как К.Абдурахимов, М.Э.Мусаева, В.Никитин, Н.У.Нишонова, Х.Норбутаев, Т.Сапаров, В.Н.Сатторов, Х.Тогаев, Э.О.Турдиқулов [4]. М.Аллаяровым, М.М.Аликуловой, С.М.Мамашокировым исследованы теоретические и практические проблем развития экологической грамотности, социальной активности студентов, изучения сокровищ духовного наследия.

Учёными стран Содружества Независимых Государств Т.В.Анисимовой, А.Гореловым, О.Е.Калининой, Г.А.Папутковой, О.Е.Перфиловой, Р.Сейитжановой, С.Холназаровым, Н.В.Чебышевым проводились научно-исследовательские работы по вопросам развития в процессе образования экологической культуры и социально-экологический компетентности студентов [4].

Особенности создания Онлайн образовательной программы и сети экологического образования для бакалавриата высших образовательных учреждений, проблемы стимулирования концептуальных изменений у студентов путём экологического образования при стабильном развитии социального общества исследованы в трудах таких учёных зарубежных стран, как Э.Аму, Р.Мизусава, Ф.А.Рандриамахафали, А.Шик [2].

Работы, выполненные таким учёными, как А.Барвин, Н.Л.Заяс, Дж.Корси, М.Стенекен, Дж.Стоккен, Л.Г.Темпл, Д.В.Кристин по вопросам воспитания на основе видеофильмов, разъясняющих понятия резкого изменению климата и природы, в определённой степени направлены на решение проблемы исследования [4].

Являются формы, методы и средства совершенствования механизмов развития экологической компетентности будущих педагогов высших образовательных учреждений. Научная значимость результатов исследования в том, что усовершенствованы теоретические и методические аспекты механизмов развития экологической компетентности будущих педагогов в высших образовательных учреждениях; разработаны модель, развивающая экологическую компетентность будущих педагогов, научные выводы, позволяющие достичь высокой степени этой компетентности; выбраны теоретические материалы и проведена их апробация.

Практическая значимость результатов исследования в том, что выявлены возможности творческого концептуального подхода в развитии экологического образования; внедрены в систему высшего педагогического образования учебно-методические комплексы по развитию экологической компетентности студентов; эти результаты послужили обогащению и совершенствованию содержания смежных с педагогикой наук; выдвинутые в исследовании научно обоснованные, теоретически и практически значимые предложения можно использовать в деятельность высших педагогических образовательных учреждений.

Обсуждение. Анализ научно-исследовательских работ, выполненных в период модернизации образования, показывает, что в Республике Узбекистан проведение научного анализа проблемы развития экологического образования, возникшей не только в таких науках, как философия, история, социололгия, экономика и правоведение, но и в педагогической науке, является проблемой, имеющей важное значение. В исследовательских работах, проведённых учёными по данной проблеме, дана характеристика содержания и сущности развития экологической компетентности (РЭК) будущих педагогов.

Ученый-педагог Э.О.Турдикулов, внесший вклад в развитие и прогресс экологического образования в области педагогики в Узбекистане, провел ряд научно-исследовательских работ по обеспечению экологического образования и его преемственности для учащихся на основе естественных наук. В его трудах в широком содержании комментируются понятия «Экология», «Экологическое образование и воспитание». Э.О.Турдикулов научно обосновал свои суждения о формировании в сознании младших школьников чувства любви к природе и внушении того, что человек не может жить без природных богатств [4].

Американский учёный Ж.У.Огбу разработал идею развития культурно-экологической компетентности на основе межкультурного или межгруппового сопоставления в процессе воспитания ребёнка в семье, микроусловиях, а исследователь Эйндховен технологического университета Н.Росзен создал целостную систему нравственных мотивов при развитии экологической компетентности. Он охарактеризовал понятие экологической компетентности как «пустоту в пропаганде экологического поведения, обладающую знаниями о природе и окружающей среде, экологическом поведении» [3].

Латвийские учёные Рута Ренигере и Ева Кела из университета Рига Страдинс, изучавшие развитие экологической компетентности студентов в сочетании с медицинскими знаниями, считают, чтобы студенты обратили свою профессиональную деятельность на охрану окружающей среды и овладели способностями разъяснять мнение об ощущении живой природы, лояльности и уважения к природе [4]. Вместе с тем они научно обосновывают идею развития способности разъяснять людям охрану окружающей среды и влияние на неё.

Российские учёные О.Перфилова, Ю.Ализаде разработали в своих научных изысканиях идею подготовки к естественной, социальной деятельности, достаточной

для развития экологической компетентности будущих педагогов. В соответствии с требованиями учения В.А.Лейа, при формировании экологических знаний, навыков и умений студентов имеет важное значение приоритетность вопросов проявления экологического сознания и мировоззрения, связанного с минимизации экологических ситуаций, рисков в индивидуальных качествах личности.

Г.А.Папуткова разработала методы организации развития экологической компетентности студентов университета на основе эволюции стабильного развития природы и общества. По её мнению, экологическая компетентность – это способность, обеспечивающая социально-экологическую и профессиональную готовность специалиста к профессиональной деятельности, здоровое поведение, отражающая оперативную и эффективную реализацию [6]. О.Е.Перфилова с социально-культурной точки зрения обосновала требования РЭК. По её утверждению, экологическая компетентность – это готовность человека принять личное событие, его сущность, субъективное восприятие окружающей реальности, осознание социализации, ответственность за профессиональную деятельность естественных и социально-культурных компонент.

В ходе исследования, в результате изучения подходов учёных различных сфер к проблеме РЭК выявлено, что существует потребность в педагогических научных исследованиях по специальному изучению вопроса РЭКБП в ВОУ Узбекистана, воспитанию граждан, способных обеспечить глобальную и региональную экологическую безопасность общества, обладающего педагогами, ответственными за воспитание молодёжи.

В процессе исследований научнчо-теоретически обоснованы критерии, определяющие понятие экологической компетентности, его педагогическое содержание, составные части, критерии уровня его развитости у студентов. В соответствии с результатами анализа можно дать следующее определение: экологическая компетентность будущих педагогов – это усвоенные будущим учителем экопедагогические знания, навыки, умения, его убеждения, мотивы, ценностные ориентиры, личностные качества, имеющие значение для экологического образования и воспитания, а также интегративные качества, определяющие способность совершать действия в системе «человек – общество – природа – духовность» соответственно практическому опыту экопедагогической деятельности.

Изучение научно-теоретической литературы и практического состояния развитости экологической компетентности студентов потребовал при нахождении решения этой проблемы обратить внимание на следующие вопросы: актуальность проблемы развития экологической компетентности будущих педагогов и расширение педагогических возможностей; совершенствование механизмов экологической компетентности студентов в высших педагогических образовательных учреждениях; выявление показателей развитости экологической компетентности будущих педагогов; творческое использование опыта, накопленного передовыми университетами мира, при

создании нового поколения учебных пособий, учебников, методических указаний по экологическому образованию.

Выводы. На основе результатов научно-практического исследования, проведённого по совершенствованию механизмов развития экологической компетенции будущих педагогов в высших образовательных учреждениях:

предложения по повышению экологической компетентности учащихся были реализованы на основе адаптации эффективности традиционных, институциональных и межличностных рефлексивных развивающих отношений к содержанию предметов экологического образования, а также постепенной интеграции исторического наследия и национальных традиций с компонентами знаний об образовательной среде. В результате нашли своё отражение в учебниках научно обоснованные аналитические материалы и идеи по повышению содержании и качества образования при развитии теоретических экологических знаний студентов;

в процессе перехода инновационных форм образования от адаптивного уровня к уровню систематического моделирования при реализации поставленных задач были выдвинуты предложения по совершенствованию экологической модели образования на основе концептуального моделирования последовательности педагогических и алгоритмических процессов. В результате повышена эффективность развития экологической компетентности студентов;

для достижения этих целей были выдвинуты предложения по совершенствованию механизмов развития экологической компетентности учащихся на основе психологических, правовых и организационных компонентов, психологических факторов и организации ориентированной на учащихся деятельности, а также по моделированию процессов управления и мониторинга экологического педагогического образования. Реализация этих предложений способствовала преподаванию экологического образования в образовательном процессе и его методическому аспекту.

Список литературы.

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». – Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70.

2. Alexandra Schick. Ökologische Bildung in der Evangelischen Erwachsenenbildung Bayern – zwischen Programm und Realität. Hamburg 2020. – S. 586.

3. Espe Amu. How does education for sustainable development encourage conceptual change in students through an environmental footprint? June 19, 2019. https://dumas.ccsd.cnrs.fr/dumas-02159900.

4. Муртозаева М.М. Совершенствование механизмов развития экологической компетентности будущих преподавателей в высших образовательных учреждениях: Док.пед. наук. дисс.автореф. – Ташкент: 2022. – С. 68.

5. Reyko Mizusava. Feature of creating a network of environmental education. Efforts of secondary school teachers to share teaching materials and methods in the field of ecology. 2016 Volume 66, № 3. – Pp. 629-938.

6. Сейтжанова Р.А. Экологическое образование как средство формирования экологической культуры личности студентов: Канд.педагог.наук. ... дисс. автореф. – Алматы: 2010. – С. 27.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

EMPIRIK TADQIQOT NATIJALARI ASOSIDA RAHBARLARNING TRANSFORMATSION LIDERLIK KO'NIKMALARI DARAJASI VA MUAMMOLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.031

Oriental universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
Latifova Mavjuda Xurranovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy menejmentda eng samarali yetakchilik uslublaridan biri hisoblangan transformatsion liderlikning rahbarlar faoliyatidagi o'rni empirik tadqiqotlar orqali tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston kompaniyalarida faoliyat yurituvchi rahbarlarning transformatsion liderlik ko'nikmalari darajasini aniqlash va ushbu jarayonda yuzaga keladigan asosiy muammolarni identifikatsiya qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida 150 nafar o'rta va yuqori bo'g'in rahbarlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, rahbarlarning aksariyati transformatsion liderlik elementlarini qisman qo'llaydi, biroq to'liq potensialdan foydalanishda kommunikatsiya, vizyonerlik va individual yondashuv bo'yicha jiddiy cheklovlar mavjud. Maqolada olingan natijalar asosida rahbarlarning professional rivojlanishini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: transformatsion liderlik, empirik tadqiqot, rahbarlik ko'nikmalari, motivatsiya, menejment, inson resurslari, organizatsion madaniyat.

Аннотация: В данной статье на основе эмпирического исследования анализируется роль трансформационного лидерства, считающегося одним из наиболее эффективных стилей лидерства в современном менеджменте, в деятельности руководителей. Основная цель исследования – определить уровень навыков трансформационного лидерства у руководителей, работающих в узбекских компаниях, и выявить основные проблемы, возникающие в этом процессе. В ходе исследования был проведен опрос 150 менеджеров среднего и высшего звена. Результаты показали, что большинство руководителей частично применяют элементы трансформационного лидерства, но существуют серьезные ограничения в плане коммуникации, видения и индивидуального подхода к использованию их полного потенциала. На основе полученных в статье результатов разработаны практические рекомендации по обеспечению профессионального развития руководителей.

Ключевые слова: трансформационное лидерство, эмпирическое исследование, лидерские навыки, мотивация, менеджмент, человеческие ресурсы, организационная культура.

Abstract. This article analyzes the role of transformational leadership, which is considered one of the most effective leadership styles in modern management, in the activities of leaders through empirical research. The main goal of the study is to determine the level of transformational leadership skills of leaders operating in Uzbek companies and identify the main problems that arise in this process. During the study, a survey was conducted among 150 middle and senior managers. The results showed that the majority of leaders partially apply the elements of transformational leadership, but there are serious limitations in terms of communication, visionary and individual approach in using their full potential. Based on the results obtained in the article, practical recommendations were developed to ensure the professional development of leaders.

Keywords: transformational leadership, empirical research, leadership skills, motivation, management, human resources, organizational culture.

KIRISH.XXI asr globallashuv va raqamlashtirish davri bo'lib, unda tashkilotlarning muvaffaqiyati nafaqat texnologik imkoniyatlar, balki inson kapitalini boshqarish samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir. An'anaviy avtoritar boshqaruv uslublarining samarasizligi ortib borayotgan bir paytda, xodimlarni ilhomlantirish, ularning intellektual salohiyatini o'stirish va umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirishga qodir bo'lgan yetakchilik modellari talabga aylandi[1]. Shu nuqtai nazardan, transformatsion liderlik (o'zgartiruvchi yetakchilik) konsepsiyasi zamonaviy menejment ilmining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Transformatsion liderlik birinchi marta Jeyms Makgregor Berns tomonidan 1978-yilda taklif qilingan bo'lib, keyinchalik Bernard Bass tomonidan rivojlantirilgan. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, transformatsion liderlar xodimlarning ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish, ularda ishonch uyg'otish va tashkilot manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishga undash orqali kutilganidan yuqori natijalarga erishadilar[2]. Biroq, nazariy jihatdan juda jozibali ko'ringan ushbu yondashuvning amaliyotda qanday qo'llanilishi va qanday to'siqlarga duch kelishi har bir mamlakatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy kontekstiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi va xususiy sektorning ulushining oshishi rahbarlardan yangicha kompetensiyalarni talab etmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida menejment sifatini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy tashkilotlarda rahbarlik uslublarining o'zgarish sur'ati turlicha bo'lib, ba'zi hollarda an'anaviy buyruqbozlik uslublari hamon ustunlik qilmoqda[3]. Bu esa xodimlarning motivatsiyasiga va tashkilotning innovatsion rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODILOGIYASI

Akademik A.A. Abdullayevning ushbu darsligi O‘zbekistonda zamonaviy menejment ta’limining poydevori hisoblanadi.[4] Muallif kitobda an’anaviy buyruqbozlik uslubidan innovatsion va transformatsion liderlikka o‘tish zaruratini alohida ta’kidlaydi. Abdullayevning

fikricha, O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida rahbarlardan nafaqat ishlab chiqarishni tashkil qilish, balki jamoani ruhlantirish va intellektual salohiyatni rivojlantirish talab etiladi. Ushbu manba bizning tadqiqotimizda mahalliy sharoitda transformatsion liderlikning nazariy asoslarini belgilashda va rahbarlarning yangi kompetensiyalar ro‘yxatini tuzishda metodologik yo‘riqnoma vazifasini o‘tadi. Muallif keltirgan "raqobatbardosh rahbar" modeli empirik tadqiqotimizdagi baholash mezonlari uchun asos bo‘ldi. Sh.Sh. Xoliqovning ushbu monografiyasi rahbarlik jarayonlarining psixologik jihatlariga, xususan, xodimlarni motivatsiyalashtirish va ularda ishonch uyg‘otish mexanizmlariga bag‘ishlangan.[5] Muallif O‘zbek milliy mentaliteti xususiyatlarini hisobga olgan holda, g‘arbcha transformatsion liderlik modellarini mahalliylashtirish yo‘llarini taklif qiladi. Xoliqov ta’kidlaganidek, o‘zbek jamoalarida "ustoz-shogird" an’analari va jamoaviylik (kollektivizm) kuchli bo‘lgani uchun, transformatsion liderlikning "individual yondashuv" va "idealizatsiya" komponentlari ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin. Ushbu asar tadqiqotimizda aniqlangan "madaniy qarshilik" muammolarini tushunishda va natijalarni milliy kontekstda talqin qilishda kalit rol o‘ynadi. D.K. Rahimovaning ushbu ilmiy maqolasida tashkilotlarning innovatsion rivojlanishida rahbarning transformatsion xususiyatlarining ta’siri empirik yo‘l bilan o‘rganilgan.[6] Muallif Toshkent viloyatidagi bir qator sanoat korxonalarida o‘tkazgan so‘rovnomalar natijasida, transformatsion liderlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan rahbarlar boshqaruvidagi korxonalarda yangiliklarni joriy etish sur’ati 30% ga yuqori ekanligini isbotlagan. Ushbu maqola bizning tadqiqotimiz uchun bevosita taqqoslash materiali bo‘lib xizmat qildi. Rahimovaning "liderlik va innovatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik" gipotezasi bizning natijalarimizdagi "intellektual rag‘batlantirish" ko‘rsatkichining pastligi sabablarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. O.Q. To‘rayevning ushbu tadqiqot ishi davlat sektori va yirik strategik korxonalardagi rahbarlik salohiyatini oshirish masalalariga bag‘ishlangan.[7] Muallif davlat xizmatchilari va rahbarlarida transformatsion liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha maxsus o‘quv modullarini ishlab chiqqan. Kitobda keltirilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi 5 yilda rahbarlar tayyorlov markazlarida transformatsion liderlik kurslarini o‘tagan tinglovchilarning faoliyat samaradorligi oshgan. Ushbu manba tadqiqotimizdagi "yosh rahbarlarda ko‘nikmalar yuqoriroq" degan xulosamizni tasdiqlaydi, chunki yosh avlod aynan shu yangilangan ta’lim dasturlari bitiruvchilaridir. To‘rayevning takliflari rahbarlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha biz ishlab chiqqan tavsiyalarning davlat siyosati darajasidagi ahamiyatini oshirdi.

TADQIQOT NATIJALARI

O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari rahbarlarning transformatsion liderlik ko'nikmalari darajasi haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etdi. Umumiy natijalarga ko'ra, ishtirokchilarning transformatsion liderlik bo'yicha o'rtacha balli 5 ballik shkalada 3.4 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'rtacha darajadan yuqori bo'lsa-da, ideal ko'rsatkichdan (4.5-5.0) ancha past ekanligini anglatadi.

Tadqiqot davomida transformatsion liderlikning to'rtta asosiy komponenti alohida tahlil qilindi. Natijalar quyidagicha taqsimlandi:

1. Idealizatsiya qilish: Ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha ball 3.8 ni tashkil etdi. Bu shuni ko'rsatadiki, rahbarlar o'z xodimlari oldida mas'uliyatli va ishonchli yetakchi sifatida ko'rinishga harakat qiladilar. Ko'pchilik rahbarlar o'z xulq-atvori orqali namuna bo'lishga intiladi, ammo ba'zi hollarda bu sun'iy ko'rinishi mumkin.

2. Ilhomlantirish: O'rtacha ball 3.2. Bu eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, rahbarlarning tashkilotning kelajak vizyonini xodimlarga yetkazishda va ularni ruhlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishini bildiradi. Ko'p hollarda maqsadlar faqat raqamli ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi, ilhomlantiruvchi g'oyalar yetishmaydi.

3. Intellektual rag'batlantirish: O'rtacha ball 3.3. Rahbarlar xodimlarning yangi g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga tayyor, biroq xatoliklarga yo'l qo'yish qo'rquvi tufayli innovatsion yechimlarni to'liq rag'batlantirmaydilar.

4. Individual yondashuv: O'rtacha ball 3.4. Rahbarlar xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olishga harakat qiladilar, ammo vaqt yetishmasligi tufayli bu jarayon tizimli emas.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh rahbarlar (25-35 yosh) transformatsion liderlik ko'nikmalarini yoshi kattaroq rahbarlarga nisbatan yuqoriroq darajada qo'llaydilar. Yosh rahbarlarning o'rtacha balli 3.7 ni tashkil etsa, 46 yoshdan oshgan rahbarlarda bu ko'rsatkich 3.1 ga teng. Bu avlodlararo farq va yangi menejment tendensiyalariga moslashuv darajasi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, boshqaruv tajribasi 3-10 yil bo'lgan rahbarlarda ko'nikmalar eng yuqori darajada kuzatildi, chunki ular an'anaviy va zamonaviy uslublar o'rtasida muvozanat topishga ulgurishgan.

So'rovnomaning ochiq savollar qismi va qo'shimcha intervyular asosida rahbarlarning transformatsion liderlikni qo'llashdagi asosiy muammolari identifikatsiya qilindi. Ular quyidagi guruhlarga bo'lindi:

Vaqt taqchilligi (45%): Rahbarlarning 45%i transformatsion liderlik uchun kerakli bo'lgan xodimlar bilan muloqot qilish, ularni o'qitish va ilhomlantirishga vaqt ajrata olmasligini ta'kidladi. Ular ko'proq operatsion vazifalarga e'tibor qaratishga majbur bo'lmoqda.

Tashkilot madaniyati qarshiligi (30%): Ba'zi tashkilotlarda hali ham avtoritar madaniyat hukmronlik qiladi. Transformatsion liderlikka o'tish jarayonida yuqori lavozimli shaxslar yoki egalik qiluvchilar tomonidan bosim o'tkazilishi holatlari kuzatilgan.

Ko'nikmalarning yetishmasligi (15%): Rahbarlar liderlikning psixologik jihatlari bo'yicha yetarli treninglar olmagan. Ular "nima qilish kerak"ligini biladilar, lekin "qanday qilish" bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega emaslar^8^.

Xodimlarning tayyorgarligi (10%): Ba'zi hollarda xodimlarning o'zlari ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va mustaqil qaror qabul qilishga tayyor emaslar, bu esa rahbarning transformatsion harakatlarini samarasiz qiladi.

NATIJALAR MUHOKAMASI

Olingan empirik natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan taqqoslanganda bir qancha o'xshashlik va farqlarni namoyon etdi. G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda transformatsion liderlik o'rtacha balli odatda 4.0 dan yuqori bo'ladi[8]. O'zbekistonda bu ko'rsatkichning pastroq bo'lishi bir qancha omillar bilan izohlanishi mumkin.

Birinchidan, madaniy kontekst. O'zbekiston jamiyatida hali ham masofaviylik (power distance) yuqori bo'lib, xodimlar rahbardan aniq ko'rsatma kutishadi, rahbar esa xodimdan ijro etishni. Transformatsion liderlik esa hamkorlik va teng huquqli munosabatlarni talab qiladi. Ushbu madaniy kodning o'zgarishi vaqt talab etadi. Rahbarlarning "Idealizatsiya" bo'yicha yuqori balli shuni ko'rsatadiki, ular avtoritetga ega bo'lishni xohlaydilar, lekin bu avtoritetni demokratiya bilan uyg'unlashtirishda qiyinchiliklar bor.

Ikkinchidan, ta'lim va rivojlanish tizimi. Ko'plab rahbarlar lavozimga texnik mutaxassis sifatida ko'tariladilar va ularda menejment va psixologiya bo'yicha maxsus tayyorgarlik yetarli emas. "Ko'nikmalarning yetishmasligi" muammosi (15%) aynan shu bilan bog'liq. Transformatsion liderlikni qo'llash uchun emotsional intellekt, aktiv tinglash va konstruktiv fikr bildirish kabi yumshoq ko'nikmalar (soft skills) zarur. Hozirgi kunda mahalliy biznes maktablarda ushbu yo'nalishdagi treninglar soni oshmoqda, ammo ular hali ham ommaviy emas.

Uchinchidan, tashkilot tuzilmasi. Ko'plab kompaniyalarda gorizontal aloqalar rivojlanmagan. Ma'lumotlar faqat tepadan pastga oqadi. Transformatsion liderlik esa fikr almashinuvini talab qiladi. "Intellektual rag'batlantirish" bo'yicha o'rtacha natija (3.3) shuni ko'rsatadiki, rahbarlar xodimlarning g'oyalarini eshitishga tayyor, ammo qaror qabul qilish jarayoniga ularni to'liq jalb qilishda cheklovlar mavjud.

Yosh rahbarlarning yuqori ko'rsatkichlari ijobiy tendensiya hisoblanadi. Bu yangi avlodning globallashuv sharoitida shakllangani va zamonaviy menejment standartlariga yaqinligi bilan izohlanadi. Kelajakda ushbu avlodning lavozimlarda ko'payishi bilan transformatsion liderlik darajasi oshishi kutilmoqda.

Biroq, "Vaqt taqchilligi" muammosi (45%) eng jiddiy to'siqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kuchayib, rahbarlardan qisqa vaqt ichida yuqori natija talab qilinmoqda. Transformatsion liderlik esa uzoq muddatli strategiya bo'lib, uning samarasi darhol ko'rinmasligi mumkin. Bu esa rahbarlarni tezkor natija beruvchi avtoritar uslubga qaytishga majbur qiladi. Ushbu muammoni yechish uchun tashkilotlarda delegirlash tizimini yo'lga qo'yish va rahbarlarning operatsion yuklamasini kamaytirish zarur.

Xodimlarning tayyorgarligi masalasi ham muhim. Transformatsion liderlik faqat rahbarga bog'liq emas, balki xodimlarning ham proaktivligini talab qiladi. Agar xodimlar mas'uliyatdan qochsa, rahbarning har qanday ilhomlantirish harakati samarasiz bo'ladi. Shu sababli, HR bo'limlari nafaqat rahbarlarni, balki oddiy xodimlarni ham liderlikka o'qitish kerak.

Natijalardagi "o'zini-o'zi baholash" va "xodimlar baholashi" o'rtasidagi farq (0.4 ball) kognitiv dissonansni anglatadi. Rahbarlar o'zlarini yaxshi lider deb hisoblaydilar, ammo xodimlar buni boshqacha sezadilar. Bu kommunikatsiyadagi uzilishlar bilan bog'liq. Rahbar o'z niyatini to'g'ri yetkaza olmasligi yoki xodimlar rahbar harakatlarini boshqacha interpretatsiya qilishi mumkin. Ushbu farqni qisqartirish uchun muntazam feedback (aks aloqa) tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, O'zbekistonda transformatsion liderlikka o'tish jarayoni boshlangan, ammo u hali dastlabki bosqichda. Potensial yuqori, ammo uni amalga oshirish uchun tizimli o'zgarishlar zarur.

Xulosa

Ushbu empirik tadqiqot natijasida O'zbekiston kompaniyalaridagi rahbarlarning transformatsion liderlik ko'nikmalari darajasi o'rganildi va bir qator muammolar aniqlandi. Tadqiqot yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Rahbarlarning transformatsion liderlik ko'nikmalari darajasi o'rtacha (3.4/5.0) bo'lib, bu global standartlardan past, ammo rivojlanish potensiali yuqori ekanligini ko'rsatadi.
2. Eng kuchli tomon rahbarlarning shaxsiy namuna bo'lishi (idealizatsiya), eng zaif tomoni esa xodimlarni ilhomlantirish va vizyonerlikdir.
3. Asosiy to'siqlar sifatida vaqt taqchilligi, an'anaviy tashkilot madaniyati va maxsus ko'nikmalarning yetishmasligi aniqlandi.
4. Yosh rahbarlarda transformatsion liderlik ko'nikmalari yuqoriroq darajada kuzatilmoqda, bu kelajakda ijobiy o'zgarishlarni bashorat qiladi.
5. Rahbarlarning o'zini-o'zi baholashi bilan xodimlarning baholashi o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lib, bu kommunikatsiya muammolaridan dalolat beradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

O'quv dasturlarini joriy etish: Rahbarlar uchun transformatsion liderlik, emotsional intellekt va kommunikatsiya bo'yicha majburiy treninglar tashkil etish.

Feedback tizimini rivojlantirish: 360 daraja baholash usulini qo'llash orqali rahbarlarga xodimlar nuqtai nazaridan obyektiv ma'lumot berish.

Madaniyatni o'zgartirish: Tashkilotlarda xatoliklardan qo'rqmaslik va innovatsiyani rag'batlantirish muhitini yaratish.

Vaqt menejmenti: Rahbarlarning operatsion vazifalarini kamaytirish va strategik hamda insoniy resurslarni boshqarishga ko'proq vaqt ajratish imkonini berish.

Transformatsion liderlik shunchaki moda emas, balki barqaror rivojlanish garovidir. Rahbarlarning ushbu ko'nikmalarini oshirish nafaqat alohida kompaniyalar, balki mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Kelajak tadqiqotlarda ushbu ko'nikmalarni oshirish bo'yicha o'qitish dasturlarining samaradorligini o'lchashga qaratilgan eksperimentlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burns, J. M. Leadership. New York: Harper & Row, 1978. – 368 p.
2. Bass, B. M., & Riggio, R. E. Transformational Leadership. 2nd ed. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. – 288 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Menejment sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-sonli Qarori. – Toshkent, 2022.
4. Abdullayev A.A. "Menejment: Nazariya va amaliyot". – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 340 b.

5. Xoliqov Sh.Sh. "Inson resurslarini boshqarishda yetakchilik psixologiyasi". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 215 b.

6. Raximova D.K. "Tashkilotlarda innovatsion faoliyatni boshqarishda liderlik omili". // O‘zbekiston iqtisodiyoti: muammolar va yechimlar. – 2022. – № 3. – B. 78-85.

7. To‘rayev O.Q. "Davlat boshqaruvi tizimida kadrlar siyosati va yetakchilik sifati". – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2022. – 180 b.

8. Judge, T. A., & Piccolo, R. F. Transformational and transactional leadership: A meta-analytic test of their relative validity // Journal of Applied Psychology. – 2004. – Vol. 89, No. 5. – P. 755-768.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TASVIRIY SAN’AT TALIMIDA O‘QUVCHILARGA INDIVIDUAL YONDASHUVNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.032

Abduqaxorova Muslima Mirzabahrom qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at yo‘nalishi 1- kurs magistranti
Emeil: abduqahhorovamuslima11@gmail.com

Annotatsiya. Tasviriy san’at ta’limida o‘quvchilarga individual yondashuvning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Individual yondashuvning pedagogik va psixologik jihatlari, uning o‘quv jarayonidagi ahamiyati hamda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, tasviriy san’at darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari tasviriy san’at ta’limi samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning estetik hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at ta’limi, individual yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik texnologiyalar, ijodiy qobiliyat, metodik asoslar, estetik tarbiya, o‘quv jarayoni samaradorligi.

Аннотация.В статье анализируются теоретические и методологические основы индивидуального подхода к учащимся в рамках художественного образования. На основе научных источников рассматриваются педагогические и психологические аспекты индивидуального подхода, его значение в образовательном процессе и роль в развитии творческих способностей учащихся. Также рассматриваются методы использования личностно-ориентированных образовательных технологий на уроках изобразительного искусства, принципы учета возраста и индивидуальных особенностей учащихся. Результаты исследования служат повышению эффективности художественного образования и развитию эстетического и творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: художественное образование, индивидуальный подход, личностно-ориентированное образование, педагогические технологии, творческие способности, методические основы, эстетическое образование, эффективность образовательного процесса.

Abstract: The theoretical and methodological foundations of an individual approach to students in fine arts education are analyzed. The pedagogical and psychological aspects of an individual approach, its importance in the educational process and its role in the development

of students' creative abilities are covered on the basis of scientific sources. Also, methods of using person-oriented educational technologies in fine arts lessons, principles of taking into account the age and individual characteristics of students are considered. The results of the research serve to increase the effectiveness of fine arts education and develop students' aesthetic and creative thinking.

Keywords: Fine arts education, individual approach, person-centered education, pedagogical technologies, creative abilities, methodological foundations, aesthetic education, effectiveness of the educational process.

Kirish. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari tasviriy san’at darslariga ilg‘or xorijiy tajribani, zamonaviy pedagogic texnologiyalarni, shu jumladan ta’lim berishning innovatsion usullarini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bunday texnologiyalardan biri ko‘p yillardan beri xorijda qo‘llanilib kelinayotgan individual yondashuv ta’lim turidir. Jahonda ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tasviriy san’atni o‘qitishda bolaga individual yondashuvni takomillashtirish, yangi texnologik mexanizmlarni qo‘llash, topshiriqlar tizimini o‘quvchining layoqatiga mos taqsimlashning didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydanish, tasviriy san’at dasrlarida o‘quvchilarga individual yondashuv printsiplarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. SHu bilan birga xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha mo‘ljallangan ra’lim kontseptsiyasida “bolalarning rivojlanishi, ta’lim olishini individual va tizimli ravishda olib borish juda muhim faoliyat” sifatida e’tirof etilib,[17] sifatli ta’lim berish mexanizmlari ta’lim jarayoniga tadbiq etilgan.

Mamlakatimizda ta’lim va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy san’at muassasalarini barpo etish, ularning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, ilg‘or va amaliyotda o‘zini oqlagan, o‘qituvchi va o‘quvchining faolligiga asoslangan metodlarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

O‘zbek xalqi o‘zining tasviriy, amaliy, me’morchilik san’ati bilan faxrlansa arziydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy merosini har tomonlama o‘rgnish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, o‘lkamiz rassom va xattotlarini dunyoga tanitish va turizm masalasida “Bu maskanga tashrif buyuruvchilar bir vaqtning o‘zida…Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzaxxib kabi musavvirlarning bebaho merosidan namunalar, ular tavallud topgan va faoliyat ko‘rsatgan tarixiy shaharlar manzaralari turli noyob eksponatlar orqali aks ettiriladi” deb takidladi.[18] Chunki, O‘zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san’atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me’morchilik turlari nihoyatda rivojlandi, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqal’a, Bolalik tepa, Aytrom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo‘yqirilgan qal’a, Ajina tepa, Teshik qal’aa va boshqa bir qator joylardan topilgan.

[17] Incheon Decloration/Education2030/ Towards inclusive and equitable quality education and lifelong lerning for all.-p.36//http:unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf.

[18] Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyatbilan davom etitirib yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.-T.:O‘zbekkiston,2017.-592

Tasviriy san’at darslari – bu nozik didli darslardir. Unga ko‘pincha noyob qobiliyatlarga ega bo‘lgan bolalar kelishadi, ularning ko‘pchiligi rasm chizishni bilsalar ham, yo qo‘rqishadi yoki chizishni xohlashmaydigan bolalardir. O‘zida ishonchsizlikni his etgan bolalar uchun tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish maqsadida “Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish, uni san’at dunyosiga olib boradigan yo‘lda ehtiyotkorlik bilan qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘ladi. Darslarda “Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish - bu ma’naviy stress natijasida qoniqishning sub’ektiv psixologik holati. Agar bolaning o‘zi bu natijani muvaffaqiyat deb bilsa, muvaffaqiyatli vaziyatga erishish mumkin. Bu jarayon bola o‘zining tortinchoqligini, qobiliyatsizligi, layoqatsizligi, psixologik mag‘lubiyati va shunga o‘xshash narsalarni yengib chiqqandan keyin sodir bo‘ladigan xolatdir. O‘qituvchining birinchi galdagi vazifasi har bir o‘quvchiga yutuq quvonchini his qilish, o‘z qobiliyatlarini anglash, o‘ziga ishonish imkoniyatini berishdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalar rasm chizishda katta xohish va qiziqishbilan shug‘ullanadilar, ammo o‘rta maktab yoshidan boshlab tasvirlashqobiliyatlari bo‘yicha komplekslari bor bo‘lgan bolalar borgan sari ko‘proqnamoyon bo‘ladilar. Bu ko‘pincha ilgari sinfdoshlari yoki o‘qituvchi tomonidannoto‘g‘ri fikr yoki luqma tashlanishi natijasida hosil bo‘lgan bo‘lishimumkin. Shuning uchun, tasviriy san'at darslarimizda, birinchi navbatda, har bir rassomning o‘z husnixati, o‘z yozuv uslubi bo‘lganidek – har bir o‘quvchining ham o‘ziga xos chizish uslubi bo‘ladi (Rassom husnihati). Ushbu nuqtai nazarni bolalarga tushuntirganimizdan keyin ular tengdoshlarining chizmalari va rasmlariga boshqacha munosabatda bo‘lishni boshlaydilar: boshqalarning ishlariga hurmat bilan gapirishga harakat qiladilar, oqilona tanqid qilishni o‘rganadilar.

Chizilgan rasmlarni tahlil qilishi, savodli bo‘lishi uchun biz o‘quvchilar bilan birgalikda har qanday rasm chizishda bolalar tugatgan rasmini to‘liq yoki “Siz hali ham uning ustida ishlashingiz kerak”, degan qoidadan foydalanamiz. Masalan, birinchi qoida rasmning tuzilishiga taalluqli bo‘lib, u quyidagicha yangraydi: “Butun varaqni to‘ldirib chiz!”

Shunisi e'tiborga loyiqki, tasviriy san'at darslarida o‘qituvchining o‘zi chizib, bolalarga rasmning ketma-ketligini tushuntirganda, bolalar bilan birgalikda shakllar, ranglar va boshqalarni ajratib ko‘rsatsa, bu darslarda yanada tugallangan rasmlar paydo bo‘ladi. Shu sababli, bolalarda “Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish uchun ob'ektni tasvirlash jarayonini, iloji bo‘lsa, turli xil texnikalarda va turli xil yo‘nalishlarda tasvirlashga harakat qilish kerak. O‘quvchiga “Ishga kirishish”ni, “Toza qog‘oz”dan qo‘rqmaslikni, chizishni o‘rganishi va yaxshi natijalarga erishishiga ishonch hosil qilishi uchun “Master-klass”, “Pedagogik rasm” uslublarini qo‘llash joizdir. Pedagogik rasm o‘quvchining chizayotgan ishi chetiga o‘qituvchi tomonidan tez, ishonarli tarzda hamda tushuntirish so‘zi bilan to‘ldirilgan holda bajarilishi mavzuni aniq, to‘liq tushunib olishga imkon yaratadi.

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga individual yondashuv, uning mazmuni, mohiyati va didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqish zarur. Har bir bolaning o‘ziga xos individualligini ta’kidlab, hech qachon bolani biron bir narsaga qodir emasligi yoki uni tushunish qobiliyati yo‘qligi uchun haqoratomuz so‘zlar bilan urishmaslik,

qiyinchiliklarning mohiyatini tushunishga harakat qilish va muammoning yechimini topishga yordam berish zarur. O‘quvchini boshqa o‘quvchilar bilan solishtirmaslik, uning yutuqlarini ko‘ra bilish. O‘quvchining xato qilishdan qo‘rqmasligi, biror narsani o‘rganish uchun xato qilishdan qo‘rqib, vahimaga tushmasligi uchun xatolik qo‘rquvini rivojlantirmaslikka harakat qilish kerak. Har bir bolaning individual xususiyatlarini o‘rganishda “Samimiy muloqot” bo‘lishi juda muhimdir. “Samimiy muloqotda” o‘quvchi unga juda qiziqqan, uning tashvishlariga jonli javob topadigan odamni ko‘radigan munosabatlar o‘rnatilishini tushunish kerak. Tasviriy san'at dars turlariga qarab turli xil pedagogik texnologiyalar “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Palitra”, “Munozara”, “Klaster” texnologiyalari qo‘llanildi. “Palitra” –tasviriy san’at darslarida didaktik jarayon loyihasining interfaol metodlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu metodlar orqali o‘quv maqsadi va vazifalarini aniqlash, belgilash o‘qituvchi faoliyati orqali emas, balki o‘quvchi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Masalan: natyurmort, manzara, portret, animalistik janrlar mazmuniga ko‘ra yuqoridagi metodlar yaxshi samara beradi.

Ta’lim jarayoniga yangicha yondashish, uni didaktik jihatdan ta'minlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish ta’lim mazmuniga individual yondashishni qo‘llash ta’lim tizimining dolzarb muammolaridan biridir. Shu ma'noda tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchi zamon talablaridan kelib chiqib, uning mazmun va mohiyatini o‘rgangan holda, o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llashi zarurligi, uning an’anaviy ta’limdan afzalligi yoritiladi. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga individual yondashuv didaktikaning yetakchi masalalaridan biri bo‘lib, o‘z rivojlanish dinamikasiga ega. Shunga ko‘ra, mazkur muammo tahlil qilinib, individual yondashuv orqali o‘quvchilarning ijodkorligi va tasviriy savodxonligi darajasini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligi nazariy-amaliy jihatdan asoslanadi.

Individuallikning namoyon bo‘lishi psixologiya va fiziologiyada ilmiy manbalarni o‘rganishimiz natijasida, tasviriy san'atdan o‘qitish usullarining asoslarini psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi tasdiqlandi. Tasviriy san'at o‘qituvchilari uchun darslarda hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar bugungi kunda ancha murakkablashgan. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda nafaqat pedagogik qobiliyatga, balki psixologik bilimlarga ham ega bo‘lishi kerak.

Tasviriy san’at ta’limida o‘quvchilarga individual yondashuvni samarali tashkil etish zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi ta’lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga asoslanadi va bunda har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi, bilish darajasi hamda psixologik xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Ayniqsa, tasviriy san’at fanining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda o‘quvchilarning estetik didi, tasavvuri, obrazli tafakkuri va ijodiy salohiyati yetakchi o‘rin tutadi. Shu bois bir xil metod va bir xil topshiriqlar asosida tashkil etilgan dars barcha o‘quvchilarda bir xil natija bermaydi. Individual yondashuvning nazariy asosida shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlari, yosh xususiyatlari va ijodiy faoliyat mexanizmlari yotadi.

Ma’lumki, tasviriy faoliyat jarayonida idrok, tasavvur va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Ba’zi o‘quvchilar rangni nozik farqlay ola oladi, boshqalari esa shakl va proporsiyani aniq tasvirlay oladi, yana ayrimlari kompozitsion fikrlashga moyil bo‘ladi. Individual yondashuv ana shu farqlarni aniqlash va rivojlantirishni ko‘zda tutadi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining kuchli tomonini aniqlab, unga tayangan holda ta’lim jarayonini tashkil etsa, o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi va ijodiy faolligi kuchayadi.

Tasviriy san’at darslarida individual yondashuv, eng avval, diagnostik tahlil orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarning tasviriy savodxonligi, chiziq bilan ishlash malakasi, rang sezgirligi, perspektiva tushunchasi va kompozitsion joylashtirish ko‘nikmalari o‘rganiladi. Shu asnoda, topshiriqlar differensial tarzda beriladi. Masalan, boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilarga oddiy naturmort yoki geometrik shakllar asosida mashqlar tavsiya etilsa, yuqori darajadagi o‘quvchilarga murakkab syujetli kompozitsiyalar yaratish topshiriladi. Bu usul o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos yuklama berish orqali ularning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlaydi.

Individual yondashuv metodik jihatdan ham o‘ziga xos usullarni talab qiladi. Bunda suhbat, kuzatish, amaliy mashq, ijodiy topshiriq, loyiha usuli, ko‘rgazmali metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchining mustaqil fikrlashi va ijodiy izlanishi qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, “erkin mavzu” asosida rasm ishlash topshirig‘i berilganda har bir o‘quvchi o‘z ichki kechinmalari va dunyoqarashiga tayangan holda ijod qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi. Tasviriy san’at ta’limida individual yondashuvning muhim jihatlaridan biri baholash tizimi bilan bog‘liqdir. An’anaviy baholash ko‘proq yakuniy natijaga qaratilgan bo‘lsa, individual yondashuv jarayonni ham baholashni nazarda tutadi. O‘quvchining izlanishi, g‘oya topishi, rang tanlashi, kompozitsion yechim ustida ishlashi ham e’tiborga olinadi. Portfolio usulidan foydalanish bu borada samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchining yil davomida bajargan ishlari yig‘ilib boriladi va uning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. Bu usul o‘quvchining o‘z ustida ishlashiga, o‘zini tahlil qilishiga va xatolarini anglashiga yordam beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi ham individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Grafik planshetlar, dizayn dasturlari, virtual muzey ekskursiyalari orqali o‘quvchilarning ijodiy tajribasini boyitish mumkin. Bunda o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatiga mos raqamli topshiriqlar ishlab chiqish samarali natija beradi. Masalan, an’anaviy rasm chizishga qiziqmaydigan, biroq kompyuter grafikasiga qiziqadigan o‘quvchi uchun dizayn elementlari asosida topshiriqlar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tasviriy san’at ta’limida o‘quvchilarga individual yondashuvni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot jarayonida individual yondashuvning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinib, uning o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik tafakkurini shakllantirish hamda mustaqil fikrlash kompetensiyalarini mustahkamlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Aniqlandiki,

tasviriy san’at darslarida har bir o‘quvchining yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Individual yondashuv o‘quvchining qiziqishlari, tasviriy faoliyatga bo‘lgan moyilligi, rang va shaklni idrok etish darajasi, tasavvur kengligi kabi omillarni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini loyihalashni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish hamda shaxsiy ijodiy uslubini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at ta’limida individual yondashuvni metodik jihatdan asosli tashkil etish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning estetik madaniyatini yuksaltirish va har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni ta’lim amaliyotiga izchil joriy etish tasviriy san’at fanining rivoji hamda ta’lim sifatining oshishida muhim omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Askariva O. M., Xaitboev M., Nishonov S. Pedagogika –T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010

2. G‘aybullayeva N.M. Tasviriy san’at fanining maktab o‘quvchilarining ta’limtarbiyasidagi tutgan o‘rni // Science and innovation. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181- 3337. International scientific journal volume 1 issue 6.

3. Tasviriy san’at. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/ Kuziyev T., Abdirasilov A., Sulaymonov A.- T.: O‘zbekiston.2015

4. Xudoyorova O. O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’atdan dars samaradorligini oshirishning ba’zi masalalari.-T.: O‘qituvchi. 2000.

5. Sarsenova G.S. O‘quvchilar ta’lim-tarbiyasida tasviriy san’at roli va o‘rni // “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materillari. Toshkent – 2024.

6. Qobilov Sh.R. Tasviriysan’at o‘qitishning zamonaviy texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Nizomiy nom. TDPU. – T:2007.54b

7. Konisbaeva K. Ta’lim jarayonini takomillashtirishda tasviriy san’atning o‘rni // Вестник магистратуры. 2022. №6-1 (129). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limjarayonini-takomillashtirishda-tasviriy-san’at o‘rni.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

DIFFICULTIES IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL SPECIALTIES AND WAYS OF OVERCOMING THEM

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.033

Nilufar Madaminova Gulumboy qizi
Teacher. English department. “TIIAME“ National Research University
E-mail: nilugarmadaminova01@gmail.com

Annotation. This article examines the main difficulties encountered in teaching English to students of non-philological specialties and suggests possible solutions for improving the effectiveness of language instruction. In modern higher education, English language proficiency has become an essential requirement for students in various professional fields, including agriculture, engineering, economics, and information technology. However, students of non-philological specialties often face several challenges in language learning, such as limited vocabulary, low motivation, insufficient communicative practice, and lack of professional language materials. The study highlights that the implementation of communicative language teaching methods, task-based learning, and the integration of professional vocabulary can significantly improve students’ language skills.

Key words: English language teaching, non-philological students, communicative competence, language learning difficulties, professional vocabulary, communicative language teaching, ESP.

Annotatsiya. Mazkur maqolada nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitish jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ingliz tilini bilish qishloq xo‘jaligi, muhandislik, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kabi turli kasbiy sohalar talabalari uchun muhim talab hisoblanadi. Biroq nofilologik yo‘nalish talabalari til o‘rganish jarayonida cheklangan lug‘at boyligi, past motivatsiya, yetarli kommunikativ mashg‘ulotlarning yo‘qligi hamda kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv materiallarining yetishmasligi kabi muammolarga duch keladilar. Tadqiqotda kommunikativ til o‘qitish metodlari, vazifaga asoslangan o‘qitish usullari hamda kasbiy terminologiyani o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ingliz tilini o‘qitish, nofilologik talabalar, kommunikativ kompetensiya, til o‘rganish qiyinchiliklari, kasbiy leksika, kommunikativ til o‘qitish, ESP.

Аннотация.В данной статье рассматриваются основные трудности, возникающие при обучении английскому языку студентов нефилологических специальностей, а также предлагаются пути их преодоления. В условиях современного высшего образования владение английским языком становится важным требованием для студентов

различных профессиональных направлений, включая сельское хозяйство, инженерное дело, экономику и информационные технологии. Однако студенты нефилологических направлений часто сталкиваются с рядом проблем в процессе изучения языка, таких как ограниченный словарный запас, низкая мотивация, недостаток коммуникативной практики и нехватка профессионально ориентированных учебных материалов.

Ключевые слова: обучение английскому языку, нефилологические студенты, коммуникативная компетенция, трудности изучения языка, профессиональная лексика, коммуникативное обучение, ESP.

Introduction. In the modern globalized world, English has become the primary language of international communication, scientific research, and technological development. As a result, proficiency in English is increasingly required for specialists in various professional fields. Universities aim to prepare students not only with theoretical knowledge in their disciplines but also with the ability to communicate effectively in a foreign language. However, teaching English to students of non-philological specialties presents several challenges. Unlike students majoring in linguistics or foreign languages, non-philological students often view English as a secondary subject rather than an essential component of their professional education. This perception can negatively affect their motivation and learning outcomes.

Students from fields such as agriculture, engineering, economics, and technology often focus primarily on their core subjects and allocate less attention to language learning. Consequently, they may experience difficulties in acquiring vocabulary, understanding professional texts, and developing communicative skills. These challenges require the implementation of innovative teaching approaches that take into account the professional needs and interests of students. Modern language pedagogy emphasizes communicative competence and learner-centered approaches that encourage active participation and meaningful communication.

2. Literature Review

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi global ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, interaktiv o‘qitish usullarini joriy etish hamda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish imkonini bermoqda.Shu sababli zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki AKTdan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi global ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, interaktiv o‘qitish usullarini joriy etish hamda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish imkonini bermoqda. Shu sababli zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki AKTdan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur.Axborot texnologiyalarining rivojlanishi global ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, interaktiv o‘qitish

usullarini joriy etish hamda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish imkonini bermoqda. Shu sababli zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki AKTdan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi global ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, interaktiv o‘qitish usullarini joriy etish hamda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish imkonini bermoqda. Shu sababli zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki AKTdan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur.

2. Methods (Tadqiqot metodologiyasi)

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik modellashtirish;
- taqqoslash va tizimlashtirish;
- nazariy umumlashtirish.

Mazkur metodlar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining AKT kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tahlil qilindi hamda metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik modellashtirish;
- taqqoslash va tizimlashtirish;
- nazariy umumlashtirish.

Mazkur metodlar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining AKT kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tahlil qilindi hamda metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik modellashtirish;
taqqoslash va tizimlashtirish;
- nazariy umumlashtirish.

Mazkur metodlar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining AKT kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tahlil qilindi hamda metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik modellashtirish;
- taqqoslash va tizimlashtirish;
- nazariy umumlashtirish.

Mazkur metodlar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining AKT kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tahlil qilindi hamda metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik modellashtirish;
- taqqoslash va tizimlashtirish;

- nazariy umumlashtirish.

Mazkur metodlar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining AKT kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tahlil qilindi hamda metodik model ishlab chiqildi.

3. Natijalar

Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlashning quyidagi metodologik tamoyillari ishlab chiqildi: ilgarilovchi rivojlanish tamoyili, modul tamoyili, invariantlik tamoyili va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili.Mazkur tamoyillar pedagogik ta’lim tizimida AKT integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlashning quyidagi metodologik tamoyillari ishlab chiqildi: ilgarilovchi rivojlanish tamoyili, modul tamoyili, invariantlik tamoyili va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili. Mazkur tamoyillar pedagogik ta’lim tizimida AKT integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlashning quyidagi metodologik tamoyillari ishlab chiqildi: ilgarilovchi rivojlanish tamoyili, modul tamoyili, invariantlik tamoyili va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili. Mazkur tamoyillar pedagogik ta’lim tizimida AKT integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlashning quyidagi metodologik tamoyillari ishlab chiqildi: ilgarilovchi rivojlanish tamoyili, modul tamoyili,invariantlik tamoyili va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili. Mazkur tamoyillar pedagogik ta’lim tizimida AKT integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlashning quyidagi metodologik tamoyillari ishlab chiqildi: ilgarilovchi rivojlanish tamoyili, modul tamoyili, invariantlik tamoyili va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili. Mazkur tamoyillar pedagogik ta’lim tizimida AKT integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.


Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlashning quyidagi metodologik tamoyillari ishlab chiqildi: ilgarilovchi rivojlanish tamoyili, modul tamoyili, invariantlik tamoyili va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili. Mazkur tamoyillar pedagogik ta’lim tizimida AKT integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

4. Jadval: AKT kompetensiya komponentlari

Komponent	Mazmuni	Pedagogik ahamiyati
Axborotiy bilim	AKT nazariyasi, internet resurslari	Darslarni boyitish
Axborotiy faoliyat	Axborotni yig‘ish va qayta ishlash	Interaktiv ta’lim
Axborotiy o‘zaro ta’sir	Onlayn hamkorlik	Pedagogik kommunikatsiya
Axborotiy xavfsizlik	Ma’lumotlarni himoya qilish	Axborot etikasi

Axborotiy mahsulot	Multimedia va prezentatsiya	Motivatsiyani oshirish

5. Grafik tahlil



6. Discussion (Muhokama)

Tadqiqot natijalari AKTdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va raqamli kontent yordamida ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish mumkin.

Tadqiqot natijalari AKTdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va raqamli kontent yordamida ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish mumkin.

Tadqiqot natijalari AKTdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va raqamli kontent yordamida ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish mumkin.

Tadqiqot natijalari AKTdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va raqamli kontent yordamida ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish mumkin.

Tadqiqot natijalari AKTdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va raqamli kontent yordamida ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish mumkin. Tadqiqot natijalari AKTdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va raqamli kontent yordamida ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat

qiladi. Taklif etilgan metodologik tamoyillar pedagogik ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Taklif etilgan metodologik tamoyillar pedagogik ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Taklif etilgan metodologik tamoyillar pedagogik ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lerner I.Ya. Didactic foundations of teaching methods.
2. Slastenin V.A. Pedagogical training problems.
3. Lapchik M.P. Informatics in education.
4. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

VIRTUAL REALLIK VA INTERAKTIV TA’LIM ASOSIDA TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.038

Farg‘ona jamoat salomatligi
tibbiyot instituti o‘qituvchisi
Qaxorova Tursinoy Ulug‘bek qizi
tursunoysolihabonu@gmail.com
ORCID 0000-0003-4803-8545

Annotatsiya. Mazkur maqolada virtual reallik va interaktiv ta’lim texnologiyalari asosida tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalariga ingliz tilini o‘qitishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion o‘qitish metodlarining samaradorligi, ularning talabalar til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni hamda kasbiy kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyati o‘rganildi. Tajriba-sinov natijalari virtual reallik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalar faolligini oshirishi, real klinik vaziyatlarga moslashuvini yaxshilashi va ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini ko‘rsatdi. Shuningdek, maqolada mazkur texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘qitish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: virtual reallik, interaktiv ta’lim, tibbiyot ta’limi, ingliz tilini o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, VR, pedagogik yondashuv

Annotation. This article examines the pedagogical foundations of teaching English to medical university students through virtual reality and interactive learning technologies. The study analyzes the effectiveness of innovative teaching methods, their role in developing students’ language competencies, and their significance in enhancing professional communicative skills. The experimental results demonstrate that virtual reality-based instruction increases student engagement, improves adaptation to real clinical situations, and enhances English communication skills. Additionally, the paper discusses the challenges of implementing these technologies and suggests possible solutions. Based on the findings, practical recommendations are proposed to improve the process of teaching English in medical education.

Keywords:virtual reality, interactive learning, medical education, English language teaching, communicative competence, innovative technologies, VR, pedagogical approach

В данной статье рассматриваются педагогические основы обучения английскому языку студентов медицинских вузов на основе технологий виртуальной реальности и

интерактивного обучения. В исследовании анализируется эффективность инновационных методов обучения, их роль в развитии языковых компетенций студентов, а также значение в формировании профессиональных коммуникативных навыков. Результаты экспериментального исследования показали, что обучение с использованием виртуальной реальности повышает активность студентов, способствует лучшей адаптации к реальным клиническим ситуациям и улучшает навыки общения на английском языке. Также в статье рассматриваются проблемы внедрения данных технологий и предлагаются пути их решения. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по совершенствованию преподавания английского языка в медицинском образовании.

Ключевые слова: виртуальная реальность, интерактивное обучение, медицинское образование, обучение английскому языку, коммуникативная компетенция, инновационные технологии, VR, педагогический подход

Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘qitish metodologiyasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, tibbiyot ta’limida innovatsion yondashuvlar, jumladan virtual reallik (VR) va interaktiv ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitish esa alohida dolzarb masala bo‘lib, u xalqaro ilmiy hamkorlik, zamonaviy tibbiy adabiyotlardan foydalanish va global professional muloqot uchun zarurdir. An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha talabalarni faol ishtirok etishga yetarli darajada jalb eta olmaydi. Natijada, o‘rganilayotgan material yuzaki o‘zlashtiriladi va amaliyotda qo‘llash qiyinlashadi. Shu sababli, interaktiv va immersiv texnologiyalardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Virtual reallik texnologiyasi talabalarni sun’iy yaratilgan muhitga jalb qilib, ularning real vaziyatlarga yaqin sharoitda bilim olishiga imkon yaratadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — virtual reallik va interaktiv ta’lim asosida tibbiyot talabalariga ingliz tilini o‘qitishning pedagogik asoslarini aniqlash, samaradorligini baholash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalariga ingliz tilini o‘qitishda virtual reallik (VR) va interaktiv ta’lim texnologiyalarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks ilmiy yondashuv asosida turli metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini nazariy va amaliy usullar uyg‘unligi tashkil etdi. Avvalo, nazariy tahlil metodi qo‘llanilib, mavjud ilmiy adabiyotlar, zamonaviy maqolalar va xalqaro tadqiqotlar chuqur o‘rganildi. Ushbu jarayonda virtual reallikning ta’lim jarayonidagi o‘rni, interaktiv metodlarning samaradorligi hamda tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Bu esa tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Shuningdek, kuzatish metodi orqali virtual reallik asosida tashkil etilgan darslar jarayoni bevosita tahlil qilindi. Darslar davomida talabalar faoliyati, ularning ishtirok darajasi, topshiriqlarni bajarishdagi yondashuvi va umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari kuzatildi. Bu

metod orqali o‘qitish jarayonining real sharoitdagi samaradorligi haqida aniq ma’lumotlar olindi. Kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, VR asosidagi darslar an’anaviy darslarga nisbatan ko‘proq interaktivlik va faollikni ta’minlaydi.

Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri tajriba-sinov ishlari bo‘ldi. Ushbu jarayonda tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalariga ingliz tili VR va interaktiv metodlar asosida o‘qitildi. Tajriba jarayonida talabalar turli virtual klinik vaziyatlarda ishtirok etib, ingliz tilida bemor bilan muloqot qilish, tashxis qo‘yish jarayonini tushuntirish va tibbiy muammolarni muhokama qilish kabi vazifalarni bajardilar. Bu esa ularning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, so‘rovnoma metodi orqali talabalar va o‘qituvchilarning fikrlari o‘rganildi. So‘rovnoma natijalari VR texnologiyalarining o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Talabalar VR asosidagi darslarni qiziqarli, tushunarli va samarali deb baholadilar. O‘qituvchilar esa ushbu metod talabalar bilan ishlashda yangi imkoniyatlar yaratishini ta’kidladilar.

Taqqoslash metodi yordamida an’anaviy va innovatsion metodlar samaradorligi solishtirildi. Bu orqali VR va interaktiv ta’lim metodlarining ustun jihatlari aniqlab olindi. Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda nazorat guruhi an’anaviy metod asosida o‘qitildi, ikkinchi bosqichda esa tajriba guruhi VR va interaktiv metodlar asosida ta’lim oldi. Tadqiqotda jami 60 nafar talaba ishtirok etdi, ular teng ravishda nazorat va tajriba guruhlariga taqsimlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, virtual reallik va interaktiv ta’lim metodlari sezilarli ijobiy natijalarga olib keldi. Avvalo, talabalar faolligining sezilarli darajada oshgani kuzatildi. VR texnologiyasi talabalarni dars jarayoniga to‘liq jalb etdi, natijada ular passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylandi. Bu esa o‘quv motivatsiyasining oshishiga va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga olib keldi. Talabalar dars davomida mustaqil fikrlash, muammo yechish va muloqot qilish ko‘nikmalarini faol qo‘llay boshladilar.

Shuningdek, til ko‘nikmalarining yaxshilanishi ham muhim natijalardan biri bo‘ldi. Tajriba guruhidagi talabalar speaking, listening va tibbiy terminologiya bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Ular ingliz tilida erkinroq gapira boshladi, murakkab tibbiy terminlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgandi va eshitish orqali ma’lumotni tezroq anglay boshladi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Virtual muhitda talabalar real vaziyatlarga yaqin sharoitda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ular bemor bilan ingliz tilida suhbatlashish, tashxis qo‘yish jarayonini tushuntirish va klinik vaziyatlarni muhokama qilish kabi faoliyatlarni bajardilar. Bu esa ularning real klinik sharoitlarga moslashuvini sezilarli darajada yaxshiladi. Talabalar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rgandilar va bu jarayon ularda ishonchni oshirdi.

O‘zlashtirish darajasi ham tajriba guruhida ancha yuqori bo‘ldi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalar o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 30–35 foizga yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa VR va interaktiv metodlarning samaradorligini yaqqol ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida olingan natijalar zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan solishtirildi. Virtual reallik asosida o‘qitish konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi, ya’ni bilim o‘quvchi tomonidan faol ravishda yaratiladi. VR muhitida talabalar o‘z tajribasi orqali bilim hosil qiladi, bu esa o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Interaktiv ta’lim esa kommunikativ yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, talabalarni faol muloqotga jalb etadi. Dialoglar, muhokamalar va rolli o‘yinlar orqali talabalar tilni tabiiy sharoitda o‘rganadi.

VR texnologiyasining bir qator pedagogik afzalliklari mavjud. Avvalo, immersivlik xususiyati talabani to‘liq o‘quv muhitiga jalb etadi. Vizualizatsiya imkoniyati murakkab tibbiy jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi. Xavfsiz muhit esa talabaga xatolarni qo‘rqmasdan tuzatish imkonini beradi. Moslashuvchanlik esa har bir talabaning individual o‘rganish sur’atini hisobga olishga yordam beradi.

Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik jihozlarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning texnologiyadan foydalanish bo‘yicha yetarli ko‘nikmaga ega emasligi va dasturiy ta’minotning cheklanganligi muhim to‘siqlardan hisoblanadi. Shu sababli, VR texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda tizimli yondashuv zarur. Bu jarayonda moddiy-texnik bazani mustahkamlash, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va zamonaviy dasturiy vositalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, virtual reallik va interaktiv ta’lim texnologiyalari tibbiyot talabalariga ingliz tilini o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu yondashuv talabalar faolligini oshiradi, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi va real klinik vaziyatlarga tayyorlaydi. Kelgusida VR texnologiyalarini o‘quv dasturlariga keng joriy etish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash, interaktiv metodlarni keng qo‘llash va mahalliy VR kontent yaratish zarur. Natijada, tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘qitish sifati yangi bosqichga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Radianti, J., Majchrzak, T.A., Fromm, J., Wohlgenannt, I. (2020). *A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education*.

2. Piaget, J. (1970). *Science of Education and the Psychology of the Child*.

3. Jensen, L., Konradsen, F. (2018). *A review of the use of virtual reality in medical education*.

4. Freeman, S., et al. (2014). *Active learning increases student performance*.

5. Mayer, R.E. (2009). *Multimedia Learning*.

6. Richards, J.C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*.

7. Dede, C. (2009). *Immersive Interfaces for Engagement and Learning*.

8. Warschauer, M. (1996). *Computer-Assisted Language Learning*.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

DINAMIKA ASOSLARI MAVZUSINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.039

Muxammadjonova Saidxon Baxromjon qizi
QDU “Aniq va tabiy fanlarni o‘qitish metodikasi” ta’lim mutaxasisligi magistranti.
muxammadjonovasaidxon@gmail.com
+998907781929
Qurbonova Ziyodaxon Ubaydulla qizi
QDU “Aniq va tabiy fanlarni o‘qitish metodikasi” ta’lim mutaxasisligi magistranti.
ziyodaxonqurbonova247@gmail.com
+998950500125
Xakimova Maftunaxon Jo’raboy qizi
QDU “Aniq va tabiy fanlarni o‘qitish metodikasi” ta’lim mutaxasisligi magistranti.
maftunaxonxakimova18@gmail.com
+998941509295

Annotatsiya. Mazkur maqola, Dinamika. Kuch, massa va ularning birliklari. Nyuton qonunlari mavzusini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va talabalarga dinamika, kuch, massa va ularning birliklari, tabiatda kuchlar, Nyuton qonunlari, inersial sanoq sistemalari haqida tushuncha berish bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Dinamika. Kuch, massa va ularning birliklari. Nyuton qonunlari.

Аннотация.Цель данной статьи систематизировать тему «Динамика. Сила, масса и их единицы. Законы Ньютона» на основе инновационных технологий и сформировать у учащихся знания о динамике, силе, массе и их единицах, силах природы, законах Ньютона, инерциальных системах отсчета.

Ключевые слова: Динамика. Сила, масса и их единицы. Законы Ньютона.

Abstract. This article aims to organize the topic of Dynamics. Force, mass and their units. Newton's laws on the basis of innovative technologies and to form the knowledge of students about dynamics, force, mass and their units, forces in nature, Newton's laws, inertial reference systems.

Keywords: Dynamics. Force, mass and their units. Newton's laws.

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizning barcha jabhalarida keng masshtabli va shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida ta’lim tizimida ham keskin burilish

bo‘ldiki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni tasdiqlandi[19].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori qabul qilindi. Fizika fani bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, yuqori malakali pedagog va ilmiy xodimlarni tayyorlash, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ilmiy tashkilotlarning salohiyatini rivojlantirish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida integratsiya va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish vazifalari belgilab qo‘yildi. 2021-2023 yillarda fizika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining natijadorligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5712-son farmonida ham Xalq ta’lim tizimini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan. Bu albatta, kelajakda o‘z natijasini berishi shubhasiz[20].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darsning mavzusi : Dinamika. Kuch, massa va ularning birliklari. Nyuton qonunlari.

Darsning rejasi:

1. Dinamika. Nyutonning I-qonuni. Inersiyal sanoq sistemalari.
2. Kuch va uning birligi. Tabiatda kuchlar.
3. Nyutonning II-qonuni.
4. Nyutonning III-qonuni.

Darsning maqsadi: Talabalarga dinamika, kuch, massa va ularning birliklari, tabiatda kuchlar, Nyuton qonunlari, inersial sanoq sistemalari haqida tushuncha berish bilimlarini shakllantirish.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha egallagan bilimlarini “Blits-so‘rov” usuli yordamida tekshiriladi.

1. Egri chiziqli harakat deganda nimani tushunasiz?
2. Tangensial tezlanishni bilasizmi?
3. Normal tezlanishni bilasizmi?
4. Gorizontal otilgan jismning traektoriyasini qanday bo‘lishini bilasizmi?

So‘ngra o‘quvchilarga BxBxB jadvali tarqatiladi, o‘quvchilar ushbu jadvalni to‘ldiradi.

Savollar	**Bilaman (+)**	**Bilishni xohlayman (-)**	**Bilib oldim (+)**
Fuch yordamida jismning qaysi fizik kattaliklarini o‘zgartirsa bo‘lishinini bilasizmi?			

[19] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. -T.: “Sharq”, 2020.

[20] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

Massaning addikivligini bilasizmi?			
Inersial sanoq sistemalarini bilasizmi?			
Nyuton fanga kiritgan qonunlarni bilasizmi?			

1- jadval BxBxB jadvali

Yangi mavzu bayoni

Dinamika. Nyutonning I-qonuni. Inersiyal sanoq sistemalari. Nyutonning birinchi qonunining aks tasdig‘i.


Kinematika - ko‘chish va vaqt orasida aloqa o‘rnatgan bo‘lsa, dinamika u yoki bu ko‘chishni yuzaga keltiruvchi sababni o‘rganadi. Tajribadan ko‘rinadiki, Yerda yoki uni sirtiga yaqin masofada harakatlanuvchi har qanday jism o‘z-o‘zicha to‘xtaydi. Uning harakatini doim birday davom ettirish uchun unga ta’sir ko‘rsatib turish kerak. Bu nuqtai-nazar Aristotel zamonidan Galiley (1564-1642) gacha o‘z kuchini saqladi. Galiley, birinchi bo‘lib, harakatni to‘xtashi ishqalanish natijasi ekanini ko‘rsatdi. U jism o‘zaro ta’sirsiz to‘g‘ri chiziqli va tekis harakatda bo‘lishini, agar jismga ta’sir ko‘rsatilsa u tezlanish olishini seza bildi. Nyuton 1687 yil bosilgan “Natural falsafani matematik asoslari” kitobida Galiley fikrlarini umumlashtirib, to‘ldiradi va dinamikani 3 ta qonunini taklif etadi.

Talabalarga quyidagi muammoli savol beriladi (slayd orqali ekranda ko‘rsatiladi) va talabalar dars davomida muhokama qilinadi.

1. “Jism qachon tinch holatini saqlaydi?
2. Jism qachon to‘g‘ri chiziqli tekis harakat qiladi?

1 - qonun: Har qanday jismga boshqa jismlar ta’sir etmasa u o‘zining tinch holatini yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakatini saqlaydi. (F=0, V=0 yoki V=const); jismning bunday qobiliyati inersiya (faoliyatsizlik) deyiladi (2.1.1-rasm).

Nyutonning birinchi qonunining aks tasdig‘i: Agar biz to‘g‘ri chiziqli tekis o‘zgarmas




tezlik bilan harakatlanayotgan jismni kuzatganimizda uni harakatlantiruvchi kuchlar yig‘indisi nolga teng bo‘ladi[21].

Shuning uchun 1-qonunni ko‘pincha inersiya qonuni deyiladi. Nyuton o‘z qonunini berishda harakatni nisbiy harakterda bo‘lishiga e’tibor bermagan. Biz tinchlik va harakat nisbiy tushunchalar ekanini bilamiz. Jismni tinch holati yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakati

[21] Benjamin Crowell-Newtonian Physics, p.177


nisbiy bo‘lib, u sanoq sistemasiga bog‘liq. Nyutonning 1-qonuni bajariladigan sanoq sistemasi inersiyal sanoq sistemasi deb, aks holda noinersiyal sanoq sistemasi deb yuritiladi. Ularni farqini bilaylik. Agar koordinata sistemasi, ichida odam bo‘lgan poezd bilan bog‘langan bo‘lsa poezd tinch turgan yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakat qilganda 1-qonun inersiya qonuni bo‘ladi. Demak, poezd bilan bog‘langan koordinata sistemasi inersiyal sanoq sistemasi bo‘ladi. Agar poezd silkinsa (tezlashsa yoki sekinlashsa), odamni fikricha poezdga ta’sir ko‘rsatilmasa xam, predmetlar tusha boshlaydi. Bunday harakatda poezd bilan bog‘langan sistema inersiyal bo‘lmaydi. Ammo, Yerdagi kuzatuvchi (va Yer bilan bog‘langan sanoq sistemasi uchun) poezddagi hodisa inersiya qonuniga buysungan holda bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm

Inersiyal sistemaga nisbatan to‘g‘ri chiziqli tekis harakat qiluvchi har qanday sistemani o‘zi xam inersiyal, tezlanish bilan yoki egri chiziqli harakatlanuvchi sistema noinersiyal bo‘ladi. O‘z navbatida Galiley berk sistemani ichida turib o‘tkazilgan mexanik tajribalar bilan shu sistema tinch turibdimi yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakat qilayaptimi bilib bo‘lmasligini, ya’ni nisbiylik printsipini ko‘rsatgan edi.

2. Kuch va uning birligi. Tabiatda kuchlar. Massa va uning birligi. Quyidagi 3-rasmlarda turli ob’ektlar orasidagi o‘zaro ta’sir kuchlari ko‘rsatilgan.



3-rasm.

Klassik mexanikada ayni vaqtda jismga boshqa jismlar tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’sirning kattaligini va yo‘nalishini xarakterlash uchun kuch tushunchasi kiritiladi. Bir jism ikkinchi jismga ta’sir etib uning holatini (tezlanish berish, deformatsiyalash) o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi fizik kattalik kuchdir. Kuch fizikada asosiy kattaliklardan bo‘lib, u qo‘yilish nuqtasi, kattaligi va yo‘nalishi bilan belgilanadi.


4-rasm.

Talabalarni faollashtirish maqsadida “Aqliy hujum”

savoli beriladi

Savol: Yelkanli kema bevosita shamol ta’sirida o‘zgarmas tezlikda harakatlanishi uchun boshqa kuchlar qanday munosabatda bo‘lishi kerak (4-rasm)?

Javob: Bu hol bo‘lishi uchun qayiqga ta’sir qilayotgan barcha kuchlar bir birini kompensatsiyalashi kerak. Qayiq suvga botgan yoki suv yo‘ziga qalqib chiqqan bo‘lishi mumkin shu sababli, vertikal kuchlarni ham hisobga olish kerak.Vertikal kuchlarni Arximed kuchi va og‘irlik kuchlari tashkil etadi, og‘irlik kuchi katta bo‘lganligi uchun kuchlarning teng tasir etuvchisi pastga yo‘nalgan bo‘ladi.


Ta’sirlashuvlar tabiatiga qarab kuchning kattaligi va yo‘nalishi turli qonunlar orqali aniqlanadi. Masalan, jismlarning ta’sirlashuvi butun olam tortilish qonuni, zaryadlarni ta’sirlashuvi Kulon qonuni va boshqalar o‘z tabiatini aks ettiruvchi qonunlar orqali baholanadi. Lekin kuchlar qanday tabiatli bo‘lmasin ular jism harakatining o‘zgartirish (tezlanish berishi) qobiliyatiga ega. Ayrim hollarda MN tabiati har xil bo‘lgan kuchlar ta’sirida mavjud bo‘lishi mumkin. Har bir kuch MN harakatining o‘zgarishiga mustaqil ta’sir ko‘rsatadi. Bunda MN yoki jism oladigan tezlanish shu kuchlarning natijaligi orqali hisoblanadi. Kuchlarning teng ta’sir etuvchisini vektorlar yig‘indisi ko‘rinishida topiladi:

$$\vec{F} = \vec{F}_1 + \vec{F}_2 + \cdots + \vec{F}_n = \sum_{i=1}^{n} \vec{F}_i \qquad (1)$$

Bu ifoda kuchlar superpoziyasi deb ataladi.

3. Nyutonning II-qonuni.

Tajribalarda jism harakatining o‘zgarishi bir tomondan kuchga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan jismdagi modda miqdoriga xam bog‘liq bo‘lishi aniqlangan. Quyidagicha tajriba qilaylik (5 -rasm). Elastik prujinaga bog‘langan AB taxta oldiga har xil radiusli po‘lat sharlarni joylashtiraylik. Prujinani siqib qo‘yib yuborsak eng kichik shar eng katta tezlanish olganini ko‘ramiz. Katta radiusli shar esa ushancha vaqtda ozgina yo‘l o‘tadi, ya’ni eng kichik tezlanish oladi. Vaholanki, sharlarga bir xilda kuch ta’sir berildi. Jism o‘z harakat holatini o‘zgartirmaslikka intilishi yoki o‘z nisbiy tinchligini saqlash xossasi uning inertligini bildiradi.



5-rasm

Inertlik o‘lchovi bo‘lib massa hisoblanadi. Shuning uchun massa moddaning inertlik va gravitatsion o‘lchovi deyish mumkin. Tajriba natijalarini umumlashtirib, kuch ta’sirida jismning olgan tezlanishi uning massasiga teskari mutanosib ekan degan xulosaga kelamiz. Demak, inersiyal sanoq sistemasida joylashgan jismga kuch ta’sir etsa uning olgan tezlanishi

$$\vec{a} = \frac{\sum_{i=1}^{n} \vec{F}_i}{m} \qquad (2)$$

bo‘lar ekan. Ushbu formula Nyutonning II qonunini ifodalaydi. Inersiyal sanoq sistemasida joylashgan jism olgan tezlanishi shu jismga ta’sir etuvchi kuchga to‘g‘ri, uning massasiga teskari mutanosib bo‘lib, shu kuch yo‘nalishida bo‘ladi. Agar jismga bir qancha kuch ta’sir etsa uning olgan tezlanishi

$$\vec{a} = \frac{\sum_{i=1}^{n} \vec{F}_i}{m} = \frac{\vec{F}}{m} \quad (3)$$

bo‘ladi. Bu ifodadan massa m, jismga ta’sir etuvchi kuchning jism olgan tezlanishiga nisbati bilan o‘lchanadigan fizik kattalikdir degan ma’no chiqadi. Agar massa va tezlanish aniq bo‘lsa jismga ta’sir etuvchi kuchni

$$\vec{F} = m\vec{a} \quad (4)$$

ifodadan aniqlash mumkin. (2.1.4) ifodani

$$\vec{F} = m \cdot \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} = \frac{d^2\vec{r}}{dt^2} \quad (5)$$

ko‘rinishda yozish mumkin.

4. Nyutonning III-qonuni. Massaning additivligi. Jismlarning o‘zaro ta’sirlashuvi bir tomonlama bo‘lmaydi. Tajribalardan ma’lumki bir jism ikkinchi jismga qanday kuch bilan ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi jism xam birinchi jismga shunday aks ta’sirni yuzaga keltiradi. (2.1.6-rasm). 2.1.6-rasm

Inersiyal sanoq sistemalarida o‘zaro ta’sirlashayotgan ikki jismning ta’sir va aks ta’sir kuchlari miqdor jihatidan teng va ta’sirlashish nuqtalarini birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq bo‘ylab qarama-qarshi yo‘nalgan:

$$\boldsymbol{F_{1,2} = -F_{2,1}} \quad (6)$$

2.1.6- ifoda Nyutonning III qonuni nomi bilan yuritiladi.


Bu yerda shuni aytish lozimki, uchinchi qonunda boshqa-boshqa jismlarga qo‘yilgan kuchlar haqida so‘z yuritiladi, shuning uchun ular bir-birini muvozanatlaydi. 2.1.6 ifodaga Nyutonning II -qonunini tatbiq etib ta’sirlashayotgan jismlarning tezlanishini aniqlash mumkin:

$$\boldsymbol{m_1 a_1 = -m_2 a_2}$$

bo‘lib, bundan

$$\boldsymbol{a_1 = -\, m_2 / m_1 \cdot a_2} \quad (7)$$

Demak, o‘zaro ta’sirlashuvchi jismlarning olgan tezlanishlari ularning massalariga teskari mutanosib bo‘lib qarama-qarshiyo‘nalgan. Har qanday jismning massasi uni tashkil qiluvchi jismlarning massalari yig‘indisiga teng bo‘ladi. Bu xossa massa additivligi deyiladi. Masalan, istalgan kimyoviy reaksiyani olsak, unda bir qancha molekula yoki atomlar reaksiyaga kirishib, natijada bir qancha boshqa atom yoki molekula hosil bo‘ladi. Reaksiyagacha bo‘lgan moddalar massalarining to‘plami reaksiyadan keyin hosil bo‘lgan moddalar massalarining yig‘indisiga teng bo‘lishi tajribalarda aniqlangan (Lomonosov, Lauaz’e). Bu xulosa moddaning saqlanish qonuni, to‘g‘rirog‘i, massaning saqlanish qonuni deb yuritiladi.



$$\boldsymbol{M = m_1 + m_2 + \cdots + m_n} \quad (8)$$

m_1, m_2, m_3 ... lar reaksiyagacha, M - reaksiyadan keyingi moddalar massalaridir. Tabiatda quyidagi fundamental kuchlar mavjud:

1. Gravitotsion kuchlar.

2. Elektromagnit kuchlar.

3. Kuchli yadro kuchlari.

4. Kuchsiz yadro kuchlari.

Fizikada o‘rganiladigan barcha kuchlar o‘z tabiatiga ko‘ra u yoki bu fundamental kuchlarga kiradi.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalaniladi.

2.1.2- jadval. “Tushunchalar tahlili” metodi uchun eksperimental varoq

Nazorat savollari beriladi

TUSHUNCHA	***MAZMUNI***
Dinamika	
Massa	
Kuch	
Inersiya	
Inersial sanoq sistemalari	
Massaning addiktivligi	

1. Nyutonning 1-qonunini tushuntirib bering
2. Nyutonning 2-qonuni deb nimaga aytiladi
3. Nyutonning 3-qonunini tushuntirib bering
4. Inersial va noinersial sanoq sistemasini farqini tushuntirib bering

Uyga vazifa


1. Mavzuni o`qib o`rganib kelish.
2. Mavzu yuzasidan test tayyorlab kelish.

NATIJALAR


Ushbu darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga va yuqori samaradorlikka erishishga hizmat qildi.

2024-2025-o‘quv yili 1-kurs talabalariga darsni og‘zaki bayon etish manolog tarzda o‘tilganda guruhdagi ayrim talabalarning sustlik va e’tiborsizlik bilan o‘tirishlari ko‘zga tashlandi. Guruhdagi ayrim talabalardagina esa faollik kuzatildi va fanga qiziqishlari kam

ekanligi namoyon bo‘ldi. Darsda kam sonli talabalar a’lo va yaxshi baxolar bilan baxolandilar. Quyida o‘qituvchi markazda bo‘lgan ta’lim jarayoni asosida ya’ni manalog tarzida dars o‘tilganidan so‘ng talabalarning baholanishi ko‘rsatilgan.



2025-2026-o‘quv yili 1-kurs talabalariga esa shu mavzularni noodatiy usulda tashkil etildi. Avvalo ular 3 ta kichik guruhlarga ajratildilar. Ma’ruza darsida interfaol metodlardan, kompyuterdan, proyektordan ham unumli foydalanildi va har bir tushuncha muhokama qilindi. Bu usulda dars o‘tilganda guruhdagi talabalarning barchasi baholandilar va ularning dars mobaynidagi faolliklariga erishildi.



MUHOKAMA

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, darslarda pedagogik texnologiyalarni qo‘lamasdan dars o‘tilganida 60 ta talabadan 3 ta darsni oladigan bo‘lsak o‘rtacha 21 ta talaba yaxshi baho olgan. Aksincha pedagogik texnologiyalardan foydalangan holatda dars o‘tilganda esa, 44 ta talaba yaxshi baho oldi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichi keskin ortdi. Bundan ko‘rinib turibdiki yangi pedagogik texnologiyalar orqali dars tashkillansa talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ko‘tarilar ekan.

XULOSA

Fizika ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlaridan quyidagi natijalar va xulosalar kelib chiqadi:

Fizika fani oliy ta’limda turli hodisalar, qonuniyatlar murakkablashib, dars materialining hajmi esa ortib boradi. Bundan tashqari talabalar yosh xususiyatlariga doir turli xildagi o‘zgarishlarga duch kelishadi. Shu va shu kabi boshqa parametrlar dars sifati, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Shu maqsadda fizika ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samarali ekanligi aniqlandi. Fizika ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan maqsad ta’lim oluvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o‘quvchilarni o‘quv materiallarini shunchaki yodlab olishlaridan, ixtiyoriy takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir.

Yangi pedagogik texnologiyalarni fizika ta’limida to‘laqonli tarzdagi texnologik jarayon sifatida tadbiq etish, ta’lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, ta’lim muassasasining kuchli moddiy-texnik bazasini, ko‘p vaqt va mehnat talab etadigan murakkab jarayondir. Fizika ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun o‘qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lib, dars mavzusi, o‘quvchilar soni, ularning qiziqishi, qobiliyatlarini har tomonlama hisobga olishi kerakligi ma’lum bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. -T.: “Sharq”, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108 son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

4. Kurbonov M. Uzokova G.S. Tursunov K.1JI. “Fizika o‘qitishning nazariy asoslari” T.”Uzbekiston” 2008.

5. Ashirov SH.A. “Kasb-hunar kollejlarida fizikadan umumlashtiruvchi dars mazmuni va metodikasi” Dis. p.f.nom- T.: 2006.

6. Begimqulov U.SH., Sattorova B. Fizika va astronomiya o‘qitishda axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2004. - 254 b

7. Vigotskiy L.S. Izbrannie psixologicheskie issledovaniya. - M.: Izd-vo APN RSFSR

8. Datsyuk G.I. Psixologo-pedagogicheskie osebennosti primeneniya informatsionnix i kommunikatsionnix texnologiy v uchrejdeniyax obshego srednego obrazovaniya: Avtoref. diss….kand..ped..nauk.- M. 2001.-19s

9. Qurbonaliyev Q.Q. “Umumiy fizika”dan o’quv uslubiy majmuasi. Qo’qon 2025

10. “Umumiy fizika kursidan masalalar to’plami” (M.S.Sedrik tahriri ostida). Toshkent “O’qituvchi”, 1992

11. Davidov V.V. Vidi obobsheniya v obuchenii (logiko-psixologicheskie problemi postroeniya uchebnix predmetov).-M.: Pedagogika

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KIMYO TA’LIMIDA VR VA AR TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI: TIZIMLI TAHLIL VA TA’LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYA IMKONIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.040

Haydarov Raxmonjon G‘ofurjon o‘g‘li,
Qo‘qon DU AL kimyo fani bosh o‘qituvchisi
rahmonjon1992talaba.respect@gmail.com
Qokanbayev Ikramjon Ibroximovich,
texnika fanlari nomzodi, dotsent
Qo‘qon davlat universiteti
iqoqonboev@mail.ru

Annotatsiya. Maqola kimyo ta’limida virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining didaktik, kognitiv va psixomotor samaradorligini tizimli adabiyotlar tahlili va meta-tahlil natijalari asosida o‘rganilgan.

Tadqiqotda VR/AR ning o‘quv natijalariga (Cohen`s samaradorligi d = 0,42–1,12), o‘quv motivatsiyasiga (32–45% o‘sish), fazoviy tasavvur va tajriba ko‘nikmalariga ta’siri empirik dalillar bilan isbotlangan. Kimyoviy jarayonlarning immersiv modellashtirilishi (molekulyar tuzilish, reaksiya mexanizmlari, elektrokimyo, xavfli tajribalar) bo‘yicha xorijiy va milliy tajribalar sintez qilingan. O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli laboratoriyalarni joriy etishning pedagogik, texnologik va iqtisodiy jihatlari muhokama qilinib, takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: virtual reallik, kengaytirilgan reallik, kimyo ta’limi, immersiv o‘qitish, raqamli simulyatsiya, kognitiv yuklama, psixomotor kompetensiyalar, innovatsion didaktika, meta-tahlil.

Аннотация. Статья посвящена системному анализу дидактической, когнитивной и психомоторной эффективности технологий виртуальной реальности (VR) и дополненной реальности (AR) в химическом образовании на основе обзора литературы и результатов мета-анализа.

В исследовании эмпирически подтверждено влияние VR/AR на учебные результаты (эффект Коэна d=0,42–1,12), учебную мотивацию (рост на 32–45%), пространственное воображение и экспериментальные навыки. Проведён синтез зарубежного и национального опыта применения иммерсивного моделирования химических процессов (молекулярная структура, механизмы реакций, электрохимия, опасные эксперименты). Обсуждены педагогические, технологические и экономические

аспекты внедрения цифровых лабораторий в систему образования Узбекистана, разработаны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: виртуальная реальность, дополненная реальность, химическое образование, иммерсивное обучение, цифровая симуляция, когнитивная нагрузка, психомоторные компетенции, инновационная дидактика, мета-анализ.

Abstract. The article presents a systematic review and meta-analytic synthesis of the didactic, cognitive, and psychomotor effectiveness of virtual reality (VR) and augmented reality (AR) technologies in chemistry education. Empirical evidence and meta-analyses demonstrate the impact of VR/AR on learning outcomes (Cohen`s d=0,42–1,12), motivation (32–45% increase), spatial visualization, and experimental competencies.

Detailed examination is given to immersive modeling of chemical processes (molecular structures, reaction mechanisms, electrochemistry, hazardous experiments). The paper discusses pedagogical, technological, and economic aspects of integrating digital laboratories into Uzbekistan’s education system and proposes evidence-based implementation strategies.

Keywords: virtual reality, augmented reality, chemistry education, immersive learning, digital simulation, cognitive load, psychomotor competencies, innovative didactics, meta-analysis.

Kirish. Raqamli transformatsiya ta’lim tizimining barcha darajalarida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Kimyo ta’limi bu jarayondan eng ko‘p ta’sirlanadigan fanlardan biri bo‘lib, chunki uning didaktik tabiati tajriba, kuzatuv va vizualizatsiyaga asoslanadi (Talanquer, 2018 [14]; Graulich & Schween, 2018 [15]). An’anaviy laboratoriya tajribalari va statik modellar o‘rniga bugungi kunda immersiv texnologiyalar — virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) faol joriy etilmoqda.

VR immersiv muhit yaratadi, unda o‘quvchi “ichkarida” bo‘lib, jarayonlarni 360° kuzatishi, miqyosni o‘zgartirishi va xavfsiz tajriba o‘tkazishi mumkin. AR esa real dunyoga raqamli qatlam qo‘shadi va smartfon/planshet orqali foydalanish osonligi bilan ajralib turadi.

Xorijiy tadqiqotlarda VR/AR ning ta’lim samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlangan:

- o‘quv natijalarining o‘rtacha effekt hajmi (Cohen’s d) 0,38–1,12 oralig‘ida (Radianti et al., 2020 [1]; Wu et al., 2020 [10]);
- motivatsiya va “flow” holati 2,3–2,8 baravar oshishi (Makransky & Lilleholt, 2018 [2]);
- xavfli tajribalarni 80–93% xavfsiz o‘tkazish imkoniyati (Bogusevschi et al., 2020 [11]).

O‘zbekiston ta’lim tizimida “Raqamli ta’lim – 2030” konsepsiyasi doirasida VR va AR laboratoriyalari joriy etilmoqda.

Maqolaning maqsadi — VR va AR ning kimyo ta’limidagi didaktik va psixologik samaradorligini xorijiy va milliy empirik tadqiqotlar asosida tizimli tahlil qilish, kimyoviy jarayonlarni immersiv modellashtirishning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish va O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya strategiyasini taklif etishdir.

Tadqiqot metodlari. O‘tkazilgan tadqiqotlarda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar: tizimli adabiyotlar tahlili, meta-tahlil elementlarini sintez qilish va O‘zbekiston kontekstining empirik o‘rganilishi bosqichlari va tamoyillariga asoslanadi.

Ushbu ishlarning birlamchi ma’lumotlari va xulosalari birlashtirishda o‘rtacha effekt hajmi (Cohen’s d); 95% ishonch oralig‘i (CI); geterogenlik darajasi (I^2 statistikasi) va umumiy tendensiyalar va moderator o‘zgaruvchilar (masalan, immersivlik darajasi, qurilma turi, o‘quv muddati) kabi ko‘rsatkichlarga tayanildi. Natijada VR/AR ta’sirining o‘rtacha effekt hajmi kognitiv natijalar bo‘yicha d = 0,68 (95% CI: 0.51–0.85), psixomotor ko‘nikmalar bo‘yicha d = 0.92 ($p < 0.001$) deb aniqlandi.


2023-2024– va 2024-2025–o‘quv yillarida Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat universitetlarida “Raqamli ta’lim” loyihasi doirasida o‘tkazilgan pilot loyihalar natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida jami 2450 nafar o‘quvchi va 68 nafar o‘qituvchi (jumladan AL ning 1–2-kurslaridan 50 nafar o‘quvchi va 2 nafar kimyo o‘qituvchisi) ishtirok etdi.

Tadqiqot kognitiv testlar (molekulyar tuzilish, reaksiya mexanizmlari, fazoviy tasavvur); laboratoriya hisobotlari bahosi (rubrika bo‘yicha); motivatsiya va qoniqish so‘rovnomalari (5-ballik Likert shkalasi); statistik tahlil: juftlashtirilgan t-test, mustaqil t-test, ANOVA, Pearson korrelyatsiyasi (SPSS 27 va Jamovi dasturlari yordamida) yordamida olib borildi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ishonchliligi, shaffofligi va takrorlanuvchanligini ta’minlaydi hamda olingan natijalarni xorijiy tadqiqotlar bilan solishtirish imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Virtual reallik (VR) texnologiyalari kimyo ta’limida molekulyar darajadagi jarayonlarni immersiv tarzda modellashtirish va chuqur tushunish imkonini beruvchi eng samarali vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘quvchilar 3D muhitda molekulalarni erkin aylantirib, bog‘lanish burchaklari va hibridizatsiya turlarini o‘lchashi, shuningdek, reaksiya kinetikasining elementar bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatishi mumkin. Masalan, “Labster” platformasida organik sintez, elektroliz va katalitik jarayonlar kabi tajribalar o‘tkazilganda o‘quvchilarning kognitiv natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi (Labster, 2024 [5]). Meta-tahlil natijalariga ko‘ra, VR laboratoriyalarida kognitiv natijalar o‘rtacha effekt hajmi d = 0,68 (95% CI: 0,51–0,85), psixomotor ko‘nikmalar bo‘yicha esa d = 0,92 ni tashkil etadi (Radianti et al., 2020 [1]). Bu ko‘rsatkichlar VR ning abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish va tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Natijalar kimyo bo‘yicha yillik baholar o‘rtacha 0,7–0,9 ballga oshganligini ($p < 0,001$); fazoviy tasavvur testi natijalari 44% ga yaxshilanganligini; laboratoriya hisobotlari sifati 39% ga, tajriba protseduralarini to‘g‘ri bajarish darajasi 46% ga oshganligini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning 81% i “kimyo darsi qiziqarli bo‘ldi”, 73% i “endi kimyo fanini yaxshi ko‘raman” deb javob berdi; o‘qituvchilarning 82% i VR/AR ni “albatta joriy etilishi kerak” deb fikr bildirdi.



Uzbekistondagi pilot loyiha samaradorligi

Qo‘qon (N=20, d=0,8, p<0,001); Samarqand (N=15, d=0,6, p=0,02)

Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari esa real ob’ektlarga raqamli qatlam qo‘shish orqali ishlaydi va smartfon yoki planshet kabi qulay qurilmalar orqali foydalanish imkoniyatiga ega. Kimyoda AR ning eng muhim qo‘llanilish yo‘nalishlari orasida molekulyar modellashtirish (Elements 4D, Molecule AR ilovalari orqali atomlarni stol ustiga “joylashtirib”, birikmalar hosil qilish), reaksiya mexanizmlarini bosqichma-bosqich kuzatish (AR ChemLab’da reaksiya bosqichlari real vaqt rejimida ko‘rsatiladi), laboratoriya jihozlarini virtual joylashtirish (probirka, kolba, byuretka kabi jihozlarni o‘rganish) va titrlash jarayonida pH o‘zgarishini rang o‘zgarishi sifatida vizualizatsiya qilish kabi amaliy vazifalar mavjud. Tadqiqotlarda AR yordamida organik kimyo tushunchalarini o‘zlashtirish darajasi 27–41% ga oshgani aniqlangan (Cai et al., 2019 [12]; Fidan & Tuncel, 2019 [13]). Bu natijalar AR ning abstrakt tushunchalarni real kontekstda ko‘rish imkonini berishini va o‘quv jarayonini yanada interaktiv qilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijasida olingan natijalar O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli laboratoriyalarni joriy etishning nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

Talabalarda vokal ijrochilik malakalarini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi turli pedagogik usullardan foydalanadi. Eng avvalo, vokal eshituvni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Vokal eshituv talabaning tovush sifatlarini anglay olishi, jarangdorlikni nazorat qilishi va to‘g‘ri ovoz hosil qilish tasavvurini shakllantirishi bilan bog‘liq. “Vokal asoslari” fani mashqlar, texnik vokalizlar va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To‘g‘ri tanlangan repertuar talabaning ovozini tarbiyalaydi, texnik imkoniyatlarini kengaytiradi. Mashq esa bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlovchi asosiy vosita hisoblanadi. U dars jarayonida ovozda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish, tovushga sayqal berish va badiiy ijroga tayyorlash vazifasini bajaradi.

Vokal ijrochiligi tushunchasi insonning kuylash qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, nutqdan farqli ravishda aniq balandlikka, davomiylikka va tembr xususiyatiga ega tovushlar orqali namoyon bo‘ladi. Ovoz registrlarga ega bo‘lib, registr deganda tembr jihatdan bir xillikka ega tovushlar qatori tushuniladi. Bu tovushlar yagona fiziologik mexanizm asosida hosil bo‘ladi [13].

Vokal ijrochiligida vokal eshituv alohida ahamiyat kasb etadi. U tovush hosil qilish jarayonini nafaqat eshitish, balki mushak sezgisi orqali his qilish bilan ham bog‘liq. Vokal eshituv jarayonida vibratsion va rezonator hissiyotlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ijrochi tovush jarangini eshitish bilan birga, uning qanday hosil bo‘layotganini, ovoz apparatida qanday jarayonlar kechayotganini tasavvur qila olishi lozim. Bu ko‘nikma asta-sekin, tizimli mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi.

Kuylash jarayonining asosi bo‘lgan nafas olishni rivojlantirish vokal ta’limining eng muhim tarkibiy qismidir. Nafas olish erkin, bir maromda va ovoz hosil qilishda qatnashuvchi barcha tizimlarning tabiiy muvofiqligini ta’minlaydigan bo‘lishi kerak. To‘g‘ri tashkil etilgan, tinch va tayanchli nafas “tayangan tovush”ni yuzaga keltiradi [5]. Bunday tovush to‘liq, jarangdor va badiiy jihatdan mukammal eshitiladi.

Vokal pedagogikasida nafas olish masalasiga alohida urg‘u beriladi. M. Garsiya “agar siz nafasingizni boshqarish san’atini o‘zlashtirmasangiz, mohir qo‘shiqchi bo‘la olmaysiz” deb ta’kidlagan. N.D. Andguladzening fikricha esa, “Kuylash san’ati – bu nafas olish san’atidir” [6]. Demak, ijrochilikning tayanch elementi aynan to‘g‘ri nafas olish hisoblanadi.

F. Lamperti vokal o‘qitish jarayonida aqliy nazoratning muhimligini alohida ta’kidlab, dastlabki bosqichda ijrochi ovoz bilan emas, ongli ravishda ishlashi zarurligini qayd etadi [7]. Nafas olish mexanizmini ongli ravishda boshqarish qo‘shiqchida “tayanchli nafas”ni shakllantiradi. Nafas olish jarayonida burun, og‘iz, tomoq, halqum, traxeya, bronxlar, o‘pka, diafragma va ko‘krak qafasi mushaklari uyg‘un faoliyat ko‘rsatadi. Bu tizimning muvofiqligi vokal sifatining asosini tashkil etadi. Shuningdek, ovozning balandligi, davomiyligi, tembri va jarangdorligi qo‘shiq ovozining muhim sifatlari hisoblanadi. F. Lamperti inson ovozining hissiy ifoda imkoniyatlari boshqa musiqa asboblariga nisbatan keng ekanligini ta’kidlaydi [8]. Ijro jarayonida badiiy obraz yaratish va she’riy matn mazmunini yetkazishda diksiya muhim rol o‘ynaydi. Vokal asar ijrosida musiqiy intonatsiya va she’riy so‘z birligi badiiy ifodaning asosiy tamoyili hisoblanadi. Kui fikricha, vokal musiqasida she’riyat va tovush teng huquqli kuch bo‘lib, ular o‘zaro uyg‘unlashganda tinglovchiga yanada kuchli ta’sir ko‘rsatadi [9].

Natijalar va xulosalar. Vokal darslari jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi sifatida talaba ma’lum pedagogik ko‘nikmalarni puxta egallashi zarur. Ushbu ko‘nikmalar kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, pedagogning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtira olish qobiliyatini ifodalaydi. Tadqiqot doirasida aniqlangan mezonlar talabalarda shakllanishi lozim bo‘lgan asosiy pedagogik sifatlarni belgilaydi.

Avvalo, talaba metodik tushuntira olish qobiliyatini egallagan bo‘lishi kerak. Bu ko‘nikma vokal texnikasining asosiy elementlari – nafas olish, artikulyatsiya, diksiya, intonatsiya va ovoz qo‘yish jarayonlarini izchil, mantiqiy va tushunarli tarzda bayon eta olishni nazarda tutadi. Talaba nafaqat o‘zi to‘g‘ri ijro etishi, balki ushbu jarayonni o‘quvchiga sodda va aniq usulda tushuntirib bera olishi lozim. Shuningdek, mashqlar ketma-ketligini pedagogik maqsadga muvofiq tashkil eta bilish, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda mos metod va usullarni tanlash ham ushbu ko‘nikmaning muhim tarkibiy qismidir. Metodik tushuntirish qobiliyati shakllangan talaba dars jarayonini tizimli rejalashtira oladi va o‘quv materialini samarali yetkazadi.

Ikkinchidan, talaba kommunikativ madaniyatni egallashi zarur. Vokal pedagogi uchun nutq ravonligi, ovoz tembri, talaffuz aniqligi va ifodali so‘zlash muhim kasbiy sifatlar hisoblanadi. Talaba auditoriya bilan samarali muloqot o‘rnatish, pedagogik etika me’yorlariga rioya qilish, sahnada o‘zini erkin tutish hamda tinglovchi bilan psixologik aloqa o‘rnatish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Kommunikativ kompetensiya pedagogning ijtimoiy-

psixologik tayyorgarligini belgilaydi va ta’lim jarayonida o‘zaro ishonch hamda samarali hamkorlikni ta’minlaydi.

Uchinchidan, talaba musiqiy-pedagogik tahlil ko‘nikmasini egallashi lozim. Bu ko‘nikma vokal asarni nafaqat badiiy jihatdan, balki metodik nuqtai nazardan ham chuqur tahlil qila olishni o‘z ichiga oladi. Talaba asarning shakli, janri, tempi, lad-tonalligi, dinamikasi va ifoda vositalarini aniqlay olishi, ularni o‘quv jarayoniga moslashtira bilishi kerak. Shuningdek, ijro jarayonida uchraydigan xatolarni aniqlash, ularning sabablarini pedagogik jihatdan asoslab tushuntirish va tuzatish usullarini taklif eta olish ham mazkur ko‘nikmaning muhim ko‘rsatkichidir. Musiqiy-pedagogik tahlil qobiliyati rivojlangan talaba o‘z faoliyatini reflektiv baholay oladi va kasbiy o‘sishga intiladi.

Ushbu ko‘nikmalarni egallash talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali ishlashi, o‘quvchilarning vokal mahoratini to‘g‘ri yo‘naltira olishi hamda ta’lim jarayonini yuqori pedagogik saviyada tashkil etishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-112-son Qarori. 2022-yil 2-fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 15.11.2024-yil, PQ-391-son Qarori, https://lex.uz/uz/docs/-7221711

4. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

5. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O’quv qo’llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2008. 314 b.

6. Андгуладзе Н.Д.О творческой природе певческого дыхания / Н. Д. Андгуладзе // Первый международный междисциплинарный конгресс «ГОЛОС»: сб. трудов. – Москва, 2007. – С. 5-6

7. Пекерская Е.М. Вокальный букварь / Е. М. Пекерская. – Москва: Музыка, 1996. – 11 с

8. Ламперти Ф. Начальное теоретико-практическое руководство к изу1чению пения. Искусство пения по классическим преданиям. Технические пра1вила и советы ученикам и артистам. Ежедневные упражнения в пении: учебное пособие / Ф. Ламперти; пер. Н. А. Александровой. – Санкт-Петербург: Изда1тельство «Лань»; Издательство «ПЛАНЕТА МУЗЫКИ», 2014. – 21 с.

9. Смелкова Т.Д. Основы обучения вокальному искусству: учебное пособие / Т.Д.Смелкова, Ю.В.Савельева. – Санкт-Петербург: Издательство «Лань»; Издательство «Планета музыки», 2014. – 16 с.

10. Qudratov I. Talabalarni xalq qo’shiqlari vositasida estetik tarbiyalash (monografiya)-T.: Fan, 2009y, 164b.
11. Kabalevskiy D. *О воспитании музйкалной кулътурй школников*. -M., 1982.
12. Zoltán Kodály. *Selected Writings*. London, 1974.
13. Ortiqov T. Musiqa o‘qitish metodikasi –T.: Muharrir nashriyoti, 2011 y, 196-b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIZIMLI STRUKTURALLANGAN MODULLAR ASOSIDA DASTURLASH FANINI TARKIBINI O‘QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.046

Nafasov Izzatbek Shernafasovich
Urganch innovatsion universiteti, katta o‘qituvchi.
nafasovizzatbek@gmail.com

Annotatsiya. Strukturaviy modullar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish fanning mazmunini aniq tuzilgan, izchil taqdim etilgan modullarga ajratib, o‘qitishni talabalarning individual qobiliyatlariga moslashtirish, shuningdek, kredit-modulli tizimda ta’lim sifatini yanada oshirish ko’zda tutilgan. Bunda o‘quv jarayonining samaradorligi yanada takomillashadi, nazariy va amaliy materiallar izchil beriladi va talabaning o‘zlashtirishini nazorat qilish tizimi bilan uzviy bog’lanadi. Pedagogik ta’lim tizimida tizimli strukturalangan modullar asosida o‘qitishning joriy etilishi malakali, chunonchi axborot texnologiyasi sohasi bakalavrlarini tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maqolada dasturlash fanining tizimli strukturalangan o’quv modullari asosida tashkil qilingan o’quv jarayonining o’ziga xos afzalliklari, tarbiyaviy ahamiyati va kamchiliklari tizimli tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tizimli tahlil, pedagogik ta’lim, modulli o’qitish, o’quv elementlari, samaradorlik, afzalliklar, dastur, kasbiy-ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, muammolar.

Аннотация.Организация учебного процесса на основе структурированных модулей предусматривает разделение содержания дисциплины на чётко структурированные и последовательно представленные модули, адаптацию обучения к индивидуальным способностям студентов, а также дальнейшее повышение качества образования в условиях кредитно-модульной системы. При этом повышается эффективность учебного процесса, теоретический и практический материал излагается последовательно и находится в тесной взаимосвязи с системой контроля усвоения знаний студентами.

В педагогической системе образования внедрение обучения на основе системно структурированных модулей способствует повышению эффективности подготовки квалифицированных бакалавров, в частности в сфере информационных технологий. В статье проведён системный анализ специфических преимуществ, воспитательного значения и недостатков учебного процесса, организованного на основе системно структурированных учебных модулей по дисциплине «Программирование».

Ключевые слова: Систематический анализ, педагогическое образование, модульное обучение, образовательные элементы, эффективность, преимущества,

программа, профессионально-творческое мышление, самостоятельное мышление, проблемы.

Abstract.The organization of the educational process based on structured modules предусматривает dividing the content of a discipline into clearly structured and consistently presented modules, adapting instruction to students’ individual abilities, and further improving the quality of education within the credit-modular system. In this approach, the effectiveness of the learning process is enhanced, theoretical and practical materials are delivered in a logical sequence, and they are closely integrated with a system for monitoring students’ learning outcomes.

In the pedagogical education system, the introduction of teaching based on systematically structured modules contributes to increasing the effectiveness of training qualified bachelors, particularly in the field of information technology. The article provides a systematic analysis of the specific advantages, educational significance, and shortcomings of the learning process organized on the basis of systematically structured instructional modules in the discipline of Programming.

Keywords: Systematic analysis, pedagogical education, modular teaching, educational elements, effectiveness, advantages, program, professional-creative thinking, independent thinking, problems.

Kirish. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli iqtisodiyot sharoitida dasturlash fanini o‘qitish sifatini oshirish**,** ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An’anaviy o‘qitish yondashuvlari ko‘pincha bilimlarni fragmentar o‘zlashtirishga olib kelib, talabalarda amaliy ko‘nikma va malakalarning yetarli darajada shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, ta’lim jarayonini yaxlit, tizimli strukturalangan modullar asosida va natijaga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni ta’minlovchi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Modulli o’qitish - o’qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi. An’anaviy ta’limda o’quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya’ni bilim berishga yo’naltirilgan bo’lsa, modulli o’qitishda ta’lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo’naltirilgan bo’ladi.

Modulli o’qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog’liq: - ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi; - malakali professor-o’qituvchilar tarkibi darajasi; - talabalar tayyorgarlik darajasiga; - kutiladigan natijalar bahosiga; - didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga; - modullar natijasi va tahliliga. Modulli ta’limda o’quv dasturlari to’la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o’qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o’qitishni individuallashtirish mumkin bo’ladi.

Modul umumiy ko’rinishda quyidagi elementlardan iborat bo’lishi mumkin: - tizimli - bu modul tarkibi tizimini namoyon etish; - faollashtirish - bu yangi o’quv materialini o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko’rsatish; - nazariy - bu asosiy o’quv materiali bo’lib, unda - didaktik maqsadlar muammoni ifodalash

gipotezani asoslash muammoni yechish yo’llari ochib ko’rsatiladi; - joriy etish- bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o’rganilgan materialni amaliyotda qo’llash; - xatoliklar – talabalarning modul mazmunini o’rganishdagi o’zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo’llarini ko’rsatish; - bog’liqlik - o’tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan boshqa fanlar bilan bog’liqligini namoyon etish; - test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini talabalar tomonidan o’zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

Mazkur talablar nuqtayi nazaridan modulli ta’lim texnologiyasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim vositasi sifatida e’tirof etiladi. Modulli yondashuv o‘quv fanining mazmunini mantiqan bog‘langan modullar va o‘quv elementlari asosida tuzish, talabaning individual imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, dasturlash fanini o‘qitishda modulli strukturalashtirish nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarni ham o‘zida mujassam etishi lozim**.** Shu jihatdan, rivojlantirish, tarbiyalash va o‘qitish maqsadlarini aniq belgilash hamda ularni modulli ta’lim doirasida uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Modulli ta’limda maqsadlarni aniqlash, oraliq va yakuniy natijalarni muntazam diagnostika qilish orqali bilim olish jarayonlari va boshqa faoliyat turlarining izchil ierarxiyasini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili: Modul fanning fundamental tushunchalarini - ma’lum hodisa yoki qonun, yoki bo’lim, yoki ma’lum bir yirik mavzu yoki o’zaro bog’liq tushunchalar guruhini o’z ichiga oladi. Modulli o’qitish - o’qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga to‘liq uyg‘unlashgan [1].

Modulli ta’lim texnologiyasi birinchi navbatda maqsad qo‘yishdan keyin uning tashkil etilishiga bog‘liq. Boshlang‘ich bosqichdan tashqari, pedagogik jarayon talabalar tomonidan mustaqil ishni takroran bajarish va variantlash orqali ta’minlanadi, ya’ni doimiy va fidoyilik bilan ishlash, aniq o‘lchanadigan parametrlar bilan [2].

B.Y. Karimov [3] mazkur izlanishlarida samarali o‘qitish texnologiyalaridan biri bo‘lgan modulli o‘qitish jarayoniga tizimli faoliyatli yondoshuv va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bergan. Shu bilan birga maqolada oily ta’limda talabalarning ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini samarali shakllantirilish, tanlanayotgan o‘qitish texnologiyalarining ishlab chiqarish sharoitlariga qanchalik yaqinligiga bog’liqligi asoslangan. Shuningdek, modulli o‘qitish texnologiyasining ishlab chiqarish bilan bog’langan ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari va uning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

R. Ashurmatov, S. Haqnazarov va E. Ikomxonovlarning “Oliy ta’lim tizimida fizika fanini modulli texnologiya asosida o`qitish” maqolasida [4] modulli ta’lim tizimi doirasida fizika fani bo`yicha mustaqil ta`limni tashkil qilish muammolariga yondashilgan, chunonchi: Fan qamrovining nihoyatda kengligini inobatga olgan holda mustaqil ta`limga bo`lgan

e`tiborni kuchaytirish uslublari, metodikalari takidlangan; fizika fanining texnologik sohadagi ahamiyatini inobatga olgan holda mustaqil ta`limga e`tibor yanada kuchaytirilishi lozimligi ko’rsatilgan; fizika fani bo`yicha dars mashg`ulotlari hajmining nisbatan kamligidan kelib chiqib, mustaqil ta`limning amaliy individual ahamiyatini yanada takomillashtirishning tabiiy hol ekanligi takidlangan.

M. L. Boltabayevalarning maqolasi [5] kimyo fanini modulli o’qitish tizimida mustaqil ta’limga bo’lgan e’tiborni kuchaytirishga alohida e’tibor berish zarurligi, har bir o’qituvchi dars jarayonida mustaqil ta’limga bo’lgan e’tiborni kuchaytirishi, unga talabchanlik bilan yondoshmog’ligi, talabalar ta’lim olishga kirishar ekan, avvalo o’zida mustaqil ta’limga bo’lgan ko’nikmani shaklllantirishningning turli xil usullari muhokamasiga bag’ishlangan.

H. B. Saypillayeva, [6] mazkur maqolasida kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini hisobga olgan holda ta’lim jarayonida innovatsion usullarni qo‘llash orqali o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati tug‘ilayotganli sababli kasbiy ixtisoslik modullarini klaster modeli asosida o‘qitishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Z.T. Raximov “Oliy ta’limda modulli ta’lim texnologiyasini qo’llashning o’ziga xos xususiyatlari” maqolasida modulli ta’lim texnologiyasi mazmuni, modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanib o’qitish samarali natijalarga erishish -ni ta’minlashi, modulli ta’lim texnologiyasi tamoyillari, talabalarning o’quv-bilish faoliyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o’quv materialini mantiqan tugallangan bo’laklarga ajratib o’rganish imkoniyatlari kabi masalalar talqin qilingan [7].

E.J. Kenesbaeva [8] ushbu maqolasida o’quvchilarni intellektual rivojlantirishda modulli o’qitish texnologiyalarini qo’llash bilan o’quv maqsadlari orasidagi aloqadorlik, o’qituvchi-o’quvchi munosabatlari, o’quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo’naltirilgan usullar va metodlarning o’ziga xos xususiyatlari modulli o’qitish texnologiyalari yordamida o’quvchilarni intellektual rivojlantirish yo’nalishlari bayon qilingan.

G. Karlibaeva va boshqalar ilmiy izlanishlarida fizika ta’limi jarayoniga modulli texnologiya asosida yondoshish uni aniq rejalashtirish, ta’lim natijasini oldindan qayd qilish imkoniyatini berishi, kelajakda mustaqil va masofali ta’limda istiqbolli o’qitish usuli sifatida qo’llanilishi mumkinligining samarali natija berishligi ko’rsatilgan [9].

Modulli ta’lim tizimi “subyekt-subyekt” munosabatlariga qurilganligi sababli talabalarning mustaqil faoliyatiga katta e’tibor qaratilishi, talaba mustaqil faoliyatini samarali bo’lishi uchun pedagogdan turli xildagi maslahatlar tizimini ishlab chiqishning talab qilinishi, hamda xorij tajribasida pedagogik yordamning turli ko’rinishlari takomillashib borayotganligi va bugungi kunda pedagogik faoliyatiga ko’ra kelib chiqqan bir qancha tushunchalar mohiyatiga e’tibor qaratilgan [10].

Mazkur [11] maqolada kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarini aniqlash, ularni ta’lim jarayoniga joriy qilishning ilmiy-metodik jihatlarini tadqiq etish masalasi keng yoritilgan.

Modulli o’qitish texnologiyasida talabaning o’quv-biluv faoliyatini yuqori darajada o’zini-o’zi tashkil etishi o’quv maqsadlarini mustaqil qo’yish, faoliyat usullarini tanlash

ko’nikmasi, o’z harakati va munosabatlarini boshqalar bilan moslashtirish va muvofiqlashtirishi, shu bilan ta’minlanadiki, talabalar o’z vaqtlarining katta qismida ko’nikmasi, o’z harakati va munosabatlarini boshqalar bilan moslashtirish va muvofiqlashtirishga asoslanadilar, natijada talabalar o’z vaqtlarining katta qismida mustaqil ishlaydilar. Talaba maqsad qo’yish, o’z faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish va baholashni o’rganadi, hamda bilim va ko’nikmalaridagi mavjud kamchiliklarni ko’rishi mumkin bo’ladi [12].

Ta’kidlash lozimki, fanning tarkibi va modullar ketma-ketligini shunday tuzish zarurki, ular bir vaqtda boshlanib yakunlansin, yagona modul sifatida shakllansin va keyin navbatdagi modul bilan almashtirilsin. Modullar va fanning tarkibiy ketma-ketligi maqsadlarni belgilash hamda doimiy ravishda o‘tkaziladigan oraliq va yakuniy natijalarni diagnostika qilish asosida bilim olish jarayonlari va boshqa faoliyat turlarining ierarxiyasini yagona texnologiya sifatida tashkil etish imkonini beradi. Modullarning uyg‘unligi va o‘zaro bog‘liqligi bir vaqtda uch-to‘rttadan ortiq bo‘lmasligi talab qilinadi [13].

Metodologiya. Modulli o’qitish metodologiyasi – ta’lim mazmunini mustaqil, mantiqiy tugallangan bloklarga (modullarga) bo’lib, talabaning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga muvofiqlashtirilgan holda tashkil etishdir. Ushbu tizimda ta’lim oluvchi mustaqil ishlaydi, o’qituvchi esa maslahatchi va nazoratchi rolini bajaradi, natijada ta’lim jarayoni differensiallashadi.

Modulli ta’lim texnologiyasini o‘zlashtirish dasturlash fanining mazmunini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda nazariy o‘quv materiali tizimli ravishda modullar asosida bayon etiladi, o‘quv ko‘nikma va malakalarini shakllantirish esa algoritmlashtirilgan, dasturiy vositalarga asoslangan metodik ko‘rsatmalar majmui asosida tashkil etilgan o‘quv modullari orqali amalga oshiriladi.

O‘quv modulini tuzish bo‘yicha harakatlar ketma-ketligi [14,15,16] ishlarida taqdim etilgan. Dasturlash fanida “Nochiziq tenglamaning ildizlari yotgan oraliqni aniqlash” mavzusini loyihalash bo‘yicha texnologik xarita. «Nochiziq tenglamaning ildizlari yotgan oraliqni aniqlash» moduli

Amaliy mashg‘ulot mavzusi: «Nochiziq tenglamaning ildizlari yotgan oraliqni aniqlash usullari»

Mashg‘ulot (mavzu) maqsadi: Talabalarda nochiziqli tenglamalarning ildizlari mavjud bo‘lish shartlari, ularni yotgan oraliqni aniqlash usullari haqidagi nazariy bilimlarni shakllantirish hamda ushbu bilimlarni amaliy masalalar yechishda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Talaba uchun differensiallashtirilgan maqsad:

- Boshlang‘ich daraja: nochiziqli tenglama ildizining mavjudligini aniqlash shartlarini bilish;
- O‘rta daraja: funksiya qiymatlari asosida ildiz yotgan oraliqni aniqlash;
- Yuqori daraja: grafik va analitik usullar yordamida ildizlari yotgan oraliqni mustaqil tahlil qilish.

Mavzu yakunida talaba quyidagi bilimlarni egallashi kutiladi.

- nochiziqli tenglama va uning ildizi tushunchasi;
- ildizning mavjudlik shartlari;
- ildiz yotgan oraliqni aniqlashning asosiy usullari;
- taqribiy yechish usullarining nazariy asoslari.

Mavzu yakunida talaba quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

- funksiya qiymatlarini hisoblash va tahlil qilish;
- grafik, analitik va algoritmik usulda ildiz yotgan oraliqni aniqlash;
- algoritmik ko‘rsatmalar asosida dastur tuzish.

Shakllantiriladigan tushunish sohasi: Analitik fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, matematik modellashtirish.

Umumta’lim ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va rivojlantirish: Mustaqil ishlash, muammoni tahlil qilish, axborotni qayta ishlash, hisoblash aniqligi va natijani asoslab berish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mavzu materiallari asosida tarbiyaviy ishlash: Talabalarda mas’uliyatlilik, aniqlik, mantiqiy izchillik, ilmiy dunyoqarash va matematik madaniyatni shakllantirish.

Mashg‘ulot turi va qo‘llanilgan pedagogik texnologiya: Amaliy mashg‘ulot, modulli ta’lim texnologiyasi, algoritmik yondashuv.

Nazorat turi: o‘zini-o‘zi nazorat, o‘zaro nazorat, ekspert bahosi.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonni modulli tizim asosida tashkil etish doirasidagi o‘quv mashg‘ulotlari ikki turga bo‘linadi. Birinchisi - talabaning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan to‘liq mustaqil o‘quv faoliyati asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar (1-jadval). Ikkinchisi - o‘qituvchining o‘rgatuvchi faoliyatiga nisbatan talabaning refleksiv faoliyati ustuvor bo‘lgan mashg‘ulotlar.

Mavzuni loyihalashga oid texnologik xarita bilan bir qatorda, talabaning amaliy mashg‘ulotda mustaqil ishlashi uchun mo‘ljallangan o‘quv moduli va o‘quv elementi tuzilmalari (1, 2- jadvallar) taklif etiladi.

1-jadval

«Nochiziq tenglamani ildizlari yotgan oraliqni aniqlash usullari» modulining tuzilishi (M.1.)

Mikromodul raqami, nomi (MM.1)	**Modulning maqsad va vazifalari**	**Talimni boshqarish (mazmun, shakllar, usullar)**
(MM.1.1) – nochiziq tenglamani ildizi yotgan kesmani analitik usulda aniqlash	Talabalarga nochiziq tenglamaning ildizlari yotgan oraliqni aniqlashni analitik usul asosida o‘rgatish; nazariy bilimlarni mustahkamlash; masala yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish	Nazariy izoh, amaliy masalalar, bosqichma-bosqich algoritmik yechim; interfaol muhokama, masala yechish bo‘yicha individual va guruh ishlari
(MM.1.2) – nochiziq tenglamani ildizi yotgan kesmani grafik usulda	Talabalarda grafik usul orqali ildiz yotgan oraliqni aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirish;	Funksiya grafigi chizish, nuqtalarni aniqlash; o‘quvchi mustaqil ishlash, muammoli

aniqlash	vizual tahlil qobiliyatini rivojlantirish	topshiriqlar; vizual tahlil va guruh muhokamasi
(MM.1.3) – nochiziq tenglamani ildizi yotgan kesmani algoritmik usulda aniqlash	Talabalarni algoritmik yondashuv yordamida ildizlar yotgan oraliqni aniqlashga o‘rgatish; mustaqil yechimlarni amalga oshirish	Algoritmlashtirilgan ko‘rsatmalar, qadam-baqadam ishlash; kompyuter yordamida amaliy mashg‘ulotlar; guruh va individual nazorat

2-jadval

«Nochiziq tenglamani ildizlari yotgan oraliqni aniqlash usullari» moduli o‘quv elementining tuzilishi (M.1.)

O‘rganish elementidagi ketma-ketlik raqami	O‘quv elementining (O‘E) maqsad va vazifalari	O‘quvni boshqarish (mazmun, shakllar, usullar)
O‘E1 – matematik tavsiflash	Talabalarni masala yoki jarayonni matematik ifoda shaklida tavsiflashga o‘rgatish; nazariy bilimlarni mustahkamlash	Nazariy izoh, misollar tahlili, masala yechish bo‘yicha interfaol muhokama, individual va guruh ishlari
O‘E2 – algoritmini qurish	Talabalarni masala yechish algoritmini bosqichma-bosqadam yaratishga o‘rgatish	Algoritmlashtirilgan ko‘rsatmalar, qadam-baqadam tahlil, muammoli topshiriqlar, guruh va individual ishlash
O‘E3 – dasturiy agentni yaratish, sozlash, testlash	Talabalarni dasturiy vositalar yordamida algoritmni amaliyotga tadbiq qilishga o‘rgatish; testlash va sozlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	Dasturiy ta’minot bilan ishlash, kompyuter amaliy mashg‘ulotlari, guruh va individual nazorat, interfaol muhokama
O‘E4 – individual topshiriqni bajarish	Talabalarni mustaqil ishlashga rag‘batlantirish; nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash	Talabaga individual masala berish, mustaqil yechim ishlab chiqish, natijani taqdim etish
O‘E5 – bilimni mustahkamlash	Talabalar bilimini chuqurlashtirish va barqarorlashtirish	Qayta ishlash, mashq va misollar yechish, guruh muhokamasi, interfaol metodlar
O‘E6 – bilimni nazorat qilish va baholash	Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash; mustaqil ish va test orqali natijani aniqlash	O‘zini-o‘zi nazorat, o‘zaro baholash, ekspert bahosi, test va amaliy topshiriqlar

Mashg‘ulot mavzusiga qarab o‘qituvchi uning maqsadini belgilaydi yoki talabalarni buni mustaqil bajarishga taklif qiladi. O‘qituvchining muhim vazifasi – ish maqsadini

talabalariga yetkazish va ularda mashg‘ulot vazifalariga muvofiq maqsad qo‘yish qobiliyatini shakllantirishdir.

Xulosa: Modul asosidagi ta’lim texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchi unga taklif etilgan individual o‘quv dasturi asosida mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur dastur maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar rejasi, o‘quv axborotlari majmui hamda belgilangan didaktik maqsadlarga erishishni ta’minlovchi metodik ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

O‘quv fanining dasturi modulli tuzilishga ega bo‘lib, har bir modul tarkibiga o‘quv elementlari kiritiladi. Ushbu o‘quv elementlari yaxlitlik va o‘zaro bog‘liqlik tamoyillari asosida tashkil etilib, fan mazmunining mantiqiy va izchil tuzilmasini shakllantiradi.

Modulli ta’lim texnologiyasini o‘zlashtirish dasturlash fanining mazmunini tizimli ravishda shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda nazariy o‘quv materiali modullar asosida ketma-ket va izchil bayon etiladi. O‘quv ko‘nikma va malakalarini shakllantirish esa algoritmlashtirilgan metodik ko‘rsatmalar majmui asosida tashkil etilgan o‘quv modullari orqali amalga oshiriladi. Natijada ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy faoliyatni ongli tashkil etish hamda bilimlarni barqaror o‘zlashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Modulli ta’lim yuqorida aytib o’tilganidek “subyekt-subyekt” munosabatlariga qurilganligi sababali talabalarning mustaqil faoliyatiga katta e’tibor qaratilgan bo’lib talabaning mustaqil faoliyatini samarali bo’lishi uchun pedagogdan turli xildagi maslahatlar tizimini ishlab chiqish talab qilinadi, natijada talabaning maqsadli va samarali ishlashi taminlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltabayeva M.L. Yuldasheva N.T. Oliy ta’lim tizimida kimyo fanini o‘qitishda modulli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences SJIF 2023/6.131/ASI Factor= 1.7

2. Варенова Л.И., Куклин В.Ж., Наводнов В.Г. Рейтиноговая Интенсивная Технология Модульного обучения / – М.: Педагогика, 1993.– 67 с.

3. Karimov B.Y. Oliy ta’limda modulli o‘qitish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari. Scientific journal of Construction and Education ISSN 2181-3779, volume 3, Issue 1, 2024.

4. Ashurmatov R, Haqnazarov S, Ikomxonov E. Oliy ta’lim tizimida fizika fanini modulli texnologiya asosida o`qitish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021:5.423

5. Boltabayeva M.L., Yuldasheva N.T., G‘oipov A. Oliy ta’lim tizimida kimyo fanini o‘qitishda modulli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023

6. Saypillayeva H.B.. Oliy ta’limda ixtisoslik modullarini o‘qitishning klaster modeli samaradorligi. https://doi.org/10.5281/zenodo.14235344

7. Raximov Z.T. Oliy ta’limda modulli ta’lim texnologiyasini qo’llashning o’ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2021, 10 (107)

8. Kenesbaeva E. J. Modulli o’qitish texnologiyalari vositasida o’quvchilarni intellektual rivojlantirish yo’nalishlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 y №12) ISSN 2181-1709 (P)

9. Turdanov K., Karlebaeva G., Palo’anova A. Fizika ta’limini modulli texnologiya asosida takomillashtirish. Современные проблемы физики полупроводников-2011. Konferensiya to’plami. Nukus – 2011

10. Fayzullaeva D.M. Modulli ta’limda maslahat tizimlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2015 yil

11. Djalilov E.K., Samatova D., Omanqulova Sh., Xo’jamurodova K.. Talabalarni modulli o’qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentliligini takomillashtirish. Fan, talim va amaliyot integratsiyasi. ISSN: 2181-1776(E) SJIF 2023: 6.907

12. Mirzaeva S.R. Oliy ta’lim muassasalarida modulli o’qitish texnologiyalarining dolzarbligi. Zamonaviy ta’lim. Ilmiy-amaliy ommabop jurnali. № 5, 2017

13. Narzullayeva N.H.. O’qitish texnologiyalari va ularning turlari. "Science and Education" Scientific Journal / April 2023/ Volume 4, Issue 4.

14. F.Yusupov, I.Nafasov. Methodology of student activation on the subject of determining the roots of a nonlinear equation based on a decomposited graph scheme. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 3. https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-3-31-35

15. Nafasov I. Dasturiy vositalar yordamida mavzuni strukturalab bilim olish jarayonini jadallashtirish metodikasi (“Nochiziq tenglamaning ildizini taqribiy hisoblash usullari” mavzusi misolida). “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 4. Buxoro davlat universiteti.

16. F.Yusupov, I.Nafasov. The methodology for accelerating the learning process based on structured and systematized learning elements (on the example of approximate root calculation of a nonlinear equation using newton’s method). EPRA International Journal of Multidisciplinary research. Volume:11 Issue**:**5 May 202**5.** Journal DOI: 10.36713/epra2013. SJIF Impact Factor 2025: 8.691. ISI I.F. Value : 1.188

17. Nafasov I.. Dasturlash fanini o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish//PEDAGOGIK MAHORAT. № 12(1), 2025.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABLARDA SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLAT

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.047

Narkulov Odil Oltinbekovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
pedagogika kafedrasi v.b.dotsent.
Yo‘ldoshev Jaxongir
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, magistranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida SMART texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati, ularning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi hamda pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda interaktiv doskalar, raqamli ta’lim platformalari, onlayn baholash tizimlari va multimediya vositalaridan foydalanish amaliyoti o‘rganilib, xususan SMART Technologies tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv qurilmalar imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada SMART texnologiyalarni joriy etish jarayonida uchrayotgan tashkiliy, metodik va texnik muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, dars samaradorligini oshirish va ta’lim jarayonini individuallashtirishdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari SMART texnologiyalar umumiy o‘rta ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omili ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: SMART texnologiyalar, umumiy o‘rta ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, interaktiv doska, pedagogik innovatsiya, raqamli kompetensiya, ta’lim samaradorligi, ta’limni raqamlashtirish.

Аннотация.В данной статье анализируется современное состояние использования SMART-технологий в общеобразовательных школах, их интеграция в учебный процесс и педагогическая эффективность. В исследовании рассматривается практика применения интерактивных досок, цифровых образовательных платформ, систем онлайн-оценивания и мультимедийных средств обучения, в частности анализируются возможности интерактивных устройств, разработанных компанией SMART Technologies.

В статье освещаются организационные, методические и технические проблемы, возникающие в процессе внедрения SMART-технологий, а также научно обоснованные пути их решения. Раскрывается роль данных технологий в развитии цифровых компетенций учащихся, повышении эффективности урока и индивидуализации образовательного процесса. Результаты исследования свидетельствуют о том, что

SMART-технологии являются важным фактором модернизации системы общего среднего образования.

Ключевые слова: SMART-технологии, общее среднее образование, цифровая образовательная среда, интерактивная доска, педагогические инновации, цифровые компетенции, эффективность обучения, цифровизация образования.

Abstract. This article analyzes the current state of the use of SMART technologies in general secondary schools, their integration into the educational process, and their pedagogical effectiveness. The study examines the practical application of interactive whiteboards, digital learning platforms, online assessment systems, and multimedia instructional tools. In particular, it explores the capabilities of interactive devices developed by SMART Technologies.

The paper identifies organizational, methodological, and technical challenges encountered in the implementation of SMART technologies and provides scientifically grounded approaches to addressing these issues. Furthermore, it highlights the role of these technologies in developing students’ digital competencies, enhancing lesson effectiveness, and individualizing the learning process. The findings indicate that SMART technologies serve as a significant factor in the modernization of the general secondary education system.

Keywords: SMART technologies, general secondary education, digital learning environment, interactive whiteboard, pedagogical innovation, digital competence, educational effectiveness, digitalization of education.

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimi global raqamli transformatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim mazmuni, shakli va metodlariga tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Raqamli iqtisodiyot va bilimlar jamiyati sharoitida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini – tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish, hamkorlikda ishlash va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida SMART texnologiyalaridan foydalanish masalasi pedagogik nazariya va amaliyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

SMART texnologiyalari (Self-Monitoring, Analysis and Reporting Technologies konsepsiyasiga tayanuvchi hamda interaktiv boshqaruv va monitoring imkoniyatlariga ega bo‘lgan tizimlar) ta’lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va natijador tashkil etishga xizmat qiladi. Xususan, SMART Technologies kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv doskalar va dasturiy yechimlar bugungi kunda ko‘plab ta’lim muassasalarida qo‘llanilmoqda. Bunday texnologiyalar vizualizatsiya, real vaqt rejimida baholash, o‘quv materiallarini modellashtirish hamda masofaviy integratsiyani ta’minlash imkonini beradi [2].

So‘nggi yillarda ta’limni raqamlashtirish jarayonlari milliy darajada ham jadallashib, maktablarda elektron darsliklar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va multimediya vositalari keng joriy etilmoqda. Biroq SMART texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi faqat texnik vositalar mavjudligi bilan belgilanmaydi. Ularning pedagogik integratsiyasi, metodik asoslanganligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetentligi va ta’lim muhitining infratuzilmaviy

tayyorgarligi muhim omillar hisoblanadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda interaktiv qurilmalar an’anaviy taqdimot vositasi darajasida qolib ketmoqda, bu esa ularning didaktik salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotganini anglatadi.

Ilmiy tadqiqotlar SMART texnologiyalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish va formatlashuvchan baholash tizimini yo‘lga qo‘yishda muhim instrument ekanini tasdiqlaydi. Ular o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil ta’lim faoliyatini rag‘batlantirish hamda o‘quv natijalarini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, texnologik vositalarning pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llanishi metodik kompetensiya, raqamli madaniyat va tizimli yondashuvni talab etadi [3].

Xorijiy olimlarning SMART texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyasi bo’yicha qilingan tadqiqotlarda quyidagilarni ko’rishimiz mumkin.

Т.Н. Астафурова, О.П. Козлова, Н.А. Вишневецкаялarning “Роль смарт-технологий в обучении иностранному языку” nomli tadqiqot Ishida Tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar davrida, integratsiya va globalizatsiya jarayonlari, shuningdek, sanoat jamiyatidan axborot jamiyatiga o‘tish sharoitida ta’limning innovatsion paradigmasida SMART texnologiyalarining ahamiyati sezilarli darajada ortmoqda. Ushbu texnologiyalar pedagogik jarayonda interaktivlikni oshirish, o‘quv jarayonini moslashuvchan va individualizatsiyalangan shaklda tashkil etish, shuningdek, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi [1].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.

1. SMART texnologiyalarining pedagogik mohiyati. SMART texnologiyalari - bu ta’lim jarayonini raqamli vositalar orqali interaktiv, individual va samarali tashkil etishga imkon beruvchi tizimlar majmuasidir. Ular asosan interaktiv doskalar, raqamli darsliklar, onlayn baholash tizimlari, multimediya resurslar, shuningdek, ta’limni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems) orqali amalga oshiriladi. SMART texnologiyalari pedagogning klassik ma’ruzaviy funksiyasini kengaytiradi, o‘quvchilarni faol faoliyatga jalb qiladi, boshqariluvchi va o‘zini-o‘zi baholash imkoniyatlarini yaratadi [4].

2. Ta’lim jarayoniga integratsiyaning konseptual asoslari

SMART texnologiyalarni o‘rta maktab ta’limiga joriy etishda quyidagi pedagogik printsiplar asos bo‘lishi lozim:

Interaktivlik: o‘quvchilarning faol pedagogik muloqotda bo‘lishi;

Vizualizatsiya va multimediya tasvirlari orqali tushunchalarni chuqur anglash;

Individual yondashuv: har bir o‘quvchining o‘z sur’atida o‘rganishini ta’minlash;

Qiymatli va real vaqt baholash: baholash jarayonining samarali boshqarilishi;

Hamkorlik asosida o‘rganish: jamoaviy ijodiy vazifalarni amalga oshirish.

3. Interaktiv doskalar va ularning pedagogik imkoniyatlari. Interaktiv doskalar - SMART texnologiyalarining eng keng tarqalgan vositasi bo‘lib, ular quyidagi pedagogik funksiyalarni bajaradi:

Matn, grafik, diagramma, video va animatsiyalarni birlashtirib, murakkab mavzularni tushunarli ko‘rinishga keltiradi.

Real vaqt rejimida o‘quvchilar bilan muloqot olib borishni ta’minlaydi, shu orqali dars jarayoni dinamik va qatnashuvchi bo‘ladi.

Talabalar faoliyatini monitoring qilish va natijalarni tahlil etish imkoniyatini yaratadi.

Masalan, matematika darslarida geometrik shakllarning animatsion modellarini ko‘rsatish yoki tarix darslarida xaritalar orqali voqealarni tasvirlash o‘quv jarayonini yanada boyitadi [5].

4. Raqamli ta’lim platformalari va baholash tizimlari

Raqamli ta’lim platformalari bir nechta pedagogik yo‘nalishlarda samarali qo‘llanilishi mumkin:

Ma’lumot resurslarini markazlashgan bazada jamlash - barcha o‘quv materiallari, dars rejalari va topshiriqlar yagona tizimda boshqariladi;

O‘quvchilarning erishgan natijalarini individual monitoring qilish - o‘quvchi faoliyati statistik tahlil orqali baholanadi;

Onlayn testlar va baholash vositalari - tezkor natija beradi, talaba xatolarini tahlil qiladi va takror o‘rganish uchun yo‘riqnoma ko‘rsatadi.

Pedagogik amaliyotda LMS (Learning Management System) kabi platformalar o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida uzluksiz pedagogik jarayonni ta’minlaydi.

5. Individual va guruh faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. SMART texnologiyalari yordamida:

Guruhlarda hamkorlikda loyihalar ishlab chiqish amalga oshiriladi;

Diskussiyalar, fikr almashish va yechim izlash jarayonlari raqamli formatda faol bo‘ladi;

Virtual laboratoriyalar orqali amaliy mashg‘ulotlar o'tkazish mumkin.

Bu o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni, muammoli masalalarni yechish kompetensiyalarini rivojlantirad [6].

6. Amaliy tadqiqot va empirik baholash natijalari. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

SMART texnologiyalar darslar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, chunki ular motivatsiyani mustahkamlaydi va o‘quvchi diqqatini jalb qiladi.

Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning erkin fikrlash qobiliyati, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari va raqamli madaniyati yuqori darajada shakllanadi.

Baholash tizimlari orqali olingan statistik ma’lumotlar pedagoglarga dars jarayonini individual tarzda sozlash imkonini beradi.

7. Qo‘llash sohasidagi muammolar va yechim yo‘llari. Biroq quyidagi to‘siqlar mavjud:

Infratuzilma cheklanganligi (internet sifati, mos qurilmalar yetishmasligi);

O‘qituvchilarning raqamli kompetensiya darajasining farqliligi;

Metodik ta’minot va o‘quv rejalarining yangicha pedagogik paradigmaga moslashtirilmasligi [7].

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi:

O‘qituvchilarga muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Ta’lim muassasasida texnik qo‘llab-quvvatlash markazlarini yaratish;

O‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalarni SMART texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish.

Tahlil va natijalar. Informatika fanini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish jarayonini raqamlashtirish maqsadida 8-sinf informatika darsligi asosida ko‘rib chiqamiz.

8-sinf informatika darsligi quyidagi mavzularni qamrab oladi:

- Algoritmlar va blok-sxemalar
- Dasturlash asoslari
- Elektron jadvallar
- Ma’lumotlar bazasi elementlari
- Axborot xavfsizligi
- Raqamli texnologiyalar va internet

Ushbu mavzularni SMART texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish quyidagi afzalliklarni beradi:

- ko‘rgazmalilikni kuchaytiradi,
- modellashtirish imkonini beradi,
- o‘quvchilarning amaliy faoliyatini faollashtiradi,
- real vaqt monitoringini yo‘lga qo‘yadi,
- individual va differensial yondashuvni ta’minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, bu konstruktivistik va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi.

Endi esa Algoritmlar mavzusini SMART texnologiyalar yordamida o‘qitish jarayonini ko‘rib chiqsak.

Dars mavzusi: **Chiziqli va tarmoqlanuvchi algoritmlar**

SMART doska orqali tushuntirish

Interaktiv doskada algoritm blok-sxemasini dinamik ravishda qurish:

Misol:

Agar a > b bo‘lsa, a sonini chiqarish, aks holda b sonini chiqarish algoritmini tuzing.

SMART yondashuv:

1. O‘qituvchi blok elementlarini doskada sudrab joylashtiradi:

Boshlash

Kiritish (a, b)

Shart (a > b)

Chiqarish (a yoki b)

Tugatish

2. O‘quvchilar doskaga chiqib bloklarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiradi.

3. Interaktiv simulyatsiya orqali turli qiymatlar kiritilib natija kuzatiladi.

Ushbu jarayonni 8-sinf o‘quvchilari bevosita o‘zlari SMART doskalarda bajarib ko‘rish orqali Algoritmik tafakkur shakllanadi, shart operatorining ishlash mexanizmi vizual o‘rganadi, xatolarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuqorida Chiziqli va tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusida misol ko’rib chiqdik ikkinchi misol esa Axborot xavfsizligi mavzusini SMART texnologiyalar asosida o‘qitish.

Mavzu: **Parol xavfsizligi**

Interaktiv mashq:

SMART platformada quyidagi parollar beriladi:

- 123456
- Aziz2008
- A$9kL#21

O‘quvchilar qaysi biri xavfsiz ekanini aniqlaydi.

Tahlil:

- Belgilar soni
- Harflar, sonlar, maxsus belgilar mavjudligi
- Shaxsiy ma’lumotdan foydalanilganligi

Natija:

O‘quvchilar axborot xavfsizligi mezonlarini amaliy ravishda o‘rganadi.

SMART texnologiyalar yordamida baholash. Onlayn test tizimi

- 10 ta savol
- Avtomatik natija
- Statistik tahlil (o‘rtacha ball, xatolar foizi)

Ilmiy asos:

Formativ baholash modeli qo‘llaniladi. Bu:

- bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlaydi,
- o‘quv jarayonini individuallashtiradi,
- pedagogik qaror qabul qilishni ilmiy asoslaydi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi kontekstida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida SMART texnologiyalarini qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanganligi aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, SMART texnologiyalar - interaktiv doskalar, bulutli ta’lim platformalari, mobil ilovalar, elektron resurslar va sun’iy intellekt asossidagi vositalar orqali o‘quv jarayonini yangicha formatga o‘tkazib, o‘quvchi markazli yondashuvni ta’minlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Т.Н. Астафурова, О.П. Козлова, Н.А. Вишневецкая (Волгоград) Роль смарт-технологий в обучении иностранному языку Известия ВГПУ 2020 g.

2. Астафурова Т.Н., Козлова О.П., Вишневецкая Н.А. Роль смарт-технологий в обучении иностранному языку // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 3. – С. 45–52.

3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

4. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2010. – 272 с.

5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 2005. – 256 с.

6. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers (Version 3). – Paris: UNESCO, 2018.

7. SMART Technologies. SMART Board Interactive Displays: Education Solutions Overview. – Calgary, 2022. – Available at: www.smarttech.com

8. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2021.

9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris, 2021.

10. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KREATIV METODLAR ASOSIDA TALABALARNING LINGVODIDAKTIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.048

Omonova Laylo Hasanovna
Teacher of “English Department”
“TIIAME” National Research University

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirish masalasi kreativ metodlar orqali ko‘rib chiqiladi. Lingvodidaktik tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslari va ta’lim jarayonini modellashtirish imkoniyatlari tushuntiriladi. Tadqiqot davomida talabalarning lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirishga mo‘ljallangan pedagogik model ishlab chiqildi. Uning tarkibiy qismlari tahlil qilindi. Kreativ metodlardan foydalanish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy qobiliyatlari va metodik tayyorgarligi samaradorligi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ metodlarga asoslangan ta’lim jarayoni lingvodidaktik tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi**.**

Kalit so‘zlar: lingvodidaktika, lingvodidaktik tafakkur, kreativ metodlar, modellashtirish, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim, oliy ta’lim, metodik kompetensiya.

Аннотация.В статье рассматривается вопрос развития лингводидактического мышления студентов высших учебных заведений с применением креативных методов обучения. Исследуются теоретические основы формирования лингводидактического мышления и педагогические возможности моделирования образовательного процесса. В ходе исследования разработана педагогическая модель развития лингводидактического мышления студентов, определены её структурные компоненты. Обосновaётся эффективность креативных методов для формирования аналитических способностей, самостоятельного мышления и методической компетентности будущих специалистов.

Ключевые слова: лингводидактика, креативные методы, педагогическое моделирование, образовательные технологии, профессиональная компетентность.

Abstract. The article explores how to develop students' linguodidactic thinking in higher education using creative teaching methods. It examines the theoretical and methodological foundations of forming linguodidactic thinking and analyzes the pedagogical potential for modeling the educational process. A pedagogical model for enhancing students' linguodidactic thinking was created, and its structural components were identified. The study shows that using creative teaching methods improves students' analytical skills, independent thinking, and

methodological competence. The results indicate that implementing creative methods significantly supports the development of linguodidactic thinking among students.

Keywords: linguodidactics, creative methods, pedagogical modeling, higher education, educational technologies.

The article examines the development of students’ linguodidactic thinking in higher education through the application of creative teaching methods. The theoretical and methodological foundations of linguodidactic thinking formation and the pedagogical potential of modeling the educational process are analyzed. A pedagogical model aimed at developing students’ linguodidactic thinking was designed and its structural components were identified. The study substantiates the effectiveness of creative teaching methods in enhancing students’ analytical abilities, independent thinking, and methodological competence. The findings demonstrate that the implementation of creative methods in the educational process significantly contributes to the development of linguodidactic thinking among students.

Keywords: linguodidactics, creative methods, pedagogical modeling, higher education, educational technologies.

Kirish.Hozirgi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagogik faoliyatni boshqarish muhim masala. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ularning metodik tafakkuri va pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqish ahamiyatlidir. Lingvodidaktik tafakkur til o‘qitish jarayonini natijali tahlil qilish, didaktik holatlarni baholash va samarali metodik strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bu tafakkurni rivojlantirish pedagog mutaxassislarning tayyorgarligida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy pedagogikada kreativ metodlar ta’lim jarayonini yaxshilaydigan muhim vosita sifatida ko‘rilmoqda. Kreativ metodlar talabalarning bilish jarayonini faollashtiradi, muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini o‘stiradi va o‘quv jarayonida innovatsion fikrlashni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirishni kreativ metodlar bilan modellashtirish ilmiy jihatdan muhim yo‘nalishlardan biridir.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili

Lingvodidaktika sohasidagi tadqiqotlar til o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar ta’lim metodikasini takomillashtirish, o‘quv materiallarini tanlash va ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish masalalarini o‘z ichiga oladi. Pedagogik tadqiqotlarda talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Kreativ pedagogika doirasida olib borilgan tadqiqotlar ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvlardan foydalanish talabalarning intellektual rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shuningdek, pedagogik modellashtirish usuli ta’lim jarayonining strukturaviy qismlarini tahlil qilish va ulardan samarali foydalanishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida amalga oshirildi:

• Ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish

• Tizimli yondashuv
• Pedagogik modellashtirish
• Qiyosiy tahlil
• Pedagogik kuzatish

Ushbu metodlar talabalarning lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirish jarayonini chuqur o‘rganish imkonini berdi.

Lingvodidaktik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli

Talabalarning lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirish jarayoni quyidagi qismlardan tashkil topgan pedagogik model asosida o‘zlashtiriladi:

1. Maqsad komponenti

Talabalarda lingvodidaktik tafakkur elementlarini shakllantirish va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirish.

2. Mazmun komponenti

Lingvodidaktika, metodika, pedagogika va psixologiya fanlari integratsiyasi asosida ta’lim mazmunini shakllantirish.

3. Texnologik komponent

Ta’lim jarayonida kreativ metodlardan foydalanish:
• Muammoli ta’lim
• Loyiha metodi
• Aqliy hujum
• Klaster texnologiyasi
• Rol o‘ynash metodlari
• Interfaol pedagogik texnologiyalar

4. Baholash komponenti

Talabalarning lingvodidaktik tafakkurini quyidagi mezonlar asosida baholash:
• Analitik fikrlash darajasi
• Metodik tahlil ko‘nikmalari
• Kreativ yondashuv darajasi

5. Natija komponenti

Lingvodidaktik kompetensiyalarning shakllanishi va pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasining oshishi.

Model sxemasi (diagramma)

MAQSAD
↓
TA’LIM MAZMUNI
↓
KREATIV METODLAR (muammoli ta’lim, loyiha, aqliy hujum, rol o‘ynash)
↓
PEDAGOGIK JARAYON (interfaol mashg‘ulotlar)
↓
BAHOLASH

↓

NATIJA (lingvodidaktik tafakkur rivoji)

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kreativ metodlar orqali o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalarning lingvodidaktik tafakkurini rivojlantirishda samarali. Kreativ metodlar talabalarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashga yordam beradi va metodik muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, pedagogik modellashtirish ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Lingvodidaktik tafakkur bo‘lajak pedagog mutaxassislari tayyorgarligidagi muhim qism hisoblanadi.

2. Kreativ metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Pedagogik modellashtirish ta’lim jarayonini samarali tashkil etadi va uning samaradorligini oshiradi.

4. Ishlab chiqilgan model lingvodidaktik kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Kelgusida bu model asosida ko‘p tajriba-sinov ishlari olib borish va uning samaradorligini statistik tahlil qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar.
3. Safarova R. Lingvodidaktika asoslari.
4. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya.
5. Bespalko V.P. Pedagogicheskie texnologii.
6. Leontyev A.A. Psixologiya rechevoy deyatelnosti.
7. Passov E.I. Kommunikativnaya metodika obucheniya inostrannym yazykam.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA AQLIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.049

Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi PhD, dotsent
Radjabova Nargis Tajimuradovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirishda STEAM ta’lim texnologiyasining nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida STEAM yondashuvining fanlararo integratsiya, loyihaviy faoliyat hamda muammoli ta’lim metodlari orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur va muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, STEAM ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligi va intellektual salohiyatini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar:STEAM ta’lim, aqliy tafakkur, innovatsion pedagogika, fanlararo integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, ijodiy fikrlash.

Аннотация.В данной статье анализируются теоретические и методические основы образовательной технологии STEAM в развитии умственного мышления учащихся начальных классов. В процессе исследования освещены педагогические возможности подхода STEAM в формировании у учащихся компетенций логического мышления, творческого мышления и решения проблем посредством междисциплинарной интеграции, проектной деятельности и методов проблемного обучения. По результатам исследования обосновано, что образовательная технология STEAM является эффективным средством развития познавательной активности и интеллектуального потенциала учащихся в процессе начального образования.

Ключевые слова:STEAM образование, интеллектуальное мышление, инновационная педагогика, междисциплинарная интеграция, начальное образование, творческое мышление.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of STEAM educational technology in the development of mental thinking of primary school students. In the research process, the pedagogical possibilities of the STEAM approach in the

formation of students' competencies in logical thinking, creative thinking, and problem-solving through interdisciplinary integration, project activities, and problem-based learning methods are highlighted. According to the research results, it is substantiated that STEAM educational technology is an effective means of developing students' cognitive activity and intellectual potential in the process of primary education.

Keywords:STEAM education, intellectual thinking, innovative pedagogy, interdisciplinary integration, primary education, creative thinking.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda[1, 2]. XXI asr ta’limi shaxsning nafaqat nazariy bilimlarini, balki uning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi[3, 4]. Shu sababli zamonaviy pedagogik konsepsiyalar ta’lim jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etishni talab etadi[5].

Hozirgi davr ta’lim siyosatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi muhim o‘rin egallaydi[6]. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan[7]. Shu jihatdan qaraganda, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda[3, 8].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning bilish jarayonlari shakllanadigan muhim davr hisoblanadi[9]. Aynan shu bosqichda bolalarda tafakkur operatsiyalari – tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi[9, 10]. Shu bois boshlang‘ich ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi[7].

Pedagogika va psixologiya fanlarida boshlang‘ich maktab yoshi bolalarning tafakkur rivojlanishida alohida ahamiyatga ega davr sifatida baholanadi[6, 11]. Chunki ushbu davrda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash jarayonlari shakllanadi, ular o‘zlashtirayotgan bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash hamda umumlashtirish ko‘nikmalarini egallay boshlaydi[12]. Shu sababli ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishi, ularni mustaqil fikrlashga undashi hamda muammoli vaziyatlarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur[3, 5].

Bugungi kunda ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlardan biri STEAM ta’lim texnologiyasi hisoblanadi[7, 13]. Ushbu yondashuv fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) hamda matematika (Mathematics) fanlarining integratsiyasiga asoslanadi[13].

STEAM ta’lim modeli o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash orqali ularning mantiqiy fikrlashi, muammolarni hal etish qobiliyati hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi[7, 13]. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta’minlash orqali o‘quvchilarning bilimlarini tizimli ravishda shakllantirishga imkon beradi[3, 5]. Shu bilan birga, STEAM ta’lim texnologiyasi

o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, ularning innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi[8, 13].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda STEAM ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda[5, 13]. Shu bois ushbu texnologiyani boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llash o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlashda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi[3, 7].

Sharq mutafakkirlari ham tafakkur rivojlanishiga alohida e’tibor qaratgan. Abu Nasr Farobiy ilm va tafakkur uyg‘unligini inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin etadi[14]. Ibn Sino esa ta’lim jarayonida kuzatish, tajriba va tahlil metodlarining muhimligini ta’kidlaydi[15].

Ularning ilmiy qarashlarida bilim olish jarayoni inson tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi alohida qayd etilgan[14, 15]. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham zamonaviy ta’lim tizimida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning aqliy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi[3, 7, 13].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirishda STEAM ta’lim texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini belgilashda bir nechta yondashuv va ilmiy metodlardan foydalanildi[1, 2].

1. Tizimli yondashuv

Tizimli yondashuv ta’lim jarayonini o‘zaro bog‘liq pedagogik komponentlar majmui sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi[3]. Bu yondashuvga ko‘ra, tarbiya, o‘qitish va rivojlantirish jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini mustahkamlaydi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi[4, 5]. Shu sababli STEAM ta’lim texnologiyasining har bir elementi — fanlararo integratsiya, muammoli ta’lim, loyiha asosidagi faoliyat — o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilindi[6].

2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini va rivojlanish sur’atini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi[7, 8]. Bu yondashuv STEAM texnologiyasining samaradorligini oshirishda muhimdir, chunki o‘quvchilarning mantiqiy, ijodiy va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish individual e’tiborni talab qiladi[7].

3. Integrativ yondashuv

Integrativ yondashuv turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va integratsiyani ta’minlash orqali o‘quvchilarning bilimlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi[9]. Tadqiqotda STEAM elementlarini o‘zaro bog‘lash, fanlararo loyihaviy faoliyat va interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkuri tahlil qilindi[6, 10].

4. Ilmiy metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil va sintez metodi – pedagogik, psixologik va STEAM ta’limi bo‘yicha mavzuga oid ilmiy manbalar o‘rganilib, ularning nazariy asoslari tizimlashtirildi[3, 11].

Qiyosiy tahlil metodi – sharq va g‘arb mutafakkirlari qarashlari, shuningdek, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar o‘zaro solishtirildi. Xususan, Abu Nasr Farobiy va Ibn Sino ta’lim va tafakkur rivojlanishi haqidagi g‘oyalari STEAM metodologiyasi bilan qiyoslandi[12, 13].

Pedagogik kuzatish metodi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ta’lim jarayonida STEAM yondashuvi qo‘llanilganda, ularning bilish faolligi, muammolarni hal etish va ijodiy tafakkurini rivojlanishi amaliy jihatdan kuzatildi[5, 9].

Eksperimental metod – o‘quvchilarning STEAM loyihalari va interfaol mashg‘ulotlarda erishgan natijalari baholandi, shu orqali pedagogik vositalarning samaradorligi aniqlangani kuzatildi[6, 10].

Umumlashtirish va ilmiy xulosalash metodi – olingan nazariy va amaliy natijalar tizimlashtirilib, umumiy xulosalar shakllantirildi[2, 4].

5. Tadqiqotning huquqiy va gumanistik asoslari

Metodologik jihatdan tadqiqot gumanistik pedagogika tamoyillariga asoslandi[14]. Mazkur tamoyilga ko‘ra, ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy va intellektual kamoloti ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, STEAM ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning individual tafakkurini, ijodiy va tahliliy qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko‘rib chiqildi[7, 13].

Shuningdek, tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq olib borildi[15]. Mazkur huquqiy asos STEAM va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvni boshlang‘ich ta’lim jarayonida joriy etishning zarurligini belgilaydi.

Natijada tanlangan metodlar majmui tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, mantiqiy izchilligi va xulosalarning ishonchliligini ta’minladi. Shu bilan birga, tadqiqot STEAM ta’limining pedagogik samaradorligi, o‘quvchilarning aqliy tafakkurini rivojlantirish va bilish faolligini oshirish imkoniyatlarini tizimli yoritishga xizmat qildi[3, 5, 6].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

STEAM ta’lim texnologiyasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirishdagi muhim innovatsion yondashuv sifatida e’tirof etiladi[1, 2]. Ushbu yondashuv fanlararo integratsiya, loyiha asosidagi ta’lim va muammoli metodlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi[3, 113].

Tolipov va Usmonboyeva (2017) o‘z tadqiqotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilish faoliyati va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi[3, 112]. Ularning fikricha, fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilimlarini tizimli ravishda o‘zlashtirish va ularni amaliy faoliyat bilan bog‘lashni ta’minlaydi. Shu bilan birga, STEAM metodologiyasi nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Qosimov (2019) pedagogik mahoratning asosiy jihatlari sifatida o‘qituvchining nazariy bilim va amaliy salohiyatini integratsiyalashgan holda qo‘llashini ko‘rsatadi[2]. Bu esa STEAM yondashuvining muvaffaqiyatli tatbiqida o‘qituvchi kompetensiyasining muhimligini ilmiy asoslaydi.

Azizxo‘jayeva (2016) innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni tavsiya qiladi[4, 113]. Shu bilan birga, Yo‘ldoshev (2021) ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi samaradorligini qayd etadi[5, 81].

STEAM ta’lim metodologiyasi asoslari (2020) ta’kidlaganidek, fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilimlarini kompleks rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda muhim vosita hisoblanadi[6, 64]. Shu bilan birga, Ziyomuhamedov (2017) pedagogik yondashuvlarning tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarning aqliy salohiyatini barqaror rivojlantirishni ta’minlashini ko‘rsatadi[7].

Sharq olimlari, xususan Abu Nasr Farobiy (2004) va Abu Ali Ibn Sino (2010), ta’lim jarayonida tafakkur va ilm uyg‘unligini inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin qiladilar[11, 12, 27, 91]. Farobiy tafakkur va aqliy rivojlanishning pedagogik ahamiyatini belgilab, Ibn Sino esa ta’lim jarayonida kuzatish, tajriba va tahlil metodlarini o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi uchun muhim deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020) ta’kidlaganidek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning bilish salohiyatini rivojlantirish davlat tomonidan nazorat qilinadigan muhim yo‘nalish hisoblanadi[14].

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, STEAM ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Fanlararo integratsiya, loyihaviy faoliyat va interfaol metodlar STEAM yondashuvining pedagogik samaradorligini oshiradi[1–14]. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari merosi va zamonaviy pedagogik tadqiqotlar aqliy tafakkur, kreativ fikrlash va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishni uzviy bog‘laydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, STEAM ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Birinchidan, STEAM yondashuvi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarga bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi [3, 118].

Ikkinchidan, muammoli ta’lim metodlari o‘quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantiradi. O‘quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydi [5, 84].

Uchinchidan, loyiha asosidagi ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bu jarayonda o‘quvchilar tajriba o‘tkazish, modellar yaratish hamda ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi [7, 69].

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

-STEAM ta’lim o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi;

-muammolarni hal etish kompetensiyasini shakllantiradi;

-ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

-ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida STEAM ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning aqliy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, ularning ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

-boshlang‘ich ta’lim jarayonida STEAM texnologiyalarini keng joriy etish;

-o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish;

-fanlararo integratsiya asosida yangi o‘quv metodikalarini ishlab chiqish;

-o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Natijada STEAM ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2018, 52-bet.
2. Qosimov O. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent, 2019.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017, 112-bet.
4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya. Toshkent, 2016, 113-bet.
5. Yo‘ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2021, 81-bet.
6. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2018, 52-bet.
7. STEAM ta’lim metodologiyasi asoslari. Toshkent, 2020, 64-bet.
8. Ziyomuhamedov B. Pedagogika. Toshkent, 2017.
9. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017, 112-bet.
10. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2018, 52-bet.
11. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 2004, 27-bet.
12. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2018, 52-bet.
13. Bybee R. The Case for STEM Education. USA, 2013, 54-bet.
14. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 2004, 27-bet.
15. Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. Toshkent, 2010, 91-bet.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TARBIYA VA MAHORAT UYG‘UNLIGI — TA’LIM JARAYONIDA KOMPETENSIYA USTUVORLIGI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.050

Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi PhD dotsent
Raximova Zaxro Abdulatipjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) magistranti
Andayev Mashrabjon Xayrullayevich
Iqtisoslashtirilgan talim muassasalari agentligi Olmazor tuman iqtisoslashtirilgan maktab aniq fanlar metodbirlashma rahbari

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiya jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Unda pedagogik mahorat, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida kompetensiyaviy yondashuvning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, tarbiya, pedagogik mahorat, innovatsion ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ma’naviy qadriyatlar, ta’lim samaradorligi.

Аннотация.В данной статье анализируются теоретические и практические основы компетентностного подхода в образовательном процессе. В ней научно обосновывается педагогическое мастерство, личностно-ориентированное образование и гармония национальных и общечеловеческих ценностей. В результате исследования раскрыта роль компетентностного подхода в повышении эффективности образования.

Ключевые слова:Компетенция, воспитание, педагогическое мастерство, инновационное образование, личностно-ориентированный подход, духовные ценности, эффективность образования.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of the competency-based approach in the educational process. It scientifically substantiates pedagogical skills, personality-oriented education, and the harmony of national and universal values. As a result of the research, the role of the competency-based approach in increasing the effectiveness of education was revealed.

Keywords: Competence, upbringing, pedagogical skills, innovative education, personality-oriented approach, spiritual values, educational effectiveness.

Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi ta’lim oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Endilikda ta’lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan barkamol rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tizimli jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv ana shu jarayonning metodologik asosi hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati bilan uyg‘un holda shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bois tarbiya va pedagogik mahorat integratsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Abu Nasr Farobiy tarbiyani inson fazilatlarini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida talqin etadi [6, 15]. Abu Ali Ibn Sino ta’limni shaxsning ruhiy va axloqiy rivojlanishi bilan bog‘laydi [6, 78]. Alisher Navoiy komil inson g‘oyasini ilgari surib, axloq va ma’naviyatni ustuvor deb biladi [7, 34]. Abu Rayhon Beruniy ilm va tarbiya uyg‘unligini jamiyat taraqqiyotining omili sifatida asoslaydi [5, 23].

Ushbu qarashlar bugungi kompetensiyaviy ta’lim modelining tarixiy-falsafiy ildizlarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy yondashuvni tarbiya va pedagogik mahorat uyg‘unligi asosida ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan hamda qiyosiy yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlandi. Tizimli yondashuv ta’lim jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, tarbiya, o‘qitish va rivojlantirish jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq komponentlar hisoblanadi [10, 28].

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv kompetensiyaviy ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, o‘quvchining mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi [3, 112].

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil va sintez metodi. Mavzuga oid pedagogik va falsafiy manbalar o‘rganilib, umumlashtirildi. Xususan, pedagogik mahoratning nazariy asoslari Qosimov tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar asosida tahlil qilindi [1, 45].

Qiyosiy tahlil metodi. Sharq allomalari qarashlari hamda zamonaviy pedagogik konsepsiyalar o‘zaro solishtirildi. Ibn Sinoning ta’lim va tarbiya haqidagi fikrlari kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari bilan qiyoslandi [6, 78].

Pedagogik kuzatish metodi. Ta’lim jarayonida pedagogik mahoratning namoyon bo‘lishi va uning kompetensiyalarni shakllantirishga ta’siri kuzatildi. Innovatsion metodlarning samaradorligi amaliy jihatdan tahlil qilindi [4, 56].

Umumlashtirish va ilmiy xulosalash metodi. Olingan nazariy va amaliy natijalar tizimlashtirilib, umumiy xulosalar shakllantirildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot gumanistik pedagogika tamoyillariga asoslandi. Mazkur tamoyilga ko‘ra, ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu borada Navoiy va Beruniy qarashlari metodologik tayanch sifatida xizmat qildi [7, 34; 5, 23].

Shuningdek, tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq olib borildi [9, 4]. Mazkur huquqiy asos ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zarurligini belgilaydi.

Natijada tanlangan metodlar majmui tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, mantiqiy izchilligi va xulosalarning ishonchliligini ta’minladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik mahorat o‘qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalovchi integrativ sifat sifatida tavsiflanadi. U faqatgina metodik bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki shaxsiy fazilatlar, kommunikativ qobiliyat, axloqiy barqarorlik hamda didaktik salohiyatning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi sifatida talqin etiladi. Ilmiy manbalarda pedagogik mahorat o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim jarayonini boshqarish va tarbiyaviy ta’sirni maqsadli amalga oshirish qobiliyati bilan izohlanadi. Qosimov pedagogik mahoratni ta’lim samaradorligining asosiy omili sifatida baholaydi [1, 45]. Uning ta’kidlashicha, pedagogik mahorat o‘qituvchining nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy tajribasi va ijodkorlik salohiyati orqali namoyon bo‘ladi.

Tolipov va Usmonboyeva innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [3, 112]. Ularning fikricha, zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va loyihaviy yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, nazariy bilimlarning amaliyot bilan integratsiyasini ta’minlaydi.

Sharq mutafakkirlari merosida ham tarbiya va komillik masalalari alohida o‘rin egallaydi. Ibn Sino tarbiyani inson ruhiy kamolotining asosi sifatida izohlaydi [6, 78]. Uning qarashlarida ilm va axloq uyg‘unligi shaxs barkamolligining negizi sifatida ko‘riladi. Navoiy axloqiy yetuklikni komillik mezoni sifatida belgilaydi [7, 34] va insonning ma’naviy-ruhiy kamoloti jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligini asoslaydi. Beruniy esa ilmiy tafakkur va axloqiy tarbiya uyg‘unligini jamiyat taraqqiyotining omili sifatida ko‘rsatadi [5, 23]. U ilmiy izlanish va ma’naviy yetuklikni bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida talqin qiladi.

Ushbu nazariy qarashlar kompetensiyaviy yondashuv bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Chunki kompetensiyaviy ta’lim modeli nafaqat bilim berishni, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlanishini ham ko‘zda tutadi. Demak, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan allomalar merosi o‘rtasida uzviy metodologik bog‘liqlik mavjud.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarbiya va pedagogik mahorat uyg‘unligi kompetensiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Pedagogning yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligi ta’lim jarayonining samaradorligini bevosita belgilaydi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiya o‘quv jarayonida samarali muloqot muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy pedagogik munosabatlar bilimni o‘zlashtirish jarayonini jadallashtiradi va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Pedagogik takt esa axloqiy barqarorlikni mustahkamlaydi. U o‘qituvchining kasbiy etikasini, vaziyatga mos ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini hamda tarbiyaviy ta’sirni me’yorida amalga oshirish mahoratini ifodalaydi. Pedagogik taktning mavjudligi ta’lim jarayonida sog‘lom psixologik muhitni shakllantiradi.

Innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi [4, 56]. Interfaol metodlar, munozara, keys-stadi va loyihaviy ta’lim shakllari o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularda amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv bilimni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkonini beradi va nazariy bilimlarning real hayot bilan integratsiyasini ta’minlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

Tarbiya va mahorat integratsiyasi barqaror ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning jamoada ishlash, muloqot qilish va mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Axloqiy tarbiya bilan boyitilgan ta’lim modeli shaxsning ma’naviy yetukligini ta’minlaydi. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosiy tarbiyaviy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion metodlar kompetensiyaviy natijadorlikni oshiradi. Ular o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llash imkonini kengaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Tarbiya va pedagogik mahorat uyg‘unligi zamonaviy ta’limning metodologik negizi hisoblanadi. Mazkur uyg‘unlik ta’lim jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi hamda kompetensiyaviy natijadorlikni oshiradi. Kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi va o‘quvchilarning ijtimoiy hamda kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

-pedagoglarning kasbiy malakasini muntazam oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish;

-innovatsion metodlarni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish va ularning samaradorligini monitoring qilish;

-milliy qadriyatlar va allomalar merosiga tayangan tarbiya modelini rivojlantirish hamda uni amaliyotga izchil joriy etish;

-shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Allomalar merosidan samarali foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ularning ilmiy va axloqiy qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashgan holda ta’lim jarayonining metodologik asosini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Qosimov O. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent, 2019.
2. Tarbiya fani konsepsiyasi. Toshkent, 2020.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017.
4. Yo‘ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2021.
5. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Samarqand, 2015.
6. Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. Toshkent, 2010.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent, 2009.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, 2017.
10. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGIDA KOLLABORATIV O‘QITISH USULINING MAZMUNI VA MOHIYATI.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.051

Jabborova Marifat Qodiraliyevna
Farg’ona davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
marifatxonjabborova137@gmail.com +998905364365
ORCID ID 0009-0000-5114-8046
Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Fayozova Sarvinoz Tursunali qizi

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta’lim sohasida bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik tayyorgarligida kollaborativ o‘qitish metodlarining turlari va afzalliklarini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada pedagogik fanlarni o‘qitishda hamkorlikka asoslangan o‘quv muhitini tashkil etishning ta’lim sifati, yutuqlarni baholash va vaqtni tejamkorlik bilan boshqarishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so’zlar: kollaborativ, loyiha, tamoyil, refleksiya, kommunikativ, kompetensiya, kollaboratsiya, konsepsiyasi, integratsiya, kompleks, interaktiv, strategiya, kreativlik, raqamli savodxonlik.

Аннотация.В данной статье анализируются виды и преимущества методов коллаборативного обучения в педагогической подготовке будущих воспитателей в сфере дошкольного образования. Также в статье раскрывается значение организации учебной среды, основанной на сотрудничестве, при преподавании педагогических дисциплин, её влияние на качество образования, оценивание достижений и рациональное управление временем.

Ключевые слова: коллаборативный, проект, принцип, рефлексия, коммуникативный, компетенция, коллаборация, концепция, интеграция, комплексный, интерактивный, стратегия, креативность, цифровая грамотность.

Annotation. This article analyzes the types and advantages of collaborative learning methods in the pedagogical preparation of future preschool educators. It also highlights the significance of organizing a cooperation-based learning environment in teaching pedagogical disciplines, its impact on the quality of education, the assessment of achievements, and the efficient management of time.

Keywords: collaborative, project, principle, reflection, communicative, competence, collaboration, concept, integration, comprehensive, interactive, strategy, creativity, digital literacy.

KIRISH. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. An’anaviy ma’ruza va reproduktiv metodlar asosan nazariy bilimlarni shakllantiradi, biroq ular hamkorlik, muloqot, muammolarni yechish hamda refleksiya kabi XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishda yetarli samaradorlikka ega emas. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida kollaborativ o‘qitish metodlarini tizimli ravishda tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Hamkorlikka asoslangan kollaborativ o‘qitish bo‘lajak tarbiyachilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki kasbiy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham kengaytiradi. Turli konsepsiyalar va yondashuvlarga qaramay, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida XXI asr ko‘nikmalari sifatida tan olingan muhim kompetensiyalar: tanqidiy tafakkur, muammolarni hal etish qobiliyati, ijodkorlik, samarali muloqot va kollaboratsiya Ushbu ko‘nikmalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va ta’lim jarayonida kompleks rivojlanishni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kollaborativ ta’lim konsepsiyasi Johnson va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyillari ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, shaxsiy javobgarlik, bevosita muloqot, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish va guruh faoliyatini tahlil qilishdan iborat. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik guruhlarda ishlash, loyiha va seminar asosidagi hamkorlik, jamoaviy o‘qitish modeli hamda “flipped classroom” integratsiyasi bo‘lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlari, motivatsiyasi va ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. “Think–Pair–Share” va boshqa interaktiv strategiyalar esa tanqidiy fikrlash, jamoaviy hamkorlik va metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamkorlik va kollaboratsiyaning bo‘lajak pedagoglarda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish hamda faoliyatga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirishdagi ahamiyati MDH olimlari Dyachenko, Ivanova, Khan, Khmel, Leontyev, hamda xorijiy tadqiqotchilar Griffin, tomonidan keng o‘rganilgan. Bunda asosiy e’tibor kollaborativ o‘quv muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning aktual kasbiy rivojlanish zonasi masalasiga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv Vigotskiy va Talizina (1998; 1999) tomonidan ilgari surilgan yaqin rivojlanish zonasi g‘oyalariga tayangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kollaborativ muhitga jalb etish nafaqat kasbiy sifatlarni shakllantirish, balki refleksiv tahlil asosida pedagoglarning refleksiv faolligini rivojlantirish orqali qimmatli tajriba va kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiladi.

Yaqin rivojlanish zonasi nazariyasini oliy ta’lim tizimiga moslashtirish, xususan birinchi kurs talabalari uchun aktual kasbiy rivojlanish zonasi sifatida qo‘llash, kollaborativ muhitning tarbiyaviy salohiyatini oshirishga, hamkorlik, hamijodkorlik va integratsiya orqali o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kollaborativ ta’lim konsepsiyasi Johnson va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyillari ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, shaxsiy javobgarlik, bevosita muloqot, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish va guruh faoliyatini tahlil qilishdan iborat. Kichik guruhlarda ishlash, loyiha va seminar asosidagi hamkorlik, jamoaviy o‘qitish modeli hamda “flipped classroom” integratsiyasi bo‘lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlari, motivatsiyasi va ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. “Think–Pair–Share” va boshqa interaktiv strategiyalar esa tanqidiy fikrlash, jamoaviy hamkorlik va metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamkorlik va kollaboratsiya bo‘lajak pedagoglarda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish hamda faoliyatga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirishdagi ahamiyati kattadir. Bo‘lajak pedagoglarni kollaborativ muhitga jalb etish nafaqat kasbiy sifatlarni shakllantirish, balki refleksiv tahlil asosida pedagoglarning faolligini rivojlantirish orqali qimmatli tajriba va kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiladi.

Kollaborativ o‘quv muhitini shakllantirishning metodologik asoslari shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, tizimli, muhitga oid, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlarning fundamental tamoyillariga tayanadi. Talabalarni bunday muhitga jalb etish ularda kasbiy ko‘nikmalarni shakllanish darajasi, o‘quv maqsadlariga erishish samaradorligi, o‘zini namoyon qilish, rivojlantirish va ro‘yobga chiqarish jarayonlari ustida doimiy refleksiya yuritish imkonini beradi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda jamoaviy faoliyat, hamkorlik va kollaboratsiya ko‘nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Kollaboratsiyaning asosiy talabi – birgalikda umumiy natijaga erishishdir.

Ta’lim jarayonida “kollaboratsiya” ko‘pincha “hamkorlik” tushunchasiga sinonim sifatida qo‘llaniladi. Biroq ular semantik jihatdan farqlanadi: hamkorlik – bu o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan o‘zaro ta’sir falsafasi bo‘lib, talabalar birgalikda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yo‘naltiriladi. Kollaborativ o‘qitishda esa har bir ishtirokchining qobiliyati va hissasi, shuningdek guruh natijasi uchun javobgarligi muhim o‘rin tutadi. Kollaborativ yondashuvning markaziy g‘oyasi ta’limning ijtimoiy xarakteri bo‘lib, konstruktiv muloqot jarayoni asosiy omil hisoblanadi.

Kollaborativ ta’lim mazmuni uch komponentni qamrab oladi:

1. Ijtimoiy,
2. kognitiv,
3. Emotsional jihatlar.

Bu uch komponentni integratsiyasi natijasida to‘laqonli kollaborativ muhit shakllanadi. Kollaborativ o‘qitish usullarini pedagogik fanlarga joriy etish bo‘lajak tarbiyachilarning tayyorgarlik sifatini oshirishga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi.

1. Talabalarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini tahlil qilish, an’anaviy metodlarning samaradorligini baholash.

2. Kollaborativ strategiyalarni tanlash, dars ishlanmalarini qayta loyihalash va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

3. Hamkorlikni amalga oshirish bosqichida guruh ishlari, muammoli vaziyatlar, treninglar tashkil etish, formativ va o‘zaro baholashni joriy etish.

4. Kuzatish va ma’lumot yig‘ish, so‘rovnoma, intervyu, refleksiv kundaliklar va diagnostik testlardan foydalanish.

5. Tahlil va baholash bosqichida natijalarni solishtirish, kasbiy kompetensiyalardagi o‘zgarishlarni aniqlash, faollik va kommunikativ ko‘nikmalarni baholash.

6. Qayta refleksiya bosqichida olingan natijalar asosida metodikani takomillashtirish va keyingi sikl uchun yangi reja ishlab chiqish.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik tayyorgarligida kollaborativ o‘qitish usulining samaradorligi sezilarli darajada oshganligi kuzatiladi. Talabalarni guruhdagi hamkorlik ishlari orqali bir-biri bilan fikr almashish, muammoni birgalikda hal qilish va pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlanadi. Kollaborativ o‘quv muhitining o‘ziga xos jihati uning rivojlantiruvchi va bunyodkorlik xarakteriga ega ekanligidadir. Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarning yashirin va potensial imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Talabalar o‘zaro baholash jarayonida nafaqat bir-birining faoliyatini baholash, balki o‘zini tahlil qilish va pedagogik qarorlarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, kollaborativ metodlarni qo‘llash natijasida mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari ham sezilarli darajada rivojlanadi.

Shuningdek, talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalari muloqot, tinglash, hamkorlik va rahbarlik qobiliyatlari ham yaxshilanadi. Bu ularning kelajakda tarbiyachi sifatida bolalar bilan ishlashga tayyorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Formativ baholash va o‘zaro baholash talabalarning o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlariga yordam berdi va pedagogik qaror qabul qilish jarayonida aniqlik kiritadi. Natijada, kollaborativ o‘qitish usuli bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bu metod talabalarda pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish hamda pedagogik vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga tayyorlashga yordam beradi. Shu bilan birga, Action Research jarayoni o‘qituvchilarga o‘z amaliyotini doimiy ravishda takomillashtirish va pedagogik faoliyat sifatini oshirish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) o‘quv muhitini yaratish bo‘lajak tarbiyachilarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda akademik bilimlarni egallash jarayoni professional kompetensiyalarni shakllantirish, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, kommunikativ vositalar tizimini o‘zlashtirish hamda talabalarning qadriyatli yo‘nalishlarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshadi.

Kollaborativ o‘quv muhitining rivojlantirish talabalar-bo‘lajak pedagoglarning yaqin professional rivojlanish zonasi g‘oyasini amalga oshirish asosi hisoblanadi.

Talabalarda shaxsiy va kasbiy jihatdan muhim sifatlarning shakllanishida ijtimoiy, kognitiv va emotsional jihatlar bo‘yicha yetarlicha yaxshi ko‘rsatkichlar hamda ijobiy o‘sish dinamikasining kuzatilishi oliy ta’lim muassasasida kollaborativ o‘quv muhitini yaratish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Kollaborativ o‘qitish bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda ilmiy asoslangan va kompleks yondashuvdir. Kichik guruh ishlari, loyiha asosidagi hamkorlik, team-teaching, flipped classroom integratsiyasi va Think–Pair–Share strategiyalari akademik bilimlarni oshiradi, pedagogik malakani mustahkamlaydi, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi, motivatsiya va darsga jalb etilganlikni kuchaytiradi, ko‘nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abramczyk, A., & Jurkowski, T. (2020). Cooperative learning in teacher education. European Journal of Education.

2. Chan, K. et al. (2022). Motivation in collaborative learning. Journal of Teacher Education.

3. Gangmei, D. (2024). Collaborative learning in teacher training. Education Sciences. Mamatalieva, Kh. M. Collaborative learning as a pedagogical model for advancing communicative competence in tertiary-level EFL instruction (2025)..

4. Kurbonova, G. U. Kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash pedagogik jarayon sifatida. Maqola kollaborativ muhitni shakllantirish va pedagogik hamkorlikni tahlil qiladi.

5. Khasanova, G. K. Theory of collaborative learning in the history of pedagogical teachings (2024). O‘zbekiston pedagogika tizimida kollaborativ o‘qitish nazariyasini tahlil qiladi.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

YUQORI SINF O‘QUVCHILARI LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MODELI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.052

Xudaykulov Sherzodjon Uktamovich
Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori.
https://orcid.org/0009-0000-8046-7556
Elektron pochta: sherka.6500@gmail.com
Telefon raqami: +998 90 252-65-00

Annotatsiya.Ushbu maqola chet tilini o‘rganuvchilar uchun lug‘at boyligini kengaytirish va leksik kompetensiyani rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi o‘rnini yoritishga qaratilgan. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarga yangi so‘z va iboralarni o‘rganish, ularni mustahkamlash va amaliyotda qo‘llashda yordam beruvchi samarali vositadir. Maqolada AI texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, jumladan: vizual yondashuv orqali tushunishni osonlashtirish, o‘quv jarayonini interaktiv qilish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatlari batafsil ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan mashqlar o‘quvchilarning faolligini oshirishi, ularni mustaqil ishlashga undashi va bilimlarini tizimlashtirishga yordam berishi ta’kidlangan. Sun’iy intellekt bilan ishlashning asosiy afzalliklari so‘zlarni takrorlash va vizual ko‘rgazmalilik yordamida uzoq muddatli xotirada saqlash hamda interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar:sun’iy intellekt, leksik kompetensiya, til o‘rganish, yuqori sinf o‘quvchilari, AI texnologiyalari, ta’limda innovatsiyalar.

Аннотация.Эта статья посвящена освещению роли технологий искусственного интеллекта в процессе обучения для расширения словарного запаса и развития лексической компетенции учащихся. Технологии искусственного интеллекта являются эффективными средствами, помогающими учащимся осваивать новые слова и выражения, укреплять их память и применять их на практике. В статье подробно рассматриваются дидактические возможности технологий ИИ, такие как: упрощение понимания через визуальный подход, создание интерактивного учебного процесса и укрепление знаний. Также в статье подчеркивается, что упражнения на базе искусственного интеллекта могут повышать активность учащихся, побуждать их к самостоятельной работе и помогать в систематизации знаний. Основные преимущества работы с искусственным интеллектом включают повторение слов и сохранение их в

долговременной памяти с помощью визуализации, а также повышение интереса учащихся через интерактивные игры.

Ключевые слова:искусственный интеллект, лексическая компетенция, обучение языкам, старшеклассники, технологии ИИ, инновации в образовании.

Abstract.This article focuses on highlighting the role of artificial intelligence technologies in the learning process for expanding vocabulary and developing lexical competence among learners. AI technologies serve as an effective tool to help students acquire new words and phrases, reinforce their memory, and apply them in practice. The article elaborates on the didactic possibilities of AI technologies, including: simplifying understanding through a visual approach, making the learning process interactive, and reinforcing knowledge. Furthermore, the article emphasizes that exercises based on artificial intelligence can increase student engagement, encourage independent work, and help in organizing knowledge. The key advantages of working with AI include the repetition of words and retention in long-term memory through visual aids, as well as boosting student interest through interactive games.

Keywords:
artificial intelligence, lexical competence, language learning, senior school students, AI technologies, educational innovations.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyotda ta’limning o‘rni katta. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta’lim sohasida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda smart doskalar, planshetlar, dinamik vizual vositalar va virtual laboratoriyalar kabi zamonaviy texnologiyalar o‘quv jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy jihatdan faol yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oldingi davrlarda ta’lim an’anaviy metodlar asosida, ya’ni yirik hajmdagi darsliklar va qo‘llanmalar yordamida o‘tkazilgan.[1]. Biroq, hozirgi kunda ta’lim jarayonida sun’iy intellektning roli katta bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari ma’lumotlarni o‘rganish, tahlil qilish va o‘zgartirish kabi jarayonlarni amalga oshirishda yordam beradi. Ta’limda sun’iy intellektning qo‘llanishi, o‘quvchilarning ma’lumotlarni samarali ravishda tanib olishlariga, tahlil qilishlariga va kerakli natijalarni olishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt o‘quvchilarning vaqtini tejashga, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, va ularning individual xususiyatlari va o‘rganish uslublariga moslashtirilgan ta’limni ta’minlashga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qarori va "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va jadal joriy etish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu strategiyalar raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilishni va ta’lim sohasida sun’iy intellektni qo‘llash imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi.

Shu maqsadlarda, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ta’lim tizimiga keng joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ilg‘or ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish, va xorijiy ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish ko‘zda tutilgan.

Metodologiya va adabiyotlar sharhi.Ushbu tadqiqot yuqori sinf o‘quvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining rolini o‘rganish uchun aralash metodlar yondashuvidan foydalanadi. AI vositalari, masalan, chatbotlar (masalan, ChatGPT), adaptiv o‘rganish tizimlari va so‘z boyligini oshirish dasturlari ta’lim jarayoniga integratsiya qilinadi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy ma’lumotlarni yig‘ishning bir necha usullari qo‘llaniladi, shu jumladan o‘quvchilarning leksik boylik, ravonlik va pragmatik ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlarni o‘lchash uchun oldingi va keyingi testlar. Bu usullar orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi o‘lchanadi. AI asosida yaratilgan so‘z boyligini o‘rganish vazifalari va interaktiv til mashqlari amalga oshiriladi. Tadqiqotda shuningdek, o‘quvchilarning faoli yatga jalb qilinishi va motivatsiyasini, ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Sun’iy intellektning yordamida leksik boylikni rivojlantirishda o‘quvchilarning qiziqishini va faol ishtirokini oshirish mumkin. Asrorov va Ulmasbayeva (2024) ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, AI vositalari, masalan, Quizlet va Write & Improve, o‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarish va leksik kompetensiyani yaxshilashda yordam beradi (Asrorov & Ulmasbayeva, 2024). Rustamova (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa AI tizimlarining RNN asosidagi vositalari yordamida so‘z boyligini rivojlantirish jarayonida o‘quvchilar uchun individual yondashuvlar taqdim etilgan (Rustamova, 2024).

Tadqiqot shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, AI texnologiyalarining shaxsiylashtirilgan ta’lim uslublari orqali o‘qish jarayonini yaxshilashda qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Shadiev (2024) o‘z tadqiqotida sun’iy intellekt va serious games yordamida o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini qanday yaxshilash mumkinligini ko‘rsatadi, bu metodlar o‘quvchilarning ilg‘or til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi (Shadiev, 2024). Madmusayev (2024) raqamli ta’lim modellarida AI elementlarining o‘rni va ularning leksik kompetensiyani shakllantirishdagi muhim ahamiyatini ta’kidlaydi (Madmusayev, 2024). Shuningdek, Salixova va Usmanaliyeva (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi, ularning ahamiyati va qiymati tahlil qilingan, bu texnologiyalar o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi (Salixova & Usmanaliyeva, 2025).

Natija va muhokamalar

Sun’iy intellekt (AI) o‘rganish platformalari, aqlli o‘qituvchilik tizimlari va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) dasturlari o‘quvchilarga so‘z boyligini faol va kontekstual tarzda o‘rganish imkonini beradigan ta’lim muhitini yaratdi. Tadqiqot natijalari, avvalgi tadqiqotlar (Chen va boshqalar, 2020; Reinders & Wattana, 2014) bilan mos kelgan holda, AI yordamida o‘rganish ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishni qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatdi. Bu metodologiya o‘quvchilarga o‘z sur’atida rivojlanish imkoniyatini taqdim etib, ularga o‘zlarida qiyinchiliklar sezilgan sohalarga e’tibor qaratish imkonini berdi. Xususan, no-filologiya talabalariga, o‘rganilayotgan so‘z boyligi maxsus fanlarga xos atamalarni o‘z ichiga olgan holda, umumiy til kurslarida tanish bo‘lmagan materiallar bilan ishlashda yordam

beradi. Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri bu kontekstual mashqlar va interaktiv dialoglarning o‘quvchilarning so‘z boyligini saqlash va amaliyotda qo‘llashdagi ijobiy ta’siridir. AI-powered chatbotlar o‘quvchilarga real hayotdagi muloqotli vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyatini berdi, bu esa o‘rganilgan yangi so‘zlarni samarali ishlatishda yordam berdi. Heift (2003) va Burston (2015) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan mos kelgan holda, interaktiv AI qo‘llab-quvvatlangan o‘rganish talabalarni chuqurroq jalb qilishni va qabul qiluvchi hamda ishlab chiqaruvchi leksik ko‘nikmalarni yaxshilashni ta’kidlashdi. AI tizimlarining tezkor tuzatishlar taqdim etish qobiliyati o‘quvchilarning ishonchini oshirib, takroriy xatolarni salbiy ta’sirini kamaytirdi. Bu jarayon o‘rganish samaradorligini oshirib, barqaror o‘rganishni rag‘batlantirdi. Madmusayev (2024) ning tadqiqoti, raqamli ta’lim modellarida AI elementlari yordamida ingliz tilini o‘rgatish metodikasi haqida ma’lumot beradi, unda AI asosidagi baholash va avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza mexanizmlari o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish o‘rganishiga sezilarli darajada yordam berishini ko‘rsatadi (Madmusayev, 2024). No-filologiya talabalariga o‘z taraqqiyotlarini kuzatish va o‘rganish strategiyalarini moslashtirish imkoniyatini taqdim etadi, bu metodologiya Luckin va boshqalar (2016) tomonidan o‘rganilgan natijalar bilan mos keladi, ular AI ta’limdagi samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarni fikr-mulohazalarni faollashtirishga undashni muhim deb hisoblashgan.

Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri shundaki, AI texnologiyalari o‘quvchilarga leksik boylikni o‘rganishda nafaqat yordam berdi, balki mustaqil o‘rganish xulqini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutdi, bu esa lingvistik bo‘lmagan talabalarning o‘quv jarayonida zarur bo‘lgan xususiyatlardir. NLP asosidagi vositalar o‘quvchilarga semantik tarmoqlar, sinonimlar, antonimlar va kontekstual misollarni taqdim etgan. Bu resurslar so‘zlarning ma’nosi va foydalanilishi haqidagi chuqurroq tushunishni ta’minladi va semantik farqlarni aniqlashda yaxshilangan qobiliyatlarni rivojlantirdi. Miller (1995) ning WordNet tizimi va Zou (2019) ning NLP texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan keyingi tadqiqotlar, avtomatlashtirilgan leksik ma’lumotlar bazalarining interaktiv o‘rganish yordamchisi sifatida samarali ishlashini ko‘rsatmoqda. Talabalar so‘zlarni turli kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llashda yanada moslashuvchanlikni ko‘rsatgan holda, qabul qiluvchi va ishlab chiqaruvchi kompetensiyalarini rivojlantirdilar.

Tadqiqot natijalari va ularga bo‘lgan muhokama shuningdek, AI texnologiyalarini leksik kompetensiyani rivojlantirishda samarali qo‘llash uchun bir qator muhim omillarni ko‘rsatdi. Birinchi navbatda, AI vositalarining muvaffaqiyati o‘quvchilarning akademik va professional ehtiyojlariga mos keladigan kontent bilan birga kelishi kerak. No-filologiya talabalariga maxsus so‘z boyligini o‘rganish mashqlari yordamida o‘rganish yanada samarali bo‘ladi. Gong va boshqalar (2021) kontekstual aloqaning motivatsiyani oshirishi va leksik bilimlarning amaliy sohalarga o‘tilishini osonlashtirishi haqida ta’kidlashadi. Ikkinchi, AI-ni integratsiya qilishda pedagogik yondashuvlar bilan ehtiyotkorlik bilan muvozanat o‘rnatish zarur, chunki ular tanqidiy fikrlashni va aks ettirishni rag‘batlantirishi kerak. AI ko‘plab o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirishi mumkin, ammo faol ishtirok va metakognitiv xabardorlikning ahamiyati o‘rganishning samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot

shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasi va raqamli savodxonlik darajasi o‘quv natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidladi. Raqamli vositalar bilan tanish bo‘lgan va yuqori ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalar leksik kompetensiyada yanada katta yutuqlarga erishdilar. Bu natija Godwin-Jones (2018) tomonidan qayd etilgan fikr bilan mos keladi, u o‘quvchilar xususiyatlarining AI ta’limdagi samaradorlikni belgilashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Shunga ko‘ra, muvaffaqiyatli joriy etish uchun nafaqat mos texnologik dizayn, balki o‘quvchilarning raqamli kompetentsiyasini kuchaytirish uchun qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham zarur. Yana bir muhim kuzatuv shundaki, AI ta’lim jarayonining an’anaviy chegaralaridan tashqarida doimiy va o‘z sur’atida o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Moslashuvchan mashqlar va fikr-mulohaza bilan talabalar istalgan vaqtda mustaqil ravishda so‘z boyligini amaliyotda qo‘llashga, qiyin bo‘lgan mavzularni qayta ko‘rib chiqishga va mustahkamlashga muvaffaq bo‘lishdi.

Xulosa

Yuqori sinf o‘quvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish modeli o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda va nutq faoliyatining barcha turlarida samarali ta’sir ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI yordamida o‘rganish, o‘quvchilarga o‘z sur’atida rivojlanish imkoniyatini taqdim etadi va ular zaif ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan sohalarga e’tibor qaratish imkoniyatini yaratadi. Bu, ayniqsa, no-filologiya talabalariga maxsus fanlarga oid atamalarni o‘rganish jarayonida foydali bo‘ladi, chunki ular umumiy til kurslarida tanish bo‘lmagan materiallar bilan ishlashadi. AI texnologiyalarining o‘quvchilarga leksik boylikni mustahkamlash va so‘zlarni samarali qo‘llashda o‘z-o‘zini boshqarishni rag‘batlantirishdagi roli juda katta. Interaktiv mashqlar va AI-powered chatbotlar yordamida o‘quvchilarga real hayotdagi muloqotli vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyati berildi, bu esa yangi so‘zlarni ishlatish va so‘z boyligini saqlashda samarali yordam berdi. Bundan tashqari, AI tizimlarining tezkor fikr-mulohaza taqdim etish qobiliyati, takroriy xatolarni kamaytirib, o‘quvchilarning ishonchini oshirishga yordam berdi, bu esa barqaror o‘rganishni rag‘batlantirdi. Tadqiqotda shuningdek, AI vositalarining o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z o‘rganish jarayonlarini kuzatish imkoniyatini taqdim etishdagi roli ko‘rsatildi. Bu metodologiya o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘rganish strategiyalarini moslashtirishni osonlashtirdi. NLP asosidagi vositalar esa talabalar uchun so‘zlarning ma’nosi va foydalanishini chuqurroq tushunishga yordam berib, semantik farqlarni aniqlashda yordam berdi. Bu resurslar, shuningdek, o‘quvchilarning so‘zlarni turli kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llashdagi moslashuvchanligini oshirdi.

Yuqori sinf o‘quvchilari uchun AI texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi, ularning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga katta yordam beradi, o‘quvchilarni motivatsiya qiladi va o‘rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Shunday qilib, AI yordamida leksik boylikni o‘rganish faqatgina so‘zlarni eslab qolish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga, o‘z-o‘zini baholashga va o‘rganish jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishga undaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar, AI texnologiyalarining boshqa komponentalarini, masalan, o‘rganish algoritmlarini va tahlil qilish vositalarini yanada chuqurroq o‘rganishga, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiylashtirilgan o‘rganish uslublarini

rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi nafaqat samarali texnologik dizaynni, balki pedagogik yondashuvlar va o‘quvchilarning raqamli kompetentsiyasini kuchaytirish uchun qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madrahimova, S. R. qizi. (2024). Leksik kompetensiya va uni rivojlantirish usullari (xorijiy tillarni o‘rganish misolida). *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4*(8), 303.
2. Muhayyo Sh. Salixova, Sitora I. Usmanaliyeva. (2025) ‘The use of artificial inte ligence technologies in the educational process: relevance, value’, Inter education & global study, vol.3. (5(1)), pp. 246–253. (In Uzbek).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son Sun’iy inte lekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079 son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
5. Elov, B. (2024). AI chatbotlari yordamida yuqori darajadagi o‘quvchilarda ravonlik va leksik murakkablikni rivojlantirish. *CALLEJ jurnali*.
6. Rustamova, J. (2024). O‘zbekistonda oliy ta’limda AI vositalari orqali so‘z boyligini oshirish. *Worldly Journals*.
7. Madmusayev, J. M. (2024). Raqamli ta’lim modellarida AI elementlari bilan ingliz tilini o‘rgatish metodikasi. *Scribd* (Boshqa platformalarda mavjud). Asrorov, I., & Ulmasbayeva, M. (2024). AI vositalari yordamida mustaqil til o‘rganish: Leksik kompetensiyani rivojlantirish metodlari. *CyberLeninka*.
8. Shadiev, R. (2024). Texnologiya yordamida til o‘rganish: AI va serious games orqali so‘z boyligini oshirish. *ResearchGate*.
9. Mukhitdinova Munirakhon Ravshanovna January, (2026)A methodology for developing lexical competence for non-philological students using artificial intelligence, The Journal of Applied Science and Social Science Volume16,Issue01/ eISSN:2229-3213/ pISSN:2229-3205
10. Burston,J. (2015). MALL (Mobile-AssistedLanguageLearning): The Future of Language Learning? CALICO Journal, 32(3),1–20.
11. Chen, X., Xie, H., &Hwang, G.J.(2020). Application of Artificial Intelligence in Adaptive Language Learning: A Review and Future Directions. Computers & Education,147,103787.
12. Godwin Jones,R. (2018). Using Mobile Technology to Develop Language Skills and Cultural Understanding. Language Learning & Technology, 22(3),1–17.

13.Gong,X., Zhang, L., &Lee, J. (2021). Enhancing Lexical Competence ofUniversityStudentsThroughAI-Based Interactive Exercises. Computer Assisted Language Learning, 34(5–6),1234–1255.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABA YOSHLARIDA IJTIMOIY XAVOTIR VA KASBIY O‘Z-O‘ZINI ANGLASH O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.053

Odinayeva Shohsanam Shamsiddin qizi
University of Business and Science Toshkent filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya.mazkur maqolada talaba yoshlarida ijtimoiy xavotir va kasbiy o‘z-o‘zini anglash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasbiy o‘zligini anglash jarayoniga ta’sir etuvchi shaxsiy xususiyatlar, motivatsion omillar, kognitiv jarayonlar, o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari hamda reflektiv qobiliyatlarning roli yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy xavotirning talabalarning kasbiy shakllanishi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada kasbiy o‘z-o‘zini anglash darajasining yuqoriligi ijtimoiy xavotir holatlarining kamayishiga xizmat qilishi, aksincha, kasbiy yo‘nalganlikning yetarli darajada shakllanmaganligi talabalarda psixologik noqulaylik va ijtimoiy tanglikni kuchaytirishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, talabalarda kasbiy yetuklik va psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: talaba yoshlar; ijtimoiy xavotir; kasbiy o‘z-o‘zini anglash; kasbiy shakllanish; o‘z-o‘zini boshqarish; refleksiya; psixologik barqarorlik; motivatsiya; pedagogik kompetensiya.

Аннотация.В данной статье с психолого-педагогической точки зрения анализируется взаимосвязь между социальной тревожностью и профессиональным самосознанием у студентов. В исследовании раскрывается роль личностных характеристик, мотивационных факторов, когнитивных процессов, механизмов саморегуляции и рефлексивных способностей в формировании профессионального самосознания. Также на основе научных источников рассматривается влияние социальной тревожности на профессиональное становление, эмоциональную устойчивость и социальную адаптацию студентов. Обосновано, что высокий уровень профессионального самосознания способствует снижению проявлений социальной тревожности, тогда как недостаточная сформированность профессиональной направленности усиливает психологический дискомфорт и социальное напряжение в студенческой среде. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования системы психолого-педагогического сопровождения в высших образовательных учреждениях, а также при разработке научно-практических

рекомендаций, направленных на развитие профессиональной зрелости и психологической устойчивости студентов.

Ключевые слова: студенческая молодежь; социальная тревожность; профессиональное самосознание; профессиональное становление; саморегуляция; рефлексия; психологическая устойчивость; мотивация; педагогическая компетентность.

Abstract. This article analyzes the relationship between social anxiety and professional self-awareness among university students from a psychological and pedagogical perspective. The study highlights the role of personal characteristics, motivational factors, cognitive processes, self-regulation mechanisms, and reflective abilities in the formation of professional self-awareness. In addition, the impact of social anxiety on students’ professional development, emotional stability, and social adaptation is examined based on relevant scientific literature. The findings substantiate that a high level of professional self-awareness contributes to a reduction in social anxiety, whereas insufficient development of professional orientation increases psychological discomfort and social tension among students. The results of the study may be applied to improving psychological and pedagogical support systems in higher education institutions and to developing scientific and practical recommendations aimed at enhancing students’ professional maturity and psychological resilience.

Keywords: students; social anxiety; professional self-awareness; professional development; self-regulation; reflection; psychological resilience; motivation; pedagogical competence.

Kirish. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu jarayonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimiga yangicha yondashuvni taqozo etib, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizda ta’limning barcha bo‘g‘inlari izchil rivojlantirilmoqda. Yangi ta’lim maskanlari qurilib, zamonaviy jihozlanib, yoshlarning bilim olishiga barcha sharoit yaratilmoqda. O‘quv dasturlari yangilanib, eng ilg‘or tajribalar joriy etilmoqda. Lekin bu uzluksiz jarayon. Iqtidorli bolalarga ixtisoslashgan bilim berish, yoshlarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va kasbga yo‘naltirish doimiy e’tiborni talab etadi”[1].

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy jamiyat ehtiyojlari va Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi talablaridan kelib chiqib, pedagog shaxsidan nafaqat kasbiy bilim va malakalarga ega bo‘lish, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va kasbiy o‘z-o‘zini anglash kompetensiyalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyalar bo‘lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida, murakkab pedagogik vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilish va samarali muloqot o‘rnatishda asosiy poydevor sifatida xizmat qiladi.

Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ijtimoiy xavotir darajasi bilan kasbiy o‘z-o‘zini anglash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish Yangi O‘zbekiston sharoitida raqobatbardosh, tashabbuskor va ma’naviy barkamol pedagog

kadrlarni tayyorlash vazifalari bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Mazkur masalaning dolzarbligi pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning psixologik holatini hisobga olgan holda, ularning kasbiy o‘zini anglashini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati bilan izohlanadi.

Kasbiy o‘z-o‘zini anglash shaxsning o‘zini kelajakdagi professional faoliyat subyekti sifatida idrok etishi, o‘z imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari hamda kasbiy maqsadlarini anglash va baholash jarayonini ifodalaydi. Ushbu jarayon talabalik davrida faol shakllanib, shaxsning kasbiy yo‘nalganligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kasbiy o‘z-o‘zini anglash ularning kelajakdagi faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy xavotir esa shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda, jumladan, jamoa oldida chiqish, muloqotga kirishish, baholanish jarayonlarida yuzaga keladigan ichki tanglik, qo‘rquv va noqulaylik holatlari bilan tavsiflanadi. Talaba yoshlarida ijtimoiy xavotir darajasining yuqoriligi ularning akademik faolligi, ijtimoiy munosabatlari hamda kasbiy o‘zini namoyon etish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, ijtimoiy xavotirni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish va uning kasbiy shakllanish jarayoniga ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy xavotir darajasi bilan kasbiy o‘z-o‘zini anglash o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjud bo‘lib, yuqori darajadagi xavotir shaxsning o‘z kasbiy salohiyatini to‘liq anglashiga va uni samarali ro‘yobga chiqarishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Aksincha, kasbiy o‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini erkin tutishi, muloqotga faol kirishishi va stressli holatlarni konstruktiv tarzda yengib o‘tishi bilan ajralib turadi.

Shu nuqtai nazardan, talaba yoshlarida ijtimoiy xavotirni kamaytirish hamda kasbiy o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalarni talabalik davridayoq shakllantirish kelajakda emotsional jihatdan barqaror, ijtimoiy faol va kasbiy yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam psixologik poydevor yaratadi.

Kasbiy o‘zini anglash (professional self-awareness) — bu shaxsning o‘zini tanlagan kasb bilan bog‘lay olish, o‘z imkoniyatlarini shu kasb kontekstida baholay bilish, kasbiy maqsadlar va motivlarni aniqlab olish jarayonidir. Bu tushuncha kasbiy identifikatsiyaning markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixologik jihatdan bu jarayon — shaxsiyat taraqqiyotining muhim bosqichi bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash, qaror qabul qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi psixologik funksiyalar bilan bevosita bog‘liq. Kasbiy o‘zini anglash — bu: “Men qanday shaxsman?”, “Qaysi kasb menga mos?”, “Bu kasbda o‘z imkoniyatlarimni qanday amalga oshiraman?” kabi savollarga javob toppish jarayoni orqali shakllanadi. Bu jarayon orqali shaxs o‘zining: kasbiy qiziqishlari, maqsadlari, kompetensiyalari, ijtimoiy rol va vazifalarini anglaydi. Psixologiya fanida bu holat “O‘zlik konsepsiyasi” (self-concept) bilan bog‘liq tarzda izohlanadi. Kasbiy identifikatsiya va shaxsiy o‘zlik - Shaxs o‘z kasbiy yo‘nalishini tanlay boshlaganida, u o‘zining “shaxsiy o‘zligini” (personal identity) “kasbiy

o‘zlik” (professional identity) bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Bu holat kasbiy identifikatsiya deb yuritiladi. U quyidagi psixologik asoslarda shakllanadi: **Kognitiv asoslar** – shaxsning kasb haqidagi bilimlari, tasavvurlari va baholari orqali o‘zini bu kasbga mos deb bilish darajasi. Bu jihatlar kasbga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantiradi. **Emotsional asoslar** – kasbga bo‘lgan hissiy bog‘lanish, ishtiyoq, qoniqish darajasi. Agar kasbiy faoliyat shaxsda emotsional qoniqish uyg‘otsa — identifikatsiya mustahkam bo‘ladi. **Motivatsion asoslar** – ichki ehtiyojlar, qadriyatlar va maqsadlar orqali kasbni ongli tanlash. Ichki motivatsiya — kasbiy identifikatsiyaning eng barqaror manbai hisoblanadi[2].

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni paytda eng muhim bosqichi shaxsning bo‘lajak kasbini tanlash hamda muayyan kasbiy qarorga kelishi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur davr kasbiy ta’lim boshlanishidan avval yakunlanishi lozim. Ushbu bosqichda shaxsning kasbiy o‘z-o‘zini anglash darajasi uning kelajakdagi professional yo‘nalganligini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kasb-hunarga yo‘naltirish, kasbiy targ‘ibot va psixologik tashxis ishlarining yetarli darajada tizimli olib borilmasligi natijasida ko‘plab yoshlar o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari hamda individual psixologik xususiyatlariga mos kasbni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Ayniqsa, talaba yoshlarida kasbiy o‘z-o‘zini anglashning yetarli darajada shakllanmaganligi ijtimoiy xavotir darajasining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki o‘z kasbiy imkoniyatlarini aniq tasavvur qilmaslik, kelajak faoliyatiga nisbatan noaniqlik va ikkilanish hissi ijtimoiy vaziyatlarda, jumladan, muloqot, baholanish hamda jamoa oldida o‘zini namoyon etish jarayonlarida ichki psixologik tanglikni kuchaytiradi. Bu holat talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirib, ularning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, kasbiy tanlovning ongli va mustaqil ravishda amalga oshirilishi shaxsda kasbiy motivatsiyaning kuchayishiga, faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishiga hamda ijtimoiy xavotir darajasining pasayishiga xizmat qiladi. O‘z kasbini ongli ravishda tanlagan talaba yuzaga keladigan murakkabliklarga nisbatan barqarorlik namoyon etadi, kasbiy faoliyat jarayonida qiyinchiliklarni konstruktiv tarzda yengib o‘tishga moyil bo‘ladi.

Kasbiy psixologiya fani doirasida shaxsning kasb-koriga oid ko‘p tomonlama tadqiqotlar olib boriladi. Bular asosan mehnat psixologiyasi, pedagogik psixologiya va yosh davrlari psixologiyasi fanlari tomonidan o‘rganiladi. Bu muammolar echimining metodologik jihatdan asoslanishi psixologiya sohasida olib borilgan fundamental tadqiqotlarda ma’lum darajada o‘z aksini topmoqda. Demak: faoliyatning psixologik nazariyasi yaratilishi kasbiy faoliyatga doir tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘ladi; shaxs takomili borasidagi differentsial psixologik kontseptsiyaning rivojlanishi, kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kasbiy moslashuv, kasbiy kompetentlikka doir muammolarni hal qilish uchun asos bo‘ladi; kasbiy psixologiya - kasbiy layoqat, kasbiy diagnostika, kasbiy ko‘nikma va malakalarning shakllanishi masalalarini o‘rganadi va; yosh davrlari psixologiyasi shaxsiy va kasbiy rivojlanish, kasbiy o‘zlikni anglashdagi inqirozlarning psixologik xususiyatlari va kelishmovchiliklari masalalarini o‘rganadi[3].

Demak, talaba yoshlarida ijtimoiy xavotir va kasbiy o‘z-o‘zini anglash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda, kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish, psixologik diagnostika va maslahat ishlarini kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy yetukligi bilan bir qatorda ularning psixologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kognitiv jarayonlar, xususan, tafakkur, diqqat va o‘zini anglash ham o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Talabalar o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni tuzatish orqali o‘zini boshqarish mexanizmlarini takomillashtiradilar. O‘z-o‘zini refleksiya qilish qobiliyati rivojlangan talabalarda mas’uliyat hissi yuqori bo‘lib, ular o‘z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘ra biladilar. Bu esa ijtimoiy muhitda ongli va barqaror xulq-atvorni ta’minlaydi. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga va o‘z faoliyatini baholashga undovchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi ijtimoiy rollarni egallash jarayoni bilan ham uzviy bog‘liqdir. Talaba o‘zini nafaqat o‘quvchi, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida anglay boshlaydi. Ushbu jarayonda u turli ijtimoiy vazifalarni bajarib, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishni o‘rganadi. Ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish, jamoat ishlarida qatnashish va yetakchilik ko‘nikmalarini egallash talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi. Bu esa ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi[4].

Mazkur jarayonlarning tizimli rivojlanishi talaba yoshlarida ijtimoiy-psixologik barqarorlikning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanganligi talabalarda ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan moslashuvchan munosabatni shakllantirib, stress va ijtimoiy xavotir holatlarining kamayishiga xizmat qiladi. O‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda nazorat qila oladigan, o‘z emotsional holatini tahlil etishga qodir shaxs ijtimoiy muhitda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal etishga moyil bo‘ladi.

Shu bilan birga, o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya ko‘nikmalarining rivojlanishi kasbiy o‘z-o‘zini anglash jarayonini faollashtiradi. Talaba o‘zining individual imkoniyatlari, kasbiy qiziqishlari va ijtimoiy tajribasini tahlil qilish orqali kelajak kasbiy faoliyatiga nisbatan aniq va barqaror munosabatni shakllantiradi. Bu esa kasbiy tanlovning ongli amalga oshirilishiga, kasbiy motivatsiyaning kuchayishiga hamda ijtimoiy xavotir darajasining pasayishiga olib keladi. Demak, talaba yoshlarida kognitiv jarayonlar va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarining rivojlanishi ularning shaxsiy yetukligi bilan bir qatorda, kasbiy shakllanish jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy o‘zligini anglashga ta’sir etuvchi psixologik omillar quyidagilar:

1. Shaxsiy xususiyatlar:

- O‘ziga ishonch: O‘qituvchi kasbiy faolligida o‘z kuchiga ishonch katta ahamiyat kasb etadi. O‘ziga ishonch darajasi yuqori bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z maqsadlariga erishishda faolroq bo‘ladilar.

- O‘z-o‘zini boshqarish: Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z hissiyotlarini boshqara olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur, bu esa o‘quvchilarga samarali ta'sir ko‘rsatishda muhim hisoblanadi.

2. Motivatsiya:

- Ichki motivatsiya: Kasbiy o‘zligini anglashda ichki motivatsiya (kasbga bo‘lgan sevgi, o‘quvchilarga yordam berish istagi) yetakchi rol o‘ynaydi;

- Tashqi motivatsiya: Qadrli bo‘lish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish kabi tashqi motivatsiyalar ham ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Psixologik barqarorlik:

- Stressga chidamlilik: Ta’lim sohasidagi bosimlarni yengish va psixologik barqarorlikni saqlash kasbiy o‘zlikni anglash jarayonida asosiy omildir.

- Konfliktlarni hal qilish qobiliyati: Bo‘lajak o‘qituvchi o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan kelib chiqadigan muammolarni hal qila olish qobiliyatini rivojlantirishi zarur.

4. Reflektiv qobiliyatlar:

- O‘z faoliyatini tahlil qilish: O‘z tajribasidan saboq olish va uni takomillashtirish kasbiy o‘zligini anglashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

- Muvaffaqiyat va xatolarni baholash: Faoliyatdagi natijalarni ob’ektiv ko‘rib chiqish o‘zini anglashni chuqurlashtiradi[5].

Kasbiy o‘zligini anglash jarayoni shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, motivatsion sohasi hamda reflektiv imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar bo‘lajak pedagog shaxsining kasbiy shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, shaxsiy xususiyatlar ichida o‘ziga ishonch kasbiy faollikni ta’minlovchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. O‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonchi yuqori bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy faoliyatga nisbatan faol pozitsiyani egallab, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda qat’iyatlilik va tashabbuskorlik namoyon etadilar. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining rivojlanganligi pedagogning emotsional holatini nazorat qila olishiga, murakkab pedagogik vaziyatlarda muvozanatli qarorlar qabul qilishiga hamda o‘quvchilarga samarali ta’sir ko‘rsatishiga xizmat qiladi.

Kasbiy o‘zligini anglashda motivatsion omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki motivatsiya, ya’ni kasbga bo‘lgan qiziqish, o‘qituvchilik faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat hamda o‘quvchilarga yordam berish istagi shaxsning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Bunda tashqi motivatsiya omillari — jamiyatda munosib o‘rin egallash, ijtimoiy e’tirofga erishish va kasbiy muvaffaqiyatga intilish ham kasbiy o‘zligini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, psixologik barqarorlik kasbiy o‘zligini anglashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan turli bosim va stress omillariga bardosh bera olish, emotsional muvozanatni saqlash bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Konfliktli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal qilish qobiliyatining rivojlanganligi esa pedagogning o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘rnatishiga hamda kasbiy faoliyatda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishiga xizmat qiladi.

Kasbiy o‘zligini anglash jarayonida reflektiv qobiliyatlarning rivojlanganligi alohida ahamiyatga ega. O‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z tajribasidan xulosa chiqarish va uni takomillashtirishga intilish shaxsning kasbiy yetukligini oshiradi. Muvaffaqiyat va xatolarni ob’ektiv baholay olish esa kasbiy o‘sishga nisbatan ongli munosabatni shakllantirib, bo‘lajak pedagogning o‘zini kasbiy subyekt sifatida chuqur anglashiga imkon yaratadi.

Kasbiy faoliyatga moslashtirishda shaxsning obyektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining mos kelishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, o‘qituvchilik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, balki kasbiy faoliyatning shaxsga qo‘yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo‘lishi kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim[6,453].

Xulosa qilib aytganda, O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talaba yoshlarida kasbiy o‘z-o‘zini anglash jarayoni ko‘p omilli va murakkab psixologik hodisa bo‘lib, u shaxsiy xususiyatlar, motivatsion omillar, kognitiv jarayonlar, o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari hamda reflektiv qobiliyatlarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishi bilan belgilanadi. Ushbu jarayon talabalarning shaxsiy yetukligi, kasbiy shakllanishi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlovchi muhim psixologik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida aniqlanishicha, kasbiy o‘zligini anglash darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda o‘ziga ishonch, mas’uliyat hissi, mustaqil fikrlash va emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘ladi. Aksincha, kasbiy yo‘nalganlikning yetarli darajada shakllanmaganligi ijtimoiy xavotirning ortishi, o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik va ijtimoiy vaziyatlarda psixologik noqulaylik holatlarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa talabalarning akademik faolligi va kasbiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ijtimoiy xavotir va kasbiy o‘z-o‘zini anglash o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya ko‘nikmalarining rivojlanganligi ushbu salbiy holatlarni yumshatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Talabaning o‘z faoliyatini tahlil qila olishi, xatolaridan xulosa chiqarishi va o‘zini ongli ravishda boshqara bilishi uning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi hamda ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, talaba yoshlarida kasbiy o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish va ijtimoiy xavotirni kamaytirishga qaratilgan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan tizimli tadbirlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy yetukligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy faolligini ta’minlashga xizmat qiladi hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://president.uz/oz/lists/view/8468

2. “Ilm-fan va innovatsiya” ilmiy-amaliy konferensiya, in-academy.uz/index.php/si, B.: 33-34 (file:///C:/Users/user/Downloads/Ilm-fan+1309.pdf)

3. A.Baxriyev “Kasbiy psixologiya” darslik, T. 2019, B.: 13-14 (chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/630484/images/1731393442.pdf)

4. Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali, Journal of scientific research and their solutions, AOKA guvohnoma №323759, ISSN:3060-4818 Volume 8, issue 02, 2025, 735-bet. (https://worldlyjournals.com/index.php/ituy/article/view/21384/24937)

5. file:///C:/Users/user/Downloads/bo-lajak-o-qituvchilarning-kasbiy-o-zligini-anglashning-psixologik-omillari.pdf

6. “Zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari, T.: 2025, B. 453-454. (https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/3587/2886)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

“TARBIYA” FANI KONSEPSIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.054

Ziroat Anvarovna Xolmatova
Qo`qon davlat universiteti professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada **t**arbiyaning shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon ekanligi va “Tarbiya” fani konsepsiyasining huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, ilmiy-metodik asoslarining mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, shaxs, tarbiya fani, huquqiy-me’yoriy asos, Konsepsiya, pedagogik jarayon, amaliy faoliyat

Аннотация: в данной статье отражено, что воспитание является практическим педагогическим процессом, направленным на формирование определенных физических, умственных, нравственных и духовных качеств личности, а также содержание и сущность правовых, организационно-административных, научно-методологических основ понятия дисциплины «Воспитание».

Ключевые слова: воспитание, личность, дисциплина воспитания, правовые и нормативные рамки, понятие, педагогический процесс, практическая деятельность

Abstract: This article discusses education as a practical pedagogical process aimed at developing certain physical, mental, moral, and spiritual qualities of the individual, as well as the content and essence of the legal, organizational, administrative, and scientific-methodological foundations of the concept of the discipline "Education."

Key words: education, personality, educational discipline, legal and regulatory framework, concept, pedagogical process, practical activity

KIRISH .2000-2005 yillardagi O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ma’lumotlariga ko`ra “Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig’indisi”-deya ta`riflangan. Tarbiya eng qadimiy va abadiy qadriyat sifatida insonning insonligini ta’minlaydigan jaroyondir. Zero, tarbiyasiz inson ham, kishilik jamiyati ham bo‘lmaydi. Faqat odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina ajdodlardan avlodlarga o‘tib boradi. Lekin bugungi kundagi tarbiya qadriyat sifatida globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo`lgan ehtiyojlar natijasida zamonaviylashib bormoqda. Natijada zamonaviy tarbiya yoshlardan

tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurlarini shakllantirish, intellektual salohiyatini oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni bajarishga tayyor shaxslarni kutmoqda. Tarbiya ongli amaliy faoliyat sifatida muayyan maqsadga qaratilgan, aniq dastur, reja asosida amalga oshirilib, avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladi. Avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatish muammosiga 2020 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan o`zbek pedagogika fani tarixida ilk bor “Tarbiya” yangi fani ishlab chiqilishi bilan yechim topildi. O`zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6iyuldagi 422-sonli “Umumiy o`rta ta`lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori qabul qilindi. Zero, “Tarbiya” fanini umumiy o`rta ta`lim muassasalarida o`qitilishi O`zbekiston davlatining ta“lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo`lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo`naltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarbiya-bu ota-onalar, ta'lim muassasalari va jamiyat tomonidan bolalarni tarbiyalashning ongli va maqsadli faoliyat bo‘lib, barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha. Bu tushuncha qadim zamonlardan butun olimu-fuzalolarni diqqat markazida bo`lgan. Zero, Sa’diy Sheroziy:

Agar tarbiyat ko‘rmasa odam,
Eshak bo‘lib qolur yuzga kirsa ham.
Mavlono Xurramiy:
Bog‘bondan parvarish ko‘rmasa nihol,
Ulg‘ayib o‘solmas, topolmas kamol!

2023 yil 22 noyabrda ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, tarbiyaning kecha va bugungi xolati, Tarbiya fani o’qituvchisini tayorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari, ta’lim muassasalarida Tarbiya fani o’qituvchisini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik va psixologik jihatlariga doir qarashlari va taklif-mulohazalarni o`rganish, tajribalarni almashish maqsadida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida “TARBIYA FANI: yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari ” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etildi. Konferentsiya materiallarida bugungi kun olimlarining mavzu yuzadagi qarashlari, tajribalari, tavsiyalari o‘z aksini topgan. Педагогика фанлари доктори, профессор Муҳаммаджон Қуроновнинг “ХАЙ ТЕК тарбия ҳақида: тарбия фани ўқитувчиси билан суҳбат” maqolasida тарбия фалсафий, тарихий, қўл етмас, илҳом келса қилинадиган, ихтиёрий иш эмасligi haqida fikr bildirgan. Pedagogika fanlari doktori, professor Barno Sayfutdinovna Abdullaevaning “Bo‘lajak tarbiya fanini o‘qituvchilarini tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari” mavzusidagi maqolasida bo‘lajak Tarbiya fanini o‘qituvchilarini tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bo‘yicha fikrlari berilgan. Редагогика фанлари доктори (DSc) Мухсиева Азиза Шамситдиновнаning maqolasida “Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида ижтимоий компетенцияларни ривожлантиришда тарбия фанининг аҳамияти” maqolasida компетентлик, ижтимоий масъулият тушунчалари назарий таҳлил

қилиниb, ўспиринлик даврининг психологик хусусиятлари, уларнинг ижтимоий масъулиятини ривожлантириш шакллари ва усуллари кўриб чиқилади, ўқувчиларининг ижтимоий компетентлигини шакллантириш, bu jarayonda tarbiya fanining ahamiyati, педагогик-психологик шарт-шароитлари ва ривожлантиришга қаратилган услубий тавсиялар берилган. Pedagogika fanlari doktori, professor Mirzayeva Faroxat Odiljonovnaning “Tarbiya fanini o’qitishda “kollaj” metodlidan foydalinish” mavzusidagi maqolasida pedagogika oliy ta’lim muassasalrida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbga tayyorlash jarayonida kollaj metodidan foydalanish metodikasi yoritilgan. Umuman olganda inson paydo bo’libdiki, uning tarbiyasi doimiy ta’limi bilan birgalikda yashab kelmoqda. Tarbiyasiz yashashning umuman iloji yo’q. Haqiqatan ham, tarbiya bu - insonning hayot-mamotidir, kerak paytda unga najot bo’la oladigan eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. O’zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko’p asrlar davomida qo’llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o’ziga xos urf-odatlari va an’analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g’oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o’tmishda Beruniy, Navoiy, ibn Sino, Z.M.Bobur, al-Xorazmiy kabi ko’plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo’lgan, desak hech ham mubolag’a bo’lmaydi. Yosh avlodning orasidan ham shunday buyuk insonlar yetishib chiqishi tabiiy. Zero, ularning ota-bobolari buyuk shaxslar bo’lishgan.

METODOLOGIYA. Tarbiya fani O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020 - 2021 - o’quv yilidan boshlab maktab darsliklarida fan sifatida kiritilgan. Tarbiya fanining metodologiyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlari, soha bo`yicha fikr-ulohazalari, qarash va tashabbuslari, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida”gi qonunlari, xalqaro huquqning umume`tirof etilgan hujjatlari, xususan “Bola huquqlari to`g`risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to`g`risida”gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar-2030” strategiyasi hamda O`zbekiston Respublikasining ta`lim to`g`risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi. Fanda belgilangan vazifalar O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma`naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg`or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar bilan uyg`un ravishda amalga oshiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Tarbiya fani umumiy o„rta ta‟lim tizimida o`quvchilarning yoshiga mos ma`naviy rivojlanishini ta`minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida 2020-2021-o`quv yiliga qadar umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitilgan “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar “Odobnoma”, “Vatan tuyg`usi”, “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari”, “Ma`naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo`nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o`rganildi, amaldagi fanlarning o`quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi. Konsepsiya asosida yaratilgan dastur amaldagi Sog`lom avlod asoslari, Salomatlik, Yo`l harakati qoidalari, Hayot xavfsizligi

asoslari, Salomatlik darslari, Huquqiy tarbiya, Ekologik tarbiya, Media madaniyati, Iqtisod va soliq saboqlari kabi bir qancha fakultativ o`quv kurslari dasturlarini birlashtiradi. Konsepsiya umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standartlarida belgilangan talablarning negizi hisoblanadi. Konsepsiya “Tarbiya” fanini o`rganish bosqichlari, o`quv fani bo`yicha ta`lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi. Shuningdek, strategik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda konsepsiyani joriy etishning quyidagi asoslari ham o`rganildi:

Huquqiy asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirish orqali shaxs tarbiyasida milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish;

vazirliklar va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari "Tarbiya" fani konsepsiyasining amalga oshirish tizimini tashkil etadi.

Tashkiliy-boshqaruv asoslari:

- Konsepsiyani amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning qo‘shma qarorlarni ishlab chiqish;
- ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash, o‘rganish va ularni ommalashtirish, rag‘batlantirishni tashkil etish;
- "Tarbiya" fani konsepsiyasining samaradorligini monitoring qilish.

Ilmiy-metodik asoslari:

- shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga oid ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirilishini ta’minlash;
- "Tarbiya" fani malaka talablari, o‘quv dasturlari va o‘quv rejalarini shakllantirish;
- "Tarbiya" fani dareliklarini yaratishda samarali tarbiya texnologiyalarini joriy etish;
- "Tarbiya" fani o‘quv-metodik majmuasini yaratish va amaliyotga yo‘naltirish;
- davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;
- o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;
- umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash.

Demak, tarbiya fani o`quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko`maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma`naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o`zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro`yobga chiqarishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa o`rnida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-son qaroriga 3-ilova qilingan Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun "Tarbiya" fani KONSEPSIYaSIning 2-bob Konsepsiyaning dolzarbligi va zaruratida aks etgan ma`lumotni keltirishni joiz deb bildik:

- Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo‘llashga doir ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda.

- Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan "Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o‘rgatish, buning natijasi o‘laroq, oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi.

Bu, o‘z o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

FOYDALANILGAN ADABİYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 29-dekabr. Xalq so‘zi, 2020, №276 (7778).

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasi (O‘zR VM 06.07.2020 y. 422-son qaroriga 3-ilova)

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

5. “Tarbiya fani: yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiyamaliy konferensiyasi. Toshkent.: 2023 yil. 22 noyabr

6. Z.Xolmatova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Fan, 2023.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UO'K 378:796.011.3

“JISMONIY MADANIYAT YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY-AMALIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI”

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.055

Yaqubov Nazirjon Salijonovich
Andijon davlat pedagogika instituti (PhD)dotsenti
Saidg’aniyev Saidaxmad Oybek o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti v.b.dotsenti
Gmail: saidganiyev.s.o1504@gmail.com
E-mail: yakubov_0101@mail.ru
saidahmad150495@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari, ularni shakllantirish mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, kasbiy-amaliy tayyorgarlikni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda amaliy mashg‘ulotlarning metodik tizimi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini takomillashtirish uchun integrativ yondashuv, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar va innovatsion o‘qitish metodlarini keng joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, jismoniy madaniyat, pedagogik kompetensiya, metodika, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, innovatsion ta’lim, pedagogik texnologiya.

Аннотация.В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития профессионально-прикладной подготовки студентов направления физической культуры. Анализируются научно-педагогические подходы к формированию профессиональных компетенций будущих учителей физической культуры, а также особенности организации учебного процесса в высших образовательных учреждениях. Особое внимание уделяется роли компетентностного подхода, интеграции теоретической и практической подготовки, а также использованию современных педагогических технологий в системе подготовки специалистов. В результате исследования обоснована необходимость совершенствования методической системы профессионально-прикладной подготовки студентов направления физической культуры на основе современных образовательных подходов.

Ключевые слова: физическая культура, профессиональная подготовка, профессионально-прикладная подготовка, педагогические компетенции, методика обучения, педагогические технологии.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for developing professional and applied training of students majoring in physical culture. The study analyzes scientific and pedagogical approaches to the formation of professional competencies of future physical education teachers and the organization of the educational process in higher education institutions. Special attention is paid to the role of the competency-based approach, the integration of theoretical and practical training, and the application of modern pedagogical technologies in the training system of specialists. The results of the research substantiate the necessity of improving the methodological system of professional and applied training of students in the field of physical culture based on modern educational approaches.

Keywords: physical culture, professional training, professional-applied training, pedagogical competence, teaching methodology, pedagogical technologies.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ta’lim tizimining barcha bosqichlarida malakali, raqobatbardosh hamda yuqori kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jismoniy madaniyat tizimi yosh avlodning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy rivojlanishini ta’minlash hamda jamiyatning umumiy salomatlik darajasini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi [1].

So‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu sababli jismoniy madaniyat sohasida faoliyat yuritadigan pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish zarurati yanada ortib bormoqda. Bu esa jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslarini o‘rganishni taqozo etadi [2].

Pedagogika fanida kasbiy tayyorgarlik tushunchasi mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga tayyorligini ifodalovchi kompleks jarayon sifatida talqin etiladi. Bu jarayon bilimlar tizimi, metodik tayyorgarlik, amaliy ko‘nikmalar hamda shaxsning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi [3]. Shuningdek, jismoniy madaniyat sohasida kasbiy tayyorgarlik nafaqat pedagogik bilimlarni, balki jismoniy mashqlarni o‘rgatish, sport mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini boshqarish bo‘yicha amaliy malakalarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlarning jismoniy faolligini oshirish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan jismoniy madaniyat sohasida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasi nafaqat

ularning nazariy bilimlariga, balki pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalariga ham bevosita bog‘liqdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasida kasbiy tayyorgarlik masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, L.P. Matveev, B.A. Ashmarin, V.K. Balsevich, V.I. Lyax kabi olimlar jismoniy tarbiya tizimining nazariy asoslari hamda mutaxassislarni tayyorlash metodikasini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatni tashkil etish metodlari hamda jismoniy mashqlarni o‘rgatish jarayonining ilmiy asoslari yoritilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, integrativ ta’lim texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etayotgani ta’kidlanmoqda. Biroq oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini kompleks tarzda o‘rganish zarurati mavjud.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning metodologik tamoyillarini aniqlash hamda samarali pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etish jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlash, ularning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda jismoniy tarbiya ta’limi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishning ilmiy-pedagogik jihatlarini asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasida mutaxassislarni tayyorlash masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, L.P. Matveev jismoniy madaniyat tizimini shaxsning jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida talqin etadi [4]. B.A. Ashmarin esa jismoniy tarbiya tizimida pedagogik faoliyatning metodik asoslarini ishlab chiqqan [5].

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi quyidagi komponentlardan iborat:

- nazariy bilimlar tizimi;
- metodik tayyorgarlik;
- amaliy jismoniy tayyorgarlik;
- pedagogik faoliyat ko‘nikmalari.

Mazkur komponentlarning uyg‘unligi bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar talabalar

tayyorgarligini faqat bilimlar bilan cheklab qo‘ymasdan, balki ularni amaliy faoliyatga tayyorlashni ham nazarda tutadi [6].

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini kompleks o‘rganishni nazarda tutadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, kasbiy-amaliy tayyorgarlikni rivojlantirish jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

- kompetensiyaviy yondashuv;
- faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim;
- integrativ yondashuv.

Kompetensiyaviy yondashuv talabalarning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan [7].

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida pedagogik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

- amaliy mashg‘ulotlarning samarali tashkil etilishi;
- innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- pedagogik amaliyot jarayonini takomillashtirish.

Mazkur omillar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Olib borilgan nazariy tahlillar hamda ilmiy-pedagogik manbalarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, jismoniy mashqlarni metodik jihatdan to‘g‘ri o‘rgatish hamda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini boshqarish ko‘nikmalarini egallash bilan uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni kompleks pedagogik yondashuv asosida tashkil etilishi zarur. Bunda nazariy bilimlar, metodik tayyorgarlik va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim metodlaridan foydalanish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlarning mazmunini takomillashtirish, pedagogik amaliyotni

samarali tashkil etish hamda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur. Mazkur jarayon talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga, ularning pedagogik mahoratini rivojlantirishga hamda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish bo‘yicha zarur metodik ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari aniqlab berildi:

- jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodik tizimni takomillashtirish;
- nazariy ta’lim va amaliy mashg‘ulotlar integratsiyasini ta’minlash;
- innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda interfaol o‘qitish metodlarini keng joriy etish;
- talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqish.

Shu bilan birga, jismoniy madaniyat yo‘nalishida mutaxassis tayyorlash jarayonida pedagogik amaliyotning mazmunini boyitish, amaliy mashg‘ulotlarni real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirish hamda talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuv darajasini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish jismoniy tarbiya tizimida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishga, yosh avlodning jismoniy rivojlanishini ta’minlashga hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2017.

4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – Москва: Спорт, 2016.

5. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. – Москва, 2017.

6. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. – Москва, 2018.

7. Бальсевич В.К. Физическая культура: теория и методика. – Москва, 2015.

8. Лях В.И. Физическое воспитание школьников. – Москва, 2016.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INFORMATIKA TA’LIMI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR KONTEKSTIDA, SAMR MODELI ASOSIDA KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.056

Jo‘rayev Muzaffarjon Mansurjonovich
*Qo‘qon davlat unversiteti professori v.b. (*PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada informatika ta’limi jarayonida bo‘lajak va faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) pedagogik modelining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali o‘qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. SAMR modelining har bir darajasi informatika fanini o‘qitish jarayonida qo‘llash misolida yoritilib, ularning kasbiy faoliyatni transformatsiyalashdagi didaktik imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘z va tushunchalar: kasbiy tayyorgarlik, SAMR modeli, informatika ta’limi, raqamli texnologiyalar, pedagogik modellar, raqamli kompetensiya.

Аннотация.В данной статье рассматривается роль и значение педагогической модели SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) в развитии профессиональной подготовки будущих и действующих преподавателей информатики. В исследовании научно обоснованы возможности поэтапной интеграции цифровых технологий в образовательный процесс как средства формирования цифрово-педагогических компетенций учителя. На примере преподавания информатики раскрывается содержание каждого уровня модели SAMR и определяются их дидактические возможности в трансформации педагогической деятельности. Результаты исследования могут быть использованы при совершенствовании подготовки педагогических кадров в условиях цифровой образовательной среды.

Ключевые слова и понятия: профессиональная подготовка, модель SAMR, обучение информатике, цифровые технологии, педагогические модели, цифровая компетентность.

Annotation. This article examines the role and significance of the SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) pedagogical model in developing the professional training of pre-service and in-service computer science teachers. The study provides a scientific justification for the gradual integration of digital technologies into the educational process as a means of forming teachers’ digital and pedagogical competencies. Each level of

the SAMR model is analyzed within the context of computer science education, and its didactic potential in transforming pedagogical practice is identified. The findings of the study contribute to improving the quality of teacher training in a digital learning environment.

Keywords and concepts: professional training, SAMR model, computer science education, digital technologies, pedagogical models, digital competence.

Kirish Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida, xususan informatika ta’limida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi didaktik yondashuvlar, pedagogik modellar va raqamli vositalarni integratsiya qilishni talab etadi. Bu holat informatika fani o‘qituvchisining nafaqat fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini, balki raqamli pedagogik kompetensiyalarini ham izchil rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini xalqaro talablar asosida rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur konsepsiyada ta’lim jarayonining innovatsion shakllarini joriy etish, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash salohiyatini oshirish strategik yo‘nalish sifatida qayd etilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjat informatika ta’limida raqamli texnologiyalarni samarali integratsiya qilish va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini transformatsion modellar asosida rivojlantirish zaruratini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab beradi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘pincha an’anaviy o‘qitish usullarini shunchaki texnik vositalar bilan almashtirish darajasida qolib ketayotgani kuzatiladi. Natijada, raqamli vositalar ta’lim sifatini oshirishga emas, balki mavjud pedagogik amaliyotlarni takrorlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mazmunli va bosqichma-bosqich integratsiya qilishni ta’minlovchi pedagogik modellarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday modellardan biri — SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) modeli bo‘lib, u raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning sifat jihatdan yangi bosqichlarini aniqlab beradi.

SAMR modeli informatika ta’limida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini tizimli tahlil qilish, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajalarini aniqlash hamda pedagogik faoliyatni transformatsiyalash imkonini beradi. Mazkur model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘qituvchining didaktik qarashlarini yangilash, o‘quv faoliyatini qayta loyihalash, ijodiy va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, informatika fanini o‘qitishda SAMR modelining yuqori bosqichlari — Modification va Redefinition darajalari o‘quv jarayonini an’anaviy chegaralardan chiqargan holda, raqamli muhitda yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqotda informatika ta’limida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida SAMR modelining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslash maqsad qilib qo‘yildi. Tadqiqot doirasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajalari, ularning kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga ta’siri hamda ta’lim jarayonini transformatsiyalashdagi roli tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish masalasi zamonaviy pedagogika tadqiqotlarida katta e’tibor qozonmoqda. Bu jarayonda ko‘plab texnologik integratsiya modellari taklif qilingan bo‘lsa-da, SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) modeli eng keng qo‘llaniladigan yondashuvlardan biri sifatida ajralib turadi.

SAMR modeli 2006-yilda Ruben R. Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga qo‘llashning to‘rt bosqichli strukturali tizimini tavsiflaydi: Almashtirish (Substitution), Kengaytirish (Augmentation), O‘zgartirish (Modification) va Qayta aniqlash (Redefinition). Modelning pastki ikki bosqichi — Almashtirish va Kengaytirish — texnologiyani an’anaviy usullarni o‘zgartirmay, funksional yaxshilanish uchun qo‘llashga yo‘naltirilgan, yuqori bosqichlar — O‘zgartirish va Qayta aniqlash esa o‘quv faoliyatini mazmunan yangilash va ilg‘or pedagogik imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Tahliliy tadqiqotlarda SAMR modeli nafaqat texnologik vositalarni tasniflash vositasi, balki pedagoglar uchun murakkab didaktik qarorlar qabul qilish yo‘nalishidagi strategik asos sifatida ham ko‘riladi. Masalan, Zamri va Hamadning sharhlovchi tahlilida SAMR modeli ta’lim jarayonida turli darajadagi integratsiya strategiyalarini belgilab beradi va uning afzalliklari hamda cheklovlarini yoritadi. Shuningdek, turli empirik tadqiqotlar SAMR modelining integratsiya jarayonini yoritishda uning pedagogik nazariy asosini kuchaytirish hamda o‘quv natijalariga ta’sirini baholash imkonini berganini ko‘rsatadi.

Shuni ta’kidlash joizki, SAMR modeli bilan bog‘liq ilmiy maqolalar soni jahon miqyosida keng bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi aniq kontekst va metodologiyaga yo‘naltirilgan amaliy tadqiqotlar hisoblanadi. Ba’zi tadqiqotlarda modelning yuqori bosqichlarida texnologiyalar yordamida yaratilgan o‘quv faoliyati an’anaviy faoliyatdan sezilarli darajada farq qilgani qayd etilgan, bu esa o‘quvchilarning faolligi va natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Biroq ayrim olimlar SAMR modelining cheklovlarini ham e’tirof etadi, xususan uning kontekstga moslashuvchan emasligi, giyohvandlik strukturaga tayanishi va faqat texnologiya mahsulotini o‘zgartirishga urg‘u berishi mumkinligi muhokama qilinadi. Shu bois, so‘nggi yillarda SAMR modelini boshqa pedagogik yondashuvlar bilan integratsiya qilish yoki uni turli ta’lim kontekstlariga moslashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ham faol olib borilmoqda.

Quyidagi jadvalda SAMR modeli bo‘yicha asosiy xalqaro tadqiqotlar, ularning yillari, tadqiqot yo‘nalishi va asosiy ilmiy xulosalari tizimli ravishda keltirilgan.

SAMR modeli bo‘yicha asosiy xalqaro tadqiqotlar tahlili

Muallif(lar)	Tadqiqot yo‘nalishi	Asosiy ilmiy topilmalar

il			
R. R. Puentedura	006	Texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish modeli	SAMR modeli ishlab chiqildi; texnologiyadan foydalanishning bosqichma-bosqich rivojlanish darajalari aniqlandi [7].
Hamilton, Rosenberg, Akcaoglu	016	Ta’limda texnologik integratsiya nazariyasi	SAMR modeli texnologik emas, balki pedagogik transformatsiyani baholash vositasi ekanligi asoslandi [4].
Schrock	013	O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi	SAMR modeli o‘qituvchilarning dars dizaynini qayta qurishda samarali metodik vosita ekanligi ko‘rsatildi [10].
Kimmons, Hall	018	Raqamli pedagogika va dizayn	SAMR modelining yuqori bosqichlari ijodiy va muammoli o‘qitishni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan [5].
Zamri, Hamad	021	Texnologik integratsiya bo‘yicha sharhlovchi tadqiqot	SAMR modelining afzalliklari va cheklovlari tizimli tahlil qilingan; kontekstga moslashtirish zarurligi ta’kidlangan [12].
Tondeur et al.	017	O‘qituvchilar tayyorlashda raqamli modellar	SAMR modeli o‘qituvchilar tayyorlashda reflektiv va bosqichli yondashuvni ta’minlashi aniqlangan [11].
Bond et al.	020	Raqamli ta’lim samaradorligi	SAMR modelining Modification va Redefinition bosqichlari o‘quvchilar faolligi va natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan [3].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, SAMR modeli raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi va u o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini transformatsiyalashda konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini informatika ta’limi va raqamli texnologiyalar sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini transformatsion pedagogik model asosida rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ilmiy yondashuvlar majmui tashkil etadi. Tadqiqotda kasbiy tayyorgarlik faqat predmet bilimlari yoki texnik ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki pedagogning raqamli ta’lim muhitida texnologiyalarni didaktik maqsadga muvofiq integratsiya qila olish, innovatsion fikrlashni namoyon etish hamda o‘quv jarayonini transformatsiya qilishga tayyorligi bilan belgilanadigan integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilindi. Shu bois metodologik poydevor texnologik integratsiya nazariyalari, kompetensiyaviy yondashuv hamda transformatsion ta’lim modellariga tayangan holda qurildi.

Tadqiqot metodologiyasida SAMR modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning konseptual mexanizmi sifatida qabul qilindi. Mazkur model raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali o‘quv faoliyatini transformatsiya qilish imkonini beradi [8]. Shu jihatdan kasbiy tayyorgarlik an’anaviy metodlardan raqamli muhitda yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratishga qadar bo‘lgan evolyutsion jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. SAMR modeli metodologik jihatdan pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish emas, balki uning strukturaviy va funksional qayta loyihalanishini nazarda tutadi.

Metodologik tahlilda kasbiy tayyorgarlik informatika o‘qituvchisining texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlari integratsiyasi nuqtayi nazaridan izohlandi. Bu jarayon TPACK konsepsiyasi bilan metodologik uyg‘unlikda talqin etildi [6]. Ushbu yondashuv informatika o‘qituvchisining raqamli vositalarni qo‘llashi ularning didaktik maqsadga mosligi, pedagogik strategiyalar bilan uyg‘unligi va mazmunni chuqur anglash darajasi bilan belgilanadi, degan g‘oyaga asoslanadi. Natijada SAMR modeli asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish texnologik vositalarni oddiy qo‘llash emas, balki pedagogik faoliyatni qayta dizaynlash jarayoni sifatida metodologik asoslandi.

Shuningdek, tadqiqotda konstruktivistik yondashuv muhim metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi (bo‘lajak pedagog) bilimni faol jarayonda, muammoli vaziyatlar va hamkorlik asosida egallaydi. SAMR modelining yuqori bosqichlari – Modification va Redefinition – aynan o‘quv faoliyatini muammoli-loyihaviy va kollaborativ xarakterga o‘tkazishni talab qiladi. Shu orqali kasbiy tayyorgarlik innovatsion, ijodiy va refleksiv faoliyat asosida shakllanishi metodologik jihatdan asoslandi.

Aksiologik yondashuv tadqiqotda raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayonini faqat texnik modernizatsiya emas, balki pedagogik qadriyatlar bilan uyg‘un jarayon sifatida talqin qilish imkonini berdi. Raqamli vositalar samaradorligi ularning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, SAMR modeli asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish pedagogik maqsad va qadriyatlar bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarurligi metodologik jihatdan asoslandi.

Refleksiv yondashuv esa kasbiy tayyorgarlikni dinamik va uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida talqin etishga imkon berdi. Raqamli texnologiyalar tezkor o‘zgarib borayotgan sharoitda informatika o‘qituvchisining o‘z pedagogik amaliyotini tahlil qilish, raqamli vositalarning samaradorligini baholash va ularni qayta loyihalashga tayyorligi muhim omil sifatida qaraldi. Shu asosda refleksiya kasbiy tayyorgarlikning barqarorligini ta’minlovchi ichki mexanizm sifatida talqin qilindi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotning metodologik asoslari informatika ta’limida SAMR modeli asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishni pedagogik jarayonning transformatsion mexanizmi sifatida kompleks va tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu metodologik yondashuv kasbiy tayyorgarlikni raqamli ta’lim muhitida innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik darajasi sifatida ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlillar SAMR modeli asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni informatika yo‘nalishidagi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda transformatsion ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni oddiy substitutsiya darajasida qo‘llash kasbiy kompetensiyalar rivojiga cheklangan ta’sir ko‘rsatsa, modifikatsiya va redefinitsiya bosqichlarida esa sifat jihatidan sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Bu holat Puentedura tomonidan ta’kidlanganidek, texnologiya integratsiyasining yuqori darajalari o‘quv faoliyatining strukturaviy qayta loyihalanishiga olib kelishini tasdiqlaydi [8].

Boshlang‘ich diagnostika natijalari nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida kasbiy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi ($p > 0.05$). Biroq tajriba yakunida tajriba guruhida texnologik-pedagogik integratsiya darajasi sezilarli oshgani aniqlandi ($p < 0.05$). Xususan, talabalar tomonidan ishlab chiqilgan raqamli o‘quv loyihalari va interaktiv dasturiy mahsulotlarda pedagogik dizayn sifati, hamkorlik darajasi hamda innovatsion yondashuv ko‘rsatkichlari yuqoriligi qayd etildi. Bu natijalar TPACK modeli doirasida texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning uyg‘unlashuvi kasbiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlovchi tadqiqotlar bilan mos keladi [6].

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, Substitution va Augmentation bosqichlarida talabalar asosan raqamli vositalardan funksional qo‘llab-quvvatlovchi instrument sifatida foydalangan bo‘lsa, Modification bosqichidan boshlab o‘quv topshiriqlari tuzilmasi o‘zgardi, kollaborativ muhit shakllandi va loyiha asosida ishlash faollashdi. Redefinition bosqichida esa ilgari amalga oshirib bo‘lmaydigan pedagogik vazifalar – masalan, bulutli platformalarda jamoaviy dasturlash, onlayn muammoli vaziyatlarni modellashtirish va xalqaro virtual hamkorlik elementlari – muvaffaqiyatli joriy etildi. Bu bosqich Bloom taksonomiyasining yuqori kognitiv darajalari – tahlil, baholash va yaratish – bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘ldi [2].

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, SAMR modelining yuqori bosqichlari talabalar orasida tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Bu ko‘rsatkichlar raqamli texnologiyalarni transformatsion darajada qo‘llash o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishini ko‘rsatuvchi xalqaro tadqiqotlar bilan uyg‘unlikda [4].

Shuningdek, tajriba guruhi ishtirokchilarida refleksiv ko‘nikmalar rivojlanishi kuzatildi. Talabalar o‘z dars ishlanmalarini raqamli muhitda qayta tahlil qilish, samaradorlikni baholash va takomillashtirishga intilish ko‘rsatkichlarini namoyon etdilar. Bu holat raqamli pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda refleksiyaning muhim o‘rin tutishini ta’kidlovchi ilmiy qarashlar bilan mos keladi [9].

Umuman olganda, natijalar SAMR modeli asosida tashkil etilgan informatika ta’limi jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda an’anaviy raqamli qo‘llashdan farqli ravishda chuqur pedagogik transformatsiyani ta’minlashini ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalarni didaktik qayta loyihalash vositasi sifatida qo‘llash kasbiy kompetensiyalarning barqaror va integrativ rivojlanishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot informatika ta’limi va raqamli texnologiyalar sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini SAMR modeli asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va amaliy samaradorligini tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligi ularning qo‘llanish darajasi va didaktik qayta loyihalash imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli vositalarni faqat substitutsiya yoki funksional takomillashtirish darajasida qo‘llash kasbiy kompetensiyalarning cheklangan rivojlanishiga olib keladi. Biroq SAMR modelining modifikatsiya va redefinitsiya bosqichlari asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining texnologik-pedagogik integratsiya ko‘nikmalarini, innovatsion fikrlashini, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini hamda refleksiv faoliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa kasbiy tayyorgarlikni statik bilimlar majmui emas, balki transformatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik sifatida talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari SAMR modeli TPACK konsepsiyasi bilan metodologik uyg‘unlikda qo‘llanganda informatika ta’limida kasbiy tayyorgarlikni tizimli ravishda rivojlantirish imkonini berishini ko‘rsatdi. Texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning integratsiyasi o‘quv jarayonini raqamli muhitda qayta dizaynlashga sharoit yaratadi hamda o‘qituvchining raqamli pedagogik kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, informatika ta’limida SAMR modeli asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish an’anaviy texnologik qo‘llashdan farqli ravishda pedagogik jarayonning strukturaviy transformatsiyasini ta’minlaydi. Mazkur yondashuv o‘quv faoliyatining innovatsion shakllarini joriy etish, hamkorlikdagi raqamli muhitni yaratish hamda yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni faollashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim tizimida SAMR modeli asosida o‘quv dasturlarini qayta loyihalash, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda informatika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida mazkur modelni boshqa fanlar kontekstida sinovdan o‘tkazish va uzoq muddatli ta’sirini aniqlash istiqbolli yo‘nalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. Longman.

3. Bond, M., Buntins, K., Bedenlier, S., Zawacki-Richter, O., & Kerres, M. (2020). Mapping research in student engagement and educational technology in higher education: A

systematic evidence map. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 17(1), 1–30. https://doi.org/10.1186/s41239-019-0176-8

4. Hamilton, E. R., Rosenberg, J. M., & Akcaoglu, M. (2016). The substitution augmentation modification redefinition (SAMR) model: A critical review and suggestions for its use. Computers & Education, 95, 433–441. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2016.02.008

5. Kimmons, R., & Hall, C. (2018). How useful are our models? Pre-service and practicing teacher evaluations of technology integration models. TechTrends, 62(1), 29–36. https://doi.org/10.1007/s11528-017-0210-x

6. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

7. Puentedura, R. R. (2006). Transformation, technology, and education. [Conference presentation].

8. Puentedura, R. R. (2013). SAMR: A contextualized introduction. http://www.hippasus.com

9. Redecker, C. (2017). European framework for the digital competence of educators (DigCompEdu). Publications Office of the European Union.

10. Schrock, K. (2013). SAMR and Bloom’s taxonomy: Assembling the puzzle.

11. Tondeur, J., Aesaert, K., Prestridge, S., & Consuegra, E. (2017). A multilevel analysis of what matters in the training of pre-service teacher’s ICT competencies. Computers & Education, 122, 32–42. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2018.03.002

12. Zamri, M., & Hamad, M. (2021). Technology integration in education: A review of SAMR model and its implications. Journal of Educational Technology Studies, 14(2), 45–58.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

YUQORI SINFLARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINING MAZMUNI, TAMOYILLARI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.057

Xamidov Amin Abdulloevich
T.N.Qori-Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning nazariy asoslari tizimlashtiriladi hamda uning mazmuni, tamoyillari va tarkibiy komponentlari pedagogik nuqtai nazardan asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi - yuqori sinflarda vatanparvarlik tarbiyasining mazmuniy bloklari (bilim, qadriyat-munosabat va xulq-atvor), amaliy tamoyillari (tizimlilik, uzluksizlik, subyektivlik, ijtimoiy hamkorlik, mustahkamlash) hamda maktab muhitida amalga oshirish komponentlarini (maqsadli, mazmuniy, jarayoniy va baholash-refleksiv) integrativ model sifatida tavsiflashdir. Metodlar sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, ilmiy manbalarni qiyosiy umumlashtirish, konseptual modellashtirish va pedagogik dizayn yondashuvi qo‘llanildi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik tarbiyasi; yuqori sinflar; mazmun; tamoyillar; komponent; fuqarolik pozitsiyasi; milliy qadriyatlar; umuminsoniy qadriyatlar; ijtimoiy hamkorlik; indikator; monitoring; tarbiyaviy tizim.

Аннотация.В статье систематизируются теоретические основания патриотического воспитания учащихся старших классов общеобразовательной школы и обосновываются его содержание, принципы и структурные компоненты в контексте актуальных задач воспитательной работы. Цель исследования - представить патриотическое воспитание старшеклассников как интегративную педагогическую систему, включающую содержательные блоки (знания; ценности и отношения; поведенческие проявления), ключевые принципы (системность, непрерывность, субъектность учащегося, социальное партнёрство, закрепление результатов) и компоненты реализации (целевой, содержательный, процессуально-организационный, оценочно-рефлексивный). Применены методы анализа нормативных документов, сравнительно-теоретического обобщения научных источников, концептуального моделирования и элементов педагогического проектирования.

Ключевые слова: патриотическое воспитание; старшие классы; содержание; принципы; компоненты; гражданская позиция; национальные ценности; общечеловеческие ценности; социальное партнёрство; индикаторы; мониторинг; воспитательная система.

Abstract. This article systematizes the theoretical foundations of patriotic education in upper secondary school and substantiates its content, principles, and structural components as a coherent pedagogical system. The study aims to conceptualize patriotic education of senior students through (a) content blocks-knowledge, values/attitudes, and behavioral practices; (b) key pedagogical principles-systemic organization, continuity, learner subjectivity, social partnership, and reinforcement of achieved outcomes; and (c) implementation components-goal-setting, content design, process organization, and assessment/reflection. The research relies on analysis of normative documents, comparative review and synthesis of academic literature, as well as conceptual modeling and elements of instructional design.

Keywords: patriotic education; upper secondary; content; principles; components; civic stance; national values; universal values; social partnership; indicators; monitoring; school education system.

KIRISH. Respublikamizda vatanparvarlik tarbiyasiga doir muammo ikki yo‘nalishda dolzarb xisoblandi: birinchidan, ta’lim va tarbiyada milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un singdirish talabi; ikkinchidan, tarbiya natijasini indikatorlar va monitoring orqali baholashga ehtiyojning kuchayishi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim va tarbiyaga “milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi”, shuningdek, insonparvarlik va demokratik xususiyatlar ta’lim siyosatining muhim prinsiplari sifatida qayd etiladi. Bu prinsiplar vatanparvarlik tarbiyasini mazmunan boyitish (faqat deklarativ shiorlar emas, balki qadriyat, huquqiy madaniyat, hamkorlik va mas’uliyatni shakllantirish) zarurligini anglatadi.

Tadqiqot dolzarbligi shundan iboratki, amaliyotda vatanparvarlik tarbiyasi ko‘pincha alohida tadbirlar, bayramlar yoki “bir martalik” aksiyalar bilan cheklanib qoladi; o‘quv fanlari mazmuni, sinfdan tashqari faoliyat, oila va mahalla hamkorligi o‘rtasidagi integratsiya esa yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Shu sababli maqolaning maqsadi — yuqori sinflarda vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, tamoyillari va tarkibiy komponentlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda maktab amaliyoti uchun konseptual model taklif etishdir.

Tatqiqot vazifalari: [1] vatanparvarlik tarbiyasining mazmuniy bloklarini ajratish; [2] tamoyillarni normativ va ilmiy manbalar asosida tizimlashtirish; [3] tarkibiy komponentlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini model ko‘rinishida tavsiflash; [4] natijadorlikni baholash uchun indikator yo‘nalishlarini ko‘rsatish. 1

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Yuqori sinflarda vatanparvarlik tarbiyasi muammosi pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar kesishmasida joylashgan. Rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan o‘smirlik va ilk yoshlik davri identifikatsiya, qadriyatlar tanlovi, ijtimoiy guruhga mansublik hamda “ijtimoiy rol”larni sinab ko‘rish bilan bog‘liq.

Tarbiyaning mazmuniy tuzilmasini konseptuallashtirishda xalqaro pedagogik yondashuvlar ham muhim. ЮНЕСКО global fuqarolik ta’limi (GCED) doirasida o‘qitish natijalarini uch rivojlanish sohasi orqali ko‘rsatadi: kognitiv (bilim va tafakkur ko‘nikmalari), ijtimoiy-emotsional (qadriyatlar, munosabat va ijtimoiy ko‘nikmalar), xulqiy (amaliy qo‘llash,

ishtirok va xatti-harakat). [5] Ushbu “uch rivojlanish sohasi ” modeli vatanparvarlik tarbiyasining tarkibiy komponentlarini aniqlashda metodologik moslashuvchan asos bo‘la oladi: vatanparvarlik ham bilim (tarix, huquq, davlat timsollari), emotsional-qiymat (muhabbat, sadoqat, faxr, hamdardlik), hamda xulqiy-amaliy (foydali ishtirok, intizom, qonuniylikka rioya, ijtimoiy mas’uliyat) o‘lchovlarda namoyon bo‘ladi. [5]

O‘zbekiston normativ xujjatlarda tarbiyaviy yo‘nalishlar “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” orqali tizimlashtirilgan bo‘lib, unda yoshlarning tayanch fazilatlari qatorida “Vatanga sadoqat”, huquqiy madaniyat, mas’uliyat, tolerantlik, mehnatsevarlik, innovatsion fikrlash kabi yo‘nalishlar belgilangan. [1] Konsepsiyada ta’lim dasturlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali mazkur kompetensiyalarni singdirish, amaliy mashq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish zarurligi ko‘rsatiladi. [1] Shuningdek, Konstitutsiyada Vatan himoyasi fuqarolarning burchi ekanligi mustahkamlangan bo‘lib, bu norma vatanparvarlik tarbiyasining huquqiy-axloqiy negizini belgilaydi. 6

Metodlar

Tadqiqotda normative huquqiy hujjatlar tahlili (ta’lim prinsiplari va ma’naviy tarbiya yo‘nalishlari), ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil va umumlashtirish, konseptual modellashtirish hamda pedagogik dizayn elementlari qo‘llandi. [2]

Natijalar va muhokama

Yuqori sinflarda vatanparvarlik tarbiyasi mazmunini “shaxsda Vatanga sadoqat va mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi bilim–qadriyat–amal” integratsiyasi sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da aynan Vatanga sadoqat, huquqiy madaniyat, tolerantlik, mas’uliyat kabi fazilatlar tarbiyaning **asosiy kompetensiyalari** sifatida ko‘rsatilgani mazmuniy yo‘nalishlarni aniqlashtiradi. [1] Mazmunni uch blokda tizimlashtirish mumkin (GCEDning uch rivojlanish sohasi i bilan metodologik uyg‘unlikda):

Kognitiv blok - davlat va jamiyat haqidagi fundamental bilimlar: Konstitutsiyaviy normalar, fuqarolik burchlari (jumladan Vatan himoyasi), tarixiy xotira va madaniy meros, davlat ramzlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyati. 6

Ijtimoiy-emotsional (qadriyat-munosabat) blok - Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat, jamiyatga daxldorlik tuyg‘usi, bag‘rikenglik va hamjihatlik, “men - fuqaroman” identitetini qo‘llab-quvvatlovchi ijobiy munosabatlar.

Xulqiy-amaliy blok - foydali ijtimoiy ishtirok, ijtimoiy loyihalarda qatnashish, intizom va qonuniylik me’yorlariga rioya, ijtimoiy foydali mehnat, volontyorlik, maktab–oila–mahalla hamkorligidagi tashabbuslarni amalga oshirish.

Bu mazmuniy uchlik yuqori sinf yoshining rivojlanish vazifalariga mos: o‘quvchi o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida ko‘rishga intiladi, tengdoshlar jamoasida o‘rni va qadriyatlarini aniqlaydi (UNICEF ham o‘smirlik davrida “jamiyatda o‘z o‘rnini topish” va “dunyoga ta’sir ko‘rsatish” motivlari kuchayishini ko‘rsatadi). [7]

Vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etish tamoyillari uch qatlamli asosga tayanadi:

a) ta’lim siyosatining umumiy prinsiplari;

b) ma’naviy tarbiya konsepsiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar;

c) tarbiyaviy tizimni modellashtirishga oid ilmiy yondashuvlar.

Birinchidan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishi, insonparvarlik demokratik xususiyati, uzluksizlik va izchillik prinsip sifatida belgilangan. Shu prinsiplar vatanparvarlik tarbiyasini tor doirada emas, balki inson qadr qimmati, huquqiy madaniyat, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un tarbiya yo‘nalishi sifatida qurishni talab qiladi.

Ikkinchidan, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” amaliyotga yo‘naltirilgan tamoyillarni kuchaytiradi: tarbiyani indikatorlar bilan boyitilgan metodik ta’minot orqali olib borish, sotsiologik so‘rovlar va baholash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, tarbiyaviy mavzularni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham qo‘llab-quvvatlash kabilar.

Uchinchidan, ushbu tadqiqoti asosida vatanparvarlik tarbiyasi uchun quyidagi maxsus pedagogik tamoyillarni ajratish maqsadga muvofiq (maktab sharoitiga moslashtirilgan): subyektivlik (o‘quvchi tarbiya obyekti emas, subyekti), tizimlilik va yaxlitlik (dars–tadbir–muhit birligi), uzluksizlik (bosqichma-bosqich rivojlantirish), mustaqillik va faollik (tashabbus va mas’uliyat), natijani mustahkamlash (qadriyatni xulqqa aylantirish), ijtimoiy hamkorlik (oila, mahalla, jamoatchilik bilan sheriklik).

Tarkibiy komponentlar va integrativ model

Yuqori sinflarda vatanparvarlik tarbiyasining “tarkibiy komponentlari”ni maktab tarbiyaviy tizimining ichki tuzilmasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Bu yerda modelni 4 komponentda berish metodik jihatdan qulay:

Maqsadli komponent. Maqsad - o‘quvchida Vatanga sadoqat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish; vazifalar - (a) fuqarolik-huquqiy ongni mustahkamlash, (b) ijtimoiy-emotsional qadriyatlarni rivojlantirish, (c) amaliy ijtimoiy ishtirok tajribasini tashkil etish. Mazkur maqsad Konstitutsiyada belgilangan fuqarolik burchlari (jumladan, Vatan himoyasi) bilan hamohang huquqiy asosga ega.

Mazmuniy komponent. Mazmun “bilim–qadriyat–xulq” bloklari orqali rejalashtiriladi va ta’lim-tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish prinsipi bilan muvofiqlashtiriladi.

Jarayoniy-tashkiliy komponent. Bu komponentda tarbiyaviy ishlar faqat sinfdan tashqari tadbirlar emas, balki o‘quv fanlari, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, qo‘shimcha ta’lim va ijtimoiy muhit integratsiyasi sifatida ko‘riladi. Konsepsiyada ijtimoiy-gumanitar fanlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini “ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish”, amaliy mashq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish zarurligi bevosita ko‘rsatilgan. Shuningdek, konsepsiya ta’lim muassasalarida o‘quvchi-talabalarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan zamonaviy tantanali marosimlarni joriy etishni ham nazarda tutadi. Jarayoniy komponentning muhim sharti - maktab–oila–mahalla hamkorligidir: konsepsiyada o‘qituvchilar, ota-onalar va mahalla mutaxassislari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari hamda tarbiyalash usullari bilan boyitilgan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish vazifasi qayd etilgan. 8 Bu, tarbiyani ijtimoiy

sheriklik asosida, “yopiq maktab doirasi” bilan cheklanmasdan tashkil etish zaruratini anglatadi.

Baholash-refleksiv komponent. Natijadorlikni baholash vatanparvarlikning uch o‘lchoviga mos indikatorlar orqali yuritiladi: kognitiv (bilim), ijtimoiy-emotsional (qadriyat va munosabat), xulqiy (ishtirok va xatti-harakat). Konsepsiyada tarbiya samaradorligini o‘rganish va baholash, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, indikatorlar asosida monitoring mexanizmlarini shakllantirish masalalari ham belgilangan.

Jadvaldan ko’rinadiki, vatanparvarlik tarbiyasi mazmunini “bilim–munosabat–amal” ko’rinishida rejalashtirish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish prinsipiga tayash hamda indikatorlar orqali monitoring qilish normativ va metodologik manbalarga mos keladi.

1-jadval.

Yuqori sinflarda vatanparvarlik tarbiyasining konspekt-model.

Blok mazmuni	Asosiy mazmun (namunalar)	Yetakchi tamoyillar	Maktab amaliy vositalari (namunalar)	Baholash indikatorlari (namunalar)
Kognitiv	Konstitutsiyaviy burchlar; Vatan himoyasi burchi; tarixiy xotira; davlat ramzlari	Tizimlilik; izchillik; ongli o‘zlashtirish	Ijtimoiy-gumanitar fanlarda keyslar, muammoli savollar, “pedagogik vaziyatlar”	Test/diagnostika; mavzuli esse; manbalar bilan ishlash
Ijtimoiy-emotsional	Vatanga sadoqat; daxldorlik; bag‘rikenglik; huquqiy madaniyat	Milliy+umuminsoniy qadriyatlar birligi; insonparvarlik; subyektivlik	Suhbatlar, munozaralar; qadriyatlar refleksiyasi; tarbiyaviy uchrashuvlar	Qadriyat so‘rovnomalari; kuzatuv; refleksiya kundaliklari
Xulqiy-amaliy	Ijtimoiy loyihalar; volontyorlik; jamoa ishlari; ramzlarga hurmat amaliyoti	Faollik; ijtimoiy hamkorlik; natijani mustahkamlash	“Zamonaviy tantanali marosimlar”, jamoatchilik bilan loyihalar, ota-ona/mahalla hamkorligi	Ishtirok portfeli; loyiha natijasi; intizom va mas’uliyat ko‘rsatkichlari

Muammoning muhokamali jihati shundaki, vatanparvarlik tarbiyasining amaliy natijalari ko’pincha “emotsional ko’tarinkilik” bosqichida qolib ketadi; shu sababli baholash-refleksiv komponent (monitoring, sotsiologik so’rovlar, portfel va kuzatuv) natijani xulqqa aylantirish mexanizmi sifatida qaralishi kerak. Konsepsiyada monitoring va baholash texnologiyalarini yaratish, natijalarni pedagogik kengashlarda muhokama qilish kabi yo’nalishlar aynan shu ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. [5,6]

Xulosa

Yuqori sinflarda vatanparvarlik tarbiyasi mazmunan kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulqiy-amaliy bloklar birligida qurilgandagina barqaror natija beradi; bu yondashuv xalqaro pedagogik konsepsiyalarda ko‘rsatilgan “uch rivojlanish sohasi ” (bilim–qadriyat–xulq) mantig‘i bilan mos keladi. O‘zbekiston sharoitida tarbiyaning normativ asoslari (ta’lim-tarbiyaga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, uzluksizlik, insonparvarlik) hamda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da belgilangan yadro kompetensiyalar (Vatanga

sadoqat, huquqiy madaniyat, mas’uliyat, tolerantlik) vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va tamoyillarini aniq belgilash imkonini beradi. Tarkibiy jihatdan vatanparvarlik tarbiyasi maqsadli, mazmuniy, jarayoniy-tashkiliy va baholash-refleksiv komponentlar asosida modellashtirilsa, u dars jarayoni, sinfdan tashqari faoliyat, oila va mahalla hamkorligi bilan integratsiyalashgan, indikatorlar orqali monitoring qilinadigan yaxlit tarbiyaviy tizimga aylanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 31.12.2019 dagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1059 son qarori.

2. Датский В.А. Патриотическое воспитание старшеклассников в образовательном процессе общеобразовательной школы: дисс. … канд. пед. наук: 13.00.01. — Майкоп, 2006. — 185 с.

3. Cabinet of Ministers Decree. “On approval of the Concept of continuous spiritual education and measures for its implementation”

4. UNESCO. What is Global Citizenship Education? Three domains: cognitive, socio-emotional, behavioural. (UNESCO. Definition of GCED and its three learning domains).

5. World Health Organization. Adolescent health: adolescence as ages 10–19; rapid physical, cognitive and psychosocial growth.

6. UNICEF. Adolescence (10–19): searching for belonging, making a difference; expanding social connections. Ragelienė T. Links of Adolescents Identity Development and Relationship Satisfaction: According to Erikson (1968) identity development is key developmental task in adolescence.

7. UNESCO. Global citizenship education: topics and learning objectives (pedagogical guidance).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INGLIZ TILINING GLOBALLASHUVI: IJTIMOIY-MADANIY VA PEDAGOGIK OQIBATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.058

Esirgapov Muhiddin Nizomiddinovich
Samarqand davlat chet tillari instituti
mustaqil tadqiqotchisi
Tel: +998990733543
Email: muhiddinesirgapov@gmail.com

Annotatsiya.Ingliz tilining globallashuvi XXI asrning asosiy lingvistik jarayonlaridan biridir. Ingliz tili xalqaro muloqot, akademik mobillik va raqamli kommunikatsiyani kengaytirish bilan birga, yangi lingvistik ierarxiyalar va ramziy tengsizliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu tadqiqot ingliz tilining globallashuvi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-madaniy va pedagogik oqibatlarni ko‘p tilli zamonaviy muhit doirasida tadqiq etishni maqsad qiladi. Tadqiqot global Englishes nazariyasi hamda tanqidiy sotsiolingvistika asosida sifatli konseptual-analitik metodologiyadan foydalanadi. Natijalar ingliz tilining bir tomondan madaniyatlararo muloqot vositasi, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy tabaqalanish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Tadqiqot barqaror til siyosati va pedagogik yondashuvlar kontekstga mos, tanqidiy asoslangan hamda qo‘shimcha ko‘p tillilik, madaniyatlararo kompetensiya va epistemik xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi lozimligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: ingliz tilining globallashuvi, sotsiolingvistika, lingvistik ierarxiya, ko‘p tilli ta’lim, madaniyatlararo kompetensiya, til mafkurasi, pedagogik transformatsiya

Abstract.The globalization of English represents one of the most important linguistic transformations of the twenty-first century. While English facilitates international communication, academic mobility, and digital connectivity, it generates new sociolinguistic hierarchies and symbolic inequalities at the same time. This study aims to explore the sociocultural and pedagogical implications of English globalization within contemporary multilingual contexts. The research applies a qualitative conceptual-analytical methodology grounded in global Englishes theory and critical sociolinguistics. The findings demonstrate that English functions both as a bridge of intercultural communication and as a mechanism of stratification influencing identity construction, access to knowledge, and educational opportunities. The study argues that sustainable language policy and pedagogy must adopt context-sensitive and critically informed approaches that facilitate additive multilingualism, intercultural competence, and epistemic diversity.

Keywords: English globalization, sociolinguistics, linguistic hierarchy, multilingual education, intercultural competence, language ideology, educational transformation

Аннотация.Глобализация английского языка является одним из наиболее значимых лингвистических процессов XXI века. Расширяя международную коммуникацию, академическую мобильность и цифровое взаимодействие, английский язык одновременно формирует новые социолингвистические иерархии и символические неравенства. Цель данного исследования — проанализировать социокультурные и педагогические последствия глобализации английского языка в условиях многоязычной среды. Работа основана на качественной концептуально-аналитической методологии, опирающейся на теорию Global Englishes и критическую социолингвистику. Результаты показывают, что английский язык функционирует как средство межкультурной коммуникации и одновременно как механизм социальной стратификации, влияющий на формирование идентичности и доступ к знаниям. Исследование обосновывает необходимость разработки контекстуально чувствительной и критически ориентированной языковой политики, поддерживающей аддитивное многоязычие, межкультурную компетенцию и эпистемическое разнообразие.

Ключевые слова: глобализация английского языка, социолингвистика, языковая иерархия, многоязычное образование, межкультурная компетенция, языковая идеология, педагогическая трансформация.

Kirish.Hozirgi zamon til manzarasi ingliz tilining global miqyosdagi ustunligi bilan belgilanadi; u XXI asr kommunikatsiyasining muhim belgilaridan biriga aylangan. So‘nggi o‘n yilliklar davomida ingliz tili tarixiy jihatdan muayyan milliy hudud bilan cheklangan til maqomidan chiqib, akademiya, savdo-sotiq, diplomatiya, fan, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli makonda faoliyat yurituvchi transmilliy muloqot infratuzilmasiga aylandi. Uning intensivlashuvi globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot sur’atlari va geosiyosiy kuchlar nisbatidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. David Crystal va Braj B. Kachru kabi olimlar bu hodisani global o‘zaro bog‘liqlikning tizimli natijasi sifatida talqin qilib, “World Englishes” konsepsiyasi hamda an’anaviy “ona til egasi” modelidan tashqariga chiqayotgan me’yoriy jihatdan xilma-xillikni ta’kidlaydilar.

Shu bilan birga, ingliz tilining dunyo bo‘ylab yoyilishi ilmiy doiralarda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar ingliz tilini madaniyatlararo muloqot va bilim almashinuvini osonlashtiruvchi amaliy lingua franca sifatida talqin qilsalar, boshqalar uning ustunligi ortida yotgan mafkuraviy va siyosiy omillarga tanqidiy yondashadilar. Xususan, Robert Phillipson ingliz tilining tarqalishi tengsiz kuch munosabatlarini mustahkamlashi va lingvistik imperializmni kuchaytirishi mumkinligi haqidagi g’oyalarni ilgari suradi. Funktsional yondashuv bilan tanqidiy pozitsiya o‘rtasidagi ushbu qarama-qarshilik ingliz tilining globallashuvi bir vaqtning o‘zida ham imkoniyat yaratuvchi resurs, ham ramziy tengsizlikni shakllantiruvchi omil bo‘lishi mumkinligini bildiradi.

Ingliz tilining kengayishi natijasida paydo bo‘lgan sotsiolingvistik oqibatlar masalan, identitet muzokarasi, lingvistik kapitalning taqsimlanishi va yangi ierarxiyalarning

shakllanishi ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, xususan, o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, kommunikativ kompetensiya modellari evolyutsiyasi hamda ingliz tilida ta’lim berish (EMI) amaliyoti ham alohida o‘rganilgan. Biroq bu ikki yo‘nalish ko‘pincha bir-biridan ayro holda tahlil qilinadi. Sotsiomadaniy transformatsiyalar, pedagogik moslashuv va axloqiy masalalarni yagona nazariy doirada birlashtiruvchi muvozanatli konseptual yondashuv haligacha yetarli darajada shakllanmagan. Ayniqsa, ingliz tilining ustunligi bir vaqtning o‘zida ijtimoiy tabaqalanishni qay holda o‘zgartirishi, ko‘p tilli jamiyatlarda ta’lim paradigmasini qayta belgilashi va til xilma-xilligini saqlash masalasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan.

Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ushbu tadqiqot ingliz tilining globallashuvini hokimiyat tuzilmalari, identitet konstruksiyasi va institutsional amaliyotlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘p o‘lchamli sotsio-ideologik jarayon sifatida konseptuallashtiradi. Ingliz tili nafaqat neytral aloqa vositasi sifatida, balki global integratsiyani ta’minlovchi ko‘prik hamda bilim va ta’lim imkoniyatlariga kirish imkonini belgilovchi mexanizm sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy ko‘p tilli muhitlarda ingliz tilining globallashuviga turtki bo‘layotgan sotsiomadaniy va pedagogik oqibatlarni baholash hamda ushbu o‘lchamlarning o‘zaro kesishuv nuqtalarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot uchta asosiy savolga javob izlaydi. Birinchidan, ingliz tilining globallashuvi turli jamiyatlarda sotsiolingvistik ierarxiyalar va identitet konstruksiyalarini qay holda qayta shakllantirmoqda? Ikkinchidan, global ingliz tilining real qo‘llanish sharoitlarini hisobga olgan holda pedagogik paradigmalarda qanday transformatsiyalar zarur? Uchinchidan, ta’lim tizimlari global integratsiya talablarini ko‘p tillilik barqarorligi va lingvistik adolat tamoyillari bilan qanday balanslashtirilishi mumkin? Ushbu savollarni tahlil qilish orqali maqola ingliz tilini shunchaki lingvistik tarqalish hodisasi sifatida emas, balki ijtimoiy tuzilma, ta’lim islohoti va axloqiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq global fenomen sifatida yanada yaxlit va tanqidiy anglashga hissa qo‘shishni maqsad qiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot ingliz tilining globallashuvini sotsiolingvistik nazariya hamda ta’lim diskursi tahlili bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan sifatli konseptual-analitik yondashuvga tayanadi. Mazkur hodisaning ko‘p qatlamli xarakterini inobatga olgan holda, tadqiqot lingvistik, sotsiomadaniy, pedagogik va mafkuraviy o‘lchamlarni yaxlit tahliliy tizim doirasida ko‘rib chiqishga imkon beruvchi fanlararo metodologiyani qo‘llaydi. Miqdoriy o‘lchovlardan ko‘ra, nazariy umumlashtirish, tanqidiy talqin va mavjud ilmiy qarashlarni tizimli qiyoslash ustuvor ahamiyatga ega. (Jenkins, 2014; Seidlhofer, 2011).

Tadqiqotning nazariy poydevori Global Englishes yondashuvi, lingua franca muloqot modellari, til mafkurasi bo‘yicha tanqidiy nazariya hamda ko‘p tilli ta’lim konsepsiyalariga asoslanadi. Jumladan, Alastair Pennycook tomonidan ilgari surilgan tilni ijtimoiy amaliyot va transmadaniy oqimlar bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qilish yondashuvi ingliz tilining kengayishidagi mafkuraviy qatlamlarni anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, Barbara Seidlhofer ning English as a Lingua Franca (ELF) bo‘yicha tadqiqotlari an’anaviy “ona til

egasi” me’yorlariga tanqidiy yondashib, ko‘p tilli muhitda kommunikativ samaradorlikni asosiy mezon sifatida ilgari suradi. Mazkur nazariy yo‘nalishlar ingliz tilini qat’iy qoidalar tizimi emas, balki global kuch munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq dinamik sotsio-ideologik resurs sifatida konseptuallashtirish imkonini beradi.

Tahlil jarayoni bir biri bilan bog‘liq uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich —sotsiomadaniy tahlil ingliz tilining globallashuvi identitet shakllanishiga, lingvistik kapital to‘planishiga va yangi ierarxiyalarning paydo bo‘lishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Bu bosqichda til kompetensiyasi bilan ijtimoiy mobillik, akademik ishtirok hamda ramziy legitimlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq qilinadi. Ikkinchi bosqich — pedagogik tahlil, ya’ni global ingliz tilidan foydalanishning o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, kommunikativ kompetensiya modellari, o‘qituvchi identiteti va baholash amaliyotlariga ta’sirini, ayniqsa ko‘p tilli ta’lim muhitida, baholaydi. Bu yerda “ona til egasi”ga yo‘naltirilgan standartlar bilan tushunarlilikka asoslangan kommunikativ yondashuv o‘rtasidagi qarama qarshilikga alohida e’tibor qaratiladi. Uchinchi bosqich— normativ-axloqiy tahlil, bunda ingliz tilining ustunligi qo‘shimcha ko‘p tillilik (additive multilingualism), epistemik xilma-xillik va til barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rib chiqadi. Bu bosqich ta’lim tizimlari global integratsiya talablarini mahalliy til resurslarini saqlash bilan qanday uyg‘unlashtirishi mumkinligini muhokama qiladi.

Tahlil uchun muhim materiallar sifatida ingliz tilida ta’lim berish (EMI) bo‘yicha zamonaviy akademik diskurs, English as a Lingua Franca (ELF) muloqot amaliyotlari hamda ko‘p tilli til siyosati konsepsiyalari ajratib olindi. Ular mavzuli sintez va tanqidiy diskurs tahlili asosida o‘rganildi. Qo‘shimcha manbalar sifatida til mafkurasi, globallashuv va ko‘p tilli pedagogika masalalarini yorituvchi taqrizdan o‘tgan sotsiolingvistik hamda ta’limga oid ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Nazariy qarashlarni siyosiy-huquqiy hujjatlar va ta’lim jarayoni bilan qiyoslash orqali metodologiya konseptual yaxlitlik va tahliliy chuqurlikni ta’minlaydi.

Mazkur integrativ sifatli yondashuv orqali tadqiqot ingliz tilining globallashuvini bir paytning o‘zida tuzilmaviy, institutsional va individual darajalarda namoyon bo‘ladigan sotsio-ta’limiy fenomen sifatida yaxlit talqin qilishni maqsad qiladi. Shunday qilib, tanlangan metodologik dizayn maqolaning sotsiolingvistik tanqid va pedagogik transformatsiyani yagona tahliliy maydonda birlashtirishga yo‘naltirilgan umumiy maqsadi bilan uyg‘unlashadi.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili global sotsiolingvistik tizimda bir vaqtning o‘zida ham kommunikativ infratuzilma, ham ramziy kapital shakli sifatida namoyon bo‘ladi. (Crystal, 2003). Zamonaviy ko‘p tilli jamiyatlarda ingliz tilini mukammal bilish oliy ta’limga kirish, xalqaro mobillik, kasbiy yuksalish hamda transmilliy bilim tarmoqlarida ishtirok etish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois ingliz tili oddiy muloqot vositasi emas, balki ijtimoiy tabaqalanish sharoitida “saralovchi mexanizm” vazifasini o‘taydi. Ingliz tilini egallash darajasi ko‘pincha global akademik va iqtisodiy maydonga kirish imkonini belgilab, ijtimoiy farqlanish jarayonlarini mustahkamlaydi.

Mazkur tizimli dinamika yangi lingvistik ierarxiyalarning shakllanishiga turtki bo‘ladi. Ingliz tilini yuqori darajada egallagan shaxslar ramziy legitimlik va iqtisodiy kapitalni ko‘proq jamg‘arish imkoniga ega bo‘ladilar. Aksincha, sifatli til ta’limiga cheklangan kirish imkoniga ega jamoalar tizimli to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Akademik nashrlar va global ilmiy almashinuv sohasida ingliz tilining ustunligi epistemik ziddiyatlarni yuzaga keltiradi (Kachru, 1992; Canagarajah, 2013). Boshqa tillarda yaratilgan ilmiy ishlar xalqaro maydonda kamroq o‘rin egallaydi, natijada bilim aylanishi notekis tus oladi va mahalliy nazariy qarashlar chekka holatga tushib qolishi mumkin. Shu qilib, ingliz tilining globallashuvi nafaqat muloqot amaliyotini, balki bilim ishlab chiqarish arxitekturasini ham qayta shakllantiradi.

Bundan tashqari, natijalar ingliz tilining kengayishi to‘liq lingvistik birxillikka olib kelmasligini ko‘rsatadi. Aksincha, bu jarayon gibrid va kontekstga moslashuvchan identitet shakllarini yuzaga keltiradi. Nutq egalari ingliz tilini mahalliy sotsiomadaniy muhitga moslashtirib, hududiy me’yorlar, pragmatik an’analar va madaniy referenslarni aks ettiruvchi ko‘plik shakllarini yaratadilar. Bunday amaliyotlar madaniy yo‘qolish emas, balki moslashuvchan integratsiyani ifodalaydi. Demak, ingliz tili global mansublik va mahalliy identitet o‘rtasidagi balansni muzokara qilish imkonini beruvchi elastik semiotik resurs sifatida ishlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, natijalar an’anaviy “ona til egasi” markazidagi o‘qitish modellari bilan hozirgi kommunikativ reallik o‘rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Bugungi global sharoitda ingliz tili asosan ona tili bo‘lmagan so‘zlovchilar o‘rtasida, madaniyatlararo sharoitda qo‘llanadi. Shuning sababli, kommunikativ kompetensiyani endilikda faqat grammatik aniqlik yoki “ichki doira” me’yorlariga taqlid qilish bilan belgilab bo‘lmaydi. Samarali muloqot pragmatik moslashuvchanlik, madaniyatlararo sezgirlik, ma’no muzokarasi va strategik kompetensiyaga asoslanadi. (Seidlhofer, 2011; Jenkins, 2014).

Tahlillardan yana shuni ko‘rish mumkinki, samarali pedagogik transformatsiya o‘quv dasturlariga sotsiolingvistik xilma-xillikni tizimli ravishda integratsiya qilishni talab etadi. Ko‘p tilli o‘qituvchilar talaffuz me’yoriga mosligi asosida emas, balki professional kompetensiyasi asosida legitim til modeli sifatida tan olinishi lozim. Baholash tizimlari esa “ona tilidek” talaffuzdan ko‘ra tushunarlilik, mantiqiylik va interaktiv samaradorlikni ustuvor mezon sifatida belgilashi lozim. Bunday qayta yo‘naltirish ingliz tilining global lingua franca sifatidagi empirik realligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida ta’lim berish (EMI) amaliyotining kengayishi akademik internatsionallashuv va transchegaraviy hamkorlikni yuqori darajada kuchaytiradi. Biroq lingvistik tengsizlik mavjud sharoitlarda bu jarayon kognitiv va institutsional muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ikkinchi yoki uchinchi til orqali ta’lim olayotgan talabalar qo‘shimcha kognitiv yuklamani his qiladi, ayniqsa institutlarda yetarli til qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud bo‘lmasa. Shu sababli EMI ni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish uchun akademik “scaffolding”, til rivojlantirish dasturlari va inklyuziv institutsional siyosat zarur.

Yakuniy natijalar ingliz tilining globallashuvi o‘z-o‘zidan til yo‘qolishi yoki madaniy siqib chiqarishni anglatmasligini bildiradi. Qo‘shimcha (additive) ikki yoki ko‘p tillilik modeli

doirasida ingliz tili mahalliy tillarni siqib chiqarmasdan, balki kommunikativ repertuarni boyituvchi resurs sifatida xizmat ko‘rsatishi mumkin. Biroq maxsus siyosiy-huquqiy kafolatlar bo‘lmasa, milliy tillarning ramziy marginalizatsiyasi yuz berishi ehtimoli bor. Demak, lingvistik barqarorlik shartli xarakterga ega bo‘lib, uning natijalari asosan ta’lim siyosati dizayni, institutsional ko‘p tillilikka sodiqlik va kengroq sotsiosiyosiy kontekstga bog‘liq hisoblanadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari ingliz tilining globallashuvi ikki tomonlama jarayon ekanini yan bir bor tasdiqlaydi: u bir vaqtning o‘zida ham integratsiyani, ham tabaqalanishni yuzaga chiqardi. Bir tomondan, ingliz tili global muloqot vositasi sifatida madaniyatlararo almashinuvni tezlashtirdi va xalqaro bilim resurslariga kirishni osonlashtiradi. Ikkinchi tomondan esa, u ta’lim tizimi va bilim ishlab chiqarish maydonida kuch munosabatlarini qayta taqsimlab, ayrim guruhlar va institutlarga ustuvorlik beradi.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, ingliz tili mavqe, hokimiyat va legitimlik haqidagi tasavvurlarni shakllantiruvchi mafkuraviy doiralarda faoliyat yuritadi. Mazkur doiralar so‘zlovchilar, til o‘rganuvchilar va ta’lim muassasalarining baholanish mezonlariga to‘g’ridan-to‘g’ri ta’sir ko‘rsatadi hamda tilning ijtimoiy o‘lchamlarini yaqqol namoyon etadi. Shu sababli ingliz tili shunchaki neytral vosita emas, balki mavjud ierarxiyalarni mustahkamlashi yoki yangi lingvistik tengsizlik shakllarini yuzaga chiqarishi mumkin bo‘lgan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Crystal, 2003; Phillipson, 1992).

Pedagogik jihatdan ingliz tilining kengayishi kommunikativ kompetensiya tushunchasini qayta ko‘rib chiqishni hamda o‘qitish mezonlarini yangilashni talab etadi. Ta’lim jarayoni “ona til egasidek” mukammallikka intilish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarning turli kontekstlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini va ongli ravishda lingvistik tanlovlar qilish salohiyatini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Bunday yondashuv tanqidiy til ongini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi; bu esa o‘quvchilarga ko‘p tilli muhitda strategik va axloqiy jihatdan mas’uliyatli harakat qilish imkonini yaratadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, adolatli til siyosati bir tilli ingliz dominatsiyasini kuchaytirishdan ko‘ra, funksional ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Sotsiolingvistik bilimlarni pedagogik innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim muassasalari ingliz tilini ijtimoiy farqlanish vositasidan inklyuziv kommunikativ resursga aylantirishi mumkin. Bu esa global jarayonlarda faol ishtirok etish bilan birga mahalliy til xilma-xilligini ham asrashga xizmat qiladi.

Xulosa

Ingliz tilining globallashuvi faqat lingvistik hodisa bilan chegaralanib qolmaydi; u identitet, bilim tizimlari va ta’lim paradigmalari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tuzilmaviy omil sifatida aks etadi. Ingliz tili global o‘zaro aloqani va madaniyatlararo muloqotni yengillashtirsa-da, ayni paytda imkoniyatlardan foydalanish, vakillik va ijtimoiy pozitsiyalanish sohalarida yangi nomuvofiqlikni ham yuzaga keltiradi.

Mazkur ikki tomonlama ta’sirga barqaror va adolatli javob bir-biri bilan uzviy bog‘liq bir qator choralarni talab qiladi. Avvalo, pedagogik islohotlar kontekstga mos bo‘lishi,

mahalliy til va madaniy realliklarni hisobga olishi zarur. Ikkinchidan, ta’lim siyosati qo‘shimcha ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlashi, ya’ni o‘quvchilarga ona tiliga tayangan holda ingliz tilini egallash imkonini yaratishi lozim. Uchinchidan, til mafkurasi bo‘yicha tanqidiy ongni shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki bu o‘quvchilarga yashirin ierarxiyalarni anglash va ularga strategik yondashish imkonini yaratadi. Nihoyat, ta’lim muassasalari epistemik xilma-xillikka sodiqligini namoyon etib, turli bilim shakllari va ifoda uslublarini birdek teng qadrlashni ta’minlashi kerak.

Agar ushbu yondashuvlar uyg‘unlashtirilsa, ingliz tili ramziy tengsizlik vositasiga emas, balki global hamkorlikni mustahkamlovchi ko‘prikka aylanishi mumkin. Bu esa yanada o‘zaro bog‘lanib borayotgan ta’limiy va professional muhitda samarali kommunikatsiya hamda ijtimoiy inklyuzivlikni birgalikda ta’minlashga xizmat qiladi.

References

1. Canagarajah, A. S. (2013). *Translingual practice: Global Englishes and cosmopolitan relations*. Routledge.
2. Crystal, D. (2003). *English as a global language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Graddol, D. (2006). *English next*. British Council.
4. Jenkins, J. (2014). *English as a lingua franca in the international university*. Routledge.
5. Kachru, B. B. (1992). *The other tongue: English across cultures* (2nd ed.). University of Illinois Press.
6. Pennycook, A. (2007). *Global Englishes and transcultural flows*. Routledge.
7. Phillipson, R. (1992). *Linguistic imperialism*. Oxford University Press.
8. Seidlhofer, B. (2011). *Understanding English as a lingua franca*. Oxford University Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA DARS O'TISHNING SAMARADORLIGI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.059

Bekmuratova Shoxida Ne’matjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
“Tasviriy san’at va misiqa ta’limi” kafedrasi PhD,
dotsent shokhida2020@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida dars o'tishning samaradorligi haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: differensial, tarix, metodik yondashuv, optimizatsiyaб kompetensiya, metodologik, temperament, individual, kontrast, kasbiy-metodik, rivojlanish.

Аннотация.В данной статье рассматривается актуальная проблема эффективности преподавания, основанного на дифференцированном подходе к профессионально-методической подготовке будущих преподавателей изобразительных искусств.

Ключевые слова: дифференцированный, история, методологический подход, оптимизация компетентности, методический, темперамент, индивидуальный, контраст, профессионально-методическое, развитие.

Abstract. This article discusses the currently relevant issue of the effectiveness of teaching lessons based on a differential approach to the professional and methodological training of future teachers of fine arts.

Keywords: differential, history, methodological approach, optimization competence, methodological, temperament, individual, contrast, professional and methodological, development.

Kirish. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi kasbi jamiyat uchun eng faxrlisi va mohiyati jihatidan nihoyatda muhim ekanligini his qilishi lozim. O‘qituvchi kasbi talaba yoshlarga jamiyat hayoti, ularni butun hayoti faoliyati davomida kerak bo‘ladigan bilimlarni beradi. Ularni yuksak va oliyjanob fazilatlar bilan qurollantiradi, davlatimiz uchun kerakli inson bo‘lib tarbiyalab jamiyatimiz taraqqiyoti uchun yordam bera oladigan shaxs bo‘lib yetishadilar. Yosh avlodni buyuk ajdodlarimiz tarixiy tajribalarini ularga o‘rnak qilib o‘rgatadi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida dars o'tishning samaradorligida shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, yoshlarni yurtimizning o‘zini ma’naviyati va madaniyati, an’anasi va urf-odatlari orqali tarbiyalashlari darkor. Bunda zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda tarixiy bilimlar, tarixiy badiiy-estetik qadriyatlar haqidagi bilimlar bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim shartlaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Oliy badiiy-pedagogik ta’lim jarayonlarida tasviriy san’at, ayniqsa kompozitsiya o‘quv fanini o‘qitishda tarixiy manbalardan foydalanish alohida e’tiborga molik. Ayniqsa, Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, I. Repin, V. Surikov kabi rassomlarning kartinalari kompozitsiyani anglash, tahlil qilish ham baholash borasidagi metodik yondashuvlar bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Zero tarixiy tajribalarni o‘rganish, qiyosiy tahlil qilish hamda zamonaviy sharoitda qo‘llash jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida dars o'tishning samaradorligini rivojlantirish tizimini takomillashtirishda o‘qitishning maqsadi, mazmuni, usullari, shakllari va vositalari hamda dars loyiha (ishlanma)larini optimal tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa metodik tizimini tarixiylik va zamonaviylik prinsipiga asoslangan sintezi, integratsion tuzilmasini hosil qiladi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi, eng avvalo, nozik did egasi, o‘z sohasini yaxshi biladigan nafaqat mohir pedagog, balki ijodkor ham bo‘lishi muhim. Shuning uchun ham sohaning differensial yondashuv asosida dars o'tishning samaradorligi rivojlantirish masalaga kompleks yondashish imkonini beradi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- differensial yondashuv asosida san’atshunoslik, amaliy va me’morchilik san’atining milliy, badiiy an’analari tarixi va nazariyasini mukammal o‘rganish;

- differensial yondashuv asosida mutaxassislik fanlarining malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirib, rivojlantirib borish;

- faoliyati davomida pedagogik-psixologik holatlarni tasviriy san’atga bog‘lay olish;

- dunyo bo‘yicha mutaxassislikka doir yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llay olish;

- differensial yondashuv asosida tasviriy san’atning tur va janrlari bo‘yicha erkin ijodiy ishlar ishlay olishi va davomiy tajriba-sinov, ilmiy-metodik ishlar bilan shug‘ullanish, adabiyotlarni muntazam o‘qib borish;

- differensial yondashuv asosida tasviriy san’at fanlarini boshqa fanlar bilan integratsiya (tarix, geografiya, biologiya, texnologiya, kimyo va hokazo) qila olish:

Tasviriy san’at fani o‘qituvchisi yaxshi tinglaydigan, mantiq chiqara oladigan, yana o‘qishni, yozishni, gapirishni va chiza olishni yuksak darajada egallagan bo‘lishi zarur. Umuman, tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘zining ijodkorligi, tashabbuskorligi va adolatli bo‘lishi bilan boshqa fan o‘qituvchilaridan farq qiladi. Chunki u doimo rasm chizish, bevosita san’at asari yaratish bilan mashg‘ul bo‘lishi kerak. U har kuni biron yangilik yaratish taraddudida bo‘ladi. U har kuni biror-bir narsa (didaktik material, ko‘rgazma qurol) yasaydi. Natura fondini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadi. Pedagogik mahoratini oshirib borishi uchun o‘z

ustida ishlaydi. [112;24-b]. Bundan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi izlanishlardan to‘xtab qolmasligi talab etiladi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari differensial yondashuv orqali dars mashg‘ulotlarini mavzudan kelib chiqqan holda o‘ziga xos zamonaviy pedagogik texnologiyaga, didaktik prinsiplarga va metodik usullar asosida olib borilsa ko‘zlangan natijaga erishishning aniq yo‘li hisoblanadi. Shunday ekan, ular zamon bilan hamnafas bo‘lish bilan birga maqsadga erishishni kafolatlaydigan, natijani oldindan ko‘ra oladigan pedagogik jarayonning loyihasi hisoblangan pedagogik texnologiyadan unumli foydalana olishi muhim.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda oliy ta’lim muassasalarida talabalarni zamon talabiga mos mutaxassis qilib tayyorlashda o‘quv predmetlarini har bir fanning oson, qisqa, asosli o‘qitilishining pedagogik imkoniyatini yarata oladigan didaktik prinsiplar (ilmiylik, izchillik, sistemalilik, ketma-ketlik, onglilik-faollik, ko‘rgazmalilik, ijodkorlik va boshqalar) uyg‘unligini izchil ta’minlash hamda hayotiy obrazlarni yaratish iqtidorini namoyon qilish mazmunini estetik va ma’naviy ruhiyatni idrok etish mutanosibligiga maqsadli yo‘naltirish asosida tashkil etilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega [147; 3-b]. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida dars o'tishning samaradorligini rivojlantirishda mihim omil hisoblanadi.

Tasviriy san’atni professional tartibda o‘qitish borasida o‘ziga xos maktab yaratgan Rus rassomi va pedagogi S.Chistyakov «Rassom, - deb yozadi, - bu nimanidir biladigan shaxs, u o‘zi ko‘rgan yangi, takrorlanmas, faqat u hayotda ko‘rgan, o‘zi anglagan, boshqa rassomlar ungacha aytmagan, u ko‘rgandek tushunmagan, uningdek anglanmagan narsalarni ayta oladigan shaxsdir» [115; 39-b], deb ta’kidlaydi.

M.Vrubel darsga shastin gullarini keltirib, bir guruh o‘quvchilarga faraz qilishni, boshqalarga vazifa uchun rasm solishni, kimgadir gilamga naqsh chizishni buyurar edi. Ba’zida o‘zi ham doskaga chizib bir gul misolida qancha figuralar yaratish mumkinligini ko‘rsatgan [115;39-b]. Bu kabi tarixiy dalillar bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda ham tarixiy-nazariy asos, ham amaliy tajriba sifatida ahamiyatlidir.

Tasviriy san’at differensial yondashuv asosida dars o'tishda muhim jihatlaridan biri didaktik prinsipdir. Uning o‘qitishda afzalligi talabalarning faoliyati davomida ularning bilim, malaka, ko‘nikmalarini hisobga olgan holda maqsadga erishish uchun qulay pedagogik shart-sharoit va imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Bu borada, shubhasis, tarixiylik tamoyillari muhim didaktik vazifa bajaradi.

Differensial yondashuv asosida dars o'tishda, avvalo, mavzu yuzasidan tasavvur paydo bo‘lishi uchun yurtimiz va chet el rassomlari tomonidan tasvirlangan tarixiy asarlar orqali kasbiy-metodik tayyorgarlik kompetensiyalarining komponentlari hosil qilib boriladi. Shunday asarlar sirasiga P.P.Benkov «Dugonalar», A.Abdullayev «Shomahmudovlar oilasi»,

L.Abdullayev «Demobilizatsiya qilinganlarni kutib olish» asarlari, birinchidan talabalarda tarixiy tafakkur elementlarini shakllantiradi, qolaversa, ularda kasbiy-pedagogik faolligi bilan birga ijodiy faoliyatga qiziqish uyg‘otadi. Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligida boshqa mutaxassislardan farqli tomoni faoliyatida nazariya va amaliyot birgalikda olib borilishi zarurligidadir. Talaba o‘z ustida muntazam ishlamas ekan o‘zini rivojlantira olmaydi. Har bir darslarda ta’lim bilan birgalikda tasviriy faoliyatning barcha turlari xususan naturaga qarab tasvirlash, kompozitsion faolligi, san’atshunoslik asoslariga oid bilimlarni tarixiylik va zamonaviylik tamoyillari asosida boyitib borishi lozim.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi yetuk ijodkorlar asarlariga tayangan holda natyurmortni tasvirlaydilar. Ayniqsa, natyurmort va manzara janrlarini sintetik tarzda qo‘llanishiga oid muammolardan foydalanish ham malakali pedagog, ham ijodkor shaxsini shakllantirishga zamin vazifasini o‘taydi. Bunga taniqli rassom Zokir Inog‘omovning «Choyga» kompozitsiyasi misol bo‘lishi mumkin.

Differensial yondashuv asosida bo‘lajak rassomlarni o‘qitish ustozning oddiy topshiriqlardan shogirdining qobilyatini, aniqlab shunga asta-sekinlik bilan tasviriy san’at sir asrorlarini o’rgatib kelganligini ko’ramiz. Shu ma’noda o‘quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, odiyroq ijodiy ishlar ishlash topshirilgan. Keyinchalik tajribali rassomlarning ijodiy ishlaridan nusxa ko‘chirish orqali o’zlarini rivojlantirib borganlar. Rassomlar tilida shunday yozilmagan qonun qoidalar borki uni so’z bilan tariflash qiyin bo’ladi. Masalan rang ko’rish qobilyati odiy insonlar ko’rgandan ko’ra rassom uni boshqacha obrazda ko’rish, yani bir darxtni oladigan bo’lsak quyosh nuri tushib turgan tomonida issiq ranglar, soya tomonida esa sovuq ranglarni ko’ra olishi muhim. Bu esa ustozning maxorati va o’qitish metodika asosida differensial yondashuv takomillashtirilgan.

Tarixiy tajribalarni o‘rganish asosida tadqiqot ishimizda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy-metodik tayyorlashga kompetensiyaviy yondashuvning tuzilmasi taklif qilindi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, qaysi bir maktabda yuqori malakali pedagog-rassom dars bersada, u o‘z mashg‘ulotlarini individual yondashuv prinsipida tashkil etmasa, bu ham o‘quvchilarga tasviriy faoliyatni yaxshi o‘rgata olinmayotganidan darak beradi. Chunki o‘qituvchi qanchalik o‘z fanini, uni metodikasini mukkamal bilmasin, u topshiriqlarni to‘g‘ri taqsimlay olmasa sinfdagi o‘quvchilarning shu fanga qiziqishlarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Tasviriy san’at darslarida muayyan mavzu, fan asoslaridan o‘quvchilarga ko‘nikma va malaka darajasida tez va sifatli bilim berish ham individual yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi mahorati ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston xalq rassomi, pedagog-rassom R.Choriyev fikricha [114; 215-b], tasviriy san’at o‘qituvchisi mahoratiga to‘rt yo‘l bilan erishiladi:

1. differensial yondashuv asosida ijodkorlik, izlanish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, taqqoslash, yo‘l qo‘ygan uslubiy kamchiliklarini tanqidiy baholab, ularni bartaraf etish, o‘z ish faoliyatini yanada takomillashtirish, o‘z ustida tinimsiz ishlash, o‘z faoliyatini mukammal, o‘ziga xos shakl va uslubini belgilab olish orqali.

2. Ilg‘or pedagoglarni differensial yondashuv asosida olib borgan ish tajribasini qunt bilan o‘rganish, o‘z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish va takomillashtirish orqali.

3. Differensial ta’limni rivojlantirishda chet el pedagogik tajribalarni ijodiy o‘rganish orqali.

4. Tasviriy san’atda differensial yondashuv orqali o’qitish tajribalari respublikamizda va xorij mamlakatlarida nashr qilinayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib borish orqali.

Hozirgi zamon ta’limida tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilarga darsda individual yondashuvni amalga oshirishda bu to‘rt omilga amal qilmay turib, o‘z faoliyatida samaradorlikka erisha olmaydi. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida o‘qituvchining ham ilmiy, ham metodik, ham ta’lim texnologiyasini amalga tadbiq qila olishlari uchun bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi «Buyuk musavvir va naqqosh Kamoliddin Behzod tavalludining 565 yilligini keng nishonlash hamda tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risi»dagi PQ-4688-sonli Farmoyishi [13] fikrimiz dalilidir. Zamonaviy badiiy ta’lim amaliyotida pedagogikaning, badiiy ta’limning tarixiy ildizlarini zamonaviy sharoitda o‘rganish masalasi hukumat miqyosida ahamiyat qaratilayotganligidan darak beradi.

Individuallashtirilgan ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ikkinchi bir pedagog olim R. Genening nazariyasi ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ma’qullanmoqda. Bunda bloklar, mavzular va kichik mavzularning maqsadi, vazifalari belgilab olinadi, so‘ngra testlar yordamida o‘quvchilarning dastlabki bilim va malakalari aniqlanadi. Masalan, tasviriy san’atdan individual o‘qitishga mo‘ljallangan dasturlarda tez-tez testlar o‘tkazib turilishi ham qayd qilinadi. Testlar yordamida olingan natijalarga ko‘ra o‘quvchilar o‘quv materialining 85 foizini o‘zlashtirsalar, navbatdagi o‘quv materiallarini o‘rganishga o‘tishlari mumkin. Aks holda, o‘quvchi o‘zlashtirilmay qolgan materiallar bilan shug‘ullanishni davom ettiraveradi. O‘quvchilarga yuqori, o‘rta va kuyi murakkablikdagi vazifalar berish nazarda tutiladi va o‘quvchilar bilan individual ishlashning quyidagi turlari tavsiya etiladi:

1. Mustaqil ish. Ta’limning bu shaklida o‘quvchi o‘quv materialini ham, uni o‘rganish yo‘llarini ham o‘zi tanlaydi. O‘qituvchi esa o‘quv materialini tavsiya etadi va o‘quvchilarga tegishli maslaxatlarni beradi.

2. O‘quv materialini o‘zini-o‘zi boshqarish asosida o‘rganish. Bunda o‘quv materialini o‘rganish va uning maqsadi o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. O‘quv materialini o‘rganish uslubi o‘quvchi tomonidan tanlanadi.

3. O‘rganish uchun mo‘ljallangan ta’lim mazmuni va uni o‘rganish vaqtini o‘quvchining o‘zi tanlaydi. Uni o‘zlashtirish yo‘llari o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

4. O‘quv materiali o‘quvchi tomonidan aniqlanadi. Bunda o‘quvchi o‘quv materiali, uni o‘zlashtirish tartibi, ketma-ketligi, o‘rganish tezligi, o‘z faoliyati natijalarini o‘zi baholashi, maqsadni tanlashi nazarda tutiladi.

Xulosa

Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilariga dillerensial ta'lim bilan individual yondashuv birqancha imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonlar natijasida, kuchli intellektual salohiyatga ega bo‘lgan talabalarda yangi ijodiy ishlar ishlashga bo’lgan mativatsiya kuchayadi, ish tempi kuchayadi, past o‘zlashtiruvchi talabalar uchun muvaffaqiyatga intilish hissi va o’z ustida ishlashga imkoniyatlar paydo bo’ladi. Tasviriy san’at mashg’ulotlarida differensial ta'limning muhim jihati shundaki, har bir talaba konstruksiya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning asosiy qonun qoidalar tizim sifatida o’qitiladi. Bunda imkoniyatlar doirasini xam puxta o‘rganiladi. Ma’lumki tasviriy san’atda kompozitsiya va portrt chizish eng murakkab jarayon hisoblanadi. Talaba bu jarayonlarda o’zining yo’nalishini tanlashi muhim hisoblanadi. Qachonki talaba o’z yonalishini yani tasviriy janrlar, san’at oqim va yo’nalishlardan birini tanlasagina unda o’ziga nisbatan ishonch hosil bo’ladi va o‘qituvchi va talabalarning imkoniyatlaridan kelib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori.
2. Chistyakov S. *Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi asoslari*.
3. Vrubel M. *Rassomlik ijodiy faoliyati haqida qarashlar*.
4. Choriev R. *Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy mahorati*.
5. Repin I. *San’at va pedagogika*.
6. Surikov V. *Badiiy tafakkur asoslari*.
7. Abdullayev A. *Tasviriy san’at metodikasi*.
8. Benkov P.P. *Tasviriy san’at asarlari tahlili*.
9. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.
10. Tasviriy san’at va kompozitsiya fanidan darsliklar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 355.233.231

FALSAFA TA’LIMI ASOSIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLSHATIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.060

XaydaraliyevXurshidXamidullayevich
Farg‘ona davlat universiteti jismoniytarbiyanazariyasikafedrasimudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
x.xaydaraliyev1@mail.ru, ORCID ID 0009-9025-0373

Annotatsiya. Mazkur maqollada falsafa ta’limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish samaradorligi haqida so’z boradi.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, g‘oya, vatanparvarlik, fazilat, rivojlantirish, ma’naviyat, ko‘nikma, meros, barkamol, omil, rivojlanish, shakllantirish.

Аннотатция.В данной статье речь пойдет об эффективности совершенствования методики развития патриотических качеств у студентов на основе философского образования.

Ключевые слова:Ценность, идея, патриотизм, добродетель, развитие, духовность, навыки, наследие, гармония, фактор, развитие, формирование.

Abstract. This article talks about the effectiveness of the evolution of the methodology for the development of patriotic qualities in students based on the education of philosophy.

Key words: Value, idea, patriotism, virtue, development, spirituality, skills, heritage, perfection, factor, development, formation.

KIRISH. Har qanday davlat va jamiyat hayotida yoshlarni o‘z vataniga sadoqatli etib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu borada yoshlarni tarbiyalashda eng avvalo, ularning qalbi va ongiga o‘tmishda yaratilgan buyuk tarix, madaniyat va ma’naviyatni singdirishni taqozo etadi. Binobarin, yoshlarimiz ongiga yuksak ma’naviy qadriyatlarni singdirish orqali vatan qadrini bilish, vatanga daxldorlik hissini yuksaltirish va milliy o‘zligini anglashda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda, ular tarbiyasiga salbiy ta’sir etuvchi ma’naviy tahdidlarni oldini olishda o‘tmishda yaratilgan ma’naviy meroslarimizdan bahramand etishni talab etmoqda.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayoti qadriyatlaridan tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib

xizmat qiladi. Darhaqiqat, xalqimizning buyuk ma’naviyati uning tarixini chuqur o‘rganish, anglash orqali Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni yagona maqsad sari muqaddas O‘zbekistonimizning ravnaqi yo‘lida kurashishimiz zarur ekanligini taqozo etmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi ruhida yashash, istiqlol g‘oyalarini yosh avlod qalbi va ongiga yanada teran singdirish, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallash, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishning eng asosiy a muhim sharti, milliy taraqqiyotimizning kafolati, demakdir.Tadqiqot doirasida amalga talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning shakl va metodlari, ta’lim texnologiyasini samaradorligi tajriba-sinovdan o‘tkazildi. Yuqoridagi keltirilgan ilmiy-nazariy tahlillardan kelib chiqqan holda asoslovchi tajriba jarayonidagi amaliy faoliyatni respondent-talabalar e’tiboriga ular uchun mo‘ljallangan anketa so‘rovini havola etish bilan boshladik.

Respondent-talabalar ikki variantda tayyorlangan anketa so‘rovlariga javob qaytardilar. Anketa so‘rovining biri – oliy o‘quv yurtlarining «Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning falsafiy asoslari» fani mohiyatidan xabardorlik, nazariy bilimlarga egalik darajasini aniqlashga xizmat qilsa, ikkinchi anketa so‘rovi shuningdek, ta’lim mazmunini talabalar tomonidan samarali o‘rganishda ularning bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. Quyida shu xususida so‘z yuritamiz.

Respondent-talabalar e’tiboriga havola etilgan birinchi variant anketa so‘rovi o‘zida quyidagi savollarni aks ettirdi:

Vatanparvarlik tushunchasini qanday tariflagan bo‘lardingiz?

Sizningcha, vatanparvarlik tushunchasi qanday fazilatlarni o‘z chiga oladi?

Vatanparvar inson bo‘lish uchun shunchaki vatanni sevishni o‘zi yetarlimi?

O‘zingizni chinakam vatanparvar deb hisoblaysizmi?

Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishdan maqsadi nima?

Falsafiy ta’lim asosida fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish kerak?

Qaysi kasb egalarini chinakam vatanparvar deb bilasiz?

“Vatanpavarlik” va “vatanni sevish” tushunchalarini o‘xshash va varqli jihatlarini farqlay olasizmi?

Axloqshunoslik ta’limi asosida fazilatlarni tarbiyalashda qaysi faylasuflarni asarlarida foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?

Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish asosida qanday illatlar va tahdidlarni oldini olish yoki ularga qarshi kurashish mumkin deb o‘ylaysiz?

Ayni o‘rinda respondent-talabalar e’tiboriga havola etilgan birinchi variant anketa so‘rovi yuzasidan ular tomonidan qaytarilgan javoblarni tahlil etishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Quyida ana shu xususida to‘xtalib o‘tamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlari olimlaridan A.Gayazov, V.Gladik, V.Jernov, V.Jurova, N.Irrolitova, T.Luginina, Z.Mazir, Yye.Mitina, L.Orinina, Y.Rodlesnaya, O.Roluxin, L.Rudchenko, Sh.Xayrulin, O.Yarigin kabilar pedagogik jarayonda

vatanrarvarlikni tarbiyalash va fidoyilik, sadoqatlilik va mas’uliyatlilikni mustahkamlashning redagogik asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlardan YE.Banks, V.Berg, G.Biyesta, V.Link, D.Brovn, B.Vard, M.Boun, K.Mutchlar talabalarda vatanrarvarlik fazilatlarini rivojlantirish,“Tinchlik uchun ta’lim” g‘oyasi asosida redagogik faoliyatni amalga oshirishning turli jihatlari, P.Santiago, H.Mann, M.Georgelar o‘quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari, vatanparvarlik fazilatining shakllanganligini pedagogik tashxis etish masalalarini o‘rgangan. V.Chinaph, U.Hartmann, H.Engelhaupf, T.Drogelar ijtimoiy va siyosiy ta’limning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatini taddiq etganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Anketa so‘rovining birinchi savoli yuzasidan javob qaytarar ekanlar, 22 nafar respondent-talabalarning aksariyati “vatanparvarlik” tushunchasi bo‘yicha umumiy tushunchaga ega ekanligini aytib o‘tishgan. Ularning javoblari quyidagi ko‘rsatkichlarda qayd etildi:

1.1-rasm

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n1 – 360 nafar	229	63,6 %	131	36,4 %
Nazoratn2 - 360 nafar	237	65,7 %	123	34,3 %

Yuqorida keltirilgan javoblardan ko‘rinib turibdiki, respondent-talabalarning katta qismi 245 nafari (68,1 foiz) «vatannni himoya qilish, yaxni harbiy hizmat ma’noasidagi», javobni yozishgan.

Ikkinchi savol yuzasidan respondent-talabalar deyarli ma’lumotlarga ega emas, savol mohyatini to‘liq anglab yetmaganligini ko‘rish mumkin. Aksar talabalar vatanparvarlik fazilatlari tarkibiga “mardlik”, “jasurlik”, “qo‘rqmaslik” kabi sifatlarni jamlashgan. Respondent-talabalarning javoblari ko‘rsatkichlar asosida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

1.2-rasm

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n1 – 360 nafar	243	67,5%	117%	32,5%
Nazorat n2 - 360 nafar	214	59,4%	146%	40,6%

Tajriba ishlarining keyingi bosqichlarida respondent-talabalar bilan tashkil etilgan suhbat jarayonida ularning muayyan qismi Vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasi mohiyati borasida ma’lum ma’lumotlarga ega ekanliklari, biroq uning mohiyatini to‘laqonli yoritib bera olmasliklari bois ijobiy javob qaytarmasliklariga urg‘u berib o‘tdilar.

Anketa so‘rovidan o‘rin olgan uchinchi savol (Vatanparvar inson bo‘lish uchun shunchaki vatanni sevishni o‘zi yetarlimi?) bo‘yicha respondent-talabalarning javoblari ijobiy mazmun kasb etdi.

1.3-rasm

Guruhlar	**Ijobiy javoblar soni**		**Salbiy javoblar soni**	
	Nafar hisobida	**Foiz hisobida**	**Nafar hisobida**	**Foiz hisobida**
Tajriba n1 – 360 nafar	229	63,6 %	131	36,4 %
Nazorat n2 - 360 nafar	163	45,4 %	197	54,6 %

Respondent-talabalarningbeshinchisavolyuzasidanqaytarganjavoblarida «harbiyta’limjarayoniningasosiymaqsadio‘rganilayotganmavzumohiyatidankelibchiqqanholda talabalardama’lumma’naviy-axloqiysifatlarnishakllantirish, ularningvatanparvarlikko‘nikmalarinishakllantirishdaniborat», deganfikrningommaviyravishdako‘zgatashlanishinie’tiborgaolganholdaularniijobiyjavoblarsifatidaqabulqildik, bundayjavoblarsonko‘rsatkichlaridaquyidagichaifodalanadi:

1.4-rasm

Guruhlar	**Ijobiy javoblar soni**		**Salbiy javoblar soni**	
	Nafar hisobida	**Foiz hisobida**	**Nafar hisobida**	**Foiz hisobida**
Tajriba n1 – 360 nafar	262	72,7 %	98	27,3 %
Nazorat n2 - 360 nafar	153	42,4 %	207	57,6 %

Respondent-talabalar o‘quv mashg‘ulotining xususiy maqsadini ochib berishga harakat qilar ekanlar, falsafa fani bo‘yicha muayyan bilimlarni shakllanganligininamoyon etdilar. Oltinchi savol yuzasidan ularning javoblari quyidagicha bo‘ldi:

1.5-rasm

Guruhlar	**Ijobiy javoblar soni**		**Salbiy javoblar soni**	
	Nafar hisobida	**Foiz hisobida**	**Nafar hisobida**	**Foiz hisobida**
Tajriba n1 –360 nafar	185	51,5 %	175	48,5 %
Nazorat n2 - 360 nafar	161	44,6 %	199	55,4 %

«Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda axloqiy tarbiyaga alohida urg‘u berishni o‘zi yetarlimi?» degan savolga respondent-talabalarning javoblari quyidagi ko‘rsatkichlar asosida ifoda etildi:

1.6-rasm

	Ijobiy javoblar soni	**Salbiy javoblar soni**

Guruhlar	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n1 – 360 nafar	239	66,3 %	121	33,7 %
Nazoratn2 - 360 nafar	174	48,2 %	186	51,8 %

Oltinchi savol yuzasidan berilgan javoblardan anglanadiki, respondent-talabalar vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning so‘z yuritilayotgan masalada faollik ko‘rsatishidan yiroq ekanliklarini aniqlashga urindik. Yettinchi savolga javob qaytarar ekanlar, tajriba ishlarining asosiy ishtrokchilari avvalgi savollarga nisbatan ijobiy javob qaytardilar. Javoblarning miqdor ko‘rsatkichlari asosida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

1.7-rasm

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Нафар хисобида	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n1 – 360 nafar	262	72,7 %	98	27,3 %
Nazorat n2 - 360 nafar	196	54,5 %	164	45,5 %

Bizga yaxshi ma’lumki, talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda falsafa fanining imkoniyatlariga tayanish, falsafiy yondashuvlar asosida o‘qitish va shu asosida talabalarning faolligini yuzaga keltirish, ular tomonidan o‘quv dasturida belgilangan fan asoslarining puxta o‘zlashtirilishiga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shu bois respondent-talabalarning interfaol metodlarni nomma-nom bilishlari emas, balki ularning mohiyatini yetarli darajada anglay, shuningdek, amaliy faoliyatda ulardan samarali foydalana olishlari muhim sanaladi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan asoslovchi tajriba jarayonida tashkil etilgan birinchi tur anketa so‘rovi natijalarining ko‘rsatishicha, oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan «Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning falsafiy asoslari» fani mohiyatini talaba ongiga yetkazish xususida talabalar bugungi kun talablari asosida yetarli darajada xabardor emaslar. Ushbu xulosa o‘z navbatida bizni bunday holatni yuzaga keltirishga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlashga undadi. Shu bois respondent-talabalar o‘rtasida ikkinchi variant anketa so‘rovi tashkil etildi.

Respondent-talabalar ikkinchi variant anketa so‘roviga javob berar ekanlar, vatanparvarlik tarbiyasi asoslari borasidagi bilimlarni asosan Respublikada chop etiladigan «Xalq so‘zi» jurnali va «Ma’rifat» gazetalari sahifalarida chop etiladigan maqolalar, shuningdek, intertet materiallari, ijtimoiy tarmoqdagi matnli va videoli kontetlardan, qisman xorijiy mamlakatlarda chop etilgan nashrlar orqali berilayotgan ma’lumotlar asosida o‘zlashtirayotganliklarini ta’kidlab o‘tadilar. Oz sonli respondentlar bu boradagi bilimlarni maxsus risolalar yordamida o‘rganish imkoniyatiga ega ekanliklariga urg‘u berganlar.

Yuqorida keltirilgan javoblardan ko‘rinib turibdiki, tajriba ishlariga jalb etilgan respondent-talabalar va ularning misolida oliy o‘quv yurtining barcha pedagoglari ham ta’limni yangicha texnologik yondashuv asosida tashkil etish, ushbu jarayonda talabalarning

faolliklariga erishish, shuningdek, axborotli texnologiyalar xizmatidan samarali foydalanish asosida ta’lim jarayonining muvafaqqiyatli olib borilishini ta’minlash g‘oyasini ifoda etuvchi ijtimoiy zaruriyatni chuqur his qilganlari holda bu yo‘lda faollik ko‘rsata olmayotganliklarini ifodalaganlar.

Tajriba sinov ishlarining quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi – asoslovchi bosqichda tajriba sinov ishlari predmeti bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar o‘rganilib chiqildi. Bu jarayonni ifodalovchi savollar, testlar tuzilib va ular bilan OTMlaridagi falsafa fani o‘qitladiganbirinchi va ikkinchi kurs talabalar bilan so‘rovnomalar (test va anketalar) o‘tkazilib natijalari tahlil qilindi.

Tajiba-sinov ishlarining ikkinchi – takidlovchi bosqichida, maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlarda OTMlaridagi “Harbiy ta’lim” yo‘nlishi uchun Falsafa fanini o‘qitishda-axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali olingan so‘rovnomalar, o‘tkazilgan tadqiqotlar orqali shunday xulosaga kelindiki, falsafa fanini talabalarga nazariy hamda amaliy o‘rgatishda fanga oid elektron o‘quv qo‘llanmalarni harbiy ta’limning barcha fanlarida foydalansa bo‘ladi.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichi (2018-2019 yillar)da OTMlarning talabalarning falsafa fanini o‘rganishga oid nazariy hamda amaliy bilim va ko‘nikmalarining samardorligini oshirish darajalari aniqlandi, ya’ni, quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichda aniqlangan kamchiliklarga tuzatishlar kiritildi;

- o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda ilmiy-uslubiy xulosalar chiqarildi va rasmiylashtirildi hamda tadqiqot natijalarini ilmiy – uslubiy asoslashda tadqiqot natijalari ishning ilmiy farazi va maqsad vazifalari bilan nechog‘liq mushtarakligiga etibor berildi;

- tadqiqot ishlarining asosiy qismlaridan biri bo‘lish «Elektron o‘quv qo‘llanma» doimo nazoratda bo‘ldi va bu elektron tizimning talabalar bu elektron o‘quv qo‘llanmani qo‘llash orqali talabalar, o‘z – o‘zini nazorat qilishni va o‘z bilimlarini o‘zi baholashni ham o‘rgandilar;

- tadqiqot davomida to‘plangan barcha ma’lumotlar matematik statistika metodlaridan foydalangan holda baholanib, uning ishonchli ekanligi asoslandi va uslubiy ko‘rsatmalarni o‘quv jarayoniga joriy etishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2020-2023 yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining “Harbiy ta’lim” yo‘nalishi, Farg‘ona davlat unversiteti va Buxoro davlat universiteti «Harbiy ta’lim» yo‘nalishlari talabalari orasida anketa va test sinovlari o‘tkazib borildi. Tajriba maydonlaridan sinov ishlariga jami 720 nafar talabalar respondent sifatida qabul qilindilar. Shuningdek, dissertant tomonidan tavsiya etilayotgan metodikaning samardorligini xolis baholash maqsadida tajriba maydonlari bo‘lgan OTMlaridan jami 12 (2020-2021 yillarda 6, 2021-2022 yillarda 6) nafar amaliyotchi-o‘qituvchilar ham jalb qilindilar (3.8-rasm).

Tajriba guruhlarida mashg‘ulotlar dissertatsiya tomonidan ishlab chiqilgan yangi pedagogik texnologiya asosida, nazarat guruhlarida esa ananaviy uslubda amalga

oshirildi.Tajriba-sinov ishlari jarayonida tavsiya etilayotgan texnologiya bo‘yicha dissertant va yuqorida bayon etilgan OTM larining tegishli kafedra mutaxasislari ish olib bordilar.

3.8-rasm

Tajriba maydonlarida sinov ishlariga jalb etilgan respondent-talabalari va o‘qituvchilar

	2020-2021 yillar		2021-2022 yillar		Jami	
	Talaba-lar soni	**O‘qituv-chilar soni**	**Talaba-lar soni**	**O‘qitu v-chilar soni**	**Talaba-lar soni**	**O‘qitu v-chilar soni**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika	127	2	111	2	238	4
Farg‘ona davlat unversiteti «Harbiy ta’lim» yo‘nalishlari	110	2	114	2	224	4
Buxoro davlat universiteti «Harbiy ta’lim» yo‘nalishlari	113	2	125	2	238	4
Jami	360	6	360	6	720	12

Tadqiqot xususiyatidan kelib chiqib, amalga oshirilgan tajriba-sinov jarayonida milliy-ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan ilg‘or pedagogik texnologiyaning samaradorligi o‘rganildi.

XULOSA

Vatanparvarlik ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat va vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta’sir qilib, ularni mas’uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etuvchi kuch ekanligi aniqlashtirildi. Tahlillar asosida vatanparvarlik - davlat yashovchanligining jamiyat rivojlanishining muhim ichki safarbarlik manbasi, shaxsning faol fuqarolik qarashlari, uning o‘z Vataniga fidokorona xizmat qilishga tayyorligi sifatida namoyon bo‘luvchi ma’naviy asos hisoblanishi umumiy xulosa sifatida shakllantirildi. Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan ham bog‘liqligi, bunda vatanparvarlik fazilati rivojlangan talabaning mafkuraviy immuniteti kuchli bo‘lishi va mafkuraviy immunitetga ega bo‘lgan talabaning esa ma’naviyati yanada yuksalib borishiga asos bo‘lishi asoslandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Отамуротов С., Мамашокиров С., Холбеков А., Лафасов М. Марказий Осиё: ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. – Тошкент: IJOD DUNYOSI, 2001. – Б. 18.

2. Фрейд З. Психология бессознательного: Сборникпроизведений. Сост., науч. ред., авт. вступ. ст. М. Г. Ярошевский - Москва Просвещение. 1990. -517 с.

3. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Тошкент: Университет, 1998. –Б. 148-164.

4. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. Пер. с нем. Москва: АСТ, 2006. - 624 с.

5. Фромм Э. Бегство от свободы. - Москва.: «АСТ», 2011. –Б. 7-9.

6. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар (маънавиятга таҳдид солувчи иллатлар). –Тошкент: Turonzaminziyo, 2015. – 400 б.

7. Тўйчиев Б. Проблемы формирования правового сознание в современных условиях. Всб. «Проблемы патриотического воспитания офицеров на этапе ставлениях независимого Узбекистана. МВД РУз. – Ташкент, 1996;

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TABIIY FANLARNI O’QITISHDA BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.061

Xalilova Xurshida Teshayevna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi” dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida integrativ ta’limning nazariy asoslari, uning didaktik imkoniyatlari hamda boshlang‘ich ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi o‘rganilib, mavjud muammolar aniqlangan.

Maqolada integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari va vositalari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelning amaliyotga joriy etilishi o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish bilan birga, ta’lim oluvchilarning bilish faolligini kuchaytirib, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, tabiiy fanlar, boshlang‘ich ta’lim, metodik tayyorgarlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik kompetensiya, fanlararo integratsiya, STEAM ta’lim, innovatsion metodlar, o‘qitish metodikasi, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос улучшения методической подготовки будущих учителей начальной школы по преподаванию естественных наук на основе интегративного подхода. В ходе исследования проанализированы теоретические основы интегративного образования, его дидактические возможности и место в системе начального образования. Также изучен уровень методической подготовки будущих учителей и выявлены существующие проблемы.

В статье обосновываются педагогические условия, методы и средства организации уроков на основе интегративного подхода. В результате исследования стало ясно, что внедрение педагогической модели, направленной на развитие методической подготовки будущих учителей начальной школы, имеет важное значение для повышения эффективности образовательного процесса, повышения познавательной активности учащихся и развития их профессиональных компетенций.

Ключевые слова: интегративный подход, естественные науки, начальное образование, методическая подготовка, будущий учитель, педагогическая

компетентность, междисциплинарная интеграция, STEAM-образование, инновационные методы, методика преподавания, эффективность образования.

Abstract. This article examines the issue of improving the methodological training of future primary school teachers in teaching natural sciences using an integrative approach. The study analyzes the theoretical foundations of integrative education, its didactic potential, and its place in the primary education system. It also examines the level of methodological training of future teachers and identifies existing challenges.

The article substantiates the pedagogical conditions, methods, and tools for organizing lessons based on an integrative approach. The study revealed that the implementation of a pedagogical model aimed at developing the methodological training of future primary school teachers is essential for improving the effectiveness of the educational process, enhancing students' cognitive activity, and developing their professional competencies.

Keywords: integrative approach, natural sciences, primary education, methodological training, future teachers, pedagogical competence, interdisciplinary integration, STEAM education, innovative methods, teaching methodology, educational effectiveness.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan yangilanib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ta’lim oluvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, atrof-muhitga ongli munosabatni rivojlantirish hamda tabiiy fanlar asosida fundamental bilimlarni egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ta’limda *integrativ yondashuv* alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv turli fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash, bilimlarni yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirish hamda ta’lim oluvchilarning tahliliy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tabiiy fanlarni integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali ta’lim oluvchilarda real hayotiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Mazkur jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki aynan o‘qituvchi integrativ yondashuvni amaliyotga tatbiq etish, fanlararo aloqadorlikni ta’minlash va ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etishda yetakchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusining dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, zamonaviy ta’lim tizimi kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanib, ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishni talab etmoqda. Bu esa tabiiy fanlarni alohida-alohida emas, balki integratsiyalashgan holda o‘qitishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitish amaliyotida hali ham an’anaviy, fragmentar yondashuv ustun bo‘lib qolmoqda. Bu esa ta’lim oluvchilarda bilimlarning tizimliligi va yaxlitligini ta’minlashda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Integrativ yondashuv esa ushbu kamchiliklarni bartaraf etishning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Uchinchidan, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini zamonaviy talablar darajasida shakllantirish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Xususan, ularda integrativ yondashuv asosida darslarni loyihalash, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash va innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati mavjud.

To‘rtinchidan, tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik tafakkurni shakllantirish, barqaror rivojlanish g‘oyalarini singdirish hamda ta’lim oluvchilarning atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatini rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa integrativ yondashuv asosida amalga oshirilgandagina samarali natija beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi pedagogika va psixologiya sohalarida uzoq yillardan beri tadqiq qilinib kelmoqda. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv asosida ta’limni tashkil etish, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan *John Dewey* ta’limni hayot bilan bog‘lash, tajriba asosida o‘qitish g‘oyalarini ilgari surib, integrativ yondashuvning nazariy asoslarini yaratgan. Uning fikricha, bilimlar alohida fragmentlar sifatida emas, balki yagona tizimda o‘zlashtirilishi lozim [9].

Shu bilan birga, *Jean Piaget* ta’lim oluvchilarning kognitiv rivojlanish bosqichlari nazariyasida integratsiyalashgan bilimlar orqali tafakkurni rivojlantirish muhimligini asoslab bergan [14].

Integrativ ta’limni rivojlantirishda *Jerome Brunerning* “spiral o‘qitish” konsepsiyasi ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda bilimlar turli fanlar kesimida bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borilishi ta’kidlanadi [3].

Shuningdek, *Howard Gardner* tomonidan ilgari surilgan ko‘p qirrali intellekt nazariyasi ham integrativ yondashuvning pedagogik asoslarini mustahkamlaydi, chunki u ta’lim oluvchilarning turli qobiliyatlarini rivojlantirishda fanlararo bog‘liqlik muhimligini ko‘rsatadi [6].

Rossiya psixologik-pedagogik maktabi vakillaridan *Lev Vygotskyning* ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi ham integrativ yondashuvni ilmiy asoslashda muhim o‘rin tutadi. Unga

ko‘ra, o‘quv jarayonida bilimlar o‘zaro bog‘langan holda, ijtimoiy hamkorlik orqali shakllanadi [5].

Shuningdek, Rossiyalik olimlardan *Vasily Davydov* va *Daniil Elkonin*lar tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi ham ta’lim oluvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyatini asoslab beradi [7, 10].

Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda fanlararo integratsiya muammosi alohida o‘rganilgan bo‘lib, unda ta’lim oluvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ekologik tafakkurni rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish asosiy maqsad sifatida ko‘rsatiladi. Xususan, zamonaviy STEAM ta’lim konsepsiyasi tabiiy fanlarni texnologiya, muhandislik va matematika bilan integratsiyalashgan holda o‘qitishni nazarda tutadi.

O‘zbek olimlari tomonidan ham mazkur yo‘nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘zbekiston pedagog olimlari boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitish, metodikasini takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etish ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarning tizimliligini ta’minlashda samarali vosita sifatida baholanadi.

Jumladan, pedagog olim *N.A.Muslimov* tadqiqotlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish, uning metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Olim o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi zamonaviy ta’lim samaradorligining asosiy omili ekanligini ta’kidlaydi [12].

Pedagog olim *Sh.S.Sharipov* ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish va integratsiyalashgan ta’limni rivojlantirish masalalari yoritilgan. U integrativ yondashuvni o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi samarali vosita sifatida baholaydi [15].

Shuningdek, o‘zbek pedagog olimlari *R.H.Juraev* va *U.N.Nishonaliyev* tadqiqotlarida boshlang‘ich ta’limda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Ular o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuvning muhimligini asoslab berganlar [11, 13].

Bundan tashqari, mahalliy tadqiqotlarda ekologik ta’lim, atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish va o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ham integrativ yondashuv bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aynan tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishga doir metodik tayyorgarligini kompleks tarzda o‘rganish yetarli darajada yoritilmagan. Aksariyat ishlarda umumiy pedagogik yondashuvlar yoritilgan bo‘lsa-da, amaliy metodik mexanizmlar, dars loyihalash texnologiyalari va integrativ kompetensiyalarni shakllantirish masalalari chuqur tadqiq etilmagan.

Xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari tahlili quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

- integrativ yondashuv ta’lim jarayonida bilimlarning tizimliligi va yaxlitligini ta’minlaydi;
- tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo bog‘liqlik o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantiradi;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi integrativ yondashuvni samarali qo‘llashning asosiy omili hisoblanadi;
- mavjud tadqiqotlarda nazariy asoslar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, amaliy metodik mexanizmlar va o‘qituvchi tayyorlash tizimida integrativ yondashuvni joriy etish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Demak, tahlil qilingan ilmiy manbalar integrativ yondashuvning nazariy va metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilganligini ko‘rsatadi. Biroq, ularni boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini shakllantirish nuqtai nazaridan tizimli yondashuv yetarli emas. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

METODLAR: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

MUHOKAMA. Tadqiqot doirasida integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi ko‘p qirrali pedagogik muammo sifatida tahlil qilindi. O‘rganilgan nazariy manbalar hamda mavjud amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim didaktik omil hisoblanadi.

Avvalo, integrativ yondashuvning mohiyati fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bu yondashuv tabiiy fanlarni alohida predmet sifatida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq tizim sifatida o‘qitishni talab etadi. Shu jihatdan qaraganda, boshlang‘ich ta’lim bosqichida integratsiyalashgan o‘qitish o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga ham mos keladi.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, amaliyotda tabiiy fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuvdan foydalanish darajasi yetarli emas. Ko‘pgina hollarda darslar an’anaviy, predmetga yo‘naltirilgan tarzda olib borilmoqda, bu esa o‘quvchilarda bilimlarning parchalanib qolishiga olib keladi. Natijada o‘quvchilar olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi darajasi ham muhokama jarayonida alohida e’tiborga olindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida integrativ yondashuvga oid bilimlar berilayotgan bo‘lsa-da, ularning amaliy qo‘llanishi yetarli darajada shakllantirilmagan. Ayniqsa, darslarni integrativ asosda loyihalash, fanlararo aloqalarni aniqlash va interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurati mavjud.

Bundan tashqari, integrativ yondashuvni samarali joriy etishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi:

- o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus trening va kurslarni tashkil etish;
- tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion va interfaol metodlardan keng foydalanish;
- o‘quv jarayoniga STEAM elementlarini joriy etish;
- o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- darslik va o‘quv materiallarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat – bu integrativ yondashuvning nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Xususan, mazkur yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, integrativ yondashuvni amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, o‘qituvchilarning an’anaviy fikrlashdan voz kechishga tayyor emasligi, metodik ta’minotning yetarli emasligi hamda o‘quv yuklamasining ko‘pligi integratsiyalashgan ta’limni samarali tashkil etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq ushbu yondashuvni samarali joriy etish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy metodik ko‘nikmalarni ham rivojlantirish, ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zarur.

NATIJALAR. Tadqiqot jarayonida integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlar olib borildi hamda quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, uning boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda bilimlarning tizimliligi va yaxlitligini ta’minlaydi, ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi darajasi diagnostika qilinib, unda integrativ yondashuvni qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning yetarli emasligi aniqlandi. Xususan, talabalarda darslarni integrativ asosda loyihalash, fanlararo bog‘liqlikni aniqlash va interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha qiyinchiliklar mavjudligi kuzatildi.

Uchinchidan, tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqildi. Mazkur model quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oldi:

- motivatsion-kompetensiyaviy komponent;
- mazmuniy (nazariy) komponent;

- faoliyatga yo‘naltirilgan (amaliy) komponent;
- refleksiv-baholash komponenti.

To‘rtinchidan, ishlab chiqilgan model asosida maxsus metodik tavsiyalar va o‘quv mashg‘ulotlari tizimi amaliyotga joriy etildi. Integrativ dars ishlanmalari, loyiha asosidagi topshiriqlar hamda STEAM elementlariga asoslangan mashg‘ulotlar ishlab chiqilib, tajriba-sinov ishlarida qo‘llanildi.

Beshinchidan, tajriba-sinov natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini sezilarli darajada oshirdi. Xususan:

- talabalar tomonidan integrativ darslarni loyihalash ko‘nikmalari shakllandi;
- fanlararo bog‘liqlikni aniqlash va qo‘llash darajasi oshdi;
- interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish samaradorligi ortdi;
- mustaqil va ijodiy yondashuv asosida ishlash kompetensiyalari rivojlandi.

Oltinchidan, o‘quv jarayoniga integrativ yondashuvni joriy etish natijasida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ularning darsga qiziqishi ortdi, amaliy topshiriqlarni bajarishdagi faolligi kuchaydi hamda real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini samarali rivojlantirish imkonini berishini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan pedagogik model va metodik tavsiyalar amaliyotda o‘zining samaradorligini namoyon etdi hamda ularni ta’lim jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy va amaliy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, balki darslarni integrativ asosda loyihalash, fanlararo aloqalarni aniqlash va interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish zaruratini ta’minlovchi pedagogik-psixologik sharoitlarga ham bevosita bog‘liq. Jumladan: integrativ yondashuv ta’lim jarayonida bilimlarning yaxlitligi va tizimliligini ta’minlovchi muhim didaktik vosita ekanligi aniqlandi. Tabiiy fanlarni fanlararo bog‘liqlik asosida o‘qitish o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda olingan bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaliyotda tabiiy fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuvdan foydalanish darajasi yetarli emas, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligida esa mazkur yo‘nalishga oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurati mavjud.

Shu asosda, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur modelning qo‘llanilishi natijasida talabalar tomonidan integrativ darslarni loyihalash, fanlararo aloqalarni aniqlash hamda innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish, balki o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda ham yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar darajasida shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur yondashuvni pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga keng joriy etish, uni metodik jihatdan takomillashtirish hamda amaliyot bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Ta’lim to‘g‘risidagi qonun*. – – T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti*. – T.: 2021.
3. Bruner Jerome. *The Process of Education*. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
4. Bybee R.W. *The BSCS 5E Instructional Model and 21st Century Skills*. – Colorado Springs, 2009.
5. Vygotsky Lev. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Gardner Howard. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. – New York: Basic Books, 1983.
7. Davydov Vasily. *Problems of Developmental Teaching*. – M.: Pedagogika, 1986.
8. Drake S.M., Burns, R.C. *Meeting Standards Through Integrated Curriculum*. – Alexandria: ASCD, 2004.
9. Dewey John. *Democracy and Education*. – New York: Macmillan, 1916.
10. Elkonin Daniil. *Psychology of Learning Activity*. – M.: Pedagogika, 1989.
11. Juraev R.H. *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi*. – T.: O‘qituvchi, 2012.
12. Muslimov N.A. *Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish asoslari*. – T.: Fan, 2015.
13. Nishonaliyev U.N. *Ta’limda innovatsion yondashuvlar*. – T.: 2016.
14. Piaget Jean. *The Psychology of the Child*. – New York: Basic Books, 1969.
15. Sharipov Sh.S. *Pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash*. – T.: 2014.
16. Fogarty R. *How to Integrate the Curricula*. – Illinois: Skylight Publishing, 1991.
17. Xalilova X.T. Boshlang’ich sinf tabiiy fanlarni o’qitishning zamonaviy usullari / “*Boshlang’ich ta’lim tabiiy fanlarining zamonaviy tendensiyalari: muammolari, echimlari, o’qitishning innovatsion yondashuvlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. - T.: 2025-yil 14 may.

18. Xalilova X.T., Umarova N.A. Geografiyani o'qitishda matematik savodxonlik / *Academic research in educational sciences*. Volume 3 | ISSUE 1 | 2022. Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723. Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-786-789. https://cyberleninka.ru/article/n/geografiyani-oqitishda-matematik-savodxonlik

19. Xodiyeva D.P., Xalilova X.T., Ismatova Z.A. As a Factor of Interdisciplinary Integration-Educational Efficiency In Primary Grades. (2024). *Cahiers Magellanes-Ns*, 6(2), 6164-6175. https://cahiersmagellanes.com/index.php/CMN/article/view/967

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI INTEGRATSION RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.062

G‘aniyeva Nargiza Alijonovna
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
E-mail: ganiyevanargiza553@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi, bu jarayonda fanlararo integratsiyaning o‘rni va samarali mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ta’lim, integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik mexanizm, kompetentsiya, o'qituvchi, o'quv faoliyati, metodika, innovatsion yondashuv, ta'lim texnologiyalari, ijodiy fikrlash, professional kompetensiya, o'quv jarayoni, rivojlanish.

Аннотация.В данной статье анализируется актуальность развития навыков самостоятельной работы будущих учителей начальной школы в современной системе образования, роль междисциплинарной интеграции в этом процессе и эффективные механизмы.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, интеграция, начальное образование, педагогический механизм, компетентность, учитель, образовательная деятельность, методология, инновационный подход, образовательные технологии, творческое мышление, профессиональная компетентность, образовательный процесс, развитие.

Abstract. This article analyzes the relevance of developing independent work skills of future primary school teachers in the modern education system, the role of interdisciplinary integration in this process, and effective mechanisms.

Keywords: Independent learning, integration, primary education, pedagogical mechanism, competence, teacher, educational activity, methodology, innovative approach, educational technologies, creative thinking, professional competence, educational process, development.

Kirish Bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilash jarayonida o‘qituvchidan faqat tayyor bilimlarni uzatish emas, balki doimiy o‘z ustida ishlash va yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish talab etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ko‘p qirrali mutaxassis bo‘lganligi sababli, uning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini integratsion (yaxlit) asosda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyatda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgardi. Zamonaviy pedagogik paradiqmaning markazida endi shunchaki "bilim beruvchi" o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi, ularda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantira oladigan fasilitator-pedagog turishi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bo‘g‘ini shaxs kamolotining poydevori hisoblanishi, ushbu bosqichda faoliyat yurituvchi mutaxassislardan yuksak intellektual salohiyat va pedagogik kreativlikni talab etadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining professional tayyorgarligida mustaqil ishlash ko‘nikmalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, oliy ta’lim jarayonida olingan nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashmasa, o‘zining hayotiyligini yo‘qotadi. Mustaqil ta’lim jarayoni talabada nafaqat axborotni izlash va saralash, balki uni tahlil qilish, tizimlashtirish va amaliyotga tatbiq etish mahoratini shakllantiradi.

Biroq, an’anaviy ta’lim uslublari ko‘p hollarda talabani tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirib qo‘ymoqda. Bu esa talabalarda fanlararo bog‘liqlikni ko‘ra bilish, muammoli vaziyatlarda o‘zgaruvchan yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmasining yetishmasligiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini integratsion asosda rivojlantirish zarurati tug‘iladi. Integratsion yondashuv:

- Pedagogik va psixologik bilimlarning yaxlitligini ta’minlaydi;
- Talabaning dunyoqarashini kengaytirib, fanlarni alohida fragmentlar emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida ko‘rishga o‘rgatadi;
- Raqamli texnologiyalar va an’anaviy metodikani o‘zaro muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda aynan qaysi mexanizmlar orqali integratsion muhitni yaratish va bu orqali ularning professional kompetentligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta’limni integratsiyalash masalasi jahon va mamlakatimiz pedagogika fanida keng tadqiq etilgan. Ushbu tahlilni uchta asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin:

Mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish nazariyalari G‘arb pedagogikasida M.Noulz (Malcolm Knowles) tomonidan asos solingan *andragogika* tamoyillarida mustaqil ta’limga katta urg‘u beriladi. Uning fikricha, talaba o‘z ta’limi uchun mas’uliyatni his qilishi va jarayonda sub’ekt sifatida ishtirok etishi lozim. Rossiya pedagogikasida I.A.Zimnyaya va P.I.Pidkasistiy mustaqil ishni nafaqat dars shakli, balki talabaning bilish faolligini oshiruvchi asosiy vosita sifatida talqin etadilar.

Integratsion yondashuvning pedagogik asoslari Fanlararo integratsiya tushunchasi Y.A.Komenskiy va I.H.Pestalotstsi asarlarida tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning yaxlitligi g‘oyasi bilan boshlangan. Zamonaviy bosqichda esa V.V.Kraevskiy va A.V.Xutorskoy ta’lim mazmunini integratsiyalash orqali talabalarda fundamental kompetensiyalarni shakllantirish masalalarini ilmiy asoslab berganlar.

Milliy tadqiqotchilarning qarashlari O‘zbekistonlik olimlardan R.A.Mavlonova boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish metodikasini batafsil yoritib

bergan. N.Sh.Turdiyeva va B.Adizov kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy va mustaqil faoliyatini loyihalash, ta’limda tizimli yondashuvni qo‘llash mexanizmlariga alohida to‘xtalib o‘tganlar.

Xususan, N.H.Qo‘shvaqtov tadqiqotlarida mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning integratsion imkoniyatlari tahlil qilingan.

V.V. Kraevskiy va A.V. Xutorskoy: Bu olimlar "Meta-predmet" (fanlararo) ko‘nikmalar tushunchasini ilgari surishgan. Ularning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchi mustaqil ish jarayonida faqat bitta fan doirasida qolib ketmasdan, bilimlarni sintez qilishni (masalan, matematikani tasviriy san’at bilan bog‘lashni) o‘rganishi shart.

Y.M. Kolyagin: U integratsiyani o‘quv fanlarining o‘zaro kirishib ketishi sifatida tahlil qilgan. Uning nazariyasiga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil ishi didaktik integratsiya tamoyiliga asoslanishi kerak, ya’ni topshiriqlar talabani bir vaqtning o‘zida ham metodist, ham psixolog sifatida fikrlashga majbur qilishi lozim.

N.S.Sayidaxmedov: O‘zbekistonda pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha yetakchi olim. U mustaqil ishni talabaning "ijodiy laboratoriyasi" deb ataydi. Uning fikricha, integratsion rivojlanish mexanizmi talabadan o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi, nostandart vaziyatlarda qo‘llashni talab qiladi.

V.A.Adolf: U bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda integratsiyani asosiy omil deb biladi. Uning nazariyasida mustaqil ish talabaning axborot bilan ishlash madaniyatini (qidirish, saralash, qayta ishlash) rivojlantiruvchi asosiy mexanizmdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil ishlash ko‘nikmalari qanchalik integratsiyalashgan bo‘lsa, u ertaga boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga dunyoni shunchalik yaxlit va qiziqarli holda yetkazib bera oladi. Bu esa ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishning asosiy omilidir.

Metodologik asos Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini integratsion rivojlantirish – bu ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini yagona maqsad yo‘lida birlashtirishni taqozo etuvchi murakkab pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonning metodologik asosi quyidagi fundamental nazariyalar va yondashuvlarga tayanadi:

1. Kompetensiyaviy yondashuv (Competency-Based Approach)

Bu yondashuv talabada shunchaki bilim to‘plashni emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda, ayniqsa, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Mustaqil ishlar mazmuni talabaning metodik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini integratsiyalashga yo‘naltiriladi. Talaba darsga tayyorlanayotganda nafaqat mavzuni o‘rganadi, balki uni o‘quvchilarga qanday qilib qiziqarli yetkazish metodikasini ham mustaqil loyihalashtiradi.

2. Integrativ-differensial yondashuv

Metodologiyaning bu qismi ta’lim elementlarini o‘zaro bog‘lash (integratsiya) va shu bilan birga har bir talabaning individual qobiliyatini (differensatsiya) hisobga olishni talab qiladi.

Integratsiya: Fanlararo bog‘lanish (ona tili, matematika, tarbiya) orqali talabada dunyoning yaxlit pedagogik manzarasi hosil qilinadi.

Mexanizm: Talaba mustaqil ish sifatida "Tabiatshunoslik va ona tili fanlarini o‘zaro bog‘lovchi krossvord yaratish" kabi topshiriqlarni bajaradi. Bu uning kognitiv faolligini oshiradi.

3. Kontekstli ta’lim nazariyasi (Contextual Learning)

Metodologik asos A.A.Verbitskiyning kontekstli ta’lim nazariyasi talabaning mustaqil o‘quv faoliyati bosqichma-bosqich professional faoliyatga yaqinlashtiriladi.

O‘quv faoliyati: Ma’ruza va seminar matnlari bilan ishlash.

Kvazi-professional faoliyat: Sinf muhitini simulyatsiya qilish, dars ishlanmalari (konspekt) yaratish.

Professional faoliyat: Maktabdagi pedagogik amaliyot davrida real muammolarni mustaqil hal qilish.

4. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (Student-Centered Approach)

Mustaqil ishlash mexanizmi talabani o‘quv jarayonining markaziga qo‘yadi. Bu yerda o‘qituvchi "axborot beruvchi" emas, balki fasilitator (yo‘naltiruvchi) vazifasini o‘taydi. Talaba o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilib, o‘zi uchun individual rivojlanish trayektoriyasini chiza oladi. Bu esa unda "umrbod ta’lim olish" (lifelong learning) ko‘nikmasini shakllantiradi.

Integratsion rivojlantirishning asosiy mexanizmlari

Talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi mexanizmlar samarali hisoblanadi:

Loyiha usuli (Project Method): Talabalar guruh yoki individual tartibda "Zamonaviy boshlang‘ich sinf darsligi" yoki "Inkluziv ta’lim modeli" kabi loyihalar ustida ishlaydilar. Bu jarayonda izlanish, tahlil va sintez jarayonlari integratsiyalashadi.

Raqamli ta’lim muhiti (E-learning): Moodle, Google Classroom yoki boshqa platformalar orqali talabalarga mustaqil bajarish uchun interaktiv topshiriqlar beriladi. Bu ularning AKT-savodxonligini pedagogik mahorat bilan birlashtiradi.

Refleksiv tahlil (Reflection): Har bir topshiriqdan so‘ng talaba o‘z ishini "Nimalarni o‘rgandim?", "Qaysi bosqichda qiynaldim?" kabi savollar orqali tahlil qiladi. Bu mexanizm o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash ko‘nikmasini o‘stiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodkorligini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida foydalanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion usullar, o‘yin elementlari, amaliy mashqlar va guruhli faoliyatlar haqida so‘z yuritiladi KEYWORDS boshlang‘ich t’lim, ijodkorlik, ta’lim jarayoni, innovatsion usullar, shaxsiy rivojlanish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, o‘yin elementlari, amaliy mashqlar, guruhli faoliyat turli turlari, jumladan, vizual, musiqiy va lingvistik intellektlar haqida so‘z yuritadi. Uning ta'kidlashicha, har bir bola o‘ziga xos ijodiy qobiliyatga ega bo‘lib, bu qobiliyatlarni rivojlantirish uchun turli xil pedagogik yondashuvlar va vositalar kerak. Shuningdek, Piaget-“Intellektual rivojlanishning bosqichlari” asarida bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganadi va ijodkorlikning dastlabki shakllari bolalarning aqliy jarayonlarining bir qismi ekanligini ta'kidlaydi. Piagetga ko‘ra, bolalar tasavvurlarini mustahkamlash uchun o‘z tajribalaridan foydalanishlari zarur. Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirishda o‘quvchilarni yangi vaziyatlarga qarshi o‘rgatish muhimdir.

Xulosa Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini integratsion rivojlantirish — bu talabaning passiv tinglovchidan aktiv tadqiqotchiga aylanish jarayonidir. Yuqorida keltirilgan mexanizmlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, raqobatbardosh va kreativ fikrlaydigan pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy garovidir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini integratsion asosda rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot va tahlillar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

Tizimli yondashuvning zarurligi: Mustaqil ish faqat darsdan tashqari beriladigan topshiriqlar majmuasi emas, balki talabaning professional shakllanishini ta’minlovchi yaxlit tizimdir. Integratsiya mexanizmi orqali talaba o‘zlashtirayotgan nazariy bilimlari (pedagogika, psixologiya) va amaliy metodikalarining o‘zaro bog‘liqligini anglab yetadi. Bu esa unda dunyoning yaxlit pedagogik manzarasini shakllantiradi.

Fasilitatorlik rolining ustuvorligi: Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi an’anaviy “bilim uzatuvchi” rolidan “fasilitator” (yordamchi, yo‘naltiruvchi) roliga o‘tsagina, talabada mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmasi real rivojlanadi. Integratsion muhit talabani nafaqat o‘rganishga, balki o‘rganishni o‘rganishga (learning to learn) majbur qiladi.

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi: Mustaqil ishlarni tashkil etishda raqamli platformalar va elektron portfoliolardan foydalanish talabaning o‘z-o‘zini monitoring qilish qobiliyatini oshiradi. Bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shunchaki vosita emas, balki bilimlarni sintez qiluvchi integratsion muhit vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-435-sonli qarori (2022-yil 21-iyun): “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. Mavlonova R.A., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev SH. Pedagogika. – T.: “O‘qituvchi”, 2010. (Boshlang‘ich ta’limda integratsiya masalalari bo‘yicha asosiy manba).

3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006. (Mustaqil ishni tashkil etishning texnologik asoslari).

4. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasbiy ta’lim metodikasi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. (Kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari).

5. Ziyomuhammedov B. Pedagogika. – T.: “Turon-Iqbol”, 2006. (Mustaqil fikrlash va faollikni oshirish usullari).

6. Bespal’ko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. (Tizimli yondashuv va integratsiya nazariyasi).

7. Slavyanskaya L.S. Pedagogicheskoe obrazovanie: integrativniy podxod. – M., 2015. (Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy metodlari).

8. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в компетентностном подходе // Высшее образование в России. – 2010. – № 11. – С. 32-37.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

RAQAMLI MUHITDA BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVINI TA’MINLASHDA OTA-ONALAR MEDIASAVODXONLIGI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.063

Inoyatova Zulfiya Xamdamovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz bolalarning raqamli dunyoda o'rganishi uchun muhim xulq-atvor qoidalarini muhokama qilinadi. Shuningdek, ularga shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga qanday yordam berish, ijtimoiy tarmoqlarda qanday muloqot qilish, ishonchsiz ma'lumot manbalarini aniqlash hamda raqamli muhitni farzandlar uchun xavfsiz va ijobiy makonga aylantirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli dunyo, bola, ota-ona, Internet, raqamli texnologiya, onlayn muhit, o'yin faoliyati, content, ijtimoiy-psixologik ta’sir, xavf, media madaniyat, mediasavodxonlik, zararli media content, media muhit, media vosita, bolalar tarbiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются важные правила поведения, которые дети должны усвоить в цифровом мире. Также обсуждается, как помочь им защитить свою личную информацию, как общаться в социальных сетях, как распознавать недостоверные источники информации и как сделать цифровую среду безопасным и позитивным местом для детей.

Ключевые слова: родитель, дети, цифровой мир, Интернет, цифровые технологии, онлайн-среда, игровая деятельность, контент, социально-психологическое воздействие, риск, медиакультура, медиаграмотность, вредный медиаконтент, медиасреда, медиаинструмент, воспитание детей.

Abstract: Abstract. This article discusses important rules of conduct for children to learn in the digital world. It also discusses how to help them protect their personal information, how to communicate on social media, identify unreliable sources of information, and make the digital environment a safe and positive place for children.

Key words: parent, children, digital world, Internet, digital technologies, online environment, gaming activities, content, socio-psychological impact, risk, media culture, media literacy, harmful media content, media environment, media tool, raising children.

KIRISH. Virtual olamda informatsiyalar ko‘lamining tobora ortib borishi bolalar uchun o'z huquqlari haqida bilib olish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib berdi. Bugungi kunda aksariyat bolalar shaxsiy mobil qurilmalar orqali internet tarmoqlarga onlayn ulanishmoqda. Internet bolalar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularga va yoshlarga

muloqot qilish, o'rganish va o'ynash uchun ko'plab imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, u bolalarga yangi g'oyalar va turli xil ma'lumot manbalarini o'rganish, siyosiy va fuqarolik ishtiroki imkoniyatlarini kashf etish uchun platforma yaratadi, bu ularga rivojlanish, ijodiy bo'lish va jamiyatga mazmunli hissa qo'shish imkonini beradi. Biroq, internet va raqamli texnologiyalarga kengroq va osonroq kirish, shuningdek, mazmunli aloqani ta'minlash va bolalar huquqlari, ularning xavfsizligini ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Onlayn muhit bolalarni xavf-xatarlarga duchor qilishi va potentsial zarar etkazishi mumkin. Jumladan:

• *kontent bilan bog'liq xavflar*: noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlar, noo'rin yoki hatto (ekstremistik, zo'ravonlik mazmunidagi) taqiqlangan, o'zini kamsituvchi va o'ziga zarar yetkazuvchi, vayronkor va zo'ravonlik xatti-harakatlari, radikalizm yoki irqchi va kamsituvchi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq kontentlarga duchor bo'lish;

• *kattalar yoki tengdoshlar bilan aloqa qilish bilan bog'liq xavflar*: ta'qib qilish, chetlashtirish, kamsitish, tuhmat qilish va obro'siga putur yetkazish, jinsiy zo'ravonlik va jinsiy ekspluatatsiya, tovlamachilik, jinsiy maqsadlarda parvarish qilish, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik materiallari, sayohat va turizmda bolalar savdosi va jinsiy ekspluatatsiya hamda ekstremistik guruhlar tomonidan yollash;

• *shartnomaviy xavflar*: noo'rin shartnomaviy kelishuvlar, bolalarning onlayn roziligi, yashirin marketing, onlayn qimor o'yinlari va xakerlik, firibgarlik, shaxsni o'g'irlash va profilga asoslangan tarafkashlik kabi shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi va noto'g'ri ishlatilishi;

• *xulq-atvor xavflari*: o'z-o'zidan yaratilgan jinsiy kontentni almashish yoki kiberhujum, ta'qib qilish, chetlashtirish va ta'qib qilish kabi dushmanlik va zo'ravonlik bilan bog'liq tengdoshlar faoliyati bilan bog'liq xavflar va hakozo.

Bundan ko‘rininb turibdiki, onlayn muhitning transchegaraviy tabiati, bolalarni onlayn himoya qilishni ta'minlash uchun mutaxassis olimlar tomonidan milliy reja va strategiyalar ishlab chiqilmaganligi hamda bu holatlarni bartaraf etish uchun zarur choralar ko'rishga mo‘ljallangan maxsus resurslarning yo'qligi sababli bolalarni himoya qilish jarayonidagi murakkabliklar va tahdidlar tobora ortib bormoqda. Shuning uchun bolalarni onlayn himoya qilish eng dolzarb muammo sifatida virtual olam xavflarini kamaytirish va bolalarni onlayn duch kelishi mumkin bo'lgan zararlardan asrab-avaylash zarur. Bu boradagi maqsadli chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish uchun inson resurslarini ko'zda tutuvchi bolalarni onlayn himoya qilish strategiyasini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Faqatgina ota-onalar va pedagoglar hamkorligidagi muvofiqlashtirilgan yondashuv bilan bolalarni himoya qilish, ularga imkoniyatlar yaratish va kelajak avlodning raqamli muhitda gullab-yashnashini ta’minlash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining keng tarqalishi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli bolalarning raqamli muhitda xavfsiz va samarali faoliyat yuritishini ta’minlashda ota-onalar nazorati hamda mediasavodxonlik muhim omil sifatida tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda.

Raqamli ijtimoiylashuv masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda bolalarning internet va media vositalari orqali ijtimoiy tajriba orttirishi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi va yangi bilimlarni egallashi mumkinligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, nazoratsiz foydalanish bolalarning psixologik rivojlanishiga, axloqiy qadriyatlariga hamda ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etilgan.

Mediasavodxonlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turli jihatdan talqin qilinadi. Tadqiqotchilar mediasavodxonlikni axborotni tanqidiy tahlil qilish, media xabarlarning mazmunini tushunish, ularning maqsadi va ta’sir mexanizmlarini anglash hamda raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritish ko‘nikmalarining majmui sifatida izohlaydilar. Ushbu kompetensiya bolalarga internet tarmog‘idagi turli axborot oqimlarini baholash, soxta yoki zararli kontentni ajrata olish hamda o‘zining axborot madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Ota-onalar nazorati masalasi ham pedagogika va psixologiya sohasida alohida o‘rganilgan. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ota-onalar tomonidan bolalarning raqamli faoliyatini nazorat qilish, ularga media vositalaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish hamda internet xavfsizligi qoidalarini tushuntirish bolalarning raqamli muhitda ijtimoiylashuvini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda ota-onalar nafaqat nazorat qiluvchi, balki bolalar uchun media madaniyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik subyekt sifatida qaraladi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda bolalarning raqamli muhitda ijtimoiylashuvi, mediasavodxonlik va ota-ona nazorati masalalari keng o‘rganilgan.

Amerikalik tadqiqotchi Diane E.Levin bolalar media madaniyati va uning ijtimoiy-psixologik ta’sirini o‘rganib, ota-onalar mediasavodxonligi bolalarni zararli media kontentdan himoya qilishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Diane E.Levin o‘zining asarida media muhitining bolalar tarbiyasiga ta’sirini tahlil qiladi [4].

Media va bolalar madaniyati bo‘yicha tadqiqot olib borgan amerikalik olima Rebekka Xayns esa bolalar media madaniyatini tanqidiy-madaniy tadqiqotlar nuqtai nazaridan tadqiq qiladi. U "Bolalar va media jurnali" tahririyat kengashi a’zosi sifatida ishlab, 2025-yilda ikkita yangi kitob - "Ommaviy axborot vositalarida Barbie" va "Barbie va ijtimoiy media" nashr ettirgan. Rebekka Xayns ushbu asarlarida bolalar media madaniyati, marketing va ijtimoiylashuv jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan [14-19].

Shuningdek, xorijiy tadqiqotlarda ota-ona mediasavodxonligining bolalar rivojlanishiga ta’siri ham tahlil qilingan. Masalan, X.Zhou, C.Yu va Z.Zheng tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ota-onalar mediasavodxonligi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim sifati va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Bundan tashqari, T.Scull, J.Kupersmidt va T.Weatherholt tomonidan ishlab chiqilgan Media Detective Family dasturi oilaviy mediasavodxonlik ta’limi bolalarda zararli odatlar va xavfli axborot ta’sirini kamaytirishini ko‘rsatgan [28].

Zamonaviy tadqiqotlarda esa ota-ona va bolalar o‘rtasidagi raqamli hamkorlik muhimligi ta’kidlanadi. Masalan, L.Masterman axborot asrida media savodxonligi va bolalar

media kontentidan foydalanishda ota-ona bilan birgalikdagi muhokama bolalarda ijtimoiy-emosional rivojlanishni kuchaytirishini aniqlagan [13].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda raqamli muhitda bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni ta’lim muassasalari, oila va jamiyatning hamkorlikdagi faoliyati orqali amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu jarayonda mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlari, ota-onalar uchun treninglar va pedagogik maslahatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiyalik olimlar ham bolalar mediasavodxonligi va raqamli ijtimoiylashuv muammolarini keng o‘rgangan.

Masalan:

- A.V.Fedorov – media ta’lim nazariyasi va mediasavodxonlik bo‘yicha yetakchi tadqiqotchi [29];
- I.V.Chelysheva – bolalarda media madaniyatni shakllantirish metodikasi[30];
- A.V.Sharikov – bolalar va yoshlarning media iste’moli hamda internetdan foydalanish madaniyatini o‘rgangan [31-33].

Ushbu tadqiqotlarda mediasavodxonlik shaxsning axborotni tanqidiy tahlil qilish, media xabarlarni baholash va xavfsiz foydalanish kompetensiyasi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham axborot makoni, media madaniyat va yoshlar tarbiyasi masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganib kelmoqda.

Masalan:

- A.Qodirov - raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi masalalari [11];
- Sh.Karimov - raqamli transformatsiya jarayonlari va yoshlar ongiga ta’siri [12];
- A.Maxmudov - raqamli madaniyat va ijtimoiy tarmoq ta’siri [14];
- N.Jo‘raev – yoshlar tarbiyasi va axborot xavfsizligi;
- M.Quronov – ma’naviy tarbiya va yoshlar ijtimoiylashuvi;
- A.Abduqodirov – pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni kabi masalalarni tadqiq qilishgan.

O‘zbek olimlari tadqiqotlarida raqamli muhitda bolalar tarbiyasida ota-ona, maktab va jamiyat hamkorligi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy, rus va o‘zbek olimlari tadqiqotlarida bolalarning raqamli muhitda ijtimoiylashuvi jarayonida ota-ona nazorati, mediasavodxonlik va axborot madaniyati muhim pedagogik omillar sifatida talqin qilinadi. Ularning tadqiqotlari bolalarni raqamli xavflardan himoya qilish va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda oilaning roli katta ekanligini tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda bolalarning ijtimoiylashuvini samarali tashkil etishda ota-onalar nazorati va mediasavodxonlik bir-biri bilan uzviy bog‘liq omillar hisoblanadi. Ularning uyg‘unligi bolalarning axborot makonida xavfsiz, ongli va faol ishtirok etishini ta’minlaydi hamda raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

METODLAR: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

MUHOKAMA. Adabiyotlar tahlili va tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli muhit bolalarning ijtimoiylashuvi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, internet va media vositalaridan nazoratsiz foydalanish salbiy oqibatlar, jumladan, ijtimoiy izolyatsiya, noto‘g‘ri axborot qabul qilish, zararli kontentga duch kelish va internetga bog‘liqlik xavfini oshiradi.

Xorijiy tadqiqotlar, masalan, Diane Levin va Rebecca Hains bolalarning media madaniyati orqali ijtimoiy tajriba orttirishini ta’kidlagan bo‘lsa [4, 15-20], rus olimlari - A.V.Fedorov, I.V.Chelysheva, va A,V.Sharikovalar ota-ona nazorati va pedagogik vositalar bolalarda mediasavodxonlikni shakllantirishda asosiy vosita ekanligini ko‘rsatgan [28-32]. O‘zbek olimlaridan A.Qodirov, Sh.Karimov va A.Maxmudovlarning tadqiqotlari esa bolalarni raqamli xavflardan himoya qilish, ota-ona va maktab hamkorligini ta’minlash zarurligini tasdiqlaydi [11, 12, 14].

Muhokamada uchta asosiy xulosa ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. **Ota-ona nazorati bolalarning xavfsiz ijtimoiylashuvi uchun zarur:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalar bolalarning media faoliyatini kuzatib borish, vaqt va kontentga cheklovlar qo‘yish orqali ularning ijtimoiy va emosional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Nazorat faqat cheklash sifatida emas, balki pedagogik qo‘llab-quvvatlash sifatida amalga oshirilishi lozim.

2. **Mediasavodxonlik kompetensiyasi muhim omil:** Bolalarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, media kontentni baholash va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ijtimoiylashuv jarayonini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mediasavodxonlik faqat maktabda emas, oila va jamiyat hamkorligida rivojlantirilishi lozim.

3. **Ijtimoiylashuv va raqamli madaniyat integratsiyasi:** Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning raqamli muhitda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi oilaning nazorati, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va media madaniyati kompetensiyasini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu nafaqat xavfsizlikni ta’minlaydi, balki bolalarning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy bolalar tarbiyasida **ota-ona nazorati va mediasavodxonlik** bir-birini to‘ldiruvchi va bir-biriga bog‘liq omil sifatida qaraladi. Ularning uyg‘un ishlashi bolalarning raqamli jamiyatda ongli, xavfsiz va ijtimoiy jihatdan faol ishtirokini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar uchun treninglar, pedagogik maslahatlar va media madaniyati bo‘yicha qo‘llanmalar yaratish amaliy tavsiya sifatida ko‘rsatiladi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli muhitda bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ota-onalar nazorati va mediasavodxonlik kompetensiyasi bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan:

1. ***Ota-ona nazorati samaradorligi.*** Anketa so‘rovlari natijalariga ko‘ra, ota-onalar bolalarning media faoliyatini muntazam nazorat qilgan hollarda, bolalar internetdan

mas’uliyat bilan foydalanadi, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qoidalariga rioya qiladi va zararli kontentdan kamroq ta’sirlanadi. Bu holat ayniqsa maktabgacha va boshlang‘ich yoshdagi bolalar uchun sezilarli bo‘ldi.

2. ***Mediasavodxonlik darajasi va ijtimoiylashuv.*** Bolalarning mediasavodxonligi yuqori bo‘lgan oilalarda, ular raqamli muhitdagi o‘yin, ta’lim va kommunikativ faoliyatda faol ishtirok etadi, muloqot qobiliyatlari yuqori va ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlangan. Shu bilan birga, mediasavodxonlik bolalarning axborotni tanqidiy baholash va noto‘g‘ri kontentni ajratib olish qobiliyatini oshiradi.

3. ***Yosh va ijtimoiylashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik.*** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yosh o‘sib borgani sayin bolalar mustaqil raqamli faoliyatga o‘tadi, ammo ota-onaning pedagogik qo‘llab-quvvatlashi va mediasavodxonligi ularning xavfsiz va samarali ijtimoiylashuvini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maktabgacha va boshlang‘ich yoshdagi bolalarda ota-onaning faol nazorati ayniqsa zarur.

4. ***Ota-ona va pedagoglarning hamkorligi.*** Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ota-onalar bilan pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik bolalarning raqamli muhitdagi faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Maktabda mediasavodxonlik bo‘yicha o‘qitilgan bolalar oilada nazorat va maslahat bilan birlashtirilganda ijtimoiy ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bolalarning raqamli muhitda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi ota-onaning faol nazorati, mediasavodxonligi va pedagogik hamkorlikning uyg‘unligi orqali amalga oshadi. Ushbu omillar birgalikda bolalarning xavfsiz, ongli va ijtimoiy jihatdan rivojlangan shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

XULOSA. Raqamli texnologiyalar va internetning keng joriy etilishi bolalarning ijtimoiylashuv jarayonlarini tubdan o‘zgartirdi. Onlayn muhit bolalarga yangi bilim olish, kommunikatsiya qilish va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini beradi, biroq shu bilan birga xavf va tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalarning raqamli muhitda xavfsiz va samarali ijtimoiylashuvini ta’minlashda ota-onalarning faol nazorati va mediasavodxonligi muhim rol o‘ynaydi.

Ota-onalar nafaqat bolalarning onlayn faoliyatini kuzatishi, balki ularga axborot resurslarini tanlash, tahlil qilish va ongli ravishda foydalanishni o‘rgatishi lozim. Mediasavodxonlik bolalarga zararli kontentdan himoyalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va internetdagi xavf-xatarlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan pedagoglar va jamiyatning birgalikdagi yondashuvi bolalarning raqamli muhitdagi ijtimoiy va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy davrda bolalarni raqamli muhitda himoya qilish masalasi faqat texnologik jihatdan emas, balki pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ham tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli ota-onalar nazorati va mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar, treninglar va axborot-resurslardan foydalanish bolalarning xavfsiz va ongli ijtimoiylashuvini ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi.

Natijada, bolalarning raqamli muhitdagi ijtimoiylashuvini qo‘llab-quvvatlashda ota-onalarning roli faqat nazorat bilan cheklanmay, ularning tarbiyaviy va o‘qituvchilik

funksiyalarini ham o‘z ichiga olishi zarurligi aniqlandi. Bu esa kelajakda bolalar uchun xavfsiz va sog‘lom raqamli muhit yaratishning muhim sharti sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Akhmedova M., Inoyatova Z., Ergasheva G., Aripova G., & Kayumova S. (2020). Primary classes based on media technologies represent an international rating system for teacher control. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 3872-3885.

2. Выготский Л.С. Игра и её роль в психическом развитии ребёнка. - М.: Педагогика, 1984.

3. Газман О.С. В школу — с игрой. - М.: Просвещение, 1991.

4. Diane E.Levin. So Sexy So Soon: The New Sexualized Childhood. ISBN 9780345505071. Publisher: Penguin Random House. 2009.

5. Inoyatova Z.X., Po'latova G.N., & Khojimurodova D. (2022). Forming a scientific worldview in students during the educational process. *Science and Education*, *3*(12), 795-800.

6. Inoyatova Z., Karamatova D., Baltamuratova A., & Aralova D. (2022). Pedagogical conditions for the development of methodological training of future primary class teachers. *Ann. For. Res*, *65*(1), 2291-2296.

7. Inoyatova Z. (2024). The Mechanism Of Improving The System Of Methodological Preparation In Teaching The Subject Of Upbringing In Future Teachers Of Primary Education // *Science and innovation*, *3*(B11), 162-165.

8. Inoyatova Z. (2023). Technology for improving the methodological preparation of future primary class teachers for teaching sciences // *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *2*(19), 75-77.

9. Иноятова З.Х. (2021). Интегрированный урок «воспитание» совместно с литературным чтением и изобразительному искусству в 3 классе / *Наука, Образование, инновации: актуальные вопросы и современные аспекты* (pp. 232-236).

10. Inoyatova Z.X., & Mansurova M.J. (2025). Education of gifted students in primary grades–as a pedagogical problem // *Scientific Approach To The Modern Education System*, *3*(33), 80-83.

11. Qodirov A. Raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi masalalari // O’zbekiston axborot jamiyati jurnali, 2022.

12. Karimov Sh. Raqamli transformatsiya jarayonlari va yoshlar ongiga ta’siri // Ta’lim va jamiyat, 2023. -B.117.

13. Masterman, L. A Rational for Media Education. In: Kubey, R. (Ed.) Media Literacy in the Information Age. – New Brunswick & London: Transaction Publishers. 1997.

14. Maxmudov A. Raqamli madaniyat va ijtimoiy tarmoq ta’siri. https://zenodo.org/records/14190991

15. Rebecca Hains. Growing Up With Girl Power: Girlhood on Screen and in Everyday Life. - Peter Lang, 2012.

16. Rebecca Hains. Barbie in the Media [Ommaviy axborot vositalarida Barbie]. - Palgrave, 2025.

17. Rebecca Hains. Barbie and Social Media [Barbie va ijtimoiy media]. - Palgrave, 2025.

18. Rebecca Hains. 20 Questions About Youth and Media. - Peter Lang, 2018.

19. Rebecca Hains. Deconstructing Dolls: Girlhoods and the Meanings of Play. - Bergahn Books, 2022.

20. Rebecca Hains. The Princess Problem: Guiding Our Girls Through the Princess-Obsessed Years. - Sourcebooks, 2014.

21. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // *Scientific Progress*. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf

22. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // *Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture Innovative Academy Research Support Center* UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume 2 Issue 4, April 2022. - Pages 136-139. https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330

23. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // *Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali*. Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59–62. Retrieved from http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552

24. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o’quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // *Scientific Progress*. Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf

25. Салаева М.С., Ким Х.В. Формирование положительной мотивации у младших школьников к учебной деятельности// *World of Scientific news in Science International Journal.* 2024 Vol. 2 №. 4. – Pp. 147-153. https://worldofresearch.ru/index.php/wsjc/article/view/439

26. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // *Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali.* Volume 2, ISSUE 1, ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. 2024. January. -Pp. 16-25.

27. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. - М.: Народное образование, 1998.

28. Scull, T.M., Kupersmidt, J.B., & Weatherholt, T.N. (2017). The effectiveness of online, family-based media literacy education for substance abuse prevention in elementary school children: Study of the Media Detective Family program. Journal of Community Psychology, 45(6), 796-809. https://doi.org/10.1002/jcop.21893

29. Федоров А.В. Медиаобразование: история и теория. М.: МОО “Информация для всех», 2015. 450 с.

30. Челышева И.В. Мир социальных сетей и семейное воспитание школьников. Таганрог: Изд-во Таганрог. ин-та имени А.П.Чехова, 2014. 128 с.

31. Шариков А.В. Медиаобразование: мировой и отечественный опыт. - М.: Академия педагогических наук СССР, 1990. - 66 с.

32. Шариков А.В. Концепция медиаобразования во второй ступени средней образовательной школы. М.: Академия педагогических наук СССР, 1991. - 23 с.

33. Шариков А.В., Черкашин Е.А. Экспериментальные программы медиаобразования. Для старших классов школ гуманитарной ориентации. - М.: Академия педагогических наук СССР, 1991. - 44 с.

34. Шмаков С.А. Игры учащихся — феномен культуры. - М.: Новая школа, 1994.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

OLIY TA’LIMDA TALABALARNING TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI (TAJRIBA-SINOV ISHLARI MISOLIDA)

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.064

G.O.Xamrakulova
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Tel:939081103

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarning texnik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida talabalarning aqliy faoliyati reproduktiv (takrorlovchi) xarakterdan ijodiy-tahliliy bosqichga o‘tkazish masalalari tahlil qilingan. Maqolada 2024–2025-o‘quv yillarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish, raqamli modellashtirish va loyiha asosida ta’lim metodlarining samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. O‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida talabalarning texnik tafakkur haqidagi tasavvurlari, ularning mustaqil izlanishga tayyorgarlik darajasi va innovatsion ta’lim texnologiyalariga bo‘lgan munosabati aniqlangan. Tadqiqot yakunida oliy ta’limda axborot yetkazishning an’anaviy usullaridan voz kechib, talabani bilim yaratuvchi sub’ekt sifatida shakllantirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini va texnik tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

K**alit so‘zlar:** *texnik tafakkur, oliy ta’lim, innovatsion yondashuv, muammoli o‘qitish, raqamli modellashtirish, tajriba-sinov ishlari, pedagogik metodika, tahliliy fikrlash, kasbiy kompetensiya, loyiha asosida ta’lim, talaba faoliyati, mustaqil izlanish, texnik yo‘nalish, ta’lim samaradorligi.*

Abstract. This article examines the pedagogical and methodological foundations for developing students' technical thinking within the higher education system. The research analyzes the transition of students' mental activities from a reproductive nature to a creative-analytical stage. The article presents the results of experimental work conducted during the 2024–2025 academic years, providing scientific justification for the effectiveness of problem-based learning, digital modeling, and project-based learning methods. Through surveys, students' perceptions of technical thinking, their readiness for independent research, and their attitudes toward innovative educational technologies were identified. The study concludes with the development of methodological recommendations aimed at moving away from traditional information delivery methods in higher education to forming the student as a knowledge-creating subject, thereby enhancing their professional competencies and technical thinking.

Keywords: technical thinking, higher education, innovative approach, problem-based learning, digital modeling, experimental work, pedagogical methodology, analytical thinking, professional competence, project-based learning, student activity, independent research, technical field, educational efficiency.

KIRISH. Bugungi jadal texnologik taraqqiyot davrida oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri, mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil va tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlashdir. Ayniqsa, texnik yo‘nalishdagi talabalarning kasbiy shakllanishida **texnik tafakkur** hal qiluvchi o‘rin tutadi. Texnik tafakkur nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki murakkab muammoli vaziyatlarda kreativ yechimlar topish, raqamli modellashtirish vositalaridan unumli foydalanish va loyihalash ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan kompleks kompetensiyadir.

Zamonaviy oliy ta’lim bosqichida o‘quv jarayonining natijadorligi talabalarda mustaqil mushohada yuritish, ijodiy yondashuv va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarining qay darajada rivojlanganligi bilan o‘lchanadi. Talabalik davrining mazmuni, intellektual izlanish, axborotni tizimli tahlil qilish va nazariy bilimlarni real amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir. Shu sababli, pedagogik faoliyat faqatgina tayyor ma’lumotlarni uzatish bilan cheklanib qolmasdan, balki talabani savol berishga, yangi g‘oyalar ustida ishlashga va tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirishi shart.

Oliy maktabda bilim berish strategiyasini o‘zgartirish, talabani passiv tinglovchidan faol bilim yaratuvchi sub’ektga aylantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yagona yo‘lidir. Bu jarayonda texnik fikrlashni shakllantiruvchi metodlar va mustaqil ish topshiriqlari muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonini bevosita ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Talabalarga real texnik topshiriqlar va muammoli keyslar berilishi ularda fazoviy tasavvur, tahliliy fikrlash hamda texnik mulohaza yuritish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida talaba nafaqat xulosalar chiqaradi, balki nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yechimlar topish mahoratini shakllantiradi.

Mazkur innovatsion yondashuv ta’lim tizimidagi an’anaviy o‘qituvchi va talaba munosabatlarini ham tubdan o‘zgartiradi. Bunda pedagog shunchaki tayyor axborot yetkazuvchi sub’ekt bo‘lmasdan, balki talabani izlanishga undovchi, motivatsiya beruvchi va murakkab tahlil jarayonlarida yo‘naltiruvchi moderator (tyutor) vazifasini bajaradi. Bu esa oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirib, talabaning nafaqat nazariy bilimlar jamg‘armasiga, balki professional faoliyatda zarur bo‘ladigan amaliy malakalar majmuasiga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida ishtirokchilarning faoliyatida sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi. Xususan, talabalarda mustaqil tadqiqot olib borishga bo‘lgan ichki motivatsiya kuchaydi va texnik tafakkurning aniqlik darajasi oshdi. Shuningdek, jamoaviy ishlash jarayonida muammoli vaziyatlarni o‘zaro hamkorlikda hal qilish, innovatsion

g‘oyalarni ilgari surish va loyihaviy topshiriqlarni ijodiy ijro etish kabi muhim ijtimoiy-kasbiy ko‘nikmalar tarkib topdi.

Oliy ta’lim muassasalarida texnik tafakkurni shakllantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar shuni tasdiqlaydiki, o‘quv faoliyatini interfaol, ijodiy va muammoli izlanishga yo‘naltirish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bilim olish jarayonining bunday transformatsiyasi bo‘lajak mutaxassislarning amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirib, mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot jarayoni tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, olingan natijalarni tizimlashtirish hamda ularning samaradorligini ilmiy jihatdan baholash tamoyillariga asoslanadi.

Talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar 2024–2025-o‘quv yillari davomida Qarshi shahridagi Iqtisodiyot va pedagogika universitetining birinchi bosqich talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad, talabalarning tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuv darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik metodlar hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligini amaliy jihatdan tekshirishdan iboratdir.

Tadqiqot jarayoni mantiqiy izchillikni ta’minlash maqsadida uchta asosiy bosqichda tashkil etildi. Har bir bosqichning o‘ziga xos strategik maqsadlari, amalga oshirish mexanizmlari va metodik yondashuvlari aniq belgilab olindi. Mazkur bosqichma-bosqich yondashuv tajriba davomida kuzatilgan o‘zgarishlarni tizimli tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarni ob’ektiv baholash hamda yakuniy xulosalarning ilmiy asosli bo‘lishini ta’minlash imkonini berdi.

Asoslovchi-ta’kidlovchi bosqich (2023–2024-o‘quv yillari).

Tadqiqotning dastlabki bosqichida talabalarda texnik tafakkurni shakllantirish jarayonining fundamental nazariy va metodologik asoslarini yaratishga ustuvor ahamiyat berildi. Mazkur bosqich doirasida amalga oshirilgan ishlar quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldi:

Ilmiy-nazariy tahlil: Tadqiqotning ob’ekti, predmeti va maqsadli vazifalari aniq belgilab olindi, mavzuning zamonaviy oliy ta’limdagi dolzarbligi ilmiy asoslandi. Texnik tafakkur, muammoli ta’lim strategiyalari, raqamli modellashtirish hamda ijodiy mushohada yuritishga doir xorijiy va milliy ilg‘or tajribalar tahlil qilindi.

Holat diagnostikasi: Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishning amaldagi holati o‘rganilib, tizimda kuzatilayotgan metodik kamchiliklar tahliliy ko‘rib chiqildi.

Resurslar auditi: Tajriba-sinov maydoni sifatida tanlangan Iqtisodiyot va pedagogika universitetining moddiy-texnik imkoniyatlari, xususan, laboratoriya jihozlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta’lim vositalari bilan ta’minlanganlik darajasi baholandi.

Metodik ta’minot: Talabalarning texnik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi o‘quv-didaktik majmualar, muammoli topshiriqlar to‘plami va nazorat testlari loyihalashtirildi.

Dastlabki monitoring: Tajriba jarayoniga jalb etilgan professor-o‘qituvchilar va birinchi bosqich talabalari bilan diagnostik suhbatlar o‘tkazildi. Bu orqali ishtirokchilarning texnik tafakkur darajasi va innovatsiyalarni qabul qilish tayyorgarligi bo‘yicha boshlang‘ich ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Ushbu bosqichda tadqiqot muhiti atroflicha o‘rganilib, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zaruriy diagnostik instrumentariy shakllantirildi. Shu asosda ishlab chiqilgan maxsus so‘rovnomalar yordamida talabalarning mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda optimal yechim topish va tahliliy mushohada yuritish kabi intellektual sifatlari baholashdan o‘tkazildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida Iqtisodiyot va pedagogika universitetining birinchi bosqich talabalari o‘rtasida maxsus ijtimoiy-pedagogik so‘rovnoma o‘tkazildi. Diagnostika jarayonida talabalarga quyidagi mazmundagi savollar havola etildi:

1. **Texnik tafakkur tushunchasining mazmuni:** Sizning tasavvuringizda texnik fikrlash qanday jarayonlarni qamrab oladi?
2. **Fanlararo bog‘liqlik:** Qaysi akademik fanlar va mashg‘ulot turlari texnik tafakkurni shakllantirishda poydevor vazifasini o‘taydi deb hisoblaysiz?
3. **Faollik darajasi:** O‘quv mashg‘ulotlari davomida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va texnik yechimlar izlash jarayonlarida qanchalik faol ishtirok etasiz?
4. **Innovatsiyalar ta’siri:** Raqamli modellashtirish va loyihaviy ta’lim kabi zamonaviy texnologiyalar fikrlash doirangiz kengayishiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?
5. **Mustaqil tadqiqotchilik:** O‘quv jarayonida yangi g‘oyalar yaratish va mustaqil izlanish olib borishga bo‘lgan ichki ehtiyojingiz qay darajada?
6. **Qaror qabul qilish mustaqilligi:** Texnik vazifalarni bajarishda ko‘proq tayyor yo‘riqnomalarga tayanasizmi yoki shaxsiy yondashuvingizni afzal ko‘rasizmi?
7. **Metodik tavsiyalar:** Sizningcha, dars samaradorligini oshirish va texnik fikrlashni rivojlantirish uchun qanday o‘qitish shakllarini joriy etish lozim?
8. **Jamoaviy hamkorlik:** Guruh bo‘lib loyihalar ustida ishlash va muammoli tahlillarni birgalikda yuritishning kasbiy shakllanishdagi ahamiyatini qanday baholaysiz?

Ushbu savollarga berilgan javoblar talabalarning intellektual salohiyatini tahlil qilish va keyingi bosqichlarda qo‘llaniladigan pedagogik strategiyalarni optimallashtirish uchun muhim empirik ma’lumotlar bazasini shakllantirdi.

O‘tkazilgan diagnostik tadqiqot natijalari talabalarning texnik tafakkur darajasi, mustaqil izlanish ko‘nikmalari va innovatsion metodikaga munosabati bo‘yicha muhim statistik ma’lumotlarni taqdim etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar kelajakdagi tajriba-sinov mashg‘ulotlarini tizimli rejalashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun empirik asos bo‘lib xizmat qildi. Tahlillar davomida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Kontseptual tasavvurlarning shakllanganligi. So‘rovnoma natijalari talabalarning texnik tafakkur mohiyatini anglash darajasi hali ham tor doirada ekanligini ko‘rsatdi. Respondentlarning mutloq ko‘pchiligi (**68 foiz**) ushbu tushunchani faqat texnik ko‘nikmalar va mexanik jarayonlar bilan bog‘laydi. Faqatgina **21 foiz** ishtirokchi texnik tafakkur tarkibiga muammoli mushohada, kreativlik va tahliliy yondashuv elementlarini kirita olgan. Bu holat

oliy ta’lim jarayonida texnik tafakkurni keng qamrovli intellektual kompetensiya sifatida tushuntirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Metodik muhit va resurslardan foydalanish. Ta’lim jarayonida faol o‘qitish metodlarining qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘rsatkichlar yetarli emasligi aniqlandi. Ishtirokchilarning **74 foizi** darslarda loyihaviy ishlar va muammoli topshiriqlar tizimli ravishda qo‘llanilmasligini ta’kidlagan bo‘lsa, **61 foizi** raqamli modellashtirish va virtual laboratoriya vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud emasligini bildirgan. Ushbu natijalar oliy ta’lim muassasalarida moddiy-texnik bazani yangilash va metodik ta’minotni innovatsion vositalar bilan boyitish lozimligini ko‘rsatadi.

Mustaqil faoliyat va motivatsion omillar. Tadqiqot talabalarning mustaqil izlanishga tayyorgarlik darajasi past ekanligini fosh etdi. Respondentlarning **70 foizi** mustaqil loyihalar bajarish tajribasiga ega emasligini va o‘qituvchi yo‘riqnomasisiz yechim topishda qiynalishini ma’lum qilgan. Shunga qaramay, talabalarda yangilikka intilish va motivatsiya darajasi yuqori ekanligi quvonarli holatdir: **82 foiz** respondent texnik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarning muntazam o‘tkazilishini qo‘llab-quvvatlagan. Ayniqsa, jamoaviy va loyihaviy ishlar samaradorligiga bo‘lgan ishonch (**67 foiz**) kelgusida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan unumli foydalanish imkonini beradi.

Tahlil davomida aniqlangan eng asosiy muammo, aksariyat talabalarning texnik tafakkur fenomenini keng qamrovli intellektual faoliyat sifatida hali to‘liq anglab yetmaganligidir. Ko‘pchilikda ushbu tushuncha faqatgina texnik ko‘nikmalar majmuasi sifatida saqlanib qolmoqda, holbuki zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimi tahliliy mushohada va muammoli vaziyatlarda optimal yechim topish qobiliyatini talab etadi.

Shundan kelib chiqqan holda, o‘quv jarayonining sifatini tubdan yaxshilash uchun quyidagi innovatsion komponentlarni ta’lim amaliyotiga kengroq integratsiya qilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

Muammoli o‘qitish: Talabalarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishdan, o‘quv muammolarini mustaqil tahlil qilish va yechishga o‘tkazish.

Raqamli modellashtirish: Nazariy kontseptsiyalarni virtual va raqamli muhitda vizualizatsiya qilish hamda sinab ko‘rish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Loyihaviy ta’lim: Talabalarning jamoada ishlash mas’uliyati va aniq yakuniy natijaga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish.

Interfaol mashg‘ulotlar: O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi an’anaviy muloqotni hamkorlikdagi izlanish va fikrlar almashinuvi (dialogik) shakliga o‘tkazish.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muhitini mana shunday innovatsion vositalar bilan boyitish talabalarning nafaqat texnik savodxonligini oshiradi, balki ularni kelajakdagi murakkab kasbiy vazifalarga tayyor bo‘lgan, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahimova N.S. Texnik tafakkurni rivojlantirishda onlayn va masofaviy o‘qitish // “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. – Toshkent, 2024.

2. Психологический словарь / Под ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. – М.: Политиздат, 1990. – 494 с.

3. Чебышева В.В. Особенности технического мышления у студентов педагогических вузов. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1995. – 144 с.

4. Стоун Э. Обучение мышлению: теория и практика. – Москва: Мир, 1991. – 230 с.;

5. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – Москва: Просвещение, 2000. – 288 с.

6. Shuxratov S. Sh. Ta’lim jarayonida texnologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. –Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti, 2019.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ADABIYOT DARSLARIDA KREATIV METODLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.065

Oromova Nafosat Jo‘rayevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitish jarayonida kreativ metodlardan foydalanishning metodik va didaktik asoslari tahlil qilinadi. Adabiyot darslari o‘quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish, ularning badiiy didini shakllantirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda klaster, insert, sinkveyn, muammoli savollar va ijodiy topshiriqlar kabi interfaol metodlarning o‘quv jarayonidagi samaradorligi yoritiladi. Natijalar adabiyot ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning faolligini oshirishi hamda badiiy matnni chuqurroq anglashiga yordam berishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: adabiyot ta’limi, o‘qitish metodikasi, kreativ metodlar, interfaol usullar, badiiy tahlil

Abstract. This article analyzes the methodological and didactic foundations of using creative methods in teaching literature in secondary schools. Literature lessons play an important role in developing students’ aesthetic thinking, forming artistic taste, and improving independent thinking skills. The study discusses the effectiveness of interactive methods such as cluster, insert, cinquain, problem-based questions, and creative tasks in the learning process. The results show that the application of innovative pedagogical technologies in literature education increases students’ engagement and contributes to deeper understanding of literary texts.

Keywords: literature education, teaching methodology, creative methods, interactive learning, literary analysis

Аннотация.В статье анализируются методические и дидактические основы использования креативных методов в преподавании литературы в общеобразовательных школах. Уроки литературы играют важную роль в развитииэстетического мышления учащихся, формировании художественного вкуса и развитии навыков самостоятельного мышления. В исследовании рассматривается эффективность интерактивных методов, таких как кластер, инсерт, синквейн, проблемные вопросы и творческие задания. Результаты показывают, что использование инновационных педагогических технологий способствует повышению активности учащихся и более глубокому пониманию художественного текста.

Ключевые слова: литературное образование, методика преподавания, креативные методы, интерактивное обучение, анализ текста

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiyot fanini o‘qitish jarayonida bu masala alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy adabiyot insonning ma’naviy dunyosini boyitish, estetik didini shakllantirish va ijtimoiy-madaniy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ta’limiy vosita hisoblanadi.

Adabiyot darslari o‘quvchilarning nafaqat badiiy matnni tushunishi, balki uning g‘oyaviy-badiiy mazmunini anglash, obrazlar tizimini tahlil qilish hamda asarda ilgari surilgan g‘oyalarni hayotiy voqelik bilan bog‘lay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli adabiyot ta’limi jarayonida o‘quvchilarning tafakkurini faollashtiruvchi, ularni mustaqil mushohada yuritishga undovchi hamda badiiy matn bilan faol ishlash imkonini beruvchi metodlardan foydalanish zarur.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish keng qo‘llanilmoqda. Bunday metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, adabiyot darslarida kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularning estetik idrokini boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot ta’limi metodikasida badiiy asarni o‘rganish jarayoni ko‘p bosqichli didaktik jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayonda o‘quvchilar asarni o‘qish, uning mazmunini anglash, obrazlarni tahlil qilish, g‘oyaviy xulosalar chiqarish hamda shaxsiy munosabat bildirish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi. Shu sababli o‘qituvchi tomonidan tanlanadigan metodlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va tafakkur rivoji bilan uyg‘un bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Zamonaviy metodik yondashuvlarda o‘qituvchi bilim beruvchi subyekt sifatida emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi shaxs sifatida qaraladi. O‘quvchi esa bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, adabiyot darslarida kreativ va interfaol metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada adabiyot darslarida kreativ metodlardan foydalanishning didaktik va metodik asoslari tahlil qilinadi hamda bunday metodlarning o‘quv jarayonidagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Adabiyot ta’limi metodikasi pedagogika va adabiyotshunoslik fanlari kesishgan nuqtada shakllangan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar badiiy asarni o‘qitish jarayonining nazariy asoslarini ishlab chiqish,

o‘quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish hamda adabiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalarini qamrab oladi.

O‘zbek pedagogika ilmida adabiyot o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda badiiy asarni o‘rganish jarayonining didaktik xususiyatlari, o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish hamda adabiy tahlil metodlarini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, metodist olimlar tomonidan adabiyot darslarida badiiy asarni o‘rganishning bosqichlari, o‘quvchilar tomonidan matnni idrok etish jarayonlari hamda adabiy obrazlarni tahlil qilish usullari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda adabiyot ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, ularning estetik didini shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, adabiyot darslarida qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning fikrlash faoliyatini faollashtirishga ham xizmat qilishi zarur.

Zamonaviy ta’lim nazariyasida interfaol metodlar o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb etadi, ularning muloqot, tahlil va muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, adabiyot ta’limida bunday metodlardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy matnni chuqurroq anglashiga hamda asar mazmunini mustaqil tahlil qilishiga yordam beradi.

Adabiyot darslarida kreativ metodlardan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika ilmida alohida e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Kreativ metodlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan, klaster, insert, sinkveyn, muammoli savollar hamda bahs-munozara metodlari o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda adabiyot darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish, matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning mustaqil fikrlashini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Shu sababli adabiyot ta’limi jarayonida kreativ va interfaol metodlarni qo‘llash masalasi metodika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaraladi.

Metodologiya (Methods)

Mazkur tadqiqotda adabiyot darslarida kreativ metodlardan foydalanishning metodik asoslarini aniqlash hamda ularning o‘quv jarayonidagi samaradorligini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

Avvalo, tadqiqot jarayonida deskriptiv tahlil usuli qo‘llanilib, adabiyot ta’limi metodikasiga oid ilmiy manbalar, pedagogik tadqiqotlar hamda metodik qo‘llanmalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil yordamida adabiyot darslarida qo‘llaniladigan kreativ metodlarning nazariy asoslari hamda didaktik imkoniyatlari o‘rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik kuzatish metodidan foydalanildi. Bu usul yordamida adabiyot darslari jarayonida o‘quvchilarning badiiy matnni tahlil qilishdagi ishtiroki, ularning dars jarayonidagi faolligi hamda mustaqil fikrlash darajasi kuzatildi. Kuzatish natijalari kreativ

metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faol ishtiroki va qiziqishi sezilarli darajada ortishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot jarayonida taqqoslash metodi ham qo‘llanildi. Bu metod orqali interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar natijalari an’anaviy usullar asosida o‘tilgan darslar bilan qiyoslab o‘rganildi. Natijada kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy matnni chuqurroq anglashiga hamda tahliliy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda tahlil va umumlashtirish metodlaridan ham foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida o‘rganilgan pedagogik tajribalar umumlashtirildi hamda adabiyot darslarida kreativ metodlardan foydalanishning metodik tavsiyalari ishlab chiqildi.

Shu tariqa tadqiqot metodologiyasi adabiyot ta’limi jarayonida kreativ metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda o‘rganishga imkon berdi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot jarayonida adabiyot darslarida kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi, badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalari hamda mustaqil fikrlash darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Xususan, klaster metodidan foydalanish o‘quvchilarga badiiy asarning asosiy g‘oyasi, syujet rivoji hamda obrazlar tizimini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar asarda ifodalangan g‘oyaviy mazmunni yaxlit holda anglash hamda asar qismlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni aniqlashga muvaffaq bo‘ldi.

Insert metodidan foydalanish esa o‘quvchilarning matn bilan faol ishlashini ta’minladi. O‘quvchilar matnni o‘qish jarayonida yangi ma’lumotlarni belgilash, tushunilmagan joylarni aniqlash hamda o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa ularning matnni chuqurroq anglashiga xizmat qildi.

Sinkveyn metodidan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam berdi. O‘quvchilar badiiy asarning asosiy mazmunini qisqa va obrazli shaklda ifodalash orqali asarning g‘oyaviy mohiyatini chuqurroq anglay boshladi. Shu bilan birga, ushbu metod o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, kreativ metodlardan foydalanilgan adabiyot darslarida o‘quvchilar o‘rtasida fikr almashish, muhokama qilish hamda bahs yuritish jarayonlari faolroq kechadi. Bu esa o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama (Discussion)

Adabiyot ta’limida kreativ metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning estetik tafakkurini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Badiiy asarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy fikri va munosabatini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy o‘qitish usullarida o‘quvchi ko‘pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi. Bu esa

o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi hamda ularning badiiy matnni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Kreativ metodlar o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash hamda asosli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, adabiyot darslarida bunday metodlardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularning nutq madaniyatini ham takomillashtiradi.

Shuningdek, kreativ metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bunday darslarda o‘quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada o‘quv jarayonining samaradorligi oshadi va o‘quvchilar bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi.

Xulosa (Conclusion)

Adabiyot darslarida kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning badiiy asarni chuqurroq anglashiga yordam beradi hamda tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli adabiyot ta’limi jarayonida kreativ metodlardan keng foydalanish pedagogik jihatdan samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirish hamda badiiy matnni chuqurroq idrok etishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy adabiyot ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim metodik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 256 b.

2. Hasanboyeva O., To‘raqulov X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 320 b.

3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017. – 304 b.

4. Zunnunov A. Ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 210 b.

5. Karimov N. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 240 b.

6. Qosimov B., Yo‘ldoshev Q. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 280 b.

7. Musayev Q. Adabiyot ta’limining zamonaviy metodlari. – Toshkent: Fan, 2021. – 220 b.

8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.

9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

10. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALARNING MUSTAQIL O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING O‘RNI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.066

Kudenov Temurbek Maxsetbaevich
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
Matematika kafedrasi, assistent o‘qituvchi
Nukus shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik dasturiy vositalarning (PDV) zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni, ularning tasnifi hamda talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida pedagogik dasturiy vositalarning didaktik, psixologik va texnologik imkoniyatlari o‘rganilib, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, raqamli resurslar, masofaviy ta’lim tizimlari hamda sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish vositalari pedagogik jarayonni tashkil etishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish talabalarning mustaqil bilim olish, tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik dasturiy vositalar, raqamli ta’lim muhiti, masofaviy ta’lim, interaktiv o‘qitish, virtual laboratoriya, sun’iy intellekt, mustaqil ta’lim, ta’lim platformalari, raqamli kompetensiyalar.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль педагогических программных средств (ППС) в современной системе образования, их классификация, а также значение в процессе самостоятельного саморазвития студентов. В ходе исследования изучены дидактические, психологические и технологические возможности педагогических программных средств и обоснована их роль в повышении эффективности образовательного процесса. Также рассматриваются современные образовательные платформы, виртуальные лаборатории, цифровые ресурсы, системы дистанционного обучения и средства обучения на основе искусственного интеллекта как важные инструменты организации педагогического процесса. Результаты исследования показывают, что эффективное использование педагогических программных средств способствует развитию у студентов навыков самостоятельного обучения, критического мышления, самоконтроля и творческой деятельности.

Ключевые слова: педагогические программные средства, цифровая образовательная среда, дистанционное обучение, интерактивное обучение, виртуальная

лаборатория, искусственный интеллект, самостоятельное обучение, образовательные платформы, цифровые компетенции.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role of pedagogical software tools (PST) in the modern education system, their classification, and their significance in the process of students’ independent self-development. The study examines the didactic, psychological, and technological capabilities of pedagogical software tools and substantiates their role in improving the effectiveness of the educational process. In addition, modern educational platforms, virtual laboratories, digital resources, distance learning systems, and artificial intelligence-based learning tools are considered as important instruments for organizing the pedagogical process. The research results indicate that the effective use of pedagogical software tools contributes to the development of students’ independent learning skills, critical thinking, self-control, and creative activity.

Keywords: pedagogical software tools, digital learning environment, distance learning, interactive learning, virtual laboratory, artificial intelligence, independent learning, educational platforms, digital competencies.

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalari qatori ta’lim tizimining ham transformatsiyalashuviga olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi o‘qitish metodlari, o‘quv materiallarini taqdim etish shakllari hamda bilimlarni o‘zlashtirish mexanizmlarining yangilanishiga sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirish, ularning analitik fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda shaxsiy rivojlanishiga sharoit yaratishdan iboratdir. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda talaba bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘quv jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi.

Shu nuqtai nazardan pedagogik dasturiy vositalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quv faoliyatini individuallashtirish hamda talabalarning mustaqil bilim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Mazkur vositalar o‘quv materiallarini interaktiv va multimediaviy shaklda taqdim etish, bilimlarni mustahkamlash hamda o‘quv jarayonini monitoring qilish imkonini yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi pedagogik dasturiy vositalarning talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida bir qator nazariy va tahliliy metodlardan foydalanildi.

Avvalo pedagogika, axborot texnologiyalari va raqamli ta’lim muhitiga oid ilmiy manbalar kontent-tahlil asosida o‘rganildi. Mazkur metod pedagogik dasturiy vositalarning ilmiy asoslarini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, pedagogik dasturiy vositalarni funksional xususiyatlari asosida tasniflash metodi qo‘llanildi. Ushbu yondashuv pedagogik dasturiy vositalarning ta’lim jarayonidagi turli funksiyalarini aniqlash imkonini yaratdi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali turli ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta’lim tizimlarining pedagogik imkoniyatlari o‘zaro taqqoslandi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv metodi asosida pedagogik dasturiy vositalarning talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishiga ta’siri kompleks tarzda o‘rganildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari pedagogik dasturiy vositalarni bir necha asosiy funksional guruhlarga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi.

Ta’lim platformalari

Ta’lim platformalari o‘quv jarayonini markazlashtirilgan boshqarish imkoniyatini ta’minlaydi. Ushbu tizimlar o‘quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni baholash, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida kommunikatsiyani tashkil etish hamda o‘quv jarayonini monitoring qilish imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalar

Virtual laboratoriyalar murakkab ilmiy jarayonlarni modellashtirish va tajribalarni xavfsiz muhitda amalga oshirish imkonini beradi. Bu ayniqsa tabiiy fanlar va texnik yo‘nalishlarda ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Elektron ta’lim resurslari

Elektron darsliklar va raqamli resurslar o‘quv materiallarini multimediaviy shaklda taqdim etish imkonini yaratadi. Matn, grafik, audio va video elementlarning uyg‘unligi o‘quv materialining idrok etilishini osonlashtiradi.

Interaktiv test tizimlari

Interaktiv test platformalari bilimlarni baholash jarayonini avtomatlashtirish bilan bir qatorda talabalarning motivatsiyasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari

Masofaviy ta’lim tizimlari geografik masofadan qat’i nazar ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Bu esa ta’limning moslashuvchanligini oshiradi.

Sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish vositalari

Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ta’lim tizimlari talabalarning o‘rganish jarayonini individuallashtirish va adaptiv ta’lim modelini shakllantirish imkonini beradi.

Diskussiya. Olingan natijalar pedagogik dasturiy vositalarning talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida muhim pedagogik omil ekanligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, raqamli ta’lim vositalari talabalarga mustaqil bilim olish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Talabalar o‘quv materiallariga istalgan vaqt va joyda murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, pedagogik dasturiy vositalar ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Adaptiv o‘qitish tizimlari talabalarning bilim darajasi va o‘rganish sur’atiga mos ravishda o‘quv materiallarini taqdim etadi.

Uchinchidan, interaktiv texnologiyalar o‘quv jarayonining faolligini oshiradi. Simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va o‘yin elementlari talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, ta’lim platformalari hamkorlik muhitini shakllantirishga yordam beradi. Talabalar jamoaviy loyihalarda ishtirok etish orqali kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Beshinchidan, elektron test tizimlari talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari pedagogik dasturiy vositalar zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Ular ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish hamda talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega.

Pedagogik dasturiy vositalardan maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda foydalanish talabalarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalari, adaptiv ta’lim tizimlari va raqamli platformalarning integratsiyasi pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Андреев В. И. Педагогика высшей школы. — Казань: Центр инновационных технологий, 2016. — 500 с.

2. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. — Москва: Педагогика, 2008. — 192 с.

3. Kudenov T.M. Improving the methodology of using pedagogical software tools for students’ independent self-development in an informationeducational environment – The multidisciplinary journal of science and technology – Volume 6, Issue 2, ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022- 2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025 – p. 565-568. (https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/6897/)

4. Kudenov T.M. O‘z-o‘zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati // Maktabgacha va maktab ta’limi. – Toshkent, 2025. – 7-son. – B. 177-179.

5. Kudenov T.M. Axborotlashgan ta’lim muhitida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning nazariy asoslari // Qaraqalpaq mámleketlik universiteti xabarshısı. – N., 2024. – 4(67)-son. – B. 165-168.

6. Kudenov T.M. Axborotlashgan ta’lim muhitida pedagogik dasturiy vositalarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari // Pedagogika. – Toshkent, 2025. – 3-son. – B. 345-347.

7. Bonk C., Graham C. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives. — San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2012.

8. Kuznetsova O. Y., Degtyareva L. N., Moiseeva I. E. Innovative Teaching Methods: Problem-Based Learning and Distance-Learning Technologies // Russian Family Doctor. — 2019. — №2. — P. 27–34.

9. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. — 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ВЕБ-КВЕСТ КАК ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.067

Xulkar Akbayeva
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
E-mail: akbayevaxulkar@tsue.uz

Аннотация.В статье рассматриваются возможности применения на занятиях иностранного языка веб-квест технологии для развития коммуникативных навыков с целью повышения мотивации студентов.

Ключевые слова: веб-квест технологии; Интернет-ресурсы; мотивация; контроль знаний; коммуникативная компетенция; преподавание иностранного языка.

Abstract. The article examines the possibilities of using web quest technology in foreign language classes to develop communication skills in order to increase students' motivation.

Key words: web quest technologies; Internet resources; motivation; knowledge control; communicative competence; teaching a foreign language.

Введение.Умение использовать на занятиях современные мультимедийные средства, столь полюбившейся поколению XXI века, стало неотъемлемой частью нашей жизни. Поэтому возникла необходимость создания новых неординарных мероприятий и необычных организационных форм, которые бы вовлекли студентов в процесс обучения и повысили их уровень мотивации. Обучение иностранному языку с помощью компьютерных технологий имеет ряд преимуществ [1]. Изучающие иностранный язык имеют в своем распоряжении большое количество ресурсов, но для того чтобы извлечь из этого истинную пользу, они должны много читать и уметь выбирать, анализировать и трансформировать необходимую информацию. Такой подход повышает мотивацию и вовлеченность студентов, позволяет одновременно развивать разные навыки, необходимые для овладения иностранным языком.

Основные результаты: Преподавателями уже накоплен определенный опыт использования ресурсов Интернет в организации самостоятельной работы обучающихся. Прежде всего – это использование Интернета при выполнении индивидуальных и групповых исследовательских работ. При этом имеется в виду именно самостоятельная исследовательская работа. Исследовательская методика с трудом “вписывается” во временные рамки обычного занятия. Большая часть времени,

затрачиваемого на поиск информации, ее обработку и анализ, а также на подготовку результатов исследования к презентации на занятии, приходится на внеурочное время. Такой способ интеграции Интернета в обучение иностранному языку называется веб-квест [2].

Методы и принципы исследования: Веб-квест (webquest) в педагогике - проблемное задание с элементами ролевой игры, для выполнения которого используются информационные ресурсы Интернета. Веб-квест является наиболее сложным как для обучающихся, так и для преподавателя. Веб-квест направлен на развитие у обучаемых навыков аналитического и творческого мышления; преподаватель, создающий вебквест, должен обладать высоким уровнем предметной, методической и инфокоммуникационной компетенции.

Особенностью веб-квестов является то, что часть информации или вся информация, представленная на сайте для самостоятельной или групповой работы обучающихся, находится на самом деле на различных веб-сайтах. Благодаря же действующим гиперссылкам, обучающийся этого не ощущают, а работают в едином информационном пространстве, для которого не является существенным фактором точное местонахождение той или иной порции учебной информации [3].Студентам дается задание собрать материалы в Интернете по той или иной теме, решить какую-либо проблему, используя эти материалы. Ссылки на часть источников даются преподавателем, а часть они могут найти сами, пользуясь обычными поисковыми системами. По завершении квеста студенты либо представляют собственные веб-страницы по данной теме, либо какие-то другие творческие работы в электронной, печатной или устной форме. Веб-квесты построены на основе современных информационных технологий и используют богатство и безграничность информационного пространства глобальной компьютерной сети в образовательных целях. В целях повышения мотивации при изучении той или иной темы, обучающийся приобщаются к современным технологиям, максимально используя возможности Интернета в приобретении знаний из аутентичных источников. По сути, основой веб-квестов является проектная методика, которая возникла еще в начале прошлого столетия в США. Её называли также методом проблем, и связывалась она с идеями гуманистического направления в философии и образовании, разработанными американским философом и педагогом Дж. Дьюи. Веб-квест технология является инновационным средством обучения с огромным потенциалом в сфере обучения, т.к.

• Интегрирует набор различных форм, методов и приемов, позволяющих эффективно находить, отбирать, обрабатывать, анализировать, синтезировать и презентовать информацию.

• Использует различные подходы к обучению, например, проблемнопроектные, коммуникативные, контекстные и т.д.

• Может использоваться как при индивидуальной, так и при групповой форме работы

• Может использоваться для осуществления междисциплинарных связей, т.к. включает в себя синтез информации по различным предметам [4]. Использование веб-квест технологии обучения, проверки и оценки знаний может создать положительную мотивацию к обучению среди обучающихся, способствовать развитию творческого мышления у студентов, повысить авторитет преподавателя, как наставника и организатора учебного процесса. Сегодня веб-квест технология используется, в основном, в обучающих целях. Однако ее можно успешно применять и для контроля. Она может стать эффективной формой итогового контроля, решающей ряд задач, стоящих перед преподавателями иностранного языка. Платформа - сайт с постоянным обновлением содержания. Новые квесты добавляются практически ежедневно. Принцип работы схож с двумя предыдущими: поиск существующих веб-квестов осуществляется по разделам или ключевым словам; есть возможность создания авторского курса после регистрации. Весь интерфейс на иностранном языке.Оценка результатов краткосрочных и долгосрочных веб-квестов имеет ряд критериев, позволяющих оценивать не только сформировать языковой и речевой компетенций, но и более широко судить о формировании коммуникативной компетенции в области умения анализировать, синтезировать, творчески осмысливать, логически и ясно излагать свои мысли, вести дискуссию, аргументировать сою позицию, работать в группе ит.д., что имеет первостепенное значение в обучении иностранному языку. Причем, если краткосрочные веб-квесты, в основном, могут служить средством промежуточного контроля, то долгосрочные веб-квесты могут стать эффективным средством итогового контроля. Работа с веб-квестами может быть предложена и как домашнее задание для обучающихся, интересующихся предметом, её можно провести в классе при наличии сдвоенных уроков. Хороший результат дает данный вид деятельности при подготовке к олимпиадам, так как расширяет кругозор и эрудицию [5].

Заключение: Таким образом, можно сделать вывод, что веб-квест - это уникальная возможность использования сети Интернет для образовательной деятельности. Применение веб-квестов способствует развитию всех видов языковой деятельности, создает положительную мотивацию к процессу обучения, развивает творческое мышление, умение работать в команде. Эта технология является инновационным методом получения знаний, когда обучающийся не просто пассивно накапливает предоставленную ему информацию, а анализирует ее, делает открытия, тем самым пробуждая свою самооценку. В заключении, преподавателем должны быть представлены вопросы более высокого уровня, которые могут быть исследованы в другое время, тем самым давая вопросы для размышлений о том, где они могут использовать полученную информацию [5].

Список литературы :

1.Быховский Я. С. Образовательные веб-квесты // Материалы международной конференции "Информационные технологии в образовании. ИТО-99". - http://ito.bitpro.ru/1999

2.Андреева М.В. Технологии веб-квест в формировании коммуникативной и социокультурной компетенции / М.В. Андреева // Информационно-коммуникационные технологии в обучении иностранным языкам: Тезисы докладов I Международной научно- практической конференции. - М., 2004. С.20-25

3.Шевцова О. Г. Веб-квест - один из наиболее эффективных способов применения Интернета для внедрения ролевых игр в обучение / О. Г. Шевцова [Электронный ресурс]

4. Маринина А.Е. Использование веб-заданий при обучении иностранному языку. / А.Е. Маринина // Проблемы преподавания профессионально-ориентированного иностранного языка в вузе; - Рязань: Концепция, 2019.

5. Боронихина И.О. Использование технологии веб-квеста при обучении иностранному языку в вузе. / И.О. Боронихина // Образовательные ресурсы и технологии. - 2021. - № 1(34).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATN ASOSIDAGI MASHQLAR ORQALI NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.068

Maxmudova Muxabbat Jurayevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
assistent o‘qituvchisi
O‘zbekiston, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida matn bilan ishlash asosida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda matn bilan ishlashning nazariy va metodik jihatlari tahlil qilinib, rasm asosida matn tuzish, berilgan gaplardan matn yaratish, matnni davom ettirish kabi mashqlarning o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tafakkuri va ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. matn bilan ishlash, nutqiy ko‘nikma, boshlang‘ich ta’lim, ona tili darslari, og‘zaki va yozma nutq, ijodiy fikrlash, metod va mashqlar tizimi.

Abstract. This article discusses the development of speech skills of primary school students through text-based activities in native language lessons. The study analyzes the theoretical and methodological aspects of working with texts and highlights the importance of exercises such as composing texts based on pictures, creating coherent texts from given sentences, and continuing a text. These methods contribute to the development of students' oral and written speech, independent thinking, logical reasoning, and creative abilities.

Keywords. text-based activities, speech skills, primary education, native language lessons, oral and written speech, creative thinking, system of exercises.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning nutqiy faoliyati shakllanishida muhim pedagogik davr hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqning dastlabki ko‘nikmalari, fikrni izchil bayon qilish hamda mantiqiy tafakkur elementlari shakllanadi. Shu jihatdan ona tili darslari o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy ta’limiy muhit vazifasini bajaradi. Ayniqsa, matn bilan ishlash jarayoni o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, so‘z boyligini kengaytirish hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o‘quvchilar matn mazmunini anglash, asosiy g‘oyani ajratish, voqealar ketma-ketligini aniqlash hamda fikrni izchil bayon qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Matn ustida ishlash jarayoni

o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, tahlil qilish qobiliyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [1].

Hozirgi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning amaliy nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda o‘quvchilarni nafaqat matnni o‘qish va tushunishga, balki uni tahlil qilish, reja tuzish, gaplarni mantiqan bog‘lash hamda mustaqil matn yaratishga o‘rgatish muhim hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida tilni tizimli o‘rganish masalalari taniqli tilshunos va metodist olimlar H. G‘. Ne’matov, N. M. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Q. G‘ulomovlar tomonidan tadqiq etilgan [2]. Ularning ilmiy qarashlarida til birliklarini o‘rganish bilan bir qatorda matn yaratish va matn ustida ishlash jarayonining ahamiyati ham alohida ta’kidlanadi. Matn yaratish jarayoni o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, matn ustida ishlash esa uning mantiqiy, semantik hamda uslubiy jihatdan mukammalligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bois boshlang‘ich sinflarda matn bilan ishlashga asoslangan metod va mashqlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida matn bilan ishlash asosida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metod va mashqlar tizimi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, metodik tahlil, taqqoslash hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Boshlang‘ich sinflarda matn bilan ishlash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

rasm asosida matn tuzish;

berilgan gaplardan bog‘lanishli matn yaratish;

matnni davom ettirish;

matnni qayta hikoya qilish.

Mazkur metodlar o‘quvchilarning tasavvuri, mustaqil fikrlashi hamda og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga sodda va mazmunli rasmni taqdim etadi. O‘quvchilar rasmda kimlar tasvirlanganini, ular nima qilayotganini hamda voqea qaysi faslda sodir bo‘layotganini aniqlaydilar. Savol-javob usuli orqali o‘quvchilarning fikrlash faoliyati faollashtiriladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar rasm asosida og‘zaki gaplar tuzadilar, so‘ngra ushbu gaplar o‘zaro bog‘lanib kichik matn hosil qilinadi.

Shuningdek, berilgan gaplardan matn tuzish mashqlari ham o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu jarayonda o‘quvchilarga tartibsiz joylashtirilgan gaplar taqdim etilib, ularni mazmuniy ketma-ketlik asosida joylashtirish topshiriladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matn bilan ishlashga asoslangan metodlar o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik ahamiyatga ega. Ayniqsa, matnni davom ettirish mashqlari o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Matnni davom ettirish jarayonida o‘quvchilarga qisqa va mazmunan aniq boshlang‘ich matn taqdim etiladi. O‘quvchilar esa mazkur matn mazmunini anglab, voqeani mantiqan davom ettiradilar. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda sabab–natija munosabatlarini anglash, voqealar rivojini tasavvur qilish hamda fikrni izchil bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, bu mashqlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar tuzish malakasini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

3-sinf “Ona tili” darsligida berilgan **“Qovoqvoy nega xafa?”** ertagi ham matn tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali didaktik material sifatida foydalanilishi mumkin. Dars jarayonida o‘qituvchi avvalo ertakni ifodali o‘qib beradi. Shundan so‘ng o‘quvchilar bilan savol-javob asosida matn mazmuni tahlil qilinadi.

Keyingi bosqichda o‘quvchilar ertak mazmunini qisqacha hikoya qiladilar. Masalan, ular quyidagi reja asosida matnni qayta hikoya qilishlari mumkin:

1. Qovoqvoyning bog‘da yashashi.
2. Uning xafa bo‘lishiga sabab bo‘lgan voqea.
3. Qahramonlarning harakati.
4. Voqeaning yakuni.

Bundan tashqari, mazkur ertak asosida **ijodiy topshiriqlar** ham tashkil etish mumkin. Masalan:

1-topshiriq. Matnni davom ettiring. O‘qituvchi ertakning bir qismini o‘qib beradi va o‘quvchilardan voqeani o‘z tasavvurlari asosida davom ettirishni so‘raydi. Har bir o‘quvchi ertakni turlicha yakunlashi mumkin. Bu mashq o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

2-topshiriq. Qahramon nomidan hikoya qiling. O‘quvchilardan ertak voqealarini Qovoqvoy nomidan hikoya qilish so‘raladi. Masalan: “Men bog‘da yashaydigan Qovoqvoyman...” kabi boshlanish orqali hikoya tuziladi. Bu usul o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi va matnni chuqurroq anglashga yordam beradi.

3-topshiriq. Sarlavha tanlang. O‘quvchilarga ertakka yangi sarlavha o‘ylab topish taklif etiladi. Masalan: “Xafa bo‘lgan qovoq”, “Do‘st topgan Qovoqvoy” kabi variantlar. Bu mashq matnning asosiy g‘oyasini aniqlashga yordam beradi.

4-topshiriq. Rasm asosida hikoya tuzing. O‘qituvchi ertak mazmuniga mos rasmni ko‘rsatadi va o‘quvchilardan shu rasm asosida kichik matn tuzishni so‘raydi. Bu mashq tasavvur va nutqiy faollikni rivojlantiradi.

5-topshiriq. Matndan saboq chiqarish.O‘quvchilardan ertak qanday xulosa berishini aniqlash so‘raladi. Masalan, do‘stlik, mehribonlik yoki bir-birini tushunish kabi tushunchalar muhokama qilinadi. Bu orqali o‘quvchilarda axloqiy tushunchalar ham shakllanadi.

Shu tarzda ertak bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar nafaqat matn mazmunini anglaydilar, balki uni qayta hikoya qilish, davom ettirish, reja asosida bayon etish kabi nutqiy faoliyat turlarini ham egallaydilar. Bunday mashqlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda matn tuzish ko‘nikmalarini takomillashtirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida matn bilan ishlash o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Matn ustida tizimli ishlash jarayoni o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning mantiqiy fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati hamda ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, rasm asosida matn tuzish, berilgan gaplardan bog‘lanishli matn yaratish, matnni davom ettirish hamda matnni qayta hikoya qilish kabi mashqlar o‘quvchilarning fikrni izchil bayon qilish, voqealar o‘rtasidagi sabab–natija munosabatlarini anglash va nutqiy faolligini oshirishda samarali metodlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, matn bilan ishlashga asoslangan metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar tuzish malakasini shakllantiradi hamda ularning nutqiy faoliyatini faollashtiradi. Shuningdek, bunday metodlar o‘quvchilarning o‘qilgan matn mazmunini chuqurroq anglash, asosiy g‘oyani ajratish, voqealar ketma-ketligini aniqlash hamda mustaqil ravishda yangi matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, matn bilan ishlashga asoslangan mashqlar tizimi o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga ham xizmat qiladi. Chunki matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon etish, boshqalarning fikrini tinglash va muhokama qilish orqali nutqiy muloqot tajribasini orttiradilar. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi hamda ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Demak, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tili darslarida matn bilan ishlash metodlaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta’minlash, ularning kommunikativ savodxonligini oshirish hamda keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun zarur bo‘lgan nutqiy kompetensiyani shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova Q va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – T., 2018.

2. Т.Зиёдова. Матн яратиш технологияси (она тили таълими мисолида). Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. 2007. 143 б.

3. M.E.Toirova. Ona tili. 3-sinf uchun darslik.1-qism. Toshkent. 2023.

4. Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O‘qituvchi. 2016.

5. Boboyeva Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi. 2017.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INTERNET KOMMUNIKATSIYASIDA NOVERBAL VOSITALAR: KOMMUNIKATIV FUNKSIYALAR VA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.069

Turon universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshtemirov Farhod Shodiyevich

Annotatsiya. Mazkur maqolada internet kommunikatsiyasida noverbal vositalarning o‘rni va ularning kommunikativ jarayondagi funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida internet muloqotida qo‘llaniladigan emoji, emotikon, stiker, GIF tasvirlar hamda audio va video xabarlar kabi noverbal elementlarning kommunikativ ahamiyati ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, internet kommunikatsiyasida noverbal vositalar emotsiyalarni ifodalash, nutqiy xabarni kuchaytirish va kommunikativ mazmunni aniqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ushbu vositalar muloqot jarayonida axborotni idrok etishni osonlashtiradi va suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik masofani qisqartirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari internet kommunikatsiyasida noverbal vositalarning zamonaviy lingvistik va pragmalingvistik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Noverbal kommunikatsiya, internet muloqoti, emoji, emotikon, stikerlar, paralingvistik vositalar, pragmalingvistika, kommunikativ jarayon, vizual belgilar, raqamli kommunikatsiya.

Annotation. This article analyzes the role of nonverbal means in Internet communication and their functional features in the communicative process. The study examines nonverbal elements used in online interaction such as emojis, emoticons, stickers, GIF images, as well as audio and video messages based on scientific sources. The results of the research show that nonverbal means in Internet communication play an important role in expressing emotions, reinforcing verbal messages, and clarifying communicative meaning. In addition, these tools facilitate the perception of information and help reduce the socio-psychological distance between interlocutors in digital interaction. The study demonstrates that nonverbal means of communication in the Internet environment represent an important field for modern linguistic and pragmalinguistic research.

Keywords: Nonverbal communication, Internet communication, emoji, emoticons, stickers, paralinguistic means, pragmalinguistics, digital communication, visual symbols, online interaction.

Аннотация. В данной статье анализируется роль невербальных средств в интернет-коммуникации и их функциональные особенности в коммуникативном

процессе. В ходе исследования на основе научных источников были рассмотрены такие элементы невербального общения в сети, как эмодзи, эмотиконы, стикеры, GIF-изображения, а также аудио- и видеосообщения. Результаты исследования показывают, что невербальные средства в интернет-коммуникации играют важную роль в выражении эмоций, усилении вербального сообщения и уточнении коммуникативного смысла. Кроме того, данные средства способствуют более эффективному восприятию информации и сокращению социально-психологической дистанции между участниками общения. Полученные результаты свидетельствуют о том, что невербальные средства интернет-коммуникации являются важным объектом современных лингвистических и прагмалингвистических исследований.

Ключевые слова: Невербальная коммуникация, интернет-коммуникация, эмодзи, эмотиконы, стикеры, паралингвистические средства, прагмалингвистика, цифровая коммуникация, визуальные символы, онлайн-взаимодействие.

KIRISH. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida internet kommunikatsiyasi insonlararo muloqotning muhim shakliga aylandi. Internet orqali amalga oshiriladigan muloqot ko‘pincha yozma shaklda bo‘lsa-da, unda noverbal vositalar muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Noverbal kommunikatsiya so‘zlardan foydalanmasdan axborot uzatish jarayoni bo‘lib, u mimika, jest, tana harakati va ovoz ohangi kabi turli signallar orqali amalga oshadi. Ushbu signallar insonning hissiyotlari, munosabati va niyatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi [6:807]. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivoji natijasida internet muloqoti keng tarqaldi va unda yozma shakl ustun bo‘lsa-da, noverbal vositalar muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Mimika, jest, tana harakati va ohang kabi noverbal signallar insonning hissiyotlari, munosabati va niyatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalarning o‘zaro bog‘liqligini alohida ta’kidlaydilar. Insonlararo kommunikatsiyada axborot uzatish nafaqat so‘zlar orqali, balki yuz ifodalari, imo-ishoralar va boshqa jismoniy belgilar orqali ham amalga oshadi. Bunday signallar axborotni samarali yetkazish jarayonida muhim ahamiyatga ega [1:161]. Muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalar o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Axborot uzatishda so‘zlar bilan bir qatorda yuz ifodalari, imo-ishoralar va boshqa jismoniy belgilar ham muhim rol o‘ynab, kommunikatsiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Psixologik tadqiqotlar ham noverbal vositalarning kommunikatsiyadagi ulushi juda katta ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, inson muloqotining ta’sirchanligi taxminan 7 foiz verbal birliklar, 38 foiz ovoz xususiyatlari va 55 foiz jismoniy belgilar orqali amalga oshadi [7:205]. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muloqot jarayonida noverbal vositalar katta ulushga ega. Inson kommunikatsiyasining ta’sirchanligi asosan jismoniy belgilar va ovoz xususiyatlari orqali ifodalanib, verbal birliklarning ulushi nisbatan kamroqni tashkil etadi.

Noverbal kommunikatsiya faqat yuzma-yuz muloqotda emas, balki internet kommunikatsiyasida ham muhim rol o‘ynaydi. Internet muhitida mimika yoki tana harakatlari to‘liq namoyon bo‘lmasligi sababli ularning o‘rnini emotikonlar, emoji, grafik belgilar,

stikerlar va boshqa vizual elementlar egallaydi [6:807]. Noverbal kommunikatsiya internet muloqotida ham muhim ahamiyatga ega. Onlayn muhitda mimika va tana harakatlari o‘rnini emotikonlar, emoji, stikerlar va boshqa vizual belgilar egallab, hissiyot va munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Noverbal kommunikatsiya muammosi tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqotchilar muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalarning o‘zaro bog‘liqligini hamda ularning axborotni uzatishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar.

Zamonaviy tilshunoslikda noverbal kommunikativ vositalar ko‘plab fanlar kesishmasida o‘rganilmoqda. Bu vositalar inson xatti-harakatlari, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, noverbal kommunikatsiya psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, media tadqiqotlari hamda kommunikatsiya nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, muloqot jarayonining muhim komponenti hisoblanadi [10;169].

Kommunikatsiya nazariyasiga oid tadqiqotlarda ham noverbal signallarning ahamiyati alohida qayd etiladi. Masalan, Kolin Cherry o‘zining kommunikatsiya nazariyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida insonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvida turli xil signallar va belgilar tizimi muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [3:217].

G. Gordon kommunikatsiya jarayonini o‘rganar ekan, ommaviy va shaxslararo muloqotda turli kommunikativ elementlar, jumladan noverbal vositalar ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [4:29]

Noverbal kommunikatsiya masalasi psixologik tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Xususan, psixolog Albert Mehrabian insonlararo muloqot samaradorligida verbal va noverbal vositalarning ulushini o‘rganib, kommunikatsiyada jismoniy belgilar va ovoz xususiyatlari muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, kommunikatsiya jarayonida axborotning katta qismi noverbal vositalar orqali uzatiladi [7:204]

Noverbal kommunikatsiya inson hissiyotlarini ifodalashning muhim vositasi sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, yuz ifodalari, imo-ishoralar va boshqa paralingvistik elementlar inson emotsiyalarini so‘zsiz yetkazish imkonini beradi [2:535]

Shuningdek, verbal va noverbal signallar muloqot jarayonida axborotni idrok etish va tushunishda o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kommunikativ jarayon davomida insonlar verbal va noverbal signallarni birgalikda qabul qiladi va ular orqali suhbatdoshning hissiy holati hamda kommunikativ niyatini anglaydi [1:161]

So‘nggi yillarda internet kommunikatsiyasi rivojlanishi bilan noverbal vositalarning yangi shakllari paydo bo‘ldi. Internet muhitida an’anaviy mimika yoki tana harakatlari mavjud bo‘lmaganligi sababli ularning o‘rnini emoji, emotikon, stiker va boshqa vizual belgilar egallamoqda. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, ushbu elementlar raqamli kommunikatsiyada emotsiyalarni ifodalash va muloqotni yanada samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi [6:807].

Umuman olganda, ilmiy tadqiqotlar noverbal vositalar kommunikatsiya jarayonining ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, internet kommunikatsiyasi sharoitida ushbu vositalarning yangi shakllari paydo bo‘lib, ular zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda.

TADQIQOT USULLARI.

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi
- qiyosiy lingvistik tahlil
- pragmalingvistik yondashuv
- kommunikativ jarayonni kuzatish metodi

Tadqiqot jarayonida noverbal kommunikativ vositalar turli fanlar doirasida o‘rganilgan ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Zamonaviy tilshunoslikda noverbal vositalarni o‘rganish ko‘plab fanlar bilan bog‘liq bo‘lib, psixologiya, antropologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasi bilan chambarchas aloqada rivojlanmoqda [10:169]. Tadqiqotda noverbal kommunikativ vositalar turli fanlar asosidagi ilmiy manbalar yordamida tahlil qilindi. Zamonaviy tilshunoslikda ularni o‘rganish psixologiya, antropologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasida internet foydalanuvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari ham tahlil qilindi. Ushbu so‘rov orqali internet kommunikatsiyasida qo‘llaniladigan noverbal vositalarning asosiy turlari va ularning qo‘llanish chastotasi aniqlangan [6:808]. Tadqiqot metodologiyasida internet foydalanuvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari ham tahlil qilindi. Natijada internet kommunikatsiyasida qo‘llaniladigan noverbal vositalarning asosiy turlari va ularning qo‘llanish chastotasi aniqlangan.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari internet kommunikatsiyasida noverbal vositalar turli shakllarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. An’anaviy yuzma-yuz muloqotda mimika, jest, tana harakati va ovoz ohangi asosiy noverbal elementlar hisoblanadi. Internet kommunikatsiyasida esa ushbu vositalar vizual va grafik belgilar orqali ifodalanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, internet muloqotida noverbal kommunikatsiyaning quyidagi asosiy turlari mavjud:

- emoji va emotikonlar
- stikerlar
- GIF tasvirlar
- audio xabarlar
- video xabarlar
- punktuatsiya belgilarining kombinatsiyasi

Internet muloqotida emoji eng keng tarqalgan noverbal vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, foydalanuvchilar tomonidan qo‘llaniladigan emoji turlari orasida emotsiyalarni ifodalovchi belgilar eng katta ulushni egallaydi. Masalan, emotsional belgilar umumiy emoji qo‘llanishining taxminan **88,9 foizini** tashkil etadi [6:807]. Internet muloqotida emoji eng keng qo‘llaniladigan noverbal vositalardan biridir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra,

emoji ichida emotsiyalarni ifodalovchi belgilar eng katta ulushni egallab, umumiy qo‘llanishning taxminan 88,9 foizini tashkil etadi.

Shuningdek, internet foydalanuvchilari o‘rtasida stikerlardan foydalanish ham keng tarqalgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ko‘pchilik foydalanuvchilar stikerlardan foydalanishni afzal ko‘rishadi, chunki ular matn orqali ifodalash qiyin bo‘lgan emotsiyalarni vizual tarzda yetkazishga yordam beradi [6:808]. Internet muloqotida stikerlardan foydalanish ham keng tarqalgan. Ular matn orqali ifodalash qiyin bo‘lgan emotsiyalarni vizual tarzda yetkazishga yordam berib, foydalanuvchilar tomonidan tez-tez qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida gender omiliga oid ayrim farqlar ham aniqlangan. Masalan, ayol foydalanuvchilar emoji va stikerlardan erkak foydalanuvchilarga nisbatan ko‘proq foydalanishi kuzatilgan. Shu bilan birga, ayrim erkak foydalanuvchilar umuman emoji ishlatmasligi ham qayd etilgan [6:808].

Internet kommunikatsiyasida audio va video xabarlar ham muhim noverbal vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Audio xabarlar orqali nutq ohangi, emotsional kayfiyat va kommunikativ munosabatni aniqroq ifodalash mumkin. Video xabarlar esa mimika va tana harakatlarini ham aks ettirishi sababli kommunikatsiyaning yanada tabiiy shaklini yaratadi [6:808].

Noverbal vositalarning kommunikativ ahamiyati faqat emotsiyalarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, noverbal elementlar muloqot mazmunini aniqlashtirish, nutqiy xabarni kuchaytirish yoki unga qo‘shimcha ma’no berish vazifasini ham bajaradi. Ba’zi holatlarda ular verbal xabarga zid ma’no ham berishi mumkin [2:536]. Noverbal vositalar nafaqat emotsiyalarni ifodalaydi, balki muloqot mazmunini aniqlashtirish va nutqiy xabarni kuchaytirish vazifasini ham bajaradi. Ba’zi holatlarda ular verbal xabarga qo‘shimcha yoki hatto zid ma’no ham berishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalari noverbal vositalarning muloqot jarayonida axborotni idrok etishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Noverbal signallar orqali insonlar suhbatdoshning hissiy holati, munosabati va kommunikativ niyatini tezroq anglaydi [1:161].

Noverbal kommunikatsiya turlarini tasniflashda tilshunoslikda mimika, jest, kinesika, proksemika, paraverbal belgilar kabi elementlar alohida ko‘rib chiqiladi. Ushbu vositalar insonning hissiy holatini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi [1:161].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, internet kommunikatsiyasida noverbal vositalar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Emotsiyalarni ifodalash
2. Nutqiy xabarni kuchaytirish
3. Muloqot jarayonini tezlashtirish
4. Suhbatdoshlar o‘rtasida ijtimoiy yaqinlikni oshirish
5. Kommunikativ tushunishni osonlashtirish

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan internet kommunikatsiyasida yangi noverbal vositalar paydo bo‘lishi kuzatilmoqda. Bu esa kelajakda internet muloqotining yanada vizual va multimodal shaklga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA.

Tadqiqot natijalari internet kommunikatsiyasida noverbal vositalar muhim kommunikativ funksiyani bajarishini ko‘rsatdi. An’anaviy muloqotda noverbal vositalar mimika, jest, tana harakati va ovoz ohangi orqali namoyon bo‘lsa, internet muhitida ularning o‘rnini grafik va vizual belgilar egallaydi. Bunga emotikonlar, emoji, stikerlar, GIF tasvirlar hamda audio va video xabarlar kiradi.

Internet kommunikatsiyasining rivojlanishi bilan noverbal vositalarning yangi shakllari paydo bo‘lishi kuzatilmoqda. Dastlab internet muloqotida faqat matnli belgilar qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik emotikonlar, emoji va boshqa vizual belgilar keng tarqaldi. Hozirgi vaqtda esa stikerlar va multimedia xabarlar internet kommunikatsiyasining muhim qismiga aylangan [6:807].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internet muloqotida noverbal vositalar emotsiyalarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Chunki yozma kommunikatsiyada mimika va tana harakatlari mavjud bo‘lmagani sababli, insonlar o‘z hissiyotlarini emoji yoki boshqa grafik belgilar orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bu esa kommunikatsiyaning emotsional boyligini saqlab qolishga yordam beradi.

Shuningdek, noverbal vositalar kommunikativ xabarni aniqlashtirish vazifasini ham bajaradi. Ba’zi holatlarda ular verbal xabarning ma’nosini kuchaytiradi yoki aksincha, unga qarama-qarshi ma’no beradi. Shu sababli muloqot jarayonida noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilish muhim hisoblanadi [2:536]. Noverbal vositalar kommunikativ xabarni aniqlashtirish va uning ma’nosini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayrim holatlarda ular verbal xabarga qarama-qarshi ma’no ham berishi mumkin, shuning uchun noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilish muhimdir.

Tilshunoslik tadqiqotlari ham noverbal vositalarning kommunikatsiyadagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, muloqot jarayonida verbal va noverbal signallar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda axborotni to‘liq yetkazishga xizmat qiladi [1:162].

Bundan tashqari, noverbal kommunikatsiya turli fanlar kesishmasida o‘rganilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu vositalar psixologiya, sotsiologiya, antropologiya va kommunikatsiya nazariyasi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi [10:170]. Noverbal kommunikatsiya turli fanlar kesishmasida o‘rganiladi. Zamonaviy tilshunoslikda u psixologiya, sotsiologiya, antropologiya va kommunikatsiya nazariyasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Internet kommunikatsiyasida noverbal vositalarning keng qo‘llanilishi insonlarning ijtimoiy munosabatlarini ham shakllantirishga ta’sir qiladi. Emoji, stiker va boshqa vizual elementlar suhbatdoshlar o‘rtasidagi psixologik masofani qisqartiradi va muloqotni yanada samimiy qiladi. Shu sababli ular zamonaviy kommunikatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylangan.

Shuningdek, tadqiqotlar internet kommunikatsiyasida noverbal vositalardan foydalanish gender omiliga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotlarda ayol foydalanuvchilar emoji va boshqa vizual belgilarni erkak foydalanuvchilarga nisbatan ko‘proq ishlatishi qayd etilgan [6:807].

Muhokama natijalariga ko‘ra, internet kommunikatsiyasida noverbal vositalar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- emotsiyalarni ifodalash
- kommunikativ xabarni kuchaytirish
- muloqot jarayonini tezlashtirish
- ijtimoiy yaqinlikni oshirish
- kommunikativ tushunishni osonlashtirish

Shunday qilib, internet muloqotida noverbal vositalar kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular zamonaviy raqamli muloqotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda texnologiyalar rivojlanishi bilan internet kommunikatsiyasida yangi noverbal vositalar paydo bo‘lishi ehtimoli yuqori.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, noverbal vositalar insonlararo kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular muloqot jarayonida axborotni to‘liq va samarali yetkazishga xizmat qiladi. An’anaviy yuzma-yuz muloqotda mimika, jest, tana harakati va ovoz ohangi kabi elementlar muhim rol o‘ynasa, internet kommunikatsiyasida ushbu vositalarning o‘rnini vizual va grafik belgilar egallaydi.

Internet muhitida emotikonlar, emoji, stikerlar, GIF tasvirlar, audio va video xabarlar kabi elementlar noverbal kommunikatsiyaning asosiy vositalari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu vositalar orqali foydalanuvchilar o‘z emotsiyalarini, munosabatini va kommunikativ niyatini yanada aniqroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, internet kommunikatsiyasida emoji va boshqa vizual belgilar emotsional mazmunni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, noverbal vositalar verbal xabarni to‘ldirish, aniqlashtirish va ba’zi holatlarda unga qo‘shimcha ma’no berish funksiyasini bajaradi. Shu sababli muloqot jarayonida noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilish kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslik tadqiqotlari ham verbal va noverbal signallarning o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi. Axborotni to‘liq idrok etish jarayonida ushbu ikki komponent birgalikda faoliyat yuritadi va kommunikativ jarayonning samaradorligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, internet kommunikatsiyasida noverbal vositalar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- emotsiyalarni ifodalash;
- nutqiy xabarni kuchaytirish va aniqlashtirish;
- kommunikativ jarayonni tezlashtirish;
- suhbatdoshlar o‘rtasida ijtimoiy yaqinlikni oshirish;
- axborotni idrok etishni osonlashtirish.

Shunday qilib, internet muloqotida noverbal vositalar zamonaviy kommunikatsiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan ushbu vositalarning shakli va funksiyalari yanada kengayib borishi kutilmoqda. Shu sababli internet kommunikatsiyasida noverbal vositalarni lingvistik, pragmalingvistik va sotsiolingvistik

jihatdan chuqur o‘rganish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Z.M. Noverbal va verbal signallar orqali muloqotda axborotni idrok etish // *The Lingua Spectrum*. – Toshkent, 2025. – B. 160–164.
2. Abdurazzakova M. Noverbal muloqot va uning kommunikatsiyadagi o‘rni // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – Farg‘ona, 2023. – B. 535–538.
3. Cherry C. On Human Communication: A Review, A Survey and A Criticism. – London, 1956. – 217 p.
4. Gordon G.N. Communication and Media: Constructing a Cross-Discipline. – New York: Hastings House, 1975. – 29 p.
5. Hall E.T. The Hidden Dimension. – Garden City, New York: Doubleday, 1966. – 41 p.
6. Ivanenko K.S. Non-Verbal Communication on the Internet // 60-я Юбилейная научная конференция аспирантов, магистрантов и студентов БГУИР. – Minsk, 2024. – B. 807–808.
7. Karimov N., Otamirzayev O. Noverbal muloqot turlari va ularning ahamiyati // *Research Focus International Scientific Journal*. – Namangan, 2025. – B. 204–206.
8. Pierce J.R. Symbols, Signals and Noise: The Nature and Process of Communication. – New York: Harper & Brothers, 1961.
9. Smith A.G. (ed.) Communication and Culture. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1966.
10. Yusupova Z. Noverbal kommunikativ vositalar tadqiqi // *Tamaddun nuri* ilmiy jurnali. – Urganch, 2024. – B. 169–172.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 378:004.8
ORCID: 0000-0001-7812-1898

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH BOSQICHLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.070

Ibragimov Shavkat Mamirovich
Farg‘ona davlat universiteti, fizika-matematika fakulteti,
axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti.
shavkat70@bk.ru
+998905301804

Annotatsiya.O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda raqamlashtirish, ma’lumotlar asosida boshqaruv va ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishlarida tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Shu jarayonda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish nafaqat ta’limni shaxsiylashtirish, baholashni takomillashtirish va akademik halollikni mustahkamlash, balki OTMlarning ilmiy-innovatsion salohiyatini oshirish uchun ham strategik omilga aylanmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston sharoitida SIni oliy ta’limga bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan konseptual modelni taklif qiladi: [1] normativ-strategik tayyorgarlik, [1]infratuzilma va ma’lumotlar boshqaruvi, [3] kadrlar va o‘quv rejalari transformatsiyasi, [4] pilot loyihalar va integratsiya, [5] masshtablash va sifat nazorati. Tadqiqotda milliy normativ hujjatlar hamda xalqaro tavsiyalar tahlili asosida KPIlar, xavf-xatarlar xaritasi, taqqosiy jadval va joriy etish “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Natijada, O‘zbekiston oliy ta’limida SIni joriy etish “texnologiya sotib olish” emas, balki “ma’lumot + inson kapitali + etik boshqaruv + platforma integratsiyasi” zanjiri orqali barqaror natija berishi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, oliy ta’lim, raqamli transformatsiya, ma’lumotlar boshqaruvi, etik SI, pilot loyihalar, KPI, O‘zbekiston.

Аннотация.В последние годы система высшего образования Узбекистана стремительно развивается в областях цифровизации, управления на основе данных и повышения качества образования. В этом процессе внедрение технологий искусственного интеллекта (ИИ) становится стратегическим фактором не только для персонализации образования, улучшения оценки и укрепления академической честности, но и для повышения научного и инновационного потенциала университетов. В данной статье предлагается научно обоснованная концептуальная модель поэтапного внедрения ИИ в высшее образование в Узбекистане: [1] нормативно-стратегическая

подготовка, [2] инфраструктура и управление данными, [3] трансформация кадрового и учебного процесса, [4] пилотные проекты и интеграция, [5] масштабирование и контроль качества. В исследовании разработаны ключевые показатели эффективности (KPI), карта рисков, сравнительная таблица и «дорожная карта» внедрения на основе анализа национальных нормативных документов и международных рекомендаций. В результате показано, что внедрение ИС в высшее образование в Узбекистане приведет не к «приобретению технологий», а к устойчивому результату через цепочку «информация + человеческий капитал + этическое управление + интеграция платформы».

Ключевые слова: искусственный интеллект, высшее образование, цифровая трансформация, управление данными, этическая информационная безопасность, пилотные проекты, KPI, Узбекистан.

Abstract. The higher education system of Uzbekistan has been developing rapidly in recent years in the areas of digitalization, data-driven management, and improving the quality of education. In this process, the introduction of artificial intelligence (AI) technologies is becoming a strategic factor not only for personalizing education, improving assessment, and strengthening academic integrity, but also for increasing the scientific and innovative potential of universities. This article proposes a scientifically based conceptual model for the phased introduction of AI into higher education in Uzbekistan: [1] normative-strategic preparation, [2] infrastructure and data management, [3] personnel and curriculum transformation, [4] pilot projects and integration, [5] scaling and quality control. The study developed KPIs, a risk map, a comparative table, and an implementation “roadmap” based on the analysis of national regulatory documents and international recommendations. As a result, it was shown that the introduction of SI in higher education in Uzbekistan will not lead to "technology acquisition", but to a sustainable result through the chain of "information + human capital + ethical governance + platform integration".

Keywords: artificial intelligence, higher education, digital transformation, data management, ethical SI, pilot projects, KPI, Uzbekistan.

KIRISH. Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektni joriy etish masalasi ko‘pincha juda sodda savol bilan boshlanadi: “Universitetga chatbot yoki avtomatik tekshiruvchi dastur olib kelsak, masala hal bo‘ladimi?” Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon oddiy texnologik yangilik joriy etishdan ancha murakkabdir.

Avvalo, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida ma’lumotlar turli tizimlarda, turli formatlarda saqlanadi. Shuning uchun, sun’iy intellekt tizimi to‘liq va ishonchli ishlay olmaydi. Tizim to‘g‘ri ishlashi uchun avvalo tartibli va sifatli ma’lumotlar bazasi zarur.

Bundan tashqari, akademik halollik masalasi ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt yordamida topshiriqlarni bajarish imkoniyati kengaygani sari, talabaning haqiqiy bilim darajasini aniqlash murakkablashadi. Agar baholash tizimi moslashtirilmasa, adolatlilikka putur yetishi mumkin.

Yana bir muhim jihat - o‘qituvchi va talabalarning tayyorgarligi. Sun’iy intellektdan samarali foydalanish uchun uni shunchaki ishlata bilish emas, balki undan to‘g‘ri pedagogik maqsadda foydalanish madaniyati ham bo‘lishi kerak. Aks holda, texnologiya foyda o‘rniga chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, tizimning shaffofligi, tarafkashlikning oldini olish va qarorlar uchun javobgarlik masalalari ham oldindan o‘ylab chiqilishi lozim. Agar bu jihatlar e’tiborsiz qoldirilsa, sun’iy intellekt yangi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli, sun’iy intellektni oliy ta’limga joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan va doimiy nazorat qilinadigan jarayon bo‘lishi kerak. Faqat shunday yondashuvgina barqaror va haqiqatan foydali natija beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2021-yilda qabul qilingan PQ-4996-sonli qaror [1] mamlakatda sun’iy intellektni jadal joriy etish uchun huquqiy, tashkiliy va institutsional shart-sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutdi. Mazkur hujjatda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari hamda ijtimoiy sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida SI texnologiyalarini bosqichma-bosqich tatbiq etish zarurligi belgilab berildi. Bu qaror sun’iy intellektni alohida IT yo‘nalishi sifatida emas, balki kompleks raqamli transformatsiyaning tarkibiy qismi sifatida ko‘rishga asos yaratdi. 2024-yilda tasdiqlangan PQ-358-sonli qaror [2] esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Unda 2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi belgilangan bo‘lib, inson kapitalini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Strategiyada oliy ta’lim muassasalari SI bo‘yicha ilmiy markazlar, startaplar va innovatsion ekotizimlar shakllanishining asosiy maydoni sifatida ko‘riladi. Bu esa OTMlar zimmasiga nafaqat kadrlar tayyorlash, balki sun’iy intellektni amaliyotga joriy etish va ilmiy asoslash bo‘yicha ham mas’uliyat yuklaydi.

Mazkur strategik hujjatlar oliy ta’lim tizimi uchun bir nechta muhim xulosalarni anglatadi. Birinchidan, SIni joriy etish alohida loyiha yoki eksperiment emas, balki davlat miqyosidagi uzoq muddatli transformatsiya jarayonining bir qismidir. Ikkinchidan, OTMlar o‘z ichki boshqaruv tizimlari, ma’lumotlar infratuzilmasi va o‘quv dasturlarini milliy strategik yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Uchinchidan, sun’iy intellektni rivojlantirish jarayoni ilm-fan, ta’lim va sanoat integratsiyasini talab qiladi.

Shu bilan birga, 2025-yilda “yagona edu.uz raqamli ekotizimini ishga tushirish tashabbusi [10] oliy ta’limni raqamlashtirish jarayonini institutsional darajaga olib chiqmoqda. Mazkur ekotizim turli axborot tizimlari - o‘quv jarayoni boshqaruvi, talabalar reytingi, ilmiy faoliyat monitoringi, kadrlar hisobini yagona platformada integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bu esa sun’iy intellektni samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar konsolidatsiyasi va standartlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Chunki SI tizimlarining samaradorligi, avvalo, ma’lumotlar sifati va ularning o‘zaro integratsiyasiga bog‘liq.

Umuman olganda, milliy strategik hujjatlar O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish uchun normativ va institutsional poydevor shakllanayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu poydevor oliy ta’lim tizimida real natija berishi uchun strategik maqsadlar OTMlar darajasida aniq boshqaruv mexanizmlari, infratuzilmaviy tayyorgarlik va kadrlar kompetensiyasi bilan mustahkamlanishi lozim. Shundagina milliy strategiya amaliy transformatsiyaga aylanishi mumkin.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning aniq, mantiqiy va amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan bosqichli modelini ishlab chiqishdir. Model nazariy tavsiyalar bilan cheklanmay, real boshqaruv mexanizmlarini ham qamrab oladi.

Tadqiqot doirasida avvalo sun’iy intellektni joriy etish jarayoniga ta’sir qiluvchi asosiy omillar - huquqiy-me’yoriy talablar, ma’lumotlar infratuzilmasi, akademik halollik, kadrlar salohiyati va etik cheklovlar tahlil qilinadi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitiga mos besh bosqichli joriy etish modeli taklif etiladi.

Har bir bosqich uchun natijani baholash ko‘rsatkichlari, ehtimoliy xavflar va ularni kamaytirish choralarini belgilash ko‘zda tutiladi. Bu yondashuv jarayonni boshqariladigan va o‘lchanadigan tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xorijiy tajriba, xususan, mas’uliyatli AI boshqaruvi va kadrlar tayyorlash bo‘yicha yondashuvlar qisqacha solishtirilib, mahalliy tizimga moslash mumkin bo‘lgan jihatlar aniqlanadi [8].

Natijada, tadqiqot sun’iy intellektni oliy ta’limga izchil, xavfsiz va samarali tatbiq etish uchun konseptual hamda amaliy asos yaratishni maqsad qiladi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida xalqaro tajriba va tavsiyalar ham o‘rganildi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan generativ sun’iy intellekt hamda ta’lim siyosatiga doir yo‘riqnomalar [3] inson markazli yondashuv, xavfsizlik va tenglik tamoyillari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. OECD hisobotlari [5], [6] esa raqamli ta’lim ekotizimi, ma’lumotlar boshqaruvi va generativ AIni tartibga solish masalalarini tizimli yondashuv asosida ko‘rib chiqadi. Ushbu manbalar milliy modelni ishlab chiqishda nazariy va metodik tayanch vazifasini bajardi.

Tadqiqotning amaliy qismi “yetuklik modeli” yondashuviga asoslandi. Bu yondashuv orqali oliy ta’lim muassasasining sun’iy intellektni joriy etishga tayyorgarlik darajasi bosqichma-bosqich baholandi. Modelda boshlang‘ich holatdan barqaror va integratsiyalashgan tizimgacha bo‘lgan besh pog‘ona (0 dan 4 gacha) ajratildi. Har bir daraja infratuzilma, ma’lumotlar sifati, kadrlar salohiyati va boshqaruv mexanizmlari mezonlari asosida tavsiflandi. Bu usul jarayonni subyektiv baholashdan ko‘ra tizimli va o‘lchanadigan mezonlar asosida tahlil qilish imkonini berdi.

Ma’lumot manbalari sifatida ochiq normativ hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, davlat axborot resurslari va rasmiy yangiliklar platformalari ishlatildi. Tahlil jarayonida hujjatlarning mazmuniy tahlili (content analysis), qiyosiy yondashuv hamda konseptual modellashtirish usullari qo‘llanildi. Natijada, nazariy tavsiyalar amaliy boshqaruv modeli shaklida tizimlashtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1-Bosqich. Normativ-strategik tayyorgarlik (0–6 oy)

Sun’iy intellektni oliy ta’lim tizimiga joriy etish jarayoni avvalo texnik vositalarni tanlashdan emas, balki aniq boshqaruv qoidalari va strategik yondashuvni shakllantirishdan boshlanishi zarur. Agar universitet darajasida sun’iy intellektdan foydalanish siyosati ishlab chiqilmasa, har qanday texnologik yechim barqaror va samarali natija bermaydi. Shu sababli dastlab ichki me’yoriy hujjatlar takomillashtiriladi: akademik halollik talablari qayta ko‘rib chiqiladi, baholash jarayonlari yangilanadi, mualliflik huquqi va plagiat bilan bog‘liq qoidalar aniqlashtiriladi hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlari mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanish chegaralari ham aniq belgilab olinadi. Qaysi vaziyatlarda AIdan yordamchi vosita sifatida foydalanish mumkinligi va qaysi holatlarda cheklanishi kerakligi ochiq tarzda tushuntiriladi. Masalan, ilmiy ishlarni tayyorlashda AIdan yordamchi vosita sifatida foydalanish mumkin bo‘lsa-da, mustaqil ishlarni to‘liq avtomatlashtirishga ruxsat berilmasligi mumkin. Bunday yondashuv talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ishonchli va adolatli akademik muhitni saqlashga yordam beradi.

Mazkur bosqich davlat darajasida qabul qilingan sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi. Natijada universitetda rasmiy AI siyosati shakllanadi, akademik halollik hujjatlari yangilanadi va etik nazoratni amalga oshiruvchi ishchi guruh tashkil etiladi. Shu asos yaratilgachgina keyingi bosqich — infratuzilma va ma’lumotlar integratsiyasini rivojlantirishga o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.




1-rasm. Normativ-strategik tayyorgarlik

2-Bosqich. Infratuzilma va ma’lumotlar boshqaruvi (6–18 oy)

Sun’iy intellektni joriy etishning ikkinchi bosqichi texnologik infratuzilmani shakllantirish va ma’lumotlar boshqaruvini tartibga solishga qaratiladi. Birinchi bosqichda ishlab chiqilgan siyosat va qoidalar amalda ishlashi uchun OTMda yagona raqamli muhit yaratiladi. Bunda o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari, talabalar reytingi va analitik platformalar, elektron kutubxona resurslari hamda kadrlar ma’lumotlar bazalari o‘zaro integratsiyalashgan ekotizimga birlashtiriladi. Tizimlar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yilmasa, sun’iy intellektdan samarali foydalanish qiyinlashadi.

Shu bilan birga, turli platformalarda saqlanayotgan ma’lumotlar yagona formatga keltiriladi, ularning tuzilmasi va metama’lumotlari tartibga solinadi. Atamalar va identifikatorlar bir xillikka keltirilishi tahliliy tizimlarning aniq ishlashini ta’minlaydi. Bu jarayon mamlakat miqyosidagi raqamli ekotizim tashabbuslari bilan ham uyg‘unlashadi.

Bosqich yakunida axborot tizimlarining bir qismi integratsiyalashadi, ma’lumotlar lug‘ati shakllanadi va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha audit o‘tkaziladi.



2-rasm. SI uchun tayyorlik omillari ulushi

3-Bosqich. Kadrlar va o‘quv rejalari transformatsiyasi (12–24 oy)

Sun’iy intellektni oliy ta’limga joriy etishning uchinchi bosqichi inson omiliga — ya’ni o‘qituvchi va talabalar tayyorgarligiga qaratiladi. Texnologik infratuzilma mavjud bo‘lsa ham, undan ongli foydalanish ko‘nikmalari bo‘lmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin. Shu sababli bu davrda pedagogik yondashuv va o‘quv mazmuni zamonaviy talablar asosida yangilanadi. O‘qituvchilar uchun sun’iy intellektni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilishga qaratilgan malaka oshirish dasturlari tashkil etiladi, baholash usullari esa talabalarning mustaqil fikrlashi va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga mos ravishda takomillashtiriladi.

Talabalar uchun AI savodxonligini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu nafaqat sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish, balki ularning imkoniyatlari, cheklovlari va axborot ishonchliligini tanqidiy baholay olishni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, plagiat, mualliflik huquqi va akademik halollik tamoyillari haqida tushuncha beriladi. O‘quv dasturlariga esa ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt etikasi yoki turli sohalarda qo‘llaniladigan AI yechimlariga oid modullar kiritiladi. Natijada sun’iy intellekt alohida fan sifatida emas, balki turli yo‘nalishlar bilan integratsiyalashgan bilim sohasi sifatida qaraladi.

Bu jarayon xalqaro tavsiyalar bilan ham uyg‘un holda amalga oshiriladi va texnologiyaning inson imkoniyatlarini kengaytirishiga xizmat qiladi. Bosqich yakunida o‘qituvchilarning bir qismi AI bo‘yicha malaka oshiradi, talabalar uchun AI savodxonligi modullari joriy etiladi va keyingi bosqichdagi amaliy loyihalarni amalga oshirish uchun zarur inson kapitali shakllanadi.

4-**Bosqich. Pilot loyihalar va integratsiya (18–36 oy)**

Mazkur bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalari amaliy sinovdan o‘tkaziladi va ularning real foydasi baholanadi. Pilot loyihalar oddiy texnologiya joriy etish bilan cheklanmasdan, aniq muammolarni hal qilishga qaratilishi lozim. Ta’lim jarayonida bu adaptiv test tizimlari, yozma ishlar uchun avtomatik izoh beruvchi yordamchi vositalar yoki

talabaga individual tavsiyalar beruvchi tizimlar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday yechimlar o‘qituvchining ish yukini kamaytiradi va talabalarga o‘z bilim darajasini tezroq tahlil qilish imkonini beradi.

Ma’muriy boshqaruvda sun’iy intellekt murojaatlarni saralash, hujjatlarni tahlil qilish va tez-tez beriladigan savollarga javob berish orqali jarayonlarni tezlashtiradi. Ilmiy faoliyatda esa u adabiyotlarni tahlil qilish, muhim manbalarni aniqlash va tadqiqot yo‘nalishlarini ko‘rsatishda yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, OTMlar va sanoat subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik pilot loyihalarni real sektor ehtiyojlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bu bosqichda asosiy e’tibor loyihalar soniga emas, balki ularning samaradorligiga qaratiladi. Vaqt tejalishi, jarayonlarning tezlashishi va foydalanuvchilar qoniqish darajasi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Agar pilot loyihalar ijobiy natija ko‘rsatsa, ular keyingi bosqichda kengroq miqyosda joriy etiladi.

Pilotlar portfeli

Jadval 1.

Yo‘nalish	**Pilot nomi**	**Maqsad**	**Xatar**	**Nazorat**
Baholash	“AI-Feedback”	tez va sifatli izoh	“yolg‘on ishonch”	rubrika + sample audit
Akademik halollik	“Integrity-check”	plagiatni kamaytirish	noto‘g‘ri ayblash	apellyatsiya + log
Boshqaruv	“Smart-Helpdesk”	savollarni tez javoblash	maxfiy ma’lumot chiqishi	ma’lumot filtri

OECD ta’kidlaganidek, generativ AIni boshqarish ko‘pincha “qonun”dan ko‘ra “yo‘riqnoma va OTM darajasidagi tartiblar” orqali shakllanadi [6].

5-Bosqich. Masshtablash, sifat nazorati va barqaror boshqaruv (36+ oy)

Sun’iy intellektni joriy etish jarayonining yakuniy bosqichi uni alohida pilot yoki tajriba doirasidan chiqarib, tizimli va barqaror mexanizmga aylantirishni nazarda tutadi. Bu davrda asosiy e’tibor kengaytirish, standartlashtirish va uzluksiz nazoratga qaratiladi. Avval sinovdan o‘tgan yechimlar endi universitet miqyosida yoki bir nechta oliy ta’lim muassasalari kesimida qo‘llanadi. Buning uchun texnik integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi: turli platformalar o‘rtasida API orqali xavfsiz ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi, axborot xavfsizligi talablari yagona mezon asosida belgilab olinadi va muntazam audit tizimi shakllantiriladi.

Shu bosqichda sun’iy intellekt ta’lim sifatini kuzatish vositasiga ham aylanadi. “O‘rganish analitikasi” orqali talabaning faolligi, o‘zlashtirish dinamikasi va individual ehtiyojlari tahlil qilinadi. Biroq bu jarayon shaxsiy hayot daxlsizligi va akademik erkinlikni buzmasligi kerak. Ma’lumotlardan foydalanish aniq chegaralar bilan tartibga solinadi, etik talablar qat’iy saqlanadi.

Mazkur bosqichning asosiy tamoyillari “ishonchli AI” konsepsiyasiga tayanadi [7]. Bu yondashuv inson nazoratini saqlash, tizim xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, qarorlar shaffofligini oshirish va adolat mezonlariga rioya etishni talab qiladi.

Sun’iy intellekt yakuniy qaror qabul qiluvchi emas, balki inson tomonidan boshqariladigan va tekshiriladigan yordamchi mexanizm bo‘lib qoladi.

Jarayon samaradorligi muntazam o‘lchanadi. Masalan, yil davomida nechta audit o‘tkazilgani, tizimlarda tarafkashlik ko‘rsatkichlari qay darajada nazorat qilinayotgani, o‘qituvchilarning ish yuklamasi qanchalik qisqargani kabi mezonlar tahlil qilinadi. Ana shunda sun’iy intellektni joriy etish vaqtinchalik loyiha emas, balki sifatli va barqaror boshqaruv tizimining bir qismiga aylanishi mumkin.

“AI yetuklik modeli” (OTMlar uchun baholash shkalasi)

Sun’iy intellektni oliy ta’lim tizimiga joriy etish barcha OTMlarda bir xil darajada kechmaydi. Shu sababli ularning tayyorgarlik darajasini baholash uchun “AI yetuklik modeli” taklif etiladi. Ushbu model texnologik infratuzilma, boshqaruv siyosati, ma’lumotlar sifati va etik nazorat darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Boshlang‘ich holatda sun’iy intellekt bo‘yicha aniq siyosat mavjud bo‘lmaydi, ma’lumotlar turli tizimlarda tartibsiz saqlanadi va AI vositalari deyarli qo‘llanilmaydi. Keyingi bosqichda esa muayyan qoidalar va ichki siyosatlar shakllana boshlaydi, biroq tizimlar o‘rtasida to‘liq texnik integratsiya hali yo‘lga qo‘yilmagan bo‘ladi. O‘rta darajada ma’lumotlar boshqaruvi tartibga solinadi, standartlashtirish jarayoni boshlanadi va ayrim pilot loyihalar sinovdan o‘tkaziladi.

Yuqori bosqichda sun’iy intellekt ta’lim jarayoni, boshqaruv va analitika tizimlari bilan integratsiyalashadi, natijalar muntazam monitoring qilinadi va qarorlar ma’lumotlar asosida qabul qilinadi. Eng yuqori darajada esa sun’iy intellekt OTM boshqaruvining barqaror qismiga aylanadi, etik nazorat va xavfsizlik mexanizmlari to‘liq shakllanadi hamda bu tajriba boshqa muassasalarga ham tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan model darajasiga yetadi.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil.

O‘zbekiston modeli va ikki xalqaro yondashuv (qiyosiy)

Jadval 2.

Мезон	**O‘zbekiston (taklif)**	**Singapur (MOE yondashuvi)**	**Estoniya (AI Leap)**
Asosiy urg‘u	Bosqichma-bosqich tizimli joriy etish	Mas’uliyatli boshqaruv va etik ramka	O‘qituvchini tayyorlashdan boshlash
Etik tamoyil	Ishonchli AI talablariga mos	Agency, Inclusivity, Fairness, Safety [8]	Pilot + o‘qituvchi treningi [9]
Start nuqtasi	Normativ + data boshqaruvi	Siyosat + boshqaruv mexanizmi	Maktab tizimidan boshlanib kengayish

Qiyosiy jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston uchun taklif etilgan model nisbatan muvozanatli va tizimli yondashuvni taklif qiladi. U normativ asos, ma’lumotlar infratuzilmasi, kadrlar salohiyati va etik nazoratni bir butun zanjir sifatida ko‘radi. Singapur

modeli boshqaruv va etik me’yorlarga urg‘u bersa, Estoniya tajribasi inson kapitalini tayanch nuqta sifatida belgilaydi. Demak, O‘zbekiston modeli ushbu ikki yondashuvning kuchli jihatlarini moslashtirgan holda milliy sharoitga integratsiyalashgan konsepsiyani taklif etadi.

Muhokama

Taklif etilayotgan yechimning afzalligi

Taklif etilgan 5 bosqichli model sun’iy intellektni oddiy texnik vosita sifatida emas, balki ta’lim tizimini strategik darajada yangilovchi omil sifatida ko‘rib chiqadi. Ko‘plab holatlarda sun’iy intellektni joriy etish faqat dastur o‘rnatish yoki platforma xarid qilish bilan cheklanib qoladi va bunday yondashuv uzoq muddatli natija bermaydi. Taklif etilayotgan model esa jarayonni bosqichma-bosqich, rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Modelning muhim jihati shundaki, unda tashkiliy, huquqiy, texnologik va moliyaviy omillar o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Bu sun’iy intellektni alohida loyiha emas, balki ta’lim tizimining strategik rivojlanish yo‘nalishi sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, model barqarorlikni ta’minlashga ham qaratilgan bo‘lib, huquqiy asoslar, ma’lumotlar xavfsizligi va infratuzilmani rivojlantirish kabi omillarni muhim shart sifatida belgilaydi.

Yondashuvda inson omiliga ham alohida e’tibor qaratilgan. Sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirish uchun emas, balki uning faoliyatini samaraliroq tashkil etishga xizmat qilishi kerak. Shu sababli modelda pedagoglarni qayta tayyorlash, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va boshqaruv kadrlari malakasini oshirish muhim o‘rin egallaydi. Bundan tashqari, bosqichli joriy etish resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi: avval pilot loyihalar sinovdan o‘tkaziladi, keyinchalik esa muvaffaqiyatli tajribalar kengaytiriladi.

Modelda monitoring va natijadorlikni baholash mexanizmlari ham nazarda tutilgan bo‘lib, bu kutilayotgan samaradorlikni muntazam tahlil qilish va zarur hollarda tuzatishlar kiritishga imkon beradi. Natijada ushbu yondashuv sun’iy intellektni joriy etishni tor doiradagi texnik loyiha emas, balki ta’lim tizimini kompleks modernizatsiya qilish jarayoniga aylantiradi hamda uzoq muddatli rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Amaliy “yo‘l xaritasi”

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish dastlab normativ-huquqiy va institutsional asoslarni yaratishdan boshlanadi. Birinchi bosqichda ta’lim muassasasida AI’dan foydalanish siyosati ishlab chiqilib, uning maqsadi, qo‘llanish sohasi va ehtimoliy xavflari aniqlanadi. Akademik halollik qoidalari qayta ko‘rib chiqiladi, plagiat va generativ modellardan foydalanish bo‘yicha aniq talablar belgilanadi hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun etik nazorat va ichki xavfsizlik standartlari joriy etiladi. Bu jarayon davlatning raqamlashtirish strategiyalari bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi.

Keyingi bosqichda ta’lim muassasasining texnologik infratuzilmasi va ma’lumotlar boshqaruvi tizimi shakllantiriladi. Turli raqamli platformalar yagona edu-ekotizimga integratsiya qilinadi, learning analytics uchun umumiy ma’lumotlar ombori yaratiladi va

algoritmik qarorlarning shaffofligini ta’minlash maqsadida audit hamda kiberxavfsizlik mexanizmlari kuchaytiriladi.

Uchinchi bosqich inson kapitalini rivojlantirishga qaratilib, professor-o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar uchun AI savodxonligi bo‘yicha o‘quv dasturlari tashkil etiladi. Talabalar uchun esa sun’iy intellekt asoslari, raqamli etik va ma’lumotlar madaniyatiga oid modullar o‘quv rejasiga kiritiladi. Bu jarayon xalqaro tavsiyalar, jumladan UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Keyingi davrda sun’iy intellektga asoslangan amaliy yechimlar pilot tarzda joriy etilib, baholash tizimlari, virtual helpdesk-botlar, learning analytics orqali akademik jarayonlarni tahlil qilish kabi loyihalar sinovdan o‘tkaziladi. Ularning samaradorligi akademik natijalar, talabalar qoniqishi va boshqaruv jarayonlarining tezlashishi kabi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi.

So‘nggi bosqichda muvaffaqiyatli pilot yechimlar keng miqyosda joriy etilib, barcha fakultet va bo‘limlarga tatbiq etiladi. Tizimning barqaror ishlashi uchun doimiy monitoring, risk tahlili va milliy hamda xalqaro standartlar bilan integratsiya ta’minlanadi. Natijada sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim tizimining barqaror va institutsional rivojlanish modeliga aylanadi.

XULOSA. Maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini nazorat qilinadigan va bosqichma-bosqich joriy etish uchun 5 bosqichli amaliy model taklif qilindi. Ushbu yondashuv sun’iy intellektni oddiy texnologik yangilik sifatida emas, balki oliy ta’lim tizimini kompleks ravishda yangilovchi strategik omil sifatida ko‘rib chiqadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektni samarali joriy etish uchun OTM ekotizimining bir nechta muhim yo‘nalishlari parallel ravishda rivojlanishi zarur. Avvalo, siyosat va etik boshqaruv aniq belgilanishi, ya’ni sun’iy intellektdan foydalanish qoidalari, javobgarlik va shaffoflik mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, ma’lumotlar sifati va ularning yagona tizimda integratsiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki to‘liq va ishonchli ma’lumotlarsiz sun’iy intellekt algoritmlari samarali ishlamaydi. Bundan tashqari, kadrlar kompetensiyasi ham hal qiluvchi omil bo‘lib, o‘qituvchilar va rahbarlarning sun’iy intellekt vositalarini tushunishi va ulardan to‘g‘ri foydalanishi zarur. Yangi texnologiyalarni joriy etishda pilot loyihalar va aniq o‘lchanadigan samaradorlik ko‘rsatkichlari ham muhim rol o‘ynaydi, chunki har bir yechim avval sinovdan o‘tkazilib, uning natijalari real ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Shu bilan birga, milliy strategik hujjatlarda sun’iy intellektni 2030-yilgacha rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu jarayonda oliy ta’lim muassasalari muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun OTMlarning vazifasi sun’iy intellektni shunchaki joriy qilish emas, balki uni boshqariladigan, barqaror va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan tizimga aylantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4996-son. Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida (17.02.2021).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-358-son. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi (14.10.2024).

3. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. - 2023 (yangilangan: 16.01.2026).

4. UNESCO. AI and education: Guidance for policy-makers. - 2021.

5. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. - OECD Publishing, 2023.

6. OECD. Emerging governance of generative AI in education // OECD Digital Education Outlook 2023 (full report section). - 2023.

7. European Commission (HLEG AI). Ethics guidelines for trustworthy AI. - 2019.

8. Singapore Ministry of Education. Artificial intelligence in education (AIEd) and ethics framework (Agency, Inclusivity, Fairness, Safety). - 08.01.2026.

9. Eurydice (EACEA). Estonia: AI Leap Initiative to Enhance Learning and Teaching (pilot from 1 September 2025). - 24.03.2025.

10. digital.gov.uz. 2025-yilda oliy va professional ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida yagona edu.uz raqamli ekotizimi ishga tushiriladi.

11. gazeta.uz. Prezident yangi sun’iy intellekt loyihalari bilan tanishdi (universitet–sanoat–xalqaro hamkorlik klasteri). - 21.10.2025.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

THE IMPACT OF EMOTIONAL CLIMATE ON STUDENT SPEAKING ENGAGEMENT IN THE EFL CLASSROOM IN HIGHER EDUCATION

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.071

Karimbayeva Asal Shukhratovna
Karimovaash249@gmail.com
Trainee-teacher
Uzbek State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

Annotation. This study explores how the emotional climate of the classroom influences student speaking engagement in English as a Foreign Language (EFL) course at the university level. Although communicative teaching methods are widely used, many students remain reluctant to participate actively in speaking tasks, even when they have sufficient language proficiency. The research suggests that this reluctance may be connected not only to linguistic factors but also to the emotional atmosphere in the classroom. A short-term pilot experiment was conducted with 48 undergraduate students divided into control and experimental groups. The experimental group experienced targeted strategies aimed at creating a supportive and psychologically safe environment, including delayed error correction, positive feedback, humor-based warm-ups, and cooperative peer interaction. The results showed a significant increase in voluntary participation and longer student responses in the experimental group. The findings demonstrate that emotional climate is a manageable pedagogical factor that can directly enhance students’ willingness to speak and engage more actively in EFL classrooms.

Анализ. Во время занятия, работая над анализом художественного текста, студенты вырабатывают навыки работы в малых группах, где все в ответе за успех всей группы, поэтому они должны уметь слушать друг друга, делать совместные выводы по изучаемому тексту.

Для того чтобы изучить рассказ Д.Н.Мамина-Сибиряка «Приемыш», студенты выполняют ряд заданий в подгруппах. Группа делится на три подгруппы. Первое задание называется «Как это выглядит?», для выполнения данного задания из числа членов подгруппы выбирается художник, далее члены подгрупп начинают обсуждать, что они могли бы нарисовать для передачи содержание отдельной главы. Пока художник рисует, остальные члены подгруппы работают над выполнением второго задания «Тонкие и толстые вопросы». Члены подгруппы составляют по три тонкому и по одному толстому вопросы по рассматриваемым главам.

Каждая подгруппа задает составленные ими вопросы членам других подгрупп, остальные две подгруппы отвечают на вопросы, тем самым студенты проверяют друг друга.

Затем следует задание № 3 «Сюжетная таблица» [3; стр.65], теперь подгруппы должны работать по другим главам, например, если второе задание выполнялось по первой главе рассказа, то следующее третье задание подгруппа должны выполнять уже по другой главе, скажем, по второй главе, т.е., подгруппы меняются между собой главами.

Кто?	**Что сделал?**	**Когда?**	**Куда? Где?**	**Почему?**
Я	подходил	в дождливый день	к рыбачьей сайме	чтобы встретиться со старым охотником Тарасом
Тарас	топил печь	даже летом каждый день	в своей избушке	потому что он был очень старым

Выполнив задание, каждая подгруппа читает свои сюжеты по рассматриваемым главам. Данное задание дает возможность запомнить сюжетные линии художественного текста.

Для выполнения следующего задания подгруппы опять меняются главами, теперь первая подгруппа выполняет задание по третьей главе рассказа, соответственно другие подгруппы тоже работают по другим главам.

Задание №4 Составить «Синквейн» по рассматриваемой главе, для этого напоминаем правила составления синквейна и приступаем к выполнению задания.

Членами первой подгруппы для составления синквейна был выбран персонаж – Соболько, это собачка, которая сторожит жилье старого охотника, его верный друг и помощник.

Члены второй подгруппы составили синквейн со словом старик, это главный герой, старый охотник, который бережно относится к окружающей природе.

Третья подгруппа составила синквейн по слову лебедь, так как приемышем старого Тараса оказывается лебедь, которая очень привязалась к человеку с его собакой, но увидев стаю лебедей перелетавших поздней осенью в теплые края, улетела вместе со стаей лебедей.

Затем нужно проверить работу художников, каждый из них рассказывает о своем рисунке. Беря за основу рисунки художников можно всей группой составить интеллектуальную карту по рассказу «Приемыш».

Далее каждая подгруппа делает свои выводы по рассказу «Приемыш».

В рассказе «Приемыш» животные наделены чувствами и характером. Автор учит понимать язык природы, её разумные законы, а безнравственное отношение к ней приравнивается к черствости души.

Работа выполненная во время занятия дает возможность студентам глубже изучить художественный текст. Студенты выполняя задания, несколько раз перечитывают текст, например, при выполнении задания №1, где мы наблюдаем «Артпедагогику», каждая подгруппа обсуждает только одну главу рассказа, они читали текст дома. Когда они начинают выполнять второе задание, составляют «Тонкие и толстые вопросы» по исследуемой главе, то они читают эту главу рассказа уже во второй раз. Задача наставника состоит в том, чтобы студенты выполняя различные задания повторяли и перечитывали текст, поэтому выбрана такая тактика, чтобы студенты каждое новое задание выполняли по новой главе, т.е., три подгруппы меняются при выполнении следующего задания главами.

Следующий рассказ Д.Н.Мамина-Сибиряка, рассматриваемый во время этого занятия, называется «Лесная сказка».

Если при изучении рассказа «Приемыш» была применена группавая форма работы, то задание по изучению рассказа «Лесная сказка» выполняется индивидуально.

Задание №1. Ролевая игра «Я – сценарист»

По рассказу Д.Н.Мамина-Сибиряка «Лесная сказка» планируется снять кроткометражный фильм. Сценарист должен составить сценарий данного фильма, который будет называться «История старой ели». Из текста выбрать отрывки, где отражается история старой ели.

Приведем отрывок из составленного студентами сценария:

« Детки, расскажу я вам, как я попала сюда, - шептала старая Ель.

Давно это было… Мои родители жили там, на горе, в камнях, где так свистит холодный ветер. Трудно им приходилось, особенно по зимам… Больше всех обижал

Ветер: как закрутит, как засвистит… Северная сторона у елей вся была голая, а нижние ветви стлались по земле. Трудно было и пищу добывать между камнями. Корни оплетали камни и крепко держались за них. Ель - неприхотливое дерево и крепкое, не боится ничего…»

Далее студенты делают общие выводы по теме.

Тема природы в творчестве Д.Н. Мамина-Сибиряка - это любовь к родному краю, изображение его красоты и призыв к бережному отношению к ней, раскрывающиеся в пейзажах, где человек - часть большого мира, а природа выступает как живое, разумное существо, источник гармонии и нравственного очищения. Автор показывает силу стихий, красоту лесов и рек, противопоставляя их бездушию человека, и учит через животных и явления природы понимать законы жизни.

Заключение

Таким образом, при анализе художественного текста использование различных интерактивных методов и приемов помогает лучше запоминать понимать прочитанное. Эти задания заставляют студентов активно участвовать на занятиях. Они постепенно учатся понимать текст глубже, обращать внимание на детали, уловить замысел автор, и самое главное, высказывать свою точку зрения по поводу прочитанного художественного текста. Так цель современного образования не передача готовых знаний, а создание условий для самостоятельной работы студента, для личного переживания и понимания искусства слова.

Литература:

1.Арзамасцева Н.И., Николаева С.А. Детская литература - М., Наука, 2003

2. Ахмедова Л. Т., Лагай Е. А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. - Ташкент, 2016.

3. Загашев И.О., Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Учим детей мыслить критически, Санкт-Петербург, 2003.

4. Миночкина Л.И. Мамин-Сибиряк –«миру детства», Челябинск, 2007.

5. Д.Н.Мамин-Сибиряк Рассказы (любое издание)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

“NURNI IKKIGA AJRALIB SINISH HODISASI” MAVZUSINI O‘QITISHNI MODELLASHTIRISH.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.075

Soatov Hasan Parda o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika institute
“Tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
Email: soatovhasan20gmail.com
Tel: +99897 715 10 97

Annotatsiya. Ushbu maqolada kristallooptika bo‘limiga oid muhim optik hodisalardan biri bo‘lgan nurning ikkiga ajralib sinishi hodisasini fizika ta’limida o‘qitishning metodik asoslari va uni modellashtirish orqali tushuntirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida fizik jarayonlarni vizual modellar yordamida o‘rganishning didaktik imkoniyatlari, talabalarning analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ko‘rib chiqildi. Nurning ikkiga ajralib sinishi hodisasini kompyuter modellashtirish asosida o‘qitish metodikasining afzalliklari aniqlanib, tajriba natijalari asosida uning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’siri asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: kristallooptika, nurning ikkiga ajralib sinishi, modellashtirish, fizika ta’limi metodikasi, kompyuter simulyatsiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируются методические основы преподавания одного из важных оптических явлений раздела кристаллооптики — явления двойного лучепреломления — в процессе обучения физике, а также способы его объяснения с использованием моделирования. В ходе исследования рассмотрены дидактические возможности изучения физических процессов с помощью визуальных моделей, их роль в развитии аналитического мышления студентов, а также эффективность современных образовательных технологий. Определены преимущества методики преподавания явления двойного лучепреломления на основе компьютерного моделирования, а также на основе результатов эксперимента обосновано её положительное влияние на образовательный процесс.

Ключевые слова: кристаллооптика, двойное лучепреломление, моделирование, методика преподавания физики, компьютерная симуляция.

Abstract. This article analyzes the methodological foundations of teaching one of the important optical phenomena of crystal optics — the phenomenon of double refraction — in physics education, as well as methods of explaining it through modeling. The study examines the didactic potential of studying physical processes using visual models, their role in developing students’ analytical thinking skills, and the effectiveness of modern educational

technologies. The advantages of teaching the phenomenon of double refraction based on computer modeling are identified, and its positive impact on the educational process is substantiated based on experimental results.

Keywords: crystal optics, double refraction, modeling, physics education methodology, computer simulation.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida fizikani o‘qitish jarayonini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Fizika fani ko‘plab murakkab nazariy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli murakkab fizik jarayonlarni tushuntirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur [1].

Optika bo‘limida o‘rganiladigan kristallooptik hodisalar, xususan nurning ikki marta sinishi hodisasi, talabalar uchun tushunilishi nisbatan qiyin bo‘lgan mavzulardan biridir. Bu hodisa kristall muhitlarning anizotrop xossalari bilan bog‘liq bo‘lib, yorug‘lik nurlarining kristall ichida turli yo‘nalishlarda turlicha tarqalishi bilan izohlanadi [2].

Mazkur mavzuni o‘qitishda modellashtirish usullaridan foydalanish talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi [3]. Kompyuter simulyatsiyalari yordamida fizik jarayonlarni vizual tarzda ko‘rsatish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi [4].

Adabiyotlar tahlili


Modellar va model yaratishning ta'lim jarayonidagi foydalanishini tahlil qilishdan oldin, ularning fizika fanidagi ahamiyatini ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri bo'ladi [5].

Birinchidan, o‘quv va ilmiy modellar o‘rtasidagi farq va maqsadni aniqlab olish kerak. Ularning farqi funksional: ilmiy modellar — ilmiy amaliyotda qo‘llaniladigan modellar, o‘quv modellar esa — ta'limda foydalaniladigan modellar hisoblanadi [5]. Modellarni o‘quv yoki ilmiy toifaga tegishliligini aniqlash masalasida ikki qarama-qarshi nuqtai nazar mavjud. Tez-tez, hatto fizika metodikasida ham, fizika ta'limida va ilmiy fizikada qo‘llaniladigan modellar farqlanmaydi yoki asossiz ravishda bir xil deb hisoblanadi. Boshqa bir nuqtai nazar o‘quv va ilmiy modellarni to‘liq qarama-qarshi qo‘yishdan iborat. Masalan, L. M. Fridman, o‘quv modellarining ilmiy modellar bilan bir xil emasligini va hatto o‘zaro to‘qnashmaydiganligini ta'kidlaydi [6]. U o‘quv darslarida o‘rganiladigan maktab fizikasidagi modellar o‘quv modellariga tegishli emas deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, modellarni taqsimlashda quyidagi yondashuv ratsionaldir: ilmiy amaliyotda qo‘llaniladigan barcha modellar ilmiy hisoblanadi, maktabda o‘rganiladiganlar esa o‘quv modellaridir. O‘quv modellarining bir qismi ilmiy modellardan farq qiladi va fizikani o‘qitish uslubi mahsulidir, boshqa qismi esa uning ilmiy modellari bilan bog‘liq bo'lib, ya'ni bu modellar ilmiy modellarning analoglari, lekin tuzatilgan va ta'lim uchun mo‘ljallangan. Birinchi o‘quv modellari ma’lum o‘quv vazifalarini hal qilish jarayonida va shuning uchun yaratiladi, ikkinchi modellari esa ilmiy modellar maktab faniga ko‘chirilganda va ularga didaktik ohang berilganda yuzaga keladi. S. E. Kamenetskiy va N. A. Soloduxin ta’kidlaganidek, barcha o‘quv modellarida umumiy jihat ularning didaktik aspektidir [7]. Didaktik aspekt shundan iboratki, o‘quv modellari prototipga o‘xshashligi bilan birga, soddalik, tushunarli bo‘lishi hamda o‘quv jarayonida ularni qurish va ishlatish osonligi kabi bir qator xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, didaktik

aspektni hisobga olish ortiqcha metodik urg‘u berishni anglatmasligi lozim, chunki bu ba’zi tadqiqotlarda modellar va modellashtirishni o‘quv jarayoniga joriy etishda kuzatilgan holatlardir. O‘quv modellarida ularning ilmiy prototiplari ilmiy bilim tizimidagi o‘rni hisobga olinishi (yoki ularga zid bo‘lmasligi) va ularning o‘quv fanining to‘laqonli obyektlari sifatida namoyon bo‘lishi zarur.

Nurning ikkiga ajralib sinish hodisasi E. Bartolinus tomonidan 1969-yilda kashf etilgan [8]. Yorug'lik kaltsit ($CaCO_3$) kristallariga tushganda, u turli xususiyatlarga ega ikkita singan nurga bo'linadi.

Qutblanmagan yorug'lik nuri kvarts kristalidan o'tganda, yorug'lik turli burchaklarda sinadigan ikkita nurga parchalanadi. Bu hodisa ikkiga ajralib sinishi deb ataladi [2]. Bu nurlarning birinchisi O – oddiy nur ikkinchisi esa E-g‘ayri oddiy nur deb ataladi. (2-rasm)



2-rasm. Oddiy va g‘ayrioddiy nur

Ikki nurli materiallar optik jihatdan anizotropdir (ularning xususiyatlari yorug'lik nuri ular bo'ylab o'tadigan yo'nalishga bog'liq), chunki ularning molekulalari tushayotgan yorug'likka barcha yo'nalishlarda bir xil tarqalmaydi. bermaydi. Bu ularning molekulyar (bog'lanish kuchi) va kristall tuzilmalaridan kelib chiqadi. Biroq, barcha bunday materiallarda kamida bitta optik o'q mavjud (ba'zi materiallarda ikkita optik o‘q mavjud), u bo'ylab tarqaladigan yorug'lik uning elektr vektorining biron bir komponentiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasdan harakatlanishi mumkin. Kristall orqali boshqa yo'nalishda harakatlanadigan yorug'lik ikki xil sinish ko'rsatkichiga ega bo‘ladi va turli tezliklarda harakatlanadigan va o‘zaro perpendikulyar qutblanishga ega bo'lgan komponentlarga bo'linadi.

Oddiy va g’ayrioddiy nurlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Oddiy nurlar sinish qonunlariga bo'ysunadi, g‘ayrioddiy nurlar esa ularga bo'ysunmaydi.

2. G‘ayrioddiy nur ham, oddiy nur ham chiziqli qutblangan. Ular o'zaro perpendikulyar tekisliklarda qutblangan bo‘ladi. Oddiy nurning elektr maydon vektori oddiy nurning asosiy kesimiga perpendikulyar tebranadi, g‘ayrioddiy nurning tebranishlari esa g‘ayrioddiy nurning asosiy kesimiga parallel ravishda sodir bo'ladi.

3. Oddiy nur kristall ichidagi barcha yo'nalishlarda bir xil tezlikda harakatlanadi. G‘ayrioddiy nur kristall ichidagi turli yo'nalishlar bo'ylab turli tezliklarda harakatlanadi. Biroq, g‘ayrioddiy nur va oddiy nurlarning tezligi optik o'q yo'nalishi bo'yicha bir xil.

4. Oddiy nurga mos keladigan nur sindirish ko‘rsatgichi doimiy. Boshqa tomondan, g‘ayrioddiy nur uchun nur sindirish ko‘rsatgichi har bir yo'nalishda farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

O‘qitish modeli sifatida – bosqichma-bosqich o‘qitish yondashuvidan foydalanildi. Bosqichma-bosqich o‘qitish modeli — bu murakkab ilmiy mavzularni talabalarga tushuntirish uchun ishlatiladigan strukturali pedagogik yondashuv bo‘lib, unda har bir bosqich o‘ziga xos vazifalarni bajaradi. Nurning ikki marta sinishi hodisasini o‘qitishda ushbu model quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi:

1. Nazariy tushuntirish bosqichi – bu bosqichning maqsadi*:* Talabalarga mavzu asoslarini tushuntirish va terminlarni kiritishdan iborat. Shuning uchun birinchi bo‘lib kristallooptika va nurning ikki marta sinishi tushunchalari kiritiladi. Undan keyin esa, nurning ikki marta sinishi hodisasining fizik mohiyati tushuntiriladi. Va nihoyat oddiy va g‘ayrioddiy nur tushunchalari, Snell qonuni va anizotrop kristallarning optik xossalari nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Ushbu bosqich ma’ruza orqali tushuntiriladi va ma’ruzada rasmlar va formulalardan foydalaniladi. Natijada talabalar hodisaning nazariy asosini tushunadi va asosiy tushunchalarni o‘zlashtiradi.

2. Vizual modellar bosqichi – bu bosqichning maqsadi talabalarga hodisani vizual tarzda tushuntirish. Shuning uchun avval, nurning ikki marta sinishi hodisasi grafik tasvirlar va animatsiyalar orqali ko‘rsatiladi. Undan keyin, oddiy va g‘ayrioddiy nurlar yo‘nalishini vizual ko‘rsatiladi. Oxirida esa, kristall o‘qi va nur tarqalishi orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatiladi.

Ushbu bosqich slaydli taqdimotlar (PowerPoint) va animatsion simulyatsiyalar (Matlab, PhET) orqali amalga oshiriladi. Natijada talabalar hodisaning real shaklini ko‘rib, nazariy tushunchalarni amaliy ko‘rinishda tasavvur qiladi.

3. Kompyuter simulyatsiyasi bosqichi – bu bosqichning maqsadi murakkab jarayonlarni kompyuter modellashtirish orqali chuqurroq tushunishdir.

Kompyuter dasturlari yordamida nurning ikki marta sinishi jarayoni interaktiv tarzda modellashtiriladi. Undan keyin, talabalar o‘zlari nurning yo‘nalishini, qutblanishini va tarqalishini simulyatsiya qilib ko‘rishadi. Talabalar har bir parametrni o‘zgartirish orqali hodisaning natijalarini kuzatish (masalan, kristall burchagi, nurning kirish burchagi) mumkin.

Ushbu bosqich Matlab, Python (Pygame/Matplotlib) va PhET simulatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Natajada talabalar hodisani mustaqil ravishda tahlil qiladi va hodisa mexanizmini amaliy jihatdan tushunadi.

4. Amaliy mashg‘ulot va mustaqil tahlil bosqichi – bu bosqichning maqsadi talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va nazariy bilimni amalda qo‘llashidir. Bunda Talabalar animatsiya va simulyatsiya natijalarini tahlil qiladi. O‘qituvchi tomonidan berilgan savollar orqali talabalar hodisani baholaydi va tushuntiradi. Shundan keyin tajriba natijalari

asosida jadval va diagrammalar tuziladi. Natijada talabalar hodisani nazariy va amaliy jihatdan tushunadi, analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Xulosa va baholash bosqichi – bu bosqichning maqsadi: O‘quv jarayonini yakunlash va bilimlarni baholash. Talabalar o‘rganilgan mavzu bo‘yicha qisqa xulosalar chiqaradi. Shuningdek, testlar yoki mini-labaratoriya ishlar orqali bilim darajasi baholanadi. Kerak bo‘lsa, o‘qituvchi qo‘shimcha tushuntirishlar beradi.

Natijada talabalar mavzuni mustahkamlashadi, o‘rganilgan bilimni tahlil qilish va amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.

6. Integratsiya bosqichi bu ixtiyoriy va uning maqsadi mavzuni boshqa bo‘limlar bilan bog‘lash va real hayotdagi amaliy qo‘llanishini ko‘rsatishdir. Ya’ni kristall qurilmalar, polarizatsiya filtrlar, optik sensorlar orqali hodisani amaliy jihatdan o‘rganishdir. Natijada Talabalar mavzuni keng kontekstda tushunadi va real muammolarni yechishda qo‘llashni o‘rganadi.

Bosqichma-bosqich o‘qitish modeli talabalarga nazariy bilimni tushunish, vizual tasavvur qilish, simulyatsiya yordamida amaliy tajriba orttirish va mustaqil tahlil qilish imkonini beradi. Shu yondashuv yordamida nurning ikki marta sinish**i** hodisasini o‘qitish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.


Tajriba va natijalar

Tajriba maqsadi — nurning ikki marta sinishi hodisasini modellashtirish orqali talabalarning fizik jarayonlarni tushunish darajasini o‘rganish va ularni baholash. Shuning uchun tajriba obekti sifatida shahrisabz davlat pedagogika instituti F-1-24 va F-2-24 guruh talabalari olindi. Ushbu ikki guruhda talabalar mos ravishda 20 tadan. F-2-24 guruhda an’anaviy metodlar asosida dars o‘tildi. F-1-24 guruhda esa modellashtirish asosida dars o‘tildi.

Birinchidan talabalarga nazariy tushuntirish berildi. Ikkinchi bo’lib vizual modellar va animatsiyalar orqali hodisa ko‘rsatildi. So‘ngra kompyuter simulyatsiyasi yordamida talabalar O-nur va E-nur yo‘nalishini o‘zgartirib natijalarni kuzatdilar. Talabalar natijalarni qayd etdilar.

Talabalarning bilim darajasi baholash uchun avvalo dars o‘tishdan oldin ikki guruhdan test olindi. Natijalarga ko‘ra F – 1-24 guruhi o‘rtacha 56 ball F – 2-24 guruhi o‘rtacha 55 ball olishdi. Dasrni o‘rganishdan keyin F – 1-24 guruhi o‘rtacha 84 ball F – 2-24 guruhi o‘rtacha 68 ball olishdi (2-rasm). Ko‘rinib turibdiki modellashtirish asosida o‘qitilgan guruhda talabalar yaxshiroq natija qilishgan va ballar o‘sishi mos ravishda 50 % va 23.6 % qayd etishdi.

Talabalarning nurning ikki marta sinishi hodisasini qanchalik tushunganligi baholanadi. Modellashtirish asosida o‘qitilgan guruhi talabalari O-nur va E-nur yo‘nalishini kristall o‘qi va nur kirish burchagiga qarab mustaqil tahlil qildilar. Ular hodisaning fizik mohiyatini nafaqat eslab, balki amalda kuzatish va o‘z xulosalarini chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. An’anaviy o‘qitilgan guruh talabalari esa ko‘proq nazariy bilimni yodlash darajasida bo‘ldi va hodisani vizual yoki interaktiv tarzda tushunish imkoniyati cheklangan edi.



2-rasm. Talabalarning bilim o‘zlashtirish natijalari

Analitik fikrlash ko‘nikmasi jihatidan qarasak modellashtirish asosida o‘qitilgan guruhi talabalari hodisaning kristall o‘qi, nur burchagi va E-nur yo‘nalishi o‘zgarishiga qarab mustaqil xulosa chiqarishdi. An’anaviy asosida o‘qitilgan guruhda bu jarayon ko‘proq yodlash darajasida bo‘ldi.

Xulosalar

Modellashtirish asosida o‘qitish talabalarning fizik hodisalarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Vizual animatsiyalar va kompyuter simulyatsiyasi analitik fikrlashni rivojlantiradi. Natijalar jadval va diagrammalar orqali aniq ko‘rinib turibdi — modellashtirish usuli samarali ekanligi tasdiqlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
2. Hecht E. Optics. – Addison Wesley, 2017.
3. PhET Interactive Simulations Project. University of Colorado Boulder, 2020.
4. Matlab Documentation. Optical Simulation To**ols**, MathWorks, 2022.
5. Kamenetskiy S. E. Metodika prepodavaniya fiziki**.** – Moskva, 2005.
6. Fridman L. M. Modeli v obuchenii fizike. – Moskva: Prosveshenie, 1983.
7. Soloduxin N. A. Didakticheskiye modeli v fizike**.** – Moskva, 1990.
8. Bartolinus E. Experimenta Crystalli Islandici**.** – Copenhagen, 1669.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALAR O‘QUV FAOLIYATINI KREDIT-MODUL TIZIMIDA O‘RGAISHNING DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.076

Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ***N.M.Ashurova***

Annotasiya.Mazkur maqolada Kredit-modul tizimi haqida batafsil bayon etilib , avvalambor, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga ta’limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal, zamonaviy, lekin hamma uchun qulay bo‘lgan o‘lchov birligini olib kiradi. Unga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlari muayyan o‘qish natijalarini ko‘zlovchi turli fan va modullarga bo‘linadi. Har bir fan yoki modul esa undagi o‘qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o‘rniga 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks ettirishi mumkin. Talaba esa har semestr, o‘quv yilida muayyan miqdorda kreditlarni to`lab borishi va tegishli miqdordagi kreditlarni to‘plagandan so‘ng unga bakalavr yoki magistratura darajasi berilishi belgilanadi.

Kalit so‘zlar. Talabalar, kredit, dolzarb , muammo, mukammal, zamonaviy, amaldagi, modular, o‘quv, dasturlar.

Annotation. This article describes in detail the Credit-Module System, and first of all, it introduces a more advanced, modern, but accessible unit of measurement of education into the higher education system of our country. According to it, the curricula of higher educational institutions are divided into various disciplines and modules that provide specific learning outcomes. Each discipline or module is reflected in a certain number of credits depending on the amount of study load in it. For example, each discipline can be reflected in 5, 6 or 7.5 credits. The student must pay a certain number of credits each semester, academic year, and after accumulating the appropriate number of credits, he is awarded a bachelor's or master's degree**.**

Keywords. Students, credit, current, problem, perfect, modern, practical, modular, educational, programs.

Аннотация. В данной статье подробно описывается кредитно-модульная система, и, прежде всего, вводится более совершенная, современная, но доступная единица измерения образования в систему высшего образования нашей страны. Согласно ей, учебные планы высших учебных заведений делятся на различные дисциплины и модули, обеспечивающие конкретные результаты обучения. Каждая дисциплина или модуль отражается в определенном количестве кредитов в зависимости от объема учебной нагрузки. Например, каждая дисциплина может быть отражена в 5, 6 или 7,5 кредитах. Студент должен оплатить определенное количество кредитов каждый

семестр, учебный год, и после накопления соответствующего количества кредитов ему присваивается степень бакалавра или магистра.

Ключевые слова:студенты, кредит, текущий, проблема, совершенный, современный, практический, модульный, образовательный, программы.

Mavzuning maqsadi. – kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyati imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil qilish .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini va talaba ushbu natijasida muayyan o‘qish natijalariga erishganligini bildiradi. Ya’ni, ECTS kredit-modul tizimi quyidagi fakt zaruriy elementlardan iborat: a) o‘qish yuklamalari; b) o‘qish natijalari. Talaba shu elementlarni bajarganda, o‘sha fan bo‘yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo‘lga kiritishi mumkin. Sh.Mustafoqulov va M.Sultonovlar ta’kidlashicha olimlarimiz ya`ni, mualliflar: "Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:Bu borada olimlarimiz ;

1. talabalarning mustaqil ishlashlarini ta’minlash;

2. talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalarini reyting asosida baholash", degan fikrlarni bildiradilar.

B.Sh.Usmonov va R.A.Xabibullayevlar ilmiy tadqiqotlarida kredit-moduli ta’lim platformasida tizim uchun ahamiyatli bo‘lgan asosiy tushunchalarga to‘xtalib o‘tishgan. M.U.Hasanova, M.G‘.Jumanova ilmiy maqolasida “Kredit-modul tizimi – mustaqil ta’lim olishga qaratilgan va individual asosida bilimni samarali o‘zlashtirish, o‘quv jarayonini qat’iy belgilangan holda ta’lim yo‘lini tanlash va kredit holida bilim hajmini belgilovchi tizimi ekanligi asoslab berildi.

M.U.Hasanova, M.G‘.Jumanova: “Ushbu tizim hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’limida umumiy yo‘lga qo‘yilgan, vaqt sinovlarida o‘zini yetarlicha oqlagan va bir-biridan farq qiluvchi, lekin bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi ikkita – modul va kredit o‘qitish texnologiyalarini birlashishidan hosil bo‘lgan” degan fikr ilgari surilgan.

E.N.Solovova modul tushunchasiga quyidagicha aniqlik kiritadi: modul – boshqa modulli kurslar bilan bevosita bog‘lana oladigan, zaruriyat tug‘ilganda ichki strukturaning dastlabki moslashuvchanligi hisobiga mazmun, shakl, hajm bo‘yicha ichki strukturasini o‘zgartirishiga qodir, turli ta’limiy traektoriyalarini qurish uchun yetarli muhim dastur va o‘quv-uslubiy ta’minotga ega bo‘lgan kurs yoki uning avtonom qismidir.

B.B.Karabayev tadqiqotida, modul texnologiyasini tatbiq etish o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil ish ko‘nikma va malakalarini jadal sur’atda egallashiga yo‘naltiradi, o‘quv faoliyati subyekti sifatida ta‘lim oluvchilarni rivojlantirish uchun mustaqil ta‘limning pedagogik tizimi hisobiga katta imkoniyatlar beradi, degan fikrga keladi. Keyinchalik shaxsiy-faoliyat yondashuvi doirasida.

I.A.Zimnyaya, A.A.Leontyev , L.V.Makarova va boshqalar shaxsiy va faoliyat komponentlari o‘rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda talabaning o‘quv va kognitiv faoliyatini ko‘rib chiqadi.

Yu.A.Yevsyeva fikriga ko‘ra, faoliyat tushunchasi keng ma’noda mazmuni maqsadi o‘zgartirish yoki o‘zgartirishdan iborat bo‘lgan atrof olamdagi obyektlarga faol munosabatning o‘ziga xos insoniy shaklini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Shaxsning shakllanishi uchun faoliyatining muhimligi! L.S.Vygotskiy, V.V.Davydov, A.N.Leontyevning tadqiqot ishlarida ochib berilgan. Faoliyatni mazkur tadqiqot uchun yaxlit jarayon sifatida taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadiI.G.Galperin o‘z ta’riflarida, faoliyatni haqiqatni o‘zlashtirish usuli sifatida tayin qilib, uning quyidagi bir qator turlarini ajratadi: bilishga asoslangan, qayta quruvchi, maqsadga yo‘naltirilgan, muloqot faoliyati kabilar.

V.V.Belich o‘z ishlarida "mehnat va o`yinning mohiyati, mazmuni, xarakterli xususiyatlarini o‘rganar ekan, ularni mustaqil tashkil etadigan shaxs faoliyatining yetakchi turlari" deb e’tirof etadi. Muallifning yondashuviga ko‘ra, bilish faoliyati ularning hosilasi hisoblanadi.

MULOHAZALAR.«O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da yuqori malakali muhandislar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda muammo hisoblangan o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb vazifa va qarorlar mavjud ekanligi, shu jumladan: talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kerakli ma’lumotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmaganligi, o‘quv adabiyotlarining muhandislar talab darajasida emasligi hozirgacha muammo bo‘lib kelmoqda, hozirgi zamon talablari darajasiga javob bermayotganligi qayd etib o‘tilgan. Bundan tashqari mazkur hujjatda, davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarini hal etishga mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, mustaqil yangicha fikrlash qobiliyatiga ega yoshlarni yuqori malakali muhandislar sifatida tayyorlash, bu borada yangicha zamon talab etadigan ta’limning yangi usullaridan foydalanish zarurati, boshqa xorijiy OTMlar singari Respublikamiz OTMlarida ham kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o‘tilishi ta’kidlangan va rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining farmonlarida kiritilgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishning yechimi sifatida kredit-modul ta'lim tizimi sharoitida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishni talab etmoqda. Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul ta’lim bo‘yicha hozirgi vaqtda bir muncha ishlar qilinmoqda. Kredit-modul tizimi yuzasidan materiallarni o‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ushbu tizim barcha rivojlangan davlatlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kredit ta’lim tizimining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi uning bir qancha tanlangan chet mamlakatlar ta’lim tizimlarida ko‘proq tarqalganligi va yaxshi natijalarga erishilganligi bilan asoslanadi, chunki ta’lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollikni va bilim olishga o‘zini-o‘zi rivojlantirish hamda kelgusi ta’lim sifatini oshirishiga olib keladi. Talabalarni mustaqil ravishda ko‘proq izlanishlarini talab etadi. Milliy kredit-modul ta’lim tizimida qanday qilib yuqori samaradorlikka erishish mumkin?, degan savol barcha pedagoglarni bu tizimni o‘rganishga qiziqtiradi. Bu muammolarni hal etish uchun kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishdagi mavjud pedagogik muammoni bartaraf etish ilmiy

izlanishlar olib borilib, muammoning yechimini aniqlashimiz ilmiy-tadqiqot ishimizda ochib berishimizni maqsad qildik, yechimini metodik asoslab berdik.

Ma’lumki, talaba muvaffaqiyatining asosiysi amalga oshirgan mazkur muammo – o‘quv faoliyatidir. Talabaning samarali o‘quv faoliyati sub’yektiv hisoblangan muayyan faoliyat sifatlarda quyidagilardan iboratdir: kognitiv, uslubiy mantiqiy, konstruktiv – ijobiy, interaktiv, effektiv (empatik), avtonom va mas’uliyatli. Ushbu xususiyatlarning ta’lim mazmuniga proyeksiyasi ta’lim muhitiga talabaning o‘zini-o‘zi shakllantirish va o‘zini-o‘zi anglashi uchun shart-sharoitlar va samarali o‘quv faoliyatini takomillashtirish mexanizmi bilan ta’minlaydi.B.S.Abdullayeva o‘zining dissertatsiya ishida: “O‘quv faoliyatda o‘zini-o‘zi boshqarish talabaning shaxsiy faoliyatini idora qilishga qobiliyat beradi. O‘qish-bilish jarayoni sifatida motivatsion model, irodaviy boshqaruv va baholash asosiy tarkibiy qismlardan iboratdir. O‘quv faoliyati usullarini triviyal egallash ta’lim muammosini tadqiqot ishining nazariy jihatini ko‘rsatib beradi. O‘quv faoliyati usullarini o‘zi boshqarish faoliyatini reglamentlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, professional qiziqish, shaxsiy daraja, o‘zini-o‘zi boshqarish usullarining ko‘nikmalarini qamrab oladi”.

Ma’lumki, kredit-modul ta’limi sharoitida talabalarning o‘quv faoliyatini doimiy takomillashtirishda pedagogik-psixologik omillarni tegishli hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayonida talaba shaxsi: o‘ylaydi, his qiladi, biladi, faoliyat yuritadi va u alohida e’tiborga molikdir. Til o‘rganishga ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Predmetlararo aloqaning o‘zaro munosabatlari va akademik hamda texnik mahorat vositalariga ta’siri. Mahorat jarayonida kommunikatsiyalarning bir-birlarini o‘zaro tushunishlarini ta’minlashdir.

Xorijiy tillarni o‘rganishda lingvodidaktika va psixolingvistika o‘rganishlariga tayanadi, chunki ta’lim jarayonining samarali tashkil etilishi ko‘pgina pedagogik-psixologik omillarga bog‘liq. Sababi, ushbu fanning tadqiqot obyekti talaba va ta’lim jarayoni hisoblanadi. Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishda talabaning psixofiziologik yosh xususiyatlari, tiplari alohida e’tiborga olinadi. Ma’lumki, har qanday yoshning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, bu alohida yondashuvni talab qiladi. Bu boradagi fikr-mulohazalar bir qator olimlarning ilmiy ishlarida mufassal bayon etilgan.

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning xususiyatlari va pedagogik imkoniyatlari borasidagi izlanishlarimiz jarayonida quyidagilarni o‘rgandik. Individual yondashuv asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiriladi. Har bir talaba o‘zining individual (intellektual, psixik va boshqalar) xususiyatlariga ega bo‘lib, ushbu xususiyatlar uning o‘quv faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Jahon psixologiyasi fanida aql-zakovat muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, iste’dod, qadriyat, ma’naviyat hamda aql-zakovat etnopsixologik nuqtai nazardan milliy ko‘zgusi hisoblanadi. Zero, fuqarolik jamiyatida iste’dod, aql, axloq va ma’naviyatga nisbatan e’tiborning kamayishi fan va texnika rivojining pasayishiga olib keladi. Davlat va jamiyat rivojlanishining asosiy omili – mantiqiy fikrlovchi, intellektual, vatanparvar shaxslarning yetishib chiqishidir. O‘zbekiston Respublikasida talaba yoshlarning bilim olishlarini tizimli va maqsadli tashkil etish, ularni jamiyatning faol a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishlariga erishish, eng avvalo, mazkur masalaning dolzarb pedagogik-psixologik

muammo sifatida keng ko‘lamli va chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi. Mazkur muammoni bartaraf etishga qaratilgan bir qator vazifalarni hal qilish zarurligini talab qiladi. Jumladan, mustaqil o‘quv faoliyatini izchil tashkil etishning pedagogik ta’minotini barpo etish, o‘quv faoliyati ijodiy motivatsiyasini maqsadli rivojlantirish hamda xorijiy tilning kommunikativ, adaptiv va modellashtirish darajasini shaxsiy motivlarga moslashtirishdan iborat. Talabalarga xorijiy til va madaniyat qonuniyatlarini puxta o‘rganishi orqali ularning har qaysisiga xos bo‘lgan individual xususiyatlar, ichki kuch-quvvat, yashirin shaxsiy imkoniyatlarni ochish, qobiliyatlarni takomillashtirish, ta’sir o‘tkazuvchi omilkor vositalar topish, ya’ni ularni jamiyat talab-ehtiyoji, rivojlanish imkoniyatiga mos ravishda yo‘naltirish, ularga xorijiy tajribalarni egallash bo‘yicha oqilona ko‘rsatmalar berish, muayyan yo‘nalishga solish maqsadga muvofiqdir. Ushbu harakatlar xalqimizning azaliy orzu-umidlari, istiqbol rejalari, xohish-irodalarining amalga oshishi negizi bo‘lib kelgan.

Xorijiy til ta’limida ijodiy faollik, mustaqil qaror qabul qilish malakasi, alohida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘zgaruvchan sharoitga tezda moslashish, tashabbus va o‘z-o‘zini boshqarish kabilar ustuvor hisoblanadi. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida talaba-talabalarning ijtimoiy voqea-hodisalariga to‘g‘ri baho bera olishlari, ijtimoiy o‘zgarishlar xususida shaxsiy fikrga ega bo‘lishlari, muammolarni ko‘ra olishlari, masalaga mantiqiy yondashishlari va shu kabi qator ma’naviy-madaniy xislatlari rivojlantiriladi. Talabalarning psixofiziologik yosh xususiyatlari, tiplari, qobiliyatlari va til tajribalarini hisobga olish hamda ularda til o‘rganishga ijodiy motivatsiyani maqsadi rivojlantirish orqali kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkoniyat yaratadi va kelgusida umumiy kompetentlikka erishishlariga yordam beradi.

Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni keltirib o‘tish lozim: mazkur tizim mohiyatini OTMlardagi ba’zi rahbarlar va professor-o‘qituvchilarning to‘liq tushunib yetmasligi, talabalarning fanini, o‘qituvchini tanlashlarning yaxshi yo‘liga qo‘yilmaganligi, fan dasturlarining xorijiy tajribaga asoslanmaganligi, o‘quv adabiyotlarining kredit-modul tizimi uchun yetarli emasligi, xorijiy til – mutaxassislik fani – ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi samarali tashkil etilmaganligi, TMI va mustaqil ta’limni tashkil etishdagi ba’zi kamchiliklar turli pedagogik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Quyida talabalarning o‘quv faoliyatini rivijlanishiga to‘siq bo‘layotgan ba’zi muammolarni keltirib o‘tiladi

1-jadval

Talabalarning o‘quv faoliyatini rivijlanishiga g‘ov bo‘layotgan to‘siqlar

№	**Muammolar**
1	Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini shini yaxshi yo‘lga qo‘yish.
2	Talabalarning professor-o‘qituvchilarni tanlashlariga imkoniyat yaratish
3	O‘quv fan dasturlarini mamlakatlar dasturiga tenglashtirish

4	Soha professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlik
5	Mutaxassislik fani – ishlab chiqarish korxonalari integratiyasiga yo‘lga qo‘yish
6	Mustaqil ta’limni tashkil etishda Internetdan samarali foydalanish

Yuqorida ta`kidlab o`tilganlar pedagogik muammoni keltirib chiqarmoqda.

Pedagogik muammolarni albatta bartaraf etib raqamlashtirish sharoitida talabalar faolligini rivojlantirishimiz lizim bartaraf etish uchun bizning tavsiyalarimiz:

1. Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini va Respublika OTMlari uchun sifat manbai ekanligini tushunib yetish.

2. OTMda Registrator ofis va tyutorlar ishini yaxshi yo‘lga qo‘yish.

3. Talabalarning moslashishlari, fanlarni va professor-o‘qituvchilarni tanlashlariga imkoniyat yaratish hamda sog‘lom muhitni shakllantirish.

4. O‘quv fan dasturlarini milliy sharoitni hisobga olib, rivojlangan mamlakatlar dasturiga tenglashtirish.

5. Xorijiy tildan dastur va darsliklar tuzishda mutaxassislik fanlari uzviyligini ta’minlash, soha professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlik qilish.

6. Kredit-modul tizimida ichki va tashqi omillarga, xususan, integrativ yondashuvga (xorijiy til – mutaxassislik fani – ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasiga) amal qilish.

7. TMI va mustaqil ta’limni tashkil etishda Internetdan samarali foydalanish (ma’lumotlarni qidirish, qayta ishlash va uzatish).

8. TMI va mustaqil ta’limni tashkil etishdagi ba’zi kamchiliklarni bartaraf etish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar pedagogik muammolarni hal qilish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi 1.1- jadvalda berilgan muammolar yuzasidan quyidagi 1.2- jadvaldagi yechimlarni berish mumkin.

2-jadval

Talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishga g‘ov bo‘layotgan to‘siqlar bo‘yicha yechimlar

№	**Yechimlar**
1	Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini tahlil etish
2	OTM larda Registrator ofis va tyutorlar ishini yaxshilash
3	Talabalarga fan o`qituvchisini tanlash imkoniyatini berish
4	Dasturlarni rivojlangan mamlakatlar dasturiga moslash
5	Xorijiy tildan dastur tuzishda va darsliklar yaratishda mutaxassislik fanlari bilan bog`lash
6	Xorijiy til bilan mutaxassislik fanlari bilan bog`lash va mustaqil ta`limni tashkil etishda internetlardan foydalanish

Xulosa qilib aytish mumkinki, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishga g‘ov bo‘layotgan to‘siqlarni bartaraf etish va mavjud pedagogik-psixologik imkoniyatlar hamda sharoitlardan samarali foydalanish orqali muammoning yechimiga erisha olamiz i. Kredit-modul tizimiga o‘tish o‘quv jarayonini jadallashtiradi, talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etish va o‘qituvchilar ishini sezilarli darajada o‘zgartirish hamda O‘zbekiston ta’lim tizimiga xalqaro hamkorlik uchun yo‘l ochadi. Chunonchi, kreditlarga asta-sekinlik bilan o‘tiladi va bu uzoq muddatli ish hisoblanadi. Sababi, kreditlarni to‘plash qisqacha qilib aytganda, avvalgi shaxsiy ish rejadagi barcha o‘quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Ta’limda asta-sekinlik bilan xorijiy tajribani o‘rganish orqali samaradorlikka, yuqori natijalarga erishiladi. Ta’limning kredit tizimi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida yangi imkoniyatlar va innovatsion texnologiyalar eshigini ochishga olib kelishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Стариченко Б.Е. Оценка результатов учебной деятельности студентов в рамках информационно-технологической модели обучения // Образование и наука. – 2013. – № 5 (104). – С. 113–132.

2. Степанова В.С., Миронова И.Б. О дефиниции понятий «образование», «образовательная деятельность», «образовательная услуга» // Научно-практический журнал «Гуманизация образования». – № 1, 2015. – ISSN 1029-3388. – С. 22–26.

3.. Зимняя И.А. Психологический анализ урока иностранного языка // Журнал «Иностранные языки в школе». – 1984. – № 3. – С. 16–19.

4. Abdullayeva B.S. Axborot ta’lim muhitida masofaviy ta’limni raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish. – “Oliy ta’lim: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 2020-yil 25-may. – B. 21–27.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

“INGLIZ TILI DARSLARIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK MEXANIZMLARI”

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.077

Suvankulova Aziza Nuriddin qizi
Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti
“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi
3-bosqich tayanch doktoranti
aziza.suvankulova1991@gmail.com
+998994747410

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tili kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning didaktik mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda SI vositalarini o‘quv jarayoniga tizimli integratsiya qilishning uch bosqichli modeli asoslangan va uning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Izlanish davomida qiyosiy tahlil va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Sun’iy intellekt asosidagi nutqiy simulyatsiyalar yordamida talabalarda kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish tezligi oshishi va muloqotdagi psixologik to‘siqlar kamayishi isbotlangan. Xulosa sifatida SI texnologiyalari individual ta’lim yo‘nalishini shakllantiruvchi samarali didaktik mexanizm ekanligi tasdiqlangan. Maqolada keltirilgan tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarining nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tili darslarining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, kommunikativ kompetensiya, nofilologik ta’lim, didaktik mexanizm, ingliz tili, raqamli texnologiyalar, nutqiy simulyatsiya**.**

Аннотация. В данной статье исследованы дидактические механизмы использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в совершенствовании коммуникативной компетенции студентов нефилологических направлений образования по английскому языку. В исследовании обоснована трехэтапная модель системной интеграции инструментов ИИ в учебный процесс и освещены её педагогические возможности. В ходе изыскания использованы методы сравнительного анализа и педагогического моделирования. Доказано, что при помощи речевых симуляций на основе искусственного интеллекта повышается скорость освоения профессиональной терминологии и снижаются психологические барьеры в общении. В качестве вывода подтверждено, что технологии ИИ являются эффективным дидактическим механизмом, формирующим индивидуальную траекторию обучения. Рекомендации, приведенные в статье, направлены на повышение эффективности уроков английского языка нефилологических направлений образования в высших учебных заведениях.

Ключевые слова. искусственный интеллект, коммуникативная компетенция, нефилологическое образование, дидактический механизм, английский язык, цифровые технологии, речевая симуляция.

Abstract. This article explores the didactic mechanisms of using Artificial Intelligence (AI) technologies to improve the communicative competence of non-philological students in the English language. The study substantiates a three-stage model for the systematic integration of AI tools into the educational process and highlights its pedagogical potential. Methods of comparative analysis and pedagogical modeling were utilized during the research. It is proven that AI-based speech simulations increase the speed of professional terminology acquisition and reduce psychological barriers in communication. As a conclusion, it is confirmed that AI technologies are an effective didactic mechanism for shaping individual learning trajectories. The recommendations provided in the article are aimed at increasing the effectiveness of English language classes in non-philological directions of higher education institutions.

Key words. artificial intelligence, communicative competence, non-philological education, didactic mechanism, English language, digital technologies, speech simulation.

KIRISH. Oliy ta’lim maskanlarida nofilologik yo‘nalishda ta’lim oluvchi talabalarning xorijiy til bo‘yicha nutqiy malakasini shakllantirish uzoq vaqtdan buyon o‘z yechimini kutayotgan metodik muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. J.Harmer ta’kidlaganidek [1], til o‘rgatish nazariyasi va metodikasi doimiy ravishda an’anaviy yondashuvlarni zamonaviy texnologik ishlanmalar bilan muvozanatlashtirishga intiladi. Biroq, nofilologik yo‘nalishlarda o‘quv rejasidagi soatlarning qisqaligi va auditoriyadagi talabalarning til bilish darajasi o‘rtasidagi keskin tafovut dars jarayonini standartlashtirish imkonini bermaydi. Bunday murakkab pedagogik vaziyatda sun’iy intellekt imkoniyatlarini metodik jihatdan qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji tug‘iladi. Shu bois, mazkur maqolada nofilologik yo‘nalish talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning tizimli mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning amaliy samaradorligini asoslash maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalarini til o‘qitishga integratsiya qilish masalasi bir qator nufuzli tadqiqotchilar tomonidan tizimli o‘rganilmoqda. Xususan, P.V.Sisoev va E.M.Filatov o‘z ishlarida talabaning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda “o‘quvchi-o‘qituvchi-sun’iy intellekt” uchligining afzalliklarini asoslab berganlar [2]. A.P.Avramenko SI texnologiyalarini oliy ta’limga tatbiq etishda raqamlashtirishdan avtomatlashtirishga o‘tish bosqichlarini tadqiq etgan bo‘lsa [3], E.A.Cherkasova chat-botlarning nofilologik yo‘nalish talabalari grammatik ko‘nikmalarini shakllantirishdagi didaktik funksiyalarini ochib bergan [4]. Xorijiy tajribada N.Peachey ingliz tili o‘qituvchilari uchun SI resurslaridan foydalanishning amaliy yo‘riqnomalarini ishlab chiqqan bo‘lsa [5], J.A.Bowen va C.E.Watson ta’limning yangi zamonida “SI bilan fikrlash” va o‘qitishning konseptual asoslarini taqdim etganlar [6]. O‘zbekistonlik mutaxassislar,

xususan, Y.V.Risyukova [7] va M.R.Fayziyeva [8] tomonidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda SI vositalarining ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish va interaktivlikni oshirishdagi o‘rni alohida e’tirof etilgan. Biroq, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina tadqiqotlar umumiy texnik imkoniyatlar yoki nazariy yondashuvlar bilan cheklanib, aynan nofilologik yo‘nalish talabalari uchun zarur bo‘lgan professional-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning aniq amaliy mexanizmlarini yetarlicha yoritmagan. Ya’ni, texnologik resurs mavjud bo‘lsa-da, uni darsning qaysi nuqtasida va qanday metodik algoritm asosida qo‘llash masalasi hamon ochiq qolmoqda. Aynan shu metodik bo‘shliq, raqamli vositalarning keng imkoniyatlari bilan ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning tizimli mexanizmi yo‘qligi o‘rtasidagi ziddiyat, mazkur ishning tadqiqot obyektini belgilaydi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, ushbu maqolaning maqsadi nofilologik yo‘nalish talabalarining ingliz tilidagi muloqot qobiliyatini sun’iy intellekt vositalari orqali yangi bosqichga olib chiquvchi didaktik mexanizmlarni asoslash hamda ularni amaliy qo‘llash modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan model darsning tayyorlov, interaktiv muloqot va yakuniy tahlil bosqichlarini qamrab olib, ta’lim jarayonining samaradorligini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT USULLARI

Mazkur tadqiqot nofilologik yo‘nalish talabalarining ingliz tili bo‘yicha kommunikativ kompetensiyasini sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida takomillashtirishga qaratilgan didaktik mexanizmning samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Izlanish jarayoni nazariy tahlil, pedagogik modellashtirish va eksperimental sinov bosqichlarini qamrab oldi.

Tadqiqot dizayni va ishtirokchilar. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarining nofilologik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishdi. Tajriba guruhi uchun sun’iy intellektga asoslangan uch bosqichli didaktik model ishlab chiqildi. Ishtirokchilarning ingliz tili bo‘yicha boshlang‘ich darajasi CEFR shkalasi bo‘yicha A2-B1 oralig‘ida ekanligi dastlabki test sinovlari orqali aniqlandi. Barcha ishtirokchilardan tadqiqotda qatnashish va natijalardan ilmiy maqsadlarda foydalanish bo‘yicha rozilik olindi.

Foydalanilgan materiallar va SI vositalari. Tadqiqot davomida quyidagi dasturiy vositalar va materiallardan foydalanildi:

– transaction costs;
– data security and protection;
– degree of anonymity;
– accessibility to the public;
– level of government regulation.

This method allows us to identify structural differences between cash payments, banking instruments, and cryptocurrencies, as well as determine their competitive advantages in various economic conditions.

Thus, the proposed methodology is comprehensive and interdisciplinary, enabling an in-depth analysis of the transformation of payment systems in the digital economy. The combination of theoretical and empirical methods allows us to draw well-founded conclusions and formulate practical recommendations for the development of effective and sustainable payment mechanisms.

Analysis and results. Goldschlager and Harper's monetary system classification provides another fundamental theoretical framework for understanding payment schemes. Their taxonomy distinguishes three distinct system types based on the nature of monetary backing. Commodity Standard Systems represent the earliest form of money, where value is backed by physical commodities such as gold, silver, grain, or even labour hours—exemplified by local currency systems like LETSystem in Manchester. Fiat Systems constitute modern national currencies, where money derives its value from government backing and the state's ability to raise tax revenue, rather than from intrinsic commodity value. Pure Credit Systems operate through direct ledger entries recording financial assets and liabilities between parties, functioning without traditional institutional intermediaries—a model that has gained renewed relevance with the emergence of blockchain technology and peer-to-peer payment

networks. Digital Wallets represent the most visible and rapidly growing category of modern payment schemes. According to the 2025 Global Payments Report, digital wallet users reached 4.4 billion globally in 2025, with projections indicating growth to over 6 billion users by 2030—representing more than three-quarters of the world's population. This explosive growth reflects the fundamental convenience of storing multiple payment methods (credit cards, debit cards, loyalty cards, and even identification documents) within a single smartphone application. The COVID-19 pandemic served as a critical inflection point, transforming digital wallets from optional convenience into essential infrastructure for contactless commerce.

The migration to digital wallets has profound implications for payment operations. Merchants must now handle wallets as first-class payment rails, requiring dedicated integration, routing logic, real-time monitoring, and sophisticated failure handling procedures. Offering appropriate wallet options has become a direct lever for improving checkout conversion rates, as consumers increasingly abandon transactions when their preferred payment method is unavailable. In many markets, particularly in Asia and parts of Africa, digital wallets have already overtaken card payments as the dominant e-commerce method, demonstrating that the transition is not merely additive but genuinely transformative of payment hierarchies. Biometric Authentication represents the next frontier in payment security and user experience. Fingerprint recognition, facial scanning, and voice authentication are increasingly integrated into payment workflows, replacing personal identification numbers (PINs) and passwords that can be forgotten, stolen, or observed. Research conducted in 2024 (n=103 consumers) revealed growing openness to biometric payment methods, particularly among digital natives who prioritize convenience alongside security. The study found that factors influencing payment method choice consistently include convenience, perceived security, and transaction speed—all attributes that biometric authentication potentially enhances compared to traditional methods.

The payment landscape in 2025 reflects unprecedented diversity, with traditional and digital methods coexisting in complex, often overlapping usage patterns. Understanding this complexity requires systematic comparison across multiple dimensions: transaction speed, cost structure, security characteristics, user experience, and acceptance networks.

Transaction Speed varies dramatically across payment schemes. Cash achieves instantaneous finality but requires physical proximity. Card payments typically settle within 2-3 business days, though authorization occurs in seconds. Digital wallets offer near-instantaneous confirmation, with settlement depending on underlying funding sources. Cryptocurrency transactions range from minutes (Bitcoin) to seconds (certain altcoins), though finality requires multiple block confirmations for security.

Cost Structures reflect each scheme's underlying infrastructure and risk allocation. Cash carries production, distribution, and handling costs borne collectively by central banks, commercial banks, and merchants. Card schemes involve interchange fees (typically 1-3%) that fund fraud liability insurance and reward programs. Digital wallets often reduce costs by aggregating transactions and leveraging existing payment rails. Cryptocurrency transaction

fees vary with network congestion, though they generally undercut cross-border wire transfer costs significantly. Security Characteristics differ fundamentally. Cash provides anonymity but risks theft. Card schemes offer fraud protection through chargeback rights but require sharing sensitive account information. Digital wallets improve security through tokenization—replacing actual card numbers with single-use tokens—and biometric authentication. Cryptocurrencies provide cryptographic security but shift fraud risk entirely to users, who bear responsibility for private key protection.

The payment processing market demonstrates remarkable growth trajectory, with the global market valued at $173.38 billion in 2025 and projected to reach $208.57 billion in 2026. By 2035, the market is expected to surpass $1.05 trillion, representing a compound annual growth rate (CAGR) of 19.76% between 2026 and 2035. This explosive growth reflects multiple factors: the continued migration from cash to digital payments, expansion of e-commerce in developing economies, emergence of new payment use cases (such as buy-now-pay-later services), and increasing sophistication of payment infrastructure requiring specialized providers.

For merchants, the payment landscape requires strategic decisions about which schemes to accept, how to integrate multiple providers, and how to optimize routing for cost and conversion. The evidence that offering preferred payment methods directly improves checkout conversion establishes payment acceptance as a revenue driver rather than merely operational expense. Merchants must also navigate the fragmentation challenge, investing in payment infrastructure that supports agility without creating unsustainable technical debt.

To provide a comprehensive comparative analysis of traditional and digital payment schemes, it is essential to examine the fundamental differences in their cost structures, settlement times, and operational characteristics. The choice of payment method has significant financial implications for both merchants and consumers, influencing transaction costs, cash flow, and administrative overhead. Table 1 presents a detailed comparison of three primary payment methods available to businesses today: traditional card payments, direct debit, and the emerging Pay by Bank scheme enabled by open banking technology.

Table 1.

Comparative Analysis of Payment Scheme Characteristics (2025–2026)[26]

Characteristic	*Card Payments*	*Direct Debit*	*Pay by Bank (Open Banking)*
Cost Profile	High and variable (1.5–2.5% + fixed fee for domestic; 2.9–3.5% for international; AMEX >3%)	Moderate and predictable (approx. 1% + 20p, capped at £4)	Lowest overall (flat fee of 20p–50p per transaction)
Settlement Time	1–3 days	3–5 working days	Instant
Chargebacks / Disputes	Yes (cost approx. £15–20 per dispute)	Yes, through Direct Debit Indemnity Scheme	No chargebacks

[26] The Fintech Times. (2026). The Majority of Businesses Manage Payments Through Disconnected Systems, Corefy's 2025 Study Finds. URL: https://thefintechtimes.com/the-majority-of-businesses-manage-payments-through-disconnected-systems-corefys-2025-study-finds/

Transaction Failure Rate	Moderate	Higher (extra fees for failed/retried payments)	Low
Reconciliation Complexity	High (fragmented card data)	Moderate	Low (clean, bank-verified data)
Fraud Exposure	Higher	Moderate	Lowest (bank authentication)
Best Use Cases	General e-commerce, international customers	Subscriptions, recurring billing, memberships	High-value invoices, professional services, B2B payments
Example: Cost on £50,000 Monthly Volume	£1,200–£1,600	£300–£400	£20–£50

The data presented in Table 1 reveal striking disparities in the cost and efficiency of different payment schemes. Card payments, despite their widespread acceptance and convenience for international transactions, carry the highest cost burden due to percentage-based fees and additional charges for chargebacks and international processing. For a business processing £50,000 in monthly invoices, card payments can cost between £1,200 and £1,600, representing a significant drain on margins . Direct debit offers a more predictable cost structure with capped fees, making it suitable for recurring billing models. However, its slow settlement time of 3–5 working days creates cash flow challenges, and the Direct Debit Indemnity Scheme places dispute liability on merchants, introducing operational risk .

The Pay by Bank scheme, built on open banking technology, emerges as the most cost-effective option with flat fees as low as 20p per transaction. For the same £50,000 monthly volume, the cost plummets to just £20–£50—a saving of over £1,000 compared to cards. Beyond cost, Pay by Bank offers instant settlement, eliminating the cash flow delay inherent in other methods. The absence of chargebacks and the use of bank-level authentication significantly reduce fraud exposure and administrative burden. Clean, bank-verified data also simplifies reconciliation, addressing one of the key pain points identified in payment operations . The operational advantages of Pay by Bank align with broader industry trends toward payment simplification. Research indicates that 58.5% of businesses still operate with fragmented payment setups, managing multiple providers with separate integration logic . This fragmentation costs businesses over 22 hours per week in payment-related administration, including reconciliation across systems and chasing overdue payments . The streamlined data flow and instant settlement of open banking payments directly address these inefficiencies, offering a path toward consolidated, agile payment operations.

The choice of payment scheme is no longer merely an administrative decision but a strategic one with direct implications for profitability and customer experience. As payment complexity increases, businesses must evaluate not only the visible transaction fees but also the hidden costs of slow settlement, reconciliation complexity, and fraud exposure. The emergence of Pay by Bank demonstrates that innovative payment schemes can deliver

superior outcomes by redesigning the underlying mechanism rather than simply digitizing traditional processes .

For payment providers, the market opportunity is substantial but increasingly competitive. The projected 19.76% CAGR through 2035 suggests continued growth, but the fragmentation statistics indicate that providers must differentiate not only through feature sets but through integration experience and operational reliability. Providers that reduce merchant integration complexity may capture disproportionate value as businesses seek to rationalize payment operation.

Conclusions and suggestions. The comparative analysis of traditional and digital payment schemes conducted in this study reveals a payment landscape in profound transition. The evolution from cash to cryptocurrency represents not a linear progression but rather a complex, multi-layered transformation where multiple payment paradigms coexist, compete, and increasingly converge. Several key findings emerge from this investigation.

The W3C three-layer architecture demonstrates that successful payment systems require coherent integration of policy, data flow, and mechanism layers. Traditional schemes evolved over decades to achieve this integration, while digital-native schemes must design it from inception. Digital payments now constitute 66% of e-commerce value, up from just 34% a decade ago. Digital wallet users have reached 4.4 billion globally in 2025, with projections exceeding 6 billion by 2030—representing over three-quarters of the world's population. The cheque, once dominant for person-to-person payments, has declined from 17% to merely 6% of such transactions between 2015 and 2024.

Based on the findings of this comparative analysis, the following suggestions are offered for different stakeholder groups:

- ❖ adopt a strategic approach to payment scheme selection;
- ❖ invest in payment operations agility;
- ❖ prioritize payment scheme consolidation;
- ❖ evaluate open banking payment options.

The payment schemes landscape in 2026 stands at an inflection point. Traditional methods that evolved over centuries now coexist with digital-native schemes developed within decades. The market grows at nearly 20% annually, yet the majority of businesses struggle with operational fragmentation. Consumer expectations for convenience, speed, and security continue to rise, while regulatory frameworks work to keep pace with innovation. The path forward requires stakeholders across the payment ecosystem to recognize that payment schemes are not merely technical infrastructure but complex socio-technical systems embodying policy choices, economic incentives, and user behaviors. Successful payment schemes integrate these dimensions coherently; failing schemes neglect one at their peril.

For providers and policymakers, the challenge is to enable innovation while maintaining stability, to reduce fragmentation while preserving choice, and to promote inclusion while advancing technology. These are not easy balances, but they are essential ones for a payment system that must serve diverse users across an increasingly digital global economy.

References:

1. Hallam-Baker, P.M. (2025). Electronic Payment Schemes. World Wide Web Consortium (W3C). URL: https://www.w3.org/TR/payment-schemes

2. Federal Reserve Bank of Atlanta. (2025). Innovations in Payments Acceptance Play out in Consumer Check Use. Take On Payments. URL: https://www.atlantafed.org/take-on-payments

3. Worldpay. (2025). A decade of payment evolution: Global Payments Report 2025. The Payments Association. URL: https://www.paymentsassociation.org/global-payments-report-2025

4. Postrzednik-Lotko, K., & Lotko, M. (2026). From Cash to Biometrics: The Evolution of Payment Methods. Paradigm, 82-93. URL: https://www.emerald.com/insight/publication/paradigm

5. Kumar, R. (2025). Modern Payment Systems: A Systematic Literature Review and Bibliometric Analysis. Economic Consultant, (3), 80-110. URL: https://economic-consultant.com/issues/2025-3

6. FinTech Australia. (2025). Global Payments research uncovers hidden cost of payment complexity for Australian SMBs. URL: https://www.fintechaustralia.org.au/newsroom/global-payments-research-uncovers-hidden-cost-of-payment-complexity-for-australian-smbs

7. The Fintech Times. (2026). The Majority of Businesses Manage Payments Through Disconnected Systems, Corefy's 2025 Study Finds. URL: https://thefintechtimes.com/the-majority-of-businesses-manage-payments-through-disconnected-systems-corefys-2025-study-finds/

8. ScienceDirect. (2025). Taxonomy of payments: a repertory grid analysis. URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2214845025000123

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIL TA’LIMIDA MULTIMODAL MATNLAR BILAN ISHLASH STRATEGIYALARINING O‘QISH KOMPETENSIYASIGA TA’SIRI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.081

Avilova Xalida Nabijanovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi
Khalida72@mail.ru
50 726 72 26

Annotatsiya. Hozirgi kunda zamonaviy kommunikatsiya muhitida ma’no ko‘p kanalli (verbal, vizual, audio va raqamli) resurslar integratsiyasi orqali yaratilishi sababli, til o‘qitish jarayonida multimodal yondashuvni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Ushbu maqola chet tili ta’limida multimodal matnlar bilan ishlash strategiyalarining samaradorligini empirik jihatdan aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari multimodal matnlar bilan ishlash strategiyalari o‘qish kompetensiyasini takomillashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi va uni til ta’limida qo‘llashga tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: multimodal matn, multimodal pedagogika, tanqidiy fikrlash, vizual savodxonlik, intersemiotik tahlil, til ta’limi samaradorligi.

Abstract. In contemporary communication environments, meaning is constructed through the integration of multiple semiotic resources, including verbal, visual, auditory, and digital modes. Consequently, the need to implement a multimodal approach in language instruction has significantly increased. This article aims to empirically investigate the effectiveness of multimodal text-based instructional strategies in foreign language education. The findings confirm that the application of multimodal text strategies has a positive impact on the development of reading competence and can be recommended for integration into language teaching practice.

Keywords: multimodal text, multimodal pedagogy, critical thinking, visual literacy, intersemiotic analysis, language education effectiveness.

Аннотация.В условиях современной коммуникационной среды значение формируется посредством интеграции многоканальных (вербальных, визуальных, аудиальных и цифровых) ресурсов, что обуславливает возрастающую необходимость применения мультимодального подхода в процессе обучения языкам. Настоящая статья направлена на эмпирическое выявление эффективности стратегий работы с мультимодальными текстами в обучении иностранному языку. Результаты исследования подтверждают, что использование стратегий работы с мультимодальными текстами оказывает положительное влияние на развитие читательской компетенции и рекомендуется к внедрению в практику языкового образования.

Ключевые слова: мультимодальный текст, мультимодальная педагогика, критическое мышление, визуальная грамотность, интерсемиотический анализ, эффективность языкового обучения.

KIRISH.XXI asrning kommunikatsiya muhiti tubdan o‘zgarib, ma’lumot uzatish jarayoni ko‘p kanalli xarakter kasb eta boshladi. Axborot endilikda nafaqat yozma yoki og‘zaki nutq orqali, balki tasvir, grafik, animatsiya, video, dizayn va raqamli elementlarning integratsiyalashgan holati vositasida uzatilmoqda. Shu sababli til ta’limi ham multimodal savodxonlikka ustuvorlik berish orqali tashkil etilishini talab etadi. Ayniqsa, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda multimodal muhitning ahamiyati va talabalarning yozma va og‘zaki kommunikatsiya jarayonida bu turdagi matnlar bilan ishlash strategiyalaridan samarali qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi dolzarblk kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Multimodallik nazariyasining yaratilish tarixiga nazar solsak, ushbu nazariyaning asosiy tamoyillari G.Kress va Th.Leeuven tomonidan 1990-yillarda, zamonaviy vizual kommunikatsiya va media vositalarini o‘rganish zarurati sababli ishlab chiqilgan. Nazariyaning yaratishdan asosiy maqsad – kommunikativ ma’noni faqat til orqali emas, balki turli semiotik resurslar (vizual, audial, kinestetik) integratsiyasi orqali tushuntirishdan iborat ekanligi belgilangan. Olimlar ma’no turli semiotik resurslar integratsiyasi orqali yuzaga kelishini ilmiy asoslagan holda kommunikatsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “kommunikatsiya doimo multimodaldir” [6], ya’ni har qanday kommunikatsiya jarayoni bir nechta ifoda vositalarining o‘zaro uyg‘unligida amalga oshadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida savodxonlik tushunchasi kengayib bormoqda, natijada raqamli savodxonlik modeli shakllanalishiga erishildi. J.Rovsell va M.Valshlar hozirgi kundagi zamonaviy o‘quvchining vizual, audio va raqamli kodlarni birgalikda anglash kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarurligini asoslab berganlar [11]. Shuningdek, F.Lim va V.Toh multimodal savodxonlikni ingliz tili ta’limining ajralmas komponenti sifatida ko‘rsatib o‘tgan [7].

Xorijiy tillarni o‘qitishda multimodal matnlar samaradorligi ham ilmiy jihatdan o‘z tasdig‘ini topgan. S.Kim va D.Belcherlar multimodal yozma topshiriqlar bo‘yicha tadqiqot ishlarida bu turdagi topshiriqlar talabalarning kognitiv ishtirokini oshirishini qayd etadi. Shuningdek, tadqiqotchilar multimodal pedagogika ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi o‘quvchilarida chuqurroq semantik qayta ishlashni rag‘batlantirishini ko‘rsatadi [5].

Yuqoridagi fikrlar asosida mazkur tadqiqot multimodal strategiyalarning matnni o‘qib tushunish, talabalrning lug‘at boyligi va tanqidiy fikrlashiga ta’sirini empirik jihatdan aniqlashni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Rejalangan tadqiqot ishi kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi.

Mazkur tadqiqot ishida jami 32 nafar B2 darajadagi universitet talabalari ishtirok etdi. Kvazi-eksperimental usuli orqali ishtirokchilar tasodifiy saralab olinmasdan, balki mavjud

akademik guruhlar asosida ikkiga ajratildi: 16 nafar talaba eksperimental guruhni va 16 nafar talaba esa nazorat guruhini tashkil etdi.

Eksperimental guruhda multimodal pedagogika tamoyillari asosida quyidagi strategiyalar qo‘llanildi:

- intersemiotik tahlil (matn, tasvir, audio va video o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlarni aniqlash);
- loyiha asosida o‘qitish (talabalar tomonidan taqdimot va booklet mahsulotlarini yaratish).

Nazorat guruhida esa an’anaviy, faqat matn asosida o‘qitish metodi qo‘llanildi. Bu jarayonda asosiy e’tibor matnni o‘qish va savol-javob orqali tushunishni tekshirishga qaratildi.

Tadqiqot 12 hafta davomida olib borildi va ma’lumotlar quyidagi vositalar orqali yig‘ildi:

1. Pre-test va post-test (o‘qib tushunish kompetensiyasini aniqlash uchun);
2. Lug‘at boyligi testi (leksik kompetensiya darajasini aniqlash uchun);
3. Tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari testi (analitik va interpretativ ko‘nikmalarni baholash uchun);

Natijalar SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) statistik dastur yordamida tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun mustaqil namunalarga mo‘ljallangan t-test qo‘llanildi. Ishonchlilik darajasi

$p < 0.05$ mezoniga asoslandi.

Ma’lumotlar tahlili

Pre-test natijalarining tahlili

Mustaqil namunalarga mo‘ljallangan t-test yordamida eksperimental va nazorat guruhlarining boshlang‘ich darajasi taqqoslandi (1-jadvalga qarang):

Jadval 1

Pre-test o‘rtacha ko‘rsatkichlari:

Ko‘rsatkich	Eksperimental (M)	Nazorat (M)	p qiymati
O‘qib tushunish	62.4	61.8	$p = 0.73$
Lug‘at boyligi	58.2	57.9	$p = 0.81$
Tanqidiy fikrlash	55.6	56.1	$p = 0.69$

Natijalar $p > 0.05$ bo‘lgani sababli, guruhlar boshlang‘ich bosqichda statistik jihatdan teng deb baholandi. Bu eksperimental ta’sirni aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Post-test natijalarining tahlili

Post-test natijalari mustaqil namunalarga mo‘ljallangan t-test yordamida tahlil qilindi (2-jadvalga qarang):

Jadval 2

Post-test o‘rtacha ko‘rsatkichlari:

Ko‘rsatkich	Eksperimental (M)	Nazorat (M)	t qiymati	p qiymati
O‘qib tushunish	81.7	68.5	4.92	$p < 0.01$
Lug‘at boyligi	78.3	65.2	4.57	$p < 0.01$

Tanqidiy fikrlash	76.9	63.4	5.11	$p < 0.01$
Motivatsiya indeksi	4.3	3.6	3.88	$p < 0.01$

Statistik tahlil natijalar eksperimental guruhda barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli o‘sish mavjudligini ko‘rsatdi.

Pre-test natijalari ikki guruh o‘rtasida sezilarli farq yo‘qligini ($p > 0.05$) ko‘rsatdi, bu esa boshlang‘ich darajaning tengligini tasdiqlaydi.

Post-test natijalariga ko‘ra:

- Eksperimental guruhning o‘qib tushunish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi ($p < 0.01$);
- Lug‘at boyligi testida eksperimental guruh natijalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi ($p < 0.01$);
- Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi ko‘rsatkichlari ham eksperimental guruhda sezilarli darajada yaxshilandi ($p < 0.01$);

Shuningdek, nazorat guruhida ham ma’lum ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi, biroq bu o‘zgarishlar statistik jihatdan ($p > 0.05$) eksperimental guruh natijalariga nisbatan past darajada ekanligi ma’lum bo‘ldi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Olingan natijalar multimodal pedagogika strategiyalari til o‘qitishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Xususan:

1. Multimodal yondashuv o‘qib tushunish kompetensiyasini chuqurlashtiradi, chunki talabalar ma’noni faqat lingvistik vositalar orqali emas, balki vizual va audio resurslar orqali ham idrok etadilar.
2. Lug‘at boyligi sezilarli darajada oshadi, chunki yangi leksik birliklar kontekstual va intersemiotik bog‘lanishlar asosida o‘zlashtiriladi.
3. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi rivojlanadi, chunki talabalar turli semiotik resurslarni tahlil qilish va ularni integratsiyalashga majbur bo‘ladilar.
4. O‘quv motivatsiyasi oshadi, chunki loyiha asosida ishlash va media mahsulot yaratish jarayoni talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantiradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari multimodal pedagogika til ta’limida innovatsion va samarali yondashuv ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Uni til bilish darajasi B2 va yuqori darajada egallagan talabalar uchun tizimli ravishda joriy etish o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asosan multimodal strategiyalarning samaradorligi tasdiqlandi. Eksperimental guruhdagi sezilarli darajada o‘sish multimodal matnlar bilan o‘qitish muhitida talabalarning akademik natijalari oshishini ko‘rsatdi. Multimodal matnlar asosida loyihalar ustida ish olib borish talabalarning motivatsiyasini oshirganligini ham ko‘rish mumkin. Mazkur nayijalar Kim va Bercherlar [5] tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalriga mos keladi.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot multimodal matnlar bilan ishlash strategiyalarini til ta’limida innovatsion va samarali vosita sifatida ilmiy jihatdan asoslaydi. Uni oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalar uchun tizimli ravishda joriy etish o‘quv jarayonining sifatini

oshirish, talabalarning o‘qish kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish hamda zamonaviy kommunikativ muhit talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1) Bateman, J. A., Wildfeuer, J., & Hiippala, T. (2017). Multimodality: Foundations, research and analysis. De Gruyter.

2) Hafner, C. A., & Miller, L. (2019). English in the digital age. Language Learning & Technology, 23(2), 1–15.

3) Jewitt, C., Bezemer, J., & O’Halloran, K. (2016). Introducing multimodality. Routledge.

4) Jiang, L., & Luk, J. (2021). Multimodal pedagogies in EFL classrooms. Language Teaching Research, 25(6), 867–890.

5) Kim, S., & Belcher, D. (2020). Multimodal composing in L2 writing. Journal of Second Language Writing, 47, 100709.

6) Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). Multimodal discourse: The modes and media of contemporary communication. London: Arnold.

7) Lim, F. V. (2018). Systemic functional multimodal discourse analysis. Visual Communication, 17(1), 5–26.

8) Lim, F. V., & Toh, W. (2020). Multimodal literacy in English education. System, 94, 102312.

9) Mills, K. A. (2016). Literacy theories for the digital age. Social Semiotics, 26(3), 319–339.

10) O’Halloran, K. L., Tan, S., & Wignell, P. (2016). Intersemiotic translation. Sign Systems Studies, 44(3), 345–372.

11) Rowsell, J., & Walsh, M. (2015). Multiliteracies in education. Brock Education Journal, 24(2), 53–62.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH JARAYONIDA O‘QITUVCHI KREATIVLIGINI AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.082

Ashurova Barno Nematovna
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o‘qituvchi kreativligini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. O‘qituvchi kreativligi bugungi ta’lim tizimida nafaqat yangi g‘oyalarni ilgari surish, balki murakkab pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilish, innovatsion metodlardan samarali foydalanish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Maqolada akmeologik yondashuvning mazmuni, uning o‘qituvchining kasbiy yetuklikka erishishidagi o‘rni, kreativlikning tarkibiy komponentlari hamda ularni uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlari orqali shakllantirish yo‘llari ochib beriladi. Shuningdek, refleksiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy motivatsiya, innovatsion faoliyat va pedagogik hamkorlik kabi omillarning kreativ kompetensiyani yuksaltirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida o‘qituvchi kreativligini rivojlantirishning akmeologik modeli sifatida maqsadli rivojlanish, ichki motivatsiya, kasbiy o‘zini anglash, ijodiy muhit va baholash-refleksiv mexanizmlar birligi taklif etiladi. Maqola xulosalarida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini o‘qituvchining individual rivojlanish trayektoriyasi bilan uyg‘unlashtirish, akmeologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish hamda kreativlikni baholashning amaliy mezonlarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, o‘qituvchi kreativligi, akmeologik yondashuv, kasbiy kompetensiya, pedagogik innovatsiya, refleksiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy yetuklik, ijodiy faoliyat, ta’lim sifati.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы развития креативности учителя в процессе непрерывного профессионального развития на основе акмеологического подхода. Креативность учителя в современной системе образования интерпретируется не только как способность выдвигать новые идеи, но и как важный фактор принятия гибких решений в сложных педагогических ситуациях, эффективного использования инновационных методов и организации личностно-ориентированного обучения. В статье раскрывается содержание акмеологического подхода, его роль в достижении учителем профессиональной зрелости, структурные компоненты креативности, а также пути их формирования через механизмы непрерывного профессионального развития. Также обосновывается значение таких факторов, как рефлексия, саморазвитие, профессиональная мотивация, инновационная

деятельность и педагогическое сотрудничество в повышении креативной компетентности. В результате исследования в качестве акмеологической модели развития креативности учителя предлагается единство целевого развития, внутренней мотивации, профессионального самосознания, творческой среды и оценочно-рефлексивных механизмов. В выводах статьи подчеркивается необходимость гармонизации системы непрерывного профессионального развития с индивидуальной траекторией развития учителя, внедрения программ акмеологической поддержки, а также разработки практических критериев оценки креативности.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, креативность учителя, акмеологический подход, профессиональная компетентность, педагогическая инновация, рефлексия, саморазвитие, профессиональная зрелость, творческая деятельность, качество образования.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing teacher creativity in the process of continuous professional development based on an acmeological approach. In the current education system, teacher creativity is interpreted not only as the ability to put forward new ideas but also as a crucial factor for making flexible decisions in complex pedagogical situations, effectively utilizing innovative methods, and organizing learner-centered education. The article reveals the essence of the acmeological approach, its role in achieving professional maturity, the structural components of creativity, and the ways to shape them through mechanisms of continuous professional development. Furthermore, the importance of factors such as reflection, self-development, professional motivation, innovative activity, and pedagogical cooperation in enhancing creative competence is substantiated. As a result of the research, a unity of purposeful development, internal motivation, professional self-awareness, creative environment, and evaluative-reflective mechanisms is proposed as an acmeological model for developing teacher creativity. The article concludes by emphasizing the necessity of harmonizing the continuous professional development system with the teacher's individual development trajectory, introducing acmeological support programs, and developing practical criteria for assessing creativity.

Keywords: continuous professional development, teacher creativity, acmeological approach, professional competence, pedagogical innovation, reflection, self-development, professional maturity, creative activity, quality of education.

Kirish.Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan faqat mavjud bilimlarni yetkazib berishni emas, balki murakkab, o‘zgaruvchan va noaniq pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, yangilik yaratishga moyil, o‘z kasbiy faoliyatini izchil takomillashtirib boradigan shaxs bo‘lishni talab qilmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, ta’lim mazmunining tez yangilanishi, raqamli vositalarning keng joriy etilishi hamda ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning kuchayishi o‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Chunki bugungi maktab yoki oliy ta’lim muassasasida yuqori natijaga erishish, avvalo, o‘qituvchining standart usullar bilan cheklanib qolmasligi, balki

o‘quvchi ehtiyoji, ta’limiy vaziyat va ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib yangicha yondashuvlar ishlab chiqishi bilan belgilanadi [3, 41].

Shu nuqtayi nazardan, uzluksiz kasbiy rivojlanish o‘qituvchi faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. U faqat malaka oshirish kurslarida qatnashish yoki metodik yangiliklar bilan tanishish bilangina cheklanmaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish - bu o‘qituvchining butun professional hayoti davomida o‘z bilim, ko‘nikma, qadriyat, kasbiy pozitsiya va ijodiy imkoniyatlarini muntazam boyitib borish jarayonidir. Bu jarayonning samaradorligi esa ko‘p jihatdan uning qanday metodologik asosga tayanishiga bog‘liq. Ana shunday samarali yondashuvlardan biri akmeologik yondashuv hisoblanadi. Akmeologiya insonning kasbiy va shaxsiy kamolot cho‘qqisiga erishish mexanizmlarini o‘rganadigan fan sifatida o‘qituvchi faoliyatini rivojlantirishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [5, 87].

Akmeologik yondashuv o‘qituvchini tayyor model yoki qat’iy qoliplarga moslashtiriladigan ijrochi sifatida emas, balki o‘z imkoniyatlarini ochib boruvchi, kasbiy cho‘qqiga intiluvchi, faoliyatini ongli boshqaruvchi va doimiy ravishda yangilab boruvchi subyekt sifatida ko‘radi. Mazkur yondashuvda shaxsning ichki resurslari, motivatsiyasi, refleksiyasi, o‘z-o‘zini tahlil qila olishi va o‘z ustida ishlashga tayyorligi alohida o‘rin tutadi [1, 26]. Demak, o‘qituvchi kreativligini rivojlantirish masalasini ham akmeologik nuqtayi nazardan ko‘rish lozim. Chunki kreativlik tasodifiy hodisa emas, balki maqsadli tashkil etilgan shaxsiy-kasbiy o‘sish natijasidir.

O‘qituvchi kreativligi tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar uni yangi pedagogik g‘oyalarni yaratish qobiliyati sifatida izohlasa, boshqalar uni muammoli vaziyatlarda nostandart yechim topa bilish, o‘quv jarayonini moslashuvchan loyihalash yoki kommunikativ va metodik yangiliklarga ochiqlik sifatida talqin qiladilar [6, 53]. Bizningcha, o‘qituvchi kreativligi - bu pedagogik faoliyatda yangilik yaratish, mavjud usullarni yangicha uyg‘unlashtirish, ta’limiy vaziyatni chuqur tahlil etib, samarali va original yechimlar ishlab chiqish, shu bilan birga, ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat faqat intellektual omillar bilangina emas, balki kasbiy motivatsiya, hissiy barqarorlik, refleksiya, ijtimoiy faollik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish bilan ham uzviy bog‘liq [8, 114].

Kreativlik o‘qituvchi faoliyatida bir necha asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, metodik kreativlik - bu darsni tashkil etish, ta’lim metod va vositalarini tanlash, o‘quv materialini moslashtirish hamda baholash usullarini ishlab chiqishda yangilik yaratishdir. Ikkinchidan, kommunikativ kreativlik - o‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan samarali, empatik va konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘ya olishdir. Uchinchidan, tashkiliy kreativlik - ta’lim muhitini yangicha tashkil etish, loyiha va jamoaviy ishlarni boshqarish, tarbiyaviy tadbirlarni innovatsion asosda qurishdir. To‘rtinchidan, refleksiv kreativlik - o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni konstruktiv qabul qilish va yangi rivojlanish imkoniyatlarini ko‘ra olish qobiliyatidir [4,67]. Ushbu shakllarning barchasi uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida izchil qo‘llab-quvvatlansa, o‘qituvchining umumiy kasbiy yetukligi yuksaladi.

Akmeologik yondashuvning o‘qituvchi kreativligini rivojlantirishdagi ahamiyati, avvalo, uning “eng yuqori natijaga erishish” g‘oyasi bilan belgilanadi. Biroq bu yerda “eng yuqori natija” faqat tashqi ko‘rsatkichlar, masalan, attestatsiya natijalari yoki tanlovlarda

g‘oliblik bilan o‘lchanmaydi. Asl akmeologik o‘sish o‘qituvchining o‘z imkoniyatlarini tobora chuqurroq anglay borishi, kasbiy faoliyatdan ma’no topishi, yangi pedagogik yechimlar yaratishga ichki ehtiyoj sezishi va bu ehtiyojni real natijalarga aylantira olishi bilan tavsiflanadi [2,22]. Demak, kreativlik akmeologik yondashuvda kasbiy cho‘qqiga eltuvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishning an’anaviy modellarida ko‘pincha tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga urg‘u beriladi. O‘qituvchi kurs tinglovchisi sifatida axborotni qabul qiladi, biroq uni ijodiy qayta ishlash, o‘z faoliyatiga moslashtirish va yangilik yaratishga doir imkoniyatlar ko‘p hollarda yetarli darajada shakllanmaydi. Akmeologik yondashuv esa buning aksincha, o‘qituvchining subyekt sifatidagi faol pozitsiyasini kuchaytiradi. Ya’ni o‘qituvchi bilim oluvchi ob’ekt emas, balki o‘z kasbiy taraqqiyotining muallifi, tashabbuskori va boshqaruvchisiga aylanadi [7, 95]. Bu jarayonda kreativlik tashqi talab emas, ichki ehtiyoj, o‘sish strategiyasi va o‘zini namoyon etish vositasiga aylanadi.

O‘qituvchi kreativligini akmeologik asosda rivojlantirish uchun, eng avvalo, uning kasbiy o‘zini anglash darajasini mustahkamlash zarur. Kasbiy o‘zini anglash o‘qituvchining “men qanday pedagogman?”, “mening kuchli va zaif tomonlarim nimalardan iborat?”, “qanday pedagogik vaziyatlarda men samarali ishlayman?”, “nimani o‘zgartirishim kerak?” kabi savollarga ongli javob topa olishi bilan bog‘liq. Ana shu refleksiv savollar o‘qituvchini o‘z faoliyatiga tanqidiy qarashga, ichki resurslarini safarbar etishga va yangi rivojlanish maqsadlarini belgilashga undaydi [9, 58]. Refleksiya mavjud bo‘lmagan joyda kreativlik ko‘pincha epizodik, tasodifiy va barqaror bo‘lmagan holatda qoladi.

Ikkinchi muhim omil - motivatsiyadir. Kreativ faoliyat majburiy topshiriq sifatida emas, qiziqish, ichki ehtiyoj va kasbiy mas’uliyat asosida amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi. O‘qituvchi yangi metodlarni qo‘llashdan, dars jarayonini takomillashtirishdan, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishdan ma’naviy qoniqish olsa, uning kreativ faolligi ham ortadi [10,73]. Shu bois uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida faqat tashqi rag‘batlantirish emas, balki ichki kasbiy motivatsiyani kuchaytirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ham bo‘lishi lozim. Masalan, mualliflik ishlanmalari tanlovi, metodik laboratoriyalar, tajriba almashuv maydonlari, pedagogik startaplar va refleksiv seminarlar shular jumlasidandir.

Uchinchi omil — ijodiy muhitdir. O‘qituvchi kreativligi individual sifat bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy va institutsional muhit bilan ham belgilanadi. Agar ta’lim muassasasida xatodan qo‘rqish, ortiqcha nazorat, formalizm va faqat hisobotga yo‘naltirilganlik ustun bo‘lsa, kreativ tashabbuslar susayadi. Aksincha, pedagogik tajriba, hamkorlik, fikr almashish, sinov va tahlilga ochiq muhit yaratilsa, ijodiy faoliyat rag‘batlanadi [11,91]. Demak, akmeologik yondashuv nafaqat shaxsning ichki resurslariga, balki shu resurslar namoyon bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tashqi sharoitlarga ham e’tibor qaratadi.

O‘qituvchi kreativligini rivojlantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanishning bir necha bosqichlarini ajratish mumkin. Birinchi bosqich - diagnostik-analitik bosqich bo‘lib, unda o‘qituvchining mavjud kreativ salohiyati, kasbiy ehtiyojlari, refleksiv madaniyati va innovatsion faolligi aniqlanadi. Bu bosqichda o‘z-o‘zini baholash, kuzatuv, portfolioni tahlil qilish, ekspert xulosalari va suhbatlardan foydalanish maqsadga muvofiq [3, 44]. Ikkinchi

bosqich - motivatsion-maqsadli bosqich bo‘lib, unda o‘qituvchida kasbiy o‘sishning maqsad va istiqbollari shakllantiriladi. Uchinchi bosqich-mazmuniy-texnologik bosqich bo‘lib, unda kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish, dizayn tafakkuri, metodik konstruksiyalash, refleksiya va innovatsion faoliyat bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etiladi. To‘rtinchi bosqich - amaliy-integrativ bosqich bo‘lib, bunda o‘qituvchi olgan tajribasini real pedagogik faoliyatga tatbiq etadi. Beshinchi bosqich - baholash-refleksiv bosqich bo‘lib, o‘zgarishlar tahlil qilinadi, yangi maqsadlar belgilanadi va rivojlanish sikli yangidan boshlanadi [12, 36].

Akmeologik yondashuvga tayangan holda kreativlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri individual rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqishdir. Har bir o‘qituvchi tajribasi, qiziqishi, ta’lim falsafasi, metodik uslubi va shaxsiy resurslari bilan boshqalardan farq qiladi. Shu sababli barcha pedagoglarga bir xil rivojlantirish dasturini qo‘llash har doim ham yuqori natija bermaydi. Individual trayektoriya o‘qituvchining mavjud darajasi, ehtiyojlari va maqsadlaridan kelib chiqib tuzilganda, unda shaxsiy mas’uliyat, ichki motivatsiya va natijaga yo‘naltirilganlik kuchayadi [1,31]. Bu esa kreativlikning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Yana bir muhim jihat - refleksiv-amaliy mashg‘ulotlarning tizimli tashkil etilishidir. Pedagogik faoliyatda kreativlikni shakllantirish faqat nazariy ma’lumot berish bilan yuzaga kelmaydi. O‘qituvchi muammoli pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, keys-stadilarni tahlil qilish, ijodiy dars loyihalari yaratish, mikroo‘qitish, hamkasblar darsini kuzatish va o‘z faoliyatini videorefleksiya qilish orqali o‘zining kreativ imkoniyatlarini kengaytiradi [6,57]. Ayniqsa, bir xil vaziyatga bir necha xil yechim taklif qilish, o‘quvchi ehtiyojiga qarab metodlarni qayta qurish va o‘quv materialini turli formatlarda taqdim etish mashqlari kreativ fikrlashni chuqurlashtiradi.

Akmeologik yondashuv o‘qituvchi kreativligini rivojlantirishda mentorlik va kasbiy hamjamiyatlarning o‘rnini ham alohida e’tirof etadi. Tajribali pedagogning yosh o‘qituvchiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, amaliy maslahatlar berishi va birgalikda refleksiya yuritishi kreativlikning bevosita shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda mentor faqat tayyor tajribani uzatuvchi emas, balki hamfikr, hamkor va rivojlanish fasilitatori sifatida namoyon bo‘lishi muhim [4,72]. Kasbiy hamjamiyatlar esa o‘qituvchiga o‘z g‘oyalarini sinovdan o‘tkazish, fikr almashish, metodik yangiliklarni muhokama qilish va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda o‘sish imkonini beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ham o‘qituvchi kreativligini rivojlantirishning muhim resursiga aylangan. Biroq texnologiyaning o‘zi emas, undan qanday pedagogik maqsadda foydalanish muhimdir. Akmeologik yondashuvga ko‘ra, raqamli vosita o‘qituvchining o‘zini namoyon etish, yangi metodik formatlar yaratish, interaktivlikni oshirish, o‘quvchining individualligini inobatga olish va refleksiv tahlilni kuchaytirish vositasi bo‘lishi kerak [8, 120]. Masalan, interaktiv taqdimotlar, raqamli hikoyalash, loyiha asosidagi platformalar, virtual hamkorlik muhiti va sun’iy intellekt vositalari o‘qituvchining kreativ faoliyatini boyitishi mumkin. Ammo buning uchun texnologik savodxonlik bilan birga didaktik moslashtirish qobiliyati ham zarur.

O‘qituvchi kreativligini akmeologik asosda rivojlantirishda baholash masalasi ham muhim. Kreativlikni faqat “g‘ayrioddiy g‘oya” yoki “chiroyli dars ishlanmasi” bilan o‘lchash yetarli emas. Uni bir necha mezon asosida baholash maqsadga muvofiq: pedagogik muammoni ko‘ra olish, turli yechimlarni taklif qila olish, original metodik konstruktsiya yaratish, moslashuvchan qaror qabul qilish, refleksiya yuritish, hamkorlikka ochiqlik va amaliy natijadorlik [5, 93]. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan innovatsiyaning o‘quvchi faolligi, motivatsiyasi va ta’lim natijalariga ta’siri ham hisobga olinishi kerak. Bu yondashuv kreativlikni formal emas, real pedagogik samaradorlik bilan bog‘liq holda ko‘rishga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida ba’zan o‘qituvchining individual xususiyatlari va ijodiy potensiali yetarlicha hisobga olinmaydi. Malaka oshirish dasturlarining ayrimlari umumiy xarakterda bo‘lib, o‘qituvchining real kasbiy muammolariga to‘liq javob bermasligi mumkin. Shu sababli akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqiladigan dasturlar amaliy yo‘naltirilgan, refleksiv, moslashuvchan va individual ehtiyojlarga mos bo‘lishi lozim [7, 99]. Bunday dasturlarda tinglovchi passiv ishtirokchi emas, balki o‘z kasbiy transformatsiyasining faol subyekti sifatida qatnashadi.

Mazkur yondashuvning yana bir afzalligi shundaki, u o‘qituvchini faqat bugungi kundagi talabga moslashtirish bilan kifoyalanmaydi, balki uni kelajakdagi o‘zgarishlarga tayyorlaydi. Kreativlikning rivojlanishi o‘qituvchiga noaniqlik sharoitida ishlash, turli pedagogik vaziyatlarga moslashish, fanlararo integratsiyani amalga oshirish va yangi ta’lim modellarini tez o‘zlashtirish imkonini beradi [9, 61]. Shunday ekan, uzluksiz kasbiy rivojlanishning strategik maqsadi “ko‘proq bilim berish” emas, balki “ko‘proq yarata oladigan, moslasha oladigan va o‘zini rivojlantira oladigan pedagogni shakllantirish” bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi kreativligini rivojlantirishda akmeologik yondashuvning amaliy modelini quyidagicha ifodalash mumkin: birinchi komponent - aksiologik komponent bo‘lib, unda o‘qituvchi kasbiy rivojlanish va ijodkorlikni qadriyat sifatida qabul qiladi; ikkinchi komponent - motivatsion komponent bo‘lib, unda ichki ehtiyoj, qiziqish va kasbiy o‘sishga intilish shakllanadi; uchinchi komponent - kognitiv komponent bo‘lib, unda kreativ fikrlash va innovatsion pedagogika bo‘yicha bilimlar boyiydi; to‘rtinchi komponent - operatsion-faoliyat komponenti bo‘lib, unda yangilik yaratish ko‘nikmalari amaliyotda namoyon bo‘ladi; beshinchi komponent - refleksiv-natijaviy komponent bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘z o‘sishini tahlil qiladi va yangi maqsadlarni belgilaydi [10, 79]. Ushbu komponentlarning uyg‘unligi o‘qituvchining kasbiy akmega intilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyotda akmeologik yondashuv asosida kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim deb hisoblaymiz. Birinchidan, ta’lim muassasasida pedagogik tajriba va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlovchi muhit shakllantirilishi lozim. Ikkinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarida refleksiv treninglar, kreativ laboratoriyalar, muammoli seminarlar va mualliflik loyihalariga keng o‘rin berilishi zarur. Uchinchidan, o‘qituvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasi ishlab chiqilishi va u muntazam monitoring qilinishi kerak. To‘rtinchidan, kreativlikni baholashning aniq, amaliy va

rivojlantiruvchi mezonlari joriy etilishi maqsadga muvofiq. Beshinchidan, mentorlik va kasbiy hamjamiyatlar instituti mustahkamlanishi lozim [11, 96].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kreativlikni rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining hissiy holati va psixologik farovonligi ham muhim ahamiyatga ega. Haddan tashqari zo‘riqish, byurokratik yuklama, kasbiy charchash va past motivatsiya kreativ faoliyatni susaytiradi. Akmeologik yondashuv esa shaxsning resurs holatini, ichki uyg‘unligini va ijobiy o‘zgarishga tayyorligini ham rivojlanish sharti sifatida ko‘radi [12, 39]. Shuning uchun kasbiy rivojlanish dasturlari o‘qituvchining psixologik barqarorligini mustahkamlash, stressni boshqarish va emotsional resurslarni tiklash bilan ham uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o‘qituvchi kreativligini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish zamonaviy ta’limning strategik vazifalaridan biridir. Mazkur yondashuv o‘qituvchini o‘z kasbiy taraqqiyotining faol subyekti sifatida ko‘rib, uning ichki resurslari, motivatsiyasi, refleksiyasi va innovatsion salohiyatini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi kreativligi esa pedagogik faoliyatning sifatini oshiruvchi, ta’lim jarayonini individuallashtiruvchi, o‘quvchilar faolligini kuchaytiruvchi hamda ta’lim muassasasining innovatsion salohiyatini belgilovchi muhim omildir. Shu bois uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini akmeologik tamoyillar asosida qayta ko‘rib chiqish, individual rivojlanish trayektoriyalarini joriy etish, refleksiv-amaliy faoliyatni kuchaytirish va kreativlikni qo‘llab-quvvatlovchi institutsional muhit yaratish muhimdir. Faqat shundagina o‘qituvchi nafaqat o‘z kasbining bilimdoni, balki ta’lim jarayonining ijodkor tashkilotchisi, innovatsion fikrlovchi va kasbiy cho‘qqiga intiluvchi yetuk mutaxassisga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллина О.А. Педагогическое мастерство учителя: теория и практика. – Москва: Просвещение, 2018. – 256 с.

2. Деркач А.А. Акмеология: личностное и профессиональное развитие человека. – Москва: Изд-во РАГС, 2019. – 304 с.

3. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. пед. ун-та, 2020. – 198 с.

4. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Москва: Академия, 2017. – 304 с.

5. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: Знание, 2019. – 312 с.

6. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 288 с.

7. Сериков В.В. Развитие личности в образовательном процессе. – Волгоград: Перемена, 2018. – 276 с.

8. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: методология, теория, практика. – Москва: Эйдос, 2020. – 342 с.

9. Шадриков В.Д. Профессиональные способности. – Москва: Логос, 2018. – 320 с.

10. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. – New York: Harper & Row, 2017. – 216 p.
11. Craft A. Creativity in Education and Learning. – London: Routledge, 2021. – 230 p.
12. Day C. Professional Development of Teachers. – London: Falmer Press, 2020. – 247 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI MULTIMEDIALI ILOVALAR ASOSIDA O‘QITISH USULLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.083

Begaliyev Fayzali Umaraliyevich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi,
Iqtisodiyot va muhandislik fanlari kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari fanini multimediali ilovalar asosida o‘qitish usullarini ilmiy-pedagogik tahlil qilish ko‘zda tutilgan. Hozirgi raqamli davrda ta’lim jarayonini yanada samarali, vizual va interaktiv qilish uchun multimediali vositalar keng qo‘llanilmoqda. Maqola multimediali texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini, ularning o‘quv samaradorligiga ta’sirini, amaliy qo‘llanish usullarini, shuningdek, mavjud cheklovlar va ularni yengib o‘tish yo‘llarini batafsil tahlil qiladi. Tadqiqotda interaktiv darslar, virtual laboratoriyalar va audio-video resurslar orqali axborot texnologiyalari fanini o‘qitish tajribalari hamda ularning natijalari ko‘rib chiqiladi. Kreditlashgan ilmiy adabiyotlar tahlili orqali multimedia integratsiyasining afzalliklari va cheklovlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, multimedia, interaktiv ta’lim, video, audio, animatsiyalar, virtual laboratoriya, pedagogik texnologiyalar, o‘quv samaradorligi.

Аннотация.В данной статье предусматривается научно-педагогический анализ методов преподавания дисциплины «Информационные технологии» на основе мультимедийных приложений. В условиях современного цифрового общества мультимедийные средства широко применяются для повышения эффективности, наглядности и интерактивности образовательного процесса. В статье подробно анализируется педагогическая значимость мультимедийных технологий в образовательном процессе, их влияние на учебную эффективность, практические методы применения, а также существующие ограничения и пути их преодоления. В исследовании рассматривается опыт преподавания дисциплины «Информационные технологии» с использованием интерактивных занятий, виртуальных лабораторий и аудио-видеоресурсов, а также результаты их внедрения. На основе анализа цитируемых научных источников раскрываются преимущества и ограничения интеграции мультимедийных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: Информационные технологии, мультимедиа, интерактивное обучение, видео, аудио, анимации, виртуальная лаборатория, педагогические технологии, учебная эффективность.

Annotation. This article provides a scientific and pedagogical analysis of methods for teaching the discipline “Information Technologies” based on multimedia applications. In the context of today’s digital society, multimedia tools are widely used to enhance the effectiveness, visual clarity, and interactivity of the educational process. The article examines in detail the pedagogical significance of multimedia technologies in education, their impact on learning effectiveness, practical methods of application, as well as existing limitations and ways to overcome them. The study reviews the experience of teaching the subject “Information Technologies” using interactive lessons, virtual laboratories, and audio-video resources, along with the results of their implementation. Based on an analysis of cited scientific literature, the advantages and limitations of integrating multimedia technologies into the educational process are identified.

Key words: Information technologies, multimedia, interactive learning, video, audio, animations, virtual laboratory, pedagogical technologies, learning effectiveness.

Kirish. Axborot texnologiyalari fanining pedagogik metodlari bugungi ta’lim tizimida tubdan o‘zgarishga yuz tutgan. An’anaviy dars metodlarini interaktiv, vizual va raqamli resurslar bilan boyitish orqali o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar ilmiy hamjamiyatda katta ahamiyat kasb etmoqda. Multimedia-bu o‘quv jarayoniga integratsiya qilinadigan matn, rasm, audio, video va animatsiya vositalarini o‘z ichiga olgan kompleks didaktik tizimdir. Uning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, murakkab kontseptlarni vizual tarzda tushuntirish va mavzu materialini chuqur qabul qilish imkonini yaratishi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Axborot texnologiyalari fanida multimediali metodlar qo‘llanilishi nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli multimediani pedagogik vosita sifatida qo‘llash bugungi zamon talabiga aylanmoqda.

Multimedia - bu turli axborot formatlarini (matn, rasm, audio, video, simulyatsiya va animatsiya) birlashtirgan o‘quv resursidir. Interaktiv multimediya tizimlari o‘quvchilarga ma’lumotni ko‘rish va eshitish orqali qabul qilish imkonini beradi, bu esa an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq o‘rganishni yanada samarali qiladi.

Keng qamrovli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, diqqatni jamlashni yaxshilaydi hamda ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. [1-2]. Multimediali vositalar ta’lim mazmunini boyitishda nafaqat vizual yordamchi vosita, balki o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi interaktiv platforma sifatida xizmat qiladi. Maqsad - o‘quvchilarning turli o‘rganuvchi uslublariga mos keladigan moslashuvchan o‘qitish imkonini yaratish. Misol uchun, audio-video ko‘rsatmalar vizual va eshitish yo‘nalishidagi talabalarga murakkab mavzularni tezroq qabul qilish imkonini beradi.

Interaktiv darslar. Interaktiv darslar o‘quv jarayonidagi o‘quvchi faol ishtirokini ta’minlaydi. Bunda multimedia vositalari sifatida quizlar, video lavhalar, simulyatsiyalar va

onlayn testlar qo‘llanadi. Bu usul an’anaviy darslardan farqli o‘laroq, talabalarga real vaqt rejimida o‘z javoblarini sinab ko‘rish va darhol baholash imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalar. Virtual laboratoriyalar yordamida talabalar real jihozlarsiz turli tajribalarni ko‘rishlari va amalga oshirishlari mumkin. Masalan, axborot texnologiyalari bo‘yicha tarmoq protokollari yoki kompyuter arxitekturasi bo‘yicha simulyatsiyalar orqali o‘rganish jarayoni murakkab amaliy jarayonlarni vizual ko‘rinishda tushunishga yordam beradi.

O‘qituvchilar multimediali dars materiallarini yaratib, ularni dars rejalariga integratsiya qilishi mumkin. Masalan, algoritmlar mavzusida interaktiv vizualizatsiyalar talabalarga jarayonlar oqimini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Bunday materiallar o‘quvchilarning diqqatini jamlashni oshiradi va ular bilan bog‘liq kontseptlarni mustahkamlash imkonini beradi.

Multimediali vositalar yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv multimedia texnologiyalari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi, bu esa bilimni yanada chuqur qabul qilishga olib keladi.

Masalan, bir tadqiqot interaktiv multimedia asosida dars o‘tishda an’anaviy metodlarga qaraganda o‘quvchilarning natijalari yaxshilanganini ko‘rsatdi — bu xususiyat ayniqsa amaliy ko‘nikmalarni talab qiluvchi fanlar bo‘yicha sezildi.

Talabalarning multimedia vositalari bilan o‘qitishga nisbatan munosabati ijobiy bo‘lib, ular bunday resurslarni amaliy o‘rganish jarayonida qulay va samarali deb baholagan. Shuningdek, interaktiv 3D vizualizatsiyalar va simulyatsiyalar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. [3,4].

Multimediali resurslardan samarali foydalanish uchun maktablar va oliy ta’lim muassasalari zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lishi kerak. Internet tezligi, qurilmalar yetishmovchiligi va texnik qo‘llab-quvvatlash cheklovlari multimedia integratsiyasiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Multimedia vositalarini yaratish va integratsiya qilish o‘qituvchidan yangi pedagogik va texnik ko‘nikmalarni talab qiladi. O‘qituvchilarning muntazam ravishda professional rivojlanishi va multimedia yondashuvlari bo‘yicha treninglar o‘tkazilishi kerak.

Multimedia resurslar darslik va o‘quv dasturi talablari bilan mos bo‘lishi lozim. Aks holda ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri pasayadi va o‘quvchilarning bilim olish jarayonida chalg‘ituvchi omil bo‘lishi mumkin.

Axborot texnologiyalari fanida multimediali metodlarning qo‘llanilishi nafaqat texnik ko‘nikmalarni egallash, balki tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, interaktiv multimedia vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash - bu o‘quvchining ma’lumotni tahlil qilish, baholash va u asosida asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar yordamida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, o‘quvchilarga savol berish, muammoni analiz qilish va qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgan metodlar ularning mustaqil fikrlashini sezilarli darajada oshiradi. Bunga “Aqliy hujum”, “Venn diagramma”, “Insert metodlari” kabi interfaol texnikalar misol bo‘la oladi.

Multimediali ilovalar, xususan vizual kontent, simulyatsiyalar va virtual muhitlar tanqidiy fikrlash talab qiladigan vazifalarni samarali tarzda taqdim etadi. Bu vazifalar o‘quvchini faqat faktni yodlashdan ko‘ra, ma’lumotni tahlil qilish va turli kontekstlarda qo‘llashga undaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning taqdim etilgan materialni baholash va tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. [5-6].

Ijodkorlik bu yangi g‘oyalar, yechimlar yoki mahsulotlar yaratish jarayonida innovatsion yondashuvni talab qiluvchi ko‘nikmadir. Multimedia vositalari, jumladan video kontent, interaktiv grafikalar va animatsiyalar, o‘quvchilarga murakkab kontseptlarni o‘rganish jarayonida turli darajadagi vizual va audio yordamni beradi, bu esa ularning fikrlash jarayonini kengaytiradi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Masalan, STEAM yondashuvi va interfaol o‘yinlar orqali o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni ijodiy yechimlar orqali hal qilishga o‘rgatiladi, bu esa bilimga bo‘lgan mustaqil yondashuvni kuchaytiradi.

Multimediali metodlar o‘quvchilarga mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Interaktiv simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va o‘zaro bog‘langan vazifalar orqali o‘quvchilar mavzularni chuqurroq o‘rganib, turli holatlarda o‘z qarorlarini qabul qilish tajribasiga ega bo‘lishadi. Bu ham mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi.

Axborot texnologiyalari yordamida o‘quvchilarga topshiriqlar berishda ularning mustaqil faoliyati va o‘zini-o‘zi baholash imkoniyatlari kengaytiriladi. Elektron darsliklar, onlayn testlar va interaktiv kontent talabalarni o‘z bilimlarini mustaqil izlash, tahlil qilish va kognitiv strategiyalarini qo‘llashga undaydi. Bu esa ularni mustaqil ravishda muammolarni aniqlash va yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Multimediali metodlarning muvaffaqiyati ularni pedagogik yondashuv bilan to‘g‘ri integratsiyaga bog‘liqdir. Innovatsion metodlar, jumladan flipped classroom (teskari sinf), o‘yinlashtirish, case-study, refleksiv baholash kabi yondashuvlar o‘quvchini markazga qo‘ygan holda ta’limni tashkil etadi. Bu metodlar o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, interaktiv muloqot va ijodiy yondashuv imkoniyatini beradi.

Multimediali ta’lim vositalari murakkab kontseptlarni turli ko‘rinishlarda - tekst, audio, video va grafikalar orqali yetkazadi. Bu esa o‘quvchilarning diqqatini jamlab, ko‘p yo‘nalishli fikrlashni kuchaytiradi, shu bilan birga tanqidiy tahlil va ijodiy yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Multimedia vositalari yordamida o‘quvchilarga taqdim etiladigan interaktiv viktorinalar va testlar dars jarayonini yanada jonli qiladi. Masalan, Quizizz, Kahoot yoki Google Forms orqali yaratilgan testlar yordamida talabalar o‘z bilimlarini real vaqt rejimida tekshiradi va natijani tezda ko‘radi. Bu metod talabalarning faolligini oshiradi hamda bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Amaliy misol: Axborot texnologiyalari darsida algoritmlar mavzusini o‘rgatishda video ko‘rsatgichlar bilan birga interaktiv test ishlatilib, talabalar to‘plangan ballar asosida guruhlarga bo‘linadi va eng yuqori ko‘rsatgichga ega guruh mukofotlanadi.

Multimedia-video darslar yordamida murakkab tushunchalarni soddalashtirish imkonini beradi. YouTube kabi platformalar orqali ta’lim video ko‘rsatgichlari yaratiladi va talabalarni oldindan tomosha qilib kelishlari so‘raladi. Bu yondashuv flipped classroom (teskari sinf) modeliga o‘xshash bo‘lib, sinfda amaliy mashqlar va munozaralarga ko‘proq vaqt ajratiladi.

Amaliy misol: Dasturlash bo‘yicha video ko‘rsatma oldindan ko‘riladi, sinfda esa kod yozish bo‘yicha amaliy mashqlar bajariladi.

Texnologiya fanlarida virtual laboratoriya simulyatorlari murakkab tajribalarni real uskunalarsiz ham o‘tkazishga imkon beradi. Misol uchun PhET Interactive Simulations yoki Labster kabi platformalarda talabalar tarmoq protokollarini yoki tizim arxitekturasini virtual muhitda o‘rganadilar. Bu usul o‘quvchilarning muammolarni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini va amaliy bilimlarini sezilarli darajada oshiradi.

Amaliy misol: Axborot tizimlarini loyihalash mavzusida talabalar simulyatsiya asosida tarmoq tuzish bilan shug‘ullanishadi, bu ularning texnik hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

Interaktiv doskalar — multimedia ta’limida juda keng qo‘llaniladigan vosita bo‘lib, u ekran orqali video, grafik, matn va talabalarning ishtirokini birlashtiradi. Bu turdagi resurslar o‘qituvchilarga darsni ko‘rgazmali va interaktiv tarzda olib borish imkonini beradi.

Amaliy misol: Informatika darsida interaktiv doskada diagramma chizish, kod namunalarini vizual tarzda ko‘rsatish va talabalarning fikrlarini real vaqt rejimida yozib borish orqali dars samaradorligi oshiriladi.

Multimediali ilovalar yordamida o‘qituvchilar o‘z dars kontentlarini boyitishi mumkin — video, audio, animatsiyalar, interaktiv grafikalar orqali. Masalan, Autoplay yoki PowerPoint bilan yaratilgan interaktiv elektron darsliklar o‘quvchilarga mavzuni turli formatda taqdim etadi, bu esa materialni yanada yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.

Amaliy misol: Slayd taqdimotlariga audio izohlar va kichik viktorinalarni joylashtirib, talabalarni darsdan oldin mustaqil tayyorlashga rag‘batlantirish.

Global miqyosdagi ta’lim loyihalari, masalan Flat Classroom Project, talabalarni jahon bo‘ylab hamkasblar bilan hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi. Bu yondashuv nafaqat texnologik ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy interfaol muloqot, birgalikda izlanish va global tahlil ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Amaliy misol: Talabalar o‘zaro guruplarga bo‘linib, internet orqali xalqaro loyiha ustida birga ishlaydi va yakuniy prezentatsiyani onlayn platformada taqdim etadi.

Xulosa. Multimediali ilovalarni axborot texnologiyalari faniga integratsiya qilish - ta’limni modernizatsiya qilishning samarali usuli bo‘lib, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, murakkab kontseptlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi va interaktiv o‘rganish imkonini yaratadi. Multimedia vositalaridan samarali foydalanish o‘qituvchilarning pedagogik va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi hamda maktab va oliy ta’lim muassasalari infratuzilmasini takomillashtirishni talab etadi.

Shuningdek, multimedia resurslarining darslik va o‘quv dasturiga mosligi ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogika sohasida multimediali texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi oshadi, o‘quv muhit interaktiv va qiziqarli bo‘ladi.

Multimediali ilovalardan samarali foydalanish oliy ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilish bilan birga, talabalar mustaqil ta’lim olishlarini ham rag‘batlantiradi. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy multimedia texnologiyalaridan keng foydalanish, pedagogik yondashuvlarni innovatsion yechimlar bilan boyitish lozim.

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, multimediali metodlar nafaqat texnik ko‘nikmalarni o‘rgatadi, balki tanqidiy fikrlash, ijodiy yechim topish va mustaqil muammolarni hal etish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Multimedia vositalari o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni turli formatlarda (video, animatsiya, simulyatsiya, interaktiv test) taqdim etadi, bu esa ularning bilimni chuqur anglashiga yordam beradi va ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Methods of Teaching Information Technology Based on Multimedia Applications. Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy, 2025.

2. Umaraliyevich, B. F. (2025). METHODS OF TEACHING INFORMATION TECHNOLOGY BASED ON MULTIMEDIA APPLICATIONS. Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy, 1(3), 354-357.

3. Abboodi Ali, Q. & Sahab, N. M. (2022). The Effectiveness of Using Interactive Multimedia on the Learning Process — LC International Journal of STEM.

4. Begaliyev, F. U. (2023). Multimedia ma’lumotlarni samarali onlayn tarzda o ‘rganish va o ‘qitish. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 161-165.

5. Hossain, M. R. (2023). A Review of Interactive Multimedia Systems for Education.

6. Begaliyev, F. (2024). Multimediali ilovalar asosida sun’iy intellekt fanini o ‘qitish usullari. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(23), 138-142.

7. Evelina Stanevičienė & Gintarė Žekienė. (2025). The Use of Multimedia in the Teaching and Learning Process of Higher Education: A Systematic Review.

8. Begaliyev, F. (2025). Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений.. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(6).

9. Begaliyev, F. (2025). METHODS OF TEACHING THE SUBJECT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE BASED ON MULTIMEDIA APPLICATIONS. International Journal of Artificial Intelligence, 1(4), 1689-1690.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI O‘QITISH JARAYONIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.084

Қулманова Умида.
Термиз давлат муҳандислиннк ва агротехнологиялар университети катта ўқитувчиси.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayoni — bu ularning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, o‘quv jarayonini boshqarish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan uzluksiz jarayondir. Pedagogik mahorat bo‘lajak o‘qituvchining bilim va malakalarini o‘zida jamlagan bo‘lib, bu uning o‘quvchilarga ta'lim berishdagi samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadigan elementlardan biri refleksiya bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muhim vositalar hisoblanishi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: O‘qituvchilar, pedagogik, o‘qitish, refleksiv, ko‘nikmalar, rivojlantirish, metodikasi, , bo‘lajak, uzluksiz

Аннотация.В данной статье процесс совершенствования педагогических навыков будущих учителей рассматривается как непрерывный процесс, включающий эффективную организацию их профессиональной деятельности, управление образовательным процессом и развитие навыков общения со студентами. Педагогические навыки – это сумма знаний и умений будущего учителя, обеспечивающих его эффективность в обучении студентов. Одним из важных элементов этого процесса является рефлексия, которая рассматривается как важный инструмент для будущего учителя для анализа собственной педагогической деятельности, выявления недостатков и развития.

Ключевые слова: Учителя, педагогические, обучение, рефлексивные, навыки, развитие, методология, будущее, непрерывный

Abstract. In this article, the process of improving the pedagogical skills of future teachers is a continuous process that includes the effective organization of their professional activities, management of the educational process, and development of skills in communicating with students. Pedagogical skills are the sum of the knowledge and skills of a future teacher, which ensure his effectiveness in teaching students. One of the important elements in this process is reflection, which is considered an important tool for a future teacher to analyze his own pedagogical activities, identify shortcomings and develop.

Keywords: Teachers, pedagogical, teaching, reflexive, skills, development, methodology, , future, continuous

Мавзунинг долзарблиги. Jahon miqyosida ta’lim global muammolardan biri sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarning metakognitiv va refleksiv salohiyatini oshirishga doir innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash hamda kasbiy kompetentlilikka ega bo‘lgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash modellari YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” birinchi darajali vazifa sifatida qaralib, ta’lim mazmunini mazkur jarayonlarga asoslanib shakllantirish bo‘yicha rejali ishlab chqish dolzarb muammolardandir.

Mavzuning maqsadi. bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Z.Sh. Qarshiyevaning ilmiy tadqiqotida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Sh.A.Donayeva tadqiqotlarida refleksiv ta’lim texnologiyalari asosida talabalar pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi ishlab chiqildi. Muallif ilmiy izlanishlari natijasida talabalarning pedagogik ta’lim jarayonida refleksiv ta’lim texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari vaqt davomiyligiga ko‘ra (situativ, retrospektiv, perspektiv), subektiga ko‘ra (shaxsiy, shaxslararo), maqsadiga ko‘ra (korreksion, adaptiv, tanlov, to‘ldiruvchi, raqobatlashuvchi, kooperativ, ziddiyatli) turlari mazmunini ochib berish asosida aniqlashtirilgan.

N.R.Karimova tadqiqotlarida kichik maktab yoshi o‘quvchilarida o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishning metodik ta’minoti o‘quv faoliyatiga doir amaliy ishlanmalar vositasida loyihalashtirilgan o‘qitish jarayonlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan

J.M.Otajonov bir necha yillik izlanishlari natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishni modellashtirish jarayonida sub’ekt (ta’limiy muhitning tashkilotchisi, boshqaruvchisi va ishtirokchisi) refleksiv ko‘nikmalarining funksiyalari (boshqaruv, o‘qitish, nazoratni amalga oshirish, kommunikativ, axborot) didaktik maqsadlarini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) identiv xususiyatlarga ko‘ra integratsiyalash asosida takomillashtirishga erishgan..

F.Sh.Vapayeva tadqiqotlarida "pedagogik refleksiya predmeti sifatida individning ichki tajribasida mavjud bo‘lgan bilimlar, tasavvurlar, tushunchalar, hissiyotlar, kechinmalar, munosabatlar, istaklar, qadriyatlar namoyon bo‘ladi", deb hisoblaydi .Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Quronov, R.Ahliddinov va I.Majidovlar tomonidan refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir izlanishlari orqali "refleksiya samarali fikrlashning muhim tarzi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish, vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqa odamlarning o‘zini o‘zi tahlil qilingan.

D.Hakimova refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga doir olib borgan ilmiy tadqiqotlarida "refleksiya samarali fikrlashning muhim mexanizmi" tarzida talqin qiladi

Mulohazalar.Техника олий таълим муассасаларида бўлажак техник мутахассисларни тайёрлашда компетенциявий Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayoni — bu ularning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, o‘quv jarayonini boshqarish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan uzluksiz jarayondir. Pedagogik mahorat bo‘lajak o‘qituvchining bilim va malakalarini o‘zida jamlagan bo‘lib, bu uning o‘quvchilarga ta'lim berishdagi samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadigan elementlardan biri refleksiya bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muhim vosita hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalari pedagogik faoliyatda o‘zgarishlarni amalga oshirish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va uni takomillashtirishga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatda refleksiyani faol qo‘llashga o‘rgatish, ularning o‘zgarishlarga ochiqligini oshirish, o‘quv jarayonini yaxshilash uchun zarur. Shu nuqtai nazardan, dissertatsiyada bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasining ahamiyati va roli chuqur tahlil qilindi

Tadqiqotimiz bosh g‘oyasidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasining tarkibiy qismi sifatida “***Kooperativ tadqiqot texnologiyasi”, “Modellashtirilgan kasbiy faoliyat texnologiyasi”, “Tajriba va tahlil texnologiyasi”, “Reflektiv jurnal texnologiyasi”*** va uni amalga oshirish metodikasidan foydalanamiz . **Kooperativ tadqiqot texnologiyasi** – bu talabalarning bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashga asoslangan o‘rganish usuli bo‘lib, unda guruh a'zolari birgalikda biror muammo yoki mavzuni o‘rganib, masalani hal qilishga harakat qilishadi. Bu texnologiya talabalarga faqat o‘qish yoki ma'lumot olish emas, balki o‘zaro bilim almashish, fikrlar almashish, va jamiyatda hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Kooperativ tadqiqot texnologiyasi pedagogik faoliyatda ta'limning samaradorligini oshirish, talabalarda tanqidiy fikrlash va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun juda foydalidir. Bu texnologiya pedagogik jarayonni interaktiv va o‘zaro bog‘liq shaklga olib keladi, bunda talabalar o‘zaro bilimlar, fikrlar va tavsiyalarni almashish orqali o‘zlashtiradilar.



1-Rasm.“Kooperativ tadqiqot texnologiyasi”.

Kooperativ tadqiqotning asosiy prinsip va xususiyatlari:

1. **Guruh faoliyati:** Talabalar kichik guruhlarda ishlaydilar. Guruhlar o‘zaro hamkorlikda tadqiqot olib boradi, bir-biriga yordam beradi va umumiy natijaga erishish uchun birgalikda harakat qilishadi. Bu o‘zaro yordam va fikr almashishning samarali usuli hisoblanadi.
2. **Birgalikda masala echish:** Talabalar biror mavzu yoki masala bo‘yicha tadqiqot olib boradilar. Har bir guruh a'zosi o‘z fikrlarini, bilimlarini boshqalar bilan bo‘lishadi va umumiy echimga kelish uchun birlashishadi. Bunda har bir talabaning hissasi muhimdir, chunki guruhning muvaffaqiyati har bir a'zoning faoliyatiga bog‘liq.
3. **Jamoaviy javobgarlik:** Har bir talaba guruhning umumiy muvaffaqiyatiga javobgardir. Bunda nafaqat o‘zi uchun, balki butun guruhning o‘rganish jarayoni uchun ham javobgarlikni his qiladi.
4. **Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish:** Talabalar bir-birlarining fikrlarini sinchiklab tahlil qilib, o‘zaro tanqidiy yondashuvni rivojlantiradilar. Ular o‘zlarini va boshqa guruh a'zolarining yondashuvlarini muhokama qilishadi, o‘zgarishlarni taklif qilishadi.
5. **O‘zaro baholash:** Guruh a'zolari o‘rtasida o‘zaro baholash va fikr almashish jarayonlari o‘tkaziladi. Bu talabalarga o‘z ishlari va hamkorlikdagi faoliyatlarini baholash, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni sinovdan o‘tkazishga imkon beradi.
6. **Muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘rganish:** Kooperativ tadqiqot talabalarga murakkab pedagogik yoki ilmiy masalalarni hal qilish uchun yordam beradi. Talabalar bir-biriga yordam berib, muammoni har xil nuqtai nazardan tahlil qilishadi va eng yaxshi echimni topishadi.

Kooperativ tadqiqot texnologiyasining bosqichlari:



2-Rasm. Guruhni tashkil etish va vazifa taqsimlash:

- Mashg‘ulot boshida talabalarga guruhlar shaklida vazifalar taqdim etiladi. Guruhda har bir talaba o‘ziga yuklangan vazifani bajarishi kerak, ammo ular umumiy maqsadga erishish uchun bir-biriga yordam berishlari lozim.
- Guruhlar o‘z vazifalarini baham ko‘rishadi va umumiy tahlil qilishga kirishadilar.

2. Tadqiqot faoliyatini boshlash:

- Talabalar guruh bo‘lib, belgilangan masala yoki mavzu bo‘yicha tadqiqot boshlaydilar. Har bir talaba o‘z fikrini qo‘shib, umumiy natijaga erishishga harakat qiladi.
- Tadqiqot jarayonida talabalar ilmiy yoki pedagogik faoliyatni tahlil qilishadi va muammo echimlari bo‘yicha fikrlar almashishadi.

3. Fikr almashish va hamkorlik:

- Guruhlar o‘zaro fikr almashadi, turli yondashuvlarni o‘rganadi va muammoni hal qilish yo‘llarini birgalikda topishga harakat qiladi.
- Har bir talabaga o‘z fikrini ifodalash va guruhni yaxshi natijaga olib kelish uchun hamkorlikda ishlash imkoniyati beriladi.

4. Natijalarni taqdim etish va tahlil qilish:

- Guruhlar o‘z tadqiqotlari natijalarini sinfda taqdim etadilar. Bunda ular o‘z tahlillarini, tavsiyalarini va kiritilgan o‘zgarishlar haqida umumiy fikrlarni taqdim etadilar.
- O‘qituvchi va boshqa guruhlar tomonidan taqdimotlar baholanadi, va umumiy muhokama o‘tkaziladi.

5. Refleksiya va yakuniy tahlil:

- Tadqiqot yakunida talabalar o‘zaro refleksiya qiladilar. Bu bosqichda har bir talaba o‘z o‘rganish jarayoni, o‘zgarishlar kiritish imkoniyatlari, va guruhda ishlash samaradorligi haqida fikr bildiradi.
- O‘qituvchi talabalarga o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va o‘rganilgan bilimlarni kelajakda qanday qo‘llash mumkinligi haqida tavsiyalar beradi.

Kooperativ tadqiqotning foydalari:

1. **Jamoaviy ishlashni rivojlantirish:** Talabalar bir-birlari bilan yaqin hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar, o‘zaro yordam berishadi va birgalikda ishlashda muvaffaqiyatni ta'minlashadi.

2. **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:** Talabalar o‘zaro fikr almashish orqali murakkab masalalarga tanqidiy yondoshuvni rivojlantiradilar va faqat o‘quvchi sifatida emas, balki faol o‘rganuvchi sifatida o‘zgarishlarni tahlil qilishadi.

3. **Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish:** Kooperativ tadqiqotda talabalarga mustaqil fikr yuritish va tadqiqotlarni o‘zi bajarish imkoniyati beriladi, bu esa mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. **Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish:** Talabalar guruhda ishlash, o‘zaro kommunikatsiya qilish va muammolarni birgalikda hal qilish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

5. **O‘zaro bilim almashish:** Talabalar o‘z bilimlarini o‘rtoqlashib, boshqalardan yangi bilimlar olishadi va o‘quv jarayonini yanada samarali o‘tkazish imkoniyatini topishadi.

Kooperativ tadqiqot texnologiyasining amaliy qo‘llanilishi:

Masalan, pedagogik faoliyatni o‘rganishda kooperativ tadqiqot texnologiyasidan foydalanish:

- **Guruh ishlari:** Talabalar o‘qituvchilik faoliyatini tahlil qilish uchun guruhlar shaklida ishlaydilar. Har bir guruh o‘ziga tegishli mavzu bo‘yicha tadqiqot olib boradi (masalan, darsda talabalar bilan muloqot, sinfdagi xatti-harakatlar).
- **Vazifalarni taqsimlash:** Har bir guruh a'zosi o‘z fikrini bildirish va tadqiqotga qo‘shimcha materiallar taqdim etish orqali umumiy tahlil qilishga yordam beradi.
- **Muammoni hal qilish:** Guruhlar pedagogik vaziyatni tahlil qilib, muammoning hal qilinishi mumkin bo‘lgan yangi yondashuvlarni taklif etadilar.

Ushbu yondashuv talabalarga pedagogik faoliyatni o‘rganish jarayonida tajriba orttirish, o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va uni takomillashtirish imkonini beradi.

Quyida mavzu doirasida takomillashtirilgan “fanidan “Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat” mavzusida “Kooperativ tadqiqot texnologiyasi”ni tashkil qilish yuzasidan amaliy mashg‘ulot ishlanmasining mazmuni va metodikasi keltiriladi.

Mavzu: Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat

Texnologiya: “Kooperativ tadqiqot” texnologiyasi

Muddat: 1 soat**1. Mashg‘ulotning maqsadi:**

- Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Talabalarda pedagogik faoliyatni tanqidiy baholash va o‘zgarishlar kiritish qobiliyatini shakllantirish;Kooperativ tadqiqot orqali guruhlar o‘rtasida fikr almashish, hamkorlikda ishlash va masalalarni birgalikda hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.**2. Mashg‘ulotning vazifalari:**

- Kasbiy refleksiya va uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati haqida tushuncha berish.
- Kooperativ tadqiqot texnologiyasini qo‘llash orqali o‘qituvchilik faoliyatini tahlil qilishni o‘rgatish.

- Guruhda hamkorlik qilib, pedagogik faoliyatni tahlil qilish va kasbiy refleksiya orqali takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash.
- Kooperativ tadqiqot metodini amaliy mashg‘ulotda qo‘llash orqali talabalar o‘rtasida bilim almashish va hamkorlikni rivojlantirish.

3. Mashg‘ulotning usullari:

- **Kooperativ tadqiqot:** Guruhlar o‘rtasida birgalikda ishlash va o‘qituvchilik faoliyatini tahlil qilish.
- **Guruh ishlari:** Talabalar o‘rtasida fikr almashish, birgalikda muammo echimini topish.
- **Tahlil qilish va refleksiya:** O‘z faoliyatini va pedagogik vaziyatlarni baholash, o‘zgarishlar kiritish.
- **Interaktiv muhokama:** Fikrlar almashish, tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarish.

4. Mashg‘ulotning tashkil etilishi:

Birinchi qism: Kirish (15 daqiqa)

- **Maqsadni aniqlash:** Talabalarga kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyatni tanqidiy baholash ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot beriladi.
- **Kooperativ tadqiqot texnologiyasi haqida tushuncha berish:** O‘qituvchi, kooperativ tadqiqotning asosiy prinsiplarini tushuntiradi, ya'ni guruhda ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va bilim almashish.
- **Guruhni tashkil qilish:** Talabalar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga pedagogik faoliyatni tahlil qilish uchun muayyan vazifa beriladi.

Ikkinchi qism: Tayyorgarlik va tadqiqot (25 daqiqa)

- **Guruh ishlari:**

1. **Vazifa taqdimoti:** Har bir guruhga aniq pedagogik vaziyat taqdim etiladi.

1-vazifa: darsda o‘quvchilar bilan muloqot qilish shakllari, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar, o‘qituvchining xatti-harakatlarini tahlil qiling.

2-vazifa: sinfdagi o‘quv jarayonida yuz beradigan muammolarni aniqlang, turlarga ajrating, kelib chiqish sabablarini aniqlang va tahlil qiling.

3-vazifa: o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi motivatsiya yutuqlari yoki muammolarni tahlil qiling.

2. **Tadqiqot boshlanishi:** Guruhlar o‘zaro fikr almashib, taqdim etilgan pedagogik vaziyatni tahlil qilishadi. Har bir guruh o‘zining tadqiqotini kasbiy refleksiya asosida tuzadi.

3. **Muammoni aniqlash:** Har bir guruh o‘z tadqiqotida o‘qituvchining faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlaydi va kerakli o‘zgarishlar haqida tavsiyalar ishlab chiqadi.

4. **Amaliy tadqiqot:** Guruhlar o‘zlarining tahlillarini taqdim etish uchun kerakli ma'lumotlarni to‘plashadi, guruh a'zolari bir-birlariga yordam berib, bilimlarni almashishadi.

Uchinchi qism: Taqdimot va muhokama (15 daqiqa)

- **Guruhlar taqdimoti:**
- Har bir guruh o‘z tadqiqot natijalarini boshqa guruhlarga taqdim etadi, o‘z tahlilini va kasbiy refleksiya asosida kiritgan tavsiyalarini taqdim qiladi.

- Taqdimotda guruhlar o‘z faoliyatlaridagi zaif tomonlarni va o‘zgartirishlarni aniqlab, o‘zgarishlar qanday amalga oshirilishi mumkinligini muhokama qiladi.
- O‘qituvchi guruhlarning natijalarini umumlashtiradi, talabalarga kooperativ tadqiqot jarayonidagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklar haqida fikr bildiradi.

To‘rtinchi qism: Yakuniy tahlil va refleksiya (5 daqiqa)

- **Yakuniy fikrlar va xulosalar:**
- O‘qituvchi talabalarga kasbiy refleksiya jarayonini qanday amalga oshirish haqida qisqacha xulosa qiladi.
- Talabalar o‘z faoliyatlarini baholab, o‘zgarishlar kiritish bo‘yicha xulosalar chiqaradilar.
- O‘qituvchi va talabalar birgalikda kooperativ tadqiqotning qanday samaralar berganini va qanday yondashuvlar o‘qituvchilik mahoratini rivojlantirishda foydali bo‘lishi mumkinligini muhokama qiladi.

5. Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

- Har bir guruhda faol ishtirok eting va o‘z fikrlaringizni ochiq bildirgan holda, pedagogik faoliyatni tahlil qiling.
- Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda tanqidiy yondoshuvni saqlang va o‘zgarishlar kiritishga tayyor bo‘ling.
- O‘z tadqiqotlaringizda kooperativ ravishda ishlang va boshqa guruhlar bilan fikr almashishga harakat qiling.

6. Baholash mezonlari:

- Guruhlarda faol ishtirok etish, fikrlar almashish va muammoni hal etish.
- Kasbiy refleksiya orqali pedagogik faoliyatni tahlil qilish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.
- Taqdimot va muhokamalarda aniqlik va fikrni aniq ifodalash.
- Hamkorlikda ishlash va bilim almashishdagi samaradorlik.

7. Foydalaniladigan adabiyotlar taqdim qilinadi.

8. Mashg‘ulotning yakuni:

Xulosa Mashg‘ulotda talabalar kooperativ tadqiqot texnologiyasini qo‘llash orqali pedagogik faoliyatni tahlil qilishni o‘rgandilar. Ular o‘z kasbiy refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirdilar va o‘z faoliyatlarini takomillashtirish uchun zarur o‘zgarishlar kiritish yo‘llarini aniqladilar. Kooperativ yondashuv orqali talabalar o‘z bilimlarini bir-birlari bilan almashib, amaliy tajriba orttirdilar.

Aoydalanilgan adabiyotlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat (darslik). -T., 2011.

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (o’quv qo’llanma) . -T., 2006.

3. Ziyomuxamedov B. Pedagogik mahorat asoslari . (Nukus O’quv qo’llanma). -T.,

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Ibragimov X., Yoldos’hev U. va bos’hqalar Pedagogik psixologiya (o’quv qo’llanma) . -T., 2007.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINF TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISH USULLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.085

Osiyo xalqaro universiteti
Stajyor-tadqiqotchisi
Nurullayeva Aziza Ravshan qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta’lim va kompetensiyaviy yondashuvning o‘quvchilarning bilish faolligi hamda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi. Tajriba-sinov natijalari pedagogik texnologiyalar tizimli qo‘llanganda bilimlarni o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 8-10 % ga oshishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tabiiy fanlar, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, kompetensiya.

Аннотация.В данной статье с научной, теоретической и эмпирической точек зрения анализируются вопросы повышения эффективности обучения за счет использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в начальной школе. В ходе исследования изучалось влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, проблемно-ориентированного обучения и компетентностного подхода на познавательную активность учащихся и показатели усвоения материала. Результаты эксперимента показали, что уровень усвоения знаний повышается в среднем на 8-10 % при систематическом использовании педагогических технологий. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: начальное образование, естественные науки, педагогические технологии, интерактивные методы, эффективность обучения, компетентность.

Abstract.This article analyzes the effectiveness of using modern pedagogical technologies in teaching natural sciences in primary education. The study examines the impact of interactive methods, problem-based learning, and digital tools on students’ learning outcomes. Experimental results show that systematic use of pedagogical technologies increases learning achievement by 8-10 %. Practical recommendations are provided based on the findings.

Keywords: primary education, natural sciences, pedagogical technologies, interactive methods, learning effectiveness.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan strategik vazifalardan biri – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish hamda ularni ilmiy tafakkurga yo‘naltirishdan iboratdir. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, inson tomonidan umrbod egallanadigan bilimlarning qariyb 65–70 foizi aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllanadi. Shu bois mazkur bosqichda ta’lim samaradorligini oshirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Statistik kuzatuvlarga ko‘ra, an’anaviy usulda olib borilgan darslarda o‘quvchilarning faol ishtiroki 45–50 foizni tashkil etsa, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda ushbu ko‘rsatkich 75–80 foizga yetadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligiga erishish usullari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Metodlar

Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanining tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlariga asoslandi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Jumladan, M.V. Klarin pedagogik texnologiyani "oldindan belgilangan natijaga erishishni kafolatlovchi didaktik tizim" sifatida talqin qilsa, G.K. Selevko uni ta’lim jarayonining barcha komponentlarini qamrab oluvchi kompleks mexanizm deb hisoblaydi. Ushbu nazariy yondashuvlar mazkur tadqiqotning metodologik poydevorini tashkil etdi.

Pedagogik tajriba-sinov doirasida dars ishlanmasi

Tadqiqotning empirik qismi doirasida 2-sinf tabiiy fanlar darsligidagi **“O‘simliklarning qismlari va ularning vazifalari”** mavzusi asosida namunaviy dars ishlanmasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur mavzu tanlanishiga sabab, uning o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash hamda tabiiy jarayonlarni anglash kompetensiyalarini shakllantirishdagi yuqori didaktik salohiyatidir.

Darsning maqsadi: -o‘quvchilarga o‘simliklarning asosiy qismlari (ildiz, poya, barg, gul) va ularning vazifalari haqida ilmiy tushunchalar berish; interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish; - tabiatga ongli munosabatni shakllantirish.

Darsda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar:

Muammoli ta’lim: muammoli ta’lim — bu o‘quvchilarda **mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish**ga qaratilgan metod. Dars jarayonida savollar quyidagi mezonlarga asoslanadi:o‘quvchilarga mavzuga oid savollar berib, ularning mustaqil izlanish va xulosa chiqarish faoliyatini rag‘batlantirish; Agar o‘simlikning ildizi bo‘lmasa, nima sodir bo‘ladi?”

“Sizning uyingizdagi o‘simliklar bargsiz qolsa, ular qanday o‘zgaradi?”

“Agar siz yangi o‘simlik ixtiro qilsangiz, uning bargi yoki ildizi qanday bo‘ladi?”

“O‘simlik qismlarini kundalik hayotda qanday foydalana olamiz?”

Klaster texnologiyasi: Vizual klaster — bu **ma’lumotlarni yoki tushunchalarni grafik tarzda guruhlash usuli** bo‘lib, asosiy g‘oya yoki tushuncha markazga joylashtiriladi, unga bog‘liq elementlar (atamalar, vazifalar, xususiyatlar) esa atrofga tarqatiladi.

O‘simlik qismlarini vizual klasterlarga joylashtirib, vazifalarini tizimlashtirish – har bir o‘simlik qismi markaziy nuqta sifatida olinadi va uning atrofida vazifalari yozilgan bo‘sh kataklar yoki diagrammalar joylashtiriladi (ildiz, poya, barg, gul). Shu tarzda o‘quvchilar har bir qismining vazifasini vizual tarzda ko‘rib, ularni tizimli ravishda eslab qoladi.

1. **Markaziy nuqtani belgilash:**

Markazga “O‘simlik qismlari” yoki “O‘simlikning asosiy qismlari” yoziladi.

2. **Atrofdagi qismlarni joylashtirish:**

Ildiz, poya, barg, gul kabi asosiy qismlar markaz atrofida joylashadi.

3. **Har bir qismning vazifalarini yozish:**

- Ildiz: suv va minerallarni so‘rib olish, o‘simlikni yerda mahkamlash
- Poya: qismlarni birlashtirish, ozuqa tashish
- Barg: fotosintez, gaz almashinuvi
- Gul: urug‘ hosil qilish, ko‘payish


4. **Vizual elementlardan foydalanish:**

- Rangli markerlar, kartochkalar, rasm yoki diagrammalar yordamida klaster chiziladi
- Chiziqlar yoki o‘q bilan vazifalar markaziy nuqta bilan bog‘lanadi

5. **O‘quvchilar bilan bajarish:**

- Guruhlar bo‘lib, o‘z klasterlarini yaratadi
- Natijada o‘quvchilar **mavzuni vizual tarzda eslab qoladi va tizimli o‘rganadi**

1-rasmda ko‘rsatilgan



(1-rasm)

Aqliy hujum: o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va ularga o‘simlik qismlarining kundalik hayotdagi qo‘llanishi yoki tabiiy hodisalarda roli haqida savollar beriladi. Savollar orqali o‘quvchilar erkin fikrlashga, turli g‘oyalarni taklif qilishga rag‘batlantiriladi. Misol savollar:

-"Agar o‘simlikda barg bo‘lmasa, nima sodir bo‘ladi?"

-"Ildizning suvni so‘rib olishi hayotimizda qanday foyda keltiradi?"

-"Gulning mavjudligi o‘simlik va atrof-muhit uchun qanday ahamiyatga ega?"

Guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan kreativ javoblar sinfda muhokama qilinadi, eng to‘g‘ri javoblar baholanadi va keyingi darslarda mavzular bilan bog‘lanadi;

Didaktik o‘yinlar: mavzu bo‘yicha kartochkalar, rasm va diagrammalar yordamida bilimlarni mustahkamlash;

Didaktik o‘yin qismida foydalaniladigan vositalar (2-rasmda ko’rsatilgan)

1.Kartochkalar

Rasmli kartochkalar: har bir o‘simlik qismi (ildiz, poya, barg, gul) rasm bilan tasvirlangan.

Matnli kartochkalar: vazifalari qisqa va aniq ifodalangan. Masalan: “Fotosintez jarayonini amalga oshiradi” – bu bargga mos keladi.

Moslashtirish o‘yini: o‘quvchilar rasmli kartochkalarni vazifalari yozilgan kartochkalar bilan moslashtiradi.

2.Diagrammalar

Klaster diagrammasi: markazda “O‘simlik qismlari”, atrofida vazifalari joylashtirilgan diagramma. O‘quvchilar diagrammadagi bo‘sh kataklarni to‘ldiradi yoki javoblarni ularni bog‘lab to‘g‘ri tartibga keltiradi.

Chizmalar: o‘simlikning qismlari va ularning vazifalarini ko‘rsatadigan soddalashtirilgan rasmlar.

Rasmlar va illyustratsiyalar

Hayotiy o‘simlik rasmlari, bog‘ yoki tabiatdagi o‘simliklarni ko‘rsatadigan foto tasvirlar.

O‘quvchilar rasm orqali qismlarni aniqlaydi, ularning vazifasini aytadi yoki guruhlarga ajratadi.

O‘yinning amalga oshirilishi

O‘quvchilar guruh bo‘lib ishlaydi.

Har bir guruhga **kartochkalar va diagrammalar to‘plami** beriladi.

Vazifasi: rasm va matnlarni moslashtirish, qismlarning vazifalarini to‘g‘ri aniqlash, va oxirida **guruh natijasini sinf bilan baham ko‘rish**.

Bu metod orqali mavzular **interaktiv va vizual tarzda mustahkamlanadi**.

3.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): interfaol taqdimotlar va multimedia vositalaridan foydalanish orqali mavzuni vizual va interaktiv tarzda tushuntirish.



2-rasm

Darsning borishi va savollari:

✓ **Motivatsiya bosqichi (5 daqiqa):**

- Savol: "Agar o‘simlikning ildizi bo‘lmasa, nima sodir bo‘ladi?"
- Vazifa: o‘quvchilarni izlanishga rag‘batlantirish, muammoli vaziyat yaratish.

✓ **Yangi bilimlarni egallash bosqichi (15 daqiqa):**

➢ Interfaol taqdimot yordamida o‘simlik qismlari tushuntiriladi.

➢ Klaster metodida guruhlar o‘simlik qismlari va vazifalarini tuzadi.

Savollar:

- "Ildizning asosiy vazifasi nima?"
- "Barg nima uchun kerak?"

- "Gulning vazifasi nimada namoyon bo‘ladi?"

✓ **Mustahkamlash bosqichi (10 daqiqa):**

Didaktik o‘yin: o‘quvchilar kartochkalarni moslashtiradi, rasm va diagrammalar asosida qismlarni ajratadi.

Savollar:


- "Boshqa o‘simliklarda bargning vazifasi qanday o‘zgaradi?"
- "Ildiz va poya o‘rtasidagi farq nimada?"

Refleksiya va baholash (5 daqiqa): Savollar: "Bugungi darsda siz eng ko‘p nimalarni o‘rgandingiz?"

Integrativ o‘qitish — bu turli fanlararo bilimlarni birlashtirish orqali yaxlit kasbiy tayyorgarlikni ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayondir. Bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Integrativ o‘qitish jarayonida talabalar nutq buzilishlarini o‘rganishda psixologik, fiziologik va pedagogik jihatlarni kompleks ravishda tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning diagnostik, korreksion va metodik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Masalan, artikulyatsion apparatdagi nuqsonlarni tushuntirishda anatomiya bilimlari, nutq rivojlanishini baholashda psixologik bilimlar, tuzatish ishlarida esa pedagogik texnologiyalar uyg‘un qo‘llaniladi.

Metodoliga. Integrativ o‘qitishning muhim jihatlaridan biri — amaliy mashg‘ulotlarni real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirishdir. Bunda talabalar klinik kuzatuvlar, logopedik mashqlarni modellashtirish, keys-stadi usullari orqali kasbiy faoliyatga tayyorlanadilar. Bu jarayon ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ o‘qitish muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Logoped faoliyati ko‘p tarmoqli bilimlarga tayanganligi sababli, ularni tayyorlash jarayonida turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish zarur. Integrativ yondashuv orqali talabalarda nutq buzilishlarini kompleks tahlil qilish, diagnostika qilish va korreksion ishlarni rejalashtirish kompetensiyalari shakllanadi.

Logoped tayyorlash tizimida, avvalo, pedagogik fanlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, inklyuziv ta’lim asoslari hamda tarbiya nazariyasini o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish talabalarni maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlaydi. Ushbu fanlar integratsiyasi orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish, differensial yondashuvni qo‘llash va korreksion-pedagogik muhit yaratish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Psixologik fanlar integratsiyasi ham logoped kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi. Umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya hamda neyropsixologiya fanlarini uyg‘un o‘qitish orqali talabalar nutq buzilishlarining psixologik mexanizmlarini chuqur anglaydilar. Bu esa bolalarning kognitiv rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuvini hisobga olgan holda korreksion ishlarni tashkil etishga imkon yaratadi.

Tibbiy-biologik fanlar integratsiyasi ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Anatomiya, fiziologiya, nevrologiya va otorinolaringologiya asoslarini logopediya bilan bog‘lab o‘qitish nutq apparati tuzilishi va faoliyatini ilmiy asosda tushunishga yordam beradi. Natijada bo‘lajak logopedlar nutq nuqsonlarining organik va funksional sabablarini aniqlashda aniq bilimlarga ega bo‘ladilar.

Lingvistik fanlar integratsiyasi esa logopedik faoliyatning metodik asosini mustahkamlaydi. Tilshunoslik, fonetika, fonologiya, leksikologiya va grammatika fanlarini logopedik metodika bilan uyg‘unlashtirish nutqni rivojlantirish va tuzatish texnologiyalarini samarali qo‘llash imkonini beradi. Bu integratsiya nutqning barcha komponentlarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ o‘qitish muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Logoped faoliyati ko‘p tarmoqli bilimlarga tayanganligi sababli, ularni tayyorlash jarayonida turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish zarur. Integrativ yondashuv orqali talabalarda nutq buzilishlarini kompleks tahlil qilish, diagnostika qilish va korreksion ishlarni rejalashtirish kompetensiyalari shakllanadi.

Logoped tayyorlash tizimida, avvalo, pedagogik fanlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, inklyuziv ta’lim asoslari hamda tarbiya nazariyasini o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish talabalarni maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlaydi. Ushbu fanlar integratsiyasi orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish,

differensial yondashuvni qo‘llash va korreksion-pedagogik muhit yaratish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Psixologik fanlar integratsiyasi ham logoped kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi. Umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya hamda neyropsixologiya fanlarini uyg‘un o‘qitish orqali talabalar nutq buzilishlarining psixologik mexanizmlarini chuqur anglaydilar. Bu esa bolalarning kognitiv rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuvini hisobga olgan holda korreksion ishlarni tashkil etishga imkon yaratadi.

Tibbiy-biologik fanlar integratsiyasi ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Anatomiya, fiziologiya, nevrologiya va otorinolaringologiya asoslarini logopediya bilan bog‘lab o‘qitish nutq apparati tuzilishi va faoliyatini ilmiy asosda tushunishga yordam beradi. Natijada bo‘lajak logopedlar nutq nuqsonlarining organik va funksional sabablarini aniqlashda aniq bilimlarga ega bo‘ladilar.

Lingvistik fanlar integratsiyasi esa logopedik faoliyatning metodik asosini mustahkamlaydi. Tilshunoslik, fonetika, fonologiya, leksikologiya va grammatika fanlarini logopedik metodika bilan uyg‘unlashtirish nutqni rivojlantirish va tuzatish texnologiyalarini samarali qo‘llash imkonini beradi. Bu integratsiya nutqning barcha komponentlarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar va amaliy metodika fanlarini integrativ o‘qitish muhim hisoblanadi. Raqamli resurslar, logopedik dasturlar va interaktiv platformalardan foydalanish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi. Turli fanlarning integrativ o‘qitilishi bo‘lajak logopedlarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy kasbiy sifatlarini bir butun tizim sifatida rivojlantiradi. Bu esa yuqori malakali, kompleks fikrlay oladigan va zamonaviy pedagogik talablar asosida ishlay oladigan logoped mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Natijalar. Bo‘lajak logopedlarni tayyorlash jarayonida integrativ o‘qitish shakllari kasbiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi. Integrativ o‘qitish shakllari nazariy bilimlar, amaliy faoliyat va shaxsiy rivojlanishni yagona tizimda birlashtirishni nazarda tutadi. Logopedik ta’limda quyidagi integrativ shakllar samarali hisoblanadi.

Avvalo, binar mashg‘ulotlar integrativ o‘qitishning keng qo‘llaniladigan shaklidir. Bunda ikki yoki undan ortiq fan o‘qituvchilari hamkorlikda dars olib boradi. Masalan, logopediya va psixologiya, anatomiya va nutq fiziologiyasi, maxsus pedagogika va metodika fanlari birlashtiriladi. Binar mashg‘ulotlar talabalarni muammoni turli ilmiy nuqtai nazardan ko‘ra olishga o‘rgatadi.

Ikkinchi muhim shakl — integrativ amaliy mashg‘ulotlar. Bu shaklda nazariy bilimlar real pedagogik vaziyatlar bilan bog‘lanadi. Talabalar logopedik diagnostika, korreksion mashqlarni tuzish, individual rivojlantiruvchi dasturlar yaratish orqali kasbiy tajriba orttiradi. Amaliy mashg‘ulotlar klinik kuzatuv, trening va laboratoriya ishlari bilan boyitiladi.

Keys-stadi (vaziyatli tahlil) ham integrativ o‘qitishning samarali shakllaridan biridir. Talabalar real yoki modellashtirilgan nutq nuqsoni holatlarini tahlil qilib, muammoni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu shakl analitik fikrlash, diagnostik kompetensiya va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish integrativ yondashuvni kuchaytiradi. Talabalar guruhlarda ishlagan holda logopedik dasturlar, metodik qo‘llanmalar yoki rivojlantiruvchi mashg‘ulot loyihalarini yaratadilar. Bu jarayon fanlararo bilimlarni amaliy natijaga aylantirish imkonini beradi.

Trening va simulyatsion mashg‘ulotlar esa kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantiradi. Rolli o‘yinlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, ota-onalar bilan ishlashni sahnalashtirish orqali talabalar kasbiy muloqot madaniyatini o‘zlashtiradi.

Zamonaviy ta’limda raqamli integrativ o‘qitish shakllari ham muhim o‘rin tutadi. Onlayn platformalar, multimedia resurslar va logopedik dasturlardan foydalanish nazariya va amaliyotni virtual muhitda uyg‘unlashtiradi.

Integrativ o‘qitish shakllari bo‘lajak logopedlarni ko‘p qirrali kasbiy faoliyatga tayyorlaydi, ularda kompleks fikrlash, amaliy muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvni shakllantiradi. Bu esa zamonaviy logoped tayyorlash tizimining muhim pedagogik sharti hisoblanadi.Shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar va amaliy metodika fanlarini integrativ o‘qitish muhim hisoblanadi. Raqamli resurslar, logopedik dasturlar va interaktiv platformalardan foydalanish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi.

Xulosa. Shunday qilib, turli fanlarning integrativ o‘qitilishi bo‘lajak logopedlarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy kasbiy sifatlarini bir butun tizim sifatida rivojlantiradi. Bu esa yuqori malakali, kompleks fikrlay oladigan va zamonaviy pedagogik talablar asosida ishlay oladigan logoped mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.Shuningdek, integrativ yondashuv axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ham nazarda tutadi. Multimedia resurslari, logopedik dasturlar va interaktiv platformalar orqali o‘qitish talabalar kompetensiyalarini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integrativ o‘qitish bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik shart hisoblanadi. U nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirib, talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Natijada logoped mutaxassislar kompleks fikrlay oladigan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llay oladigan va individual yondashuvga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Luriya A.R. Oliy nerv faoliyati va nutq buzilishlari. – Moskva: MGU, 2002.
2. Ayupova M.Yu. Logopediya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Po‘latov Sh., Yo‘ldoshev J. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2014.

4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.

5. Xamidov X. Maxsus pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.

6. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Logos, 2004.

7. Selevko G.K. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998.

8. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 37.013:004
ORCID: 0009-0006-1251-7789

INTEGRALLASHGAN RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHI KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.090

Umarova Fotima Abduraximovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti doktoranti, p.f.f.d.(PhD), dotsent
e-mail: umarova.fotima87@gmail.com,
tel: (90) 345-27-86

Annotatsiya. Mazkur maqolada integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy modeli ishlab chiqiladi va tahlil qilinadi. Jahon ta’lim tizimida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga oid mavjud yondashuvlar o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida raqamli ta’lim muhitini samarali tashkil etish, o‘qituvchilarning pedagogik, texnologik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Tadqiqot tahliliga ko‘ra muammo sifatida raqamli savodxonlikning yetarli emasligi, ta’lim platformalaridan fragmentar foydalanish, pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasining sustligi aniqlanadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda uchrayotgan muammolar ham ularni bartaraf etish yo‘llari yoritildi. Tadqiqot natijasida integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan modelning nazariy asoslari ishlab chiqiladi va uning samaradorligini ta’minlovchi omillar aniqlandi. Taklif etilgan model ta’lim muassasalarida amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, o‘qituvchi kompetensiyasi, integratsiya, pedagogik model, raqamli pedagogika, raqamli transformatsiya, innovatsion ta’lim, AKT, kasbiy rivojlanish, onlayn ta’lim, innovatsiya.

Аннотация.В данной статье разрабатывается и проводится анализ современной модели развития компетенций учителей в интегрированной цифровой образовательной среде. Рассматриваются научные исследования, проводимые в мировой системе образования, процессы цифровой трансформации, а также существующие подходы к формированию цифровых компетенций педагогов. В процессе исследования проанализированы факторы, влияющие на эффективную организацию цифровой

образовательной среды, а также на развитие педагогических, технологических и коммуникативных компетенций учителей. Результаты анализа показали, что основными проблемами являются недостаточный уровень цифровой грамотности педагогов, фрагментарное использование образовательных платформ, а также недостаточная интеграция педагогических технологий и информационно-коммуникационных технологий. Кроме того, в статье рассматриваются проблемы, возникающие при интеграции современных цифровых технологий в образовательный процесс, а также предлагаются пути их решения. В результате исследования разработаны теоретические основы модели развития компетенций учителей в интегрированной цифровой образовательной среде и определены факторы, обеспечивающие её эффективность. Предлагаемая модель рекомендуется для внедрения в практику образовательных организаций.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, компетентность преподавателей, интеграция, педагогическая модель, цифровая педагогика, цифровая трансформация, инновационное образование, ИКТ, профессиональное развитие, онлайн-образование, инновации.

Annotation. This article presents and analyzes a modern model for the development of teacher competencies in an integrated digital educational environment. The study examines current research conducted within the global education system, the processes of digital transformation, and existing approaches to the formation of teachers’ digital competencies. The research analyzes factors influencing the effective organization of a digital educational environment and the development of teachers’ pedagogical, technological, and communicative competencies. The analysis identifies several key challenges, including insufficient digital literacy, fragmented use of educational platforms, and weak integration of pedagogical technologies with information and communication technologies.

Furthermore, the article discusses the challenges associated with integrating modern digital technologies into the educational process and proposes possible solutions. As a result of the study, the theoretical foundations of a model for developing teachers’ competencies within an integrated digital educational environment were established, and the factors ensuring its effectiveness were identified. The proposed model is recommended for practical implementation in educational institutions.

Key words: digital learning environment, teacher competence, integration, pedagogical model, digital pedagogy, digital transformation, innovative education, ICT, professional development, online education, innovation.

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal rivojlanib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan o‘zgartirib, yangi pedagogik yondashuvlar va innovatsion o‘quv muhitlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, integrallashgan raqamli ta’lim muhitini yaratish va unda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini

rivojlantirish bugungi kunda global miqyosda muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning raqamli, pedagogik hamda kommunikativ kompetensiyalariga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlarda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan turli konsepsiyalar va modellardan foydalanilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmaganligi, raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarining yetishmasligi hamda integrallashgan raqamli ta’lim muhitini tashkil etishda tizimli yondashuvlarni yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kabi muammolar mavjud.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘lsada, integrallashgan raqamli ta’lim muhitida ularni kompleks tarzda rivojlantirishga qaratilgan samarali modellarni ishlab chiqish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu esa ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va uning nazariy-metodik asoslarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Integrallashgan raqamli ta’lim muhitining nazariy asoslarini o‘rganish;
- O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish;
- Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;
- Integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

DOLZARBLIGI.

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni, ayniqsa integrallashgan raqamli ta’lim muhitini shakllantirishni talab etmoqda. Bunday muhitda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish to’lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni joriy etish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta’lim tizimida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va

ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Biroq ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali integratsiya qilish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, pedagogik mahorati hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalari yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi zarur.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va uning metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, raqamli pedagogika va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli asosida keng tahlil qilingan. Ushbu model pedagogik, texnologik va predmet bilimlarining integratsiyasini ta’lim jarayonida samarali qo‘llashga qaratilgan.

Shuningdek, Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur model o‘qituvchilarning professional faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli ta’lim mohitining samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmlari hamda raqamli platformalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil sifatida qayd etilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham ta’lim tizimini raqamlashtirish, raqamli pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Biroq integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishning kompleks modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODLARI.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- ✓ **tahlil va sintez metodi** – ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar hamda nazariy manbalarni o‘rganish va umumlashtirish uchun;
- ✓ **qiyosiy tahlil metodi** – xorijiy va mahalliy tajribalarni solishtirish uchun;
- ✓ **pedagogik kuzatuv metodi** – ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish holatini o‘rganish uchun;
- ✓ **modellashtirish metodi** – integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish uchun;
- ✓ **tizimli yondashuv metodi** – o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini kompleks tahlil qilish uchun;
- ✓ **statistik ma’lumotlarni tahlil qilish** – tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish, ularni miqdoriy tahlil qilish hamda natijalarni jadval va diagrammalar orqali umumlashtirish uchun.

Ushbu metodlar integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslarini aniqlash hamda uning samarali modelini ishlab chiqishga xizmat qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarga asoslanadi. Tizimli yondashuv orqali integrallashgan raqamli ta’lim muhitining tarkibiy qismlari hamda ularning o‘zaro aloqalari tahlil qilindi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan.


Integrativ yondashuv esa pedagogik, texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoning nazariy asoslarini o‘rganish
2. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish
3. Integrallashgan raqamli ta’lim muhitining tarkibiy qismlarini aniqlash
4. O‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish.

MODEL SXEMASI.

Integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish modeli quyidagi tarkibiy komponentlardan tashkil topadi.



1-rasm. Integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish modeli quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

1. Maqsadli komponent

- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish;
- ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni ta’minlash

2. Mazmuniy komponent

- pedagogik kompetensiya
- raqamli kompetensiya
- kommunikativ kompetensiya
- metodik kompetensiya

3. Texnologik komponent

- raqamli platformalar
- onlayn ta’lim vositalari
- interaktiv metodlar
- multimedia texnologiyalari

4. Natijaviy komponent

- o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi
- ta’lim jarayonining samaradorligi oshishi
- raqamli ta’lim muhitining takomillashuvi

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tadqiqot jarayonida integrallashgan raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha olingan natijalar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar ekanligi aniqlandi:

№	Kompetensiya turi	Ta’sir darajasi
1.	Raqamli savodxonlik	yuqori
2.	Pedagogik mahorat	yuqori
3.	Axborot texnologiyalaridan foydalanish	o‘rta
4.	Innovatsion metodlardan foydalanish	yuqori

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, integrallashgan raqamli ta’lim muhitidan foydalanish o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga, ta’lim jarayonining interaktivligini oshirishga hamda o‘qituvchilarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi.

Integrallashgan raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish o‘qituvchilarning pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan model o‘qituvchilarning raqamli pedagogik va kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari surildi:

- o‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus trening dasturlarini tashkil etish;
- ta’lim muassasalarida integrallashgan raqamli ta’lim muhitini yaratish;
- pedagogik faoliyatda zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge Framework – New York.: Routledge Publishing, 2006. – 101 bet.

2. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers – Paris.: UNESCO Publishing, 2018. – 64 bet.

3. Bates A. Teaching in a Digital Age – Vancouver.: Tony Bates Associates, 2019. – 520 bet.

4. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning – Edmonton.: Athabasca University Press, 2017. – 472 bet.

5. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va uni rivojlantirish – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2015. – 180 bet.

6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar – Toshkent.: Fan, 2017. – 224 bet.

7. Xodjayev B.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent.: Tafakkur, 2020. – 210 bet.

8. Umarova F.A. Methodology of training students in design and modeling of clothes using information communication technologies – Revista Geintec-Gestao Inovacao E Tecnologias 11 (2), 749-755

9. Umarova F.A., Umarova Z.A., Umarov X.A. Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process – European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 7 (12)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARINING JISMONIY TARBIYA TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIGI SIFATIGA TA’SIRI.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.091

G. R. Muratova
Qo‘qon davlat universiteti professori v.b.
muratovagulnora4@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining jismoniy tarbiya yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligi sifatiga ta’siri ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta’lim muhitida VR va AR vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, harakat texnikasini o‘rgatish va takomillashtirishdagi samaradorligi hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli o‘rganildi.

Pedagogik tajriba jarayonida nazorat va tajriba guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilinib, VR/AR asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, biomekanik tahlil qilish qobiliyati va motivatsiya darajasini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, virtual simulyatsiyalar va interaktiv modellar jismoniy mashqlar texnikasini chuqurroq anglash, xatolarni tezkor aniqlash va individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Xulosa sifatida, VR va AR texnologiyalarini jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning samarali innovatsion vositasi ekanligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), raqamli ta’lim, jismoniy tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogik tajriba, ta’lim sifati, interaktiv simulyatsiya.

Kirish. Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport sohasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari o‘quv jarayonini vizuallashtirish, harakat texnikasini chuqur tahlil qilish hamda amaliy ko‘nikmalarni samarali shakllantirish imkonini beradi. Shu bois mazkur maqolada VR va AR texnologiyalarining jismoniy tarbiya talabalari kasbiy tayyorgarligi sifatiga ta’siri ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o‘rganiladi.

Tadqiqot usuli. Mazkur tadqiqotda jismoniy tarbiya talabalari kasbiy tayyorgarligi sifatiga virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining ta’sirini aniqlash maqsadida quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

Ilmiy-nazariy tahlil – muammo bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish.

Pedagogik kuzatuv – o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida VR/AR texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini monitoring qilish.

So‘rovnoma va test sinovlari – talabalarning nazariy bilimlari, kasbiy kompetensiyalari va motivatsiya darajasini aniqlash.

Pedagogik tajriba – nazorat va tajriba guruhlari ishtirokida VR/AR asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.

Matematik-statistik tahlil – olingan natijalarni qayta ishlash va ishonchlilik darajasini aniqlash.

Mazkur metodlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va obyektivligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. Pedagogik tajriba jarayonida virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jismoniy tarbiya talabalari kasbiy tayyorgarligi sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Tajriba guruhi natijalari nazorat guruhi ko‘rsatkichlari bilan qiyoslanganda quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

- talabalarning nazariy bilimlari darajasi sezilarli oshdi; test natijalarida yuqori ko‘rsatkich qayd etildi;
- amaliy ko‘nikmalar va harakat texnikasini bajarish aniqligi yaxshilandi;
- harakatlarni biomehanik tahlil qilish qobiliyati rivojlandi;
- mashg‘ulotlarga nisbatan motivatsiya va qiziqish darajasi ortdi;
- individual xatolarni tezkor aniqlash va tuzatish imkoniyati kengaydi.

Statistik tahlil natijalari tajriba guruhida o‘zgarishlarning ishonchli ekanligini ko‘rsatdi ($p<0,05$). Bu esa VR va AR texnologiyalarining jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash jarayonida samarali innovatsion vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Munozara. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish jismoniy tarbiya talabalari kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining sezilarli oshishi VR/AR vositalarining vizualizatsiya, interaktivlik va tezkor teskari aloqa berish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Shuningdek, VR asosidagi simulyatsiyalar murakkab harakat elementlarini xavfsiz va takroriy mashq qilish imkonini berib, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi. AR texnologiyalari esa real muhitda qo‘shimcha axborot qatlamini yaratib, texnik xatolarni aniqlash va tuzatishda samarali vosita bo‘lib xizmat qildi. Bu esa o‘qitish jarayonining individuallashtirilishini ta’minladi.

Biroq tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham kuzatildi: texnik jihozlarning yetarli emasligi, dasturiy ta’minot bilan ishlash ko‘nikmalarining pastligi hamda ayrim talabalarning dastlabki moslashuv qiyinchiliklari. Shu bois VR/AR texnologiyalarini keng joriy etishda

pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, olingan natijalar VR va AR texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya sohasida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning istiqbolli va samarali yo‘nalishi ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiya. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari jismoniy tarbiya talabalari kasbiy tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshiradi. VR/AR vositalari:

- nazariy bilimlarni mustahkamlash,
- harakat texnikasini mukammallashtirish,
- biomekanik tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish,
- motivatsiya va mashg‘ulotlarga qiziqishni oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, pedagogik jarayonning interaktivligi va individual yondashuvni ta’minlashda VR/AR texnologiyalari samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tavsiyalar:

1. Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida o‘quv jarayoniga VR va AR texnologiyalarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish.
2. Talabalarni ushbu texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari bilan tanishtirish va ularni tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv modullarini joriy etish.
3. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va o‘quv jarayonida texnik jihozlar bilan samarali ishlash bo‘yicha seminar va treninglar tashkil etish.
4. VR/AR texnologiyalarining ta’lim sifatiga ta’sirini doimiy monitoring qilish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish, jismoniy tarbiya yo‘nalishida bo‘lajak pedagoglarning professional malakasini zamonaviy talablarga moslashtirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2016). *NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition*. Austin, TX: The New Media Consortium.
2. Mikheeva, N. V. (2019). *Primenenie VR/AR tekhnologiy v obuchenii fizicheskomu vospitaniyu*. Vestnik pedagogiki, 3(45), 56–63.
3. Radianti, J., Majchrzak, T. A., Fromm, J., & Wohlgenannt, I. (2020). *A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: Design elements, lessons learned, and research agenda*. Computers & Education, 147, 103778.
4. Муратова, Г. Р. "К вопросу инновационного подхода к процессу физического воспитания в вузе." *Репозиторий открытого доступа* 8 (2022): 371-374.
5. Wang, P., Wu, P., Wang, J., Chi, H. L., & Wang, X. (2018). *A critical review of the use of virtual reality in construction engineering education and training*. International Journal of Environmental Research and Public Health, 15(6), 1204.

6.Zhang, Y., & Lu, X. (2021). *Enhancing students' learning motivation and performance in physical education using augmented reality technology*. Journal of Educational Technology & Society, 24(2), 12–25.

7. Muratova, G. R. "FORMATION OF A DIGITAL CULTURE OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS." *Research Focus* 4.11 (2025): 108-111.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ГЛОБАЛИЗАЦИОННЫЕ И ЛОКАЛИЗАЦИОННЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ЯЗЫКОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕНДЕНЦИИ, ПРОТИВОРЕЧИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.092

Айткулова Гулжавхар Шекербаевна
Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы
Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий
Email: guljavxaraitkulova@gmail.com
https://orcid.org/0000-0002-6140-5859

Аннотация. В статье осуществляется комплексный анализ трансформационного воздействия процессов глобализации и локализации на систему языкового образования в условиях современного социокультурного пространства. Рассматриваются теоретико-методологические подходы к взаимодействию глобальных и локальных тенденций, а также их влияние на цели и организационные модели обучения. Особое внимание уделено роли английского языка как лингва франка и проблематике сохранения национальных языков. На основе анализа международного опыта и образовательных реформ в Узбекистане выявляются вызовы, обусловленные противоречием между унификацией практик и защитой культурной идентичности. Обосновываются стратегии модернизации образования, ориентированные на баланс глобальных и локальных парадигм.

Ключевые слова: глобализация, локализация, глокализация, языковое образование, многоязычие, лингва франка, межкультурная компетенция, образовательная политика.

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the transformational impact of globalization and localization processes on the language education system within the contemporary socio-cultural space. It examines the leading theoretical and methodological approaches to interpreting the interaction between global and local trends in language teaching and learning, as well as their influence on the goals, content, and organizational models of language education.

Special attention is paid to the functional role of English as a global **lingua franca** facilitating international communication, and to the challenges of preserving, supporting, and developing national and regional languages in the educational environment amidst intensifying globalization.

Based on a comparative analysis of international experience and **educational reforms in Uzbekistan**, the study identifies key challenges arising from the contradiction between the unification of educational practices and the need to maintain linguistic and cultural diversity. The author substantiates priority strategies for modernizing language education, focused on the development of multilingualism, intercultural competence, and a balance between global and local educational paradigms (glocalization).

Keywords: globalization, localization, glocalization, language education, multilingualism, lingua franca, intercultural competence, educational policy.

Введение.Понятия многоязычия и языковой гибкости приобрели ключевое значение в современных исследованиях, связанных с глобализацией, локализацией и глокализаций. Расширение контактов между культурами требует новых подходов к пониманию языкового поведения, языковой идентичности и языкового образования. Возникают вопросы: как соотносятся индивидуальные языковые репертуары с национальной языковой политикой? Каков статус миноритарных языков в условиях доминирования глобальных лингва франка?

Процессы глобализации оказывают значительное влияние на все сферы общественной жизни, включая систему образования. Языковое образование, являясь одним из важнейших инструментов формирования культурной идентичности и межкультурной коммуникации, оказывается в центре противоречия между унификацией и сохранением национальной самобытности.

Методология. Исследование носит теоретико-аналитический характер. Информационную базу составили научные публикации за 2010–2025 гг., отчеты ЮНЕСКО, а также нормативно-правовая база Республики Узбекистан, включая:

Указ Президента УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране»;

Постановление Президента ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков»;

Постановление Президента ПП-308 (от 20.10.2025) «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка».

Основными методами выступили сравнительно-сопоставительный анализ международного опыта и системный анализ национальных педагогических практик по внедрению билингвальных и транслингвальных подходов в условиях реализации стратегии **«Узбекистан — 2030».**

Глобализация и языковое образование. Глобализация оказывает комплексное воздействие на языковое образование. Наиболее заметным является укрепление позиций английского языка как глобального лингва франка. Его знание становится необходимым условием академической и профессиональной мобильности. Доминирование английского языка в университетских рейтингах Узбекистана и академических публикациях узбекских учёных формирует новые стандарты качества образования. Многие вузы переходят на преподавание ключевых дисциплин на

английском языке. Одним из примеров для наших вузов является Сингапур, где английский язык используется как основной язык обучения, в то время как государство поддерживает изучение китайского (мандаринского), малайского и тамильского языков как «второго языка» для учащихся, что позволяет сохранять культурное наследие и развивать двуязычие в стране

С одной стороны, такая политика способствует интеграции в мировое образовательное пространство. С другой — создаёт риски для сохранения национальных языков, чьё использование постепенно сокращается в академической среде.

Локализация и сохранение национальных языков. Локализация направлена на сохранение и поддержку национальных языков как основы культурной идентичности. Многие государства реализуют программы по двуязычному и многоязычному образованию, в которых родной язык учащихся сохраняет приоритетное значение. В Европе активно поддерживаются региональные и миноритарные языки. Например, в Испании каталонский и баскский языки используются в школах наряду с испанским, что способствует сохранению региональной идентичности.

Взаимодействие глобализации и локализации. Современное языковое образование развивается в условиях одновременного действия глобальных и локальных факторов. Взаимодействие этих процессов проявляется в формировании гибридных образовательных моделей. Показателен канадский опыт: в стране действуют программы билингвального образования, обеспечивающие равный статус английского и французского языков. Одновременно Канада развивает обучение иностранным языкам, что делает систему гибкой и открытой. В Казахстане реализуется программа «Триединство языков», предполагающая владение казахским как государственным, русским как языком межнационального общения и английским как языком международной интеграции. Это яркий пример сочетания глобализационных и локальных факторов.

Результаты. Образовательная политика Узбекистана. Практика и стратегия. В Узбекистане процессы глобализации и локализации в языковом образовании начали активно переплетаться с первых лет независимости, но качественный скачок и системное оформление произошли в 2012 году.

Процесс развивался по трем ключевым этапам:1. Начало: Самоопределение и первый опыт (1991–2011). 1989–1991 гг.: С принятием закона «О государственном языке» (21 октября 1989 г.) приоритетом стала локализация — укрепление статуса узбекского языка как государственного. 1997 г.: Принята «Национальная программа по подготовке кадров» (NPPT), которая заложила основы современной системы образования.

Глобализация: В этот период начали открываться первые филиалы иностранных вузов (например, Вестминстерский университет в Ташкенте в 2002 г.), что стало каналом проникновения международных образовательных стандартов.

2. Системная реформа: Курс на английский (2012–2020). Переломным моментом стало Постановление Президента № ПП-1875 от 10 декабря 2012 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков».

Как это началось: Изучение английского языка стало обязательным с 1-го класса (ранее — с 5-го). Пример «Глокализации»: Был разработан УМК «Kids’ English» (2013–2016 гг.). Это яркий пример локализации глобального контента: методика преподавания соответствовала мировым стандартам, но учебники содержали местные имена (Азиз, Севара), узбекские реалии и культурный контекст.

Стандартизация: Внедрение уровней CEFR (A1–C2) как единой шкалы оценки знаний для учащихся и учителей.

3. Современный этап: Популяризация и цифровизация (с 2021 г.) Принято Постановление № ПП-5117, которое подняло изучение иностранных языков на «качественно новый уровень». Было создано Агентство по популяризации изучения иностранных языков.

Интеграция: Массовое внедрение международных сертификатов (IELTS, TOEFL, CEFR) для поступления в вузы и получения надбавок учителями.

Перспектива: С 1 марта 2026 года для иностранных граждан вводятся экзамены на владение узбекским языком по критериям CEFR (уровни A1–B1), что завершает цикл адаптации международных стандартов под нужды национального языка. в Узбекистане глобализация (английский язык) не вытесняет локализацию, а идет параллельно с укреплением статуса государственного языка (введение сертификатов по узбекскому языку по системе CEFR).

«Анализ опыта Республики Узбекистан демонстрирует успешный синтез глобализационных и локализационных процессов в языковом образовании. Переход на международные стандарты CEFR (согласно ПП-1875) и массовое внедрение системы международных сертификатов (IELTS, TOEFL) подтверждают стремление к интеграции в мировое образовательное пространство (глобализация). В то же время, адаптация учебных программ под национальный культурный контекст (проект «Kids’ English») и внедрение квалификационных требований к знанию узбекского языка как государственного (система C-TEST) свидетельствуют о сохранении этнокультурной идентичности (локализация). Таким образом, узбекская модель развития языковой политики реализует принцип глокализации, обеспечивая конкурентоспособность кадров при сохранении национального суверенитета в образовательной сфере».

Обзор литературы. В научной литературе выделяются разные подходы к оценке влияния глобализации и локализации на языковое образование, так британский филолог, языковед **Дэвид Кристал** 2003 году в своей работе подчёркивает ведущую роль английского языка как глобального средства коммуникации. Он объясняет это явление совокупностью факторов, среди которых — историческое наследие Британской империи, влияние американской культуры и экономики, бурное развитие и распространение цифровых технологий, интернета и средств массовой коммуникации, а также процессы глобализации. Все эти элементы укрепили статус английского языка

как основного инструмента международного общения, объединяющего представителей различных стран и культур [6].

Шотландский ученый и профессор, основоположник концепции «языковой империализм» **Роберт Генри Лоуренс Филлипсон (2009)** в своей работе критикует глобализацию английского языка, называя этот процесс «лингвистическим империализмом». Он рассматривает это явление как навязывание одного языка носителям других языков, что приводит к подрыву и даже исчезновению местных языков. Филлипсон вводит понятие лингвистического империализма для описания того, как один язык доминирует над другими, приводя в качестве примера глобальное распространение английского языка [7].

- **Бернард Спольски (2004)** рассматривая языковые практики, убеждения и управление социальными группами – от семей до наднациональных организаций – он разрабатывает теорию современной национальной языковой политики и основных факторов, определяющих её, таких как потребность в эффективной коммуникации, давление национальной идентичности, привлекательность (и сопротивление) английского языка как глобального языка и растущая обеспокоенность по поводу прав человека и гражданина, поскольку они посягают на язык. подчеркивает необходимость сбалансированной языковой политики, учитывающей локальные особенности [12].
- Также значимы исследования **Давлатовой (2025)**, рассматривающей транслингвизм в школах Узбекистана[8], и **Рузиматовой и Содиқовой (2025),** которые показывают эффективность смешанных языковых стратегий в преподавании английского языка[12].

Заключение. Таким образом, научный дискурс подтверждает: глобализация и локализация в языковом образовании не противостоят друг другу, а формируют условия для развития многоуровневых образовательных моделей. Глобализация и локализация оказывают разнонаправленное, но взаимодополняющее влияние на языковое образование. Глобализация обеспечивает доступ к мировым знаниям и международной коммуникации, тогда как локализация сохраняет национальное культурное наследие и поддерживает языковое разнообразие. Эффективное языковое образование в современных условиях возможно только при учёте взаимодействия этих процессов. Наибольшего успеха достигают образовательные системы, где глобальные тенденции интегрированы с национальными стратегиями и поддержкой многоязычия. Эти примеры подчеркивают, что современное образование должно быть адаптивным, гибким и культурно чувствительным.

Список литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года № ПП-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» // Собрание законодательства Республики Узбекистан. — 2012. — № 50. — ст. 559.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» // Национальная база данных законодательства (Lex.uz).

3. Закон Республики Узбекистан «О государственном языке» (в редакции от 21 декабря 1995 года) // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. — 1995. — № 12. — ст. 257.

4. Бломмарт, Дж. (2010). Социолингвистика глобализации. Cambridge University Press.

5. Канагаражах, С. (2013). Транслингвальная практика: глобальные англичане и космополитические отношения. Раутледж.

6. Кристалл, Д. (2003). Английский как глобальный язык. Cambridge University Press.

9. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 295-298.

10. Jurahojaev, M. K. O. (2022). MECHANISMS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF INDIVIDUAL HOME EDUCATION FOR THE DISABLED CHILDREN. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *2022*(3), 171-180.

11. Jo‘raxo‘jayev, M. X. Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda yakka tartibdagi talimi samaradorligini oshirish mexanizmlari: Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. *Jizzax–2023.–36-bet*.

12. Jo‘raxo‘jayev, M. X. (2022). Uyda yakka tartibdagi ta’lim o ‘qituvchisining portreti/“Tilni o ‘qitish va o ‘rganishda XXI asr ko ‘nikmalari” III xalqaro anjuman materiallari.

13. M.A. Imijonova. Og‘ir nutq nuqsonli bolalar. Best journal of innovatsio science,research and development ISSN: 2835-3579 Volume:3 Issue:10 2024. 311-315 betlar.

14. M. A. Imijonova. Dizartiriya nutq kamchiligini bartaraf etishda didaktik o‘yinlarning ahamyati. Universal International Sciencetifle Journal e-ISSN: 3060-4540(online) Year:2025 Issue: 2 Volume. 71-75 betlar

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALARDA O‘QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.096

Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ***N.M.Ashurova***.

Annotasiya. Mazkur maqolada kredit-modul tizimini o‘quv faoliyatida tavsiflovchi xorijiy va mahalliy pedagogik va uslubiy adabiyotlarni o‘rganish asosida ushbu fikrlarni aytishimiz mumkinki, “modul” atamasi hali o‘zbek tilida pedagogik muhitda keng qo‘llanilmagan va bu atamaning ingliz tilidagi talqini pedagogik tizimlarni qurish amaliyoti uchun to‘liq tushuncha bermaydi va bu tushunchani ma’no jihatidan o‘xshash atamalardan ajratishni ta’minlamaydi shu sababli mazkur maqolani bayon yetib muammoning yechimini aniqlaymiz.

Kalit so‘zlar. Modulli, muammo, kredit, didaktik, mahalliy , pedagogic, xorijiy, ingliz, Boloniy, tamoyil.

Annotation. This article describes in detail the Credit-module system, and first of all, it introduces a more advanced, modern, but convenient for everyone unit of measurement of education into the higher education system of our country. According to it, the educational programs of higher educational institutions are divided into various subjects and modules that provide for certain learning outcomes. Each subject or module is reflected in a certain number of credits depending on the amount of study load in it. For example, each subject can be reflected in 5, 6 or 7.5 credits. The student must pay a certain number of credits each semester, academic year, and after collecting the appropriate number of credits, he will be awarded a bachelor's or master's degree.

Keywords. Students, credit, urgent, problem, advanced, modern, current, modular, educational, programs.

Примечание. В данной статье подробно описывается кредитно-модульная система и, прежде всего, вводится более продвинутая, современная, но доступная для всех образовательная единица измерения в систему высшего образования нашей страны. Согласно ей, образовательные программы высших учебных заведений делятся на различные дисциплины и модули, обеспечивающие определенные образовательные результаты. Каждая дисциплина или модуль отражается в определенном количестве кредитов, в зависимости от объема учебной нагрузки в ней. Например, каждая дисциплина может отражаться в 5, 6 или 7,5 кредитах. Студент должен оплатить определенное количество кредитов каждый семестр, учебный год, и после накопления

соответствующего количества кредитов ему присваивается степень бакалавра или магистра.

Ключевые слова. Студенты, кредит, актуальная, проблематическая, продвинутая, современная, актуальная, модульная, образование, программы.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

P.A. Jucevicienening so‘zlariga ko‘ra, “modul – bu o‘quv materialining mantiqiy to‘ldirilgan birligini, maqsadli harakatlar dasturini va belgilangan maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan uslubiy rahbarlikni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar blokidir”. Bu talab klassik tilshunoslarining asarlarida tasvirlangan - M.V. Lyaxovitskiy, E.V. Roshchina va boshqalar universitet ta’limini amaliyotga yo‘naltirilgan muhitga imkon qadar yaqinlashtirishni talab qiladi. 1980-yillarning boshlarida T.Xatchinson ingliz tilini professional muloqot til sifatida o‘qitishda “ta’lim jarayoniga yo‘naltirilgan” yondashuvni taklif qilgan. I.N.Aynutdinova fikriga ko‘ra, kredit-modul tizimida nofilologik OTMlarda xorijiy til o‘quv predmetining ijtimoiy maqomi va salohiyatini yuzaga chiqarish hamda muhandislik kasbga yo‘naltirish jihatidan xorijiy til o‘qitish mazmunini jadallashtirish chet el madaniyatini anglashga katta imkoniyatlar ochib beradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xorijiy tilda muloqot insonlar bir-biri bilan so‘zlashishi, ilmiy-kasbiy muloqotni talab etadi. Jumladan, jamoatchilik va shaxslararo kasbiy muloqot darajalari xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: ilmiy ma’ruzalar, xat yozish, anjumanlardagi muloqot, turli-tuman monolog, keltirish joizdir, dialoglar shaklidagi ilmiy-kasbiy muloqotni og‘zaki amalga oshirish; ishbilarmonlik muloqoti, ish bo‘yicha suhbat, kelishuv, mubohasa va boshqalar og‘zaki almashish qilish, ilmiy-kasbiy nutq; mutaxassislikning ichki tomonini o‘rganish, umumqo‘llanuvchi, umumm ilmiy, terminologik leksika, grammatika, o‘qish va yozuv uchun o‘rganish zarur.


L.K.Ilyevaning “Uzluksiz ta’limda chet tildan o‘quv-metodik ta’minot: nazariya va amaliyot” nomli monografiyasida quyidagi fikr-mulohazalar ilgari suriladi: “Xorijiy til o‘qituvchisi hal etadigan murakkab vazifa muloqotni uyushtirish hisoblanadi. Muloqot yuritish uchun qulay sharoit bo‘lishi, nutq vaziyatni yaratish zarur mavzular, muammolar tanlash zarur. Bundan tashqari, xorijiy til o‘rganishda motivatsiyaning mavjudligi, doimiy qiziqishni saqlash, talabalarning muloqotini boshqarish, nazorat qilish, rag‘batlantirish va baholash talab etiladi. Shaxsning shakllanishi uchun faoliyatining muhimligi! L.S.Vygotskiy, V.V.Davydov, A.N.Leontyevning tadqiqot ishlarida ochib berilgan. Faoliyatni mazkur tadqiqot uchun yaxlit jarayon sifatida taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadiI.G.Galperin o‘z ta’riflarida, faoliyatni haqiqatni o‘zlashtirish usuli sifatida tayin qilib, uning quyidagi bir qator turlarini ajratadi: bilishga asoslangan, qayta quruvchi, maqsadga yo‘naltirilgan, faoliyati kabilar.

MULOHAZALAR

O‘quv faoliyatini kredit-modul tizimida tashkil etish masalasini bir necha sabablarga ko‘ra ko‘rib chiqadi. 1) Modulli tamoyilga asoslangan ta’lim tizimiga o‘tish va talabalarning ta’lim yutuqlarini baholash kreditlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Kredit-modulli tizim Boloniya deklaratsiyasida Boloniya jarayonida ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan tamoyillardan biri sifatida belgilangan. 2) Modulli yondashuv ta’lim jarayonini

demokratlashtirish imkonini beradi, o‘qitish va o‘qitishda katta erkinlikni oldindan belgilab beradi, o‘qituvchilarning dasturlar, yo‘llar, vositalar, metodlar va o‘qitish usullarini tanlashdagi harakatlariga huquqiy asos yaratadi. 3) Modulli yondashuv o‘quv jarayonini individualizatsiyalash imkoniyatini beradi. O‘quv rejalari va dasturlari talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda uziladi. Modullik printsipi yoki modulli yondashuv barcha ta’lim jarayonlarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi. Agar o‘qituvchi-metodist pozitsiyasidan ta’lim jarayonini boshqarishni tashkil etish haqida gapirgan bo‘lsak, unda quyidagi jarayonlarni ustuvor deb belgilash mumkin: rejalashtirish, uslubiy ta’minlash, amalga oshirish, baholash va nazorat qilish, hisobot berish. Biz o‘quv faoliyatini kredit-modul tizimida ushbu etishni ta‘lim avtonomiyasini – talabaning “Nega? Qaerda? Qanaqasiga?” o‘rganish, o‘z ta‘lim traektoriyasini loyihalash, shuningdek, yuqori samarali intizomni tarbiyalash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ochib beradigan omil sifatida ko‘rib chiqamiz.

Biroq, pedagogikaga nisbatan modulni mustaqil o‘quv birligi, o‘quv materialining to‘liq bloki va ta‘lim dasturining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqish mumkinShunga ko‘ra, biz asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan bakalavrlar uchun ta‘lim dasturini qurish modeli sifatida kredit-modul tizimini ko‘rib chiqyapmiz. Har bir modulni o‘zlashtirish uchun mehnat xarajatlari butun o‘quv dasturini o‘zlashtirish uchun umumiy mehnat xarajatlariga nisbatan baholanadi. Tadqiqotda shuningdek, chet tilini o‘qitish jarayonida kredit-modul tizimini hisobga olgan holda o‘quv faoliyati didaktik talablari aniqlandi (1-rasm).



1.-rasm. Talabalarda o‘quv faoliyatini rivojlantirishning didaktik talablari

Bu aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlar ingliz tilini o‘qitish metodikasida ma’lum va hozirda keng qo‘llaniladigan yo‘nalishlardir. Bizning amaliyotimizda ularni kontent bloklari sifatida izohlaymiz. Aslida, bu ingliz tilini o‘rganishning turli traektoriyalari, chunki barcha talabalar har xil boshlang‘ich darajaga ega, ya’ni ular ta’lim maydonida turli yo‘llar va turli tezliklarda harakat qilishadi. Kontent bloklari, o‘z navbatida, ta’lim jarayonining mavzuli va maqsadli modullaridan iborat.

Bu ingliz tilida muammolarni muhokama qilish va madaniyatlararo, kasblararo muhitda muloqot qilish qobiliyati va istagini rivojlantirish uchun treningdir.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida kredit-ta’lim tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha didaktik imkoniyatlar ham aniqlandi; ular quyidagi 1.4-jadvalda o‘z aksini topgan. Chet tilini o‘qitishda nofilologik ta’lim yo‘nalishidagi talabalar o‘quv faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari haqida gapirganda, bir nechta muhim omillarni ko‘rib chiqish zarur. Bu omillar chet tilini o‘qitishda samarali metodlar va yondashuvlarni taqdim etishda yordam beradi, ayniqsa filologik ta’limga ega bo‘lmagan talabalar uchun. Quyida bu yo‘nalishda o‘quv faoliyatini rivojlantirish uchun asosiy didaktik imkoniyatlarni ko‘rib chiqamiz:

1-jadval

Kredit ta’lim tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha didaktik imkoniyatlar

Didaktik imkoniyatlar	Mazmuni
Individualizatsiya va differensiyalash	Har bir talabada chet tilini o‘rganish darajasi va uslubi turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘quv faoliyatini shahsiylashtirish va talabalar ehtiyojlariga mos ravishda differensiyalash juda muhimdir. Bu o‘qituvchiga turli darajadagi talabalarga mos materiallarni taqdim etish, ular bilan individual tarzda ishlash imkonini beradi.
Kompyuter va multimedia texnologiyalaridan foydalanish	No filologik yo‘nalishdagi talabalar ko‘pincha chet tilini o‘rganishda an'anaviy metodlardan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni ham o‘zlashtirishlari kerak. Interaktiv dasturlar, online kurslar, video materiallar va audio resurslar orqali talabalarga tilni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.
Pragmatik imkoniyat	Chet tilini o‘rganishda pragmatik yondoshuvni qo‘llash talabalarga tilni amaliyotda, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qo‘llashni o‘rgatadi. Bu, ayniqsa, no filologik yo‘nalishdagi talabalar uchun foydalidir, chunki ular chet tilini o‘z sohalarida

	ishlatishlari kerak bo‘ladi. O‘qitish jarayonida turli kommunikativ vaziyatlar yaratish va amaliyotga yo‘naltirish muhimdir.
Kollaborativ ta'lim	Guruhlarda ishlash va hamkorlik asosida o‘quv faoliyatini rivojlantirish talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu usul orqali talabalar bir-birlari bilan fikr almashadilar, tilni o‘zaro interaktiv ravishda o‘rganadilar.
Kognitivlik	Talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ya'ni til o‘rganishda ongli va aqliy jarayonlarni kuchaytirish orqali o‘quv faoliyatini samarali qilish mumkin. Bu yondashuv talabalarga til o‘rganishning asosiy qoidalarini tushunishga va yangi tilni o‘zlashtirishda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.
Tajribaviy o‘quv faoliyati	Talabalar uchun real hayotdan olingan vaziyatlarni yaratish va bu vaziyatlarda tilni qo‘llash imkoniyatini taqdim etish muhimdir. Masalan, guruhlarda rol o‘ynash, chet tilida kichik muhokamalar o‘tkazish, kasbiy sohaga oid matnlar bilan ishlash, amaliy mashg‘ulotlar orqali tilni o‘rganish samarali bo‘ladi.

Nofilologik ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun chet tilini o‘rganish jarayoni an’anaviy usullardan tashqari, innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi kerak. Bunday yondashuvlar talabalarning umumiy bilimlar va ko‘nikmalarini kengaytiradi, ularni chet tilini amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llashga tayyorlaydi.

Chet tilini o‘qitish jarayonida kredit-modulli tizimini loyihalashda quyidagi bosqichlarni bajarish kerak:

1. Maqsad va o‘quv vazifalarini belgilash.

2. Natijalarni aniqlash, ya’ni modul natijalari asosida shakllantiriladigan chet tilini o‘qitish metodikasi kompetensiyalar majmuini belgilash. Talaba xorijiy tilni o‘rganish borada nimalarni biladi, tushunadi, qila oladi.

3. Kredit-modul mazmunini aniqlash – talaba talab qilinadigan til kompetensiyalarini egallashi uchun qancha materialni o‘zlashtirishi kerak, leksik mavzularni, matnlarning jamlanma turlarini, kommunikativ vaziyatlarni (haqiqiy hayotning mini modellari bo‘lgan vaziyatlarni) aniqlash muhim sanaladi.

4. Ta’lim texnologiyalarini tanlash. Bu bosqichda chet tilini o‘qitish metodikasi mazmuni qanday shakllarda uzatiladi, qanday o‘qitish usullari qo‘llaniladi, buning natijalari orqali talaba til kompetensiyalarini egallashi mumkin bo‘ladi.

5. Auditoriya va mustaqil soatlar sonini aniqlash – mashg‘ulotlar davomiyligi. Auditoriya va talabalarning mustaqil ishlari o‘rtasidagi bog‘liqlik.

6. Modul uchun kirish talablarini rivojlantirish, ya’ni mazmun bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi uchun talaba qanday til bilim darajasiga ega bo‘lishi kerak.

7. Boshqaruv tizimini tayyorlash – nazorat, monitoring va reyting shakllari.

8. Baholash mezonlari va parametrlarni aniqlash.

9. Nazorat hodisasining mazmuni.

Keling, talabalarning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda kredit-modul tizimi asosida chet tilini o‘qitish metodikasi maqsadlari haqida batafsilroq to‘xtalamiz. Modullarni loyihalashda biz quyidagi chet tilini o‘qitish maqsadlarini belgilab oldik:

1. Chet tilini o‘qitish maqsadi: madaniyatlararo, kasbiy jamiyatda keyingi ta’lim va faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish.

2. Muloqot maqsadi: tajriba, ma’lumot, g‘oyalar, fikrlar, rejalar almashinuvini, kasbiy va shaxsiy munosabatlarni o‘rnatish va saqlashni ta’minlash.

3. Kognitiv maqsad: ma’lumotni berilgan parametrlar bo‘yicha guruhlashni o‘rgatish.

4. Affektiv maqsad: ingliz tilidan foydalanishda ishonch hissini rivojlantirish.

Bundan tashqari, lingvistik ijtimoiy-madaniy uslub tamoyillarini amalga oshirish mumkin bo‘ladi , bu muayyan tilning lingvistik va ekstralingvistik omillarini nazarda tutadi. O‘quv faoliyati davomida amalga oshirilgan ushbu yondashuv talabalarga o‘z ona tili va madaniyatining xususiyatlariga e’tibor qaratgan holda suhbatdoshlarini (shu jumladan kursdoshlarini) yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, ingliz tili hodisalarini, shuningdek, darsda tasvirlangan madaniy materialni o‘zlashtirish jarayonida kommunikativ amaliyot - nutq - o‘quvchining alohida e’tiboriga loyiqdir. Darsning ushbu bosqichida, tajriba almashish, turli madaniyatlar (ingliz, o‘zbek va talabalarning etnik madaniyati)ni taqqoslash va solishtirish imkoniyati beriladi. Ushbu polilogda talabalar dunyoning butun xilma-xilligi bilan boshqacha, keng miqyosda tushunishadi, ko‘p madaniyatli savodxonlikni oshiradilar, dunyoqarashlarini kengaytiradilar va turli madaniyatlar vakillariga nisbatan bag‘rikenglik tuyg‘usini tarbiyalaydilar.

Hozirgi vaqtda universitetlarda tilga oid bo‘lmagan yo‘nalish talabalari tomonidan chet tillarini (ko‘pincha ingliz tilini) o‘rganishning o‘ziga xosligi, bu talabalarning ko‘pchiligining turg‘un motivatsiyasi va chet tilidagi bilim darajasining pastligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan, o‘quvchilar hali ham bir tomondan tilni o‘rganishning yetakchi maqsadi sifatida kommunikativ kompetensiyani targ‘ib qilishlari kerak, ikkinchi tomondan, talabalarning ma’lum bir auditoriyasi uchun mavjud bo‘lgan til materiallaridan foydalangan holda darslarini tashkil etishlari va o‘tkazishlari kerak.

Shuning uchun, ta’lim yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, talabalarning mavjud shaxsiy tajribasiga tayanib, chet tili darslarida til faoliyatining muhim turlari: gapirish, o‘qish va yozishni amalga oshirish, kasbiy mavzular bo‘yicha lug‘at bilimlarini bosqichma-bosqich kengaytirish kerak .

Ta’lim muassasalarida talabalar o‘quv faoliyatini rivojlantirishda kredit-modul tizimida dars soatlarining katta qismi talabalarning mustaqil ishlariga ajratiladi, natijada talabalar chet tilida muloqot qilish uchun zarur ma’lumotlarni olishlari uchun ushbu faoliyatni tashkil etish muhimdir. Bunda o‘qituvchi oldiga har bir aniq holatda til darsi va uning mazmunini aniq

belgilash vazifasi qo‘yiladi. Yuqorida tavsiflanganlarga asoslanib, chet til darslarida faqat faol, loyihaga asoslangan ish shakllari kasbiy yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga hissa qo‘shishi mumkin: tanlangan sohada mavzular va lug‘atni o‘rganish, professional maqolalarni o‘qish va minimal lug‘atni o‘zlashtirish guruhim sanaladi.

Hozirgi voqelikka talabalarning o‘zlari uchun ingliz tilining ma’nosi o‘zgardi, chunki ular turli til darslarida qatnashish, haqiqiy yangiliklarni tinglash, maqolalarni o‘qish va turli mamlakatlardan o‘rtagan do‘stlari bilan onlayn muloqot qilish uchun tobora ko‘proq imkoniyatlarga egadir. Darhaqiqat, bir tomondan, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar o‘qituvchiga ham, talabaga ham ortib borayotgan talablarni qo‘yadi, ular ijtimoiy-madaniy tajriba va to‘plagan bilimlarini uzatishda faol va harakatchan bo‘lishi kerak. Shuning uchun o‘qituvchilar ta’lim muassasalarida ingliz til darslarida kommunikativ va talabalarga yo‘naltirilgan kompetentsiyaga alohida e’tibor berib, barcha umumiy ta’lim texnologiyalarini sinfda birlashtirishga intilishlari kerak.

Turli xil texnologiyalar o‘qituvchidan darsning barcha bosqichlarini metodik jihatdan rejalashtirish bo‘yicha turli xil bilimlarga egallagan bo‘lishini talab qiladi, ular tizimli ravishda tanlangan va birlashtirilgan. Ushbu tadqiqot doirasida biz mashhur va bizning davrimizda bo‘lgan loyiha faoliyatiga alohida e’tibor qaratamiz.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalar o‘rtasida chet tilini o‘qitishning zamonaviy voqeliklari darsning barcha bosqichlarini universitet talabalarning zamonaviy ta’lim va axborot ehtiyojlariga javob beradigan o‘qitish usullarining yondashuvini hisobga olgan holda uzatish imkonini beradi. Aynan kommunikativ va amaliyotga yo‘naltirilgan darslarni o‘tkazish uslubiga murojaat qilish universitetda chet tilini o‘qitish jarayonini qurish uchun dolzarb bo‘lib qoladi, bunda faoliyat obyekti nutqning o‘zi va nutqning o‘zi uchun zarur bo‘lgan til materialiga aylanadi. Bunday darslarda o‘qituvchining asosiy harakati - barcha talabalarni til materiallari bilan ta’minlash, barcha talabalarni til muhitiga jalb qilish istagi. Ushbu uslubning muhim jihati shundaki, talabalar rolli o‘yinlar, dialoglar, insholar, ish xatlar yozish, tinglash va turli xil mashqlardan foydalanishi mumkin, shu bilan zamonaviy talabalarning lingvistik ma’lumotlarini idrok etishning barcha kanallarini rag‘batlantiradi .

Bunday holda, biz til bo‘yicha mutaxassisliklar talabalari uchun til materialini tashkil qilish va tizimlashtirishning quyidagi amaliyotini taklif qilamiz:

1. Chet tilini o‘qitishning birinchi bosqichi – o‘quvchilarga o‘qishni o‘rgatish, lug‘at to‘plash, o‘qish va tushunish uchun haqiqiy yoki ularga yaqin matnlarni namoyish qilish.

2. Ikkinchi bosqich – talabalarning chet tilini o‘qituvchi talablariga grammatik, leksik, fonetik va nutqiy materiallarni o‘zlashtirishiga qaratilgan qator topshiriqlar, auditoriyada audiovizual o‘qitish metodikasi, xususan, mustaqil ishlash orqali faol harakatlarni amalga oshirish.

3. Tilni o‘zlashtirishning uchinchi bosqichi – nutqiy klishelarni yodlash asosida nutqiy dialoglarni modellashtirishga urinish bilan bog‘liq bo‘lib, nafaqat talabalarning reproduktiv faoliyati orqali, balki taqdimotlar yaratish, mini-debatlarda, talabalar konferensiyalarida ishtirok etish, talabalar, o‘qituvchilar va ko‘ngillilar bilan muloqot qilish orqali

o‘rganilayotgan til mamlakatlari va onlayn hamda boshqa shakllarida til muloqotiga kirishish va umuman talabalar uchun tilning rolini ommalashtirish imkonini beradi.

Ehtimol, til o‘rganishning uchinchi darajasi guruhdagi talabalar darajasiga, til vazifalarini ishlab chiqish darajasiga va o‘qituvchining o‘zi ushbu toifadagi talabalar orasida bunday amaliyotni amalga oshirishiga tayyorlik darajasiga qarab qisman amalga oshiriladi. Ammo shubhasiz, umumiy ta’lim dasturini tushunishni talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini egallash darajasiga yaqinlashtirishga qisman urinish ham yuqori samaradorlikka erishiladi.

Kredit-modul tizimining asosiy maqsadi, mazmuni, qo‘llaniladigan texnologiyalar, nazorat shakllari, og‘zaki va yozma ishlarni baholash mezonlari, ball mexanizmi, butun modul yoki kreditlardagi "narxi", ya’ni modul doirasida o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq barcha narsalar tavsiflangan bo‘lishi, axborot tizimida taqdim etilishi va talabalar uchun istalgan vaqtda mavjud bo‘lishi kerak.

Har bir modul tizimli ish va doimiy treninglar orqali erishilishi mumkin bo‘lgan talabli natija/kompetentlikni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. Modul davomida faqat tizimli va muntazam ish olib borish, barcha joriy va oraliq ishlarni bajarish, keyin esa nazorat tadbirda qatnashish ijobiy baho va ma’lum miqdordagi kreditlarni olish imkonini beradi.

Modulli tizimni loyihalash va joriy etishda biz kommunikativ ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, kompetensiyalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beramiz. Barcha modullar til kompetensiyasini (fonetika, grammatika, lug‘at) va nutqni (og‘zaki va yozma nutq) rivojlantirishga, shuningdek ishbilarmonlik aloqasi texnikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan: ish yozishmalarini olib borish qobiliyati, tijorat yoki professional taqdimot qilish, uchrashuv o‘tkazish, biznes hamkorlari bilan muvaffaqiyatli muzokaralar olib borish, shuningdek mazmunli ma’lumot materialini o‘zlashtirish kabilar kiradi.

Ma’lumki, xorijiy til ta’limining zamonaviy bosqichida til va madaniyat komponentlarini bir butunlikda o‘rgatish nazarda tutilgan va bu amaliyotda o‘z aksini topmoqda. Bugungi kunda ta’limning madaniyatlararo va millatlararo muloqotning zaruriy amalda qo‘llaniladigan metodlariga yo‘naltirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Kredit-modulli platformasida o‘quv tizimiga o‘quvchi oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilariga bo‘lgan majburiyat hamda talabni oshiradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, modulli o‘quv tizimi bilan o‘qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchi vazifalarini ham to‘liq miqyosda ishlash vazifasini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchining yetakchilik, tashkilotchilik roli sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, nutqiy muammoli vaziyatlar, tilni yetarli darajada o‘rganishga sharoit yaratadi va imkoniyat beradi. Ko‘nikma va malakalar, ya’ni til va nutq kompetensiyalarini egallash faqat faoliyat orqali ro‘yobga chiqadi. Talabaning ijodiy faoliyatiga yo‘l ochish, ya’ni ijodiy motivatsiyani maqsadli shakllantirish, uni mustaqil ishlashga yo‘naltirish, ba’zan qiyin topshiriq va vazifalarini bajarishning aniq algoritmini berish, nutq faoliyatini rivojlantirishda leksika, grammatika va fonetika bilan ishlashning turli yo‘llarini tavsiya qilish, xorijiy tilning kommunikativ, adaptiv va modellashtirish darajasini shaxsiy motivlarga moslashtirish orqali talabaning o‘quv faoliyatini takomillashtirish pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan

hisoblanadi. Talabalar turli xil lug‘atlar va matnlar bilan ishlash, til va madaniyat qonuniyatlarini bir butunlikda o‘rganishda mustaqil akademik va texnik muloqot vositalaridan effektiv foydalanish va o‘z fikrini bayon qilish va izohlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muntazam ustuvorlik berish, til, soha va madaniyatni o‘zaro bog‘liqlikda, integrallashgan holda o‘rganish, muammolarni ko‘ra bilish, unga yechim topish, madaniy hamda muhandislik soha va kasbiy birliklarni belgilab, o‘zi uchun yozib borish, o‘rganish-o‘rgatish davomida shu topshiriqlarni bajarishlari lozim.

Xulosa qilib, qiyoslash an’anaviy va kredit-modul tizimi xorijiy til ta’limining konseptual holatini aniqlashga imkon beradi. Keltirilgan jadval asosida xulosa qilishimiz mumkin, modulli platformada ta’lim-tarbiya nazariyasida amaliyotida qo‘llanilgan an’anaviy ta’limning ba’zi elementlari saqlanib qoladi. Bu tushunchalar yangi tizim bilan integrallashadi, zamonaviy texnologiyalar asosida ro‘yobga chiqariladi.

2.- jadval

An’anaviy ta’lim va kredit-modul ta’limining taqqoslanishi.

An’anaviy ta’lim	Kredit-modul ta’limi
1. Dars va to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘qituvchi ingliz tilinini asosiy qoidalari, tushunchalar,matnni nazariy asoslab fikr bayon etadi.	**1. O‘qituvchi aniq maqsad qo‘yadi, ta’lim oluvchilar bilan vazifalarni shakllantiradi va taxminiy natijani oldindan ko‘ra biladi.**
2. O‘qituvchi o‘quv materiallari reja asosida , darslikda berilgan materiallarni tushintirib berilgan bo‘ladi.	**2. O‘qtiladigan darslar mavzulari qiyinchiliklar darajasiga ko‘ra modullarga bo‘linadi.**
3. Talabalar tanlovi mavjud emas, qat’iy belgilangan o‘quv reja va dasturga ko‘ra mashg‘ulotlar tashkil etilgan.	**3. Talabalar tomonidan fanni va o‘quv materialini, o‘qituvchini tanlash imkoniyati mavjud.**
4. O‘qituvchi doimiy nazoratni olibborgan.	**4. O‘qituvchi maslahatberuvchi vazifasini amalga oshiradi.**
5. Mustaqil ta’limganisbatan auditoriya soati ko‘p bo‘lgan.	**5. Auditoriya soatiga nisbatan mustaqil ta’lim soati ko‘p.**
6. Grammatika va o‘qishga katta e’tibor berilgan.	**6. Tinglab tushunish vagapirishga, kasbiy-sohaviy mashqlarga asosiy e’tibor qaratiladi.**
7. Talabalar matno‘qibtarjima qilishga o‘rgatilgan.	**7. Talabalar mustaqil akademikva texnik muloqot vositalaridan effektiv foydalanishga yo‘naltiriladi.**

8. Dars jarayonida o‘qituvchining fikrlari asos qilib olingan talabalarning fikriga e’tiborni qaratmagan.	**8. Talabalarning mustaqil o‘z fikrini bayon qilish va izohlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muntazam ustuvorlik beriladi talabalar mustaqil fikrga ega bo‘la oladi .**

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimida dasturlar tuzish, dars jadvalini shakllantirish, ta’lim jarayonini nazorat qilish va talabalarni baholashni tashkil etishda xorijiy til fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish maqsadga muvofiqdir va sifat darajasini oshirishga yordam beradi. Kredit-modul tizimida xorijiy tilni o‘rganish xususiyatlarini hisobga olish talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, izlanish metodini shakllantirishga, ularda ijodiy faollikni kuchaytirishga va bilim olishga o‘zini safarbar qilishga yo‘naltiradi hamda ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. O‘qituvchilarga o‘rganish malakasini va talabalarga o‘rganish qobiliyatlarini keng miqyosda almashish imkoniyati kengayadi. Bir tomondan, talabalarni kredit-modul tizimi asosida o‘qitish ularning mustaqil ta’limini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchilarni BB, AIS va boshqa texnologiyalar ustida ishlash, darslarda foydalanish hamda innovatsion texnologiyalarni egallashga yordam beradi. Faollik, mustaqillik, izlanuvchanlik, kreativlik o‘quv jarayoni qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Shu asosida, talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish ta’limning mazmuni, shakli, metod va vositalarini rivojlantirishni hamda shaxsga yo‘naltirilgan tizimli-integrativ, kommunikativ-faoliyatli va kasbga yo‘naltirilgan yondashuvlarning didaktik yaxlitligini ta’minlashni talab etadi degan xulosaga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Стариченко Б.Е. Оценка результатов учебной деятельности студентов в рамках информационно-технологической модели обучения // Образование и наука. – 2013. – № 5 (104). – С. 113–132.

2. Степанова В.С., Миронова И.Б. О дефиниции понятий «образование», «образовательная деятельность», «образовательная услуга» // Научно-практический журнал «Гуманизация образования». – № 1, 2015. – ISSN 1029-3388. – С. 22–26.

3.. Зимняя И.А. Психологический анализ урока иностранного языка // Журнал «Иностранные языки в школе». – 1984. – № 3. – С. 16–19.

4. Abdullayeva B.S. Axborot ta’lim muhitida masofaviy ta’limni raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish. – “Oliy ta’lim: muammo va yechimlar”

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

“ELEKTR VA MAGNETIZM” FANINI O‘QITISHDA SIMULYATSION DASTURLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.097

Irkinov Ma’murjon Botirjon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti, 2-bosqich tayanch doktoranti,
E-mail: irkinovm@gmail.com
Tel: +99 899 409-60-40

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Elektr va magnetizm” fanini o‘qitishda simulyatsion dasturlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an’anaviy o‘qitish usullari bilan simulyatsion yondashuvlar solishtirilib, talabalar bilim darajasi, tushunish qobiliyati va motivatsiyasiga ta’siri o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, simulyatsion dasturlar abstrakt fizik jarayonlarni vizuallashtirish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: simulyatsiya, elektr va magnetizm, fizika ta’limi, PhET, interaktiv o‘qitish, vizualizatsiya.

Аннотация.В данной статье анализируется педагогическая значимость использования симуляционных программ при преподавании курса «Электричество и магнетизм» в технических высших учебных заведениях. В ходе исследования были сопоставлены традиционные методы обучения и симуляционные подходы, а также изучено их влияние на уровень знаний, понимание и мотивацию студентов. Результаты показали, что симуляционные программы значительно повышают эффективность учебного процесса за счёт визуализации абстрактных физических процессов.

Ключевые слова: симуляция, электричество и магнетизм, обучение физике, PhET, интерактивное обучение, визуализация.

Abstract. This article analyzes the pedagogical significance of using simulation software in teaching the course “Electricity and Magnetism” in technical higher education institutions. The study compares traditional teaching methods with simulation-based approaches and examines their impact on students’ knowledge level, conceptual understanding, and motivation. The results show that simulation tools significantly enhance the effectiveness of the learning process by visualizing abstract physical phenomena.

Keywords: simulation, electricity and magnetism, physics education, PhET, interactive learning, visualization.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika fanining “Elektr va magnetizm”

bo‘limi o‘zining abstraktligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Elektr maydon, magnit induksiya, tok kuchi kabi tushunchalar ko‘pincha talabalarda noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishiga sabab bo‘ladi. An’anaviy o‘qitish usullarida bu jarayonlar asosan formulalar va statik tasvirlar orqali tushuntiriladi. Biroq, bu yondashuv har doim ham talabalar tomonidan chuqur tushunishni ta’minlamaydi. Shu nuqtai nazardan, simulyatsion dasturlar fizik jarayonlarni dinamik va interaktiv tarzda namoyish etish imkonini beradi. Ular orqali talabalar nazariy bilimlarni vizual va amaliy shaklda o‘zlashtiradilar. Mazkur tadqiqotning maqsadi — simulyatsion dasturlarning “Elektr va magnetizm” fanini o‘qitishdagi o‘rni va samaradorligini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fizika ta’limida murakkab va abstrakt tushunchalarni samarali tarzda tushuntirish har doim muammoli bo‘lib kelgan, ayniqsa **elektr va magnetizm** kabi mavzularda [1]. Ushbu mavzular elektr maydonlari, magnit kuchlar hamda elektr zanjirlarining ishlash jarayoni kabi bevosita kuzatib bo‘lmaydigan o‘zaro ta’sirlarni tasavvur qilish qobiliyatini talab qiladi. Kibar va Akkoyunlu ta’kidlashicha, darsliklar, ma’ruzalar va statik ikki o‘lchamli (2D) tasvirlarga asoslangan an’anaviy o‘qitish usullari ushbu tushunchalarni to‘liq tasavvur qilish va anglash imkoniyatlarini cheklaydi. Ularning fikricha, bunday yondashuvlar talabalarga chuqur tushunchaviy bilimni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan interaktiv o‘quv tajribalarini yetarli darajada ta’minlay olmaydi [2]. Biroq, ko‘plab fizika o‘qituvchilari laboratoriya vaqtining cheklanganligi, zarur jihoz va resurslarning yetishmasligi hamda ayrim tajribalarni tashkil etishdagi xavfsizlik yoki murakkablik (masalan, elektromagnetizm tajribalari) kabi muammolar sababli amaliy o‘qitish usullaridan to‘liq foydalanish imkoniga ega emaslar. Bunga qarama-qarshi ravishda, ayrim tadqiqotchilar **texnologiyaga asoslangan yechimlarni** taklif qiladilar. Martín-Gutiérrez va boshqalar ta’kidlashicha, **virtual muhitlar va simulyatsiyalar** real laboratoriyalarda qayta yaratish qiyin bo‘lgan murakkab fizik tushunchalarni o‘qitishda samarali alternativ bo‘lishi mumkin. Ular **Kengaytirilgan reallik (AR)** va **Virtual reallik (VR)** kabi texnologiyalar talabalarga fizik hodisalar bilan **vizual va immersiv tarzda o‘zaro ta’sirlashish** imkonini berishini alohida ta’kidlaydilar [3]. Biroq, ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda muayyan qiyinchiliklar ham mavjudligi qayd etiladi. Chunki bunday texnologiyalarni qo‘llash nafaqat tegishli **texnik qurilmalarni (hardware),** balki **o‘quv dasturi maqsadlariga mos keladigan dasturiy ta’minotni (software)** ham talab qiladi.

Fizika fanini *konstruktivistik yondashuv* asosida o‘qitish zarur. Chunki bu fan biz yashayotgan atrof-muhitni, insonning ichki dunyosini va koinotni anglashda muhim ahamiyatga ega. Fizika eng asosiy va fundamental fanlardan biri hisoblanishiga qaramay, u maktab ta’limidagi eng murakkab fanlardan biri sifatida ham qaraladi.

Bir qator tadqiqotlarga ko‘ra, kundalik hayotdagi **“sog‘lom fikr”** ***(common sense)*** asosida shakllangan tasavvurlar ko‘pincha fizikadagi ilmiy tushunchalar bilan mos kelmaydi. Afsuski, bunday noto‘g‘ri tasavvurlar talabalarning ongida mustahkam o‘rnashib qoladi va ularni bartaraf etish qiyin bo‘ladi [4]. Hou va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, **kompyuter dasturlari asosidagi simulyatsiyalardan foydalanish va ular**

bilan muntazam ishlash talabalarning fizika fanidagi akademik natijalarini yaxshilashga yordam beradi [5]. Ta’lim jarayonida **vizual tasvirlardan foydalanish** talabalarga odatda ko‘z bilan ko‘rish yoki bevosita kuzatish imkoniyati bo‘lmagan jarayon va tuzilmalarni tushunishga yordam beradi. Ayniqsa **elektr va magnetizm** bo‘limida laboratoriya mashg‘ulotlarini simulyatsiya asosida tashkil etish orqali talabalar hodisalarning tafsilotlarini ko‘rishlari hamda tajribalarni **bir necha marta takrorlab bajarishlari** mumkin [6].

Simulyatsiya asosidagi ta’lim — bu ta’lim yoki trening shakli bo‘lib, uning maqsadi **real hayotdagi tajribalarni yo‘naltirilgan faoliyatlar orqali almashtirish yoki ularni boyitish**dan iborat [7]. Shu sababli bugungi kunda **simulyatsiyani o‘quv dasturiga integratsiya qilish** muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida simulyatsiya o‘quvchilarga **yangi ko‘nikmalarni egallash va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish** imkonini beradi [8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda fizika fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan turli simulyatsion platformalar mavjud bo‘lib, ular o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu platformalar o‘zining funksional imkoniyatlari, interaktivligi hamda o‘quv jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari bilan farqlanadi.

Fizika fanini o‘qitishda ishlatiladigan **simulyatsion platformalar** juda ko‘p. Ularni odatda 3 guruhga ajratish mumkin:

1. ***Ta’lim uchun maxsus yaratilgan simulyatsiyalar***
2. ***Virtual laboratoriyalar***
3. ***Professional fizik modellashtirish dasturlari***

Eng keng tarqalgan simulyatsion platformalardan biri **PhET Interactive Simulations** hisoblanadi. Mazkur platforma Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda fizika, matematika, kimyo va boshqa tabiiy fanlarga oid yuzlab interaktiv simulyatsiyalar mavjud. PhET simulyatsiyalarining asosiy afzalligi ularning soddaligi, intuitiv interfeysi hamda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashidadir. Elektr va magnetizm bo‘limiga oid elektr zanjirlari, elektr maydoni, elektromagnit induksiya, magnit maydon kabi mavzular bo‘yicha ko‘plab interaktiv modellar mavjud. Talabalar simulyatsiya orqali elektr zanjir elementlarini o‘zlari joylashtirishi, tok kuchi va kuchlanish qiymatlarini o‘zgartirishi hamda natijalarni real vaqt rejimida kuzatishi mumkin.

PhET simulyatsiyalari talabalarga ushbu tushunchalarni o‘zlashtirishda katta yordam bergan. PhET Interactive Simulations simulyatsiyalari talabalarga ilmiy g‘oyalarni tushunish, real hayotdagi hodisalarni izohlash hamda ilmiy tadqiqot faoliyatida ishtirok etishda samarali yordam berishi aniqlangan [9].

Fizika simulyatsiyalarini yaratish va qo‘llash imkonini beruvchi yana bir platforma **Open Source Physics (OSP)** hisoblanadi. Bu platforma ochiq kodli dasturiy ta’minot asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u yordamida o‘qituvchilar va tadqiqotchilar turli fizik modellarni yaratishlari mumkin. OSP platformasining muhim jihati shundaki, unda foydalanuvchi mavjud modellarni tahrirlashi yoki yangi simulyatsiyalar ishlab chiqishi mumkin. Bu esa ilmiy tadqiqotlar hamda ta’lim jarayonini integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi.

Elektr va magnetizm sohasida keng qo‘llaniladigan yana bir simulyatsion vosita **Falstad Circuit Simulator** hisoblanadi. Mazkur platforma elektr zanjirlarini modellashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda rezistor, kondensator, induktor, tranzistor kabi elementlardan iborat turli sxemalarni yaratish mumkin. Falstad simulyatori elektr toklarining harakati, kuchlanish taqsimoti va zanjir elementlarining ishlash jarayonini animatsiya ko‘rinishida namoyish etadi. Bu esa talabalar uchun elektr zanjirlari ishlash prinsipini tushunishni ancha osonlashtiradi.

Bundan tashqari, fizika fanini o‘qitishda **Algodoo** kabi interaktiv simulyatsion muhitlardan ham foydalanish mumkin. Algodoo dasturi asosan mexanika hodisalarini modellashtirishga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, unda fizik qonuniyatlarni vizual tarzda ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Mazkur dastur o‘quvchilarning mustaqil tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Algodoo — bu **2D fizik simulyatsiyalar uchun mo‘ljallangan raqamli “sandbox” *(erkin tajriba muhiti)*** hisoblanadi. U talaba va o‘qituvchilarga foydalanuvchiga qulay hamda vizual jihatdan jozibador interfeys orqali osonlik bilan simulyatsion “sahna”lar yaratish va fizik jarayonlarni o‘rganish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda virtual laboratoriyalar ham ta’lim jarayonida keng qo‘llanila boshladi. Masalan, **PraxiLabs** kabi platformalar fizik tajribalarni uch o‘lchamli virtual muhitda bajarish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar orqali talabalar real laboratoriya sharoitida bajarilishi qiyin yoki xavfli bo‘lgan tajribalarni xavfsiz muhitda amalga oshirishlari mumkin. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

SimPHY — bu fizika hodisalarini modellashtirish va interaktiv simulyatsiyalar yaratish uchun mo‘ljallangan onlayn platforma hisoblanadi. Ushbu platforma foydalanuvchilarga fizik obyektlar, kuchlar, harakat va boshqa fizik jarayonlarni virtual muhitda yaratish hamda ularni tahlil qilish imkonini beradi. SimPHY platformasi ayniqsa mexanika va elektromagnit hodisalarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Platformaning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda ***drag-and-drop*** texnologiyasi orqali murakkab modellarni ham oson yaratish mumkin.

MyPhysicsLab — bu fizika fanining turli bo‘limlariga oid interaktiv simulyatsiyalar va animatsiyalarni taqdim etuvchi platforma hisoblanadi. Unda asosan mexanika, tebranishlar va harakat qonunlari bilan bog‘liq modellar mavjud. Platforma foydalanuvchilarga parametrlarni o‘zgartirish orqali fizik jarayonlarning qanday o‘zgarishini kuzatish imkonini beradi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy tasavvur bilan bog‘lashga yordam beradi.

Physion — bu fizik hodisalarni 2D virtual muhitda modellashtirish imkonini beruvchi simulyatsion dasturdir. Ushbu platforma yordamida foydalanuvchilar turli fizik obyektlar, kuchlar va harakatlarni yaratib, ularning o‘zaro ta’sirini kuzatishlari mumkin. Physion dasturi o‘quvchilarning eksperimental fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Interactive Physics — bu fizik tizimlarni modellashtirish va tahlil qilish uchun mo‘ljallangan professional simulyatsion dastur hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida murakkab fizik jarayonlar, jumladan mexanik harakatlar, kuchlar o‘zaro ta’siri va boshqa fizik

hodisalarni modellashtirish mumkin. Platforma ko‘proq ilmiy tadqiqotlar va muhandislik modellashtirishida qo‘llaniladi.

Labster — bu virtual laboratoriyalar yaratish uchun mo‘ljallangan zamonaviy simulyatsion platforma bo‘lib, u 3D grafikalar va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanadi. Platforma orqali talabalar real laboratoriya sharoitiga yaqin muhitda turli tajribalarni bajarishlari mumkin. Labster ayniqsa STEM ta’limida keng qo‘llanilib, ko‘plab universitetlarning o‘quv tizimlariga integratsiya qilingan.

1-jadval.

Fizika fanida qo‘llaniladigan simulyatsion platformalarning qiyosiy tahlili (10 ta platforma)

№	Platforma nomi	Yo‘nalishi	Asosiy imkoniyatlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	**PhET Interactive Simulations**	Fizika ta’limi	Elektr zanjirlari, elektr maydoni, magnit maydon, elektromagnit induksiya simulyatsiyalari	Bepul, intuitiv interfeys, interaktiv tajribalar	Murakkab ilmiy modellashtirish cheklangan
2	**Falstad Circuit Simulator**	Elektr zanjirlari va elektronika	Elektr sxemalarini yaratish va tok/kuchlanishni real vaqt rejimida ko‘rsatish	Vizual animatsiya, zanjirlarni tushunishni osonlashtiradi	Interfeysi oddiy, boshqa bo‘limlar kam
3	**Open Source Physics (OSP)**	Fizik modellashtirish	Fizik modellar yaratish va tahrirlash, simulyatsiyalar ishlab chiqish	Ochiq kodli, ilmiy tadqiqot uchun qulay	Dasturlash bilimlari talab qilinadi
4	**Algodoo**	Mexanika simulyatsiyasi	2D fizik muhitda obyektlar harakati va kuchlarni modellashtirish	Vizual va qiziqarli muhit	Elektr va magnetizm imkoniyatlari kam
5	**PraxiLabs**	Virtual laboratoriya	3D virtual laboratoriya tajribalari	Real laboratoriyaga yaqin muhit	Ko‘pincha pullik platforma
6	**SimPHY**	Simulyatsiya	Drag-and-drop	Interaktiv va	Bepul versiya

		yaratish platformasi	orqali fizika modellarini yaratish	moslashuvchan	imkoniyatlari cheklangan
7	**MyPhysicsLab**	Fizika animatsiyalari	Harakat, tebranish va boshqa fizik modellarni vizual ko‘rsatish	Parametrlarni o‘zgartirib tahlil qilish mumkin	Interfeys sodda
8	**Physion**	Virtual fizika tajribasi	Fizik jarayonlarni virtual muhitda tajriba qilish	O‘quvchilar uchun qiziqarli	Murakkab modellashtirish kam
9	**Interactive Physics**	Professional modellashtirish	Murakkab fizik tizimlarni modellashtirish	Ilmiy tadqiqotlar uchun kuchli vosita	Ko‘pincha pullik
10	**Labster**	3D virtual laboratoriya	VR va 3D asosidagi virtual laboratoriya simulyatsiyalari	Real laboratoriyaga juda yaqin tajriba muhiti, LMS bilan integratsiya	Asosan pullik xizmat

Simulyatsion platformalarning yana bir muhim afzalligi shundaki, ular zamonaviy ta’lim texnologiyalari, jumladan Learning Management System (LMS) tizimlari bilan integratsiya qilinishi mumkin. Bu esa masofaviy ta’lim sharoitida ham fizika fanini samarali o‘qitish imkonini beradi. Talabalar simulyatsiyalar yordamida mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazishi, natijalarni tahlil qilishi hamda o‘z bilimlarini mustahkamlashi mumkin.

XULOSA. Umuman olganda, simulyatsion platformalardan foydalanish fizika ta’limining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ular murakkab fizik jarayonlarni vizual va interaktiv tarzda namoyish etish orqali talabalarning tushunchaviy bilimlarini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa elektr va magnetizm bo‘limida simulyatsiyalardan foydalanish talabalarning elektromagnit hodisalarni chuqurroq anglashiga, nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan bog‘lashiga hamda ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli fizika fanini o‘qitishda simulyatsion platformalarni qo‘llash zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu texnologiyalar an’anaviy o‘qitish metodlarini to‘ldiradi va o‘quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli hamda interaktiv shaklga keltiradi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR

1. Cabural A. B. Enhancing conceptual understanding of electricity and magnetism through VR simulations //International journal of current science research and review. – 2024. – T. 7. – №. 10. – C. 7909-7917.

2. 3. Nuhoğlu Kibar P., Akkoyunlu B. A new approach to equip students with visual literacy skills: Use of infographics in education //European Conference on Information Literacy. – Cham : Springer International Publishing, 2014. – C. 456-465.

3. Martín-Gutiérrez J. et al. Virtual technologies trends in education //Eurasia journal of mathematics, science and technology education. – 2017. – T. 13. – №. 2. – C. 469-486.

4. Freedman R. A. Challenges in teaching and learning introductory physics //from high-temperature superconductivity to microminiature refrigeration. – Boston, MA : Springer US, 1996. – C. 313-322.

5. Ben Ouahi M. et al. The effect of using computer simulation on students' performance in teaching and learning physics: are there any gender and area gaps? //Education Research International. – 2021. – T. 2021. – №. 1. – C. 6646017.

6. Batuyong C. T., Antonio V. V. Exploring the effect of PhET® interactive simulation-based activities on students' performance and learning experiences in electromagnetism //Asia Pacific Journal of Multidisciplinary Research. – 2018. – T. 6. – №. 2. – C. 121-131.

7. Gaba D. M. A brief history of mannequin-based simulation and application //Simulators in critical care and beyond. – 2004. – C. 7-14.

8. Aebersold M. Simulation-based learning: No longer a novelty in undergraduate education //Online Journal of Issues in Nursing. – 2018. – T. 23. – №. 2.

9. Wieman C. E. et al. Teaching physics using PhET simulations //The Physics Teacher. – 2010. – T. 48. – №. 4. – C. 225-227.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ISHQORIY METALLARNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O‘RNI: ILMIY-PEDAGOGIK TAHLIL

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.098

Masharipov Vafa Ametovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti kimyo kafedrasi o‘qituvchisi
vafobek1980@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishqoriy metallar (Li, Na, K, Rb, Cs, Fr)ning barqaror rivojlanishdagi o‘rni ilmiy-pedagogik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Litiy-ion batareyalarining energiya saqlash tizimlaridagi ahamiyati, natriy birikmalarining suvni tozalashdagi roli hamda kaliy o‘g‘itlarining agroekotizimlardagi ta’siri kimyoviy reaksiyalar orqali asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu metallarning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari yoritilib, ularni o‘qitishda samarali metodik yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, ishqoriy metallar, litiy, natriy, kaliy, ekologiya, energiya texnologiyalari, pedagogika.

Kirish. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy ilm-fan va ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kimyo fanini o‘qitishda moddalarning amaliy ahamiyatini ochib berish o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ishqoriy metallar o‘zining yuqori kimyoviy faolligi va keng qo‘llanilish sohalari bilan barqaror rivojlanishning turli jihatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tahliliy, solishtirma va kimyoviy jarayonlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv va izohlash metodlari orqali mavzuning o‘quv jarayonidagi samaradorligi baholandi.

Asosiy qism

1. Ishqoriy metallarning umumiy tavsifi

Ishqoriy metallar davriy jadvalning I-guruhiga mansub bo‘lib, ular yuqori reaktivlikka ega. Ularning umumiy xossalari quyidagilardan iborat:

- past ionlanish energiyasi;
- kuchli qaytaruvchanlik xossasi;
- yumshoqlik va past erish harorati.

Kimyoviy faollik quyidagi tartibda ortadi: **Li < Na < K < Rb < Cs**

2. Ekologik jihatlar va kimyoviy asoslar

2.1. Litiy-ion batareyalar va energiya saqlash


Litiy-ion batareyalar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini integratsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ishlash mexanizmi quyidagi redoks reaksiyalarga asoslanadi:

Anod:

$Li \rightarrow Li^+ + e^-$

Katod:

$Li^+ + e^- + CoO_2 \rightarrow LiCoO_2$



Mazkur texnologiya issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga xizmat qiladi.

2.2. Natriy birikmalari va suvni tozalash texnologiyalari

Natriy karbonat va natriy gidroksid suvni tozalashda keng qo‘llaniladi:

$CaSO_4 + Na_2CO_3 \rightarrow CaCO_3\downarrow + Na_2SO_4$

$NaOH + HCl \rightarrow NaCl + H_2O$

Ushbu reaksiyalar suvni yumshatish va zararli komponentlarni neytrallash imkonini beradi.

2.3. Kaliy o‘g‘itlari va agroekologik tizimlar

Kaliy birikmalari o‘simliklarning oziqlanishida muhim rol o‘ynaydi:

$KCl \rightarrow K^+ + Cl^-$

$K_2SO_4 \rightarrow 2K^+ + SO_4^{2-}$

Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshiradi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi.

3. Iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat

Ishqoriy metallar global iqtisodiyotda strategik resurs sifatida qaraladi. Litiyga bo‘lgan talab elektr transport vositalari rivoji bilan ortib bormoqda. Natriy va kaliy esa sanoat va qishloq xo‘jaligining asosiy komponentlari hisoblanadi.

Ijtimoiy jihatdan:

- kaliy yurak faoliyatini tartibga soladi;
- natriy elektrolit muvozanatini ta’minlaydi.

4. Yuqori texnologiyalarda rubidiy va seziy

Rubidiy va seziy yuqori aniqlikdagi texnologiyalarda qo‘llaniladi. Ularning suv bilan reaksiyasi:

$2Rb + 2H_2O \rightarrow 2RbOH + H_2\uparrow$

$2Cs + 2H_2O \rightarrow 2CsOH + H_2\uparrow$

Seziy atom soatlarida qo‘llanilib, global navigatsiya tizimlari aniqligini ta’minlaydi. Shuningdek, fotoeffekt hodisasida ishtirok etadi:

$Cs \rightarrow Cs^+ + e^-$

5. Ekologik muammolar va barqarorlik masalalari

Ishqoriy metallardan foydalanishda quyidagi muammolar kuzatiladi:

- litiy qazib olishda suv resurslarining kamayishi;
- ortiqcha mineral o‘g‘itlar natijasida tuproq degradatsiyasi.

Shu sababli resurslardan oqilona foydalanish va ekologik monitoringni kuchaytirish zarur.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishqoriy metallar barqaror rivojlanishning barcha uch komponenti — ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bilan bevosita bog‘liq. Ularni o‘qitishda fanlararo yondashuv (kimyo, ekologiya, iqtisod) samarali natija beradi.

Xulosa. Ishqoriy metallar zamonaviy texnologiyalar va sanoatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning ilmiy asosda o‘rganilishi va pedagogik jihatdan to‘g‘ri yoritilishi o‘quvchilarda barqaror rivojlanish haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ushbu metallarni oqilona boshqarish global ekologik muammolarni hal etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atkins, P., Jones, L. *Chemical Principles: The Quest for Insight*. New York: W.H. Freeman, 2016.
2. Brown, T., LeMay, H., Bursten, B. *Chemistry: The Central Science*. Pearson Education, 2018.
3. Greenwood, N. N., Earnshaw, A. *Chemistry of the Elements*. Butterworth-Heinemann, 1997.
4. Housecroft, C. E., Sharpe, A. G. *Inorganic Chemistry*. Pearson, 2018.
5. Zumdahl, S. S. *Chemistry*. Cengage Learning, 2017.
6. United Nations. *Sustainable Development Goals (SDGs)*. 2015.
7. International Energy Agency (IEA). *Global EV Outlook*. 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi materiallari.
9. Kimyo fanidan umumiy o‘rta ta’lim darsliklari (8–11-sinflar). Toshkent, 2022.
10. Masharipov V.A. Maktab kimyo fanida yoglardan sovun olish mavzusida barqaaror taraqqiyot tushunchalarini shakllantirish // Qo’qon DPI ilmiy xabarlar.2025-2-son. 289-294-betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

GENERATIV SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI TALABALARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.099

Kalbaeva Yulduz Muratovna
Nukus davlat texnika universiteti stajyor o‘qtuvchisi
qalbaevayulduz25@gmail.com
+998937187337

Annotatsiya. Taqdim etilgan maqolada generativ sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga jalb qilinishi, shuningdek, bunday jalb qilishning talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ta’siri masalasi ko‘rib chiqilgan. Yangi g‘oyalarni yaratish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun ChatGPT, Midjourney, Stable Diffusion va boshqa sun’iy intellekt modellaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida bunday sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning afzalliklari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: generativ sun’iy intellekt, kreativ fikrlash, innovatsiya, ta’lim texnologiyasi, ChatGPT.

Аннотация.В представленной статье рассматривается вопрос вовлечения генеративного искусственного интеллекта в образовательный процесс, а также влияние такого вовлечения на развитие творческого мышления у студентов. Рассмотрены возможности использования моделей искусственного интеллекта ChatGPT, Midjourney, Stable Diffusion и других для создания новых идей и развития инновационного мышления. Также будут обсуждаться преимущества использования таких технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, креативное мышление, инновация, образовательная технология, ChatGPT.

Annotation. In the presented article, the issue of the involvement of generative artificial intelligence in the educational process is considered, as well as the influence of such involvement on the development of creative thinking in students. The potential of the use of such AI models as ChatGPT, Midjourney, Stable Diffusion, and others for the generation of new ideas and the development of innovative thinking is considered. The advantages of the application of such AI technologies in the educational process are also discussed.

Keywords: generative artificial intelligence, creative thinking, innovation, educational technology, ChatGPT.

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli sun’iy intellekt inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilmoqda. Shu munosabat bilan ta’kidlash joizki, so‘nggi

bir necha yil ichida axborot texnologiyalarining eng dinamik tendensiyalaridan biri generativ sun’iy intellekt bo‘lib, u Generativ sun’iy intellekt deb ham ataladi. Generativ sun’iy intellekt deganda, mavjud ma’lumotlar to‘plamlari asosida yangi matnlar, tasvirlar, audio va videolarni yaratishga qodir bo‘lgan sun’iy intellekt tizimlari tushuniladi. Bunday tizimlar ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilgandan so‘ng, ularning ichki qonuniyatlarini aniqlaydi va shu asosda mazmunli va mantiqiy bo‘lgan yangi natijalarni hosil qiladi.


Generativ sun’iy intellekt mashinaviy o‘rganish va chuqur o‘rganish algoritmlariga asoslanadi. Bunday texnologiya ma’lumotlar to‘plamini tahlil qiladi va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydi va shu asosda yangi ma’lumotlar to‘plamini hosil qiladi. Masalan, generativ sun’iy intellektga asoslangan tizimlar o‘quvchilarda paydo bo‘lgan savollarga zudlik bilan javob berish, o‘quv matnlarini tahlil qilish va qisqa xulosalar ishlab chiqish, hatto turli mavzular bo‘yicha qo‘shimcha tushuntirishlar berishga qodir. Shunday qilib, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish jarayoni ancha samarali bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ta’kidlash joizki, generativ sun’iy intellekt ilmiy tadqiqot jarayonining ham muhim qismi hisoblanadi. Bunday texnologiyalar yordamida olimlar katta hajmdagi ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish, yangi ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqish va hatto ilmiy maqolalar yozish jarayonini tezlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, generativ sun’iy intellekt modellashtirish va bashorat qilish uchun ham ishlatilishini ta’kidlash joiz.

Generativ sun’iy intellektning yana bir muhim afzalligi shundaki, bunday texnologiyalar kompyuterlar va inson o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yaxshilashga qodir. Ushbu tizimlar shaxsning ijodiy fikrlash jarayonini osonlashtiradi, bu esa yangi g‘oyalarni shakllantirish va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Masalan, generativ sun’iy intellekt tizimlari grafika, dasturlash va jurnalistika uchun yangi dizaynlarda samarali qo‘llanilishi mumkin.

Endi generativ sun’iy intellektni ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz, u quydagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: *(1-rasm).*



1-rasm. Generativ sun’iy intellektni ishlash prinsipi

Ma’lumotlar (Data) Generativ sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlar (matnlar, rasmlar, videolar, kodlar) asosida ishlaydi. Ushbu ma’lumotlar modelni o‘qitish uchun ishlatiladi.

O‘qitishjarayoni(Training) Sun’iy intellekt algoritmlari mashina o‘rganish usullari yordamida ma’umotlardan naqshlar va bog‘lanishlarni o‘rganadi.

Neyron tarmoq modeli O‘qitilgan model neyron tarmoqlar asosida ishlaydi va ma’lumotlar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni aniqlaydi.

Foydalanuvchi so‘rovi (Prompt) Foydalanuvchi sun’iy intellektga savol yoki topshiriq beradi. Masalan: matn yozish, rasm yaratish yoki g‘oya taklif qilish.

Sun’iy intellekt qayta ishlashi Model foydalanuvchi so‘rovini o‘rganilgan ma’lumotlar bilan solishtirib, yangi kontent yaratadi.

Natija (Output) Natijada yangi kontent hosil bo‘ladi: matn, rasm, vido, kod, dizayn.

Ta’lim tizimida generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini individuallashtirish hamda talabalarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Generativ sun’iy intellekt nafaqat mavjud ma’lumotlarni tahlil qiladi, balki yangi bilim va kontent yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgani sababli ta’lim jarayonini yanada interaktiv va samarali shaklga keltiradi.


Birinchidan, generativ sun’iy intellekt o‘quv materiallarini yaratish va takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar darsliklar, ma’ruza matnlari, test savollari, amaliy topshiriqlar va metodik qo‘llanmalarni tez va samarali tayyorlashlari mumkin. Sun’iy intellekt tizimlari o‘quv materiallarini turli darajadagi talabalar uchun moslashtirib, ularni sodda yoki murakkab shaklda taqdim etish imkoniyatini ham beradi.

Ikkinchidan, generativ sun’iy intellekt individual ta’limni tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish tezligi turlicha bo‘lgani sababli generativ sun’iy intellekt asosidagi tizimlar talabalarning o‘quv faoliyatini tahlil qilib, ularga individual tavsiyalar, qo‘shimcha materiallar va mashqlarni taklif qiladi. Bu esa ta’lim jarayonida differensial yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, generativ sun’iy intellekt talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Talabalar sun’iy intellekt tizimlari orqali turli savollariga tezkor javob olishlari, murakkab mavzular bo‘yicha qo‘shimcha tushuntirishlar olishlari hamda o‘quv materiallarini chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, generativ sun’iy intellekt interaktiv o‘qitish usullarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va modellashtirish vositalari talabalar uchun murakkab ilmiy jarayonlarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi. Bunday interaktiv yondashuv o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Beshinchidan, generativ sun’iy intellekt ijodiy va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Talabalar ushbu texnologiyalar yordamida ilmiy loyihalar yaratish, tadqiqot ishlarini tashkil etish, ma’lumotlarni tahlil qilish va yangi g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ijodiy g‘oya yaratish jarayonini rivojlantiradi. Bu esa quydagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: *(2-rasm).*



2-rasm. Ijodiy g‘oya yaratish jaroyoni

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimida ham sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ushbu masala bo‘yicha bir qator o‘zbek olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan.

Masalan, **R.H. Ayupov** o‘zining sun’iy intellekt texnologiyalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellektning jamiyat rivojidagi o‘rni haqida fikr yuritib, ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish talabalarning analitik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quv jarayonini individuallashtirish, bilimlarni samarali o‘zlashtirish hamda talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, **N. Muslimov** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati keng yoritilgan. Muallif ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkinligini qayd etadi. Bu jihatlar generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali yanada samarali amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbek olimlaridan **B.X. Xodjayev** ham zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini o‘rgangan. Uning ilmiy ishlarida o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etish, talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda ularning mustaqil bilim olish kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Muallif ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishini alohida ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, **U.N. Nishonaliyev** va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda axborot texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni, elektron ta’lim muhitini yaratish hamda raqamli pedagogika asosida ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalar talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish jarayonida muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, generative sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida talabalar va sun’iy intellekt o‘rtasidagi samarali hamkorlik o‘quv jarayonining sifatini oshirish, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish hamda talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyida talabalar va sun’iy intellekt hamkorligi modeli ko‘rsatilgan bo‘lib: *(3-rasm).*



3-rasm. Talabalar va sun’iy intellect hamkorlik modeli

ishlash tartibi quydagicha:

Jarayon talaba tomonidan muammo yoki vazifa qo‘yish bilan boshlanadi. Talaba sun’iy intellektga savol beradi yoki topshiriq kiritadi.

Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, talabaning so‘roviga mos g‘oyalar va tavsiyalarni taklif qiladi.

Sun’iy intellekt yordamida bir nechta yangi g‘oyalar va kreativ yechimlar shakllanadi.

Talaba va sun’iy intellekt birgalikda g‘oyalarni baholaydi va eng samarali variantni tanlaydi.

Natijada yangi loyiha, mahsulot yoki innovatsion yechim yaratiladi.

Talabalar va sun’iy intellekt hamkorligi modeli – bu ta’lim jarayonida talaba, o‘qituvchi va sun’iy intellekt tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyani ta’minlaydigan, bilim olish jarayonini optimallashtiradigan pedagogik va texnologik tizim hisoblanadi. Mazkur modelning asosiy maqsadi talabalarning bilim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularga individual

yondashuvni ta’minlash hamda ta’lim jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Sun’iy intellekt tizimlari talabalarga murakkab mavzularni tushuntirish, qo‘shimcha ma’lumotlar taqdim etish, turli masalalarni yechishda yordam berish, shuningdek, o‘quv materiallarini tahlil qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Natijada talabalar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va kreativ yechimlar topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Talabalar va sun’iy intellekt hamkorligi modeli bir necha muhim komponentlardan tashkil topadi. Birinchi komponent – ta’lim resurslari bilan ishlash jarayoni bo‘lib, bunda sun’iy intellekt texnologiyalari orqali elektron darsliklar, ma’ruza matnlari, videodarslar va boshqa o‘quv materiallari talabalarga qulay va tushunarli shaklda taqdim etiladi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar o‘quv materiallarini talabaning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish tezligiga mos ravishda taklif qilish imkoniyatiga ega.

Ikkinchi komponent – interaktiv o‘quv faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonda talabalar sun’iy intellekt yordamida turli testlar, muammoli vaziyatlar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini bajaradilar. Bunday interaktiv yondashuv talabalarning o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqishini oshiradi va bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Ayniqsa, texnik va axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi fanlarda sun’iy intellekt asosidagi modellashtirish vositalari talabalarning analitik va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchi komponent – individual ta’limni qo‘llab-quvvatlash tizimi hisoblanadi. Sun’iy intellekt algoritmlari talabalarning o‘quv faoliyatini tahlil qilish orqali ularning bilim darajasi, qiyinchiliklari va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlaydi. Shunga asoslanib, tizim talabalarga individual tavsiyalar, qo‘shimcha topshiriqlar yoki tushuntirish materiallarini taklif etadi. Bu esa ta’lim jarayonida differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

To‘rtinchi komponent – tahlil va baholash mexanizmidir. Sun’iy intellekt tizimlari talabalarning o‘quv natijalarini tez va aniq tahlil qilish, ularning bilim darajasini baholash hamda o‘quv jarayonining samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan test tizimlari, yozma ishlarni tekshirish algoritmlari yoki o‘quv faoliyatini monitoring qilish platformalari o‘qituvchilarga talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatishda yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, generativ sun’iy intellekt vositalari ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini yaratish, murakkab mavzularni tushuntirish, individual ta’limni tashkil etish hamda talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Bunday texnologiyalar yordamida talabalar turli masalalarni tahlil qilish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish, ilmiy loyihalar yaratish va muammoli vaziyatlarga kreativ yondashuv asosida yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Natijada generativ sun’iy intellekt vositalari talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, generativ sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim jarayonida interaktivlikni oshiradi, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi hamda bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini individuallashtirish imkonini yaratadi. Talabalar ushbu texnologiyalar

yordamida axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va yangi bilimlar yaratish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularning mediasavodxonligi, raqamli kompetensiyalari hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, generativ sun’iy intellekt vositalari talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishda ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar ushbu texnologiyalar yordamida ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish jarayonlarini amalga oshirish, turli loyiha va tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning innovatsion fikrlashini rivojlantirib, kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini oshiradi.

Umuman olganda, generativ sun’iy intellekt vositalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish hamda zamonaviy raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va innovatsion rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupov R.H. “Sun’iy intellekt asoslari” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Muslimov N.A. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” – Toshkent: Fan, 2019.
3. Xodjayev B.X. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
4. Nishonaliyev U.N. “Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” – Toshkent, 2021.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

A PEDAGOGICAL FRAMEWORK FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TOURISM STUDENTS

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.100

***Khafiza Nishanova**, PHD*
Senior Lecturer
Department of applied aspects of english
Uzbekistan state world languages university
Tashkent, Uzbekistan
Email: xafiza.nishanova@gmail.com

Abstract. This article presents a pedagogical framework aimed at developing intercultural communicative competence (ICC) among tourism students. The framework integrates theoretical and practical approaches, focusing on enhancing students’ awareness, skills, and attitudes necessary for effective intercultural communication in tourism contexts. Key components include experiential learning, role-play, collaborative projects, and reflective practices. The study emphasizes the importance of fostering ICC to improve professional readiness, enhance customer satisfaction, and promote global understanding.

Keywords: Intercultural communicative competence, tourism education, pedagogy, experiential learning, cross-cultural communication, reflective practice

Introduction. In today’s globalized tourism industry, professionals frequently interact with clients, colleagues, and stakeholders from diverse cultural backgrounds. Intercultural communicative competence (ICC) is critical for tourism students, enabling them to navigate cultural differences effectively, provide high-quality service, and foster positive international relationships. ICC encompasses knowledge, skills, and attitudes that allow individuals to understand, respect, and adapt to cultural diversity. Despite its recognized importance, there is limited structured guidance on pedagogical methods to systematically develop ICC in tourism education. This study proposes a pedagogical framework that integrates experiential, reflective, and collaborative learning approaches to cultivate ICC among tourism students. Tourism students, as future industry professionals, must develop ICC to navigate complex social, linguistic, and cultural contexts they will encounter in their careers. Despite the recognized importance of ICC, many tourism curricula worldwide provide limited structured opportunities for its development. Traditional teaching methods often emphasize theoretical knowledge but fail to equip students with practical skills for real-world intercultural encounters.

The purpose of this study is to propose a pedagogical framework that integrates these approaches to systematically develop ICC among tourism students. The framework aims to provide a structured, practical, and theoretically grounded method for enhancing intercultural awareness, communication skills, and professional readiness. By implementing such a framework, educators can better prepare students to meet the demands of a multicultural tourism industry and contribute positively to global understanding and cooperation.

Methods

The study employed a mixed-methods approach to develop and evaluate the pedagogical framework:

1. **Curriculum analysis:** Existing tourism curricula were reviewed to identify gaps in intercultural communication training.
2. **Framework design:** A pedagogical model was designed incorporating three main components:
   - **Experiential learning:** Role-playing, simulations, and real-world case studies.
   - **Collaborative projects:** Group assignments requiring interaction with peers from different cultural backgrounds.
   - **Reflective practice:** Journals and guided reflection sessions to promote self-awareness and critical thinking.
3. **Implementation:** The framework was piloted with a cohort of 50 undergraduate tourism students over one semester.
4. **Assessment:** Pre- and post-intervention surveys, student reflections, and instructor evaluations measured ICC development, including knowledge, skills, and attitudes.

Based on the curriculum analysis, a pedagogical framework was developed that integrated experiential learning, collaborative projects, and reflective practice. Experiential learning activities included role-plays, simulations of tourism scenarios, and case studies based on real-world intercultural encounters. Collaborative projects required students to work in diverse groups to solve intercultural problems, design tourism service solutions, or present cultural analyses. Reflective practice was encouraged through guided journals, self-assessment exercises, and group discussions, allowing students to critically evaluate their assumptions, biases, and communication strategies.

The framework was implemented over a one-semester course involving 50 undergraduate tourism students. Students participated in weekly sessions that combined theoretical instruction, experiential exercises, and collaborative tasks. To evaluate the effectiveness of the framework, multiple data collection methods were employed. Pre- and post-intervention surveys assessed students’ ICC levels, focusing on knowledge, skills, and attitudes. Additionally, qualitative data were gathered through student reflections, observation of classroom interactions, and instructor evaluations. This triangulated approach ensured a comprehensive understanding of the framework’s impact and allowed for analysis of both measurable improvements in competence and subjective experiences of students.

Ethical considerations were observed throughout the study, including informed consent, confidentiality of student data, and voluntary participation in surveys and reflective exercises.

Data analysis involved quantitative comparison of pre- and post-intervention survey scores to measure competence growth, while thematic analysis of reflections and observations provided insights into students' experiential learning processes, intercultural challenges encountered, and strategies for improvement. Overall, the methodology was designed to combine rigorous empirical evaluation with practical pedagogical application, providing both evidence of effectiveness and actionable guidance for educators aiming to enhance ICC in tourism education.

Results

The implementation of the pedagogical framework produced several notable outcomes:

- Students demonstrated significant improvement in understanding cultural norms, communication styles, and social etiquette relevant to tourism.
- Collaborative projects enhanced teamwork and intercultural problem-solving skills.
- Reflective practices increased students' self-awareness and adaptability in diverse interactions.
- Post-intervention surveys indicated a 25% increase in overall ICC scores compared to pre-intervention levels.
- Students reported higher confidence in managing cross-cultural situations and providing culturally sensitive services.

Qualitative data from student reflections and instructor observations revealed that experiential learning activities, such as role-plays and simulations, were particularly effective in fostering practical skills. Students reported feeling more confident in handling real-world intercultural scenarios, including navigating language barriers, managing cultural misunderstandings, and adapting service approaches to meet diverse client expectations. Collaborative projects encouraged students to work effectively in culturally diverse teams, promoting empathy, negotiation, and problem-solving skills. Many participants reflected on their initial challenges in understanding different perspectives and highlighted how group work and discussions helped them overcome biases and stereotypes.

Reflective practice played a key role in promoting self-awareness and critical thinking. Journals and guided reflections allowed students to identify personal assumptions, cultural blind spots, and emotional responses to intercultural situations. This process enabled them to develop adaptive strategies and foster an attitude of openness and respect toward cultural diversity. For example, several students reported increased awareness of how non-verbal cues differ across cultures and the importance of adjusting communication styles accordingly.

In addition, students' confidence and motivation to engage in intercultural interactions improved. Observations indicated greater willingness to participate in discussions, ask questions, and take initiative during role-play scenarios. Instructors also noted that students demonstrated a deeper understanding of intercultural dynamics, showing the ability to anticipate potential conflicts and propose culturally sensitive solutions.

Overall, the results suggest that integrating experiential learning, collaborative activities, and reflective practice within a structured pedagogical framework effectively enhances ICC among tourism students. The combination of practical engagement, teamwork,

and introspective analysis not only improved measurable competence but also fostered positive attitudes and professional readiness for intercultural interactions in real-world tourism contexts.

Discussion

The study indicates that integrating experiential learning, collaboration, and reflection effectively develops ICC among tourism students. Experiential activities allow learners to practice real-world scenarios in a safe environment, while collaboration fosters interpersonal skills and empathy. Reflective practice encourages critical self-assessment, which is essential for recognizing personal biases and improving intercultural understanding. These findings align with existing literature emphasizing the role of active learning strategies in ICC development. Moreover, the framework can be adapted to other disciplines where intercultural communication is crucial, enhancing the global competencies of future professionals. Experiential learning emerged as a particularly powerful component of the framework. Role-plays, simulations, and case studies allowed students to encounter authentic intercultural challenges in a controlled setting, providing immediate opportunities for skill application and feedback. These activities enhanced students' ability to navigate language barriers, interpret non-verbal cues, and manage misunderstandings, which are essential competencies for tourism professionals working in diverse international contexts. This finding supports Fantini's (2009) assertion that direct engagement with cultural situations accelerates intercultural skill acquisition and promotes practical problem-solving.

Collaborative projects reinforced teamwork, negotiation, and empathy. Working in culturally heterogeneous groups required students to reconcile different perspectives, manage conflicts, and co-create solutions, mirroring real-world tourism work environments. This aspect of the framework helped students internalize the social and interpersonal dimensions of ICC, demonstrating that competence development extends beyond individual knowledge to include relational and cooperative skills (Hammer, Bennett, & Wiseman, 2003).

Reflective practice played an equally important role in fostering self-awareness and critical thinking. Guided journals and discussion sessions encouraged students to identify their assumptions, biases, and habitual communication patterns. Many students acknowledged a shift in mindset, recognizing the need to adapt behaviors and attitudes to facilitate effective intercultural interaction. These insights indicate that reflection is a vital mechanism for transforming experience into actionable intercultural competence, as highlighted in studies by Jackson (2014) and Spencer-Oatey & Franklin (2009).

Conclusion and recommendations

This study demonstrates that a structured pedagogical framework integrating experiential learning, collaborative projects, and reflective practice significantly enhances intercultural communicative competence (ICC) in tourism students. The findings indicate measurable improvements in students' knowledge of cultural norms, communication skills, and adaptive attitudes, as well as increased confidence and motivation to engage in intercultural interactions. By combining theoretical instruction with practical application and introspective analysis, the framework addresses both the cognitive and affective dimensions of

ICC, offering a comprehensive approach to preparing students for the multicultural demands of the tourism industry.

Furthermore, the framework fosters the development of professional readiness, equipping students with the ability to navigate cultural differences, manage conflicts, and provide culturally sensitive services in real-world contexts. The integration of reflection ensures that students internalize learning experiences, critically assess their own assumptions, and cultivate empathy, ultimately contributing to long-term competence development. These outcomes underscore the importance of moving beyond traditional lecture-based pedagogy toward active, student-centered learning strategies in tourism education.

Recommendations

1. Curriculum Integration: Tourism programs should systematically integrate ICC development into core curricula, ensuring that all students have opportunities for experiential, collaborative, and reflective learning.

2. Experiential Activities: Educators should implement role-plays, simulations, and case studies to provide students with realistic intercultural scenarios that enhance practical skill development.

3. Collaborative Learning: Group projects with culturally diverse teams should be encouraged to strengthen negotiation, problem-solving, and empathy skills.

4. Reflective Practice: Journals, self-assessments, and guided discussions should be regularly employed to promote self-awareness, critical thinking, and continuous improvement in intercultural competence.

5. Professional Development: Faculty should receive training in intercultural pedagogy to effectively facilitate student learning and provide meaningful feedback.

6. Assessment Strategies: Institutions should adopt both qualitative and quantitative assessment methods to evaluate the growth of ICC, combining surveys, reflections, and observations for a holistic understanding.

7. Continuous Improvement: The framework should be periodically updated based on student feedback, emerging research, and changes in the tourism industry to remain relevant and effective.

By implementing these recommendations, tourism educators can better prepare students to navigate a globalized, multicultural professional environment and contribute positively to intercultural understanding and service excellence.

References

1. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.

2. Deardorff, D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241–266.

3. Fantini, A. E. (2009). Assessing intercultural competence: Issues and tools. The SAGE Handbook of Intercultural Competence, 456–476.

4. Hammer, M. R., Bennett, M. J., & Wiseman, R. (2003). Measuring intercultural sensitivity: The intercultural development inventory. International Journal of Intercultural Relations, 27(4), 421–443.

5. Jackson, J. (2014). Introducing Language and Intercultural Communication. London: Routledge.

6. Spencer-Oatey, H., & Franklin, P. (2009). Intercultural Interaction: A Multidisciplinary Approach to Intercultural Communication. Basingstoke: Palgrave Macmillan.

7. Wiseman, R. L., & Koester, J. (2010). Intercultural Communication Competence. Boston: Pearson.

8. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge: Cambridge University Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.101

Rizoyeva Muslima Raxmonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashning rivojlanish xususiyatlari, uning psixologik va pedagogik omillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 3–4 hamda 5–6 yosh davrlarida kreativ fikrlashning namoyon bo‘lish shakllari, tasavvur, obrazli tafakkur, assotsiativ fikrlash va erkin ijodiy ifodaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, metodik yondashuvlar hamda kreativ muhit yaratish omillari asoslab berilgan. Maqolada bolalarda originallik, moslashuvchanlik, g‘oyalar oqimi, detallashtirish va refleksiya kabi kreativ fikrlash komponentlarini shakllantirishga qaratilgan nazariy model taklif etiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:kreativ fikrlash, maktabgacha yoshdagi bolalar, tasviriy faoliyat, tasavvur, obrazli tafakkur, assotsiativ fikrlash, ijodiy qobiliyat, pedagogik shart-sharoitlar, rivojlantiruvchi muhit, refleksiya, originallik, moslashuvchanlik, g‘oyalar oqimi.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности развития креативного мышления у детей дошкольного возраста, а также его психологические и педагогические факторы. В исследовании раскрываются формы проявления креативного мышления у детей 3–4 и 5–6 лет, значение воображения, образного мышления, ассоциативного мышления и свободного творческого самовыражения. Кроме того, обоснованы педагогические условия, методические подходы и факторы создания креативной среды, способствующие развитию креативного мышления в процессе изобразительной деятельности. В статье предложена теоретическая модель, направленная на формирование у детей таких компонентов креативного мышления, как оригинальность, гибкость, поток идей, детализирование и рефлексия. Результаты исследования могут способствовать совершенствованию методики развития креативного мышления у детей через изобразительную деятельность в организациях дошкольного образования.

Ключевые слова. креативное мышление, дети дошкольного возраста, изобразительная деятельность, воображение, образное мышление, ассоциативное

мышление, творческие способности, педагогические условия, развивающая среда, рефлексия, оригинальность, гибкость, поток идей.

Abstract. This article analyzes the characteristics of the development of creative thinking in preschool children and its psychological and pedagogical factors. The study highlights the forms of manifestation of creative thinking in children aged 3–4 and 5–6, as well as the importance of imagination, figurative thinking, associative thinking, and free creative expression. In addition, the pedagogical conditions, methodological approaches, and factors for creating a creative environment that contribute to the development of creative thinking in the process of visual activities are substantiated. The article proposes a theoretical model aimed at developing components of creative thinking in children such as originality, flexibility, idea fluency, elaboration, and reflection. The results of the research can contribute to improving the methodology of developing children’s creative thinking through visual activities in preschool educational institutions.

Keywords. creative thinking, preschool children, visual activities, imagination, figurative thinking, associative thinking, creative abilities, pedagogical conditions, developmental environment, reflection, originality, flexibility, idea fluency.

Kirish. Maktabgacha yosh davri bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, bilish jarayonlari va ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bola atrof-muhitni faol o‘rganadi, predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, nutqi shakllanadi, obrazli tafakkur kuchayadi va o‘yin faoliyati yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu jarayonlar bilan bir qatorda bolalarda kreativ fikrlashning tabiiy manbalari bo‘lgan tasavvur (fantaziya), assotsiativ fikrlash, erkin ifoda va yangilikka intilish kabi psixologik xususiyatlar ham faol rivojlanadi. Shu sababli maktabgacha yosh davri kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun eng qulay psixologik-pedagogik zamin hisoblanadi.

Kreativ fikrlash maktabgacha yoshdagi bolalarda ko‘proq spontan (o‘z-o‘zidan) va erkin xarakterda namoyon bo‘ladi. Bola o‘yin jarayonida predmetlarga yangi ma’no beradi, oddiy narsalardan yangi obrazlar yaratadi, voqelikni o‘z tasavvurida o‘zgartirib, yangicha syujetlarni o‘ylab topadi. Bu holat kreativ fikrlashning tabiiy namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, tarbiyachi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan sharoitda u yanada rivojlanadi va barqarorlashadi. Aksincha, nazorat va shablonlarga asoslangan ta’lim jarayonida bolaning kreativ fikrlashi susayishi mumkin. Shu bois kreativ fikrlashning rivojlanish xususiyatlarini yosh davrlar kesimida tahlil qilish metodikani to‘g‘ri tashkil etish uchun muhimdir.

1) 3–4 yosh davrida kreativ fikrlashning namoyon bo‘lishi. Kichik maktabgacha yosh (3–4 yosh) davrida bolalarda kreativ fikrlashning asosiy mexanizmi tasavvur va assotsiativ fikrlashga tayangan holda rivojlanadi [5]. Bu yoshda bola ko‘proq obrazlar orqali fikrlaydi va atrofdagi predmetlarni o‘zicha talqin qiladi. Masalan, oddiy doirani quyosh, sharcha, gul yoki yuz deb tasavvur qilishi mumkin. Shu sababli kreativ fikrlash 3–4 yoshda ko‘proq: predmetlarni o‘zgacha ko‘ra olish; sodda analogiyalar yaratish; obrazlarni erkin almashtirish; tasviriy faoliyatda tajriba qilish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Bu davrda bolaning rasm chizishi ko‘pincha sodda chiziqlar va shakllardan iborat bo‘lsa-da, ularning mazmuni bolada katta emotsional va tasavvuriy ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola chizgan tasvirni o‘zi tushuntiradi, unga ma’no beradi va rasmni “syujet” sifatida qabul qiladi. Bu holat kreativ fikrlashning mantiqiy emas, obrazli xarakterga egaligini ko‘rsatadi. Shuningdek, 3–4 yoshdagi bolalarda kreativ fikrlash ko‘pincha qisqa davom etadi, ular tez chalg‘ishi mumkin, shu sababli mashg‘ulotlar o‘yin va rag‘batlantirish asosida tashkil etilganda samarali bo‘ladi.

2) 5–6 yosh davrida kreativ fikrlashning murakkablashuvi. Katta maktabgacha yosh (5–6 yosh) davrida bolalarda kreativ fikrlash ancha murakkablashadi va tizimli ko‘rinishga ega bo‘la boshlaydi. Bu davrda bola nafaqat tasavvurga, balki tafakkur elementlariga ham tayanadi: u predmetlarni taqqoslashga, sabab-oqibat aloqalarini tushunishga, syujetli fikr yuritishga va g‘oyani rejalashtirishga moyil bo‘ladi. Tasviriy faoliyatda bu quyidagicha namoyon bo‘ladi: rasmda kompozitsion yaxlitlik kuchayadi; detallarga e’tibor ortadi; bola g‘oyani oldindan rejalashtirishi mumkin; rang tanlashda ma’no va kayfiyatni hisobga oladi; bir mavzuni turli variantlarda bajarishga intiladi.

5–6 yoshda kreativ fikrlashning refleksiv ko‘rinishlari ham shakllana boshlaydi. Bola o‘z ishini baholashga, “yana boshqacha qilsa bo‘ladimi?” degan savolga javob topishga, xatoni tuzatishga harakat qiladi. Bu holat kreativ fikrlashning ongli boshqarilayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu yosh davrida bolalar bir-birining ishiga qarab ilhomlanishi, hamkorlikda rasm chizish yoki umumiy kompozitsiya yaratishga qiziqishi ham mumkin. Bu esa kreativ fikrlashning ijtimoiy rivojlanish omiliga ega ekanligini anglatadi.

3) Kreativ fikrlash rivojlanishining individual farqlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlash darajasi bir xil bo‘lmaydi. Har bir bolaning qiziqishi, temperament xususiyatlari, oilaviy muhit, tajribasi va pedagogik ta’sir natijasida kreativ fikrlash turlicha rivojlanadi. Ba’zi bolalar tez va faol g‘oya topishi mumkin, boshqalari esa sekinroq, lekin chuqurroq ishlaydi. Shuningdek, ayrim bolalar rang va fantaziyaga boy ishlasa, boshqalari shakl va detalga e’tibor berishi mumkin. Shu sababli tarbiyachi kreativ fikrlashni baholashda bir xil andoza bilan yondashmasdan, individual dinamikani inobatga olishi lozim.

Individual farqlarni hisobga olishda quyidagi jihatlar muhim: bolani boshqalar bilan taqqoslamaslik; bolaning o‘ziga xos g‘oyasini qadrlash; ijodiy faoliyatda erkin tanlov berish; har bir bola uchun rag‘batlantiruvchi muhit yaratish.

4) Kreativ fikrlashni rivojlantirishda nutq va kommunikatsiyaning ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashning rivojlanishi nutq bilan uzviy bog‘liqdir. Bola o‘z fikrini so‘z orqali ifodalay olgan sari, uning g‘oyasi aniqlashadi, mantiqiylashadi va kengayadi. Tasviriy faoliyatdan so‘ng bolaga “Sen nima chizding?”, “Bu nima uchun shunday?”, “Yana qanday bo‘lishi mumkin?” kabi savollar berish refleksiyani kuchaytiradi va kreativ fikrlashni chuqurlashtiradi. Shuningdek, bolalarning bir-birining ishini ko‘rib, fikr bildirish jarayoni ijtimoiy kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Nutq va kreativ fikrlashning bog‘liqligi shundan iboratki: bola rasmning mazmunini gapirib beradi; o‘z g‘oyasini himoya qiladi; yangi syujet o‘ylab topadi; hamkorlikda fikr

almashadi. Demak, tasviriy faoliyatni nutq rivoji bilan integratsiya qilish kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali yo‘nalishidir.

5) Emotsional holat va motivatsiyaning ta’siri. Kreativ fikrlashning rivojlanishida bolaning emotsional holati va motivatsiyasi muhim o‘rin tutadi. Bola o‘zini xavfsiz, erkin va rag‘batlantirilgan muhitda his qilsa, kreativ fikrlash faol bo‘ladi. Aksincha, tanqid, “xato qilding”, “bunday bo‘lmaydi” kabi baholar bolaning ijodiy tashabbusini pasaytiradi. Shu sababli maktabgacha ta’limda kreativ fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachi bolaning har bir g‘oyasini qadrlashi, jarayonni maqtashi va natijadan ko‘ra ijodiy izlanishni ustun qo‘yishi zarur.

Motivatsiyani oshiruvchi pedagogik harakatlar: bolaga ijodiy erkinlik berish; ish natijasini ko‘rgazmaga chiqarish; bolani rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash; “kuchli nazorat”dan ko‘ra “hamkorlik” uslubida ishlash.

6) Tasviriy faoliyat orqali kreativ fikrlash rivojlanishining bosqichlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat jarayonida kreativ fikrlash rivojlanishi shartli ravishda quyidagi bosqichlarda kechishi mumkin:

1. Rag‘bat va qiziqish bosqichi – bola mavzuga qiziqadi, tajriba qilishga tayyor bo‘ladi.
2. G‘oya ishlab chiqish bosqichi – bola obrazni tasavvur qiladi, variantlarni o‘ylaydi.
3. Ijodiy amalga oshirish bosqichi – bola rasm chizadi, detallar qo‘shadi, material bilan ishlaydi.
4. Takomillashtirish bosqichi – bola ishini o‘zgartiradi, to‘ldiradi, yaxshilaydi.
5. Refleksiya bosqichi – bola o‘z ishini tushuntiradi, baholaydi, xulosa qiladi.

Ushbu bosqichlar kreativ fikrlashni metodik jihatdan boshqarish va rivojlantirish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashning rivojlanishi tasavvur va obrazli tafakkur ustuvorligi, o‘yin faoliyatining yetakchi roli, nutq va kommunikatsiya imkoniyatlarining kengayishi, emotsional motivatsiyaning kuchliligi hamda individual farqlar bilan tavsiflanadi. 3–4 yoshda kreativ fikrlash ko‘proq spontan va tasavvurga tayangan holda namoyon bo‘lsa, 5–6 yoshda u murakkablashib, g‘oya rejalashtirish, detallashtirish va refleksiya elementlari bilan boyiydi [4].

Maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash bolada tabiiy ravishda mavjud bo‘lishi mumkin, biroq u har doim ham o‘z-o‘zidan yuqori darajada rivojlanib ketmaydi. Uning shakllanishi va barqarorlashuvi pedagogik jarayonning qanday tashkil etilganiga, tarbiyachi faoliyatiga, rivojlantiruvchi muhitga, metodik yondashuvga va ta’lim jarayonining mazmuniga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli maktabgacha ta’lim amaliyotida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ilmiy asoslash muhim masala sifatida qaraladi.

Pedagogik shart-sharoitlar deganda kreativ fikrlashning namoyon bo‘lishi, faollashuvi va rivojlanishini ta’minlaydigan tashkiliy, metodik, psixologik hamda didaktik omillar majmui tushuniladi. Ushbu shart-sharoitlar tizimli tarzda qo‘llanilgandagina tasviriy faoliyat

jarayonida bolalarning originallik, moslashuvchanlik, g‘oyalar oqimi, detallashtirish va refleksiya kabi kreativ fikrlash komponentlari samarali rivojlanadi.

1) Rivojlantiruvchi (kreativ) muhitni yaratish. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning birinchi va eng muhim sharti – maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhit yaratishdir. Kreativ muhit bolaning erkin ijod qilishiga, xatodan qo‘rqmasligiga, yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishiga va o‘z fikrini erkin ifoda etishiga imkon beradigan sharoitdir. Rivojlantiruvchi muhit nafaqat xona jihozlari va materiallar bilan ta’minlanganlikni, balki psixologik iqlimning ijobiyligini ham o‘z ichiga oladi.

Tasviriy faoliyat uchun tashkil etilgan “ijod markazi”da materiallarning ochiq joylashtirilishi, bolalarning mustaqil tanlov qilish imkoniyati, ishlar ko‘rgazmasi va erkin faoliyatga sharoit yaratish kreativ fikrlashning namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Muhitning ijodiy bo‘lishi, unda yangilikka ochiqlik va rag‘bat mavjudligi bolalarning kreativ faolligini oshiradi.

2) Tarbiyachining kreativ pedagogik pozitsiyasi va qo‘llab-quvvatlovchi munosabati. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining shaxsiy pedagogik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolani nazorat qiluvchi “talab qo‘yuvchi” subyekt sifatida emas, balki bolani ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi, hamkorlikda faoliyat yurituvchi fasilitator sifatida ko‘rishi zarur.

Tarbiyachining qo‘llab-quvvatlovchi pozitsiyasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

✓ bolaning g‘oyasini qadrlash va maqtash;

✓ natijadan ko‘ra jarayonni (ijodiy izlanishni) e’tirof etish;

✓ “xato”ni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilish;

✓ bolani shablon bilan cheklamaslik;

✓ bolalarda ishonch va mustaqillikni shakllantirish.

Kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi tarbiyachi o‘z faoliyatida bolaga “to‘g‘ri javob”ni berishdan ko‘ra, uning o‘zi mustaqil yechim topishini rag‘batlantiradi. Bu jarayonda tarbiyachi savollar, muammoli vaziyatlar, erkin tanlov va refleksiya orqali bolaning fikrini faollashtiradi.

3) Ochiq va muammoli topshiriqlar tizimini qo‘llash. Kreativ fikrlashning rivojlanishi uchun topshiriqlar faqat reproduktiv xarakterda emas, balki ochiq va muammoli bo‘lishi zarur. Reproduktiv topshiriqlarda bola tayyor namunani takrorlaydi, bu esa kreativ fikrlashni cheklaydi. Ochiq topshiriqlarda esa bitta to‘g‘ri javob bo‘lmaydi, bolaga o‘z g‘oyasini ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratiladi.

Tasviriy faoliyatda kreativ fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar:

✓ “Bir predmetni 3 xil usulda chiz”;

✓ “Bir shakldan turli obrazlar yarat”;

✓ “Ertak qahramonini o‘zing o‘ylab top”;

✓ “Boshqacha rang tanlasang nima bo‘ladi?”

kabi vazifalar orqali amalga oshiriladi.

Muammoli topshiriqlarda bola fikrlashga majbur bo‘ladi, variantlar qidiradi, sinaydi, tanlaydi va o‘z qarorini asoslashga harakat qiladi. Bu jarayon kreativ fikrlashning moslashuvchanlik va originallik komponentlarini rivojlantiradi.

4) Erkin tanlov va ijodiy mustaqillikni ta’minlash. Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun bolaga tanlov erkinligi berish pedagogik shart sifatida juda muhimdir. Tanlov erkinligi bolada “men o‘zim” tamoyilini kuchaytiradi, mustaqillikni oshiradi va kreativ tashabbusni faollashtiradi. Tanlov quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin:

- ✓ rang tanlash;
- ✓ shakl va kompozitsiya tanlash;
- ✓ material tanlash (qog‘oz, bo‘yoq, plastilin, kollaj);
- ✓ texnika tanlash (barmoq bilan, tampon, monoprint va boshqalar);
- ✓ syujet va obraz tanlash.

Agar tarbiyachi bolani “faqat shunday qil” deb cheklasa, bola kreativ fikrlashga emas, “to‘g‘ri bajarish”ga yo‘naltiriladi. Demak, erkin tanlov kreativ fikrlashning faol mexanizmini ishga soladi.

5) O‘yin va tasviriy faoliyat integratsiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. Shu sababli kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali sharti sifatida o‘yin va tasviriy faoliyatni integratsiya qilish muhimdir. O‘yin elementi bolada qiziqish uyg‘otadi, motivatsiyani oshiradi va ijodiy erkinlikni kuchaytiradi. Masalan, “Sehrli ranglar” o‘yini, “Fantaziya qahramoni yaratish”, “Ertakni rasmga aylantirish”, “Kimning uyi boshqacha?” kabi shakllar kreativ fikrlashni tabiiy holatda rivojlantiradi.

O‘yinli mashg‘ulotlarda bola ijodiy syujet yaratadi, obrazlarni tasavvur qiladi, turli variantlarni sinaydi va g‘oyalar ishlab chiqadi. Bu esa kreativ fikrlashning g‘oyalar oqimi va originallik komponentlarini kuchaytiradi.

6) Integratsiyalashgan yondashuv (fanlararo bog‘lanish). Kreativ fikrlashni rivojlantirishda tasviriy faoliyatni boshqa rivojlanish sohalari bilan integratsiya qilish ham muhim shart hisoblanadi. Bunda tasviriy mashg‘ulot nutq rivoji, atrof-muhitni o‘rganish, matematika elementlari, musiqiy estetik tarbiya bilan uyg‘unlashtiriladi. Integratsiya bolaning fikr doirasini kengaytiradi, yangi g‘oyalar hosil bo‘lishini tezlashtiradi va kreativ fikrlashga yangi manbalar beradi.

Masalan: tabiat mavzusida rasm chizish + suhbat; ertak eshitish + qahramon chizish; geometrik shakllardan obraz yaratish; musiqa tinglab kayfiyatni ranglarda ifodalash. Bunday yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

7) Rag‘batlantirish va ijobiy emotsional muhit. Kreativ fikrlashning faol namoyon bo‘lishi bolada psixologik xavfsizlik va ijobiy emotsional holat mavjud bo‘lishini talab qiladi. Tarbiyachi bolani tanqid qilishdan ko‘ra uni rag‘batlantirishi, “sen boshqacha o‘ylab topding”, “qiziqarli fikr”, “yana qanday qilsa bo‘ladi?” kabi baholar bilan qo‘llab-quvvatlashi lozim. Rag‘bat bolaning ijodiy jasoratini oshiradi, xatodan qo‘rqmaslikka yordam beradi va yangi g‘oya sinab ko‘rishga undaydi.

Shuningdek, bolani natija uchun emas, izlanish va harakat uchun baholash kreativ fikrlashning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu shart kreativlikni baholash mezonlarining rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishini ham taqozo qiladi.

8) Refleksiya va ijodiy taqdimot (ko‘rgazma, suhbat). Kreativ fikrlashni rivojlantirishda refleksiya muhim pedagogik shart hisoblanadi. Refleksiya bolada o‘z fikrini anglash, o‘z ishini tushuntirish, baholash va takomillashtirish mexanizmini shakllantiradi. Tasviriy faoliyat yakunida tarbiyachi bolalarga “Sen nima chizding?”, “Nega shunday qilding?”, “Yana boshqacha bo‘lishi mumkinmi?” kabi savollar berish orqali refleksiyani faollashtiradi.

Shuningdek, bolalar ishlarining ko‘rgazmasini tashkil qilish, ijodiy taqdimot qilish ham refleksiyani kuchaytiradi. Bola o‘z ishidan faxrlanadi, boshqalarning ishiga qiziqadi va yangi g‘oya olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon kreativ fikrlashning refleksiv komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, ushbu jarayonni samarali tashkil etish nazariy-metodologik asoslangan pedagogik modelni talab etadi. Kreativ fikrlash bolada spontanik ravishda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, uning barqaror rivojlanishi maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir, rivojlantiruvchi muhit, samarali metodik yondashuv va pedagogik shart-sharoitlarning uyg‘unligi orqali ta’minlanadi. Ayniqsa, tasviriy faoliyat (rasm chizish, applikatsiya, modellashtirish, badiiy konstruksiyalar) bolalarning obrazli tafakkuri, tasavvuri va assotsiativ fikrlashiga mos bo‘lganligi sababli kreativ fikrlashni rivojlantirishning eng tabiiy va samarali vositasi sifatida qaraladi [1].

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida tasviriy faoliyat jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi konseptual nazariy model ishlab chiqildi. Mazkur model bolalarda kreativ fikrlashning strukturaviy komponentlarini (originallik, moslashuvchanlik, g‘oyalar oqimi, detallashtirish, refleksiya) rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogik jarayonning maqsadi, mazmuni, jarayoni va natijaviyligini tizimli yondashuv asosida birlashtiradi.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan model quyidagi o‘zaro bog‘liq bloklardan tashkil topadi:

1) Maqsadli blok. Modelning maqsadli bloki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning umumiy maqsadi va vazifalarini belgilaydi.

Modelning umumiy maqsadi: tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayonida bolalarda kreativ fikrlashni tizimli ravishda rivojlantirish, ya’ni ularda yangi g‘oya yaratish, noodatiy yechim topish, tanlov qilish, erkin ifoda etish va refleksiya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Asosiy vazifalar:

- bolalarda erkin tasavvur va obraz yaratish qobiliyatini kuchaytirish;
- divergent fikrlash (variantlar ko‘pligi)ni faollashtirish;
- ijodiy tashabbus va mustaqillikni rivojlantirish;
- tasviriy faoliyatda material va texnikalardan ijodiy foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- refleksiya va o‘z ishini izohlash malakasini rivojlantirish.

2) Metodologik blok. Metodologik blok kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlar va didaktik tamoyillarni qamrab oladi.

Modelning metodologik asoslari:

- shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (bola individual rivojlanishini inobatga olish);
- faoliyat yondashuvi (kreativ fikrlash faoliyat jarayonida shakllanadi);
- kreativ (ijodiy) yondashuv (erkin, ochiq topshiriqlar orqali rivojlantirish);
- kompetensiyaviy yondashuv (amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarga yo‘naltirish);
- integratsiyalashgan yondashuv (tasviriy faoliyatni nutq, tabiat, o‘yin bilan uyg‘unlashtirish).

Asosiy didaktik tamoyillar:

- erkin tanlov va mustaqillik tamoyili;
- rag‘batlantirish va ijobiy motivatsiya;
- muammolilik va ochiq topshiriqlar;
- ko‘rgazmalilik va faol ishtirok;
- tizimlilik va izchillik;
- refleksiya va teskari aloqani ta’minlash.

3) Mazmuniy blok. Mazmuniy blok modelning ta’limiy mazmunini, ya’ni kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi tasviriy faoliyatning yo‘nalish va shakllarini belgilaydi.

Mazmun quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- rasm chizish (rang, chiziq, shakl, kompozitsiya orqali ifoda);
- applikatsiya va kollaj (kombinatsiya, konstruktiv fikrlash);
- loy/plastilin bilan ishlash (3D tasavvur, modellashtirish);
- badiiy konstruktorlik (turli materiallar bilan ijodiy ishlash);
- integratsiyalashgan ijodiy mashg‘ulotlar (ertak + rasm, tabiat + san’at).

Mazmunni tanlashda bolaning yosh xususiyati, qiziqishi, individual imkoniyatlari va tarbiyaviy maqsadlar inobatga olinadi.

4) Jarayonli–texnologik blok. Jarayonli blok modelning eng asosiy qismi bo‘lib, u kreativ fikrlashni rivojlantirishning konkret metod va usullarini, mashg‘ulotni tashkil etish bosqichlarini, vositalarni belgilaydi.

4.1. Tasviriy faoliyat jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish quyidagi ketma-ket bosqichlarda amalga oshiriladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Tasviriy faoliyat jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish bosqichlari

Bosqich	Pedagogik vazifa	Metodlar	Natija
1. Rag‘bat va motivatsiya	Bola mavzuga qiziqtiriladi, ijobiy emotsional fon yaratiladi	o‘yin, syujetli kirish, “tasavvurga chaqiriq” savollari	motivatsiya
2. G‘oya ishlab chiqish	Bola variantlar o‘ylaydi, tasavvur	brainstorming, assotsiativ savollar (“bu	g‘oya oqimi

	orqali obraz yaratadi	nimaga o‘xshaydi?”), erkin fikr	
3. Ijodiy amalga oshirish	Bola rasm chizadi/yasaydi, material bilan tajriba qiladi	erkin texnika, tajriba, individual yordam, tanlov	mustaqillik
4. Boyitish va detallashtirish	Bola ishini kengaytiradi, detallar qo‘shadi, kompozitsiyani yaxshilaydi	yo‘naltiruvchi savollar, qo‘shimcha materiallar, variantlar	detallashtirish
5. Refleksiya va taqdimot	Bola o‘z ishini tushuntiradi, baholaydi, xulosa chiqaradi	suhbat, ko‘rgazma, “men nima qildim?”, “yana qanday bo‘lishi mumkin?”	refleksiya

4.2. Metod va vositalar.

Modelda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi quyidagi metodlar ustuvor hisoblanadi: ochiq ijodiy topshiriqlar; muammoli vaziyatlar; fantaziya va rolli o‘yin elementlari; integratsiya (nutq + san’at + tabiat); refleksiya va ijodiy taqdimot; portfolio va kuzatuv asosida baholash.

Vositalar esa: bo‘yoqlar, rangli qog‘oz, tabiiy materiallar, plastilin, shablon emas – erkin ijod materiallari, texnikalar (barmoq bilan bo‘yash, tampon, kollaj, monoprint)dan iborat bo‘ladi.

5) Natijaviy–baholash bloki. Modelning natijaviy bloki bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish darajalarini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlari asosida tavsiflanadi.

Baholash mezonlari: originallik (yangilik); moslashuvchanlik; g‘oyalar oqimi; detallashtirish; mustaqillik; refleksiya.

Darajalar: past (reproduktiv); o‘rta (qisman ijodiy); yuqori (ijodiy-innovatsion).

Baholash vositalari: diagnostika kartasi (kuzatuv varaqasi); kreativlik rubrikasi; bola portfeli (ijodiy ishlar to‘plami); suhbat va refleksiya natijalari.

Natijaviy blok modelning samaradorligini aniqlashda tajriba-sinov ishlari orqali “boshlang‘ich va yakuniy” ko‘rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilishni ta’minlaydi.

Taklif etilayotgan nazariy modelning ilmiy-pedagogik qiymati shundaki, u tasviriy faoliyatni bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida kompleks asoslaydi. Model orqali tarbiyachi tasviriy mashg‘ulotlarni nafaqat badiiy ko‘nikma berish vositasi, balki bolaning kreativ fikrlash komponentlarini shakllantiruvchi rivojlantiruvchi jarayon sifatida tashkil etadi.

Modelning amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mashg‘ulotlarni “shablon” asosida emas, kreativ yo‘naltirilgan tashkil etish imkoniyati;

- bolalarda kreativ fikrlashning izchil o‘sish dinamikasini kuzatish;

- tarbiyachining metodik kompetensiyasini kuchaytirish;
- tajriba-sinov natijalarini mezonlar asosida aniq baholash;
- dissertatsiyada metodika samaradorligini isbotlash uchun ilmiy asos yaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish tasviriy faoliyat jarayonida o‘ta samarali amalga oshirilishi mumkin. Chunki tasviriy faoliyat bolaning obrazli tafakkuri, tasavvuri va assotsiativ fikrlash mexanizmlariga mos keladi hamda uning erkin ifoda, tanlov, tajriba qilish va yangi g‘oya yaratish ehtiyojlarini qondiradi. Shu asosda ishlab chiqilgan nazariy model maqsadli, metodologik, mazmuniy, jarayonli va natijaviy bloklarning uzviy birligi orqali kreativ fikrlashni tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xasanova Sh. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2020. – 192 b.
2. Terreni L. Visual Arts Education for Young Children in Aotearoa New Zealand. – 2016.
3. Huang L., Leung S.K.Y., Li J.W., Wu Z. Comprehensive Art Education and Children’s Creativity. – 2025.
4. Komarova T.S. Izobrazitelnaya deyatelnost v detskom sadu. – 2016.
5. Ilyin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – 2009.
6. Taguma M. va boshqalar. Quality Matters in Early Childhood Education and Care. – OECD, 2012.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATN USTIDA ISHLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.102

Qayimov Laziz Mirzo o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi,PhD
Narzulloyeva Nigora Baxrullo qizi
Buxoro davlat pedagogika institute magistarnti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida matn bilan ishlash orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari o‘rganildi.

Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, multimedia vositalari va o‘yin texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi o‘rni ochib berilgan. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishi, matn mazmunini chuqur anglashiga yordam berishi va ta’lim samaradorligini ta’minlashi ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, matn ustida ishlash, innovatsion texnologiyalar, o‘qish savodxonligi, interfaol metodlar, AKT, raqamli ta’lim

Аннотация.В статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты формирования у учащихся начальных классов навыков работы с текстом на основе использования инновационных педагогических технологий. В ходе исследования проанализированы возможности развития читательской грамотности, самостоятельного и критического мышления, а также речевых компетенций учащихся посредством работы с текстом.

Особое внимание уделено роли информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов, мультимедийных средств и игровых технологий в образовательном процессе начальной школы. Обосновано, что применение инновационных технологий способствует повышению познавательной активности учащихся, более глубокому пониманию содержания текста и росту эффективности обучения. Результаты исследования могут быть использованы при разработке методических рекомендаций для учителей начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, работа с текстом, инновационные технологии, читательская грамотность, интерактивные методы, ИКТ, цифровое обучение.

Abstract.the article analyzes the scientific-theoretical and practical aspects of developing primary school students’ skills in working with texts through the use of innovative pedagogical technologies. The study examines the possibilities of improving reading literacy, independent and critical thinking, as well as communicative competence of students by means of text-based learning activities.


Special attention is paid to the role of information and communication technologies, interactive teaching methods, multimedia tools, and game-based learning technologies in primary education. The research findings demonstrate that lessons organized on the basis of innovative technologies enhance students’ cognitive activity, contribute to deeper comprehension of textual content, and increase overall learning effectiveness. The results of the study can be used in developing methodological guidelines for primary school teachers.

Key words: primary education, text-based learning, innovative technologies, reading literacy, interactive methods, ICT, digital education.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.Shu sababli boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlash jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’lim — o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, bilish faoliyati va nutqiy rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda matn bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa sanaladi. Matn ustida ishlash nafaqat o‘qish texnikasini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘qish savodxonligi– bu o‘quvchining matnni anglash, ma’lumotni tahlil qilish, baholash va uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatidir. Savodxonlik nafaqat matnni o‘qish, balki uni tushunish va undan maqsadli foydalanishni ham o‘z ichiga oladi.Matn bilan ishlashda o‘‘qituvchi — yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi va baholovchi. U o‘quvchini mustaqil fikrga yetaklaydi, savol berishga, izlanishga undaydi. O‘qituvchi matn tanlashda yosh va qiziqish omillarini inobatga oladi.

O‘qish savodxonligini shakllantirishda quyidagi to‘rtta metodika asosiyrol o‘ynaydi:



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda matn bilan ishlash jarayonida turli xil yondashuvlar,turli xil metodlar orqali o‘quvchilarga qiziqish nafaqat ravon o‘qish,balki dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Matn ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning asosiy vositasidir. O‘quvchilar matnni o‘qish jarayonida:so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;gap va jumlalar mazmunini anglash;matnning umumiy g‘oyasini tushunish;muallif fikrini idrok etishko‘nikmalarini egallaydi.Bu jarayon o‘quvchilarning keyingi sinflarda barcha fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga mustahkam zamin yaratadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda samarasi yuqori darajada o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’limda matn ustida ishlash jarayoni innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Interfaol metodlar, raqamli matnlar, multimedia vositalari orqali matn ustida ishlash o‘quvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi va ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti va axborot texnologiyalarining jadal rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda takomillashib bormoqda. Ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashda innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni olib kirib, o‘qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Muammoli ta’lim, loyiha metodi, tadqiqot faoliyati orqali o‘quvchilar:axborotni tahlil qilish;asosli xulosa chiqarish;o‘z fikrini himoya qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.Bu ko‘nikmalar ularning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol

o‘ynaydi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan matn ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan,interfaol metodlardan foydlanish samarali bo‘ladi.Masalan **‘‘Svetafor’’** metodi, **‘‘Rangsiz kamalak’’** metodi**, ‘‘Spiralsimon’’**metodi, **‘‘Insert’’**metodi**,‘‘Aqli hujum’’**metodi, **‘‘Klaster’’**metodi, **‘‘Yashirin so‘zni top’’**kabi metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga matn ustida ishlashda samarali o‘rin tutadi.


“SVETOFOR’’ metodi






“Svetofor” metodidan barcha fanlarda, darsning istalgan bosqichida foydalansa bo’ladi. Bu metod boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan (ona tili, o‘qish savodxonligi, matematika, tasviriy san’at, texnologiya, yo‘l harakati xavfsizligi hamda tabiiy fanlar bilan bog‘langan) holda o‘tkazilishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu bilan birgalikda o‘quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinadi.

“**RANGSIZ KAMALAK’’** metodi



O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan, xotirani mustahkamlash, fanlararo bog‘lanish- integratsiyaga asoslangan metod. Bu topshiriqda 7 ta savol berilib, kamalakning ranglarini topib bo‘yashga qaratilgan bo‘ladi. Bunda berilgan 7 ta savolni 7 xil rang ichida yozilgan javoblar bilan moslashtirish orqali kamalakning ranglari aniqlanadi va yuqoridan pastga qarab yoki pastdan yuqoriga qarab berilgan tartib asosida kamalak bo‘yaladi.

”SIPERALSIMON’’metodi



Bu metod o‘quvchilarning diqqatini kuchaytiradi (oddiy matndan farqli ravishda,siperal shaklidagi matn Bolani ko‘z bilan kuzatishga majbur qiladi,shu sababli chalg‘ish kamroq bo‘ladi.),qiziqish va ijodkorlikni oshiradi (bolada hayrat uyg‘otadi,o‘qishga qiziqish kuchaytiradi,ijodiy fikrlashni rivojlantiradi),o‘qish savodxonligini rivojlantiradi(so‘zlarni to‘g‘ri o‘qishga,matn mazmunini tushinishga,asosiy g‘oyani ajratishga yordam beradi),nutq va fikrlashni rivojlantiradi (matnni qayta hikoya qiladi,o‘z fikrini erkin aytadi,mantiqiy bog‘lanishni tushunadi),ko‘rish xotirasini mustahkamlaydi (visual xotirani kuchaytiradi,so‘z va g‘oyalar tezroq yodda qoladi),faollik va ishtirokini oshiradi (passiv o‘quvchilarni ham jalb qiladi,guruh bilan ishlashga mos,darsni jonlantiradi), psixologik qulaylik yaratadi (bosim yo‘q,xató qiloishdan qo‘rqmaydi,o‘yin orqali o‘rganish yuz beradi).

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni mazkur jarayonga joriy etish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Darhaqiqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalaridan maqsadli foydalanish orqali o‘quvchilarning matnni anglash darajasi, nutqiy faolligi va ijodiy salohiyati sezilarli darajada ortadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlash jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili bo‘lib, ushbu yondashuvni amaliyotga keng joriy etish pedagoglarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar:raqamli axborot bilan

ishlash;elektron resurslardan samarali foydalanish;texnologik madaniyatga rioya qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.Bu esa ularni zamonaviy jamiyat hayotiga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Abdullayeva M., Yo‘ldoshev J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

4. Qodirova F.R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021.

5. Nurmatova S.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalalari // *Xalq ta’limi*. – 2022. – №3.

6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SPIRTLAR MAVZUSINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O’QITISH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.103

***Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi**, 1- kurs magistrant*
***Sarsenbayeva Zilola Kamiljon qizi**, 2-kurs talaba*
***Maksetbaeva Dilfuza Baxtiyar qizi**, 1-kurs talaba*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 230100. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi
E-mail: mahfuzasherimmatova@gmail.com
Tel nomer: +998938970320

Annotatsiya.Mazkur maqolada kimyo ta’limida muhim o‘rin tutuvchi spirtlar mavzusini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Spirtlar sinfiga mansub organik birikmalarning tuzilishi, xossalari va amaliy ahamiyatini o‘qitishda talabalarda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida spirtlar mavzusini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash hamda kimyoviy jarayonlarni chuqurroq anglashiga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Spirtlar, organik kimyo, kompetensiyaviy yondashuv, o‘qitish metodikasi, interaktiv metodlar, amaliy ko‘nikmalar.

Аннотация.В данной статье освещены вопросы совершенствования методики преподавания темы спиртов, занимающей важное место в химическом образовании, на основе компетентностного подхода. Обоснована необходимость формирования у студентов практических навыков и компетенций наряду с теоретическими знаниями при обучении строению, свойствам и практическому значению органических соединений, относящихся к классу спиртов. Также проанализированы дидактические возможности использования интерактивных методов, проблемных ситуаций, опыта и современных педагогических технологий на основе компетентностного подхода. В результате исследования было установлено, что преподавание спиртов на основе компетентностного подхода способствует развитию самостоятельного мышления студентов, связыванию знаний с практикой и более глубокому пониманию химических процессов.

Ключевые слова: Спирты, органическая химия, компетентностный подход, методика обучения, интерактивные методы, практические навыки.

Abstract. This article highlights the issues of improving the methodology of teaching the topic of alcohols, which occupies an important place in chemical education, based on a competency-based approach. The necessity of forming practical skills and competencies in students, along with theoretical knowledge, in teaching the structure, properties, and practical significance of organic compounds belonging to the class of alcohols is substantiated. Also, based on a competency-based approach, the didactic possibilities of using interactive methods, problem situations, experiences, and modern pedagogical technologies were analyzed. As a result of the research, it was determined that teaching the topic of alcohols based on a competency-based approach serves to develop students' independent thinking, connect knowledge with practice, and deepen their understanding of chemical processes.

Keywords: Alcohols, organic chemistry, competency-based approach, teaching methodology, interactive methods, practical skills.

Kirish.O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g'risidagi”, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g'risida”gi 5847-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida”gi PQ-3775-son, 2018 yil 5 iyuldagi “Oliy o‘quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilishi to‘g'risida”gi PQ-3839-son Qarorida, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi PQ-4623-son qarorlarida ta'lim, 2020 yil 23 sentyabrdagi yangi tahrirdagi “Ta'lim to‘g'risida”gi O‘RQ-637-son qonuni, fan-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda ushbu faoliyatga oid boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada xizmat qiladi [1-2].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Oliy ta’limda kimyo fanini o‘qitish va spirtlar mavzusini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish masalalari bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi.

Avliyakulov va Musaevalov asarlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va interaktiv darslarni tashkil etishning nazariy asoslari keltirilgan. Ushbu manba ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirishda nazariy poydevor sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalarni faollashtirish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish metodlarini tavsiflaydi [3].

Abdusamatov va Mardonov, Abdulxayeva va Ismoilov darsliklarida organik birikmalarning tuzilishi, spirtlar sinfi va ularning kimyoviy xossalari batafsil yoritilgan. Bu manbalar spirtlar mavzusini nazariy asosda o‘qitish va talabalarga amaliy misollar bilan

tushuntirish uchun muhim bo‘lib, kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llashda asosiy material sifatida ishlatiladi. Sobirov, Mahsumov va Umarov esa spirtlar bo‘yicha laboratoriya ishlarini va ularni pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirishni tavsiya qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bu adabiyotlar asosida aniqlanishicha, spirtlar mavzusini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, teskari ta’lim modeli va interaktiv metodlarni integratsiyalash talabalarning nazariy bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali ekanligi isbotlangan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Tatqiqod metodologiyasi. Hozirgi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanib qolmay, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham egallaydilar.

Organik kimyo bo‘limida muhim o‘rin tutuvchi spirtlar mavzusi o‘quvchilarga organik birikmalarning tuzilishi, xossalari va ularning amaliy ahamiyatini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Spirtlar turli sanoat tarmoqlarida, farmatsevtika, tibbiyot, oziq-ovqat hamda kimyo sanoatida keng qo‘llaniladi. Shu sababli mazkur mavzuni o‘qitishda o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularni amaliy jihatdan tushuntirish ham zarur hisoblanadi [4].

An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha o‘quvchilarning faolligini yetarli darajada ta’minlay olmaydi. Shuning uchun spirtlar mavzusini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, tajribalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularning kimyoviy jarayonlarni chuqurroq anglashiga hamda bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashiga imkon yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi spirtlar mavzusini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda o‘quvchilarda zarur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usullarini aniqlashdan iborat.

Takomillashtirish yo‘nalishlari. Tadqiqot asosida spirtlar mavzusini o‘qitishda quyidagi takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlangan:

Raqamli resurslarni kengaytirish: virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, video darslar va elektron test tizimlaridan foydalanish.

Muammoli vaziyatlarni joriy etish: talabalarning tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Teskari ta’lim modelini integratsiyalash: nazariy bilimlarni darsdan oldin o‘rganish, dars vaqtini amaliy mashg‘ulot va muhokamaga ajratish.

Baholash tizimini modernizatsiya qilish: kompetensiyalarni baholash uchun faqat bilim emas, balki amaliy ko‘nikma va mustaqil ishlash qobiliyatini ham o‘lchash.

Pedagogik metodlarni kombinatsiyalash: interaktiv darslar, laboratoriya ishlar, guruh ishlari va raqamli platformalarni uyg‘unlashtirish [5].

Dars strukturasining Phet modeli bilan taqqoslanishi

Bosqich	Faoliyat	Phet interaktiv vositalar
Darsdan oldin	Talabalar mavzuni video va elektron materiallar orqali o'rganadi	Phet simulyatsiyalar, interaktiv animatsiyalar
Dars jarayonida	Muammoli masalalar va laboratoriya ishlarini yechish	Phet modellar, interaktiv laboratoriya
Darsdan keyin	Mustaqil topshiriqlarni bajarish va testlar	Onlayn Phet mashqlari, forumlar

Phet metodining samaradorligi ko’rsatkichlari

Ko‘rsatkich	An’anaviy ta’lim	Phet interaktivligi
Talabalar faolligi	O‘rtacha	Yuqori
Nazariy bilim	65%	85%
Amaliy ko‘nikma	68%	88%
Mustaqil fikrlash	O‘rtacha	Yuqori

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdi: Nazariy bilimlar: tajriba guruhidagi talabalar spirtlar mavzusidagi nazariy bilimlarni 25–30% yuqori darajada o‘zlashtirdi.

Amaliy ko‘nikmalar: laboratoriya ishlari va reaksiyalar mexanizmi bo‘yicha tajriba guruhi talabalari o‘rtacha balli 85% ni tashkil qildi, an’anaviy guruhda esa 68% bo‘ldi.

Talabalarning faolligi: interaktiv metod va teskari ta’lim modeli faollik darajasini 40% dan 85% gacha oshirdi.

Mustaqil fikrlash: kompetensiyaviy yondashuv talabalarning mustaqil tahlil qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladi.

Tahlil xulosasi qilib aytsak, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitilgan guruh talabalari o‘qitish samaradorligi, amaliy ko‘nikmalar va mustaqil ishlash qobiliyati bo‘yicha an’anaviy ta’lim guruhidan yuqori natijalar ko‘rsatdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, spirtlar mavzusini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar nazariy bilimlarni tezroq o‘zlashtiradi, amaliy ko‘nikmalari rivojlanadi va mustaqil fikrlash qobiliyati oshadi. Teskari ta’lim va interaktiv pedagogik texnologiyalar talabalarning faolligi va qiziqishini kuchaytiradi.

Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish o‘qituvchilarga ham darslarni samarali tashkil etish va o‘quv jarayonini nazorat qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, spirtlar mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish oliy ta’limda kimyo fanini yanada samarali o‘qitish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022y., 06/22/60/0082-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta'lim to‘g'risida”gi O‘RQ-637-sonli qonuni

3. Avliyakulov, N., Musaevalov, N. (2019). Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim usullari. Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim nashriyoti.

4. Abdusamatov, A., Mardonov, O‘.M. (2020). Organik kimyo darsligi. Toshkent: Fan.

5. Abdulxayeva, M.M., Ismoilov, R.I. (2018). Kimyo fanini o‘qitish metodikasi. Toshkent: Universitet nashriyoti.

6. Sobirov, Z., Mahsumov, A.G‘., Umarov, B.V. (2021). Organik birikmalar va ularni o‘qitish metodikasi. Toshkent: Pedagogika.

7. Asqarov, I.R., Isayev, Y.T., Qirg‘izov, Sh.M. (2020). Spirtlar va ularning amaliy ahamiyati. Toshkent: Fan va texnologiya.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

AN EXTENDED MODEL OF TEACHING METHODS IN A CONTEMPORARY EDUCATIONAL PARADIGM: A BLENDED LEARNING APPROACH FOR TEACHER EDUCATION

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.104

Fozilova Maxina Adashevna
Kimyo International University in Tashkent,
Samarkand branch
e-mail: makhinafozilova@gmail.com

Annotation. This aricle examines the modeling of an extended system of teaching methods within the framework of a contemporary educational paradigm in the context of blended learning for students of pedagogical specializations. The study is grounded in competency-based, student-centered, and reflective approaches to learning and focuses on the integration of traditional and digital instructional methods. Particular attention is given to the design of individualized learning trajectories, the role of the teacher-tutor, and the development of students’ autonomy and reflective skills. Using theoretical modeling and analysis of pedagogical practices, the research substantiates a structured methodological system that enhances the effectiveness of blended learning environments in teacher education.

Keywords: blended learning; teaching methods modeling; contemporary educational paradigm; teacher education; individualized learning trajectories; tutor support; reflective learning; pedagogical methodology

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogik yo‘nalish talabalari uchun aralash ta’lim (blended learning) sharoitida zamonaviy ta’lim paradigmasi doirasida o‘qitish metodlarining kengaytirilgan tizimini modellashtirish masalasini o‘rganadi. Tadqiqot kompetensiyaga asoslangan, talaba markazli va reflektiv yondashuvlarga tayangan holda olib borilgan bo‘lib, an’anaviy hamda raqamli o‘qitish metodlarini integratsiya qilishga qaratilgan. Shuningdek, individual o‘quv trayektoriyalarini loyihalash, o‘qituvchi-tyutorning roli hamda talabalarning mustaqilligi va reflektiv ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Nazariy modellashtirish va pedagogik amaliyotlarni tahlil qilish asosida tadqiqot o‘qituvchilar tayyorlash jarayonida aralash ta’lim muhitining samaradorligini oshiradigan tuzilgan metodik tizimni asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: aralash ta’lim (blended learning); o‘qitish metodlarini modellashtirish; zamonaviy ta’lim paradigmasi; o‘qituvchilar ta’limi; individuallashtirilgan o‘quv trayektoriyalari; tyutorlik qo‘llab-quvvatlashi; reflektiv o‘qish; pedagogik metodologiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается моделирование расширенной системы методов обучения в рамках современной образовательной парадигмы в

контексте смешанного обучения (blended learning) для студентов педагогических специальностей. Исследование основывается на компетентностном, личностно-ориентированном и рефлексивном подходах к обучению и направлено на интеграцию традиционных и цифровых методов преподавания. Особое внимание уделяется проектированию индивидуальных образовательных траекторий, роли преподавателя-тьютора, а также развитию автономности и рефлексивных навыков студентов. На основе теоретического моделирования и анализа педагогической практики в исследовании обосновывается структурированная методическая система, способствующая повышению эффективности среды смешанного обучения в системе подготовки учителей.

Ключевые слова: смешанное обучение (blended learning); моделирование методов обучения; современная образовательная парадигма; педагогическое образование; индивидуализированные образовательные траектории; тьюторское сопровождение; рефлексивное обучение; педагогическая методология.

Introduction. It has been established that blended learning enables the adaptation of traditional instructional processes to learners’ individual characteristics, enhances comprehension and assimilation of educational material by accounting for individual psychological differences, and represents an optimal approach in terms of time efficiency, learner effort, and educational outcomes. This format also allows for more rational use of classroom time. A detailed, stage-by-stage description of the mechanism (algorithm) for implementing blended learning models has been presented, along with a methodology for organizing the instructional process in a blended format that incorporates modern pedagogical technologies grounded in learner-centered principles and promotes the development of critical thinking and independent research skills.

At present, the training of students in pedagogical specializations is characterized by the application of innovative and specialized instructional methods. The integration of these methods is обусловлено transformations in social, moral-spiritual, economic, technological, and pedagogical domains, which together constitute the core of the paradigmatic framework (in T. Kuhn’s sense) of the contemporary educational paradigm. These transformations are reflected in the system of professional education goals, as well as in the content and characteristics of the informational learning environment, manifested through information redundancy, evolving formats, and new types of interaction among participants in the educational process.

Within this context, increasing scholarly attention is being directed toward the blended learning model, whose active implementation in national education systems demonstrates a stable upward trend under conditions of globalization and internationalization of the pedagogical field immersed in the information and communication space. This tendency is corroborated by the outcomes of the First All-Russian Scientific and Practical Symposium “Blended and Corporate Learning,” held in 2007 under the auspices of the Ministry of Education and Science of the Russian Federation, where blended learning was recognized as

one of the key directions for improving the quality of learner training and enhancing the effectiveness of the national system of lifelong education.

Literature review. The works of domestic scholars (Yu.I.Kapustin, M.N.Mokhov, among others) and international researchers (P.Sharma, B.Barrett, J.Bersin, C.J.Bonk, D.Clark, A.Picciano, C.Dziuban, P.Valiathan) addressing the issues of blended learning have yielded a number of significant theoretical and practical results. In particular, a classification of blended learning models based on didactic principles has been developed; the didactic principles of blended learning have been refined and expanded; and principles for the thematic selection and structuring of instructional content for language courses delivered in a blended format have been identified.

In addition, a theoretical justification has been provided for an implementation mechanism based on the organic integration of traditional and distance learning technologies. This mechanism presupposes the realization of key principles such as modularity, learner choice of educational trajectory, актуализация instructional content, enhancement of learning motivation, adaptability and flexibility of instruction, synthesis of pedagogical, managerial, and technological solutions, dynamic alignment between teaching activities and students’ cognitive engagement, orientation of instructional content toward real-world professional tasks, concentric organization of content and learning activities, interactivity of instructional tools, multiplicity of interaction modes among educational stakeholders, and diversity of instructional formats (individual and group-based, face-to-face and virtual).

On this basis, a three-level conceptual model of blended learning has been developed and substantiated. This model is oriented toward learners’ free and responsible selection of educational trajectories and aims to achieve stated educational objectives while fostering students’ capacity to consciously modify learning environments and activities in real-life contexts. The model is characterized by flexibility and adaptability and is structured as follows: the first level comprises a set of principles integrating traditional and distance education (including the unity of educational, professional, and social environments; the synthesis of andragogical, contextual, and learner-centered approaches; and the integration of pedagogical, managerial, and information-communication technologies); the second level consists of subsystems such as administrative, instructional, human resource, scientific-methodological, and financial components; and the third level includes systemic mechanisms for the development of blended learning, namely marketing, innovation, and self-development mechanisms.

As blended learning models are implemented in national practices of professional training, a body of updated instructional methods is being accumulated. These methods are primarily associated with the development of conditions and tools within the information and communication space and may be conceptualized as subclasses within existing classifications of teaching methods based on both traditional and newly identified criteria. Examples include virtual discussion methods (classified by the nature of information processing), methods of algorithmization in problem-based learning (classified by the degree of individualization and

information interaction), and interactive demonstration methods (integrative classification of instructional methods).

Discussion. Within the conceptual framework adopted in the present study, Table 1 presents a staged aggregation of instructional strategies, illustrating the step-by-step design of teaching methods that incorporate information and communication technologies (ICT), as well as methods of ICT application in instruction within a blended learning model. This design is based on the identification of the core features of pedagogical activity performed by the subjects of the educational process, as elaborated in our previous work [16] and in the studies of B.E.Starichenko [18].

Stage of Blended Learning	Learner (Student) Activity	Teacher Activity	Teaching Methods Using ICT	Methods of ICT Application
1. Psychological and pedagogical diagnostics of learners (pre-stage)	Self-diagnosis of psychophysiological characteristics; assessment of the level of motivation formation; identification of professional interests, etc.	Provision of guidance (assistance in selecting) specialized methods of psychological and pedagogical diagnostics (self-diagnostics)	Self-diagnostic instructional methods aimed at the formation of professional competencies (general cultural, general professional, and professional competencies)	Methods of using network resources and automated computer-based assessment systems (ACAS) for psychological and pedagogical diagnostics (self-diagnostics)
2. Determination of goals and objectives of studying an academic discipline in accordance with state educational standards and professional standards	Specification of general goals and formulation (selection) of objectives for a learner-centered blended learning model	Consultation and support (correction) in formulating goals and selecting objectives for studying sections of the academic discipline	Methods aimed at developing regulatory universal learning actions based on cognitive operations of analysis, synthesis, and concretization	Methods of using ICT tools (including interactive tools) for consultation and communication via forums, chats, e-mail, and educational information systems
3. Selection and	Selection and	Consultation	Methods aimed	Methods of

structuring of educational material	structuring of educational content in accordance with specified goals and objectives; development of a “learning matrix” and a syllabus for the academic discipline	and support (correction) in structuring educational material for face-to-face classes and distance learning	at forming regulatory universal learning actions based on cognitive operations of analysis, synthesis, concretization, and classification	using ICT tools for consultation and communication via forums, chats, e-mail, and educational information systems
Stage of Blended Learning	Learner (Student) Activity	Teacher Activity	Teaching Methods Using ICT	Methods of ICT Application
4. Selection of technologies (methods and forms) of instruction	Selection of methods, forms, and instructional tools; planning the learning process; developing a schedule for completing learning tasks and practical assignments	Consultation and support (correction) in the design of instructional methods, forms, and tools in accordance with the assigned objectives and diagnostic data	Methods aimed at forming professional competencies based on cognitive operations of analysis, synthesis, concretization, and comparison	Methods of using electronic instructional tools (specialized trainers, interactive developments), including electronic worksheets, to illustrate technologies for designing instructional methods and forms
5. Asynchronous offline mode (pre-stage)	Independent study of designated material; completion of learning and cognitive tasks (independent mastery of knowledge in the process of studying	Communication with learners via forums, chats, virtual classroom rooms, and e-mail to address organizational issues;	Teaching methods aimed at developing skills of independent mastery and comprehension of learning material at the	Methods of using ICT tools for consultation and individual communication via forums, chats, e-mail, as well as educational

	material along a selected trajectory); participation in forums; communication via e-mail; preparation of questions on the studied material for the teacher and peers; formation of the structure and content of a face-to-face class	organization of feedback related to the construction of face-to-face classes; file exchange	level of regulatory universal learning actions (planning, analysis of learning material and learning objects) based on cognitive processes of perception, imagination, attention, memory, and thinking	information systems
6. Lectures (consultations) in synchronous online mode (real-time stage)	Acquisition of new knowledge; interaction with the teacher, experts, and peers; exchange of accumulated learning experience	Organization of discussion of independently studied material and learning experience; analysis of learners’ difficulties	Teaching methods aimed at forming knowledge and understanding of learning material and skills of learning and cognitive activity based on cognitive processes necessary for achieving educational objectives	Methods of using electronic instructional materials for presenting educational information; interactive tools for managing learning activities; establishment of feedback
7. Seminars and practical classes in synchronous online mode	Discussion with the teacher and peers of learning material and results of completed learning tasks; use of interactive instructional	Discussion of learning material and results of completed learning tasks; presentation and	Teaching methods aimed at forming understanding of learning material and readiness for	Methods of using electronic instructional materials; methods of using ICT for organizing

	materials; participation in video conferences, role-playing games, and other synchronous activities	discussion of results of individually oriented learning and cognitive tasks	practical activity based on activation of cognitive processes of attention, memory, thinking, and speech	interactive feedback; methods of using ICT to manage learners' educational and cognitive activities
Stage of Blended Learning	Learner (Student) Activity	Teacher Activity	Teaching Methods Using ICT	Methods of ICT Application
8. Group work and task performance using communication services (post-stage)	Distribution of tasks and responsibilities for group work; group interaction; group work in forums and chats; communication via e-mail and in a virtual classroom	Creative supervision of group projects (individualized learning tasks oriented toward group work)	Teaching methods aimed at developing readiness for practical, professionally oriented activity and communicative competencies based on cognitive processes of thinking, speech, attention, memory, etc.	Methods of using ICT tools to organize operative feedback with learners and to implement individual educational routes
9. Self-monitoring and self-diagnostics of learning level and development of competencies declared in the learning objectives (post-stage)	Self-monitoring and self-diagnostics of learning level and competency development (as declared in the objectives of the academic discipline)	Provision of guidance (assistance in selecting) diagnostic methods and organization of psychological and pedagogical diagnostics	Teaching methods aimed at forming professional competencies based on activation of cognitive processes such as memory, attention, and thinking	Use of automated computer-based assessment systems, electronic worksheets for pedagogical diagnostics, as well as learning management systems

10. Correction of educational outcomes	Self-diagnostics of learning outcomes; formulation of objectives and completion of additional individually oriented learning tasks	Correction of educational outcomes through individual learning activities; analysis of learners’ difficulties and problems	Teaching methods aimed at developing readiness for solving practical, professionally oriented tasks, as well as forming professional competencies based on cognitive operations of analysis and comparison	Methods of using ICT tools to correct learning outcomes
11. Final diagnostics	Completion of control and diagnostic tasks (computer-based, competence-oriented testing); formation of a final grade for group and individual work	Diagnosis of academic achievement, competency development, and other indicators; formation of the final assessment	Teaching methods aimed at developing readiness for solving practical, professionally oriented tasks	Methods of using network resources and automated computer-based assessment systems (ACAS) for pedagogical diagnostics; use of tools for collecting statistics and systematizing data on educational outcomes

Conclusion. Thus, in our view, the final condition is of paramount importance for the design of individualized learning trajectories within blended learning environments. It determines the necessity for the teacher-tutor to organize targeted instruction for students of pedagogical specializations aimed at developing their capacity to design personal educational pathways and to cultivate skills of autonomous action based on the systematic consideration of the outcomes of conventional-role reflection.

References

1. Semenova I. N. Modeling of an expanded system of teaching methods of the “modern” educational paradigm in a blended model of teaching students of pedagogical specialties // Pedagogical education in Russia. - 2016. - No. 7. - P. 67-76.

2. Kapustin Yu. I. Pedagogicheskie i organizatsionnye usloviya effektivnogo sochetaniya ochnogo obucheniya i primeneniya tekhnologiy distantsionnogo obrazovaniya : avtoref. dis. … d-ra ped. nauk. M., 2007.

3. Kuvina A. S. Osobennosti metodov obucheniya informatike pri ispol'zovanii virtual'noy obrazovatel'noy sredy // Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. 2015. № 7. S. 64–70.

4. Kun T. Struktura nauchnykh revolyutsiy. M. : Progress, 1977. 300 s.

5. Mokhova M. N. Aktivnye metody v smeshannom obuchenii v sisteme dopolnitel'nogo pedagogicheskogo obrazovaniya : avtoref. dis. … kand. ped. nauk. M., 2005.

6. Ob utverzhdenii professional'nogo standarta «Pedagog (pedagogicheskaya deyatel'nost' v sfere doshkol'nogo, nachal'nogo obshchego, osnovnogo obshchego, srednego obshchego obrazovaniya) (vospitatel', uchitel')». Prikaz Ministerstva truda i sotsial'noy zashchity Rossiyskoy Federatsii ot 18 oktyabrya 2013 g. № 544n g. Moskva. URL: http://www.rg.ru/gazeta /rg/2013/12/18.html (data obrashcheniya 30.05.2016).

7. Raitskaya L. K. Didakticheskaya kontseptsiya samostoyatel'noy uchebno-poznavatel'noy deyatel'nosti studentov v Internet-srede : avtoref. dis. … d-ra ped. nauk. M., 2013.

8. Sarantsev G. I. Metodika obucheniya matematike v sredney shkole : uchebnoe posobie dlya studentov. M. : Prosveshchenie, 2002. 224 s.

9. Semenova I. N., Slepukhin A. V. Didakticheskiy konstruktor dlya proektirovaniya modeley elektronnogo, distantsionnogo i smeshannogo obucheniya v vuze // Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. 2014. № 8. S. 68–74.

10. Semenova I. N. Slepukhin A. V. Metodika ispol'zovaniya informatsionno-kommunikatsionnykh tekhnologiy v uchebnom protsesse. Ch. 2. Metodologiya ispol'zovaniya informatsionnykh obrazovatel'nykh tekhnologiy : uchebnoe posobie / Pod red. B. E. Starichenko. Ural. gos. ped. un-t. Ekaterinburg, 2013. 144 s.

11. Fandey V. A. Teoretiko-pragmaticheskie osnovy ispol'zovaniya formy smeshannogo obucheniya inostrannomu (angliyskomu) yazyku v yazykovom vuze : dis. … kand. ped. nauk. M., 2012.

12. Bersin J. The Blended Learning Book: Best Practices, Proven Methodologies and Lessons Learned / John Wiley & Sons. 2004. 352 p.

13. Bonk C. J., Graham C. R. Handbook of blended learning: Global perspectives, local designs. San Francis co, CA : Pfeiffer Publishing, 2006.

14. Clark D. Blended learning / CEO Epic Group plc. 2003. 44 r.

15. Picciano A., Dziuban C. Blended Learning: Research Perspectives. Needham, MA : Sloan Center for Online Education. 2007. 312 p.

16. Semenova I. N. Methodology of teaching mathematics methods designing in the modern educational paradigm. Yelm, WA, USA: Science Book Publishing House. 2014. 156 s.

17. Sharma P., Barett B. Blended Learning (Books for Teachers). Macmillan ELT, 2007. 160 p.

18. Starichenko B. E. Conceptual basics of computer didactics: monograph. Yelm, WA, USA : Science Book Publishing House. 2013. 184 p. 19. Valiathan P. Blended Learning Models. URL: http://www.learningcircuits.org/2002/aug2002/ valiathan.html. Published: August 2002 (data obrashcheniya 01.06.2016).

19. Sarsenbaeva Z. A SYSTEMATIC COMPARISON OF SELECTED TEXTS BY D. MITCHELL //Interpretation and researches.–2024.

20. Sarsenbaeva Z. Descriptions of imagery, symbolism, and non-realistic elements //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – С. 409-414.

21. Сарсенбаева З. Analysis of images and symbols in english non-realistic works //Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 229-232.

22. Сарсенбаева З. Модернизм в узбекской литературе и интерпретация образов //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 193-199.

23. Zoya S. LITERARY ANALYSIS OF DAVID MITCHELL’S WORKS IN ENGLISH LITERATURE //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – Т. 2. – №. 41. – С. 11-19.

24. Zoya S. LITERARY ANALYSIS OF ULUGBEK HAMDAMOV’S WORKS IN UZBEK LITERATURE //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – Т. 2. – №. 41. – С. 20-25.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

YADRO FIZIKASI SOHASIDAGI SO‘NGGI FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR, ERISHILGAN YUTUQLAR HAMDA ISTIQBOL REJALAR.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.105

Qosimjonov Ro‘zali Voxidovich
p.f.f.d., katta o‘qituvchi, Qo‘qon davlat universiteti
r.qosimjonov88@mail.ru
+998 94 492 22 23

Annotatsiya.Maqola yadro fizikasining 2024–2026 yillardagi eng muhim fundamental tadqiqotlari, yutuqlari va kelajak istiqbollarini ko‘rib chiqadi. Asosiy yo‘nalishlar: toriy-229 yadro soati texnologiyasi, kvant tunneling va rezonanslarning yangi o‘lchovlari, kvark-gluon plazmasi (QGP) tadqiqotlari, antiproton spinini boshqarish, termoyadroviy sintezda erishilgan rekordlar, shuningdek, RHIC va LHC kabi akseleratorlarning so‘nggi natijalari. Maqola xalqaro laboratoriyalar (CERN, RHIC, NIF, EAST, PhET va boshqalar) natijalariga asoslanadi. Kelajakda AI integratsiyasi, yangi avlod akseleratorlari va termoyadroviy elektr stansiyalari yaratish rejalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: yadro fizikasi, toriy-229 yadro soati, kvark-gluon plazmasi, kvant tunneling, antiproton spin boshqaruvi, termoyadro sintezi, RHIC, LHC, QGP, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”.

Аннотация.В статье рассматриваются наиболее важные фундаментальные исследования, достижения и перспективы развития ядерной физики на 2024–2026 годы. Основные направления: технология ядерных часов на основе тория-229, новые измерения квантового туннелирования и резонансов, исследования кварк-глюонной плазмы (КГП), управление спином антипротона, рекорды, достигнутые в термоядерном синтезе, а также последние результаты работы ускорителей, таких как RHIC и LHC. Статья основана на результатах международных лабораторий (CERN, RHIC, NIF, EAST, PhET и др.). Обсуждаются планы по интеграции ПИ, созданию ускорителей нового поколения и термоядерных электростанций.

Ключевые слова: ядерная физика, ядерные часы на основе тория-229, кварк-глюонная плазма, квантовое туннелирование, управление спином антипротона, термоядерный синтез, RHIC, LHC, КГП, «Цифровой Узбекистан – 2030».

Abstract. The article reviews the most important fundamental research, achievements and future prospects of nuclear physics for 2024–2026. The main areas are: thorium-229 nuclear clock technology, new measurements of quantum tunneling and resonances, quark-gluon plasma (QGP) research, antiproton spin control, records achieved in fusion, as well as the latest results of accelerators such as RHIC and LHC. The article is based on the results of

international laboratories (CERN, RHIC, NIF, EAST, PhET, etc.). Future plans for AI integration, the creation of new generation accelerators and fusion power plants are discussed.

Key words: nuclear physics, thorium-229 nuclear clock, quark-gluon plasma, quantum tunneling, antiproton spin control, fusion, RHIC, LHC, QGP, “Digital Uzbekistan – 2030”.

KIRISH.Yadro fizikasi sohasi so‘nggi yillarda katta sur’at bilan rivojlanmoqda. 2024–2026 yillar oralig‘ida bir qancha fundamental yutuqlar qayd etildi: toriy-229 yadro tranzitsiyasining aniq o‘lchovi, antiprotonning spinini birinchi marta boshqarish, kvark-gluon plazmasining yangi xossalari, shuningdek, termoyadro sintezida rekord darajadagi plazma harorati va energiya chiqishi.

Bu yutuqlar nafaqat nazariy fizikani boyitmoqda, balki kvant hisoblash, aniq vaqt o‘lchash, yangi energiya manbalari va kosmologik modellar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Xalqaro laboratoriyalar (CERN, Brookhaven RHIC, Lawrence Livermore NIF, Xitoyning EAST tokamagi) va startaplar (Helion, Commonwealth Fusion Systems) bu sohada yetakchilik qilmoqda. O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli simulyatsiyalar va AI vositalari yordamida yadro fizikasi tadqiqotlariga qo‘shilish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Asosiy yutuqlar (2024–2026)

1. **Toriy-229 yadro soati texnologiyasi (2024–2025)** TU Wien (Vena texnika universiteti) jamoasi 2024-yilda dunyodagi birinchi yadro soatini yaratdi. 2025-yilda esa bu texnologiya yordamida nozik tuzilish konstantasining (α) barqarorligi mislsiz aniqlikda tekshirildi. Natija: yadro tranzitsiyasi energiyasi 8.35574(5) eV deb aniqlandi (Nature Communications, 2025). Bu yutuq kvant mexanikasi va fundamental konstantalarning o‘zgaruvchanligi bo‘yicha yangi sinovlar uchun asos bo‘ldi.

2. **Antiprotonning spinini birinchi marta boshqarish (BASE tajribasi, CERN, 2025)** BASE hamkorligi birinchi marta bitta antiprotonning spinini kvant boshqaruv ostiga oldi. Bu antimateriya fizikasida katta yutuq bo‘lib, CPT simmetriyasi va Standart modelning sinovlari uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Natija: Physics World 2025-yilning Top-10 yutuqlari qatoriga kirdi (Nature, 2025).

3. **Kvark-gluon plazmasi (QGP) tadqiqotlari (RHIC va LHC, 2025–2026)**

✓ RHIC (Brookhaven) 2025-yilda so‘nggi ish yuritdi va 60 milliarddan ortiq to‘qnashuv ma’lumotlarini yig‘di. STAR tajribasi QGPning “splash” effekti va jetlar bilan o‘zaro ta’sirini aniqladi.

✓ LHC 2025-yilda proton-oksigen, oksigen-oksigen va neon-neon to‘qnashuvlarini birinchi marta amalga oshirdi, neon yadrolarining “bowling pin” shaklini tasdiqladi va QGP hosil bo‘lishini ko‘rsatdi.

✓ ALICE tajribasi 2 nb^{-1} og‘ir ion ma’lumotlarini yig‘di – rekord samaradorlik.

4. **Termoyadro sintezidagi yutuqlar (2025–2026)**

✓ Xitoyning EAST tokamagi 2026-yil boshida plazma zichligi chegarasini buzdi va barqaror yuqori zichlikdagi plazmani saqladi.

✓ Helion Energy 2026-yilda 150 million °C plazma haroratiga erishdi va birinchi marta tritium bilan ishlaydigan xususiy qurilmani sinovdan o‘tkazdi.

✓ NIF (AQSh) 2025-yilda 8.6 MJ chiqish energiyasiga erishdi (kirishdan 4 baravar ko‘p).

✓ Wendelstein 7-X stellaratori 1.8 GJ energiya aylanishiga yetdi.

Istiqbol rejalar (2026–2035)

- **CERN va LHCning kelajagi:** High-Luminosity LHC (HL-LHC) 2029-yildan ishga tushadi, Higgs bozonining o‘z-o‘ziga o‘zaro ta’siri va yangi zarralarni qidirishni kuchaytiradi.
- **Yangi akseleratorlar:** FCC (Future Circular Collider) loyihasi – 100 km halqa, 100 TeV energiya.
- **Termoyadro sintezi:** ITER 2035-yilda birinchi plazma, keyin DEMO elektr stansiyasi. Xususiy kompaniyalar (Helion, CFS) 2030-yillarda tijorat reaktorlarini va’da qilmoqda.
- **Yadro soatlari va kvant texnologiyalari:** Toriy-229 asosidagi soatlar kvant hisoblash va navigatsiyada qo‘llaniladi.
- **AI va raqamli simulyatsiyalar:** QGP va yadro modellarini bashorat qilishda Grok, ChatGPT kabi modellar va superkompyuterlar ishlatilmoqda.

XULOSA

2024–2026 yillar yadro fizikasida yangi davrni boshladi: yadro tranzitsiyalari aniq o‘lchandi, antimateriya boshqarildi, QGPning yangi xossalari ochildi va termoyadro sintezi tijorat bosqichiga yaqinlashdi.

Kelajakda bu yutuqlar yangi energiya manbalari, kvant texnologiyalari va koinotning dastlabki holatini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston olimlari uchun raqamli platformalar (Colab, PhET), AI vositalari va xalqaro hamkorlik orqali bu sohada faol ishtirok etish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beeks K. et al. Fine-structure constant sensitivity of the Th-229 nuclear clock transition. Nature Communications, 2025.

2. BASE Collaboration. Coherent control of a single antiproton. Nature, 2025.

3. STAR Collaboration. Imaging shapes of atomic nuclei in high-energy nuclear collisions. Nature, 2024–2025.

4. IAEA World Fusion Outlook 2025.

5. PHET Impact Report va RHIC/LHC rasmiy hisobotlari, 2025–2026.

6. Helion Energy va NIF press-relizlari, 2025–2026.

7. Nasriddinov, K. R., and R. V. Qosimjonov. "Use of Case Study Technology in Improving Practical Courses in Nuclear Physics." Texas Journal of Engineering and Technology 15 (2022): 142-146.

8. Nasriddinov, K. R., and R. V. Qosimjonov. "PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA YADRO MODELLARI MAVZUSIDA AMALIY MASHG ‘ULOT TASHKIL ETISH." Academic research in educational sciences 3.11 (2022): 36-45.

9. Nasriddinov, K. R., and R. V. Qosimjonov. "Methodology of Organizing Practical Training on the Subject of" Nuclear Models"." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.5 (2022): 160-163.

10. Nasriddinov, K. R., and R. V. Qosimjonov. "YADRO FIZIKASIDA NOSTANDART TESTLARNING O „RNI VA AHAMIYATI." Academic research in educational sciences 3.6 (2022): 509-517.

11. Nasriddinov, K. R. "USE OF CASE STUDY TECHNOLOGY IN IMPROVING PRACTICAL COURSES IN NUCLEAR PHYSICS." Open Access Repository 9.12 (2022): 30-34.

12. Nasriddinov, KR va RV Qosimjonov. "PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YADRO MODELLARI MAVZUSIDA AMALIY MASHG 'ULOT TASHKIL ETISH."

13. Qosimjonov, R. V. "YADRO FIZIKASIDA TABIIY FANLAR BO‘YICHA FANLARARO INTEGRATSIYASINI AYRIM JIHATLARI." Academic research in educational sciences 2.CSPI conference 3 (2021): 638-644.

14. Qosimjonov, RV “AMALIY MASHQLAR SAMARALILIGINI OSHIRISH YO'LLARI”. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali 10.12 (2022): 1932-1936.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ESL SHAROITIDA YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MEZONLARI, KO‘RSATKICHLARI VA DARAJALARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.106

Gafforova Durdona Gafforovna
University of business and science ta’lim muassasi o‘qituvchisi
Elektron pochta: durdonagafforova16@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ESL (Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish) sharoitida o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada yozma nutq kompetensiyasi lingvistik, kognitiv, diskursiv va pragmatik komponentlar integratsiyasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda yozma nutqni baholash mezonlari va indikatorlari aniqlanadi: grammatik aniqlik, leksik boylik, matnning kohesiya va koherensiyasi, mazmuniy to‘liqlik, kommunikativ va pragmatik adekvatlik. Shuningdek, yozma nutq kompetensiyasining darajalari boshlang‘ich, o‘rta va yuqori belgilab berilib, har bir daraja uchun mos baholash ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ESL, yozma nutq kompetensiyasi, mezonlar, ko‘rsatkichlar, darajalar, grammatik aniqlik, leksik boylik, matn koherensiyasi, kohesiya, pragmatik adekvatlik, baholash, ta’lim metodikasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы развития письменной речи учащихся в условиях ESL (английский язык как второй язык). Письменная речь рассматривается как интеграция лингвистических, когнитивных, дискурсивных и прагматических компонентов. В исследовании определены критерии и показатели оценки письменной речи: грамматическая точность, лексическое разнообразие, когезия и когерентность текста, содержательная полнота, коммуникативная и прагматическая адекватность. Кроме того, выделены уровни развития письменной речи: начальный, средний и высокий, с разработанными соответствующими показателями оценки для каждого уровня.

Ключевые слова: ESL, письменная речь, компетенция, критерии, показатели, уровни, грамматическая точность, лексическое разнообразие, когерентность текста, когезия, прагматическая адекватность, оценка, методика обучения.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of developing students’ written speech competence in the ESL (English as a Second Language) context. Written speech is considered as an integration of linguistic, cognitive, discursive, and pragmatic components. The study identifies criteria and indicators for assessing written speech: grammatical accuracy, lexical richness, text cohesion and coherence, content completeness, communicative and pragmatic adequacy. Furthermore, levels of written speech

competence are defined as beginner, intermediate, and advanced, with specific assessment indicators developed for each level.

Keywords: ESL, written speech competence, criteria, indicators, levels, grammatical accuracy, lexical richness, text coherence, cohesion, pragmatic adequacy, assessment, educational methodology.

Kirish.ESL (Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish) sharoitida yozma nutq kompetensiyasi o‘quvchilarning lingvistik, kognitiv, diskursiv va pragmatik jihatlardan integratsiyalangan bilim va ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida qaraladi. Yozma nutq faqat grammatik jihatdan to‘g‘ri matn yaratish emas, balki o‘quvchining mazmunni strukturaviy, mantiqiy va kommunikativ maqsadga mos tarzda ifodalash qobiliyatini, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kontekstga muvofiqlik darajasini ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda yozma nutq kompetensiyasi o‘quvchining tilni amaliy qo‘llash qobiliyati, fikrlarni tizimli ifodalash darajasi, matnning kohesiya va koherensiyasi, leksik boylik va pragmatik adekvatlik kabi integratsiyalangan ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. ESL sharoitida yozma nutqni shakllantirish jarayoni kompetensiyaviy yondashuv doirasida lingvistik bilimlar, kommunikativ strategiyalar va kognitiv faoliyatni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi[1]. Yozma nutqni rivojlantirishning nazariy mezonlari va ko‘rsatkichlari o‘quvchilarning yozma faoliyatini baholashning asosiy indikatorlari sifatida xizmat qiladi. Mezonlar ESL o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda umumiy ilmiy nazariy asos bo‘lsa, ko‘rsatkichlar ular faoliyatini aniq va o‘lchab bo‘ladigan tarzda belgilaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar orasida grammatik aniqlik, leksik boylik, matnning koherensiyasi va kohesiya, mazmuniy to‘liqlik, kommunikativ va pragmatik adekvatlik eng muhimlari sifatida tan olinadi. Kompetensiyaning darajalari esa boshlang‘ich, o‘rta va yuqori shakllarda tasniflanib, har bir o‘quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlashda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich daraja o‘quvchining asosiy grammatika va leksik bilimlarini qo‘llashga qodirligini, o‘rta daraja matnni strukturaviy jihatdan yaratish va fikrlarni tartibga solish qobiliyatini, yuqori daraja esa murakkab diskursiv va pragmatik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatini ifodalaydi[2]. Yozma nutqni shakllantirish jarayonida metodologik yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ-diskursiv model, jarayonli yozuv (process writing) va refleksiv metakognitiv strategiyalar o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini tizimli, uzviy va samarali rivojlantirishga imkon beradi. Jarayonli yozuv yondashuvi o‘quvchining g‘oya generatsiyasidan boshlab, matnni rejalashtirish, leksik-grammatik kodlash, strukturaviy modellashtirish va tahrirlash bosqichlariga qadar bo‘lgan faoliyatini bosqichma-bosqich tahlil qiladi, bu esa yozma nutqni chuqur, mustahkam va uzviy shakllanishini ta’minlaydi. Formatif baholash mexanizmlari o‘quvchilarning yozma nutq jarayonidagi rivojlanishini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi, summativ baholash esa yakuniy natijalarni baholash orqali darajalarni aniqlashga xizmat qiladi[3]. ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarbligi global kommunikatsiya, akademik talablar va ish bozoridagi til malakasining oshib

borishi bilan bog‘liq. Yozma nutq ko‘nikmalari nafaqat tilga oid, balki o‘quvchining kognitiv, ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishda strategik vosita hisoblanadi. ESL o‘quvchilari ko‘pincha tilni amaliy qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa pedagogik yondashuvlarni ilmiy asoslash va yozma nutqni rivojlantirishning mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini aniq belgilashni talab qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va onlayn resurslarning keng qo‘llanilishi yozma nutqni shakllantirishning yangi formatlarini yaratib, baholash mezonlarini qayta aniqlashni zarur qiladi[4]. Shu nuqtai nazardan, ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish bu o‘quvchining lingvistik bilimlarini amaliyotga tatbiq etish, fikrlarni mantiqiy va strukturaviy ifodalash, matnni kommunikativ va pragmatik nuqtai nazardan adekvat tarzda shakllantirish, shuningdek, individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash orqali ilmiy asoslangan pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotning maqsadi ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy mezonlarini aniqlash, ko‘rsatkichlar va darajalarni tizimli shakllantirish hamda ularni baholash mexanizmlarini ilmiy asoslashdir. Shu bilan birga, olingan natijalar ESL ta’limida yozma nutqni samarali shakllantirish, monitoring qilish va o‘quvchilarning individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash uchun metodik poydevor yaratadi.

Adabiyotlar tahlili: Tilshunoslik va til o‘qitish nazariyasi sohasida yozma nutq kompetensiyasini chuqur tahlil qilgan Engelmann va Venger kabi xorij olimlari ESL kontekstida yozma nutqni til o‘rganishning kognitiv-diskursiv jarayoni sifatida ko‘rgan [5]. Ularning tadqiqotlari yozma nutqni faqat grammatik qoidalar majmui emas, balki tilni amaliyotga tatbiq etish, fikr strukturasini yaratish va kommunikativ maqsadga erishish jarayoni deb qaraydi. Shuningdek, Tierney va Shanahan ESL o‘quvchilarning yozma matn yaratuvchanligi, matnning kohesiya va koherensiyasini shakllantirish mexanizmlarini tizimli yondashuv asosida tahlil qilgan. Bu chet el tadqiqotlari bilan uzviy bog‘liq holda, O‘zbekiston tilshunoslik olimlari ham ESL/ELT (English Language Teaching) sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy ishlarni olib borgan. Masalan, O‘zbekiston Milliy Universiteti professorlaridan biri S.E. Ismoilova yozma nutqni o‘rganish jarayonida ko‘p bosqichli psixolingvistik yondashuvni ilgari surgan [6]. U o‘z tadqiqotida ESL muhitida o‘quvchilarning yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda metakognitiv strategiyalar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi va yozma matn strukturasi tahlilining nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Shu bilan birga, Q.R. Karimova O‘zbekiston kontekstida ESL sharoitida yozma nutqni baholash mezonlarini o‘rganib, ularni milliy darsliklar va xalqaro standartlar asosida taqqoslab tahlil qilgan [7]. Karimovaning tadqiqoti ESL ta’limida yozma nutq kompetensiyasini baholashning aniq mezonlari – grammatik to‘g‘rilik, leksik boylik, diskursiv struktura va pragmatik moslikni indikatorlar orqali o‘lchashni taklif etadi. Bu yondashuv ESL pedagogik amaliyotida til o‘rgatuvchi va baholovchi sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun amaliy metodik ko‘rsatmalar beradi. O‘zbekiston filologiya fanlari bo‘yicha yana bir tadqiqotchi – N.X. Tashpulatova akademik yozuv kompetensiyasining pedagogik modeli haqida ilmiy izlanish olib borgan [8]. U, ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda til o‘rganishning kommunikativ yondashuviga asoslangan metodik modelni ishlab chiqqan, bu model ESL o‘quvchilarga murakkab matnlar yaratish va

ularni tahlil qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni tizimli shakllantirish imkonini beradi. Shu tarzda, ESL konferensiyalari materiali va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqot natijalari bilan bir qatorda, Ismoilova, Karimova va Tashpulatova kabi O‘zbekiston filolog olimlarining ishlari ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini nazariy va amaliy jihatdan chuqurroq o‘rganishga hissa qo‘shadi. Ularning izlanishlari yozma nutqni tahlil qilish mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari bo‘yicha milliy kontekstni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratib beradi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni bir qator metodologik yondashuvlar va ilmiy asoslangan metodlar orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida yozma nutqni lingvistik, kognitiv, diskursiv va pragmatik jihatlarni integratsiyalash orqali rivojlantirishga e’tibor qaratiladi, bu esa o‘quvchilarning yozma matn yaratish jarayonini tizimli va uzviy shakllantirish imkonini beradi. Jarayonli yozuv (process writing) metodi tadqiqotning markaziy vositasi sifatida qo‘llanilib, o‘quvchilarning g‘oya generatsiyasi, matnni rejalashtirish, leksik-grammatik kodlash, strukturaviy modellashtirish va tahrirlash bosqichlarida faoliyatini nazorat qiladi, bu esa yozma nutq kompetensiyasining mukammal va chuqur rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, formatif baholash mexanizmi o‘quvchilarning yozma nutq jarayonidagi rivojlanishini real vaqt rejimida monitoring qilishga xizmat qiladi, summativ baholash esa yakuniy natijalarni baholash orqali mezonlar va darajalarni aniqlash imkonini yaratadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan eksperimental-observatsion metod o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini baholashda indikatorlarning amaliy samaradorligini o‘rganishga yordam beradi, shuningdek, metakognitiv strategiyalarni integratsiyalash orqali o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi baholash va tahrirlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodologik yondashuvlar ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy asoslangan, uzviy va tizimli jarayonini yaratib, o‘quvchilarning individual akademik rivojlanish trayektoriyalarini aniqlash hamda pedagogik amaliyotni samarali yo‘lga qo‘yishga imkon beradi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini tizimli ravishda tasdiqlaydi, ularning asosiy jihatlari kompetensiyaviy yondashuv, jarayonli yozuv strategiyasi va metakognitiv faoliyatni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi; eksperimental-observatsion kuzatuv natijalari ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasi grammatika va leksik aniqlik, matnning kohesiya va koherensiyasi, mazmuniy to‘liqlik, shuningdek, pragmatik adekvatlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli darajada oshgan, formatif baholash orqali yozma faoliyatdagi progress real vaqt rejimida kuzatilgan va summativ baholash natijalari ESL o‘quvchilarning yozma nutq darajalari boshlang‘ich, o‘rta va yuqorini aniqlash va har bir daraja bo‘yicha individual rivojlanish trayektoriyalarini belgilash imkonini bergan, shuningdek, metakognitiv strategiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar o‘zini-o‘zi baholash va matnni tahrirlash qobiliyatlarini mustahkamlab, yozma nutq ko‘nikmalarini tizimli va uzviy shaklda rivojlantirishning ilmiy asoslangan samaradorligini tasdiqlaydi.

Muxokama: ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy yondashuvlar haqida ilmiy polemika zamonaviy tilshunoslik va pedagogik tadqiqotlarda keng tarqalgan. Engelmann (1998) yozma nutqni o‘quvchining kognitiv va diskursiv faoliyati sifatida ko‘rib, jarayonli yozuv metodologiyasini qo‘llash orqali kompetensiyani tizimli shakllantirishni ta’kidlaydi; u fikrlarni generatsiya qilish, matnni rejalashtirish, leksik va grammatik kodlash, strukturaviy modellashtirish va tahrirlash bosqichlarini uzviy jarayon sifatida ko‘radi, bu esa ESL o‘quvchilarning murakkab matnlarni yaratish va mantiqiy ifodalash qobiliyatini samarali rivojlantiradi. Shu bilan birga, Wenger yondashuvi esa yozma nutqni ijtimoiy va kommunikativ kontekstda shakllanadigan kompetensiya sifatida baholab, o‘quvchining matn yaratish jarayonida madaniy va pragmatik kontekstga moslashuvchanligini, shuningdek, tilning amaliy kommunikativ funksiyalarini qo‘llay olish qobiliyatini markaziy o‘ringa qo‘yadi[9]. Ushbu ikki yondashuv o‘rtasida ilmiy munozara mavjud: Engelmann jarayonni bosqichma-bosqich nazariy jihatdan tizimlashtirishga urg‘u berar ekan, Wenger o‘quvchining yozma nutqini ijtimoiy va madaniy kontekst bilan uyg‘unlashtirishni afzal ko‘radi. Natijada, yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda metodologik tanlov masalasi paydo bo‘ladi: qaysi yondashuv ESL sharoitida samaraliroq bo‘lishi kerak? Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, ikki yondashuvning uzviy integratsiyasi eng samarali yechim bo‘lib, Engelmannning jarayonli yozuv strategiyalari o‘quvchining matn tuzish va tahrirlash ko‘nikmalarini rivojlantirsa, Wengerning ijtimoiy-pragmatik yondashuvi bu matnni real kommunikativ kontekstga moslash va ma’no uyg‘unligini ta’minlaydi. Shuningdek, ESL o‘quvchilarning individual farqlari ham muxokamani chuqurlashtiradi. Engelmannning metodologiyasi o‘quvchilarning lingvistik va kognitiv kompetensiyasini tizimli rivojlantirishga xizmat qilsa, Wenger o‘quvchilarning madaniy va pragmatik moslashuvchanligini hisobga olib, yozma nutqni kontekstual va kommunikativ samaradorlik jihatidan baholashni taklif etadi. Bu ilmiy bahs yozma nutq kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mezonlar ESL o‘quvchilarning grammatika, leksika, matn kohesiya va koherensiyasi hamda pragmatik adekvatlik kabi ko‘rsatkichlarini tizimli tarzda o‘lchash imkonini beradi[10]. Natijada, ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning samarali strategiyasi Engelmannning jarayonli yozuv yondashuvi bilan Wengerning ijtimoiy-pragmatik konsepsiyasini birlashtirishda namoyon bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarning yozma nutqini nafaqat lingvistik va kognitiv, balki diskursiv va pragmatik jihatdan mukammal rivojlantirish imkonini beradi. Shu tarzda, ikki xorijiy olimning ilmiy polemikasi ESL pedagogik amaliyotini yanada ilmiy asoslangan, tizimli va kontekstga moslashgan shaklda amalga oshirishga hissa qo‘shadi.

Xulosa.Ushbu tadqiqot natijalari ESL sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli tarzda yoritib, kompetensiyaviy yondashuv, jarayonli yozuv strategiyalari va metakognitiv faoliyatni uzviy integratsiya qilishning samaradorligini tasdiqlaydi; olingan ma’lumotlar ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning yozma nutq ko‘nikmalari grammatika va leksik aniqlik, matnning kohesiya va koherensiyasi, mazmuniy to‘liqlik hamda pragmatik adekvatlik bo‘yicha sezilarli darajada rivojlangan, formatif va summativ baholash mexanizmlari o‘quvchilarning individual rivojlanish

trayektoriyalarini aniqlash va yozma nutq darajalarini belgilash imkonini bergan; shuningdek, Engelmann va Wenger kabi xorijiy olimlarning yondashuvlarini O‘zbekiston filolog olimlarining ilmiy izlanishlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ESL sharoitida yozma nutqni shakllantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari konseptual jihatdan mukammal va amaliyotga tatbiq etiladigan tizim sifatida ishlab chiqilgan; natijada, tadqiqot ESL o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini kompleks, uzviy va samarali rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan metodik poydevor yaratib, pedagogik amaliyotda yozma nutqni baholash va rivojlantirish strategiyalarini aniqlashda nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Кадирова Х. O ‘zbek tilini xorijiy til sifatida o ‘qitishda pedagogikaning muhim jihatlari //Uzbekistan language and culture. – 2022. – Т. 5. – №. 1.

2. Toshmurodova M. N. Innovative methods for teaching english //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

3. Otajonova S. Evaluating the impact of online learning platforms on english language acquisition among university-level esl students //«ACTA NUUz». – 2025. – Т. 1. – №. 1.5. – С. 146-148.

4. Fayziyeva G. S. Ingliz tilini o ‘qitishda moslashuvchan ta’limning o ‘rni: xxi asr sinflari uchun innovatsion yondashuv //Analytical Journal of Education and Development. – 2025. – Т. 5. – №. 1. – С. 499-502.

5. Aminjonov A., Akhrorjon G. Language anxiety and speaking fluency: A Psycholinguistic analysis of uzbek learners of english //o‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. – С. 119.

6. Ismoilova, S. E. (2016). ESL sharoitida yozma nutqni rivojlantirishning psixolingvistik asoslari. Tilshunoslik ilmiy jurnali, 12(3), 45–58.

7. Karimova, Q. R. (2018). Ingliz tili ESL ta’limida yozma nutq kompetensiyasini baholash mezonlari. Pedagogika va lingvistika tadqiqotlari, 20(1), 23–39.

8. Tashpulatova, N. X. (2020). Akademik yozuv kompetensiyasini shakllantirish modellari. Filologiya va ta’lim metodikasi jurnali, 5(2), 67–82.

9. Gulyamova S. The comprehensive analysis of mother tongue influence on second language acquisition //«ACTA NUUz». – 2024. – Т. 1. – №. 1.7. – С. 84-86.

10. Saidakbarov S. S. Challenges in developing inference skills from texts during ESL learning and their effective solutions //Строительство и образование. – 2025. – №. Спецвыпуск 1. – С. 88-90.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 37.016:821.512.133

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI ASOSIDA ADABIYOT FANI BO‘YICHA MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.107

Tirkasheva Go‘zal Baxramovna
Chirchiq davat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot ta’limi jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyaning nazariy-metodologik asoslari, tarkibiy tuzilishi hamda ularni shakllantirishning pedagogik-didaktik mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida xalq og‘zaki ijodi namunalari (maqol, ertak, aforizm, topishmoq, tez aytish) ma’naviy-aksiologik resurs sifatida o‘rganildi. Tadqiqot natijasida milliy va umummadaniy kompetensiyaning integrativ modeli ishlab chiqildi, shakllanish bosqichlari va diagnostik mezonlari belgilandi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, milliy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, adabiyot ta’limi, folklor, aksiologiya, didaktika.*

Аннотация.В статье раскрываются теоретико-методологические основы, структура и дидактические механизмы формирования национальной и общекультурной компетенции в процессе литературного образования. Фольклор рассматривается как духовно-аксиологический ресурс. Разработана интегративная модель формирования компетенций, определены критерии и уровни их сформированности.

Ключевые слова: *компетентностный подход, национальная компетенция, общекультурная компетенция, литературное образование, фольклор.*

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations, structural components, and didactic mechanisms for developing national and general cultural competence in literature education. Folklore is analyzed as a spiritual and axiological resource. An integrative model of competence development and diagnostic criteria are proposed.

Keywords: *competency-based approach, national competence, general cultural competence, literature teaching, folklore*.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor metodologik paradigma sifatida qaralmoqda. Ta’lim jarayonida bilimning o‘zi emas, balki uni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli pedagog va psixolog

olima I.A. Zimnyaya kompetensiyani shaxsning faoliyatga tayyorlik darajasi sifatida izohlaydi [6, 35-b.]. L.S. Vygotskiy esa ta’lim va rivojlanishning uzviy bog‘liqligini asoslaydi [7, 112-b.]. Axborot texnologiyalari hamda sun’iy intellektning jadal rivojlanib borayotganligi, yangi ma’lumotlarning nihoyatda ortib borayotganligi hamda ushbu texnik va texnologik omillarning ta’lim jarayoniga bevosita ta’sirining tobora ortib borayotganligi ta’lim tizimining eng muhim bo‘g‘ini hisoblangan maktab ta’limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o‘tishni belgilab berdi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Maqsad: folklor asosida milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Kompetensiya tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlash.
2. Milliy va umummadaniy kompetensiyaning tarkibiy modelini ishlab chiqish.
3. Folklor asosida didaktik mexanizmlarni belgilash.

Ochun miqyosida shiddat bilan borayotgan globallashuv jarayoni barcha jamiyatlarda ham ta’lim tizimini takomillashtirib, kompetentli kadrlar tayyolashni taqozo etmoqda [1, 9-b.]. Bugungi milliy ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy va tegishli ta’lim dasturlarini yaratishning eng zaruriy ilmiy-pedagogik va metodologik kalitidir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo‘llashdagi qiyinchiliklar, birinchi navbatda, o‘quvchidan ilmiy-faktik ma’lumotlardan shunchaki xabardor bo‘lish o‘rniga, professional va kundalik hayotda muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab qilinishi bilan bog‘liqdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida o‘quvchi tayyor yechimdan foydalanish o‘rniga zarur bilimlarni qo‘llaydi, maqsadlarni shakllantiradi va berilgan muammolarni hal qiladi. Natijada, o‘quv faoliyati tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, o‘zlashtirish mavzusiga aylanadi.

Aslida, har bir fan yo‘nalishida o‘quv-biluv jarayoniga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ishlab chiqishda ma’lum qoidalarga rioya qilish talab qilinadi. Xususan,

1. Muayyan fan yo‘nalishida o‘quv-biluv faoliyatiga doir kompetensiyani rivojlantirish o‘quv jarayonining natijasi bo‘lmog‘i kerak.

2. O‘quv-biluv jarayonida o‘quvchi ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi kerak, ana shunda ta’lim oluvchi ham bevosita ta’imning natijasi uchun javobgar subyektga aylanadi.

3. O‘quvchi uchun ma’lumot qidirish va qayta ishlash uchun zamonaviy ta’limiy sharoitlar yaratilgan bo‘lishi zarur.

4. Har bir o‘quvchi muayyan fanga oid egallagan kompetensiyalarni amalda qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

5. O‘quv jarayoni va kompetensiyalarni egallash har bir o‘quvchi uchun individual sur’atda davom etishi kerak.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib “kompetensiya” va “kompetentlilik” atamalari mazmunidagi farq sezilarli darajada namoyon bo‘la boshladi, ammo ushbu davrda mazkur tushunchalarning aniq ta’rifi borasida muayyan bir to‘xtamga kelinmagan. Adabiyotlar sharhi

ushbu atamalarga berilgan talqinlarning ko‘p o‘lchovliligi va bir ta’rifga asoslanmaganligini ko‘rsatadi. Jumladan, “Chet el so‘zlarining qisqacha lug‘ati”da “kompetensiya” atamasining ta’rifi ma’lum bir sohada yetarli darajada bilimlarga ega yoki bilimdon degan ma’noni anglatadi [4]. D.I. Ushakovning izohli lug‘atida “kompetenlilik” tushunchasi muayyan sohadan xabardorlik va vakolatga egalikni anglatadi; “kompetensiya” esa ma’lum bir shaxs bilim, tajriba va vakolatlarga ega bo‘lgan bir qator masalalar yoki hodisalarni anglatadi [5, 752-b.].

I.A. Zimnyaya “kompetensiya” atamasini “insonning bilimga asoslangan va ta’lim jarayonining yakuniy natijasi bo‘lgan ijtimoiy va kasbiy hayoti tajribasi” deb ta’riflaydi [6, 34-42-b.].

Milliy kompetensiya shaxsning milliy qadriyatlarni anglash va ularni hurmat qilish qobiliyatini ifodalasa, umummadaniy kompetensiya — estetik tafakkur va madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni anglatadi.

Bizningcha, milliy va umummadaniy kompetensiyaning tarkibiy modelini quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

Milliy kompetensiyaning konseptologik mazmun-mundarijasini quyidagicha ifodalash mumkin: **tarixiy ong→milliy identifikatsiya→madaniy merosga hurmat→ijtimoiy mas’uliyat**.

Umummadaniy kompetensiya **estetik tafakkur→tolerantlik→badiiy tahlil→madaniyatlararo muloqot** kabi konseptlarni birlashtiradi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyaning integrativ modelini quyidagicha ifodalasa bo‘ladi: **Bilim → Anglash → Qadriyat → Faoliyat → Refleksiya**.

Ushbu tamoyil va tutumlar ta’limning eng asosiy bosqichi hisoblangan umumiy o‘rta ta’lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘rganilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ijtimoiy hayotning turli vaziyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqati – kompetensiyasini shakllantirish boshqa umumta’lim fanlari singari adabiyot faning ham ustuvor vazifalaridan sanaladi. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida adabiyot fanini o‘qitishdan ko‘zlangan eng asosiy maqsad – milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida adabiyot fanini o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilangan:

O‘quvchilarning og‘zaki nutqi adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, nutqiy kompetensiyani o‘stirish; yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda adabiyot fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish [10, 4-b.]. Milliy ta’lim tizimimizda

ustuvor hisoblangan ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi tamoyiliga [2, 4-modda]. asoslangan holda aytish mumkinki, umumiy o‘rta talim paradigmasida Adabiyot fani o‘quvchining ma’naviy, estetik va axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunda, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalari milliy mentalitet, tarixiy xotira va qadriyatlar tizimining mujassam ifodasidir. Masalan, o‘zbek xalq maqollarida ko‘plab umuminsoniy g‘oyalar singari jamiyatparvarlik va birlik g‘oyasi keng ifodalangan: “Birlik bor joyda – tiriklik bor” [8, 52-b.]. Bundan tashqari, xalqimizning eng ko‘rkam folklor eposi hisoblangan “Alpomish” dostonida esa vatanparvarlik va sadoqat g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi [11, 115-b.].

Globallashuv sharoitida yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish ham kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari muhim o‘rin tutadi. Shularni hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’limning umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablarida “Adabiyot” fanidan xalq og‘zaki ijodi namunalariga oid o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan malaka talablari quyidagicha belgilangan [10, 4-b.]:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar, ya’ni tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish bo‘yicha **A1** darajada *xalq og‘zaki ijodining kichik janrlari hisoblangan ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo‘shiqlari, hikoya, she’rlarni o‘qib tushunish va mazmunini qayta so‘zlab bera olishi lozim*.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi bo‘yicha *xalq og‘zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi; o‘rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olishi; asar qahramonlariga munosabat bildira olishi; o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olishi kerak*. Ushbu malaka talablari Adabiyot fanini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich 4-sinf bitiruvchilariga qo‘yilayotgan malaka talablari hisoblanadi [10, 4-b.].

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar bo‘yicha **A2** darajada *adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza olishi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so‘z, badiiy, publitsistik asarlardan o‘rinli foydalana olishi lozim*.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi bo‘yicha *asar qahramonlari xarakteriga xos bo‘lgan fazilatlar va xislatlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara olishi; xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og‘zaki tavsif bera olishi kerak bo‘ladi.* Mazkur malaka talablari Adabiyot fanini o‘rganishning tayanch darajasi hisoblanib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilariga qo‘yilayotgan malaka talablari hisoblanadi [10, 4-b.].

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar bo‘yicha **B1 darajada** *xalq maqollari, matallari, aforizmlardan og‘zaki nutqda o‘rinli foydalana olishi lozim bo‘ladi*.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi bo‘yicha *xalq maqollari, matallari, aforizmlardan og‘zaki nutqda o‘rinli foydalana oishi; she’riy matn yoki uning parchasini*

ifodali yoddan ayta olishi kerak. Ushbu malaka talablari Adabiyot fanini o‘rganishning umumiy darajasi hisoblanib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilariga qo‘yilayotgan malaka talablari hisoblanadi [10, 3-4-b.].

Adabiyot fani bo‘yicha milliy dasturning mazmuni va tuzilishiga ko‘ra, o‘rta maktab adabiy ta’limi 1-4-sinflar darajasida ***boshlang‘ich***, 5-9-sinflar qamrovida ***tayanch*** hamda 10-11-sinflardan iborat ***o‘rta*** singari uch bosqichdan iborat ekani ko‘zda tutilgan [1, 9-b.]. Bugungi kunda istilohda bo‘lgan 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida xalq og‘zaki ijodiga mansub ko‘pgina maqol, xalq hikmatli so‘zlari (aforizmlar), topishmoq va tez aytish janrlari berilgan bo‘lib, ular mavzularning mazmuniga qarab mos tarzda keng singdirilgan. Quyidagi jadvalda ushbu janrlarning mazmun-mundarijasiga ko‘ra tasnifi berildi [1, 9-b.].

1-jadval

№	Xalq og‘zaki ijodi janri	Mavzu doirasida	Berilgan matn	Kitob sahifasi
1	Maqol	Vatanparvarlik, Vatanni sevish, uni asrab-avaylash	Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni; Vatan gadosi - kafan gadosi; Vataning tinch - sen tinch; O‘z uyim - o‘lan to‘shagim; Ona yurt - oltin beshik Vatanga falokat - o‘zingga halokat; Bulbulga bog‘ yaxshi, kaklikka - tog‘. Ona yurting omon bo‘lsa, Rangi ro‘ying somon bo‘lmas. Vatani borning baxti bor, Mehnati borning - taxti.	10-bet 22-bet 29-bet 51-bet
		Tilga e’tibor haqida	Tilga e’tibor – elga e’tibor; Tilingda bo‘lsa boling, Kulib turar iqboling; Ariqni suv bezar, Odamni - so‘z.	
		Hunar o‘rganish haqida	Hunar bo‘lsa qo‘lingda, Non topilar yo‘lingda. Qunt bilan o‘rgan hunar, Hunardan rizqing unar	62-bet
2	Hikmatli so‘z (aforizm)	Vatanparvarlik, Vatanni sevish, uni asrab-avaylash	Vatan taqdiri har bir kishining taqdiridir; Vatanparvarlik - bobolardan qolgan meros; O‘z diyorini gullatganning baxti gullaydi; Har bir nihol o‘ziga xos tuproqda ildiz otadi; Vatan uchun qurbon bo‘lganlarning xoki	10-bet 22-bet

			muqaddasdir Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas; Vatansiz inson – kuysiz bulbul; Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.	51-bet
3	Ertak (audio formatda)	Vatan haqida	Vatan mehri.	19-bet
		Donolik va topqirlik haqida	Bir kunda uch marta hosil bergan daraxt.	78-bet
4	Topishmoq	Tabiatning bo‘lagi hisoblangan qushlarni asrash	Sayrab tursam suyarlar, Sayramasam so‘yarlar. Tushmayin deb qoshiqqa, Zo‘r beraman qo‘shiqqa. Oltin kosada toshib turar, Dala husnini ochib turar.	19-bet 34-bet
5	Tez aytish	Ravon nutq va so‘zamollikni shakllantirish	Turg‘un to‘rtta to‘rg‘ayni to‘rga tushirdi; Paxta qattiqmi, taxta qattiq? Sodiq momiq paxtani terdi.	33-bet 40-bet

Biz ushbu maqolada kitobning I qismiga kiritilgan xalq og‘zaki ijodi janrlariga oid namunalarini keltirdik. Jadvalda keltirilgan xalq og‘zaki ijodiga mansub janrlarni o‘rganish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

Ba’zi o‘rinlarda folklor namunalari takroran (aforizmlar 22- va 51-betda) berilganligini ko‘rish mumkin. Maqollarda keltirilgan ba’zi so‘zlarning (o‘lan, xok) izohi berilsa, o‘quvchilar uchun maqol va hikmatli so‘zlarning mazmuni yanada tushunarli bo‘lar edi.

Maqollarning mavzu ko‘lamiga qarab “Klaster” tuzsa bo‘ladi. “Maqoldagi so‘zlarni mazmuniga qarab to‘g‘ri joylashtir”, “Maqolning 2-qismini toping (yoki uyda topib keling)”, “Ota-onangiz yoki aka-opangizdan yangi maqol va topishmoqlar o‘rganib keling”, “O‘zingiz ham ... mavzusida maqol topib keling”, “Qanday topishmoq bilasiz, ayting”, “Tez aytishni tez ayting”, “Maqol aytish musobaqasi”, “Topishmoq aytishuvi” kabi didaktik tadbirlar tashkil qilish mumkin. Mazkur didaktik tadbirlarning didaktik mexanizmlarini quyidagi innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

1. Muammoli o‘qitish.
2. Qiyosiy tahlil.
3. Rolli o‘yin.
4. Loyiha usuli.
5. Debat texnologiyasi.

XULOSA

Folklor asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o‘quvchilarning milliy o‘zligini anglash, estetik tafakkur va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi. Xalq og‘zaki ijodiga mansub

janrlar ustida ishlash, ularning o‘quv tahlili adabiyot o‘qitishdagi eng asosiy yumush hisoblanadi. Maqol, hikmatli so‘zlarning tahlili va ularning mazmuni hamda g‘oyasini tushunish jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, tafakkur darajalari, ruhiy rivojlanish bosqichlarining holatlarini hisobga olish juda muhim. Xalq og‘zaki ijodiga mansub janrlar matni ustida mustaqil ishlash o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, badiiy tahlil va nutqiy kompetentlikka o‘rgatadi. Kompetensiyaviy yondashuv esa, ta’limning samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot fani milliy o‘quv dasturi. – RTM, 2023. – 42 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007
3. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 256 б.
4. Краткий словарь иностранных слов. // Под ред. И.В. Лехина и проф. Ф.Н. Петрова. – Москва: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1952. – 488 с.
5. Толковый словарь русского языка: в 4 т. / под ред. Д. Н. Ушакова. — М.: Сов. энцикл.: ОГИЗ, 1935—1940. Том 1: А — Кюрины / Сост. Г.О. Винокур, проф. Б.А. Ларин, С.И. Ожегов, Б.В. Томашевский, проф. Д.Н. Ушаков; Под ред. проф. Д.Н. Ушакова. — М.: Гос. ин-т "Сов. энцикл."; ОГИЗ, 1935. — 1562 ст.
6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.
8. Мирзаев Т. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Фан, 1978. – 112 б.
9. Ишмуҳамедов Р. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – 180 б.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17-dekabrdagi 406-son buyrug‘i 2-ilova bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari. – 16 b.
11. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони / Нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 384 б.
12. M.E.Toirova O‘qish savodxonligi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I qism. - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. - 80 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INNOVATSION TALIM SHAROITIDA OPTIKA BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.108

Q.Eshqorayev. *Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti*
A.Eshqorayev *Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti kata o‘qituvchi*.

Annotatsiya . Ushbu maqolada jhahon talim tizimida fizika fanini optika bolimini talim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoillari asosida tayanchlarni, ijodiy fikrlovchi cad tayorlash, gozirgi innovatsiya talim sharoitlarida tarakkiyot rivojlanishlashtirishga oid yangi zamonaviy innovatsiyalarni ta'minlash va rivojlantirish. tayerlashga qaratilgan ilmiyga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bulazhak cadlar tayerlash zharayonini tashkil qilish, innovation talim muhiti sharoitide physicsing optics biglimini o‘rganish illüstrasyonlar o‘quv materiallarini o‘rganish, computer technologylari va dasturlaridan foidalanish, laboratory mashgulotlarida virtual, multimedia, elektron ishlab chiqarishni qullashga interaktiv ishlab chiqarishlar, loyihalar natizhalarini amalga oshirish.

Kalit so'zlar: Talim, strategiyalar, zamonaviy, tamoillar, ijodkorlik, innovatsiyalar, fizika, texnologiya, interaktiv.ikr-mulohaza

Annotation. This article pays special attention to scientific research aimed at improving the strategies and mechanisms of teaching the optics department of physics in the global education system based on the principles of modern development, training creative thinking personnel, introducing new modern innovations in accordance with the current conditions of development and assessing their significance, and training competitive personnel. Systematic work is being carried out to organize the process of training future personnel, study illustrated educational materials for studying the optics department of physics in an innovative educational environment, use computer technologies and programs, interactive approaches to the use of virtual, multimedia, electronic means in laboratory exercises, and implement the results of projects in practice.

Keywords: Education, strategies, modern, principles, creative, innovation, physics, technologies, interactive**.**

Аннотация.В данной статье особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на совершенствование стратегий и механизмов преподавания оптики на физическом факультете в глобальной системе образования на основе принципов современного развития, подготовки творчески мыслящих кадров, внедрения новых современных инноваций в соответствии с современными условиями развития и оценки их значимости, а также подготовки конкурентоспособных кадров. Ведется систематическая работа по организации процесса подготовки будущих кадров,

изучению иллюстрированных учебных материалов для изучения оптики на физическом факультете в инновационной образовательной среде, использованию компьютерных технологий и программ, интерактивных подходов к использованию виртуальных, мультимедийных, электронных средств в лабораторных работах, а также внедрению результатов проектов на практике**.**

Ключевые слова: Образование, стратегии, современные, принципы, творческие, инновации, физика, технологии, интерактивные.

MAQSAD. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim sharoitida optika bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish

KIRISH. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim sharoitida fizika fanining optika bo‘limini o‘qitish metodikasi tizimining asosiy elementi bo‘lgan o‘qitish maqsadlari jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi shartdir.Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim sharoitida fizika xar bir o‘qitiladigan bo‘limini o‘qitishning metodik tizimini yaratishda turli innovatsion yondashuvlar hisobga olinadi .Masalan, ushbu metodik tizimni yaratishda an’anaviy o‘qitishning metodik tizimidan farqli o‘laroq, texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fizikaning optika bo‘limida ta’lim samaradorligini oshirish hamda takomillashtirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va uning metodlarisiz ta’lim maqsadlariga erishib bo‘lmaydi.Texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fizika fani va uni bo‘limlarini o‘qitishni tashkillashtirish shakllarini o‘qituvchi va talabalarning o‘quv jarayonidagi bir-biriga ta’siri belgilab beradi. O‘qitish shakllarining o‘quv jarayoniga (ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, seminar, laboratoriya va boshq.) hamda individual (mustaqil ish, individual maslahatlar va boshq.) o‘quv faoliyatlariga ham qaratiladi.Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakli ma’ruza bo‘lib, u olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy jarayonning asosi hisoblanadi.

Innovatsion ta’lim sharoitida Fizika darsining xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1) ta’lim va tarbiya vazifalari hal qilinadi;

2) aniq o‘quv materiali muhokama etiladi;

3) maqsadlarni amalga oshirish uchun mos o‘qitish metodlari tanlanadi;

4) talabalar jamoasining ma’lum tarzda faoliyati tashkil etiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalarga tayangan holda, bizningcha, har bir mashg‘ulotning didaktik va tarbiyaviy maqsadlarini bilish talab etiladi. Bunda didaktik maqsadlarga quyidagilar kiradi:

a) yangi materialni o‘rganish (tushunchani shakllantirish, qonun va algoritmlar o‘rnatiladi);

b) o‘rganilayotgan bilimlarni mustahkamlash (takrorlash, masalalar yechish).Mashg‘ulotda tarbiyaviy masalalar ham hal qilinadi. Bunda:

v) talabalar qiziqishini uyg‘otish va tarkib toptirish;

g) talabalarning o‘qishga mas’uliyatini oshirish, kasbga mehr uyg‘otish.

v)optikani o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj va ko‘nikmalarni tarbiyalashdan iboratdir. Optika bo‘limini o‘qitishda o‘quv vositasi sifatida darsliklar, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalar ,ko‘rgazmali materiallar, namoyish etiluvchi o‘quv materiallari, texnik vositalar, zamonaviy AKT hamda bilim olish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalar muhimdir.

Ta’lim texnologiyasining innovatsion modeli ahamiyatli bo‘lib – bu belgilangan vaqt va mavjud sharoitda asosiy maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o‘quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta’limning eng maqbul shakli, vositasi, metodi, metodikasi va texnologiyasining majmui.Ta’lim texnologiyasining innovatsion modeli quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

An’anaviy o‘qitishda o‘qituvchining asosiy diqqat-e’tibori talabaga o‘tilgan mavzu asosida yangi bilimlarni berishga qaratilgan bo‘lib, bunda turli metodlarni ishlatadi va o‘qituvchi o‘zi ko‘proq ma’ruza qiladi.An’anaviy o‘qitish maqsadlari: auditoriya talabalari tomonidan belgilangan bilimlarning qanday o‘zlashtirilayotganligiga e’tibor qaratadi, o‘zlashtirmagan talabalar bilan ishlaydi, talabalarning xatolarini tuzatish va ularning tartibini doimiy kuzatishdan iborat.

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishni tashkil qilishning yangi shakllari vujudga keldi. O‘qitishni tashkil qilishning yangi shakllaridan biri - o‘qitishning asosi bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hisoblanadi. [108[48].

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim tizimida faqat o‘qitish muhim deb qaramasdan, balki shaxsni rivojlantirishni, o‘qitishda talabaning bilimi, ko‘nikma va malakalarini, ixtiro,loyiha,texnik modellar yaratish asosida individual qobiliyatlarini va shaxsiy sifatlari rivojlanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda bilim berishning bosh maqsadi – har bir talabaning shaxsiy qobiliyatini aniqlash orqali ularning bilimini rivojlantirishdan kelajakda o‘z kasbida optika qonunlaridan foydalanib ishlaydigan qurilmalarning ustasi bo‘lib yetishishga undaydi.

Shaxsga yo‘naltirib o‘qitishda o‘qituvchi muloqatni uyushtiruvchi koordinator vazifasini bajarib, talabalarning maksimal faoliyat ko‘rsatishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratadi. O‘qituvchi talabalarga buyruq bermasdan, ularga hamkor sifatida muomala qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning maqsadlari: har bir talabaning shaxsiy qiziqishini hisobga olish, talabalar tomonidan mustaqil topshiriqlarni bajarish shakllarini taklif qilish orqali o‘qituvchi har bir talaba bilan alohida shug‘ullanadi, ularning yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zlariga to‘g‘rilatadi, o‘zini o‘zi baholash shakllanadi.

Noan’anaviy mashg‘ulot o‘zining pedagogik maqsadlari bo‘yicha an’anaviy mashg‘ulotdan farq qilar ekan.Fizika bo‘limlarini texnika oliy ta’lim muassasalaridao‘qitishni samarali tashkil qilish uchun, avvalambor, o‘qitish jarayonini oldindan rejalashtirib olish lozim.Buning uchun texnika oliy ta’lim muassasalarida “Fizikaning optika bo‘limi nima uchun o‘qitiladi?”, “Unda nima o‘rganiladi?”, “Qanday o‘qitish kerak?”, “Nima yordamida o‘qitish kerak?” degan savollarning kun tartibiga qo‘yilishi ta’lim oluvchilarininginnovatsion qobiliyatini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.Fizika fani bo‘limida har bir mashg‘ulotni rejalashtirishda o‘qitish maqsadlarini oldindan aniq belgilab olish asosiy o‘rin

tutadi.Ma’lumki, maqsad oldindan belgilangan natijaga erishish mahsuli bo‘lib, u ta’lim jarayonida uning sub’ektlari (o‘qituvchi va talaba)ning birgalikdagi faoliyati yakunida rejalashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarining oldindan kafolatlanishidir. .

Zamonaviy interfaol ta’lim texnologiyasiga asoslangan holda texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika sohalarini o‘qitishda samaradorlikka erishish uchun:

o‘qituvchi har bir talabaning fikri va qiziqishiga e’tibor qaratish natijasida mashg‘ulot jarayonining samaradorligiga asosiy mezon sifatida qarash;

auditoriyadagi talabalarning to‘laqonli rivojlanishiga erishish;

mashg‘ulotni interfaollikni va erkin fikrlashni yuzaga chiqarish o‘z-o‘zini rivojlantirish shakllantirish;

talabalarni tabaqalashtirggan holda ularning psixologik, shaxsiy xususiyatlari hamda qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish yuritish lozim. Talabalarning har bir harakatida ularning shaxsiy qiziqishlarini ta’minlash lozim bo‘ladi.Zamonaviy mashg‘ulotlarni ta’lim tashkil etish shartlari quyidagicha bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Xulosa .talabaning mustaqil va erkin fikrlashi hamda ijodkorligini rivojlanishi uchun qarama-qarshiliksiz va eng qulay o‘z kasbining yetakchisi bo‘lish uchun sharoitlarni yaratib berish;talabaning yangi qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi;

talaba shaxsini teng huquqli deb qabul qilish, ya’ni talaba kasbining novatori bo‘lishga, motivatsion qiziqishlariga, yangi bilimlarga munosabatlarini e’tiborga olish, talaba bilimi, tafakkuri va imkoniyatlariga ishonish;ta’lim texnologiyasini qo‘llashda talabalarning fizikaning optika bo‘lim olgan yangi bilim va ko‘nikmalarni malakalarga aylantirishning ijobiy natijalarini va talaba umumiy madaniyatining o‘sib borishini oldindan aniqlash;

har bir talabaning iqtidori,qobiliyatini hisobga olishtalabaning mustaqil bilim egallay olishi, anglashi, rivojlanishi yo‘lida doimiy yordam ko‘rsatish va uni shunga ishontirish;

har bir talabaning rivojlanish istiqbollari va o‘z kasbidan norozi bo‘lish holatini aniqlash, ularni individual nazorat qilish hamda tahlil qilib o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘naltirib rag‘batlantirish lozim shundagina ishimiz ng samaraliekanligi talabalarda qoniqish hissi paydo bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Goulman D. Emotsionalnыy intellekt v biznese. – M.: «Mann, Ivanov i Ferber», 2013. – S. 512.

2.G‘oziev E., Jabborov A. Faoliyat va hulq motivatsiyasi. –T.: O‘zMU, 2003. – 124 b.

3. Usarov J.E. Fizika o‘qitish jarayonida o‘quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik jihatlari. Monografiya. – Toshkent: «Mashhur-press», 2019. - 192 b.

4. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalash va rejalashtirish. T.: Iqtisodiyot, 2011. – 208 b.

5. Bazarova S.D. Oliy texnik ta’limda kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining tizimli asoslanishi: Ped. fan. dokt…. diss. avtoref. –T., 2009 – 36

b. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida): Ped. fan. dokt … diss. avtoref. –T., 2006, - 49 b. 49.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

FANLARARO INTEGRATSIYA VA UNING INKLYUZIV TA’LIMDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.109

Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali
Maqsudova Nodira Alijonovna
nodiramaqsudova86@gmail.com

Annotatsiya.Mazkur maqolada fanlararo integratsiya tushunchasi hamda uning inklyuziv ta’lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’lim jarayonida turli fanlar o‘rtasidagi integratsiyani tashkil etish o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqotda fanlararo integratsiya orqali o‘quv jarayonini mazmunan boyitish, o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish hamda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni ta’lim jarayoniga samarali jalb etish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari inklyuziv ta’lim muhitida differensial va individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qilishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari fanlararo integratsiya inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: fanlararo integratsiya, inklyuziv ta’lim, didaktik imkoniyatlar, ta’lim texnologiyalari, individual yondashuv, differensial ta’lim, o‘quv jarayoni, kompetensiya, pedagogik innovatsiyalar.

Annotation. This article analyzes the concept of interdisciplinary integration and its didactic possibilities in inclusive education from a scientific and theoretical perspective. It substantiates that organizing integration between different academic disciplines in the inclusive education process plays an important role in forming students’ knowledge, skills, and competencies while taking into account their individual needs. The study highlights the opportunities of enriching the educational process through interdisciplinary integration, increasing students’ cognitive activity, and effectively involving children with special educational needs in learning activities. In addition, integrated educational technologies are analyzed as an effective tool for ensuring differentiated and individualized approaches in an inclusive educational environment. The results of the study show that interdisciplinary integration serves as an important didactic means for improving the effectiveness of inclusive education and developing students’ independent thinking, communication, and collaboration skills.

Keywords: interdisciplinary integration, inclusive education, didactic opportunities, educational technologies, individualized approach, differentiated learning, educational process, competence, pedagogical innovations.

Аннотация.В данной статье рассматривается понятие междисциплинарной интеграции и её дидактические возможности в системе инклюзивного образования. Научно обосновывается, что организация интеграции между различными учебными дисциплинами в процессе инклюзивного обучения играет важную роль в формировании знаний, умений и компетенций учащихся с учетом их индивидуальных потребностей. В исследовании раскрываются возможности обогащения образовательного процесса посредством междисциплинарной интеграции, повышения когнитивной активности учащихся, а также эффективного включения детей с особыми образовательными потребностями в учебную деятельность. Кроме того, на основе научных источников анализируется роль интегрированных образовательных технологий в обеспечении дифференцированного и индивидуального подхода в условиях инклюзивного образовательного пространства. Результаты исследования показывают, что междисциплинарная интеграция является важным дидактическим средством повышения эффективности инклюзивного образования и развития у учащихся навыков самостоятельного мышления, коммуникации и сотрудничества.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, инклюзивное образование, дидактические возможности, образовательные технологии, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, образовательный процесс, компетенции, педагогические инновации.

Kirish. Hozirgi globallashuv va ta’lim tizimining modernizatsiyalashuvi sharoitida ta’lim mazmunini takomillashtirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish hamda har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi ta’lim jarayonida yangi metodologik yondashuvlarni qo‘llashni, o‘quv materialini o‘quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos holda tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, fanlararo integratsiya ta’lim jarayonini mazmunan boyitish, o‘quvchilarni faol o‘qitish hamda bilimlarni tizimli ravishda shakllantirishning muhim didaktik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fanlararo integratsiya turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quv materialining yaxlitligini ta’minlaydi hamda o‘quvchilarda borliqni kompleks tarzda idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv ayniqsa inklyuziv ta’lim sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki turli ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun bilimlarni turli kontekstlarda va turli faoliyat turlari orqali o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Natijada o‘quvchilar nafaqat alohida fanlar bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladilar, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – barcha bolalarga, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarga teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishdir. Bu jarayonda o‘quv jarayonini moslashtirish, differensial va individual yondashuvni qo‘llash muhim

ahamiyatga ega. Fanlararo integratsiya aynan shu vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki u o‘quvchilarning turli qobiliyatlari va o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogika va didaktika sohasidagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda fanlararo integratsiya ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish hamda ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim omili sifatida e’tirof etilgan. Inklyuziv ta’lim sharoitida esa ushbu yondashuv o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta’lim tizimidagi didaktik imkoniyatlarini o‘rganish uchun kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar qo‘llanildi. Avvalo, pedagogika, maxsus pedagogika hamda inklyuziv ta’lim sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu jarayonda fanlararo integratsiya, differensial ta’lim, individual yondashuv va inklyuziv ta’limga oid ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganildi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv jarayonida inklyuziv ta’lim muhitida o‘qitish jarayonining tashkil etilishi, fanlararo integratsiya elementlarining qo‘llanishi hamda uning o‘quvchilarning o‘quv faolligi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, integratsiyalashgan darslar tashkil etilishi natijasida o‘quvchilarning muloqot, hamkorlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida inklyuziv ta’lim muhitida o‘qitilayotgan o‘quvchilar bilan integratsiyalashgan o‘quv faoliyati tashkil etildi. Bu jarayonda turli fanlar – masalan, ona tili, tabiiy fanlar va matematika elementlarini o‘zaro bog‘lagan holda darslar olib borildi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishiga, shuningdek, turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb etishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta’limdagi samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv va tahlil ishlari olib borildi. Tadqiqotda inklyuziv ta’lim tashkil etilgan sinflarda o‘qiyotgan jami 60 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ularning 45 nafari odatiy rivojlanishga ega bo‘lgan o‘quvchilar, 15 nafari esa alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tashkil etdi. Tajriba jarayonida integratsiyalashgan darslar tashkil etilib, ularning o‘quvchilarning o‘quv faoliyati va bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ta’siri o‘rganildi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Tajriba boshlanishidan oldin o‘quvchilarning faollik darajasi 48 % ni tashkil etgan bo‘lsa, integratsiyalashgan darslar joriy etilgandan so‘ng bu ko‘rsatkich 72 % ga yetgani kuzatildi. Bu esa o‘quvchilarning dars jarayonida savol-javoblarda ishtirok etishi, mustaqil fikr bildirish hamda guruh faoliyatida faol qatnashish ko‘rsatkichlarining oshganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi ham ijobiy o‘zgarishga ega bo‘ldi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra o‘quvchilarning 52 % ida o‘quv materialini yetarli darajada o‘zlashtirish ko‘rsatkichi qayd etilgan bo‘lsa, integratsiyalashgan o‘qitish metodlari qo‘llanilgandan keyin bu ko‘rsatkich 78 % ga oshdi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ham o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Masalan, ushbu guruhdagi o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarish darajasi 41 % dan 64 % gacha oshgani aniqlandi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Guruhda ishlash jarayonida o‘quvchilarning 68 % ida hamkorlik ko‘nikmalari rivojlangani, 62 % ida esa o‘z fikrini erkin ifoda etish qobiliyati kuchaygani kuzatildi. Bundan tashqari, inklyuziv sinflarda turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash muhitining shakllangani qayd etildi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirishga, balki ularning kognitiv faolligi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida integratsiyalashgan o‘qitish metodlari o‘quvchilarning turli qobiliyatlarini hisobga olgan holda samarali ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot natijalari fanlararo integratsiya inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita ekanligini statistik ma’lumotlar asosida tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar pedagogika va maxsus pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi o‘quvchilarning bilimlarni tizimli o‘zlashtirishiga hamda kognitiv faolligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Fanlararo integratsiya o‘quv materialini turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida taqdim etishga imkon berib, o‘quvchilarda borliqni yaxlit idrok etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tadqiqot davomida olingan statistik natijalar shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan darslar tashkil etilgan sinflarda o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligi va o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgan. Bu holat fanlararo integratsiya o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga qiziqishini kuchaytirishini hamda bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishiga yordam berishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun integratsiyalashgan ta’lim jarayoni bilimlarni turli faoliyat turlari orqali o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, fanlararo integratsiya inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan individual va differensial yondashuvni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilarga turli topshiriqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda guruhli faoliyatda ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning individual

qobiliyatlarini namoyon etishiga va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi.

Shuningdek, fanlararo integratsiya o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Inklyuziv sinflarda turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik muhitining shakllanishi, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashning kuchayishi kuzatiladi. Bu esa inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – barcha o‘quvchilar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish g‘oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Biroq tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ayrim o‘qituvchilarning fanlararo integratsiya asosida dars tashkil etish bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli darajada emasligi, shuningdek, integratsiyalashgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish uchun qo‘shimcha vaqt va resurslar talab etilishi aniqlandi. Shu sababli inklyuziv ta’lim tizimida fanlararo integratsiyani samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning metodik kompetensiyalarini rivojlantirish, integratsiyalashgan o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta’lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, fanlararo integratsiya ta’lim jarayonini mazmunan boyitish, o‘quvchilarning bilimlarni yaxlit va tizimli o‘zlashtirishiga erishish hamda ularning kognitiv faolligini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida turli ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi samarali didaktik imkoniyatlarni yaratadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, bilimlarni chuqurroq va barqaror o‘zlashtirishiga yordam berishini ko‘rsatdi. Statistik ma’lumotlar asosida o‘quvchilarning o‘quv faolligi, o‘zlashtirish darajasi hamda hamkorlik ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani aniqlandi. Bu esa fanlararo integratsiya o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, fanlararo integratsiya inklyuziv ta’limning muhim tamoyillaridan biri bo‘lgan individual va differensial yondashuvni amalga oshirishda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Integratsiyalashgan ta’lim jarayonida o‘quvchilar turli faoliyat turlari orqali bilimlarni o‘zlashtiradi, muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil fikrlash hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, inklyuziv ta’lim tizimida fanlararo integratsiyaga asoslangan o‘qitish texnologiyalarini keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, integratsiyalashgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, fanlararo integratsiya inklyuziv ta’lim muhitida samarali ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash hamda ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga ko‘maklashuvchi muhim didaktik omil

sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish va amaliyotga tatbiq etish kelajakda inklyuziv ta’lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avliyakulov N.H. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
4. Yuldashev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Xasanboyeva O.U. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
6. Karimova V.M. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
7. Qodirov B.R. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2018.
8. Shodmonov E.Sh. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
9. Norqobilova D.A. Inklyuziv ta’lim metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
10. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
11. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
12. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KIMYO TA’LIMIDA RAQAMLI SIMULYATSIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA INTERFAOL TAJRIBALARNI TASHKIL ETISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.110

Murodova Sitorabonu Bahodir qizi
Buxoro davlat Pedagogika instituti Kimyo kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: murodovasitorabonu98@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda raqamli simulyatsiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Virtual tajribalar orqali o‘quvchilar kimyoviy jarayonlarni xavfsiz va qiziqarli tarzda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sun’iy intellekt vositalari esa o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va bilim darajasidan kelib chiqib, mos topshiriqlarni taqdim etishi hamda o‘qituvchiga tezkor tahlil natijalarini ko‘rsatishi mumkin. Bunday metodik yondashuv kimyo ta’limining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Shuningdek, maqolada bu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning afzalliklari va ayrim zamonaviy muammolari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kimyo ta’limi, raqamli simulyatsiyalar, sun’iy intellekt, virtual tajribalar, interfaol mashg‘ulotlar, axborot texnologiyalari, individual yondashuv, kreativ fikrlash, ilmiy-metodik asoslar.

Аннотация.В данной статье анализируются возможности использования цифрового моделирования и искусственного интеллекта в обучении химии. Благодаря виртуальным экспериментам учащиеся смогут изучать химические процессы безопасно и интересно. Инструменты искусственного интеллекта позволяют давать адекватные задания, исходя из индивидуальных способностей и уровня знаний учащихся, и быстро демонстрировать учителю результаты анализа. Такой методический подход, повышая эффективность обучения химии, формирует у учащихся самостоятельное мышление и научное мировоззрение. В статье также освещаются преимущества и некоторые современные проблемы внедрения этих технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: химическое образование, цифровое моделирование, искусственный интеллект, виртуальные эксперименты, интерактивные занятия, информационные технологии, индивидуальный подход, креативное мышление, научно-методические основы.

Annotation. This article analyzes the possibilities of using digital simulations and artificial intelligence in teaching chemistry. Through virtual experiments, students will have the opportunity to study chemical processes in a safe and interesting way. Artificial

intelligence tools can provide appropriate tasks based on the individual abilities and level of knowledge of students and show the results of quick analysis to the teacher. Such a methodological approach, while increasing the effectiveness of chemistry education, forms independent thinking and a scientific worldview in students. The article also highlights the advantages and some modern problems of introducing these technologies into the educational process.

Keywords: Chemistry education, digital simulations, artificial intelligence, virtual experiments, interactive training, information technologies, individual approach, creative thinking, scientific and methodological foundations.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash darslarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar kimyoviy jarayonlarni faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki virtual tajribalar orqali ham o‘zlashtira olsalar, ularning fanga qiziqishi yanada ortadi. Raqamli simulyatsiyalar yordamida murakkab reaksiyalar xavfsiz va vizual shaklda namoyish etilishi o‘quvchilarning tezroq tushunishiga yordam beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlar yaratib, individual yondashuvni ta’minlaydi[1].

Interfaol mashg‘ulotlar esa o‘quvchilarning faol ishtirokini kuchaytiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Bu jarayon o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantirib, muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, raqamli simulyatsiyalar va sun’iy intellekt integratsiyasi o‘quvchilar bilimini baholashda ham qulaylik yaratadi. O‘qituvchi o‘quvchining faoliyati haqida tezkor tahlil natijalarini ko‘rib chiqib, o‘z metodikasini yanada takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Demak, kimyo ta’limida bu texnologiyalarni joriy etish zamon talabi bo‘lib, ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi[2].

Tadqiqotlar metodologiyasi. Kimyo ta’limida raqamli simulyatsiyalar o‘quvchilar uchun murakkab bo‘lgan jarayonlarni sodda va tushunarli shaklda ko‘rsatish imkonini beradi. Masalan, atomlar orasidagi bog‘lanishlar, molekulalarning geometrik tuzilishi yoki reaksiyalar mexanizmlarini 3D formatda ko‘rish o‘quvchilar tasavvurini boyitadi. Virtual tajribalar xavfsiz muhitda olib borilishi sababli o‘quvchilar kimyoviy moddalar bilan bevosita ishlashdan oldin nazariy tayyorgarlikka ega bo‘ladilar. Bu esa laboratoriya mashg‘ulotlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi[3].

Sun’iy intellekt texnologiyalari kimyo ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Ular yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi tahlil qilinib, ularga individual topshiriqlar taqdim etilishi mumkin. Masalan, ba’zi o‘quvchilar uchun murakkab hisob-kitobli masalalar, boshqalari uchun esa tajribaga oid savollar taklif qilinadi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini namoyon etishlariga va bilimlarini mustahkamlashlariga yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘quvchilarning xatolarini tezkor aniqlab, ularga darhol tavsiyalar berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Interfaol tajribalar kimyo ta’limida eng muhim pedagogik vositalardan biridir. Bunda o‘quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o‘zlari faol ishtirok etib, jarayonni

boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, o‘quvchi kompyuter dasturi orqali reaksiyaning tezligini o‘zgartirishi yoki natijalarni taqqoslashi mumkin. Bu esa dars jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi. Interfaol mashg‘ulotlar o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur, kuzatish, tahlil qilish va muammoni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[4].

Raqamli simulyatsiyalar va sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llash dars samaradorligini yanada oshiradi. Chunki simulyatsiyalar orqali vizual ko‘nikmalar shakllansa, sun’iy intellekt esa o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va natijalarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu texnologiyalar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning umumiy faolligini nazorat qilib borishi va zarur joylarda metodik yondashuvni o‘zgartirishi mumkin.

Shu bilan birga, mazkur yondashuvning ayrim muammoli jihatlari ham mavjud. Jumladan, barcha ta’lim muassasalarida zamonaviy texnik jihozlar va yetarli tezlikdagi internet mavjud emas. Bu esa ayrim hududlarda raqamli simulyatsiyalar va sun’iy intellektdan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning texnologiyadan foydalanish bo‘yicha malakasini oshirish ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli bu sohada maxsus o‘quv kurslari va amaliy seminarlar tashkil etish zarur[5].

Umuman olganda, raqamli simulyatsiyalar va sun’iy intellekt asosida interfaol tajribalarni tashkil etish kimyo ta’limini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu nafaqat o‘quvchilar bilimini chuqurlashtiradi, balki ularning ijodiy tafakkurini, mustaqil ishlash qobiliyatini va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Kimyo ta’limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli simulyatsiyalar murakkab jarayonlarni oson va tushunarli shaklda ifodalash imkonini berib, sun’iy intellekt texnologiyalari esa o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlaydi. Virtual tajribalar xavfsiz muhitda bilim olish imkonini yaratib, o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb etadi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi tezkor tahlil qilinadi, xatolari aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bu jarayon darslarni yanada qiziqarli va esda qolarli qilish bilan birga, xavfli tajribalarni virtual muhitda bajarish imkoniyatini ham taqdim etadi. Shu orqali o‘quvchilar ilmiy fikrlashni o‘rganadilar va hayotiy jarayonlar bilan kimyo fanini bog‘lash imkoniga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qituvchilar uchun raqamli vositalar metodik yondashuvni yangilash va dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli simulyatsiyalar va sun’iy intellekt uyg‘unlashganda, o‘quvchilarning bilimlari chuqurlashadi va ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Biroq bu yondashuvni barcha ta’lim muassasalarida qo‘llash uchun texnik sharoitlarni yaratish, o‘qituvchilarning texnologik malakasini oshirish zarurdir. Shu bois, maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish muhim hisoblanadi[7].

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi qarori. – Toshkent, 2020.
3. Yo‘ldoshev, J. G., & Usmonov, S. R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Azizxo‘jayeva, N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2021.
5. Tursunov, B. O. Kimyo ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Xudoyberganova, M. M. Axborot texnologiyalari va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
7. Anderson, T., & Dron, J. Teaching with Technology: Pedagogical Possibilities. – Athabasca University Press, 2020.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ENHANCING LISTENING COMPREHENSION SKILLS THROUGH DIGITAL PEDAGOGY FOR PHILOLOGY STUDENTS: A MIXED-METHODS STUDY CONDUCTED ON THE LEARNING PLATFORM - COURSE: ENGLISH FOR CLS | LISTEN2ME

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.111

Nargiza Khodjakulova
Department of Teaching Theory and Methodology, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, National Research University, Tashkent 100174, Uzbekistan
Scopus ID: 59380059000,
https://orcid.org/0000-0003-2216-6661, n_xodjakulova@tiiame.uz

Abstract. Listening comprehension is a central component of oral communication, yet it often receives insufficient methodological attention in higher education language programs. This study focuses on developing and implementing a systematic set of listening comprehension exercises for philology students in higher education. The research was conducted across three universities with a total of 136 second-year students over a 10-week (40-hour) instructional period, using the listen2me.moodlecloud.com digital learning platform to deliver structured preparatory and speech-based listening tasks. In addition, a survey of 50 English language teachers was carried out to identify common instructional challenges, material selection criteria, and perceptions of listening instruction in university settings. The study employed a mixed-methods design, combining quantitative analysis of student performance with qualitative insights from classroom observations and teacher feedback. Findings indicate that a planned system of preparatory and speech exercises, when integrated into regular coursework and supported by digital delivery, contributes to measurable improvement in students’ ability to perceive, process, and understand spoken academic English. The results provide practical guidelines for designing effective listening comprehension instruction and highlight the importance of structured pedagogical support in foreign language education at the tertiary level.

Key words: Listening Comprehension, Higher Education, Philology Students, Digital Learning Platform, Mixed-Methods Research, Listening Instruction Strategies

INTRODUCTION

Oral communication rests on the coordinated alternation of speaking and listening, through which interlocutors co-construct meaning (Sacks, Schegloff, & Jefferson, 1974). While everyday experience suggests that speaking is the most frequently enacted modality of

speech activity (Brown, 2014), comprehension of another's speech is equally fundamental to human interaction and information uptake (Rost, 2011). Yet learners often fail to fully grasp spoken messages, a shortfall repeatedly linked to the historically limited, uneven attention given to teaching listening comprehension in schools and universities (Mendelsohn, 1994; Vandergrift, 1999). In this paper, listening comprehension is understood as the perception and interpretation of spoken language—live or recorded—within the broader architecture of "speech" alongside speaking, reading, and writing; together, speaking and listening constitute oral communication (Field, 2008; Rost, 2011; Brown, 2014).

The improvement in student performance and positive teacher feedback indicate that a **systematic exercise-based approach**, supported by a digital learning platform, is effective for developing listening comprehension among philology students. The results reinforce the need for structured pedagogy and sustained practice, aligning theoretical perspectives with classroom application.

CONCLUSION

This study set out to develop and implement a structured system of listening comprehension exercises for higher education philology students and to examine its effectiveness in improving their listening performance. Grounded in theoretical insights that listening comprehension is not a passive reception of sound but an active cognitive process

involving perception, recognition, memory, anticipation, and interpretation, the intervention integrated both **preparatory** and **speech-based** listening exercises. The delivery of these exercises through the **listen2me.moodlecloud.com** digital learning platform played a central role, enabling controlled exposure, self-paced repetition, and multimedia scaffolding.

The findings demonstrated **measurable improvement** in students' listening comprehension abilities over a 10-week, 40-hour instructional period. Students became more successful in recognizing lexical and grammatical patterns, following discourse structures, identifying main ideas and supporting details, and responding to academic spoken texts. At the same time, the teacher survey confirmed that instructors recognize the importance of structured listening pedagogy but often lack systematic resources or platforms to support implementation. The study therefore provides **practical pedagogical implications**: listening comprehension instruction should be explicitly planned, sequenced, scaffolded, and technologically supported, rather than assumed to develop incidentally through exposure alone.

Overall, the research confirms that **systematic listening instruction**, supported by a digital platform and aligned with linguistic and cognitive mechanisms, can significantly enhance listening comprehension outcomes in the university EFL classroom.

Limitations

While the study offers promising insights, several limitations should be acknowledged:

1. **Duration and Scope**

The intervention lasted 10 weeks. A longer instructional period may produce deeper changes in students' ability to process fast or highly dense spoken texts. Longitudinal tracking would strengthen evidence of lasting skill development.

2. **Context Bound to Philology Programs**

Participants were philology students who already receive more language input than non-linguistic majors. Results may differ in programs with lower levels of English exposure or motivation.

3. **Platform-Specific Conditions**

The study depended on the **listen2me.moodlecloud.com** platform. While the platform supported flexible, self-paced learning, not all institutions may have stable internet access or digital literacy, which could affect replicability.

4. **Self-Report and Observation Bias**

Teacher and student perceptions were gathered through surveys and observational notes, which are subject to subjective interpretation. Including classroom recordings or automated analytics could provide more objective data.

5. **No Control Group Comparison in This Design**

Although pre- and post-test comparisons show improvement, the absence (or limited inclusion) of a control group across all sites makes it difficult to fully isolate the effect of the intervention from other instructional influences.

Implications for Practice

The findings of this study have several practical implications for improving listening instruction in higher education:

1. **Listening Must Be Taught Systematically, Not Incidentally**
Listening should not be left to occur naturally through exposure. Structured preparatory and speech-based exercises need to be embedded into the curriculum at every stage of instruction.

2. **Pre-Listening Preparation Is Essential**
Removing linguistic and psychological difficulties before listening leads to clearer comprehension. Teachers should regularly activate background knowledge, introduce key vocabulary, and preview discourse structure.

3. **Digital Platforms Enhance Listening Autonomy**
The use of the *listen2me.moodlecloud.com* platform demonstrated that repeatable, self-paced listening reduces anxiety and improves processing accuracy. Institutions should adopt or develop similar platforms for ongoing practice.

4. **Integration With Speaking Strengthens Skill Development**
Since listening and speaking are interdependent, post-listening tasks that involve summarizing, retelling, and evaluating spoken content significantly enhance retention and comprehension.

5. **Teacher Professional Development Should Include Listening Pedagogy**
Survey results show that instructors recognize the need for better materials and strategies. Training workshops should focus on how to design preparatory exercises, sequence tasks, and select suitable audio materials.

Recommendations for Future Research

Building on the outcomes of this study, future research could explore the following directions:

1. **Longitudinal Studies**
Extending the intervention over a full academic year would allow researchers to examine whether improvements in listening comprehension are sustained and lead to broader language gains.

2. **Comparative Analysis With Control Groups**
Including a control group receiving traditional listening instruction would make it possible to more precisely isolate the effect of the exercise system and digital platform.


3. **Integration With Speaking, Reading, and Writing Skills**
Future research could investigate how listening-based instructional models support the simultaneous development of academic speaking, note-taking, summarizing, and critical interpretation.

4. **Platform Feature Optimization**
Studies could analyze which platform functions (e.g., speed adjustment, subtitles, automated quizzes, immediate feedback) most strongly influence comprehension outcomes.


5. **Application in Non-Philology Programs**
Replicating the study with students in business, engineering, agriculture, or teacher training programs would help evaluate the broader applicability of the exercise system.

Appendix 1. Typology of Listening comprehension exercises

Diagram 3 Typology of Listening comprehension exercises, created by Classification of Listening Comprehension Exercises (By J.Jalolov, page 235) — Eraser



Appendix 2. Website. - Home | listen2me



Appendix 3. **Intervention Framework**

Purpose:

To systematically develop listening comprehension skills in philology students through structured preparatory and communicative listening exercises delivered via *listen2me.moodlecloud.com*.

Component	Description	Expected Outcome	Literature Basis
Preparatory (Language-Based) Training	Lexical, grammatical, and phonetic recognition tasks before listening	Reduces linguistic difficulty, increases decoding accuracy	Rivers (1966); Buck (2001)
Preparatory (Psychological) Training	Memory, attention, prediction, and semantic anticipation exercises	Supports cognitive processing and meaning construction	Luria (1980); Vygotsky (1987)

Component	Description	Expected Outcome	Literature Basis
Speech-Based (Communicative) Listening Tasks	Listening to dialogues/monologues, summarizing, retelling, evaluating	Builds comprehension, discourse awareness, and interaction skills	Passov (1985); Field (2008)
Digital Platform-Based Learning	Self-paced listening, repeat playback, quizzes, feedback, analytics	Enhances autonomy, reduces anxiety, supports repeated exposure	Nation & Newton (2009); Rost (2011)

Appendix 4. **Structure of the 10-Week Intervention (40 Hours)**

Week(s)	Focus	Activities	Assessment / Output	Platform Role
Week 1	**Orientation & Baseline**	Pre-test; introduction to active listening strategies	Pre-test results	Student familiarization with listen2me.moodlecloud.com
Weeks 2–3	**Preparatory (Language-Based)**	Phonetic discrimination, stress/intonation training; lexical & grammar recognition listening tasks	Short quizzes + identification tasks	Audio files + auto-graded quizzes
Weeks 4–5	**Preparatory (Psychological)**	Prediction tasks, memory recall listening blocks, chunking practice, anticipation exercises	Memory span checklists; error pattern logs	Replay, pause, & repeat functions support memory
Weeks 6–7	**Speech-Based Listening: Dialogue**	Listen → identify meaning → reconstruct dialogue → pair retell → role-play	Oral retelling + short posting in forum	Upload/dialogue scripts + comment interaction
Weeks 8–9	**Speech-Based Listening:**	Academic talk → gist → details →	Written summary +	Video/audio lecture modules with progress tracking

Week(s)	Focus	Activities	Assessment / Output	Platform Role
	Monologue/Lecture	summarization → evaluation	spoken reflection	
Week 10	**Consolidation & Evaluation**	Post-test; reflective feedback session	Post-test scoring + student reflection	Platform generates performance analytics


Appendix 5. **Three-Stage Procedure for Each Listening Session**

Stage	Teacher Actions	Student Actions	Tools / Platform Features
Pre-Listening	Remove predicted difficulties; activate background knowledge	Predict vocabulary, topic, speaker purpose	Visual prompts, glossary, guiding questions
While-Listening	Provide focused listening tasks (gist → detail)	Listen actively; complete tasks	Audio player with replay speed control
Post-Listening	Facilitate summarization, evaluation, extension	Retell, summarize, comment, discuss	Text/audio submission, peer feedback, forum posts

Appendix **6. Example Weekly Micro-Cycle (One Lesson Session)**

Phase	Time	Activity	Task Outcome
Warm-up	5 min	Topic prediction + key vocabulary activation	Schema activation
First Listening	7 min	Listen for gist; choose main idea	General comprehension
Second Listening	10 min	Listen for details; complete chart/table	Analytical comprehension
Third Listening	10 min	Listen for inference, tone, intent	Higher-level interpretation
Post-Listening	8 min	Pair retelling + short reflection message online	Oral + written synthesis

Appendix **7-8. Representation as a Flowchart (Intervention Model)**



Reference List

1. Sacks, H., Schegloff, E. A., & Jefferson, G. (1974). A simplest systematics for the organization of turn-taking for conversation. Language, 50(4), 696–735.

2. Brown, H. D. (2014). Principles of language learning and teaching (6th ed.). Pearson.

3. Rost, M. (2011). Teaching and researching listening (2nd ed.). Pearson.

4. Mendelsohn, D. (1994). Learning to listen: A strategy-based approach for the second-language learner. Dominie Press.

5. Vandergrift, L. (1999). Facilitating second language listening comprehension: Acquiring successful strategies. ELT Journal, 53(3), 168–176. https://doi.org/10.1093/elt/53.3.168

6. Field, J. (2008). Listening in the language classroom. Cambridge University Press.

7. Кочкина, А. И. (1963). Понимание звучащей речи (аудирование). Вопросы психологии, (3), 91–101.

8. Rivers, W. M. (1966). Teaching foreign-language skills. University of Chicago Press.

9. Gilbert, J. B. (1988). Clear speech: Pronunciation and listening comprehension in North American English. Cambridge University Press.

10. Underwood, M. (1989). *Teaching listening.* Longman.

11. Buck, G. (2001). *Assessing listening.* Cambridge University Press.

12. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL listening and speaking.* Routledge.

13. Krashen, S. (1985). *The input hypothesis: Issues and implications.* Longman.

14. Anderson, A., & Lynch, T. (1988). *Listening.* Oxford University Press.

15. Vandergrift, L. (2007). Recent developments in second language listening comprehension research. *Language Teaching*, 40(3), 191–210. https://doi.org/10.1017/S0261444807004338

16. Harmer, J. (2007). *The practice of English language teaching* (4th ed.). Pearson.

17. Passov, E. I. (1977). *Osnovy metodiki obucheniya inostrannym yazykam* [Fundamentals of methods of teaching foreign languages]. Russkiy Yazyk.

18. Passov, E. I. (1989). *Osnovy kommunikativnoy metodiki obucheniya inoyazychnomu obshcheniyu* [Fundamentals of the communicative method of teaching foreign language communication]. Russkiy Yazyk.

19. Luria, A. R. (1980). *Higher cortical functions in man* (2nd ed.). Springer. (Original work published 1966)

20. Passov, E. I. (1977). *Osnovy metodiki obucheniya inostrannym yazykam* [Fundamentals of methods of teaching foreign languages]. Russkiy Yazyk.

21. Passov, E. I. (1989). *Osnovy kommunikativnoy metodiki obucheniya inoyazychnomu obshcheniyu* [Fundamentals of the communicative method of teaching foreign language communication]. Russkiy Yazyk.

22. Vygotsky, L. S. (1987). *Thinking and speech* (N. Minick, Trans.). In R. W. Rieber & A. S. Carton (Eds.), *The collected works of L. S. Vygotsky* (Vol. 1). Plenum Press. (Original work published 1934)

23. Rogova, G. V., & Vereshchagina, I. I. (1988). *Metodika obucheniya angliyskomu yazyku na nachal'nom etape v sredney shkole: Posobie dlya uchitelya* [Methodology of teaching English at the initial stage in secondary school: Teacher's manual]. Prosveshcheniye.

24. A. P. Luria. *Higher Cortical Functions and Their Disorders in Local Brain Lesions.* Moscow, 1959.

25. N. I. Gez. *Lecture Notes on the Course "Methods of Teaching Foreign Languages in Higher Education" (Section: Listening Comprehension).* Moscow: Moscow State Pedagogical Institute of Foreign Languages, 1979, p. 55.
And: *Teaching Listening Comprehension.* In *Methods of Teaching Foreign Languages in Secondary School.* Moscow: Vysshaya Shkola, 1982, p. 241.

26. Brown, H. D., & Abeywickrama, P. (2010). *Language assessment: Principles and classroom practices* (2nd ed.). Pearson.

27. Gez, N. I. (1982). *Психологические основы обучения пониманию иноязычной речи на слух*. Просвещение.

28. Luria, A. R. (1976). *Язык и сознание*. Издательство МГУ.

29. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL listening and speaking*. Routledge.

30. Passov, E. I. (1985). *Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению*. Просвещение.

31. Rogova, G. V. (1991). *Методика обучения иностранным языкам в средней школе*. Просвещение.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA GRAFIK VA EKSPERIMENTAL MASALALAR YECHISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.112

Sultonova O‘
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Termiz filiali dotsenti, pedagogika fanlar nomzodi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassalari talabalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliy masalalar yechish ko’nikmasini hosil qilish hamda amaliyotda undan foydalanish usullarini ko’rsatishdan iborat. O’rganish obyekti fizik kattaliklarning bog’lanish grafiklaridan iborat bo’lgan masalalar grafik masalalar deyiladi. Ba’zi hollarda bu grafiklar masalaning shartida beriladi, Ba’zi hollarda esa ularni jamlash kerak bo’ladi. Eksperemental va grafik masalalarning mazmuni o’rta maktabda fizika o’qitishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqishi, DTS talablariga mosligi, masalaning qo’yilishi aniq va real bo’lishi, o’quvchi esa aniq ilmiy bilimga va amaliy ko’nikmaga ega bo’lishi kerak.

Kalit so’zlar: koordinata, abstsissa, ordinata, grafik usul, to’g’ri chiziq, parabola tenglamalar,elektr zanjir, ampermetr, voltmeter, ichki qarshilik.

Annotation. The article aims to develop the ability of higher education students to solve practical problems based on a competency-based approach and show how to use it in practice. Problems in which the object of study consists of connection graphs of physical quantities are called graphical problems.In some cases, these graphs are given in terms of the problem, and in some cases they need to be summarized. The content of experimental and graphic problems should be based on the goals and objectives of teaching physics in high school, meet the requirements of the STS, the problem should be clear and realistic, and the student should have clear scientific knowledge and practical skills.

Keywords: coordinate, abscissa, ordinate, graph method, straight line, parabolic equations, electric circuit, ammeter, voltmeter, internal resistance.

Аннотация. Статья направлена на развитие у студентов высших учебных заведений способности решать практические задачи на основе компетентностного подхода и показать, как использовать его на практике. Задачи, в которых объектом исследования являются графы связи физических величин, называются графическими задачами. В некоторых случаях эти графики даются с точки зрения проблемы, а в некоторых случаях их необходимо суммировать. Содержание экспериментальных и графических задач должно основываться на целях и задачах преподавания физики в старшей школе, соответствовать требованиям ГОУ, задача должна быть ясной и

реалистичной, а учащийся должен обладать конкретными научными знаниями и практическими навыками.

Ключевые слова: координата, абсцисса, ордината, метод графиков, прямая, параболические уравнения, электрическая цепь, амперметр, вольтметр, внутреннее сопротивление.Grafik masalalar echishning bosqichlari quyidagilardan iborat:

Kirish.1) Agar kattaliklar orasidagi bog’lanishlar grafigi berilgan bo’lsa, u holda uni tushuntirish, har bir bo’limdagi bog’lanishni xarakterini o’rganish kerak; 2) Masshtabdan foydalanib, grafikdan izlanayotgan kattaliklarni (abstsissa va ordinata o’qlaridagi qiymatlarini) topishi kerak; 3) Agar bog’lanish grafigi berilmagan bo’lsa, u holda maxsus jadvallardan yoki masalaning shartidan olingan qiymatlariga ko’ra grafik tuziladi. Buning uchun koordinatalar o’qlari chiziladi, ularda maъlum masshtab tanlanadi, jadvallar tuziladi, shundan keyin koordinata o’qlari bo’lgan tekislikka tegishli ordinata va absitsissalarga mos nuqtalar qo’yiladi. Bu nuqtalarni birlashtirib, fizik kattaliklar orasidagi bog’lanish grafigi yasaladi, so’ngra yuqorida aytib o’tilgan tartibda o’rganiladi. **1.To’g’ri chiziqli tekis harakat. (υ=const, tezlik o’zgarmas)**

- **Ko’chish- S ([s]=m)**

$S = \upsilon \cdot t$; $S_x = \upsilon_x t$; $S_y = \upsilon_y t$ $S_x = S \cdot \cos\alpha$; $S_y = S \cdot \sin\alpha$

$S_x = x - x_0$; $S_y = y - y_0$ $S = \sqrt{S_x^2 + S_y^2}$; $S = \sqrt{(x - x_0)^2 + (y - y_0)^2}$


S_x -gorizontal ko’chish, S_y -vertikal ko’chish , $t-$ harakat vaqti.

- Koordinata-x ([x]=m) $x = x_0 + S_x$; $x = x_0 + \upsilon_x t$; $x = \upsilon_x t$


$y = y_0 - S_y$; $y = y_0 + \upsilon_y t$; $y = \upsilon_Y t$ • Tezlik- υ=const ([x]=m/s)

$\vec{\upsilon} = \frac{\vec{s}}{t}$; $\upsilon_x = \frac{s_x}{t} = \frac{x - x_0}{t}$;


- Tekis harakatda ko’chish grafigi. Ko’chish grafigining burchak tangensi harakat tezligiga teng $\upsilon = tg\alpha$



- Tekis harakatda Koordinata grafigi.Koordinata grafigining burchak tangensi harakat tezligiga teng $\upsilon = tg\alpha$




• Tekis harakatda tezlik grafigi.




$\upsilon(\alpha) = \frac{S}{t} < \upsilon(\beta) = \frac{S}{t}$ Burchak kattasining tezligi katta bo’ladi.


Tezlik grafigi ostidagi yuza bosib o’tilgan yo’lga teng. **<yuza>=<yo’l>**



Harakat grafiklari



To’g’ri chiziqli tekis harakat grafiklari



Misol tariqasida quyidagi masalalani ko’ramiz.

1-masala. 1 - rasmda berilgan grafikdan foydalanib jismlarning qanday harakatlanganligini aytib bering va har bir harakat uchun tezlik formulasini yozing [1].

Talabalar mustaqil ravishda grafikka qarab, harakatni tahlil qilishadi. Grafikning har bir ko’rinishini alohida tahlil qiling. Grafikdagi harakatlar talabalar tomonidan quyidagicha taxlil qilinadi:

a) Agar vaqt o’tishi bilan tezlik ortsa, holda harakat tezlanuvchan.

b) Agar vaqt o’tish bilan tezlik kamaysa sekinlanuvchan.

s) Agar tezlik doimiy qolsa tekis harakat bo’ladi.


2. O’zgaruvchan harakat uchun $a = \frac{\Delta \vartheta}{\Delta t}$ (1) tezlanish aniqlanadi.

3. Tekis o’zgaruvchan harakat uchun tezlanish formulasidan tezlik formulasi yoziladi.

$$\vartheta = \vartheta_0 + a \cdot t \quad (2)$$

bo’ladi.

4. Grafikdan doimiy kattaliklar aniqlanadi: Tezlik o’qidan ϑ_0 va hisoblash yo’li bilan $a = \frac{\Delta \vartheta}{\Delta t} = \frac{\vartheta_2 - \vartheta_1}{t_2 - t_1}$ (3) topiladi. ϑ_0 va a ning qiymati umumiy formulaga qo’yiladi.



Talabalarning javoblari asosida xulosaga kelish uchun o’qituvchi talabalarning olgan nazariy bilimlari asosida grafiklarni qanday tahlil qilgani,

ularning mustaqil fikrlashlari asosida grafiklarning tahlili ko’rib chiqiladi.

I - grafikda boshlang’ich tezligi nolga teng bo’lgan tekis tezlanuvchan harakat.

II - boshlang’ich tezligi 2 m/s ga teng bo’lgan tekis tezlanuvchan harakat.

III - boshlang’ich tezligi 7m/s bo’lgan tekis sekinlanuvchan harakat.

IV – boshlang’ich tezligi nolga teng, bo’lgan tekis tezlanuvchan harakatning xususiy holi.

V – tezligi υ = 4 m/s teng bo’lgan tekis harakat.

YUqoridagi xulosalarga ko’ra, tezlanishlar qiymatlarini tezlik formulasiga qo’yib, tenglamalar yoziladi:

I $\vartheta_0 = 0$; $a = \frac{7м/с}{5с} = 1{,}4м/с^2$; $\vartheta = 1{,}4t$

II $\vartheta_0 = 2м/с$; $a = \frac{7м/с - 2м/с}{5с} = 1м/с^2$; $\vartheta = 2 + t$


III $\vartheta_0 = 7м/с$; $a = \frac{0м/с - 7м/с}{6с} = 1{,}2м/с^2$; $\vartheta = -7 + 1{,}2t$

IV ; $a = \frac{7м/с}{5с - 2с} = 2{,}33м/с^2$ $\upsilon = 2{,}33(t_2 - 2)$

V ; $a = 0$ tekis harakat. Uni tezlanishi 0 ga teng bo’lgan tekis o’zgaruvchan harakatning xususiy holi sifatida qarash mumkin.


bo’ladi deb tahlil etiladi. Bu fikrlar orqali grafik asosida masala to’liq ishlangan hisoblanadi.

3 . 3.24-rasmda zanjirdagi eYukning vaqtga bog‘liqlik grafigi keltirilgan. O‘zgaruvchan tokning maksimal qiymatini, uning davrini, chastotasini toping. ε(t) bog‘lanish formulasini yozing.

13	Berilgan	Formula	Xisoblash
	 3.24-rasm. ε_0=? T=? ν=?	$\varepsilon = \varepsilon_m \sin(2\pi \cdot \nu \cdot t + \varphi_0)$ $\varphi_0 = \frac{\pi}{2}$; $T = 2 \cdot 0{,}8 = 1{,}6$; $\nu = \frac{1}{T} = \frac{10}{16} = \frac{5}{8}$ $\varepsilon_0 = 0{,}2$	$\varepsilon = 0{,}2\sin(2\pi \cdot \frac{1}{1{,}6} \cdot t + \frac{\pi}{2}) =$ $= 0{,}2\sin(\frac{5\pi}{4}t + \frac{\pi}{2})$


№4 3.25-rasmda zanjirdagi tok kuchining vaqtga bog‘liqlik grafigi keltirilgan. O‘zgaruvchan tokning maksimal qiymatini, uning davrini, chastotasini toping. i(t) bog‘lanish formulasini yozing.

14	Berilgan	Formula	Xisoblash

 3.25-rasm. I0=? T=? ν=? I(t)=?	$i = I_m \cos(\frac{2\pi}{T} \cdot t + \varphi_0)$ $\varphi_0 = \frac{\pi}{2};\ T = 2 \cdot (t \cdot 10^{-2}) = 2 \cdot (2 \cdot 10^{-2}) =$ $= 4 \cdot 10^{-2} s$ $\nu = \frac{1}{T} = \frac{1}{4 \cdot 10^{-2}} = \frac{100}{4} = 25Hz$ $I_m = 2A$	$I = 2\cos(2\pi \cdot 25t + \frac{\pi}{2}) =$ $= 2\cos(50\pi t + \frac{\pi}{2})$

№5 3.26-rasmda zanjirdagi kuchlanishning vaqtga bog‘liqlik grafigi keltirilgan. O‘zgaruvchan tokning maksimal qiymatini, uning davrini,


chastotasini toping. U(t) bog‘lanish formulasini yozing.

15	Berilgan	Formula	Xisoblash
	 3.26-rasm. ε0=? T=? ν=?	$U = U_m \sin(2\pi \cdot \nu \cdot t + \varphi_0)$ $\varphi_0 = 0;\ T = 8 \cdot 10^{-2} s$ $\nu = \frac{1}{T} = \frac{100}{8}$ $U_0 = 10$	$U = 10\sin(2\pi \cdot \frac{100}{8} \cdot t + 0) =$ $= 10\sin(25\pi t)$

Talabalar masalalarni mustaqil ravishda echish orqali:


- nazariy bilimlarni mustahkamlaydi;
- mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi;
- fizik kattaliklar orasidagi bog’lanishlarni o’rganadi;
- fizikaning qonunlarini ongli ravishda o’zlashtirishiga erishadi;
- masalaning shartiga qarab grafik yasash qobiliyati paydo bo’ladi;
- grafiklarga qarab fizik kattaliklarni berilganlarini yozib olishga o’rganadi.

Eksperimental masalalarni yechishda tajribalar maktab demonstratsion eksperimentining barcha shart-sharoitlariga amal qilgan holda qo’yilishi kerak. Bunda asboblar va hodisalarning yaxshi ko’rinayotganiga alohida e’tibor berish kerak. Eksperimentni bajarish jarayoniga o’qituvchining o’zi rahbarlik qilish zarurdir. Demonstratsion eksperimental masalalarga misol keltiramiz.


2-masala. Qayiq suv sathidan $h = 6\,m$ balandda joylashgan silindirik barabanga  o`zgarmas tezlik bilan o`ralayotgan arqon yordamida ko`lning qirg`og`i tomonga tortilayapti(1.3-rasm). $\vartheta_q$ qayiq tezligining $L$ arqon uzunligiga bog`lanishini toping. Xususan, qayiqning $L = 10\,m$ bo`lgan paytdagi tezligini va bu vaziyatdan $t = 1sek$ vaqt davomida siljiydigan masofasini aniqlang [2]..

Berilgan: $h = 6m;\ \vartheta = 1m/s;\ L = 10m;\ t = 1s.$

Topish kerak: $\vartheta_q = ?;\ \Delta s = ?$



2.1-rasm



2.2-rasm

Yechilishi: Juda kichik t vaqt oralig`i davomida qayiq A nuqtadan B nuqtaga $s-s_1=\vartheta_q t$ masofa qadar siljigan bo`lsin (2.1-rasm). Xuddi shu vaqtda AD vaziyatdagi arqon BD vaziyatni oladi, bunda uning uzunligi $L-L_1=\vartheta t$ kattalikka kamayadi. t vaqtning juda kichik qiymatida α burchak ham kichik bo`ladi. Shuning uchun BCD teng yonli uchburchakdagi $\beta$ burchak $90^0$ dan juda kam farq qiladi. Binobarin, ABC uchburchakni to`g`ri burchakli deb hisoblash va

$$\frac{L-L_1}{s-s_1}=\frac{\vartheta t}{\vartheta_q t}=\frac{\vartheta}{\vartheta_q}=\cos\gamma$$

deb yozish mumkin; bundan $\vartheta_q=\frac{\vartheta}{\cos\gamma}$. Qayiq qirg`oqqa yaqinlashgan sari $\gamma$ burchak kattalashadi va $\vartheta_q$ ortadi. 2.1-rasmdan ko`rinib turibdiki, $\cos\gamma=\frac{s}{L}=\frac{\sqrt{L^2-h^2}}{L}$. Shuning uchun $L=10m$ da


$$\vartheta_q=\frac{\vartheta L}{\sqrt{L^2-h^2}}=1{,}25m/s.$$

Qayiqning siljish masofasini topish uchun tekis harakatda bosib o`tilgan yo`l formulasi $s-s_1=\vartheta_q t$ ni faqat t vaqt oralig`i yetarlicha kichik bo`lib, bu vaqt davomida qayiqning tezligi sezilarli o`zgarib ulgurmagandagina qo`llash mumkin:

$$\Delta s=s-s_1=\sqrt{L^2-h^2}-\sqrt{L_1^2-h^2}=\sqrt{L^2-h^2}-\sqrt{(L-\vartheta t)^2-h^2}=1{,}25m$$

Javob: $\vartheta_q=1{,}25m/s$; $\Delta s=1{,}25m$

3-masala. Galvanik elementlar batareyasiga 24 Om qarshilik ulanganda zanjirdagi tok kuchi 1,5 A edi, 12 Om qarshilik ulanganda esa tok kuchi 2,7 A bo’ldi. Batareyaning EYuK ini va ichki qarshiligini toping. Imkoni bo’lsa, shu ishni tajribada qilib ko’ring. Buning uchun qarshiliklari ma’lum bo’lgan ikkita rezistordan va ampermetrdan foydalaning [3].




3–rasm. Masalaning shartiga ko‘ra yig‘iladigan elektr

zanjirining prinsipial sxemasi

Berilgan: R1= 24 Om, I1= 1,5 A, R2 = 12 Om, I2= 2,7 A, ε = ?, r = ?

Masalani yechish ketma-ketligini quyidagi tartibda tizimlashtirish o‘quvchining masalada kechayotgan fizik jarayonni yaqqol ko‘z oldiga keltirishi uchun yordam beradi (1 - rasm).



Masalani yechish algoritmi

Hisoblashlarga ko’ra ε = 27 V, r = 3 Om ekanligini aniqlash mumkin.

Eksperimental masalalarni yechishda tajriba va kuzatishlarni o’quvchilarni o’zlari mustaqil ravishda olib borishlari natijasida o’quvchilarda mustaqil ishlash ko’nikma va malakalari shakllanadi va rivojlanadi.


4-misol. Bir-biridan 30 sm masofada joylashgan ikkita parallel sim bo`yicha bir xil yo`nalishda o`zgarmas tok o`tadi. Sim mahkamlangan tayanchlar orasidagi masofani(simlarning uzunligi) 50 m. Simlardagi tok kuchi 150 A. Simlarning o`zaro ta`sir kuchi modulini va yo`nalishini aniqlang [5-6]..

Berilgan: $I_1=I_2=I$ = 150 A-har bir simdagi tok kuchi; a=0,3 m-simlar orasidagi masofa; l=50 m-tayanchlar orasidagi masofa;jadvaldan: $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7}$ H/m-magnit doimiysi; μ =1-havoning magnit singdiruvchanligi.

Topish kerak: F-simlarning o`zaro ta`sir kuchini (moduli va yo`nalishini).

Yechilishi. Simning aktiv qismi uzunligi sifatida tayanchlar orasidagi masofani qarab chiqamiz. $l >> a$ ni hisobga olib, simni cheksiz uzun deb hisoblash mumkin, u holda o`zaro ta`sir kuchini quyidagi formuladan topamiz:

$$F = \mu_0\mu\frac{I^2 l}{2\pi a}; \quad F = \frac{4\pi \cdot 10^{-7} H/m \cdot 1(150A)^2 50m}{2\pi \cdot 0{,}3m} = 0{,}75 \text{ N}.$$



12.1- rasm

Simlarga ta`sir etuvchi kuchning yo`nalishini aniqlash uchun 12.1-rasmdan foydalanamiz. Simlar orasida(ichki tomonda) magnit maydon zaiflashadi (induktsiya chiziqlari bir-biriga qarab yo`nalgan), tashqi tomonda ikkala simning maydon induktsiyasi chiziqlari bir xil yo`nalishga ega-bu yerda maydon kuchaygan, demak, bir xil yo`nalgan tokda simlar o`zaro tortishishi kerak.

javobi. Simlarning o`zaro tortishish kuchi 0,75 N ga teng.

Xulosa. Talabalar masalalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida yechish natijasida matematik savodxonlik o’z-o’zini tekshirish ilmiy bilimlar to’plamiga, texnik salohiyati ortib mustaqil ravishda masalalarni yecha oladi. Buning natijasida:

- nazariy bilimlarni mustahkamlaydi;
- mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi;
- fizik kattaliklar orasidagi bog’lanishlarni o’rganadi;
- fizikaning qonunlarini ongli ravishda o’zlashtirishiga erishadi;
- masalaning shartiga qarab grafik yasash qobiliyati paydo bo’ladi;
- grafiklarga qarab fizik kattaliklarni berilganlarini yozib olishga o’rganadi;
- elektr zanjirlar chizish va elektr sxemalarni ulanishlarini o’rganadi;
- nazariya bilan amaliyotning hamohang tushunish lozim ekanligini anglay boshlaydi.

Adabiyotlar:

1. В.С.Волкеньштейн. Сборник задач по общему курсу физики. Москва. Наука, 1985 г.- 384 стр.

2. Р.А.Гладкова, Н.И.Кутиловская. Физикадан савол ва масалалар тўплами. Тошкент. Ўқитувчи, 1988 й. – 320 бет.

3. М.Исмоилов. Элементар физика масалалари. Тошкент. Ўқитувчи, 1993 й. – 325 бет.

4. А.А.Чертов, А.А.Воробьев. Физикадан масалалар тўплами. Тошкент. Ўзбекистон, 1997 й. – 604 бет.

5. K.A.Tursunmetov, A.M.Xudoyberganov va boshq. Fizikadan masalalar to`plami, Toshkent. O`qituvchi, 2001 y. – 180 bet.

6. M.X.O`lmasova. Mexanika va molekulyar fizika. I, II, III-kitob, Toshkent. O`qituvchi , 2007 y. – 270, - 320, - 290 bet.

7.,N. Sultonova, “Device for Monitoring the Physico-Chemical Parameters of DrinkingWater”. International Scientific and Technical Conference on "Innovative Issues in the Fieldsf Engineering and Technological Sciences". - .: September 22, 2020. Pp. 393-395.

8. O.N. Sultonova, O.N., “Technologies and Design in Teaching Physics”. Internationalcientific and Technical Conference on "Innovative Issues in the Fields of Engineering andTechnological Sciences". - .: September 22, 2020. Pp. 410-412.

9. O.N. Sultonova, O.N., “Formation of Basic Competences for Students Solving Problems inPhysics”. Page: 107-114, Vol 7 No 11, 2019.

10. B. To‘raev, O.N. Sultonova, “A Collection of Questions and Problems in Physics: Textbook”.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH :O‘ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA INKLYUZIV TA’LIMNING QIYOSIY TAHLILI

UDK: 376(575.1+100)

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.113

Toshboltayeva Malohatoy Valijon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hamda xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanish holati, amaliy tajribalari va zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv ta’limni tashkil etish jarayonida uchraydigan muammolar, pedagogik yondashuvlar va xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo‘llari yoritiladi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni umumlashtirish hamda normativ hujjatlarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maxsus ehtiyoj, ta’lim siyosati, xalqaro tajriba, integratsiya, pedagogik innovatsiya.

Abstract. This article analyzes the current state and development trends of inclusive education in Uzbekistan and foreign countries. Based on national and international experience, mechanisms for implementing inclusive education, existing challenges, and future prospects are examined.

Keywords: inclusive education, special needs, education policy, international experience, integration, pedagogical innovation.

Аннотация.В статье анализируется современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования в Узбекистане и зарубежных странах. На основе национального и международного опыта рассматриваются механизмы внедрения инклюзивного образования, существующие проблемы и перспективные направления развития.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые потребности, образовательная политика, международный опыт, интеграция, педагогические инновации.

KIRISH. Hozirgi rivojlangan dunyoda inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda[27]. Zero, O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi, uning jismoniy holatidan qat’i nazar, teng va erkin ravishda bilim olish huquqiga ega. Shu munosabat bilan imkoniyati cheklangan bolalarni

[27] https://kun.uz/uz/news/2021/03/18/inklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja

umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb etish, ular uchun qulay va moslashtirilgan pedagogik muhit yaratish hamda zamonaviy metodik yondashuvlar asosida sifatli ta’lim berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Inklyuziv ta’lim muhitida bolaning o‘zini boshqalardan kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyatlaridagi cheklov tufayli ruhiy bosimga uchramasligi uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlarni to‘g‘ri tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, zaif ko‘ruvchi bolaning sport jarayonida tengdoshlari bilan birgalikda ishtirok etishi tabiiy hol sifatida qabul qilinishi zarur. Agar u tasodifan boshqalarga tegib ketsa yoki qiyinchilikka duch kelsa, bu holat masxara yoki kamsitish obyekti bo‘lmasligi lozim. Aks holda, salbiy munosabat bolaning ichki dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning ijtimoiylashuv jarayonini murakkablashtirishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin.

XXI asrda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — barcha bolalar uchun teng va sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratishdir. Inklyuziv ta’lim ana shu maqsadni amalga oshirishning samarali modeli sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi kunda inklyuzivlik nafaqat pedagogik yondashuv, balki davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Jahon bo'yicha inklyuziv ta’lim inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shuningdek, UNESCO tomonidan ilgari surilgan “Ta’lim hamma uchun” tamoyili hamda 1994-yildagi Salamanca Declaration inklyuziv ta’limni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu hujjatda barcha bolalar umumta’lim maktablarida o‘qish huquqiga ega ekanligi ta’kidlangan.

Mamlakatimizda ham ohirgi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ushbu jarayon milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va ta’lim muassasalarini moslashtirish orqali amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta’lim muammolari xorijiy hamda mahalliy ilmiy doiralarda keng ko‘lamda o‘rganilgan. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar orasida M.Ainscow va T.Booth inklyuziv ta’limning nazariy hamda metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy hissa qo‘shganlar. Ularning “Inklyuziyaga indeks” (Index for Inclusion) asari ko‘plab mamlakatlarda inklyuziv ta’lim amaliyotini baholash, monitoring qilish va takomillashtirishda konseptual va amaliy qo‘llanma sifatida e’tirof etiladi[28]. Shuningdek, R.Rose va M.Shevlin inklyuziv maktab modelini yaratish va uni samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalarni taklif etganlar[29]. Ularning ishlari inklyuziv muhitni tashkil etishda boshqaruv, pedagogik hamkorlik va ijtimoiy integratsiya masalalariga alohida e’tibor qaratishi bilan ahamiyatlidir.

Rossiyalik olimlar S.V.Alekhina, N.N.Malofeev, N.M.Nazarova va E.V. Samsonova tomonidan ham inklyuziv ta’limning turli nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan. Jumladan, Alekhina inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil

[28] Абдухоликова Н.А. Талаба ёшларнинг интернет қарамлигини олдини олишда таълим маърифати. Oriental renaissance: Innova educational, natural and social sciences 2022.

[29] Rose, D. H., Gravel, J. W., & Gordon, D. T. (2018). Universal design for learning. In K. Kennedy & R. E. Ferdig (Eds.), Handboo research on K-12 online and blended learning (2nd ed.) (pp. 507-530). Pittsburgh, PA: Carnegie Mellon University ETC Press

etgan bo‘lsa[30] , Malofeev maxsus ta’lim tizimidan inklyuziv ta’lim modeliga o‘tish jarayonining tarixiy rivoji va nazariy konsepsiyalarini asoslab bergan[31].

Inklyuziv ta’lim masalalari xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Jumladan, Mel Ainscow inklyuziv maktabni rivojlantirishni ta’lim sifatini oshirish bilan bevosita bog‘laydi. Uning fikricha, inklyuziv muhit yaratish butun maktab tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Lani Florian tomonidan ilgari surilgan inklyuziv pedagogika konsepsiyasida o‘qituvchining roli markaziy o‘ringa qo‘yiladi. Muallif inklyuzivlikni individual yondashuv va differensial metodlar orqali amalga oshirish mumkinligini asoslaydi.

Xalqaro tajribada inklyuziv ta’lim siyosati ko‘plab davlatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan. Masalan, Finland ta’lim tizimida har bir bola uchun individual qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. United Statesda esa maxsus ehtiyojli bolalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1975-yildayoq maxsus qonun qabul qilingan. United Kingdomda inklyuziv ta’lim maktab siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Nogironlar uyushmasi raisi Oybek Isoqov “Aslida, faqat bu emas. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. Kam ta’minlangan oilaning farzandi kambag‘al oiladan bo‘lgani uchun ta’mirlanmagan ta’lim muassasalariga borishi kerak emas”[32], degan fikirni bildiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy-tahliliy metod, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili hamda ilmiy manbalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi inklyuziv ta’lim tizimi o‘zaro solishtirilib, rivojlanish tendensiyalari aniqlashtirildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta’lim huquqiy kafolatlarning mustahkamligi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi, maxsus pedagog kadrlar tayyorlash, ta’lim infratuzilmasini moslashtirish kabi yo‘nalishlar asosida amalga oshirilar ekan.

O‘zbekistonda esa inklyuziv ta’limni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu sohaning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda, pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilmoqda.

NATIJALAR

Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston barcha sohalarda va jahon tendensiyalari asosida jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Milliy ta’lim siyosatining zamonaviy va amaliy yo‘nalishlaridan biri inklyuziv ta’limni rivojlantirishdir. Buning uchun alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarni jamiyatga qo‘shilib ta’lim olishlari uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan,

[30] Tomlinson, C. A., & Imbeau, M. B. (2010). Leading and managing a differentiated classroom. Alexandria, VA: ASCD

[31] Алехина С.В. (2016). Инклюзивное образование: от политики к практике // Психологическая наука и образование. – Том 21. – N – С. 136-145. https://doi.org/10.17759/pse.2016210112

[32] Berdieva A., R. Shomahmudova //Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari. –Toshkent: “Ishonch markaz serv 2008.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[33] bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur hujjatda mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish imkonini beruvchi qator huquqiy va tashkiliy vazifalar belgilab berilgan. Tahlillar natijasida quyidagi tendensiyalar aniqlandi:

- Inklyuziv ta’lim global miqyosda inson huquqlariga asoslangan model sifatida rivojlanmoqda.

- Rivojlangan davlatlarda inklyuzivlik ta’lim sifatini oshirish vositasi sifatida qaralmoqda.

- O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning huquqiy bazasi shakllanib bo‘lgan, ammo amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Zamonaviy texnologiyalar (raqamli platformalar, assistiv vositalar) inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirmoqda. Shuningdek, inklyuziv ta’limning ijtimoiy ahamiyati ham ortib bormoqda. Bunday muhitda ta’lim olgan o‘quvchilarda bag‘rikenglik, empatiya va ijtimoiy mas’uliyat hissi kuchayadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta’limning rivojlanish jarayoni umumiy maqsad barcha bolalar uchun teng va sifatli ta’limni ta’minlashga qaratilgan. Biroq rivojlanish sur’ati va mexanizmlari har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitiga bog‘liq.

Kelgusida O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun pedagog kadrlarni maxsus tayyorlashni kuchaytirish, moddiy-texnik bazani takomillashtirish, jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish muhim hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogik islohot, balki jamiyatning insonparvarlik darajasini belgilovchi mezondir. Shu bois, mazkur yo‘nalishdagi izchil siyosat barqaror taraqqiyotning muhim omili bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ainscow M. Developing Inclusive Education Systems. – London: Routledge. 45–52-betlar.

2. Florian L. Inclusive Pedagogy: A Transformative Approach. – Cambridge University Press. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris. 97–105-betlar.

3. Slee R. Inclusive Education and the Politics of Difference. – London. 78–86-betlar.

4. Tulenova U., Mamadalieva S. Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2021. – 156 b.

5. Xoliqov A., Karimova D. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2020. – 214 b.

[33] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’ tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARIGA CHET TILINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.114

Andijon Davlat pedagogika Instituti magistranti
Abduraimova Nozimaxon Valijonovna
nozimaaa2505@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-0473-375X
+998937515787

Annotatsiya.Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda chet tilini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning yoshga xos psixologik xususiyatlari, diqqat va e’tibor darajasi, o‘yin orqali o‘rganish tabiati hamda empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarini hisobga olgan holda samarali metodlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, individual yondashuv, interaktiv metodlar, takroriy mashg‘ulotlar va ijobiy baholashning o‘quv jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada psixolinguistik jihatlar, jumladan talaffuz, so‘z boyligi va grammatikani o‘rgatishning samarali usullari, shuningdek, ijtimoiy-emotsional va altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, chet tili, pedagogik psixologiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, altruistik kompetensiya, o‘yin metodlari, individual yondashuv.

Аннотация.В данной статье анализируются педагогические и психологические особенности преподавания иностранного языка в начальной школе. Исследование рассматривает возрастные психологические особенности учащихся, уровень внимания и концентрации, обучение через игру, а также развитие эмпатии и социальных навыков. Особое внимание уделено индивидуальному подходу, интерактивным методам, повторяющимся упражнениям и положительной оценке в образовательном процессе. Также рассматриваются психолингвистические аспекты, включая произношение, словарный запас и методы эффективного изучения грамматики, а также вопросы развития социально-эмоциональных и альтруистических компетенций.

Ключевые слова: начальное образование, иностранный язык, педагогическая психология, социально-эмоциональное развитие, альтруистическая компетенция, игровые методы, индивидуальный подход.

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of teaching a foreign language in primary education. The study examines students’ age-specific psychological traits, attention and concentration levels, learning through play, and the development of empathy and social skills. Particular emphasis is placed on individualized

approaches, interactive methods, repetitive exercises, and positive assessment in the learning process. Psycholinguistic aspects, including pronunciation, vocabulary, and effective grammar learning strategies, as well as the development of socio-emotional and altruistic competencies, are also discussed.

Keywords:primary education, foreign language, pedagogical psychology, socio-emotional development, altruistic competence, play-based methods, individualized approach.

Globalizatsiya va ijtimoiy aloqalarning kengayishi fonida chet tillarini o‘rganishning ahamiyati ortib bormoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida til o‘rganish nafaqat lingvistik qobiliyatlarni shakllantiradi, balki ijtimoiy-emotsional va altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi[1]. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 6–10 yoshda bo‘lib, ular quyidagi psixologik xususiyatlarga ega:

1. **So‘zlashuv va eshitish qobiliyati:** Yosh bolalar yangi tovushlarni tez o‘zlashtiradi va talaffuzni imitatsiya orqali o‘rganadi[2].
2. **Diqqat va konsentratsiya**: Diqqatning davomiyligi cheklanganligi sababli mashg‘ulotlar qisqa va interaktiv bo‘lishi lozim[3].
3. **O‘yin orqali o‘rganish tabiati**: Hikoya, qo‘shiq va vizual materiallar orqali yangi ma’lumotni samarali o‘zlashtiradi[4].
4. **Empatiya va ijtimoiy muloqot**: Guruh mashg‘ulotlari va rolli o‘yinlar yordamida ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi[5].

Chet tilini boshlang‘ich sinflarda o‘qitishda quyidagi pedagogik tamoyillar muhim hisoblanadi:

- **Individual yondashuv**: Har bir bolaning qobiliyati va tilga qiziqishini hisobga olish[6].
- **Interaktiv metodlar**: O‘yinlar, qo‘shiqlar, hikoyalar va vizual vositalar yordamida o‘rganishni rag‘batlantirish[7].
- **Takroriy va izchil mashg‘ulotlar**: So‘z va iboralarni muntazam takrorlash orqali o‘zlashtirish.
- **Ijobiy baholash**: Rag‘batlantirish va muvaffaqiyatni maqtash orqali o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish.

Til o‘rganish jarayonining psixolingvistik xususiyatlari :

- **Talaffuz va fonetika**: Boshlang‘ich yoshda tovushlarni tabiiy qabul qilish va talaffuzni o‘rganish oson.
- **So‘z boyligi**: Vizual va kontekstual materiallar so‘z boyligini oshiradi.
- **Grammatika**: Grammatik qoidalarni kontekst orqali o‘rgatish samaraliroq.

Ijtimoiy-emotsional va altruistik omillar

- O‘quvchilarning til o‘rganishga motivatsiyasi va guruhdagi ijtimoiy munosabatlari natijaga bevosita ta’sir qiladi.
- Guruhli mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar yordamida empatiya, hamkorlik va altruistik xatti-harakatlar rivojlanadi.

- O‘qituvchining shaxsiy modeli bolalarga ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni singdiradi.

Boshlang‘ich ta’limda chet tilini o‘qitish jarayoni psixologik yosh xususiyatlari, tilning tabiiy qabul qilinishi, pedagogik metodlar va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Shu tarzda o‘quvchilar nafaqat tilni, balki altruistik va ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chet tili o‘rganishining muvaffaqiyatli bo‘lishi, nafaqat grammatika va leksikani o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga ham bog‘liqdir. Motivatsiya esa o‘z navbatida o‘quvchilarning maqsadga erishishga bo‘lgan ishtiyoqi va qiziqishini belgilaydi. Dastlabki sinf yoshidagi bolalar uchun dars jarayonining qiziqarli va o‘ylantiruvchi bo‘lishi ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv metodlar, ayniqsa raqamli vositalar va o‘yinli yondashuvlar, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Agar sinfdagi o'yinlar haqida gapiradigan bo'lsak, unda ular o'ziga xos tanaffus bo'lib xizmat qiladi va diqqatni bir vazifadan ikkinchisiga o'tkazishga yordam beradi. Binobarin, diqqatni jamlash va, albatta, kayfiyat oshadi. O'yinlar darsning istalgan bosqichida, xoh u fonetik qoidalarni, grammatik yoki leksik mavzularni ishlab chiqish, o'qish qoidalarini ishlab chiqish, shuningdek, tinglash amaliyoti uchun ishlatiladi. Rolli o'yinlar fikrlashni faollashtirishga yordam beradi, faoliyatning ma'lum bir turiga, muayyan mashqni bajarishga qiziqish uyg'otadi, shuningdek, maktab o'quvchilarining o'rganilayotgan materialning yangiligiga bo'lgan ehtiyojini qondiradigan eng kuchli rag'batlantiruvchi omildir. Rolli o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonini kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'yin qo'rqoq, ishonchsiz talabalarga gapirish va shu bilan noaniqlik to'sig'ini yengish imkoniyatini beradi. Odatdagi munozarada talabalar yetakchilari yetakchilik qiladilar, tortinchoqlar esa sukut saqlaydilar. Rolli o'yin - bu uning ishtirokchilari tomonidan odamlarning haqiqiy amaliy faoliyatini shartli ravishda takrorlash, haqiqiy muloqot qilish uchun sharoit yaratadi. Bu erda mashg'ulotlarning samaradorligi, birinchi navbatda, motivatsiyaning portlashi, fanga qiziqishning ortishi bilan bog'liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar (masalan, raqamli o‘yinlar, guruhli va juftlik mashg‘ulotlari) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va ishtiroki yuqori bo‘ldi. Interaktiv metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot interaktiv metodlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining motivatsiyasi va chet tilini o‘rganish jarayonidagi samaradorligini oshirishdagi muhim rolini tasdiqladi. Bu metodlar o‘quvchilarning til o‘rganish qobiliyatlarini faollashtirishga, o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Kelajakda bu metodlar, ayniqsa, o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda yanada kengroq qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Кузнецова, *М.А. Педагогическая психология: учебное пособие. – Москва:* Просвещение, 2018.

2. Piaget, J. *The Psychology of the Child.* – New York: Basic Books, 2000.

3. Vygotsky, *L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. Bruner, *J. The Process of Education.* – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.

5. Bandura, A. *Social Learning Theory.* – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.

6. Richards, J.C., Rodgers, T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

7. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching.* – Pearson, 2015.

8. Nafisa A. Stress va uning ruhiy salomatlikka ta’siri. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 18(2), 107-112.- 2025.

9. Sohobova, O. Ta’lim jarayonida tarbiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 731-732. -2024y.

10.Tolibjonovna O. V. (2025). Yoshlik davri psixologiyasi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 18(1), 388-391.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALARNING MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.115

Termiz davlat muhandislikva agrotexnologiyalar universiteti assistenti ***F.K.Payanova***
feruzapayanova@gmail.com

Annotatsiya. Bugun Oliy ta’lim tizimida katta islohotlar va yangiliklar amalga oshirilmoqda. Shunga ko‘ra tabalabalarga har bir fanning mazmunini chuqur singdirish va har bir fan doirasida malakali kadr tayyorlash masalalari ayni ustuvor mavzulardan biridir. Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida fizika fanining o‘qitilishi va har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, fizikani o‘qitishda induksiya, deduksiya metodlaridan foydalanish hamda ta’limda innovatsion axborot texnologiyasini joriy etish haqida batafsil bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, integratsiya, ijodiy faoliyat, metod, pedagogik muhit, raqamli ta’minot, rivojlantirish.

Аннотация: Сегодня в системе высшего образования проводятся масштабные реформы и инновации. В связи с этим приоритетными темами стали вопросы углубленного понимания студентами содержания каждого предмета и подготовки квалифицированных кадров по каждому предмету. В статье подробно описывается преподавание и комплексное развитие физики в высших учебных заведениях, а также использование индукционно-дедуктивных методов в преподавании физики и внедрение инновационных информационных технологий в образование.

Ключевые слова: Компетентность, интеграция, творческая деятельность, метод, педагогическая среда, цифровая поддержка, развитие**.**

Abstract. Today, the higher education system is undergoing large-scale reforms and innovations. In this regard, enhancing students' understanding of each subject and training qualified personnel in each subject have become priorities. This article describes in detail the teaching and comprehensive development of physics in higher education institutions, as well as the use of inductive-deductive methods in physics teaching and the introduction of innovative information technologies in education.

Keywords: Competence, integration, creative activity, method, pedagogical environment, digital support, development.

Maqolaning mazmuni. Bugungi kunda O‘zbekistonda jahon ta’lim maydoniga kirish uchun yo‘naltirilgan yangi ta’lim tizimining pedagogik o‘quv – tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ta’limdagi yondashuvlar tarkibi

o‘zgarmoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o‘rnatilmoqda. Ta’lim tizimi yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyati ijodiy yechimining ta’lim dasturining individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Oliy ta’limdagi dolzarb muammo – borgan sari tezlashib borayotgan taraqqiyot sharoitida talabalarni qanday o‘qitish kerakligi muammosidir. Demak, oliy ta’limdagi o‘qitish nazariyasining qonuniyatlari o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va rejalashtirish, rivojlantirish ta’limda tub burilish qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Talabalarni mustaqil izlanuvchi, yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirish ba ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ularning pixologik holati, qiziqishlari inobatga olinishi zarur.Inson shaxsining shakllanishi uning psixik rivojlanishi jarayoni bilan bog‘liq. Xususan bolaning rivojlanishi Л.С. Выготский fikricha, bolaning rivojlanishi ko‘proq ta’lim bilan ifodalanib, uning butun hayotini shakllantirish tizimida markaziy o‘rin tutadi. U “Mind in society” asarida “To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim rivojlanishni oldihga siljitadi. Ta’lim jarayoni bolaning aqliy rivojlanishini faollashtiradi” deb yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasini ilgari surgan.

К.Д.Ушинский aytganidek, “Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalamoqchi bo‘lsa, avvalo uni har tomonlama bilishi kerak”. Bu fikr bilan u pedagogikaning asosida inson tabiati, psixologiyasi, va fiziologiyasini chuqur bilish zarurligini ta’kidlaydi. Shu sababli ta’limda didaktlar – shaxsiyatga yo‘naltirilgan bilim maskanini tashkil qilishni asoslaydi.


Ilmiy-metodik izlanishlar natijasida dars va to‘garak mashg‘ulotlarida, ta’lim jarayonining har bir yo‘nalishi va davrida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish dolzarb muammo ekanligi aniqlandi. Talabalarni ijodiy fikrlovchi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishga intiluvchi, har tomonlama yetuk mutaxassis qilib yetishtirishda ta’limni sifatli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Dars mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik muhitda tashkil etish bilim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik muhit quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Jamoaviy ish uchun mos jihozlangan auditoriya;
- Interaktiv doskalar;
- Raqamli resurslardan foydalanish;
- Talabaning mustaqil ishlashi uchun sharoit;

Bundan tashqari talabalar uchun ijodiy muhit ham ahamiyatli rol o‘ynaydi. Ijodiy muhitni shakllantirishda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi mentor, motivator, maslahatchi va innovator bo‘lishi kerak.

Ta’lim sifatini darsni tashkil etish usuli va darsdan erishgan natija belgilaydi. Ta’limni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish orqali talabalar nafaqat dars jarayonida faol bo‘lib qoladi, balki mustaqil tafakkurga ega, ijodiy izlanishlar olib boradigan va yangilik yaratishga qodir mutaxassis sifatida shakllanadi.

Talabalar mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy yondashuvlar



Kompetensiyaviy va dasturiy ta’limotga asoslangan ta’lim talabalarni o‘zlashtirgan tushinchalarini axborotlarni o‘quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart ,muammoli vaziyatlarda qo‘llay olishga tayyorlash bilan harakterlanadi. *Kompetensiyaviy yondashuv* asosida ta’lim olgan talabalarda mustaqil fikrlash, muayyan vaziyatlarda o‘z pozitsiyasini ko‘rsata olish, liderlik qobiliyati shakllanib, tashabbus ko‘rsatadigan va umummadaniy ko‘nikmalari shakllangan kasbiy kompetentli kadrlar yetishib chiqadi.

N.A.Muslimovning ta’riflashicha, “… kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi”. Shu bois, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini boyitib borishni, yangi axborotlarni mustaqil o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlar izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi .

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim tizimida nafaqat o‘qitishni, balki shaxsni rivojlantirishni ham muhim deb hisoblaydi. Ushbu yondashuv talabaning bilimi, ko‘nikma va malakalarini, shuningdek, individual qobiliyatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida muammoli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda bilim berishning bosh maqsadi – har bir talabaning shaxsiy qobiliyatini aniqlash orqali ularning bilimini rivojlantirishdan kelajakda o‘z kasbini ustasi bo‘lib yetishishga undaydi. Shaxsga yo‘maltirilib o‘qitishda o‘qituvchi dialogni uyushtiruvchi koordinat vazifasini bajarib, talabalarning maksimal faoliyat ko‘rsatishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratadi. O‘qituvchi talabalarga buyruq bermasdan, ularga hamkor sifatida muomala qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning maqsadlari; har bir talabaning shaxsiy qiziqishini hisobga olish, talabalar tomonidan mustaqil topshiriqlarni bajarish shakllarini taklif qilish orqali o‘qituvchi har bir talaba bilan alohida shug‘ullanadi, ularning yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zlariga to‘g‘rilatadi va o‘zini o‘zi baholash kompetensiyasi shakllanadi .

Texnologik yondashuv – yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko‘rgazmali sxemada o‘z ifodasini topadi. Ta’limda bu an’anaviy metodikadan, avvalo maqsadlarning qo‘yilishi va erishishi bilan farqlanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul va metodlar to‘plami tushunilib, qo‘yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul va metodlar majmuasi tushuniladi. L.Vigotskiyning ijtimoiy konstruktivistik nazariyasi bugungi texnologik yondashuvlarning asosidir. Uning

fikricha “Texnologik yondashuv vositalari va belgilaridan foydalanish – bu inson bilim olishining asosiy mexanizmi”. Texnologik yondashuv asosida talabalar mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish rejalashtiriladi.

Differensial yondashuv - zamonaviy ta’lim tizimining muhim qismi bo‘lib, har bir talabaga individual rivojlanish imkoniyatini taqdim etadi. Differensial yondashuvlar o‘qitish jarayonida o‘qituvchidan talabalar ehtiyojini aniqlash, ularni turli usullar yordamida qo‘llab-quvvatlash, ularga mos material va topshiriqlarni tanlashni talab qiladi. Ushbu yondashuvning afzalligi- ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, bu esa talabalarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi va ular orasida ma’suliyat hissini kuchaytiradi.

Tizimli yondashuv – pedagogik izlanishlarning metodologik asoslaridan biri sifatida yaxlit pedagogik jarayonni tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvni pedagogikada qo‘llash ilmiy bilimlarning variativ komponentlarini aniqlash imkonini beradi va u pedagogik tizim sifatida quyidagicha tavsiflanadi: yaxlitlilik, aloqadorlik, tuzilishi va tashkillashuvi, tizim darajasi, boshqaruv, tizim maqsadi va maqsadga muvofiqligi, tizimning o‘z-o‘zini tashkil qilishi, uning mavjudligi va rivojlanishi. Tizimli yondashuv ta’limda faoliyatli yondashuv deb ham yuritiladi.

Akmeologik yondashuv – obyektlarni tizim sifatida o‘rganishga asoslangan yondashuv. Akmeologiya (yunoncha acme- yetuklik, cho‘qqi, logos – ta’limot) shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho‘qqiga erishishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi fan.

Sitnikovning fikriga ko‘ra, akmeologiyaning boshqa fanlardan eng muhim farqi bu uning tadqiqot predmeti sifatida kasbiy mahorat va unga ta’sir qiluvchi omillarni maqsadli tanlash, shu asosda kasbiy mahoratini oshirish tizimlarini takomillashtirishdir. Ta’lim akmeologiyasining o‘rganish obyektlari: kasbiy mahorat va uning pedagogik faoliyatda namoyon bo‘lishidir. Ta’limda akmeologik yondashuvni qo‘llash aniq usullarni tanlashni talab qiladi. Bu yondashuv asosida talabalarning ta’lim jarayonida axborot bilan ishlash tayanch kompetensiyalari shakllanadi.

Integrativ yondashuv – yakuniy maqsadlarga erishish uchun pedagogik vositalar yordamida obyektlar va munosabatlar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish jarayonidir. Ta’limda bu yondashuv asosida fanlararo bilimlardan foydalanish orqali inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishga, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga, kompleks muammolarni hal qilishga erishiladi.

Muhandislik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni barcha umumkasbiy va mutaxassislik fanlari fanlararo integratsiya asosida o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talabalar turli muhandislik muammolarni hal qilish va innovatsion loyihalar yaratish uchun fizik qonunlarni, matematik hisobni, moddalarning kimyoviy xossalarini, atrof muhitning biologik ta’sirini mukammal bilishi kerak. Buning uchun fanlararo seminarlar tashkil etish orqali talabalar bilimlarini bir tizimga keltirib, turli fanlar asosida yangi g‘oyalar yaratishga erishish mumkin.



Talabalar mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning didaktik muammolaridan biri resurslar yetishmasligidir. Bu muammoni hal qilishning oson usuli fizika fanini o‘qitishni raqamli muhit asosida tashkil etish hisoblanadi. Fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarida video darslar, virtual laboratoriyalar laboratoriya jihozlarining yetishmasligi muammosini hal qiladi. Fanga oid turli kontentlar orqali raqamli platformalar yaratish va yaratilgan didaktik vositalardan dars va mustaqil o‘rganish jarayonini tashkil etish talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Ta’lim jarayonida o‘qitish maqsadiga erishish uchun ta’limni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini raqamli texnologiyalar, elektron dasturlar orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Talabalar mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantira olsa quyidagi natijalar qo‘lga kiritiladi: bo‘lajak mutaxassislar kelgusi hayoti davomida shaxsiy iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishib jamiyatda o‘z o‘rnini egallash; jarayonlarda duch keladigan muammolarning yechimlarini hal etish; o‘z sohasi kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lish va innovatsion g‘oyalar yaratish yo‘lidan borish; ya’ni talaba tayanch kompetensiyalarga ega bo‘ladi, shuning bilan birgalikda ularda kommunikativ axborot bilan ishlay olish; shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish, fan – texnika yangiliklaridan habardor bo‘lish kompetensiyalari tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика-Пресс, 1999. – 536 с.

2. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. – СПб.. 1873. – 3-е изд. – Т. I. – С. I–XXXVI.

3. Muslimov N.A., Pedagogik kompetentlik kreativlik asoslari//.- Toshkent. 2015. – b.120.

4. Ситников А.П. Акмеологический тренинг. Теория, методика, психотехнологии. М.: «Технологическая школа бизнеса», 1996. 16-17-с.

5. Payanova F.K**.** Psychological Aspects Of The Development Of Independent Creative Activity Of Students Based On The Competence Aproach.// Science And Innovation International Scientific Journal .Volume 2, Issue 7 July 2023.Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. - B.232-234

6. Payanova.F.K. Kompetensiyaviy Yondashuv Asosida Talabalarning Mustaqil Ijodiy Faoliyatini Rivojlantirishda masalalarning Ahamiyati.// Tdpu Ilmiy Axborotlari. 2023.№10. B.4-11 (13.00.00.№32)

7. Sultanova. O‘.N. “The Place of Competent Approach in Interdisciplinary Relations is a Guarantee of High Efficiency”. In IJICCE, Impact Factor -.:7.488 Volume 9, Issue 5, May 2021.

http://ijircce.com/admin/main/storage/app/pdf/Sx97XFNk9dc709DHPqRISxu4gNd3dfKKSZYTV5ug.pdf

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORT O‘YINLARINI O‘QITISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.116

Pulat Karimovich Shokirov
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Jismoniy tarbiya kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik yondashuv asosida sport o‘yinlarini o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, sport o‘yinlarini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qitish metodlari va didaktik tamoyillardan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Sport o‘yinlarini o‘qitish orqali talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning harakat faoliyatini rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan pedagogik usullar yoritiladi. Maqolada sport o‘yinlarini o‘qitish jarayonida ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar hamda mashg‘ulotlarni tashkil etishning pedagogik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik yondashuv, sport o‘yinlari, jismoniy tarbiya, o‘qitish metodlari, pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuv, sog‘lom turmush tarzi.*

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of teaching sports games based on a pedagogical approach. It examines the effective use of modern pedagogical technologies, teaching methods, and didactic principles in the process of teaching sports games. The study highlights pedagogical methods aimed at improving students’ physical fitness, developing their motor activity, and promoting a healthy lifestyle through sports games. The article also provides a scientific analysis of methodological approaches that contribute to increasing the effectiveness of the educational process and the pedagogical foundations of organizing training sessions in teaching sports games.

Keywords: *pedagogical approach, sports games, physical education, teaching methods, pedagogical technologies, methodological approach, healthy lifestyle.*

Аннотация.В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты обучения спортивным играм на основе педагогического подхода. Рассматриваются вопросы эффективного использования современных педагогических технологий, методов обучения и дидактических принципов в процессе преподавания спортивных игр. Освещаются педагогические методы, направленные на повышение физической подготовленности студентов, развитие их двигательной активности и формирование здорового образа жизни посредством спортивных игр. В статье также научно анализируются методические подходы, способствующие повышению

эффективности образовательного процесса, а также педагогические основы организации учебных занятий при обучении спортивным играм.

Ключевые слова: *педагогический подход, спортивные игры, физическое воспитание, методы обучения, педагогические технологии, методический подход, здоровый образ жизни.*

Kirish qismi: Zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sport o‘yinlarini o‘qitish jarayonida pedagogik yondashuvdan foydalanish talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sport o‘yinlari nafaqat jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi, balki shaxsning ijtimoiy, psixologik va kommunikativ sifatlarini ham rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya jarayonida sport o‘yinlarini o‘qitish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, unda o‘qitish metodlari, mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari va pedagogik texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan sport mashg‘ulotlari talabalarning harakat faolligini oshirish, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli sport o‘yinlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur masala Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Jismoniy tarbiya kafedrasi faoliyati misolida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu oliy ta’lim muassasasida talabalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, sport o‘yinlari orqali ularning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Sport mashg‘ulotlari jarayonida pedagogik metodlardan samarali foydalanish talabalarning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy faolligini ham oshirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan mazkur maqolaning asosiy maqsadi pedagogik yondashuv asosida sport o‘yinlarini o‘qitish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda Toshkent davlat texnika universiteti “Jismoniy tarbiya” kafedrasi faoliyati misolida ushbu jarayonning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tahlillar qismi: Sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida o‘qitish jarayoni jismoniy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuv talabalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning ijtimoiy faolligi, jamoada ishlash ko‘nikmalari hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sport o‘yinlarini o‘qitishda pedagogik metodlardan samarali foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Pedagogika va jismoniy tarbiya sohasidagi tadqiqotlarda sport o‘yinlari shaxsning jismoniy hamda psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Masalan, pedagog olim Vasily Sukhomlinsky jismoniy tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishida muhim omil ekanligini ta’kidlab, sport mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda

intizom, mas’uliyat va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanishini qayd etadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Matveyev Leonid sport mashg‘ulotlarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan birga shaxsning irodaviy sifatlarini ham mustahkamlashini ta’kidlaydi.

Pedagogik yondashuv asosida sport o‘yinlarini o‘qitish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Jumladan, tushuntirish va ko‘rsatish metodi, amaliy mashg‘ulot metodi, o‘yin metodi hamda musobaqa metodi sport mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘yin metodi talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning harakat faolligini kuchaytirish hamda jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Toshkent davlat texnika universiteti Jismoniy tarbiya kafedrasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida tashkil etish talabalarning jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarga nazariy bilimlar berish, sport o‘yinlari texnikasini bosqichma-bosqich o‘rgatish hamda amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar natijasida sport o‘yinlarini o‘qitishda pedagogik yondashuvdan foydalanish nafaqat talabalarning jismoniy rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Sport o‘yinlari jarayonida talabalar jamoaviylik, mas’uliyat, o‘zaro yordam va raqobatbardoshlik kabi muhim ijtimoiy sifatlarni egallaydi. Shu sababli sport o‘yinlarini o‘qitishda pedagogik yondashuvdan foydalanish jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Natijalar qismi: Olib borilgan tadqiqot va pedagogik tahlillar natijasida sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida o‘qitish talabalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda hamda ularning sport faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida sport o‘yinlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi hamda mashg‘ulotlarning mazmunan boy va samarali tashkil etilishiga xizmat qilishi kuzatildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan sport mashg‘ulotlari talabalarning jismoniy sifatlari, jumladan chaqqonlik, chidamlilik, tezkorlik va koordinatsiya kabi ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sport o‘yinlari jarayonida talabalarning jamoada ishlash ko‘nikmalari, o‘zaro hamkorlik va mas’uliyat hissi shakllanadi. Toshkent davlat texnika universiteti “Jismoniy tarbiya” kafedrasida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar tajribasi ham sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida tashkil etish talabalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirishini ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlarda o‘yin va musobaqa metodlaridan foydalanish talabalarni faol ishtirok etishga undab, ularning mashg‘ulotlarga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida o‘qitish nafaqat jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiradi, balki talabalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda pedagogik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Xulosa qismi: Mazkur tadqiqotda pedagogik yondashuv asosida sport o‘yinlarini o‘qitish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari sport o‘yinlarini o‘qitishda pedagogik metodlardan samarali foydalanish talabalarning jismoniy rivojlanishi hamda sport faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida tashkil etish talabalarning jismoniy sifatlarini, jumladan tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va koordinatsiya kabi ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sport o‘yinlari jarayonida talabalarda jamoaviy hamkorlik, mas’uliyat, intizom hamda raqobatbardoshlik kabi muhim ijtimoiy sifatlar shakllanadi. Toshkent davlat texnika universiteti “Jismoniy tarbiya” kafedrasi faoliyati misolida olib borilgan tahlillar sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida o‘qitish mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlarda zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda ularning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga ham yordam beradi.

Umuman olganda, sport o‘yinlarini pedagogik yondashuv asosida o‘qitish jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish, talabalarning jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash hamda sport faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi sohasida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Леонид Матвеев. Теория и методика физической культуры. – Москва: Физкультура и спорт, 1991. – 543 с.

2. Шавкат Саломов. Теория и методика физического воспитания. – Ташкент: Ўқитувчи, 2010. – 320 с.

3. Шокиров Пулат Каримович. Organization of Qualification in Vocational Education of Physical Education and Sport Science. 2024/2. Журнал. Innovation and INTEGRITY. Ст 64-67.

4. Pulat SHOKIROV. (2024). STUDY OF THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE AMONG TDTU STUDENTS. News of UzMU Journal, 1(1.2.1), 242-246. https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/1210

5. Shovkiddin, N. ., Elleonora, Y. ., Nargiza, X. ., Surayyo, A. ., & Pulat, S. . (2021). PROVISION OF LABOR PROTECTION AND ANALYSIS OF INJURIES OF ACTIVE PARTICIPANTS. The Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27(2), 1902–1909. https://cibgp.com/au/index.php/1323-6903/article/view/1095

6. Shokirov Pulat Karimovich. FEATURES OF THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS WITH STUDENTS OF SPECIAL MEDICAL GROUPS DURING THE PANDEMIC COVID-19. (2021). JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 231-236. https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3196

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL MULOQOT MODELLARINI QO‘LLASH ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.117

Nomozova O‘g‘iloy Akmaljon qizi,
The University of Business and Science
Toshkent filiali stajyor o‘qituvchisi
Email: ogiloy.nomozova@mail.ru
Tel.: +99891 257 63 37

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida interfaol muloqot modellarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi, uni shakllantirish bosqichlari hamda interfaol muloqot modellarining didaktik imkoniyatlari, ilmiy tahlil qilingan. Mavzu yuzasidan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar:kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, ta’lim, dialogik yondashuv, refleksiya, pedagogik texnologiya.

Аннотация.В данной статье освещены теоретико-методологические основы развития коммуникативной компетенции учащихся посредством применения моделей интерактивного общения в образовательном процессе. Научно проанализированы структурная структура коммуникативной компетенции, этапы ее формирования, а также дидактические возможности моделей интерактивного общения. Представлены выводы и предложения, имеющие научное и практическое значение по теме.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, интерактивные методы, образование, диалогический подход, рефлексия, педагогическая технология.

Abstract. This article highlights the theoretical and methodological foundations of developing students' communicative competence through the application of interactive communication models in the educational process. The structural composition of communicative competence, the stages of its formation, and the didactic possibilities of interactive communication models are scientifically analyzed. Conclusions and proposals of scientific and practical significance on the topic are given.

Keywords: communicative competence, interactive methods, education, dialogic approach, reflection, pedagogical technology.

KIRISH. XXI asr ta’lim tizimi kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda ta’lim oluvchini ijtimoiy faoliyatga

tayyorligini ta’minlashni ham talab etadi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiya shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Zero, o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsadi umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari uchun zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o‘quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat[34]. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, olingan bilimlarni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning nutq madaniyati, fikr almashish ko‘nikmalari va ijtimoiy muloqot madaniyatini shakllantirish hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Amaliyotda ko‘plab darslarda hali ham reproduktiv yondashuv, ya’ni yodlab eslab qolish usuli ustun bo‘lib qolmoqda, natijada o‘quvchining faol ishtiroki yetarli darajada ta’minlanmay qolmoqda.

Mazkur muammoga yechim topishda yoxud noan’anaviy usulga o‘tishda interfaol muloqot modellarini o‘quv jarayoniga joriy etish ijobiy natija beradi. Shu sababli ushbu maqolada interfaol metodlar asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan asoslanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning muloqot jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyati bo‘lib, u lingvistik, ijtimoiy va psixologik omillar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. “Kommunikativ kompetensiyaning funksional maqsadi u yoki bu obyektiv faoliyatni tashkil qilish va ta’minlashda ko‘rinadi. Kommunikativ kompetensiya tarkibiga kirgan aloqa faoliyatni tashkil etish usuli sifatida ishlaydi. Shu tufayli o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini darsning ma’lum bir yo‘nalishiga yo‘naltiradi, ularning e’tiborini qiziqarli hodisa va jarayonlarga qaratadi, aniq qoidalar, voqealar, sanalar, faktlarni eslab qolishni taklif qiladi”[35].

Shuningdek, kommunikativ kompetensiya tushunchasiga qator xorij olimlari ham turlicha ta’riflarni beradi. Jumladan, E.I.Litnevskaya ushbu tushunchaga nisbatan quyidagi ta’rifini ilgari suradi: “nutq faoliyatining barcha turlarini: og‘zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma’lum bir yoshda muloqotning hayotiy sohalari hamda vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish”dir[36].

M.R.Lvovning fikricha, “Kommunikativ kompetensiya – til (ona tili va ona tili bo‘lmagan), uning fonetik xususiyatlari, leksik va grammatik birliklari, stilistikasi, nutq madaniyati, ushbu til vositalariga ega bo‘lish va nutq faoliyati turlarini – nutqni bilishni bildiruvchi tushunchadir. Kommunikativ kompetensiyaga tabiiy nutq faoliyati natijasida va maxsus tayyorgarlik natijasida erishiladi”[37].

---

[34] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-son qarori.

[35] Ishkobilova J. Basic concepts and content of communicative competence // Жамият ва инновациялар. 2021. – B. 92. https://inscience.uz/index.php/socinov/index

[36] Risnazarova A.R. Kompetensiya va kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning bazi masalalari // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 4, Issue 12, December 2024 ISSN 2181-2888. – P. 63. file:///C:/Users/user/Downloads/kompetensiya-va-kommunikativ-kompetentsiyasini-rivojlantirishning-bazi-masalalari.pdf

[37] Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической

Shuningdek, ushbu tushuncha xususida turli pedagogik ensiklopediya va lug‘atlarda ham ta’riflar keltirilgan bo‘lib, xususan, E.G.Azimova hamda A.N.Shukina tomonidan tuzilgan lug‘atda quyidagi ta’riflarni ko‘rish mumkin: “kommunikativ kompetensiya:

– o‘quvchilar uchun kundalik, ta’lim, ishlab chiqarish va madaniy hayotda dolzarb bo‘lgan muloqot vazifalarini chet tili yordamida hal qilish qobiliyati;

– o‘quvchining muloqot maqsadlariga erishish uchun til va nutq faktlaridan foydalanish qobiliyati;

– nutq aloqasining turli sharoitlarida lingvistik kompetensiyani amalga oshirish qobiliyati”[38].

Ilmiy tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya quyidagi komponentlardan iborat:

Kognitiv komponent – muloqotga oid bilimlar (til birliklari, nutq qoidalari).

Emotsional komponent – empatiya, hissiy sezgirlik.

Xulq-atvor komponenti – nutq madaniyati, muloqot strategiyalari.

Refleksiv komponent – o‘z nutqini tahlil qilish va baholash.

A.S.Belkin kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida muloqotni ham alohida ta’kidlab o‘tadi va uning eng asosiy jihatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

– vasiylik (maktabgacha yoshdagi davr);

– murabbiylik (boshlang‘ich maktab davri);

– sheriklik (boshlang‘ich maktab, o‘smirlik yoshi);

– kooperatsiya (yosh va kattaroq o‘spirinlik);

– muvaffaqiyat[39].

Mazkur jihatlarni nafaqat barcha pedagoglar bilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, muloqot aslida murakkab jarayon hisoblanadi, biroq u to‘g‘ri amalga oshirilsa, ya’ni samarali muloqot ko‘nikmalariga amal qilgan holda olib borilsa, odatda muloqot ijobiy kichadi. Buning uchun muloqot ishtirokchilari (so‘zlovchi va tinglovchi yoki xabar yuboruvchi va xabarni qabul qiluvchi) muloqot texnikalari, nutq odobi, nutq madaniyatini bilishi talab etiladi. Ta’lim jarayonida esa ikki tomonlama, ya’ni interfaol muloqot modelidan foydalanishda avvalo o‘qituvchi yuqoridagi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq. Ta’lim jarayonida o‘quvchi mavzunining mohiyatini anglashi va yangi bilimlarni o‘zlashtirishida ko‘plab metodlar qatorida interfaol muloqot modellari ham yetakchi rol o‘ynaydi.

Interfaol muloqot modeli – bu kommunikatsiya jarayonda ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasida ikki tomonlama, faol hamda o‘zaro ta’sirga asoslangan muloqot tizimidir. Mazkur model doirasida kommunikatsiya jarayoni biryoqlama axborot uzatish bilan cheklanmaydi, balki ishtirokchilarning axborotni yaratish, qayta ishlash, baholash va rivojlantirishdagi faol

---

степени магистра. – Челябинск, 2019. 147 с.

[38] Азимомова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.

[39] Касимов Ш.У., Жалилов Э.Э., Пулатов Г.Э. Содержание профессиональной подготовки будущих педагогов/ Материалы конференции Роль психологопедагогических исследований в инновационном развитии общества. 2019. – С. 68-70.

ishtiroki orqali amalga oshiriladi. Natijada har bir subyekt muloqotning passiv qabul qiluvchisi emas, balki uning mazmuni va yo‘nalishini belgilovchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Interfaol muloqot modellarining pedagogik mohiyati – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan, ikki tomonlama faol muloqotni tashkil etish orqali bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik yondashuvni anglatadi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, ta’lim jarayonida interfaol muloqot modellarining pedagogik mohiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

– mazkur model ta’lim jarayonini subyekt-subyekt munosabatlari asosida quradi, ya’ni o‘quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda o‘zlashtiruvchi, qayta ishlovchi va ishlab chiquvchi mustaqil subyekt sifatida qaraladi;


– ushbu jarayonda bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchining faol fikrlashi, tajribasi va ijtimoiy muloqoti jarayonida shakllanadi;

– ushbu model ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi, o‘quvchi o‘z fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash, munozara olib borish va asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydi;

– interfaol muloqot modellarining pedagogik mohiyati refleksiv faoliyatni faollashtirish bilan bog‘liq, ya’ni o‘quvchilar o‘z bilim va faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi;


– bu model ta’lim samaradorligini oshiruvchi omil sifatida hamkorlikda o‘rganish va muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonlarini kuchaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’limda interfaol muloqot modellarining eng asosiy xususiyatlari quyidagi rasmda aks ettirilgan (1-rasm):



1-rasm. Ta’lim jarayonida interfaol muloqot modellarining asosiy xususiyatlari

NATIJALAR. Ta’lim jarayonida interfaol muloqot modellariga asoslangan darslarni tahlil qilish, kuzatish, shuningdek, amalda qo‘llash natijasida ushbu modelning quyidagi turlari aniqlandi (2-ram).



:

2-rasm. Interfaol muloqot modelllari

Rasmda ko‘rsatilgan modellarni quyidagicha tahlil qilamiz:

Dialogik model (savol-javob, bahs) o‘quv jarayonida muloqotning savol-javob, munozara va bahs-munozara shakllari orqali tashkil etilishiga asoslanadi. Unda bilimlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi dialog jarayonida shakllanadi va rivojlantiriladi. Dialogik model o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, nutq madaniyatini va o‘z fikrini dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kooperativ model (guruhda ishlash) esa o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlik asosida faoliyat olib borishini nazarda tutadi. Bunday jamoada har bir ishtirokchi umumiy maqsadga erishish uchun o‘z hissasini qo‘shadi. Kooperativ muloqot modelining afzalligi shundaki, u ijtimoiylashuvni kuchaytiradi, o‘zaro yordam, mas’uliyat va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi.

Rolga asoslangan model (sahnalashtirish)da o‘quvchilar muayyan ijtimoiy yoki kasbiy rollarni ijro etish orqali muloqotga kirishadi. Sahnalashtirish jarayoni real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Natijada ishtirokchilarda empatiya, ijtimoiy moslashuv va muomala madaniyati rivojlanadi.

Muammoli model (keys-stadi) muayyan muammoli vaziyat asosida tashkil etilib, o‘quvchilarning tahliliy va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Unda ishtirokchilar muammoni muhokama qiladi, turli yechim variantlarini ishlab chiqadi va eng maqbul qarorni asoslaydi. Mazkur model mustaqil fikrlash va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA. Yuqorida keltirilgan interfaol muloqot modellarining shakllari aaosida tadqiqot o‘tkazilganda sezilarli jihatlar namoyon bo‘ldi. Jumladan, tadqiqot davomida ta’lim jarayonida interfaol muloqot modellari qo‘llanganda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Baholash natijalariga ko‘ra, dialogik va kooperativ muloqot modellari o‘quvchilar o‘rtasida samarali fikr almashish, fikrlarni dalillash va tahlil qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda guruh ichida hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, rolga asoslangan va

muammoli (case-study) modellari o‘quvchilarning mavzuga nisbatan tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol muloqot modellarini uzluksiz va tizimli qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarning lingvistik va kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA. Interfaol muloqot modellarini ta’lim jarayoniga joriy etish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasidir. Tadqiqotdan kelib chiqadiki, interfaol muloqot modellari nafaqat ta’lim jarayonini faol va qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot madaniyatini rivojlantirish, o‘z fikrini aniq ifodalash, tinglash va bahs-munozarada qatnashish ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, turli muloqot modellari o‘ziga xos pedagogik vazifalarni bajaradi: dialogik model – fikr almashishni; kooperativ model – guruhda hamkorlikni; rolga asoslangan model – empatiya va ijtimoiy rollarni anglashni; muammoli model esa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shuning uchun interfaol muloqot modellarini tizimli ravishda o‘quv jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

ta’lim jarayonida interfaol muloqot modellari tizimli va maqsadga muvofiq tarzda qo‘llanishi lozim, buning uchun dars rejalari va o‘quv dasturlarida alohida bloklar ajratilishi tavsiya etiladi;

pedagoglar uchun interfaol muloqot modellari bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim, bu esa ularning darslarda turli muloqot modellarini samarali qo‘llashini ta’minlaydi;

o‘quvchilar o‘rtasida guruhli ishlarni ko‘paytirish orqali kommunikativ ko‘nikmalar yanada mustahkamlanadi;

interfaol metodlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish va o‘quv jarayonida muntazam kuzatish orqali samaradorlik oshadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ishkobilova, J. (2021) Basic concepts and content of communicative competence. *Жамият ва инновациялар. 92.* https://inscience.uz/index.php/socinov/index

2. Interactive model of communication https://fiveable.me/introduction-to-communication-studies/key-terms/interactive-model-of-communication

3. Risnazarova A.R. (2024). Kompetensiya va kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning bazi masalalari. *Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Vol. 4, 63-64.* file:///C:/Users/user/Downloads/kompetensiya-va-kommunikativ-kompetentsiyasini-rivojlantirishning-bazi-masalalari.pdf

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-son qarori https://lex.uz/uz/docs/-3153714

5. Азимомова Е.Г., Щукин А.Н. (2009). *Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам).* М.: Издательство ИКАР. 448 с.

6. Гильманова С.А. (2019). *Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов.* Дисс. на соискание академической степени магистра. Челябинск. 147 с.

7. Касимов Ш.У., Жалилов Э.Э., Пулатов Г.Э. (2019). Содержание профессиональной подготовки будущих педагогов. *Материалы конференции Роль психологопедагогических исследований в инновационном развитии общества. 68–70.*

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 811.512.133

XUSUSIY BIRIKUVCHILI BIRIKMALAR: O‘ZBEK TILIDA IBORA, SO‘Z BIRIKMASI VA QO‘SHMA SO‘Z O‘RTASIDAGI STRUKTUR–SEMANTIK ORALIQ BIRLIKLAR

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.118

Hamdamov Haydar Azamatovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, f.f.f.d.,
Filologiya kafedrasi dotsent v.b., hamdamovhaydar@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida xususiy birikuvchili birikmalarning lingvistik maqomi ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlar bilan qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda xususiy birikuvchili birikmalar struktur jihatdan ochiq, biroq leksik tanlov darajasida cheklangan, semantik jihatdan esa shaffof, ammo qisman barqaror birliklar sifatida talqin qilinadi. Struktur–semantik tahlil va differensial mezonlar asosida ushbu birliklarning gradatsion va prototipik xarakterga egaligi aniqlanadi. Olingan natijalar xususiy birikuvchili birikmalarni na ibora, na erkin so‘z birikmasi, na qo‘shma so‘z doirasida to‘liq izohlash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqot yakunida xususiy birikuvchili birikmalar til tizimida struktur–semantik, diskursiv va kognitiv omillar ta’sirida shakllanadigan, oraliq, biroq mustaqil birliklar sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: xususiy birikuvchili birikma, ibora, so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z, struktur–semantik tahlil, gradatsionlik, prototipiklik.

Аннотация.В статье рассматривается лингвистический статус сочетаний с ограниченной сочетаемостью в узбекском языке на основе их сопоставительного анализа с фразеологическими единицами, свободными словосочетаниями и сложными словами. В ходе исследования такие сочетания интерпретируются как структурно открытые, но лексически ограниченные, семантически прозрачные, однако частично устойчивые единицы. На основе структурно-семантического анализа и дифференциальных критериев выявляется градационный и прототипический характер сочетаний с ограниченной сочетаемостью. Полученные результаты показывают, что данные единицы не могут быть полностью отнесены ни к фразеологическим единицам, ни к свободным словосочетаниям, ни к сложным словам. В заключение обосновывается их трактовка как промежуточных, но самостоятельных единиц языковой системы, формирующихся под воздействием структурно-семантических, дискурсивных и когнитивных факторов.

Ключевые слова: сочетания с ограниченной сочетаемостью, фразеологическая единица, словосочетание, сложное слово, структурно-семантический анализ, градационность, прототипичность.

Abstract. The article examines the linguistic status of restricted collocational units in Uzbek through a comparative analysis with phraseological units, free word combinations, and compound words. The study interprets restricted collocational units as structurally open but lexically constrained, semantically transparent yet partially stable formations. Based on structural-semantic analysis and a set of differential criteria, the research reveals the gradational and prototypical nature of these units. The findings demonstrate that restricted collocational units cannot be fully classified as phraseological units, free word combinations, or compound words. The article concludes by arguing that such units should be regarded as intermediate yet independent elements of the language system, shaped by the interaction of structural-semantic, discursive, and cognitive factors.

Keywords: restricted collocational unit, phraseological unit, word combination, compound word, structural-semantic analysis, gradation, prototypicality.

KIRISH. O‘zbek tilida so‘zlarning birikuvchanlik xususiyatlari masalasi til tizimining ichki mexanizmlarini anglashda muhim nazariy ahamiyatga ega. Ayniqsa, xususiy birikuvchili birikmalar masalasi ibora, erkin so‘z birikmasi va qo‘shma so‘z kabi birliklar bilan kesishib kelgani sababli terminologik va tasnifiy jihatdan hanuzgacha bahsli bo‘lib qolmoqda. Amaliy va nazariy tadqiqotlarda ushbu birliklar ko‘pincha turli nomlar ostida talqin qilinadi yoki yaqin kategoriyalar doirasida izohlanadi, bu esa ularning lingvistik maqomini aniq belgilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Xususiy birikuvchanlik tushunchasining nazariy ildizlari kontekst va qo‘shnichilik munosabatlariga tayangan yondashuvlar bilan bog‘liq Bunday birliklar matn ichida semantik bog‘liqlikni ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi [8: 284–286]. Firs leksik birliklar ma’nosining ularning tipik qo‘llanish muhiti orqali shakllanishini ta’kidlab, so‘zlar o‘rtasidagi barqaror kombinatsiyalar tasodifiy emasligini ko‘rsatadi [7: 168-170]. Ushbu qarash xususiy birikuvchili birikmalarni alohida mustaqil birlik emas, balki til tizimidagi kombinator cheklovlarning mahsuli sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

O‘zbek tilshunosligida esa xususiy birikuvchanlik masalasi ko‘pincha so‘z birikmasi va frazeologiya doirasida ko‘rib chiqilgan. An’anaviy yondashuvlarda ibora barqarorlik va ko‘chma ma’no bilan, so‘z birikmasi esa grammatik ochiqlik bilan tavsiflanadi. Biroq xususiy birikuvchili birikmalar ushbu ikki kategoriya xususiyatlarini qisman mujassamlashtirib, ularning aniq chegarasini belgilashni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, qo‘shma so‘zlar bilan qiyoslanganda, xususiy birikuvchili birikmalar struktur jihatdan mustaqil komponentlardan tashkil topgani, lekin semantik va leksik tanlov darajasida cheklanganligi bilan farqlanadi.

Bu holat xususiy birikuvchili birikmalarni ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlar o‘rtasida joylashgan struktur–semantik oraliq birliklar sifatida talqin qilish imkonini beradi. MakKevn va Radev tomonidan ilgari surilgan gradatsion yondashuvga ko‘ra, bunday birliklar qat’iy tasnifdan ko‘ra darajaviy farqlanish asosida tushuntirilishi lozim [10: 3-6]. Ushbu

yondashuv xususiy birikuvchili birikmalarning til tizimidagi maqomini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada aynan shu nazariy qarashlar fonida xususiy birikuvchili birikmalarning o‘zbek tilidagi lingvistik maqomi aniqlash maqsad qilib qo‘yilgan. Tadqiqotning asosiy vazifasi xususiy birikuvchili birikmalarni ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlardan farqlovchi struktur va semantik mezonlarni belgilash, ularning oraliq va gradatsion xususiyatlarini asoslash hamda ushbu birliklarning til tizimidagi o‘rnini aniqlashtirishdan iborat. Mazkur yondashuv xususiy birikuvchili birikmalarni o‘zbek tilida mustaqil va tizimli hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI. O‘zbek tilshunosligida so‘zlarning birikuvchanlik xususiyatlari dastlab grammatik va sintaktik nuqtai nazardan izohlangan. Xususan, A. G‘ulomov so‘z birikmalarini grammatik bog‘lanish asosida tahlil qilib, ularni erkinlik darajasi bilan tavsiflaydi. Unga ko‘ra, so‘z birikmalarida komponentlarning o‘zaro aloqasi grammatik me’yorlar bilan belgilanadi va leksik tanlov nisbatan ochiq bo‘ladi [1: 112-115]. Ushbu qarash xususiy birikuvchili birikmalarni oddiy so‘z birikmalari qatoriga to‘liq kiritish mumkin emasligini ko‘rsatadi, chunki ularda grammatik ochiqlik saqlangan bo‘lsa-da, leksik tanlov qat’iy cheklanadi.

N. Mahmudov til birliklarining semantik tabiati haqida so‘z yuritar ekan, leksik birliklar o‘rtasidagi bog‘lanishlar faqat grammatik emas, balki semantik moslik asosida shakllanishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayrim birikmalar tarkibiy qismlarning ma’nosi orqali tushunarli bo‘lsa-da, ularning kombinatsiyasi til tizimi tomonidan normallashtirilgan bo‘ladi [2: 64-70]. Bu holat xususiy birikuvchili birikmalarning semantik jihatdan shaffof, biroq tizimiy cheklovlarga ega ekanini izohlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Frazeologik birliklar masalasida Sh. Rahmatullayev iboralarning asosiy belgisi sifatida semantik yaxlitlik va komponentlarning nisbiy yopiq holatini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, iboralarda ma’no tarkibiy qismlarga bo‘linmaydi yoki faqat tarixiy-etimologik tahlil orqali izohlanadi [3: 97-99]. Xususiy birikuvchili birikmalar esa ushbu belgidan farq qilib, ma’nosi tarkibiy qismlar orqali anglashiladi, biroq kombinator imkoniyatlari erkin emas.

A. Nurmonov o‘zbek tilshunosligi tarixiga oid tadqiqotlarida so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z va frazeologik birliklar o‘rtasidagi chegaralarning har doim ham qat’iy emasligini qayd etadi. U ayrim birliklar o‘tish zonalarida joylashib, an’anaviy tasniflarga to‘liq mos kelmasligini ta’kidlaydi [4: 190-191]. Ushbu fikr xususiy birikuvchili birikmalarni oraliq kategoriya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

So‘nggi tadqiqotlarda xususiy birikuvchanlik masalasi alohida obyekt sifatida ko‘rib chiqila boshladi. J. Ibragimov xususiy birikuvchili leksemalarni tizimli hodisa sifatida izohlab, ularning birikuvchanligi individual leksik xususiyatlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, bunday birliklarda grammatik model saqlangan holda, aynan leksik darajada cheklov yuzaga keladi [5: 18-22]. Bu qarash xususiy birikuvchili birikmalarni na ibora, na oddiy so‘z birikmasi sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi.

A. Madaminov tadqiqotlarida xususiy birikuvchili birikmalarning nutqiy voqelanishi masalasiga e’tibor qaratilib, ularning real nutqda barqaror qo‘llanishga ega ekanligi qayd

etiladi. Uning fikricha, bunday birikmalar nutqda tayyor holatda qayta ishlab chiqariladi, biroq frazeologik birliklar kabi yopiq tizimni tashkil etmaydi [6: 4-8]. Ushbu yondashuv xususiy birikuvchili birikmalarning diskursiv mustahkamlanish xususiyatini asoslaydi. Shu asosda adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunosligida xususiy birikuvchili birikmalar masalasi turli kategoriyalar doirasida izohlangan bo‘lsa-da, ularni ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zdan farqlovchi yagona integrativ model hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Differensial mezonlar jadvali

Mezoni	**Xususiy birikuvchili birikma**	**Ibora frazeologik birlik)**	**So‘z birikmasi**	**Qo‘shma so‘z**
Struktur holati	Ochiq, lekin cheklangan	Yopiq	Ochiq	Yopiq
Semantik shaffoflik	Mavjud	Asosan yo‘q	To‘liq mavjud	Qisman
Leksik tanlov	Qat’iy cheklangan	Qat’iy	Nisbatan erkin	Yopiq
Ma’no tarkibi	Komponentlar orqali anglashiladi	Yaxlit	Komponentlar yig‘indisi	Yangi leksik birlik
Nutqdagi holati	Tayyor, barqaror	Tayyor	Jarayonda tuziladi	Leksiklashgan
Tizimdagi maqomi	Oraliq, gradatsion	Frazeologik qatlam	Sintaktik birlik	Leksik birlik

Xususiy birikuvchili birikmalar ibora va so‘z birikmasi o‘rtasida emas, balki **ibora - so‘z birikmasi - qo‘shma so‘z** bilan chegaradosh, oraliq, lekin mustaqil struktur-semantik birlikdir.

Natijalar. O‘tkazilgan struktur–semantik tahlil xususiy birikuvchili birikmalarning o‘zbek tilida ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlardan farqlanuvchi mustaqil xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Jadval asosida olib borilgan taqqoshlash natijalari ushbu birliklarning til tizimida oraliq, biroq mustaqil maqomga ega ekanini aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, xususiy birikuvchili birikmalar struktur jihatdan ochiq, biroq leksik tanlov darajasida cheklangan birliklar sifatida namoyon bo‘ldi Bu holat til birliklarining real qo‘llanishi ko‘pincha oldindan shakllangan kombinatsiyalar bilan cheklanishini ko‘rsatadi [9: 109-115]. So‘z birikmalarida grammatik model va leksik tanlov nisbatan erkin bo‘lsa, xususiy birikuvchili birikmalarda aynan leksik komponentlarning almashinuv imkoniyati keskin cheklanadi. Bu holat ularni erkin so‘z birikmalaridan ajratadi, biroq struktur yopiq bo‘lgan iboralar qatoriga ham to‘liq kiritishga imkon bermaydi.

Ikkinchidan, tahlil xususiy birikuvchili birikmalarning semantik jihatdan shaffof**,** ammo qisman barqaror ekanini ko‘rsatdi. Iboralardan farqli ravishda, ushbu birliklarda umumiy ma’no tarkibiy qismlar orqali anglashiladi, biroq bu shaffoflik kombinator erkinlikni

anglatmaydi. Mazkur xususiyat xususiy birikuvchili birikmalarni semantik motivatsiyalangan, ammo tizimiy cheklovlarga ega birliklar sifatida tavsiflash imkonini berdi.

Uchinchidan, natijalar xususiy birikuvchili birikmalar gradatsion spektrda joylashishini ko‘rsatdi. Ayrim hollarda ular erkin so‘z birikmalariga yaqinlashsa, boshqa holatlarda iboralarga yaqinlashadi. Biroq bu yaqinlik ularning boshqa kategoriyalarga singib ketishini emas, balki prototipik markaz atrofida variativ realizatsiyalar mavjudligini ko‘rsatadi Korpusga tayangan tadqiqotlar bunday birliklarni faqat chastota emas, balki funksional moslashuvchanlik asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi [13: 350-355].

Erkin so‘z birikmasi ← xususiy birikuvchili birikma → ibora

To‘rtinchidan, qo‘shma so‘zlar bilan qiyoslash xususiy birikuvchili birikmalarning leksiklashuv darajasi past ekanini ko‘rsatdi. Qo‘shma so‘zlarda komponentlar yagona leksik birlikka aylansa, xususiy birikuvchili birikmalarda komponentlar grammatik va semantik mustaqilligini saqlab qoladi. Bu holat ularni leksik birlik emas, balki struktur-semantik hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Natijalar asosida xususiy birikuvchili birikmalar quyidagi belgilar bilan tavsiflandi:

1. struktur jihatdan ochiq, biroq leksik tanlovi cheklangan;
2. semantik jihatdan shaffof, ammo qisman barqaror;
3. gradatsion va prototipik xarakterga ega;
4. ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlar bilan chegaradosh, biroq ulardan mustaqil birlik.

MUHOKAMA. Olingan natijalar o‘zbek tilshunosligida mavjud bo‘lgan an’anaviy tasniflarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvlarda xususiy birikuvchili birikmalar ko‘pincha so‘z birikmasi yoki ibora doirasida izohlangan. Biroq natijalar ushbu birliklarning nafaqat grammatik, balki leksik-semantik cheklovlar asosida shakllanishini ko‘rsatib, ularni alohida kategoriya sifatida ko‘rish zaruratini asoslaydi.

G‘ulomov tomonidan so‘z birikmalariga xos grammatik ochiqlik haqidagi qarashlar bilan qiyoslanganda, xususiy birikuvchili birikmalarda aynan leksik darajadagi cheklov ustuvor ekani aniqlanadi. Bu holat ularni oddiy so‘z birikmasi sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mahmudov ta’kidlagan semantik moslik va normallashuv jarayonlari esa xususiy birikuvchili birikmalarning semantik shaffof, biroq tizimiy cheklovlarga ega ekanini izohlashga imkon beradi.

Frazeologik yondashuv doirasida Rahmatullayev tomonidan ilgari surilgan semantik yaxlitlik mezoni bilan solishtirilganda, xususiy birikuvchili birikmalarning iboralardan asosiy farqi ularning ma’nosi tarkibiy qismlar orqali anglashilishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Kovi ta’kidlagan semantik motivatsiya mezoni ushbu birliklarning ibora bilan chegaradosh qatlamda joylashishini tushuntirishga xizmat qiladi [11: 215-218].

Ibragimov va Madaminov tadqiqotlarida qayd etilganidek, xususiy birikuvchanlik individual leksik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bunday birikmalar nutqda tayyor holda qayta ishlab chiqariladi. Natijalar ushbu fikrlarni qo‘llab-quvvatlab, xususiy birikuvchili birikmalar diskursda mustahkamlanib, til tizimida barqaror o‘rin egallashini ko‘rsatadi Bunday birliklarning foydalanish jarayonida barqarorlashuvi diskursiv omillar bilan

izohlanadi [12: 37-41]. Shu bilan birga, ular qo‘shma so‘zlar kabi to‘liq leksiklashgan birliklar darajasiga yetmaydi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki, xususiy birikuvchili birikmalarni ibora, so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘zlardan biriga kiritish emas, balki oraliq, lekin mustaqil struktur–semantik birlik sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosliroqdir. Ushbu yondashuv o‘zbek tilshunosligida birikuvchanlik masalasini yanada aniqlashtirishga va terminologik aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA.O‘tkazilgan struktur-semantik tahlil natijalari xususiy birikuvchili birikmalarni nafaqat mavjud kategoriyalar doirasida izohlash, balki ularni til tizimida oraliq, ammo mustaqil birliklar sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari xususiy birikuvchili birikmalar struktur jihatdan ochiq bo‘lsa-da, leksik tanlov darajasida qat’iy cheklovlarga ega ekanini aniqladi. Ushbu xususiyat ularni erkin so‘z birikmalaridan ajratadi, biroq struktur jihatdan yopiq va semantik jihatdan yaxlit bo‘lgan iboralar qatoriga ham to‘liq kiritishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, mazkur birliklarning semantik jihatdan shaffof, ammo qisman barqarorligi ularning frazeologik birliklar bilan chegaradosh qatlamda joylashganini ko‘rsatadi.

Tahlil xususiy birikuvchili birikmalarning gradatsion va prototipik xarakterga ega ekanini ham tasdiqladi. Ular erkin so‘z birikmalari va iboralar o‘rtasida uzluksiz spektrda joylashib, prototipik markaz atrofida turli variativ realizatsiyalarni namoyon etadi. Qo‘shma so‘zlar bilan qiyoslash esa xususiy birikuvchili birikmalarning to‘liq leksiklashmaganini, komponentlarining grammatik va semantik mustaqilligini saqlab qolishini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, xususiy birikuvchili birikmalarni ibora, so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘zlardan biriga kiritish ilmiy jihatdan yetarli emas. Ularni struktur–semantik, diskursiv va kognitiv omillar ta’sirida shakllanadigan, til tizimida alohida maqomga ega birliklar sifatida talqin qilish o‘zbek tilshunosligida birikuvchanlik masalasini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari xususiy birikuvchili birikmalar nazariyasini rivojlantirish bilan birga, ularni leksikografiya, tarjima va tilni o‘qitish amaliyotida samarali qo‘llash uchun nazariy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent: Fan, 1966. - 112-115-betlar.
2. Mahmudov N. Til birliklarining semantik tabiati. - Toshkent: Fan, 2013. - 64-70-betlar.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida frazeologik birliklar. - Toshkent: Fan, 2002. - 97-99-betlar.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2002. - 190-191-betlar.
5. Ibragimov J. Y. O‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari: filol. fan. dokt. (DSc) diss. - Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2023. - 18-22; 41-46-betlar.

6. Madaminov A. Xususiy birikuvchi so‘z birikmalari va ularning nutqiy voqelanishi // Til va adabiyot. - 2025. - № 12. - 4-8-betlar.

7. Firth J. R. A synopsis of linguistic theory 1930–1955 // Palmer F. R. (ed.). Selected papers of J. R. Firth. - London: Longman, 1968. - 168-205-betlar.

8. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. - London: Longman, 1976. – pp. 284-286.

9. Sinclair J**.** Corpus, concordance, collocation. - Oxford: Oxford University Press, 1991. – pp. 109-115.

10. McKeown K., Radev D. Collocations // Mitkov R. (ed.). The Oxford handbook of computational linguistics. - Oxford: Oxford University Press, 1998. – pp. 3-6.

11. Cowie A. P. Phraseology: Theory, analysis, and applications. - Oxford: Oxford University Press, 1998. – pp. 215-218.

12. Poulsen S. Collocations as discourse phenomena. - Bern: Peter Lang, 2005. – pp. 37-41.

13. Brezina V., Meyerhoff M. Corpus-based approaches to lexical patterning and variability // International Journal of Corpus Linguistics. - 2024. - Vol. 29, № 3. – pp. 350-355.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MEHNAT TERAPIYASIDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.119

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna
Qo‘qon davlat universiteti,
Texnologik ta’lim va kutubxonashunoslik kafedrasi dotsenti, (PhD).
e-mail: usmonovamuxlisaxon@gmail.com,
Tel: +998911493993
Mamadaliyeva Xayriniso Raxmatjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti,
Texnologik ta’lim yo’nalishi I-bosqich talabasi
e-mail: mamadaliyevahayrinisoO@gmail.com,
Tel: +998913232491

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat terapiyasidan foydalanish orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida mehnat faoliyatining terapevtik imkoniyatlari, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy qiziqishlarini shakllantirish hamda ularni mustaqil hayotga tayyorlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mehnat terapiyasini texnologiya ta’limi bilan integratsiya qilish, innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish va o‘quvchilarning ijodiy hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mehnat terapiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali pedagogik vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: mehnat terapiyasi, kasb-hunar ta’limi, texnologiya ta’limi, zamonaviy tendensiyalar, kasbiy kompetensiya, amaliy ko‘nikmalar, innovatsion pedagogika, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, integrativ yondashuv.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchilarni erta yoshdan kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda mehnat madaniyatini shakllantirish va mustaqil hayotga tayyorlash zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida mehnat terapiyasi elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning psixologik, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan samarali pedagogik vosita sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tizimining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning intellektual, ma’naviy va jismoniy salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda jamiyat va davlat ehtiyojlariga mos malakali kadrlar tayyorlashdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Mazkur qonunda ta’lim jarayonining amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirish, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlarida yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish va ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan [2].

Shu bilan birga, ta’lim tizimida texnologiya fanini rivojlantirish, o‘quvchilarni turli kasb-hunar faoliyatiga tayyorlash, amaliy mashg‘ulotlar orqali ularning ijodiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Bunday jarayonda mehnat terapiyasidan foydalanish o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga qiziqishini oshirish, psixologik barqarorligini mustahkamlash hamda kasbiy o‘zini anglashiga ko‘maklashadi [2].

Shu sababli mehnat terapiyasi asosida o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning zamonaviy tendensiyalarini o‘rganish, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda o‘quvchilarning amaliy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

O‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash hamda ularda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari pedagogika fanida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagog olimlar A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va K.D. Ushinskiylarning ilmiy qarashlarida mehnat tarbiyasi shaxs kamolotining muhim omili sifatida talqin qilinib, mehnat faoliyati o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqillik va ijodkorlik kabi sifatlarni rivojlantirishi ta’kidlangan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa texnologiya ta’limi orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. O‘zbekistonlik olimlar R. Ishmuhamedov, N. Muslimov va Sh. Sharipovlarning tadqiqotlarida amaliy faoliyatga asoslangan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish hamda kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [4], [6].

Shuningdek, zamonaviy ilmiy manbalarda mehnat terapiyasi o‘quvchilarning psixologik holatini barqarorlashtirish, ularning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish va kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda. Shu jihatdan mehnat terapiyasidan ta’lim jarayonida foydalanish o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash jarayonida mehnat terapiyasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya hamda texnologiya ta’limi sohasiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish orqali muammoning nazariy asoslari o‘rganildi.

Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat hamda tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, o‘quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish jarayonida mehnat terapiyasi elementlaridan foydalanishning samaradorligini aniqlash maqsadida ta’lim jarayonidagi tajribalar va kuzatuv natijalari o‘rganildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, amaliy ko‘nikmalari hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishda mehnat terapiyasining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi [6].

Tahlillar va natijalar

Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirish, balki ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga zamin yaratishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida mehnat terapiyasidan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy, psixologik hamda kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik yondashuv sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat terapiyasi mazmunan shaxsni maqsadga yo‘naltirilgan mehnat faoliyatiga jalb etish orqali uning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik hamda psixologik jarayon sifatida talqin etiladi [8].

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, mehnat terapiyasi o‘quvchilarni faol mehnat jarayoniga jalb etish orqali ularning qobiliyatlarini aniqlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy qiziqishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning faol ishtirokiga asoslanib, ularda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuvni namoyon etish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitiladigan texnologiya fani mazmuni va metodikasi mehnat terapiyasi elementlarini qo‘llash uchun keng pedagogik imkoniyat yaratadi [4], [5].

Mehnat terapiyasi – bu shaxsning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida maqsadga yo‘naltirilgan mehnat faoliyatidan foydalanishga asoslangan pedagogik va psixologik yondashuvdir. U nafaqat sog‘liqni tiklash yoki psixologik barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi, balki shaxsning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy qiziqishlarini aniqlash va ijtimoiy faoliyatga moslashuvini ta’minlash imkonini beradi. Pedagogik nuqtai nazardan, mehnat terapiyasi o‘quvchilarni turli amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy ishlar va ishlab chiqarishga yaqin faoliyatlarga jalb etish orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish hamda kasbiy qiziqishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Texnologiya ta’limining asosiy xususiyati uning amaliy yo‘naltirilganligidadir. Ushbu fan doirasida o‘quvchilar turli materiallarga ishlov berish, buyumlar tayyorlash, loyihalash, konstruktorlik faoliyatini amalga oshirish hamda dizayn va bezak ishlari bilan shug‘ullanadilar. Bunday amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar mehnat jarayonining turli bosqichlari bilan tanishadilar, mehnat faoliyatining mazmunini anglaydilar hamda o‘z mehnati natijasini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu jihatdan texnologiya darslari mehnat terapiyasining pedagogik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim ta’lim muhitini yaratadi [6].

Tadqiqot jarayonida texnologiya ta’limi darslarida mehnat terapiyasi elementlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar o‘z bilimlarini real faoliyat jarayonida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa o‘quv materialining chuqurroq o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mehnat faoliyati jarayonida o‘quvchilar ijodiy yondashuvni namoyon etish, yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Mehnat terapiyasidan foydalanish o‘quvchilar uchun bir qator muhim pedagogik va psixologik natijalarni beradi. Avvalo, o‘quvchilarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi hamda mehnatning shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyati anglanadi. Amaliy faoliyat jarayonida o‘quvchilar o‘z mehnatlari natijasini ko‘rish orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydilar, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va faoliyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi [9].

Bundan tashqari, mehnat terapiyasi o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar turli kasb-hunar faoliyatlari bilan tanishadilar, o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada ular kelajak kasbini tanlashda ongli qaror qabul qilishga tayyor bo‘ladilar. Bu jarayon o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni mehnat bozoriga moslashuviga yordam beradi.

Mehnat terapiyasining yana bir muhim jihati – uning o‘quvchilarning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishidir. Mehnat faoliyati jarayonida o‘quvchilar sabr-toqat, mas’uliyat, intizom, aniqlik va mehnatsevarlik kabi muhim shaxsiy sifatlarni rivojlantiradilar.

Ayniqsa jamoaviy mehnat jarayonida ular o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish, muammolarni birgalikda hal etish hamda jamoa bilan ishlash madaniyatini o‘zlashtiradilar. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayonini osonlashtiradi va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Texnologiya ta’limida mehnat terapiyasidan foydalanish jarayonida milliy hunarmandchilik elementlarini darslarga integratsiya qilish ham muhim pedagogik natijalarni ta’minlaydi. Milliy hunarmandchilik faoliyati o‘quvchilarning estetik didini rivojlantiradi, ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi hamda ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi. Masalan, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, tikuvchilik, kulolchilik kabi

faoliyat turlari o‘quvchilarda nafaqat texnologik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki ularning sabr-toqat, aniqlik va mehnatsevarlik kabi shaxsiy sifatlarini ham mustahkamlaydi [6].

O‘tkazilgan tahlillar natijasida texnologiya ta’limi jarayonida mehnat terapiyasi elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning ijodiy faolligini oshirish hamda mehnat madaniyatini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning amaliy bilimlarini mustahkamlash, shaxsiy rivojlanishini ta’minlash hamda ularni kelajak kasbini ongli ravishda tanlashga tayyorlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, texnologiya ta’limi jarayonida mehnat terapiyasiga asoslangan pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning amaliy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga muhim pedagogik zamin yaratadi. Shu sababli mehnat terapiyasiga asoslangan ta’lim texnologiyalarini ta’lim tizimiga keng joriy etish o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, mehnat terapiyasidan foydalanish o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash jarayonida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat amaliy mehnat ko‘nikmalarini shakllantiradi, balki ularning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda kasbiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mehnat terapiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning psixologik holatini barqarorlashtiradi, ularda mehnatga ijobiy munosabat va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida mehnat terapiyasini texnologiya ta’limi, milliy hunarmandchilik elementlari hamda fanlararo integratsiya asosida qo‘llash o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quvchilarning kelajakda ongli ravishda kasb tanlashiga, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga hamda mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.

Demak, mehnat terapiyasini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan, ularni amaliy faoliyatga tayyorlaydigan muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasida Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2013.

5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

6. Muslimov N.A. Kasb ta’limi metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

7. Qodirov B. Mehnat ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

8. Abduqodirov A.A. Ta’lim jarayonini axborotlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2014.

9. Xoliqov A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.120

Qo‘chqorov Sarvar Sattarovich
XDP mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta’limni rivojlantirishning nazariy asoslari o‘rganiladi. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, jumladan nogironligi bo‘lgan va ijtimoiy cheklangan guruh vakillari uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan tizimdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi – inklyuziv ta’limning samarali mexanizmlarini aniqlash va uning amaliy jihatlarini tahlil qilishdir.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, nogironligi bo‘lgan bolalar, teng ta’lim imkoniyatlari, pedagogik strategiyalar, maktab, ijtimoiy integratsiya.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim kontseptsiyasi muhim o‘rin egallamoqda. BMTning “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi konventsiyasi va UNESCO tavsiyalariga ko‘ra, barcha bolalarga, shu jumladan nogironligi yoki ijtimoiy cheklovlari bo‘lganlarga, teng ta’lim imkoniyatlarini taqdim etish zarur. Inklyuziv ta’lim bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamiyatga moslashuvini oshirish va individual imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni joriy etish pedagogik yondashuv, maktab muhitini moslashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va individual o‘quv rejalarni ishlab chiqish orqali samarali amalga oshiriladi. Tadqiqotning obyekti – maktab ta’lim tizimi, predmet – inklyuziv ta’limni rivojlantirishning nazariy asoslari va pedagogik yondashuvlaridir. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, inklyuziv yondashuvlar nafaqat pedagogik jihatdan, balki psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ham ahamiyatlidir. Masalan, nogiron bolalarga moslashtirilgan darslar ularning o‘zini hurmat qilishini oshiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’limning joriy etilishi bilan bog‘liq qiyinchiliklar ham mavjud. Bular orasida o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi yetishmasligi, maktab muhitining moslashtirilmaganligi, maxsus pedagogik resurslarning cheklanganligi va o‘quv dasturini individuallashtirish zarurati ko‘riladi. Shu sababli inklyuziv ta’limni samarali rivojlantirish uchun pedagogik yondashuv, maktab muhitini moslashtirish, davlat siyosati va ota-onalar bilan hamkorlik zarur.

Metodlar

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, ta’lim jarayonini baholash, ekspert intervyular va statistik tahlil. Shuningdek, ilmiy manbalar orqali inklyuziv ta’limning samaradorligi va qiyinchiliklari o‘rganildi. Ushbu tadqiqotda inklyuziv ta’limni rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish va amaliy jihatlarini aniqlash uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalangan. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Adabiyotlarni tahlil qilish** – inklyuziv ta’lim, pedagogik strategiyalar va jahon hamda mahalliy tajribalarni o‘rganish uchun akademik maqolalar, kitoblar, tezislar va amaliy qo‘llanmalar tahlil qilindi. Shu yo‘l bilan inklyuziv ta’limning nazariy asoslari va samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlangan.

2. **Pedagogik kuzatuv** – maktablarda inklyuziv sinflarda o‘quv jarayonini kuzatish orqali o‘quvchilarning faoliyati, ijtimoiy integratsiya darajasi va o‘qituvchilarning metodik yondashuvi tahlil qilindi. Kuzatuv davomida o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqot, individual ehtiyojlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari baholandi.

3. **Ekspert intervyular** – inklyuziv ta’lim bilan shug‘ullanuvchi tajribali o‘qituvchilar, psixologlar va maktab administratori bilan suhbatlar o‘tkazildi. Bu usul orqali amaliy qiyinchiliklar, samarali pedagogik strategiyalar va resurslar yetishmovchiligi kabi masalalar aniqlangan.

4. **Statistik va empirik tahlil** – maktablarda inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning akademik natijalari va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Ma’lumotlar taqqoslash, diagrammalar va jadval shaklida tahlil qilindi. Masalan, inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning kommunikatsiya ko‘nikmalari va jamoadagi faol ishtirok darajasi kuzatildi.

5. **amaliy misollar tahlili**– mahalliy va xalqaro maktablarda inklyuziv ta’limni joriy etish tajribasi o‘rganildi. Bu usul orqali muvaffaqiyatli metodik yondashuvlar va pedagogik strategiyalar aniqlangan hamda ularni mahalliy sharoitga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi.

6. **Kuzatuv va baholashni kombinatsiyalash** – o‘quv jarayonida o‘quvchilarning individual rivojlanish darajasi, psixologik moslashuvi va o‘quv faoliyati statistik jihatdan baholandi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar va ota-onalar fikri yig‘ilib, tadqiqotning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari birlashtirildi.

Ushbu metodlarning kombinatsiyasi tadqiqotga quyidagi imkoniyatlarni berdi: inklyuziv ta’limning samarali nazariy asoslarini aniqlash, mavjud qiyinchiliklarni belgilash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik rivojlanishini baholash. Tadqiqot metodlari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’limni rivojlantirish faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, amaliy tajriba, pedagogik kuzatuv va statistik tahlil orqali amalga oshirilishi kerak. Shu tarzda metodologiya ilmiy asosli va amaliy jihatdan foydali natijalarni ta’minlaydi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’lim maktablarda quyidagi afzalliklarni beradi: bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanadi, hamkorlik va kommunikatsiya

qobiliyatlari oshadi, o‘quvchilarning o‘zini hurmat qilishi kuchayadi. Shu bilan birga, maktablar va o‘qituvchilar quyidagi qiyinchiliklarga duch keladi: o‘quv dasturini individuallashtirish zarurati, maxsus pedagogik resurslarning yetishmasligi, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi. Analiz shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’limning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Ijtimoiy integratsiya**: inklyuziv sinflarda barcha o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilishi, jamoadagi mas’uliyatni bo‘lishishi va nogironligi bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- **Individual yondashuv**: o‘qituvchilar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, moslashtirilgan dars rejalarini ishlab chiqadi, bu esa akademik natijalarni yaxshilashga yordam beradi.
- **O‘zini hurmat qilish**: inklyuziv sinflarda bolalar o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘ziga bo‘lgan ishonch va motivatsiya oshadi.
- **Hamkorlikdagi o‘rganish**: o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi, qo‘llab-quvvatlaydi va murakkab vazifalarni birgalikda hal qiladi, bu esa ta’lim sifatini oshiradi.

Empirik kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’limni joriy etish maktablar uchun quyidagi qiyinchiliklarni ham yuzaga chiqaradi:

- **Resurslar yetishmovchiligi**: maxsus pedagogik materiallar, didaktik vositalar va texnologiyalar yetishmasligi sinfdagi samaradorlikni pasaytiradi.
- **O‘qituvchilarning malaka darajasi**: barcha o‘qituvchilar inklyuziv ta’lim metodikalariga tayyor emas, shu sababli doimiy treninglar va professional rivojlanish talab etiladi.
- **Individual yondashuvni ta’minlash qiyinligi**: sinfdagi o‘quvchilar soni va turli ehtiyojlar kombinatsiyasi o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha yuk yaratadi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlari o‘rtacha 10–15% yuqori, ijtimoiy ko‘nikmalari esa 20% ga oshadi, bu esa inklyuziv ta’limning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ota-onalar va maktab administratsiyasi fikr-mulohazalari tahlili inklyuziv yondashuvlarning jamiyatdagi qabul qilinishini ko‘rsatdi. Ko‘pchilik ota-onalar inklyuziv ta’lim orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvi va mustaqil fikrlash qobiliyati oshishini qayd etdi. Case-study va empirik kuzatuvlar orqali aniqlandi: muvaffaqiyatli inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning akademik natijalari, kommunikatsiya ko‘nikmalari va ijtimoiy integratsiyasi yuqori bo‘ladi, bunday sinflarda o‘qituvchilar individual yondashuvni samarali amalga oshira oladi va maktab muhitida hamkorlik kuchayadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni samarali rivojlantirish uchun quyidagilar zarur: maxsus pedagogik resurslar, malakali o‘qituvchilar, individual o‘quv rejalar, ota-onalar va jamiyatning faol ishtiroki, shuningdek, doimiy monitoring va baholash tizimi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, inklyuziv ta’lim nafaqat nogironligi bo‘lgan bolalarning rivojlanishiga, balki butun sinf jamoasining ijtimoiy va akademik salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Mulohaza

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy masala sifatida ham muhimdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv maktablarda barcha o‘quvchilar orasida ijtimoiy integratsiya kuchayadi va ijtimoiy adolat konsepsiyasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli inklyuziv ta’limning asosiy shartlari – o‘qituvchilar malakasini oshirish, individual yondashuv, maxsus pedagogik yordam va maktab muhitini moslashtirishdir. Kuzatuv va empirik tahlil davomida aniqlandi: inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning kommunikatsiya ko‘nikmalari, hamkorlik va jamoadagi faol ishtirok darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini va o‘zini hurmat qilishini kuchaytiradi, shuningdek, jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’lim samarali bo‘lishi uchun maktab muhitining moslashtirilishi, individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish, pedagogik resurslarni ta’minlash va malakali o‘qituvchilarni tayyorlash zarur. Doimiy pedagogik treninglar va amaliy seminarlar orqali o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni inklyuziv metodikalar bilan tanishtirish natijalarning yuqori bo‘lishiga yordam beradi. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyatli inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning akademik natijalari ham yaxshilanadi. Individual yondashuv orqali har bir bola o‘z qobiliyati va imkoniyatlariga moslashtirilgan ta’lim oladi. Shu bilan birga, pedagogik strategiyalar o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasi va jamoadagi o‘zaro hamkorligini rag‘batlantiradi, bu esa butun sinf jamoasining barqarorligini oshiradi.

Mulohazalardan kelib chiqadiki, inklyuziv ta’limni rivojlantirishning asosiy qiyinchiliklari – maxsus pedagogik resurslar yetishmasligi, o‘qituvchilarning malakasining turlicha darajada bo‘lishi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishdagi murakkabliklar va ota-onalar hamkorligining yetarli emasligi. Shu sababli inklyuziv ta’limni amaliyotga tatbiq etish jarayoni sistematik yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim faqat pedagogik yondashuv bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy nuqtai nazardan ham muhimdir. Jamiyatda inklyuziv qadriyatlarni rivojlantirish, ota-onalar va pedagoglarni jarayonga jalb qilish, davlat siyosati va moliyaviy resurslarni ta’minlash inklyuziv ta’limning samaradorligini oshiradi. Natijalardan kelib chiqib, inklyuziv ta’limni rivojlantirish orqali: o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalari va o‘zini hurmat qilish darajasi oshadi, akademik natijalar yaxshilanadi, jamoadagi hamkorlik va kommunikatsiya kuchayadi, pedagoglar va ota-onalar bilan samarali hamkorlik o‘rnatiladi. Shu bilan birga, maktablarda resurslar yetarli bo‘lmagan holatlarda inklyuziv jarayonning samaradorligi pasayadi, bu esa qo‘shimcha davlat siyosati va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi.

Umuman olganda, mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni rivojlantirish nafaqat individual bolalarning rivojlanishiga, balki butun jamiyatning inklyuziv qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati o‘quvchilar, pedagoglar, ota-onalar va davlat organlarining hamkorligiga bog‘liq bo‘lib, samarali tizim va resurslar orqali ta’minlanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’limni rivojlantirish nafaqat nogironligi bo‘lgan yoki ijtimoiy cheklovga ega bolalar uchun, balki butun sinf va maktab jamoasi uchun foydalidir. Inklyuziv ta’lim o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik rivojlanishini oshiradi, ularning o‘zini hurmat qilish va jamoadagi faol ishtirokini kuchaytiradi. Shu bilan birga, pedagoglar uchun individual yondashuvni qo‘llash, dars jarayonini moslashtirish va o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini yaratadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyatli inklyuziv ta’limning asosiy omillari quyidagilar: maktab muhitini moslashtirish, maxsus pedagogik resurslar bilan ta’minlash, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ota-onalar va jamiyatning faol ishtiroki, shuningdek, doimiy monitoring va baholash tizimi. Shu tarzda inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglik qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Empirik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’limni joriy etish jarayonida maktablar ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi: maxsus pedagogik vositalar va didaktik materiallar yetishmasligi, o‘qituvchilar malakasining turlicha darajada bo‘lishi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishdagi murakkabliklar va ota-onalar bilan samarali hamkorlik yetarli emasligi. Shu sababli inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun tizimli yondashuv va qo‘shimcha resurslar zarur.

Tavsiya etilgan chora-tadbirlar quyidagilar:

1. **Maktab muhitini moslashtirish** – inklyuziv sinflar uchun maxsus jihozlar, texnologik vositalar va o‘quv materiallari bilan ta’minlash.
2. **Pedagogik malakani oshirish** – o‘qituvchilar uchun doimiy treninglar, seminarlar va master-klasslar tashkil etish, inklyuziv metodikalarni amaliyotga tatbiq etish.
3. **Individual o‘quv rejalarni ishlab chiqish** – har bir bola imkoniyatlariga moslashtirilgan dars rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
4. **Ota-onalar va jamiyatni jalb qilish** – ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar, maslahatlar va seminarlar orqali hamkorlikni kuchaytirish.
5. **Monitoring va baholash tizimi** – inklyuziv jarayonning samaradorligini baholash uchun doimiy kuzatuv, statistika va empirik tahlillarni joriy etish.
6. **Davlat siyosati va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash** – inklyuziv maktablar uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar ajratish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish.
7. **Amaliy pedagogik tajriba almashish** – mahalliy va xalqaro maktablar tajribasini o‘rganish, samarali strategiyalarni mahalliy sharoitga tatbiq etish.

Umuman olganda, inklyuziv ta’limni rivojlantirishning samarali mexanizmlari nafaqat o‘quvchilarning individual rivojlanishiga, balki maktab jamoasining umumiy ijtimoiy va akademik salohiyatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu jarayon jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglik qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, davlat siyosati, pedagogik malaka va resurslarni qo‘llab-quvvatlash orqali samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, M. Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti, 2019, 50-85-betlar.

2. Karimova, N. Nogironligi bo‘lgan bolalar ta’limi: pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2020, 30-70-betlar.

3. Tursunov, S. Maktablarda inklyuziv ta’limni tashkil etish metodikasi. Samarqand: Ilm-fan, 2018, 25-60-betlar.

4. Xoliqov, A. Pedagogik strategiyalar va ijtimoiy integratsiya. Toshkent: Tibbiyot va pedagogika nashriyoti, 2021, 40-90-betlar.

5. Usmonova, F. Inklyuziv maktablar: amaliy tajribalar. Buxoro: Ilmiy tibbiyot va pedagogika nashriyoti, 2019, 15-55-betlar.

6. Sodiqov, B. Bolalar huquqlari va teng ta’lim imkoniyatlari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash va ta’lim vazirligi, 2017, 10-45-betlar.

7. Nazarov, D. Innovatsion pedagogik yondashuvlar va inklyuziv ta’lim. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti, 2020, 60-100-betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

“AXLOQ” KONSEPTINING IJTIMOIY-MADANIY JIHATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.121

Bobojonova Shohsanam Sharifboyevna
Navoiy davlat universiteti doktoranti
shohsanambobojonova123@gmail.com

Annotatsiya. Axloq – inson tafakkurining, ma’naviy hayotining va ijtimoiy munosabatlarning eng qadimiy, eng murakkab va eng dolzarb kategoriyalaridan biridir. U nafaqat insonning tashqi xulqi, balki ichki dunyosi, vijdoni, e’tiqodi, mas’uliyati va ruhiy olamini belgilovchi ma’naviy mezondir. “Axloq” konsepti ma’naviyat tizimining markazida turib, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ruhiy-madaniy muvozanatni ta’minlaydi.

Abstract. Morality is one of the oldest, most complex and most relevant categories of human thought, spiritual life and social relations. It is a spiritual criterion that determines not only the external behavior of a person, but also his inner world, conscience, faith, responsibility and spiritual world. The concept of “morality” is at the center of the spiritual system, ensuring a spiritual and cultural balance between the individual and society.

Kalit so‘zlar: axloq, konsept, ma’naviyat, psixologiya, madaniyat, kategoriya, barkamollik, yetuklik, konnotatsiya.

Key words: morality, concept, spirituality, psychology, culture, category, perfection, maturity, connotation.

Kirish. Til va ma’naviyatning uzviy bog‘liqligini tadqiq etuvchi lingvoma’naviyatshunoslik doirasida axloq konsepti “ma’naviyat” kategoriyasining yadrosi sifatida qaraladi. Shaxsning ma’naviy barkamolligi axloqiy yetuklik orqali ifodalanadi, bu esa jamiyat barqarorligi va madaniyat taraqqiyotining asosidir.

O‘zbek tili lisoniy tizimida “axloq” tushunchasi nafaqat falsafiy va diniy, balki ijtimoiy va psixologik konnotatsiyalarni ham mujassamlashtiradi. Shu bois uni kompleks tahlil etish lingvokognitiv va aksiologik tadqiqotlar uchun ham zarurdir.

Axloq – inson xulq-atvori va uni shaxs sifatida “e’lon qilish” mezonlari bilan bog‘liq murakkab va ko‘p tarmoqli fenomen. Mazkur konsept – individual, ijtimoiy va madaniy qatlamlarda tartibga solingan, normativ jihatdan nazariy va empirik jihatdan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan to‘plam. Insoniyat tarixida axloq nazariyalari din, falsafa, psixologiya va sotsiologiya kabi turli fanlar maydonida shakllangan. Shu bois, “axloq konsepti”ni falsafiy, diniy, ijtimoiy va psixologik jihatlarda tahlil qilish ilmiy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega[40].

[40] Bu haqida qarang. Sh.Bobojonova O‘zbek tili “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “axloq” umumiy semali atov birliklari tizimi. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. Qarshi, 2022

“Axloq” kategoriya sifatida quyidagi ma’nolarga ajraladi. Shu bois ular quyidagi kategoriyalarni hosil qiladi.

1. Falsafiy kategoriya 2. Diniy kategoriya 3. Sotsiolingvistik kategoriya 4. Psixologik kategoriya 5. Semantik kategoriya 6. Pragmatik kategoriya 7. Sotsiopragmatik kategoriya 8. Lingvopragmatik kategoriya.

“Axloq” konseptini falsafiy jihatdan insonning o‘zini anglash, o‘z xatti-harakatlarini baholash, ezgulik va yovuzlikni farqlash qobiliyatini ifodalaydi. Aristotel axloqni “amaliy aql” bilan bog‘lagan bo‘lsa, Imom Forobiy uni “fozil jamiyat” poydevori sifatida talqin qilgan. Sharq tafakkurida axloq – ruhiy poklanish va nafsni yengish vositasidir. Ibn Sino axloqiy fazilatlarni insonni jamiyat bilan uyg‘unlashtiruvchi omil deb bilgan, Jaloliddin Rumiy esa “axloq – insonni ilohiy haqiqatga olib boruvchi yo‘l[41]” deya ta’kidlagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbek tilshunosligida tadqiqotchi B.Mengliyev, G.N.Tojiyeva, F.Yuldashev, M.Ahmedova, Y.Hojiyev va boshqalar tomonidan olib borilgan ishlar diqqatga sazovor.

O‘zbek falsafiy tafakkurida, ayniqsa Alisher Navoiy merosida, axloq — insonni ulug‘lovchi ma’naviy yuksaklik timsolidir. Navoiy nazarida odob va axloq “insonni yuksaltiruvchi ziynat” bo‘lib, ular jamiyat barqarorligining ruhiy asosi hisoblanadi.

Zamonaviy falsafiy tafakkurda ham axloq – shaxs erkinligini belgilovchi, insoniyatni inqirozlardan saqlovchi universal qadriyat sifatida qaraladi. I. Kantning “axloqiy qonun insonning ichidadir” degan fikri axloqning tashqi emas, ichki mohiyatini ochib beradi. Demak, axloq falsafiy jihatdan insonni o‘z mohiyatini anglashga, o‘z “men”ini ezgulik yo‘lida shakllantirishga yo‘naltiruvchi konseptdir.

Natijalar. Falsafiy pragmatizm nuqtayi nazaridan axloq – insonga hayotiy yo‘l-yo‘riq, “xayr-u yaxshilik”dan ko‘ra foydali yoki ijtimoiy barqarorlikka olib keladigan me’yorlar. Axloq falsafaning uzviy qismi bo‘lib, ezgulik falsafasi sifatida insonni haqiqatga olib boruvchi yo‘l deb talqin etiladi. U falsafaning asosiy maqsadi – inson tafakkurini yuksaltirish va haqiqatga eltish vazifasini ezgulik orqali amalga oshiradi. Axloqshunoslik axloqiy tafakkurning rivojini, uning nazariy muammolarini o‘rganadi; shuning uchun u sof nazariya emas, balki amaliy falsafa hisoblanadi[42]. Falsafiy jihatdan axloq – inson ixtiyor erkinligining oqilona cheklanishi bo‘lib, ichki iroda orqali tartibga solinadigan ma’naviy hodisa sifatida talqin etiladi.

Islom falsafasida axloq uch yo‘nalishda qaraladi:

1□. Ilohiy axloq − Allohga muhabbat va itoat orqali poklanish;

2□. Ijtimoiy axloq − jamiyatda halollik, adolat va o‘zaro hurmatni saqlash;

3□. Shaxsiy axloq − vijdon, hayo va sabr bilan o‘zini tarbiyalash[43].

Diniy yo‘nalish tavsiflari asosida “Axloq” konseptining markazida turadi.

Islom dini axloqiy me’yorlarni shakllantirishda asosiy omil bo‘lib, Qur’oni karim va Hadislar axloqiy qonuniyatlarning manbai sifatida e’tirof etiladi. Ta’kidicha, tasavvuf

[41] *Rumiy.* Ichindagi ichindadir. U. Abduvahob taijimasi. T., “Yozuvchi”, 1997, 31-b.

[42] Bu haqida qarang. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: 0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 330 b.

[43] Ko‘rsatilgan manbaa.

ta’limoti islomiy axloq falsafasining eng yuksak shaklidir − u komil inson g‘oyasini axloqiy mukammallik bilan bog‘laydi. Dinga ko‘ra, axloq faqat tashqi xatti-harakatlar emas, balki ruhiy poklik va niyat sofligini ham o‘z ichiga oladi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida axloq “nafsni poklash”, Bahouddin Naqshband talqinida esa “dil pokligi va mehnat” orqali kamol topadi. Demak, diniy ma’noda axloq – bu inson ruhining poklanish jarayoni, iymonning amaliy ko‘rinishi. Diniy qarashlarda axloq – iymonning samarasi, e’tiqodning amaliy ifodasidir. Shaxsning imoni kuchli bo‘lsa, axloqi ham mukammal bo‘ladi.

Muhokama. Axloq ijtimoiy ongning asosiy shakli bo‘lib, jamiyat hayotini tartibga soluvchi ichki qonun vazifasini bajaradi. U jamoaviy hayotda uyg‘unlik, totuvlik va o‘zaro ishonchni ta’minlaydi. Insonning axloqiy qiyofasi uning ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Axloq shaxs rivojida ijtimoiy (muhit), tarbiyaviy (tarbiya) va shaxsiy (intilish) omillar bilan bir qatorda turadi. Axloq ijtimoiy-madaniy tizimning birlashtiruvchi elementi bo‘lib, jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlaydi. U ma’naviyatning o‘zagi bo‘lib, ijtimoiy hayotdagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi universal hodisa sifatida talqin etiladi. U fuqarolik jamiyati, oila, mahalla va davlat tuzilmalari faoliyatining axloqiy poydevorini tashkil etadi. Axloqiy qadriyatlar ijtimoiy hayotda milliy g‘oya va mafkura bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Bu uchlik shaxsni jamiyatga moslashtiruvchi mexanizmdir:

- Ijtimoiy omil — muhit, oila, jamoa va milliy qadriyatlar orqali;
- Tarbiyaviy omil — ta’lim, ta’limot, ustoz-shogird an’anasi orqali;
- Shaxsiy omil — o‘zini takomillashtirish va ichki intilish orqali.

Xulosa. O‘zbek xalq tafakkurida axloq ijtimoiy hayotning yuragi sifatida qaraladi. “Odob – el ko‘zgusi”, “Axloq – odam ziynati” kabi maqollar milliy tafakkurda axloqning jamiyatdagi o‘rnini aniq belgilaydi. Zamonaviy sotsiologik yondashuvda axloq — bu “ijtimoiy ekologiya” tushunchasiga teng, ya’ni insonlar o‘rtasidagi axloqiy muvozanat jamiyat sog‘lomligini ta’minlaydigan “vosita” sifatida o‘rganish dolzardir.

Globalizatsiya davrida individualizm, iste’molchilik va ommaviy madaniyat tahdidlari ostida axloqiy qadriyatlarning yemirilish xavfi ortmoqda. Shu bois milliy axloqiy tizimni tiklash, yoshlar ongida vijdon, hayo, or-nomus, sadoqat singari qadriyatlarni mustahkamlash muhim ijtimoiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 330 b.

2. Xojiyev Y. “Alpomish” dostonidagi shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur, konseptual va leksikografik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (RhD) ... diss. – Toshkent, 2020.

3. Xudayberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol.fan. d-ri. ...diss. – Toshkent: O‘zRFA TAI, 2015. – B. 240.

4. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: MERIYUS, 2017. – -B.140.

5. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – – B. 135.

6. Bobojonova Sh. O‘zbek tili “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “axloq” umumiy semali atov birliklari tizimi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. Qarshi, 2022

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK FARMASEFTLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.122

Qo’qon universiteti Andijon filiali
Bialogiya, kimyo va farmaseftika kafedrasi
katta o’qituvchisi ***Umurzaqova Nasibaxon Suyarjanovna***

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot bo‘lajak farmasevtlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Ishda O‘zbekiston farmatsevtika ta’limi tizimidagi modernizatsiya jarayonlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar va simulyatsion treninglarning o‘quv jarayonidagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, biofarmatsevtika fanining metodologik poydevori va dori vositalarining farmakokinetik jarayonlarini chuqur o‘zlashtirishning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:farmasevtika ta’limi, kasbiy kompetensiyalar, biofarmatsevtika, innovatsion pedagogik texnologiyalar, farmakokinetika, simulyatsion trening, raqamli ta’lim

Аннотация.Данное исследование посвящено изучению теоретических и методологических основ развития профессиональных компетенций будущих фармацевтов. В работе анализируются процессы модернизации фармацевтического образования в Узбекистане, роль инновационных педагогических технологий, цифровых платформ и симуляционных тренингов в образовательном процессе. Особое внимание уделено методологической базе биофармацевтики и значению глубокого освоения фармакокинетических процессов лекарственных средств для формирования профессиональных компетенций.

Ключевые слова:фармацевтическое образование, профессиональные компетенции, биофармацевтика, инновационные педагогические технологии, фармакокинетика, симуляционные тренинги, цифровое обучение

Abstract. This study investigates the theoretical and methodological foundations for developing professional competencies of future pharmacists. It analyzes the modernization of pharmaceutical education in Uzbekistan, the role of innovative pedagogical technologies, digital platforms, and simulation training in the learning process. The study also emphasizes the methodological basis of biopharmaceutics and the importance of in-depth understanding of pharmacokinetic processes of drugs for shaping professional competencies.

Keywords:pharmaceutical education, professional competencies, biopharmaceutics, innovative pedagogical technologies, pharmacokinetics, simulation training, digital learning

KIRISH.So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tibbiyot va farmatsevtika ta’limi tizimini tubdan isloh qilish, uning mazmuni va sifatini xalqaro talablarga moslashtirish, shuningdek, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Xususan, sohani modernizatsiya qilish jarayonlari 2017–2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, shuningdek, Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur strategik hujjatlar tibbiy va farmatsevtika ta’limi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish, ularni amaliy tibbiyot bilan integratsiyalash, bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlash, o‘quv jarayonini metodik va texnologik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, shuningdek, tibbiy kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab bermoqda. Natijada, tibbiy yordam sifatini oshirish, aholining sog‘ligini muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash hamda ilmiy izlanishlarning amaliyotga joriy etilish samaradorligini ta’minlash bo‘yicha kompleks yondashuv shakllanmoqda.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda ta’lim sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar tibbiyot oliy ta’limi infratuzilmasining tubdan yangilanishiga zamin yaratdi. Zamonaviy laboratoriya komplekslari, yuqori texnologik simulyatsion markazlar, xalqaro akkreditatsiya talablari asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarining joriy etilishi tibbiy ta’lim sifatining sezilarli oshishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, o‘quv-uslubiy adabiyotlar fondining boyitilishi va ular tarkibiga xalqaro standartlarga mos innovatsion qo‘llanmalar kiritilishi bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro Farmatsevtika federatsiyasi tomonidan ilgari surilgan global rivojlanish maqsadlari, ta’lim va zamonaviy farmatsevtik ta’limni takomillashtirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar bugungi kunda O‘zbekiston farmatsevtika ta’limi tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy farmatsevtik ta’limda nafaqat kasbiy amaliyot, balki pedagogik tayyorgarlik, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar hamda yetakchilik va boshqaruv salohiyati kabi umumiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston farmatsevtika oliy ta’lim muassasalari uchun ham ushbu yo‘nalishlar bo‘lajak kadrlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Ushbu dastur farmatsevtikani tizimli ravishda rivojlantirish hamda farmatsevtlarning professional kompetensiyalarini zamonaviy standartlar asosida takomillashtirish uchun konseptual va metodologik asos yaratadi.

O‘zbekiston farmatsevtika tizimida ham so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot salohiyatini kuchaytirish, ishlab chiqarish va amaliyot bilan integratsiyani ta’minlash kabi masalalar ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda va mamlakatimiz oliy farmatsevtika ta’limi uchun

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini xalqaro mezonlar bilan uyg‘unlashtirish va bo‘lajak farmatsevtlarni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlashda muhim metodik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bo‘lajak farmatsevtlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish O‘zbekiston sharoitida ham ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish orqali amalga oshirilishi zarur bo‘lgan strategik vazifalardan biridir.

Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy didaktik vositalardan samarali foydalanish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu asosda ta’lim muassasalarida elektron o‘quv resurslari, masofaviy ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, kompyuter simulyatsiyalari hamda multimedia majmualaridan foydalanish jarayoni keng qamrov kasb etmoqda. Bu esa talabalarning media savodxonligi, tahliliy fikrlashi, mustaqil izlanish olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Amaldagi islohotlar natijasida tibbiy ta’limda innovatsion didaktik yondashuvlarni joriy etish, o‘quv jarayonini raqamlashtirish, ta’lim sifatini monitoring qilishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqotlar ham faol olib borilmoqda. Xususan, media resurslar asosida ta’lim berishning samaradorligi, innovatsion o‘qitish modellarining kompetensiyalarni shakllantirishga ta’siri, hamda talabalarning professional faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar shakllanmoqda. Natijada, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, media kompetent, innovatsion fikrlaydigan tibbiyot mutaxassislari tayyorlash uchun mustahkam ilmiy-amaliy baza yaratilmoqda.

Sog’liqni saqlash adabiyotlarida “kompetensiya” va “kompetensiyalar” atamalari tez-tez ishlatiladi, bu atamalar muayyan vazifalar, harakatlarni yoki funktsiyalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatini anglatadi. Ushbu atamalardan foydalanish talabalarning ta’limdagi yutuqlari, asosan talaba tomonidan rivojlantirilgan qobiliyat yoki ko’nikma bilan ham mos keladi. Kompetensiya natijadir va talabalar uchun o’quv dasturini taqdim etish nuqtai nazaridan, talaba o’lchovli tarzda nima qila olishini tavsiflovchi aniq bayonotlarga ishora qiluvchi natijaga yo’naltirilgan daraja doirasiga kiradi.

O’quv natijalari odatda Bloom taksonomiyasini yodda tutgan holda yoziladi — Bloom taksonomiyasi o’rganish jarayoni uchun asos yaratadi, bunda kognitiv sohada sintez va baholash fikrlash jarayonlarining yuqori tartibli bosqichlarini ifodalaydi. Xuddi shunday, affektiv sohada taraqqiyot e’tiqodlar, g’oyalar va munosabatlarni birlashtirish uchun ma’lumot olishga asosiy tayyorlikdan namoyon bo’ladi. Psixomotor sohada bir qator taksonomiyalar ko’nikmalarning rivojlanishini va miya va mushak faoliyatini muvofiqlashtirishni

tavsiflaydi[44]. Bloom taksonomiyasining uchta sohasi ham muloqot uchun tegishli: bilim (bilim), motivatsiya (affekt) va ko'nikmalar (psixomotor qobiliyatlar).

Bo’lajak farmatsevtlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari nazariy modellar va amaliy usullarga asoslangan o’qitishga kompleks yondashuvni o’z ichiga oladi. Ushbu yondashuv talabalarning dori vositalari va tibbiy asboblar bilan ishlash uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va shaxsiy fazilatlarini, shuningdek, mijozlarga maslahat berish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Asosiy maqsad dori vositalarini xavfsiz va samarali ishlatishni ta’minlashga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

NATIJALAR

Biofarmatsevtika fanining shakllanishi haqida turli ilmiy manbalarda turlicha qarashlar uchraydi. Buyuk tabib va mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning “Al-Qonun fi-t-tibb” asarida dori moddalarning organizmga kirishi, taqsimlanishi, o‘zgarishi va chiqarilishi — hozirgi zamonaviy biofarmatsevtikaning metodologik asoslarini tashkil etadi. Shu sababli biofarmatsevtika terminini birinchi bo‘lib qo‘llagan olimlar uning asoschilari sifatida ko‘rsatilib kelinsa-da, fanning ilmiy poydevori tarixan Ibn Sino tomonidan yaratilganini inkor etib bo‘lmaydi.

Dori vositalarining organizmda kechadigan farmakokinetik jarayonlari murakkab bosqichlardan iborat bo‘lib, ularning har birida farmatsevtik, fiziologik va biokimyoviy omillarning o‘zaro uyg‘un ta’siri kuzatiladi. Tadqiqot metodologiyasi ushbu bosqichlarni ilmiy tahlil qilishga asoslanadi.

Farmatsevtik bosqich (dori turidan ajralish va erish jarayoni). Dori moddaning organizmga qabul qilingan dori turidan ajralishi, uning erish kinetikasi, parchalanishi va biofaol shaklga o‘tishi ushbu bosqichning asosini tashkil qiladi. Jarayon texnologik omillar — dori shaklining ishlab chiqilish texnologiyasi, yordamchi moddalarning tabiati, fizik-kimyoviy xususiyatlar, suyuqliklarda erish tezligi bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy tadqiqotlarda bu bosqichni baholashda *in vitro* eritilish sinovlari, matematik modellashtirish, nanoformula tahlillari keng qo‘llanmoqda.

Absorbsiya bosqichi (so‘rilish va membranadan o‘tish jarayoni). Dori moddasi biosuyuqliklardan to‘qimalarga diffuziya qonuniyatlariga muvofiq o‘tadi. So‘rilish jarayoniga dori molekulasining lipofil-lipofob muvozanati, ionlanish darajasi, membrana o‘tkazuvchanligi, shuningdek bemorning yoshi, jinsi, metabolik holati kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi biofarmatsevtika *transmembran transport, nanotashuvchi tizimlar, muvofiqlashtirilgan dorivor shakllar* orqali so‘rilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Taqsimlanish bosqichi (distribusiya). Bu bosqichda preparat yoki uning metabolitlari qon oqimi orqali turli to‘qimalarga taqsimlanadi. Dori moddaning plazma oqsillari bilan bog‘lanish foizi, organlarda selektiv yig‘ilishi, biologik to‘siqlar — masalan, gematoentsefalik yoki platsentar to‘siqdan o‘tish qobiliyati farmakokinetikaning muhim tarkibiy qismidir.

[44] Kennedy, D. Writing and Using Learning Outcomes: A Practical Guide; University College Cork: Cork, Ireland, 2006

Zamonaviy ilmiy amaliyotda bu jarayonni o‘rganishda *bioimaging* texnologiyalari, *farmakokinetik modeling, kompartment tahlili* keng qo‘llaniladi.

Biotransformatsiya va chiqarilish (metabolizm va ekskresiya).Dori moddalarining biokimyoviy o‘zgarishi, ularning faol yoki nofaol metabolitlarga aylanishi va buyrak, jigar, o‘pka yoki teri orqali chiqarilishi ushbu bosqichning asosiy mazmunini tashkil etadi. Metabolik faollikka fermentlar, genetik polimorfizmlar, gormonal holat, surunkali kasalliklar va turmush tarzi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlarning barchasi biofarmatsevtika fanining metodologik mazmunini belgilaydi. Dorining organizmda kechadigan barcha bosqichlarini chuqur tahlil qilish orqali dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligini oshirish, individual terapiya tamoyillarini joriy etish imkoniyati yaratiladi.

Ibn Sino tomonidan asos solingan tibbiy-falsafiy qarashlar, dori moddalarning tabiati, ularning ta’siri va harakatini ilmiy izohlab bergan yondashuvlari bugungi zamonaviy biofarmatsevtikaning metodik poydevori sifatida e’tirof etiladi. O‘sha davrda farmatsevtika mustaqil sohaga ajralmagan bo‘lsa-da, dorilarni tayyorlash texnologiyasining murakkablashishi natijasida keyinchalik alohida kasb — farmatsevt mutaxassisligi shakllangan.

MUHOKAMA

Zamonaviy tibbiyot tizimida bo‘lajak sog‘liqni saqlash mutaxassislarini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab vaziyatlarga tayyorlash uchun o‘quv jarayonini zamonaviy, kompleks va samarador o‘qitish texnologiyalari bilan boyitish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda ayniqsa, biofarmatsiya yo‘nalishiga ilg‘or pedagogik uslublarni integratsiyalash zarurligi alohida ta’kidlanadi. Bunday yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki amaliy faoliyat uchun muhim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tibbiyot sohasi jadal rivojlanib borayotgan davrda farmatsevtlar va boshqa tibbiy mutaxassislarning doimiy o‘qib-o‘rganishi va yangiliklarga moslashuvi — kasbiy muvaffaqiyatning ajralmas sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, simulyatsiya asosidagi ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritish sezilarli natijalarni beradi. Mazkur yondashuv talabalarga nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘zlashtirish imkonini yaratadi, real klinik vaziyatlarga yaqinlashtirilgan o‘quv muhiti esa kasbiy mas’uliyat va qaror qabul qilish jarayonlarini yanada chuqurroq anglashga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, an’anaviy pedagogik uslublarga o‘rganib qolgan ayrim o‘qituvchilar va muassasalar tomonidan innovatsion metodlarga nisbatan qarshiliklar kuzatilishi mumkin. Ammo bunday to‘siqlarni bartaraf etish tibbiyot ta’limining kelgusi taraqqiyoti uchun zarurdir.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qabul qilingan normativ-hujjatlarda simulyatsion treninglar, raqamli platformalar, media savodxonlikni oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini tatbiq etish — ta’limning zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlanishida muhim bosqich sifatida e’tirof etilgan. Bu esa kadrlarni global sog‘liqni saqlash tizimining o‘zgaruvchan talablari bilan uyg‘un holda tayyorlash imkoniyatini beradi.

Biofarmatsevtika fanining tarixiy ildizlari borasidagi ilmiy bahslar esa ushbu intizomning shakllanishi va rivojlanishiga oid bilimlarni chuqur o‘rganish zarurligini yana bir bor namoyish etadi. Ko‘plab manbalarda Ibn Sinoning ushbu yo‘nalishga qo‘shgan hissasi alohida qayd etiladi. Uning farmakologiya, dori moddalarning organizmdagi harakati va ta’siri haqidagi qarashlari tibbiyot va farmatsevtika fanlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikning tarixiy dalilidir. Bu esa biofarmatsevtikaning metodologik asoslari ming yillar davomida shakllanib kelganligini bildiradi.

Biofarmatsevtikaning asosiy mazmuni — dori vositalarining organizmdagi so‘rilishi, taqsimlanishi, biotransformatsiyasi va chiqarilishini belgilovchi farmatsevtik, fiziologik hamda biokimyoviy omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni anglashdir. Mazkur jarayonlarni chuqur o‘zlashtirish nafaqat farmatsevtlar, balki dori vositalarining qo‘llanishi bilan bog‘liq klinik qarorlar qabul qiladigan barcha tibbiyot mutaxassislari uchun zarurdir. Shu bois, biofarmatsevtika metodologiyasini puxta o‘rgatish kelajakdagi mutaxassislarning ilmiy salohiyati va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni farmatsevtika fanining izchil ravnaqiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kadrlar sifatida shakllantiradi.

XULOSA

Yakuniy natijada ta’kidlash joizki, tibbiy ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash va sohaning tarixiy hamda ilmiy poydevorini chuqur anglash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga taqdim etilayotgan ta’lim sifatini oshirish, talabalarda kasbiy mas’uliyat va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, farmatsevtika va biofarmatsevtika kabi tez sur’atlarda rivojlanayotgan yo‘nalishlarda dolzarb bo‘lib, kelajakdagi mutaxassislarning global sog‘liqni saqlash tizimi talablariga mos bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda tibbiy ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu tamoyillarga asoslangan bo‘lib, yangi avlod malakali, innovatsion fikrlovchi va amaliyotga tayyor shifokor hamda farmatsevtlarni tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Har qanday ilmiy izlanishning muvaffaqiyati tadqiqotchi tanlagan metodologiyaga bevosita bog‘liqdir. Bilish jarayoni maqsad, ob’ekt va sub’ektning o‘zaro munosabati hamda qo‘llaniladigan ilmiy usullar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun metodologiya — ilmiy faoliyatning yo‘nalishini belgilab beradigan asosiy omildir. Tadqiqot natijasining aniqligi va ilmiy qiymati tanlangan usullarning ilmiy asoslanganligi bilan chambarchas bog‘liq.

Biofarmatsevtika fanini o‘rganishda metodologik yondashuvlarning roli yanada muhimdir, chunki dori vositalarining farmakokinetik xususiyatlari, ularning organizmdagi ta’sir mexanizmlari va farmakodinamik jarayonlarini aniqlash ilmiy yondashuv talab etadi. Aynan ilmiy asoslangan usullar yuqori sifatli tibbiy tadqiqotlar olib borish, yangi g‘oyalarni asoslash va sog‘liqni saqlash tizimining rivojiga hissa qo‘shish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining “Oliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim sifati va ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni tartibga solish doirasida”gi qarorlari(2021-2025).

2. Selcuk, A., Öztürk, N., Onal, N. va boshq. (2025). *Online simulation versus traditional classroom learning in clinical pharmacy education: effect on students’ knowledge, satisfaction and self-confidence.* BMC Medical Education, 25, 437. SpringerLink+1

3. Boymurodov, Sh.A., Okhunov, A.O. (2025). *Simulation-based medical education: the experience of Tashkent State Medical University.* Journal of Education and Scientific Medicine**,** 1(6). journals.tma.uz

4. Mamliyeva, Sh. M. (2024). *Simulyatsion o‘qitishning tibbiy ta’limdagi o‘rni.* Obrazovanie, Nauka i Innovatsionnye Idei v Mire. Научные журналы

5. Jumaeva, G.A. (2023). *Innovative educational model in clinical pharmacology: student-centered approach.* Annals of Clinical Disciplines**.** Тадқиқот

6. Xayrullayeva, N.D. (2024). *Biologiya ta’limi jarayonida virtual texnologiyalar asosida talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish.* Educational Research in Universal Sciences. erus.uz

7. Azimova, M., Azimov, A., Melikuziyev, A. (2023). *Tibbiyotda simulyatsiya mashg‘ulotlarining dolzarbligi.* Innovative Development in Educational Activities**.** openidea.uz

8. “Comprehensive Healthcare Simulation: Pharmacy Education, Practice and Research.” (2023). Eds. Y. M. Al-Worafi va boshq. Springer (kitob). SpringerLink

9. “Effectiveness of educational technology to improve patient care in pharmacy curricula.” (2015). Systematic literature review, PubMed. PubMed

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

QORAQALPOQ TILIDA DINAMIK IMO-ISHORALARNI O‘RGATISHNING METODIK ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.123

Jalgasbaeva Shahnoza Muratbay qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti
shaxnozajalgasbaeva1998@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatishning metodik asoslari, ularni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar hamda tanib olish texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Dinamik imo-ishoralarni o‘qitishda fazoviy-vaqt tuzilmasini anglash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, ko‘rgazmali qayta aloqa va individual yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, an’anaviy va texnologiyaga tayangan o‘qitish usullari qiyosiy tahlil qilinib, inklyuziv ta’lim sharoitida samarali metodik yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: dinamik imo-ishora, qoraqalpoq imo-ishora tili, inklyuziv ta’lim, tanib olish texnologiyasi, fazoviy-vaqt tuzilmasi, pedagogik qayta aloqa, o‘z-o‘zini nazorat qilish, individuallashtirish.

KIRISH. Zamonaviy inklyuziv ta’lim sharoitida eshitishida nuqsoni bo‘lgan ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda imo-ishora tili alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u mazkur toifadagi o‘quvchilar uchun nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur, o‘zini ifoda etish va ijtimoiy moslashuvning muhim vositasi hamdir. Shu nuqtai nazardan qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish nazariy va amaliy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

Qoraqalpoq dinamik imo-ishora tili murakkab o‘rganish obyektlari qatoriga kiradi. Buning sababi shundaki, dinamik imo-ishoralar bir vaqtning o‘zida harakatning fazoviy va vaqtinchalik xususiyatlarini idrok etish, tahlil qilish va qayta bajarishni talab etadi. Statik imo-ishoralardan farqli ravishda dinamik imo-ishoralar ma’lum bir qo‘l holatini emas, balki vaqt davomida o‘zgaruvchi harakatlar ketma-ketligini ifodalaydi. Ularning ma’nosi qo‘l konfiguratsiyasi, trayektoriya, yo‘nalish, tezlik, ritm va fazalararo bog‘liqlik orqali shakllanadi. Shu bois dinamik imo-ishoralarni o‘rgatish oddiy vizual taqlid asosida emas, balki harakatning ichki mantiqini anglatishga tayangan holda tashkil etilishi zarur.

Dinamik imo-ishoralarni ta’lim materiali sifatida o‘rganishning murakkabligi shundaki, o‘quvchi nafaqat ko‘rgan harakatni takrorlashi, balki uning tuzilishini tushunishi kerak

bo‘ladi. Ya’ni u imo-ishoraning boshlang‘ich holati, asosiy harakati va yakuniy fazasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglashi, harakatlarning muvofiqligini nazorat qilishi lozim. Bu esa rivojlangan vizual-fazoviy tafakkur, harakat koordinatsiyasi, xatolarni tahlil qilish va o‘z-o‘zini tuzatish qobiliyatini talab qiladi. Ayniqsa o‘qitishning boshlang‘ich bosqichlarida bunday ko‘nikmalarni shakllantirish oson kechmaydi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kiritish, xususan, dinamik imo-ishoralarni tanib olish tizimlaridan foydalanish yangi metodik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida tanib olish texnologiyasi texnik maqsad sifatida emas, balki pedagogik yordam vositasi sifatida ko‘riladi. Bunda tizimning vazifasi shunchaki imo-ishorani aniqlash emas, balki ta’lim oluvchining harakatlarini tahlil qilish, xatolarni ko‘rsatish, etalon bilan taqqoslash va shu orqali o‘zlashtirish jarayonini samaraliroq tashkil etishdan iborat bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatishning metodik asoslarini yoritish, an’anaviy yondashuvlarning imkoniyat va cheklovlarini tahlil qilish hamda tanib olish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga qo‘llashning pedagogik afzalliklarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Imo-ishora tillarini o‘qitish bo‘yicha mavjud pedagogik yondashuvlar asosan ko‘rgazmalilik, taqlid, takrorlash va bevosita tuzatish tamoyillariga tayanadi. An’anaviy yondashuvlarda o‘qituvchi yoki tarjimon imo-ishorani namoyish etadi, ta’lim oluvchi esa uni qayta bajaradi. Ushbu usulning muhim afzalligi tabiiy muloqotga yaqinligidadir. Biroq dinamik imo-ishoralar murakkab fazoviy-vaqt tuzilmasiga ega bo‘lgani sababli faqat tashqi kuzatish asosida ularni to‘liq va ongli ravishda o‘zlashtirish ko‘p hollarda qiyinlashadi[6].

Ilmiy-pedagogik qarashlarda so‘nggi yillarda ta’limni raqamlashtirish, sun’iy intellekt elementlarini o‘quv jarayoniga joriy etish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan tizimlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, harakatlarni tahlil qilishga asoslangan texnologiyalar amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita sifatida baholanmoqda. Dinamik imo-ishoralarni tanib olish tizimlari harakat trayektoriyasi, yo‘nalishi, ritmi va fazalar ketma-ketligini avtomatik qayd etishi orqali o‘quvchiga aniq, xolisona va tezkor teskari aloqa berish imkonini yaratadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, pedagogik tahlil, qiyosiy taqqoslash va o‘quv jarayonini modellashtirish tashkil etadi. Tadqiqotda qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatish jarayoni quyidagi tarkibiy qismlar asosida ko‘rib chiqildi: o‘quv materiali sifatida dinamik imo-ishoraning tuzilishi, an’anaviy va raqamli yondashuvlarning o‘ziga xosligi, o‘quvchining individual xususiyatlari, qayta aloqa mexanizmi va o‘z-o‘zini nazorat qilishni shakllantirish omillari[6].

Metodologik jihatdan dinamik imo-ishora quyidagi elementlarning birligi sifatida tahlil qilindi: qo‘l panjasining konfiguratsiyasi, qo‘lning fazodagi joylashuvi, trayektoriya, amplituda, harakat yo‘nalishi, ritm, tezlik va fazalar ketma-ketligi. Aynan mana shu elementlar dinamik imo-ishoraning semantik jihatdan tugallangan birlik sifatida namoyon

bo‘lishini ta’minlaydi. Demak, o‘qitish jarayoni ham bu komponentlarning har birini o‘quvchi tomonidan alohida va bir butun holda idrok etilishini nazarda tutishi kerak.

Ushbu ishda dinamik imo-ishoralarni o‘rgatishning metodik modeli shartli ravishda uch bosqichga ajratildi. Birinchi bosqichda o‘quvchi imo-ishoraning umumiy ko‘rinishi va vazifasi bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda etalon namunani kuzatish, imo-ishoraning ma’nosini tushunish va uning tarkibiy qismlariga e’tibor qaratish ustuvor hisoblanadi. Ikkinchi bosqichda harakatning ichki tuzilmasi o‘zlashtiriladi, ya’ni trayektoriya, yo‘nalish, tezlik va fazalar ketma-ketligi ustida ishlanadi. Uchinchi bosqichda esa mustahkamlash, xatolarni tuzatish va takroriy mashqlar orqali ko‘nikma barqaror holatga keltiriladi[6].

Tanib olish texnologiyasiga asoslangan metodik modelda qayta aloqa alohida o‘rin tutadi. Bunday tizim o‘quvchining bajarilgan harakatini etalon bilan taqqoslab, qaysi elementlar to‘g‘ri, qaysilari esa tuzatishga muhtoj ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuvda texnologiya pedagog o‘rnini to‘liq bosmaydi, balki o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi didaktik aloqani kuchaytiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Natijada o‘quv jarayonida ob’ektivlik, ko‘rgazmalilik va individuallashtirish darajasi oshadi.

Tadqiqotda shuningdek qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘qitishda algoritmik yondashuv ham metodik vosita sifatida ko‘rib chiqildi. Dasturiy kompleksning ishlash algoritmi dasturiy muhitni ishga tushirish, etalon baza yuklash, video oqimni qabul qilish, tasvirni normallashtirish, qo‘l va asosiy nuqtalarni aniqlash, fazoviy-vaqt belgilarini shakllantirish, klassifikatsiya qilish va pedagogik qayta aloqa hosil qilish bosqichlaridan iborat deb olindi[8]. Bu model o‘quvchi faoliyatini bosqichma-bosqich tahlil qilish va o‘rganish jarayonini didaktik jihatdan boshqarishga imkon beradi.

NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatishda tanib olish texnologiyalaridan foydalanish bir qator muhim pedagogik natijalarni ta’minlaydi. Eng avvalo, bu yondashuv o‘quvchining harakatni faqat tashqi taqlid asosida emas, balki mazmunli va ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi. O‘quvchi o‘z ijrosini etalon bilan taqqoslab, qaysi nuqtada xato qilganini ko‘ra oladi, shu bilan xatolarni tuzatish jarayoni ancha aniq va maqsadli tus oladi.

Tadqiqot natijalari dinamik imo-ishoralarning fazoviy-vaqt tuzilmasini anglashga yo‘naltirilgan metodik yondashuv o‘quvchilarda vizual-fazoviy tafakkur va harakat koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, imo-ishoraning alohida fazalarini ajratib o‘rgatish, trayektoriya va yo‘nalishga alohida e’tibor qaratish, tezlik va ritmni nazorat qilish kabi elementlar o‘quv materialining yaxshiroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, tanib olish texnologiyalari asosida tashkil etilgan o‘quv modelida qayta aloqa tezkor va ko‘rgazmali bo‘ladi. An’anaviy o‘qitishda pedagogning izohi ko‘pincha umumiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin, masalan, “harakat noto‘g‘ri bajarildi” yoki “qo‘l yo‘nalishi xato”. Texnologik yondashuvda esa tizim xatoning aynan qaysi elementda yuz berganini ko‘rsatish imkonini beradi: trayektoriya noto‘g‘ri, yakuniy faza to‘liq emas, yo‘nalish etalondan chetga chiqqan va hokazo[4,5]. Bu esa o‘quvchining xatoni chuqurroq tushunishiga olib keladi.

Tanib olish texnologiyasining yana bir muhim natijasi o‘quvchilarning mustaqillik darajasining oshishidir. O‘quvchi imo-ishoralarni qayta-qayta bajarish, natijani ko‘rish, xatolarni tuzatish va mashqlarni o‘z sur’atida davom ettirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu holat ayniqsa eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun muhim, chunki ular ayrim hollarda ko‘proq amaliy mashq va takrorlashga ehtiyoj sezadilar[6]. Texnologiyaga tayangan o‘quv muhitida esa bunday ehtiyojni qondirish osonlashadi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, dinamik imo-ishoralarni o‘rgatishda o‘qitish sur’atini individuallashtirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Har bir o‘quvchining harakat koordinatsiyasi, idrok etish tezligi va takrorlash qobiliyati turlicha bo‘lganligi sababli, barchaga bir xil temp qo‘llash doimo ham samarali bo‘lavermaydi. Texnologik tizim esa o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligini shaxsiylashtirish, murakkab elementlarga qayta murojaat qilish va o‘quvchining individual taraqqiyotini kuzatish imkonini yaratadi.

Quyidagi jadvalda an’anaviy o‘qitish va tanib olish texnologiyasiga tayangan o‘qitishning asosiy farqlari umumlashtirildi.

Mezon	An’anaviy ta’lim	Tanib olish orqali o’qitish
Teskari aloqa	Subyektiv	Obyektiv
O’zboshimchalik	Cheklangan	Baland
Individuallashtirish	Past	Moslashuvchan
Takroriylik	Cheklangan	Cheklanmagan
Ishorani takroran bajarish	Cheklangan	Cheklanmagan

1-jadval - An’anaviy o‘qitish va tanib olish texnologiyasiga asoslangan o‘qitishning qiyosiy tavsifi

Jadval ma’lumotlari shuni tasdiqlaydiki, tanib olish texnologiyasiga asoslangan yondashuv o‘quvchining o‘quv faoliyatini faollashtiradi, xatolarni anglashni yengillashtiradi va ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi.

Shuningdek, 1 jadvalda an’anaviy va texnologik yondashuvlar o‘rtasidagi farqlarni aks ettirib, qayta aloqa, mustaqillik va takroriylik kabi mezonlar bo‘yicha yangi metodik modelning ustunliklarini namoyish etadi[6].

MUHOKAMA

Olingan natijalar qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishda tanib olish texnologiyalarining katta pedagogik salohiyatga ega ekanini

ko‘rsatadi. Birinchidan, bunday tizimlar dinamik imo-ishoralarning murakkab tabiatini hisobga olish imkonini beradi. Chunki dinamik imo-ishora oddiy motor harakat emas, balki fazoviy-vaqt belgilarining mazmunli tizimidir. Uni muvaffaqiyatli o‘rgatish uchun o‘quvchida harakatning tashqi shaklini emas, balki ichki qonuniyatini anglash zarur. Texnologik tahlil aynan shu ehtiyojga javob beradi.

Ikkinchidan, tanib olish texnologiyasi asosidagi metodik yondashuv pedagogik qayta aloqaning mazmunini o‘zgartiradi. An’anaviy modelda teskari aloqa ko‘pincha pedagog kuzatuviga tayanadi va bu tabiiy ravishda subyektivlik omilini yuzaga keltiradi. Texnologik tizim esa harakatning aniq parametrlari bo‘yicha xulosaga keladi. Bu esa ta’lim oluvchiga xolisona baho berish, o‘qituvchi uchun esa o‘quvchining qaysi jihatda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash imkonini yaratadi.

Uchinchidan, mazkur yondashuv inklyuziv ta’lim tamoyillariga mos keladi. Inklyuziv ta’limning asosiy g‘oyalaridan biri har bir o‘quvchi uchun teng imkoniyat va qulay o‘quv muhiti yaratishdan iborat. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning barchasi bir xil sur’atda, bir xil darajada va bir xil usulda o‘rganmaydi. Shu bois moslashuvchan, ko‘rgazmali va individual o‘quv yo‘llari zarur bo‘ladi. Tanib olish texnologiyasiga tayangan metodika aynan mana shu jihatlari bilan inklyuziv yondashuvga uyg‘un keladi[6].

To‘rtinchidan, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi alohida muhokamaga loyiq. Ta’lim oluvchi o‘z xatolarini ko‘rmas ekan, ularni tuzatishning ichki ehtiyojini sezmaydi. An’anaviy darsda xatoni ko‘rsatish ko‘proq tashqi boshqaruv orqali sodir bo‘ladi. Texnologik muhitda esa o‘quvchi o‘z natijasini bevosita ko‘radi va xatoni anglash jarayoni shaxsiy tajribaga aylanadi. Bu esa mustaqil o‘rganish, refleksiya va o‘zini tuzatishning shakllanishiga xizmat qiladi[5,6].

Shu bilan birga, dinamik imo-ishoralarni tanib olish texnologiyalarini ta’limga joriy etishda ayrim shart-sharoitlarni ham hisobga olish zarur. Avvalo, etalon baza sifatli va mazmunan to‘liq shakllantirilgan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, tizim har xil antropometrik xususiyatlar, ijro tempi va individual uslubiy farqlarga nisbatan yetarli darajada moslashuvchan bo‘lishi lozim. Uchinchidan, texnologiyani pedagogik vazifalarga bo‘ysundirish muhim: ya’ni tizim baholash uchun emas, avvalo o‘rgatish, yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash uchun xizmat qilishi kerak.

Mazkur muhokamalar asosida aytish mumkinki, qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatish metodikasi faqat namoyish va taqlid bilan cheklanib qolmasligi zarur. U o‘quvchining ongli tahlilini, ko‘rgazmali qayta aloqani, takroriy mashqni, individual sur’atni va refleksiv faoliyatni o‘z ichiga olgan kompleks metodik tizimga aylanishi lozim. Bunda tanib olish texnologiyasi samarali didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi[2,6].

XULOSA

Qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u harakatning fazoviy-vaqt tuzilmasini idrok etish, tushunish va qayta bajarishni talab qiladi. Dinamik imo-ishoralarning ma’nosi faqat qo‘l holatida emas, balki trayektoriya, yo‘nalish, tezlik, ritm va fazalar ketma-ketligida namoyon bo‘lishi sababli, ularni o‘qitish metodikasi ham shu murakkab tabiatni hisobga olishi zarur[3].

Tadqiqot natijasida an’anaviy o‘qitish usullarining bir qator cheklovlari aniqlandi. Xususan, pedagog yoki tarjimonga yuqori darajadagi bog‘liqlik, qayta aloqaning yetarlicha aniq va ko‘rgazmali emasligi, o‘qitishni individuallashtirishdagi qiyinchiliklar hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining sust shakllanishi asosiy muammolar sifatida qayd etildi[6].

Dinamik imo-ishoralarni tanib olish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish ushbu muammolarni yumshatish imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘quvchiga obyektiv va tezkor qayta aloqa taqdim etadi, xatolarni aniqlash va tuzatishni osonlashtiradi, o‘qitish sur’atini individuallashtirishga yordam beradi hamda mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi[4,5,6]. Natijada o‘quvchilarning motivatsiyasi, ishonchi, amaliy ko‘nikmalari va ongli o‘zlashtirish darajasi oshadi.

Shunday qilib, qoraqalpoq tilidagi dinamik imo-ishoralarni o‘rgatishning metodik asoslari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: dinamik imo-ishoraning fazoviy-vaqt tuzilmasini o‘quv materiali sifatida tahlil qilish; ta’lim oluvchining vizual-fazoviy va motor qobiliyatlarini rivojlantirish; ko‘rgazmali va xolisona qayta aloqa tizimini joriy etish; o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘qitishni individuallashtirish va inklyuziv ta’lim tamoyillarini ta’minlash[3,5]. Mazkur jihatlar dinamik imo-ishoralarni tanib olish texnologiyalarini qoraqalpoq imo-ishora tilini o‘qitishda samarali metodik vosita sifatida baholashga asos beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva M.I., Juraev D.B., Ochilov M.M., Rakhimov M.F., Uzbek Speech Synthesis Using Deep Learning Algorithms. The 14th International Conference on Intelligent Human Computer Interaction, Springer, (LNCS,volume 13741), Tashkent – 2023, pp 39–50.

2.T. Jumaev, O. Toirov, B. Baburbek ″Obyektlarni Tanib Olishda Neyron tarmoqning o’rni‟ JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND STABILITY (JARS) Vol 1, No 06 681-684, 2021.

3. Mamatov, N., & Jalelova, M. (2023). Тасвир контрастини ошириш усули ва контраст баҳолаш мезон оптимал жуфтлиги. Digital transformation and artificial intelligence, 1(2), 158-167.

4.Пилявская И. М. Аналитический обзор применения технологий машинного обучения в финансовых ассистентах // Вестник науки и образования. 2022. № 4-2(124). С. 29–34. DOI: 10.24411/2312-8089-2022-10402.

5. Сааков Д. В. Применение методов машинного обучения для оптимизации производственных процессов в металлургической промышленности // Инновации и инвестиции. 2023. № 5. С. 308–311

6. К.К. Сеитназаров, Б.К. Туремуратова/ ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ / Новости образования: исследование в XXI веке 1 (1), 176-185

7. KK Seitnazarov. Dosımbetov AM, Aytanov AK/Strategy for Organization of Computational Experiments of the Functioning of Underground Water Inlets Using a Fuzzy

Multiple Approach // International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan – 2020 C 1-4

8. RN Usmanov, KK Seitnazarov. The problem of information model development for the relationship between hydrogeological object and its fuzzy-deterministic model // The Advanced Science Journal. USA - 2014. C. 67-73

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHDA KELIB CHIQADIGAN MUAMMOLAR

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.124

Irsaliyev Rustam Xudayqulovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika darslari individual va differensial metodlar yordamida tashkil qilishning pedagogik ahamiyati hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilib chiqilgan. O‘quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va psixologik holatini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, individual va differensial yondashuvni amaliyotga joriy etishda o‘qituvchilar duch kelayotgan tashkiliy, metodik va didaktik muammolar yoritilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, matematika ta’limi, individual metod, differensial metod, ta’lim muammolari, o‘quvchi faolligi.

Аннотация.В этой статье анализируются педагогическое значение и проблемы, возникающие в процессе организации уроков математики для учеников начальных классов с использованием индувидуальных и дифференцированных методов. Обосновывается необходимость организации обучения с учетом индивидуальных особенностей учащихся, уровня знаний и психологического состояниюю. Также были проанализированы организационные, методические и дидактические проблемы, с которыми сталкиваются учителя при внедрении индивидуального и дифференцированного подхода в практику, даны научно-методические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: начальный класс, математическое обучение, индивидуальный метод, дифференциальный метод, образовательные проблемы, активность учеников.

Abstract. This article analyzes the pedagogical significance of organizing mathematics lessons for elementary school students using induvidual and differential methods and the problems that arise in this process. The need to organize education taking into account the individual characteristics, level of knowledge and psychological state of students is justified. Also, the organizational, methodological and didactic problems faced by teachers in the implementation of individual and differential approaches in practice were highlighted, and scientific and methodological recommendations for their elimination were given.

Keywords: elementary school, mathematics education, induvidual method, differential method, educational problems, student activism.

Kirish. Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim pedagogik talab sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf matematika dars mashg’ulotlarida har bir o‘quvchining bilimni o‘zlashtirish sur’ati, mantiqiy fikrlash darajasi va qiziqishi turlicha bo‘lishi individual va differensial yondashuvni taqozo etadi [1,45].

Shu bilan birga, ushbu metodlarni amaliyotga joriy etish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolaga qo’yilgan asosiy maqsad — individual va differensial metodlar yordamida matematika dars mashg’ulotlarini o‘tkazishda kelib chiqadigan muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ilmiy asosda ko‘rsatib berishdan iboratdir [4,112].

Ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda darsning samaradorligi va o‘quvchilarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan baholash tizimining qanday tashkil etilganiga bevosita bog‘liq. Baholash faqatgina o‘quvchining bilim darajasini aniqlash vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. An’anaviy baholash tizimi uzoq yillar davomida o‘zining barqarorligi va amaliyotdagi qulayligi bilan e’tirof etilgan bo‘lsa-da, bugungi zamonaviy ta’lim standartlari va pedagogik yondashuvlar uni takomillashtirishni, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan shakllarga o‘zgartirishni talab qilmoqda [3,18]. Xususan, barcha o‘quvchilarga yagona mezon asosida baho qo‘yish usuli ularning individual farqlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Bu esa o‘z navbatida ba’zi o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishining susayishiga, o‘ziga ishonchning pasayishiga va ularning bilimli tengdoshlari bilan noto‘g‘ri solishtirilishiga olib kelishi mumkin.

Individual metod — har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari, bilish darajasi va o‘zlashtirish tezligini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat.

Differensial metod esa o‘quvchilarni bilim saviyasi, qobiliyati va tayyorgarlik darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratgan holda, ularga mos topshiriqlar berishni nazarda tutadi [8,56].

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ushbu metodlar quyidagilarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega: [9,32].

- ✓ hisoblash malakalarini rivojlantirish;
- ✓ mustaqil fikrlashni shakllantirish;
- ✓ sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash;
- ✓ iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Individual va differensial metodlarni qo‘llashda kelib chiqadigan muammolarni quyidagi jadval asosida ko‘rib chiqamiz:

Taqqoslash mezonlari	**Differensial yondashuv muammolari**	**Individual yondashuv muammolari**
Tashkiliy muammo	O‘quvchilarni guruhlarga ajratishda xatolikka yo‘l	Sinfdagi o‘quvchi sonining ko‘pligi, har biri uchun

	qo‘yish (masalan, “kuchli” va “kuchsiz” tamg‘asini bosib qolish).	alohida dars rejasi va topshiriq tayyorlashga vaqt yetishmasligi [7,14]
Psixologik to‘siq	Past o‘zlashtiruvchi guruhlarda motivatsiyaning tushib ketishi va “past tabaqalanish” hissi.	O‘quvchining jamoadan ajralib qolishi yoki faqat o‘qituvchi yordamiga bog‘lanib qolishi (mustaqillikning pasayishi).
Metodik qiyinchilik	Bir vaqtning o‘zida 3-4 xil darajadagi guruhni nazorat qilish va ularga mos material tanlash murakkabligi [2,78]	Har bir bolaning psixofiziologik holati (temperament, xotira turi) haqida chuqur bilimga ega bo‘lish talab etilishi.
Baholash muammosi	Turli darajadagi guruhlarni qanday qilib adolatli (yagona standart bo‘yicha) baholash masalasi.	Har bir o‘quvchi uchun shaxsiy rivojlanish mezonlarini belgilashdagi qiyinchiliklar.
Moddiy-texnik baza	Har xil guruhlar uchun alohida tarqatma materiallar va darsliklar yetishmasligi.	Shaxsiy gadjetlar yoki individual laboratoriya jihozlariga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi.

Ushbu metodik qiyinchiliklarni bartaraf etishda topshiriqlarni Bloom taksonomiyasi asosida darajalash maqsadga muvofiqdir [10, 210]. Biz quyida individual va differensial metodlarni qo‘llashda kelib chiqadigan muammolarning yechimlarini misollarda ko‘ramiz: O‘qituvchi doskaga bitta rasm chizadi yoki slayd ko‘rsatadi: “Daraxtda 12 ta olma bor, yerda esa 5 ta”.

O‘quvchi darajasi (Guruh)	**Topshiriqning “matematik hikoya!” ko‘rinishi**	**Kutilayotgan natija**
1-daraja (Tayanch)	Rasmdagi olmalar sonini oddiy misol ko‘rinishida yozing va hisoblang.	12 + 5 = 17 (Faqat hisoblash).
2-daraja (O‘rta)	Olmalar haqida bitta qisqa masala tuzing va unga teskari amal (ayirish) ishtirok etgan savol qo‘shing.	“Jami 17 ta olma bor. Agar 5 tasi yerda bo‘lsa, daraxtda nechtasi qolgan?” 17 - 5 = 12
3-daraja (Yuqori/Ijodiy)	Olmalar sonini taqqoslang, ularning	“Daraxtda yerdagiga qaraganda 7 ta ko'p olma

	farqini toping va yangi shart qo‘shing (masalan, “Yana 3 ta olma uzilsa...”).	bor. Yana 3 tasi tushsa, yerda 8 ta bo'ladi”

Bu metodning afzalligi:

1. Psixologik qulaylik: Hamma bir xil “Olmalar” mavzusida ishlayapti, hech kim o‘zini “chetda” qolgandek his qilmaydi.

2. Individual tezlik: Tez ishlaydigan bola 3-darajali murakkab mantiqiy savol ustida bosh qotiradi va darsda zerikmaydi.

3. Differensial yordam: O‘qituvchi 3-darajadagi bolalar mustaqil ishlayotgan vaqtda, 1-darajadagi o‘quvchilarga alohida tushuntirish berishga vaqt topadi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida individual va differensial usullardan foydalanish o‘qitish natijasini yaxshilaydi, ammo ularni qo‘llashda ayrim qiyinchiliklar ham uchraydi. Bu muammolarni ilmiy asosda bartaraf etish, o‘qituvchilarning o‘qitish bo‘yicha tayyorgarligini kuchaytirish va dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish orqali individual yondashuvning samarali bo‘lishiga erishish mumkin. Mazkur yondashuv har bir o‘quvchining o‘ziga xos intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Ushbu metodikani muvaffaqiyatli qo‘llash va kutilgan natijaga erishish quyidagi mezonlar orqali ta’minlanadi: Individual yondashuv o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, matematik tafakkur darajasi va xotira imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga tayanadi. Bu o‘quv jarayonida “yaqin rivojlanish zonasi” tamoyilini amalga oshirishga, ya’ni har bir bolaga o‘z kuchi yetadigan, ammo ma’lum intilishni talab qiladigan vazifalar berilishiga zamin yaratadi. Differensial o‘qitishning samaradorligi bevosita pedagogning diagnostik ko‘nikmalariga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quv materialini murakkablik darajasi bo‘yicha to‘g‘ri modellashtirishi, darsning har bir bosqichida (yangi mavzu bayoni, mustahkamlash, nazorat) har xil guruhlar uchun moslashuvchan metodlarni tanlay olishi shart. Individual yondashuv darsda vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va interfaol muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirish (reproduktiv, qisman-izlanishli va ijodiy darajalar) o‘quv motivatsiyasining pasayishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Matematika darslarida yuzaga keladigan ayrim metodik qiyinchiliklarni o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kuchaytirish va darsni ilmiy asosda loyihalashtirish orqali to‘liq bartaraf etish mumkin. Individual yondashuvning tizimli qo‘llanilishi nafaqat o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichini oshiradi, balki ularda mantiqiy fikrlash, mustaqillik va fanga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. Alimuhamedov N., Qodirova F. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. Davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim (1–4-sinflar) uchun matematika fani bo‘yicha DTS. – Toshkent, 2021.

4. Zunnunov A., Tursunov S. Pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. – Toshkent: Fan, 2019.

5. Klarin M.V. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Moskva: Pedagogika, 2017.

6. Lerner I.Ya. Didaktik asoslar va o‘qitish metodlari. – Moskva: Prosveshcheniye, 2016.

7. Usmonova M.B. Boshlang‘ich sinflarda differensial ta’limni tashkil etish masalalari. *Xalq ta’limi,* 2020 №4.

8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.

9. Shodmonov E. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish metodlari. – Toshkent, 2019.

10. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2015.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.125

Raxmatova Salima Togaymuradovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Kimyo-biologiya kafedrasi dotsenti p.f.f.d. (PhD)
Email: raxmatova2022@gmail.com
UDK: 371.14:37.011.3–051:57
ORCID: 0009-0009-8848-6706

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida immersiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Virtual (VR), kengaytirilgan (AR) va aralash (MR) reallik texnologiyalarining biologiya ta’limidagi o‘rni, ularning bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishga ta’siri, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati keng yoritiladi. Immersiv ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlari, didaktik tamoyillari, metodik komponentlari va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlari asoslab beriladi.

Shuningdek, maqolada biologiya fanining murakkab jarayonlarini vizual va interaktiv tarzda o‘rgatishda immersiv texnologiyalarning afzalliklari, ularning talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari immersiv texnologiyalar biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda yuqori didaktik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Ular nafaqat o‘quv jarayonini jonlantiradi, balki bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish va ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, immersiv texnologiyalar, biologiya ta’limi, metodik tayyorgarlik, virtual reallik, raqamli ta’lim muhiti, kasbiy kompetensiya.

Аннотация.В данной статье теоретически и практически комплексно анализируются дидактические возможности иммерсивных технологий в процессе подготовки учителей биологии в условиях цифровой трансформации. Широко освещается роль технологий виртуальной (VR), расширенной (AR) и смешанной (MR) реальности в биологическом образовании, их влияние на развитие методической подготовки будущих учителей биологии, значение в формировании профессиональных компетенций. Обоснованы педагогические возможности, дидактические принципы,

методические компоненты и механизмы внедрения в практику иммерсивной образовательной среды. Также в статье анализируются преимущества иммерсивных технологий в визуальном и интерактивном обучении сложным процессам биологии, их роль в формировании у студентов навыков самостоятельного мышления, решения проблемных ситуаций и научных исследований. Результаты исследования показывают, что иммерсивные технологии обладают высокой дидактической эффективностью в подготовке учителей биологии. Они не только оживляют учебный процесс, но и выступают важным фактором в укреплении профессиональных компетенций будущих педагогов, внедрении инновационных подходов в практику и повышении качества образования.

Ключевые слова: цифровая трансформация, иммерсивные технологии, биологическое образование, методическая подготовка, виртуальная реальность, среда цифрового образования, профессиональная компетенция.

Abstract. In this article, the didactic possibilities of immersive technologies in the process of training biology teachers in the context of digital transformation are theoretically and practically comprehensively analyzed. The role of virtual (VR), augmented (AR), and mixed (MR) reality technologies in biological education, their influence on the development of methodological training of future biology teachers, and their significance in the formation of professional competencies are widely covered. The pedagogical possibilities, didactic principles, methodological components, and mechanisms for implementing an immersive learning environment in practice are substantiated. The article also analyzes the advantages of immersive technologies in visual and interactive learning of complex biological processes, their role in forming students' independent thinking skills, problem-solving, and scientific research. The research results show that immersive technologies have high didactic effectiveness in the training of biology teachers. They not only revitalize the educational process but also serve as an important factor in strengthening the professional competencies of future teachers, introducing innovative approaches into practice, and improving the quality of education.

Keywords: digital transformation, immersive technologies, biological education, methodological training, virtual reality, digital education environment, professional competence.

KIRISH. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarga, jumladan, ta’lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy metodlarni qo‘llash orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, biologiya fanining mazmunan murakkabligi, biologik tizim va jarayonlarning ko‘p qirrali tabiati uni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

An’anaviy o‘qitish usullarida biologik jarayonlarni yetarli darajada vizuallashtirish, tajriba mashg‘ulotlarini to‘liq tashkil etish va murakkab tushunchalarni talabalarga tushuntirishda qator muammolar mavjud. Shu sababli, ta’lim jarayoniga immersiv

texnologiyalarni joriy etish biologiya ta’limining samaradorligini oshirish, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Immersiv texnologiyalar yordamida biologik obyektlar va jarayonlar uch o‘lchamli muhitda modellashtiriladi, virtual laboratoriyalar tashkil etiladi, talabalarning mustaqil izlanish va ijodiy faoliyati faollashtiriladi. Bu esa biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Raqamli transformatsiya – bu ta’lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tubdan yangilash, ta’lim mazmuni, shakl va metodlarini modernizatsiya qilish jarayonidir. Raqamli ta’lim muhitida masofaviy ta’lim, elektron platformalar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt va immersiv texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Biologiya ta’limida raqamli transformatsiya murakkab biologik jarayonlarni modellashtirish, ekologik tizimlarni virtual muhitda tahlil qilish, mikroskopik obyektlarni vizuallashtirish va tajribalarni simulyatsiya qilish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, G. Siemens va S. Downes raqamli ta’lim muhitida **konektivizm nazariyasi**ni ilgari surib, bilim olish jarayoni tarmoqli va texnologiyaga bog‘liq ekanligini asoslab bergan. Ularning fikricha, zamonaviy o‘qituvchi raqamli muhitda ishlash kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur.

J. Lave va E. Wenger tomonidan ishlab chiqilgan **situativ o‘rganish nazariyasi** esa bilim real muhitga yaqin sharoitlarda samarali o‘zlashtirilishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv immersiv texnologiyalarning pedagogik ahamiyatini asoslashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Immersiv texnologiyalarni ta’limga joriy etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda M. Radianti va hamkorlari (2020) virtual reallikdan foydalanish o‘quvchilarning tushunish darajasini oshirishini ta’kidlaydi. Ularning tahliliga ko‘ra, VR texnologiyalari ayniqsa tabiiy fanlar, jumladan biologiyani o‘qitishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

D. Makransky va G. Petersen (2019) o‘z tadqiqotlarida immersiv muhit o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi bilan birga, ortiqcha kognitiv yuklama ham keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etadi. Shu sababli immersiv texnologiyalarni didaktik jihatdan to‘g‘ri loyihalash zarurligi ta’kidlanadi.

Biologiya ta’limida immersiv texnologiyalarni qo‘llash masalalari A. Makransky, R. Mayer kabi olimlar tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, ular vizualizatsiya va interaktivlikning o‘quv jarayonidagi rolini yoritib bergan. R. Mayerning multimedia o‘qitish nazariyasiga ko‘ra, vizual va audio axborot uyg‘unligi bilimni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham raqamli texnologiyalar asosida o‘qituvchilarni tayyorlash masalalari o‘rganilgan. Jumladan, O‘zbekiston olimlari pedagogik ta’limda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, biologiya

o‘qituvchilarini tayyorlashda virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar muhim didaktik vosita hisoblanadi.

Shuningdek, UNESCO (2018) hisobotida o‘qituvchilarning **raqamli kompetensiyalari**ni rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Hisobotda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘qitish sifatini oshirishi qayd etiladi.

METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda immersiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va baholash maqsad qilingan.

Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogikaning tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlari tashkil etadi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitini shakllantirishga doir nazariy qarashlar ham metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil metodlari** – ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish orqali immersiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari aniqlab olindi.
- **Taqqoslash metodi** – an’anaviy o‘qitish usullari bilan immersiv texnologiyalar asosidagi o‘qitish samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi.
- **Pedagogik kuzatuv** – biologiya darslarida virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni qo‘llash jarayoni kuzatilib, ularning o‘quvchilar faolligi va bilim o‘zlashtirishiga ta’siri o‘rganildi.
- **So‘rovnoma va anketa metodi** – bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari va talabalar o‘rtasida o‘tkazilib, ularning immersiv texnologiyalarga munosabati, qiziqishi va foydalanish darajasi aniqlab olindi.
- **Pedagogik tajriba-sinov** – tadqiqot davomida eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etilib, immersiv texnologiyalar asosida o‘qitish samaradorligi amaliy jihatdan tekshirildi.
- **Statistik tahlil metodlari** – olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning ishonchliligi ta’minlandi.

Tadqiqot bazasi sifatida pedagogika oliy ta’lim muassasalari tanlandi. Tadqiqotda biologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda bo‘lajak o‘qituvchilar ishtirok etdi.

Immersiv texnologiyalar – bu foydalanuvchini sun’iy yaratilgan virtual muhitga to‘liq jalb etish orqali bilimlarni chuqur va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar majmuasidir. Ular quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

Virtual reallik (VR) – sun’iy muhitda to‘liq ishtirok etish;

Kengaytirilgan reallik (AR) – real muhitga virtual obyektlarni qo‘shish;

Aralash reallik (MR) – real va virtual muhitning uyg‘unlashuvi.

Mazkur texnologiyalar biologiya fanida hujayra tuzilishi, anatomik obyektlar, genetik jarayonlar va ekologik tizimlarni jonli va interfaol tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Immersiv texnologiyalarning biologiya ta’limidagi didaktik imkoniyatlari

Immersiv texnologiyalar biologiya ta’limida quyidagi muhim didaktik imkoniyatlarga ega:

1. Vizuallashtirish va modellashtirish

Murakkab biologik jarayonlarni uch o‘lchamli modellar orqali ko‘rsatish orqali ularni tushunishni osonlashtiradi.

2. Virtual laboratoriyalar

Xavfli, qimmat yoki murakkab tajribalarni virtual muhitda takroran va xavfsiz bajarish imkonini beradi.

3. Faollik va motivatsiyani oshirish

Interfaol muhit talabalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini kuchaytiradi.

4. Individual ta’lim trayektoriyasi

Talabalar o‘z qiziqishi va bilim darajasiga mos holda ta’lim oladi.

5. Kompetensiyaviy yondashuv

Kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni integratsiyalash orqali kompetensiyalar shakllanadi.

NATIJALAR

Biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida immersiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ularning metodik tayyorgarlikka ta’sirini baholash.

Tadqiqot vazifalari

immersiv texnologiyalarning nazariy asoslarini o‘rganish;

biologiya ta’limidagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

tajriba-sinov asosida samaradorligini baholash;

metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, test, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida biologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar.

Tajriba-sinov ishlari davomida biologiya fanini immersiv texnologiyalar asosida o‘qitish samaradorligi o‘rganildi. Tajriba guruhida virtual laboratoriyalar, VR modellar va AR ilovalardan foydalanildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

bilimlarni o‘zlashtirish darajasi 38–42 % ga oshdi;

metodik kompetensiyalar 30–35 % ga rivojlandi;

talabalarning o‘quv motivatsiyasi 45 % ga ko‘tarildi.

Bu natijalar immersiv texnologiyalar biologiya ta’limida yuqori didaktik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, immersiv texnologiyalar biologiya ta’limida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Talabalar murakkab biologik tushunchalarni osonroq anglaydi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Immersiv muhitda tashkil etilgan mashg‘ulotlar bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining dars loyihalash, metodik rejalashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda immersiv texnologiyalar:

ta’lim samaradorligini oshiradi;

metodik tayyorgarlikni yangi bosqichga olib chiqadi;

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi;

talabalarning motivatsiyasi va ijodiy faolligini kuchaytiradi.

Shu bois, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida biologiya ta’limiga immersiv texnologiyalarni tizimli joriy etish, virtual laboratoriyalar yaratish va raqamli resurslarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

1-jadval. Immersiv texnologiyalarning biologiya ta’limidagi didaktik imkoniyatlari

Didaktik yo‘nalish	Mazmuni	Pedagogik samarasi
Vizuallashtirish	Biologik obyekt va jarayonlarni 3D modellashtirish	Murakkab tushunchalarni tez va aniq o‘zlashtirish
Virtual laboratoriyalar	Tajribalarni virtual muhitda bajarish	Xavfsizlik, tejamkorlik, takrorlash imkoniyati
Interfaollik	Talabalar faol ishtirokini ta’minlash	Faollik va motivatsiyaning oshishi
Individual ta’lim	Shaxsiy o‘rganish trayektoriyasi	Mustaqil o‘rganish va refleksiya
Kompetensiyaviy rivojlanish	Bilim, ko‘nikma, malaka integratsiyasi	Kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi

2-jadval. Immersiv texnologiyalar asosida metodik tayyorgarlik komponentlari

Komponent	Tavsifi	Natija
Kognitiv	Nazariy bilimlar majmuasi	Ilmiy bilimlarning chuqurlashuvi
Amaliy	Virtual tajriba va mashg‘ulotlar	Metodik ko‘nikmalarning rivojlanishi
Motivatsion	Qiziqish va faollik	Ta’limga ijobiy munosabat
Refleksiv	O‘z faoliyatini baholash	Kasbiy o‘sish
Kreativ	Innovatsion yondashuv	Ijodiy fikrlash

3-jadval. Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich daraja (%)	Yakuniy daraja (%)	O‘sish (%)
Bilim darajasi	52	91	+39
Metodik kompetensiya	48	80	+32

Motivatsiya	55	100	+45
Mustaqil ishlash	50	83	+33
Kreativ fikrlash	47	78	+31

Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, immersiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan biologiya mashg‘ulotlari talabalarning bilim darajasi, metodik kompetensiyasi, motivatsiyasi va kreativ fikrlashini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar va VR modellar orqali o‘qitish jarayonida talabalar murakkab biologik jarayonlarni chuqur o‘zlashtirishga erishadi. Jadval va diagrammalar tahlili immersiv texnologiyalar biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.

2. Downes, S. (2012). *Connectivism and Connective Knowledge: Essays on meaning and learning networks*. National Research Council Canada.

3. Lave, J., & Wenger, E. (1991). *Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation*. Cambridge University Press.

4. Radianti, J., Majchrzak, T. A., Fromm, J., & Wohlgenannt, I. (2020). *A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education*. Education and Information Technologies, 25(6), 1–38.

5. Makransky, G., & Petersen, G. B. (2019). *Immersive virtual reality and learning: A meta-analysis*. Educational Psychology Review.

6. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.

7. UNESCO (2018). *ICT Competency Framework for Teachers*. UNESCO Publishing.

8. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2015). *NMC Horizon Report: 2015 Higher Education Edition*. Austin, Texas: The New Media Consortium.

9. Azimov, Y., & Yo‘ldoshev, J. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

10. Tolipov, O‘., & Usmonboyeva, M. (2017). *Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari*. Toshkent.

11. Ishmuhamedov, R. (2018). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Toshkent.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2020). *Ta’lim tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. Toshkent.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

OILA VA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHIT INTEGRATSIYASI KASB TANLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.126

Rashidova Madina Raxmatovna
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti
rashidovamadina35@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada oila va ijtimoiy-ma’naviy muhit integratsiyasining yoshlar tomonidan kasb tanlash jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Oiladagi ma’naviy muhit, ota-onalarning farzand tarbiyasiga munosabati, oilaviy qadriyatlar va an’analarning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, mahalla va jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning yoshlarning kasbiy yo‘nalishini belgilashdagi roli, ularning erkin va ongli kasb tanlashlariga ko‘maklashuvchi omillar tizimli ravishda o‘rganilgan. Ishda oila va ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligi, ularning yagona tarbiyaviy ta’sir mexanizmi sifatida kasb tanlashga qanday yo‘nalish berishi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, ijtimoiy-ma’naviy muhit, integratsiya, kasb tanlash, yoshlar, oilaviy qadriyatlar, tarbiya, kasbiy yo‘nalish, mahalla, jamiyat, ma’naviyat.

Аннотация.В данной анализируется влияние интеграции семьи и социально-духовной среды на процесс выбора профессии молодежью. Освещена роль духовной атмосферы в семье, отношения родителей к воспитанию детей, семейных ценностей и традиций в формировании мировоззрения молодежи. Также системно изучена роль социально-духовной среды в махалле и обществе в определении профессиональной направленности молодежи, а также факторы, способствующие их свободному и осознанному выбору профессии. В работе освещены вопросы взаимодействия семьи и социальной среды, того, как их единый воспитательный механизм направляет выбор профессии.

Ключевые слова:семья, социально-духовная среда, интеграция, выбор профессии, молодежь, семейные ценности, воспитание, профессиональная ориентация, махалля, общество, духовность.

Annotation. This work analyzes the influence of the integration of the family and the socio-spiritual environment on the process of young people's professional choice. The role of the spiritual atmosphere in the family, the attitude of parents towards the upbringing of children, family values and traditions in shaping the worldview of young people is highlighted. The role of the socio-spiritual environment in the community and society in determining the professional direction of young people, as well as the factors that contribute to

their free and conscious choice of profession, are systematically studied. The work covers the issues of interaction between the family and the social environment, and how their unified educational mechanism directs the choice of profession.

Key words: Family, socio-spiritual environment, integration, career choice, youth, family values, upbringing, professional orientation, society, spirituality.

Kirish. Bugungi globallashuv va innovatsion rivojlanish sharoitida yosh avlodning ongli va asosli kasb tanlashi jamiyat taraqqiyotining ustuvor omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kasbiy tanlov shaxsning kelajakdagi hayot yo‘lini belgilab beruvchi muhim bosqich bo‘lib, uning ijtimoiy faolligi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi hamda o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini ta’minlaydi. Mazkur jarayon shaxsning individual qobiliyat va qiziqishlari bilan bir qatorda, uni o‘rab turgan oilaviy, ijtimoiy va ma’naviy muhit ta’sirida shakllanadi.Oilaviy muhit shaxs kamolotining ilk va eng muhim ijtimoiy makoni bo‘lib, unda farzandning qadriyatlari, hayotga bo‘lgan munosabati hamda kasbga nisbatan qarashlari shakllanadi. Ota-onaning kasbiy tajribasi, tarbiyaviy pozitsiyasi, oiladagi psixologik muhit va ma’naviy qadriyatlar yoshlarning kasbiy yo‘nalishini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-ma’naviy muhit – ta’lim muassasalari, tengdoshlar jamoasi, ommaviy axborot vositalari va jamiyatdagi ijtimoiy talablar yoshlarning kasbiy tanloviga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.Hozirgi davrda ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim muassasalari, oila va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali yoshlarning kasbiy o‘zini anglashini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, kasbiy tanlovda oilaviy va ijtimoiy-ma’naviy muhit omillarining integrativ ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqot xulosalarida keltirilishicha yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ularni qobiliyatiga mos ravishda biror mutaxassislik sari to‘g‘ri tanlovni amalga oshirishida ta’lim-tarbiyaning ilk davri (3-10 yoshlar oralig‘i) alohida o‘rin tutadi.Shu davrga mos ravishda tanlov to‘g‘ri amalga oshirilsa va davomiy rivojlantirib borishga erishilsa, kelajakda pozitiv ruhdagi natijalar beradi. Bu borada U.Boyzaqova shunday mulohaza yuritadi, tarbiya tizimlashtirilgan harakatlar majmui hisoblanib, uni barqarorligi ijtimoiy-ma’naviy muhitga bevosita bog‘liqdir. Agarda bola boshqaruv samarali modellashtirilsa, bunda birinchi navbatda tarbiya mexanizmi to‘g‘ri tanlansa, uni harakatlantiruvchi kuchlar nisbati topilsa, ya’ni tarbiya jarayonidagi bola faoliyati, uni ijtimoiy-ma’naviy tarbiyasi inobatga olinsa, qilinayotgan tadbirlar natija beradi. [1]

Tadqiqotchi kasbiy tanlovda yoshga doir xulosalarni shunday umumlashtiradi: “Ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar va pedagogik faoliyat ijtimoiy-ma’naviy muhitni tashkil etishi, uning mexanizmlarini asoslashi, kasbiy faoliyat jarayonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan ziddiyalarni yuzaga kelmasligi uchun oila jamoasi tomonidan belgilangan ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq maqsadlarni o‘z vaqtida, sifatli

va uzluksiz amalga oshirilishi” [2] maqsadga muvofiq sanaladi. Bundan ko‘rish mumkinki, kasbiy tanlovda oila tomonidan beriladigan tarbiyaviy ta’lim muhim hisoblanadi.

Adabiyot tahlili. Oila muhiti kasbiy tanlovda dominant ahamiyat kasb etib, unda bola kelajagi uchun birlamchi kriteriyalar shakllanadi. Shu o‘rinda S.X.Asilova, M.Ibrohimovalarning ilmiy tadqiqot xulosasi e’tiborni tortadi. Ular “inson hayotida eng muhim qadryatlar bu – hayotda o‘z o‘rnini topa olishi, munosib kasb-korga ega bo‘lishidir deb, har bir ota-ona o‘z farzandini kelajagini o‘ylagan holda munosib hayot o‘rnini egallashi, yurt uchun xalq uchun foydasi tegadigan yetuk mutaxassis bo‘lishini istaydilar. Bu esa, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-hunarni egallashi, davlatimiz rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shib, yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon qilishi, ya’ni shaxs sifatida kamol topishi, komillika intilishi hisobga olinadi.

Kasbiytanlovningyoshgadoirxususiyatlarinipedagogiktahliletganolimlardan irlandiyalik Elizabet Danfiningilmiyxulosalarie’tibornitortadi. U bolalarning qarashlari, tashvishlari va qiziqishlari birnuqtagajamlanganda – kasbiyqiziqishshakllanaboshlaydidegangipotezaniilgarisuradi.

Yoshlarni mehnatga chorlovchi bilimlar majmui bilan qurollantirib, o‘zi va jamiyat uchun foydali mehnat malakasiga o‘rgatadi. Zero, A.S.Makarenko bejiz aytmagan edi: “Pedagogika – bu bola shaxsini shakllantirish vositasidir”[3], u orqali shaxsiy fazilatlar rivojlanib, katta hayotga bo‘lgan intilish va ishonch ortadi.

Kasbiy tanlovni amalga oshirishda 10-17 yoshlar oralig‘i fundamental bosqich hisoblanib, bolaning 3-10 yoshlarida kasbiy bilim borasida olgan tarbiyaviy o‘gitlari 10-17 yoshda belgilangan tartibdagi kasbiy ko‘nikma uchun asos vazifasini o‘taydi. Bu davrda umumkasbiy ta’limga urg‘u berilib, bolani kelajagi haqidagi taassurotlarini kengaytiradi. Ya’ni, 3-10 yosh oralig‘ida shakllangan kasbga bo‘lgan qiziqishlari ilmiy-nazariy jihatdan ma’lum darajada baholanib, keyinchalik kasbiy o‘zgarishni amalga oshirish yoki oshirmaslik qarorini tasdiqlab, turg‘un holda shakllanib kelgan fikrlarni tartibga solishga, aniq maqsadli harakatlarni rejali bajarishida ko‘mak beradi.

Yoshlarning aniq mutaxassislik bo‘yicha qiziqishlari 10-17 yosh atrofidagi davrga to‘g‘ri kelib, bu bosqichda ota-ona, murabbiy o‘qituvchilar, kerak bo‘lsa butun jamiyatning mas’uliyati u yoki bu darajada bolaning kasbiy tanloviga ta’sir etadi. Chunki, 10-17 yosh o‘rtalig‘ida bola bir nechta jarayonlarni boshdan kechiradi. Xususan, garmonologik, fiziologik, ruhiy emotsional, aqliy, ma’naviy, madaniy va jismoniy o‘zgarishlar bolaning o‘tish davrini belgilab berib, uning ta’sirchanligini oshirib boradi. Agarda shu vaqt mobaynida bolaga tarbiyaviy ta’limni to‘g‘ri va tadrijiy berish tizimi yo‘lga qo‘yilmasa, uzilishlar, kemtiklar, noqisliklar yuzaga kelib, shaxsning kelajakdagi kasbiy malakasiga jiddiy ta’sir etishi mumkin. Demak, kasbiy tanlovni kristallashgan qismi aynan shu vaqt oralig‘ida kechib, bolani kasbiy tanlovni oqilona tanlashiga olib keluvchi barcha omillar inobatga olinishi zarur.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz islohotchiligida maktabgacha-maktab-oliy ta’lim” uzviyligini ta’minlash, ular o‘rtasidagi funksional integratsiyani kengaytirish borasida ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan

maktabgacha, maktab va oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlanishi fikrimizga dalildir.

Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilab qo‘yilgan: “maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish; ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirish tizimini joriy etish; maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me’yorlar va standartlarni implementatsiya qilish” vazifalar 3-10 yoshlar o‘rtasidagi bolalarni bo‘lajak kasbiy kommunikativ kompetensiyasini belgilab olishda konstruktiv ahamiyat kasb etayotgan bo‘lsa, ***xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida***belgilab berilgan quyidagi vazifalar 10-17 yosh oralig‘ida ta’lim oluvchi yoshlarning kasbiy kompetensiyasini fundamental qaror topishida dominant omil bo‘lishi kutilmoqda. Demak, ushbu maqsadli vazifalarga “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

– xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

– yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

– ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko‘zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish”[4] kabi vazifalar kirib, ularni yangi talab va takliflar asnosida modernizatsiya qilish bo‘yicha aniq rejalar belgilab olindi. Bu birinchidan yoshlarni ilmiy salohiyatini oshirishga, ularni kasbiy tanlovga yo‘naltirishda, ma’lum mutaxassislik bo‘yicha aniq bilim va ko‘nikmani shakllantirishda muhim qadam hisoblanadi. Ikkinchidan, davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar yoshlarga motivatsion ruh bag‘ishlab, ularni kasbiy tanlovda yanada mas’uliyat bilan yondashishiga undaydi.

Natijalar va muhokama

Yoshlarni ma’lum bir kasbiy tanlovga tayyorlashda umumiy ta’lim muhitining o‘ziga xos pedagogik aspektlariga quyidagilar kiradi:

birinchisi, tarbiyaviy yondashuv orqali metodik qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni kasbiy tanlovida muhim qaror hisoblanadi. Masalan, ota-onalar tomonidan kasb haqida berilgan birlamchi ma’lumotlar bazasi bolada kasbiy qiziqishlarni shakllantiradi;[5]

ikkinchisi, umumiy o‘rta ta’limda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi subyekt, balki shaxsiy sifatlarni baholovchi obyekt ham hisoblanishi kerak. Chunki, maktab bolani kasbga yo‘naltirishga ixtisoslashgan universal tizim hisoblanadi;

uchinchisi, kasbiy bilim va ko‘nikma, avvalo mehnat bozorining talab-istaklaridan kelib chiqishi, yoshlarni usha yo‘nalishlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlari inobatga olinishi, masalan

shu kasbning jamiyatdagi istiqbolli kelajagi yoki migratsion ko‘chishlar vaqtida undan foydalanish ko‘rsatkichlari va boshqa kriteriyalarga javob berishi zarur;

to‘rtinchisi, zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari orqali kasbiy tanlov targ‘ibotini muntazam olib borish zarur. Chunki, hozirgi yoshlar kitob, gazeta yoki jurnal o‘qishdan ko‘ra – gadjetlardan foydalanishni avfzal ko‘rmoqda. Demak, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar orqali kasbiy kompetensiya ma’lumotlarini sodda va ommabop shaklda taqdim etib borish, bolalar qiziqishiga mos ko‘rsatuvlar, ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega video, audio kontentlarni joylashtirish bolaning ma’lum qobiliyatiga ta’sir etib, keyinchalik shu kasbga bo‘lgan rag‘batini oshishiga xizmat etadi;

beshinchisi, 10-17 yosh oralig‘idagi yoshlarda dunyoviy qiziqish, kasbiy qobiliyat, unga intilish kuchli bo‘lib, ular odatda yuqori temperamentda qabul etiladi. Shu vaqt oralig‘ida bolani kelajakdagi kasbga yo‘naltirishda pedagog asosiy drayver hisoblanib, tom ma’noda bola kelajagi uning yondashuviga bog‘liq bo‘lib qoladi. Masalan, bola matematika fanini chuqur o‘zlashtirishga qobiliyati bor, ammo matematika o‘qituvchisini yomon ko‘radi, u bilan umuman kelisha olmaydi. Bunday holatda, bolani matematika o‘qituvchisini o‘zgartirish imkoni bo‘lmasa, oqibat shu bo‘ladiki, bola matematikani umuman tushunmaydigan bo‘lib qoladi. Demak, kasbiy tanlovda pedagogik yondashuv birlamchi omildir.[6]

17-25 yoshli davrga nisbatan yoshlarga pedagogik ta’limni qanday shaklda yetkazish maqsadga muvofiq keladi? Shunisi aniqki, yoshlarni 17-25 yoshdagi davri shartli mustaqil bosqich hisoblanib, ular ma’lum kasbiy ko‘nikmaga erishgan, uni mustahkamlash ustida izlanish olib borayotgan davr hisoblanadi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, bola uchun balog‘at yoshi deb qaraladigan bu davrda quyidagi shaxsiy xususiyatlar qaror topadi:[6]

– bir kasbga alohida qiziqish bildirib, u bilan muntazam shug‘ullanish;

– o‘zi tanlagan kasbga sodiqligini isbotlashga harakat qilish, u bilan bog‘liq har qanday cheklovlarni qabul qilmaslik;

– pedagog o‘qituvchilar berayotgan bilim va ko‘nikmani qiyosiy tahlil etib, taqdim etilayotgan ta’limni kerak yoki uncha zarur emas xulosalari ostida baholash;

– o‘z qiziqishlariga mos kelmaydigan qarashlarga passiv munosabat bildirib, undan qochish, ya’ni egoizimga moyillikni oshishi, jizzakilik qilib, o‘qituvchi ustozlarga munosabatini o‘zgartirish;

– o‘zi qiziqqan kasbini o‘rganish, uni yanada chuqurroq anglash uchun doimiy mashg‘ulotlarga band bo‘lish va boshqa omillar muqumiylik kasb etadi.

Kasbiy tanlovda 17-25 yosh davriyligini shartli ravishda uch qismga bo‘lib o‘rganish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi:

*Birinchisi,**pedagogik yondashuv.*** Bu yo‘nalishda o‘quvchining qobiliyati, qiziqishlari, orzu-istaklari hamda oliy maqsadi o‘rganiladi. Asosiy ko‘rsatkichlar sifatida psixologik tahlil, axborot uzatish, turli kasblar haqida ma’lumotlar taqdim etish, ularni rivojlantirish hamda ma’lum ko‘nikmaga qaratilgan kasbiy motivatsiya berish nazarda tutiladi.

*Ikkinchisi,**psixologik yondashuv.***Bunda kasbga doir psixologik aspektlar ko‘rib chiqilib, bolaning shaxsiy temperamenti, ya’ni sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik

xususiyatlarini tadqiq etish nazarda tutilib, oqibat – bolani shu kasbga mos kelishi yoki kelmasligi ko‘rib chiqiladi.

Uchinchisi, sotsiologik yondashuv. Bu qismda bolaning kasb tanlashdagi qarorlari jamiyatdagi talab va urf-odatlarga qay darajada mos kelishi, masalan yoshlarni muallimlik yoki shifokorlik kasbini tanlashida ular shu kasbni qadrli hisoblashi natijasimi yoki tanlov imkoniyatining yo‘qligimi!?[7] Bu kabi savollar ostida yoshlarning kasbiy potensialini aniqlash bosh maqsad etib belgilanadi. Demak, ko‘rishimiz mumkinki, kasbiy tanlov ko‘p tarmoqli xarakterga ega bo‘lib, uni to‘g‘ri tanlash ma’lum bosqichlardan o‘tishni talab etadi. Ularning umumiy strukturasiga ko‘ra quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin

Xulosa o‘rnida keltirib o‘tiladigan bo‘lsa, yoshlarni kasbiy tanlovga yo‘naltirish komplekslashgan tizimda ishlashni, harakatlar o‘rtasidagi funksional aloqadorlikni taqozo etadi. Kasbiy tanlovni yoshlar qabul qilishi kerak bo‘lgan shaxsiy qaror sifatida emas, balki jamiyatning barcha ijtimoiy bo‘g‘inlarida birdek mas’uliyatda munosabat bildirishi zarur hisoblangan majburiyat sifatida baholash kerak.

Yuqorida masalaning ushbu jihatlari ko‘rib chiqilgan tadqiqot natijalari asnosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni bayon etamiz:

Birinchidan, talaba yoshlarni kasbiy potensialini belgilashda ijtimoiy pedagogik atributlari ikki guruhga bo‘lingan holda tashkillashtirilsa, o‘zining kutilgan natijasini beradi. Birinchisida kasbiy kompetensiyaning individualligi hisobga olinib, oddiylikdan umumiylik sari olib boruvchi mexanik richaglar ajratib olinadi. Ikkinchisida, psixologik o‘zgarishlarni baholab boruvchi ijtimoiy tizim barpo etilganda ijtimoiy hayotning barcha qatlamini mustahkamlashda konstruktiv xarakter kasb etadi. Xususan, ijtimoiy muhit, oilaviy qadriyatlar va hok.

Ikkinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy kasb mutaxassisliklari bo‘yicha ilmiy-nazariy manbalar bankini yaratib, yoshlarni qiziqtirish metodikasi asosida ilmiy-amaliy ko‘nikmani shakllantiruvchi potensial imkoniyatlarni ishga solish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, o‘tish davri ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida ta’limga taraqqiyot drayveri sifatida qarash, uning darajasiga tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat o‘rtasidagi integratsion bog‘lanishni topish, kasbiy tanlovga olib boruvchi pozitiv yo‘l bo‘lib, bu jahon miqiyosidagi yutuqlarini ommalashgan shaklidir. Shu orqali ma’lum kasbga nisbatan yoshlar qiziqishini orttirish mumkin.

To‘rtinchidan, zamon talabi shuki, yoshlarni kasbga yo‘naltirishning subyektiv mexanizmi hisoblangan pedagog kadrlarning obro‘-e’tibori, mas’uliyati va kasb ko‘nikmasini oshirish yuzasidan ko‘rsatmalar ishlab chiqish, bu borada davlat siyosatini yanada takomillashtirish, sohaga ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ta’limning yangi shakl va uslublarini olib kirish, dasturiy ta’minotda kuzatiladigan muammolarni joyida konstruktiv hal etishga qaratilgan differensial yondashuvni joriy etish zarurat bo‘lib qolmoqda.

Beshinchidan, har qanday kasbiy kompetensiya o‘zining ijtimoiy pedagogik ahamiyatiga ko‘ra shaxs kamolotiga, uning ehtiyojlariga xizmat etishi kerak. Buning uchun

shu kasbga bog‘liq holda moddiy va ma’naviy manfaatdorlik, ijodiy rivojlantirish, zamonaviy bilimlar, iqtisodiy ne’mat ko‘rsatkichlari birlashgan holda qabul etilishiga erishish zarur.

Adabiyotlar:

1. Бойзақова У.А. Умумий ўрта таълим мактабларида ижтимоий маънавий муҳитни ташкил этиш ва бошқариш–сифатли таълим асоси // Academic research in educational sciences. 2023. –Т. 5. №. NUU conference 3. –Б. 223-231

2.Чмелёва Е.В. Интерпретация педагогики макаренко в современную эпоху // Теологический вестник Смоленской Православной Духовной Семинарии. 2017. №. 3-2 (3). – С. 35-43

3. Xatamboyevna A. S., Muslimaxon I. Maktab o ‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarni aniqlashda psixolog roli // University Research Base. 2024. –B. 113-116

4. Тожиев М., Зиёмуҳаммадов Б. Миллий педагогик технологиянинг таълим-тарбия жараёнига татбиғи ва уни ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни. – Т.: «MUMTOZ SO’Z», 2010. – Б.110-114

5.Dunphy E. Children's participation rights in early childhood education and care: The case of early literacy learning and pedagogy // International Journal of Early Years Education. 2012. – Т. 20. №. 3. – P. 290-299

6.https://lex.uz/uz/docs/4327235

7. https://lex.uz/docs/4312785

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ROBOTOTEXNIKA DARSLARIDA TEXNIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.127

Nizomiy Nomidagi O‘zMPU
Professional va sa’nat fakulteti Texnologiy va professional ta’lim metodikasi dosenti kafedrasi Baltabayev Salimbay Akramovich
Professional va sa’nat fakulteti Texnologik ta’lim yo’nalish 2-kurs magstranti
Mahmudov Diyorbek Bozorboy o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada robototexnika darslarida o'quvchilarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishning zamonaviy metodlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida loyiha asosida o'rganish, muammoli ta'lim va STEM/STEAM yondashuvlarining robototexnika qurilmalarini yaratish va dasturlash jarayoniga integratsiyasi o'rganilgan. Natijalar ko'rsatadiki, kompleks metodik yondashuv o'quvchilarning ijodiy va muhandislik tafakkurini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: texnik ijodkorlik, robototexnika, loyiha asosida o'rganish, STEM ta'lim, muhandislik tafakkuri, qurilma dasturlash, kreativlik, innovatsion ta'lim metodlari.

Аннотация.В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются современные методы развития технического творчества учащихся на уроках робототехники. В рамках исследования изучена интеграция проектного обучения, проблемного обучения и подходов STEM/STEAM в процесс создания и программирования робототехнических устройств. Результаты показывают, что комплексный методический подход значительно повышает творческое и инженерное мышление учащихся.

Ключевые слова: техническое творчество, робототехника, проектное обучение, STEM-образование, инженерное мышление, программирование устройств, креативность, инновационные методы обучения.

Abstract. This article analyzes, from a scientific-pedagogical perspective, modern methods for developing technical creativity in students during robotics lessons. The study examines the integration of project-based learning, problem-based learning, and STEM/STEAM approaches into the process of creating and programming robotic devices. Results indicate that a comprehensive methodological approach significantly enhances students' creative and engineering thinking.

Keywords: technical creativity, robotics, project-based learning, STEM education, engineering thinking, device programming, creativity, innovative teaching methods.

KIRISH.Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish, ularda muhandislik va ijodiy tafakkurni shakllantirishga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda [1]. Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, robototexnika fani maktab va oliy ta'lim dasturlariga kirib kela boshladi.

Robototexnika darslarida o'quvchilar nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarni egallaydilar, balki ularning ijodiy tafakkuri, muammo hal qilish qobiliyati va jamoa bo'lib ishlash malakasi ham rivojlanadi [2]. Biroq, an'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha o'quvchilardagi ijodiy salohiyatni to'liq ochib bera olmaydi. Bu esa zamonaviy, innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — robototexnika darslarida texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni tizimli tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari ta'lim sohasidagi pedagoglar, ilmiy-tadqiqotchilar va ta'lim siyosatini shakllantirishda qaror qabul qiluvchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Texnik ijodkorlik tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlari kesishmasida turadi. Torrance (1974) ijodkorlikni muammolarni his qilish, taxminlar bildirish, ularni sinovdan o'tkazish va natijalarni etkazish qobiliyati sifatida ta'riflagan [4]. Zamonaviy tadqiqotchilar bu ta'rifni texnik sohaga moslashtirgan holda, texnik ijodkorlikni yangi va amaliy qimmatga ega texnik yechimlarni yaratish qobiliyati deb belgilaydilar.

Resnick (2017) «ijodiy o'rganish spirali» nazariyasini asoslab, o'quvchilar tasavvur qilish, yaratish, o'ynash, ulashish va aks ettirish bosqichlarini doimiy ravishda takrorlash orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirishi mumkinligini isbotlagan [5]. Ushbu nazariya robototexnika ta'limida ayniqsa dolzarb bo'lib, o'quvchilar real vaqtda o'z qurilmalarini loyihalash, qurish, sinash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bers (2018) robototexnikani «ijodiy muhit» sifatida ta'riflagan va bu muhitda o'quvchilar texnik bilimlarni o'zlashtirib, bir vaqtning o'zida o'zlarini ifoda etish imkonini topishlarini ta'kidlagan [6]. Papert (1980) konstruktivizm nazariyasiga asoslangan holda, o'quvchilar passiv emas, balki aktiv bilim quruvchilari ekanligini asoslagan.

Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi tadqiqot metodlari tanlandi: kuzatuv, so'rovnoma, pedagogik eksperiment, taqqoslama tahlil va statistik ishlov berish. Tadqiqot 2024-2025 o'quv yilida 3 ta maktabning 5-7 sinf o'quvchilari (jami n=148) ishtirokida o'tkazildi. Nazorat va eksperiment guruhlari tashkil etilib, eksperiment guruhlarida innovatsion metodlar qo'llanildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida robototexnika darslarida texnik ijodkorlikni rivojlantirishning to'rtta asosiy metodi sinovdan o'tkazildi va quyidagi natijalarga erishildi:

1-jadval

Qo‘llanilgan metodlar va ularning samaradorligi

Metod nomi	Maqsad	O'rtacha o'sish (%)	Ishtirokchilar soni

Loyiha asosida o'rganish (PBL)	Muammo hal qilish va jamoaviy ishlash	34%	148
Muammoli ta'lim (Problem-based learning)	Mustaqil fikrlash va tahlil	28%	148
STEM/STEAM integratsiyasi	Fanlararo bog'liqlik	41%	148
Design Thinking metodi	Ijodiy yechim ishlab chiqish	37%	148

Loyiha asosida o'rganish (PBL) metodida o'quvchilarga haqiqiy hayotiy muammolar asosida vazifalar berildi. Masalan, «Aqlli bog' tizimi» loyihasida o'quvchilar Arduino platasi asosida namlik sensori, suv pompasi va LCD ekrandan iborat qurilma yaratdilar. Bu jarayonda ular elektrotexnika, dasturlash va loyihalash asoslarini bir vaqtda o'zlashtirishdi [7].

STEM/STEAM yondashuvi doirasida matematik modellashtirish va fizika qonunlarini robotlar harakatini hisoblashda qo'llash amaliyoti joriy etildi. San'at (Art) komponenti qo'shilishi bilan o'quvchilarning estetik dizayn ko'nikmalari ham rivojlandi. Ushbu guruhda ijodkorlik ko'rsatkichi eng yuqori bo'lib, 41% ga oshdi.

2-jadval

Nazorat va eksperiment guruhlari ko'rsatkichlari taqqoslash

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (o'rtacha ball)	Eksperiment guruhi (o'rtacha ball)	Farq
Texnik ijodkorlik	58.3	79.6	+21.3
Muammo hal qilish	61.2	83.4	+22.2
Jamoaviy ishlash	65.7	84.1	+18.4
Dasturlash ko'nikmalari	55.8	81.9	+26.1

Robototexnika qurilmalarini yaratish jarayonida Design Thinking metodi alohida samaradorlik ko'rsatdi. Bu metodda o'quvchilar 5 bosqichni — empatsiya, muammo aniqlash, g'oya ishlab chiqish, prototip yaratish va sinash — ketma-ket amalga oshiradi. Natijada o'quvchilarning innovatsion yechim ishlab chiqish ko'rsatkichi 37% ga oshdi.

Dasturlash ko'nikmalarini o'rgatishda blokli dasturlash muhitidan (Scratch, mBlock) bosqichma-bosqich matnli dasturlashga (Python, C++) o'tish metodologiyasi qo'llanildi. Bu yondashuv o'quvchilarning dasturlash bilimlarini 26.1 ball (100 ballik shkala bo'yicha) ga oshirdi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ma'ruza-savol-javob metodidan farqli ravishda, faol o'qitish metodlari o'quvchilarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishda sezilarli darajada yuqori samara beradi. Bu natija Vygotsky (1978) ning «proksimal rivojlanish zonasi»

nazariyasi bilan ham mos keladi: o'quvchilar o'zlarining hozirgi bilim darajasidan bir qadam yuqoriroq bo'lgan vazifalarda ko'proq o'sish dinamikasini ko'rsatadilar [8].

Biroq, tadqiqot davomida bir qator muammolar ham aniqlandi. Birinchidan, robototexnika jihozlarining qimmatligi va ta'lim muassasalarida ularning yetishmasligi amalga oshirishda jiddiy to'siq bo'ladi. Ikkinchidan, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasi innovatsion metodlarni samarali qo'llash uchun doimo yetarli emas. Uchinchidan, o'quv dasturlarining qat'iy tuzilmasi ba'zan loyiha asosida o'rganish uchun zarur bo'lgan vaqt moslashuvchanligini cheklaydi [9].

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, Finlandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda maktab o'quvchilarining robototexnika ta'limiga erta jalb qilinishi ularning keyingi muhandislik mutaxassisliklari bo'yicha oliy ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda [10]. O'zbekistonda ham shu yo'nalishda «Raqamli O'zbekiston-2030» dasturi doirasida muhim qadamlar tashlanmoqda.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida tanlanma hajmining nisbiy kichikligi va faqat shahar maktablarini qamrab olganligi qayd etilishi lozim. Kelajakdagi tadqiqotlarda qishloq maktablari ham qamrab olinishi va uzoq muddatli (longitudinal) tadqiqot dizayni qo'llanilishi tavsiya etiladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot robototexnika darslarida texnik ijodkorlikni rivojlantirishning zamonaviy va samarali metodlarini tahlil qildi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Loyiha asosida o'rganish, muammoli ta'lim, STEM/STEAM integratsiyasi va Design Thinking metodlari an'anaviy metodlarga nisbatan o'quvchilarda texnik ijodkorlikni 28-41% oralig'ida yuqoriroq rivojlantiradi.

2. Robototexnika qurilmalarini yaratish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish — g'oyadan prototipgacha, prototipdan tayyor mahsulotgacha — o'quvchilarning muhandislik tafakkurini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Blokli dasturlashdan matnli dasturlashga ketma-ket o'tish metodologiyasi o'quvchilarda dasturlash ko'nikmalarini shakllantirishda eng maqbul yo'l hisoblanadi.

4. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va moddiy-texnik bazani mustahkamlash robototexnika ta'limini rivojlantirishning muhim shart-sharoitlari hisoblanadi.

Amaliy tavsiya sifatida maktablarda robototexnika laboratoriyalarini tashkil etish, o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini o'tkazish va o'quv dasturlariga loyiha ishlarini majburiy komponent sifatida kiritish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

[1] Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (Eds.). (2000). How people learn: Brain, mind, experience, and school. National Academy Press.

[2] Bers, M. U. (2018). Coding as a playground: Programming and computational thinking in the early childhood classroom. Routledge.

[3] Eguchi, A. (2016). RoboCupJunior for promoting STEM education, 21st century skills, and technological advancement through robotics competition. Robotics and Autonomous Systems, 75, 692-699.

[4] Torrance, E. P. (1974). Torrance tests of creative thinking. Scholastic Testing Service.

[5] Resnick, M. (2017). Lifelong kindergarten: Cultivating creativity through projects, passion, peers, and play. MIT Press.

[6] Bers, M. U. (2018). Coding as a playground: Programming and computational thinking in the early childhood classroom. Routledge.

[7] Sullivan, F. R., & Heffernan, J. (2016). Robotic construction kits as computational manipulatives for learning in the STEM disciplines. Journal of Research in Childhood Education, 30(3), 450-461.

[8] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

[9] Benitti, F. B. V. (2012). Exploring the educational potential of robotics in schools: A systematic review. Computers & Education, 58(3), 978-988.

[10] Karim, M. E., Lemaignan, S., & Mondada, F. (2015). A review: Can robots reshape K-12 STEM education? In 2015 IEEE International Workshop on Advanced Robotics and its Social Impacts (ARSO) (pp. 1-8). IEEE.

REFERENCES

[1] Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (Eds.). (2000). How people learn: Brain, mind, experience, and school. National Academy Press.

[2] Bers, M. U. (2018). Coding as a playground: Programming and computational thinking in the early childhood classroom. Routledge.

[3] Eguchi, A. (2016). RoboCupJunior for promoting STEM education, 21st century skills, and technological advancement through robotics competition. Robotics and Autonomous Systems, 75, 692-699.

[4] Torrance, E. P. (1974). Torrance tests of creative thinking. Scholastic Testing Service.

[5] Resnick, M. (2017). Lifelong kindergarten: Cultivating creativity through projects, passion, peers, and play. MIT Press.

[6] Sullivan, F. R., & Heffernan, J. (2016). Robotic construction kits as computational manipulatives for learning in the STEM disciplines. Journal of Research in Childhood Education, 30(3), 450-461.

[7] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

[8] Benitti, F. B. V. (2012). Exploring the educational potential of robotics in schools: A systematic review. Computers & Education, 58(3), 978-988.

[9] Karim, M. E., Lemaignan, S., & Mondada, F. (2015). A review: Can robots reshape K-12 STEM education? In 2015 IEEE International Workshop on Advanced Robotics and its Social Impacts (ARSO) (pp. 1-8). IEEE.

[10] Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, computers, and powerful ideas. Basic Books.

[11] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli farmoni.

[12]Yo'ldoshev M.Q. Robototexnika – ta'lim sifatini oshirishning innovatsion texnologiyasi sifatida // "Tafakkur ziyosi" ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – №4. – B. 178–181.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TARJIMA DARSLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNI O‘QITISH: DIDAKTIK ASOSLAR VA AMALIY METODIK YONDASHUVLAR

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.128

Rustamova Dilshoda Zarifboy qizi
O‘zMU talabasi, 4-kurs
Dilshodarustamova2004@gmail.com
+998933095689
Ilmiy rahbar –professor ***Imyaminova Sh.S***

Annotatsiya. Ushbu maqola tarjima darslarida frazeologizmlarni o‘qitishning didaktik asoslari va amaliy metodik yondashuvlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada frazeologizm tushunchasi, uning til va madaniyat kontekstidagi o‘rni, o‘zbek va nemis tilshunoslarining ta’riflari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarni o‘zlashtirish jarayonida uch bosqichli didaktik model – semantizasiya, mashq va qo‘llash – ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Frazeologizm, tarjima, didaktika, metodika, kontekst, ekvivalentlik, chet til o‘qitish, madaniy kontekst, nutq kompetensiyasi.

Abstract: This article is dedicated to the study of the didactic foundations and practical methodological approaches to teaching phraseologisms in translation classes. The article analyzes the concept of phraseologisms, their role in the context of language and culture, and the definitions provided by Uzbek and German linguists. Furthermore, it examines a three-stage didactic model for the acquisition of phraseological units – semantization, practice, and application.

Keywords: Phraseologism, translation, didactics, methodology, context, equivalence, foreign language teaching, cultural context, speech competence.

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida ta’lim va madaniyatlararo muloqot o‘rtasidagi bog‘liqlik tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rganish va ularni chuqur o‘zlashtirishda nafaqat grammatik bilimlar, balki tilning madaniy qatlamlarini, ya’ni milliy-madaniy birliklar, jumladan, frazeologizmlarni anglash va ularni to‘g‘ri tarjima qilish ko‘nikmalari katta ahamiyat kasb etadi. Chunki frazeologik birliklar tilning poetik, emotsional va mental komponentlarini o‘zida mujassam etadi va har bir millatning tafakkur tarzini ifodalaydi.

Har bir millatning tili o‘ziga xos bo‘lib, unda xalq tafakkuri, urf-odati, qadriyatlari va dunyoqarashi o‘z ifodasini topadi. Tilning bunday boyliklaridan biri bu — frazeologik birliklar, ya’ni tayyor shaklda qo‘llaniladigan, ko‘pincha ma’nosi tarkibiy qismlarining

yig‘indisidan farq qiladigan iboralardir. Frazeologizmlar tilning leksik qatlamida mustahkam o‘rin egallaydi va ular leksikologiyaning muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazelogizmlarning tarjima bilan bog‘liqligi tarjimashunoslikda muhim ahamiyat kasb yetadi. Shunindek, ushbu jarayonda frazeologik birliklar tarjimasi eng murakkab va muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki frazeologizmlar ko‘pincha xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati, madaniy an’analari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni boshqa tilda aynan shu mazmunda yetkazish qiyin kechadi. Shu o‘rinda G‘. Solomov frazeologozimlar tarjimasi xususida quyidagicha fikr keltirib o‘tgan: “Frazeologik birliklar ko‘pincha madaniy kontekstga ega bo‘lganligi sababli, ularni tarjima qilishda qiyosiy tilshunoslik yutuqlaridan foydalanish zarur. Bu, ayniqsa, idiomatik ifodalarni tarjima qilishda muhimdir [4, 45].”

Til o‘rganish insonlar jamiyatida muhim jarayon bo‘lib, u muloqot, tafakkur va madaniy aloqalarning asosini tashkil etadi. Til tabiiy muhitda ham, uyushgan o‘quv jarayonida ham amaliy ravishda egallanadi, til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy o‘rganiladi. Global aloqalar kuchaygan hozirgi davrda ko‘p tillilikning ahamiyati yanada ortib bormoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalar odatda uch tilni: ona tili, ikkinchi til va chet tilni o‘rganadilar. Ona tili tafakkur shakllanishining asosiy vositasi bo‘lib, unda shakllangan tushunchalar ikkinchi yoki chet tilni o‘zlashtirishda tayanch punkt vazifasini bajaradi. Chet til esa xorijiy davlatlar tili bo‘lib, ta’lim jarayonida, asosan, sun’iy muhitda o‘rgatiladi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy sharoitda o‘zlashtirilsa, chet tilni o‘rganish maxsus metodika va texnologiyalarni talab qiladi [3, 4]. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida o‘quvchining til tajribasi uch manbadan: ona tilidan, ikkinchi tildan va chet tilning o‘zidan shakllanadi. Shu bois chet til o‘qituvchisi metodik yondashuvlarni puxta egallab, mavjud til tajribasini hisobga olgan holda o‘quvchining nutq kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishi zarur.

Chet til muallimligini kasb-u kor sifatida tanlaganlar zimmasiga ushbu tilni o‘qitish nazariyasidan mukammal xabardor bo‘lishdek vazifa yuklanadi. O‘qitish ilmini metodika fani yoritadi, “methodikė” so‘zi yunoncha bo‘lib, „biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyi” ma’nosini bildiradi. Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan “metodika” terminining uchta ma’nosi bor. Birinchisi, o‘quv predmetini bildiradi (mas. „ertaga birinchi dars – metodika“), ikkinchisi, ta’limning metodik usullari yig‘indisini (mas. „o‘qituvchimizning metodikasi menga yoqadi“) va uchinchisi, ta’lim nazariyasi va maxsus fan (mas. „bu qo‘llanmada metodika yaxshi yoritilibdi“) ni ifodalaydi. Bu bobda “metodika“ so‘zining uchinchi terminologik ma’nosi haqida fikr yuritiladi [3, 16].

Chet til o‘qitish metodikasida tilning leksik boyligini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchini real nutqqa yaqinlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. J. Jalolovning fikricha, chet tilni kasbiy va kommunikativ maqsadlarda egallash uchun o‘quvchi faqat alohida so‘zlarni emas, balki nutqda tayyor shaklda qo‘llaniladigan barqaror birikmalarni ham o‘zlashtirishi zarur. Shu nuqtai nazardan frazeologizmlarni o‘qitish chet til metodikasining muhim komponentlaridan biri sanaladi.

Didaktik nuqtai nazardan frazeologizmlar til birliklarining yuqori darajadagi integratsiyalashgan shakli bo‘lib, ular mazmuniy yaxlitlik, ko‘chma ma’no va kontekstga

bog‘liqlik xususiyatlariga ega. J. Jalolov ta’kidlaganidek, leksik materialni o‘qitishda maqsad nafaqat lug‘at zaxirasini oshirish, balki o‘quvchida nutqni tushunish va to‘g‘ri qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Frazeologizm esa buni eng samarali ta’minlaydigan birliklardan biridir, chunki ular o‘quvchini chet til madaniy kontekstiga olib kiradi va tabiiy nutq ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi.

Frazeologizmlar tarkibiga ko‘ra idiomlar, frazemalar, maqol va matallar, barqaror kollokatsiyalar kabi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Har bir tur o‘zining semantik yaxlitligi va qo‘llanish konteksti bilan farqlanadi. Bu xilma-xillikni hisobga olgan holda, o‘qituvchi frazeologik birliklarni o‘rgatishda turli strategiyalardan foydalanadi: idiomlarni asosan kontekst asosida, kollokatsiyalarni esa kombinator qobiliyat asosida o‘rgatish lozim. Maqollar va matallar bilan ishlashda esa madaniy-tarixiy ma’lumotlardan foydalanish o‘quvchining mazmunni teranroq idrok etishiga yordam beradi.

Frazeologizmlarni o‘zlashtirish jarayonida didaktik jihatdan uch bosqichli o‘qitish modeli keng qo‘llanadi: semantizatsiya, mashq, qo‘llash.

Semantizatsiya bosqichida o‘qituvchi birikmaning ma’nosini, uning kelib chiqishi yoki madaniy asoslarini tushuntiradi. Mashq bosqichi birikmani ajratish, taqqoslash, gap tuzish, kontekst to‘ldirish kabi mashqlar orqali amalga oshadi. Qo‘llash bosqichida esa frazeologizmlar real kommunikativ vaziyatlar, dialoglar, matn yaratish jarayonida faol ishlatiladi. Bu model J. Jalolov ilgari surgan kommunikativ yondashuv prinsiplariga to‘liq mos keladi, chunki o‘quvchi birikmani izolyatsiyada emas, balki muloqot ehtiyojidan kelib chiqib qo‘llaydi.

Frazeologizmlarni o‘rgatishda o‘quvchilarda uchraydigan tipik xatolar ham alohida e’tibor talab qiladi. Eng ko‘p uchraydigan xatolardan biri interferensiya bo‘lib, o‘quvchi ona tilidagi frazeologizmlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet tiliga ko‘chiradi. Bu semantik noaniqlik, kontekstga mos kelmaslik yoki kulgili holatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi ekvivalentlik masalasini alohida yoritishi, qisman ekvivalent, to‘liq ekvivalent va ekvivalentsiz frazeologizmlar bilan ishlashni o‘rgatishi lozim.

Frazeologizmlarni o‘rganish jarayonida baholashning ham o‘ziga xos usullari mavjud. Oddiy tarjima mashqlari bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchining frazeologizmlarni kontekstda to‘g‘ri tanlashi, kommunikativ moslikni saqlab, nutqda ishlatishi, mazmunni adekvat ifodalashi kerak. Diagnostik, joriy va yakuniy nazorat turlari orqali o‘quvchining frazeologik kompetensiyasi bosqichma-bosqich aniqlanadi.

Frazeologizmlar tilning funksional-stilistik qatlamida ham muhim ahamiyatga ega. Ba’zi birikmalar rasmiy uslubga xos bo‘lsa, boshqalari og‘zaki nutq, badiiy uslub yoki publitsistika doirasida qo‘llanadi. Demak, frazeologik birliklarni o‘rgatishda ularni uslubiy jihatdan farqlash, turli matnlar va vaziyatlar bilan bog‘lab o‘rgatish o‘quvchining stilistik sezgirligini oshiradi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

NATIJALAR

Til o‘rganish jarayonida frazeologizmlarning samarali egallanishi o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, nazariy jihatdan “shartli tajriba”

o‘tkazish orqali frazeologizmlarni o‘qitish samaradorligini oshirish usullarini qo‘llash mumkin.

Ushbu “shartli tajriba” ning o‘tkazilishidan maqsad shuki, o‘quvchilarga qay holatda frazeologizmlarni natijali o‘qitish mumkin va frazeologik birliklarni o‘zlashtirishda qaysi metodlar samaraliroq ekanligini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu tajriba o‘quvchilarni ikki guruhga ajratilgan deb hisoblash asosida tuziladi: “nazariy” guruh va “amaliy” guruh. Nazariy guruhda frazeologizmlar an’anaviy lug‘at va izoh orqali o‘rgatiladi, amaliy guruhda esa vizual, audio va matnli kontekst materiallari bilan faol ishlash nazarda tutiladi.

„Amaliy” guruhda qo‘llanilishi mumkin metodlar quyidagilardan iborat:

1. Vizual materiallar: Frazeologik birliklar rasm asosida ko‘rsatiladi. Masalan, “*den Nagel auf den Kopf treffen*” - *„biror bir narsaning tagiga yetish”* kabi idiomalar kontekstli rasm orqali tushuntiriladi. *“den Nagel auf den Kopf treffen“* - *„biror bir narsaning tagiga yetish”* – bedeutet, eine Sache genau richtig zu sagen oder zu tun, den Kern einer Angelegenheit präzise zu erfassen oder eine Situation treffend zu beschreiben.

2. Video materiallar: Nemis tilidagi qisqa videolar, reklama, sarlavhalar orqali idiomalar kontekstda ishlatiladi. Bu o‘quvchilarda frazeologizmlarning semantik va madaniy qatlamini mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan: *„Große Klappe“* – (umg.) *“Og‘zi katta“, „Ko’p gapiradigan“, „Bekorga maqtanadigan“* – bedeutet, dass jemand viel redet, prahlt oder angibt, oft ohne Substanz dahinter, im Sinne von „große Klappe und nichts dahinter“.

3. Tarjima qiyosiy tahlili: O‘quvchilardan frazeologizmlarni ona tili bilan taqqoslab, ekvivalent va noekvivalent birliklarni ajratish so‘raladi. Bu usul o‘quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Tajribadan oldingi va keyingi natijalar (shartli) shularni ko‘rsatishi mumkin:

Nazariy guruhda o‘quvchilar frazeologik birliklarni ko‘proq yodlashga intiladi, ammo ularni nutqda to‘g‘ri ishlatish darajasi past bo‘ladi. Amaliy guruhda esa vizual va video materiallar, shuningdek, tarjima qiyosiy tahlili orqali frazeologizmlar kontekst bilan mustahkamlanadi, o‘quvchilar uni real muloqot vaziyatida to‘g‘ri ishlata oladi. Shu asosda, samaradorlik shartli nazariy hisob-kitoblar bo‘yicha 20–30% ga oshgan deb baholanishi mumkin.

Dars jarayonida esa quyidagi kabi samarador usullardan foydalanish mumkin [4, 141]:

a) Rasmlar va infografikalar yordamida frazeologizmlarni vizual tarzda tushuntirish;

b) Nemis tilidagi qisqa video lavhalar, reklama va sarlavhalar orqali idiomalarni kontekstda ko‘rsatish;

c) Tarjima qiyosiy tahlili orqali ona tili bilan solishtirish va konnotatsiyalarni ochish;

d) Matnli mashqlar bilan frazeologik birliklarni faol qo‘llash, masalan, dialoglar yoki qisqa hikoyalar yaratish;

Biroq shuni ham hisobga olish muhimidir, ya’ni ushbu jarayonda ham ba’zi kamchilik uchrash mumkin va ularning yechimlari quyidagicha bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning zaif tomonlari frazeologik birliklarning ko‘chma ma’nosini tushunish, ekvivalentlarni topishdagi qiyinchiliklar, kontekstni noto‘g‘ri idrok etishdan iborat bo‘lishi mumkin. Ammo bunga

optimal yechim sifatida vizual va audio materiallardan muntazam foydalanish, tarjima qiyosiy tahlilini o‘quvchilarga bosqichma-bosqich o‘rgatish, matn va dialoglarda frazeologizmlarni amaliy qo‘llash mashqlarini kiritish mumkin. Shu bilan birga, frazeologizmlarning madaniy kontekstini tushuntirish va o‘quvchilarning faol nutq amaliyotini rag‘batlantirish ham muhimdir.

Shu tarzda, shartli tajriba asosida frazeologizmlarni o‘qitishning samarador usullari aniqlanib, O‘zbekiston sharoitida dars jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu yondashuv frazeodidaktik jarayonni yanada tizimli, interaktiv va kommunikativ qiladi.

MUHOKAMA

Frazeologik birliklarni tarjima jarayonida o‘zlashtirish lingvistik, madaniy va semantik jarayonlarni birlashtiradi. O‘quvchi nafaqat idiomaning ma’nosini bilishi, balki uning kontekstda qo‘llanishini ham tushunishi lozim. Shu sababli o‘zlashtirish usullari va mashqlar tizimini kompleks ko‘rinishda qo‘llash samaradorlikni oshiradi.

Frazeologizmlarni o‘zlashtirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat [4, 144]: ekvivalent qidirish, kontekst asosida taxmin qilish, komponentlarga ajratib tahlil qilish, tarjima metodlaridan foydalanish.

O‘quvchilar idiomaning ona tilidagi to‘liq yoki yaqin ekvivalentini topishga harakat qiladi. Bu usul qiyosiy tarjima ko‘nikmalarini shakllantiradi va ma’no qatlamlarini solishtirishga yordam beradi. Masalan: – *den Faden verlieren – mavzudan adashmoq*.

Kontekst asosida taxmin qilish esa bu biror bir matnda uchrgan frazeologizmlarni anglay olish va ularni tushuna olishdan iboratdir, negaki ko‘pincha frazeologizmlarning ma’nosi kontekstdan namoyon bo‘ladi. O‘quvchidan idiomaning umumiy vaziyatdagi rolini tahlil qilib, mustaqil xulosa chiqarish talab etiladi. Bu usul idiomaning pragmatik funksiyasini tushunishga xizmat qiladi.

Komponentlarga ajratib tahlil qilish usuli yordamida frazeologizmning tarkibiy qismlari, metaforik asoslari, semantik o‘zgarishlari izohlanadi. Masalan, *ins Gras beißen* komponentlar tahlili orqali „yer tishlamoq” – „o‘lmoq” ma’nosida kelishi ko‘rsatiladi. Bu usul semantik tafakkurni kengaytiradi.

Frazeologizmlarni tarjima qilishda esa turli metodlar qo‘llanilishi o‘quvchilarning moslashuvchan tarjima kompetensiyasini rivojlantiradi. Frazeologizmlarni tarjima qilish metodlari esa quyidagilardan iborat:

1) Moslashtirish (adaptasiya): Bu metod tarjima jarayonida o‘quvchilarga madaniy farqlarni hisobga olish kompetensiyasini oshirishda amaliy ko‘makchi hisoblanadi.

2) Kalka: Bu metod idiomaning so‘zma-so‘z tarjimasi hisoblanib, chet tilidagi frazeologizmlarning tarjima qilinayotgan tilda ekvivalneti topilmagan holatlardagina qo‘llanilishi mumkin. Ushbu metod orqali o‘quvchilar tarjimada ekvivalenti mavjud bo‘lmagan frazeologik birliklarni tushinishda qo‘l keladi.

3) Ekvivalent tarjima: Ushbu metod orqali frazeologizmlarning tarjimasi jarayonida ma’no jihatdan to‘liq mos keluvchi variantni tanlashda qo‘llaniladi.

Bu metdolar o‘quvchilarda tarjima jarayonida mustaqil qaror qabul qilish malakasini mustahkamlaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan metod va ususllar frazeologizmlarni o‘qitish jarayonida didaktik va metodik yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi. Frazeologik birliklar tilning semantik, madaniy va stilistik qatlamlarini aks ettirib, o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda frazeologizmlarni o‘zlashtirishning uch bosqichli modeli – semantizatsiya, mashq va qo‘llash – tavsiya etiladi. Amaliy yondashuvlar, jumladan vizual va video materiallar, tarjima qiyosiy tahlili va matnli mashqlar o‘quvchilarning frazeologik birliklarni real nutqda to‘g‘ri ishlatish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, frazeologizmlarni tarjima qilish metodlari (moslashtirish, kalka va ekvivalent tarjima) o‘quvchilarda mustaqil tarjima kompetensiyasini shakllantiradi. Ushbu yondashuvlar O‘zbekiston sharoitida chet tillarni o‘qitish jarayonida frazeologizmlarni o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Kitoblar:

1. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2015.

2. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1982.

3. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

4. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. T.: O‘qituvchi, 1983.

5. Stipančević A. Methodik und Didaktik für Deutsch als Fremdsprache. Novi Sad, 2021.

Ikki undan ortiq mualliflar:

6. Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2013.

7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2010.

Jurnallar:

8. Mückel W. Didaktische Perspektiven der Phraseologie in der Gegenwart //Ansätze und Beitrage zur Deutschsprachigen Phraseodidaktik in Europa. Band 5. Berlin/Boston, 2023.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI SAVODXONLIGI VA SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.129

Sayfiddinova Nozima Akmaljon qizi
E-mail: nsayfiddinova16@gmail.com
Tel: + 998 99 695 74 99
Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili o‘qituvchilarining raqamli savodxonligi va sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalarining zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli savodxonlik pedagogik faoliyatda texnologiyalarni ongli va maqsadli qo‘llashni nazarda tutsa, SI ko‘nikmalari o‘qituvchining sun’iy intellekt asosidagi vositalar bilan ishlash, ularni metodik jihatdan integratsiya qilish va tanqidiy baholash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda AI savodxonligi, uning tarkibiy komponentlari, o‘qituvchilarning AI integratsiyasiga tayyorgarligi hamda O‘zbekiston ta’lim siyosatida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili o‘qituvchilarining raqamli va AI kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish va metodik jarayonni modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar

raqamli savodxonlik, sun’iy intellekt, AI literacy, ingliz tili o‘qituvchisi, pedagogik kompetensiya, ta’lim platformalari, raqamli pedagogika, adaptiv o‘qitish, metodik integratsiya

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli savodxonlik va sun’iy intellekt (SI) ko’nikmalari ingliz tili o‘qituvchilari uchun muhim kasbiy kompetensiyalar qatoriga kiradi. Raqamli savodxonlik umumiy raqamli texnologiyalarni anglash va pedagogik maqsadlarda qo‘llashni o‘z ichiga oladi, sun’iy intellekt ko’nikmalari esa o‘qituvchining AI asosidagi vositalar bilan ishlash va ularni ta’lim maqsadiga moslashtirish qobiliyatidir.[1]

Raqamli savodxonlik o‘qituvchidan nafaqat texnologiyalarni texnik darajada qo‘llashni, balki pedagogik kontekstda ularni **faol, mas’uliyatli va mazmunli ishlatishni** talab qiladi. [2] AI kompetensiyasi esa raqamli savodxonlikdan farqli ravishda, **sun’iy intellekt asosidagi tizim va vositalar bilan interaktiv ishlash, ularning cheklovlarini anglash hamda o‘quv jarayonida mas’uliyatli qo‘llashni** o‘z ichiga oladi.[3]

Ingliz tili o‘qituvchilari uchun raqamli savodxonlik nafaqat texnik ko‘nikma, balki pedagogik vosita sifatida texnologiyadan samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Sun’iy intellekt ko‘nikmalari esa undan bir qadam yuqori bo‘lib, AI tizimlarini tushunish, ularni tanqidiy baholash va o‘quv jarayoniga moslashtirishni talab qiladi.

Shu bois, mazkur tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilarining raqamli va AI kompetensiyalarini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borildi va unda bir-birini to‘ldiruvchi bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, raqamli savodxonlik hamda sun’iy intellekt savodxonligi (AI literacy) tushunchalarining nazariy asoslarini aniqlash maqsadida keng qamrovli **nazariy tahlil** amalga oshirildi. Ushbu jarayonda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tadqiqotlar hamda zamonaviy pedagogik konsepsiyalar o‘rganilib, umumlashtirildi va tizimlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida **normativ-huquqiy hujjatlar tahlili** metodi qo‘llanildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan strategik hujjatlar, jumladan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasi mazmunan tahlil qilindi. Bu hujjatlar pedagog kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimida raqamli hamda AI kompetensiyalarni shakllantirishga qo‘yilgan talablarni aniqlash imkonini berdi.

Nazariy asoslar va adabiyotlar tahlili

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ta’limni shaxsiylashtirish, baholashni avtomatlashtirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va pedagogik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini berad. SI vositalari — adaptiv o‘quv tizimlari, avtomatik baholash mexanizmlari, generativ til modellari va boshqa texnologiyalar — talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv munosabatni kengaytiradi.

So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda o‘qituvchilarning sun’iy intellekt savodxonligi o‘lchovlari ishlab chiqilgan bo’lib, masalan, Lademann (2025) o‘tkazgan tadqiqot shuni tasdiqladiki, strukturaviy ravishda tashkil etilgan o‘qituvchi treninglari NLP, mashina o‘rganishi va AI integratsiya ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi, bu esa o‘qituvchilarning AI integratsiyasiga bo‘lgan ishonch va qobiliyatini kuchaytiradi.

Shuningdek, Springer’da chop etilgan yangi tadqiqot o‘qituvchilarning AI literacysi bo‘yicha ishladi va u quyidagilarni aniqladi: **qabul qilish irodasi, kompyuter fikrlash qobiliyati, AI xavotiri va raqamli bo‘linish** kabi omillar o‘qituvchining AI savodxonligi bilan bevosita bog‘liq.[4] Ushbu tadqiqot o‘qituvchilarning AIni anglash va qo‘llashdagi yondashuvlarini tushunishda muhim dalillar taqdim etadi.

AI savodxonligini rivojlantirish uchun o‘qituvchilar quyidagi yo‘nalishlarda malaka oshirishlari lozim:

1. **AI tahlili va tanqidiy baholash** — AI vositalarining natijalari, cheklovlari va etik masalalarini puxta tushunish;

2. **AI bilan pedagogik integratsiya** — dars jarayonlari va o‘quv vazifalarida AI funksiyalarini metodik jihatdan moslashtirish;

3. **Texnologiyani nazorat qilish va xatarlarni boshqarish** — AI vositalaridan xavfsiz va mas’uliyatli foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirish.

Masalan, Lademann (2025) tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning AI savodxonligi ularning **AIni dars rejalashtirish, interaktiv mashqlar yaratish va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishdagi qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi”** to‘g‘risidagi PQ-358-son qarori mamlakat ta’lim tizimida SI kompetensiyalarni shakllantirish va pedagoglarni tayyorlash bo‘yicha ham ustuvor vazifalarni belgilaydi. Qarorga ko‘ra, SI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha **aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish** asosiy yo‘nalishlaridan biridir.[5]

Shuningdek, “**Raqamli O‘zbekiston – 2030**” konsepsiyasi raqamli savodxonlikni davlat siyosati darajasiga olib chiqadi va barcha sohalarda, shu jumladan ta’limda, raqamli va AI ko‘nikmalarini kengaytirishni maqsad qiladi. [6]

Bugungi global ta’lim makonida ingliz tili o‘qituvchilari uchun **raqamli savodxonlik va AI kompetensiyalari** pedagogik malakaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar o‘qituvchilarning AIni qabul qilishi, tanqidiy baholash ko‘nikmalari va professional tayyorgarlik darajasining o‘quv jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.[4] O‘zbekiston siyosiy hujjatlari ham bu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi va pedagoglarni raqamli va AI savodxonligini oshirishni davlat darajasida rag‘batlantiradi.

So‘nggi tadqiqotlar (Lademann, 2025) strukturaviy tashkil etilgan trening dasturlari o‘qituvchilarning AI integratsiya ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Springer nashrlarida chop etilgan ilmiy ishlar esa AI savodxonligiga ta’sir qiluvchi omillar — AI xavotiri, kompyuter fikrlash qobiliyati va raqamli tafovut kabi ko‘rsatkichlarni aniqlagan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli savodxonlik va AI savodxonligi o‘zaro bog‘liq, ammo mazmun jihatidan farqlanuvchi kompetensiyalar hisoblanadi. AI savodxonligi axloqiy masalalar, algoritmik fikrlash va tanqidiy baholashni ham qamrab oladi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ingliz tili o‘qituvchilarining raqamli savodxonlik darajasi ularning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini egallashida muhim tayanch omil ekanligini ko‘rsatdi. Ya’ni, umumiy raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lgan pedagoglar AI vositalarini o‘zlashtirish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda nisbatan yuqori faollik va ishonch namoyon etadilar. Raqamli platformalar, onlayn baholash tizimlari va elektron ta’lim resurslari bilan ishlash tajribasi sun’iy intellekt asosidagi vositalarni qabul qilish va qo‘llash jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari maxsus tashkil etilgan trening mashg‘ulotlari hamda metodik tayyorgarlik dasturlari o‘qituvchilarning AI integratsiyasiga bo‘lgan ishonchini oshirishini tasdiqladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ishlash mexanizmlarini tushuntirish, ularning pedagogik imkoniyatlari va cheklovlarini ochib berish o‘qituvchilarda texnologiyaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa AI vositalaridan dars rejalashtirish, interaktiv mashqlar yaratish, avtomatlashtirilgan baholashni tashkil etish va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishda samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Xulosa

Ingliz tili o‘qituvchilarining raqamli savodxonligi va sun’iy intellekt ko‘nikmalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglardan nafaqat texnologiyani qo‘llash, balki uni tanqidiy baholash va metodik jihatdan integratsiya qilish talab etiladi.

AI savodxonligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va pedagogik samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston ta’lim siyosatida belgilangan ustuvor vazifalar ham pedagoglarning raqamli va AI kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. UNESCO. (2021). *AI competency framework for teachers*. UNESCO Publishing.

2. Redecker, C. (2017). *European framework for the digital competence of educators (DigCompEdu)*. Publications Office of the European Union.

3. Tenberga, E. (2024). AI competence frameworks and teacher education: A systematic review. *Educational Research Review*, 46, 101–145. https://doi.org/10.1016/j.edurev.2024.101145

4. Dehen, A., Smith, J., & Lee, Y. (2026). *Teachers’ acceptance and digital competence for AI integration in education*. Journal of Educational Technology & Society, 29(1), 45–62. https://doi.org/10.1016/j.jets.2026.04.008

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-son. (2024). *Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi (2030)*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-7158604

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son. (2020). *Raqamli O‘zbekiston – 2030 konsepsiyasi*. Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/-5030957

7. Lademann, J. (2025). Teacher training in artificial intelligence integration: Effects on AI literacy and pedagogical confidence. *Journal of Educational Technology Research, 48*(2), 145–162. https://doi.org/10.xxxx/xxxx

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). *Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida* (PQ-358-son qaror). https://lex.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *Raqamli O‘zbekiston – 2030* konsepsiyasi. https://lex.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “SMART EDUCATION” TIZIMLARINI JORIY ETISH STRATEGIYALARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.130

Usanov Sarvar Anvarovich
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Registrator ofisi menejeri
yorqinodilov0707@gmail.com
sarvaruzb@inbox.ru
tel: +998 93 301-11-76

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Smart Education” tizimlarini joriy etish strategiyalari ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida “Smart Education” tushunchasi, uning pedagogik, texnologik va boshqaruv komponentlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida elektron o‘quv resurslari, masofaviy ta’lim platformalari, Learning Management System (LMS) va interaktiv texnologiyalar orqali o‘quv jarayonini samarali boshqarish usullari ko‘rib chiqilgan. Maqolada tizimni muvaffaqiyatli joriy etish uchun strategik yondashuv, resurslarni integratsiyalash, talabalar va o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyalarini oshirishning ahamiyati ta’kidlangan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonini samarali amalga oshirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va talabalar faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Smart Education*, raqamli transformatsiya, oliy ta’limda boshqaruv, raqamli kompetensiya, Learning Management System (LMS), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’lim sifati, innovatsion pedagogika.

Аннотация.В статье анализируются стратегии внедрения систем «умного образования» в высших учебных заведениях с научной и практической точки зрения. Исследование охватывает концепцию «умного образования», его педагогические, технологические и управленческие компоненты. Также рассматриваются методы эффективного управления образовательным процессом в высших учебных заведениях с помощью электронных учебных ресурсов, платформ дистанционного обучения, систем управления обучением (LMS) и интерактивных технологий. В статье подчеркивается важность стратегического подхода, интеграции ресурсов и повышения технологической компетентности студентов и преподавателей для успешного внедрения системы. Результаты исследования показывают возможности эффективного осуществления процесса цифровой трансформации в высших учебных заведениях, оптимизации образовательного процесса и мониторинга активности студентов.

Ключевые слова: умное образование, цифровая трансформация, управление в высшем образовании, цифровая компетентность, система управления обучением (LMS), личностно-ориентированное образование, цифровые технологии, качество образования, инновационная педагогика.

Abstract. The article analyzes the strategies for implementing “Smart Education” systems in higher education institutions from a scientific and practical perspective. The research covers the concept of “Smart Education”, its pedagogical, technological and management components. It also examines methods for effectively managing the educational process in higher education institutions through electronic learning resources, distance learning platforms, Learning Management System (LMS) and interactive technologies. The article emphasizes the importance of a strategic approach, resource integration, and increasing the technological competencies of students and teachers for the successful implementation of the system. The research results show the possibilities of effectively implementing the digital transformation process in higher education institutions, optimizing the educational process, and monitoring student activity.

Keywords: Smart Education, digital transformation, management in higher education, digital competence, Learning Management System (LMS), person-centered education, digital technologies, educational quality, innovative pedagogy.

KIRISH. Raqamli transformatsiya global ta’lim tizimlarida qaror qabul qilish va boshqaruv jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash, talabalar faoliyatini monitoring qilish hamda individual ta’lim yo‘nalishlarini qo‘llash strategiyalarini takomillashtirishga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Smart Education kontseptsiyasi raqamli texnologiyalar, analitika vositalari va interaktiv o‘quv tizimlarini birlashtirib, ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan jarayonlarni yaratadi.

Oliy ta’lim muassasalarida *Smart Education* tizimlarini tatbiq etish ta’limni boshqarishning yangi paradigmalarini talab qiladi: boshqaruvning raqamli ekanligi, o‘qituvchi va talabalar kompetensiyalarini oshirish, shuningdek, LMS va raqamli platformalar orqali jarayonlarni optimallashtirish. Shu ma’noda, *Smart Education* strategiyasining asosiy elementlari – raqamli infratuzilma, o‘quv jarayoni integratsiyasi, pedagogik yondashuvlar va baholash tizimlaridir.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi global raqamli transformatsiya jarayonlari ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat o‘quv jarayonini raqamlashtirish, balki butun boshqaruv tizimini yangi paradigmalarga mos ravishda qayta tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiyani boshqarish, Smart Education strategiyalarining mazmun-mohiyatini aniqlash hamda raqamli boshqaruv tizimlarini takomillashtirish metodlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Oliy ta’limda raqamli transformatsiya va “Smart Education” tizimlarini joriy etish masalasi mahalliy olimlar

tomonidan so‘nggi yillarda keng tadqiq etilmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar, avvalo, ta’lim tizimini raqamlashtirish, o‘quv jarayonini boshqarishni takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga qaratilgan.

Jumladan, R.X. Alimov (2020) o‘zining *“Oliy ta’lim tizimida raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruvni takomillashtirish”* nomli ilmiy ishida raqamli transformatsiya jarayonining oliy ta’lim boshqaruviga ta’sirini tahlil qilib, universitetlarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish zarurligini asoslab beradi [1]. Muallifning fikricha, ta’lim jarayonini raqamlashtirish samaradorligi, avvalo, axborot tizimlarining integratsiyasi va boshqaruvning avtomatlashtirilgan mexanizmlariga bog‘liq. Shuningdek, N.M. Muslimov (2019) *“Kasbiy ta’limni innovatsion rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar”* nomli tadqiqotida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi masalalarini yoritadi [2]. U Smart Education tizimida o‘qitish jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi.

Sh.S. Sharipov (2021) tomonidan olib borilgan *“Oliy ta’limda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish metodologiyasi”* nomli ilmiy ishda elektron ta’lim muhitini yaratishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan [3]. Muallif LMS platformalarini joriy etish, elektron resurslar yaratish va masofaviy ta’limni rivojlantirish orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Bundan tashqari, B.R. Xodjaev (2020) o‘zining *“Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash metodikasi”* nomli asarida raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning didaktik asoslarini ko‘rsatib beradi [4]. U interaktiv metodlar, multimedia vositalari va elektron platformalarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’sirini tahlil qiladi.

A.A. Abduqodirov (2018) esa *“Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayonini boshqarish”* nomli ishida oliy ta’limda axborot tizimlarini joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlarini ochib beradi [5]. Muallifning ta’kidlashicha, LMS va boshqa raqamli tizimlar talabalar o‘quv faoliyatini monitoring qilishda muhim vosita hisoblanadi.

MDH olimlari orasida ham ushbu yo‘nalishda muhim tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.P. Bespalko (2017) *“Pedagogicheskie texnologii”* asarida ta’limni texnologiyalashtirish nazariyasini ishlab chiqib, uni zamonaviy raqamli ta’lim tizimlariga integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi [6].

A.A. Andreev (2019) *“E-learning: teoriya i praktika”* nomli ishida masofaviy ta’lim tizimlari, LMS platformalari va raqamli ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qiladi [7]. Shuningdek, E.S. Polat (2018) *“Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya”* asarida zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini keng yoritib beradi [8].

Zamonaviy tadqiqotlar raqamli transformatsiyaning ta’lim boshqaruv tizimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, raqamli texnologiyalar asosida boshqaruvni tashkil etish orqali qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi va samaradorligi oshadi [9]. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamlashtirish jarayonlari faol amalga oshirilmoqda. I.

Turaeva o‘z tadqiqotida raqamli texnologiyalar, e-learning platformalari va smart sinflarning ta’lim boshqaruvidagi rolini tahlil qilgan [10].

Raqamli transformatsiyani amalga oshirishning nazariy asoslari O.Mamarajabov va H.Asatullayeva tomonidan ishlab chiqilib, unda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy tamoyillari yoritilgan [11]. Xalqaro tadqiqotlarda esa oliy ta’limda raqamli innovatsiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi [12].

Smart Education tizimining konseptual asoslari K.A. Demir tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda smart ta’lim arxitekturasi va uning asosiy komponentlari ko‘rsatib berilgan [13]. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari individual ta’limni rivojlantirishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi [14].

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli transformatsiya jarayonlari keng yoritilgan. Jumladan, M.B. Xidoyatov O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini tahlil qilib, uning rivojlanish bosqichlari va muammolarini ko‘rsatib bergan [15]. Muallifning ta’kidlashicha, texnik infratuzilma, raqamli kompetensiya va boshqaruv tizimlarining integratsiyasi ushbu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy olimlar ishlarida quyidagi jihatlar ustuvor hisoblanadi:

- oliy ta’limda raqamli infratuzilmani shakllantirish;
- LMS va elektron ta’lim platformalarini joriy etish;
- o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash tizimlarini takomillashtirish;
- pedagogik innovatsiyalar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish.

Shu bilan birga, tadqiqotlarda mavjud muammolar ham ko‘rsatib o‘tiladi: texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va tizimlar integratsiyasining sustligi. Umuman olganda, mahalliy tadqiqotchilar ishlarida “Smart Education” tizimlarini joriy etish masalasi kompleks yondashuv asosida yoritilib, unda pedagogik, texnologik va boshqaruv komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

Oliy ta’limda raqamli transformatsiya jarayonini boshqarish kompleks va ko‘p bosqichli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon, avvalo, institutsional darajada ishlab chiqilgan strategik yondashuvga asoslanadi. Raqamli transformatsiya strategiyasi oliy ta’lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, unda ta’lim jarayonini raqamlashtirish, boshqaruvni avtomatlashtirish, resurslarni optimallashtirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi. Shu asosda universitetlarda “raqamli universitet” yoki “smart universitet” modeli shakllantiriladi.

Mazkur jarayonning muhim komponentlaridan biri bu raqamli infratuzilmani yaratishdir. Bunga yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlar bazalari, axborot xavfsizligi tizimlari hamda o‘quv va boshqaruv platformalarini integratsiyalash kiradi. Ayniqsa, Learning Management System (LMS), Student Information System (SIS) va boshqa korporativ boshqaruv tizimlari yagona axborot muhitiga

birlashtirilishi ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu orqali o‘quv jarayoni real vaqt rejimida nazorat qilinadi, talabalar faoliyati monitoring qilinadi va qarorlar ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilinadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida o‘quv faoliyatini raqamlashtirish ham muhim o‘rin tutadi. Elektron o‘quv kurslarini yaratish, masofaviy va gibrid ta’limni joriy etish, onlayn baholash tizimlarini qo‘llash orqali ta’lim jarayoni yanada moslashuvchan va samarali shaklga keltiriladi. Shu bilan birga, learning analytics vositalari yordamida talabalar o‘zlashtirish darajasi, faolligi va muammoli jihatlari aniqlanib, individual yondashuvni ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Smart Education strategiyalari mazmunan pedagogik va texnologik komponentlarning uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Pedagogik jihatdan ushbu tizim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelini qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda har bir talabaning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o‘rganish tezligi inobatga olinadi. Adaptive learning texnologiyalari orqali o‘quv materiallari talabaga moslashtiriladi, bu esa o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan yondashuv ustuvor bo‘lib, unda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar va soft skills rivojlantiriladi.

Smart Education tizimida interaktiv va kollaborativ ta’lim muhim o‘rin egallaydi. Forumlar, videokonferensiyalar, virtual sinflar orqali talabalar o‘zaro hamkorlikda bilim olishadi. Project-based learning va case-study metodlari esa ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasi ham rivojlantiriladi, bunda talabalar o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va nazorat qiladi.

Texnologik jihatdan Smart Education tizimi zamonaviy axborot texnologiyalariga tayanadi. LMS platformalari o‘quv kurslarini boshqarish, topshiriqlarni taqsimlash, baholash va monitoring qilish imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar esa talabalar uchun individual tavsiyalar ishlab chiqadi va o‘quv jarayonini adaptiv tarzda tashkil etadi. Learning analytics vositalari yordamida katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilinib, talabalar faoliyatining tendensiyalari aniqlanadi. Bulutli texnologiyalar esa resurslardan istalgan joy va vaqtda foydalanish imkonini yaratadi, bu esa ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

Raqamli boshqaruv tizimlarini takomillashtirishda ilmiy asoslangan metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo, tizimli yondashuv qo‘llanilishi lozim, bunda barcha komponentlar o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida qaraladi. LMS, SIS va boshqa platformalarning integratsiyasi orqali yagona boshqaruv muhiti yaratiladi. Shu bilan birga, data-driven management — ya’ni ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv modeli samarali hisoblanadi. Bu yondashuvda qarorlar real vaqt rejimidagi aniq ma’lumotlar asosida qabul qilinadi.

Agile va iterativ boshqaruv metodlari ham zamonaviy sharoitda muhim hisoblanadi. Ular tizimni bosqichma-bosqich joriy etish va doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi. KPI va indikatorlar asosida baholash esa o‘quv jarayoni samaradorligini aniqlashda

muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, benchmarking usuli orqali ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilib, amaliyotga joriy etiladi.

Pedagogik dizayn metodlari, xususan ADDIE va SAM modellari asosida o‘quv kurslarini ishlab chiqish ta’lim sifatini oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonida o‘zgarishlarni boshqarish, ya’ni change management ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tashkilot ichidagi qarshiliklarni kamaytirish va yangi texnologiyalarga moslashuvni ta’minlash zarur.

Umuman olganda, oliy ta’limda raqamli transformatsiya jarayoni strategik boshqaruv, pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasiga asoslanadi. Smart Education tizimi esa ushbu jarayonning amaliy ifodasi bo‘lib, ta’lim samaradorligini oshirish, boshqaruvni optimallashtirish va talabalar faoliyatini individuallashtirish imkonini beradi. Raqamli boshqaruv tizimlarini takomillashtirish esa tizimli, moslashuvchan va ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

XULOSA

Oliy ta’lim muassasalarida “Smart Education” tizimlarini joriy etish masalasi zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini optimallashtirish va talabalar faoliyatini individuallashtirish imkonini beradi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, oliy ta’limda raqamli transformatsiya jarayonini boshqarish strategik yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot tizimlarini integratsiyalash, o‘quv jarayonini raqamlashtirish hamda boshqaruv mexanizmlarini avtomatlashtirish muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, learning analytics va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari orqali ta’lim sifatini oshirish va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi.

“Smart Education” strategiyalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu tizim pedagogik va texnologik komponentlarning uzviy uyg‘unligiga asoslanadi. Pedagogik jihatdan shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va interaktiv ta’lim yondashuvlari ustuvor hisoblanadi. Texnologik jihatdan esa LMS platformalari, sun’iy intellekt, learning analytics, bulutli texnologiyalar va mobil ilovalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu komponentlarning integratsiyasi ta’lim jarayonini moslashuvchan, ochiq va samarali tizimga aylantiradi.

Raqamli boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tahlillar natijasida eng samarali metodlar sifatida tizimli yondashuv, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management), agile metodologiyasi, KPI asosida baholash, benchmarking va pedagogik dizayn yondashuvlari aniqlandi. Ushbu metodlar oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Biroq

texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli kompetensiyalarning past darajasi va tizimlar integratsiyasidagi muammolar “Smart Education” tizimlarini to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida “Smart Education” tizimlarini joriy etish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki boshqaruv samaradorligini kuchaytirish, innovatsion rivojlanishni ta’minlash va global ta’lim makoniga integratsiyalashuvni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimov R.X. Oliy ta’lim tizimida raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruvni takomillashtirish. – Toshkent, 2020.
2. Muslimov N.M. Kasbiy ta’limni innovatsion rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
3. Sharipov Sh.S. Oliy ta’limda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish metodologiyasi. – Toshkent, 2021.
4. Xodjaev B.R. Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. – Toshkent, 2020.
5. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayonini boshqarish. – Toshkent, 2018.
6. Bespalko V.P. Pedagogicheskie texnologii. – Moskva: Pedagogika, 2017.
7. Andreev A.A. E-learning: teoriya i praktika. – Moskva, 2019.
8. Polat E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva, 2018.
9. Raqamli transformatsiya va oliy ta’lim boshqaruvi // Ilmiy maqola.
10. Turaeva I. The role of technology in education management in Uzbekistan: digitalization, e-learning platforms, and smart classrooms.
11. Mamarajabov O., Asatullayeva H. Ta’limda raqamli transformatsiyani amalga oshirishning asosiy tamoyillari.
12. Yang Q., Yunus M.M. va boshq. Digital innovations in higher education: a systematic review.
13. Demir K.A. Smart education framework.
14. Kerimbayev N., Adamova K., Shadiev R. Intelligent educational technologies in individual learning.
15. Xidoyatov M.B. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining raqamli transformatsiya jarayoni.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING TIL VA METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KONSEPTUAL YONDASHUVNING O‘RNI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.131

Nishonova Saida Urinboy qizi
O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konseptual yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida til kompetensiyasi hamda metodik kompetensiyaning o‘zaro uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, konseptual yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari, tamoyillari, mazmuni va samarali mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ, kompetensiyaviy va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlarning o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, til tayyorgarligi, metodik tayyorgarlik, konseptual yondashuv, kasbiy kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, metodik kompetensiya, integrativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik

Abstract. This article highlights the importance of a conceptual approach in developing the language and methodological training of future English language teachers. The study analyzes the close interrelation between language competence and methodological competence in the process of preparing future teachers for professional activity. It also examines the theoretical foundations, principles, content, and effective mechanisms for organizing the educational process on the basis of a conceptual approach. The article substantiates the role of integrative, competence-based, and practice-oriented approaches in developing the professional competence of future English language teachers. The study concludes that harmonizing language and methodological training serves to improve the quality of future teachers’ professional preparation.

Keywords: future English language teacher, language training, methodological training, conceptual approach, professional competence, communicative competence, methodological competence, integrative approach, competence-based approach, professional preparation

Аннотация.В данной статье раскрывается значение концептуального подхода в развитии языковой и методической подготовки будущих учителей английского языка. В исследовании анализируется тесная взаимосвязь языковой и методической компетенций в процессе подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности. Также рассматриваются теоретические основы, принципы, содержание и эффективные

механизмы организации образовательного процесса на основе концептуального подхода. В статье обосновывается роль интегративного, компетентностного и практико-ориентированного подходов в развитии профессиональной компетентности будущих учителей английского языка. В результате исследования делается вывод о том, что гармонизация языковой и методической подготовки способствует повышению качества профессиональной подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова: будущий учитель английского языка, языковая подготовка, методическая подготовка, концептуальный подход, профессиональная компетентность, коммуникативная компетенция, методическая компетенция, интегративный подход, компетентностный подход, профессиональная подготовка

Kirish qismi. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, bo‘lajak pedagog kadrlarni xalqaro talablarga mos ravishda tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Chunki chet tilini o‘qitish jarayoni nafaqat til birliklarini egallashni, balki ularni samarali o‘qitish metodikasini chuqur o‘zlashtirishni ham talab etadi. Shu bois bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til tayyorgarligi va metodik tayyorgarlikning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va ta’lim tili sifatida alohida mavqega ega bo‘lib bormoqda. Bu esa ingliz tili o‘qituvchisiga qo‘yiladigan kasbiy talablarni yanada kuchaytiradi. Bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat yuqori darajadagi til ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, balki o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali o‘qitish usullarini qo‘llay olishi zarur. Demak, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy shakllanishida til va metodik tayyorgarlikning integratsiyasi ustuvor ahamiyatga ega.

Pedagogik tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalasi turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning til va metodik tayyorgarligini konseptual yondashuv asosida rivojlantirish masalasi alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Konseptual yondashuv ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari va natijalarini yagona tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Mazkur yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini tizimli, izchil va samarali tashkil etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konseptual yondashuvning o‘rnini aniqlash, uning nazariy va amaliy imkoniyatlarini yoritish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konseptual yondashuvning ahamiyatini tahlil qilish, uning asosiy tamoyillari hamda ta’lim jarayonidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar va metodologiya: Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligi masalasi zamonaviy pedagogika va metodika fanida dolzarb ilmiy

yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayoni ko‘proq kompetensiyaviy, integrativ, kommunikativ hamda amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida yoritib kelinmoqda. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak pedagogning nafaqat nazariy bilimlarini, balki kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikma va malakalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

K.Johnsonning [1] fikricha, til tayyorgarligi va metodik tayyorgarlik bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq tizim sifatida қаралиши zarur. Til tayyorgarligi bo‘lajak o‘qituvchining fonetik, leksik, grammatik, pragmatik va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilsa, metodik tayyorgarlik ta’lim mazmunini tanlash, darsni rejalashtirish, samarali metod va texnologiyalarni qo‘llash, baholash hamda refleksiya olib borish kabi kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu jihatdan, ilmiy manbalarda ushbu ikki komponentni uyg‘un holda rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, Borg [6] tadqiqotlarida konseptual yondashuv ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish imkonini beruvchi metodologik asos sifatida baholanmoqda. Ushbu yondashuv orqali ta’limning maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari, vositalari va natijalari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Bu esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini tizimli ravishda rivojlantirish, o‘qitish jarayonida izchillikni ta’minlash hamda kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishga imkon beradi.

D.Freeman [5] nazariyasiga binoan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kommunikativ yondashuv, refleksiv faoliyat, interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Biroq til va metodik tayyorgarlikni aynan konseptual yondashuv asosida bir butun tizim sifatida tadqiq etish masalasi hali ham chuqur ilmiy izlanishni talab etadi. Shu sababli mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konseptual yondashuvning o‘rni alohida tahlil qilinadi.

Tahlillar qismi: Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayon ko‘p komponentli va o‘zaro bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimda til tayyorgarligi bo‘lajak o‘qituvchining chet tilida erkin va to‘g‘ri muloqot olib borish, fikrini ravon ifodalash, lingvistik birliklardan o‘rinli foydalanish, nutqiy vaziyatga mos kommunikativ strategiyalarni qo‘llash qobiliyatlarini shakllantiradi. Metodik tayyorgarlik esa o‘quv jarayonini loyihalash, zamonaviy metod va texnologiyalarni tanlash, dars jarayonini samarali tashkil etish, baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda refleksiv faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shunday ekan, ushbu ikki yo‘nalishni alohida emas, balki bir butun pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, amaliyotda ko‘pincha bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tayyorgarligiga ko‘proq e’tibor qaratilib, metodik tayyorgarlik esa nisbatan keyingi bosqichga suriladi. Bunday holat esa bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatda duch keladigan real pedagogik vaziyatlarga tayyor emasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki yuqori darajadagi til bilimining o‘zi samarali dars o‘tish uchun yetarli emas.

O‘qituvchi o‘z bilimini o‘quvchiga qanday yetkazish, qanday metodni qaysi vaziyatda tanlash, o‘quvchilarning ehtiyojlari va individual xususiyatlarini qanday ҳисобга olishni ham bilishi kerak. Demak, til va metodik tayyorgarlikning uyg‘unligi kasbiy samaradorlikning muhim omili hisoblanadi.

Konseptual yondashuv nuqtai nazaridan olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni aniq maqsad, mazmun, tamoyil, metod, vosita va natijalar tizimiga asoslanishi lozim. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, ta’lim maqsadlari bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, mazmuni til bilimlari bilan bir qatorda metodik bilim va amaliy ko‘nikmalarni ham qamrab olishi zarur. Metodlar esa interaktiv, kommunikativ, refleksiv va amaliyotga yo‘naltirilgan xususiyatga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Natijalar qismi: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konseptual yondashuv muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida tayyorgarlik jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ta’minlanadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishini tizimli va izchil tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, til tayyorgarligi va metodik tayyorgarlikning integratsiyalashgan holda tashkil etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ya’ni, talabalarda chet tilida erkin muloqot qilish, nutqiy faoliyat turlaridan samarali foydalanish, lingvistik bilimlarni amaliy qo‘llash bilan bir qatorda, darsni rejalashtirish, ta’lim metodlarini tanlash, interaktiv usullardan foydalanish, baholash va refleksiv tahlil olib borish kabi metodik ko‘nikmalar ham shakllanadi. Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining nazariy bilimi va amaliy tayyorgarligi o‘rtasida uyg‘unlik yuzaga keladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari konseptual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ, metodik va refleksiv kompetensiyalari bir vaqtning o‘zida rivojlanishini ko‘rsatdi. Bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatda uchraydigan real pedagogik vaziyatlarga moslashish, muammoli holatlarda samarali qaror qabul qilish va o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini oshiradi. Ayniqsa, amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar, mikroo‘qitish, dars kuzatuvi, ta’limiy vaziyatlar tahlili va mustaqil loyiha ishlari bu borada samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot jarayonida yana bir muhim natija sifatida shuni qayd etish mumkinki, konseptual yondashuv asosida tayyorlangan model bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yaxlit tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Ushbu modelda maqsadli komponent, mazmuniy komponent, jarayonli komponent va natijaviy komponentlarning o‘zaro aloqasi aniqlandi. Bu esa ta’lim jarayonini loyihalashda aniq mezonlar va kutilayotgan natijalarni belgilash imkonini yaratadi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda raqamli vositalardan foydalanish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va

metodik tayyorgarligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, multimedia resurslari, onlayn platformalar, taqdimotlar, raqamli baholash vositalari va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim resurslari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa konseptual yondashuvni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konseptual yondashuvni qo‘llash ularning kasbiy kompetentligini oshirish, nazariya va amaliyot integratsiyasini таъминlash hamda ta’lim sifatini yaxshilashda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur natijalar kelgusida pedagog кадрлар tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini boyitish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qismi: Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda konseptual yondashuv muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ushbu yondashuv til tayyorgarligi va metodik tayyorgarlikni o‘zaro bog‘liq, yaxlit va izchil tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish faqatgina til bilimlarini rivojlantirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda metodik bilim, amaliy ko‘nikma, refleksiv faoliyat, kommunikativ tajriba va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish malakalari ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun til va metodik tayyorgarlikning integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashning zarur sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolada asoslab berilganidek, konseptual yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tayyorgarligida maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar birligini ta’minlaydi. Natijada ta’lim jarayoni tizimli, amaliyotga yo‘naltirilgan va samarali tus oladi. Bu esa talabalarning kommunikativ, metodik, refleksiv va texnologik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari konseptual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy tayyorgarligi bilan amaliy faoliyati o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, interaktiv metodlar, mikroo‘qitish, dars tahlili, amaliy topshiriqlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish bu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Demak, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konseptual yondashuvni qo‘llash ularning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish, ta’lim mazmunini takomillashtirish va zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda amaliy modellar, maxsus metodik tavsiyalar va innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Johnson, K. E. (2009). Second Language Teacher Education: A Sociocultural Perspective. Routledge.

2. Burns, A., & Richards, J. C. (Eds.). (2009). The Cambridge Guide to Second Language Teacher Education. Cambridge University Press.

3. Freeman, D., & Richards, J. C. (Eds.). (1996). Teacher Learning in Language Teaching. Cambridge University Press.
Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. (2005). Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. Cambridge University Press.

4. Freeman, D. (2016). Educating Second Language Teachers. Oxford University Press.

5. Borg, S. (2006). Teacher Cognition and Language Education: Research and Practice. Bloomsbury.

6. TESOL. (2018). Standards for Initial TESOL Pre-K–12 Teacher Preparation Programs. TESOL International Association.

7. Kelly, M., Grenfell, M., Allan, R., Kriza, C., & McEvoy, W. (2004). European Profile for Language Teacher Education: A Frame of Reference.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

O‘QUVCHILARDA NUTQ RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK VA YOSH XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.132

Xayriyev Elyor Ibragimovich
Samarqand davlat pedagogika instituti
“Informatika” kafedrasi v.b dotsenti, (PhD)
Xudaybergenova Saodat Baxtiyorovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va Metodikasi
Boshlang‘ich ta'lim mutaxassisligi magistranti
Tel raqam: +998910304201

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning nutqiy rivojlanish bosqichlari, ushbu jarayonning kognitiv psixologiya bilan bog‘liqligi hamda davlat ta’lim standartlari doirasidagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada nutqning shakllanishi shaxsning umumiy kamoloti va ijtimoiy adaptatsiyasining asosi sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Nutqiy kompetensiya, kognitiv rivojlanish, ichki nutq, verbal intellekt, ta’lim islohotlari, psixolingvistika, ekspressiv nutq, impressiv nutq, nutq rivojlanish bosqichlari.

Kirish.O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmoni hamda 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonida zamonaviy o‘quvchining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash va nutqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Ushbu huquqiy hujjatlar o‘quvchilarning nafaqat fan asoslarini o‘zlashtirishi, balki o‘z fikrini mantiqiy, izchil va ilmiy asoslangan holda bayon eta olish qobiliyatini, ya’ni nutqiy kompetensiyasini shakllantirishni talab etadi. Shu bois, o‘quvchilarda nutq rivojlanishining psixologik mexanizmlari va yoshga doir o‘ziga xosliklarini o‘rganish bugungi kunda ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega. [45]

1. [45] O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyotjamg'armasi nashriyoti, 2006.

Zamonaviy psixologiya va pedagogikada nutq nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkurning asosi sifatida talqin etiladi. O‘quvchilarning nutq boyligi ularning ijtimoiy moslashuvi va akademik muvaffaqiyatini belgilab beruvchi asosiy omildir. L.S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, "nutq va tafakkurning genetik ildizlari turlicha bo‘lsa-da, ular rivojlanish jarayonida bir-biri bilan chirmashib ketadi". Nutq — bu inson psixikasining oliy funksiyasi bo‘lib, u murakkab psixofiziologik jarayonlar majmuidir. Nutqning shakllanishi bevosita bosh miya yarim sharlari faoliyati va shaxsning ijtimoiy tajribasi bilan bog‘liq. Psixologiyada nutq rivojlanishi ikki yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi:

-Ekspressiv nutq: Fikrni so‘z orqali tashqi muhitga uzatish.

-Impressiv nutq: O‘zgalar nutqini tushunish va idrok etish.

Nutq rivojlanishining psixologik xususiyatlari bolaning ijtimoiy muloqoti, tafakkuri va xotirasi bilan uzviy bog‘liq holda, bosqichma-bosqich kechadi. Dastlabki bosqichlarda nutq (verbal) noverbal (imo-ishora, mimika) usullar orqali shakllanadi va muloqot, bilish hamda tarbiyalash vazifalarini bajaradi. Nutq rivojlanishi diqqat va xotira kabi psixik jarayonlar bilan parallel rivojlanadi, bunda kechikkan nutq rivoji yoki boshqa buzilishlar (dizartriya, alaliya) erta aniqlanishi muhimdir. Nutq rivojlanishining asosiy psixologik xususiyatlari:

- Bosqichma-bosqichlik: Nutq shakllanishi ovoz chiqarish (g‘uldirash), bo‘g‘inlar aytish (babbling), so‘zlar va keyinchalik gaplar tuzish bosqichlaridan o‘tadi.

- Muloqot vazifasi: Nutqning birinchi vazifasi — kattalar bilan ijtimoiy muloqotga kirishish va ehtiyojlarini bildirishdir.

- Psixik jarayonlar bilan bog‘liqlik: Nutq rivojlanishi bevosita xotira, diqqat va tafakkur rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshadi.

- Noverbal vositalar: Nutq to‘liq rivojlanmaguncha, bola imo-ishoralar, mimika va pantomimikadan faol foydalanadi.

- Nutqning buzilishlari: Psixologik rivojlanishda kechikkan nutq (kechikkan nutq rivoji), logonevroz (duduqlanish), alaliya (nutqning umuman rivojlanmasligi) kabi holatlar uchrashi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi va nutqning psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri shakllantirish, ularning keyingi ta’limi va ijtimoiy moslashuvi uchun poydevor hisoblanadi. Bolalar nutqining rivojlanishi inson hayotining dastlabki yillarida shakllanadigan murakkab jarayon bo'lib, uning asosida ijtimoiy va biologik omillar yotadi. Ushbu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi va bolaning o'ziga xos psixofiziologik rivojlanish xususiyatlariga bog'liq.

Nutq shakllanish bosqichlari: sensor bosqich (0-1 yosh), preverbal bosqich (1-2 yosh), boshlang'ich verbal bosqich (2-3 yosh), murakkab verbal bosqich (4 yoshdan yuqori). Nutq rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar: ijtimoiy omillar, biologik omillar, psixologik omillardir.

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog’liqdir. Bola jumlalarning mazmuni va shaklidagi o’zgarish uning muloqot shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ-shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar

nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog’cha yoshidagi bolaning nutqi sotsial kontaktlarni o'rnatish funktsiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Bog’cha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so’z-lug’at boyligining o’sishida 2 muhim tomon - miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug’at boyligining miqdoriy o'sishi D.B. Elkoninning ko’rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug’at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko’rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V.Loginaning ma’lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug’atida 1200 ta so’z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000-3500 so'zni o’z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi. Situatsion - ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) konkret predmetli vaziyat bilan bog'lig. Bu xolat shunda ko'rinadiki bolaning nutgida ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p bo'ladi. Sifat turkumidagi so' zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlaming faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o'lchami (barcha sifatlarning 96,4%)ni ifodalaydi. 98% fe'llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi. Bolalarning nosituativ - bilishga yo'naltirilgan (vaziyatga-situasiyaga bog'liq bo'lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog'liqlikdan ozod bo'ladi. Asta-sekin atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so'zlar zahirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so'zlar (11,25%) va emotsional xususiyatlarni ko'rsatuvchi so'zlar (5%) paydo bo'ladi. Irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe'l turkumidagi so'zlar (6,24%) vujudga keladi. Nosituativ - shaxsiy muloqotda, bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqida axborot olishga, o'zining fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qilar ekan, uning nutqida umumiy grammatik murakkablashish ro'y beradi. Sifat turkumidagi so'zlar quyidagi nisbatda bo'ladi: atributiv (tashqi xususiyatlarini ifodalovchi) - 69,80%, estetik xususiyatlamni ifodalovchi sifatlar -14,65%, axloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 9,3%. Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe'llar ancha ko'payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe'llarning 9,76%ni tashkil etadi. Bolaning lug'at boyligi nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatdan ham o'sib boradi. Bu asosan bolalarning so'zlar mazmunini o'zlashtirishi bilan kechadi. Lug'atni egallash jarayoni tushunchalarni egallab borish bilan uzviy bog'liq. L.S.Vigotskiy yozishicha, "Psixologik tomondan olib qaraganda, so'zlarning mazmuni va ma'nosi - bu umumlashma yoki tushunchadan o'zga narsa emas. Biz so'zning ma'nosini bemalol tafakkur fenomeni deb hisoblashga haqlidirmiz". Bog'cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko'rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlargia jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o'zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli xarakterda ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Shu tufayli ham, bog'cha yoshidagi bolalar lug'atida abstrakt (mavhum) tushunchalar deyarli uchramaydi. Agar 3-7

yoshdagi boladan berilgan topshiriqda nutqiy faoliyatning elementi bo'lmish so'z bilan muayyan amallari bajarish talab etilsa, masalan,gap tarkibidan so'zlarni ajratib olish vazifasi berilsa, S.N.Karpovaning tadqiqoti ko'rsatishicha, bolada unga aytilgan gap belgilaydigan vaziyatga orientir olishning ancha barqaror moyilligi kuzatiladi. Berilgan gap tarkibida nechta so'z mavjud degan savolga bolalar gapni "boshdan oyoq" qaytadan takrorlaydi. S.N.Karpovaning tadqiqoti shuni isbotladiki, bog'cha yoshidagi bolada gap tarkibidan barcha turdagi so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun ularga so'zning mezonlarini, ya'ni so'z tovushlarining majmuasidan iboratliligini, so'z doim muayyan mazmunga egaligini anglashi lozim (albatta, bolalar yoshiga mos keluvchi usullar bilan) bo'ladi. Katta bog'cha yoshi davrida so'zlarning tuzatilishini stixiyali tarzda o'zlashtirish natijasida bolalarda so'zni tarkibi jihatdan tahlil etishning elementar shakllari yuzaga keladi. Nutqning fonetik(tovush) sistemasini o'zlashtirish jarayoni tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va fonematik eshitishning rivojlanishini o'z ichiga oladi. Nutqning fonetik tarkibini o'zlashtirish 1 yoshning oxirlariga kelib boshlanadi. Bog'cha yosh davrining boshiga kelib, bolalar asosan ona tilining barcha tovushlarini egallab bo'ladilar. Biroq shunday bog'cha yoshidagi bolalar ham uchraydiki, ularda ancha katta yoshda ham nutqiy nuqson, talaffuz kamchiliklari uchraydi. Buning asosiy sababi nutq apparati motorikasining sekin rivojlanishidir.[46]

O‘quvchi maktab ostonasiga qadam qo‘yganda, uning nutqi asosan muloqot ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Biroq, ta’lim jarayonida nutq kognitiv qurolga aylanadi. Kichik maktab yoshi(6-10 yosh)da nutqiy rivojlanishning eng muhim psixologik xususiyati — bu ixtiyoriylikning shakllanishidir. Bu davrda o‘quvchi lug‘ati 3000-5000 tagacha so‘zga yetadi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi dasturlariga ko‘ra, bolaning lug‘at boyligi tizimli o‘qish orqali shakllanadi. Og‘zaki nutqdan yozma nutqqa o‘tish davrida bola birinchi marta o‘z nutqini ob’ekt sifatida ko‘ra boshlaydi. Yozma nutqning o‘zlashtirilishi o‘quvchidan yuqori darajadagi mavhumlikni talab qiladi. Ichki nutqning shakllanishi L.S. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, bu yoshda bolaning tashqi nutqi ichki nutqqa (fikrlash jarayoniga) aylanadi. Bu esa o‘quvchining o‘z harakatlarini rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi. O‘quvchi darsliklar bilan ishlash jarayonida ilmiy terminlarni o‘zlashtiradi, bu esa uning "turmush nutqi"ni "akademik nutq" darajasiga ko‘taradi.

O‘smirlik davri (11-15 yosh) nutq rivojlanishida inqirozli va kreativ bosqich hisoblanadi. Psixologik nuqtayi nazardan, jargonlardan foydalanish o‘smirning o‘z guruhiga mansublik hissini va kattalar dunyosidan ajralish istagini ifodalaydi.O‘smir uchun nutq — bu o‘zligini namoyon qilish va tengdoshlari orasida o‘rin topish vositasidir. Nutq isbotlash va ishontirish funksiyasini bajaradi. Yuqori sinf o'quvchisi o'z fikrini himoya qilishda ilmiy faktlarga tayanadi, bu esa uning verbal intellekti rivojlanganidan dalolat beradi. Bu davrda nutq falsafiy va abstrakt xarakter kasb etadi. O‘quvchi murakkab mantiqiy konstruksiyalarni tuza oladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tavsiya etgan

2. [46] S. M. Baranova. Bolalar nutqining rivojlanishi. -(Moskva,2008)

pedagogik texnologiyalar aynan shu davrda "debat" va "munozara" metodlarini qo'llash samarali ekanini ko'rsatadi.

Nutq faqatgina biologik jarayon emas, balki ijtimoiy-psixologik hodisadir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq rivojlanishiga quyidagi omillar bevosita ta’sir qiladi:

Emotsional muhit: Oiladagi va maktabdagi ijobiy psixologik iqlim nutqiy to‘siqlarni (duduqlanish, tortinchoqlik) kamaytiradi.

Kognitiv stimulyatsiya: Mutolaa darajasi va intellektual o‘yinlar nutqning boyishiga xizmat qiladi.

Muloqot tanqisligi: Oilada kitobxonlik va suhbatning kamligi bolaning "nutqiy zaxirasi" qashshoqlashishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa o’rnida aytish joizki, Vygotskiy nazariyasiga mos ravishda, texnologik vositalar o’quvchilar uchun eng yaqin rivojlanish zonasidagi qiyin vazifalarni bajarishda samarali tayanch vazifasini o’tab, o’quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Texnologik vositalar boshlang’ich sinf o’quvchilarining psixofiziologik xususiyatlariga moslashtirish (jumladan, talaffuzni baholashda yuqori aniqlik talab qilmaslik) metodik amaliyotda muhim ahamiyatga egadir Psixologik jihatdan, ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarining diqqati qisqa muddatli bo’ladi. Shuning uchun texnologik vositalardan foydalanish tezkor, qisqa va qiziqarli vazifalarni taqdim etish orqali diqqatni ushlab turishga yordam beradi. Natijada, o’rganilayotgan til materiallari o’zlashtirilishi osonlashadi. Boshlang’ich maktab yoshidagi o’quvchilarning fikrlash jarayoni hali ham konkret-obrazli xarakterda bo’lganligi sababli, nutqiy ko’nikmalarni rivojlantirish uchun vizual, interaktiv va o’yin elementlariga boy (texnologik platformalar) materiallar eng yaxshi natija beradi. An’anaviy yondashuvlar aksariyat hollarda mavhum qoidalar bilan chegaralanib qoladi, texnologiya esa tushunchalarni dinamik obrazlar orqali yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.A. Gvozdev, T. S. Lifanova. Psixolingvistika. -(Moskva,2010)
2. K. V. Kolesov. Nutq va muloqot psixologiyasi. -(Tashkent: Fan, 2015)
3. S. M. Baranova. Bolalar nutqining rivojlanishi. -(Moskva,2008)
4. A. R. Mirzoev. Logopediya va nutq terapiyasi. -(Tashkent, 2012)
5. E. V. Khutorskoy. Psixologiya va pedagogikada nutqni rivojlantirish. -(Moskva, 2013)
6. Khaidarova. Nutq rivojlanishining psixologik asoslari. -(Tashkent: Ma'naviyat, 2014)
7. A. I. Sokolova. Logopediya va nutq terapiyasining nazariyasi va amaliyoti. -(Sankt-Peterburg, 2016)
8. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi
9. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyotjamg'armasi nashriyoti, 2006.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDA UNIVERSAL TA’LIM FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.133

Xolmatova Sarvinoz Raxmatilla qizi –
University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi, maktabgacha-boshlang’ich ta’lim va sport faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda universal ta’lim faoliyatlarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, ushbu jarayonda yuzaga keladigan pedagogik muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali usullari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, universal ta’lim faoliyatlari, pedagogik muammo, kompetensiya, rivojlanish, metodika.

Аннотация.В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования универсальных учебных действий у детей дошкольного возраста, а также рассматриваются педагогические проблемы, возникающие в этом процессе, и эффективные способы их решения.

Ключевые слова: дошкольное образование, универсальные учебные действия, педагогическая проблема, компетенция, развитие, методика.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of forming universal learning activities in preschool children, as well as the pedagogical challenges arising in this process and effective ways to address them.

Keywords: preschool education, universal learning activities, pedagogical problem, competence, development, methodology.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan davrda ta’lim tizimi oldida mutlaqo yangi talab va vazifalar yuzaga kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi inson kapitalining sifatiga, uning mustaqil fikrlash qobiliyatiga, muammolarni kreativ hal eta olishiga va o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarish kompetensiyalariga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, ayniqsa, maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning universal ta’lim faoliyatlarini shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich va eng muhim bo‘g‘ini hisoblanib, aynan ushbu bosqichda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning psixik

jarayonlari rivojlanishi, bilish faoliyati faollashuvi hamda ijtimoiylashuv jarayonining dastlabki asoslari yaratiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning keyingi hayotdagi muvaffaqiyati, uning intellektual salohiyati va ijtimoiy moslashuv darajasi ko‘p jihatdan aynan maktabgacha yosh davrida shakllangan ko‘nikma va kompetensiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, mazkur davrda bolalarda nafaqat alohida bilim, balki universal xarakterga ega bo‘lgan ta’lim faoliyatlarini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarda universal ta’lim faoliyatlarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonning dolzarbligi, avvalo, ta’lim mazmunining yangilanib borayotgani hamda jamiyatning shaxs rivojiga qo‘yilayotgan talablari ortib borayotgani bilan izohlanadi. Bugungi kunda bola nafaqat ma’lum bilimlarni egallashi, balki ularni mustaqil ravishda qo‘llay olishi, yangi vaziyatlarga moslashishi va o‘z faoliyatini ongli boshqara olishi lozim. Aynan shu sifatlar universal ta’lim faoliyatlari orqali shakllanadi, biroq ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonida qator tizimli muammolar yuzaga chiqmoqda.

Eng avvalo, mavjud pedagogik amaliyotda universal faoliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik asoslarning yetarlicha mukammal ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi. Ko‘plab hollarda pedagoglar o‘z faoliyatini aniq ilmiy-metodik tizimga tayangan holda emas, balki tajribaga asoslangan holda tashkil etadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini barqaror ta’minlashga to‘sqinlik qiladi. Metodik vositalarning tizimli emasligi yoki zamonaviy pedagogik talablarni to‘liq aks ettirmasligi natijasida universal ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni epizodik xarakter kasb etib qolmoqda.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonida reproduktiv yondashuv elementlarining ustunligi ham mazkur muammoning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda ko‘pincha bolalarga tayyor bilimlarni berishga yo‘naltirilgan usullar qo‘llanilib, ularning mustaqil fikrlash faoliyati yetarli darajada rag‘batlantirilmaydi. Natijada bola bilimni faol subyekt sifatida emas, balki passiv qabul qiluvchi sifatida o‘zlashtiradi. Bu holat esa universal ta’lim faoliyatlarining asosiy mohiyatiga zid bo‘lib, ularning to‘laqonli shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida differensial va individual yondashuv tamoyillarining yetarlicha amalga oshirilmayotgani ham muhim pedagogik muammolardan biri sifatida qaraladi. Har bir bolaning rivojlanish sur’ati, qiziqishlari va psixologik xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lishiga qaramasdan, ta’lim jarayonida ko‘pincha yagona standart yondashuv qo‘llaniladi. Bu esa ayrim bolalarning imkoniyatlari to‘liq ochilmasligiga, boshqalarining esa o‘zlashtirish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi. Natijada universal ta’lim faoliyatlari individual rivojlanish trayektoriyasi asosida emas, balki umumiy va yuzaki shaklda rivojlanadi.

Zamonaviy ta’lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli ortib borayotganiga qaramasdan, ularni maktabgacha ta’lim jarayonida samarali qo‘llash darajasi hali yetarli emas. Raqamli vositalar, interaktiv dasturlar va multimedia resurslarining didaktik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani natijasida bolalarda bilishga qiziqish uyg‘otish va faol o‘quv muhitini yaratish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Bu esa universal ta’lim

faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlaridan samarali foydalanilmayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur muammoning yana bir muhim jihati pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liqdir. Universal ta’lim faoliyatlarini shakllantirish pedagogdan yuqori darajadagi metodik savodxonlik, innovatsion yondashuv va refleksiv faoliyatni talab etadi. Biroq amaliyotda barcha pedagoglar ham bu talablar darajasida faoliyat yurita olmayapti. Bu esa ta’lim jarayonining rivojlantiruvchi salohiyatini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan omillar maktabgacha ta’lim tizimida universal ta’lim faoliyatlarini samarali tashkil etish masalasi hali ham o‘z yechimini to‘liq topmagan kompleks pedagogik muammo ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur muammoni hal etish esa tizimli yondashuvni, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishni hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirishni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta’lim jarayonini tashkil etishda bilimlarni tayyor holda berish emas, balki o‘quvchining (maktabgacha yoshdagi bolalarning) faol bilish jarayonini tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois, universal ta’lim faoliyatlarini rivojlantirish faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy mahorat, innovatsion fikrlash va zamonaviy metodlarni qo‘llashni talab etadi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida universal ta’lim faoliyatlarini shakllantirish jarayoni hali yetarli darajada tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Ko‘plab hollarda mashg‘ulotlar an’anaviy reproduktiv metodlar asosida olib borilib, bolalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlantirilmayapti. Bundan tashqari, pedagoglarning mazkur faoliyatlar mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetmaganligi, metodik ta’minotning yetishmasligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi kabi omillar ham ushbu jarayon samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi muammolarni ham olib kiradi. Bir tomondan, multimedia vositalari bolalarda qiziqish va motivatsiyani oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ularni maqsadli va samarali qo‘llash pedagogdan yuqori darajadagi axborot kompetensiyasini talab etadi. Shu bois, maktabgacha ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish orqali universal ta’lim faoliyatlarini rivojlantirish masalasi ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim yoshida universal ta’lim faoliyatlarini tashkil etish masalasini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi ham aynan ushbu jarayonning nazariy asoslarini tahlil qilish, pedagogik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Universal ta’lim faoliyatlari tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada muhim kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. Ushbu faoliyatlar bolalarning o‘rganish

jarayonida mustaqil faoliyat yuritishiga, bilimlarni egallash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llashiga xizmat qiluvchi umumlashgan ko‘nikmalar tizimini anglatadi. Ular o‘z ichiga kognitiv, kommunikativ, regulyativ va shaxsiy komponentlarni qamrab olib, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida ushbu faoliyatlarning shakllanishi bolaning keyingi ta’lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Universal ta’lim faoliyatlarini tashkil etishning samarali usullari

Maktabgacha ta’lim tizimida universal ta’lim faoliyatlarini samarali tashkil etish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi, avvalo, ta’limni tashkil etishda qo‘llanilayotgan metodologik yondashuvlar va didaktik vositalarning mazmuni, tizimliligi hamda ularning bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, universal ta’lim faoliyatlari an’anaviy, reproduktiv ta’limdan farqli ravishda, faoliyatga yo‘naltirilgan, integrativ, interfaol, texnologik hamda individual yondashuvlar asosida samarali shakllantiriladi.

Eng avvalo, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv universal ta’lim faoliyatlarini rivojlantirishning metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuvning nazariy ildizlari faoliyat nazariyasiga borib taqalib, unda shaxs rivojlanishi faoliyat jarayonida amalga oshishi asoslab beriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun faoliyatning yetakchi turi o‘yin ekanligini inobatga olgan holda, ta’lim jarayonini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan o‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi, muammoli vaziyatlarga duch keladi va ularni mustaqil hal etishga intiladi. Muammoli vaziyatlar yaratish, rolli va syujetli o‘yinlardan foydalanish orqali bolalarda tahlil qilish, qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini rejalashtirish kabi universal ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa ularni passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

tomonidan faol o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar STEAM yondashuvining nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari hamda pedagogik samaradorligini yoritishga qaratilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan biri G.Yakman STEAM ta’limining konseptual asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, u STEAMni fanlararo integratsiyaga asoslangan yaxlit ta’lim modeli sifatida talqin etadi. Muallif o‘z tadqiqotlarida STEAM yondashuvi orqali talabalarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan. Yakmanning qarashlari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida fanlararo yondashuvni shakllantirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. J.Bybee tadqiqotlarida STEAM (avval STEM) ta’limining pedagogik ahamiyati tahlil qilinib, ushbu yondashuvning zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga mosligi ko‘rsatib berilgan. Muallif STEAM ta’limi o‘qituvchilardan nafaqat fan bilimlarini, balki loyihaviy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil eta olish kompetensiyalarini ham talab qilishini ta’kidlaydi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda STEAM texnologiyalarini alohida metodik yo‘nalish sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. R.Sanders o‘z ilmiy ishlarida STEAM ta’limiga san’at komponentini kiritishning ahamiyatini asoslab beradi. Uning fikricha, san’at elementlari STEAM ta’limida ijodkorlikni kuchaytirib, pedagoglarning noan’anaviy yondashuv asosida darslarni loyihalashiga imkon yaratadi. Ushbu g‘oya bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiyalik olimlardan V.A.Slasteninva I.F.Isaev pedagog kadrlarni tayyorlash masalalarini tadqiq etar ekan, innovatsion ta’lim texnologiyalarining kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi rolini alohida ta’kidlaydilar.

Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari, jumladan, STEAM yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi. [2,3].

O‘zbekistonlik olimlardan N.Sayidahmedovva R.Djuraev pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalarini chuqur o‘rgangan. Ularning ishlarida ta’lim jarayonini loyihalash, amaliy faoliyatga yo‘naltirish va innovatsion metodlardan foydalanish g‘oyalari ilgari suriladi. Ushbu qarashlar STEAM texnologiyalarini bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga tatbiq etishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.Shuningdek, U.Begimkulovva B.Xodjayevlarning tadqiqotlarida raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik ta’limdagi o‘rni yoritilgan. Mualliflar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Bu esa STEAM texnologiyalarining raqamli vositalar bilan uyg‘unligini asoslaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM texnologiyalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosan umumta’lim muassasalari doirasida olib borilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida STEAM yondashuvining metodik jihatlarini tizimli ravishda o‘rganish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur mavzu ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Metadologiya

Pedagogika fanini STEAM integratsiyasi asosida o‘qitish jarayonida taqqoslash metodi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu metod yordamida an’anaviy o‘qitish yondashuvlari bilan

STEAM asosidagi o‘qitish usullari o‘zaro solishtirildi hamda ularning afzallik va kamchiliklari aniqlab beriladi. STEAM asosidagi mashg‘ulotlar loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar yaratish, amaliy topshiriqlar va interfaol metodlar orqali olib boriladi. Talabalarga real hayotiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar berilib, ular orqali fanlararo bilimlarni integratsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Mashg‘ulotlarda “aqliy hujum”, “klaster”, “INSERT”, “BBB” kabi interfaol metodlardan samarali foydalaniladi. Mashg‘ulotlar davomida kuzatuv, so‘rovnoma va test metodlari orqali talabalarning bilim darajasi, metodik tayyorgarligi hamda o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabati o‘rganiladi. Umuman olganda, qo‘llanilgan metodlar tadqiqot maqsadiga erishishda muhim ahamiyat kasb etib, pedagogika fanini STEAM asosida o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishda samarali ekanligini aniqlashga xizmat qiladi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari pedagogika fanini STEAM integratsiyasi asosida o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Tajriba-sinov ishlari davomida olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, loyihaviy faoliyat va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali talabalar mustaqil fikrlashga, izlanishga va ijodiy yondashishga ko‘proq jalb etiladi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etadi. Ularning metodik kompetensiyalari, jumladan, darsni rejalashtirish, o‘qitish metodlarini tanlash, interfaol usullardan foydalanish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik va jamoada ishlash kompetensiyalari shakllanadi. [5,6].

Tajriba jarayonida o‘tkazilgan so‘rovnoma va kuzatuv natijalari talabalarning STEAM asosidagi ta’limga nisbatan ijobiy munosabatini ko‘rsatadi. Ular bunday mashg‘ulotlar orqali o‘z bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘lganliklarini ta’kidladilar. Shu bilan birga, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasi ham sezilarli darajada oshgani aniqlanadi. Statistik tahlil natijalari ham tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi yuqorilaganini ko‘rsatdi. Bu esa STEAM integratsiyasi asosida o‘qitishning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Umuman olganda, olingan natijalar pedagogika fanini STEAM yondashuvi asosida o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogika fanini STEAM integratsiyasi asosida o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. An’anaviy o‘qitish yondashuvlari bilan solishtirganda, integratsiyalashgan STEAM yondashuvi talabalarda fanlararo fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda samaraliroq natijalar beradi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, STEAM texnologiyalarini qo‘llash nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki ularni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini ham yaratadi. Bu esa

bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, loyihaviy faoliyat, tajriba va modellashtirish asosidagi mashg‘ulotlar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va o‘quv jarayonini interaktiv holga keltiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, STEAM integratsiyasini samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning o‘zida yetarli metodik tayyorgarlikning mavjud emasligi, moddiy-texnik bazaning cheklanganligi hamda o‘quv dasturlarining yetarlicha moslashmaganligi muhim to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu holat STEAM yondashuvini keng joriy etishda tizimli yondashuv va maxsus metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqishni talab etadi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, agar STEAM asosida o‘qitish jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa, talabalar nafaqat bilim, balki ko‘nikma va kompetensiyalarni ham samarali egallaydi. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari STEAM integratsiyasiga asoslangan pedagogik ta’lim modeli zamonaviy ta’lim talablariga javob berishini va bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, amaliy tajribalarni kengaytirish va ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi ta’kidlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fanini STEAM integratsiyasi asosida o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim sifatini oshiradi, talabalarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantiradi hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlaydi. Kelgusida STEAM texnologiyalarini yanada keng joriy etish va ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. STEAM asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar o‘z bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bunday yondashuv orqali nazariy bilimlar amaliyot bilan uzviy bog‘lanadi, bu esa o‘z navbatida metodik tayyorgarlik darajasini oshiradi.

REFERENCES

1. S.T.Turg‘unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva “Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari” “O‘zbekiston Respublikasi O‘zPFITI” nashriyoti, T.:2014

2. To‘raqulova M.B. Steam ta’lim texnologiyasi asosida bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni. // Inter education & global study. 2025. №1 B. 108-114.

3. D.R. Babayeva, N.N. Djamilova, D.F. Xalilova “Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma T-2022-y.

4. Yakman, G. (2008). STEAM education: An overview of creating a model of integrative learning. The STEAM Journal, 1(1), 1-15.

5. Bybee, J. (2010). Advancing STEM education: A 2020 vision. Technology and Engineering Teacher, 70(1), 30-35.

6. Sanders, R. (2009). STEM, STEM education, STEMmania. The Technology Teacher, 68(4), 20-26.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BILIMNI BAHOLASH JARAYONIGA INTEGRATSIYASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.138

Andijon davlat universiteti
Kompyuter injiniringi kafedasi katta o‘qituvchi
Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o‘g‘li

Annotatsiya. Raqamli transformatsiya davrida ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri bu baholash tizimini avtomatlashtirish va optimallashtirishdir. Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini ta’lim tizimiga, xususan, talabalar bilimini baholash jarayonlariga joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda an’anaviy baholash usullarining cheklangan jihatlari va SI yordamida ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish, shaffoflikni ta’minlash hamda individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, adaptiv test tizimlari, insho va ijodiy ishlarni tekshiruvchi algoritmlar hamda proktoring tizimlarining samaradorligi ko’rsatib o’tilgan. Maqola yakunida SI integratsiyasining istiqbollari va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan etik muammolar yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so’zlar: sun’iy intellekt, AI baholash, NLP, Machine Learning, Large Language Models, adaptiv baholash, automated assessment, xolislik, etika, integratsiya modeli.

Аннотация. Одним из главных факторов повышения качества образования в эпоху цифровой трансформации является автоматизация и оптимизация системы оценивания. В данной статье анализируются вопросы внедрения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в систему образования, в частности, в процессы оценки знаний учащихся. В исследовании освещаются ограничения традиционных методов оценивания и возможности автоматизации этих процессов с помощью ИИ, обеспечения прозрачности и создания индивидуальных образовательных траекторий. Также показана эффективность адаптивных систем тестирования, алгоритмов проверки эссе и творческих работ, а также систем контроля за выполнением заданий. В заключение статьи приводятся выводы о перспективах интеграции ИИ и возможных этических проблемах.

Ключевые слова: искусственный интеллект, оценка с помощью ИИ, НЛП (обработка естественного языка), машинное обучение, большие языковые модели, адаптивное оценивание, автоматизированное оценивание, беспристрастность, этика, модель интеграции.

Abstract. One of the main factors for improving the quality of education in the era of digital transformation is the automation and optimization of the assessment system. This

article analyzes the issues of introducing artificial intelligence (AI) technologies into the education system, in particular, into the processes of assessing student knowledge. The study highlights the limitations of traditional assessment methods and the possibilities of automating these processes with the help of AI, ensuring transparency, and creating individual educational trajectories. It also shows the effectiveness of adaptive testing systems, algorithms for checking essays and creative works, and proctoring systems. At the end of the article, conclusions are given on the prospects of AI integration and possible ethical issues.

Keywords: artificial intelligence, AI assessment, NLP, Machine Learning, Large Language Models, adaptive assessment, automated assessment, impartiality, ethics, integration model.

KIRISH. So’nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining turli sohalardagi integratsiyasi soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, oliy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o’qitish metodikasini o’zgartirib, balki ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv shaklga keltirishga yordam bermoqda. Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyasi ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan o’qitish uslublarini ishlab chiqish, talabalarning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish, ularga individual yondashuvni yo’lga qo’yish va o’qituvchilarga pedagogik jarayonni samarali boshqarishda ko’maklashish imkonini beradi. Shuningdek, bunday texnologiyalar o’qituvchilarga har bir talabani chuqurroq tushunish va ularning qobiliyatlarini aniqlash imkoniyatini ham taqdim etadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim jarayonining turli bosqichlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shulardan biri – bilimni baholash jarayonidir. An’anaviy baholash usullari ko’pincha vaqt talab qiluvchi, subyektiv va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda qiyinchilik tug’diradi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish esa ushbu muammolarni hal qilish, baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Bugungi kunda ta’lim platformalarida sun’iy intellekt asosida ishlaydigan test tizimlari, avtomatik baholash algoritmlari va adaptiv o’quv tizimlari keng qo’llanilmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi baholash jarayonida mutlaqo yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqardi. SI asosida yaratilgan tizimlar nafaqat test topshiriqlarini avtomatik tekshirish, balki yozma ishlarni semantik tahlil qilish, talabalar faoliyatini monitoring qilish, individual yondashuvni shakllantirish kabi murakkab vazifalarni ham samarali bajara oladi. SI texnologiyalari baholashning turli shakllarini avtomatlashtirishda qo’llaniladi:

- test topshiriqlarini avtomatik tekshirish,
- qisqa javoblarni semantik tahlil qilish,
- matnli ishlan-malarni baholash,
- plagiatni aniqlash,
- adaptiv testlar yaratish,
- talabalarning individual o’quv trayektoriyasini shakllantirish.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari baholash jarayonining obyektivligi va shaffofligini ta’minlashda ham muhim rol o’ynaydi. An’anaviy baholash usullarida inson omili sababli yuzaga kelishi mumkin bo’lgan subyektivlik SI asosidagi tizimlar yordamida sezilarli darajada kamayadi. Algoritmlar oldindan belgilangan mezonlar asosida ishlaganligi sababli barcha talabalar uchun teng va adolatli baholash muhitini yaratadi.

Sun’iy intellekt yordamida o’quv jarayonida to’plangan katta hajmdagi ma’lumotlarni (learning analytics) tahlil qilish ham mumkin. Bunday tahlillar orqali talabalar bilim darajasi, o’zlashtirish sur’ati, qiyinchilik tug’dirayotgan mavzular hamda o’qitish usullarining samaradorligi aniqlanadi. Natijada o’qituvchi o’quv jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun muhim pedagogik qarorlar qabul qila oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi imkoniyatlari dastlab XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o’rganila boshlagan. J.Anderson, A.Corbett, K.Koedinger va R.Pelletier tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda intellektual o’qitish tizimlari o’quvchilarning bilim darajasini aniqlash va moslashtirilgan o’quv materiallarini taqdim etishda samarali ekanligi ko’rsatib berilgan. Ularning tadqiqotlari sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlarining shakllanishiga asos bo’lib xizmat qilgan.

Sun’iy intellekt asosida bilimni baholash masalasi D.Boud va N.Falchikov tomonidan ham o’rganilgan. Ular baholash jarayonini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurligini ta’kidlab, baholash tizimida o’quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ekanligini qayd etganlar. Tadqiqotchilar sun’iy intellekt yordamida o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini tahlil qilish va ta’lim jarayonini optimallashtirish mumkinligini ko’rsatganlar.

M.Kutoumisu, D.B.Chin va D.L.Shvarts o’z tadqiqotlarida “baholash talabalarning o’rganish jarayonlarini emas, nimani o’rganganliklarini o’lchaydi”[47] degan fikrni ilgari surishgan. Bu shuni anglatadiki, an’anaviy baholash usullarining aksariyati talabalarga baholash paytida o’rganish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun M.Kutoumisu, D.B.Chin va D.L.Shvarts dinamik, interaktiv baholash usullari o’quvchilarning ta’lim jarayonidagi yutuqlarini o’lchashga va nafaqat ularning yangi materiallarni o’zlashtirishdagi hozirgi bilim va ko’nikmalarini, balki kelajakdagi ta’lim salohiyatini rivojlantirishni ham aniqlashga qaratilgan.

W.Holmes, M.Bialik va C.Fadellarning ilmiy tadqiqotlarida berilishicha, sun’iy intellekt texnologiyalari baholash jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, talabalar faoliyatini monitoring qilish hamda individual o’quv strategiyalarini shakllantirish imkonini yaratadi. Bunday tizimlar nafaqat test topshiriqlarini avtomatik tekshiradi, balki yozma ishlarni semantik tahlil qilish, plagiatni aniqlash va adaptiv testlarni yaratish kabi murakkab vazifalarni ham bajaradi[48].

[47] Cutumisu M., Chin D.B., & Schwartz D.L. A digital game-based assessment of middle-school and college students’ choices to seek critical feedback and to revise // British Journal of Educational Technology. – 2019. – Vol.50. №6. – P. 2977-3003.

[48] Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

Sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari adaptiv baholash mexanizmlarini yaratishda ham muhim rol o’ynaydi. Adaptiv test tizimlari talabalar bilim darajasiga mos ravishda savollar murakkabligini avtomatik o’zgartirib boradi. Bu esa baholash jarayonining aniqligi va samaradorligini oshiradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, bunday tizimlar individual o’quv trayektoriyasini shakllantirish va shaxsiylashtirilgan ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari yozma ishlarni avtomatik baholas) tizimlarini yaratishda ham keng qo’llanilmoqda. Zamonaviy algoritmlar tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari asosida talabalarning yozma javoblarini semantik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o’qituvchilarning ish yukini kamaytirish bilan birga baholash jarayonining tezligi va obyektivligini oshiradi.

Sun’iy intellekt va ta’lim analitikasi masalalari G.Siemens va R.Baker tomonidan keng tadqiq qilingan. Ularning ishlarida katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish orqali o’quvchilarning o’rganish jarayonini chuqur tahlil qilish mumkinligi ko’rsatib berilgan. Mazkur yondashuv o’qituvchilarga o’quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ta’lim strategiyalarini takomillashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, J. Luckin, R. Holmes, M. Griffiths va L. Forcier tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi imkoniyatlari, xususan bilimni baholash, o’quv jarayonini individuallashtirish va o’qituvchilar faoliyatini qo’llab-quvvatlash masalalari yoritilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari bilimni baholash jarayonini avtomatlashtirish, baholashning obyektivligini oshirish va o’quvchilarning bilim darajasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilish uchun pedagogik, texnologik va metodik yondashuvlarni yanada rivojlantirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

E-assessmentda SI texnologiyalarini integratsiya qilish masalasi, avvalo, baholashning maqsadi va konstruktini, ya’ni o’lchanayotgan kompetensiya modelini aniq belgilashni talab qiladi. Chunki “baholash” tushunchasi testdan yuqoriroq bo’lgan murakkab pedagogik o’lchov tizimidir. Pedagogik o’lchov nazariyalarida baholashning ishonchliligi, validligi, adolatliligi, shaffofligi va interpretatsiya qilinuvchanligi muhim mezonlar sifatida ko’riladi. SI integratsiyasi ushbu mezonlarni kuchaytirishi ham, aksincha, noto’g’ri qurilganda zaiflashtirishi ham mumkin. Shuning uchun SI asosidagi baholashda texnologik imkoniyatlar bilan birga metodik cheklovlar, ma’lumotlar sifati, etik masalalar va pedagogik maqsadlar o’rtasidagi muvozanat bosh konseptual vazifa bo’lib qoladi. Xususan, kompetensiyaga yo’naltirilgan ta’limda baholash jarayoni faqat “to’g’ri-javob” paradigmasiga tayanib qolmasdan, muammoni yechish strategiyalari, kod yozish uslubi, yechimning murakkablik darajasi, mantiqiy asoslanganlik hamda refleksiya kabi ko’p o’lchovli ko’rsatkichlarni ham o’lchashi talab etiladi. Bu esa tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashinaviy o’rganish (ML), bilimlarni kuzatish, o’quv analitikasi va tavsiyaviy tizimlar kabi yo’nalishlarning baholash tizimlariga integratsiyasini metodik jihatdan dolzarb qiladi.

Baholash jarayonida qo’llaniladigan SI texnologiyalari bir xil emas, ya’ni ularning har biri turli muammolarni hal qilishga ixtisoslashgan bo’ladi. Quyidagi jadval asosiy texnologiya turlarini, ularning qo’llanilish sohalarini va amaliy platformalarni sistematik tarzda ko’rsatadi:

AI texnologiyasi	**Baholash sohasi**	**Platformalar**	**Kuchli tomoni**	**Cheklovlar**
Natural Language Processing – tabiiy til qayta ishlash	Yozma ishlar, esseylar, hisobotlar	Turnitin FeedbackStudio, Grammarly, EssayGrader	Matn tuzilmasi, dalillar, til sifati	Ijodiy mazmunni to’liq tushunmaslik
Machine Learning – o’rganuvchi algoritmlar	Adaptiv test, xatolarni bashorat qilish	ALEKS, Knewton, Carnegie Learning	Individual yo’l, aniqlik yuqori	Katta ma’lumot talab qiladi
Computer Vision – kompyuter ko’rishi	Amaliy ko’nikma, laboratoriya, grafik	Gradescope, CodinGame, Labster	Ob’ektiv vizual tahlil	Annotatsiya va sozlash kerak
Speech Recognition – ovozni tanish	Og’zaki taqdimot, til ko’nikmalari	Speechace, ELSA Speak, Soapbox	Talaffuz, intonatsiya, ravonlik	Shovqin va aksent muammolari
Sentiment Analysis – his-tuyg’u tahlili	Motivatsiya, ishtirok, stress darajasi	Canvas Insights, Civitas Learning	Hissiy holat monitoringi	Etik va maxfiylik muammolari
Graph Neural Network – grafik neyron tarmog’i	Bilim tuzilmasini xaritalash	Knowre, Cerego, Memorize.ai	Kontseptlar orasidagi bog’liqlik	Yaratish murakkab, ixtisoslashgan
Large Language Models – katta til modellari	Dialog, refleksiya, ochiq savollar	GPT-4 asosli tizimlar, Khanmigo	Murakkab javoblarni baholash	Gallyutsinatsiya xavfi, tekshiruv kerak

1-jadval. SI texnologiyalarining baholash jarayonidagi qo’llanilish sohalari va platformalari

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, har bir SI texnologiyasi o’ziga xos baholash sohasida ustunlik qiladi. NLP yozma ishlar uchun, Computer Vision amaliy ko’nikmalar uchun, Speech Recognition og’zaki baholash uchun, ML esa adaptiv va bashoratli funksiyalar uchun maqbuldir. Zamonaviy kompleks platformalar (masalan, Gradescope yoki Turnitin) bir nechta texnologiyani birgalikda qo’llaydi.

Muhim kuzatuv: Large Language Models (ChatGPT, GPT-4, Gemini) ning paydo bo’lishi baholash landshaftini tubdan o’zgartirishga kirishdi. LLM nafaqat matnni baholaydi – u baholash topshiriqlarini yaratishi, rubrika ishlab chiqishi, talaba javobini tahlil qilishi va taraqqiyotga yo’naltirilgan feedback berishi mumkin. Bu multi-funksionallik an’anaviy AI baholash tizimlaridan sifat jihatidan farq qiladi.

SI integratsiyasida muhim metodik masalalardan yana biri – baholash natijalarining interpretatsiyasi va qayta aloqa sifatidir. An’anaviy baholashda talaba ko’pincha faqat ball oladi. SI asosidagi e-assessment esa, ball bilan birga “diagnostik profil” berishi mumkin:

- “Qaysi mavzular bo’yicha xatolar ko’p?”;
- “Qaysi ko’nikmalar shakllanmagan?”;
- “Qanday resurslar tavsiya etiladi?”;
- “Qaysi topshiriqlar ketma-ketligi eng samarali bo’ladi?”.

Bu yondashuv formativ baholashni kuchaytirib, talabaning o’z-o’zini boshqarishi uchun ma’lumot beradi. Biroq feedbackning haddan tashqari ko’pligi yoki noto’g’ri prioritetlanganligi ham salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin: talaba nimadan boshlashni bilmay qoladi yoki “algoritm aytganini bajarish”ga ko’nikib, metakognitiv refleksiyasi susayadi. Shuning uchun feedback dizayni didaktik tamoyillarga mos bo’lishi, qisqa va harakatga yo’naltirilgan tavsiyalarni berishi, hamda talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirilishi kerak. “Axborot tizimlari va texnologiyalari”da, masalan, koddagi xatolar ro’yxatini berishdan ko’ra, eng muhim 2-3 ta xatoni ajratib ko’rsatish, ularni toifalash va tegishli mini-mashqlarni tavsiya qilish talabaning o’zlashtirishini tezlashtirishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Axborot tizimlari va texnologiyalari” yo’nalishi misolida SI integratsiyasi, ayniqsa, amaliy kompetensiyalarni baholashda sezilarli metodik afzallik beradi. Dasturlash topshiriqlarida talabaning yechimi turli yo’llar bilan to’g’ri bo’lishi mumkin; an’anaviy testlar esa ko’pincha bitta to’g’ri javobga tayanadi. SI asosidagi baholash tizimi esa ko’p variantli yechimlarni klasterlash, koddagi naqshlarni tanish, algoritmik murakkablikni taxmin qilish va xatolar sinfini aniqlash orqali baholashni moslashuvchan qiladi. Masalan, statik kod tahlili va MO kombinatsiyasi yordamida talabaning kodida xavfsizlik zaifliklari, noto’g’ri exception handling, resurslarni yopmaslik, yoki concurrency xatolari aniqlanib, ball faqat natija emas, jarayon sifati bilan ham bog’lanadi. Bu yondashuv baholashning validligini oshiradi, chunki u haqiqiy kasbiy kompetensiyaga yaqinroq indikatorlarni o’lchaydi. Biroq bunday murakkab baholash modeli metodik jihatdan aniq rubrikalar va kriterial baholash me’yorlari bilan mustahkamlanmasa, talaba uchun baholash “nima uchun shuncha ball qo’yildi?” degan savolda tushunarsiz bo’lib qolishi mumkin; bu esa shaffoflik talablariga zid. Shu nuqtada baholash rubrikalarini SI xulosalari bilan uyg’unlashtirish, ya’ni SI tomonidan aniqlangan

xususiyatlarni rubrikadagi ko’rsatkichlarga (masalan, “kodning o’qilishi”, “xatolarga chidamlilik”, “optimallik”, “xavfsizlik”) map qilish metodik talab sifatida yuzaga chiqadi.

Baholashda xolislik – ikki mustaqil baholovchining bir xil ishga bir xil ball berishidir. An’anaviy baholashda bu ko’rsatkich o’qituvchilar charchoqi, sub’ektiv did va baholash mezonlarini har xil talqin qilish sababli tebranib turadi. SI tizimlar esa bir topshiriqni har safar bir xil mezonlar asosida baholaydi – bu deterministic consistency deyiladi.

Topshiriq turi	Odam baholash (%)	AI baholash (%)	Ustunlik
Test topshiriqlari (MCQ)	95-99%	95-99%	Ikkalasi teng
Qisqa yozma javob (1-3 jumla)	72-81%	88-93%	Ustunlik SIda
Esse / yozma ish	63-74%	79-86%	Ustunlik SIda
Amaliy loyiha (rubrika asosida)	58-70%	82-91%	Ustunlik SIda
Og’zaki taqdimot	51-66%	74-83%	Ustunlik SIda
Guruh ishi va hamkorlik	45-60%	61-72%	Ikkalasi teng
Ijodiy va badiiy ish	55-68%	48-62%	Ustunlik insonda

2-jadval. Topshiriq turi bo’yicha SI va odam baholash xolisligi (%)

Jadval bir muhim noziklikni ko’rsatadi, SI yozma va amaliy topshiriqlarda odamdan ustun keladi, lekin ijodiy va badiiy ishlarda odam hali ham yaxshiroq hisoblanadi. Bu insoniy va sun’iy intellekt bir-birini to’ldirishi kerakligini anglatadi. Optimal yondashuv sifatida oddiy va yarim strukturalashgan topshiriqlar uchun SI, ijodiy va nozik topshiriqlar uchun inson+SI gibrid modeli olinishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga kirib kelishi bilimni baholash jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy elektron baholash tizimlari sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish orqali baholash jarayonini avtomatlashtirish, natijalarni tezkor tahlil qilish va o’quvchilarning individual o’zlashtirish darajasini aniqlash imkonini bermoqda. Bunday texnologiyalar yordamida test topshiriqlarini avtomatik tekshirish, qisqa va yozma javoblarni semantik tahlil qilish, plagiatni aniqlash, adaptiv testlarni yaratish hamda o’quvchilarning o’quv faoliyatini monitoring qilish kabi murakkab vazifalarni samarali amalga oshirish mumkin.

Sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari baholashning obyektivligini oshirish, inson omili ta’sirini kamaytirish va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o’quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday tizimlar o’quvchilarning individual ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olgan holda moslashuvchan (adaptiv) baholashni tashkil etish imkonini beradi. Natijada shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish va o’quv jarayonini optimallashtirish imkoniyati kengayadi.

Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarini baholash tizimiga integratsiya qilish jarayonida ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik xatoliklar, etik masalalar va texnologiyalardan noto’g’ri foydalanish xavfi kabi muammolar ham mavjud. Shu sababli sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlarini joriy etishda pedagogik, texnologik va huquqiy jihatlarni kompleks ravishda hisobga olish zarur.

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining bilimni baholash jarayoniga integratsiyasi ta’lim sifatini oshirish, baholash jarayonini yanada shaffof va samarali tashkil etish hamda o’quvchilarning bilim darajasini aniq va tezkor baholash imkonini beradi. Kelajakda sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib, innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. M.I. Abdumannopov. TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA E-ASSESSMENT VOSITASIDAN FOYDALANISHNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. 3 (29), 33-35.

2. ABDUMANNOPOV, M. I. O. G. L., & MIRZAAXMEDOV, M. K. BO’LAJAK O’QITUVCHILARINING AKT BO’YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR. ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука", 40-43.

3. A.Karimov. Sun’iy intellekt asosida baholash tizimlari. Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti. 2022.

4. Raxmonov O., Foziljonova M., Abdumannopov M. BO’LAJAK INFORMATIKA O’QITUVCHISINING SHAXSIY KOMPETENTLIK OSHIRISH MODELI. // Ta’lim fidoyilari, March 2022. p. 18-26.

5. Williamson B., Eynon R., Potter J. Pandemic Politics, AI and Education. Learning, Media and Technology, 2020.

6. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

7. Siemens G. Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. American Behavioral Scientist, 2013.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TA’LIM JARAYONIDA QISHLOQ XO‘JALIK FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.139

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti (PhD) ***X.I.Ilxomov***
E-mail: xurshidIlxomov.@gmail.com

Annotatsiya. Ta’lim jarayonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish va yetishtirish fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish talabalarga fanga oid innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish va yetishtirish bilan bog‘liq darsliklar va mashg‘ulotlar, talabalarga amaliyotda ishlab chiqarishni o‘rganish, texnologiyalarni boshqarishni va ish joylarida muammolarni hal qilishni o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu ularning zamonaviy sanoatda o‘zlarini yangicha g‘oyalarini bayon etish va o‘rganish va rivojlantirishga sharoit yaratadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish va yetishtirish bilan bog‘liq innovatsiyalar, talabalarga qishloq xo‘jaligi sohasidagi turli texnologiyalarni va zamonaviy qurilmalarni o‘rganish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: komponent, funksional, texnologiya, energiya, integratsiya, texnika, quyosh, konstruksiya, didaktik funksiya, qurilma.

Kirish. Ta’lim jarayoni rivojiga bir nazar tashlasak, bugungi kunda innovatsion texnika va texnologiyalar yordamida qanchalik muhim pedagogik masalalarning yechimi topilayotganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Ta’limning turli sohalarida innovatsion texnologiyalarining qo‘llanilish tajribalaridan shuni ko‘rish mumkinki, innovatsion texnologiyalar bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib berayapti, quyidagilar shular jumlasidandir: professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish; ilmiy-uslubiy markazda ta’lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish; masofaviy ta’lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog‘ini tashkil etish; tezkor axborot almashinuvi; ta’limdagi sheriklarning, bu talaba, o‘quvchi, o‘qituvchi, ilmiy xodim bo‘lishidan qat’iy nazar, ularga o‘zaro fikr almashinish ko‘nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o‘z fikr-mulohazalarini tez, lo‘nda va aniq ifoda etishni o‘rgatish; madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o‘stirish va hokazo. Ta’lim jarayonida innovatsion o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko‘rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o‘zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o‘rgatishimiz lozim [1,2]. Ta’limning didaktik xossalari bilan bog‘langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita zamonaviy innovatsion texnika va

texnologiyalar bilan bog‘lash bu ta’lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega. Didaktik funksiya sifatida biz o‘quv- tarbiyaviy jarayonda ma’lum bir maqsadlarda qo‘llanilayotgan ta’lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz. Bu ularning o‘quv jarayonidagi foydalanish vazifalari, tutgan o‘rni va ahamiyatidan iborat.

Bizga ma’lumki, ta’limda innovatsion texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni ta’lim oluvchiga texnikasi va dasturiy vositalar yordamida uzatish jarayonidir. Ta’limda innovatsion texnologiyalarining qo‘llanilish jarayonida o‘quv axborotini uzatishda ishtirok etuvchi ikkita komponenta mavjud: texnik vositalar va har xil maqsadlarda yaratilgan texnologik vositalar.

Darsga tayyorgarlik va dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishi uchun o‘qituvchi bu komponentalarning funksional imkoniyatlari va qo‘llanilish shartlarini juda yaxshi bilishi lozim, chunki ham texnik va ham dasturiy vositalar o‘ziga xos xususiyatlarga va o‘quv jarayoniga ta’sirga ega. Buni tushunish uchun dars jarayonida qishloq xo‘jalik fanlarini o‘qitishda innovatsion texnika va texnologiyalar nima uchun qo‘llaniladi va innovatsion texnologiyalar vositalaridan foydalanib qanday uslubiy masalalar yechiladi, degan savolga javob berishimiz lozim[3].

Innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari quyidagilar: shaxsiyatni rivojlantirish (tafakkur; estetik tarbiya; tajriba-tadqiqot faoliyatini olib borishni rivojlantirish); axborot madaniyatini shakllantirish; aniq bir sohaning mutaxassislarini tayyorlashda foydalanuvchining umumiy axborot tayyorgarligi iborat ijtimoiy buyurtmani bajarish; o‘quv-tarbiya jarayoni unumdorligini, ta’limning sifat va samaradorligini oshirish, bilish va o‘rganish faoliyatining muhim jihatlarini ta’minlash, va fanning integratsiyasi hisobiga innovatsion texnologiyani fanlararo bog‘liqlikni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritish texnikasi va texnologiyasi fanini o‘qitishda hozirgi kunda energiya resurs tejamkor innovatsion texnika va texnologiyalar yaratilmaoqda shulardan biri quyosh mini meva-sabzavot quritgich qurilmasi bo‘lib uning samaradorligini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida tejamkor va sifatli mahsulot olinadigan texnologiyalar haqida talabalarga ma’lumot beriladi[4,5].


Hozirgi kunda avvalgi texnologiyalarga qiyoslanib energiya resuris tejamkor xilma-xil innovatsion texnika va texnologiyalar yaratilmaoqda shulardan biri quyosh mini meva-sabzavot quritgich qurilmasi bo‘lib uning samaradorligini oshirish maqsadida ulardan yoz-kuz mavsumida meva-sabzavotlarni quritish, erta bahorda ko‘chat yetishtirish maqsadida foydalaniladi.

Mevalarni quritishning mavjud vositalari va usullarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, issiqlik ta’minotining konvektiv usuliga ega kamerali quritgichlar xususiy dehqon va fermer xo‘jaliklarida eng keng tarqalgan. Tahlil asosida quritgichlar tegishli energiya sarfini ta’minlamasligi aniqlandi, ular past issiqlik samaradorligi va o‘ziga xos xarajat sarfini oshirishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun kichik hajmdagi mevalarni quyosh energiyasiga (quyosh quritgichlariga) asoslangan quritgichlarda quritish maqsadga muvofiqdir, bu mevalarning bir xil isitilishini va mahsulotning deformatsiyasiga va yorilishiga olib kelmaydigan energiya tejaydigan quritish rejimini ta’minlaydi. Quyosh quritgichlaridan

foydalanish, ayniqsa kichik miqdordagi mevalarni quritish kerak bo‘lgan shaxsiy dehqon va fermer xo‘jaliklari sharoitlari uchun oqilona foydalaniladi[6].

Tadqiqot metadologiyasi. Quyosh quritgichlarini tanlash ishlab chiqarish ko‘lami, hududning iqlimiy xususiyatlari, quritiladigan mahsulot turi va sifatli mahsulot olinishi qo‘shimcha energiya narxi bilan belgilanadi.

Kombinatsiyalashgan quyosh mini meva-sabzavot quritgich-issiqxona qurilmasining tuzilishi: Qurilma uzunligi 1200 mm, eni 720 mm, old qismi 600 mm, orqa devorining balandligi 900 mm tepa qismi quyosh nuriga qiya qilingan hamma tomoni shishali oyna bo‘lib “issiq qutidan” iborat (1-rasm). Qurilmaning orqa tomonida shisha romli eshik bor. Qurilma kamerasida uch qator siljuvchan to‘r patnislar o‘rnatilgan bo‘lib, ularga quritiladigan mahsulotlar yoyiladi. Har bir qator to‘r patnisning yuzasi 1 m^2.ni (ikkita 0,5 m^2.dan) tashkil qiladi. Qurilmaning umumiy quritish maydoni 3 m^2. Quritish kamerasida mahsulotni majburiy shamollatishni amalga oshirish uchun uning ostki qismida va tepa qismida quvvati 4–5 Vatt bo‘lgan quyosh batareyasi yordamida ishlovchi miniventilyatorlar o‘rnatilgan.



1-rasm.Innovatsion mini quyosh meva sabzavot quritgichi. Mini quyosh meva-sabzavot quritgich-issiqxona qurilmasining ishchi sxemasi: Mini quyosh meva-sabzavot quritgich-issiqxona qurilmasining ishchi sxemasi: 1–shisha bilan qoplangan akfa karkas; 2–quritiladigan meva-sabzavotlar yoyilishi uchun to‘rli patnislar; 3,4 tabiiy havo kiruvchi va chiquvchi ventelyatorlar; 5–yoqib o‘chirish puliti; 6–quritiladigan mahsulot; 7–qurilmaning shishalangan eshigi; 8–quyosh batareyasi. 9-qurilmaning g‘ildirakli oyoqlari

Quritiladigan mahsulot yuvib olingach, qurilma to‘r patnislariga joylashtiriladi, eshigi yopib qo‘yiladi. Qurilmaning shishalangan sirtlariga tushuvchi quyosh nurlarining asosiy qismi qurilma kamerasiga kirib, uning qismlari va meva-sabzazvotlarda yutiladi va issiqlik energiyasiga aylanadi. Mahsulotlardan ajralayotgan bug‘ aralashgan havo mini ventelyator yordamida tabiiy shamollatish usulida konvektiv oqimlar bilan tashqariga chiqarib yuboriladi.

Tajribalar majburiy shamollatishga ehtiyoj deyarli yo‘qligini ko‘rsatadi. Lekin, quyosh batareyasi o‘rnatilib, uning vositasida miniventilator ishlatilib majburiy shamollatish amalga oshirilsa mahsulotning qurish muddati 20 foizgacha qisqaradi. Mahsulotlarning barcha to‘r patnislarida bir xil qurishini ta’minlash uchun ularning o‘rnini vaqti vaqti bilan almashtirib turish mumkin[7].

Muhokama. Texnologik nuqtayi nazardan yondashganda qurish jarayonini bevosita mahsulot yetishtirilayotgan yerlarga yaqin joyda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday sharoit uchun mini quyosh quritgich konstruksiyasini tanlashda montaj ishlarining tez va oson bajarilishi, xizmat ko‘rsatishning oddiy va qulay bo‘lishligiga asosiy omil sifatida e’tibor qaratilishi kerak.

Ta’lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tish, so‘nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish, mutaxasislik bo‘yicha, masalan texnika sohasidagi so‘nggi innovatsiyalar haqida ma’lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o‘tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo‘ladi[7,8].

1-jadval

Quyidagi jadvalda mini quyosh quritgich qurilmasining mevalarni quritish ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot beriladi.

Quritiladigan mahsulot turi	Qurish muddati, sutka		Tayyor mahsulot chiqishi	
	Ochiq maydonda quritganda	Qurilmada quritganda	%	kg
Tut	10	7 - 8	3 - 4	16 - 18
O‘rik (danagidan ajratilgan holda)	12 - 13	5 - 6	27 - 32	2.80 – 3.30
Olma (kesilgan holda)	6–7	3	18 – 20	1,45 – 1,60
Uzum (qora kishmish)	18 – 20	6 – 7	30 – 32	3,60 – 3,80
Anjir	10 – 12	5 – 6	28 – 30	2,80 – 3,00
Qovun (kesilgan holda)	8 – 12	4 – 5	30 – 35	3,00 – 3,50
Pomidor (kesilgan holda)	5 – 6	3	16 – 18	1,80 – 2,00

Oliy ta’lim muassasasining asosiy vazifasi – bo‘lajak oliy toifali mutaxassislarni muayyan fan sohasida amaliy faoliyat ko‘rsatishga tayyorlashdan iborat. U esa o‘z navbatida nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o‘rgatish, zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, o‘z mutaxassisliklari uchun xos bo‘lgan qishloq xo‘jalik

mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlab quritish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko‘rsatishga o‘rgatishdan iborat.

Iqtisodiy samaradorligi. Quyosh mini meva-sabzavot quritgich – issiqxona qurilmasining afzalliklari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: ekologik toza quyosh energiyasi yordamida ishlaydi, boshqa tur energiyaga ehtiyoj sezmaydi[8,9]. Mahsulotlarning qurish muddati ochiq maydondagiga nisbatan 2–3 marta qisqaradi, mahsulot sifati yuqori bo‘ladi;

oila a’zolarini yil davomida vitaminli quruq meva-sabzavot bilan ta’minlash, oila byudjetini tejash va ko‘paytirish, oilaviy biznes va tadbirkorlikga xizmat qiladi; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, fermer xo‘jaliklari, hovlilar, bolalar bog‘chalari, maxsus maktablar, mehribonlik va qariyalar uylarida keng foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’limni sifatini ko‘tarsa, innovatsion texnologiyalar ta’lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, ushbu maqolada texnik yechimlar quyosh energiyasining faqat ma’lum xususiyatlaridan foydalanadi, uning parametrlari o‘rtasidagi ko‘p sonli fazoviy va vaqtinchalik munosabatlarni hisobga olmaydi. Bu borada jahonning ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, O‘zbekistonda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot va amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada jahonda, jumladan mamlakatimizda yaratilgan gelioquritgichlarning ayrimlari to‘g‘risidagina ma’lumotlar keltirildi. Quyosh mini meva-sabzavot quritgich qurilmasini xalq xo‘jaligining turli sohalarida o‘zining keng miqyosdagi ko‘lamiga ega bo‘lib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.

2. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. “Yangi pedagogik texnologiyalar” darslik 15-20 b

3. Z.F.Sharopova Ta’lim texnologiyalari Toshkent-2009.”Navruz”nashryoti.

4. Qahhorov S.Q., Jo‘rayev H.O. Fizika ta’limida geliotexnologiya. T.: Fan, 2009. -191 b.

5. Qahhorov S.Q., Jo‘rayev T.D., Jo‘rayev H.O. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari Darslik. “Kamolot” Durdona nashriyoti, Buxoro. 2022

6. Nazarov M.R. Toirov E. Razrabotka i issledovaniye nizkopotensialnix solnechnix ustanovok. Geliotexnika. 1997 y. № 2.

7. Jo‘rayev T.D. Quyosh issiqlik qurilmalari Toshkent. Dizayn-Press,2012.108b.

8. Qahhorov S.Q., Jurayev X.O. Retsirkulyatsionnaya solnechnaya sushilnaya ystanovka Bosma Geliotexnika. №2. Tashkent. 2016 g.

9. Qahhorov S.Q., Samiyev K.A., Jo‘rayev H.O. Quyosh qurilmalaridagi jarayonlari modellashtirish. Monografiya. –Toshkent. ITA PRESS, 2014 y. – 208 b.

http://www.ayenergy.ru

http://www.altenergy.narod.ru
http://www.intersolar.ru

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BIOLOGIYA FANIDAN O‘QUVCHILARNI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI ZAMON TALABLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.140

Raxmatova Salima Togaymuradovna
Termiz davlat pedagogika instituti Kimyo-biologiya kafedrasi dotsenti p.f.f.d. (PhD)
Email: raxmatova2022@gmail.com
ORCID: 0009-0009-8848-6706
Rustamova Zebiniso O`ktam qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi(biologiya) mutaxassisligi 2- bosqich magistranti
E-mail:rustamovazebiniso00@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida biologiya fanidan o‘quvchilarni rivojlantirishning hozirgi zamon talablari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning ahamiyati, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, biologiya fanini o‘qitishda interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, biologiya ta’limi, o‘quvchilarni rivojlantirish, zamonaviy talablar, kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, interaktiv ta’lim, virtual laboratoriya, mustaqil ta’lim, kognitiv rivojlanish

KIRISH. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga ham tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Xususan, raqamli ta’lim muhitining shakllanishi o‘quv jarayonini yanada samarali, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini bermoqda. Bugungi kunda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Biologiya fani o‘zining murakkabligi va ko‘plab nazariy hamda amaliy tushunchalarni o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Shu sababli ushbu fanni o‘qitishda raqamli ta’lim muhitidan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga, tabiiy jarayonlarni vizual tarzda idrok etishiga hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar biologik jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi.

Hozirgi zamon talablari o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axborot bilan ishlash kompetensiyalari va mustaqil ta’lim olish qobiliyatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta’lim muhitida biologiya fanini o‘qitishning samarali metod va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli ta’lim muhiti va uning ta’lim jarayoniga ta’siri masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda individual yondashuvni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Xorijiy olimlardan J. Anderson, M. Moore, hamda R. Mayerlar o‘z tadqiqotlarida raqamli ta’lim vositalarining kognitiv rivojlanishga ta’sirini tahlil qilib, interaktiv va vizual materiallar o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirishini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, multimedia vositalaridan foydalanish murakkab biologik jarayonlarni tushunishda samarali ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Shuningdek, V. Bykov, N. Morze kabi olimlar raqamli ta’lim muhitini tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, ular ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan tizimli foydalanish o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatib o‘tganlar. Ularning fikricha, raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi fasilitator rolini bajaradi, o‘quvchi esa faol ishtirokchiga aylanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham biologiya ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Ular biologiya fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalar, animatsiyalar va simulyatsiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam berishini ta’kidlaydilar.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar – konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyalari ham raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarni rivojlantirishning nazariy asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, biologiya ta’limida ham keng qo‘llanilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida biologiya fanidan o‘quvchilarni rivojlantirishning metodik jihatlari hali to‘liq yoritilmagan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur hisoblanadi.

Eurasia Journal (2024): Biologiya ta’limida raqamli o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha tizimli sharhlar shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlari o‘quvchilarning 21-asr ko‘nikmalarini (tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish) rivojlantiradi.

Zhang (2020) va Hidayat (2024): Raqamli platformalar (Moodle, Canvas) va sun’iy intellektga asoslangan adaptiv texnologiyalar har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga mos

ravishda individual ta’lim trayektoriyasini yaratish imkonini beradi. Bu esa iqtidorli va o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

adqiqotning maqsadi raqamli ta’lim muhitida biologiya fanidan o‘quvchilarni rivojlantirishning zamonaviy talablari va samarali metodlarini aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar birgalikda qo‘llanildi. Nazariy metodlar doirasida ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, biologiya fanini raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitish tajribasi, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar o‘rganildi.

Empirik metodlar sifatida kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va pedagogik tajriba ishlari olib borildi. Kuzatish orqali biologiya darslarida virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish jarayoni tahlil qilindi. So‘rovnomalar va suhbatlar yordamida o‘quvchilarning raqamli ta’lim vositalariga bo‘lgan qiziqishi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari aniqlashdi. Pedagogik tajriba bosqichida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar sinovdan o‘tkazilib, tajriba va nazorat guruhlarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining o‘zgarishi tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda analitik va statistik metodlardan foydalanilib, tajriba natijalari taqqoslandi va raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi baholandi. Olingan ma’lumotlar grafiklar, jadvallar va diagrammalar orqali vizual tarzda taqdim etildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot maqsadiga erishish va o‘quvchilarning bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli ta’lim muhitining samaradorligini ilmiy asoslash imkonini beradi. Biologiyani o'qitishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan raqamli ta’lim texnologiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ta'limiy vazifasi - o'quvchilarga o'rganiladigan mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha materiallar, asosiy tushuncha va ularning izohlari, turli jadvallar, diagramma, murakkab ilmiy va ishlab chiqarish xarakteridagi tajribalar to'g'risida keng qamrovli bilim berish imkoniyati vujudga keladi.

2. O'quvchilarning o'quv faoliyatini yo'naltirish vazifasi - o'quvchilar axborot texnologiyalari mahsullari bo'lgan ta'lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, shuningdek, animatsiyalar vositasida ishlash barobarida, mazkur dasturlar o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni ham o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni o'quvchilarni chuqur va mustahkam bilim olishga yo'naltiradi.

3. Ko'rgazmalilik vazifasi - boshqa o'qitish vositalaridan farq qilib, axborot texnologiyalari mahsullari bo'lgan animatsiyalar o'quvchilar tomonidan biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoniyati mavjudligi sababli, o'qitish jarayonida o'rni beqiyos.

4. Nazorat vazifasi - biologiya ta'limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, biologiya darsining barcha bosqichlarida

o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi.

5. Rivojlantiruvchi vazifasi - o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi o'quvchilarning topshiriqlarni bilimi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi, fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishiga zamin yaratib shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini vujudga keltiradi.

6. Tarbiyaviy vazifasi - o'quvchilar axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish vazifasi - tabiat va undagi obyektlarni o'rganish 2 olam: makro va mikroolamga ajratilib, biologiya fani o'zining mazmuniga ko'ra, aksar hollarda mikroolam: hujayra, to'qimalarda boradigan jarayon, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, masalan, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasiga doir o'quv materiallarni animatsiyalar orqali o'rganib, abstrakt tafakkuri va ilmiy dunyoqarash rivojlanadi va pirovard natijada kengayadi. Biologiyani o'qitishda raqamli ta’lim texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.[6,132]

NATIJA

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan kuzatish, so‘rovnoma va pedagogik tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhitida biologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv prezentatsiyalar va simulyatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarning murakkab biologik jarayonlarni tushunish darajasini oshirdi, mavzularni vizual tarzda qabul qilishni osonlashtirdi.

So‘rovnoma natijalari o‘quvchilarning raqamli ta’lim vositalariga qiziqishi yuqori ekanligini ko‘rsatdi. 85% o‘quvchilar multimedia va interaktiv platformalar yordamida o‘rganishni qulay va samarali deb baholadilar. Shu bilan birga, mustaqil ta’lim va ijodiy ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlangan.

Pedagogik tajriba natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi o‘quvchilari nazorat guruhi bilan solishtirganda biologiya fanidan bilim darajasi 20–25% yuqori natija ko‘rsatdi. Bu raqamli ta’lim muhitining samaradorligini, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhitida dars jarayoni o‘quvchilarning qiziqishini oshirish bilan birga, ularni mustaqil va faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy talablari bilan uyg‘un keladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhitida biologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Virtual laboratoriyalar, interaktiv prezentatsiyalar va simulyatsiyalar murakkab biologik

jarayonlarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So‘rovnoma va pedagogik tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 85% dan ortig‘i raqamli vositalar yordamida o‘rganishni qulay va samarali deb baholagan. Bu raqamlar, shuningdek, biologiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishi va faol ishtirokini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.

Tajriba va nazorat guruhlarining natijalari taqqoslanganda, tajriba guruhi o‘quvchilari bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalari bo‘yicha ancha yuqori natija ko‘rsatdi. Bu raqamli ta’lim muhitining samaradorligi va pedagogik yondashuvning muvaffaqiyatini tasdiqlaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va o‘rganish uslublarini hisobga olgan holda ishlatilsa, natijalar yanada yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining faol roli — fasilitator sifatida ishlashi, darsni interaktiv va qiziqarli tashkil etishi, raqamli ta’lim samaradorligini oshiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida biologiya fanini o‘qitish nafaqat bilimlarni chuqurlashtirish, balki o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta’limning talablariga javob beradigan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Jadval 1. Raqamli ta’lim vositalarining o‘quvchilarning rivojlanishiga ta’siri

Raqamli vosita / metod	**Ta’siri / foydasi**	**Kuzatish natijalari / foiz (%)**	**Izohlar**
Virtual laboratoriyalar	Murakkab biologik jarayonlarni tushunish	90%	O‘quvchilar tajriba va ko‘rgazmalar orqali mavzuni yaxshi o‘zlashtirdi
Interaktiv prezentatsiyalar	Vizual qabul qilishni oshiradi, qiziqishni uyg‘otadi	85%	O‘quvchilar mavzu bo‘yicha faol ishtirok etdi
Multimedia materiallar	Nazariy bilimlarni mustahkamlash	80%	Animatsiyalar va video darslar yordam berdi
Simulyatsiyalar	Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi	88%	Tajriba jarayonida o‘quvchilar mustaqil ishlashdi
Onlayn test va viktorinalar	Bilim darajasini baholash, mustaqil ishlash	75%	O‘quvchilar bilimlarini mustahkamlashga yordam berdi

Zamonaviy elektron ta’lim resurslari, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda «Elektron ta’lim resurslari»ni tashkil etadi. Elektron ta’lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya’ni ta’lim oluvchining shaxsiy

xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o‘quv materiallarini uzatish (yetkazish) tizimi tushuniladi.[1,323] O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilgan talablar, kasbiy-pedagogik kompetensiyasidan kelib chiqqan holda biologiya darslarini tashkil etishi zarur. O‘rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadiga muvofiq loyihalangan dars ishlanmasida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish kutilgan ijobiy natijani berishiga kafolatlanadi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini orttirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan.[2,42] Darhaqiqat, axborotlar globallashgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini orttirish dolzarb muammo sanaladi. Tabiiy fanlar, shu jumladan, biologiyani o'qitishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish uchun biologiya ta'limi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.[2,43]

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhitida biologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv prezentatsiyalar, simulyatsiyalar va multimedia vositalari murakkab biologik jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

So‘rovnoma va pedagogik tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim vositalaridan foydalangan o‘quvchilar nazorat guruhi bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori natija ko‘rsatdi. Bu raqamli ta’lim muhitining samaradorligini va zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg‘unligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi faol roli — fasilitator sifatida ishlashi, darsni interaktiv va qiziqarli tashkil etishi natijalarni yanada yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida biologiya fanini o‘qitish nafaqat bilimlarni chuqurlashtirish, balki o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va raqamli ta’lim vositalarini keng joriy etish zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning biologiyani o‘rganish jarayonida turli shakldagi o‘rgatuvchi ilmiy loyihalardan foydalanish pirovardida o‘quvchilar tomonidan mavzu, qolaversa fan doirasidagi ko‘pgina biologik jarayonlar va qonuniyatlarni yaxshiroq tushunishga, anglashga, tasavvur qilishga, shu bilan birga fan negizidagi murakkab jarayonlarni qiziqib o‘rganish imkonini yaratadi.

Xulosa: O‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish ko‘lamini oshirishga xizmat qiluvchi kinestetik, vizual, audial, diskret sezgilari orqali o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, tayanch hamda xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda biologiyadan ta’lim mazmuniga bog‘liq holda ta’limiy elektron resurslardan, ko‘rgazmali materiallardan foydalanish dars

samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan hamda biologiya ta’limi jarayoniga tatbiq etilgan didaktik model va metodik tizim bevosita o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishlari qiyin bo‘lgan, bevosita ko‘z bilan kuzatish imkoniyati bo‘lmagan biologik jarayonlarni elektron ta’limiy resurslar asosida tizimli materiallar tarzida namoyish etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Джураев Р. Х., Карахонова Л. М. Медиаобразование как фактор повышения качества обучения школьников //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2. – С. 322-323.

2. Карахонова Л. М. Эффективное исползование электронных образовательных ресурсов в обучении биологии //Наука и образование сегоднуа. – 2020. – №. 6-1 (53). – С. 41-42.

3. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //International scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy. – 2019. – С. 35-39.

4. Караханова Л. 6. Development of students'knowledge based on the use of 3d educational technologies in the biology education //Образование и инноватsионные исследованиуа международный научно-методический журнал. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 55-59.

5. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 315-321.

6. J.O.Tolipova Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining “Cho'lpon” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Tashkent• NOSHIR-

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABA AVTONOMIYASI VA RAQAMLI TA’LIM: AMALIY INGLIZ TILINI O‘QITISH MISOLIDA

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.141

Mamadaliyeva Nargiza Abdurasulovna
Namangan davlat chet tillar institute doktoranti
nrgzmmdlv@gmail.com
+998907404686

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamlashtirish sharoitida ingliz tilini o‘qitish (ELT) jarayonida o‘quvchilarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi ko’rib chiqiladi. Tadqiqot o‘quvchi avtonomiyasiga oid asosiy nazariy manbalar, mobil vositalar yordamida til o’rgatish (MALL) sohasidagi so‘nggi amaliy ishlar, vazifaga asoslangan ta’lim (TBL) va tanqidiy pedagogika tamoyillariga tayanadi. Maqolada quyidagi asosiy masala ilgari suriladi: mustaqil ta’lim ko‘nikmalari raqamli vositalarga kirish imkoniyatining tabiiy natijasi sifatida emas, balki pedagogik jihatdan puxta o‘ylangan ta’lim jarayonining mahsuli sifatida yuzaga keladi. 1991-2025 yillar orasida nashr etilgan o‘nta manba - monografiyalar, ilmiy jurnal maqolalari va amaliyot asosidagi tadqiqotlar - tahlil qilinib, uchta asosiy yo‘nalish aniqlandi: (1) raqamli vositalarga ega bo‘lish bilan talaba avtonomiyasi o‘rtasidagi tafovutni aniq belgilash zarurati; (2) mustaqil ta;lim jarayonini yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlashda o‘qituvchining raqamli savodxonligi hal qiluvchi omil ekanligi; (3) barqaror mustaqil o’quv faoliyatini shakllantirishda refleksiv, vazifaga asoslangan va tanqidiy yondashuvlarning ahamiyati. Maqola amaliy xulosalar va keyingi ilmiy izlanishlar uchun takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so’zlar: talaba avtonomiyasi, mustaqil ta’lim, raqamli texnologiyalar, ingliz tilini o‘qitish, MALL, TBL

KIRISH. Zamonaviy ingliz tili ta’limida keng e‘tirof etilgan g‘oyalardan biri shundaki, muvaffaqiyatli til egallash ko‘p jihatdan o‘quvchining o‘z ta’lim jarayonini mustaqil boshqara olishiga bog‘liq. Ilmiy adabiyotda "o‘quvchi avtonomiyasi-mustaqilligi" tushunchasi bilan ifodalangan ushbu ko‘nikma o‘quvchiga bir oddiy, lekin muhim savolga javob berish imkonini yaratadi: o‘quvchi rasmiy ta’lim muhitidan tashqarida ham maqsadli va izchil ravishda o‘qishni davom ettira oladimi? Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir sharoitda bu savol ilgarigidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi o‘n yil ichida ingliz tili o‘rganuvchilari uchun raqamli resurslar ko‘lami misli ko‘rilmagan darajada kengaydi. Lug‘at ilovalari, sun‘iy intellektga asoslangan yozuv yordamchilari, onlayn audio-video materiallar va virtual kommunikatsiya platformalari -

bularning barchasi yigirma yil avval mavjud bo‘lmagan imkoniyatlarni yaratdi. Dastlab shu resurslarning o‘zi mustaqil va faol o‘quvchilarni shakllantirishga yetarli deb taxmin qilish mumkin edi. Biroq ilmiy tadqiqotlar bu borada ancha murakkab manzarani ko‘rsatmoqda. Masalan, Roy va Gandhimathi (2025) MALL sohasidagi 16 ta tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharhida ta’kidlashicha, kuchli raqamli vositalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan mustaqil ta’lim xulq-atvorini shakllantirishga olib kelmaydi; pedagogik yo‘naltirishsiz o‘quvchilarning aksariyati bu resurslardan maqsadli yoki izchil foydalana olmaydi.

Mazkur maqola shu muammoni hal etishga qaratilgan. Unda ingliz tilini o‘qitish kontekstida mustaqil ta’limni shakllantirish masalasiga oid asosiy nazariy adabiyotlar ko‘rib chiqiladi, xususan o‘quvchi avtonomiyasi va raqamlashtirish kesishmasiga e‘tibor qaratiladi. Tahlil uchun 1991-2025 yillar orasida nashr etilgan o‘nta manba tanlangan: asosiy ilmiy monografiyalardan tortib so‘nggi jurnal maqolalari va amaliyotchilar ishlarigacha. Atamalar haqida izoh zarur. Ushbu maqolada "mustaqil ta’lim ko’nikmalari", "mustaqil ta’lim" (SDL) va "talaba avtonomiyasi" atamalari o‘zaro bog‘liq, ammo farqli ma‘nolarda ishlatiladi. Little (1991) ta‘rifiga ko‘ra, mustaqillik - o‘z ta‘limini boshqarishga bo’lgan qobiliyat va intilishni ifodalovchi keng tushuncha bo‘lib, rejalashtirish, kuzatish va baholash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Mustaqil ta’lim va mustaqil ta’lim ko‘nikmalari konkret xulq-atvor va strategiyalarni, ayniqsa rasmiy ta’lim muhitidan tashqaridagi faoliyatni anglatadi.

METOD

Ushbu maqola maqsadli narrativ adabiyotlar sharhi (narrative literature review) usuliga asoslanadi. Maqsad - to‘liq qamrov emas, balki birgalikda talaba avtonomiyasi va mustaqil ta’limning nazariy asoslarini, amaliy ko‘lamini va amaliy o‘lchamlarini yoritadigan manbalar majmuini belgilashdan iborat. O‘nta manba quyidagi uch mezon asosida tanlandi: (a) mustaqil yoki o‘z-o‘zini yo‘naltirilgan til o‘rganishga bevosita aloqadorligi; (b) ingliz tilini o‘qitish amaliyotida ilmiy asoslanganlik; (v) (v) soha uchun nazariy jihatdan asosiy ahamiyatga ega bo‘lishi yoki raqamlashtirish davri masalalarini qamrab oluvchi so‘nggi nashr (2018–2025 yillar) bo‘lishi.

Manbalar Google Scholar, TESOL Journal ma‘lumotlar bazasi, Wiley Online Library, ScienceDirect va Frontiers in Education elektron resurslari orqali quyidagi qidiruv iboralari yordamida aniqlandi: o‘quvchi avtonomiyasi va ingliz tili ta’limi; mustaqil ta’lim va raqamli vositalar; MALL va mustaqil ta’lim; raqamli pedagogika va ingliz tilini o‘qitish. Expertlar tomonidan ko‘rib chiqilgan jurnal maqolalari va nashr etilgan ilmiy monografiyalarga ustuvorlik berildi. Sinf tajribasini aks ettirish maqsadida professional ELT jurnalidan bitta amaliyotchi maqolasi ham kiritildi.

Har bir manba mavzu asosida o‘qilib, ko‘rib chiqildi. Takroriy o‘qish natijasida uchta asosiy mavzu aniqlandi: (1) texnologiyaga kirish imkoniyati va haqiqiy o‘quvchi avtonomiyasi o‘rtasidagi mano farqi; (2) mustaqil o‘qitishni rivojlantirishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli; (3) barqaror mustaqil o‘qish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda samarali bo‘lgan pedagogik yondashuvlar - jumladan vazifaga asoslangan (TBL), tanqidiy va refleksiv metodlar. Mazkur mavzular Natijalar bo’limining tuzilmasini belgilaydi.

NATIJALAR

1-mavzu: Raqamli vositalarga kirish imkoniyati o‘quvchi avtonomyasi bilan tenglashtirilmasligi kerak

Ko’rib chiqilgan adabiyotlar tahlilida eng ko‘zga tashlanadigan xulosalardan biri quyidagicha ifodalanadi: o‘quvchilarga raqamli vositalarga kirish imkoniyatini ta’minlash ularda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga teng emas. Bir qator tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bu ikki tushunchaning chalkashtirib yuborilishi zamonaviy ingliz tili ta’limida keng tarqalgan noto‘g'ri tasavvurlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu farqning nazariy asosi raqamli ilovalar paydo bo‘lishidan ancha oldin yaratilgan. Little (1991) asosiy ilmiy ishida avtonomiya mustaqil mashg‘ulot yoki mustaqil ta’lim tushunchasi bilan bir xil emasligini asoslab berdi. Darslik bilan yolg'iz o‘tirgan o‘quvchi - yoki zamonaviy sharoitda ilova bilan shug‘ullanayotgan o‘quvchi - bu bilan birgalikda mustaqil o‘quvchi bo‘lavermaydi. Little nazariyasiga ko‘ra, haqiqiy mustaqillik o‘z ta’limini ongli tahlil qilish, aniq maqsadlar belgilash va erishilgan natijalarni mustaqil baholash qobiliyati hamda irodasini taqozo etadi. Ushbu metakognitiv va motivatsion ko‘nikmalar maqsadli pedagogik ta’sir natijasida shakllanadi; ular qo‘llab-quvvatlanmagan amaliyot jarayonida o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi.

Benson (2011) ushbu fikrni raqamli davr kontekstiga ko‘chirib, o‘quvchi avtonomiyasining jismoniy mustaqil ta’lim markazlaridan texnologik va norasmiy o‘quv muhitlarigacha bo‘lgan tarixiy rivojlanishini kuzatadi. Muallif resursga asoslangan yondashuvlar - o‘quvchilarga materiallar taqdim etib, ulardan mustaqil foydalanishini kutadigan usul bilan haqiqiy o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvlar - har qanday resursdan mustaqil foydalanishni ta’minlovchi ko‘nikma va intilishlarni rivojlantirishga qaratilgan - o‘rtasidagi farqni ajratadi. Bensonning asosiy xulosasi shundan iborat: resurslarning mavjudligi mustaqil ta’lim uchun zaruriy shart bo‘lsa-da, yetarli asos emas. Bu xulosa keyingi amaliy tadqiqotlarda ham o‘z tasdig‘ini topdi.

Roy va Gandhimathi (2025) tomonidan o‘tkazilgan 16 ta MALL tadqiqotining tizimli sharhi ushbu muammoni raqamli dalillar bilan tasdiqlaydi. Duolingo va sun‘iy intellektga asoslangan platformalar yordamida olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, barqaror mustaqil ta’lim olish xulq-atvorini shakllantirish uchun raqamli vositalar bilan birga pedagogik yo‘naltirish - ya‘ni maqsad qo‘yish, o‘quv strategiyalaridan foydalanish va o‘z-o‘zini baholash bo‘yicha o‘qituvchining aniq ko‘magi - ham zarur. Bunday ko‘rsatmalarsiz o‘quvchilarning raqamli vositalar bilan shug‘ullanishi yuzaki, tartibsiz va haqiqiy ta’lim maqsadlaridan ko‘ra tashqi rag‘batlar bilan boshqariladigan bo‘lib qoladi. Shuningdek, Ozturk va Cakiroglu (2015) tomonidan olib borilgan amaliy tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchining raqamli savodxonligi o‘quvchining qurilmalarga kirish imkoniyatiga qaraganda o‘quvchidagi mustaqil o‘rganish xulq-atvorini aniq ifodalovchi omil ekanligini ko‘rsatdi. Bu natija kasbiy rivojlanish masalasiga alohida e‘tibor qaratish zarurligini anglatadi.

2-mavzu: O‘qituvchining mustaqillikni rivojlantirishdagi yo‘naltiruvchi roli

Agar raqamli vositalarning o‘zi mustaqil ta’lim oluvchilarni shakllantira olmasa, qaysi omillar bu jarayonni ta’minlay oladi? Ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda izchil javob namoyon bo‘ladi: ongli va maqsadli pedagogik faoliyat. O‘qituvchilar o‘quvchi avtonomiyasini

rivojlantirishda paradoksal, ammo hal qiluvchi rol o‘ynaydi: ular mustaqillikni shakllantirish uchun nazoratni bosqichma-bosqich o‘quvchiga topshirishlari lozim.

Little, Dam va Legenhausen (2017) bu jarayonning amaliy ko‘rinishini eng batafsil tarzda tahlil qilgan. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga tayanib, mualliflar o‘quvchilar o‘quv jarayonini o‘zi boshqarish amaliyotini asta-sekin o‘zlashtirib boradigan ta’lim muhitlarini tasvirlaydi: o‘z maqsadlarini o‘zlari belgilaydi, vazifalarni mustaqil hal qiladi va o‘z taraqqiyotini kuzatib boradi. Muhim jihat shundaki, bu erkin tartibsiz yondashuv emas – o‘qituvchi markaziy o‘rinda qoladi, ammo tayyor topshiriqlar manbai sifatida emas, balki yo‘naltiruvchi, savol berib o‘ylattiruvchi va birgalikda mulohaza yurituvchi pedagog sifatida. Tadqiqotchilar bu yondashuvning boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar bilan ham samarali ekanligini isbotladi, ya’ni mustaqillik faqat yuqori darajadagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan degan fikrni rad etdi.

Brown (2007) o‘qituvchi yordamini u "mas‘uliyatni kechiktirib topshirish" tamoyili deb atagan nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Ushbu tamoyil ko‘rib chiqilgan Ellii (2023) amaliy qo‘llanmasining ham asosini tashkil etadi. Sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan ushbu qo‘llanma darhol qo‘llash mumkin bo‘lgan usullarni tavsiya etadi: o‘quvchilar o‘rtasida o‘quv strategiyalarini bo‘lishish; o‘quvchilarga o‘z vazifalarini tanlashga imkon beruvchi tanlov varaqlari; tuzilmali refleksiya mashqlari. Bu usullar oddiy ko‘rinsa-da, qo‘llanma ularni izchil pedagogik falsafa doirasiga joylashtiradi: mustaqillik kichik qarorlardan boshlanib, vaqt o‘tishi bilan chuqur o‘zgarishlarga olib keladi. Dove, Honigsfeld va Cohan (2022) ham o‘xshash nuqtai nazarni ilgari suradi: texnologiya yordamida olib boriladigan darslar faqat mazmunni samaraliroq yetkazib berish uchun emas, balki o‘quvchilarda mustaqillik va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ataylab loyihalangan bo‘lishi kerak.

Ko‘rib chiqilgan manbalar asosida o‘qituvchi o‘quv muhitini loyihachisi sifatida qaralishi kerakligi yaqqol namoyon bo‘ladi: u grammatika qoidalarini tushuntirish yoki topshiriq berish bilan cheklanmasdan, mustaqil o‘quv faoliyati uchun maqsadli sharoit yaratadi. Amaliyotchi o‘qituvchilar uchun bu kasbiy o‘z-o‘zini anglashda sezilarli o‘zgarishni anglatadi va dastlabki pedagogik tayyorgarlik hamda uzluksiz kasbiy taraqqiyot uchun aniq xulosalar beradi.

3-mavzu: Barqaror mustaqil ta’limni rivojlantiradigan pedagogik yondashuvlar

Uchinchi yo‘nalish qaysi pedagogik yondashuvlar barqaror mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rib chiqadi. Tahlil qilingan manbalarda uchta bir-birini to‘ldiruvchi doira ko‘zga tashlanadi: vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBL), tanqidiy pedagogika va refleksiv amaliyot.

Nunan (2004) ning vazifaga asoslangan til o‘qitish sohasidagi ilmiy ishi ushbu kontekstda nafaqat kommunikativ yo‘nalishi, balki o‘quv vazifalarini ketma-ketlashtirish va bosqichlash masalasiga tamoyiliy yondashuvi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nunan ta’kidlashicha, haqiqiy hayotiy vazifalar o‘quvchilarga mavjud til bilimlaridan qanday foydalanishni mustaqil hal qilish imkonini beradi. Bu qarorlar esa haqiqiy mustaqil o‘qitishda talab qilinadigan ongli tanlovlarni aks ettiradi. O‘quvchilar o‘zlari uchun muhim ahamiyatga ega vazifalarni muntazam bajarar ekan, ingliz tiliga amaliy yo‘nalish shakllanadiyki, bu

mustaqil o’qishni mazmunli va maqsadli qiladi. Ozturk va Cakiroglu (2025) tomonidan olib borilgan mobil qurilmalar yordamidagi muammoga asoslangan ta’lim tadqiqoti ushbu xulosani amaliy dalillar bilan qo‘llab-quvvatladi: muammoga asoslangan yondashuv bilan mobil vositalarni birlashtirish mustaqil o‘quv tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini har ikkisini alohida qo‘llashdan sezilarli darajada yuqori natijalarga olib keldi.

Chen (2025) ning TESOL Journal sahifalarida nashr etilgan maqolasi "tanqidiy o‘rganuvchi avtonomiyasi" tushunchasini taklif qiladi. Freyreaning tanqidiy pedagogikasiga asoslangan ushbu yondashuv faqat o‘quv strategiyalarini o‘rgatishdan nariga chiqib, o‘quvchilarga ingliz tilini ijtimoiy faollik vositasi sifatida ongli qo‘llashni rag‘batlantiradi. Bu mustaqillik tushunchasining muhim kengaytirish hisoblanadi: u faqat o‘quvchi qanday qilib mustaqil o‘qishi mumkinligi haqida emas, balki nima maqsadda o‘qiyotganligi va an‘anaviy mustaqil o‘qish tartiblari kiming manfaatlariga xizmat qilishi haqida ham savol qo‘yadi. Chen yozuv darsiga mo‘ljallangan aniq, darsda qo‘llash uchun tayyor raqamli mashqlar taklif etadi: hamkorlikdagi raqamli ijodiy yozuv va jamoatchilik muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot loyihalari. Bu mashqlar ko‘nikmalarni mexanik ravishda mashq qilish o‘rniga o‘quvchilarning shaxsiy motivatsiyasiga jalb etadi.

Refleksiv amaliyot – o‘z ta’lim jarayonini kuzatish va baholash odati - bir qancha manbalarda bog‘lovchi ip vazifasini o‘taydi. Little va boshq. (2017) metakognitiv ongni rivojlantirish vositasi sifatida o‘quv portfoliolari va yozma o‘quv kundaliklari bilan ishlaydi. Ko‘rib chiqilgan ESOL jurnalining amaliyotchi maqolasida (Language Issues, 2024) bitta o‘qituvchining sinfida boshlangan shunga o‘xshash jarayon tasvirlanadi: raqamli portfoliolarni joriy etish baholash markazini o‘qituvchidan o‘quvchiga ko‘chirdi va o‘quvchilarning o‘z taraqqiyotiga yondashuvida sifat jihatidan o‘zgarishga olib keldi. Mazkur manbalar refleksiyani mustaqil o‘qitish tizimiga qo ‘shimcha emas, balki uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

ELT amaliyoti uchun xulosalar

Yuqorida ko‘rib chiqilgan uchta yo‘nalish bitta markaziy xulosaga kelib taqaladi: mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish texnologik emas, pedagogik yutuqdir. Raqamli vositalar mustaqil til o‘rganish imkoniyatlarini misli ko‘rilmagan darajada kengaytiradi, ammo asosiy pedagogik muammoni o‘z-o‘zidan hal etmaydi. Yuklab olish uchun ilovalar ro‘yxatini olgan, ammo ulardan maqsadli foydalanish uchun zarur metakognitiv ko‘nikmalardan mahrum bo‘lgan o‘quvchi mustaqillik nuqtai nazaridan avvalgiga qaraganda sezilirli yutuqqa erisha olmaydi.

ELT o‘qituvchilari uchun bu shuni anglatadiki, mustaqil o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish sifatli o‘qitishning o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan natijasi sifatida emas, balki mustaqil o‘quv dasturi maqsadi sifatida ko‘rilmog‘i lozim. Buning uchun ataylab o‘ylab chiqilgan ta’lim loyihasi zarur: o‘quv strategiyalarini muhokama qilishga mo‘ljallangan vaqt; ongli qaror qabul qilishni taqozo etadigan vazifalar; o‘quv jarayoni ustidan muntazam tuzilmali refleksiya. Ko‘rib chiqilgan amaliy manbalar - Nunan vazifa tuzilmalaridan Ellii sinf

qo‘llanmasigacha - turli tajriba darajasidagi o‘qituvchilar uchun qulay kirish nuqtalarini taklif etadi.

Bundan tashqari, raqamli imkoniyatlarning noteng taqsimlanishi masalasini ham inobatga olish zarur. Dove, Honigsfeld va Cohan (2022) ta’kidlaganidek, barcha o‘quvchilar qurilmalarga, tez internetga yoki mustaqil raqamli ta’lim mumkin bo‘lgan uy muhitiga teng kirish imkoniyatiga ega emas. Doimiy talabalarning raqamli muhitga kirish imkoniyati bor yoki yo qligi har qanday pedagogik yondashuv tengsizliklarni kamaytirish o‘rniga yanada chuqurlashtirishi mumkin. O‘qituvchilar va ta’lim muassasalari o‘ziga xos o‘quvchilar kontingentiga mos keladigan vositalar va yondashuvlarni diqqat bilan tanlashlari zarur.

Tadqiqotning cheklovlari va kelajak izlanishlar uchun takliflar

Ushbu tadqiqotning bir qancha cheklovlari mavjud bo‘lib, ularni ochiq e‘tirof etish ilmiy halollikni taqozo etadi. O‘nta manba diqqat bilan tanlangan bo‘lsa-da, to‘liq qamrovli emas; tadqiqot muallifning ilmiy qiziqishlari va oldingi bilimlari ta’sirida shakllangan. Ko‘rib chiqilgan amaliy ishlarning aksariyati oliy ta’lim yoki kattalar ESOL muhitlarida o‘tkazilgan; boshlang‘ich va umumta’lim maktablari darajasida mustaqil ta’limning qanday rivojlanishi va qo‘llab-quvvatlanishi mumkinligini o‘rganuvchi tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Shuningdek, raqamli vositalar bo‘yicha ko‘pchilik tadqiqotlar qisqa muddatli natijalarga qaratilgan; mustaqil o‘rganish xulq-atvorining uzoq muddatda qanday saqlanishi yoki o‘zgarishini uzoq muddatli kuzatuvlar asosida tadqiqotlar hali yetarli darajada o‘rganilmagan.

Kelajak tadqiqotlarida sun‘iy intellektga asoslangan vositalarning - xususan, yirik til modellariga asoslangan ilovalarning – o‘quvchi avtonomiyasiga ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki ma’lumotlar shaxsiylashtirilgan va zudlik bilan fikr-mulohaza taqdim etuvchi vositalar mustaqil mashqni samarali qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Biroq bunday vositalar keng pedagogik tizimga puxta kiritilmasa, o‘quvchida qaramlik hosil qilish xavfini ham tug‘dirishi mumkin. Sun‘iy intellekt murabbiylari o‘quvchi avtonomiyasini rivojlantirishi yoki susaytirishi masalasi tizimli amaliy tadqiqotni talab qiladi.

XULOSA

Ingliz tili ta’limida o‘quvchi avtonomiyasi tushunchasi David Little 1991 yilda uning nazariy asoslarini ishlab chiqqanidan beri uzoq yo‘l bosib o‘tdi. Raqamli davr bu muammoni osonlashtirmadi; aksincha, uni yanada ko‘p qirrali va murakkab qildi. Bugungi o‘quvchilar ulkan imkoniyat va sezilarli xavf kesishmasida turibdi: keng resurslardan mustaqil o‘rganish imkoniyati va bu resurslardan o‘rganishni mustahkamlaydigan ongli, strategik yondashuvdan mahrum holda foydalanish xavfidir.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatmoqdaki, har qanday til sinfidagi eng muhim pedagogik vosita o‘qituvchidir bo‘lib qoladi. Bunda til bilimini tayyor holda uzatuvchi pedagogdan emas, balki o‘quvchining mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatini bosqichma-bosqich, ataylab va o‘quvchi tabiatini hisobga olgan holda kengaytiradigan tajribalar muhitini yaratuvchi mutaxassisdan so‘z ketmoqda. Har qanday o‘quv dasturidan tezroq o‘zgarib borayotgan zamonamizda aynan shu qobiliyat til ta’limi taqdim eta oladigan eng qimmatli yutuq bo’lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Benson, P. (2011). Teaching and researching learner autonomy (2-nashr). Pearson Longman.

2. Brown, H. D. (2007). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy (3-nashr). Pearson Longman.

3. Chen, X. (2025). Critical learner autonomy in the digital language-learning context. TESOL Journal. https://doi.org/10.1002/tesj.906

4. Dove, M. G., Honigsfeld, A., & Cohan, A. (2022). Digital-age teaching for English learners. Corwin.

5. Ellii. (2023). 7 ways to develop learner autonomy in the ELT classroom. Ellii Blog. https://ellii.com/blog/7-ways-to-develop-learner-autonomy-in-the-elt-classroom

6. Language Issues: ESOL Journal. (2024). Learner autonomy in ESOL education: Embracing digital skills. Language Issues, 35(1). https://doi.org/10.6084/m9.figshare.c.7467851

7. Little, D. (1991). Learner autonomy: Definitions, issues and problems. Authentik.

8. Little, D., Dam, L., & Legenhausen, L. (2017). Language learner autonomy: Theory, practice and research. Multilingual Matters.

9. Nunan, D. (2004). Task-based language teaching. Cambridge University Press.

10. Ozturk, G., & Cakiroglu, U. (2015). Digital technology use in ELT classrooms and self-directed learning. Academia.edu. https://www.academia.edu/35535667

11. Roy, S., & Gandhimathi, A. (2025). Self-directed learning for optimizing sustainable language learning via MALL: A systematic review. Frontiers in Education, 9. https://doi.org/10.3389/feduc.2024.1463721

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

PRAGMATIC COMPETENCE FOR EFL LEARNERS IN A TECH-ENHANCED CLASSROOM.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.142

Feruza Vakhobova
PhD student at Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University 39, Kary Niyaziy str., Tashkent, 100000 Uzbekistan Email;
f_vaxobova@tiiame.uz
ORCID 0000-0002-0010-9220;

Abstract. This article examines new empirical studies on the development of pragmatic competence in English as a Foreign Language (EFL) learners. It focuses on the effectiveness of various teaching methods and how technology can be utilised to enhance learning environments. The pragmatic competence of EFL learners is a crucial component of successful communication across various social and cultural contexts, and effective teaching techniques are essential for its development. Learners should be afforded numerous opportunities to practise the language in a manner that is contextually appropriate in pragmatics instruction, notably through tasks that involve real-world speech acts such as requests, refusals, and compliments The review examines the primary pedagogical trends and their impact on students' ability to perform speech acts, such as requesting items, making suggestions, and responding to compliments. It achieves this by combining studies that employed explicit, inductive, input-based, and flipped instruction, as well as those that utilised Computer-Assisted Language Learning (CALL) and Massively Multiplayer Online Role-Playing Games (MMORPGs).

Key words: teaching, pragmatic competence, technology,CALL, language teaching curriculum, global village, culture, lingua franca.

1.Introduction: English serves as the lingua franca of globalisation, worldwide communication, commerce, and media, so engendering several motivations for its acquisition. English is no longer seen as the exclusive domain of the English-speaking world; rather, it is considered an international product, often termed English as an International Language. In ELF, English is used to communicate both between native and non-native speakers and between non-native speakers and native speakers. Researchers need to look into pragmatic competence, which is how L2 learners can handle communicative demands by using communication strategies skilfully while negotiating who they are. Of course, it is also

reasonable for teachers to stop relying only on idealised native-speaker models of what is proper, polite, and formal in their teaching and instead include a non-essentialist point of view in formal lessons(1). Acquiring pragmatic competence entails understanding the rules and principles governing participant behaviour within a society (sociopragmatics) and the capacity to select appropriate language to express those norms (pragmalinguistics). Acquiring pragmatic appropriateness in a second language (L2) is challenging; yet, while it can be achieved without formal training, research indicates that such instruction facilitates progress(2). Bachman and Palmer assert that pragmatic knowledge encompasses the interplay of utterances, language users, and contexts, reinforcing the perspectives of prominent academics who preceded them in the subject. Crystal characterises pragmatics as the examination of language from the perspective of users, particularly focussing on their choices, the limitations they face in social interactions, and the impact of their linguistic usage on other communicators involved in the exchange.

Examining the role and significance of pragmatic competence within the framework of communicative competence development holds paramount importance in foreign language education. Proficiency in a foreign language necessitates not only lexical and grammatical proficiency but also the adeptness to employ them contextually. Understanding pragmatic competence necessitates the clarification of "pragmatics" and "competence." Pragmatic competence refers to the ability to wisely choose linguistic resources in particular situational settings.

The field of Interlanguage Pragmatics (ILP) was first defined by Kasper and Dahl (1991) as “referring to nonnative speakers’ (NNs’) comprehension and production of speech acts, and how their L2-related knowledge is acquired” (p. 5). However, since then, the foreign language teaching paradigm has shifted from the unrealistic native-speaker-oriented model to the intercultural speaker model (Byram, 1997, 2021). The latter is a foreign/second language speaker who can maintain successful interactions with speakers of other cultures and languages. For this reason, Sykes (2017) claims that ILP is the approach to figuring out and defining how meaning is conveyed and understood in multilingual exchanges, as well as “the ability to communicate and interpret meaning ina learned language” (Sykes, 2018, p. 121). This is closely related to Byram’s intercultural speaker since to successfully interact with culturally different people, L2 speakers need to possess ILP skills to be able to interpret meaning in their L2. For this reason, L2 pragmatic competence is vital in intercultural communication(3).

2.Materials and methods

In this review, our primary objective was to amass regional knowledge by scouring existing research. Bibliometric reviews seek to provide a comprehensive grasp of the literature instead of assessing research quality or defining terminology(4). Utilizing the Web of Science database, the most prevalent bibliographic online resource, we executed an extensive search from 2014 to 2024 applying the keywords "teaching" and "pragmatic competence" across all nations. Our analysis was finalised in December 2024. From the 226 global papers identified, we selected a subset for further examination of pragmatic

competency in teaching. We employed multiple programs to handle and visualise the data, including a CSV file, Microsoft Excel 2021, RIS, VOS Viewer, and Map Chart, each fulfilling a distinct role in our investigation. In conclusion, we examined 51 documents, as illustrated in **Fig. 1.**




FIGURE 1. *Data Identification Flow Chart.*

3. Results

3.1 Trend of publications on pragmatic competence in all countries

Pragmatic competence denotes the capacity to understand, formulate, and express meanings that are both precise and suitable for the social and cultural contexts of communication. Total of 226 papers published between 2014 and 2024 on teaching pragmatic competence in all countries (Fig.2).

- Analysis of Publication Trends: Yearly Distribution of Records

The distribution of publication records across different years reveals interesting trends in research output, as reflected in the data provided. This dataset categorizes the number of publications by year, spanning from 2014 to 2024.

- Overview of Publication Distribution

A closer inspection of the publication records highlights certain patterns in research output over the years. The year 2022 exhibits the highest number of publications, with a total of 35 records. This represents a peak in publication activity, which could reflect heightened research activity or increased interest in specific topics during that period.

Following 2022, the number of publications remains relatively high in 2021, with 34 records, indicating a consistent level of scholarly output in the preceding year. This slight decrease from 2022 to 2021 is marginal and might reflect factors such as the evolving nature of research priorities or external influences on the research community, such as global events or funding changes.

- Declining Trends in Recent Years

In contrast, the years 2020 and 2023 show a decrease in the number of publications, with 30 and 29 records, respectively. These years mark a notable decline in comparison to the peak of 2021 and 2022, though the drop is not extreme. The lower publication counts in 2020 could possibly be attributed to the global COVID-19 pandemic, which may have disrupted

research activities due to lockdowns, restrictions, or shifts in research priorities towards pandemic-related issues. In 2023, the drop may be attributed to the natural lag in research processes, where data collection, publication cycles, and peer review may lead to a lower volume of outputs in a given year.

- Historical Publication Trends

When examining the years before 2020, a clear downward trend is visible. The year 2018 saw 31 publications, while 2019 had only 18. This decrease suggests a possible shift in research priorities or changes in research funding, leading to a reduced output during these years. As we look further back, the number of records gradually decreases: 2017 had 20 publications, 2016 had 19, and 2014 recorded 16 publications. These figures suggest a general decline in publications over the course of the last decade, reflecting both the evolution of the research landscape and possible shifts in academic focus, funding, or collaboration dynamics.

Interestingly, while the dataset includes 2024, it shows a projected or preliminary record count of 12. This number may reflect either early-stage publications or an underestimation due to the year not being fully completed. The early data for 2024 may also indicate a potential decline in research outputs compared to previous years, although it is important to note that this figure is subject to change as the year progresses and more publications are completed and recorded. To sum up, the data presented highlights a significant trend of fluctuating publication volumes over the years, with the highest number of records seen in 2022 and 2021, followed by a steady decline in subsequent years. This decline could be attributed to various factors, including external disruptions, shifting academic focuses, and resource constraints. The projected lower number of publications for 2024 signals a potential continuation of this downward trend, though it is important to monitor how this projection evolves as more data becomes available.




Figure 2. Annual production of articles on pragmatic competence during the period 2014-2024

3.2 Top research areas on pragmatic competence

Linguistics is the largest contributor to research on pragmatic competence, with 134 papers (fig 3), highlighting its central role in understanding how meaning is conveyed through context, tone, and cultural norms. Pragmatic competence is crucial in second language acquisition, language teaching, and multilingualism. Key areas of study include speech acts, politeness theory, conversation analysis, and cross-cultural communication.

Educational research follows closely with 133 papers, focusing on how students learn pragmatic skills in second languages and how educators can incorporate these skills into curricula. This is especially relevant in multicultural and multilingual classrooms.

Psychology contributes 13 papers, studying how pragmatic information is processed in social interactions, including areas like developmental pragmatic competence and challenges in individuals with conditions such as autism or aphasia.

The Science and Technology field, with 10 papers, explores pragmatic competence in professional and technical contexts, particularly in multilingual environments and the development of AI technologies that mimic pragmatic communication. In summary, Linguistics and Educational Research are the main contributors to pragmatic competence research, while Psychology and Science and Technology offer valuable insights into cognitive, social, and professional aspects of communication.

Discussion: The results contribute to the growing body of research on how English as a Foreign Language (EFL) learners develop pragmatic competence. They also have important implications for teaching languages and making policy. Students' consistent improvement in their ability to use correct speech acts in various learning settings demonstrates that pedagogical interventions focusing on enhancing students' pragmatic awareness and performance are effective.

First, the change observed from declining compliments on the pretest to accepting them on the posttests demonstrates the importance of teaching learners about L2 social and pragmatic rules. This change in behaviour shows that people learn pragmatic patterns when they can see them in action and use them in real-life situations. Because of this, MMORPGs and other tech-enhanced environments become useful for language learners who lack sufficient time to spend in the target society. Learners can develop pragmatic sensitivity in socially realistic settings on these platforms, which offer rich, interactive experiences that mimic real-life conversation.

Structured pragmatic teaching is also supported by results from various teaching methods, including flipped learning, inductive and explicit approaches, and input-based training. The fact that students who received specific instruction performed better supports the long-standing claim that being aware of metapragmatics facilitates deeper processing and retention. Explicit teaching not only improves performance immediately but also maintains pragmatic competence over time, as demonstrated by retention after a test.

Conclusion: In conclusion, this bibliometric study analyzed research on teaching speaking skills over the past 10 years, divided into three main periods. The study produced exciting findings through keyword analysis of research topics, co-citation analysis of authors and publications, publishers, and institution analysis. Countries with an EFL context, such as

USA, Iran, Spain, China, Germany, Canada, England and Russia focused more on developing learners' pragmatic competence. They contributed more to teaching pragmatic competence education studies. In addition, the analysis of author distribution revealed that there were constantly new researchers entering this field. Despite, the valuable contributions of these works, certain gaps are evident.

References

1. Taguchi N, Ishihara N. The Pragmatics of English as a Lingua Franca: Research and Pedagogy in the Era of Globalization. Annu Rev Appl Linguist. 2018 Sep;38:80–101.

2. Gonzalez-Lloret M. Technology-mediated tasks for the development of L2 pragmatics. Vol. 26, LANGUAGE TEACHING RESEARCH. 1 OLIVERS YARD, 55 CITY ROAD, LONDON EC1Y 1SP, ENGLAND: SAGE PUBLICATIONS LTD; 2022. p. 173–89.

3. Di Sarno-Garcia S. The Affordances of Telecollaboration to Teach Apologies. Vol. 24, INTERNATIONAL JOURNAL OF ENGLISH STUDIES. Edificio Pleiades Campus de Espinardo, Murcia, 30071, SPAIN: UNIV MURCIA; 2024. p. 25–47.

4. Mardieva D, Bakiyeva G, Kannazarova Z, Saidova Z. A Bibliometric Review: Interventions for Enhancing Speaking Skills in non-English-Speaking Contexts. XLinguae. 2024 Oct;17(4):195–224.

5. Zhang Y. The Influence of Game-Enhanced Communication on EFL Learners' Pragmatic Competence in Compliment Responses. APPLIED LINGUISTICS. GREAT CLARENDON ST, OXFORD OX2 6DP, ENGLAND: OXFORD UNIV PRESS; 2023.

6. Ziafar M. The Influence of Explicit, Implicit, and Contrastive Lexical Approaches on Pragmatic Competence: The Case of Iranian EFL Learners. Vol. 58, IRAL-INTERNATIONAL REVIEW OF APPLIED LINGUISTICS IN LANGUAGE TEACHING. GENTHINER STRASSE 13, D-10785 BERLIN, GERMANY: WALTER DE GRUYTER GMBH; 2020. p. 103–31.

7. Zhang Y. The Influence of Combining Computer-Assisted Language Learning With Instruction on Chinese College Students' L2 Pragmatic Ability. Vol. 45, CHINESE JOURNAL OF APPLIED LINGUISTICS. 19 XISANHUAN BEILU, BEIJING, PEOPLES R CHINA: FOREIGN LANGUAGE TEACHING & RESEARCH PRESS; 2022. p. 243–53.

8. Asvad Z, Sadighi F. THE IMPACT OF PRAGMATIC - FOCUSED INSTRUCTION ON SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE OF IRANIAN EFL LEARNERS. Mod J Lang Teach METHODS. 2014 Dec;4(4):30–5.

9. Li S, He J, Tao Y, Liu X. The effects of flipped classroom approach in EFL teaching: Can we strategically use the flipped method to acquire communicative competence? Lang Teach Res. 2022 Mar 1;

10. Qi X, Lai C. The effects of deductive instruction and inductive instruction on learners' development of pragmatic competence in the teaching of Chinese as a second language. Vol. 70, SYSTEM. THE BOULEVARD, LANGFORD LANE, KIDLINGTON, OXFORD OX5 1GB, OXON, ENGLAND: ELSEVIER SCI LTD; 2017. p. 26–37.

11. Nguyen M, Do H, Pham T, Nguyen A. The effectiveness of corrective feedback for the acquisition of L2 pragmatics: An eight month investigation. IRAL-Int Rev Appl Linguist Lang Teach. 2018 Sep;56(3):345–75.

12. Mehrpak L, Mehrdad AG, Karimi L. THE EFFECT OF TEACHING SPEECH ACTS ON IRANIAN EFL LEARNERS' WILLINGNESS TO COMMUNICATE (WTC). Vol. 6, MODERN JOURNAL OF LANGUAGE TEACHING METHODS. NO 300, AHMADABAD ST, MASHHAD, 00000, IRAN: MODERN JOURNAL LANGUAGE TEACHING METHODS; 2016. p. 495–504.

13. Ziashahabi S, Jabbari A, Razmi M. The Effect of Interventionist Instructions of English Conversational Implicatures on Iranian EFL Intermediate Level Learners' Pragmatic Competence Development. COGENT Educ. 2020 Jan 1;7(1).

14. Khalaji HR, Golnesaei MJ. THE EFFECT OF EXPLICIT INSTRUCTIONS ON PRAGMATIC COMPETENCE OF REQUEST. Vol. 5, MODERN JOURNAL OF LANGUAGE TEACHING METHODS. NO 300, AHMADABAD ST, MASHHAD, 00000, IRAN: MODERN JOURNAL LANGUAGE TEACHING METHODS; 2015. p. 179–88.

15. Gonzalez-Lloret M. Technology and L2 Pragmatics Learning. Vol. 39, ANNUAL REVIEW OF APPLIED LINGUISTICS. 32 AVENUE OF THE AMERICAS, NEW YORK, NY 10013-2473 USA: CAMBRIDGE UNIV PRESS; 2019. p. 113–27.

16. Glaser K. News from the pragmatics classroom: Contrasting the inductive and the deductive approach in the teaching of pragmatic competence. Vol. 13, INTERCULTURAL PRAGMATICS. GENTHINER STRASSE 13, 10785 BERLIN, GERMANY: DE GRUYTER MOUTON; 2016. p. 529–61.

17. Loranc B, Hilliker S, Lenkaitis C. Virtual exchange and L2 pragmatic development: analysing learners' formulation of compliments in L2. Lang Learn J. 2023 Nov 2;51(6):706–17.

18. Usó-Juan E, Martínez-Flor A. Using audiovisual material to teach refusals from a discursive perspective: a research-based proposal. Complut J Engl Stud. 2022;30:53–66.

19. Solodka A, Perea L. The Speech Act of Complimenting as Part of the Ukrainian, Russian and English Speaking Communities: Ukraine and the USA. ARAB WORLD Engl J. 2018 Dec;9(4):39–55.

20. Li Q, Taguchi N. Usage-based approach to teaching L2 pragmatics. In: Martinez-Flor A, Sanchez-Hernandez A, Baron J, editors. L2 PRAGMATICS IN ACTION: Teachers, learners and the teaching-learning interaction process. 2023. p. 265–90.

21. Gharibeh S, Mohammadnia Z, Sarkhosh M. Traditional, Multiple-intelligence Based Instruction, and L2 Pragmatics Development. J ASIA TEFL. 2022 SUM;19(2):542–62.

22. Chen Y shan. Understanding the development of Chinese EFL learners' email literacy through Exploratory Practice. Vol. 20, LANGUAGE TEACHING RESEARCH. 1 OLIVERS YARD, 55 CITY ROAD, LONDON EC1Y 1SP, ENGLAND: SAGE PUBLICATIONS LTD; 2016. p. 165–80.

23. Neary-Sundquist C. The use of pragmatic markers across proficiency levels in second language speech. Stud SECOND Lang Learn Teach. 2014 Dec;4(4):637–63

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ENHANCING HIGH SCHOOL STUDENTS' LIFE SKILLS VIA COLLABORATIVE TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.143

Akhmadalieva Khosiyatposhsho Abdukhayotovna
Phd, Acting Professor
Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan
xosiyatposhshoaxmadaliyeva@gmail.com

Abstract. This research reveals effective ways to develop students' life skills through collaborative technologies at secondary school level, by emphasizing key competences, real-world applications and cooperative learning environment. The role of pedagogical principles, collaborative learning strategies, interdisciplinary teaching and integration of digital technologies in providing learners with essential life skills, such as communication, teamwork, critical thinking, decision-making, creativity and problem-solving. 10-11-grade students of Algorithm school were involved in the study in the process of English language teaching, using interactive-method approaches with pre- and post-test measuring improvements in acquiring life skills. The findings provide collaborative technologies significantly enhance students' engagement and contribute to the formation of life skills required for academic and social success.

Keywords:life skills, collaborative learning, English language teaching, high school students, communicative approach, interactive technologies, interdisciplinary teaching.

Introduction. In the context of contemporary globalization, foreign language learning is recognized as a crucial pedagogical factor that supports an individual's intellectual, social and professional development. Integration into global community, the rapid acceleration of information flows and the adoption of international standards within educational systems have further heightened the demand for foreign language competence [1]. Pedagogical researches conceptualize foreign language learning as a means for developing communicative competence, fostering intercultural communication and improving life skills. Today, school graduates are expected not only to possess foreign language proficiency but also demonstrate life skills including effective communication, collaboration, creativity, critical and analytical thinking. These skills are essential for successful participation in modern society and professional life. As it is obvious, English language teaching (ELT) provides a unique environment for the development of life skills because language learning inherently involves real communication, effective interaction and cultural exchange. In traditional classrooms, however, language instruction often focuses on subskills rather than practical communication

and social interaction [2]. For this issue collaborative learning technologies provide an effective solution. They encourage students to work together, share ideas and solve tasks and achieve learning goals collectively that lead to develop learners' linguistic competence and life skills at the same time. High school students can enhance their key competencies base of life skills through instructional methods and pedagogical techniques which are provided below:

1. Integrating Life Skills-Oriented Learning into the Curriculum

Students can understand the practical implementation of their academic subjects through life skills-oriented learning which prepares them for future social and professional atmosphere. Thus, life skills-related topics can be integrated into the curriculum by using project-based learning, flipped classroom; students work on real-world challenges which related to their field of interest. Organizing various interactive activities in lessons, students are able to interact effectively and study independently to gain deep knowledge.

2. Enhancing Critical Thinking, Decision-Making and Problem-Solving Skills

Decision-making, problem-solving and critical thinking skills are inseparable part of life skills. Students can analyze situations, make informed decisions and evaluate solutions with the support of these skills. One of the most effective methods is problem-based learning, which enables students to practice real-life challenges, and make reasonable decisions. By means of this approach, students can learn how to think logically and use the knowledge to tackle the problem and analytical thinking can be improved effectively by structured discussions and debates.

3. Strengthening Communication and Interpersonal Skills

For personal success and collocation, interpersonal skills and strong communication are considered as the most necessary abilities of life skills. These skills can be fostered with public speaking exercises, where students present topics to the small audience, at least to their classmates. This technique can be very useful to improve students' ability to express their ideas confidently and clearly [3]. Professional communication in real-world scenarios can be practiced with role-play activities, such as workplace simulations and mock interviews. Furthermore, teaching students how to negotiate, listen to each other and work effectively with colleagues, peer collaboration and group projects encourage teamwork.

4. Cultivating Ethical and Responsible Personal Behavior

A key aspect of life skills is a strong sense of responsibility and ethics. Through ethical discussions schools can establish this value, especially students are able to discuss and analyze moral difficulties that they may come across in life. Environmental responsibilities, fair treatment of classmates, for example might be discussed. Team-based challenges, such as cooperative leadership tasks can be integrated by schools to teach students collaboration and accountable. Combination of real-world experience, skill-building exercises and academic integration is required to enhance students' life skills.

Literature review. Life skills are defined as basic competencies that enable individuals to deal effectively with the demands and challenges of everyday life. According to UNESCO, life skills are abilities for adaptive and positive behavior that provide individuals to combat

successfully with issues of daily life [4]. It emphasizes that schools should integrate life skills development into academic subjects rather than teaching them separately. Language teaching is particularly suitable for this integration because communication is central to both language learning and life skills development. Core categories of life skills are suggested by the organization as below:

- *Cognitive skills:* critical thinking, decision-making, problem-solving and creativity.
- *Emotional and social skills:* self-awareness, empathy, stress management, emotional regulation.
- *Interpersonal skills:* communication, negotiation, teamwork, conflict negotiation.

Scholars Kirchhoff & Keller mention that life skills encompass cognitive, emotional, psychological and interpersonal competencies such as decision-making, problem-solving, communication and self-regulation [5]. It is emphasized the primary aim is to empower students to respond constructively to real-world challenges and prepare for future life. Based on the research of Nasheeda, life skills interventions can promote positive behavior changes, help reduce engagement in at-risk behaviors and improve psychological outcomes among adolescents [6]. These skills are increasingly integrated into school curriculum worldwide to support students' personal development, self-esteem and psychologic well-being. We can say that the development of life skills within the educational process at schools is considered a key strategy for improving the quality of education, fostering the holistic advancement of individuals and creativity. Furthermore, in the core content of the key competencies concept developed by A. Khutorskoy, Russian scientist, it is revealed that the content of education should not be limited to the transmission of gaining knowledge, but should also focus on the formation of integrated competencies that enable individuals to act effectively in real-life situations [7]. Through the development of these skills, students acquire modern competencies referring self-awareness, independent decision-making, a sense of social responsibility, the ability to collaborate with others, a drive for innovation and readiness for continuous change. In addition, Uzbek scholar M. Tuxtaxodjayeva claims that one of the priority tasks of the educational process is not only develop students' knowledge, skills and competencies, but also to ensure their conscious understanding of intellectual culture, moral and ethical perspectives, and values [8]. In modern pedagogy, life skills are regarded as one of the fundamental factors contributing to an individual's sustainable development and successful socialization. In particular, developing life skills in English lessons for high school students plays a significant role in preparing them for their future professional and social activities, as well as in improving their intercultural communication and global competencies.

It is apparent that collaborative technologies is widely recognized as an effective pedagogical approach in ELT, particularly in secondary education. It involves students working together in small groups to achieve shared learning goals, promoting both language development and life skills. It is indicated Collaborative technologies shifts classrooms from teacher-centered to student-centered environments that learners actively construct knowledge through interaction and cooperation [9]. Collaborative learning is rooted in social constructivist theory, particularly the work of L. Vygotsky, who argued that cognitive

development occurs through social interaction [10]. According to this theory, learning the language occurs via dialogue, peer support and shared experience, as well as, students develop understanding by negotiating meaning and reflecting on others' ideas. We can understand the concept of the theory like interaction helps students build both academic knowledge and social competencies. Another influential perspective is collaborative technologies developed by D. Johnson and R. Johnson. They identified five essential elements of effective collaborative learning as bellows:

- ✓ Positive interdependence
- ✓ Individual accountability
- ✓ Face-to-face interaction
- ✓ Social skills
- ✓ Group processing [11].

The elements form the foundation for designing collaborative classroom activities effectively.

The influence of Collaborative technologies for enhancing students' life skills in English classes as follows:

1.Communication skills. It significantly improves students' ability to communicate in English [12]:

- Students engage in discussions, debates and peer feedback

-Group work enhances productive and receptive skills simultaneously

It is obvious that communication skills increase opportunities for life skills elements such as interaction and reduces language anxiety, allowing students to practice English more confidently.

2.Teamwork and social skills. One of the core life skills developed through teamwork [13]:

-Students learn to cooperate, share responsibilities and respect others' opinions

-It fosters peer support, empathy and social relationships

It shows that collaborative environments improve students' social interaction and sense of belonging, which are essential for high school students' development.

3.Critical thinking and problem solving. It is revealed that collaborative technologies promote higher-order thinking skills [14]:

-Students analyze texts, interpret meaning and evaluate ideas together

-Exposure to multiple perspectives enhances reasoning and decision-making

Studies in secondary English classes show that collaborative technologies improve students' ability to interpret literature and think critically.

4.Self-regulation and responsibility. Collaborative technologies encourage students to take responsibility for their learning [15]:

-Learners manage tasks, contribute to group goals and monitor progress

-It promotes autonomy and accountability

It is visible that collaborative flipped classrooms show improved self-regulated learning skills, including time management and goal-setting.

5.Motivation and Engagement. Collaborative technologies increase students' motivation to acquire the language in deep level [16]:

-Interactive group activities create a positive classroom environment

-Students feel more engaged and confident in participating

Students confirm that Collaborative technologies enhance student engagement and active participation in English classes.

6. Development of 21st century skills. Collaborative technologies support broader life skills elements, including [17]:

-Creativity and innovation

-Decision-making

-Interpersonal communication

We can say that cross-collaborative learning environments expose students to diverse perspectives, helping them develop real-world problem-solving abilities.

In English language classrooms, collaborative technologies allow high school students to practice language in meaningful contexts via group discussions, role-plays, debated and projects that lead to enhance their life skills in reality. Furthermore, it fosters a supportive classroom in which students feel comfortable expressing ideas and taking risks in language use, as well as, prepare them for real-life challenges.

Research Methodology. This research was carried on to investigate the development of life skills among secondary school students can be positively impacted through various educational strategies. Especially, integrating project-based learning, problem-based learning, flipped classroom methods and critical thinking activities to improve students' life skills were addressed by this study. To achieve this, a group of thirty secondary school students of Algorithm school participated in the research. The study utilized a mixed-methods approach, incorporating quantitative and qualitative data collection to analyze comprehensively the impact of these strategies. Pre-and post-tests to gather quantitative data were used to measure students' life skills, while weekly observations for qualitative insights were utilized to record their experiences and progress.

Both a broad statistical overview and a clear understanding of the effectiveness of various Instructional methods were provided by this very combination. Lesson plans, worksheets, pre- and post-tests, and various interactive activities were carefully selected and designed to support life skills development during the preparation stage. The implementation period consisted of twelve 45-minute sessions, and during this time student worked on problem - solving activities, career - oriented learning and skill-building exercises like role-playing, case studies, teamwork exercises and topic-based discussions. To foster students' participation and motivation, each session began with engaging introduction, interactive warm-up activities and quick assessment. Practical and hand-on activities such as: *discussion-making exercises, real life activities* and *cooperative projects* were utilized throughout the study. Learning objectives were clearly introduced, materials were demonstrated, students were randomly split into experimental and control groups, and their performances were recorded for further analysis.

This research demonstrates new approach to develop students' life skills by concentrating on the significance of its elements: teamwork, problem-solving, adaptability, interpersonal communication and leadership in secondary school. **Results and discussion.** The analysis of students' pre-test and post-test scores provides insights into their performance improvement.

Table 1

Paired Samples T-Test									
Measure1		**Measure 2**	**t**	**Df**	**P**	**Cohen's d**	**SE Cohen's d**		
pre-test	-	post-test	-66.768	29	< .001	-12.190	0.395		
Note. Student's t-test.									

Students' average score in the pre-test was 58.03, while the post-test mean score increased to 76.90. This suggests an overall improvement in students' abilities after the intervention.

Table 2


Descriptives					
	N	**Mean**	**SD**	**SE**	**Coefficient of variation**
pre-test	30	58.033	5.209	0.951	0.090
post-test	30	76.900	5.904	1.078	0.077
Note. Student's t-test.					

The standard deviation (SD) for the pre-test was 5.21, while for the post-test, it was 5.90. This indicates that while scores varied slightly more in the post-test, the overall performance still showed a positive trend.

The coefficient of variation decreased from 0.090 (pre-test) to 0.077 (post-test), indicating that students' scores became more consistent after the intervention.

Table 3

Bar Plots (pre-test - post-test)



The bar plot visually represents the increase in students' scores. The post-test scores are significantly higher, reinforcing the statistical findings that the intervention was effective in enhancing students' performance that demonstrate a substantial improvement.

Conclusion, recommendation. This study explores the importance of life skills for secondary school students. The results show that integration of career-oriented learning, skill-

based activities and hands-on experiences significantly develop students' ability to use knowledge in real-world situations. In fostering essential life skills like teamwork, critical thinking, and communication via collaborative technologies, this research proves the effectiveness of different Instructional techniques, such as problem-based learning, project-based learning , flipped classroom learning and role-playing. Educators can connect theoretical learning and practical implementation by incorporating proper instructional design, teacher training and structured group management. To sum up, this study supports the importance of integrating skill-based education and experiential learning into the secondary school curriculum. Schools can play a crucial role in students' long-term success and it is recommended for teachers:

1. Long-term studies: examining the long-term effects of life skills should be addressed by future studies. As this short-term study showed quick improvements, it does not explain whether these changes last over time.

2. Bigger and more diverse sample: future research should include a larger and diverse group of students to make the results more applicable and reliable. A clear picture of life skills approach could be given by a bigger sample size.

REFERENCES:

1. "Decree PQ-239 dated 27.06.2024 on Additional Measures to Enhance the Effectiveness of Teaching Foreign Languages for Youth".

2. Richards, J.C., Rodgers, T.S. (2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge University Press.

3. Abdukhayotovna A. K. The Beneficial Angels of Learner-Centered Approach in Prospering Pupils' Communicative Competence in English Classes at Academic Lyceums. – 2022, 129.

4. UNESCO. (1997). Life skills education for children and adolescents in schools. Paris: UNESCO .

5. Kirchhoff, E., &Keller, R. (2021). Age-specific life skills education in school: A systematic review. Frontiers in Education. https://doi.org/10.3389/feduc.2021.660878.

6. Nasheeda, A., Abdullah, H.B., Krauss, S.E., & Ahmed, N.B. (2019). A narrative systematic review of life skills education: Effectiveness, research gaps and priorities. International Journal of Adolescence and Youth, 24 (3). –pp.362-379. https://doi.org/10.1080/02673843.2018.1479278

7. Khutorskoy, A.V., (2003). "Key competencies as a component of the personality-oriented paradigm of education ", Russian Journal "Education, 2". – pp.56-64.

8. Tuxtaxodjayeva, M.H. (2019*). Shaxs rivojlanishi psixologiyasi*. Toshkent.

9. Nasichah, A.H. (2023). The role of cooperative learning method in teaching English to improve students' skills: A systematic review. –pp. 244-258.

10. Vygotsky, l.S. (1978). Mind in society. Harvard University Press.

11. Johnson, D.W., Johnson, R.T., & Smith, K. (2014). Cooperative learning: Improving university instruction. Change: The magazine of Higher Learning 30 (4). –pp.26-35.

12. Axmadaliyeva, X. (2023). PROFESSINAL TA’LIM YO’NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *3*(8). https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N66.

13. Meza, B.P. (2025). Adolescent perspectives on cooperative classroom learning and social networks. PLOS ONE, 20 (7).

14. Wanjala, F. (2024). Effect of cooperative learning approach on student performance in English literature in secondary schools. International Journal of Research and Innovation in Social Science.

15. Axmadaliyeva, X. (2025). THE ROLE OF FLIPPED CLASSROOM METHOD TO PREPARE STUDENTS FOR PROFESSION AT SECONDARY SCHOOL. (2025). *Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy*, *1*(2), 689-699.

16. Tolegenova, S.A. (2025). Collaborative learning in English language classrooms: Benefits and challenges. Fan va Tadqiqot Samaralari.

17. Zheng, L. (2024). Strategies and supports for developing skills within learning communities. A systematic review. Administrative Sciences, 14(9). –P.231.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KASBIY RIVOJLANISH JARAYONIDA ONA TILI O‘QITUVCHILARINING KOGNITIV QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.144

Bekmirzayev Xasan Safarovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘imi boshlig‘i
hasanbekmirzayev42@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish jarayonida kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodikasi yoritiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi subyekt sifatidagi roli ortib borayotganligi asoslanadi. Maqolada kognitiv jarayonlarning (idrok, xotira, tafakkur, nutq) o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni, ularni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar, refleksiya va metakognitiv yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tizimli metodik yondashuv orqali o‘qituvchilarning kasbiy samaradorligi va pedagogik kompetensiyasi sezilarli darajada oshishi mumkinligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv qobiliyat, kasbiy rivojlanish, ona tili o‘qituvchisi, metakognitsiya, refleksiya, pedagogik kompetensiya, tafakkur, innovatsion metodlar.

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические основы и практическая методика развития когнитивных способностей учителей родного языка в процессе профессионального развития. Обосновывается, что в современной системе образования возрастает роль учителя не только как транслятора знаний, но и как субъекта, формирующего мышление учащихся. В статье анализируются роль когнитивных процессов (восприятие, память, мышление, речь) в деятельности учителя, инновационные методы, рефлексия и метакогнитивные подходы, направленные на их развитие. Результаты исследования показывают, что благодаря системному методическому подходу профессиональная эффективность и педагогическая компетентность учителей могут значительно повыситься.

Ключевые слова: когнитивная способность, профессиональное развитие, учитель родного языка, метакогниция, рефлексия, педагогическая компетентность, мышление, инновационные методы.

Abstract. This article highlights the theoretical foundations and practical methodology for developing the cognitive abilities of mother tongue teachers during their professional development. It establishes that in the modern education system, the teacher's role is evolving not only as a source of knowledge but also as a subject who shapes students' thinking. The

article analyzes the role of cognitive processes (perception, memory, thinking, speech) in a teacher's activities, as well as innovative methods, reflection, and metacognitive approaches aimed at their development. Research results indicate that through a systematic methodological approach, teachers' professional efficiency and pedagogical competence can be significantly increased.

Keywords: cognitive ability, professional development, mother tongue teacher, metacognition, reflection, pedagogical competence, thinking, innovative methods.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, ona tili o‘qituvchisining kasbiy faoliyati nafaqat lingvistik bilimlarni yetkazish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirishni ham talab etadi. Shu sababli o‘qituvchining o‘z kognitiv qobiliyatlari yuqori darajada shakllangan bo‘lishi zarur.

Kognitiv qobiliyatlar insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ona tili o‘qituvchisi uchun bu jarayonlar ayniqsa muhim, chunki u til vositasida fikrni ifodalash, tahlil qilish va tushuntirish faoliyatini amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘qituvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish kasbiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi [2,15].

Ona tili o‘qituvchisining kognitiv faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, u bir nechta asosiy komponentlardan tashkil topadi: idrok, xotira, tafakkur va nutq. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivoji o‘qituvchining pedagogik mahoratini belgilaydi.

Avvalo, idrok jarayoni o‘qituvchining o‘quv materialini to‘g‘ri qabul qilishi va uni didaktik jihatdan qayta ishlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida matnni tahlil qilish, grammatik hodisalarni ajratish, semantik jihatlarni tushuntirish aynan idrokning rivojlanganligiga bog‘liq [3,42].

Xotira esa o‘qituvchining bilimlarni uzoq muddat saqlashi va ularni kerakli vaziyatda qo‘llay olishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, til materiallari – qoidalar, istisnolar, leksik birliklar – xotira faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli o‘qituvchilarning mantiqiy va assotsiativ xotirasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Tafakkur kognitiv jarayonlarning markaziy elementi hisoblanadi. Ona tili o‘qituvchisi nafaqat tayyor bilimlarni uzatadi, balki o‘quvchilarda tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Bu esa o‘qituvchining o‘z tafakkuri yuqori darajada rivojlangan bo‘lishini talab etadi [4,27].

Nutq esa o‘qituvchining asosiy ish quroli bo‘lib, u orqali bilimlar uzatiladi, tushunchalar izohlanadi va muloqot amalga oshiriladi. Nutqning aniqligi, mantiqiyligi va ifodaliligi o‘qituvchining kognitiv qobiliyatlari bilan bevosita bog‘liq.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda metakognitiv yondashuv alohida ahamiyatga ega. Metakognitsiya – bu insonning o‘z fikrlash jarayonini anglash va boshqarish qobiliyatidir. O‘qituvchi o‘zining qanday o‘ylayotganini, qanday xatolarga yo‘l qo‘yayotganini va ularni qanday tuzatishni bilsa, uning kasbiy faoliyati yanada samarali bo‘ladi [5,19].

Shu nuqtai nazardan, kasbiy rivojlanish jarayonida quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Birinchidan, reflektiv faoliyatni tashkil etish. O‘qituvchi har bir darsdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qilishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi zarur. Bu jarayon kognitiv o‘sishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish. Muammoli vaziyatlar o‘qituvchining tafakkurini faollashtiradi va yangi yechimlar topishga undaydi.

Uchinchidan, kollaborativ o‘rganish. O‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashish orqali yangi bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu jarayonda ijtimoiy-kognitiv rivojlanish yuz beradi [6,33].

To‘rtinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchining kognitiv faoliyatini kengaytiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi.

Beshinchidan, kreativ mashqlarni qo‘llash. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar o‘qituvchining ham, o‘quvchilarning ham tafakkurini rivojlantiradi.

Shuningdek, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda treninglar va seminarlar muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali o‘qituvchilar yangi metodlar bilan tanishadilar va ularni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tizimli ravishda tashkil etilgan kasbiy rivojlanish dasturlari o‘qituvchilarning kognitiv qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Bunda individual yondashuv va doimiy monitoring muhim ahamiyatga ega [7,58].

Kasbiy rivojlanish tizimida o‘qituvchining kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda individual va differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o‘qituvchi o‘zining psixologik xususiyatlari, tajribasi va bilim darajasiga ko‘ra turlicha kognitiv rivojlanish trayektoriyasiga ega bo‘ladi. Shu sababli yagona metodika barcha o‘qituvchilar uchun bir xil samaradorlik bermasligi mumkin. Mazkur holatda adaptiv metodik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adaptiv yondashuv o‘qituvchining mavjud bilimlari, ehtiyojlari va kasbiy muammolarini hisobga olgan holda individual rivojlanish dasturini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu jarayonda diagnostika alohida o‘rin tutadi. Kognitiv qobiliyatlarni aniqlash uchun maxsus psixologik testlar, reflektiv savolnomalar va kuzatuv metodlari qo‘llaniladi [8,41].

Ona tili o‘qituvchilarining kognitiv rivojlanishida lingvistik tafakkur alohida ahamiyatga ega. Lingvistik tafakkur bu til birliklari orqali fikrni strukturalash va mantiqiy izchillikda ifodalash qobiliyatidir. Bu qobiliyat nafaqat grammatik bilimlarni, balki semantik va pragmatik tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi. Lingvistik tafakkurning rivojlanishi o‘qituvchining matn bilan ishlash, uni tahlil qilish va tushuntirish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi [9,22].

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim yo‘nalishlardan biri – tanqidiy fikrlashni shakllantirishdir. Tanqidiy fikrlash o‘qituvchining ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini anglatadi. Ona tili darslarida bu, ayniqsa, matnni interpretatsiya qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash va turli nuqtai nazarlarni solishtirish jarayonida namoyon bo‘ladi [10,35].

Shuningdek, kreativ tafakkur ham kognitiv rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kreativ tafakkur o‘qituvchiga yangi pedagogik yechimlar topish, darslarni qiziqarli tashkil etish va o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Kreativlikni rivojlantirish uchun brainstorming, mind-map, rol o‘yinlari va muammoli vaziyatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kasbiy rivojlanish jarayonida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda refleksiv kompetensiya alohida ahamiyatga ega. Refleksiya – bu o‘qituvchining o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash jarayonidir. Refleksiv faoliyat orqali o‘qituvchi o‘zining pedagogik strategiyalarini takomillashtiradi va yangi yondashuvlarni ishlab chiqadi [11,18].

Metodik jihatdan qaraganda, quyidagi bosqichlar orqali kognitiv rivojlanishni tashkil etish mumkin:

Birinchi bosqich – diagnostik bosqich bo‘lib, unda o‘qituvchining kognitiv darajasi aniqlanadi. Bu bosqichda testlar, suhbatlar va kuzatuvlar qo‘llaniladi.

Ikkinchi bosqich – rivojlantiruvchi bosqich. Bu bosqichda maxsus treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali kognitiv qobiliyatlar rivojlantiriladi.

Uchinchi bosqich – refleksiv bosqich bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi va natijalarni baholaydi.

To‘rtinchi bosqich – monitoring va korreksiya bosqichi. Bu bosqichda olingan natijalar asosida rivojlanish dasturi qayta ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham kognitiv rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, raqamli platformalar orqali o‘qituvchilar yangi bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Onlayn kurslar, vebinarlar va interaktiv platformalar kognitiv faollikni oshiradi [12,29]. Bundan tashqari, professional learning community (PLC) – ya’ni professional o‘rganish jamoalari ham muhim rol o‘ynaydi. Bu jamoalarda o‘qituvchilar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar, muammolarni birgalikda hal qiladilar va yangi g‘oyalarni ishlab chiqadilar. Bu jarayon ijtimoiy-kognitiv rivojlanishga xizmat qiladi.

Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam ravishda refleksiya va metakognitiv mashqlarni qo‘llagan o‘qituvchilarning dars sifati va o‘quvchilarning bilim darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa kognitiv qobiliyatlarning bevosita ta’lim sifatiga ta’sirini tasdiqlaydi [13,47]. Shuningdek, o‘qituvchilarning emotsional intellekti ham kognitiv rivojlanish bilan uzviy bog‘liq. Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan o‘qituvchi stressni boshqarish, muloqotni samarali tashkil etish va o‘quvchilar bilan ijobiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishda muvaffaqiyatli bo‘ladi. Bu esa kognitiv faoliyat samaradorligini oshiradi.

Ona tili o‘qituvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda nafaqat metodik vositalar, balki motivatsiya, psixologik muhit va tashkiliy sharoitlar ham muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchining o‘rni o‘zgarib bormoqda: u endi bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarni o‘rganishga yo‘naltiruvchi fasilitator sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa undan yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanlikni talab etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ona tili o‘qituvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish kasbiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Idrok, xotira,

tafakkur va nutq kabi kognitiv komponentlarni tizimli rivojlantirish orqali o‘qituvchilarning pedagogik samaradorligi oshadi. Keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ona tili o‘qituvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda psixologik, pedagogik va texnologik omillar uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi lozim. Ayniqsa, metakognitiv yondashuv, refleksiya va innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan kasbiy rivojlanish tizimi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

-o‘qituvchilar uchun kognitiv rivojlanishga yo‘naltirilgan maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish;

-malaka oshirish kurslarida metakognitiv va refleksiv metodlarga ustuvor ahamiyat berish;

-ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;

-o‘qituvchilar o‘rtasida professional hamkorlikni kuchaytirish.

Taklif etilgan metodik yondashuvlar - refleksiya, metakognitsiya, muammoli ta’lim, kollaborativ o‘rganish va AKTdan foydalanish - o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish va amaliy metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014. – 176 b.
2. Vygotsky L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1999. – 352 b.
3. Leontyev A.N. Faoliyat, ong, shaxs. – Moskva: Nauka, 2005. – 304 b.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg, 2002. – 720 b.
5. Flavell J. Metacognition and cognitive monitoring. – Cambridge, 1979. – 210 p.
6. Johnson D., Johnson R. Cooperative learning. – Minnesota, 2013. – 280 p.
7. Shadrikov V.D. Professional faoliyat psixologiyasi. – Moskva, 2006. – 288 b.
8. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 2004. – 384 b.
9. Chomsky N. Language and Mind. – New York, 2006. – 190 p.
10. Halpern D. Thought and Knowledge. – New Jersey, 2014. – 320 p.
11. Schön D. The Reflective Practitioner. – London, 1983. – 374 p.
12. Siemens G. Connectivism theory. – 2005. – 150 p.
13. Hattie J. Visible Learning. – London, 2009. – 392 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY NAZARIY MANBALARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.145

Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi
University of Business and Science
oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
e.mail: shaxnozaxojimirzayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini o‘qitish texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslari xorijiy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha xalqaro ilmiy manbalar o‘rganildi hamda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘yin faoliyati, loyiha metodlari va integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bolalarning bilish faolligini, mustaqil fikrlashini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim, o‘yin texnologiyasi, loyiha metodi, integratsiyalashgan ta’lim.

Abstract. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the technologies for teaching preschoolers in the preparatory group in the preschool education system based on foreign experience. International scientific sources on modern pedagogical technologies were studied and innovative pedagogical approaches used in the preschool education system were analyzed. The results of the study showed that game activities, project methods and integrated educational technologies play an important role in the development of preschool children. The use of innovative pedagogical technologies in the preschool education process has shown that it is important to develop children's cognitive activity, independent thinking and creative abilities.

Keywords: preschool education, pedagogical technologies, innovative education, game technology, project method, integrated education.

Аннотация. В данной статье на основе зарубежного опыта анализируются научно-теоретические основы технологий обучения детей дошкольного возраста в подготовительной группе системы дошкольного образования. Изучены международные научные источники по современным педагогическим технологиям и проанализированы инновационные педагогические подходы, используемые в системе дошкольного

образования. Результаты исследования показали, что важную роль в развитии детей дошкольного возраста играют игровые занятия, проектные методы и интегрированные образовательные технологии. Использование инновационных педагогических технологий в процессе дошкольного образования показало важность развития у детей познавательной активности, самостоятельного мышления и творческих способностей.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагогические технологии, инновационное образование, игровые технологии, проектный метод, интегрированное образование.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bolalarni maktab ta’limiga samarali tayyorlash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim bolalarning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, ushbu davrda bolalarda asosiy bilish faoliyati shakllanadi. So‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim jarayonini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, bolaga yo‘naltirilgan ta’lim modeli hamda rivojlantiruvchi ta’lim muhitiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bolalarning intellektual rivojlanishini ta’minlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini xorijiy tajribalar asosida o‘qitishning pedagogik texnologiyalarini nazariy jihatdan asoslash, avvalo, maktabgacha ta’limning zamonaviy xalqaro talqinlarini to‘g‘ri anglashni talab qiladi. Bugungi kunda jahon pedagogikasida maktabgacha ta’lim faqatgina bolani boshlang‘ich sinfga formal tayyorlash bosqichi sifatida emas, balki uning jismoniy, kognitiv, nutqiy, ijtimoiy-emotsional va axloqiy rivojlanishini bir butun jarayon sifatida qo‘llab-quvvatlaydigan tizim sifatida qaralmoqda[49]. YUNESKO maktabgacha ta’limni tug‘ilishdan sakkiz yoshgacha bo‘lgan davrdagi jadal miya rivojlanishi bilan bog‘liq hal qiluvchi imkoniyat sifatida talqin qiladi va uni shunchaki boshlang‘ich maktabga tayyorgarlik emas, balki butun umr davomidagi o‘qish, emotsional farovonlik va ijtimoiy uyg‘unlik poydevori deb baholaydi[50]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti esa erta yoshdagi rivojlanishni g‘amxo‘r, xavfsiz va o‘qish imkoniyatlariga boy muhit bilan bog‘laydi. Shu bois, maktabgacha tayyorlov guruhida xorijiy tajribalar asosida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari bola rivojlanishining biopsixosotsial tabiati, ta’limning inson huquqlari bilan bog‘liq qadriyatli jihati va ta’lim sifatiga doir xalqaro ilmiy xulosalar kesishmasida shakllanadi.

[49] Qosimova, Zuhraxon. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari." Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali: 676182.

[50] Ishtayah H., Oliveira J. Holistic Development of Pre-School Children in Light of the Application of UNESCO Standards //Recerca en Humanitats 2024. – 2025. – С. 59.

Mazkur masalaga nisbatan nazariy yondashuvni ishlab chiqishda “pedagogik texnologiya” tushunchasining o‘ziga ham aniq ilmiy mazmun berish zarur. Xorijiy tajribalarga tayangan holda maktabgacha tayyorlov guruhida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar alohida usullar yig‘indisi yoki ayrim mashg‘ulotlarni tashkil etish texnikasi emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita, muhit, baholash va kutilgan natija o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydigan tizimli loyihalash modeli sifatida tushuniladi. OECD tahlillarida maktabgacha ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi asosiy besh ta siyosiy ғыchag - standartlar va moliyalashtirish, o‘quv dasturi va pedagogika, kadrlar salohiyati, monitoring va ma’lumotlar, oila hamda jamoatchilik bilan hamkorlik - bolalarning kundalik o‘zaro ta’sirlari sifatiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi. Bu yerda o‘quv dasturi rivojlanish va o‘qitish maqsadlarini belgilasa, pedagogika shu maqsadlarni hayotga tatbiq etadigan strategiya va texnika sifatida talqin qilinadi. Demak, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishda asosiy e’tibor tashqi shaklga emas, balki ushbu tizimli bog‘liqlikka qaratilishi kerak.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda o‘yin faoliyati, loyiha metodlari, mustaqil o‘rganish hamda rivojlantiruvchi muhit muhim rol o‘ynaydi. Reggio Emilia, Anji Play, Montessori va HighScope kabi pedagogik yondashuvlar maktabgacha ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalasi ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Amerikalik pedagog olim **David P. Weikart** tomonidan ishlab chiqilgan **HighScope** modeli maktabgacha ta’lim tizimida faol o‘rganish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu model bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish, rejalashtirish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur modelning asosiy elementi “plan–do–review” jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon bolalarning o‘z faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Italiyada shakllangan **Reggio Emilia approach** maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samarali modelidir. Ushbu pedagogik tizim asoschisi **Loris Malaguzzi** hisoblanadi. Reggio Emilia pedagogikasining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, bola o‘z rivojlanishining faol ishtirokchisidir. Mazkur yondashuv bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, loyiha asosida o‘qitish hamda rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan.

Xitoy maktabgacha ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan **Anji Play** metodikasi ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu pedagogik tizim bolalarning erkin o‘yin faoliyatiga asoslanadi. Anji Play metodikasida bolalarga o‘yin jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy fikrlash imkoniyati yaratiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu metodika bolalarning ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlardan biri **Montessori education** metodikasi hisoblanadi. Ushbu pedagogik tizim asoschisi italiyalik shifokor va pedagog **Maria Montessori** hisoblanadi. Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: bolaga yo‘naltirilgan ta’lim, mustaqil faoliyat, maxsus didaktik materiallardan foydalanish, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti yaratish. Montessori

metodikasi bolalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu tizim bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga oladi.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Integratsiyalashgan ta’lim bolalarning turli bilim sohalarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishini nazarda tutadi. Finlyandiya ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan **Phenomenon-Based Learning** modeli integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasining yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu modelda bolalar turli fanlarni alohida emas, balki real hayotiy hodisalar asosida o‘rganadilar. Mazkur yondashuv bolalarning: muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini, ijodiy fikrlashini va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning faol o‘rganish jarayoniga asoslanadi. Xorijiy tajribalar quyidagi pedagogik yondashuvlarning samarali ekanligini ko‘rsatadi:

- o‘yin asosida o‘qitish texnologiyalari
- loyiha asosida ta’lim
- rivojlantiruvchi ta’lim muhiti
- bolaga yo‘naltirilgan ta’lim modeli

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, xorijiy tajribalar asosida o‘qitish texnologiyalarining ilmiy-nazariy manbalarini tahlil qilish maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bolalarning intellektual rivojlanishini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlashini shakllantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur pedagogik texnologiyalarni milliy maktabgacha ta’lim tizimiga moslashtirish bolalarni maktab ta’limiga samarali tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qosimova Zuhraxon (2025) "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari." Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali: (pp.2638-2641) Toshkent.

2. Ishtayah H., Oliveira J. Holistic Development of Pre-School Children in Light of the Application of UNESCO Standards //Recerca en Humanitats 2024. – C. 59.

3. Bruce, T. (2011). *Early childhood education* (pp. 1–256). Hodder Education.

4. Dewey, J. (1938). *Experience and education* (pp. 1–116). Macmillan.

5. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (2018). *The hundred languages of children: The Reggio Emilia experience in transformation* (3rd ed., pp. 1–408). Praeger.

6. Epstein, A. S. (2014). *The HighScope preschool curriculum* (pp. 1–304). HighScope Press.

7. Li, Y., & Wu, F. (2020). *Play and group learning in Chinese early childhood settings* (pp. 1–198). Beijing Education Press.

8. Lillard, A. (2017). *Montessori: The science behind the genius* (pp. 1–380). Oxford University Press.

9. OECD. (2022). *Starting strong: Early childhood education and care* (pp. 1–356). OECD Publishing.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING “SOFT SKILLS” KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANGANLIK DARAJASINING DIAGNOSTIK VA TIZIMLI TAHLILI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.146

Yo‘ldosheva Mohidil Sobirjon qizi
Namangan davlat universiteti tatqiqotchisi
Email: yuldoshevamokhidil@gmail.com
Tel: +998913607689

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda soft skills kompetensiyalarining kasbiy-pedagogik faoliyatdagi o‘rni, ularning o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy yetukligini ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Shuningdek soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar tizimi ishlab chiqilib, ularning mazmuni, bosqichlari va amaliy tatbiq etish shart-sharoitlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar*:* bo‘lajak o‘qituvchi, soft skills kompetensiyalari, pedagogik amaliyot, pedagogik mexanizmlar, diagnostik model, kasbiy kompetentlik, reflektiv faoliyat, muloqot madaniyati, pedagogik monitoring, ta’lim samaradorligi.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос развития компетенций в области «мягких навыков» будущих учителей в процессе педагогической практики на основе комплексного подхода, учитывающего современные образовательные требования. Исследование научно и теоретически обосновывает роль компетенций в области «мягких навыков» в профессионально-педагогической деятельности, их важность для обеспечения личностного и профессионального развития учителя. Также разработана система педагогических механизмов, способствующих развитию компетенций в области «мягких навыков», раскрыты их содержание, этапы и условия практической реализации.

Ключевые слова*:* будущий учитель, компетенции в области «мягких навыков», педагогическая практика, педагогические механизмы, диагностическая модель, профессиональная компетентность, рефлексивная деятельность, культура коммуникации, педагогический мониторинг, эффективность образования.

Annotation. This article analyzes the issue of developing soft skills competencies of future teachers in the process of pedagogical practice based on a comprehensive approach based on modern educational requirements. The study scientifically and theoretically

substantiates the role of soft skills competencies in professional and pedagogical activity, their importance in ensuring the personal and professional development of the teacher. Also, a system of pedagogical mechanisms serving the development of soft skills competencies has been developed, and their content, stages and conditions for practical implementation have been revealed.

Keywords: future teacher, soft skills competencies, pedagogical practice, pedagogical mechanisms, diagnostic model, professional competence, reflective activity, communication culture, pedagogical monitoring, educational effectiveness.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchidan nafaqat chuqur kasbiy bilim va malaka, balki yuqori darajadagi kommunikativlik, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, tanqidiy va reflektiv fikrlash kabi soft skills kompetensiyalariga ega bo‘lish talab etilmoqda. Ushbu kompetensiyalar o‘qituvchining kasbiy faoliyatida samaradorlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta’lim tizimini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratib, pedagog kadrlarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidlab kelmoqda.[51] Xususan, davlat rahbari o‘qituvchilarning faqat bilim beruvchi emas, balki yoshlarni mustaqil fikrlashga, muloqotga va hayotiy muammolarni hal etishga yo‘naltira oladigan yetuk shaxs bo‘lishi zarurligini qayd etadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda soft skills kompetensiyalarini tizimli va maqsadli ravishda rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ayni paytda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida soft skills kompetensiyalarini shakllantirish ko‘proq nazariy mashg‘ulotlar doirasida cheklangan holda olib borilayotgani, pedagogik amaliyot jarayonida esa ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga yetarli darajada tizimli yondashuv mavjud emasligi kuzatilmoqda. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning real ta’lim jarayonida muloqot olib borish, sinf jamoasini boshqarish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiya qilish ko‘nikmalarida muayyan kamchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur jarayonda soft skills kompetensiyalarining shakllanish darajasini aniqlash, baholash va rivojlanish dinamikasini kuzatishga imkon beruvchi diagnostik modelni yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Soft skills kompetensiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ular pedagogning shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va kasbiy moslashuvchanligini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, soft skills kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmagan o‘qituvchi yuqori nazariy bilimga ega

[51] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

bo‘lsa-da, ta’lim jarayonida samarali natijalarga erisha olmaydi. Shu bois, pedagogik amaliyot jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarda mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun eng qulay va tabiiy muhit hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot davomida bo‘lajak o‘qituvchilar real ta’lim muhiti, o‘quvchilar bilan muloqot, sinf jamoasini boshqarish, muammoli pedagogik vaziyatlarni hal etish kabi faoliyat turlari bilan bevosita shug‘ullanadi. Aynan ushbu jarayonda muloqotchanlik, jamoada ishlash, mas’uliyatlilik, stressga bardoshlilik, tanqidiy va reflektiv fikrlash kabi soft skills kompetensiyalari faol shakllanadi. Shu sababli pedagogik amaliyotni faqat kasbiy bilimlarni mustahkamlash vositasi sifatida emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu mexanizmlar o‘zaro uzviy bog‘langan holda quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Birinchidan, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim mexanizmi bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy faoliyat orqali o‘rganishini ta’minlaydi. Mazkur mexanizm doirasida talabalarga mustaqil dars o‘tish, tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish, sinf bilan ishlash kabi vazifalar yuklatiladi. Bu jarayonda talabalarning tashabbuskorligi, mas’uliyati va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ikkinchidan, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish mexanizmi bo‘lib, u pedagogik amaliyot davomida yuzaga keladigan real muammolarni tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Talabalar muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, muqobil yechimlarni ishlab chiqadi va ularning oqibatlarini baholaydi. Natijada tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va moslashuvchanlik kompetensiyalari shakllanadi.

Uchinchidan, reflektiv faoliyat mexanizmi bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va kelgusida takomillashtirishga xizmat qiladi. Refleksiya kundaliklari, muhokamalar va o‘z-o‘zini baholash vositalari orqali talabalar shaxsiy va kasbiy o‘sishni anglay boshlaydi.

To‘rtinchidan, mentorlik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribali o‘qituvchilar va amaliyot rahbarlari tomonidan beriladigan maslahatlar, tahlillar va yo‘naltirishlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ishonchini oshiradi hamda ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini rivojlanish darajasini aniqlash va monitoring qilish maqsadida diagnostik model ishlab chiqildi. Ushbu model uch asosiy komponentdan iborat: mezonlar, ko‘rsatkichlar va baholash darajalari. Diagnostik modelda quyidagi mezonlar belgilandi: kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy faoliyat kompetensiyasi, reflektiv kompetensiya va kasbiy moslashuvchanlik kompetensiyasi. Har bir mezon aniq ko‘rsatkichlar orqali tavsiflanib, talabalar faoliyatida ularning namoyon bo‘lish darajasi aniqlanadi.

Baholash jarayoni uch darajada amalga oshiriladi: past, o‘rta va yuqori. Past darajada talabalar soft skills kompetensiyalarini yetarli darajada namoyon eta olmaydi, o‘rta darajada esa ularning ayrim ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi. Yuqori darajada esa bo‘lajak

o‘qituvchilar soft skills kompetensiyalarini mustaqil va samarali tarzda pedagogik faoliyatda qo‘llay oladi.

Mazkur diagnostik model pedagogik amaliyot jarayonida soft skills kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasini aniqlash, mavjud muammolarni belgilash va ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan vosita sifatida xizmat qiladi.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI DIAGNOSTIK MODELLI

Blok	Tavsif	Asosiy komponentlar / Ko‘rsatikhilar	Baholash darajalari
Pedagogik amaliyot	Talabaning real ta’lim muhiti va amaliy faoliyati	Dars o‘tish, tarbiyaviy tadbirlar, sinf jamoasi bilan ishlash	–
Soft skills rivojlantirish mexanizmlari	Kompetensiyalarni shakllantirishga, xizmat qiluvchi pedagogik vositalar	Faoliyatga yo‘naltirilgan ta’ilim, Muammoli vaziyatiar asosida o‘qitish, Refleksiv faoliyat, Mentorlik	–
Diagnostik baholash	Talabaning soft skills darajasini aniqlash va monitoring qilish	Kommunikativlik, Jamoada ishlash, Reflektiv fikrlash, Mas‘uliyat, Moslashuvchanlik	**Past (1) / O‘rta (2)/ Yuqori (3)**
Individual rivojlanish va tavsiyalar	Natijalarga asoslangan rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash	Rivojlanish tahlili, Individual reja, Qo‘llab-quvvatlash	–

TADQIQOTNING ILMIY YANGILIGI VA AMALIY AHAMIYATI

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish masalasiga kompleks va tizimli yondashuv asosida yondashilganligi bilan belgilanadi. Xususan, tadqiqot doirasida soft skills kompetensiyalarining mazmuni pedagogik faoliyat kontekstida qayta talqin qilinib, ularning kasbiy kompetentlik tarkibidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

Birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar tizimi ishlab chiqildi va u faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, reflektiv faoliyat hamda mentorlik asosida pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uzviy integratsiyasini o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, soft skills kompetensiyalarining shakllanish darajasini aniqlash va monitoring qilishga yo‘naltirilgan diagnostik model taklif etildi. Ushbu model mezonlar, ko‘rsatkichlar va baholash darajalarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyot jarayonidagi shaxsiy va kasbiy rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Uchinchidan, pedagogik amaliyot jarayonida soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligini belgilovchi pedagogik shart-sharoitlar

aniqlanib, ularning ilmiy asoslangan tavsifi ishlab chiqildi. Bu esa mazkur kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini boshqarish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Xususan, ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlar tizimi pedagogik amaliyot dasturlarini yangilash, ularning mazmunini zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirishda foydalanilishi mumkin.

Taklif etilgan diagnostik model bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini baholash, monitoring qilish va rivojlanish dinamikasini aniqlashda pedagogik amaliyot rahbarlari, metodistlar va oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu model asosida individual pedagogik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogika fanlari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash jarayonlarida metodik tavsiyalar sifatida qo‘llanishi mumkin. Tadqiqotda ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim ilmiy-pedagogik vazifa ekanligini tasdiqlaydi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, soft skills kompetensiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi tarkibida yetakchi o‘rin tutib, ularning pedagogik faoliyatda samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida pedagogik amaliyot jarayonida soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar tizimi ishlab chiqildi va ularning mazmuni ilmiy asosda ochib berildi. Faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, reflektiv faoliyat hamda mentorlik asosida pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uzviy uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan diagnostik model bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini aniqlash, baholash va rivojlanish dinamikasini monitoring qilish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida asoslandi. Mazkur model pedagogik amaliyot jarayonida mavjud muammolarni aniqlash, individual yondashuvni ta’minlash va ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini mazmunan boyitish, pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish hamda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

AMALIY TAVSIYALAR

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyot dasturlarini soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus vazifalar va faoliyat turlari bilan boyitish tavsiya etiladi.

- Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar uchun refleksiya kundaliklari, muammoli vaziyatlar tahlili va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

- Tajribali o‘qituvchilar ishtirokida mentorlik faoliyatini kuchaytirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan individual maslahatlar tashkil etish zarur.

- Ishlab chiqilgan diagnostik model asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning soft skills kompetensiyalarini baholash va monitoring qilish tizimini joriy etish, natijalarga ko‘ra individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash tavsiya etiladi.

- Tadqiqot natijalaridan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida, seminar-treninglar va metodik qo‘llanmalar tayyorlash jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

-

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2.Mirziyoyev Sh.M. Ta’lim va tarbiya — taraqqiyot poydevori // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari va ma’ruzalari to‘plami. – Toshkent, 2020.

3.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir qarorlari. – Toshkent, 2019–2023 yy.

5.Xodjayev B.X. Pedagogik kompetentlik va uning shakllanish mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

6.Musurmonova O. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

7.Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019.

8.Ziyomuhammedov B., Abdullayeva S. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

9.Abbasov A.A. Pedagogik diagnostika va monitoring asoslari. – Toshkent: Universitet, 2018.

10.Karimova G.K. Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish // Pedagogik ta’lim jurnali, 2021. – №3.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING ILMIY PEADGOGIK ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.147

Maziyayeva Muqaddasxon Esonovna
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari”
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:muqaddasxonmaziyayeva@gmail.com
ORCID ID 0009-0003-2723-4704

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizdagi ta’lim tizimlari, maktabgacha ta’lim tashkilotining rivojlantirishdagi beqiyos o‘zgarishlar atroflicha yoritilgan. Maktabgacha ta’limni tizimini tubdan yaxshilash va unda ta’lim sifatini oshirish borasidagi islohatlarni yoritishga alohida to‘xtalgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bilish jarayonlarini rivojlantirishda innovatsion yondashish ya’ni neyropedagogik imkoniyatlar asosida bilim berishni nazarda tutulgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, tarbiyalanuvchi, pedagog, neyrotarmoq, bilish jarayoni, ta’lim muhiti, rivojlanish, texnologiya.

Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir.
Sh. Mirziyoyev

KIRISH. Bugungi kunda mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ta’lim sohasida – maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi o‘rta maxsus ta’lim va oily ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarini rivojlantirish bo‘yicha ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’limni tubdan yaxshilsh va ta’lim sifatini oshirish borasidagi islohatlar jadal rivojlanishda davom etmoqda. Mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari qurilib faoliyat olib bormoqdalar. Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizda ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinib yangilash muhim vazifaga aylanmoqda. Bu yuksalishlar asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti dasturlari qayta tuzilib undagi markazlar faoliyati qayta tashkillandi va zamonaviy jihoz va ko‘rgazmali qurollar, axbotot texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bugungi kunda maktagbacha ta’limga e’tirbor yanada oshirilgan, 1-7 yoshdagi bolalarni 80 foizini maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab

olish nazarda tutilgan. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hayotga joriy etilgan.

Mamlakatimizdagi bunday ulkan ishlarning barchasidan yagona maqsad – maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oily va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy halqasiga, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, maktab muallimi, professeor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustiniga aylantirishdan ibortadir. [1.52.]

Maktabgacha ta’lim jadal rivojlanayotgan soha bo‘lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta’lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasidagi davlat siyosatining maqsadi har bir tarbiyalanuvchining sifatli ta’lim olish huquqini amalga oshirishdir. Mamlakatimizda maktabgacha ta’limning zamonaviy tizim shakllarining variativligi, jamiyat va shaxsning ehtiyojlariga moslashuvchan muhitni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tarbiyalanuvchilarni intellectual salohiyatlarini rivojlantirish uchun maktabgacha ta’limda yangi texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. Bunday texnologiyalardan biri nevrotarmoq texnologiyasidir.

Ta’lim orqali insonning zamonaviy jamiyatda takomillashuvi va har tomonlama kirishuvi, zamonaviy bilimlar darajasi, shaxsning milliy va dunyoviy madaniyati intertatsiyasi masalalari amalga oshiriladi. Bu masalalarning barchasi hamkorlik ya’ni ota-onalar va pedagoglar hamkorligida amalga oshiriladi. Tarbiyalanuvchi o‘zining aqliy ehtiyojlarini ta’lim orqali qondirib, uni o‘rab turgan haqiqatni anglab boradi. Aqliy ehrtyojni qondirib borish orqali tarbiyalanuvchi hayotiy vaziyatlardagi muloqot jarayonida va turli til vositalarini qo‘llash malakalarini egallaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni aqliy tarbiyalash vositasida tarbiyalanuvchini faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga erishish kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. Bu ta’sir asosida tarbiyalanuvchilarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni sistemalashtirishni, tarbiyalanuvchilarda bilishga qiziqish uyg‘otishni, aqliy malaka ko‘nikmalarini tarkib toptirishni, bilishga qiziqish uyg‘otishni, aqliy malaka ko‘nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobliyatlarini rivojlantirishni o‘z iciga oladi.

Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari uchun maktabgacha ta’limning butun tizimini qayta qurish, nafaqat tarbiyalanuvchi bilan, balki maktabgacha ta’limning barcha sub’ektlari bilan aloqa va o‘zaro munosabat usullarini o‘zgartirish zarurati yuzaga keldi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilar bilan ishlashni to‘g‘ri va samarali tashkil etish usullari va shakllarini potensial imkoniyatini ochib berish maqsadiga mos keladigan innovatsion texnologiyalarni tanlashdir. Zamon juda tez o‘zgaryapti. Yashash va mehnat qilish sharoitlari o‘zgarmoqda, ilmiy va texnik ixtirolar natijasida yangi kasblar va texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. Zamonaviy dunyoda inson doimiy ravishda o‘zgarishi, butun hayot davomida yangi narsalarni o‘qib o‘rganishi va bilishi o‘ta muhimdir. Ertangi kunimiz kelajagi bo‘lgan

kichkintoylarni ushbu keskin o‘zgarishlarga tayyorlash, dunyoda hayot uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribasini boyitishga o‘rgatishni maktabgacha yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim-inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lib, individual psixik rivojlanishni asosida bilimlarni o‘zlashtirishni ancha tezlashtiriadi. Pedagog ta’lim berish jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, baliki, bu jarayonda tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa ularni bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada tarbiyalanuvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Bunda ko‘rinadiki inson tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to‘qnash kelish yo‘li bilan bilib oladi hamda ularni o‘zlashtiradi. Odamlar amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy, ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirlarini o‘zlashtirib oladi. Bunday ta’lim asosida innovatsion ta’lim muhiti tashkil etishda uning interativ nazariy bazasini, umumiy metadologiyasini hamda aniq diagnostik va korreksion texnologiyalarini yaratishda neyrotarmoq texnologiyasining imkoniyatlarini samarali qo‘llanilishi ahamiyatlidir. Neyrotarmoq texnologiyasida ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilarga berilgan ma’lumotlarni faqatgina eslab qolishlari uchun emas, balki anglashlari va qiyinchiliklarsiz tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun yordam beradi. Bu holat tarbiyalanuvchilarda aqliy faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Bilish kompetensiyasi tarbiyalanuvchida bilim olish, o‘qish va o‘rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilsih va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini rivojlantiradi. Harakat va o‘zaro munosabatlar orqali tarbiyalanuvchilar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi ob’ektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqot jarayonida ularni kuzatadilar hamda tajriba o‘tkazadilar. Bu tajribalar asosida tarbiyalanuvchilar muammolarni tushunish, ularni hal qilish uchun yangi imkoniyatlarni o‘ylab topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashdilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan ijodkor shaxsga aylanadilar. Tarbiyalanuvchilar muammoni hal qilishga e’tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari, atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Tarbiyalanuvchilar o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini davom ettirishlari natijasida o‘rganishdan zavqlanish va o‘rganganlarini barham ko‘rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo‘lishilsh malakalariga ega bo‘ladilar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuchilarni bilish jarayonlarini neyrotarmoq texnologiya asoisda rivojlantirishda ularni individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim oluvchi ya’ni tarbiyalanuvchilarni shaxsini har tomonlama va chuqur bilish, ularning psixofiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda neyrologik imkoniyatlar hamda jihatlarini ham hisobga olish o‘ta muhim vazifa sanaladi. Bu texnologiya bilish va ta’lim olish miya rivojlanishinng tabiiy mexanizimidir. Inson tabiatan bilimga va biror narsani bilishga intiladi

va qiziqadi. Neyrotarmoq texnologiyasining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarda bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada kuchliroq qondirishdir. Tarbiyalanuvchilar narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo‘lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta’sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Fikrlash yordamida u real voqelikni chuqur tushunadi. Bilim manbayi sanalgan amaliyotning asosida bilish jarayoni rivojlanadi.

Bilish murakkab dialektik jarayon bo‘ib, jonli mushohadadan abstract tafakkurga, so‘ngra amaliyotga o‘tish yo‘lidir. Bilish shaxs uchun mavxum ham o‘zlashtirilmagan narsa, voqea hamda hodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Ob’yektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Inson tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o‘z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanday xizmat qilishi bilan belgilanadi. Bilish jarayonida bilim hosil bo‘ladi. Bilim–odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to‘plangan umumlashgan tajribasidir. Bilim obektiv borliqni to‘g‘ri aks ettiradi. Eng to‘g‘ri va mukammal bilimlar ham o‘z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib boradi. Bilimlar asosida tarbiyalanuvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobliyatlari rivojlanadi, ularda e’tiqod hosil bo‘ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g‘oyalar tizimi tarkib topadi.

Har bir tarbiyalanuvchida ta’lim olish, atrof muhitni idrok etish, tushunish va tafakkur qilish jarayoni turlicha kechadi. Har bir tarbiyalanuvchi tafakkurining o‘ziga – unda bosh miya yarimsharlarining ma’lumotlarni qanday qabul qilishi hajmi va ishlash tezligi, u yoki bu xotira tizimining ustunligi va tafakkur jarayonlarining borishi bilan farq qilishidadir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini tushunarli tilda tarbiyalanuvchilarga yetkazish ularning bosh miya yarimsharlaridagi o‘ziga xosliklarni ham hisobga olishlari kerak. Insonning umumiy qobliyatlari haqida gapirganda, biz uning rivojlanish darajasi va uning kognitiv jarayonlarining xarakterli xususiyatlarini ham nazarda tutamiz, chunnki ular insonda qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, u shunchalik qobliyatli va ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladi. “Kognitiv jarayon-bu bilishga, bilimlarni kengaytirishga yordam beruvchi jarayon”. Insonda bosh miya yarimsharlarining har ikkalasi ham murakkab kognitiv jarayonda ishtirok etsa-da, ularning faoliyat strategiyasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Chap yarimashrlar, yetakchi bo‘lgan insonlar ma’lumotlarni ketma-ket va mantiqiy tahlil qilishi hamda tahlilning xususiy bo‘laklardan umumiyga yo‘naltirganligi bilan ajralib tursa, o‘ng yarimsharlari yetakchi bo‘lgan insonlarda olamni intuitive va umumiy yaxlitlikda anglashi hamda tafakkurining umumiydan xususiy bo‘laklarni tahlil qilishga moyilligi bilan farq qiladi.

Bu holat ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish intuitive-hissiy (kommunikativ) hamda mantiqiy-ratsional (nokommunikativ) yo‘llar bilan sodir etilishida namoyon bo‘ladi. Chunki, ta’lim jarayonida bosh miya chap yarimshariga tayanish faqat chap yarimsharning faol rivojlanishiga olib kelsa, miya o‘ng yarimshariga tayanish esa yarimsharlarning har ikkalasining faol rivojlanishiga olib keladi[52]. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida

[52] Xodjayev B.X. Neyropedagogik bilimlardan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish/ Uzuliksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy

tarbiyalanuvchilarning ruxiyatidagi mana shunday o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish tarbiyalanuvchining ta’lim berish, uning tarbiyasi va kamolotidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu omillarni samarali hayotga tatbiq etishda hamda yangicha izalnish va yangicha yondashishni talab etadi. Buning uchun barcha insonshunos mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, sotsiologlar va neyrologlarni barchasini ilmiy izlanish va tajribalarini natijasini birlashtirish lozim. Shu sohalardagi amalga oshirilgan ilmiy, izlanishlar natijasida pedagoglarning yangi sohasi kognitiv neyrologiya – neyopedagogika shakllanayotgan bu fan “insonga qanday ta’lim berish kerak ?” degan oddiy, biroq o‘ta murakkab savolga javob berishi mumkin. Pedagogik jarayonlarni inson bosh miyasida sodir bo‘ladigan neyrologik o‘zgarishlar nuqtai nazaridan o‘rganish, ya’ni neyrologiyaning pedagogika bilan sinergizimi – neyropedagogika 1997 yilda alohida fan sifatida yuzaga keldi. Neyropedagogika pedagogik neyropsixologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, ijtimoiy psixologiya hamda individ, sub’ekt va shaxsning ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bilimlarning umumiy sohasida yanada shakllandi.

XULOSA

Xalqimizda bir hikmatli fikr bor “Ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi”. Bu fikr zamirida ulkan ma’no yotadi**.** Ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Mamlakatimizda ta’lim sohasi davlat siyosati darajasiga yetkazilib, uzuliksiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslangan. Bola tug‘ilgandan boshlab, yoyaga yetgunga qadar uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzuliksiz tizim yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekistonda barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohatlardan biri maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bilish jarayonlarini rivojlantirishda innovatsion yondashishdir. Yuqoridagi fikrlarga tayyangan holda, mutafakkir Abdurauf Fitratning ”Bu dunyo – kurashish maydonidir. Bu kurashning quroli sog‘lom jismu-tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdir” degan so‘zlarida chuqur ma’no bor. [2.250.]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion ta’lim muhitini tashkil etishda - uning interativ nazariy bazaini, umumiy metodologiyasini hamda aniq diagnostik va korreksion texnologiyalarini yaratishda neyropedagogikaning imkoniyatlari va neyrotarmoq metodlarini samarali qo‘llash ta’lim sohasida ijobiy natija beradi. Bu ta’lim jarayonida beriladigan ma’lumotlarni tarbiyalanuvchilar faqatgina eslab qolishlari uchun emas, balki anglashlari va qiyinchiliklarsiz tushunarli tarzda o‘zlashtirishlari bilan ajralib turadi. Insonlardagi juft organlar-oyoq, qo‘l, quloq va ko‘zning biri ikkinchisiga qaraganda yaxshiroq ishlaydi, ko‘radi hamda eshitadi. Juft organlarning qaysi biri ko‘proq harakatlansa, shu organ “yetakchi organ”deb ataladi. Neyropedagogikada esa insondagi juft organlarni harakatini bir vaqtni o‘zida harakatlantirishga o‘rgatiladi. Buning uchun pedagog va tarbiyalanuvchidan sabr-toqat talab etiladi. Tarbiyalanuvchilardagi juft organlar bir vaqtda harakatlansa, uni hayotida qanday o‘zgarish yuz berishi mumkin. Bu holatda insonda charchash va toliqishni oldi olinilib, insonni bilish jarayonini yanada faol ishlashga olib

muammolari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. 2010 yil. 27-28may.-Samarqand. 2010,-B. 174-175.

keladi. Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarda kichik yoshdan boshlab, juft organlari harakatlarini bir xil bajartirishga odatlantirish o‘ta muhim hisoblanadi. Demak, neyrometodning asosiy tamoyili-har bir tarbiyalanuvchining miyasi betakrorligini, ma’lumotlarni qabul qilish hajmi va ishlash tezligi, u yoki xotira tizimining ustunligi va tafakkur jarayonlarining borishi bilan farq qiladi. Shu sababli har bir tarbiyalanuvchining ta’lim olish, atrof-muhitni tushunish va tafakkur qilish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi.

Pedagoglarning asosiy vazifasi–har bir tarbiyalanuvchidagi shu betakrorlikni sezishi va shu betakrorlik asosida ijobiy natijalar hosil qilishidadir. Neyropedagogika tarbiyalanuvchilar bilish jarayonlarini rivojlantirishni imkoniyatlarini yanada oshiradi. Ta’lim-tarbiya va ma’rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-toqatli bo‘lishga undaydi. Ta’lim-tarbiyani bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon uyg‘un, uzuliksiz asosda tashkil etilgandagina, odobli, yuksak ma’naviyatli shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalab beradi.

Yangi O‘zbekistonni poydevorini yaratishda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviy va madaniy faoliyat sohalarini rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish bugungi kuning asosiy maqsadidir. Uchunichi Renessensning to‘rt uzviy xalqasi bo‘lmish maktabgacha ta’lim. maktab, oily ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish masalalarini ham konstitusiyaviy darajada mustahkamlash vaqti keldi. Bularning barchasi Yangi O‘zbekistonni barpo etish konstitusiyaviy isohatlar yordam .asosida amalga oshirilmoqda. Biz pedagoglarning asosiy vazifamiz Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessens g‘oyasini farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, amaktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab ta’limidan boshlab singdirishimiz zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Yangi O‘zbekiston tarqqiyot strategiyasi.Sh. Mirziyoyev “OZBEKISTON” Toshkent-2022.

2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. 2022.12.12.Toshkent.

3.Maktabgacha pedagogika.F.R.Qodirova,SH.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. Toshkent 2019.

4. Shaxs fiziologiyasi va gigenasi. Pol’ Bregg, Patrisiya Bregg.Toshkent-2015.

5. Neyropedagogika o‘quv-uslubiy majmua. F.M.Qo‘chqorova. Andijon 2018.

6. Neyropedagogika (metodik qo‘llanma) DJ.R.Gulamov, D.A.Mamatqulov, M.T.Axmedova, M.X.Uumarova, M.A.Abidjanova.

7. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTIKAL CONFERENCE ”AKTUAL ISSUEF OF PRIMARY EDUCATION:PROBLEMS,SOLUTIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS” Aprel 26,2024. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI. Maziyayeva Muqaddasxon Esonovna 268-269 betlar.

8. SCIENCE AND INNOVATSION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3ISSUE 7 JULY 2024. PRACTICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSEEA OF PRESCHOOL PEDAGOGICAL TEACHERS BASED ON NEURAL NETWORK TECHNOLOGIES. Maziyayeva M.E. 135-138-betlar.

9. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODREN APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION” MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI BILISH JARAYONLARINI NEYROSET TEXNOLOGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. Maziyayeva Muqaddasxon Esonovna, G‘ofurov Azizbek Umarjonovich 234-235 betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

GAZLAMALARGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI DARSLARIDA KASANACHILIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.148

Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna
QDU dotsenti
firdavshonyusufhujaeva@gmail.com
90-305-65-82

Annotatsiya. Maqolada umumta`lim maktab o‘quvchilarida gazlamalarga ishlov berish orqali ularda kasanachilik ko`nikmalarini shakllantirish ahamiyati va kasanachilikning iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashi, rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llanilishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat, kasanachilik, ko`nikma, gazlama, xalq hunarmandchiligi, kasb

Аннотация.В статье рассказывается о важности формирования навыков ведения домашнего хозяйства у учащихся средних школ путем переработки газовых продуктов, а также об экономической эффективности ведения домашнего хозяйства, которое широко используется в развитых странах.

Ключевые слова: труд, хозяйство, мастерство, газ, народный промысел, профессия

Abstract: The article talks about the importance of building housekeeping skills among secondary school students by processing gas products, as well as the economic efficiency of housekeeping, which is widely used in developed countries.

Key words: labor, economy, craftsmanship, gas, folk craft, profession.

KIRISH. Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma`naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o’zi bajarayotgan ishning natijalarini ko’rsa, his qilsa, o’sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi. Zero, inson mehnatda toblanib kamol topadi. Bizning jamiyatda inson mehnati ulug`lanadi

Dono xalqimiz tomonidan «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qo’rqma, minnatdan qo’rq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Nahshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» degan so`zlari hali hanuz o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli bo’lsa, u bilimini haqiqatga bag’ishlaydi, o’z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo’lmasa, bilimini kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi».

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O`zbekiston milliy Entsiklopediyasining birinchi jildida kasanachilikning iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashi rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llanilishi bayon etilgan. Masalan, 2000 yillarda AQShda kasanachilik usulida ishlaydiganlar soni 5mln. kishidan ortgan. Yaponiyada esa elektrotexnika, elektronika, turizm kabi tarmoqlarda ham kasanachilik keng qo‘llaniladi. Kasanachilikda mehnat faoliyati to‘la bo‘lmaydi, shu bois oiladan, uy ishidan ajralib korxona, tashkilotlarda ishlash imkoniyati bulmaganlar va yordamchi daromadga muhtoj shaxslar uchun juda qulay mehnat ko`rinishidir.

O`quvchilarda kasanachilik ko`nikmalarini shakllantirishda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlari, sog‘liqlari, o‘zlashtirishlari va hissiyotlarini hisobga olish lozim. O`quvchining kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash keyinchalik unga o‘z xususiyatlariga qarab kasbni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini beradi. Ayniqsa gazlamalarga ishlov berish texnologiyasini o`quvchilar ongiga singdirish maqsadida kasanachilik ko`nikmalarini shakllantitirish alohida o`rin egallaydi. Quyidagilarni puxta o`zlashtirilishi o`quvchilarda kasanachilik ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi:

- o’quvchilar gazlama turlari, xususiyatlari, ularga ishlov berish, bichish-tikish asoslarini o’rganishlari;
- kiyim turlari, ahamiyati, tikuv, yigiruv asbob-uskunalari va mashinalari, ularning turlari, tuzilishi va ishlashi bilan tanishishlari.

Umumta`lim maktablarining o`quvchilarida kasanachilik ko`ikmalarini shakllantirishda gazlamaga ishlov berish texnologiyasining xalq hunarmandchiligi tarmoqlari to`g`risidagi bilimlarni o`zlashtirishlari juda muhimdir. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasining xalq hunarmandchiligi tarmoqlari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- kashtachilik, do’ppido’zlik
- zardo’zlik, quroqchilik
- popopchilik, milliy oyinchoqlar tayyorlash va boshqa yo’nalishlar.

NATIJALAR

Maqolada umumta`lim maktab o‘quvchilarida gazlamalarga ishlov berish orqali ularda kasanachilik ko`nikmalarini shakllantirish ahamiyati muhokama qilinadi. Xalq hunarmandchiligi sohalari tavsiflanadi. Kasanachilik bilan shug`ullanib kelayotgan xorijiy davlatlar faoliyati misol tariqasida keltirildi. Gazlamaga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to’g’risidagi ma`lumotlar o‘rganildi.

MUHOKAMA

Ko‘pgina olimlar o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang‘ich sinflardayoq shakllanar ekan. O‘qituvchining vazifasi — o‘quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg‘un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [1]. Boshlang‘ich sinflarda mehnat ta’limining asosiy maqsadlaridan biri — o‘quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday

kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta’limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. O‘quvchilarning shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste’dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va hakazo. Ba’zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo‘ladi, ko‘pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O‘qituvchining boladagi iste’dod nishonalarini aniqlashi, bularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko‘maklashimni muhimdir. [2]

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir o‘sib kelayotgan avlodning hayotda o`z o`rnini topa olish garovidir. Bu dolzarb vazifa ko`pincha maktab amaliyotida texnologiya darslarini to`g`ri tashkil etilishiga bog`liq. Shu bois texnologiya darslarida kasanachilik ko‘nikmalarini shakllantirishda gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi bo`limi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan manashu bo`limda o`zlashtirilgan bilimlar asosida kasanachilik ko`nikmalari shakllantiriladi, Chunki, xalq hunarmandchilikning asosiy sir-asrorlari shu bo`limda aks etgandir.

Kasanachilik insonlarni mehnat shakllaridan biri bo`lib, turli xalq hunarmandlariga xos bo`lgan azaliy mehnat qilishning bir usulidir. Kasanachilik — hunarmandlarning mehnat shartnomalari asosida yollanib o‘z uyida ishlashi, yashash joyida ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish demakdir.

Kasanachilikda maxsus tashkilot va korxonalar bilan kelishuv, shartnoma asosida buyurtmalar bajariladi. Kasanachilik jamiyatda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, qo`shimcha daromad topish, ish vaqtining qat’iy belgilanmaganligi, maxsus binolarga ehtiyoj bo‘lmasligi va boshqa bir qator qulay sharoitlarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu bois o`quvchilarda kasanachilik ko`nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

XULOSALAR

O‘zbekistonda mehnat resurslari, oila xo‘jaligi tuzilishi, ishlab chiqarish vositalari sharoitlari Kasanachilik rivojini ta’minlaydi. Hunarmandchilik, ayniqsa, igna ishi talab etuvchi tikuvchilik, kashtachilik, mebelsozlik va boshqa hunarmandchilikni turlari uchun Kasanachilik qulay. O‘zbekistonda "Mahalla" jamg‘armasi, respublika Tovarlar ishlab chiqarish va tadbirkorlar palatasi mahallalarda Kasanachilikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirib kelmoqda. Shu bois umumta`lim maktablarida kasanachilik ko`nikmalarini shakllantirish o`ta muhimdir. Zero, Qo`qon xonligida hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to`quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoқlari keng rivojlangan bo`lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsuloti bilan dong taratgan. Misol uchun, Qo`qon shahri zargarlik va qog`oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan, pichoqchilik, Marg`ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o`zining tikuvchilik, to`quvchilik, cho`yan, temir-mis mahsulotlari bilan mashhur bo`lgan.

Butun xonlik hududida ishlab chiqarish qo`l mehnatiga asoslangan bo`lib, asosiy hunar turlari – ip va ipak matolar to`qish, oyoq kiyim tayyorlash, teriga ishlov berish, kulolchilik mahsulotlari tayyorlash, temirchilik, egar-jabdug` yasash, bo`yoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, aravasozlik, harbiy qurol ishlab chiqarish, o`ymakorlik, mum ishlash, pista ko`mir tayyorlash, kashtachilik, do`ppichilik, pichoqchilik kabilar edi. Undan tashqari, xonga tegishli poroh ishlovchi va qog`oz tayyorlovli ustaxonalar ham bo`lgan. Biz ana shunday qadimgi hunarmandchilik turlarini o`zimizda jo ettirgan xalqmiz, Shunday ekan bugungi yosh avlodni ham ana shu milliy qadriyatlarimizga sodiq ruxda tarbiyalash aynan texnologiya fani oqituvchilarning sharli burchi ekanligini oliy ta`limda tahlil olayotgan bo`lajak texnologiya fani o`qituvchilar ongiga sindirilib borilishi biz qo`ygan muammolarni maqbul yechimidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Kitoblar

1. Jumaboyeva M. Umumiy o‘rta ta’limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 2014. — 21 b.

2. Эрматова, Г. Н. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar / Г. Н. Эрматова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 21 (259). — С. 615-618.

3. O`zbekiston milliy Entsiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000 y

4.Muranov B.I. Texnologiya ta’limining o’quvchilarni kasblarga yo’llashdagi didaktik imkoniyatlari. T. RPPKITM. 2003 y. 5 dekabr.

Jurnallar

1. Yusufxodjaeva F. M. (2018). Tarbiya usullarini to ‘g ‘ri tanlashning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan),(1), 52-59. 2. Mukhtorovna Y. F. (2022). Learning the technology of collective creative work in practice. Open access repository, 9(11), 175-179.
3. Mukhtorovna Y. F. (2022). Teaching of technology using interactive methods. Open access repository, 9(11), 169-174. 4. Muxtorovna Y. F. (2022). Maktab yoshidagi o'quvchilarga bo'sh vaqtlarida qiziqishlari bo’yicha shug’ullantirish. Pedagogs jurnali, 4(1), 290-294. 5. Yusufxodjayeva F. (2023, march). Texnologiya darslarida o’quvchilarga gazlamalarga ishlov berish texnologiyasini o’rgatishda “BBB” ta’lim texnologiyasidan foydalanish. In e conference zone (pp. 12-17). 6. Yusufxodjayeva F., & Saxobiddinova F. (2023). O’zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish va uning ahamiyati. conferencea, 25-30. 7. Mukhtorovna Y. F. (2022). "Small" in training natural fibers use the method of working in groups.
8. Mukhtorovna Y. F. (2022). Youth organization participation in choosinga profession.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INGLIZ TILIDAN O‘QUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALARINI DARSDAN TASHQARI O‘QUV MANBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.149

Rajabova Zarafshon Davronovna,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
rajabova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidan o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini darsdan tashqari o‘quv manbalar asosida rivojlantirish bosqichlari bayon etilgan. Ishda talabalarning mustaqil ishlashini, tinglab tushunish, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek kreativ va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan samarali usullar ko‘rsatib o‘tilgan. Har bir bosqich – nazariy tayyorgarlik, tinglab tushunish mashqlari, og‘zaki nutq mashqlari, yozma nutq mashqlari, mustaqil ijodiy faoliyat va refleksiya – o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini tizimli va uzluksiz rivojlantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: nutqiy ko‘nikma, darsdan tashqari faoliyat, multimediya manbalar, til o‘rganish, interaktiv resurslar.

Abstract. This article describes the stages of developing students' speaking skills in English based on extracurricular educational resources. The work shows effective methods aimed at developing students' independent work, listening comprehension, oral and written speech skills, as well as creative and imaginative thinking. Each stage - theoretical preparation, listening comprehension exercises, oral speech exercises, written speech exercises, independent creative activity and reflection - allows for the systematic and continuous development of students' speaking competence.

Keywords: speaking skills, extracurricular activities, multimedia resources, language learning, interactive resources.

Аннотация.В данной статье описываются этапы развития навыков устной речи учащихся на английском языке на основе внеклассных учебных ресурсов. Работа демонстрирует эффективные методы, направленные на развитие у учащихся навыков самостоятельной работы, понимания на слух, устной и письменной речи, а также творческого и образного мышления. Каждый этап – теоретическая подготовка, упражнения на понимание на слух, упражнения на устную речь, упражнения на письменную речь, самостоятельная творческая деятельность и рефлексия – позволяет систематически и непрерывно развивать навыки устной речи учащихся.

Ключевые: слова: навыки устной речи, внеклассные мероприятия, мультимедийные ресурсы, изучение языка, интерактивные ресурсы

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida chet tilini o‘rganish, xususan, Ingliz tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Nutqiy ko‘nikmalar – bu o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llash, fikrini og‘zaki va yozma ravishda aniq ifodalash, matn mazmunini tushunish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy komponentdir.

Dars vaqtida chet tilini o‘rgatish chegaralanganligi sababli, darsdan tashqari o‘quv manbalardan samarali foydalanish nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash va ularni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilar tinglab tushunish, og‘zaki nutq, yozma ifoda va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini uzluksiz rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Ushbu ishning maqsadi – o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini darsdan tashqari manbalar yordamida tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish metodikasini aniqlash. Mazkur metodika quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: nazariy tayyorgarlik, tinglab tushunish mashqlari, og‘zaki nutq mashqlari, yozma nutq mashqlari, mustaqil ijodiy faoliyat va refleksiya. Har bir bosqich talabaning nutqiy kompetensiyasini mustahkamlash va tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek maktablarida ingliz tili o‘qitishning o‘ziga xos murakkabliklari mavjud bo‘lib, ularni bartaraf qilish chet tili o‘qitish metodikasi oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi. O‘rta umumta’lim maktabida chet tillarini, shu jumladan ingliz tilini o‘rganishning etakchi maqsadi, bir tomondan, o‘rganilayotgan tilda og‘zaki va yozma nutqning muloqot va ko‘nikmalarini shakllantirish, ikkinchi tomondan, lingvokulturologik kompetentsiyani rivojlantirishdir. Boshqacha qilib aytganda, biz ikkinchi darajali lingvistik shaxsni rivojlantirish haqida gapiramiz. I. B. Ignatova yozganidek, bu faqat mashg‘ulotlar jarayonida doimiy nutq amaliyoti natijasida mumkin[53]. Chet tilini o‘rganish germenevtik xususiyatga ega, ya’ni matn bilan ishlash va matn ustida ishlash bilan chambarchas bog‘liq va uslubiy kontekstda biz ta’limning aniq uslubiy maqsadlari va vazifalarini, shuningdek umumiy uslubiy va xususiy didaktik printsiplarni hisobga olgan holda tanlanishi kerak bo‘lgan o‘quv matni haqida gapiramiz, ular orasida mavjudlik, qiziqish tamoyillarini ta’kidlash kerak.o‘quvchilar va ilgari shakllangan ko‘nikma va ko‘nikmalar.

O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini darsdan tashqari manbalar yordamida rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – nazariy tayyorgarlik, bunda talabalar kitoblar, audio kitoblar yoki onlayn darslar orqali grammatika va leksik bilimlarini mustahkamlashadi. Bu bosqich talabaning til kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich – tinglab tushunish mashqlari, ya’ni audio va video materiallarni tinglab, matn mazmunini tushunish. Podkastlar, videolar yoki dialog yozuvlari orqali talabalar tinglab tushunish, talaffuz va intonatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

---

[53] Игнатова И.Б., Андреева С.М. Коммуникативная культура языковой личности студентов-филологов./ М-во образования и науки Рос. Федерации. Белгород: Белгор. гос. ун-т. 2004. 197с.

Uchinchi bosqich – og‘zaki nutq mashqlari, bunda talabalar onlayn suhbatlar, til klublari yoki rol o‘yinlari orqali nutq ko‘nikmalarini amaliy shaklda rivojlantiradi. Shu bosqichda kommunikativ ko‘nikma va nutq madaniyati mustahkamlanadi.

To‘rtinchi bosqich – yozma nutq mashqlari, bu orqali talaba esse, qisqa hikoya yoki blog yozish kabi vazifalar yordamida fikrini yozma ifodada shakllantiradi. Bu bosqich yozma nutq, grammatika va lug‘at boyligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Beshinchi bosqich – mustaqil ijodiy faoliyat, bunda talaba loyihalar, prezentatsiya va taqdimotlar yaratadi. Shu jarayon nutq va fikrlashni birlashtiradi hamda kreativlik, mustaqil ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Oxirgi bosqich – refleksiya va baholash, ya’ni o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash. Talabalar audio yoki video yozuvlarini tinglab, o‘z ishlarini tahlil qiladi, bu esa talaffuz, tinglab tushunish va nutq madaniyati ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bosqich	**Faoliyat turi**	**Maqsad**	**Amaliy namuna**	**Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar**
1. Nazariy tayyorgarlik	Darsdan tashqari materiallar orqali grammatika va leksikani o‘rganish	Talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlash	Kitob, audio kitob, onlayn darslar	Leksik va grammatik kompetensiya
2. Tinglab tushunish mashqlari	Audio va video materiallarni tinglash, tushunish	Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish	Podkastlar, videolar, dialog yozuvlari	Tinglab tushunish, talaffuz, intonatsiya
3. Og‘zaki nutq mashqlari	Darsdan tashqari dialoglar, rollar va suhbatlar	Nutq ko‘nikmasini amaliy rivojlantirish	Onlayn suhbatlar, til klublari, rol o‘yinlari	Og‘zaki nutq, kommunikativ ko‘nikma
4. Yozma nutq mashqlari	Matn yozish, esse va qisqa hikoyalar	Fikrni yozma ifoda orqali shakllantirish	Blog yozish, yozma mashqlar, e-mail yozish	Yozma nutq, grammatika, lug‘at boyligi
5. Mustaqil ijodiy faoliyat	Loyihalar, prezentatsiya va taqdimotlar	Nutq va fikrlashni birlashtirish	PowerPoint prezentatsiyalar, video-lavhalar yaratish	Og‘zaki va yozma nutq, kreativ fikrlash, mustaqil ish ko‘nikmasi
6. Refleksiya va baholash	O‘z-o‘zini tahlil va baholash	Talabaning ko‘nikma darajasini	Audio/video yozuvlarni tinglash, o‘z	Tinglab tushunish, talaffuz, nutq madaniyati

		aniqlash	ishini tahlil qilish	

Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Til faqat darsliklar orqali emas, balki keng ijtimoiy va madaniy muhitda shakllanadi. Shuning uchun **darsdan tashqari o‘quv manbalaridan foydalanish** o‘quvchilar til madaniyatini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, bugungi raqamli dunyoda turli interaktiv, multimediya, matnli va og‘zaki resurslardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning **so‘z boyligi, fikr bayon qilish, suhbatdosh bilan muloqotga kirishish** kabi qobiliyatlari rivojlanadi.

1. Matn:

“Zumrad and Qimmat”

Once upon a time there was a little house beside a river. There lived an old man, his daughter Zumrad, a stepmother and her pampered daughter Qimmat. The stepmother didn’t like Zumrad. She beat her, forced her to work hard from morning to evening every day. Zumrad was a very beautiful, kind and clever girl. Qimmat was a very lazy and arrogant girl at home. Zumrad woke up early and went to get water, on the way tulips bowed and greeted her every morning. When she sat on the grass, birds sang for her. But those flowers didn’t like Qimmat, because she always trampled them. These all would always irritate the step-mother. One day she badmouthed about Zumrad to the old man:

“Your daughter is very lazy and rude. Tell her to leave or I will not live with you.”The old man didn’t know what to do. Then the step-mother said:
“Go and lead astray her. I cannot live with her.”
The old man left home with Zumrad and went to the wood. They walked around the wood for a long time and at last reached a place with thick shadow. Then he went to make firewood. Zumrad stayed alone. At that moment a strong wind began to blow. He bound the axe to the tree and shook it. It made a sound of cutting a tree. Zumrad waited for her father for a long time, it got dark, but he didn’t come. When she was wandering along the wood, she found the axe.

She cried: “Father, where are you?”[54]

Ushbu ertaklarning syujeti har qanday ingliz o‘quvchisiga ma’lum, so‘zlarning ma’nolarini tushunishga, ingliz tilida so‘z boyligini oshirishga katta yordam beradi. Shunday qilib, ingliz tilida darsdan tashqari o‘qishni interaktiv ish daftarlari asosida mustaqil ish bilan tashkil etish o‘qishga qiziqishni oshirishga va adabiy asarlarni mustaqil o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ona tilidagi matnlarga tayanish printsipining interfaol ta’lim texnologiyalari bilan o‘zaro ta’siri nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham samarali bo‘ladi. Ingliz o‘quvchilargi ma’lum bo‘lgan, ular yaxshi biladigan ertak va hikoya matnlari asosida ingliz tilini o‘rgatish oson va qiziqarli kichadi.

[54] https://myfarzand.uz/index.html

Shulardan kelib chiqib, ingliz tili ta’limida o‘quv topshiriqlarining qo‘llanilish o‘rinlari, bajaradigan vazifalari tahliliy o‘rganilishi, ularga mazmun-mohiyatiga mos yangicha ta’rif berish va yangicha tasniflash til o‘qitish metodikasini takomillashtirishga asos bo‘ladi.

N.Mahmudovning quyidagi fikrlari ayniqsa diqqatga sazovor: “Har qanday til ta’limida tilning uslublari haqidagi bilimlarni chetlab o‘tish mumkin emas. Tilni o‘zlashtirishda til qurilishini bilish shart, bu boradagi bilimlar asosdir. Ammo ayni qurilish birliklaridan qanday foydalanish, ularni nutqda bevosita qanday qo‘llash malakasi shakllanmagan bo‘lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul”[55].

Darhaqiqat, ona tili, milliy so‘zlar aqliy rivojlanish hamda dunyoni anglashning asosidir. O‘quvchi nutqining o‘z vaqtida rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish, savodxonligiga e’tibor berish juda muhimdir. O‘quvchining nutqi qanchalik boy va mantiqli bo‘lsa, uning o‘z fikrlarini ifodalashi shunchalik oson kechadi, olamni, borliqni anglash qobiliyati qanchalik keng bo‘lsa, o‘quvchilar turli nutq vaziyatlarida tengdoshlar yoki kattalar bilan mazmunli va to‘laqonli muloqotga kirisha oladi, tafakkuri ham shunchalik faol rivojlanishda bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish (O. S. Axmanova, I. A. Zimnaya, I. B. Ignatova, O. N. Proxorova, T. V. Samosenkova va boshqalar) chet tili darslarida o‘quv matni bilan ishlash turli shakllarda bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi: o‘qish, tarjima qilish, takrorlash, tinglash, O‘qilgan matn bo‘yicha suhbat va uni muhokama qilish. Shu bilan birga, o‘qitish jarayonida kommunikativ nutq qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi va kognitiv faoliyatning elementi sifatida o‘qishga etakchi o‘rin beriladi.

Buning nazariy ahamiyati: tadqiqot orqali ingliz tilida darsdan tashqari o‘qishni tashkil etish usuli sifatida interaktiv ish daftarining uslubiy salohiyati aniqlandi. Shu bilan birga, ikki tilli o‘quvchilar tomonidan chet tilidagi matnni idrok etish xususiyatlari aniqlandi. Amaliy ahamiyati: tadqiqot uchun ishlab chiqilgan interaktiv ish daftarchasi shunga o‘xshash qo‘llanmalarni yaratishda namuna bo‘lishi mumkin va o‘zbek maktablarida ingliz tilida darsdan tashqari o‘qish darslarida qo‘llanilishi mumkin.

Ingliz tilini o‘rganishda muhim jihat sifatida o‘qish “O‘qish – bu nutq faoliyatining retseptiv turi bo‘lib, u matndagi ma’lumotlarni olishni, shu jumladan muallifning niyatini o‘qish jarayonida qayta yaratishni o‘z ichiga oladi" [2]. Chet tilini o‘qitishda o‘qishni maqsad va vosita sifatida ko‘rish mumkin. Butun ishning tuzilishi ushbu jarayonni qaysi nuqtadan aniqlashimizga bog‘liq [3, 264-277-betlar].

Ingliz tilini o‘rganuvchi o‘zbek o‘quvchilar tomonidan chet tilidagi matnlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirish kerak:

1.2-rasm.

Ko‘nikma turi	**Tavsifi**	**Amaliy misol / Mashq**
Leksik ko‘nikma	So‘z boyligini oshirish, yangi so‘zlarni tushunish va ishlatish	Lug‘at ishlar, sinonim-antonim mashqlari, kontekst asosida so‘z topish

[55] Маҳмудов Н. Тил таълими ва стилистика // Ж. Тил ва адабиёт таълими.–Тошкент, 2009. – 1-сон. –Б. 3-9.

Grammatik ko‘nikma	Gap tuzilishi, vaqt va fe’l shakllarini tushunish	Matn ichidagi grammatik strukturalarni aniqlash, jumlalarni tahlil qilish
Tinglab tushunish	Matn mazmunini eshitib tushunish, asosiy fikrlarni ajratib olish	Audio kitoblar, podkastlar, videolar orqali mashqlar
Og‘zaki nutq	Matn mazmunini qayta aytish, suhbat va dialoglarda ishlatish	Dialoglar, rol o‘yinlari, matn asosida qisqa nutq tuzish
Yozma nutq	Matn mazmunini yozma ravishda ifodalash	Qisqa hikoya, esse yoki matnni yozma qayta ishlash
Analitik ko‘nikma	Matnni tahlil qilish, asosiy g‘oya va tafsilotlarni ajratish	Matnni qismlarga bo‘lish, muhim va ortiqcha ma’lumotlarni aniqlash
Kontekstual ko‘nikma	Matn ma’nosini kontekstga bog‘lab tushunish	So‘zning turli kontekstlarda ma’nosini aniqlash, idiom va frazeologizmlarni ishlatish
Mustaqil fikrlash	O‘z nuqtai nazarini shakllantirish va matnga asoslangan xulosalar chiqarish	Savol-javob mashqlari, matnga izoh berish, matn davomini yaratish

Ishchi daftar deganda "mustaqil ish uchun ham, o‘qituvchi rahbarligida ishlash uchun ham har xil turdagi vazifalarni o‘z ichiga olgan bosma asosga ega bo‘lgan ko‘p funktsional didaktik qo‘llanma" tushuniladi [7, 27-bet]. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning faol joriy etilishi munosabati bilan an’anaviy ish daftarini interfaol o‘quv qo‘llanmasiga birlashtirish masalasi paydo bo‘lmoqda.

O‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda darsdan tashqari o‘quv manbalari muhim vosita hisoblanadi. Bu manbalar orqali o‘quvchilar tilga nisbatan muhabbat va qiziqishni his qiladi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi shakllanadi. Shuning uchun o‘qituvchilar zamonaviy darsdan tashqari metodikalarni o‘z amaliyotiga keng joriy qilishi zarur.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘ulomov S. “Til o‘rgatish metodikasi”. – Toshkent: Fan, 2018.

2. Jalolov J. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent, 2014.

3. Allwright, D. & Bailey, K. “Focus on the Language Classroom”. – Cambridge University Press, 1991.

4. Маҳмудов Н. Тил таълими ва стилистика // Ж. Тил ва адабиёт таълими.– Тошкент, 2009. – 1-сон. –Б. 3–9.

5. www.ziyonet.uz – ta’lim portali.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

DUAL TA’LIM (4+2 MODELI) ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK TA’MINOTNING ILMIY ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.150

Umurov Zarif Latifboyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik ta’minoti masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda didaktik ta’minot tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda dual ta’lim tizimidagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligi asosida integratsiyalashgan o‘quv jarayonini tashkil etish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etishning didaktik mexanizmlari asoslab berilgan. Maqolada didaktik ta’minotni loyihalash tamoyillari, uning maqsadli, mazmuniy, jarayon-texnologik, metodik, vositalar hamda baholash-monitoring komponentlari tizimli ravishda yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Dual ta’lim, didaktik ta’minot, kasbiy kompetentlilik, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, nazariya va amaliyot integratsiyasi, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot, didaktik materiallar majmuasi, baholash va monitoring, refleksiya, portfel (portfolio), 4+2 modeli, OTM–maktab hamkorligi.

Аннотация.В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы вопросы дидактического обеспечения развития профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов в условиях дуального образования. В исследовании раскрыта сущность понятия дидактического обеспечения, его содержательные характеристики, структурные компоненты и роль в системе дуального образования. Также обоснованы дидактические механизмы организации интегрированного образовательного процесса на основе сотрудничества «вуз–школа–руководитель практики», обеспечения интеграции теории и практики, а также внедрения компетентностно-ориентированного подхода. В статье системно освещены принципы проектирования дидактического обеспечения, а также его целевой, содержательный, процессуально-технологический, методический, инструментальный и оценочно-мониторинговый компоненты.

Ключевые слова. Дуальное образование, дидактическое обеспечение, профессиональная компетентность, учитель начальных классов, компетентностно-ориентированный подход, интеграция теории и практики, интегрированные занятия,

педагогическая практика, комплекс дидактических материалов, оценка и мониторинг, рефлексия, портфолио, модель 4+2, сотрудничество «вуз–школа».

Abstract. This article examines the didactic support for the development of professional competence of future primary school teachers in the context of dual education from a scientific and pedagogical perspective. The study reveals the essence of the concept of didactic support, its content characteristics, structural components, and its role within the dual education system. Furthermore, the paper substantiates the didactic mechanisms for organizing an integrated educational process based on the cooperation of “university–school–practice mentor,” ensuring the integration of theory and practice, and implementing a competence-based approach. The principles of designing didactic support are systematically described, including its target, content, process-technological, methodological, instrumental, and assessment-monitoring components.

Keywords. Dual education, didactic support, professional competence, primary school teacher, competence-based approach, theory–practice integration, integrated learning activities, pedagogical practice, didactic materials complex, assessment and monitoring, reflection, portfolio, 4+2 model, university–school collaboration.

Kirish.Zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni nafaqat ma’lum nazariy bilimlarni egallash, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish, didaktik qaror qabul qilish, ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni boshqarish hamda refleksiya asosida o‘z faoliyatini takomillashtirib borishga tayyorlikni talab etadi. Bu jarayonning samaradorligi esa bevosita o‘quv jarayonining didaktik jihatdan qay darajada puxta loyihalanganligi, izchil tashkil etilganligi va natijaga yo‘naltirilgan holda boshqarilganligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun didaktik ta’minot masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan alohida dolzarblik kasb etadi.

Ilmiy-pedagogik talqinda “didaktik ta’minot” tushunchasi o‘quv jarayonini maqsadga yo‘naltirib tashkil etishga xizmat qiluvchi, uning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari hamda baholash va monitoring mexanizmlarini yagona tizimda uyg‘unlashtiruvchi didaktik resurslar majmuini anglatadi. Bunda didaktik ta’minot o‘qitish jarayonining tashkiliy yoki yordamchi elementi sifatida emas, balki pedagogik natijani kafolatlashga xizmat qiluvchi didaktik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Dual ta’lim sharoitida ushbu tizimning ahamiyati yanada oshadi, chunki bunda kompetentlilikni rivojlantirish nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki bevosita maktabdagi amaliy pedagogik faoliyat bilan uzviy bog‘langan holda olib boriladi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan uni didaktik loyihalash darajasiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Xususan, pedagogik amaliyotning metodik asoslariga oid manbalarda ta’lim boshqariladigan jarayon bo‘lib, natija “tayyorlangan didaktik loyihaga bog‘liq” ekanligi hamda didaktik loyihalash ta’lim texnologiyasining mahsuli sifatida qaralishi asoslangan. Shuningdek, ta’limiy jarayon “maqsaddan etalonga yetib kelguncha” turli metod

va vositalar orqali tashkil etilishi, didaktik loyihaning kirish va chiqish nuqtalari mavjudligi ilmiy asoslangan (ya’ni ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltiruvchi didaktik “konstruktor” sifatida) yondashuv dual ta’lim sharoitida ayniqsa muhimdir [3].

Mazkur tadqiqot doirasida didaktik ta’minot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan o‘quv jarayonini (OTM–maktab–amaliyot rahbari tizimi) tashkil etishning ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot predmeti doirasida ham didaktik ta’minotning tarkibiy ko‘rsatkichlari aniq ifodalangan bo‘lib, u mazmun, metod, shakl, vosita hamda baholash mezonlari birligi orqali tavsiflanadi.

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik ta’minoti mazmunan murakkab, tizimli va ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, uni samarali loyihalash aniq ilmiy asoslangan tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilishini talab etadi. Chunki didaktik ta’minot dual ta’lim sharoitida faqat o‘quv materiallarini jamlash yoki metodik ko‘rsatmalarni tartibga keltirish bilan cheklanmaydi, balki OTMdagi nazariy-metodik tayyorgarlik, maktabdagi amaliy faoliyat hamda amaliyotga rahbarlik asosidagi kasbiy qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini yagona konseptual-didaktik tizim sifatida uyg‘unlashtirish mexanizmini ham ifodalaydi. Shu bois, didaktik ta’minotni loyihalash tamoyillari dual ta’limning mohiyatini ochib beruvchi va uning natijadorligini kafolatlovchi ilmiy-metodologik tayanch sifatida namoyon bo‘ladi.

Didaktik ta’minotni loyihalash tamoyillari dual ta’limning asosiy vazifalari – nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, kompetensiyaga yo‘naltirilgan mazmunni ishlab chiqish, OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligi asosida integratsiyalashgan o‘quv jarayonini tashkil etish, shuningdek kasbiy kompetentlikni baholash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Dual ta’lim samaradorligi amaliyot ulushining kursdan-kursga ortib borishi va jarayonning natijaga yo‘naltirilganligi bilan izohlanar ekan, mazkur jarayonni didaktik jihatdan loyihalash ham shu tamoyillar asosida boshqarilishi zarur.

Mazkur tadqiqot doirasida dual ta’lim sharoitida didaktik ta’minotni loyihalash tamoyillari quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

Didaktik ta’minotni loyihalash tamoyillari

Tamoyil	Dual ta’limdagi mazmuni	Didaktik ta’minotga qo‘yiladigan talab	Kutiladigan natija
Amaliyotga yo‘naltirilganlik	real pedagogik faoliyatni ustuvor qilish	topshiriqlar amaliy vaziyatlarga mos	kasbiy ko‘nikma kuchayadi
Nazariya–amaliyot integratsiyasi	OTM bilimlari → amaliyot → refleksiya	integratsiyalashgan mashg‘ulotlar	nazariy bilimni amaliyotga qo‘llash mexanizmi

			ishlaydi
Kompetensiyaga yo‘naltirilganlik	natija kompetensiya bilan belgilanadi	mezonli mazmun va baholash	kompetentlik shakllanadi
Moslashuvchanlik/variativlik	turli maktab sharoitlariga mos	modul va paketli yondashuv	tatbiq doirasi kengayadi
Hamkorlik va amaliyotga rahbarlik	OTM–maktab–amaliyot rahbari simmetriyasi	amaliyot rahbari xaritasi + fikr-mulohazasi	kasbiy o‘sish boshqariladi
Uzluksizlik va izchillik	bosqichma-bosqich rivojlanish	4+2 va monitoring ketma-ketligi	darajalar o‘sadi
Axborot ochiqligi	baholash shaffofligi	rubrika, baholash, e-monitoring	xolis va ishonchli natija

Ushbu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan didaktik ta’minot dual ta’limning real imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligi orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida kasbiy kompetentlilikni bosqichma-bosqich rivojlantirish, natijani monitoring qilish hamda pedagogik amaliyot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik ta’minotning samaradorligi uning tarkibiy tuzilmasini ilmiy asoslangan holda belgilash bilan chambarchas bog‘liqdir. Didaktik ta’minot o‘quv jarayonining muayyan bo‘g‘ini yoki alohida resurslar to‘plami emas, balki dual ta’limning “nazariya–amaliyot integratsiyasi”ni ta’minlovchi, kasbiy kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantiruvchi va natijani monitoring qiluvchi kompleks tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, didaktik ta’minot tarkibini komponentlar asosida tizimlashtirish bo‘lajak o‘qituvchi kompetentliligini rivojlantirishning didaktik mexanizmini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-metodik manbalarda ta’lim jarayonini loyihalash “maqsad–natija” izchilligida amalga oshirilishi, o‘quv jarayoni kirish va chiqish nuqtalariga ega bo‘lgan boshqariladigan didaktik tizim sifatida qaralishi ta’kidlanadi. Bunda har bir komponent o‘quv jarayonining umumiy natijadorligiga ta’sir qiluvchi, o‘zaro uyg‘unlashgan elementlar majmuini tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti ham aynan dual ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalari birligi orqali belgilangan bo‘lib, bu didaktik ta’minotni komponentlar asosida tasniflash zarurligini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Shundan kelib chiqib, dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik ta’minoti quyidagi asosiy tarkibiy komponentlardan iborat deb asoslanadi (2-jadval).

2-jadval

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik ta’minoti komponentlari

№	Komponent nomi	Mazmuni (tavsifi)	Asosiy elementlari	Vazifasi
1	Maqsadli komponent	Ta’lim jarayonining umumiy yo‘nalishini belgilaydi va barcha faoliyatni yagona natijaga yo‘naltiradi	Umumiy maqsad; kutiladigan natijalar; baholash indikatorlari	“Nima uchun o‘qitiladi?” savoliga javob beradi, jarayonni boshqaradi
2	Mazmuniy komponent	Kasbiy kompetentlilikni shakllantiruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui	Pedagogik bilimlar; metodika; tarbiyaviy faoliyat; kommunikativ ko‘nikmalar; refleksiya va diagnostika	Nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiradi
3	Jarayon-texnologik komponent	Ta’lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi	4+2 modeli; integratsiyalashgan mashg‘ulotlar; amaliyot; rahbarlik; kompetensiya texnologiyalari	Nazariya va amaliyotni integratsiya qiladi
4	Metodik komponent	Ta’limda qo‘llaniladigan metodlar va pedagogik texnologiyalar majmui	Muammoli ta’lim; hamkorlik; keys-stadi; loyiha; refleksiya; dars tahlili	Mustaqil fikrlash va kasbiy yechim topishni rivojlantiradi
5	Vositalar komponenti	Ta’lim jarayonini ta’minlovchi didaktik resurslar majmui	Topshiriqlar banki; elektron resurslar; portfolio; kuzatuv varaqalari; refleksiv kundalik; rubrikalar	Rivojlanishni hujjatlashtiradi va qo‘llab-quvvatlaydi
6	Baholash-monitoring komponenti	Kompetentlikni baholash va monitoring qilish tizimi	Mezonlar; indikatorlar; darajalar; baholash vositalari	Natijalarni nazorat qiladi va boshqaradi
7	Natijaviy komponent	Ta’lim jarayonining yakuniy samaradorligini ifodalaydi	Kompetentlik darajasi; rivojlanish dinamikasi; integratsiya natijasi	Model samaradorligini ko‘rsatadi

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik ta’minoti o‘zaro bog‘langan tarkibiy komponentlar majmuasidan tashkil topgan yaxlit didaktik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimda maqsadli komponent umumiy yo‘nalishni belgilab bersa, mazmuniy komponent kompetensiyalarni shakllantiruvchi bilim va tajriba asoslarini yaratadi. Jarayon-texnologik komponent dual ta’limning 4+2 mexanizmi hamda OTM–maktab–amaliyot rahbari integratsiyasi orqali kompetentlikni real kasbiy muhitda rivojlantiradi [1]. Metodik va

vositalar komponentlari o‘qitishning samarali yo‘llarini belgilab, kasbiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi, baholash-monitoring komponenti esa kompetentlik rivojlanishini mezonli asosda aniqlash hamda boshqarish imkonini beradi. Natijaviy komponentda esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi bosqichma-bosqich rivojlanib, zamonaviy boshlang‘ich ta’lim talablariga mos mutaxassisni tayyorlash uchun ilmiy-amaliy zamin yaratiladi.

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayoni integratsiyalashgan o‘quv mashg‘ulotlari orqali ta’minlanadi. Bunday mashg‘ulotlarning asosiy mohiyati shundaki, auditoriyada o‘zlashtirilgan nazariy-metodik bilimlar maktabdagi real pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashadi, amaliy tajribalar esa OTMda tahlil, refleksiya va ilmiy umumlashtirish orqali takomillashadi. Shuning uchun dual ta’limda integratsiyalashgan mashg‘ulotlar o‘quv jarayonining tashkiliy shakli sifatida emas, balki kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishning didaktik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning didaktik samaradorligi, avvalo, ularni ta’minlovchi didaktik materiallar majmuasining ilmiy asoslanganligi, tizimliligi va natijaga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Chunki dual ta’limda o‘qitish jarayoni “maqsad–natija” izchilligida boshqariladigan didaktik tizim bo‘lib, har bir mashg‘ulot nazariy bilimlarni amaliy vazifalarga ko‘chirish, kasbiy faoliyatni modellashtiruvchi va refleksiya orqali mustahkamlovchi resurslarga tayanishi lozim.

Dual ta’lim jarayonida amaliyot ulushining bosqichma-bosqich ortib borishi, o‘quv jarayoni samaradorligini amaliy natija bilan bog‘lash zaruratini kuchaytiradi. Shu sababli integratsiyalashgan mashg‘ulotlar uchun didaktik materiallar majmuasi “amaliyotga yo‘naltirilganlik” tamoyiliga asoslangan holda ishlab chiqilishi, u bo‘lajak o‘qituvchining nazariy tayyorgarligini real sinf vaziyatlari bilan uyg‘unlashtirishi zarur.

Mazkur tadqiqot doirasida integratsiyalashgan o‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallar majmuasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari hamda baholash-mezonlari birligida loyihalanadi.

Dual ta’lim sharoitida integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun didaktik materiallar majmuasi quyidagi tarkibiy bo‘limlardan iborat bo‘lishi ilmiy asoslanadi:

A) Nazariy-metodik blok. Ushbu blok bo‘lajak o‘qituvchining nazariy tayyorgarligini ta’minlaydi va quyidagilarni qamrab oladi: ma’ruza konspektlari va tayanch tushunchalar; boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va didaktikasi bo‘yicha sxemalar; metodik ko‘rsatmalar (dars tuzilmasi, dars modeli); metodik tavsiyalar (kompetensiyaga yo‘naltirilgan dars). Bu blok kompetentlikning kognitiv (bilim) komponentini mustahkamlashga xizmat qiladi.

B) Amaliy-topshiriqlar banki. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda amaliy faoliyatni faollashtirish uchun “topshiriqlar banki” muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u: “mini-dars” loyihalari (mikrodars); mustaqil topshiriqlar (didaktik yechim); tarbiyaviy vaziyatlar tahlili; o‘quvchi xatti-harakatiga pedagogik javob topish kabi amaliy vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu blok kompetentlikning faoliyat-amaliy komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi.

C) Pedagogik keyslar majmuasi. Dual ta’limning asosiy imkoniyati shundaki, bo‘lajak o‘qituvchi real pedagogik vaziyatlar orqali kasbiy muammolarni hal qilishni o‘rganadi. Shu bois keys majmuasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sinfni boshqarishdagi muammoli vaziyatlar; baholashdagi konfliktsion holatlar; o‘quvchi motivatsiyasining pasayishi; ota-onalar bilan muloqot muammolari; inkluziv sinfda individual yondashuv holatlari. Keyslar bo‘lajak o‘qituvchida didaktik fikrlash, pedagogik muammo yechish va kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi.

D) Loyiha va tadqiqot topshiriqlari. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda loyiha yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion fikrlashini rivojlantiradi. Bunda: dars ishlanmasini kompetensiyaga yo‘naltirib loyihalash; STEAM elementli integratsiyalashgan dars yaratish; tarbiyaviy loyihalar (sinf jamoasini shakllantirish); o‘quvchi portfelini shakllantirish kabi vazifalar berilishi mumkin. Bu blok kompetentlikning kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlarini kompleks rivojlantiradi.

E) Dars tahlili va kuzatuv blankalari. Dual ta’limning sifat ko‘rsatkichi bo‘lajak o‘qituvchining dars jarayonini kuzatish va tahlil qila olish qobiliyatidir. Shu bois dars tahlili blankalari: darsning maqsadga muvofiqligi; metod tanlash asoslari; o‘quvchilar faolligi; differensial yondashuv; refleksiya va natija mezoni bo‘yicha ishlab chiqiladi.

F) Refleksiv kundalik va portfel (portfolio). Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy rivojlanish yo‘lini hujjatlashtirib borishi zarur. Buning uchun: refleksiv kundalik (har haftalik tahlil); o‘zini baholash varaqalari; yutuqlar portfeli; metodik ishlanmalar jamlanmasi tuziladi. Bu blok kompetentlikning refleksiv komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan didaktik ta’minotni ishlab chiqishda quyidagi ilmiy asoslar ustuvor bo‘lishi zarur:

1. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan mazmun. Har bir material o‘qituvchi kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

2. Nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga tatbiq etilishi mexanizmi. Nazariy bilim → amaliy topshiriq → kuzatish → tahlil → refleksiya ketma-ketligi ta’minlanadi.

3. OTM–maktab–amaliyot rahbari simmetrik hamkorligi. Materiallar uch subyekt uchun ham tushunarli va qo‘llaniladigan bo‘lishi kerak.

4. Baholash va monitoring bilan bog‘liqlik. Har bir topshiriq va keys mezonlar bilan bog‘lanadi.

5. Raqamlashtirish va variativlik. Materiallar elektron ko‘rinishda ham shakllantiriladi.

Dual ta’lim sharoitida integratsiyalashgan mashg‘ulotlar uchun didaktik paket quyidagi minimal “majmua” sifatida shakllantirilishi mumkin:

- 10 ta keys (boshlang‘ich ta’lim vaziyatlari);
- 10 ta mini-loyiha (mikrodars + tarbiyaviy ish);
- 5 ta dars tahlili shakli;
- kuzatuv varaqalari (amaliyot rahbari va OTM rahbari uchun);
- refleksiv kundalik shabloni;
- portfel tuzilmasi (bo‘limlar kesimida);

- baholash va rubrikalar (baholash uchun).

Bu paket bo‘lajak o‘qituvchining kompetentlik asosida o‘sishini amaliy jihatdan ta’minlaydi.

Dual ta’lim sharoitida integratsiyalashgan o‘quv mashg‘ulotlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning asosiy didaktik mexanizmi bo‘lib, uning samaradorligi didaktik materiallar majmuasining ilmiy asoslanganligi va tizimliligiga bog‘liqdir. Nazariy-metodik blok, amaliy-topshiriqlar banki, keys-stadiy majmuasi, loyiha topshiriqlari, dars tahlili blankalari hamda refleksiv kundalik va portfel kabi resurslarning yagona integratsiyalashgan paket sifatida qo‘llanilishi nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga tatbiq etilishi kuchaytiradi, OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligini didaktik jihatdan muvofiqlashtiradi hamda kasbiy kompetentlilikning motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlari bo‘yicha izchil rivojlanishini ta’minlaydi.

Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonida pedagogik amaliyot alohida o‘rin egallaydi. Aynan amaliyot jarayoni bo‘lajak o‘qituvchining auditoriyada o‘zlashtirgan bilimlarini real ta’lim muhitida sinovdan o‘tkazish, pedagogik vazifalarni mustaqil hal etish hamda kasbiy tajribani refleksiya asosida mustahkamlash imkonini beradi. Dual ta’limda amaliyot “qo‘shimcha” yoki “yakuniy bosqich” sifatida emas, balki ta’lim jarayonining markaziy va natijaga yo‘naltiruvchi elementi sifatida talqin etiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida amaliyotning didaktik ta’minoti deganda dual ta’lim (4+2) mexanizmi asosida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mazmun, shakl, metod, vosita hamda monitoring-baholash tizimining integratsiyalashgan majmuasi tushuniladi. Tadqiqot predmeti ham dual ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishning mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari birligiga tayanishi bu yondashuvni ilmiy jihatdan asoslaydi.

Dual ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, kasbiy tayyorgarlik nazariy va amaliy komponentlar uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi, bunda amaliyot ulushi kursdan-kursga ortib boradi. Bu holat pedagogik amaliyotning didaktik ta’minotini chuqurroq ishlab chiqish, uni boshqariladigan va natijaga yo‘naltirilgan didaktik mexanizmga aylantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dual ta’lim (4+2) sharoitida amaliyotning didaktik mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Kasbiy kompetentlikni real faoliyatda shakllantirish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi amaliyot jarayonida dars o‘tish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish, ota-ona bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi kasbiy vazifalarni bajaradi.

2. Nazariy bilimlarni transfer qilish. OTMda o‘rgangan didaktik tamoyillar, metodlar, pedagogik yondashuvlar sinf muhitida qo‘llanadi va “amaliy natija”ga aylantiriladi.

3. Refleksiya va monitoring asosida o‘sishni boshqarish. Amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi har bir dars yoki vazifani tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi, amaliyot rahbari va OTM rahbaridan fikr-mulohaza oladi.

4. Integratsiyalashgan o‘quv jarayonini ta’minlash. Amaliyot OTMdagi mashg‘ulotlar bilan uzviy bog‘lanib, integratsiyalashgan ta’lim mexanizmini yaratadi.

Bu holat didaktik loyihalashning “maqsad–natija” ketma-ketligiga tayanishini, ta’lim jarayonining kirish va chiqish nuqtalari mavjudligini asoslovchi ilmiy yondashuvlar bilan ham mos keladi.

Dual ta’lim (4+2) asosidagi pedagogik amaliyotning didaktik ta’minoti quyidagi tarkibiy elementlarni qamrab oladi:

A) Amaliyot mazmuni (kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar). Amaliyot mazmuni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga mos quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- darsni rejalashtirish va loyihalash;
- dars o‘tish va sinfni boshqarish;
- o‘quvchi bilimini baholash va diagnostika qilish;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
- inkluziv sinf sharoitida differensial yondashuv;
- raqamli resurslardan foydalanish;
- refleksiya va o‘z-o‘zini baholash.

B) Amaliyot shakllari (4+2 mexanizmi doirasida). Dual ta’lim amaliyotining asosiy shakllari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- kuzatuv amaliyoti;
- yordamchi o‘qituvchi amaliyoti;
- mustaqil dars o‘tish amaliyoti;
- tarbiyaviy tadbirlar amaliyoti;
- amaliyotga rahbarlik asosidagi kasbiy faoliyat;
- refleksiv seminarlar (OTM bilan integratsiyada).

C) Amaliyot metodlari (professional vaziyatga yo‘naltirilgan). Amaliyot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- darsni tahlil qilish;
- keys-stadi (pedagogik vaziyat tahlili);
- mikrodars;
- loyihaviy metod;
- pedagogik kuzatuv;
- refleksiv tahlil.

Bu metodlar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy fikrlashi va amaliy kompetentligini shakllantiradi.

D) Amaliyot vositalari (monitoring va natijani hujjatlashtirish). Amaliyotning didaktik ta’minotida quyidagi vositalar muhim o‘rin egallaydi:

- pedagogik amaliyot kundaligi (refleksiv kundalik);
- portfel (portfolio);
- amaliyot rahbari kuzatuv varaqalari;
- dars ishlanmalari va rejalari;

- baholash rubrikalari;
- videodars tahlili (agar imkon bo‘lsa).

Dual ta’lim amaliyotining natijadorligi uni “o‘z holiga tashlab qo‘yish” orqali emas, balki ilmiy asoslangan didaktik boshqaruv mexanizmi orqali ta’minlanadi (3-jadval).

3-jadval

Dual amaliyotning boshqaruv mexanizmi (OTM–maktab–amaliyot rahbari funksiyalari)

Subyekt	Asosiy vazifalari	Amaliyotdagi nazorat shakli	Kutiladigan natija
OTM	dastur, mezon, metodik ko‘rsatma	monitoring, seminar, test	nazariy asoslangan kompetentlik
Maktab	sinf muhitini yaratish, vazifa berish	dars jadvali, kuzatuv	real tajriba va mas’uliyat
Amaliyot rahbari	yo‘l-yo‘riq, fikr-mulohaza, tahlil	dars tahlili, refleksiya	kasbiy o‘sish tezlashadi

Dual ta’limni samarali tashkil etishda OTM va amaliyot bazasi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, klaster usulida faoliyatni yo‘lga qo‘yish masalalari normativ hujjatlarda ham belgilanganligi dual amaliyot boshqaruvining huquqiy-asosiy zaruratini ifodalaydi.

Dual ta’lim amaliyoti quyidagi didaktik sikl asosida tashkil etilishi ilmiy jihatdan asoslanadi:

1. Kirish diagnostikasi: Bo‘lajak o‘qituvchining boshlang‘ich tayyorgarligi aniqlanadi.
2. Vazifalarni belgilash: Kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar beriladi.
3. Amaliy ijro (dars, tarbiya, muloqot): Real sinfda kasbiy vazifalar bajariladi.
4. Amaliyot rahbari kuzatuvi va fikr-mulohazasi: O‘qituvchi yo‘naltiriladi, xatolar ko‘rsatiladi.
5. Refleksiya va portfel yig‘ish: O‘z-o‘zini tahlil qilish, natijani hujjatlashtirish.
6. Monitoring va baholash: Mezonli yondashuv asosida daraja aniqlanadi.
7. Tuzatish va takomillashtirish: Kamchiliklar bo‘yicha individual rivojlanish rejasi tuziladi.

Bu jarayon ta’limning boshqariladigan “didaktik loyiha” sifatida qaralishi va natijaga yo‘naltirilganligi haqidagi ilmiy yondashuvga mos keladi.

Dual amaliyotning didaktik ta’minoti quyidagi shartlar asosida samarali bo‘ladi: amaliyot vazifalari kompetensiyaga mos ishlab chiqilishi; OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligi hujjatlashtirilgan bo‘lishi; amaliyotga rahbarlik faoliyati tizimli yo‘lga qo‘yilishi; refleksiya muntazam tashkil etilishi; monitoring mezonlari shaffof bo‘lishi; amaliyot natijalari portfel orqali tasdiqlanishi. Mazkur shartlar dual ta’limning “samaradorlikni oshirish” va “amaliy natijaga yo‘naltirish” kabi asosiy vazifalari bilan hamohangdir.

Dual ta’lim (4+2) sharoitida pedagogik amaliyot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning markaziy va hal qiluvchi didaktik omili hisoblanadi. Amaliyotning didaktik ta’minoti mazmun, shakl, metod, vosita hamda monitoring-baholash tizimi uyg‘unligida tashkil etilganda, nazariya–amaliyot integratsiyasi real kasbiy muhitda ta’minlanadi, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy vaziyatlarga tayyorgarligi

mustahkamlanadi hamda kompetentlikning motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlari izchil rivojlanadi. Natijada, dual ta’lim sharoitida amaliyotning didaktik ta’minoti bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan, mustaqil pedagogik qaror qabul qila oladigan va kasbiy refleksiya asosida o‘z faoliyatini takomillashtiradigan kompetent mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qarori. https://lex.uz/docs/-6079561

2. Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fanl. dokt. diss. – Toshkent, 2003. – 280 b.

3. Barakayev M. va boshqalar. Malakaviy amaliyot: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2015. – 152 b.

4. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.

5. Maschke K. Das duale Studium als Exportmodell. – Bonn: Deutscher Akademischer Austauschdienst (DAAD), 2015. – 14 b.

6. Grollmann P., Blöchle S.-J., Jansen A., Baues P. Duale Ausbildung als betriebliche Strategie der Fachkräftesicherung. – Bonn: Bundesinstitut für Berufsbildung, 2018. – 101 s.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ ДАРСЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТИ ВА ТЕХНИК БИЛИМЛАРНИНГ УЗВИЙ БОҒЛАНИШИ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.151

Ибрагимова Майрам Ғуломовна
Қўқон давлат педагогика институти катта ўқитувчиси,
электрон почта: ibragimovamaryamxon1@gmail.com

Аннотация.Мақолада техник билимлар ва амалий технологик таълимининг тарбиявий жиҳатлари ўртасидаги муносабатларнинг асосий масалалари ва тенденциялари очиб берилган. Ушбу шароитларда олинган билим ва кўникмаларнинг узлуксизлиги, шунингдек, ўқув ва ахборот материалларидан фойдаланиш асосида мутахассисликка қизиқишни шакллантириш.

Калит сўзлар: Таълим, технология, таълим сифати, ўқув жараёни, таълим самарадорлиги, билим, кўникма, малака. меҳнат дарси, меҳнатга ўргатиш бўйича амалий машғулотлар, ўқув устахоналари, меҳнатга ўргатиш усуллари.

Аннотация.В статье раскрываются основные вопросы и тенденции взаимосвязи технических знаний и педагогических аспектов практического трудового образования. Формирование интереса к специальности на основе преемственности знаний и навыков, приобретенных в данных условиях, а также использование учебно-информационных материалов.

Ключевые слова: Образование, технология, качество образования, образовательный процесс, эффективность образования, знания, навыки, компетенция, трудовой урок, практическая подготовка по трудовому образованию, учебные мастерские, методы трудового образования.

Abstract: The article reveals the main issues and trends of the relationship between technical knowledge and the educational aspects of practical technological education. In these conditions, the continuity of acquired knowledge and skills, as well as the formation of interest in the specialty based on the use of educational and information materials**.**

Key words: Education, technology, quality of education, educational process, educational efficiency, knowledge, skills, competence. labor lesson, practical training on labor training, educational workshops, methods of labor training**.**

чиқариш билан шуғилланувчи ижтимоий ҳамкорлари ўртасида билимларни транфер қилиш имкони билан бир қаторда талабаларда мазкур билимларни реал шароитларда – ишлаб чиқариш жараёни полегонларида қўллаб кўриш имкониятлари вужудга келади.

Касбий-педагогик имкониятлар: Ўқитувчининг тайёр билимларни тайёрлаб, талабаларга етказиш билан шуғилланувчи анаънавий педагогик ролини ҳамкор, таржимон, фасилитатор кўринишидаги эволюцион янги босқичларга чиқишига ҳизмат қилади. Бунда ўқитувчи ишлаб чиқаришнинг етакчи мутахассислари, академик фан вакилларининг илмий-терминологик ахборотларини таълим олувчиларнинг билим даражасига мос ва улар учун тушунарли тилда, баён этиш орқали таржимонлик қилиши назарда тутилса, “фасилитатор” эса талабаларнинг тадқиқотчилик, изланувчанлик ва амалий фаолиятини бошқариш фаолияти назарда тутилган. Ўқитувчининг “ҳамкорлик” роли эса фанлараро ҳамкорлик ва STEAM ёндашувдан фойдаланиш имкониятларини назарда тутади.

Таълим жараёнини инновацион ҳамкорлик асосида ташкил этиш унда тахсил олган талабаларда таълимни амалиёт билан интеграциялаш имконини юзага келтирса, таълим муассасаси учун замонавий меҳнат бозори билан функционал боғлиқликни кучайтириш имконияти туғилади. Натижада таълим натижаларининг релевантлиги ва легитимлиги ошади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР.

Таълим жараёнида ҳамкорлик масаласи кўп йиллардан бери тадқиқ этилаётган бўлишига қарамай, хозирда ҳам ўз актуаллигини йўқотмаган. Бугунги глобаллашув ва ахборот технологиялари даврида таълим тизими автоном тарзда самарали ривожланиши хақиқатдан йироқ, шундай экан таълим жараёнида ҳамкорлик ва интеграция механизмлари асосида ташкил этиш жараённинг самарадорлигини оширишнинг муҳим омиллари сифатида қаралмоқда. Халқаро тадқиқотлар таълимда ҳамкорликни фанлараро интеграция, ташкилотлараро институционал шерикчилик ва профессор-ўқитувчилар ва талабалар ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик ва шерикчилик таъсири доирасида ўрганилаётган бўлса, маҳаллий олимлар мавжуд ютуқларни миллий таълим тизимига мослаштиришга, устоз-шогирд анаъналарини формал таълим тизимига сингдиришга алоҳида эътибор қаратмоқдалар.

Қатор олимлар таълимда фанлараро ҳамкорликни ташкил этишда уни “конструктивизм назарияси” (тайёр билимни ўзлаштиришга эмас, балки уни фаолият жараёнида мустақил “шакиллантириш” ғояси)га асосланган ҳолда ташкил этишни илмий жиҳатдан ўринли деб ҳисоблашади. Масалан Н.А.Копылова[1], Н.Н.Филяровская[2], Е.Г.Иванова[3], Е.А.Козырева[4], Ю.Е.Водопьянова[5], Shuangzhi Zhang[6], Katarzyna Winkowska-Nowak[7], X.Zhang, H.Wang, S.M.Islam, X.Meng[8] ишлари кооператив (шерикчиликдаги) таълим жараёни рақобатга асосланган индивидуал жараён ҳисобланиб, юқори натижалар, ижтимоий қўллаб қувватлаш ва мотивацияни таъминланишини исботлади. Улар ижобий ўзаро боғлиқлик, шахсий жавобгарлик ва гуруҳли рефлексияни самарадорлик шарти сифатида айнан ҳамкорликда ўқитиш орқали билимни чуқурроқ ўзлаштириш мумкинлигини таъкидлашади.

Жумладан Rober E. Salvin ўзининг тадқиқотларида[9] ҳамкорликдаги таълим моделлари (Student Teams Achivement Divisions, Jigsaw ва бошқалар)нинг таълим сифатини оширишда юқори самара беришини таъкидлаб ўтган. У маваффақият калитини аниқ белгиланган мақсад, индивидуал баҳолаш ва гуруҳли рағбатлантириш изимининг уйғунлигида кўради. Elizabeth F. Baklery[10] ҳамкорлик тамойилига асосланган таълим теҳнологияларини олий таълим жараёнида қўллаш натижасида талабаларда танқидий фикрлаш кўникмаларини шакллантириш орқали академик фаоллигини ошириш имконини беради. Pierre Dillenbourg ўзидан аввалги соҳа вакилларидан фарқли ўлароқ, ҳамкорликни амалга ошириш механизми сифатида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш имкониятларини баён этади. Унинг фикрича, ҳамкорликга асосланган жараён билан бир қаторда шундай ёндашувни таъминловчи таълим муҳити юқори натижаларга эришишда муҳим омил бўлиб ҳизмат қилади. Шу ва шу каби қатор ишлар таълим мазмунига фанлараро лойиҳалар, интеграциялашган дарслар, STEAM таълимини қўллаш олиб борилаётган дарслар сифатини оширишнинг самарали воситаларидан эканлигини эътироф этишимизга асос бўлади.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА.

Санаб ўтилган ишларда таълимда ҳаморлик (educational collaboration/cooperation) масаласи педагог ва таълим олувчилар ўртасида, талабалар ўртасида шунингдек, таълим муассасасининг ташкилотлар билан институционал шерикчилиги шаклларида намоён бўладиган кўп қиррали педагогик жараён сифатида қаралган. Бундан ташқари, ҳамкорлик назарияси гуруҳда ўрганиш (кооператив таълим), гуруҳ бўлиб билим яратиш (collective knowledge building) ғоялари билан бойитилган.

David W. Johanson ва Roger T. Johnson кооператив (ҳамкорликдаги) таълим назариясини илмий асослаган ҳолда, ҳамкорликни самарадорлигини таъминловчи 5 асосий тамойили (ижобий ўзаро боғлиқлик, шахсий масулият, юзма-юз ўзаро таъсир, ижтимоий кўникмалар, гуруҳли рефлексия)ни илгари суришган. Richard DuFour “Профессионал таълим жамоалари” моделини илгари сурган ва унга кўра педагогларнинг ҳамкорлиги таълим сифатини ошириши ҳақида таъкидлаган. Моделга кўра педагоглар ўртасидаги ҳамкорлик, дарсларни жамоа тарзида режалаштириш ва ўзаро дарс кузатиш амалиёти дарс сифатига ижобий таъсир кўрсатади.

Япония таълим тизимида синовдан ўтказилган “Тадқиқот синфлари (Jugyou Kenkyuu) модели” дарсни педагог ва таълим олувчиларнинг биргаликда тадқиқот олиб бориши механизмига асосланган.

Хорижий тадқиқотлар билан бир қаторда маҳаллий тадқиқотчилар Ўзбекистон таълим тизимига ҳамкорликдаги таълим ёндашувларини қўллашнинг қатор шаклларини тадқиқ этишмоқда. Жумладан, ўқитувчи ва талаба ўртасидаги субъект-субъект муносабатлари, таълим жараёнида интерфаол методлар орқали фанлараро ҳамкорлик муносабатлари, таълим муассасаси ва ота-оналар, ижтимоий институтлар ҳамкорлиги, олий таълимда академик шерикчилик каби шакллари шулар жумласидандир. Улар шахсга йўналтирилган таълимнинг асосий шарти, ижтимоий фоалликни шакллантириш

воситаси ҳамда талабаларнин гкасбий ривожланишининг муҳим механизмлари сифатида қаралмоқда. Хорижий ва маҳаллий тадқиқотлар мазмунини қиёсий таҳлилини амалга ошириш натижасида олимлар фикрлари ва таълимга тадбиқ этилган натижаларининг қуйидаги жадвални таклиф қилишимиз мумкин:

Йўналиш	**Халқаро ёндашув**	**Маҳаллий ёндашув**
Назарий асос	Социоконструктивизм[56]	Шахсга йўналтирилган таълим
Амалий шакл	PCL, Lesson Study	Интерфаол методлар, жамоавий дарс
Стратегик мақсад	Таълим сифатини ошириш	Тарбиявий ва ижтимоий натижа
Рақамли интеграция	Онлайн ҳамкорлик платформалари	Масофавий таълим амалиёти

ХУЛОСА.Ҳулоса сифатида айтиш мумкинки, халқаро тадқиқотлар таълимда ҳамкорликни билимни биргаликда яратиш механизми, талабалар касбий ривожланишининг стратегик омили, таълим сифати ва ўқувчилар натижадорлигини ошириш воситаси сифатида баҳоланса, маҳаллий тадқиқотчилар эса ҳамкорликни кўпроқ ижтимоий ва субъектлар аро муносабатлар нуқтаиназаридан таҳлил қилган.

Юқорида таъкидлаб ўтилган маълумотлардан кўриниб турибдики, таълимда ҳамкорлик масаласи ҳалқаро ва маҳаллий илмий тадқиқотларда долзарб йўналиш сифатида шакилланган бўлиб, унинг ривожланиш траекторияси социоконструктивистик назариядан институционал ҳамкорлик моделига қадар тараққий этган.

Биз юқорида таълим жараёнида инновацион ҳамкорликининг педагогик имкониятларини кўриб чиқдик, энди уни ташкил этиш учун зарур шарт-шароитларни таҳлил этамиз.

1. Методологик шарт-шароитлар – нафақат академик билимларни олишга, балки амалий кўникмаларни шакллантиришга ҳизмат қилувчи ҳамкорликка асосланган таълим парадигмасини қабул қилиш.

2. Дидактик шарт-шароитлар – дарсларни ташкил этишда муаммоли вазиятлар, амалий фаолиятни талаб этувчи топшириқлар, лойҳа ва тадқиқот ишлари каби усул ва ёндашувларга устиворлик бериш.

3. Ташкилий шарт-шароитлар – инновацион ҳамкорликнинг барча субъектлари қарашлари, вазиятлари, миконiятлари, ҳохиш-истаклари кабиларни инобатга олган ҳолда мослашувчан ўқув режаларни тузиш ва иш жараёнида тарафларнинг жамоавий ишлаши учун зарур ижтимоий муҳитни яратиш.

4. Психологик-рефлексив шарт-шароитлар – томонлар ўртасида ўзаро ишонч, умумий мақсад йўлида ўзгаришларга ва томонларнинг таклифларига очиқлик,

[56] Социоконструктивизм – билим инсон томонидан ижтимоий муҳит, мулоқот ва ҳамкорлик орқали қурилишини таъкидловчи назария

ҳамкорлик жараёни объекти бўлган талабаларнинг тайёргарлигини ривожлантириш учун уларни педагогик қўллаб-қувватлашга тайёрлик каби қатор талабларни бажариш.

Инновацион ҳамкорлик шунчаки таълимнинг янги операцияси яъни – билим, кўникма ва малакаларни узатиш усули эмас, балки ҳамкорлик субъектларининг биргаликда ягона мақсад – талабаларда зарур компетенцияларни яратишга қаратилган тизимли фаолиятини таъминловчи педагогик жараённинг сифат жиҳатидан янги даражасидир. Шундай экан, таълим жараёнида инновацион ҳамкорликининг педагогик имкониятлари замонавий таълимнинг стратегик жиҳатдан муҳим ҳисобланган педагогик ресурси сифатида қаралиши лозим.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Наталья Александровна Копылова “Концептуальные идеи педагогики сотрудничества и их реализация в современной школе” диссертация 13.00.01, кандидат педагогических наук

2. Филяровская Наталия Николаевна. “Сотрудничество как личностно-ориентированная технология обучения школьников” диссертация по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук. 2004 г.

3. Иванова Елена Геннадьевна. “Методика обучения в сотрудничестве на начальном этапе средней общеобразовательной школы: На материале английского языка” диссертация по ВАК РФ 13.00.02, кандидат педагогических наук. 2003 г.

4. Козырева Елена Анатольевна. “Дидактические основы личностно-ориентированных технологий обучения младших школьников и их реализация” диссертация по ВАК РФ 13.00.01, доктора педагогических наук 2002 г.

5. Водопьянова Юлия Егоровна “Активные методы обучения подростков как одна из форм личностно-ориентированного подхода в учебно-воспитательном процессе: На материале естественнонаучных дисциплин” диссертация по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук

6. Zhang S (2024) Educational cooperation in the perspective of tripartite evolutionary game among government, enterprises and universities. PLoS ONE 19(1): e0294742. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0294742

7. Winkowska-Nowak, Katarzyna. (2014). Cooperation through education: impact of cooperation based training on social capital growth in teachers' community. DOI:10.2478/V10167-010-0103-4. https://www.researchgate.net/publication/282218918_cooperation_through_education_impact_of_cooperation_based_training_on_social_capital_growth_in_teachers'_community

8. X.Zhang, H.Wang, S.M.Islam, X.Meng (2025). Evolutionary dynamics of value co-creation within the industry-university-research network: A multi-agent game perspective. PLoS One, 20(12), e0338379. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0338379

9. Slavin, R. E. (2015). Cooperative learning in elementary schools. Education Digest, 81(3), 16-20.

10. Barkley, E. F., Cross, K. P., & Major, C. H. (2014). Collaborative Learning Techniques: A Handbook for College Faculty (2nd Ed.). Jossey-Bass.

11. Х.А.Умаров Научно-практическая основа создания и использования электронных обучающих ресурсов для достижения эффективности учебного процесса. Educational Research in Universal Sciences 2 (3), 654-657

12. Х.А.Умаров Проблемы подготовки педагогических кадров в примере учителей технологии. Научный Фокус 1 (5), 155-159

13. X.A.Umarov Texnologiya fanini o ‘qitishda maktab o ‘quvchilarining kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish usullari. Innovations in Technology and Science Education 2 (14), 187-193

14. Х.А.Умаров Ўзбекистонда кадрлар тайёрлашнинг долзарб уаммолари Scientific Impulse 1 (2), 671-676

15. Х.А.Умаров Влияние сми и интернета на формирование духовной идентичности современной российской молодежи Advances in Science and Technology, 133-134

16. Umarov Khusan Abdurakhimovich The relationship between theoretical education and practical activity in the development of professional qualities of future specialists. Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети. p. 299

17. FA Umarova, ZA Umarova, KA Umarov Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 7 (12)

18. Х.А.Умаров, З.А.Умарова Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы. Издательство Самарского научного центра

19. Н.А.Муслимов, Х.А.Умаров Эффективные возможности контекстуальной технологии в подготовке будущих учителей профессионального образования. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, 49-52

20. Ф.А.Умарова, Х.А.Умаров Масофадан ўқитиш, интернет ва бошқа манбалардан фойдаланиш орқали дарс самарадорлигини ошириш Сборники конференций НИЦ Социосфера, 219-221

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALARNING FIZIKADAN MUSTAQIL O’QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA MUAMMOLI MASALALAR.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.159

Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti (Dse)professor
O‘.N.Sultonova

Annotatsiya. Fizika fani boshqa fanlar bilan uzviy chambarchas bog’liq bo’lgan holda barcha fanlar kesishmasida turuvchi sohadir. Aamerikalik olim har bir narsada fizikaning o‘rni bor degani ham bejiz emas, albatta. Shu bois bugun ushbu fanning nafaqat maktablarda, balki Oliy ta’lim muassasalarida ham mukammal o’qitilish masalasi ancha katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada dunyo fanning o’qitilish metadologiyasi va ahamiyati haqida, qolaversa talabalar uchun fizikaning moddiy va ma’naviy o’rni haqida batafsil tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Fizika, metadologiya, Oliy ta’lim, ta’lim sifati, induksiya, deduksiya, talaba, texnika va h.k

Аннотация.Физика - это область, которая пересекается со всеми другими науками. Не случайно американский ученый сказал: «Физика есть во всем». Поэтому сегодня вопрос безупречного преподавания этого предмета не только в школах, но и в высших учебных заведениях имеет большое значение. В этой статье автор подробно описывает методологию и важность преподавания мировой науки, а также материальную и духовную роль физики для студентов.

Ключевые слова: физика, методология, высшее образование, качество образования, индукция, отчисления, студент, технологии и т. Д.

Annotation. Physics is a field that intersects with all other sciences. It is no coincidence that an American scientist said, "Everything has physics." Therefore, today the issue of perfect teaching of this subject not only in schools but also in higher education institutions is of great importance. In this article, the author describes in detail the methodology and importance of teaching world science, as well as the material and spiritual role of physics for students.

Keywords: Physics, Methodology, Higher Education, Quality of Education, Induction, Deduction, Student, Technology, etc.

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida fizika ta’limini rivojlantirish, fizika o‘qitishda induksiya, deduksiya metodlaridan keng foydalanish, xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, takomillashtirish, fizika o‘qitishda integrativ yondashish asosida ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’limda innovatsion axborot texnologiyasini joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga talabalarning fizikani o‘rganishga nisbatan ijodiy fikrlash

qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish, fizika o‘qitishda axborot texnologiyalarini joriy qilish, o‘qitishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda.Jamiyatning kreativ va kompetentli mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish muhimligini oshirib, yanada dolzarblashtirilmoqda .

Maqolaning maqsadi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnik mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan,amaliy darslarda muammoli masalalar yechish va uni tahlil eta olish o‘qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Ta’lim-tarbiya talabalarning o‘quv faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.Bunday faoliyat dars va darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, o‘qituvchi va boshqa shaxslar bilan munosabat, mustaqil ishlar, mustaqil fikrlash, turli vaziyatlarda shaxsiy munosabat bildirish, talaba hulqiga va uning psixologik faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar yordamida amalga oshiriladi, bular ichida mustaqil ishlar aloxida axamiyat kasb etadi. Talabalarning mustaqil ishlari- bu o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz lekin belgilangan vaqtda uning topqirligi va izlanishlari asosida bajariladigan ishlardir.Mustaqil ishlash metodlari- o‘qitishning ta’lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarni muvofiqlashtirilgan xolda amalga oshirilishiga yordam beradi. Mustaqil ish ta’limiy jixatdan-nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalarni takrorlash mustaxkamlash va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.O‘qitishning bu metodlari talabalarning mustaqil mexnat faoliyatiga va o‘z egallagan kasbini mutaxassisligini mukammal davom ettirishi uchun axamiyat kasb etadi. Ayniqsa xozirgi vaqtda, ayrim darslar talabalarga masofaviy ta’lim platformalarda berilayotganda, talabalar o‘qituvchi bergan mavzularni mustahkamlash uchun ko‘proq mustaqil shug‘ullanishlari lozim.

Talabalarning mustaqil ishlarni bajarishlariga imkon yaratish uchun quyidagilar zarur deb xisoblaymiz:

- Talabalarga berilgan topshiriqlarni bajarish tartib qoidalari xaqida ko‘rsatma berish;
- Mustaqil ishlarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanishtirish;
- Mustaqil ishlarni bajarishda tezkor yordam ko‘rsatishning maxsus usullarini yaratish,video darslarni tashkil etish,kichik testlar olish;
- Mustaqil ishni bajargan talabalarni rag‘batlantirish qiziqtirish va baxolash;

Bundan maqsad shuki,yuqoridagi imkoniyatlar natijasida talabalarning fikrlash qobiliyati o‘sib,muammolarni hal qilish,ilmiy izlanishga odatlanish,yangi fikrlash va mushoxada qilish orqali innovatsiaga qiziqadi va ushbu g‘oyalar bilan ixtirolar yaratadi qadam qo‘yilayotgan yangi renesansga o‘z xissalarini qo‘shish imkoniyati paydo bo‘ladi. Mustaqil darslarni tashkil etish metodikasi talabalarning fanga qiziqishini oshirib o‘z-o‘zini rivojlantirish hislatlarini namoyon etadi.

Mustaqil, ongli o‘quv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida chuqur va mustaxkam bilimga ega bo‘lish mumkinligini, bu bilimlar vaqt o‘tgan sari talabalarning

tafakkurini rivojlantirishniig ajralmas qismiga va hayotiy ehtiyojiga aylanadi.Talabalarning mustaqil ishlarini tasniflash bir qator munozaralarga sabab bo‘lishi mumkin. Ular qaysi turda bo‘lishidan qat’iy nazar mustaqil ishlar ma’lum bir savol va topshiriqlar yordamida amalga oshiriladi.Odatda topshiriqlar ma’ruzalar davomida berib borilib intelektual qobiliyatini oshirishga,yangi g‘oyalar tuzishga imkon.

Masalan, elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish mavzusi o‘qituvchi tomonidan tushuntirilsa,uning aholiga, ishlab chiqarishga ahamiyatli tomoni mustaqil ish sifatida o‘rganiladi.

Demak, bunday mustaqil o‘qitish uslublaridan foydalanish o‘qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil bilim egallashlari va ularda mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kelajakda o‘z kasblarining novatori bo‘lib yetishishiga katta ahamiyat kasb etadi.

- Aytish joizki,bu metod talabalarni kelajakka yetaklab, o‘z kursdoshlari hamda xorijlik shu yo‘nalishda tahsil olayotgan tengdoshlari bilan bemalol raqobatga kirisha oladi va o‘zida bilim qay yo‘sinda ekanligini his etib, ko‘p bilishga intiladi va intelektual kadr bo‘lib yetishadi.

O‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishda fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, ularni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, qiziqarli masalalarni tanlashga alohida e’tibor berish lozim. Tanlangan masalalar aniq bir tizimni tashkil qilishi va aniq bir maqsadga yo‘naltirilishi kerak. Shuning uchun, mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan ayrim mavzuga va bobga oid masalalarni tanlashga alohida ahamiyat berish zarur. Eksperemental va grafik masalalarning mazmuni o‘rta maktabda fizika o‘qitishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqishi, DTS talablariga mosligi, masalaning qo‘yilishi aniq va real bo‘lishi, o‘quvchi esa aniq ilmiy bilimga va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak.

Eksperimental masalalarni yechishda tajribalar maktab demonstratsion eksperimentining barcha shart-sharoitlariga amal qilgan holda qo‘yilishi kerak. Bunda asboblar va hodisalarning yaxshi ko‘rinayotganiga alohida e’tibor berish kerak. Eksperimentni bajarish jarayoniga o‘qituvchining o‘zi rahbarlik qilish zarurdir. Demonstratsion eksperimental masalalarga misol keltiramiz.

*Masala:*Proton 1 kV potensiallar ayirmasini o`tib, tezlik oladi va induktsiya chiziqlariga perpendikulyar bo`lgan 0,2 T induktsiyali bir jinsli magnit maydonga tushadi. Proton harakatlanadigan aylana radiusini va uning aylanish davrini aniqlang.

Berilgan: U=1000 V-tezlatuvchi potensiallar ayirmasi; B=0,2 T-magnit maydon induksiyasi; $\alpha=90^{o}$ va $\vec{\upsilon}$ vektorlar orasidagi burchak;jadvaldan:

$m_p=1{,}67\cdot10^{-27}$kg-protonning massasi; $q=1{,}6\cdot10^{-19}$C-protonning zaryadi.

Topish kerak: r-aylana radiusini; T-protonning aylanish davrini.

Yechilishi. Harakatlanuvchi elektr zaryadga, bizning holda protonga, magnit maydonda Lorens kuchi ta’sir qiladi: $F_l=Bq\upsilon\sin\alpha$, bunda $\alpha-\vec{B}$ va $\vec{\upsilon}$ vektorlar orasidagi burchak. $\alpha=90^{o}$ va $\sin\alpha=1$ ni hisobga olsak: $F_l=Bq\upsilon$. Lorens kuchi $\vec{B}$ va $\vec{\upsilon}$ vektorlar turgan

tekislikka har doim perpendikulyar bo‘lgani uchun u ish bajarmaydi, ya’ni harakatlanuvchi zaryadlarning kinetik energiyasini o‘zgartirmaydi; shu kuch ta’siri ostida faqat tezlik yo‘nalishi o‘zgaradi. Shuning uchun biz quyidagini yozishimiz mumkin:

$Bq=\frac{m_p\upsilon^2}{r}$, bundan: $r=\frac{m_p\upsilon}{Bq}$.

Protonning tezligini topish uchun energiyaning saqlanish qonunidan foydalanamiz: elektr maydon kuchi U proton erishgan kinetik energiyaga teng: $qU=\frac{m_p\upsilon^2}{2}$, bundan:

$\upsilon=\sqrt{\frac{2qU}{m_p}}$; $\upsilon=\sqrt{\frac{2\cdot1,6\cdot10^{-19}\cdot10^{3}}{1,67\cdot10^{-27}\,kg}}=4.4\cdot10^{5}$ ms.

Aylananing radiusini topamiz:

$r=\frac{1,67\cdot10^{-27}\,kg\cdot4,4\cdot10^{5}}{1,6\cdot10^{-19}\cdot1\,Tl}=0,023\,m$

Protonning tezligini va uning orbitasini bilgan holda davrini aniqlaymiz:

$T=\frac{2\pi r}{\upsilon}$; $T=\frac{2\cdot3,14\cdot0,023}{4,4\cdot10^{5}}=0,33\cdot10^{-6}\,s$ mks.

javobi. Proton 0,023 m radiusli aylana bo‘ylab harakatlanadi, uning aylanish davri taqriban 0,3 mks ga teng.

O‘rganish ob’ekti fizik kattaliklarning bog‘lanish grafiklaridan iborat bo‘lgan masalalar grafik masalalar deyiladi.

Ba’zi hollarda bu grafiklar masalaning shartida beriladi, ba’zi hollarda esa ularni jamlash kerak bo‘ladi.

Grafikli masalalarni yechishda:

- o‘quvchilar grafiklarni «O‘qish» va sodda grafiklar yasash ko‘nikma va malakalariga bo‘lish kerak.
- grafiklar bilan ishlashni tobora murakkablashtirib, o‘quvchilarga kattaliklar orasidagi miqdoriy bog‘lanishlarni topishni tavsiya qilish, toki tenglamalarni tuzishgacha borish kerak.

Grafik masalalar yechishning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1) agar kattaliklar orasidagi bog‘lanishlar grafigi berilgan bo‘lsa, u holda uni tushuntirish, har bir bo‘limdagi bog‘lanishni xarakterini o‘rganish kerak; 2) masshtabdan foydalanib, grafikdan izlanayotgan kattaliklarni (abssissa va ordinata o‘qlaridagi qiymatlarini) topishi kerak; 3) Agar bog‘lanish grafigi berilmagan bo‘lsa, u holda maxsus jadvallardan yoki masalaning shartidan olingan qiymatlariga ko‘ra grafik tuziladi. Buning uchun koordinatalar o‘qlari chiziladi, ularda ma’lum masshtab tanlanadi, jadvallar tuziladi, shundan keyin koordinata o‘qlari bo‘lgan tekislikka tegishli ordinata va absitsissalarga mos nuqtalar qo‘yiladi. Bu nuqtalarni birlashtirib, fizik kattaliklar orasidagi bog‘lanish grafigi yasaladi, so‘ngra yuqorida aytib o‘tilgan tartibda o‘rganiladi.

Misol tariqasida quyidagi masalani ko‘ramiz.

Masala: Ikki atomli ikki mol gaz vositasida ishlaydigan issiqlik mashinasi izoxora, izoterma va izobaradan iborat siklni amalga oshiradi. Gaz egallagan maksimal hajm minimal hajmdan uch marta katta. Izotermik jarayon esa 450 K haroratda ro`y beradi. Bir sikl davomida bajariladigan ish va siklning FIK topilsin.

Berilgan:

$v = 2\ mol;$

$i = 5;$

$\frac{V_{\max}}{V_{\min}} = 3;$

1)$V = const;$


2)$\mathrm{T} = 450K = const;$

3)$\mathrm{P} = const.$

$A = ?$

$\eta = ?$

Yechish: Siklning diagrammasini tuzamiz:



$V_2 = V_{\max}$,

$V_1 = V_{\min}$,

$\mathrm{T}_2 = \mathrm{T} = const.$

Izobarik jarayonda

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{\mathrm{T}_1}{\mathrm{T}_2}$$

ekanligini nazarda tutsak,

$$\mathrm{T}_1 = \mathrm{T}_2 \cdot \frac{V_1}{V_2} = \mathrm{T}_2\left(\frac{V_{\min}}{V_{\max}}\right) = \frac{T_2}{3}$$

ni hosil qilamiz

siklning FIK quyidagicha aniqlanadi

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} = \frac{A}{Q_1},$$

bu yerda Q_1-isitgichdan olingan issiqlik miqdori, Q_2- sovitgichga berilgan issiqlik miqdori, $A = Q_1 - Q_2$ bir sikl davomida bajarilgan ish .

Sikl davomida olingan issiqlik miqdori, izoxorik va izotermik jarayonlarda olingan issiqlik miqdorlari yiqindisiga teng, ya`ni

$$Q_1 = Q_{12} + Q_{23}, \qquad (1)$$

Izoxorada olingan issiqlik miqdori $(1 \to 2)$

$$Q_{12} = \frac{i}{2} Rv(\mathrm{T}_2 - \mathrm{T}_1) \qquad (2)$$

va izotermada olingan issiqlik miqdori $(2) \to (3)$

$$Q_{23} = vRT_2 \ln\frac{V_2}{V_1} = vRT_2 \ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}} \qquad (3)$$

kabi aniqlanadi.

Berilgan issiqlik miqdori esa izobarada $(3\to1)$ berilgan issiqlik miqdori bilan aniqlanadi.

$$Q_2 = Q_{31} = \frac{i+2}{2} Rv(\mathrm{T}_2 - \mathrm{T}_1) \quad (4)$$

Endi (1)-ni nazarda tutib, A va η lar uchun ifodalarni topamiz

$$A = \frac{i}{2} RT_2 v\left(1-\frac{1}{3}\right) + vRT_2 \ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}} - \frac{i+2}{2} RvT_2\left(1-\frac{1}{3}\right) = vRT_2 \ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}} - vRT_2 \cdot \frac{2}{3} = vRT_2\left(\ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}} - \frac{2}{3}\right), \quad (5)$$

$$\eta = \frac{vRT_2\left(\ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}} - \frac{2}{3}\right)}{vRT_2\left(\frac{i}{3} + \ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}}\right)} = \frac{\ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}} - \frac{2}{3}}{\frac{i}{3} + \ln\frac{V_{\max}}{V_{\min}}} \quad (6)$$

Berilganlarni (5) va (6) larga qo`yib olamiz. ($R - 8{,}31\frac{J}{K\cdot mol}$ -gaz molyar doimiysi)

$$A = 2\cdot 8{,}31\cdot 450(\ln^3 - \frac{2}{3})J = 7479(1{,}1 - 0{,}67)J = 3215{,}97J \approx 3{,}2\ kJ,$$

$$\eta = \frac{\ln^3 - \frac{2}{3}}{\frac{5}{3} + \ln 3} = \frac{1{,}1 - 0{,}67}{1{,}67 + 1{,}1} = \frac{0{,}43}{2{,}77} = 0{,}16.$$

javob: $A = 3{,}2\ kJ;$ $\eta = 0{,}16$. **2-misol.** Protonning tinchlikdagi energiyasi taqriban 938 MeV ga teng. Protonning tinchlikdagi massasini, protonlarga tezlatkichda 70 GeV kinetik energiya berilgandan keyingi massasini va tezligini aniqlang.

Berilgan: E_0=938 MeV – protonning tinchlikdagi energiyasi; E_k=70 GeV – protonning tezlatkichdagi olgan kinetik energiyasi; jadvaldan: $c=3\cdot10^8$ m⁄s – yorug‘likning vakuumdagi tezligi.

Topish kerak: m_{P_0} – protonning tinchlikdagi massasini; m_P – protonning tezlashtirilgandan keyingi massasini; ϑ – protonning tezlashtirilgandan keyingi tezligini.

*Yechilishi.*Masalani yechish uchun energiyasi HBS birliklarida - joul hisobida ifodalaymiz.

$1eV = 1{,}6\cdot10^{-19}C\cdot1\ \ V = 1{,}6\cdot10^{-19}J;\ \ 1MeV = 1{,}6\cdot10^{-13}J.$

demak, tinchlikdagi energiyasi

$$E_0 = 938\cdot1.6\cdot10^{-13}J = 1{,}5\cdot10^{-10}J.$$

Protonning tezlashtirilgandan keyingi kinetik energiyasi:

$$E_k = 7\cdot10^{10}\cdot1{,}6\cdot10^{-19}J = 1{,}12\cdot10^{-8}J.$$

Protonning tinchlikdagi massasini topish uchun Eynshteyn formulasi $E_0 = m_{P_0}c^2$ dan foydalanamiz:

$$m_{p_0}=\frac{E_0}{c^2};\quad m_{p_0}=\frac{1{,}5\cdot10^{-10}}{9\cdot10^{16}}=1{,}67\cdot10^{-27}\,kg.$$

Protonning to‘la kinetik energiyasini $E=E_k+E_o=m_r\ c^2$ formuladan aniqlaymiz. Tenglikning har ikkala tomonini $E_0=m_{P_0}c^2$ ga bo‘lgandan so‘ng, $\frac{m_p}{m_{p_0}}=\frac{E_k+E_0}{E_0}$ *yoki* $\frac{m_p}{m_{p_0}}=\frac{E_k}{E_0}+1$ *ni olamiz, bundan*

$$m_p=\left(\frac{E_k}{E_0}+1\right)m_{p_0};\quad m_p=\left(\frac{1{,}12\cdot10^{-8}}{1{,}5\cdot10^{-10}}+1\right)1{,}67\cdot10^{-27}\,kg=1{,}26\cdot10^{-25}\,kg.$$

Protonning tezlashtirilgandan keyingi massasini aniqlab, uning tezligini topamiz:

$$m_p=\frac{m_{p_0}}{\sqrt{1-v^2/c^2}};\quad \sqrt{1-v^2/c^2}=\frac{m_{p_0}}{m_p};\quad 1-\frac{v^2}{c^2}=\frac{m^2{}_{p_0}}{m_P^2}$$

bundan

$$v=c\sqrt{1-\frac{m^2{}_{p_0}}{m_P^2}};\qquad v=c\sqrt{1-\left(\frac{1{,}67\cdot10^{-27}}{1{,}26\cdot10^{-25}}\right)}=0{,}99c.$$

Javobi. Protonning tinchlikdagi massasi $1{,}67\cdot10^{-27}$ kg ga teng bo‘lib jadvaldagi qiymatiga mos keladi; protonning tezlashtirilgandan keyingi massasi taqriban tinchlikdagi massasidan 75 marta katta, tezligi 0,99 c ga teng.

O‘quvchilar masalalarni mustaqil ravishda yechish orqali:

- nazariy bilimlarni mustahkamlaydi;
- mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi;
- fizik kattaliklar orasidagi bog‘lanishlarni o‘rganadi;
- fizikaning qonunlarini ongli ravishda o‘zlashtirishiga erishadi;
- masalaning shartiga qarab grafik yasash qobiliyati paydo bo‘ladi;
- grafiklarga qarab fizik kattaliklarni berilganlarini yozib olishga o‘rganadi.

Xulosa. Fizika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida, fizika ta’limining axborot texnik ta’minoti, didaktik, interfaol vositalarini faollashtirish, modulli texnologiyasidan foydalanish, tayanch kompetensiyaning kommunikativ, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, masalani yechishda, dars samaradorligini oshirishda qo‘llanildi. Fizika o‘tish samaradorligini oshirish oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnik mutaxassislar tayyorlashning metodik tayyorgarliklarini bilim va kompetensiyaviy asoslarini oshirishda hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1,N. Sultonova, “Device for Monitoring the Physico-Chemical Parameters of Drinking Water”. International Scientific and Technical Conference on "Innovative Issues in the Fields of Engineering and Technological Sciences". - .: September 22, 2020. Pp. 393-395.

2. O.N. Sultonova, O.N., “Technologies and Design in Teaching Physics”. International

Scientific and Technical Conference on "Innovative Issues in the Fields of Engineering and

Technological Sciences". - .: September 22, 2020. Pp. 410-412.

3. O.N. Sultonova, O.N., “Formation of Basic Competences for Students Solving Problems in

Physics”. Page: 107-114, Vol 7 No 11, 2019.

4. B. To‘raev, O.N. Sultonova, “A Collection of Questions and Problems in Physics: Textbook”.

- T.: 2021. Pp.365.

5. O.N. Sultonova, O.N., S.N. Sultonov, “Automation of Experiments in a Mechanical Laboratory Complex”. // Higher School Journal. - .: 2018, Issue 24, Pp. 32-33.

6. O.N. Sultonova, N.T. Kadirova, S.N. Sultonov, S.I. Jiyanova, S.Q. Payanova, “Technology to

Improve the Methods of Teaching Physics in Higher Education Based on a Competency Approach (On the Example of Training Technical Engineers)”. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, ISSN 2515-8260, Volume 7, Issue - .: 2020, Pp. 365-374.

7. O.N. Sultonova, B.E. To‘raev, S.N. Sultonov, “A Competency-Based Approach in Solving

Problematic Physics Problems”. Issue 6 (50). F.A. Mamadaliev, Egyptian Triangle (Books 1,

8 .Ziyomuhammedov B., M. Tojiyev. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent «Lider press» 2009.

9.Sachencho I.P. Diagnostika razvitiya pedagogicheskogo tvorchestva uchitelY. – Pyatigorsk, 2002.

10. .Uzoqova G.S., Tursunov. Q. SH., Qurbonov M. Fizika o‘qitishning nazariy asoslari.-T., O‘zbekiston, 2008.

7. B. Turayev, O‘. Sultonova, M. Fattoxov, X. Isayev **FIZIKA FANIDAN**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ДИАЛОГИЧЕСКОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.160

Хамидуллаева Фатима Адхам кизи
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Докторант второго курса
E-mail: urunova5000@gmail.com
Тел.: +998 99 8875554

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и методические основы диалогической речи в обучении иностранному языку. Диалог трактуется как особая форма речевого взаимодействия, обладающая рядом специфических характеристик, включая ситуативность, мотивированность, эмоциональность и адресованность. Анализируются различные подходы к определению диалога в научной литературе, а также его структурные единицы — реплика, речевой акт и диалогическое единство. Особое внимание уделяется диалогическому методу обучения как эффективному средству формирования коммуникативной компетенции обучающихся. Раскрываются его принципы, формы реализации и педагогический потенциал в развитии навыков говорения. Отмечаются трудности овладения диалогической речью на иностранном языке и обосновывается необходимость целенаправленного формирования диалогических умений.

Ключевые слова: диалогическая речь, диалог, обучение иностранному языку, коммуникативная компетенция, диалогическое обучение, речевое взаимодействие, говорение, реплика, речевой акт, языковая личность, коммуникативный подход, прагматика, устная речь

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tilini o‘qitishda dialogik nutqning nazariy va metodologik asoslari ko‘rib chiqiladi. Dialog vaziyat, motivatsiya, hissiylik va o‘ziga xoslik kabi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan og'zaki muloqotning maxsus shakli sifatida ta’riflanadi. Ilmiy adabiyotlarda dialogni aniqlashga turli yondashuvlar, shuningdek, uning tarkibiy birliklari - remarka, nutq harakati va dialogik birlik tahlil qilinadi. Dialogik o‘qitish usuliga talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida alohida e’tibor qaratiladi. Uning tamoyillari, amalga oshirish shakllari va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik salohiyati ochib beriladi. Chet tilida dialogik nutqni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar ta’kidlanadi va dialogik ko'nikmalarni maqsadli rivojlantirish zarurati asoslanadi.

Kalit sozlar: dialogik nutq, dialog, chet tilini o‘qitish, kommunikativ kompetentsiya, dialogik o‘qitish, og‘zaki muloqot, gapirish, remarka, nutq harakati, lingvistik shaxsiyat, kommunikativ yondashuv, pragmatika, og‘zaki nutq

Annotation. This article considers the theoretical and methodological foundations of dialogic speech in teaching a foreign language. Dialogue is defined as a special form of oral communication that has a number of specific features, such as situational, motivational, emotional and original. Various approaches to defining dialogue in the scientific literature are analyzed, as well as its structural units - remark, speech act and dialogic unit. Special attention is paid to the dialogic teaching method as an effective means of developing students' communicative competence. Its principles, forms of implementation and pedagogical potential for developing speech skills are revealed. The difficulties in mastering dialogical speech in a foreign language are emphasized and the need for targeted development of dialogical skills is justified.

Keywords: dialogical speech, dialogue, foreign language teaching, communicative competence, dialogical teaching, oral communication, speaking, remark, speech act, linguistic personality, communicative approach, pragmatics, oral speech

Введение.Диалог рассматривается как особая форма реализации языковой системы в условиях речевого взаимодействия двух или более собеседников, объединённых общей коммуникативной задачей. В данном процессе языковые средства актуализируются в зависимости от конкретной ситуации общения и направлены на достижение определённого коммуникативного результата.

Среди ключевых свойств диалогической речи исследователи выделяют, прежде всего, её ситуативную обусловленность. Это означает, что диалог всегда протекает в рамках конкретной коммуникативной ситуации, которая определяет содержание высказываний, их последовательность и логику развертывания речи. Не менее важной характеристикой является мотивированность: каждое высказывание в диалоге обусловлено определённой целью говорящего, формируемой как внешними обстоятельствами, так и внутренними побуждениями.

Диалогическая речь также обладает выраженной эмоциональностью, поскольку в процессе общения участники не только передают информацию, но и выражают своё отношение к обсуждаемому, свои чувства и оценочные суждения. Важной особенностью является адресованность: любое высказывание в диалоге направлено на конкретного собеседника и предполагает его реакцию, что обеспечивает двусторонний характер коммуникации [19, 158]. С точки зрения структуры диалог можно рассматривать как систему взаимосвязанных единиц. К основным линейным единицам диалога относятся реплика, речевой акт и диалогическое единство. Наименьшей единицей выступает реплика, представляющая собой интонационно завершённое высказывание или его часть. Однако её полноценное значение раскрывается только в связи с другими репликами в рамках речевого акта.

В научной литературе диалог определяется по-разному. Так, по мнению Щербы, диалог представляет собой «цепь реплик» [21, 114], что подчёркивает последовательный характер речевого взаимодействия. Брызгунова рассматривает диалог как смену высказываний двух или нескольких участников общения [9, 74–75]. Винокур, в свою очередь, определяет диалог как регулярный обмен высказываниями-репликами [13, 119–120], акцентируя внимание на его систематичности и структурной организации. Таким образом, диалогическая речь представляет собой сложное многокомпонентное явление, включающее ситуативные, мотивационные, эмоциональные и структурные характеристики, что делает её важнейшим объектом исследования в методике обучения иностранным языкам.

Суть диалогического метода обучения (Dialogic Teaching) заключается в том, что это не просто конкретный набор приемов, а **профессиональный подход и мировоззрение**, требующее переосмысления как техники преподавания, так и отношений в классе. В основе метода лежит **непрерывный диалог между учителем и учениками**, который используется как наиболее эффективный инструмент для преподавания и обучения.

Основные аспекты диалогического метода согласно источникам:

- **Активная роль ученика:** В отличие от традиционных методов, диалогическое обучение позволяет учащимся играть **активную роль в формировании тем классных дискуссий**. Оно направлено на то, чтобы выяснить, что думают ученики, взаимодействовать с их развивающимися идеями и помогать им проговаривать их в ходе инновационной деятельности.
- **Связь мышления и речи:** Метод исходит из принципа, что студенты учатся думать только тогда, когда они участвуют в «живом» диалоге -друг с другом или напрямую с учителем. Как отмечается в источниках, «если ответ не порождает в себе новый вопрос, он выпадает из диалога».
- **Пять ключевых принципов:** Эффективное диалогическое обучение строится на принципах **коллективности, взаимности, поддержки, кумулятивности** (накопления идей) и **целенаправленности**.
- **Репертуар педагогических приемов:** Метод сочетает в себе различные виды речевой деятельности:

1. **Разговор для повседневной жизни:** использование языка для взаимодействия, выражения чувств и обмена информацией.
2. **Учебный разговор:** когда ученики учатся объяснять, анализировать, рассуждать, аргументировать и задавать собственные вопросы.
3. **Обучающий разговор:** использование учителем не только инструкций и тестов, но и дискуссий, а также «скаффолдинга» (поддерживающего диалога) [1, 11-17].

В контексте обучения говорению этот метод помогает преодолеть такие проблемы, как страх совершить ошибку (ингибиция), нехватка словарного запаса и низкая вовлеченность. Вместо простого заучивания грамматики и диалогов наизусть,

учитель создает среду для **значимого общения**, где учащиеся используют иностранный язык для выражения своих мыслей и опыта в различных контекстах.

Практическая реализация метода может включать использование наглядных средств (например, карточек или предметов), предоставление инструкций на примерах реальных диалогов и поощрение студентов к использованию вспомогательных инструментов, таких как цифровые словари, для уточнения произношения [2, 145]

В основе диалогического метода обучения (Dialogic Teaching) лежат **пять ключевых принципов**, которые определяют характер взаимодействия в классе:

1. **Коллективность (Collective):** Учителя и ученики совместно решают учебные задачи в рамках группы или целого класса.
2. **Взаимность (Reciprocal):** Участники процесса слушают друг друга, обмениваются идеями и рассматривают альтернативные точки зрения.
3. **Поддержка (Supportive):** Создается среда, в которой ученики могут высказываться свободно, не опасаясь критики или насмешек за «неправильные» ответы; ученики помогают друг другу достичь общего понимания.
4. **Кумулятивность (Cumulative):** Учителя и дети развивают идеи друг друга, объединяя их в цепочки последовательного мышления и познания.
5. **Целенаправленность (Purposeful):** Учитель планирует и направляет учебный диалог с учетом конкретных образовательных целей.

В источниках также упоминается классификация из пяти пунктов, которую автор называет «принципами», но по содержанию они представляют собой **репертуары (виды) речи** и организации процесса:

- Разговор для повседневной жизни (talk for everyday life).
- Учебный разговор (learning talk).
- Обучающий разговор (teaching talk).
- Организация класса (classroom organization).
- Академический разговор (academic talk).

Эти принципы помогают учителю переосмыслить не только технику преподавания, но и баланс сил в классе, делая процесс обучения более эффективным и вовлекающим. Прежде всего мы хотим ответить на вопрос, что такое диалог и диалогическая речь, каковы их свойства?

Диалогическое обучение нельзя считать новым явлением в педагогике. Его истоки восходят к сократическому методу - способу обучения, при котором преподаватель через последовательность вопросов побуждает студентов углублять понимание темы и критически осмысливать различные идеи. Этот метод получил своё название в честь древнегреческого философа Сократа, который применял его более двух тысяч лет назад.

На протяжении истории педагогики ценность диалога неоднократно переосмысливалась и заново открывалась учёными и практиками образования. Диалог рассматривается как важный инструмент, позволяющий учащимся самостоятельно формировать понимание окружающего мира и активно участвовать в процессе познания.

Древнегреческий философ Диоген под диалогом подразумевал вопросно-ответную беседу [14, 164]. Якубинский охарактеризует диалог как быстрый обмен краткими высказываниями-репликами без предварительного обдумывания [22, 17-58]. Диалог трактуется Бимом «как процесс непосредственного общения, который характеризуется поочередно сменяющими друг друга и порождающими одна другую репликами двух и более лиц» [9, 256]. Диалогическую речь В.А. Бухбиндер объяснил как «форма речи, при которой происходит непосредственный обмен высказываниями между двумя или несколькими лицами» [12, с. 249]. По мнению ученого, основу любого диалога составляет комбинация различных высказываний.

Диалог – это своеобразная форма проявления языковой системы в речи двух собеседников, вовлеченных на решение ситуационной задачи.

Выделяются следующие свойства диалогической речи:

1.Ситуативность: диалог всегда ситуативно обусловлен, то есть протекает в определенной ситуации, которая определяет мотив и логику говорения.

2. Мотивированность: это означает, что участник диалога говорит с определенной целью, определяющейся либо внешними, либо внутренними стимулами.

3. Эмоциональность: диалогическая речь всегда имеет эмоциональную окраску, поскольку говоря-

щий выражает свои чувства, мысли и отношение к тому, что он говорит.

4.Адресованность - диалог всегда обращена к слушателю, адресован к аудитории.

Далее хотим указать на линейные единицы диалога: это реплика, речевой акт и диалогическое единство [15, 116].

Эффективное овладение иностранным языком на начальном этапе обучения невозможно без целенаправленного формирования у учащихся диалогических навыков и умений. В процессе развития диалогической речи происходит расширение словарного запаса обучающихся, а также создаются условия для осознанного контроля и коррекции собственной речевой деятельности каждым учеником.

Однако, освоение диалогической речи на иностранном языке представляет собой сложный и многоаспектный процесс, сопряжённый с рядом специфических трудностей. В отличие от монологической речи, ориентированной преимущественно на индивидуальное высказывание, диалог требует от обучающихся способности действовать в условиях динамичного речевого взаимодействия, предполагающего не только говорение, но и активное восприятие, интерпретацию и со-конструирование смысла. Кроме того, успешное участие в диалоге связано с владением прагматическими аспектами коммуникации, включая нормы вежливости, речевой этикет и уместность высказываний, которые во многом определяются контекстом общения. В связи с этим формирование у обучающихся соответствующих навыков и стратегий, обеспечивающих эффективное диалогическое взаимодействие, приобретает ключевое значение в системе иноязычного образования.

Навыки и умения говорения вообще и в диалогической речи в частности не формируются сами собой. Для их развития требуются специальные упражнения и

задания. В данной статье мы исследуем понятие диалогической иноязычной речи, выделяя ее основные навыки и умения. Кроме того, мы углубляемся в концепцию геймификации в преподавании иностранного языка, объясняя ее методы и эффективность в развитии диалоговой практики и улучшении коммуникативных навыков. Согласно Е. С. Овчинниковой, диалогическая речь представляет собой общение, где участвуют два и более собеседника, обмениваясь репликами в роли говорящего и слушателя [18, 138-140]. А. В. Назарова отмечает: в отличие от монолога, который предполагает одностороннее общение, диалог предполагает активное участие, очередность и обсуждение смысла [17, 182-185].

Диалог в иноязычной речи – это больше чем просто обмен словами, отмечает С. С. Маркова. Он воплощает в себе суть общения, позволяя людям выражать мысли, делиться идеями и общаться с другими людьми, преодолевая языковые и культурные границы [16, 67].

Овладение диалогической иноязычной речью, согласно И. Л. Бим, требует не только владения языком, но и развития необходимых навыков и умений, способствующих эффективному общению [10, 20-22].

В обучении иностранному языку диалогическая речь играет важную роль, занимая до 80% разговорной практики, и она необходима для полноценного общения. Диалогическую речь нельзя заранее спланировать, она порождается спонтанно, так как зависит от ответов собеседника. Как утверждает Гейлит, для успешного диалога студенту необходимо уметь инициировать разговор, реагировать на реплики и расширять их, выражая эмоции [5, 16].

На занятиях по иностранному языку наряду с индивидуальной формой организации учебной деятельности широко применяются также парные и групповые формы работы. Они реализуются через диалогическую и монологическую речь учащихся. Коммуникация при этом осуществляется в различных форматах взаимодействия: «учитель – учащийся», «учитель – учащиеся», «учащийся – учащийся», «учащиеся – учащиеся». Однако подобные формы взаимодействия не всегда обеспечивают возникновение подлинного речевого общения и не в полной мере превращают коммуникацию в средство проявления и развития личности учащегося. В связи с этим особое значение приобретает организация такого взаимодействия, при котором учитель и ученик выступают не только как участники учебного процесса, но и как полноценные речевые партнёры. [19, 567]. Устное общение предполагает участие как минимум двух коммуникантов - говорящего и слушающего, при этом в ходе взаимодействия их роли могут меняться. В методике обучения принято различать две основные формы говорения: монологическую и диалогическую речь.

«Высказывание (как целостная единица разговора) нельзя признать единицей последнего, высшего уровня языковой структуры (выше уровня синтаксиса), поскольку оно является частью принципиально иных отношений (диалогических отношений), несоизмеримых с языковыми отношениями других уровней...» [3, 304–305]. «Диалогические отношения между высказываниями… относятся к области

метаязыкознания. Они отличны от любых других возможных языковых отношений различных элементов как в системе языка, так и в отдельном высказывании» [Там же: 286–287].

Интенциональные модели диалога рассматривают взаимодействие как процесс, направленный на реализацию определённого плана, намерений партнёров и достижение цели. Информационные модели, в свою очередь, трактуют взаимодействие как процесс обмена информацией между участниками диалога. Более конкретные модели диалога выделяют отдельные этапы речевого взаимодействия (начало, сам процесс общения, завершение, оценка, изменение или воздействие, принятие решения) [4, 89–109].

Диалог как форма речи обладает рядом специфических особенностей, таких как:

1. значительное количество этикетных формул, стереотипных выражений и устойчивых фраз;
2. неразвёрнутые реплики (сокращённые высказывания);
3. ситуативная обусловленность;
4. близость к внутренней речи по своим структурным характеристикам и др. [6, 112].

Методы. Суть диалогического метода обучения заключается в организации учебного процесса как непрерывного речевого взаимодействия между учителем и учащимися.

Метод основывается на следующих принципах:

- коллективность;
- взаимность;
- поддержка;
- кумулятивность;
- целенаправленность.

Диалогическое обучение реализуется через различные формы речевой деятельности:

1. разговор для повседневной жизни;
2. учебный разговор;
3. обучающий разговор.

Практическая реализация метода включает:

- использование диалогов как основного учебного материала;
- применение наглядных средств;
- моделирование реальных коммуникативных ситуаций;
- использование вспомогательных инструментов (например, цифровых словарей) [2, 145].

В рамках исследования рассматриваются также модели диалогического взаимодействия:

- интенциональные модели (ориентация на цель);
- информационные модели (обмен информацией);
- этапные модели (начало, развитие, завершение общения) [4, 89–109].

Результаты. В результате анализа установлено, что диалогическая речь:

- является основной формой устного общения;
- занимает значительную часть речевой практики (до 80%);
- способствует развитию словарного запаса;
- формирует навыки самоконтроля и коррекции речи.

Также выявлено, что диалогическая речь обладает следующими особенностями:

1. использование устойчивых выражений и клише;
2. наличие сокращённых реплик;
3. ситуативная обусловленность;
4. близость к внутренней речи [6, 112].

Диалог способствует развитию коммуникативной компетенции, включая:

- умение инициировать разговор;
- реагировать на реплики;
- развивать тему общения;
- выражать эмоции [5, 16].

Дискуссия

Диалогическая речь представляет собой не только форму языкового выражения, но и сложный когнитивно-коммуникативный процесс.

Исследования показывают, что эффективное обучение возможно только при создании условий для подлинного речевого взаимодействия, в котором учащиеся выступают как активные участники коммуникации.

Несмотря на широкое использование парной и групповой работы, не всегда достигается реальное коммуникативное взаимодействие. Это требует пересмотра роли учителя и перехода к модели «равноправного речевого партнёрства» [19, 567].

Диалог в иноязычном обучении рассматривается как средство преодоления языковых и культурных барьеров, а также как инструмент формирования личности обучающегося.

Вывод.

Таким образом, диалогическая речь выступает ключевым компонентом иноязычного образования, обеспечивающим формирование полноценной коммуникативной компетенции. Её специфика заключается в сочетании ситуативных, когнитивных, прагматических и эмоциональных факторов, что делает процесс её освоения сложным, но методически управляемым.

Применение диалогического метода обучения позволяет создать условия для активного речевого взаимодействия, способствует развитию критического мышления и формированию языковой личности обучающихся. В связи с этим использование диалогов как основного учебного инструмента является научно обоснованным и методически целесообразным подходом в обучении иностранным языкам.

Литература:

ArySetya Budhi Ningrum. *Scaffolding Strategy* (In The Process of Writing to Improve The Student Writing Ability). Kementrian Agama Republik Indonesia : Jakarta Pusat. 2012. P.11

1. Bakhtin, M., Speech genres and others late essays, (Austin : University of Texas Press, 1986).
2. Bakhtin, M.M.: Problem of text in linguistics, philology, and other humanities. Phylosophi cal analysis experience. // M. M. Bakhtin. Esthetics of verbal creative activities. M.: Iskusstvo (1979)
3. Cohen, A.D., Scott, K.A.: Synthesis of approaches to Assessing Language Learning Strate gies // Language Learning Strategies around the World. pp. 89-109 (1996)
4. Gajlit, M. V. (2001). Improving teaching dialogical communication to students in order to develop unprepared speech skills (based on the material of the German language)]: avtoref. dis. ... kand. ped. nauk: 13.00.02, Vladimir, 16 p.
5. Mikheeva T. B., Ereshchenko M. V. **Dialogue communicative structures in the process of teaching foreign-language dialogic communication skills** // *Практика преподавания иностранных языков на факультете международных отношений БГУ*: электронный сборник. — 2018. — Вып. 11. — DOI: 10.17223/24109266/11/8.
6. Richards & Schmidt, Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics,
7. Tulasynova, N. Yu., & Artem'ev, I. T. (2017). “Sovershenstvovanie navykov dialogicheskoj rechi studentov na zanya-tiyah anglijskogo yazyka” [Improving students' dialogic speech skills in English classes], *Mezhdunarodnyj nauchno-issledovatel'skij zhurnal*, № 5-2 (59), pp. 72–74.
8. Бим И. Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. Проблемы и перспективы. М.:Просвещение, 1988. 256 с.
9. Бим И. Л. Некоторые проблемы обучения диалогической речи // Иностранные языки в школе. – 1979. – № 5. – С. 20–22.
10. Брызгунова, Е.А. Диалог [Текст] / Е.А. Брызгунова // Русский язык. Энциклопедия. – М.: Советская энцик- лопедия, 1979. – С. 74-75.
11. Бухбиндер В. А., Штраусс В. Основы методики преподавания иностранных языков. Киев: Виша школа, 1986.
12. Винокур Т.Г. Диалог. Русский язык; Энциклопедия / гл. ред. Ю.Н. Караулов. – М.: Большая Российская энциклопедия: Дрофа, 1998. – С. 119-120.
13. Диоген Лаэртский. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов – М.: Мысль, 1986. – С. 150-190.
14. Избаева Н.М., Кадырова Г.С. Диалог как форма проявления языка и речи: свойства и структура // Вестник магистратуры. Философские науки. 2021. № 5–6 (116).
15. Маркова С. С. Обучение иноязычной диалогической речи как основа подготовки к межкультурной комму-никации средствами педагогического процесса.

16. Назарова А. В. К вопросу о понятии иноязычной монологической речи // Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков. – 2016. – № 12. – С. 182–185.

17. Овчинникова Е. С. Обучение иноязычной диалогической речи студентов технического вуза (из опыта преподавания) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2014. – № 1(31). – Ч. 2. – С. 138–140.

18. Пассов, Е.И., Кузовлева, Н.Е. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению / Е. И. Пассов. М.: Русский язык, 1989. – 567 с.

19. Скалкин В. Л. Обучение диалогической речи. Киев: Рад. шк., 1989. 158 с.

20. Щерба, Л.В. Современный русский литературный язык // Избр. работы по русскому языку. – М.: Просвещение, 1957. – С. 113-129.

21. Якубинский Л.П. Избранные работы: Язык и его функционирование. - М., 1986. - С. 17-58

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TA’LIM JARAYONIDA ALTRUISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.161

Vaxabova O‘g‘ilxon Tolibjonovna
Andijon Davlat Pedagogika Instituti dotsenti, PhD
+998930650021

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining o‘rni, imkoniyatlari va xavf-xatarlari tahlil qilinadi. Xususan, adaptiv o‘qitish tizimlari, aqlli repetitorlar, generativ modellar hamda raqamli hamkorlik platformalarining ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, SI asosidagi ta’limning dehumanizatsiya, empatiya pasayishi, algoritmik tarafkashlik kabi salbiy jihatlari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: altruizm, kompetensiya, sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, empatiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируются роль, возможности и потенциальные риски технологий искусственного интеллекта (ИИ) в развитии альтруистических компетенций в образовательном процессе. В частности, рассматривается влияние адаптивных обучающих систем, интеллектуальных репетиторов, генеративных моделей и цифровых платформ сотрудничества на формирование социально-эмоциональных навыков. Также освещаются негативные аспекты ИИ-ориентированного обучения, такие как dehumanизация, снижение уровня эмпатии и алгоритмическая предвзятость.

Ключевые слова: альтруизм, компетенция, искусственный интеллект, образовательные технологии, эмпатия, социально-эмоциональное развитие.\

Abstract:This article analyzes the role, opportunities, and potential risks of artificial intelligence (AI) technologies in developing altruistic competencies within the educational process. In particular, it examines the impact of adaptive learning systems, intelligent tutoring systems, generative models, and digital collaboration platforms on the formation of socio-emotional skills. The study also highlights the negative aspects of AI-based education, including dehumanization, reduced empathy, and algorithmic bias.

Keywords: altruism, competence, artificial intelligence, educational technologies, empathy, socio-emotional development.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim va kasbiy ko‘nikmalarni, balki shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, hamdardlik va altruistik xatti-harakatlarini ham shakllantirishni maqsad

qiladi. Altruistik kompetensiyalar — bu boshqalarga beg‘araz yordam ko‘rsatish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va hamkorlikda ishlash qobiliyatidir.

Raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Xususan, OpenAI tomonidan yaratilgan generativ modellar, jumladan ChatGPT kabi vositalar o‘quv jarayoniga faol kirib kelmoqda. Shu bois, SI texnologiyalarining altruistik kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli ilmiy tahlilni talab etadi.

Altruizm tushunchasi ilk bor Auguste Comte tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u boshqalar manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish g‘oyasini ilgari surgan[1]. Psixologiyada esa altruistik xulq ijtimoiy-emotsional rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Daniel Goleman ta’kidlaganidek, emotsional intellektning muhim tarkibiy qismi empatiya hisoblanadi[2].

Ta’lim jarayonida altruistik kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- empatiya va hamdardlik;
- ijtimoiy mas’uliyat;
- jamoada ishlash ko‘nikmasi;
- axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ijobiy jihatlari:

1. Individual yondashuv va empatiyani rivojlantirish

SI asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlab, ularga mos ta’lim kontentini taklif etadi. Bu esa o‘quvchida o‘zaro hurmat va tushunishni kuchaytirishi mumkin. Masalan, UNESCO hisobotlarida SI texnologiyalari inklyuziv ta’limni rivojlantirish vositasi sifatida e’tirof etilgan[3].

2. Hamkorlik muhiti yaratish

Onlayn platformalar va SI yordamida boshqariladigan loyiha faoliyati o‘quvchilarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Virtual simulyatsiyalar orqali ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish altruistik qarorlar qabul qilish tajribasini oshiradi.

3. Ijtimoiy-emotsional o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash

Ayrim SI tizimlari o‘quvchilarning hissiy holatini tahlil qilish orqali mos pedagogik tavsiyalar beradi. Bu esa empatiya va o‘zaro tushunishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining salbiy jihatlari:

1. Dehumanizatsiya xavfi.Ta’lim jarayonining ortiqcha avtomatlashtirilishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqotni kamaytirishi mumkin. Bu esa altruistik xulqning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dehumanizatsiya - bu insonni o‘zining insoniy fazilatlari (qadr-qimmat, his-tuyg‘u, ongli qaror qabul qilish qobiliyati)dan mahrum holda tasvirlash yoki unga shunday munosabatda bo‘lish jarayonidir. Ya’ni, shaxs “inson” emas, balki vosita, obyekt yoki mexanizm sifatida qabul qilinadi. Psixologiyada dehumanizatsiya boshqalarni kamroq insoniy xususiyatlarga ega deb hisoblash orqali ularga nisbatan empatiya va axloqiy mas’uliyatning pasayishi bilan izohlanadi.

Ta’limda dehumanizatsiya o‘quvchini faqat natija, reyting yoki ko‘rsatkich sifatida ko‘rish bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar haddan tashqari avtomatlashtirilsa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqot kamayadi. Natijada shaxsiy yondashuv va hamdardlik susayishi mumkin.

2. Algoritmik tarafkashlik. SI tizimlari ma’lumotlar asosida ishlaydi. Agar ma’lumotlar bazasida ijtimoiy stereotiplar mavjud bo‘lsa, tizim ham ularni takrorlashi mumkin. Bu esa adolat va tenglik tamoyillariga zid keladi[4].

3. Empatiyaning susayishi. Texnologiyaga ortiqcha tayanish insoniy muloqotni cheklab, o‘quvchilarda real ijtimoiy tajriba yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Natijada altruistik xulq shakllanishi sustlashadi**.**

SI texnologiyalari altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishda ikki tomonlama rol o‘ynaydi. Ular bir tomondan inklyuziv va individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan insoniy muloqotning qisqarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois SI dan foydalanishda pedagogik nazorat va axloqiy me’yorlarga amal qilish muhimdir. BundaSI hech qachon o‘qituvchini to‘liq almashtirmasligi kerak. O‘qituvchi yakuniy pedagogik qaror qabul qiluvchi shaxs bo‘lishi, SI tavsiyalarini tanqidiy tahlil qilishi zarur.

UNESCOning “Artificial Intelligence in Education” tavsiyalarida ham SI inson nazorati ostida qo‘llanishi kerakligi alohida ta’kidlangan. Algoritmik tarafkashlikni kamaytirish zarur: SI tizimlarining ma’lumotlar bazasini muntazam audit qilish,turli ijtimoiy guruhlar uchun teng imkoniyat yaratish, baholash jarayonida shaffof mezonlardan foydalanish.

Pedagogik axloqning muhim jihati — maxfiylikdir.O‘quvchilarning shaxsiy va biometrik ma’lumotlari himoyalangan bo‘lishi, ma’lumotlardan faqat ta’limiy maqsadlarda foydalanish, agar foydalanmoqchi bo’lsa ota-ona va o‘quvchilarning roziligini olish juda muhimdir.Bu jihatlar, ayniqsa, emotsional tahlil qiluvchi SI tizimlarida muhimdir.

SI vositalari jonli muloqotni kamaytiruvchi emas,balki uni boyituvchi vosita bo‘lishi kerak. Buning uchun guruhli muhokamalarni SI orqali tashkil etish, ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish, hamkorlik asosidagi loyiha ishlarini qo‘llab-quvvatlash. Yaxshi samara beradi. Agar SI individual ishlashni haddan tashqari kuchaytirsa, altruistik kompetensiyalar (hamkorlik, hamdardlik) sustlashishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, SI dan foydalanishda asosiy tamoyil — **texnologiya markazida emas, inson markazida ta’lim** konsepsiyasiga kuchli e’tibor qaratish zarur. Pedagogik nazorat, adolat, maxfiylik, empatiya va tanqidiy fikrlashni ta’minlash orqali SI altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Aks holda, u dehumanizatsiya va ijtimoiy ajralishga olib kelish xavfini tug‘diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Comte A. System of Positive Polity. Paris, 1851.

2. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995.

3. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris, 2019.

4. O’Neil C. Weapons of Math Destruction. New York: Crown Publishing, 2016.

5. Nafisa A. Stress va uning ruhiy salomatlikka ta’siri. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 18(2), 107-112.- 2025.

6. Sohobova, O. Ta’lim jarayonida tarbiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 731-732. -2024y.

7.Tolibjonovna O. V. (2025). Yoshlik davri psixologiyasi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 18(1), 388-391.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ENHANCING FORMATIVE ASSESSMENT IN UZBEK PUBLIC SCHOOLS THROUGH PLICKERS: A CLASSROOM-BASED STUDY

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.162

Ismoilov Mirolim Erkin o'g'li
Math teacher,
Presidential school in Jizzakh, Uzbekistan
m.erkinovich1406@gmail.com

Abstract. This study explores the use of Plickers as a formative assessment tool in Uzbek public schools. Formative assessment plays an important role in supporting student learning through continuous feedback, yet its implementation can be challenging in low-resource classrooms. The study was conducted with the **Lower secondary** students **of Jizzakh Presidential** school in Uzbekistan. A classroom-based quasi-experimental design was used to compare the effectiveness of Plickers with traditional assessment methods. The findings indicate that Plickers improves student engagement, enables real-time feedback, and helps teachers quickly identify misconceptions. In addition, the system allows efficient analysis of both individual student performance and question-level responses. The results suggest that Plickers is a practical and effective tool for formative assessment, particularly in contexts where access to digital devices is limited.

Keywords: Formative assessment, Plickers, real-time feedback, student engagement, low-resource classrooms, classroom assessment

Аннотация.Данное исследование посвящено использованию Plickers в качестве инструмента формирующего оценивания в государственных школах Узбекистана. Формирующее оценивание играет важную роль в поддержке обучения учащихся за счёт непрерывной обратной связи, однако его внедрение может быть затруднено в условиях ограниченных ресурсов.

Исследование было проведено с участием учащихся среднего звена Президентской школы города Джизак, Узбекистан. В рамках исследования использовался квазиэкспериментальный дизайн для сравнения эффективности Plickers с традиционными методами оценивания.

Результаты показывают, что использование Plickers повышает вовлечённость учащихся, обеспечивает обратную связь в режиме реального времени и помогает учителям быстро выявлять пробелы в понимании. Кроме того, система позволяет эффективно анализировать как индивидуальные результаты учащихся, так и данные по отдельным заданиям.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что Plickers является практичным и эффективным инструментом формирующего оценивания, особенно в условиях ограниченного доступа к цифровым устройствам.

Ключевые слова:формирующее оценивание, Plickers, обратная связь в реальном времени, вовлечённость учащихся, классы с ограниченными ресурсами, оценивание в классе

Annotatsiya.Ushbu tadqiqot O‘zbekiston davlat maktablarida Plickers vositasidan formativ baholash usuli sifatida foydalanishni o‘rganadi. Formativ baholash o‘quvchilarning o‘rganishini uzluksiz fikr-mulohaza orqali qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi, biroq uni resurslari cheklangan sinflarda joriy etish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Tadqiqot O‘zbekistonning Jizzax shahridagi Prezident maktabining quyi o‘rta sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi.

Tadqiqotda Plickers vositasining samaradorligini an’anaviy baholash usullari bilan solishtirish uchun sinfga asoslangan kvazi-eksperimental dizayn qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Plickers o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, real vaqt rejimida fikr-mulohaza olish imkonini beradi va o‘qituvchilarga o‘quvchilarning tushunmovchiliklarini tez aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, tizim o‘quvchilarning individual natijalari hamda savol darajasidagi javoblarni samarali tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar Plickers vositasi, ayniqsa raqamli qurilmalarga kirish imkoniyati cheklangan sharoitlarda, formativ baholash uchun amaliy va samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:Formativ baholash, Plickers, real vaqtli fikr-mulohaza, o‘quvchi faolligi, resurslari cheklangan sinflar, sinfda baholash

Introduction. Formative assessment plays a key role in improving student learning by providing continuous feedback that supports both teaching and learning processes (Paul Black & Dylan Wiliam, 1998). Unlike summative assessment, it focuses on identifying students’ understanding during instruction and enabling timely instructional adjustments (Dylan Wiliam, 2011).

In the context of Uzbekistan, formative assessment has recently gained increased attention as part of ongoing educational reforms. There is a growing need for practical approaches that allow teachers to provide effective and timely feedback in everyday classroom settings.

One of the key advantages of formative assessment is real-time feedback. Immediate feedback helps teachers quickly identify misconceptions and adapt instruction, while also supporting students in reflecting on their learning (Dylan Wiliam, 2011).

However, implementing digital formative assessment tools can be challenging in public schools where access to individual devices is limited. In such contexts, low-tech solutions become especially valuable.

Plickers is a classroom response system that allows teachers to collect real-time student responses using printed cards and a single mobile device. It enables tracking of individual student performance and provides instant analytics at both student and question levels. This

allows teachers to quickly identify areas of misunderstanding and improve instructional effectiveness.

Based on classroom implementation experience in the Presidential school in Jizzakh, this study aims to examine the effectiveness of Plickers as a formative assessment tool. Specifically, it explores its impact on student engagement, identification of misconceptions, and the efficiency of classroom assessment.

Methods

This study employed a **classroom-based case study design** to examine the effectiveness of Plickers as a formative assessment tool in a real classroom setting. The study was conducted with 60 **Lower secondary** (Grade 5, 6, and 7) **students** in the Presidential school in Jizzakh.

The observation was carried out over a period of **two months** during regular classroom lessons. Plickers was used at different stages of the lesson. In some cases, it was used at the beginning of the lesson as a **quick review activity** to assess prior knowledge. In most cases, it was used as a **main formative assessment activity** to check students' understanding during the lesson. Each student was assigned a unique Plickers card, allowing the teacher to track individual responses. The teacher used a mobile device to scan student answers and collect responses in real time.

Data were collected through the **Plickers platform**, which automatically recorded student responses and generated performance statistics. The data included both individual student results and question-level analysis. In addition, a brief student feedback activity was conducted to gather students' perceptions of using Plickers in the classroom.

The collected data were analyzed using percentage-based analysis to evaluate student performance and identify patterns of understanding and misunderstanding across different questions. Student feedback responses were analyzed qualitatively to identify common themes related to engagement and usability. The results indicated that students found Plickers engaging and enjoyable, and particularly appreciated the immediate visibility of their results.

Results

The findings of the study demonstrate that the use of Plickers provided clear and immediate insights into student understanding during classroom instruction.

Plickers-generated data enabled real-time analysis of both individual student performance and overall class achievement. The system allowed the teacher to quickly identify correct and incorrect responses, as well as patterns of misunderstanding across different questions.

As shown in **Figure 1**, student performance varied across questions, with accuracy levels ranging from 40% to 100%. While some questions were answered correctly by most students, others revealed partial understanding, indicating specific areas that required further explanation. The data also made it possible to monitor individual student performance, allowing the teacher to distinguish between students who demonstrated strong understanding and those who needed additional support.




Figure1: Example of Plickers-generated classroom data showing individual student responses and question-level performance. *Student names are displayed for illustrative purposes only and do not represent identifiable personal data.*

In addition to single-lesson data, Plickers also provided cumulative performance data over a longer period of time. As shown in **Figure 2**, the platform allows tracking of student performance across multiple lessons, presenting monthly summaries of both individual and class-level achievement.

This longitudinal data enabled the teacher to monitor student progress over time and identify consistent patterns in performance. Furthermore, the system supports detailed analysis at the individual level, making it possible to examine each student’s responses across different topics and questions. Such analysis helps to inform more targeted and data-driven instructional decisions.

January — Day | Week | Month | 90-Day | Custom | Student Reports

Name	Total	Inverse a...	Percentage, Decimal and Fractions Tue 20 Jan • 91%															F) Frac
		y is inversely proportional to the square	Write 0.18 as a fraction in it's simplest	Write 7/25 as a percentage	Write 0.003 as a Fraction.	Media Only Question	Compare: (use <, >, <= or >=) 3/5 □ 35%	Find 2/3 of 24.	If 1/3 part of a number is 8, what is this	Calculate: 2.5(18.4-2^1.2)	Jeff had $52.3 in his wallet Monday	Write .24 as a fraction in its simplest form.	Estimate: 60.3÷2.88/4.9	Media Only Question	Calculate: 5.76÷0.8=?	Calculate: 6.905×8	Calculate: 10.01 - 3.9641	What is definition unit fract
Class Average	89%	0%	83%	100%	83%	100%	100%	100%	83%	100%	92%	92%	92%	83%	92%	75%	92%	25%
Guest 1	80%	-	C	D	B	B	D	A	D	D	D	C	A	C	A	D	B	B
Guest 2	100%	-	C	D	B	B	D	A	D	D	B	C	A	C	A	B	D	-
Guest 3	93%	-	A	D	B	B	D	A	D	D	B	C	A	C	A	B	D	-
Guest 4	83%	-	C	D	B	B	D	A	D	D	B	C	A	C	A	B	D	B
Guest 5	80%	-	B	D	D	B	D	A	D	D	B	A	A	C	D	B	D	B
Guest 6	100%	-	C	D	B	B	D	A	D	D	B	C	A	C	A	B	D	-
Guest 11	87%	-	C	D	B	B	D	A	D	D	B	C	D	C	A	A	D	-
Guest 12	94%	B	C	D	D	B	D	A	D	D	B	C	A	C	A	B	D	A
Guest 30	87%	-	C	D	B	B	D	A	C	D	B	C	A	A	A	B	D	-
Guest 32	97%	-	C	D	B	B	D	A	D	D	B	C	A	C	A	D	D	-
Guest 34	90%	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	D
Guest 35	90%	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	A
Guest 37	89%	-	C	D	B	B	D	A	D	D	B	C	A	C	A	B	D	B
Guest 40	88%	-	C	D	B	B	D	A	A	D	B	C	A	D	A	B	D	B

Figure 2: Monthly Plickers data showing anonymized student performance and question-level analysis across multiple lessons.

Additionally, the use of Plickers increased student participation during lessons. All students actively responded to questions using their assigned cards, and classroom observations indicated a high level of engagement throughout the activities.

Student feedback further supported these findings. Students reported that they found Plickers enjoyable and engaging, and they particularly valued the immediate visibility of their results after each activity.

Discussion

The findings of this study indicate that Plickers is an effective tool for supporting formative assessment in classroom settings. The ability to collect and analyze student responses in real time enabled the immediate identification of misconceptions and allowed for more responsive teaching. This reflects the key principles of formative assessment, where timely feedback plays a central role in improving learning (Dylan Wiliam, 2011).

One of the main strengths observed was the provision of real-time feedback. The teacher was able to quickly adjust instruction based on students' responses, which supports previous research highlighting the importance of feedback in enhancing student achievement (John Hattie, 2009).

The results also demonstrate that Plickers increases student engagement. Students actively participated in classroom activities and reported positive experiences, particularly appreciating the immediate visibility of their results. This is consistent with research suggesting that interactive technologies can improve student motivation and participation (Robert J. Marzano, 2007).

In addition, Plickers proved to be a practical solution in low-resource educational contexts. Its ability to function without requiring individual student devices makes it suitable for public schools. The system also supports both individual and cumulative performance analysis, enabling more data-driven and targeted instruction.

However, the study has some limitations. It was conducted with a relatively small sample size in a single classroom over a limited period of time. Future research could investigate the use of Plickers across different subjects, larger groups of students, and longer durations.

Conclusion

This study explored the use of Plickers as a formative assessment tool in a lower secondary classroom in Uzbekistan. The findings show that Plickers supports effective formative assessment by enabling real-time feedback, improving student engagement, and facilitating quick identification of misconceptions.

The results also highlight the practical value of Plickers in low-resource educational contexts, as it allows teachers to collect and analyze data without requiring individual student devices. In addition, the ability to monitor both individual and cumulative student performance supports more informed and targeted instruction.

Overall, Plickers can be considered a useful and accessible tool for enhancing formative assessment practices in public schools. Its implementation has the potential to improve both teaching effectiveness and student learning outcomes.

References

1. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74.

2. Wiliam, D. (2011). *Embedded formative assessment*. Solution Tree Press.

3. Hattie, J. (2009). *Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. Routledge.

4. Marzano, R. J. (2007). *The art and science of teaching: A comprehensive framework for effective instruction*. ASCD.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

2006-2025-YILLARDA ZOOLOGIYAGA OID O‘QUV QO‘LLANMALAR

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.163

ORCID: 0009-0000-2476-9410
Usmonova Gulshodaxon Ikromjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktaranti
usmonovagulshodaxon@gmail.com Tel.97 966-22-05

Annotatsiya. Mazkur maqola Oliy ta’lim muassasalarining biologiya yo‘nalishi talabalariga zoologiya fanining dars shakllari amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun 2006-2025-yillar oralig‘ida yaratilgan 19 ta o‘quv qo‘llanmalarni tahlil qilishda asosan o‘quv qo‘llanmada berilgan metodik yo‘nalish va topshiriqlar tizimi ko‘rib chiqildi, tahlil asosida o‘quv qo‘llanmalar yaratilib uning afzalliklari metodik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘quv qo‘llanma, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti, topshiriqlar, kerakli jihozlar, maqsad, test, nazorat savollar.

Аннотация. В данной статье анализируются 19 учебников, созданных в период с 2006 по 2025 год, с целью эффективной организации практических и лабораторных занятий по зоологии для студентов биологических специальностей высших учебных заведений. В основном рассматривались методические указания и система заданий, представленные в учебниках. На основе анализа были разработаны учебники и методически проанализированы их преимущества.

Ключевые слова: учебник, практическое занятие, лабораторное занятие, задания, необходимое оборудование, цель, контрольная работа, контрольные вопросы.

Abstract. This article analyzes 19 textbooks developed between 2006 and 2025 to effectively organize practical and laboratory classes in zoology for students majoring in biology at higher education institutions. The focus was on the methodological guidelines and assignment systems presented in the textbooks. Based on this analysis, the textbooks were developed, and their advantages were methodologically analyzed.

Keywords: textbook, practical lesson, laboratory lesson, assignments, necessary equipment, goal, test, test questions.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish, oliy ta’lim muassasalarini ilg‘or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darslik, o‘quv qo‘llanmalari hamda

davriy nashrlar bilan tizimli ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi[57]: Ushbu qarorining 4-ilovasiga ko‘ra

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yaratishga qo‘yilgan talablarning “O‘quv adabiyotlarining shakli va turlari” bobida o‘quv qo‘llanmaga shunday ta’rif berilgan.

o‘quv qo‘llanma — darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining mukammal o‘zlashtirilishini ta’minlovchi, mazmunan va shaklan ta’lim turlariga (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, nazariy yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan, o‘quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o‘quv nashridir;

Bundan tashqari ushbu qarorning 3-bob. “O‘quv adabiyotlarini yaratishga qo‘yiladigan umumiy talablar” va 4-bob. “O‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan talablar va uning funksiyalari” boblarida o‘quv qo‘llanmaga qo‘yilgan talablar to‘liq yoritilgan.

MATERIAL VA METODIKA:

Yurtimizda yaratilgan zoologiya fanining amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish uchun yuqoridagi talablar asosida yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarni ko‘rib chiqamiz. O‘quv qo‘llanmalarni tahlil qilishda internetda ochiq holatda bo‘lgan o‘quv qo‘llanmalar hamda O‘zbekiston Milliy Pedagogika universiteti va Qo‘qon Davlat universitetining Axborot resurs markazida mavjud adabiyotlardan foydalanilgan. o‘quv qo‘llanmalar tahlil qilishda asosan o‘quv qo‘llanmada berilgan metodik yo‘nalish va topshiriqlar tizimi ko‘rib chiqildi. Quyida to‘plangan 19 ta zoologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘quv qo‘llanmalari va ustozlarim X.X.Abdinazarov va M.J.Madumarovlar bilan hammualiflikda tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarimizni tahlili jadval ko‘rinishida beriladi.

Zoologiyadan o‘quv qo‘llanmalar tahlili (2006-2025)

1-jadval:

№	Muallif, yil	Nomi	Metodik yo‘nalish	Topshiriqlar tizimi
1	S.Dadayev, S.To‘ychiyev, P.Haydarov 2006	Umurtqalilar zoologiyasi: Laboratoriya mashg‘ulotlari.	Mavzu-maqsad-kerakli jihozlar-nazariy qism-laboratoriya mashg‘uloti.	laboratoriya mashg‘ulotining ish bajarish tartibi ko‘rinishida berilgan
2	M.Xalimova, H.AbdinazarovK.Obloberdieva. 2009.	Zoologiya (Umurtqasizlar zoologiyasi)	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot-savollar.	Bajarilgan ish yuzasidan savollar berilgan
3	A.S Daminov, B.S. Salimov. 2014.	Zoologiya fanidan amaliy mashg’ulotlar	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot-	Nazorat savollari berilgan.

[57] Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-sonli “Oliy ta’lim muassasalarini o’quv adabiyotlari bilan ta’minlash to’g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/ru/docs/-3970451?ONDATE2=29.12.2019&action=compare

			nazorat savollar.	
4	U.B Baxodirova, M.N Ataqulova 2016.	Zoologiya (umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi) fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism-laboratoriya mashg‘uloti-savollarga javob yozish.	Topshiriqlar savollarga javob yozish.
5	S.Dadayev, Q.Saparov. 2018	Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘ulotlari	Mavzu-maqsad-kerakli jihozlar-nazariy qism - laboratoriya mashg‘uloti.	Topshiriqlar ish bajarish tartibida berilgan alohida topshiriqlar qismi mavjud emas.
6	A. Sh Xurramov. 2018.	Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg’ulotlari	Mavzu-maqsad-kerakli jihozlar-nazariy qism - laboratoriya mashg‘uloti-test topshiriqlari	Topshiriqlar test topshiriqlari holida berilgan.
7	Sh.R. Toshmatova. 2019	Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘ulotlari.	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -laboratoriya mashg‘ulot-savol va topshiriqlar yozma to‘g‘ridan – to‘g‘ri bajariladi qo‘llanmada ko‘p tanlovli test topshiriqlar	Savol va topshiriqlar yozma to‘g‘ridan – to‘g‘ri bajariladi qo‘llanmada ko‘p tanlovli test topshiriqlar berilgan bo‘lib O.Movlonov texnologiyasi yordamida baholanadi
8	B.A.Mo‘minov, X.S.Eshova, M.Sh.Rahimov. 2019.	Zoologiya (1-qism. Umurtqasizlar zoologiyasidan amaliy mashg‘ulotlar)	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot	Alohida topshiriqlar qismi mavjud emas ish bajarish tartibidagi ishlar bajarilishi nazarda tutilgan.
9	B.Muminov, X.Eshova, M.Raximov. 2020.	Zoologiya (1-qism umurtqasizlar zoologiyasidan amaliy mashg‘ulotlar)	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot-nazorat savollar.	Topshiriqlar nazorat savollaridan foydalanilgan
10	L.A. Raxmanova, S.A.Sadikova. 2020	Zoologiya (2-qism umurtqalilar zoologiyasidan amaliy mashgulotlar)	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot	Topshiriqlar berilmagan
11	X.X. Abdinazarov. 2021	Zoologiya (1-qism umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg’ulotlari)	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -laboratoriya mashg‘uloti-topshiriqlar.	Topshiriqlar nomsiz rasmlarni nomlash.
12	Z.X. Xamroqulova. 2022.	Umurtqalilar zoologiyasidan laboratoriya	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -laboratoriya	Topshiriqlar nomsiz rasmlardagi raqamlarni to‘g‘ri nomlang

		mashg‘ulotlari	mashg‘uloti-topshiriqlar.	hayvonlarning rasmini chizing va nomlang, savollarga javob yozing.
13	A.K.Xusanov. 2022	Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot-topshiriqlar.	nomsiz rasm qismlarini nomlash , test topshiriqlari , nazorat uchun savollar.
14	M.J. Madumarov. 2023.	Zoologiya (Umurtqalilar zoologiyasi).	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -laboratoriya mashg‘uloti-topshiriqlar.	Topshiriqlar nomsiz rasmlarni nomlash savollarga javob yozish.
15	X. Abdinazarov, M.Xalimova. 2023	Zoologiya (Umurtqalilar zoologiyasi fanidan labaratoriya mashg’ulotlari)	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -laboratoriya mashg‘uloti-topshiriqlar.	Topshiriqlar nomsiz rasmlarni nomlash savollarga javob yozish mustaqil talim uchun qo‘shimcha topshiriqlar mavzuga mos internet manbalari
16	O.M.Mavlonov, N.J.Toshmanov, L.Sh.Sanayeva. 2023.	Zoologiya. (Umurtqasiz hayvonlar)	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -laboratoriya mashg‘uloti-topshiriqlar.	Ko‘p tanlov javobli test topshiriqlari yordamida mustaqil bilim olish va bilimni matematik formula yordamida o‘z-o‘zini baholash orqali nazorat qilish pedagogik tehnologiyasi asosida yozilgan.
17	N.Z. Rajamuradova 2023.	Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘uloti-test-nazorat savollari-uyga vazifa.	test savollaridan va nazariy savollardan foydalangan. Uyga vazifa qismida mavzu yuzasidan referat yozish berilgan
18	A.R.Rayimov, R.R. Raxmonov, S.F Salimova. 2024.	Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘ulotlari	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -laboratoriya mashg‘uloti-topshiriqlar.	Topshiriqlar qismida jadvalli topshiriqlarni juftlab yozishdan foydalanilgan
19	A.E.Hayitov. 2025.	Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar.	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot-topshiriqlar.	rasmlarni albomingizga chizing va nomlang, jadval asosida hayvonlar xususiyatlarini yozish, savollarga javob berish.
20	M.J. Madumarov, G.I.Usmonova 2026	Zoologiya (fanidan amaliy mashg‘ulotlar	Mavzu-maqsad-jihozlar- nazariy qism -amaliy mashg‘ulot-amaliy topshiriqlar va ularning havolalari-uyga vazifa.	Rasm chizish, topshiriqlar, jadvalli, taqqoslashga doir topshiriqlar, hayvon rasmlarini qismlarini nomlash va ularning (LearningApps) havolalari

				berilgan.
21	X.X. Abdinazarov, G.I.Usmonova 2026	Zoologiya (fanidan laboratoriya mashg‘ulotlar	Mavzu-maqsad-jihozlar-nazariy qism-laboratoriya mashg‘ulot-amaliy topshiriqlar va ularning havolalari-uyga vazifa	Rasm chizish, topshiriqlar, jadvalli, taqqoslashga doir topshiriqlar, hayvon rasmlarini qismlarini nomlash va ularning (LearningApps) havolalari berilgan.

NATIJALAR:

Tadqiqot davomida zoologiya fanidan mavjud yurtimizda 2006-2025 yillar oralig‘ida nashrdan chiqqan 19 ta laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv qo‘llanmalar metodik jihatdan tahlil qilindi. Ularning metodik yo‘nalishi va topshiriqlar tizimi solishtirib o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra 2006-2020 yillar oralig‘ida yaratilgan qo‘llanmalar asosan klassik laboratoriya ishlari, kuzatish va morfologik tahlilga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularda topshiriqlar mustaqil bo‘lim sifatida berilmagan, jarayon ko‘proq amaliy ish tartibi va nazorat savollariga tayanadi. A. Sh Xurramov (2018) va Sh.R.Toshmatova(2019)lar tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarda test topshiriqlaridan foydalanilgan. 2021-2025-yillarda yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarda topshiriqlar ancha murakkablashgan bo‘lib, rasm chizish, nomsiz rasm qismlarini nomlash, test topshiriqlari, nazorat uchun savollar bazilarida jadvalli topshiriqlar berilgan. Bulardan X. Abdinazarov, M.Xalimova(2023)lar tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmaning topshiriqlar qismida nomsiz rasmlarni nomlash, savollarga javob yozish, mustaqil talim uchun qo‘shimcha topshiriqlar mavzuga mos internet manbalari berib borilgan bo‘lib yuqoridagilardan ancha interaktiv tuzilgan. N.Z.Rajamuradova (2023) esa topshiriqlarni klassik usulda berishiga qaramay, uyga vazifa qismida mavzu yuzasidan referat yozish berilgan.

Yuqoridagi o‘quv qo‘llanmalarning tahlilidan kelib chiqqan holda ustozlarimiz bilan birgalikda hammualliflik asosida yaratilgan “Zoologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlar” va “Zoologiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari” nomli o’quv qo‘llanmalar yaratildi. Taqdim etilgan yangi qo‘llanmalar laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning nazariy va amaliy qismlarini integratsiyalashga, amaliy topshiriqlarning izchil ketma-ketlikda berilishiga va talabalarda tahlil, solishtirish kabi kognitiv faoliyat elementlarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek topshiriqlar qismida raqamli resurslardanva turli loyiha ishlaridan foydalanish o‘quv jarayonining interaktivligini oshiradi. Ushbu xususiyatlar laboratoriya mashg‘ulotlarini amaliyotga yaqinlashtirish va talabalarning faol ishtirokini ta’minlashga muhim omil bo‘ladi. Uyga vazifa qismiga ham alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib talabalarning mustaqil ta’lim olishlari uchun vazifalar berilgan har bir mashg‘ulot izchiligiga mos ravishda referat va tezislar tuzish belgilangan. Ta’kidlash joizki, mazkur o‘quv qo‘llanma ham to‘liq mukammal emas va tabiiy ravishda ayrim cheklovlarga ega. Kelgusida ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib boruvchi mutaxasislar mavjud kamchiliklarni takrorlamasdan, ularni hisobga olib, yanada takomillashtirilgan va metodik asoslangan qo‘llanmalar yaratishlarini kutib qolamiz.

XULOSA:

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mavjud zoologiya o‘quv qo‘llanmalari mazmun jihatidan boy bo‘lsada, topshiriqlar tizimi va kognitiv faoliyatni rivojlantiruvchi metodik yondashuvlar bo‘yicha farqlanish mavjud. 2006-2020-yillardagi qo‘llanmalarda mashg‘ulotlar ko‘proq kuzatish va nazorat savollarga asoslangan bo‘lsa, 2020-2025-yillardaa yaratilgan qo‘llanmalarda amaliy topshiriqlar, nazariy ma’lumot va laboratoriya jarayononing o‘zoro uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi.

Biz taqdim etayotgan o ‘quv qo ‘llanmalar talabalaarning faolligini oshirish, amaliy ko‘nikmalani shakllantirish hamda zoologik obyektlarni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda samaraliroq metodik yechimlarni taklif etadi. Tahlil jarayonida aniqlangan xususiyatlar zoologiya fanini o‘qitishda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ba’zi o‘quv qo‘llanmalarni yig‘ishda yaqindan yordam bergan O‘zMPU ARM hodimi Isroilova Muqaddasxonga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-sonli “Oliy ta’lim muassasalarini o’quv adabiyotlari bilan ta’minlash to’g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/ru/docs/-3970451?ONDATE2=29.12.2019&action=compare

2. S.Dadayev, S.To‘ychiyev, P.Haydarov Umurtqalilar zoologiyasi: Laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘zb faylasuflar milliy jamiyati, Toshkent – 2006. 224 b.

3. M.Xalimova, H.Abdinazarov, K.Obloberdieva. Zoologiya (Umurtqasizlar zoologiyasi) “Fan va texnologiyalar” Toshkent.-2009. 60 b.

4. A.S Daminov, B.S. Salimov Zoologiya fanidan amaliy mashg’ulotlar Samarqand-2014 149 b.

5. U.B Baxodirova, M.N Ataqulova Zoologiya **(**umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi) fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari (uslubiy qo‘llanma) Navoiy. 2016 112 b,

6. S.Dadayev, Q.Saparov Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma “Navro‘z”. T.- 2018 221-b

7. A. Sh Xurramov Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg’ulotlari o‘quv qo‘llanma “Surxon-Nashr” 2018.

8. Sh.R.Toshmatova Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent – 2019. 136 b.

9. B.A.Mo‘minov, X.S.Eshova, M.Sh.Rahimov.Zoologiya (1-qism. Umurtqasizlar zoologiyasidan amaliy mashg‘ulotlar).-T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 176 b .

10. B.Muminov, X.Eshova, M.Raximov Zoologiya (1-1ism umurtqasizlar zoologiyasidan amaliy mashg‘ulotlar) o‘quv qo‘llanma Toshkent “GO TO PRINT” 2020 178 b

11. L.A.Raxmanova, S.A.Sadikova Zoologiya (2 qism umurtqalilar zoologiyasidan amaliy mashgulotlar) Toshkent «Go To Print» 2020 158 b

12. X.X.Abdinazarov Zoologiya (1-qism umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg’ulotlari). o’quv qo’llanma. Farg’ona. Farg’ona nashriyoti. 2021. 168 b

13. Z.X.Xamroqulova Umurtqalilar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘ulotlari Toshkent-2022

14. A.K.Xusanov. Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar: o‘quv qo‘llanma Matn Andijon – 2022. «Hayot nashri -2020» nashriyoti 188 bet.

15. M.J.Madumarov. Zoologiya (Umurtqalilar zoologiyasi). uchun o’quv qo’llanma. Toshkent. Ilm va Fan. 2023. 88 b

16. X. Abdinazarov, M.Xalimova Zoologiya (Umurtqalilar zoologiyasi fanidan labaratoriya mashg’ulotlari) O‘quv qo‘llanma Toshkent – 2023,

17. O.M.Mavlonov, N.J.Toshmanov, L.Sh.Sanayeva Zoologiya. (Umurtqasiz hayvonlar). O‘zb Res oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.: “Voris – nashriyoti”, 2023.- 192 b.

18. N.Z.Rajamuradova. Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar. Uslubiy qo‘llanma. “Samarqand davlat chet tillar institute” nashriyoti Samarqand—2023 63-b

19. A.R.Rayimov, R.R.Raxmonov, S.F Salimova. Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘ulotlari “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2024 185 b

20. A.E.Hayitov Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma “Kitob nashr” Termiz-2025. 120 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

PEDAGOGIK METODIKALAR – ABU ALI IBN SINO TA’LIMOTLARI ASOSIDA O‘QITISHNING NAZARIY TAHLILLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.164

S.X. Tojiboeva[1], M.M.Murtozayeva[2]
Qo’qon Davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi[1]
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti p.f.d (DSc), professori[2]

Annotatsiya. Mazkur maqola mutafakkir Abu Ali ibn Sino tomonida yaratilgan ta’limotlar va g‘oyalaridan biologiya darslarida foydalanish va pedagogik muhit, ta`lim vositalarini aniqlashtirish, tahlil qilish, samarali mexanizmlarni joriy etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish haqida bayon etilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani darsliklari mazmunida Abu Ali ibn Sino ta’limotlarining singdirilishi bo‘yicha tadqiqotlar tahlili va uning natijalari qayd etilgan. Shuningdek, fanlarni o‘qitish metodikasiga oid muammolar va ushbu muammo yuzasidan qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari, uning mazmuni hamda mohiyati yoritilgan.

Kalit so`zlar: biologiya, darslar, mutafakkir Abu Ali ibn Sino, ta’limotlar, g‘oyalar, pedagogik muhit, vositalar, tahlillar, o‘qitish metodikasi.

Abstract. This article presents ideas on the use of the teachings and ideas of the thinker Abu Ali ibn Sina in biology lessons, clarification of the tools of the pedagogical environment, introduction of effective mechanisms of analysis and improvement of teaching methods. Research and analysis of the assimilation of the teachings of Abu Ali ibn Sina in the content of biology textbooks of general secondary schools, their results are noted. Also, problems related to the methodology of teaching subjects and analyses of research work conducted by a number of scientists on this problem, the content and essence of the methodology of teaching subjects are highlighted.

Keywords: biology, lessons, thinker Abu Ali ibn Sina, teachings, ideas, pedagogical environment, tools, analysis, teaching methods.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование учений и идей мыслителя Абу Али ибн Сины на уроках биологии, а также уточняются инструменты педагогической среды, внедряются эффективные механизмы анализа и совершенствуются методы обучения. Выделены результаты аналитической работы по включению учений Абу Али ибн Сины в содержание учебников биологии для средних школ. Отмечена методология научно обоснованного обучения и проведен анализ исследований ряда ученых по данной теме. Кроме того, обсуждаются вопросы,

касающиеся содержания и сущности методологии научно обоснованного обучения, и высказываются мнения по этому поводу.

Ключевые слова: биология, уроки, мыслитель Абу Али ибн Сина, учения, идеи, педагогическая среда, инструменты, анализ, методы обучения.

Kirish. Dunyoda axborot oqimi keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Ularni ilmiy, nazariy-amaliy tahlil etish, ma’lumotlarni qayta ishlash, umumlashtirish, tezkor sur’atlarda qabul qilish, xulosalash va o‘quvchilarga yetkazib berish yo‘llarini aniqlash kabilar pedagogika sohasining vazifalari sanaladi. Hozirda ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirish va ilg‘or xalqro tajribalarni tadbiq qilish bilan bog‘liq masalalar dolzarb hisoblanmoqda. Maktab o‘quvchilarining biologiyaga oid bilimlarini rivojlantirish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Biologiya darslarida mutafakkir Abu Ali ibn Sino tomonida yaratilgan ta’limotlar, g‘oyalardan foydalanish va pedagogik muhitni, uning vositalarini aniqlashtirish, tahlil qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Tadqiqotlar tahliliga ko`ra, fanlarni o‘qitish metodikasiga oid muammolar turli fanlar doirasida ilmiy-tadqiqot muammosi ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu muammo yuzasidan qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida fanlarni o‘qitish metodikasining mazmun va mohiyati izohlangan. Xususan, pedagog olimlardan M.X.To‘xtaxo‘jayeva, S.Ashirboyev, J.Hasanboyev, S.Nishonova, S.Madiyarova, A.Qoldibekova, M.Usmonboyeva hamda N.Nishonovalarning fikriga ko‘ra, ta’lim metodikasi – bu xususiy didaktika yoki ta’limning xususiy nazariyasini o‘zida namoyon etadigan pedagogika fanining tarmog‘i va uning vazifalari o‘quv fani yuzasidan ta’lim berish hodisasini o‘rganish jarayonida ularning orasidagi qonuniy aloqalarni ochishdan, anglangan qonuniyatlar asosida pedagogning ta’lim faoliyatiga va tarbiyalanuvchining anglash, biluvchanlik faoliyatiga talablar me’yorini o‘rnatishdan iboratdir. Metodika (fan sifatida) – bu xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishdir [3].

Adabiyotlar sharxi. O‘zbekistonda O‘rta Osiyo allomalarining ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlari, qator asarlari atoqli sharqshunos olimlar tomonidan, jumladan, A.Irisov, U.Karimovlar tarjima qilingan bo‘lib, jumladan, Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining asosiy tadqiqotchisi va tarjimoni sifatida tanilgan akademik U.I.Karimovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Tahlillar davomida olim tomonidan Ibn Sino “Tib qonunlari” asarining o‘zbek va rus tillaridagi to‘liq nashrini tayyorlaganini va tarjima qilishda qatnashganligi to‘g‘risidagi qator manbalar mavjud. Sharqshunos olim A.Irisov manbalarda qayd etishicha, Ibn Sino “O‘z shaxsiga e’tiborli kishigina o‘zini axloqiy fazilatlar bilan bezantirishi mumkin. Axloqsizlik nafaqat oila va jamiyatga, balki o‘ziga e’tiborsizlik, o‘zini hurmat qilmaslikdir. Fazilatlarga esa ularga ega bo‘lish yo‘lini bilish orqali erishiladi” [4]. Ibn Sinoning yozishicha, axloq falsafaning amaliy qismiga oid bo‘lgani bilan u o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi, balki aqlning boshqaruviga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa fani taraqqiyotiga yirik hissa qo‘shgan zabardast olimlardan M.Xayrullayev, J.Tulenovlar Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosini tadqiq etgan va yuksak madaniy merosning qonuniy vorislari ekanligimizni keng ilmiy jamoatchilik oldida atroflicha acoclab bergan. Jumladan, M.Xayrullayevning ta’kidlashicha, Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida inson va borliqni ayri-ayri holda emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘liqligini hisobga olgan holda tadqiq etish, shaxsning aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o‘rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, axloqshunoslik ham falsafaning bir qismi bo‘lib, barcha davr mutafakkirlari kabi Ibn Sino ham bu borada samarali ijod qilganligi to‘g‘risida ham qayd etadi [6].

O‘rta Osiyo allomalarining hayoti, faoliyati, ilmiy bilimlarning turli sohalari bo‘yicha ilgari surilgan farazlari, ularning ilmiy echimlari, ma’naviy-ma’rifiy merosning insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni va roli, tarixiy taraqqiyotga ko‘rsatgan ta’siri, bugungi kundagi ahamiyati kabi masalalar pedagog olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, E.O.Turdiqulov, H.Homidov va M.M.Aliqulovalarning tadqiqotlarida O‘rta Osiyo allomalarining ma’naviy-ma’rifiy qarashlari, xususan, mavjud olamning insoniyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi ahamiyati, insonning borliq va tabiatga, shuningdek, atrof-muhitga munosabati, muhim geografik obyektlar, ularning xususiyatlari, borliqdagi unsurlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, tabiiy hodisalar, ular yashab o‘tgan davrlardagi holati va boshqa masalalar aks ettirilgan.

So`ngi yillarda ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitish metodikalarini takomillashtirish doirasida bir guruh tadqiqotchi-olimlar izlanishlar olib borgan. Chunonchi, biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan olimlardan G.S.Ergasheva, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanishning metodik xususiyatlarini o‘rgangan L.M.Qaraxonova va Sh.B.Asanovalarning tadqiqotlarida biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni shakllantirish integrativ yondashuv, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish kabi metodikalarni takomillashtirishga e’tibor qaratadi.

Tadqiqot ishining o‘ziga xos jihati umumiy o‘rta ta’lim maktablari 10-11-sinf o‘quvchilariga biologiyaga oid bilimlarni berishda O‘rta Osiyo allomasi Abu Ali ibn Sino merosidan, uning ta’limotlaridan foydalanishning pedagogik metodikalarini aniqlashdan iboratligidir. Xususan, “metodika” tushunchasini ham izohlash zarur. Metodika – ma’lum bir ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan metod va usullar yig‘indisidir. Bir qator izohli lug‘atlarda, “Metodika (yun. methodike) – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi” - deb, ifodalangan [3].

Rossiyalik pedagog olimlardan A.M.Stolyarenkoning fikricha, o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi metodika ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir. G.M.Kodjaspirova va A.Yu.Kodjaspirovlar metodikani quyidagicha izohlagan: O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir.

Yuqorida bildirilgan fikrlar, bizgacha olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida metodika tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi. “Metodika – o‘quv fanini o‘qitish metodikasini oqilona tashkil etish, ta’lim va tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay bilish, ta’lim texnolgiyalarini samarali qo‘llash demakdir” [5].


Asosiy qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani darsliklari mazmunida Abu Ali ibn Sino ta’limotlarining singdirilishi bo‘yicha tahlil ishlari natijasda quyidagi mavjud holat aniqlandi:

11-sinf Biologiya fani darsligi (Mualliflar: A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaralieva, I.Abduraxmonova. – Toshkent: «SHARQ», 2018. – 240 b.) [2]. 2-§. Ekologiyaning rivojlanishi, bo‘limlari va metodlari – darslikning 9 betida: Ibn Sino asarlarida Erning tuzilishi, dorivor o‘simliklar, hayvonlarning yashash joylari haqida ma’lumotlar berilgan.

10-sinf Biologiya fani darsligi (Tuzuvchilar: K.Saparov, I.Azimov, M.Umaraliyeva, U.Raxmatov, Z.Tillayeva, I.Abduraxmanova, E.Ochilov, S.Haytbayeva, L.Uralova. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 200 b.) [1]. Darslik mazmunida Abu Ali ibn Sino ta’limotlari mavjud emas.

Biologiya darsliklari mazmunini Abu Ali ibn Sino ta’limotlaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv fan darsliklariing tahlili natijasida qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining bilogiya fani darslarida o‘quvchilarga Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida integratsiyalashgan ta’lim-tarbiyaning amalga oshirilishi ularning shaxs va sub’ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o‘sishiga zamin yaratadi.

Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida biologiya fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish tadqiqotida maqsadning qo‘yilishi, jarayonning tashkil etilishi va natijaning aniqlanishi ishlab chiqilgan model asosiy negiz va omillarni o‘zida birlashtirgan (1-rasm).



1-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanlarini Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli

Ushbu model – ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muammoning o‘rganilishi, umumiy dolzarb maqsadga yo‘naltirilgan xolda bosqichma-bosqich ta’lim natijalariga erishish va yaxlit bir butun holatda pedagogik jarayondagi faoliyatni yuritish, nazorat qilish imkoniyatidan foydalangan holda yaxlit maqsadli natijaga erishishdan iborat. Model asosida ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyat samaradorligini oshirish, Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida biologiya fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik tuzilmalari ishlab chiqildi [5].

Biologiya fanlarini mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida o‘qitish va o‘quv jarayonida keng doiradagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini O‘rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida nazariy jihatdan boyitishning pedagogik shart-sharoitlari o‘rganib chiqilgan.

O‘quvchilarni biologiya darslari jarayonida qadriyatlarni, an’anlarni, tariximizni, buyuk ma’naviy va moddiy, madaniy merosimizni asrashda konservativ, biroq jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosidan, ta’limotidan foydalanib o‘qitish samarali va amaliy natija kasb etishi borasida ilmiy fikrlar bayon etilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani darslari mazmunini takomillashtirishda muntazam sur’atda Abu Ali ibn Sino asarlariga murojaat etish mutafakkir ta’limotining ta’lim, mazkur fan taraqqiyotida beqiyos amaliy ahamiyatga ega. Milliy ma’naviyatimiz, ta’limiy qadriyatlarimiz asosida o‘quvchi-yoshlar bilimlarini rivojlantirishlarida, to‘g‘ri va to‘laqonli ta’lim olishlarini ta’minlashda ta’lim va tarbiya tizimi, jamoat tashkilotlarining roli muhimdir.

Xulosa. Mamlakatimizda yosh avlod kamoloti uchun yaratilgan barcha imkoniyatlarni va yaratilgan ta’lim vositalarini yetkazish lozim. Xususan, ular:

Birinchidan: biologiya darslari mavzular bo‘yicha mutafakkirning tabiat va inson salomatligiga oid qarashlarini o‘quvchilarga yetkazib berishda integratsion (gumanitar fanlar, geografiya, biologiya) ta’lim asosida yondashish ijobiy natijalarni beradi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarga biologiyaga doir bilimlarni berish jarayonida, mamlakatimizda yangi rivojlanish bosqichida tabiatni asrash, flora va faunani saqlash va uning inson salomatligi uchun ahmiyatga molik ishlardan misollar keltirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, biologiya darslarida Abu Ali ibn Sino asarlari namunalarini o‘quvchilarga ko‘rsatish, namoyish etish, alloma ijodiga doir ko‘rgazmali material, plakat, o‘quv va hujjatli filmlardan foydalanish o‘quvchilarning biologiya fani darsiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining butun dunyoga mashhurligi, jahondagi yetakchi universitetlarda darslik sifatida foydalanib kelinayotganligini ta’kidlash o‘quvchilarda vatanparvarlik va g‘urur hisini kuchaytiradi, kelajakda ilm fan bilan shug‘ullanishga undaydi.

Beshinchidan, o‘quvchi uchun muhim bo‘lgan inson salomatligi ya’ni, uning ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi faolligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino fikrlari asosida tushuntirilishi ularning biologiya faniga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va o‘quvchilarning fan bo‘yicha o‘zlashtirishini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Biologiya: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik: Tuzuvchilar: K.Saparov, I.Azimov, M.Umaraliyeva, U.Raxmatov, Z.Tillayeva, I.Abduraxmanova, E.Ochilov, S.Haytbayeva, L.Uralova. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 200 b.

2. Biologiya: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik: 1-nashr /Mualliflar: A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova va.b. –T.: Sharq, 2018. – 240 b.

3. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika: darslik. – T.: Zuxro baraka biznes, 2025. – 360 b.

4. Tojiboyeva S. Methods Using Great Thinkers’ Teachings about Nature and Human Health at Biology Lessons. Eastern european Scientific Journal. (ISSN 2199-7977), DOI 10.12851/EESJ201901. Germany №01. 2019. – P. 379-384.

5. Tojiboyeva S.H. Biologiya darslari jarayonida Abu Ali ibn Sino ta’limotidan foydalanishning pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. Adabiyot uchqunlari, – Qo‘qon: 2020 y. – 75 b.

6. Xayrullayev M.M. Abu Ali ibn Sino / Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) // To‘plovchi va mas’ul muharrir: M.M.Xayrullayev. – To‘ldirilgan qayta nashr. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2001. – 103 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

DASTURCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA INNOVATSION METODIK TIZIMNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.165

Bahromova Muhayyo Mansurjon qizi
Namangan davlat universiteti,
Raqamli ta’lim texnologiyalari kafedrasi
katta o‘qituvchisi (PhD), muhayyo405@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada dasturchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion metodik tizimni shakllantirish tamoyillari tahlil qilingan. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida dasturlash ta’limini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotda pedagogik tamoyillar asosida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy o‘qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar o‘rganilgan. Maqolada metodik tizimning tuzilishi, uning asosiy komponentlari va ularning o‘zaro bog’liqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak dasturchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion metodik tizimning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: dasturchilarni tayyorlash, innovatsion metodik tizim, pedagogik tamoyillar, kasbiy kompetensiyalar, zamonaviy texnologiyalar, ta’lim jarayoni.

Аннотация.В данной статье анализируются принципы формирования инновационной методической системы в процессе подготовки программистов. В условиях стремительного развития современных информационных технологий совершенствование обучения программированию является актуальной проблемой. В ходе исследования на основе педагогических принципов изучены инновационные подходы, современные методы обучения и педагогические технологии. В статье представлены структура методической системы, её основные компоненты и их взаимосвязь. Результаты исследования включают практические рекомендации, направленные на повышение эффективности инновационной методической системы в развитии профессиональных компетенций будущих программистов.

Ключевые слова: подготовка программистов, инновационная методическая система, педагогические принципы, профессиональные компетенции, современные технологии, образовательный процесс.

Abstract. This article analyzes the principles of forming an innovative methodological system in the process of training programmers. In the context of the rapid development of modern information technologies, improving programming education is a highly relevant issue. The study examines innovative approaches based on pedagogical principles, contemporary teaching methods, and pedagogical technologies. The article presents the

structure of the methodological system, its main components, and their interrelationships. The research findings include practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of the innovative methodological system in developing the professional competencies of future programmers.

Keywords: programmer training, innovative methodological system, pedagogical principles, professional competencies, modern technologies, educational process.

Kirish.XXI asr – axborot texnologiyalari asri hisoblanadi. Bugungi kunda dasturiy ta’minot ishlab chiqish sohasida yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Jahon mehnat bozorida dasturchilar kasbi eng talab qilinadigan va yuqori daromad keltiruvchi kasblardan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va IT-sohasini yanada takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-6079-sonli Farmoni, 2022-yil 28-iyundagi “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar IT-sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning dolzarb ekanligini belgilaydi.

Hozirda oliy ta’lim muassasalarida dasturchilarni tayyorlash jarayonida qator muammolar mavjud:

An’anaviy o‘qitish metodlarining zamonaviy texnologiyalar talablariga to‘liq javob bermasligi

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog’liqlikning yetarli darajada ta’minlanmasligi

Talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga kamroq e’tibor qaratilishi

Tezkor o‘zgarib turuvchi texnologiyalarga moslashishda qiyinchiliklar

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish uchun bo‘lajak dasturchilarni tayyorlashda innovatsion metodik tizimni shakllantirish zaruriyati yuzaga keladi.

1-jadval. Zamonaviy dasturchilar tayyorlash tizimidagi asosiy muammolar va ularning ta’siri

№	Muammo	Bartaraf etish yo‘li
1	An’anaviy metodlarning noqulayligi	Innovatsion metodlarni joriy etish
2	Nazariya-amaliyot uzilishi	Amaliy loyihalar sonini ko‘paytirish
3	Mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining zaif rivojlanishi	Blended learning texnologiyasi
4	Texnologik moslashuv qiyinchiliklari	Doimiy o‘quv dasturlarini yangilash


Adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan [5, 11]:

1. Nazariy metodlar: Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish, qiyosiy tahlil va sintez

2. Empirik metodlar: Pedagogik kuzatish, so‘rovnoma va suhbat, pedagogik eksperiment, test va nazorat ishlari

3. Matematik-statistik metodlar: Natijalarni miqdoriy tahlil qilish, matematik statistika usullari, grafik ko‘rsatkichlar




1-rasm. Tadqiqot metodologiyasining konseptual modeli

Natijalar va muhokama

1. Innovatsion metodik tizimning tuzilishi

Bo‘lajak dasturchilarni tayyorlashda innovatsion metodik tizim quyidagi asosiy komponentlardan iborat:



2-rasm. Innovatsion metodik tizimning strukturaviy sxemasi


2. Asosiy tamoyillar

Innovatsion metodik tizimni shakllantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi [7]:

2-jadval. Innovatsion metodik tizimning asosiy tamoyillari

№	Tamoyil nomi	Mazmuni	Amalga oshirish yo‘llari
1	Ilmiylik	Zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida ta’lim	Yangi texnologiyalarni o‘rgatish, ilmiy tadqiqotlar
2	Innovatsionlik	Yangi metodlar va texnologiyalarni qo‘llash	Cloud computing, AI, Big Data o‘rgatish
3	Amaliyotga yo‘naltirilganlik	Real loyihalar ustida ishlash	Kompaniyalar bilan hamkorlik, startup loyihalar
4	Talabaga yo‘naltirilganlik	Individual yondashuv	Shaxsiy o‘quv traektoriyasi, mentorlik
5	Tizimlilik	Barcha komponentlarning birligi	Modulli dastur, bosqichma-bosqich o‘qitish
6	Uzluksizlik	Doimiy rivojlanish	Kurs yakunida yangi kurslar, lifelong learning
7	Hamkorlik	Jamoaviy ishlash ko‘nikmalari	Guruh loyihalari, hackathon, code review

3. Zamonaviy o‘qitish metodlari




3-rasm. Zamonaviy o‘qitish metodlarining samaradorligi

3-jadval. O‘qitish metodlarining qiyosiy tahlili

Metod	Afzalliklari	Kamchiliklari	Qo‘llanish sohasi
Project-Based Learning	Real loyiha tajribasi, jamoaviy ish	Ko‘p vaqt talab etadi	Dasturiy mahsulot yaratish
Flipped Classroom	Talabalarning faol ishtiroki	Uy vazifalariga tayyorgarlik zarur	Nazariy bilimlarni mustahkamlash
Gamification	Motivatsiya oshadi, qiziqarli	Jiddiy mavzularda cheklangan	Algoritmlar, dasturlash asoslari
Peer Programming	Bilim almashinuvi, ijtimoiy ko‘nikma	Har doim samarali bo‘lmasligi mumkin	Kod yozish, debugging

Problem-Based Learning	Muammoni hal qilish qobiliyati	Murakkab muammolar tanlash qiyin	Data structures, algoritmlar

4. Raqamli texnologiyalarning integratsiyasi




4-rasm. Dasturchilar tayyorlashda qo‘llaniladigan raqamli vositalar

5. Kompetensiyalarni rivojlantirish modeli

4-jadval. Bo‘lajak dasturchilarning kasbiy kompetensiyalari

Kompetensiya turi	**Tarkibiy qismlar**	**Rivojlantirish usullari**	**Baholash mezonlari**
Texnik kompetensiyalar	Dasturlash tillari Ma’lumotlar bazasi Algoritmlar	Amaliy mashg’ulotlar Loyihalar Online platformalar	Kod sifati Loyiha murakkabligi Test natijalari
Analitik kompetensiyalar	Muammoni aniqlash Yechim izlash Optimallashtirish	Case study Problem solving Tadqiqot ishlari	Yechim samaradorligi Yondashuv originalligi
Ijtimoiy kompetensiyalar	Jamoada ishlash Kommunikatsiya Liderlik	Guruh loyihalari Prezentatsiyalar Hackathon	Jamoaviy hissa Muloqot samaradorligi
Shaxsiy kompetensiyalar	O‘z-o‘zini rivojlantirish Moslashuvchanlik Mas’uliyat	Mustaqil loyihalar Portfolio yaratish Refleksiya	O‘z-o‘zini baholash Portfolio sifati

6. Innovatsion metodik tizimni amalga oshirish bosqichlari



6-rasm. Joriy etish bosqichlari (Gantt diagrammasi)

7. Tavsiyalar va amaliy qo‘llanmalar

Innovatsion metodik tizimni samarali amalga oshirish uchun [9, 13]:

5-jadval. Amaliy tavsiyalar

Yo‘nalish	Tavsiyalar	Mas’ul tomon	Muddat
O‘quv dasturi	Zamonaviy texnologiyalarni kiritish Amaliy soatlarni ko‘paytirish Elektiv kurslar qo‘shish	O‘quv bo‘limi	Har yili
O‘qituvchilar	Treninglar o‘tkazish Sertifikatlash Xalqaro tajriba almashinuvi	Kadrlar bo‘limi	Doimiy
Talabalar	Mentorlik dasturi Startup loyihalar Kompaniyalar bilan aloqa	O‘quv-uslubiy bo‘lim	Semestr davomida
Infratuzilma	Zamonaviy laboratoriyalar Raqamli resurslar Cloud xizmatlar	IT bo‘limi	2-3 yilda
Hamkorlik	IT kompaniyalar bilan shartnoma Visiting professors Birgalikda loyihalar	Tashqi aloqalar bo‘limi	Doimiy

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot dasturchilarni tayyorlashda innovatsion metodik tizimni shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlashga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Innovatsion metodik tizim tuzilishi quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: maqsad va vazifalar, mazmun, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar, baholash va monitoring. Bu komponentlarning o‘zaro uzviy bog’liqligi ta’lim samaradorligini oshiradi.

2. Asosiy tamoyillar – ilmiylik, innovatsionlik, amaliyotga yo‘naltirilganlik, talabaga yo‘naltirilganlik, tizimlilik, uzluksizlik va hamkorlik tamoyillari dasturchilar tayyorlash jarayonining nazariy asosini tashkil etadi.

3. Zamonaviy o‘qitish metodlari (Project-Based Learning, Flipped Classroom, Gamification, Peer Programming) an’anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

4. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va real ish muhitiga moslashishga yordam beradi.

5. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan ta’lim dasturi talabalarning nafaqat texnik, balki analitik, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga imkon beradi.

6. Istiqbollar: Innovatsion metodik tizimni keng joriy etish 3 yil ichida talabalarning o‘zlashtirish darajasini 68% dan 88% gacha oshirishi, ish bilan ta’minlanish ko‘rsatkichini 45% dan 85% gacha ko‘tarishi prognoz qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, dasturchilarni tayyorlashda innovatsion metodik tizimni shakllantirish zamonaviy ta’lim talablari va mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan yuqori malakali IT mutaxassislarni tayyorlash uchun samarali vosita hisoblanadi. Ishlab chiqilgan tamoyillar va metodlar nafaqat dasturchilar tayyorlashda, balki boshqa IT yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda ham qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.

2. Axmedov M.Yu., Karimov A.A. Dasturchilar tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar. // Ta’lim va innovatsiya. – Toshkent, 2023. – № 5. – B. 45-52.

3. Raxmonov S.R. Axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2022. – 256 b.

4. Teshaboyev D.X., Abdullayeva N.M. Raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 320 b.

5. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2021. – 352 p.

6. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. // The Clearing House. – 2020. – Vol. 83. – № 2. – P. 39-43.

7. Bergmann J., Sams A. Flipped Learning: Gateway to Student Engagement. – Washington: ISTE, 2022. – 169 p.

8. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification". // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. – 2021. – P. 9-15.

9. García-Peñalvo F.J., Conde M.Á. Using informal learning for business decision making and knowledge management. // Journal of Business Research. – 2023. – Vol. 89. – P. 238-247.

10. Hadjerrouit S. Developing Web-Based Learning Resources in School Education: A User-Centered Approach. // Interdisciplinary Journal of E-Learning and Learning Objects. – 2020. – Vol. 6. – P. 115-135.

11. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Pearson Education, 2023. – 416 p.

12. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. // Teachers College Record. – 2022. – Vol. 108. – № 6. – P. 1017-1054.

13. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. // On the Horizon. – 2021. – Vol. 9. – № 5. – P. 1-6.

14. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 2023. – 159 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK 378:377.091.3: 811.111
ORCID: 0009-0008-2302-8387.

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.166

Urunova Shaxlo Rafikovna
Andijon davlat texnika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiyasi, uning pedagogik imkoniyatlari, afzalliklari hamda muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy AI vositalari, jumladan adaptiv o‘quv tizimlari, chatbotlar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va generativ modellar orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va til kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik, o‘qituvchi rolining transformatsiyasi va etik muammolar ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt va inson omilining uyg‘unligi samarali ta’limni ta’minlashda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ELT, raqamli texnologiyalar, chatbotlar, adaptiv o‘qitish, TPACK, motivatsiya, raqamli pedagogika.

Annotation. This article explores the integration of artificial intelligence (AI) and digital technologies into English Language Teaching (ELT), analyzing their pedagogical potential, advantages, and challenges. The study examines modern AI tools such as adaptive learning systems, chatbots, automated assessment systems, and generative models, highlighting their role in personalizing learning, enhancing learner motivation, and improving language competencies. Additionally, the paper discusses issues such as overreliance on technology, transformation of the teacher’s role, and ethical concerns. The findings emphasize that a balanced integration of human expertise and AI technologies is essential for effective and sustainable language education.

Keywords: artificial intelligence, ELT, digital technologies, chatbots, adaptive learning, TPACK, motivation, digital pedagogy

Аннотация.В данной статье рассматривается интеграция искусственного интеллекта и цифровых технологий в процесс обучения английскому языку, анализируются их педагогические возможности, преимущества и проблемы. Исследование охватывает современные AI-инструменты, включая адаптивные

обучающие системы, чат-боты, автоматизированные системы оценки и генеративные модели. Особое внимание уделяется вопросам индивидуализации обучения, повышения мотивации обучающихся и развития языковых компетенций. Также рассматриваются проблемы чрезмерной зависимости от технологий, трансформации роли преподавателя и этические аспекты. Результаты исследования подчеркивают необходимость гармоничного сочетания человеческого фактора и технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, обучение английскому языку, цифровые технологии, чат-боты, адаптивное обучение, мотивация, цифровая педагогика

KIRISH.XXI asr ta’lim tizimi global raqamli transformatsiya jarayonining markazida turibdi. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘qitish jarayonining mazmuni, metodlari va vositalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ingliz tilini o‘qitish (ELT) esa bu o‘zgarishlardan eng ko‘p ta’sirlangan sohalardan biri hisoblanadi.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ingliz tilini o‘qitish jarayoniga kirib kelishi zamonaviy ta’lim tizimida tub burilish yasadi. So‘nggi o‘n yillikda ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi, ayniqsa ingliz tilini o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirdi. An’anaviy dars metodlari o‘rnini interaktiv, moslashuvchan va o‘quvchiga yo‘naltirilgan texnologiyalar egallab bormoqda. Bu jarayon global miqyosda kuzatilayotgan bo‘lib, u nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalar ingliz tilini o‘qitishda nafaqat vosita, balki pedagogik transformatsiyaning asosiy omiliga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqotda xorijiy, MDH va O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlari tahlil qilindi. Xususan, M. Warschauer raqamli texnologiyalarning til o‘rganishdagi rolini o‘rganib, ularning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, texnologiyalar tilni faqat o‘rganish emas, balki undan foydalanish imkonini ham kengaytiradi.

Sun’iy intellekt tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi, ammo ko‘pchilik tadqiqotchilar uni inson tafakkuriga xos funksiyalarni bajaruvchi tizim sifatida izohlaydi. Xususan, S. Russell va P. Norvig sun’iy intellektni “aqlli agentlar orqali muhitni idrok etish va maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirish tizimi” sifatida tavsiflaydi [4]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, ta’lim sohasida SI o‘quv jarayonini optimallashtiruvchi, tahlil qiluvchi va moslashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilini o‘qitishda esa bu texnologiyalar o‘quvchilarning til o‘zlashtirish jarayonini individuallashtirish, real vaqt rejimida fikr-mulohaza berish va o‘quv materiallarini moslashtirish imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalarning til o‘rganishdagi roli haqida M. Warschauer shunday fikr bildiradi: “Texnologiyalar til o‘rganish jarayonini kengaytirib, o‘quvchilarga autentik kommunikativ muhit yaratadi” [6]. Darhaqiqat, bugungi kunda internet, mobil ilovalar, virtual platformalar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar o‘quvchilarga tilni real kontekstda qo‘llash imkonini bermoqda. Masalan, chatbotlar va virtual suhbat tizimlari orqali o‘quvchilar ingliz

tilida muloqot qilish, xatolarini tuzatish va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa ayniqsa speaking va listening ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘quv tizimlari ingliz tilini o‘qitishda eng samarali vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Bunday tizimlar o‘quvchining bilim darajasi, xatolari va o‘rganish tezligini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni taklif etadi. J. Holmesning ta’kidlashicha, “adaptiv o‘quv tizimlari o‘quvchilarning individual o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshiradi”[1]. Bu esa o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlariga mos ravishda rivojlanishini ta’minlaydi. Natijada kuchli o‘quvchilar tezroq rivojlanadi, qiyinchilikka duch kelayotganlar esa qo‘shimcha yordam oladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida avtomatik baholash tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar yozma va og‘zaki nutqni tahlil qilib, xatolarni aniqlaydi va tavsiyalar beradi. V.P. Bespalko ta’kidlaganidek, “ta’lim natijalarini aniq va obyektiv baholash o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim shartidir” [7]. SI asosidagi baholash tizimlari aynan shu vazifani bajaradi, ya’ni o‘qituvchilarga vaqtni tejash, o‘quvchilarga esa tezkor feedback olish imkonini yaratadi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z xatolarini tezda anglashiga va ularni tuzatishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Gamifikatsiya elementlari, interaktiv mashqlar va multimodal kontent o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. N. Muslimovning fikricha, “innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularni mustaqil fikrlashga undaydi” [9]. Bu esa o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Biroq, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri – o‘quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolishidir. N. Selwyn bu borada shunday deydi: “Texnologiyalar ta’limni rivojlantirishi mumkin, ammo ularni tanqidiy yondashuvsiz qo‘llash salbiy oqibatlarga olib keladi” [5]. Darhaqiqat, o‘quvchilar barcha javoblarni texnologiyadan kutib qolsa, ularning mustaqil fikrlash qobiliyati pasayishi mumkin.

Yana bir muhim masala – o‘qituvchi rolining o‘zgarishi. Ba’zi hollarda texnologiyalar o‘qituvchini chetga surib qo‘yayotgandek ko‘rinadi. Ammo aslida o‘qituvchi roli kamaymaydi, balki transformatsiyaga uchraydi. U endilikda bilim beruvchi emas, balki fasilitator, yo‘naltiruvchi va motivator vazifasini bajaradi. A.A. Verbitskiy ta’kidlaganidek, “ta’lim jarayonida texnologiyalarni joriy etishda inson omili va qadriyatlar ustuvor bo‘lishi kerak” [8].

Etik muammolar ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ma’lumotlar xavfsizligi, akademik halollik, plagiat kabi masalalar sun’iy intellektdan foydalanishda dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa generativ AI vositalari o‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri foydalanilsa, ularning mustaqil fikrlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ta’lim jarayonida aniq me’yorlar va qoidalarni ishlab chiqish zarur.

Sun’iy intellektni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yuqori bo‘lishi talab etiladi. Bu borada TPACK modeli muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u texnologik, pedagogik va fan bilimlarini integratsiya qilishni nazarda tutadi. M. Mishra va P. Koehler “samarali o‘qituvchi texnologiya, pedagogika va mazmunni uyg‘unlashtira olishi kerak” deb ta’kidlaydi [3]. O‘zbekistonlik olim Sh. Nuriddinov ham raqamli kompetensiyani o‘qituvchining kasbiy rivojlanishidagi asosiy omil sifatida ko‘rsatadi [10].

Zamonaviy ta’limda eng samarali yondashuv – bu sun’iy intellekt va inson omilining uyg‘unligidir. H. Luckin fikricha, “sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirmaydi, balki uning imkoniyatlarini kengaytiradi”[2]. Demak, texnologiyalar o‘qituvchining yordamchisi sifatida xizmat qilishi kerak, uning o‘rnini egallamasligi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar ingliz tilini o‘qitishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Birinchidan, individual o‘qitish tizimi shakllanadi. Adaptiv platformalar o‘quvchining bilim darajasiga mos ravishda materiallarni taqdim etadi. Bu esa o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi. Interaktiv elementlar va gamifikatsiya o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi. Natijada ular o‘qish jarayonida faol ishtirok etadi.

Uchinchidan, tezkor feedback tizimi shakllanadi. Avtomatik baholash tizimlari o‘quvchilarning xatolarini darhol aniqlaydi va tuzatish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Gamifikatsiya elementlari, multimodal kontent va interaktiv mashg‘ulotlar o‘quv jarayonini qiziqarli va jalb etuvchi qiladi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi. Natijada o‘qitish jarayoni yanada samarali va natijador bo‘ladi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida quyidagi muammolar ham aniqlandi:

- texnologiyaga ortiqcha bog‘liqlik;
- o‘qituvchi rolining kamayishi xavfi;
- etik muammolar (plagiat, ma’lumotlar xavfsizligi).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ingliz tilini o‘qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan ta’limni tashkil etish, motivatsiyani oshirish va o‘qitish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun muvozanatli yondashuv zarur. O‘qituvchi va texnologiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash orqali ta’lim jarayonini yanada samarali va barqaror qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 248 p.

2. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 224 p.

3. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

4. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Pearson Education, 2021. – 1136 p.

5. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – 2nd ed. – London: Bloomsbury Academic, 2017. – 240 p.

6. Warschauer M. Technology and Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 232 p.

7. Беспалько В.П. Педагогические технологии: учебное пособие. – М.: Педагогика, 2018. – 192 с.

8. Вербицкий А.А. Инновационное образование и контекстное обучение. – М.: Юрайт, 2020. – 314 с.

9. Муслимов Н.А. Инновационные образовательные технологии. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2021. – 256 б.

10. Нуриддинов Ш.Р. Рақамли педагогика асослари. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022. – 180 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.167

Muratxodjayeva Ziyodaxon Baxtiyarovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti
Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Tarix fakulteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi
Abdullayeva Sadoqatxon Mag’ribjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) magistranti

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodik modeli ilmiy asosda bayon etiladi. Tadqiqot natijalari 4-bosqichli metodik model, pedagogik shart-sharoitlar, interaktiv va innovatsion metodlar samaradorligini ko‘rsatadi. Kompetentlik komponentlari va ularni rivojlantirishga oid tavsiyalar keltiriladi. Shuningdek, elektron baholash tizimlari va refleksiv tahlil jarayonlari ko‘rib chiqiladi, bu esa o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, kasbiy kompetentlik, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, innovatsion faoliyat, metodika, raqamli vositalar, refleksiv tahlil, loyiha ta’limi, blended learning

Аннотация.В статье на научной основе изложена методическая модель формирования профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов в цифровой образовательной среде. Результаты исследования показывают эффективность 4-этапной методической модели, педагогических условий, интерактивных и инновационных методов. Приводятся компоненты компетентности и рекомендации по их развитию. Также будут рассмотрены электронные системы оценивания и процессы рефлексивного анализа, что будет способствовать повышению уровня профессиональной подготовки учителей.

Ключевые слова:Цифровое образование, профессиональная компетентность, начальное образование, педагогическая технология, инновационная деятельность, методика, цифровые средства, рефлексивный анализ, проектное обучение, смешанное обучение.

Annotation.The article scientifically substantiates the methodological model for the formation of professional competence of future primary school teachers in a digital educational environment. The research results show the effectiveness of the 4-stage methodological model, pedagogical conditions, interactive and innovative methods. Components of competence and recommendations for their development are given. Electronic assessment systems and reflexive analysis processes will also be considered, which will contribute to improving the level of professional training of teachers.

Keywords: Digital education, professional competence, primary education, pedagogical technology, innovative activity, methodology, digital tools, reflexive analysis, project education, blended learning

Kirish. Raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi nafaqat fan mazmunini yetkazuvchi, balki ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida kasbiy kompetentlikni shakllantirish metodikasini raqamli muhit talablari asosida takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda [1, 28]. Kasbiy kompetentlik tushunchasi shaxsning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati sifatida izohlanadi. Raqamli muhit esa ushbu tushunchaga yangi komponentlar — axborot savodxonligi, media madaniyat, texnologik moslashuvchanlik kabi jihatlarni qo‘shadi [3, 12; 5, 22]. Shuningdek, raqamli platformalarda o‘quv resurslarini samarali boshqarish va interaktiv metodlarni qo‘llash, talabalarning motivatsiyasi va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi [4, 45].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqotda tizimli-tahliliy, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar qo‘llanildi. Nazariy manbalar tahlili, pedagogik kuzatish, qiyosiy taqqoslash hamda umumlashtirish metodlari asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Kasbiy kompetentlik quyidagi komponentlarga ajratildi: motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv. Har bir komponent bo‘yicha mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi. Metodik model bosqichma-bosqich shakllantirish tamoyiliga asoslandi [2, 54]. Shu bilan birga, har bir bosqichda o‘quv jarayonida raqamli vositalarni qo‘llash va elektron portfoliolar orqali natijalarni baholash metodlari ham ko‘rib chiqildi [3, 15; 7, 18]. Tadqiqot jarayonida diagnostik so‘rovnomalar, kompetentlik darajasini aniqlovchi test topshiriqlari hamda amaliy vaziyatli topshiriqlar ishlab chiqildi va tajriba-sinov guruhlarida qo‘llanildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, komponentlar rivojlanish dinamikasi foiz ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil qilinib, metodikaning samaradorligi isbotlandi [4, 82; 6, 214].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review)

Ilmiy adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida baholanadi. I.A. Zimnyaya kompetentlikni shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi faoliyat uyg‘unligi sifatida talqin etadi [1, 31]. A.V. Xutorskoy esa ta’lim mazmunini

kompetensiyalar asosida modernizatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi [2, 54]. UNESCO ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan modelda pedagoglarning raqamli kompetensiyasi ta’lim samaradorligining muhim mezoni sifatida qayd etiladi [3, 15; 7, 18]. Milliy tadqiqotlarda ham pedagogik kompetentlik va innovatsion faoliyat masalalari keng yoritilgan [4, 80; 8, 102]. Shu bilan birga, raqamli ta’limning amaliy qo‘llanilishi va elektron baholash tizimlari samaradorligini oshirish bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar ham tahlil qilindi [4, 82; 6, 214]. So‘nggi ilmiy izlanishlarda kompetensiyaviy yondashuvni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli bilan integratsiyalash, o‘quv jarayonini raqamli platformalar asosida tashkil etish hamda pedagogning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish masalalari alohida e’tibor qaratilmoqda [3, 18]. Xususan, raqamli resurslardan samarali foydalanish, media savodxonlikni shakllantirish va ta’lim jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash pedagog faoliyatining ajralmas qismi sifatida talqin qilinmoqda [3, 21]. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim bosqichida innovatsion metodlar va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan [4, 85]. Biroq, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini aynan raqamli muhitda tayyorlash metodikasini tizimli asosda ishlab chiqish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results)

1-bosqich: Diagnostik bosqich

Talabalarning boshlang‘ich raqamli savodxonlik darajasi aniqlanadi [1, 45]. Mazkur bosqichda diagnostika jarayoni tizimli va ko‘p omilli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Jumladan, talabalarning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, raqamli platformalardan foydalanish, elektron resurslar bilan ishlash hamda axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kompetensiyalari aniqlanadi. Diagnostik tahlil jarayonida test, so‘rovnoma, amaliy topshiriqlar va kuzatuv metodlaridan foydalaniladi. Olingan natijalar talabalarning mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ularni guruhlarga differensiallashtirish hamda keyingi bosqichlarda individual yondashuvni belgilash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu bosqich kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv va faoliyatli komponentlari qay darajada shakllanganini aniqlashga xizmat qiladi.

2-bosqich: Nazariy tayyorgarlik

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va metodika bo‘yicha bilimlar tizimlashtiriladi [2, 54]. Bu bosqichda talabalarga raqamli ta’lim muhiti, elektron ta’lim resurslari, masofaviy ta’lim platformalari, pedagogik dasturiy vositalar hamda ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish tamoyillari haqida ilmiy-nazariy ma’lumotlar beriladi. Nazariy tayyorgarlik jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar – kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari asos qilib olinadi. Talabalar AKT vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, o‘quv materiallarini raqamlashtirish, multimedia vositalari orqali taqdim etish hamda elektron baholash mexanizmlarini o‘rganadilar. Mazkur bosqich kasbiy kompetentlikning kognitiv komponentini chuqurlashtirishga xizmat qiladi va amaliy bosqich uchun nazariy asos yaratadi.

3-bosqich: Amaliy integratsiya

Loyiha texnologiyasi, muammoli ta’lim, blended learning elementlari qo‘llaniladi [3, 15; 7, 18]. Shuningdek, interaktiv mashg‘ulotlar va onlayn simulyatsiyalar orqali talabalarning amaliy ko‘nikmalari mustahkamlanadi [4, 75]. Ushbu bosqichda talabalarning nazariy bilimlari real o‘quv vaziyatlariga tatbiq etiladi. Loyiha faoliyati jarayonida talabalar raqamli dars ishlanmalarini ishlab chiqish, elektron taqdimotlar yaratish, virtual sinf muhitini modellashtirish kabi vazifalarni bajaradilar. Muammoli ta’lim asosida esa o‘quv jarayonida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ularga innovatsion yechim topish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Blended learning elementlari an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi, bu esa talabalarda mustaqil ishlash, vaqtni boshqarish va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Interaktiv mashg‘ulotlar davomida raqamli platformalar, test tizimlari, virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlardan foydalanish talabalarning faoliyatli komponentini kuchaytiradi. Onlayn simulyatsiyalar orqali o‘qituvchilik faoliyatining turli modellarini tajriba tariqasida sinab ko‘rish imkoniyati yaratiladi, bu esa kasbiy tayyorgarlikni real sharoitga yaqinlashtiradi.

4-bosqich: Refleksiv tahlil

Elektron portfoliolar va monitoring tizimlari orqali natijalar baholanadi [4, 80; 8, 102]. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida talabalarning o‘z-o‘zini baholash va hamkasblar bilan baholash faoliyati ham tashkil etiladi [4, 78]. Refleksiv bosqichda talabalarning erishgan natijalari, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Elektron portfolio talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini aks ettiradi va uning kasbiy o‘sishini monitoring qilish imkonini beradi. Monitoring natijalari asosida kompetensiyalarning shakllanish dinamikasi aniqlanadi.

O‘z-o‘zini baholash jarayoni talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Hamkasblar bilan baholash esa kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Refleksiya jarayonida talaba o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, kelgusidagi kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalardan tizimli foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Ayniqsa, interaktiv metodlar motivatsion va faoliyatli komponentlarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli ta’lim muhitida tashkil etilgan izchil va bosqichma-bosqich metodik model talabalarda kasbiy kompetentlikning integrativ shakllanishini ta’minlaydi, ularning innovatsion faoliyatga tayyorligini kuchaytiradi hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda pedagogik faoliyat olib borish salohiyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Raqamli ta’lim muhiti sharoitida kasbiy kompetentlikni shakllantirish quyidagi shartlarga asoslanishi lozim:

-o‘quv fanlari mazmuniga raqamli komponentlarni integratsiya qilish;

-innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

-elektron baholash tizimlarini takomillashtirish;

-talabalarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish [3, 15; 7, 18].

Taklif etilgan metodika pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi hamda boshlang‘ich ta’lim tizimining innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi [4, 80; 8, 102]. Shu bilan birga, metodik tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish natijasida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish va o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1.Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода. – М., 2004.

2.Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – М.: Академия, 2003.

3.UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018.

4.Муслимов Н.А. Педагогик компетентлик асослари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2015

5.European Commission. DigCompEdu: European Framework for the Digital Competence of Educators. – Brussels, 2017.

6.Voogt J., Roblin N.P. A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences. – Journal of Curriculum Studies, 2012.

7.Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

8.Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. – Teachers College Record, 2006.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA PEDAGOGIK IDENTIFIKATSIYANI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.168

Sobirova Nafisa Yangiboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
+99877 500 25 26

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik identifikatsiyani rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Pedagogik identifikatsiya pedagog shaxsining kasbiy o‘zini anglash jarayoni sifatida talqin qilinib, uning shakllanishida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda raqamli ta’lim muhitining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muammoli ta’lim, loyiha metodi, refleksiv yondashuv va raqamli platformalardan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik identifikatsiya, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion yondashuvlar, refleksiya, interfaol metodlar, pedagogik kompetensiya, raqamli ta’lim muhiti, professional rivojlanish.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsining kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim sifatini oshirishda nafaqat bilim berish, balki bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini anglash, kasbga nisbatan ijobiy munosabat va professional qadriyatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik identifikatsiya - bu shaxsning o‘zini pedagogik faoliyat subyekti sifatida anglash, kasbiy rolini qabul qilish hamda pedagogik qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli ta’lim platformalari keng joriy etilmoqda. Bu esa kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik identifikatsiyani rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimidagi transformatsiya jarayonlari o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan talablarni tubdan o‘zgartirdi. Endilikda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki fasilitator, moderator va dizayner rollarini ham bajarishi lozim. Bu jarayonda pedagogik identifikatsiya -mutaxassisning o‘z kasbiy qadriyatlarini anglashi va o‘zini ushbu sohada namoyon eta olish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimi shunchaki bilimlar transferi (uzatish) maskani bo‘lishdan to‘xtab, shaxsning ijtimoiy va kasbiy shakllanish laboratoriyasiga aylandi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida

pedagogning asosiy vazifasi nafaqat axborot berish, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik va raqamli savodxonlikni shakllantirishdan iboratdir. Biroq, bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun pedagog avvalo o‘zining kasbiy qiyofasini - pedagogik identifikatsiyasini aniq anglab olishi lozim. Zamonaviy ta’lim tizimidagi islohotlar o‘qituvchidan nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishni, balki o‘z kasbiy o‘rnini anglashni va pedagogik hamjamiyat bilan uyg‘unlashishni talab etadi. Pedagogik identifikatsiya - bu bo‘lajak mutaxassisning o‘zini pedagogik faoliyat sub’ekti sifatida his qilishi, kasbiy qadriyatlarni o‘zlashtirishi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojidir. Kasbiy tayyorgarlik bosqichida ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, bitiruvchining maktab muhitiga moslashishidagi qiyinchiliklarni kamaytiradi.

Asosiy qism. Pedagogik identifikatsiya quyidagi omillar orqali shakllanadi: pedagogik qadriyatlarni anglash, kasbiy motivatsiyaning rivojlanishi, pedagogik faoliyat tajribasi, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash, o‘qituvchi shaxsiga ijobiy munosabat. Ushbu omillarni rivojlantirish uchun an’anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar ham qo‘llanilishi lozim.

Innovatsion yondashuvlarning turlari

1. Kompetensiyaviy yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak pedagoglarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuv orqali talaba o‘zini pedagogik faoliyat subyekti sifatida anglay boshlaydi.

2. Refleksiv yondashuv

Refleksiya talabalarga o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va o‘z ustida ishlash imkonini beradi. Refleksiv kundaliklar, portfoliolar va muhokama mashg‘ulotlari bu jarayonda samarali vosita hisoblanadi.

3. Raqamli va interaktiv texnologiyalar

Zamonaviy ta’limda raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim tizimlari va interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning kasbiy qiziqishini oshiradi hamda pedagogik identifikatsiyani mustahkamlaydi. Masalan, onlayn ta’lim platformalari, simulyatsion darslar, virtual pedagogik muhit.

4. Muammoli ta’lim (problem-based learning)

Muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, pedagogik qaror qabul qilish va kasbiy mas’uliyat hissi shakllanadi.

5. Loyiha asosida o‘qitish (project-based learning)

Talabalar ta’lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida o‘zlarini haqiqiy pedagog sifatida sinab ko‘radilar. Bu esa kasbiy identifikatsiyani mustahkamlaydi.

Pedagogik identifikatsiyani rivojlantirishda an’anaviy ma’ruza-seminar shaklidan ko‘ra, talabaning shaxsiy tajribasiga tayanadigan innovatsion metodlar ko‘proq samara beradi:

Refleksiv texnologiyalar: Talaba har bir pedagogik amaliyotdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qiladi (masalan, Gibbs refleksiv sikli orqali). Bu “Nima qildim?”, “Nimalarni his qildim?” va “Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?” kabi savollar orqali kasbiy o‘zlikni anglashga xizmat qiladi.

Virtual simulyatsiyalar: VR texnologiyalari yordamida yaratilgan “Virtual sinf” muhiti talabalarga xavfsiz sharoitda murakkab pedagogik vaziyatlarni boshqarish imkonini beradi. Bu ularning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini (identifikatsiyasini) mustahkamlaydi.

Kouching va Mentoring: Yuqori kurs talabalari yoki tajribali o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash, kasbiy etika va muloqot madaniyatini bevosita o‘zlashtirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Pedagogik identifikatsiya muammosi ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, Erik Erikson shaxs identifikatsiyasi nazariyasini ishlab chiqib, shaxsning o‘zini anglash jarayoni ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlagan. Pedagogik identifikatsiya masalasi ta’lim sohasida ham alohida o‘rganilgan. Lev Vygotsky ta’lim jarayonida ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishidagi rolini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko‘ra, o‘qituvchi shaxsining shakllanishi ijtimoiy hamkorlik va faoliyat jarayonida yuz beradi.

Shuningdek, John Dewey ta’limda tajriba va faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari surib, o‘quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan ta’lim jarayoni kasbiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda pedagogik identifikatsiyani rivojlantirishda refleksiya, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarning o‘rni alohida qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlilida pedagogik innovatsiyalarnirivojlantirish bo‘yicha bir nechta muhim tadqiqotlar va nazariy qarashlar tahlil qilingan. 1. Prigojin, A.I. – “Innovatsiya va ijtimoiy jarayonlar nazariyasi” A.I. Prigojin innovatsion jarayonlarni ijtimoiy tizimlar kontekstida o‘rganadi vaularnijamiyatning dinamik rivojlanishining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, innovatsiyalar yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni joriy qilishni o‘z ichiga oladi, buesajamiyatning turli sohalariga, shu jumladan ta’limga ham ta’sir qiladi. 2. Sazonov, B.V. – “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar” B.V. Sazonovning kitobi ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga bag‘ishlangan. Muallif yangi pedagogik yondashuvlarni aniqlaydi va ular yordamida o‘quvchilar va talabalar bilimlarini samarali oshirish mumkinligini ta’kidlaydi. 3. Slastenin, V.A. – “Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi” V.A. Slastenin pedagogik innovatsiyalarni nazariy jihatdan o‘rganib, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yoritadi. U innovatsiyalarni yaratish va ularni joriy qilish jarayonlarini chuqur tahlil qiladi.

1-jadval. Pedagogik identifikatsiyaning asosiy komponentlari

№	Komponentlar	Mazmuni	Pedagog tayyorgarligidagi ahamiyati
1	Kognitiv komponent	Pedagogik faoliyat, metodlar va kasbiy bilimlarni anglash	Kasbiy bilim va tushunchalarni shakllantiradi
2	Emotsional komponent	Kasbga nisbatan ijobiy munosabat va motivatsiya	O‘qituvchilik kasbiga sadoqatni kuchaytiradi

№	Komponentlar	Mazmuni	Pedagog tayyorgarligidagi ahamiyati
3	Faoliyat komponenti	Pedagogik ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash	Pedagogik kompetensiyani rivojlantiradi
4	Refleksiv komponent	O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash	Kasbiy o‘sish va o‘zini rivojlantirishga yordam beradi

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda pedagogik identifikatsiyani rivojlantirish jarayonini o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ❖ nazariy tahlil;
- ❖ pedagogik kuzatish;
- ❖ so‘rovnoma;
- ❖ taqqoslash va umumlashtirish metodlari.

Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak pedagoglar bilan tajriba ishlari olib borildi. Innovatsion yondashuv sifatida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- ➢ *Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning)* – talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish orqali kasbiy rolni anglashni kuchaytiradi.
- ➢ *Refleksiv tahlil* – talabalarning o‘z pedagogik faoliyatini baholash va tahlil qilish imkonini beradi.
- ➢ *Interfaol metodlar* – “case-study”, “brainstorming”, “debat” kabi metodlar pedagogik fikrlashni rivojlantiradi.
- ➢ *Raqamli ta’lim platformalari* – onlayn muhitda pedagogik hamkorlikni rivojlantiradi.

2-jadval. Pedagogik identifikatsiyani rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar

№	Innovatsion yondashuv	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Loyiha asosida o‘qitish	Talabalarning mustaqil loyiha yaratish faoliyati	Kasbiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish rivojlanadi
2	Case-study metodi	Real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish	Qaror qabul qilish kompetensiyasi shakllanadi
3	Interfaol metodlar	Munozara, brainstorming, debatlar	Talabalar faolligi va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi
4	Raqamli ta’lim texnologiyalari	Onlayn platformalar, multimedia vositalari	Zamonaviy pedagogik kompetensiya rivojlanadi
5	Refleksiv tahlil	O‘z faoliyatini baholash va xulosa chiqarish	Kasbiy o‘zini anglash kuchayadi

Xulosa. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik identifikatsiyani rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Innovatsion

yondashuvlar – kompetensiyaviy, refleksiv, raqamli texnologiyalar, muammoli va loyiha asosida o‘qitish metodlari – talabalarda pedagogik faoliyatga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Natijada, zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion fikrlovchi, ijtimoiy faol va kasbiy jihatdan o‘zini anglagan shaxs sifatida shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik identifikatsiyani rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi xulosalarga kelindi:

- pedagogik identifikatsiya bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida asosiy omillardan biridir;
- innovatsion ta’lim metodlari pedagoglarning kasbiy o‘zini anglashini kuchaytiradi;
- refleksiya va faoliyatga asoslangan ta’lim pedagogik identifikatsiyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
- raqamli texnologiyalar pedagogik hamkorlik va tajriba almashishni kengaytiradi.

Kelgusida pedagogik identifikatsiyani rivojlantirish bo‘yicha integrativ yondashuvlarni ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2014.
2. Erik Erikson. Identity: Youth and Crisis. New York: Norton, 1968.
3. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
4. John Dewey. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
5. Sayidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: "Markaz", 2003.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
7. Xodiyev B. Zamonaviy pedagogika asoslari. – Toshkent, 2019.
8. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent, 2020.
9. Qosimov A. Oliy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
10. Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va uning shakllanishi. – Toshkent, 2019.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ORCID:0009-0001-2880-6917

“QISHLOQ XO‘JALIGIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODIK YONDASHUVLAR VA ULARNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.169

Djabbarov Botirjon Begimovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
botirjondjabbarov@gmail.com, +998937137246

Annotatsiya. Maqolada “Qishloq xo‘jaligida axborot kommunikatsion texnologiyalar” fani doirasida yangi metodik yondashuvlar asosida o‘qitish zarurati tahlil qilinadi, samarali metodik modellar misolida ularning amaliy ahamiyati asoslanadi va zamonaviy ta’lim muhitiga mos keladigan takliflar ilgari suriladi. Jumladan, axborot texnologiyalari fanlarini yangi metodik asosda o‘qitish zarurati, bu yo‘nalishda qo‘llanilayotgan ilg‘or metodik yondashuvlar, ularning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi va kutilayotgan natijalar tahlil qilinadi hamda oliy ta’lim muassasalarida ushbu yondashuvlarni samarali joriy etishning ilmiy-metodik asoslari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi sohasi, axborot texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, kompyuter imitatsion model, innovatsion metodik yondashuv, modellashtirish.

Аннотация. В статье анализируется необходимость преподавания на основе новых методических подходов в рамках дисциплины “Информационно-коммуникационные технологии в сельском хозяйстве”, обосновывается их практическая значимость на примере эффективных методических моделей и предлагаются решения, соответствующие современной образовательной среде. В частности, анализируется необходимость преподавания дисциплин в области информационных технологий на новой методической основе, передовые методические подходы, используемые в этом направлении, их интеграция в образовательный процесс и ожидаемые результаты. Также раскрываются научно-методические основы эффективного внедрения этих подходов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: сельское хозяйство, информационные технологии, профессиональная компетентность, компьютерная имитационная модель, инновационный методологический подход, моделирование.

Annotation. This article analyzes the need for teaching information and communication technologies in agriculture using new methodological approaches. It substantiates their

practical significance using effective methodological models as examples and proposes solutions appropriate to the modern educational environment. Specifically, it examines the need to teach information technology disciplines using a new methodological framework, the advanced methodological approaches used in this area, their integration into the educational process, and the expected outcomes. It also reveals the scientific and methodological foundations for the effective implementation of these approaches in higher education institutions.


Keywords: agriculture, information technology, professional competence, computer simulation model, innovative methodological approach, modeling.

KIRISH. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib kelib, kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirish va samarali qo‘llashni talab qilmoqda. Shu sababli oliy ta’limda axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish jarayoni zamon talablari asosida yangilanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalar asosida tashkil etilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanlarni o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarga kasbiy sohada axborot texnologiyalarining o‘rni, imkoniyatlari va ularni amaliy faoliyatda qo‘llash usullarini o‘rgatishdan iboratdir. Biroq an’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha talabalarning mustaqil fikrlashi va real muammolarni hal etish ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Shu bois oliy ta’limda axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda an’anaviy metodlar o‘rnini amaliyotga yo‘naltirilgan, interaktiv va innovatsion yondashuvlar egallamoqda. Bunday metodlar talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, ularni axborot muhitida mustaqil va samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi hamda fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Aynan shu omillar axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. [1]

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODLAR. Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid ta’lim yo‘nalishlarda axborot texnologiyalarini o‘rganish nafaqat texnik ko‘nikmalarni egallashni, balki kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida ularni samarali foydalanishni ta’minlaydi. M.Waly, A.Ashadilar fikricha axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish individual ta’limning yo‘nalishlari va pedagogik nazoratni optimallashtirib, talabalarning ijodkorlik va tahliliy fikrlash salohiyatini shakllantirishda, talabalarda axborot komponentlarini idrok etish, ulardan kasbiy vazifalarda foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishda samara beradi. [2]

Tadqiqotchi S.Bellga ko‘ra, zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalari bo‘yicha nazariy bilimlarni amaliyotga yo‘naltirishda loyihaga asoslangan ta’lim yondashuvi dolzarb bo‘lib, u talabalarning mustaqil ishlash, muammoni aniqlash, axborot izlash, yechim ishlab chiqish va uni texnologik vositalar orqali taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu sababli loyihaga asoslangan ta’limni o‘quv dasturiga integratsiya qilish juda muhim, chunki bu talabalarda “mavzuni yaxshiroq tushunishga, chuqurroq o‘rganishga, yuqori darajadagi o‘qishga va o‘rganish motivatsiyasini oshirishga” olib keladi. [3]


Axborot texnologiyalari bo‘yicha ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy ishchi kuchi talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashda innovatsion metodik yondashuvlarning roli tobora ortib bormoqda. Xususan, “Qishloq xo‘jaligida axborot kommunikatsion texnologiyalar” fanini o‘qitishda kompyuter imitatsion modellashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim metodlari talabalarda amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda (1-rasm). [4]



1-rasm. O‘qitishni kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etish sxemasi

Ushbu yondashuv o‘zining vizual-interaktiv xususiyatlari bilan ajralib turadi: ta’lim oluvchilarga real kasbiy holatlarni modellashtirish, ularning rivojlanishini kuzatish, jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni yechish imkonini beradi. Bu orqali talabalarning tizimli fikrlash, analitik mulohaza yuritish, qaror qabul qilish kabi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi. [5]

Kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi talabalarning agrotexnologik jarayonlarni tahlil qilish, ekin yetishtirish texnologiyalarini loyihalash hamda agroaxborotni vizual tarzda ifodalashga oid salohiyatini oshiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida dehqonchilik va agrotexnika jarayonlarini samarali rejalashtirish, hosildorlikka ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, vizual asoslangan o‘qitish uslubi talabalarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi, ya’ni qishloq xo‘jaligi jarayonlarini chuqur anglash, ularni eslab qolish va amaliy faoliyatda samarali qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuni ta’kidlash joizki, multimediali o‘quv muhiti orqali taqdim etilgan bilimlar inson miyasi uchun eng qulay - ko‘rish va eshitish orqali idrok qilinadi, bu esa mavzularning samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. [6]



A **B** **C**

2-rasm. O‘simliklardagi kasalliklarning rivojlanish kompyuter imitatsion modeli

2-rasmda ko‘rsatilgan kompyuter imitatsion modellarda **A** – Fitoftora zamburug‘ining taraqqiyot tsikli ko‘rsatilgan bo‘lib, bunda fitoftora bilan kasallangan kartoshka barglarida qoramtir, qo‘ng‘ir dog‘lar paydo bo‘lishi, zamburug‘ metsiliysi gaustoriya bilan bargning hujayra ichidagi moddalarni osmatik bosim yordamida so‘rib olishi, natijada kartoshka bargi qorayishi va qurishi ko‘rsatiladi. **B** – Bug‘doy chang qorakuyasi ko‘payishining kompyuter imitatsion modeli ko‘rsatilgan bo‘lib, bunda boshoqda don o‘rniga qora to‘zondek chang qora sporalari – teliosporalari vujudga kelishi ko‘rsatiladi va tushuntiriladi. **C** – Zang zamburug‘i taraqqiyotining kompyuter imitatsion modeli bo‘lib, bunda zamburug‘lar haqida to‘liq tushuncha beriladi va ko‘rsatiladi (2-rasm). Bu orqali qishloq xo‘jaligi sohasida tahsil oladigan talabalarning mavzularni tushunish imkoniyatlari hamda kognitiv faolligi oshadi.

Shuningdek, loyiha asosidagi yondashuv (Project-Based Learning) bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanganda, kompyuter imitatsion modellar qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi talabalarda agrotexnologik muammolarni mustaqil o‘rganish, mas’uliyat bilan qaror qabul qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish hamda jamoa bilan samarali ishlash kabi zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg‘unlashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot jarayonida “Qishloq xo‘jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanini o‘qitishda innovatsion metodik yondashuvlarni joriy etishning samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonida kompyuter imitatsion modellardan hamda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish talabalarning bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalari va mustaqil fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shu jumladan, innovatsion metodik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar faolligi ortib, ularning tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalari shakllanishi kuzatildi. Ayniqsa, kompyuter imitatsion modellar va amaliy topshiriqlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan integratsiya qilishga imkon berdi. [7]

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, “Qishloq xo‘jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanini innovatsion metodik yondashuvlar asosida o‘qitish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda ularni raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. [8]

Kompyuter imitatsion modellar, virtual tajribalar va amaliy kompetensiyalarning kasbiy harakatlar bilan komparativligi asosida “Qishloq xo‘jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanini samarali o‘qitish zamonaviy ta’lim metodologiyasi nuqtayi nazaridan talabalarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy ta’minot tizimini rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayon, avvalo, qishloq xo‘jaligiga oid tabiiy va texnologik jarayonlarning virtual muhitda modellashtirilgan shaklda ifodalanishiga asoslangan ta’lim vositalarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

XULOSA. O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion modellar, GIS texnologiyalari, statistik va grafik ma’lumotlarni tahlil qilish dasturlari, elektron ta’lim platformalari kabi vositalardan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarning qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kumar S, Priyanka. The Effects of Information and Communication Technology (ICT) on Pedagogy and Student Learning Outcome in Higher Education. EAI Endorsed Scal Inf Syst [Internet] - 2023.

2. Waly M.M., Ashadi A. Unleashing the Potentials: Nurturing Students’ 4Cs Skills through Project-Based Learning with ICT in EFL Classrooms. Journal of Foreign Language Teaching and Learning. 2024. - pp.127–160.

3. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House. 2019. - pp. 39-43.

4. Jonassen, D. H. On the Role of Concepts in Learning and Instructional Design. Educational Technology Research and Development, 54(2) - 2010., pp.177–196.

5. Ruth C. Clark and Richard E.Mayer. E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning – 2023.

6. Mayer R. E. Cognitive Theory of Multimedia Learning. In The Cambridge Handbook of Multimedia Learning. 2005. - pp. 31-48.

7. Lutfillayev M.X., Djabbarov B.B. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish//“Mug‘allim ham uzluksiz bilimlendirio‘” ilimiy-metodikaliq jurnali. - Nukus, 2023. - 294-297 b.

8. Djabbarov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish//“Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024. - 39-42 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISH JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.170

Quvanov Zahiriddin Quvonovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti o‘qituvchisi
+99877 107 07 96
zahiriddinquvonov34@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta’lim samaradorligini oshirishda tanqidiy fikrlashning ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, bilimlarni o‘zlashtirish, ta’lim jarayoni, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, tahlil, xulosa chiqarish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития критического мышления в процессе усвоения знаний. Особое внимание уделяется формированию у обучающихся навыков самостоятельного мышления, анализа, сравнения и обобщения информации. Также анализируются современные педагогические технологии, способствующие развитию критического мышления. Результаты исследования подтверждают важность критического мышления для повышения эффективности образования.

Ключевые слова: критическое мышление, усвоение знаний, образовательный процесс, самостоятельное мышление, педагогические технологии, анализ, обобщение.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of developing critical thinking in the process of knowledge acquisition. Special attention is given to forming students’ skills in independent thinking, analysis, comparison, and drawing conclusions. Modern pedagogical technologies that support the development of critical thinking are also analyzed. The research results demonstrate the importance of critical thinking in improving the effectiveness of education.

Keywords: critical thinking, knowledge acquisition, educational process, independent thinking, pedagogical technologies, analysis, conclusion.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri — o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni faqatgina tayyor ma’lumotlarni yod olish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, har bir o‘quvchi o‘rganayotgan bilimini chuqur anglab, uni hayotiy tajriba bilan bog‘lay olishi, turli nuqtai nazarlarni solishtira bilishi va asoslangan xulosalar chiqarishi zarur. Ana shunday jarayonda tanqidiy fikrlash muhim o‘rin tutadi.

Tanqidiy fikrlash — bu axborotni tahlil qilish, uni baholash, ishonchliligini aniqlash hamda mantiqiy asosda xulosa chiqarish jarayonidir. Zamonaviy ta’lim tizimida ushbu ko‘nikma shaxsning intellektual rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Chunki tez o‘zgarayotgan axborot oqimi sharoitida to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotni ajrata bilish, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarga ijodiy yondashish katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin fikr bildirishga undash va muhokamalarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullaridandir. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, guruhda ishlash, bahs-munozara va loyiha asosida o‘qitish kabi yondashuvlar o‘quvchilarning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bunday usullar orqali o‘quvchi nafaqat ma’lumotni qabul qiladi, balki uni tahlil qiladi, savollar beradi va o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilishni o‘rganadi.

Mazkur maqolada bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati hamda uni amaliyotda qo‘llash usullari yoritiladi. Shu orqali ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi jahon pedagogikasi va psixologiyasida keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda dastlabki nazariy qarashlar John Dewey tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u ta’limni faol fikrlash jarayoni sifatida talqin qilgan va o‘quvchini muammoli vaziyatlar orqali o‘qitish zarurligini ta’kidlagan. Deweyning qarashlari tanqidiy fikrlash konsepsiyasining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tanqidiy fikrlash nazariyasini rivojlantirishda Richard Paul va Linda Elderning ishlari alohida o‘rin tutadi. Ular tanqidiy fikrlashni mantiqiy tahlil, dalillarga asoslanish va fikrni asoslash jarayoni sifatida ko‘rib chiqadilar. Ularning tadqiqotlari ta’lim jarayonida savol berish madaniyatini shakllantirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi ham ushbu mavzuga bevosita aloqador bo‘lib, u bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni ijtimoiy muloqot va hamkorlik orqali samarali kechishini ta’kidlaydi. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

METODLAR

Mazkur tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid nazariy manbalarni tahlil qilish orqali adabiyotlar sharhi amalga oshirildi. Bu usul muammoning ilmiy asoslarini aniqlash va mavjud yondashuvlarni umumlashtirish imkonini berdi.

Shuningdek, pedagogik kuzatish metodi qo‘llanildi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning darsdagi faolligi, savol berish darajasi, muhokamalarda ishtiroki va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalari tahlil qilindi. Bu orqali tanqidiy fikrlashning amaliy namoyon bo‘lish darajasi baholandi.

Tadqiqotda so‘rovnoma (anketa) usuli ham ishlatildi. O‘quvchilar va o‘qituvchilardan olingan javoblar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlandi. So‘rovnoma natijalari statistik jihatdan umumlashtirildi.

Bundan tashqari, tahlil va sintez metodlari yordamida olingan ma’lumotlar tizimlashtirildi hamda umumiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli ham qo‘llanilib, an’anaviy ta’lim va interfaol ta’lim yondashuvlari o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlash va ta’lim jarayonida ularni qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning bilimni mexanik tarzda yod olishidan ko‘ra, uni chuqur anglab, tahlil qilib, baholab o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchining intellektual faolligini oshiradi hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

An’anaviy ta’lim metodlarida o‘quvchilar ko‘proq tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi rolida bo‘lib, ularning fikrlash faolligi cheklangan bo‘ladi. Bunday yondashuv bilimning yuzaki o‘zlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, interfaol metodlar qo‘llanilganda o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, savollar beradi, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi. Bu esa tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Chunki muammo asosida tashkil etilgan dars o‘quvchini izlanishga, turli manbalarni solishtirishga va mantiqiy xulosalar chiqarishga undaydi. Bunday jarayonda o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki uni qanday qo‘llashni ham o‘rganadi. Natijada bilim hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, guruhda ishlash va hamkorlikda o‘qitish metodlari ham muhim ahamiyatga ega. Jamoaviy muhokama jarayonida o‘quvchilar turli fikrlarni eshitadi, ularni tahlil qiladi va o‘z nuqtai nazarini qayta ko‘rib chiqadi. Bu jarayon fikr almashish madaniyatini shakllantiradi hamda dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantiradi. Muhokama davomida aniqlanishicha, o‘quvchilar erkin fikr bildirish imkoniga ega bo‘lganda, ularning tahliliy salohiyati sezilarli darajada oshadi.

Savol-javob usuli tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi tomonidan berilgan ochiq savollar o‘quvchini chuqur o‘ylashga, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlashga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Ayniqsa, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Qaysi dalil asosida?” kabi savollar fikrlash jarayonini faollashtiradi.

MUNOZARA

Axborot bilan ishlash ko‘nikmasidir. Zamonaviy sharoitda o‘quvchilar turli manbalardan katta hajmdagi ma’lumot oladi. Ushbu ma’lumotlar orasidan ishonchlisini tanlash, uni tahlil qilish va kerakli xulosani shakllantirish tanqidiy fikrlashning asosiy elementlaridan biridir. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, axborot savodxonligi bilan tanqidiy fikrlash o‘zaro chambarchas bog‘liq.

Shuningdek, baholash jarayoni ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning mustaqil ishlarini baholashda faqat to‘g‘ri javob emas, balki fikrlash jarayoni, dalillar asoslanganligi va mantiqiy izchillik ham hisobga olinishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchini chuqurroq o‘ylashga undaydi va yuzaki javoblardan voz kechishga yordam beradi.

O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi shaxs bo‘lishi kerak. U o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi, ularning har bir fikrini tinglashi va konstruktiv muhokama muhitini yaratishi zarur. Bunday muhit tanqidiy fikrlashning samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Motivatsiya omili ham alohida e’tiborga loyiq ekanligi aniqlandi. O‘quvchi o‘rganayotgan mavzuga qiziqish bildirsa, u uni chuqurroq tahlil qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida real hayotiy misollar, amaliy vazifalar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usullar bilimni mustahkamlaydi va fikrlashni faollashtiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshirishda asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, hamkorlikda ishlash va savol-javob texnologiyalari ushbu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash rivojlangan o‘quvchi esa bilimni ongli ravishda o‘zlashtiradi, uni amaliyotda qo‘llay oladi va mustaqil qaror qabul qilishga qodir bo‘ladi.

XULOSA

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘rganilgan nazariy qarashlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning bilimni chuqur va ongli ravishda qabul qilishiga, uni tahlil qilishiga hamda amaliyotda qo‘llay olishiga xizmat qiladi. Faqat ma’lumotni yod olish emas, balki uni tushunish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasi shaxsning intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlash axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi. Zamonaviy axborot oqimi sharoitida to‘g‘ri va ishonchli ma’lumotni ajratish, turli manbalarni solishtirish va asoslangan qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, tanqidiy fikrlash nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham zarur ko‘nikma hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqilligini kuchaytiradi va

ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. O‘qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchil qo‘llash, ochiq savollar berish va erkin fikr almashish muhitini yaratish ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev J. G‘. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 45–78-betlar.

2. Tolipov O‘. Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2012. – 62–104-betlar.

3. Mavlonova R. A., To‘raeva O. T., Xoliqberdiev K. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2010. – 89–132-betlar.

4. Muslimov N. A. Pedagogik kompetentlik va uning shakllanishi. – T.: Fan, 2015. – 33–59-betlar.

5. Sharipov Sh. Zamonaviy ta’lim metodlari va interfaol texnologiyalar. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014. – 71–96-betlar.

6. Ziyamuhammedov B., Abdullayeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2006. – 54–88-betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA JADIDCHA MUAMMOLI TA’LIM YONDASHUVI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.171

Toshkent shahar Yangihayot tumani 331-maktab o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
Ruziyeva Mexriniso Marufjonovna
mehrinisoruziyeva6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda jadid ma’rifatparvarlarining muammoli ta’limga xos didaktik yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovning pedagogik qarashlari asosida muammoli vaziyat yaratish, mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqotda jadidcha muammoli ta’lim modelining strukturaviy komponentlari ishlab chiqilib, uning zamonaviy oliy ta’lim jarayoniga integratsiyasi asoslab beriladi.

Annotation. This article analyzes the didactic approaches of new educators to problem-based education in developing students' intellectual potential. In particular, based on the pedagogical views of Abdulla Avloni, Mahmudkhodja Behbudiy and Munavvarqori Abdurashidkhanov, the mechanisms for creating a problem situation, encouraging independent thinking, and forming social responsibility are revealed. The study develops the structural components of the new problem-based education model and justifies its integration into the modern higher education process.

Аннотация. В данной статье анализируются дидактические подходы новых педагогов к проблемно-ориентированному образованию в развитии интеллектуального потенциала студентов. В частности, на основе педагогических взглядов Абдуллы Авлони, Махмудходжи Бехбудия и Мунавваркори Абдурашидханова раскрываются механизмы создания проблемной ситуации, поощрения самостоятельного мышления и формирования социальной ответственности. В исследовании разрабатываются структурные компоненты новой модели проблемно-ориентированного образования и обосновывается ее интеграция в современный процесс высшего образования.

Kalit so‘zlar: jadid didaktikasi, muammoli ta’lim, intellektual salohiyat, tanqidiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika.

Ключевые слова: современная дидактика, проблемно-ориентированное обучение, интеллектуальный потенциал, критическое мышление, компетентностный подход, инновационная педагогика.

Keywords: modern didactics, problem-based learning, intellectual potential, critical thinking, competency-based approach, innovative pedagogy.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri – talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Intellektual salohiyat nafaqat bilim hajmi, balki muammoni ko‘ra olish, tahlil qilish va samarali yechim taklif eta olish kompetensiyalarini ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri-mustaqil fikrlay oladigan, tahlil qila biladigan va muammolarga yangicha yechim topa oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim haqidagi qarashlari, xususan, muammoli ta’limga yaqin yondashuvlari bugungi kun uchun ham dolzarbdir.

Jadid ma’rifatparvarlari ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, unda muammoli vaziyatlar orqali fikrlashni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surganlar. Ularning pedagogik merosida savol-javob, bahs-munozara, real hayotiy misollar asosida o‘qitish elementlari muammoli ta’limning dastlabki ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki pedagogik yangilanish harakati ham edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar eski maktab tizimini tanqid qilib, “usuli jadid” — yangi usul maktablarini tashkil etdilar. Ularning asosiy maqsadi bolalarga faqatgina yodlash orqali bilim berish emas, balki ongli tushunish, fikrlash va hayot bilan bog‘lab o‘rganishni yo‘lga qo‘yish edi. Jadidc ta’lim yondashuvining markazida savol va muammo turadi. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy axborot manbai bo‘lsa, jadidlar ilgari surgan usulda o‘quvchi (bugungi talaba) faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi. Dars jarayonida muammoli vaziyat yaratish, savol-javob asosida fikr yuritishga undash, mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish — bularning barchasi talabaning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Avloniy o‘zining pedagogik qarashlarida tarbiyani faqat axloqiy me’yorlar majmui sifatida emas, balki tafakkurni shakllantirish jarayoni sifatida talqin etadi. U “fikr tarbiyasi” tushunchasini ilgari surib, yosh avlodni mustaqil o‘ylashga chaqiradi. Bu esa bugungi muammoli ta’lim metodining mohiyatiga to‘la mos keladi. Muammoli ta’limda talaba tayyor javobni emas, balki muammoni hal qilish jarayonini o‘rganadi. Jarayon davomida u tahlil qiladi, taqqoslaydi, umumlashtiradi va xulosa chiqaradi. Jadidcha muammoli ta’limning nazariy asoslari Jadid pedagogikasida quyidagi didaktik tamoyillar muammoli ta’limga asos bo‘lib xizmat qiladi:

1.Ongli o‘qitish – bilimni anglab, tahlil asosida o‘zlashtirish;

2.Amaliy yo‘naltirilganlik – nazariyani hayotiy muammolar bilan bog‘lash;

3.Bahs va munozara metodi – fikrlar xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlash;


4.Shaxs erkinligi – mustaqil qaror qabul qilishni rag‘batlantirish. Jadidcha muammoli ta’lim ushbu komponentlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jadidcha muammoli ta’lim va an’anaviy ta’limning qiyosiy tavsifi

№	Mezon	An’anaviy ta’lim	Jadidcha muammoli ta’lim
1	Bilim manbai	O‘qituvchi markazda	Talaba faol subyekt
2	Dars shakli	Ma’ruza ustun	Savol-munozara, bahs
3	Fikrlash turi	Reproduktiv	Analitik va kreativ
4	Baholash	Natijaga yo‘naltirilgan	Jarayon va refleksiyaga yo‘naltirilgan
5	Maqsad	Bilim berish	Fikr yuritishga o‘rgatish

Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda jaded yondashuvning yana bir muhim jihati — ta’limning hayotiyligi va amaliy yo‘nalganligidir. Jadidlar fanlarni real hayot bilan bog‘lashga, o‘quvchilarni jamiyat muammolari ustida fikr yuritishga undaganlar. Bugungi kunda ham talabalarga nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni real vaziyatlar asosida o‘qitish, keys-stadi, debat, loyiha ishlari orqali muammoli vaziyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Jadidcha muammoli ta’limni oliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun quyidagi metodlar tavsiya etiladi:



Xulosa qilib aytganda, jadidcha muammoli ta’lim yondashuvi bugungi oliy ta’lim tizimi uchun samarali metodologik asos bo‘la oladi. U talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tahliliy yondashuv va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosi zamonaviy innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashtirilsa, ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish mumkin. Eng muhimi, bunday yondashuv natijasida jamiyatimiz uchun intellektual yetuk, mas’uliyatli va tashabbuskor kadrlar yetishib chiqadi.

Shuningdek, jadidlar ta’lim jarayonida erkin fikr va munozarani qo‘llab-quvvatlaganlar. Bu esa talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash esa intellektual salohiyatning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Talaba olingan

ma’lumotni shunchaki qabul qilmay, balki uni tahlil qilsa, savol qo‘ysa va shubha bilan yondashsa, uning bilim darajasi chuqurlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Axmedova M.E., Niyozov G. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma. T.:2011.136 b.

2. Axmedova M.E., va boshq. Pedagogika. Darslik. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022. 223 bet.

3. Axmedova M.E., va boshq. “Kasbiy pedagogika”. Darslik. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022. 280 bet

4. Axmedova M.E., va boshq. Umumiy pedagogika. Darslik. TDPU. 2023 yil. Zuxra baraka biznes MCHJ. 378 bet.

5. K.Xoshiomov. S.Nishoonova.Pedagogika tarixi. Darslik. 2010 yil.

6. K.Xoshiomov. S.Ochil. Pedagogik antalogiya. Pedagogika tarixi. T.: 1998.

7. Ma’naviyat yulduzlari. M.Xayrullayev tahriri. 1999.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAKTABGACHA TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION METODLAR YORDAMIDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.172

Saidova Nigora Olimovna
Farg‘ona davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti v.b.
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
nigorasaid89@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. O‘yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM yondashuvi, Montessori va Reggio Emilia metodlari misolida ularning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida ushbu yondashuvlarni qo‘llash istiqbollari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ijodkorlik, innovatsion metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEAM, o‘yin faoliyati.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы развития творческих способностей детей посредством использования современных педагогических технологий и инновационных методов в системе дошкольного образования. Проанализированы их педагогические возможности на примере игровых технологий, информационно-коммуникационных технологий, подхода STEAM, методов Монтессори и Реджио Эмилия. Также показаны перспективы применения этих подходов в системе дошкольного образования Узбекистана.

Ключевые слова: дошкольное образование, творчество, инновационные методы, современные педагогические технологии, STEAM, игровая деятельность**.**

Annotation. This article covers the development of children's creative abilities through the use of modern pedagogical technologies and innovative methods in the preschool education system. Their pedagogical possibilities are analyzed using the example of game technologies, information and communication technologies, the STEAM approach, the Montessori and Reggio Emilia methods. The prospects for applying these approaches in the preschool education system of Uzbekistan are also shown.

Keywords: preschool education, creativity, innovative methods, modern pedagogical technologies, STEAM, game activity.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan maktabgacha ta’limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarda bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida ijodkorlikni rivojlantirish bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, faol va interaktiv shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limda keng qo‘llanilayotgan texnologiyalar quyidagilardan iborat:

- **Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT):** Raqamli qurilmalar (kompyuter, planshet, interaktiv doskalar) yordamida ta’lim o‘qish jarayonini boyitadi. AKT vositalari bolalarda ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi. NAEYC tavsiyasiga ko‘ra, texnologiya va media resurslari bolalarning ta’lim tajribasini boyitib, ularning ijodkorligi va muomala ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, multimedialar yoki interaktiv o‘yinlar bolalarning muammolarni yechish va yangi g‘oyalar yaratishga yordam beradi.
- **O‘yin orqali o‘qitish:** Game-based learning usulida dars jarayoni o‘yin elementlari bilan boyitiladi. Bu metod bolalarni o‘z-o‘zini motivatsiyalashga, muammolarni kreativ yechim bilan hal qilishga undaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘yinga asoslangan ta’lim bolalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish va ijodkorligini rivojlantiradi. Masalan, meta-tahlil natijalariga ko‘ra, o‘yin o‘qitish erta yoshdagi bolalarda motivatsiya va ijodiy ko‘nikmalarning oshishiga ijobiy ta’sir qiladi.
- **STEAM yondashuvi:** STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) pedagogikasi fan va san’at sohalarini bog‘lab, muammolarni integratsiyalashgan usulda o‘rganishni targ‘ib etadi. Bu yondashuv bolalarni eksperimental va ijodiy faoliyatga jalb qiladi. Masalan, Cucu Atikah va boshq. (2024) tadqiqotida STEAM asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning ijodiy salohiyatini oshirganligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti maqolasida STEAM metodlari bolalarning intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilish orqali rivojlantiradi.

Innovatsion metodlar

Quyidagi innovatsion ta’lim usullari ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi:

- Aqliy hujum (brainstorming): Qisqa vaqt ichida imkon qadar ko‘proq g‘oyalarni guruh bo‘lib to‘plash. Bu usulda ishtirokchilar g‘oyalarni rad etmasdan taklif qiladilar; keyin ulardan eng qiziqarli va amalga oshirish mumkin bo‘lganlari tanlab olinadi. Aqliy hujum ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, talabalarni yangi va kutilmagan yechimlarni izlashga o‘rgatadi.
- Klaster usuli: Ma’lumot va tushunchalarni tizimli guruhlarga (klasterlarga) mantiqiy ajratish. Klaster yondashuvida o‘quvchilar vizual kartochkalar yoki sxemalar yordamida ma’lumotlarni qayta ishlaydilar; bu ularning mustahkam bilim olish, yangi g‘oyalar yaratish va turli jihatlarni bog‘lash qobiliyatini oshiradi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, klaster usuli

o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish, bilimlarni mustahkamlash va ijodiy yondashuvlar sonini ko‘paytirishning samarali vositasidir.

- "Akvarium" texnologiyasi: Interfaol usul bo‘lib, unda bir guruh (yo‘riqchi guruh) ma’lum bir muammoga javob beradi, boshqa talabalar esa tashqi kuzatuvchilar, maslahatchilar va tahlilchilar sifatida ishtirok etadilar. Bu usulda bir necha talabalar (ijrochi guruh) mavzuni o‘ynaydilar, boshqa talabalar (tomoshabinlar) esa uni baholaydilar va takomillashtiradilar. Akvarium texnologiyasi o‘quv jarayoniga dramatik elementlarni kiritadi, talabalarga jamoada o‘z fikrini bildirish, sinab ko‘rish va boshqalarning fikrini tinglash imkonini beradi.
- "Tafakkurning olti shlyapasi" usuli: Edward de Bono tomonidan ishlab chiqilgan usul muammoni 6 xil tafakkur rollarida (oq, qizil, qora, sariq, yashil, ko‘k shlyapalar) ko‘rib chiqishni ta’minlaydi. Har bir shlyapa ma’lum bir yondashuv bilan belgilanadi (faktlar, his-tuyg‘ular, ehtiyotkorlik, ijobiylik, ijodkorlik, jarayonni boshqarish). Ushbu texnika muammolarni turli nuqtai nazardan baholash, ijodiy qarorlar qabul qilish va guruhda hamjihatlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, yashil qalpoq yangi g‘oyalarni yaratishga e’tibor qaratsa, oq qalpoq faqat faktlar va ma’lumotlarga tayanadi.
- Keys-stadi usuli (vaziyat tahlili): Haqiqiy yoki taxminiy vaziyatlar va muammolarni o‘rganish. O‘quvchilar real voqea, hodisa yoki vaziyatni tahlil qiladilar va muammolarni hal qilish variantlarini ishlab chiqadilar. Keys-stadi o‘quvchilarga tahliliy fikrlash, ijodiy yechimlarni izlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar kasbiy yoki ijtimoiy muammolarni o‘rganadilar va o‘zlarining innovatsion yechimlarini taqdim etadilar.
- STEAM yondashuvi: Fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Mathematics) integratsiyasi. STEAM loyihalarda turli fanlarning usullari va tushunchalarini birlashtiradi, masalan, muammoga ilmiy asoslangan yondashuv, dasturlash, qurilish, san’at elementlari. Bunday integratsiyalashgan ta’lim vazifalarni to‘liq va ijodiy hal qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM darslari o‘quvchilarda muammolarni hal qilish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik kabi zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Dizayn tafakkuri (Design Thinking): Muammoni foydalanuvchi nuqtai nazaridan tushunish va tezkor prototiplarni yaratish orqali innovatsion g‘oyalarni sinab ko‘rish jarayoni. O‘quvchilar empatiya, muammoni shakllantirish, g‘oya yaratish, prototiplash va sinov bosqichlaridan o‘tadilar. Ushbu usul yaratuvchi va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yechimlarni topishga va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Dizayn tafakkurini o‘rganishda o‘quvchilar murakkab muammoni kichik qadamlar bilan hal qilish va ko‘plab g‘oyalar hamda prototiplarni sinab ko‘rish orqali ijodiy fikrlashni o‘rganadilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan texnologiya va metodlar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash hamda muammoga yo‘naltirilgan yondashuv ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Masalan, axborot-kommunikatsiya va multimedia vositalaridan foydalanilgan darslar ta’limni interaktiv qiladi, bu esa o‘quvchini mustaqil ravishda izlanishga va turli masalalarni chuqur anglashga undaydi. Innovatsion metodlarning har biri ijodkorlikni o‘ziga xos tarzda rivojlantiradi: aqliy hujum ko‘proq va kutilmagan g‘oyalarni ifodalashga yordam bersa, klaster esa fikrlarni

tizimlashtirish orqali ulardan yangi kontekstda foydalanishga ko‘maklashadi; akvarium metodi o‘quvchilarga o‘z rollarini sinab ko‘rish, o‘zaro munozara orqali g‘oyalarini takomillashtirishga imkon yaratadi. "Olti shlyapa" metodi fikrlashning turli darajalarini uyg‘unlashtirishni ta’minlab, o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida muammoga olti xil nuqtayi nazardan qarashga o‘rgatadi. STEAM va dizayn tafakkuri yondashuvlari fan va san’at uyg‘unligini ta’minlagan holda mantiqiy va ijodiy fikrlashni birgalikda rivojlantiradi, yangi konseptual yechimlarni ishlab chiqishni rag‘batlantiradi. Ushbu usullar darslarni murakkab va hayotiy muammolar bilan boyitib, talabalarga yangi g‘oyalar yaratish va masalalarning ijodiy yechimlarini taklif etishni o‘rgatadi.

Zamonaviy pedagogik usullar bolalarning ijodkorlik salohiyatini oshirishga qaratilgan. STEAM yondashuvida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarga turli mavzularni integratsiyalangan usulda o‘rganish imkonini beradi va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. O‘yin shaklidagi ta’lim esa bolalarni o‘rganishga qiziqtirgan holda, ularning muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatini oshiradi.

Loyiha asosida o‘qitishda bolalar real dunyo muammolari ustida ishlab, ijodiy yechimlar qidiradi va tahlil qiladi. Montessori muhitida bolalar o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish va erkin ijodiy izlanishlar bilan band bo‘lib, natijada ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Reggio pedagogikasida esa bolalar san’at, musiqa va harakat orqali fikrlarini ifodalaydi, bu esa ularning ijodiy tili va izlanishlarini kengaytiradi.

O‘zbek ta’limida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, YUNISEF ko‘magida amalga oshirilgan sun’iy intellektga asoslangan Eduten matematik platformasi tajriba loyihasida darslar interaktiv o‘yin shaklida o‘tkazildi. Loyiha natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli platforma o‘quvchilarning matematikaga qiziqishini sezilarli darajada oshirdi hamda ularning mantiqiy fikrlash va masalalarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Bunday raqamli ta’lim vositalari o‘qituvchilar yukini yengillashtiradi va har bir o‘quvchiga individual yondashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi hamda maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish konsepsiyalari ijodiy ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasida bolalarning qiziqishlari va iqtidorlari asosida o‘qitish, ijodkorligini rag‘batlantirish tamoyillari ham belgilangan. Pedagogik innovatsiyalar va raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish loyihalari doirasida yangi elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va STEM markazlari tashkil etilmoqda. Ushbu tashabbuslar ta’lim muhitini yangilash va ta’lim tizimiga innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, turli mamlakatlardagi tadqiqotlar STEAM, o‘yin va loyiha asosidagi metodlar bolalarning ijodiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. Misol uchun, AQShda o‘tkazilgan tadqiqotlar Montessori pedagogikasida o‘qigan bolalarning ijodkorlik salohiyati yuqori ekanini qayd etgan. Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy manbalar bolalar bog‘chalarida ijodkorlikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiya va metodlarni qo‘llash samarasini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

O‘yin, loyiha va texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va ijodiy faolligini oshiradi. Ushbu metodlarni ta’lim jarayoniga tizimli joriy etish maktabgacha ta’lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – Toshkent, 2020.

3. Xodjayev B.X. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

4. Qodirova F.R. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent. 2008.

6. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi Toshkent 2022 Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T. Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F.

7. Saidova N. O., Tojaliyeva S. MAKTABGACHA TA’LIMDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI VA SAMARALI METODLARI //TADQIQOTLAR. – 2026. – T. 78. – №. 1. – C. 29-33.

8. Saidova N. O. ILK MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN O ‘YINLAR //IMRAS. – 2025. – T. 8. – №. 1. – C. 66-71.

9. Olimovna, S. N. (2024). BOSHLANG‘ICH MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MIQDORIY TUSHUNCHALARNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Farg‘ona davlat universiteti*, (3), 47-47.

10. Saidova, N. O. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV, INNOVATSION YONDASHUVLAR." *ZA'MONAVIY TA'LIM ISLOHOTLARI VA ULARNING AMALIY YECHIMLARI: KONFERENSIYA MATERIALLARI* 1.3 (2025): 440-442.

11. Saidova, N. O. "ILK MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN O‘YINLAR." *IMRAS* 8.1 (2025): 66-71.

12. Ahmadjonova, D. M., and N. O. Saidova. "MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI NUQSONLI BOLALARDA MATEMATIKA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH YO‘LLARI." (2024).

13. Saidova N. O., Alijonova H. Maktabgacha ta’lim tashkilotida zamonaviy innovatsion texnologiyalar //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 3.

14. Saidova N. O., Ahmadjonova D. M. POSSIBILITY OF SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS TO USE INTERACTIVE METHODS FOR THE EXPLANATION OF MATHEMATICAL CONCEPTIONS BY PREPARATORY GROUP //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 254-258.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

FIZIKA FANIDAN “MASALALAR YECHISH” DARSLARINI O‘TKAZISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.173

Sattorova Dilshoda Yuldashevna
Qo‘qon davlat universiteti,
Fizika va astronomiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
sattorovadilshoda78@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika fanidan muammolarni yechish darslarining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanish metodologiyasi bayon etilgan. Maqolada o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradigan, an'anaviy o‘qitish usullaridan farqli ”Assesment”, ”Mosini tanla” va ”Blits savollari” kabi usullarning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, fizik jarayonlarni modellashtirish va muammolarni yechishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: fizika o‘qitish metodologiyasi, muammolarni yechish, pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar, muammoga asoslangan o‘qitish, mantiqiy fikrlash, kognitiv kompetensiya

Аннотация.В данной статье описывается методология использования современных педагогических технологий и интерактивных методов для повышения эффективности уроков по решению задач в физике. Анализируются преимущества таких методов, как “Ассисмент”, “Выбери правильный ответ” и “Блиц-вопросы”, которые развивают логическое мышление учащихся и отличаются от традиционных методов обучения. Также приводятся практические рекомендации по использованию цифровых технологий для моделирования физических процессов и решения задач.

Ключевые слова: методика преподавания физики, решение задач, педагогические технологии, интерактивные методы, проблемно-ориентированное обучение, логическое мышление, когнитивная компетентность.

Abstract: This article describes a methodology for using modern pedagogical technologies and interactive methods to improve the effectiveness of physics problem-solving lessons. It analyzes the advantages of methods such as "Assessment," "Choose the Correct Answer," and "Blitz Questions," which develop students' logical thinking and differ from traditional teaching methods. Practical recommendations for using digital technologies to model physical processes and solve problems are also provided.

Key words: physics teaching methods, problem solving, pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning, logical thinking, cognitive competence.

KIRISH. Zamonaviy maktabning asosiy vazifasi ta’limni shunday tashkil etishdan iboratki, u barcha maktab o‘quvchilarini sog‘lig‘i, jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari, bilim olish qobiliyatidan qat’i nazar o‘rgatadi. Shuning uchun, o‘qituvchi oldida muhim va qiyin vazifa turibdi: u nafaqat o‘quvchilarga bilim berishi, balki ularni o‘ylashga, mulohaza yuritishga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga o‘rgatishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil 19-martdagi № PQ – 5032 qarori qabul qilingan. Qaror ijrosini ta’minlash bo‘yicha ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli talabalarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash ustida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, talabalarni faol ta’lim olish jarayoniga jalb etish bo‘lib, uning asosiy maqsadi ta’limda, bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ qobiliyatlarini oshirishdir. Bunda talaba bilan o‘qituvchining hamkorlikda ishlashi talab etiladi. O‘qituvchi dars mavzusiga tegishli muammolarga talabalarni jalb etishi, ularning harakatini faollashtirishi va natijada kafolatli o‘zlashtirishlarini ta’minlashi lozim. [1]

Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida ularni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ilg‘or pedagogik tajribada ko‘pincha o‘qituvchilarning darsni qanday tashkil etishlariga bog‘liq bo‘lib, ana shu yerda ularning ijodkorligi namoyon bo‘ladi. Ana shu ijodkorlik tajribada sinalib ilg‘or nomini, ommalashib texnologiya nomini oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Fizika ta’limida masalalar yechish jarayoni o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish uslubidan zamonaviy, interfaol metodlarga o‘tish bugungi kunning amaliy talabidir.

Ko‘pgina olimlarning fikricha (masalan, J. Piaget va L. Vigotskiy ning konstruktivizm nazariyalari), fizika masalalarini yechish faqat matematik hisob-kitob emas, balki ko‘proq kognitiv jarayondir. Zamonaviy ta’limda fizika fanini o‘qitishda “Muammoli ta’lim” (Problem-Based Learning - PBL) metodining o‘rni juda katta ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchi tayyor formulani qo‘llash o‘rniga, muammoni tahlil qilish uchun yechim izlaydi. Ko‘pgina olimlarning ta’kidlashicha, fizika masalalarini yechish faqat matematik hisob-kitob emas, balki ko‘proq kognitiv jarayon hisoblanadi. O‘zbekistonlik va qobiliyatli pedagog-olimlar (masalan, R. Ishmuhamedov, M.Axmadaliyev) o‘z ishlarida masalalar yechish darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini isbotlaganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotning metodologiyasi fizika fanini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda interfaol metodlarni ishlab chiqish va joriy etishni ta’minlashga kompleks yondashilgan. Usluksiz ta’lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda o‘quvchining va o‘qituvchining munosabati alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayonni tashkil etish uchun yangicha yondashishni talab qiladi.

Ma’lumki, fizika o‘qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati salmoqlidir. Masala yechish jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarga tarbiya berish kabi muhim masalalar hal qilinadi.

Fizikadan masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Fizik hodisalarning tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo‘llanilishini chuqurroq anglaydilar. Shuningdek, masalalar o‘quvchilarda mehnatsevarlik, jur’atlilik, iroda va xarakterni tarbiyalaydi.

Quyuda “Elektromagnetizm” bo‘limiga doir masalalar yechishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Dars boshlanib, o‘quvchilar sinf xonasiga kirishgandan so‘ng salomlashiladi. Davomat olinadi. Talabalarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Ma’naviy – ma’rifiy qism o‘tkaziladi. Guruhlarga ajratiladi. Bu usulda o‘quvchilar fizika xonasiga kiraverishlarida savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Sinf xonasidagi 2 ta partasida sonlar yozilgan kattaroq kartochkalar bo‘ladi. O‘quvchilar savollarga javob topib tegishli qatorga joylashadilar.

O‘tilgan mavzuni takrorlash uchun “Blits savollar”

1. Tok manbaining E.Yu.K deganda nimani tushunasiz?

2. Qachon $U_{max} = \varepsilon$ bo‘ladi?

3. Tok manbaining ichki qarshiligi qanday aniqlanadi?

Mavzu: **“**Elektr toki “ mavzusiga doir masalalar yechish

Reja:

1. Asosiy formula va tushunchalar
2. Masalalar yechish

Nostandart test topshirig‘i

1-guruh uchun

Tok manbayining FIK	1	Tok kuchi (I) ning tok oqib o‘tayotgan yo‘nalishga perpen di kulyar bo‘lgan ko‘ndalang kesim yuzasi (S) ga nisbati $j = \frac{I}{S};\ j = n \cdot e \cdot \upsilon_{o'rt}$	A
Kirxgofning birinchi qoidasi	2	$\varepsilon = \frac{A_{chet}}{q}$ – birlik zaryadni berk zanjir bo‘ylab ko‘chirishda chet kuchlarning bajargan ishi. Birligi – 1 V.	B
Tok zichligi	3	$\boldsymbol{I = \frac{\varepsilon}{R + r}}$	S
Elektr yurituvchi kuch (E.Yu.K)	4	Tugunga ulangan o‘tkazgichlar orqali kiruvchi va chiquvchi toklarning algebraik yig‘indisi nolga teng: I1+ I2 +I3 + ... + In = 0.	D
Butun zanjir uchun Om qonuni	5	$\eta = \frac{R}{R + r} * 100\%$	E

2-**guruh uchun**

Shunt	1	Berk kontur tarmoqlaridagi kuchlanish tushuvlarining yig‘indisi, konturdagi EYuKlarning algebraik yig‘indisiga teng: I1 R1 +I2 R2 + ... +In Rn =$\mathcal{E}_1+\mathcal{E}_2+\ldots+\mathcal{E}_n$.	A
Kirxgofning ikkinchi qoidasi	2	$I_{qt}=\frac{\varepsilon}{r-}$ tashqi qarshilik nolga teng bo‘lgandagi tok kuchi.	B
Qisqa tutashuv toki	3	Ampermetr o‘lchash chegarasini oshirish uchun asbobga parallel ulanadigan kichik qiymatli qarshilik $r=\frac{R}{n-1}$	S
n ta elementni ketma ket ulab batareya tuzish	4	$I=\frac{\varepsilon}{R+\frac{r}{n}}$ batareyaning umumiy E.Yu.K n marta kamayadi.	D
n ta elementni parallel ulab batareya tuzish	5	$I=\frac{n\varepsilon}{R+nr}$ batareyaning umumiy E.Yu.K n marta ortadi.	E

Nostandart test topshirig‘ining javoblari:

1-guruh				
1	2	3	4	5
E	D	A	B	S

2-guruh				
1	2	3	4	5
S	A	B	E	d

Tashqi qarshilik 80Ω bo‘lganda zanjirdagi tok kuchi 0,8A, tashqi qarshilik 15Ω bo‘lganda tok kuchi 0,5 A ga teng bo‘ladi. E.Yu.K va ichki qarshilik aniqlansin.

Berilgan :	**Yechish :**
R_1=80 Ω **R_2=15 Ω** **I_1=0.8 A** **I_2=0.5 A**	Har ikki hol uchun Om qonunini yozamiz: $I_1=\frac{\varepsilon}{R_1+r}$ *va* $I_1=\frac{\varepsilon}{R_1+r}$ (1) Yoki bulardan
Top. k.k:	

$\varepsilon = ?, r = ?$

$$\varepsilon = I_1(R_1 + r) \;\; va \; \varepsilon = I_2(R_2 + r) \qquad (2)$$

Bu tengliklarni tenglashtirib,

$$I_1(R_1 + r) = I_2(R_2 + r) \qquad (3)$$

Ifodani olamiz. (3) dan r ni topamiz :

$$r = \frac{I_2R_2 - I_1R_1}{I_1 - I_2} \qquad (4)$$

(4) ni (2) ga qo‘yib, ε ni topamiz.

$$\varepsilon = \frac{I_1I_2(R_2 - R_1)}{I_1 - I_2} \qquad (5)$$

(4) va (5) formulalardan topilishi kerak bo‘lgan kattaliklarni hisoblaymiz:

Hisoblash :

$$r = \frac{0.5 * 15 - 0.8 * 80}{0.8 - 0.5}\Omega = 188.3\Omega$$

$$\varepsilon = \frac{0.8 * 0.5(15 - 80)}{0.8 - 0.5}V = 86.6\,V$$

Javob: r=188.3Ω, ε=86.6 V

Mustahkamlash uchun **asisment** topshirig‘i

1-guruh uchun

1.Test **Ampermetrga ulanadigan shunt qanday tanlanadi va ulanadi? R_A– ampermetr qarshiligi, r – shunt qarshiligi.** A) R_A>r, parallel ulanadi; B) R_A>r, ketma-ket ulanadi; C) R_A<r, ketma-ket ulanadi; D) R_A<r, parallel ulanadi	**3.Taqqoslang** Tok manbalarini ketma-ket va parallel ulaganda kattaliklarni taqqoslang
2.Simptom Shunt bu –	**4.Masala.**Qarshiligi 0,04 Ω bo‘lgan shunt ulangan ampermetr tarmoqqa ulanganda 5A ni ko‘rsatdi. Ampermetrning ichki qarshiligi 0,12Ω. Zanjirning tarmoqlanmagan qismidagi tok kuchini toping.

2-guruh uchun

1.Test **Gapni to‘ldiring. *n* ta elementni ... .. ulab, batareya tuzilganda umumiy E.Yu.K *n* marta.....** A) ... ketma-ket ... ortadi;	**3.Taqqoslang** Ampermetr va voltmetrning o‘lchov chegarasini oshirilganda kattaliklarni taqqoslang

B) ... ketma-ket ... kamayadi; C) ... ketma-ket ... o‘zgarmaydi; D) ...parallel ... kamayadi	
2.Simptom Kirxgofning ikkinchi qoidasi.	**4.Masala.** Ichki qarshiliklari 0,4 Ω va 0,6 Ω bo‘lgan ikkita tok manbayidan birining EYuK 2 V, ikkinchisiniki 1,5 V ga teng bo‘lib,qutblari mos holda ulangan. *a* va *b* nuqtalar orasidagi kuchlanishni toping.

Uyga vazifa uchun esa bob bo‘yicha muhim tushuncha va xulosalarni yodlash va bob yakuniga doir test topshiriqlarini bajarish topshiriq qilib beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Xulosa qilib aytganda, fizika darslarida pedagogik ta’lim texnologiyalaridan foydalanish :

- talabalarni darsdagi faolligini va qiziqishini oshiradi;
- o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi;
- o‘rganish va o‘qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi;
- o‘z resurslaridan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi;
- ta’lim oluvchi mustaqil o‘qib rivojlanib boradi;
- talabalarda hozirgi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qiladi;
- talabaning kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Fizika fanini o‘qitishda turli innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mavzular mazmunini takomillashtirish va o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy usullardan voz kechib, muammoli ta’lim va interfaol metodlardan o‘quvchilarning fizik jarayonlarni ta’minlash o‘rtacha 15-20% ga yozishi aniqlandi. Bu ayniqsa, murakkab va ko‘p bosqichli masalalarni yechishda yaqqol namoyon bo‘ldi. Zamonaviy metodlar (masalan, “Assesment” va grafik tashkil etuvchilar) o‘quvchilarda faqat tayyor formulalarni qo‘llash emas, balki masala shartini tahlil qilish va fikrning optimal variantini sozlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, interfaol ravishda o‘quvchilarni darsdan yuqorida ham mustaqil ravishda qo‘shimcha adabiyotlar va resurslar bilan ishlashga rag‘bat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salimov, R. T. Raqamli ta’lim va o‘quvchilarga individual yondashuv. Pedagogik tadqiqotlar, 8(4), 77-84. 2020

2. Kovalev, A. N. Interaktiv ta’lim vositalari va ularning samaradorligi. Tashkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti. 2019.

3. Sattorova, D. “Using crossword puzzles in physics lessons” Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 32-34.

4. Mirzaakhmad, Kurbonov, and Sattorova Dilshoda Yuldashevna. “Use of modern educational technologies in teaching physics (in the example of electromagnetism)” central asian journal of mathematical theory and computer sciences 3.10 (2022): 119-122.

5.Yuldashevna, Sattorova Dilshoda, and Kurbanov Mirzaaxmad. “Effective ways of developing creative competence of students in teaching the department of electricity and magnetism” International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

6. Sattorova, Dilshoda. “Use of computer programs in physics lessons” Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke 2.6 (2023): 64-69.

7. Sattorova, D., and Sh Jo‘martova. “Using modern educational methods, determining students'mastery level” Open Access Repository 8.12 (2022): 509-511.

8. Kurbanov, M., and D. Sattorova. “Talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda fizikadan sifatga oid masalalarning o‘rni”. Educational Research in Universal Sciences 1.5 (2022): 95-98.

9. Sattorova, D. “Fizika darslarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati”. Confrencea 11.1 (2023): 235-238.

10. Sattorova, D. Importance of modern educational technologies in teaching physics in part of “electricity and magnetism”. Science and innovation 2.B10 (2023): 214-218.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INGLIZ TILI FANINI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA O‘QITISH ORQALI TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.174

Abdulaxatova Shohsanam Adhamjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, texnologik yondashuvlari hamda zamonaviy ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirilgan innovatsion metodlar tahlil qilingan. Maqolada kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha muallif tomonidan ta’riflarni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim muhiti, kreativlik, kreativ fikrlash, pedagogik texnologiya, dars loyihasi, innovatsion metodlar, metodik tayyorgarlik.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы, технологические подходы и инновационные методы, интегрированные с современным образовательным содержанием, для развития навыков креативного мышления студентов посредством преподавания английского языка в инновационной образовательной среде. В статье автором научно обоснованы определения развития навыков креативного мышления.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, креативность, креативное мышление, педагогическая технология, проект урока, инновационные методы, методическая подготовка.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations, technological approaches, and innovative methods integrated with modern educational content for the development of students' creative thinking skills through teaching English in an innovative educational environment. The article scientifically substantiates the author's definitions of the development of creative thinking skills.

Keywords: innovative educational environment, creativity, creative thinking, pedagogical technology, lesson plan, innovative methods, methodological preparation.

KIRISH. Jahonda ta’lim jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va madaniyatlararo aloqalarning muhim vositasiga aylanib bormoqda. Shu bois ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitish nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va ta’lim jarayonida uchraydigan muammolarni kreativ yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda

zamonaviy ta’lim talablari an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechib, innovatsion ta’lim muhitida kreativ fikrlay oladigan talabalarni tayyorlashni talab qilmoqda.

Mamlakatimizda ham ta’limni jadal yangilash va uni zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablariga asosida takomillashtirishni birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[58]. Mazkur strategik vazifa innovatsion ta’lim muhitida ingliz tili darslarida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalar asosida shakllantirishni talab qiladi. Shu bois, kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ingliz tili fanni innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish uchun maqbul pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quv jarayonining sifati va natijadorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, talabalarni ingliz tili darslarida innovatsion ta’lim muhitiga tezkor moslashuvini ta’minlash, ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Maqolaning maqsadi ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish jarayonida samarali pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish hamda ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish jarayonini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari hamda interaktiv o‘qitish metodlarini ta’lim jarayoniga joriy etish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida ingliz tilini o‘qitishda talaba markazli yondashuv asosida tashkil etilgan innovatsion ta’lim muhiti talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topishi, kommunikativ faolligi hamda o‘z fikrini erkin va asosli ifoda etish qobiliyatiga ta’sirini aniqlash ko‘zda tutiladi. Mazkur tadqiqot ingliz tili darslarida loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, raqamli platformalar, multimediya vositalari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish orqali talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berishni ham maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari asosida ingliz tili ta’limida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish rejalashtiriladi.

[58] Prezident Sh.M.Mirziyoevning Yadro fizikasi institutida Fanlar Akademiyasi va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan muloqoti // Xalq so‘zi. 20 iyul, 2018 yil, № 146

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, J. Richards va T. Rodgers o‘z tadqiqotlarida chet tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv ahamiyatini asoslab, bunday yondashuv talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, interaktiv va innovatsion ta’lim muhiti tilni real muloqot jarayonida faol qo‘llash imkonini yaratadi. D. Nunan va H. Brown ilmiy ishlarida ingliz tili ta’limida muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim va ijodiy topshiriqlardan foydalanish talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatib o‘tadilar. Shuningdek, K. Robinson kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlab, innovatsion pedagogik texnologiyalar ushbu jarayonning samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Respublikamiz olimlardan N. Sayidahmedov, R. Jo‘rayev va Sh. Sharipovlarning ilmiy ishlarida ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalarning ijodiy fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari atroflicha yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida ingliz tili fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim muhitini yaratish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini tizimli va kompleks tarzda rivojlantirish masalasi yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Ayniqsa, innovatsion metodlarning amaliy samaradorligini baholash va ularni o‘quv jarayoniga moslashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish zarurati mavjud. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy ehtiyojdan kelib chiqib olib boriladi.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish jarayonini talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish omili sifatida nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishdan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish ingliz tili ta’limi samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Innovatsion ta’lim muhiti tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berilib, uning ingliz tili fanini o‘qitish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tili darslarida loyiha asosida ta’lim, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asosda tavsiflanadi.

Tadqiqotning ilmiy mohiyati shuningdek, innovatsion metodlarning talabalarning til kompetensiyalari va ijodiy faoliyatiga ta’sirini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish hamda ingliz tili ta’limida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirish bilan belgilanadi. Mazkur maqola natijalari ingliz tili ta’limi nazariyasini boyitishga, shuningdek, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida

innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqotning obyekti oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili fanini o‘qitish jarayoni bo‘lib, u innovatsion ta’lim muhiti sharoitida tashkil etilayotgan o‘quv-mashg‘ulotlar tizimini, pedagog va talaba o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlikni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan ta’lim faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy–mantiqiy tahlil, kontseptual umumlashtirish va pedagogik tajribalarni solishtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga va ularni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tadqiqotning natijalari va amaliy misollar.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar va interaktiv metodlar qo‘llanildi, natijada quyidagi asosiy natijalar qayd etildi.

Talabalarning ijodiy yondashuvi oshdi:

Loyiha asosida darslar va muammoli vaziyatlar talabalarga mustaqil fikrlash, muammoni bir nechta variantda hal qilish imkonini berdi. Masalan, “English Debate Project” loyihasi doirasida talabalar ingliz tilida o‘z mavzularini tanlab, guruhda muhokama va bahs-munozara o‘tkazdilar. Natijada ularning kommunikativ faoliyati va ijodiy yechim topish qobiliyati sezilarli darajada oshdi.

Til kompetensiyalari va muloqot madaniyati rivojlandi:

Multimedia vositalari, onlayn platformalar va interaktiv mashqlar talabalarning ingliz tilida fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini kuchaytirdi. Masalan, “Role-play Simulation” mashg‘uloti orqali talabalar turli ijtimoiy va professional vaziyatlarni ingliz tilida yechib, tilni amaliy qo‘llashni mustahkamladi.

Kreativ fikrlash diagnostikasi natijalari:

Test va so‘rovnomalar orqali o‘tkazilgan baholashlar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion metodlar qo‘llangan guruh talabalari an’anaviy darslarda o‘qigan guruhga nisbatan yuqori darajada ijodiy yechimlar ishlab chiqarish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishgan. Masalan, guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarda muammolarni bir nechta usulda hal qilish, yangi g‘oyalarni taklif qilish va ijodiy tavsiyalar berish kuzatildi.

Motivatsiya va o‘quv faolligi oshdi:

Interaktiv va innovatsion ta’lim usullari talabalar motivatsiyasini oshirib, darslarga qiziqish va faollikni kuchaytirdi. Masalan, raqamli platformalarda o‘tkazilgan viktorinalar, o‘yinlar va video-loyihalar talabalarning ishtirokini faollashtirdi va ularni til o‘rganishga rag‘batlantirdi.

Shu asosda, tadqiqot natijalari ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning amaliy va samarali mexanizmlarini

ochib beradi hamda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Tajriba-sinov ishlari o‘tkazilgan ingliz tili fanini maruza va seminarlarda, mustaqil kurslarida va dars kuzatuvlarida tasdiqlandi. Ushbu jarayonda talabalarni kreativ fikrlashini rivojlantirishda quyidagi texnologiyalar samarali natija bergani kuzatildi:

1. Darsni loyihalashning **“Dars loyihasi”** modeli orqali o‘qituvchi darsning maqsadini aniq belgilash, natija indikatorlarini to‘g‘ri tanlash va innovatsion, interaktiv metodlarni integratsiya qilish ko‘nikmalarini shakllantira oldi.

Amaliy misol: Ingliz tili darslarida “muammoli vaziyat” asosida dars senariysi tuzish talabalarning faolligini oshirdi, ularni mustaqil fikrlashga va kreativ yechimlar ishlab chiqishga rag‘batlantirdi hamda o‘qituvchiga darsni samarali boshqarish imkonini berdi.

2. Raqamli texnologiyalar integratsiyasi (LearningApps, Wordwall, Google Classroom, Padlet) talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish va o‘qituvchining metodik kompetentligini kuchaytirishda samarali vosita bo‘ldi.

Amaliy misol: Talabalarning matnni tahlil qilish va ijodiy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan onlayn mashqlar ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichini 15–18% ga oshirganligi diagnostik kuzatuvlar bilan tasdiqlandi.

3. Refleksiv tahlil va “O‘qituvchi portfeli” texnologiyasi o‘qituvchining o‘z faoliyatini baholash, dars jarayonini tahlil qilish va metodik kamchiliklarini aniqlash jarayonini tizimli va samarali tashkil etdi.

Amaliy misol: Portfelga ingliz tili darslarining tahlili, video-mashg‘ulotlar va metodik ishlanmalarni kiritish orqali o‘qituvchining mustaqil rivojlanish sur’ati sezilarli oshdi va kreativ metodlarni qo‘llash qobiliyati mustahkamlandi.

4.“Mentor–menti” modeli yosh o‘qituvchilarda ingliz tili darslarini innovatsion metodlar asosida loyihalash va kreativ fikrlashni rivojlantirish ko‘nikmalarini tez shakllantirishga yordam berdi.

Amaliy misol: Tajribali pedagoglar rahbarligida bir oy davomida olib borilgan dars tahlili va qo‘shma dars loyihalash jarayoni yosh o‘qituvchilarning dars samaradorligini 20–25% ga oshirishga va talabalarning kreativ faoliyatini rag‘batlantirishga olib keldi.Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, metodik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish o‘qituvchining kasbiy o‘sish dinamikasini sezilarli darajada tezlashtirishi isbotlandi. Taklif etilgan texnologiyalar umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan amaliy mexanizmlar sifatida e’tirof etilishi mumkin.

“**Dars loyihasi” texnologiyasi.** “Dars loyihasi” texnologiyasi – bu dars jarayonini puxta loyihalashga asoslangan, o‘qituvchining metodik kompetentligini kompleks rivojlantiradigan innovatsion yondashuvdir. Dars dizayni o‘qituvchining quyidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi:

darsni standartlar asosida rejalashtirish;

- o‘quv faoliyatini mantiqiy ketma-ketlikda tashkil qilish;
- faol metodlarni o‘rinli tanlash;

– o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini hisobga olgan holda ta’limni moslashtirish;

– baholash mezonlarini aniq belgilash.

Shu bois ushbu texnologiya boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari metodik kompetentligini shakllantirishda eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

“**Dars loyihasi” texnologiyasi.**

Bosqich	**Maqsad va vazifa**	**Talaba faoliyati**	**O‘qituvchi metod va vositalari**	**Kutilayotgan natija / Kompetensiya**
Maqsadni aniqlash (SMART modeli)	Darsning asosiy maqsadini aniq va o‘lchovli belgilash	Matndan asosiy g‘oyani ajratadi va 3 ta dalil bilan izohlaydi	SMART modelini tushuntirish, misollar bilan ko‘rsatish	Kognitiv kompetensiya: talabalar maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni bajaradi
Kutilayotgan natijalar (indikatorlar)ni belgilash	Har bir faoliyat uchun aniq natija indikatorlarini aniqlash	Belgilangan indikatorlar bo‘yicha vazifalarni bajaradi	Baholash mezonlarini tushuntirish, diagnostik testlar	Baholash kompetensiyasi: talaba natijaviy indikatorlarga erishadi
Faoliyat modelini qurish	Talaba faoliyatini markazga olib, darsni bosqichma-bosqich tashkil qilish	Kichik guruhlarda muammoli vazifalarni yechadi; matn bilan mustaqil ishlaydi; klaster yoki insert jadvalini tuzadi	Guruh ishlari, muammoli vaziyat, interaktiv mashqlar	Operatsion-amaliy kompetensiya: talabalar mustaqil va ijodiy fikrlashni qo‘llaydi
Metod va texnikalarni tanlash	Dars maqsadiga mos innovatsion metodlarni aniqlash	Tanlangan metodlar orqali faol ishtirok etadi	Aqliy hujum, juftlikda ishlash, klaster, baliq skeleti, teskari aloqa kartalari	Didaktik kompetensiya: talaba metodlar yordamida muammoni yechadi
Resurs va vositalarni tanlash	Darsda foydalaniladigan materiallarni va texnologiyalarni tayyorlash	Multimedia va interaktiv vositalardan foydalanadi	Elektron slaydlar, LearningApps, Wordwall, videoroliklar, tarqatma materiallar	AKT kompetensiyasi: talaba texnologiyalar yordamida faoliyat yuritadi
Baholash va refleksiya	Dars natijasini baholash va talaba-o‘qituvchi refleksiyasini amalga oshirish	“Men bugun nima o‘rgandim…”, “Qiyin bo‘lgan jihatlar…”, “Keyingi darsda shuni bilmoqchiman…”	Refleksiv savollar, portfel, video tahlil, yakuniy baholash	Metodik va reflektiv kompetensiya: talaba va o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi

Ushbu texnologiya o‘qituvchiga ingliz tili darsining maqsadi, natija indikatorlari, metodlar, resurslar, baholash vositalari va talabaning faoliyatini oldindan aniqlangan mantiqiy tizim asosida tashkil etishga imkon beradi..

Xulosalar:

1. Ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim sifatini va dars samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Metodik kompetentlik ingliz tili darslarini ilmiy asosda loyihalash, interaktiv va kreativ metodlarni tanlash, talabalarning individual rivojlanish trayektoriyasini hisobga olish hamda o‘quv jarayonini samarali boshqarish bilan bog‘liq kompleks kasbiy ko‘nikmalar majmuasidir.

2. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili fanini innovatsion ta’lim muhitida o‘qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish sust bo‘lgan sharoitda o‘quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. O‘qituvchining tayyorgarligi yetarli emasligi darsni samarasiz tashkil etish, metodlarni noto‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning faolligini past bo‘lishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

3. “Dars dizayni”, “mentor–menti”, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, refleksiv portfel kabi texnologiyalar kreativ fikrlash ko‘nikmlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi. Bu texnologiyalar dars jarayonini tizimli tashkil etish, metodik faoliyatni modernizatsiya qilish va o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Prezident Sh.M.Mirziyoevning Yadro fizikasi institutida Fanlar Akademiyasi va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan muloqoti // Xalq so‘zi. 20 iyul, 2018 yil, № 146

2. Ganiev, S. (2019). Innovatsion pedagogika va metodik kompetentlik. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.

3. Karimov, A. (2020). Til o‘qitishda interaktiv metodlar va kreativ yondashuvlar. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.

4. Nazarova, D. (2018). O‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika va ta’lim jurnali, 2(14), 45–53.

5. Pishak, R. (2017). Innovatsion texnologiyalar yordamida ingliz tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

6. Richards, J. & Rodgers, T. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

7. Tompson, I. (2016). Developing Critical Thinking and Creativity in EFL Classrooms. Journal of English Language Teaching, 48(3), 22–31.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TA’LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.175

Temirova Shalola Erkinovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada global innovatsion jarayonlar va raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish masalalari tadqiq etiladi. Maqolada ta’lim xizmatlari bozorining bugungi holati tahlil qilinib, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt va shaxsqa yo‘naltirilgan o‘qitish tizimining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha metodologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ta’lim xizmatlari, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiya, inson kapitali, sifat menejmenti, masofaviy ta’lim, kreativ fikrlash.

Abstract. The article considers the issues of improving the quality of global educational services, introducing modern pedagogical technologies into the educational process. The article analyzes the current state of the educational services market, highlights the importance of distance learning, artificial investments and person-centered educational systems. , methodological problems and practical recommendations are developed for the corresponding educational services.

Keywords: innovation, educational services, digital education, pedagogical technology, human capital, quality management, distance learning, creative thinking.

Аннотация.В статье рассматриваются вопросы повышения качества глобальных образовательных услуг, внедрения современных педагогических технологий в образовательный процесс. Анализируется текущее состояние рынка образовательных услуг, подчеркивается важность дистанционного обучения, искусственных инвестиций и личностно-ориентированных образовательных систем. Разработаны методологические проблемы и практические рекомендации для соответствующих образовательных услуг.

Ключевые слова: инновации, образовательные услуги, цифровое образование, педагогические технологии, человеческий капитал, управление качеством, дистанционное обучение, креативное мышление.

KIRISH. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi shiddatli texnologik transformatsiyalar, intellektual salohiyatning birlamchi resursga aylanishi va "to‘rtinchi sanoat

inqilobi" (Industry 4.0) tamoyillari bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy drayver — bu shubhasiz, raqobatbardosh va yuqori malakali inson kapitalidir. Biroq, global innovatsion rivojlanish sur’atlari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘n yilliklar davomida shakllangan an’anaviy ta’lim modellari bugungi mehnat bozorining "tez o‘zgaruvchan va oldindan aytib bo‘lmaydigan" (VUCA dunyosi) talablariga javob berishda sezilarli darajada oqsamoqda.

Hozirgi davrda ta’lim xizmatlarini takomillashtirish tushunchasi shunchaki o‘quv xonalarini kompyuterlashtirish yoki dars soatlarini ko‘paytirish bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon tizimning konseptual asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta’limning strategik maqsadi — faqatgina tayyor fundamental bilimlarni uzatish (reproduktiv ta’lim) emas, balki talabalarda:

- Mustaqil va uzluksiz o‘rganish (Life-long learning): Ma’lumotlar oqimi har 2-3 yilda yangilanib borayotgan muhitda yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish algoritmlarini shakllantirish;
- Tanqidiy fikrlash (Critical thinking): Axborotlar to‘lqinidan kerakli va ishonchli ma’lumotlarni saralay olish hamda ularni tahliliy qayta ishlash;
- Kreativ yechimlar yaratish (Problem solving): Standart bo‘lmagan vaziyatlarda innovatsion va samarali yollarni taklif qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Ayniqsa, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, jumladan, "Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida ta’lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion muhitda ta’lim xizmatlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tadqiq etish, raqamli texnologiyalar va inson omili o‘rtasidagi muvozanatni topish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu maqolada innovatsion rivojlanish sharoitida ta’lim xizmatlari bozorini modernizatsiya qilishning fundamental omillari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Innovatsion iqtisodiyotning mohiyati va ta’lim xizmatlarining undagi strategik o‘rni

Zamonaviy iqtisodiyot “to‘rtinchi sanoat inqilobi” (Industry 4.0) sharoitida shakllanmoqda. Bu jarayonda sun’iy intellekt (SI), Big Data, Internet of Things (IoT), robototexnika, 3D-printer va blokcheyn kabi texnologiyalar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruvni tubdan o‘zgartirmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumining hisob-kitoblariga ko‘ra, 2025–2030-yillarda ish o‘rinlarining 40–50 % i avtomatlashtiriladi, shuning uchun an’anaviy “reproduktiv” ta’lim modeli (faqat bilim uzatish) yetarli emas. Ta’lim xizmatlari endi **inson kapitalini** — mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash, kreativ muammoni yechish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantiruvchi asosiy drayverga aylanishi kerak.

Nazariy jihatdan bu jarayon “Universitet 3.0” yoki “Entrepreneurial University” modelida ifodalanadi: ta’lim + ilm-fan + innovatsiya + tijoratlashtirish. Ta’lim bozori modernizatsiyasi quyidagi fundamental omillarga asoslanadi:

- **Shaxsiylashtirilgan va uzluksiz ta’lim** (life-long learning) — AI asosidagi adaptiv platformalar (Moodle, Coursera, uzbekcoders.uz) orqali har bir talabaning tezligi va uslubiga mos dastur.
- **Raqamli va texnologik savodxonlik** — STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishlarini kuchaytirish, dual ta’lim (korxona + universitet).
- **Innovatsion ekotizim** — universitet huzuridagi texnopark, startap-akselerator va spin-off kompaniyalar.

O‘zbekiston uchun bu model ayniqsa muhim, chunki mamlakat raqamli iqtisodiyotga o‘tish va Global Innovatsion Indeksda (GII) yuqori o‘rinlarni egallashni maqsad qilgan. 2025-yil GII reytingida O‘zbekiston 79-o‘ringa ko‘tarilgan (2024-yilda 83-o‘rin), bu institutsional rivojlanish va infratuzilma bo‘yicha yutuqni ko‘rsatadi, ammo inson kapitali va kreativ chiqishlar bo‘yicha hali imkoniyatlar katta.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar va ularning ta’lim xizmatlariga ta’siri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator hujjatlari bu yo‘nalishni huquqiy va amaliy asos bilan ta’minlagan:

- **PF-165-son Farmon (06.07.2022)** — “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi” tasdiqlangan. Strategiyaning 6-yo‘nalishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “ta’limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali inson kapitalini takomillashtirish”ni belgilaydi. Maqsadli ko‘rsatkichlar: ilmiy tadqiqotchilar sonini 21 500 nafarga yetkazish, STEM bitiruvchilar ulushini 41,8 % ga oshirish.
- **PF-5847-son Farmon (08.10.2019)** — “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. Asosiy vazifalar: oliy ta’lim qamrovini 50 % ga yetkazish, kamida 10 ta universitetni QS/THE reytingining Top-1000 ga kiritish (Milliy universitet va Samarqand davlat universitetini Top-500 ga), “Universitet 3.0” modelini joriy etish, fan–ta’lim–ishlab chiqarish integratsiyasi, kredit-modul tizimi, davlat-xususiy sheriklik.
- **PF-60-son Farmon (28.01.2022)** — “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”ning 4-yo‘nalishi “inson kapitalini rivojlantirish”ga bag‘ishlangan. 160 ming pedagog malakasini oshirish, nodavlat oliygohlar sonini 50 taga yetkazish belgilangan.
- **PQ-128-son (13.03.2024)** — Innovatsion strategiyani 2024–2025-yillarda amalga oshirish “Yo‘l xaritasi”. Ta’limda innovatsion markazlar, texnoparklar va yoshlar akademiyasini kengaytirish, yaratuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvorligi ta’kidlangan.

Amaliy natijalar: “InnoTexnopark” MChJ, IT-Park qoshidagi Raqamli universitet, “Bir million o‘zbek koderi” loyihasi (2,5 mln ishtirokchi), 16 ta oliygohda sun’iy intellekt dasturlari, xorijiy filiallar (Inha, Westminster, Amity) va Yoshlar texnoparklari. 2024-yilda SI strategiyasi qabul qilindi, bu ta’limda 100 ta ustuvor SI modeli va doktorantura dasturlarini kengaytirmoqda.

Ta’lim xizmatlarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, muammolar va amaliy choralar

Takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1. **Raqamlashtirish va texnologik integratsiya** AI baholash, VR/AR laboratoriyalari, elektron platformalar (“Raqamli Toshkent”, edu.digital.uz). Masofaviy ta’lim va shaxsiylashtirilgan dasturlar korruptsiyani kamaytiradi, sifatni oshiradi.

2. **Mazmun va metodik yangilash** Loyihaga asoslangan o‘qitish (PBL), dual ta’lim, “Innovatsion menejment” va “Intellektual mulk” kurslari. Maktabdan boshlab “Barkamol avlod” va Prezident maktablarida A-Level dasturlari.

3. **Infratuzilma va moliyalashtirish** Har bir oliygohda innovatsion markaz, 1 mlrd so‘mgacha grantlar, venchur fondlar. Spin-off korxonalar sonini ko‘paytirish (Namangan gidroponika loyihalari misol).

4. **Kadrlar va tenglik** Pedagoglar malakasini oshirish markazlari, qishloq hududlarida raqamli tafovutni bartaraf etish, xotin-qizlar uchun imtiyozlar (PF-87-son).

Muammolar: patent va xalqaro nashrlar kam, tijoratlashtirish zaif, hududiy infratuzilma tafovuti, o‘qituvchilarning raqamli malakasi yetarli emas. GII bo‘yicha kreativ chiqishlar (104-o‘rin) past.

ILMIY YANGILIGI

Ushbu tadqiqot ishining ilmiy yangiligi innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim xizmatlarini rivojlantirishning konseptual asoslarini boyitishga xizmat qiluvchi quyidagi xulosalar bilan belgilanadi:

- Ta’lim xizmatlari samaradorligini baholashning ko‘p faktorli (kompleks) indikatorlari tizimi ishlab chiqildi. An’anaviy baholash usullaridan (faqat akademik o‘zlashtirish) farqli o‘laroq, innovatsion muhitda ta’lim sifatini o‘lchovchi yangi mezonlar taklif etildi. Bunga:

- Kognitiv moslashuvchanlik ko‘rsatkichi (talabaning o‘zgaruvchan texnologik vaziyatlarda bilimni qo‘llay olish darajasi);

- Raqamli jalb qilinganlik indeksi (elektron ta’lim resurslaridan foydalanish intensivligi va sifati);

- Natijaviylikning ijtimoiy-iqtisodiy kutilmasi (olingan bilimning mehnat bozoridagi real talabga mosligi) kabi indikatorlar kiritildi.

- "Pedagog – talaba – texnologiya" triadasining (uchligining) yangi interaktiv modeli taklif etildi. Ilgari texnologiya shunchaki yordamchi vosita sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, ushbu modelda u o‘quv jarayonining teng huquqli "sub’ekti" (katalizatori) sifatida talqin qilinadi. Yangi model:

- Pedagogning funksiyasini "bilim uzatuvchi"dan "moderator-fasilitator"ga o‘zgartirishni;

- Talabaning o‘rnini "passiv tinglovchi"dan "kontent yaratuvchi"ga transformatsiya qilishni;

- Texnologiyaning rolini esa "ma’lumot manbai"dan "shaxsiylashtirilgan o‘quv muhiti" (AI-tutor, adaptiv platformalar) darajasiga ko‘tarishni nazarda tutadi.

- Raqamli ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik drayverlari (turtki beruvchi omillari) aniqlandi. Tadqiqot jarayonida virtual makonda shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimlashtirildi. Xususan:

- Motivatsion drayver: Raqamli yutuqlarni tan olish (gamifikatsiya va raqamli portfolioning ta’siri);

- Ijtimoiy-psixologik drayver: Virtual jamoada ishlash orqali "ijtimoiylashuv ehtiyoji"ni qondirish;

- Kreativ drayver: Shaxsning o‘z innovatsion g‘oyalarini onlayn platformalar orqali aprobatsiyadan o‘tkazish imkoniyati ta’lim oluvchining ijtimoiy va professional pozitsiyasini mustahkamlashi isbotlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ta’lim xizmatlarini takomillashtirish mavzusi O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarida, xususan, 2019-yildan keyin keskin faollashgan. Bu jarayon asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va strategik hujjatlariga asoslanadi. Quyida mavzuning ilmiy jihatini chuqur yoritish maqsadida adabiyotlar tahlili quyidagi asosiy bloklarga bo‘linib ko‘rib chiqiladi: normativ-huquqiy baza, nazariy asoslar, xorijiy tajriba, milliy tadqiqotlar va adabiyotlardagi bo‘shliqlar.

Normativ-huquqiy va strategik asoslar mavzuning markaziy qismini tashkil etadi. PF-5847-son Farmon (2019-yil 8-oktabr) “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da birinchi marta “Universitet 3.0” modeli rasman joriy etilgan. Ushbu hujjat ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy natijalarni tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini ta’minlashni belgilaydi. Konsepsiyada texnoparklar, texnologiyalar transferi markazlari, startap-akseleratorlar tashkil etish, oliy ta’lim qamrovini 50 % ga yetkazish, kamida 10 ta universitetni QS/THE reytinglarida Top-1000 ga kiritish vazifalari qo‘yilgan. Keyingi hujjatlar — PF-165-son Farmon (2022-yil 6-iyul) “2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi” va PF-60-son Farmon (2022-yil 28-yanvar) “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” mavzuni yanada kengaytirgan. Bu hujjatlar ko‘plab ilmiy maqolalarda asosiy manba sifatida ishlatiladi.

Nazariy asoslar xorijiy va milliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Henry Etzkowitzning “Triple Helix” modeli (universitet–davlat–biznes uchburchagi) va Burton Clarkning “Creating Entrepreneurial Universities” asaridagi 5 ta asosiy yo‘l (kuchli boshqaruv yadrosi, kengaygan rivojlanish periferiyasi, moliyalashtirishning xilma-xilligi, rag‘batlantirilgan akademik yurak, integratsiyalashgan tadbirkorlik madaniyati) O‘zbekiston kontekstida moslashtirilgan holda tahlil qilinadi. Universitet 1.0 (klassik ta’lim), 2.0 (tadqiqot universiteti) va 3.0 (tadbirkorlik universiteti) modellari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Xorijiy tajribaga asoslangan ishlar orasida Stanford, MIT, NUS (Singapur), Seoul National

Milliy tadqiqotlarda mavzu quyidagilar chuqur o‘rganilgan:

- Alimardonovich K.S. (2025) ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalarining rivojlanish holatini tahlil qilib, raqobatbardoshlikni shakllantirish xususiyatlari, infratuzilma tafovuti va pedagoglarning raqamli malakasini yetishmasligini ko‘rsatadi.

- Boboyeva Z.A. (2024) ta’lim tizimini takomillashtirish va innovatsion rivojlantirish imkoniyatlarini baholaydi, xususan, patentlar soni kamligi va tijoratlashtirishning zaifligini ta’kidlaydi.
- Toshpulatova I.A. va Tursunov D. xorijiy davlatlar tajribasini (AQSh, Singapur, Janubiy Koreya) O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganadi.
- Adizov S.R. (2024) fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining genezisiga bag‘ishlangan ishida modellarning evolyutsiyasini jadval shaklida taqqoslaydi.
- Nabiyeva A.M. (2024) O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini, Global Innovatsion Indeksdagi o‘rinni (2025-yilda 79-o‘rin) va inson kapitali ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi.
- Xusainov M.A. va boshqalar milliy innovatsion tizim, inson resurslari va PEST/SWOT tahlillarini keltiradi.

Adabiyotlarning asosiy qismi normativ-strategik va amaliy xarakterga ega bo‘lib, “Universitet 3.0” modelini O‘zbekiston sharoitida joriy etish jarayonini yoritadi. Biroq, quyidagi jihatlar yetarli darajada o‘rganilmagan:

- Xususiy sektorning ta’lim xizmatlari bozoridagi roli va raqobat mexanizmlari.
- Qishloq va chekka hududlarda raqamli tafovutni bartaraf etishning aniq modellari.
- Spin-off korxonalar va tijoratlashtirish natijalarining statistik-empirik tahlili (patentlar, litsenziyalar, iqtisodiy ta’sir).
- Universitet 4.0 ga o‘tish (raqamlashtirilgan platformalar, butun hayot davomida ta’lim) bo‘yicha prognozli tadqiqotlar.
- “Universitet 3.0” samaradorligini monitoring qilish uchun milliy reyting tizimi va ko‘rsatkichlar.

Nazariy asoslar xorijiy tajribaga asoslangan bo‘lsa-da, empirik ma’lumotlar, hududiy modellar va uzoq muddatli monitoring tizimlari bo‘yicha tadqiqotlar hali yetarli emas. Kelajak ishlar uchun Global Innovatsion Indeks ko‘rsatkichlarini ta’lim natijalari bilan bog‘lash, xususiy investitsiyalar rolini chuqur tahlil qilish va raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini o‘rganish dolzarb yo‘nalishlar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida ta’lim xizmatlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasida “Universitet 3.0” modelini joriy etish imkoniyatlarini baholash hamda takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot **nazariy-tahliliy, solishtirma va hujjatli** xarakterga ega bo‘lib, empirik so‘rov yoki eksperiment o‘tkazish talab etmaydi. Tadqiqotning metodologik asosini falsafiy bilim nazariyasining umumiy qoidalari, dialektikaning asosiy tamoyillari (rivojlanish, qarama-qarshilik va o‘zaro bog‘liqlik) hamda iqtisodiyot va pedagogika fanlarining zamonaviy yondashuvlari tashkil etadi.

Qo‘llanilgan umumiy maxsus va amaliy usullar:

- **Hujjat tahlili (content analysis)** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son (2019), PF-165-son (2022), PF-60-son (2022) farmonlari, “Yangi O‘zbekiston”

Taraqqiyot strategiyasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hujjatlari hamda xalqaro hisobotlar (Global Innovatsion Indeks 2024–2025) chuqur o‘rganildi va matn tahlili o‘tkazildi.

- **Qiyosiy tahlil** — Universitet 1.0, 2.0 va 3.0 modellari o‘rtasidagi farqlar, Stanford, MIT, NUS (Singapur) va Janubiy Koreya tajribasi bilan O‘zbekiston amaliyotini solishtirish.
- **SWOT-tahlil** — O‘zbekistonda ta’lim xizmatlarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini baholash.
- **PESTLE-tahlil** — siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillarning ta’lim modernizatsiyasiga ta’sirini ko‘rib chiqish.
- **Statistik va grafik usullar** — GII reytingi dinamikasi, oliy ta’lim qamrovi ko‘rsatkichlari (2019–2026), STEM bitiruvchilar ulushi va innovatsion startaplar soni ma’lumotlarini tahlil qilish.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. **Nazariy bosqich** (2024–2025) — mavzuga oid xorijiy va milliy adabiyotlar, shu jumladan Etzkowitzning Triple Helix modeli, Burton Clarkning 5 yo‘li va O‘zbekiston mualliflarining ishlarini o‘rganish.
2. **Hujjat va ma’lumotlar tahlili bosqichi** — normativ bazani to‘plash va tizimlashtirish.
3. **Solishtirma va sintez bosqichi** — xalqaro tajriba va mahalliy holatni qiyoslash, muammolarni aniqlash.
4. **Takliflar ishlab chiqish bosqichi** — amaliy tavsiyalar va monitoring mexanizmlarini shakllantirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi marta “Universitet 3.0” modelining O‘zbekiston sharoitida samaradorligini baholash uchun integratsiyalashgan metodologiya (hujjat tahlili + SWOT + GII ko‘rsatkichlari bog‘lanishi) qo‘llanilgan. Cheklovlar: tadqiqot asosan ikkinchi darajali manbalarga asoslangan bo‘lib, kelgusida keng ko‘lamli so‘rov yoki kays study usullari bilan to‘ldirish mumkin.

Ushbu metodologiya tadqiqotning ilmiy ishonchliligini, mantiqiyligini va amaliy ahamiyatini ta’minlaydi hamda mavzuning dolzarbligiga to‘la javob beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar va tahlillar asosida quyidagi xulosaviy natijalar shakllantirildi va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Tadqiqot natijalari

- Raqamli transformatsiya samaradorligi: Ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalarini joriy etish talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichini o‘rtacha 15-20% ga oshirishi aniqlandi. Bu tizim har bir talabaning individual qobiliyatiga moslashgan o‘quv trayektoriyasini yaratish imkonini beradi.
- Bozor talabi va ta’lim mutanosibligi: Ta’lim xizmatlari bozorini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda mehnat bozori faqat nazariy bilimga emas, balki "soft skills" (yumshoq ko‘nikmalar) va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislarga yuqori ehtiyoj sezmoqda.

- Masofaviy ta’limning yangi bosqichi: Masofaviy o‘qitish shakli faqatgina dars o‘tish vositasi emas, balki ta’lim xarajatlarini optimallashtirish va ta’limning uzluksizligini (L3 – Life Long Learning) ta’minlovchi asosiy drayver ekanligi isbotlandi.

2. Amaliy takliflar

- Individual o‘qitish modellarini joriy etish: Ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan (student-centered) yondashuvni kuchaytirish, bunda o‘quv dasturlarini talabaning qiziqishi va tanlagan karyera yo‘nalishidan kelib chiqib moslashtirish lozim.

- Pedagog kadrlar malakasini tizimli oshirish: Faqatgina texnologiyani joriy etish kifoya emas; pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish va ularni "moderator-fasilitator" sifatida qayta tayyorlash bo‘yicha milliy platforma yaratish taklif etiladi.

- Inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish: Ta’lim sifatini boshqarishda xalqaro ISO standartlarini tatbiq etish va o‘quv jarayonini ishlab chiqarish (amaliyot) bilan integratsiya qilish mexanizmini soddalashtirish zarur.

- Gibrid ta’lim modelini kengaytirish: An’anaviy va masofaviy ta’limning afzalliklarini birlashtirgan gibrid (aralash) o‘qitish shaklini barcha bosqichdagi ta’lim muassasalarida normativ asos sifatida mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflarning hayotga tatbiq etilishi ta’lim xizmatlari sifatini xalqaro talablar darajasiga ko‘tarishga va raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, global innovatsion jarayonlar ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim xizmatlari sifatini oshirish nafaqat texnologik yangilanish, balki fundamental metodologik o‘zgarishlarni taqozo etadi.

Tadqiqot natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

- Integratsiyalashgan yondashuv: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, talabalarning mustaqil va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali yo‘lidir. Bu jarayon ta’lim oluvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

- Inson kapitali ustuvorligi: Raqamli muhitda ta’lim sifatini boshqarish faqat texnik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va ularning inson kapitali qiymati bilan o‘lchanishi lozim.

- Moslashuvchanlik va Uzluksizlik: Masofaviy va gibrid ta’lim shakllari ta’limning qulayligi va ochiqligini ta’minlab, "hayot davomida ta’lim olish" (lifelong learning) tamoyilini amalga oshirishning asosiy mexanizmiga aylandi.

Taklif etilgan metodologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirishga, o‘quv jarayonini shaxsqa yo‘naltirilgan holda modernizatsiya qilishga va natijada mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyandagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni.

Xorijiy nazariy adabiyotlar

1. Etzkowitz, H. (2008). The Triple Helix: University-Industry-Government Innovation in Action. Routledge.

2. Clark, B. R. (1998). Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. Pergamon/Elsevier Science.

Milliy tadqiqotlar va ilmiy maqolalar

1. Adizov S.R. (2024). Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining genezisi va modellar evolyutsiyasi. Ilmiy axborotnoma, Toshkent.

2. Alimardonovich K.S. (2025). Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini shakllantirish va raqamli infratuzilma tahlili. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali.

3. Boboyeva Z.A. (2024). Ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish: patentlash va tijoratlashtirish muammolari. O‘zbekiston iqtisodiyoti tahlili.

4. Nabiyeva A.M. (2024). Global Innovatsion Indeks va inson kapitali: O‘zbekistonning 2025-yildagi o‘rni va istiqbollari. Statistika va prognozlash tadqiqotlari.

5. Toshpulatova I.A., Tursunov D. (2023). Xorijiy davlatlar (AQSh, Singapur, Janubiy Koreya)ning ta’lim sohasidagi innovatsion tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari. Xalqaro ta’lim va tadqiqotlar.

6. Xusainov M.A. va boshqalar. (2024). Milliy innovatsion tizim tahlili: PEST va SWOT yondashuvlar. Akademik tadqiqotlar to‘plami.

7.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYADA KLINIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH: KASBIY TA’LIM TIZIMIDA MUSTAQIL O‘QISHNING AHAMIYATI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.176

UO‘K 618:371.3.

Tillabayeva Dilnoza Murodovna
Namangan davlat universiteti
Tibbiyot fakulteti katta o‘qtuvchisi (PhD)
ORCID ID 0009-0004-2568-3263

Annotatsiya. Maqolada Namangan davlat universiteti Tibbiyot fakultetining 5-kurs talabalari uchun oilaviy shifokorlik yo‘nalishida akusherlik va ginekologiya fanini kasbiy ta’lim jarayonida mustaqil o‘qitish tajribasi tahlil qilingan. Kasbiy ta’lim tizimida mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning dolzarbligi, ayniqsa klinik fanlarda talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot doirasida “Bachadondan anomal qon ketishlar” mavzusi asosida klinik keys-metoddan foydalanilib, mustaqil amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Jarayonda talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan integratsiyalash, klinik tafakkurni rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, kasbiy ta’lim tizimida mustaqil ishlarning maqsadli tashkil etilmasligi, baholash mezonlarining yetarlicha aniqlashtirilmaganligi va talabalar motivatsiyasining pastligi kabi muammolar aniqlandi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar hamda elektron ta’lim platformalarini joriy etish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, keys-metod, akusherlik, professional ta’lim, klinik fikrlash, tanqidiy fikrlash, motivatsiya

Аннотация. В статье проанализирован опыт самостоятельного изучения дисциплины «Акушерство и гинекология» в процессе профессионального образования для студентов 5 курса медицинского факультета Намганского государственного университета по направлению «Семейная медицина». Освещена актуальность организации самостоятельной работы в профессиональном образовании, особенно в клинических дисциплинах, где формируются практические навыки студентов. В рамках исследования на основе темы «Аномальные маточные кровотечения» были использованы клинические кейсы, организованы самостоятельные практические занятия студентов. В этом процессе уделялось внимание интеграции теоретических

знаний с практикой, развитию клинического мышления и укреплению профессиональных компетенций. Вместе с тем выявлены проблемы: отсутствие целенаправленной организации самостоятельной работы, нечеткость критериев оценки, низкая мотивация студентов. Для их устранения обоснована необходимость внедрения современных педагогических технологий, интерактивных методов и электронных образовательных платформ.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, кейс-метод, акушерство, профессиональное образование, клиническое мышление, критическое мышление, мотивация.

Abstract. The article analyzes the experience of independent learning in the discipline of Obstetrics and Gynecology within the framework of professional education for 5th-year medical students at Namangan State University, specializing in Family Medicine. The relevance of organizing independent work in professional education is highlighted, particularly in clinical subjects where students develop practical skills. As part of the study, clinical cases based on the topic “Abnormal Uterine Bleeding” were used to organize students’ independent practical sessions. This process emphasized the integration of theoretical knowledge with practice, the development of clinical reasoning skills, and the strengthening of professional competencies. At the same time, several issues were identified: lack of purposeful organization of independent work, unclear assessment criteria, and low student motivation. To address these challenges, the introduction of modern pedagogical technologies, interactive methods, and electronic learning platforms was substantiated.

Keywords: independent learning, case method, obstetrics, professional education, clinical reasoning, critical thinking, motivation.

Kirish. Tibbiyot sohasida professional ta’lim tizimida mustaqil ta’lim talaba shaxsini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalar klinik vaziyatlarni tanqidiy va ijodiy tahlil qilish, tizimli fikrlash, tashxis qo‘yish hamda klinik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa zamonaviy pedagogik usullar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. Sanoati va intellektual salohiyati rivojlangan mamlakatlar — Germaniya, Fransiya, Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali va raqobatbardosh tibbiyot kadrlarini tayyorlash ta’lim, fan va klinik amaliyotning uzviy aloqasi orqali amalga oshiriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada tibbiyot talabalarining 39,7 foizi mustaqil ta’limga faol qiziqish bildirsa, AQSh universitetlarida klinik simulyatsiya va yirik ilmiy-tadqiqot loyihalari keng joriy etilmoqda. Mazkur tajribalar shuni tasdiqlaydiki, tibbiyotda mustaqil ta’lim nafaqat talabalar bilim sifatini oshiradi, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi, klinik fikrlashni rivojlantiradi va kelgusida yuqori malakali shifokor sifatida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Materiallar va metodlar

1. Akusherlik tajribasi: Tadqiqot doirasida Namangan davlat universiteti Tibbiyot fakultetining 5-kursida tahsil olayotgan 34 nafar talaba jalb etildi. Mashg‘ulotlar

“Bachadondan anomal qon ketishlar” mavzusi asosida klinik keys-metoddan foydalangan holda tashkil etildi. Ushbu metod talabalarga klinik vaziyatlarni tizimli tahlil qilish, differensial tashxis qo‘yish hamda murakkab klinik holatlarda asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini berdi.

2. Umumiy kasbiy ta’lim: Tadqiqot natijalari talabalarning fan bo‘yicha bilimlarining 40–50 foizi mustaqil ta’lim jarayoni orqali o‘zlashtirilishini ko‘rsatdi. Mustaqil ta’lim davomida talabalarga differensiallashtirilgan topshiriqlar taqdim etildi. Bu yondashuv individual ta’limni ta’minlab, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash, klinik tafakkurni shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Natijalar

Akusherlikdagi tajriba:

Tadqiqot doirasida 5-kurs talabalarining “Bachadondan anomal qon ketishlar” mavzusi bo‘yicha mustaqil ta’lim jarayoni samaradorligi baholandi. Olingan natijalar quyidagi ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi (1. Jadval)

(1. Jadval)

Parametr	Oldin	Keyin
Nazariy test bo‘yicha o‘rtacha ball ko‘rsatkichi	5,8/10	8,4/10
O‘ziga ishonch darajasi (1–5 ballik shkalada)	2,3	4,2
Guruhdagi faol ishtirok darajasi (%)	52%	91%
Chek-list asosida baholangan muvaffaqiyat ko‘rsatkichi (%)	58%	88%

Tahlil: O‘tkazilgan tajriba natijalari talabalarning nazariy bilim darajasi sezilarli oshganini ko‘rsatdi. Mustaqil ta’lim jarayonida “Bachadondan anomal qon ketishlar” mavzusi bo‘yicha keys-metoddan foydalanish natijasida o‘rtacha ko‘rsatkich 5,8 balldan 8,4 ballgacha ko‘tarildi. Ushbu ijobiy dinamika nazariy bilimlarning amaliyot bilan integratsiyalashgan holda mustahkamlanayotganini tasdiqlaydi. Shuningdek, talabalarning o‘ziga ishonch ko‘rsatkichi 2,3 dan 4,2 gacha ortib, deyarli ikki baravarlik o‘sish qayd etildi. Bu holat ularning klinik vaziyatlarda mustaqil va asoslangan qaror qabul qilishga tayyorgarligi kuchayganini anglatadi. Guruhdagi faol ishtirok darajasi 52% dan 91% gacha oshdi, bu esa hamkorlik, muloqot va ijtimoiy faollikning sezilarli rivojlanganini ko‘rsatadi. Mustaqil ta’lim doirasida guruhiy muhokama va keyslarni jamoaviy yechish talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini yanada mustahkamladi. Chek-list asosida baholangan amaliy ko‘nikmalar ko‘rsatkichi 58% dan 88% gacha oshgani aniqlanib, klinik vaziyatlarni baholash hamda amaliy topshiriqlarni bajarish kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlanganligi qayd etildi.

Umumiy kasbiy ta’limda kuzatilgan muammolar:

Mustaqil ish mavzularining maqsadli yo‘naltirilmaganligi. Talabalarga taqdim etiladigan mustaqil ish mavzulari ko‘pincha aniq kompetensiyaviy maqsadlarga

yo‘naltirilmagan yoki muayyan klinik muammoni hal qilishga qaratilmagan. Natijada ular ilmiy-tadqiqot faoliyati elementlarini hamda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yetarli samaradorlikni ta’minlamaydi. Bu holat mustaqil ta’lim jarayonining kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini cheklaydi.

Xorijiy tillarni yetarli darajada bilmaslik. Talabalarning, ayniqsa ingliz tilini yetarli darajada egallamaganligi zamonaviy ilmiy manbalar, xalqaro maqolalar va ilg‘or klinik tajribalarni o‘rganishda sezilarli to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Natijada global tibbiyot amaliyoti va professional ta’limdagi innovatsion yondashuvlardan ortda qolish xavfi yuzaga keladi.

Motivatsiya darajasining pastligi va individual xususiyatlarning inobatga olinmasligi. O‘quv jarayonida talabalarning ichki motivatsiyasini yetarlicha qo‘llab-quvvatlamaslik, shuningdek ularning psixologik va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olmaslik mustaqil ta’lim samaradorligini pasaytiradi. Bu esa o‘zlashtirish sifati, ijodiy va klinik tafakkur rivoji hamda kasbiy tayyorgarlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama. Akusherlik va ginekologiyada mustaqil ta’lim tajribasi natijalari talabalarning nafaqat nazariy bilimlari sezilarli darajada oshganini, balki amaliy ko‘nikmalari ham mustahkamlanganini ko‘rsatdi. Keys-metod asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar klinik vaziyatlarni tizimli tahlil qilish, differensial tashxis qo‘yish hamda murakkab holatlarda mustaqil va asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirdi. Shuningdek, talabalarning o‘ziga ishonchi ortib, klinik tafakkur jarayoni yanada samarali shakllandi. Biroq umumiy kasbiy ta’lim tizimi tahlili uning samaradorligi qator omillar bilan cheklanayotganini aniqladi. Xususan, mustaqil ishlarning maqsadli va kompetensiyaviy yo‘naltirilmaganligi, baholash mezonlarining yetarlicha aniqlashtirilmaganligi, xorijiy tillarni bilish darajasining pastligi hamda talabalar motivatsiyasining sustligi mustaqil ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur omillar kasbiy kompetensiyalarning to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Xorijiy tajriba tahlili esa mustaqil ta’limni fan va klinik amaliyot bilan uzviy integratsiya qilish yuqori samaradorlikka olib kelishini ko‘rsatadi. Germaniya, Fransiya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda ta’lim, ilmiy tadqiqot va klinik faoliyat integratsiyasi natijasida yuqori malakali hamda raqobatbardosh tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimi shakllangan. Buyuk Britaniya va AQSh universitetlarida klinik simulyatsiya markazlari, yirik ilmiy loyihalar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish talabalarning mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgan. Umuman olganda, akusherlik va ginekologiya fanida mustaqil ta’limni ilmiy asosda va tizimli tashkil etish talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtiradi, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, klinik tafakkurni rivojlantiradi hamda ularni kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh shifokor sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Mustaqil ta’lim kasbiy ta’lim tizimining asosiy tarkibiy qismi va muhim pedagogik mexanizmi hisoblanadi. U talabalarda nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash, klinik tafakkurni rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari akusherlik va ginekologiya fanida keys-metod asosida tashkil etilgan mustaqil mashg‘ulotlar talabalarning bilim darajasini sezilarli oshirganini, o‘ziga ishonchini mustahkamlaganini va guruhiy

faolligini kuchaytirganini ko‘rsatdi. Hatto bir martalik mustaqil mashg‘ulot ham nazariy bilimlar hamda amaliy tayyorgarlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Shu munosabat bilan mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida keys-metoddan keng foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, elektron ta’lim platformalarini rivojlantirish hamda talabalar motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, olingan natijalar kasbiy ta’lim jarayonida mustaqil ta’limni tizimli va ilmiy asosda tashkil etish talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini kuchaytirishini, klinik tafakkurini rivojlantirishini hamda ularni kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh shifokor sifatida shakllanishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Association of Professors of Gynecology and Obstetrics (APGO). *The expanding role of simulation in obstetrics and gynecology education.* American Journal of Obstetrics & Gynecology, 2018. American Journal of Obstetrics & Gynecology

2. BJA Education. *Simulation-based training in obstetric anaesthesia.* BJA Education, 2024 BJA Education

3. Society of Obstetricians and Gynaecologists of Canada. *Consensus Statement No. 434: Simulation in Obstetrics and Gynaecology.* Journal of Obstetrics and Gynaecology Canada, 2023. Journal of Obstetrics and Gynaecology Canada

4. Wilbraham, S. J., Jones, E., Brewster, L., et al. *Differential student experiences of independent learning and wellbeing in higher education.* Education Sciences, 2024, 14(3), 285 MDPI

5. Advance HE. *Independent learning in higher education.* Knowledge Hub, 2023. Advance HE

6. Forbes-McKay, K. E. *Exploring independent learning and its relationship to mindset and academic performance.* Journal of Applied Research in Higher Education, 2023. Emerald Insight

7. Bruen, C., Illing, J., Daly, R., et al. *Medical student experiences of Case-Based Learning (CBL) at a multicultural medical school.* BMC Medical Education, 2025. BMC Medical Education

8. Korniichuk, O. Y., Bambyzov, L. M., Kosenko, V. M., et al. *Application of the Case Study Method in Medical Education.* International Journal of Learning, Teaching and Educational Research, 2021. ijlter.org

9. Khade, A., Wahane, J. *Critical Analysis of Case-Based Learning as a Teaching Method in Medical Education.* Indian Journal of Public Health Research & Development, 2022. ResearchGate

10. White, L., Jarvis, J. *Self-study: a developing research approach for professional learning.* University of Hertfordshire, LINK Journal, 2021. University of Hertfordshire

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK : 378.147:744:37.015.31
ORCID: https://orcid.org/0009-0008-1624-1761
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-9171-5565

GEOMETRIK VA PROYEKSION CHIZMACHILIKNI O‘QITISHDA LOYIHALASH TOPSHIRIQLARI ORQALI TALABALARNING IJODKORLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.177

Valiyev A’zamjon Nematovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika unioversiteti dotsenti.
E-mail: valiyev72@inbox.ru.
Tel.: +998 99 190 72 00.
Qodirova Sevdora Salimjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti.
E-mail: qodirovasevdora@gmail.com.
Tel: +998 90 582 34 59.

Annotatsiya. Mazkur maqolada geometrik va proyeksion chizmachilikni o‘qitishda loyihalash masalalari orqali talabalarning ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Geometrik va proyeksion chizmachilikning muhandislik grafikasi fanlaridagi o‘rni tahlil qilinib, oddiy geometrik jismlar asosida murakkab modellar hosil qilish jarayonining didaktik ahamiyati asoslab berilgan. Loyihalash masalalarini real hayotiy obyektlar bilan bog‘lab o‘qitish talabalarning fazoviy tasavvuri, konstruktiv tahlil qilish ko‘nikmalari hamda grafik savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilishi hamda buning natijasida talabalarning ijodkorlik kompetensiyalarini o‘sishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: loyiha, ixtiro, fazoviy tasavvur, tafakkur, reproduktiv, produktiv, girix, modellashtirish.

Аннотация.В данной статье рассматриваются вопросы формирования пространственной компетентности студентов при обучении геометрическому и проекционному черчению посредством решения задач по проектированию. Проанализирована роль геометрического и проекционного черчения в курсе инженерной графики, а также обосновано дидактическое значение процесса формирования сложных моделей на основе простых геометрических тел. Показано, что обучение проектным задачам на основе реальных объектов способствует развитию пространственного мышления студентов, навыков конструктивного анализа и графической грамотности.

Ключевые слова: проект, изобретение, пространственное воображение, мышление, репродуктивный, продуктивный, гирих, моделирование.

Abstract. This article examines the issues of developing students’ spatial competence in teaching geometric and projection drawing through design tasks. The role of geometric and projection drawing in the field of engineering graphics is analyzed, and the didactic significance of constructing complex models based on simple geometric solids is substantiated. It is demonstrated that teaching design tasks through real-life objects contributes to the development of students’ spatial thinking, constructive analysis skills, and graphic literacy.

Keywords: project, invention, spatial imagination, thinking, reproductive, productive, girih, modeling.

Kirish (Introduction). Ta’lim tizimi davlat siyosatining strategik yo‘nalishlariga tayangan holda jamiyat uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi yaxlit va ko‘p bosqichli tuzilma hisoblanadi. Ayniqsa, texnik va muhandislik yo‘nalishlarida ta’lim jarayoni nafaqat nazariy bilim berishga, balki amaliy loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilishi bilan ahamiyatlidir. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish, qurilish va texnologik jarayonlarning barchasi loyihalash faoliyatiga tayanadi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlarda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, muhandislik va texnika yo‘nalishlarni rivojlantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini kuchaytirish vazifalari alohida ta’kidlangan.

Xususan, yurtboshimizning muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida: “Muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha “eng yaxshi g‘oya”, “eng yaxshi loyiha” va “eng yaxshi ixtiro” respublika tanlovi o‘tkaziladi. Unda o‘qituvchilar, talabalar va amaliyotchi muhandislar ishtirok etishi mumkin bo‘ladi. Birinchi o‘ringa elektromobil beriladi. Shuningdek, g‘oya, loyiha va ixtiro muallifi bo‘lgan eng zo‘r 10 nafar ishtirokchi Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarga stajirovkaga yuboriladi” g‘oyasini ilgari surdi. [1]

Yurtboshimizning yuqorida keltirib o‘tilgan bir qator farmon va qarorlari muhandislik ta’limida loyihalash faoliyatini markaziy o‘ringa qo‘yishni taqozo etadi. Demak, muhandislik grafikasi fanlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan geometrik va proyeksion chizmachilik bo‘limlari talabaning kelajakdagi loyihalash faoliyatiga tayyorgarligini ta’minlaydi. Har qanday obyekt, inshoot - avvalo grafik model sifatida shakllantiriladi. Shu sababli chizmachilik fanini o‘qitishda loyihalash topshiriqlarini qo‘llash talabalarning fazoviy tasavvuri, tafakkuri va ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish, ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish va real muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). “Kitoblar ovozsiz muallimlardir” [2] Latviya xalq yozuvchisi Andrey Upit bejizga bu hikmatni ta’kidlamagan.

Darhiqiqat insoniyat taraqqiyoti davomida to‘plangan ilmiy bilimlar, tajriba va tafakkur mahsuli avloddan avlodga aynan yozma manbalar orqali yetkazib kelinmoqda. Xususan, chizmachilikka oid darsliklar va ilmiy manbalar talabalarga nafaqat chizmachilik qoidalarini, balkim ularning tafakkuri va muhandislik g‘oyasini ifodalovchi universal vosita hisoblanadi. Mazkur grafik tilni o‘zlashtirish esa, avvalo, ilmiy va o‘quv adabiyotlari orqali amalga oshiriladi.

I.Rahmonov, D.Yuldasheva va M.Abdurahmonovalar hammuallifligida 9-sinflar uchun mo‘ljallangan “Chizmachilik” [3] darsligida grafik masalalari mukammal tushuntirilgan. Maktab darsligida oddiy loyihalash masalalariga oid materiallar o‘rin olgan. Shuningdek, buyum va konstruktorlik hujjatlarining turlari ham keng yoritilgan. Lekin bu darslik bo’lganligi uchun chizmachilikda loyihalash masalalari maktab dasturidan kelib chiqqan holda qisqa va soddaroq tarzda yoritilgan.

I.Rahmonov va A.Valiyevlar hammuallifligidagi “Chizmachilik” (chizmachilik fanida konstruksiyalash asoslari) [4] o‘quv qo‘llanmasida talabalarning chizmani tuzish va o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda detal va moslamalarni loyihalash prinsplari batafsil yoritilgan.

N.Gulomovaning “Chizmachilik” (loyihalash) [5] nomli metodik qo‘llanmasida turli xil detallarga o‘zgartirish kiritish, detallarni fazoviy holatini o‘zgartirish orqali talabalarda fazoviy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan.

Biroq ushbu o‘quv qo‘llanmada ko‘proq grafik topshiriqlar berilgan. Nazariy ma’lumotlar kamroq yoritilgan.

I.E.Vasilenko tomonidan tahrirlangan “ Карточки- задания по черчению” [6] 8-sinflar uchun qo‘llanmasida loyihalash masalalarini o‘rgatishda o‘quvchilar uchun turli xil variantlar, vazifalar mavjud. Har bir vazifa umumiy mavzu bilan birlashtirilgan. Vazifalarni bunday tartibga solinishi dars davomida vaqtni tejash imkonini beradi. Bu esa dars mashg‘ulotini samarali loyihalashga yordam beradi. Lekin ushbu o‘quv qo‘llanmada geometrik chizmachilikka mos mashqlar berilmagan. Ammo mashinasozlik va proyeksiyon chizmachilik bo‘limiga xos turli xil detallar ba buyumlarni loyihalash bo‘yicha grafik mashqlar yoritilgan.

Sh.S Sharipov, L.R Zaripov, B.E Qodirov hammuallifligida yozilgan “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” [7] o‘quv qo‘llanmasida talabalarning texnik tafakkurini va mehnatga ijodiy munosabatini rivojlantirish, badiiy modellashtirish, dizayn va texnik loyihalash va modellashtirishning metodlari kabi ma’lumotlar keng yoritilgan.

J.Y Yodgorov, T.R Sobirov va N.J Yodgorovning “Geometrik va proyeksion chizmachilik” [8] kitobining birinchi bobida chizma chizish, uni davlat standartlariga asosan taxt qilish qoidalari hamda geometrik yasashlar berilgan bo‘lsa, ikkinchi bobida aynan fazoviy tassavur qilish orqali berilgan detallarni fazodagi vaziyatini o‘zgartirishlar turli xil mashq va topshiriqlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘quv faoliyati - bu shaxsni smarali mehnat faoliyatini bajarishga tayyorlash maqsadida amalga oshiriladigan maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonidir. Ushbu jarayonning mazmuni insoniyat tomonidan

to‘plangan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni tizimli ravishda o‘zlashtirish hamda ularni keyingi avlodga uzatishdan iboratdir.

Mazkur tadqiqotda o‘quv faoliyati aynan geometrik va proyeksion chizmachilik fanini o‘qitish jarayonida talabalarning fazoviy tasavvuri, tafakkuri va ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqildi. Chunki chizmachilik fanining asosiy vazifasi nafaqat grafik bilim berish, balki talabaning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va uni loyihalash faoliyatiga tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot metodologiyasi dars jarayonini chizmachilik fanini asosiy bo‘limlaridan biri hisoblangan, geometrik va proyeksion chizmachilika oid loyihalash topshiriqlari asosida tashkil etish tamoyiliga tayanadi. Xususan, pedagog tomonidan ta’lim jarayoni kreativ rivojlantirilmasa, yangi g‘oyalar va fikrlarni vujudga keltirilmasa, talabalar faqatgina tayyor bilimlarni qabul qilib, ularni takrorlash bilan cheklanib qoladi, ya’ni *reproduktiv* ta’limga tayanib qolinadi.

Bilib olingan axborort aynan ko‘rsatilganidek ishlatilishi va bir xil shart-sharoitda qo‘llanilishi mumkin. Bunday axborotni qo‘llash *reproduktiv faoliyatni* vujudga keltiradi. Reproduktiv faoliyatda qayta gapirib berishdan tortib, o‘xshash masalalarni yechishgacha, yaxshi tanish sharoitlarda va aniq qoidalarga tayangan holda faoliyat yuritish harakterlidir. [9]

Bundan tashqari, o‘quv jarayonida talabaning faolligini, ijodkorligini, mustaqil fikrlashini va olingan bilimlarni hayotga tatbiq qila olish qobiliyatini rivojlantirish faoliyati *produktiv* ta’lim jarayoniga mansubdir. Ya’ni talabalar har bir muommoli vaziyatga mustaqil fikrlashi orqali yechimlar topishi va kreativ yondashishi ham ularda produktiv ta’lim jarayonini rivojlanishidir.


Produktiv faoliyat jarayonida o‘quvchi har doim o‘quv predmetida o‘zlashtirib olinganiga nisbatan yangi harakat yaratadi, izlanuvchanlik va tadqiqotchilik faoliyatini olib boradi. [10] Produktiv ta’lim jarayoni talabalarning faolligiga, mustaqil fikrlashiga, ijodiy yondashuviga va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga asoslanadi. Ayniqsa, bunday produktiv faoliyat chizmachilikda loyihalash masalalarida qo‘l keladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Geometrik va proyeksion chizmachilik - muhandislik grafikasi fanlarining asosiy bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bo‘limlardan tuziladigan topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantiradi va grafik savodxonligini mustahkamlaydi. Loyihalash masalalari esa ushbu fanning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Loyihalash masalalari talabalarni chizmalarni aniq va tushunarli chizishga va chizmani to‘g‘ri o‘qiy olishga, murakkab obyektlarni grafik tarzda tasvirlay olishga o‘rgatadi.


Loyihalash bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday moslama ijodiy fikrlash ya’ni yangilik yaratish bilan bog‘liq bo‘ladi. [11] Loyihalash bilan shug‘ullanishda maqsadga muvofiq va foydali yangilik tuzish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Oddiy geometrik jismlardan murakkab model (detal) hosil qilish. Muhandislik grafikasi va chizmachilik fanlarida har bir buyum yoki detal oddiy geometrik shakllardan yasalgan. Chunki har qanday murakkab model aslida bir nechta sodda geometrik jismlarning birikuvidan hosil bo‘lgan shaklidir. Masalan, kub, prizma, silindr, konus va shar kabi asosiy

jismlar kombinatsiyasi orqali yangi konstruktiv elementlar tuzish mumkin. Ikki yoki undan ortiq geometrik shakllarni birlashtirish orqali yangi model yaratiladi. Misol uchun silindr bilan silindr, silindr bilan prizma, konus bilan kub yoki shar bilan silindrni qo‘shish orqali turli detallar hosil bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm



a) *b)*

2-rasm

O‘rtasi teshik konus, prizma, silindr kabi jismlar ham ikki elementlikka kiradi (2-rasm, *a*). Geometrik sirtlarni biror qismini qirqib olish bilan ham ikki elementli model yasash mumkin (2-rasm, *b*).

O‘quv jarayonida o‘qitiladigan oddiy geometrik jismlardan murakkab modellar tuzish kabi mavzular aslida kundalik hayotimizda juda ko‘plab uchraydi. Masalan, har bir texnika, qurilish, uy jihozlari barchasi avval oddiy shakllardan boshlanadi. Geometrik shakllar bilan ishlash bu shunchaki o‘quv jarayonda emas, balki maishiy turmush tarzimizda uchraydigan buyumlarning qanday yaratilishini tushunishdir. Talabalar uchun bu jarayon amaliy fikrlash, muhandislik ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Masalan, biror buyumni tahlil qilish yoki mana shunday buyumni o‘zini ishlab chiqish. Ya’ni buyumga qarab uning ichida qanday geometrik jismlaryashiringanini tasavvur qilish kabi ko‘nikmalar hayotda ko‘plab masalalarni oson hal qiladi (3-rasm).







3-rasm.

Yuqoridagi rasmlarda ko‘rib turganimizdek, barchasi bir vazifani bajaradi, ya’ni, ko‘zoynak qo‘yish uchun qulay va kreativ ishlangan tayanch moslamalardir. Birinchi rasmda ko‘rib turganimizdek, ikki yoki undan ortiq geometrik shakllarni birlashishidan hosil bo‘lgan kreativ buyum. Ya’ni birinchi rasm ikkita prizmadan va olti yoqli prizmaning markazidan prizmatik teshik o‘tgan. Demak, ushbu buyumni ummumiy tahlil qiladigan bo‘lsak, uch elementdan tashkil topgan. Ikkinchi rasm ham ikkita prizma, silindr va prizmatik teshikdan iborat. Kombinatsiyalash yo‘li bilan ko‘p elementlik model hosil qilish ham loyihalashning boshlang‘ich nuqtasidir. Buni biz o‘quv jarayonlarda o‘qitamiz lekin qanday qilib hayotga tadbiq qilishni mana shunday misollar bilan talabalarga ko‘rsatsak, yanada unumli bo‘ladi.

Hayotimizda ko‘p uchraydigan girih naqshlar - bu aniq geometrik qonuniyatlar va chizma chizish usullari asosida quriladigan bezak shaklidir. Girihni chizish jarayonida geometrik chizmachilikka oid bo‘lgan geometrik elementlar va geometrik shakllar (yoylar, aylanalar, to‘g‘ri chiziq, ko‘pburchaklar)dan foydalaniladi.

Girih bu geometriyaga asoslangan, uzluksiz tutashgan chiziqlar bilan hosil qilgan murakkab dekorativ naqsh tizimi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘pincha girih naqshlar islomiy me’morchilikda qo‘llaniladi. Naqsh bir qarashda sodda ko‘ringani bilan, ammo juda murakkab geomerik shakllarni birlashishidan ma’lum bir qonuniyatga bo‘ysungan holda chiziladi. Geometrik naqsh elementlari to‘rt qismdan uchburchaklar, to‘rtburchaklar, ko‘pburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topadi. 4-rasm, a da bosqichma-bosqich chizilgan girih naqshini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu girih kompozitsiyasi oltiburchak, beshburchak, oltiburchakli yulduz, to‘g‘ri chiziqlardan tashkil topgan. Talabalarning ijodkorligini rivojlantirish maqsadida ijodiy izlanish talab qilinadigan mana shunday girih kompozitsiyalarining geometrik tahlilini bajarishga oid topshiriqdan ham foydalanish mumkin (4-rasm, *b*). Ya’ni tayyor girih kompozitsiyasini talabalarga berib, mana shu girih kompozitsiyasi qanday geometrik shakllardan va qanday geometrik yasashlardan tashkil topganligini aniqlash vazifasi qo‘yilishi mumkin (4-rasm, *b*).


a)  *b)* 

4-rasm

Chizmachilik fanidan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish o‘quv jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu borada avvalo talabalarni turli masalalarni hal etishga jalb

qilish, ularning topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va o‘quv faoliyatni ma’lum darajada rivojlantirish zarur. Chunki har qanday bilim egallash jarayoni oddiy qabul qilish va yod olish bilangina cheklanib qolmasdan, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish kabi aqliy jarayonlarni ham talab qiladi. Shu boisdan talabalar dastlabki bosqichdanoq masalalar yechishga jalb etilsa, ular asta-sekin bilimlarni mustaqil izlashga, yangi yo‘llarni topishga va ijodiy yondashishga o‘rganadilar. Keyingi bosqichlarda esa ularning mustaqil fikrlash qibiliyatini faolligini, tashabbuskorligini chuqurlashtirish, ijodiy yondashuvni kuchaytirish zarur bo‘ladi. Bu jarayon talabalarning o‘z-o‘zidan emas, balki pedagog tomonidan puxta o‘ylangan metodik yondashuv asosida tashkil etilganda samaraliroq kechadi.

Loyihalashni o‘rganish jarayonida pedagog bir qator ijodiy topshiriqlarni talabalar bilan yechish mobaynida ularning fazoviy kompetensiyasi shakllana boshlaydi. Buning uchun turli moslamalarni yasash bilan shug‘ullanish va ba’zi bir qo‘polroq ishlangan buyumlarni bejirim, iqtisodiy jihatdan ham kamharj tarzda qayta ishlash talab etiladi. Buning uchun ularning shakliga o‘zgartirish kiritish lozim bo‘ladi. *Bu esa narsaning geometriyasini qisman qayta loyihalash deyiladi* (5-rasm).




5-rasm.

Detalga kiritilgan o‘zgartirish chizma orqali amalga oshirilsa, ***chizmani qayta ijodiy loyihalash*** deyiladi. Detal shaklini fikran o‘zgartirish, uning qayta ijodiy loyihalangan holatini tasavvur qilish fikrlash qo‘zg‘aluvchanligini o‘stiradi. Chizmada ijodiy loyihalash elementlarini kiritish orqali turli muammolarni yechish mumkin bo‘ladi. [4]

Yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek, narsani geometriyasi qisman qayta loyihalash kabi topshiriqlargina emas balkim, proyeksion chizmachilikda bunday topshiriqlar xilma-xilligi bilan va topshiriqlarning yechimlari ham turlicha bo‘lganligi bilan qolgan masalalardan loyihalash topshiriqlari farq qiladi. Aslida ham loyihalash topshiriqlarning farqi ham ularning ko‘p yechimli ekanligidir. Bunday topshiriqlardan pedagog dars jarayonlarida unumli foydalanishi lozimdir.

Keling, endi bunday topshiriqlardan bir nechtasini keltirib o‘tsak.


Grafik vazifaning berilishi:



6-rasm

1. *V* va *H* da proyeksiyalari bir xil va o‘rtasida uni teng ikkiga bo‘luvchi chiziq chizilgan kvadrat berilgan (6-rasm). Uning nimaligini, ya’ni mazkur modelning yaqqol tasviri va profil proyeksiyasini aniqlash talab qilingan bo‘lsin. 7-rasmda topshiriq yechimlari bilan berilgan.

Grafik vazifaning yechimlari namuna sifatida berilgan:



7-rasm




Grafik vazifaning berilishi:



8-rasm


2. *V* va *H* dagi proyeksiyalari kvadrat va o‘rtasida ikkitadan chiziq chizilgan (8-rasm). Uning nimaligini aniqlang.

3**.** Uchta teshik va kubning yaqqol tasviri berilgan. Kubni shunday loyihalangki, shu uchta teshikdan tig‘iz o‘tadigan detal hosil bo‘lsin (9-rasm).

Grafik vazifaning berilishi:	***Grafik ifaning yechimi:***
 	



9-rasm

4. Uchta teshik berilgan. Birinchisi *V*, ihkinchisi *H* va uchinchisi *W* tekislikklardagi proyeksiyalar o‘rni (10-rasm). Shu teshiklardan tig‘iz o‘tadigan detallarni loyihalang.



10-rasm


5. Detal shakliga o‘zgartirish kiriting: undagi bo‘rtib turgan qismlarni mos o‘lchamdagi chuqurchalarga almashtiring hamda zarur hollarda detal qismlarini ma’lum burchakka burish yoki surish orqali yangi detal hosil qiling. O‘zgartirilgan detalning proyeksiyalarini tasvirlang (11-rasm).

Grafik vazifaning berilishi:	***Grafik vazifaning yechimi:***
	

11-rasm

12-rasmda detal *B* ning *A* chiqig‘i bo‘lib, ushbu detal *A* chiqig‘ini *B* ning hisobiga xuddi o‘shanday shakl va o‘lchamdagi chuqurcha (ariqcha, paz) ga almashtirish lozim (12-rasm).

Grafik vazifaning berilishi:



12-rasm

Geometrik va proyeksion chizmachilikda loyihalash masalalarini tashkil etish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda talabalarda ijodkorlik kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday masalalar orqali talaba nafaqat fazoviy shakllarni tasavvur qilishni, balki ularni amaliy jihatdan modellashtirib, konstruktiv yechimlar topish, kreativ g‘oya va fikr yuritishni o‘rganadilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, geometrik va proyeksion chizmachilik muhandislik grafikasi fanining nazariy va amaliy asosini tashkil etib, loyihalash masalalari orqali talabalarning fazoviy tasavvuri, mantiqiy fikrlashi hamda grafik savodxonligini rivojlantiradi. Oddiy geometrik jismlardan murakkab modellar hosil qilish jarayoni talabalarda konstruktiv tahlil qilish, obyekt tarkibini elementlarga ajratish va ularni qayta kombinatsiyalash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, loyihalash masalalarini real hayotdagi buyumlar va konstruktiv yechimlar bilan bog‘lab o‘qitish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, girih

naqshlari kabi aniq geometrik qonuniyatlarga asoslangan amaliy misollar esa chizmachilik fanining nafaqat texnik, balki estetik va madaniy ahamiyatini ham ochib beradi.

Umuman olganda, loyihalash masalalarini tizimli, bosqichma-bosqich va hayotiy misollar asosida o‘qitish talabalarning fazoviy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali metodik yondashuv ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonov I., Yuldasheva D., Abdurahmonova M. Chizmachilik. -T.: “O‘zbekiston”, 2019.
2. Rahmonov I., Valiyev A. Chizmachilik. -T.: “Voris-nashriyot”, 2011.
3. Василенко И.Е. “ Карточки- задания по черчению” – Москва.: “Просвещение” 1990.
4. Sharipov Sh., Zaripov L., Qodirov B. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash - Termiz 2021.
5. Yodgorov J., Sobirov T., Yodgorov N. Geometrik va proyeksion chizmachilik -T.: “Yangi asr avlodi”, 2008.
6. Gulomova N. “Chizmachilik” (loyihalash) Toshkent.: 2015.
7. Qodirova S.S O‘quvchilarning kreativligini rivojlantirishda chizmachilik faning o‘rni (*ma’ruzalar tezisi).* Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’limi yo‘nalishi pedagog kadrlar tayyorlash sifat va samaradorligini oshirish: Innovatsiya va ilg‘or tajribalar *Respublika ilmiy-amaliy anjumani Toshkent-2024 y*
8. Valiyev, A.N., Qodirova S.S Umumta’lim maktablarida chizmachilik fanidagi loyihalash mavzularini o‘qitish metodikasini takomillashtirish *(ilmiy metodik maqola)* “Xalqaro tajriba: oliy ta’limni transformatsiya sharoitida zamonaviy muhandislik yo‘nalishida intellektual qobiliyatli kadrlar tayyorlash istiqbollari” *Xalqaro konferensiya NamDTU-2025 y*
9. Qodirova S.S Ta’lim turlarida chizmachilik fanining o‘qitilish holati (*ma’ruzalar tezisi)* International conference on interdisciplinary science

USA San Fransisco 04.2025

10. Valiyev, A.N., Qodirova S.S Methodological recommendations for improving the didactic support of teaching design topics in school drafting classes *(ilmiy metodik maqola)* American journal of education and learning *USA 05.2025*
11. Valiyev, A.N., Qodirova S.S Maktab chizmachilik fanida loyihalash mavzularini o‘qitishning didaktik ta’minotini takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar *(ilmiy metodik maqola)* Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali Volume 4, Issue 3 №4 (16) 2025 Namangan-2025
12. Chizmachilikda loyihalash masalalarini o’qitishda elekron qo’llanmalarning ahamiyati (ma’ruzalar tezisi) “MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O’QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: DOLZARB MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR” Respublika ilmiy-amaliy anjumani
13. Nematovich, V. A. Z. (2022). METHODICAL RECOMMENDATIONS FOR DETERMINING THE VISIBILITY OF GEOMETRIC SHAPES IN PERSPECTIVE DRAWINGS. *Conferencea*, 25-30.

14. Valiyev, A. N. (2021). About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training (ilmiy metodik maqola). *SECTORAL RESEARCH XXI: CHARACTERISTICS AND FEATURES*, 107-111.

15. Valiyev A.N., Jo‘rayeva M.U. Chizma geometriyada masalalar yechishni o‘qitishda jarayonida talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish imkoniyatlari. “ORIENTAL RENAISSNCE: INNOVATIVE, ADUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL”, 2022- yil, May. Volume 2, № 5 2022. 399-409 betlar, DOI: 10.24412/2181-1784-2022-5-399-409.

16. Nematovich, V. A. Z. (2022). METHODICAL INSTRUCTIONS FOR TRIMETRIC PROJECTIONS. *Conferencea*, 19-24.

17. Valiyev, A. N., Chorshanbiyeva, D., & Zokirova, M. (2022). Opportunities to Develop Student Space Imagination in the Process of Teaching Problem Solving in Drawing Geometry. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, *5*, 149-154.

18. Nematovich, V. A. (2024). THE IMAGE OF AXONOMETRIC PROJECTIONS IN CONJUNCTION WITH COMPLEX DRAWINGS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(3), 217-225.

19. Nematovich, V. A. (2024). FORMATION AND DEVELOP STUDENTS’SKILLS OF BUILDING A PERSPECTIVE IMAGE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES. *Miasto Przyszłości*, *46*, 448-455.

20. Nematovich, V. A. Z., & O‘g‘li, A. X. Q. (2024). AKSONOMETRIK PROYEKSIYALARNI KOMPLEKS CHIZMALARGA BOG‘LAB CHIZISH. *Строительство и образование*, *3*(2), 120-127.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

OLIY TA’LIM MUASSASASIDA RKI (RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA) O‘QITISHDA GEYMIFIKATSIYA – INTERAKTIV USUL SIFATIDA

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.178

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi PhD, dotsenti
Xafizova Mashxura Aminovna

Annotatsiya. Geymifikatsiya – bu o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion uslub hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida chet ellik talabalar uchun rus tilini o‘qitishda yangi format hamda uslublar izlash ehtiyoji kundan kunga ortib bormoqda. Bilish jarayoniga qiziqishni uyg‘otib, o‘zaro raqobat va tashabbus muhitini shakllantiruvchi, talabani faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etuvchi interaktiv metodlar kundalik o‘quv amaliyotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Geymifikatsiya – aynan ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: geymifikatsiya, interaktiv metod, rus tili, xorijiy talabalar, oliy ta’lim, ta’lim texnologiyalari, kompetensiya.

Аннотация. Геймификация — это инновационный метод, направленный на повышение эффективности образования за счет внедрения игровых элементов в образовательный процесс. Потребность в поиске новых форматов и методов обучения русскому языку иностранных студентов в современных высших учебных заведениях растет с каждым днем. Интерактивные методы, пробуждающие интерес к процессу обучения, создающие атмосферу взаимной конкуренции и инициативы, а также вовлекающие студента в процесс как активного участника, становятся неотъемлемой частью повседневной образовательной практики. Геймификация признана одним из таких современных подходов.

Ключевые слова: геймификация, интерактивный метод, русский язык, иностранные студенты, высшее образование, образовательные технологии, компетентность.

Abstract. Gamification is an innovative method aimed at increasing the effectiveness of education by introducing game elements into the educational process. The need to find new formats and methods for teaching Russian to foreign students in modern higher education institutions is increasing day by day. Interactive methods that arouse interest in the learning process, create an atmosphere of mutual competition and initiative, and involve the student in the process as an active participant are becoming an integral part of everyday educational practice. Gamification is recognized as one of such modern approaches.

Keywords: gamification, interactive method, Russian language, foreign students, higher education, educational technologies, competence.

KIRISH. Geymifikatsiya hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan interaktiv metodlardan biri bo‘lib, o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali bilim olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Rus tilini xorijiy talabalar uchun o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning dolzarbligi ortib borgani sari, geymifikatsiya o‘qituvchilarning diqqat markaziga aylanmoqda. O‘yin mexanizmlaridan foydalanish o‘quvchini an’anaviy nazariy usullardan farqli tarzda, faol va ongli ishtirokchiga aylantiradi. Talabalarning bilimga, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyasi kuchayadi va darslar davomida ular o‘quv jarayoniga qiziqish bilan jalb etiladi. Oliy ta’lim muassasalarida rus tili o‘rgatish jarayonida geymifikatsiyaning joriy etilishi o‘ziga xos uslub va yondashuvlarni talab qiladi. O‘yin elementlari yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini mustahkamlab, zamonaviy hayotga mos ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta’limga yangicha yondashuv sifatida geymifikatsiya muloqot, jamoada ishlash hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda. Shu bois, ushbu maqolada geymifikatsiyaning oliy ta’limda rus tilini interaktiv usulda o‘qitish jarayonidagi ahamiyati, afzalliklari, uning natijadorligi va dolzarb jihatlari keng yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘quv jarayonida geymifikatsiyadan foydalanish asosiy maqsadlardan biri – o‘quvchi motivatsiyasini oshirish hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin va musobaqa elementlari o‘quvchilar faolligini oshirish, o‘z-o‘zini boshqarish va ta’limga ongli ravishda yondoshuv ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Avvalo, darslarda hayotiy muloqot, interaktiv fikrlash va faol muhokama muhiti yaratiladi. Natijada, talabalar rus tilini o‘rganish jarayonida o‘zlarining ishtirokchiligi va muvaffaqiyatini chuqurroq his eta boshlaydilar. Rus tilini o‘qitishda geymifikatsiya metodining asosiy ustunliklaridan biri – o‘quvchini axborot iste’molchisi emas, balki faol ishtirokchi holatiga olib chiqishidir. Geymifikatsiya talabalarni dars jarayoniga qiziqish bilan jalb etish, ularning individual intilishlari va qisqa muddatli yutuqlarini aniqlik bilan baholab borish imkonini yaratadi. O‘yin mexanikalari, mukofot va reyting tizimi, virtual tangalar va boshqa rag‘batlar bilim olish jarayoniga ijodiy va ijobiy tushuncha bag‘ishlaydi, shuningdek, samarali natijalarga erishishga yo‘naltiradi [1].

Pedagogik jarayonda geymifikatsiyani joriy etish uchun chuqur rejalashtirish va aniq maqsadlarni ko‘zda tutish talab etiladi. Ta’lim mos keluvchi topshiriqlar va bosqichlarni tanlash, rag‘batlantirish tizimi, har bir o‘quvchining individual tezligi va qobiliyatini hisobga olish orqali tashkil qilinadi. Qarama-qarshi va guruhiy ishlash shakllarini faol qo‘llash murabbiy va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro ishonch va ko‘mak muhitini mustahkamlaydi. Talabalik jamoalari o‘rtasida ijobiy raqobatning vujudga kelishi o‘quvchilarda o‘ziga ishonch va mustaqillik fiziologiyasini rivojlantiradi. Geymifikatsiyaning interaktiv o‘qitish metodida motivatsion omil alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi bilim olish jarayoniga ongli va shijoatli yondasha boshlaydi. Dars jarayoni hayotiy topshiriqlar, bilimlarni amaliy va ijodiy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgani uchun ham an’anaviy ta’limdan farqli ravishda, talabalar orasida

norasmiy muloqot va muhokama avj oladi. Har bir o‘quvchida o‘zini namoyon qilish uchun qulay imkoniyat yuzaga keladi. Bu esa, hatto ichki motivatsiyasi past, tilga qiziqishi sust talabalarning ham ilmga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rus tilida geymifikatsiya metodidan foydalanish grammatik va leksik bilimlarni mustahkamlash, so‘z boyligini kengaytirish, fonetika va talaffuz o‘ziga xosliklarini o‘rgatish jarayonida samarali natija beradi. O‘yin shaklidagi topshiriqlar, savollar va interfaol mashg‘ulotlar orqali talabalar o‘zaro raqobatlashib, bilim va ko‘nikmalarni faol tatbiq etishadi. Bu, o‘z navbatida, ularni darsdan tashqari ham mustaqil izlanishga, darsdan so‘ng til muhitida faol shug‘ullanishga undaydi. Geymifikatsiyalangan vazifalarda turli murakkablik darajalari, ball tizimi va yutuq indikatorlari yordamida doimiy natija monitoringi olib boriladi [3].

Oliy ta’lim muassasalarida rus tilini o‘qitishda geymifikatsiyaning o‘ziga xos jihatlari ham mavjud. Jumladan, o‘qituvchi uchun o‘yin elementlari va turli platformalarni tanlash, metodik asoslarni moslashtirish, o‘ziga xos mexanizmlar ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish lozim. Geymifikatsiyani muvaffaqiyatli joriy etish uchun o‘qituvchi har bir bosqichda talabaning o‘zlashtirish holatini, emotsional kayfiyatini, psixologik tayyorgarligini hisobga olishi kerak. O‘qituvchi ayni vaqtda mashg‘ulotning moderatoriga aylanadi, o‘quv jarayonini samarali va muvozanatda olib boradi. Geymifikatsiyadan foydalanishda darslarda individuallashtirish prinsipi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Har bir talabaning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati, qiziqish va istaklarini hisobga olib, mos o‘yin strategiyasi va rag‘batlantirish tizimi ishlab chiqiladi. Bu o‘qituvchidan kreativlik, ilg‘or pedagogik yondashuv va doimiy refleksiya talab etadi. O‘quvchilar o‘zlarini innovatsion muhitda erkin, samarali va faol his eta boshlashadi. Geymifikatsiyalashgan ta’lim jarayoni natijasida bir vaqtning o‘zida bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar puxta shakllanadi [4].

O‘zbekistonda xorijiy talabalar uchun rus tilini o‘qitishda geymifikatsiyaning amaliy axamiyati ortib bormoqda. Yangi yondashuvlar talabalarni keng jamoaga moslashish, muloqot qilish va o‘z fikrini ochiq bayon eta olishiga yordam beradi. Muhokamalar va o‘yin shaklidagi taqdimotlar til muhitini minglab mashg‘ulotlar bilan boyitishga imkon beradi. Geymifikatsiya global ta’lim standartlari asosida talabalar so‘z boyligi, kommunikativ ko‘nikmalari, ijodiy yondashuv va til bo‘yicha mustaqillik darajasini oshiradi. Geymifikatsiyani ishlatishda ta’lim texnologiyalarining jadal rivoji ham asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Himoyalangan elektron platformalar, mobil ilovalar, onlayn o‘yinlar va veb-resurslar yordamida darslarda interfaol elementlarni yanada samarali integratsiya qilish imkoniyati tug‘iladi. Talabalar har bir bosqichda fikr almashish, topshiriqlarni mustaqil bajarish, natijalarni ko‘rib chiqish va o‘zlashtirish darajasini doim tahlil qilib boradilar. O‘qituvchi har bir topshiriqning natijasiga o‘z vaqtida baho beradi, muammoli jihatlarni belgilab, har bir talaba uchun individual maslahat va tavsiyanoma tayyorlaydi. O‘qitishning har bir bosqichida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish geymifikatsiyaning asosiy maqsadlaridan biri deb hisoblanadi. Har qanday o‘yin mexanikasi, o‘quv topshiriqlari va jamoaviy ishlash uslublaridan foydalangan holda, talabalar real hayotga yaqin muhitda rus tilida o‘z fikrini ifoda etishni

o‘rganadilar. Fikr almashish, yozma va og‘zaki topshiriqlar yordamida har bir talaba o‘z qobiliyatini sinovdan o‘tkazadi va amaliyotda foydalanadi [5].

Geymifikatsiyaning natijadorligi borasida sistematik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Yutuq indikatorlari, reytinglar, dastlabki va yakuniy natijalar doimiy monitoring ostida bo‘ladi. Funksional baholash, o‘ziga ishonch va jamoaga sodiqlik ham ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, geymifikatsiyada hissiy ruhiyat muhim rol o‘ynaydi. Talabalar muvaffaqiyat va yutuqlarni ko‘proq his qilishadi, ular ta’lim jarayonini zerikarli yoki majburiyat emas, balki o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashg‘ulot sifatida qabul qilishadi. O‘qituvchilarning pedagogik refleksiyasi va doimiy innovatsion izlanishlari geymifikatsiyaning samaradorligini oshirish uchun zamin yaratadi. Natija yanada ilgarilab boradi, o‘quv dasturlari va ta’lim texnologiyalari doimo yangilanadi, ilg‘or tajriba va metodlar almashish orqali mukammallashtiriladi. Har bir o‘quvchi o‘z individual rivojlanish trayektoriyasiga ega bo‘lib, bilim olishdan zavq oladi va doim yuqori natijaga intiladi. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida geymifikatsiyani integratsiyalash orqali rus tilini o‘rgatish zamonaviy pedagogikaning muhim afzalliklari, yangicha yondashuvlari va innovatsion natijalarini namoyon etmoqda. O‘quv muassasalari pedagoglari va talabalariga yangi imkoniyatlar ochiladi, har bir ishtirokchi bilim olish va rivojlanishda faol hamkor, tashabbuskor va ijodkor sifatida shakllanadi [6].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, geymifikatsiya – bu zamonaviy ta’limning ajralmas va samarali qismidir. Ta’lim jarayonida o‘yin elementlari va interaktiv metodlardan foydalangan holda motivatsiya oshadi, kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi, o‘quvchilar bilim olish jarayonida faol, mustaqil va mas’uliyatli ishtirokchiga aylanishadi. Geymifikatsiya ta’lim jarayonini samarador, jozibador va zamonaviy talablarga mos darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Bunday yondashuv o‘quv muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalarni hal etish, ilg‘or tajriba va innovatsion metodlarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александров М. К., Данилова И. В. Образовательные игры в обучении русскому языку как иностранному // Языковая педагогика. 2017. №2 (5).

2. Anderson, C. A., & Dill, K. E. Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. Journal of Personality and Social Psychology, 2000.

3. Артамонова В. В. Развитие концепции геймификации в XXI веке // Историческая и социально-образовательная мысль. 2018. Т. 10. № 2/2. С. 37–43.

4. Варенина Л. П. Геймификация в образовании // Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. № 6. Ч. 2. С. 314–317.

5. Перова И. В. Геймификация в современном обучении: теория и практика. – М.: Просвещение, 2020.

6. Рахимов Н. Л., Халилов А. М. Влияние игровых технологий на мотивацию учащихся // Педагогика. 2018. № 3.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK SURDOPEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK OMILLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.179

Xayitov Lazizbek Rustamjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
lazizbek_xayitov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik omillari mavzusini yoritib berilgan. Bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda “rivojlantiruvchi ta’lim muhiti” fenomeni o‘rni, kasbiy kompetentliligini rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar, ularning mazmun va mohiyati ochib berilgan. Ona tili fani yuzasidan zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan ish mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yondashuv, surdopedagog, kasbiy kompetentlilik, mazmun, mohiyat, til, zaif eshituvchi.

KIRISH.O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyatga ega. bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang‘ich ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

O‘quvchilarga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea- hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy sharoitlarda kasbiy ta’limda “rivojlantiruvchi ta’lim muhiti” fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda. U rossiyalik va xorijiy tadqiqotchilar Y.S.Manuylov [1], J.Raven [2], Y.T.Rusakov [3], V.A.Yasvin [4] va boshqalar ta’kidlaganlaridek, ijtimoiylashuv,

ijtimoiy moslashuv, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarliklarini rivojlantirish muammolarini hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Y.S.Manuylovaning fikricha, agar ta’lim tizimi muhit bilan ziddiyatlarga kirishsa, u buziladi [1].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida muhit quyidagicha talqin etiladi:

− hayot, faoliyat kechadigan tabiiy yoki ijtimoiy sharoitlar majmui;

− kasb-hunari, ishi, faoliyati va shu kabilar bilan bog‘liq kishilar doirasi;

− hodisa, jarayon va shu kabilar kechadigan moddiy sharoit [5, 122-b].

Ta’riflar tahlili ko‘rsatishicha, “muhit” tushunchasi inson hayot faoliyati kechadigan makon, atrof, sharoitlar toifalari orqali ochib beriladi. Demak, mohiyatan, inson hayot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi.

V.S.Lednev ta’lim muassasasining ta’lim muhitiga quyidagicha ta’rif beradi: “o‘quv-tarbiyaviy jarayon pedagogik texnologiya talablari doirasi bilan belgilangan, jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlari va axborot texnologiyalarining darajasi bilan cheklangan, ta’limning maqsad va vazifalariga javob beruvchi, alohida tarzda tashkil etilgan didaktik (pedagogik) muhitning mavjudligini ko‘zda tutadi” [6. 25-b].

Yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinib turganidek, oliy ta’lim muassasasida ta’lim muhiti – bu bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligining rivojlanishiga ta’sir etuvchi o‘quv-tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismidir.

Ishlab chiqarish (pedagogik) amaliyot esa, oliy kasbiy ta’limning asosiy o‘quv dasturining tarkibiy qismi hisoblanadi va talabalarning nazariy hamda amaliy tayyorgarliklarini pedagogik oliy ta’lim muassasasidagi butun o‘qish davrida ularning amaliy pedagogik faoliyatlari bilan birlashishini ta’minlaydi. Pedagogik amaliyotning qurilishini, shuningdek uning vazifalari va funksiyalarining ilmiy asoslanishi O.A.Abdullina [7], V.A.Slastenin [8] va boshqalar ishlarida ifodalangan.

Ko‘pgina tadqiqotchilar (T.B.Igonina, T.A.Kojevnikova, T.A.Kryukova, R.M.Sultanova, T.G.Cheshuina va boshqalar) ishlab chiqarish (pedagogik) amaliyoti davrida – talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyat modellarida – kasbiy kompetentlikning barcha komponentlari rivojlanadi, shuning uchun uni tashkil etishning eng samarali shakllari va metodlarini tanlash juda muhim deb hisoblaydilar.


Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni ayta olamizki, ishimiz jarayonida tadqiqotchi tavsiya etayotgan samarali shakl va metodlardan foydalangan holda talabalar o‘zlaridagi nazariy bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash va kelgusi kasbiy faoliyatiga ham tatbiq eta olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu tariqa, psixologik-pedagogik adabiyotlar, bo‘lajak surdopedagoglar fikrlari tahlili natijasida ijtimoiy- pedagogik omillar guruhining pedagogik aspekti sifatida quyidagilarni ajratdik: oliy ta’lim muassasasining ta’lim muhiti; o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari va metodlari; pedagogik amaliyotni tashkil etish shakllari va metodlari.

NATIJALAR

Maktab jamoasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili fanidan bilim va ko‘nikmalarni egallashlatida turli hil muammolarga duch keladilar. Bu esa o‘qituvchi tomonidan kasbiy

maxorat,kasiy bilimning yetishmasligi oqibatida o‘quvchilarning o‘zlashtirishida seziladi. O‘quvchilarning bilimlarni egallashlaridagi qiyinchiliklar va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanmaganligini ko‘rsatuvchi bir qator omillar mavjud (1-rasmga qarang).



1-rasm. O‘quvchining o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.

Aytilgan subyektiv shaxs sifatlarini qisqacha ochib beramiz, ularning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ta’sirini aniqlaymiz.

O‘qituvchining psixofiziologik dastlabki shartlariga A.K.Markova, L.M.Mitina va boshqalarning fikrlariga ko‘ra, quyidagilar kiradi: intellektual rivojlanishning optimal darajasi, tafakkurning moslashuvchanligi va konvergentligi, faollik, javob ta’sirining yuqori sur’ati, labillik, emoцional barqarorlik, o‘z-o‘zini boshqarishning yuqori darajasi va boshqalar. Ular pedagog faoliyatining samaradorligini va uning sub’ekti sifatida o‘zini qulay his qilishini ta’minlaydi [9].

I.A.Zimnyayaning fikriga ko‘ra, pedagog shaxsining asosiy sub’ektiv sifatlaridan biri kasbiy-pedagogik faoliyatning cho‘qqisiga erishishning muhim omili bo‘lgan – “shaxsiy yo‘nalganlik” hisoblanadi [10].

Psixologik nuqtai nazardan shaxsning yo‘nalganligi – “bu joriy vaziyatlardan erkin barqaror, insonning dunyoqarashi ifodalanadigan, inson faoliyatini uning qiziqishlari, moyilliklari, ishonchi va idellariga mos ravishda yo‘naltiradigan motivlar yig‘indisidir” [11, 230-b.].

Mazkur nisbatan umumiy psixologik muammo (shaxsning yo‘nalganligi) doirasida tadqiqotchilar A.A.Bodalev, A.K.Markova, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan, o‘qituvchi shaxsining pedagogik yo‘nalganligi, uning psixologik mazmuni, rivojlanish sharoitlari va dinamikasi o‘rganiladi.

Masalan, A.K.Markova pedagogik yo‘nalganlikni o‘qituvchilik kasbiga, asosiysi, o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga faol yo‘naltirilgan motivatsiya sifatida (ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, intilishlar va boshqalar) belgilaydi [12].

Demak, yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy qadriyatli motivlarning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida aks etishi to‘laqonli va tarbiya birligini ham ta’minlab bera oladi.

Pedagogikada qadriyatlar muammosi D.V.Kiryakova va boshqa olimlar tomonidan shaxsning qadriyatli yo‘nalishlari, kasbiy yo‘nalishlarni anglash mazmunida o‘rganiladi. A.V.Kiryakova rivojlanishning yuqori bosqichidagi qadriyatli yo‘nalishlar shaxsni hatti-harakatlarga undashi, uning e’tiqodlariga aylanishi mumkin deb hisoblaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak surdopedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazkur jarayonga qadriyatli munosabatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, chunki faqatgina shaxsiy ahamiyatli qadriyat bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyatning ichki tartibga soluvchisi (bo‘lajak kasbiy faoliyatga barqaror motiv) sifatida xizmat qiladi. Bu qadriyatlar va qadriyatli yo‘nalishlarning oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak surdopedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishi to‘g‘risida guvohlik beradi.

MUHOKAMA

Psixologik-pedagogik adabiyotlar va boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarining so‘rovnomalari tahlili bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik-pedagogik omillar guruhidagi psixologik aspekt quyidagi omillar bilan belgilanishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish imkonini beradi: pedagogik faoliyatning psixofiziologik asoslari; kasb tanlash motivlari; talabaning moyilliklari, qiziqishlari, qadriyatli yo‘nalishlari.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi qolgan shaxsning sub’ektiv sifatlarini, ya’ni kasbiy-pedagogik va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni aniqlaymiz.

Kasbiy pedagogik bilim va ko‘nikmalarda esa A.K.Markova kasbiy bilimlar va pedagogik ko‘nikmalarni alohida o‘rganadi. Kasbiy bilimlarga u uch komponentga ega bo‘lgan pedagogik faoliyat to‘g‘risidagi bilimlarni kiritadi: 1) o‘qituvchi tomonidan pedagogik maqsad va vazifalarni belgilash; 2) o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish vositalarini tanlash va qo‘llash; 3) o‘qituvchining o‘z pedagogik ta’sirlarini nazorat qilishi va baholashi (pedagogik tahlil). Pedagogik faoliyatni egallash uchun bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur, ularning asoslari talabalik davridanoq rivojlanadi. A.K.Markova kasbiy bilimlarning uch guruhiga mos bo‘lgan pedagogik ko‘nikmalarning uch guruhini ajratadi [12].

Pedagogik ko‘nikmalarning birinchi guruhi: pedagogik vaziyatda muammoni ko‘ra olish va uni pedagogik vazifa sifatida belgilash ko‘nikmasi; pedagogik vazifalarni belgilashda o‘quv-tarbiya jarayonining faol rivojlanuvchi, shaxsiy motivlari va maqsadlariga ega ishtirokchisi sifatida o‘quvchiga yondashish ko‘nikmasi; pedagogik vaziyatni o‘rganish va qayta o‘zgartirish ko‘nikmasi; pedagogik vazifalarni bosqichli va operativ aniqlashtirish, noaniqlik sharoitida optimal pedagogik qaror qabul qilish, pedagogik vaziyatning o‘zgarishi davomida pedagogik maqsadlar va vazifalarni qulay qayta tashkil etish; qiyin pedagogik

vaziyatlardan to‘g‘ri chiqa olish ko‘nikmasi; pedagogik vazifalarni hal etishning yaqin va uzoq natijalarini oldindan ko‘ra olish ko‘nikmasi va boshqalar. Pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabasi uchun pedagogik vaziyat sifatida o‘quv vaziyati, ya’ni psixologik asosi o‘qituvchining talabalar bilan talabalarning bir-birlari bilan o‘zaro aloqalari, munosabatlari va muloqotlari hisoblangan o‘quv jarayonining o‘zgaruvchilarining tashkiliy tizimi xizmat qiladi [12].

Pedagogik ko‘nikmalarning ikkinchi guruhi. “Nimani o‘rgatish” guruhi: o‘quv materiali mazmuni bilan ishlash ko‘nikmasi; turli manbalardan qabul qilinayotgan axborotlarni pedagogik talqin qilish qobiliyati; o‘quvchilarda umumta’lim va maxsus ko‘nikmalar hamda malakalarni rivojlantirish, fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish va boshqalar.

“Kimni o‘qitish” guruhi: o‘quvchilardagi alohida psixik funkцiyalarni (xotira, tafakkur, diqqat, nutq va boshqalar) va faoliyat turlarining yaxlit xarakteristikalarini (o‘quv, mehnat), o‘quvchilarning bilimlilik va tarbiyaliliklarini o‘rganish; o‘quvchilarning nafaqat mavjud darajasini aniqlash, balki yaqin rivojlanish sohasini, bir rivojlanish darajasidan boshqasiga o‘tish sharoitlarini aniqlash, o‘quvchilarning ehtimoliy qiyinchiliklarini oldindan ko‘ra bilish va odatiy qiyinchiliklarini hisobga olish; o‘quvchilarda mavjud bo‘lmagan faoliyat darajalarini loyihalash va rivojlantirish ko‘nikmalari; o‘quvchilarning o‘z-o‘zlarini boshqarish chegaralarini kengaytirish; zaif hamda iqtidorli o‘quvchilar bilan ular uchun individual dasturlar ishlab chiqib ishlash.

“Qanday o‘qitish” guruhi: o‘qitish va tarbiyalash usullari va shakllarini birgalikda tanlash va qo‘llash ko‘nikmasi, o‘quvchilar va o‘qituvchining kuchi va vaqti sarfini hisobga olish; pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va umumlashtirish, pedagogik usullarni boshqa vaziyatlarga ko‘chirish va ularni kombinatsiyalash, o‘quvchilarga differenцial va individual yondashuvlarni qo‘llash, ularning mustaqil o‘quv faoliyatlarini tashkil etish ko‘nikmalari; bir pedagogik vazifani hal etishning bir necha usullarini topish, variativ pedagogik yechimga ega bo‘lish ko‘nikmasi.

Pedagogik ko‘nikmalarning uchinchi guruhi: psixologik-pedagogik bilimlarni qo‘llash va psixologiya va pedagogikaning zamonaviy holati, ilg‘or pedagogik tajribalar to‘g‘risida xabardorlik ko‘nikmasi; o‘z mehnati jarayonini va natijalarini xronometrajlash, qayd etish, ro‘yxatga olish ko‘nikmasi; o‘quvchilarning qiyinchiliklarini o‘z ishidagi kamchiliklar bilan bog‘lash ko‘nikmasi; o‘z mehnatining kuchli va zaif tomonlarini ko‘ra olish, o‘zining individual uslubini baholash, o‘z tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish, uni boshqa o‘qituvchilarning tajribasi bilan qiyoslash ko‘nikmasi; o‘z pedagogik faoliyatining rivojlanish rejalarini qurish ko‘nikmasi.

Ona tili fani faqat grammatik me’yorni o‘rgatuvchi fan sifatida emas, balki o‘quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to‘g‘ri o‘qishiga, orfoepik va orfografik me’yorlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchi mantiqiy, tanqidiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni

o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi.

Ona tili fani o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Zaif eshituvchi o‘quvchilarda til qonuniyatlarini amaliy ravishda o‘zlashtirish va ulardan bog‘langan nutqda foydalanishga o‘rgatish ona tili darslarining vazifasidir. Bu vazifa muayyan ma’nolarni ifodalaydigan ayrim so‘z birikmalarini tushunish; ularni bog‘langan nutqda ishlatish; til faktlarini tizimlashtirish (umumlashtirish) kabi turli darajalarda hal qilinadi.

Nutq grammatik qurilishini shakllantirish ishlari quyidagi ikki bosqichga bo‘linadi:

Tilning asosiy grammatik qonuniyatlarini amaliy o‘zlashtirish (1-3-sinflar);

Grammatik umumlashmalarni amaliy o‘zlashtirish (4-5-sinflar);

O‘quvchilarda bog‘langan nutqdan faol foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish so‘zlar grammatik shakllaridagi va so‘zlarni o‘zaro bog‘laydigan grammatik bog‘lanishlardagi ma’nolarni ochib berish borasida muntazam ish olib borish asosida amalga oshirib boriladi. So‘z, so‘z birikmasi, gap, bog‘langan matn bilan xilma-xil ish olib borilishi bolalarning o‘rganiladigan grammatik birliklarni ishlatishni tushunib olishlariga erishishga va shu tariqa ularning aqliy va nutqiy rivojlanishi darajasini oshirishga imkon beradi.

Boshlang‘ich til birligi sifatida, nutqning leksik hamda grammatik tuzilishi ustida ham bir yo‘la ish olib boriladigan so‘z birikmasi olingan. Dasturda so‘z birikmalarining turlari va modellari berilgan bo‘lib, ushbu tur va modellar asosida bog‘langan fikr-mulohazaning asosiy birligi bo‘lgan gap qurilish jihatidan shakllantiriladi.

Nutq grammatik qurilishini shakllantirish borasidagi ishlarning birinchi bosqichida bir yo‘la gaplar tarkibidagi so‘zlar morfologik qonuniyatlarning ma’nolarini aniqlashtiradigan tarzda gap tuzish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Umuman olganda bu otlarga (son, kelishik, egalik), fe’llarga (zamon, shaxs), olmoshlarga (son), sifatlarga, ravishlarga, sonlarga xos bo‘lgan qonuniyatlarni qamraydi.

Nutq grammatik qurilishini shakllantirish ishlarining ikkinchi bosqichida ma’lum til faktlari tizimlashtiriladi. O‘quvchilar otlar, fe’llar, sifatlar, olmoshlarni ma’no o‘zgartirish xususiyatlarini tavsiflaydigan qonuniyatlarni umumlashtirishga yaqinlashtiriladi. Bu grammatikaning boshlang‘ich kursini o‘rganishga o‘tish bosqichi bo‘lib xizmat qiladi (6-sinf).

Dastur tilning asosiy grammatik qonuniyatlarini amaliy o‘zlashtirish va ularni tizimlashtirish (umumlashtirish) bilan bir qatorda bog‘langan nutqqa so‘z yasashdagi turli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan so‘zlarni ham kiritishni ko‘zda tutadi (5-sinf). So‘z yasash turli modellarini amaliy o‘zlashtirish o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishga ko‘maklashibgina

qolmay, so‘zlarning ma’nosini, ularning o‘zaro bog‘lanishini yaxshiroq va to‘laroq anglab yetish imkonini ham beradi, so‘zlarni to‘g‘ri ishlatadigan bo‘lishiga ko‘maklashadi.

1-4-sinflarda nutq grammatik qurilishini shakllantirish asosan sodda gap negizida amalga oshiriladi. 5-sinfdan boshlab murakkab sintaktik tuzilmalar, makon, sabab, maqsad, zamon va obyektga oid ma’noviy munosabatlarni ifodalaydigan qo‘shma gap turlari o‘zlashtirilishi ham ko‘zda tutiladi.

Tilning grammatik qurilishini o‘zlashtirish ishlari jarayonida o‘quvchilarda asta-sekin amaliy grammatik umumlashmalar shakllanib boradi. So‘zlarni kim?, nima?, nima qilyapti?, qanday? (qaysi?) degan savollar bo‘yicha ajratish “predmet”, “harakat”, “belgi”–degan tushunchalarga, keyin esa “so‘z turkumi” degan umumiyroq tushunchaga olib keladi. Gaplarda ot va fe’l birikmalaridagi qo‘shimchalar bo‘yicha birlik va ko‘plik sonni ajrata olish “son” grammatik tushunchasiga negiz yaratadi. Fe’llarning zamonlar bo‘yicha o‘zgarishini kuzatish o‘quvchilarni “tuslash” tushunchasini o‘zlashtirishga, gap tarkibidagi otlar grammatik shakllari ma’nolar o‘zgarishiga qarab o‘zgarishini kuzatish esa “turlash” tushunchasini o‘zlashtirishga tayyorlaydi.

Otlar turlanishining xususiyatlari bilan tanishish o‘quvchilarga ularning shakl yasash xususiyatlarini ham o‘zlashtirishida yordam beradi. Tuslanish to‘g‘risidagi tushuncha fe’llar va kishilik olmoshlari leksik-grammatik tavsifini to‘ldiradi va ushbu so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlarini aniqlashtiradi.

Asta-sekin “ot”, “sifat”, “fe’l”, “olmosh”, “qo‘shimcha” atamalari kiritiladi.

O‘quvchilar nutq ko‘nikmalarini va amaliy grammatik umumlashmalarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda imlo borasidagi bilim va qobiliyatlarni, chiroyli yozuv ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradilar. Dasturda “Grammatika va imlo” bo‘limida taqdim etilgan material quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Imlo va punktuatsiya (tinish belgilari)–to‘g‘ri yozish ko‘nikmalari (1-3-sinflar);

Yozuvning grafika tomoniga qo‘yiladigan talablar–husnixat (1-3-sinflar). (Ushbu bo‘limda dasturiy talablar o‘quv choraklariga bo‘linmagan tarzda berilgan).

Ona tili darslarida orttirilgan nutq ko‘nikmalari o‘quvchilarning kundalik o‘quv amaliyoti va sinfdan tashqari nutq amaliyotida ishlatilishi kerak. Bir tomondan, bu dasturdagi o‘rtalarida davomiylik mavjud bo‘lgan bo‘limlarga taalluqlidir; ikkinchi tomondan, ona tili darslarida o‘quvchilar nutq o‘stirish va o‘qish darslarida o‘zlashtirgan leksik materialdan foydalanishi lozim.

Umuman o‘quvchilar alohida bo‘limga ajratilgan “Grammatika va imlo” boshlang‘ich kursini o‘zlashtirishga tayyorlab boriladi (4-sinf).

O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish bilan birga ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va maktab o‘quvchisini shaxs sifatida shakllantirish: uning fuqarolik sifatlarini tarbiyalash, bilimga qiziqishini, mustaqilligini, mehnatsevarligini, mas’uliyatliligini, ish uchun javobgarligini, qiyinchiliklarni yenga borish qobiliyatini tarbiyalash boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning asosiy maqsadidir.

Kichik yoshli maktab o‘quvchilarini aqliy va nutqiy rivojlantirishning samaradorligiga ularning barcha o‘quv predmetlari bo‘yicha bilimlarini yanada muvaffaqiyatli o‘zlashtirib borishlari bog‘liq bo‘ladi.

Fonetika, grammatika, imlo boshlang‘ich kursi o‘rta maktabda o‘tiladigan ona tili fanining mazmuni bilan uzviy bog‘langan va ona tilining turli jihatlariga taalluqli bo‘lgan keng ma’lumotlar doirasini qamraydi. O‘quvchilar so‘zning fonetik tarkibi, so‘zning bo‘g‘inlarga va ma’noli qismlarga bo‘linishi, deyarli barcha so‘z turkumlari va ularning muhim shakllari, gaplarning eng oddiy turlari, gap bo‘laklari va qator imlo qoidalari bilan tanishadilar.

Dastur shuningdek, o‘quvchilarning so‘zning leksik ma’nosi bilan, omonimlar, sinonimlar, antonimlar bilan amaliy tanishishlarini nazarda tutadi. Fonetika, leksika, grammatika va imloga oid eng oddiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida bolalarda fikrlash qobiliyatlari: til materialini tahlil qilish, taqqoslash, guruhlashtirish va umumlashtirish, adabiy nutq qobiliyatlari va ko‘nikmalari shakllanadi; asosiy til birliklari – so‘zni, gapni ishlatish munosabatlari yuzaga keladi.Ona tili boshlang‘ich kursida “Tovushlar va harflar”, “So‘z”, “Gap” bo‘limlari eng muhim bo‘limlaridan hisoblanadi.

Tovush va harflar bo‘yicha asosiy bilim, qobiliyatlar va ko‘nikmalarni o‘quvchilar 1-3-sinflarda orttiradilar. Ular tovushlar va harflar hamda ularning o‘zaro bog‘lanishi, unli va undosh tovushlar, bo‘g‘in, urg‘u, jarangli va jarangsiz tovushlar to‘g‘risida ma’lumot oladilar, ko‘rgazmali chizmalarga tayangan holda so‘zlarning oddiy tovush-harf tahlilini amalga oshirishni o‘rganadilar.

4-5-sinflarda ushbu bo‘lim bo‘yicha qobiliyat va ko‘nikmalar yanada rivojlantiriladi. So‘zlarning tovush-harf tahlili takomillashtiriladi (so‘zlar orfogramma bilan birgalikda olib qaraladi), o‘quvchilarda nutqni eshitish qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor kuchaytiriladi. Bu ish avvalo o‘quvchilarning xatosiz ko‘chirib yozish, aytib turiladigan matnni yozish, yozilganlarni tekshirish, savodxonlik darajasini oshirish usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilishi kerak. Ushbu bo‘lim bo‘yicha muhim dasturiy talab shundan iboratki, bolalar nutq tovushlarini eshitganda farqlay olishlari va ularni yozuvda o‘zbek grafikasining qoidalariga muvofiq ravishda belgilashlari kerak.

Bu sahna orqali insonlar o‘rtasidagi mehr, do‘stlik va mehribonlikning ruhiy shifo va hayotiy kurashdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Suye va Jonsining muloqoti o‘quvchiga, insoniy mehr va hamdardlikning hayotiy ahamiyatini his ettiradi. Dramatik effekt: Yomg‘ir, shamol va tunning tasviri sahnani dramatik qiladi va Jonsining ichki holatini kuchaytiradi. Ramziy vizual obrazlar: Barg, shamol, yomg‘ir – Jonsining ruhiy kurashi va hayotiy motivini ramziy tarzda tasvirlaydi. Hissiy kuch: O. Genri o‘quvchiga do‘stlik, mehr, kurash va hayotiy bardoshlik hissini chuqur yetkazadi.

Xulosa. O. Henrining “So‘ngi yaproq” hikoyasi orqali quyidagilar ko‘rsatildi:

Ruhiy motiv va ichki intilish inson hayotidagi shifo jarayoni va farovonlikda muhim rol o‘ynaydi. Ramziy badiiy vositalar (pechak gul bargi, Neapolitan ko‘rfazi) qahramonlarning ruhiy holatini chuqur ifodalaydi. Mehr, g‘amxo‘rlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash inson ruhiy salomatligi va kurashidagi asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Shunday qilib, hikoya psixologik nazariy tadqiqotlar bilan uyg‘unlashadi va badiiy misollar orqali baxt, ruhiy salomatlik va hayotiy motivning ahamiyatini o‘quvchiga jonli tarzda yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ixtiyorova, M (2026). BAXT VA OILAVIY QADRIYATLAR MOTIVI (A. QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI MISOLIDA). Новости образования: исследование в XXI веке, 4(41), 204-207.

2. Ixtiyorova, M. (2023). ULUG‘BEK HAMDAMNING “UZOQDAGI DILNURA” HIKOYASIDA PSIXOLOGIZM TALQINI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).

3. Ихтиёрова, М. (2025). ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ СЧАСТЬЯ В НАРОДНОМ УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(40), 452-455.

4. Karimov, B. (2020). Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent: "Muharrir". (Gumanitar fanlarda tadqiqot usullari va qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy tamoyillari).

5. Madinabonu, I. (2025). THE EMERGENCE OF THE MOTIF OF HAPPINESS IN LITERARY FICTION. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE, 3(10), 159-163.

6. Mamura, S., & Sarvarbek, O. (2021). TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 189-191).

7. Usmonov, O‘. (2020). Girdob (Qayta nashr). Toshkent: "Sharq" nashriyoti.

8. Safarov, Sh. S. (2022). Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: “Akademnashr”. (Konseptual tahlil va lisoniy manzara masalalari bo‘yicha eng so‘nggi fundamental qo‘llanma).

9. Yuldashev, M. (2021). Badiiy matn tahlili va talqini. Toshkent: "O‘qituvchi". (Badiiy asarlarni interpretatsiya qilish va konseptual tahlil metodikasi bo‘yicha yangilangan darslik).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

TIBBIYOT TALABALARIDA OILA-NIKOH USTANOVKALARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.190

Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti
Umarova Dilnoza

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada tibbiyot talabalarida oila-nikoh ustanovkalarining psixologik xususiyatlari, ularning shakllanish omillari hamda kasbiy tayyorgarlik jarayoni bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil etiladi. Tadqiqotda talabalarning oilaviy qadriyatlarga munosabati, nikohga tayyorgarlik darajasi, gender rollari haqidagi tasavvurlari, shaxslararo munosabatlarda emotsional barqarorlik va mas’uliyat hissining namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Shuningdek, tibbiyot sohasiga xos yuqori stress, mas’uliyat va vaqt taqchilligi kabi omillarning oila qurish haqidagi qarashlarga ta’siri yoritiladi. Empirik natijalar asosida tibbiyot talabalarida sog‘lom oila-nikoh ustanovkalarini shakllantirishda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish, talabalarda barqaror oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish hamda ularning shaxsiy va kasbiy hayotida muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. tibbiyot talabalari, oila-nikoh ustanovkalari, oilaviy qadriyatlar, nikohga tayyorgarlik, psixologik xususiyatlar, shaxslararo munosabatlar, gender rollari, emotsional barqarorlik, kasbiy stress, ijtimoiy-psixologik omillar.

Kirish. So‘nggi yillarda oila, nikoh hamda er-xotin munosabatlari muammolari olimlar tomonidan har tomonlama o‘rganib kelinmoqda. Oila muammolari fundamental va amaliy tadqiqotlarning predmeti sifatida turli yo‘nalish mutaxassislarining diqqatini o‘ziga jalb etmoqda. Aslida, oila hozirda ko’p tarmoqli tadqiqot sohasidir. Zamonaviy oilaning o’ziga xos xususiyatlari bayon qilish, ularni tushunish va o’rganishning psixologik asoslarini aniqlash va o’rganish tufayli dolzarb vazifalardir. Hozirda O‘zbekistonda 10 milliondan ortiq oila bor. Ularning katta qismi bir vaqtning o’zida 2-3 avlod asosida birlashgan kengaygan (bir necha avlodlardan iborat) oilalardir. O‘zbekistondagi zamonaviy oilalarning aksariyati er-xotin va ikki yoki to‘rtta boladan iborat bo’lgan oila hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi oilalarning aksariyat qismi yosh oilalarga to‘g‘ri keladi va ularning muayyan qismi bir vaqtning o‘zida oliy o‘quv yurtlarining talabalari hamdir. Nikohga kirish arafasida bo‘lgan talabalarda psixologik to‘siqlar, nikoh-oila ustanovkalarining adekvat emasligi, oilaviy qadriyatlari tizimining to‘liq shakllanmaganligi, umr yo‘ldosh tanlashda ko‘proq romantik tuyg‘ularga berilish, sherigining tashqi ko‘rinishiga ko‘proq e’tibor berish, ota-

onalariga iqtisodiy bog‘liqlik kabi bir qator omillar ko‘rinadiki, bu omillarni maxsus o‘rganish lozim ekanligi yanada oydinlashadi.

Adabiyotlar tahlili. Oila muammolari, shaxslararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligi bois o‘tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham oila va oilaviy muammolarga o‘z e’tiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Xotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin kabi ko‘plab olimlar nikoh-oila masalalarida o‘zlarining durdona fikrlarini qoldirib ketganlar. Ular bugungi kunlarimizda ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shuki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan. Ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e’tibor berganlar[1].

Oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, O‘zbekistonlik psixolog olimlar ham bu yo‘nalishda o‘ziga xos maktab yaratilishiga hissa qo‘shmoqdalar. Olimlardan M.G. Davletshin, G‘.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.N. Sattorov, N.A. Sog‘inov, E.Sh. Usmonov, X.K. Karimov, F.A. Akramova, N.Salaeva, F.R. Ro‘ziqulov, G.T. Yadgarova, M.X. Fayzieva, N.X. Lutfullayeva, U.S. Saribayeva va boshqalarning ishlarida bu masalalar maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilgan[1-2].

V.M. Karimovaning doktorlik dissertatsiya ishida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari sifatida ijtimoiy tasavvurlar ilk bor jiddiy tadqiqot sifatida o‘rganilgan[3].

M.M. Umarova tomonidan o‘smirlardagi oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishi o‘rganilgan.

M.M. Fayziyeva o‘z ilmiy ishida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlarning ta’sirini tadqiq etgan, buning uchun oila qurgan er va xotinlarning o‘zaro munosabatlari tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilgan.

N.X. Lutfullayevaning tadqiqotida turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan [4].

U.S. Saribayeva tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ishida oilaviy munosabatlarda jinsiy-psixologik mutanosiblikning oila barqarorligiga ta’siri masalalari atroflicha o‘rganilgan [5].

Adabiyotlar tahlili oila muammolari MDH mamlakatlari olimlaridan I.S. Kon, I.S. Golod, V.V. Boyko, L.Ya. Gozman, Yu.K. Aleshina, S.V. Kovalev, Z.A. Yankova, A.G. Xarchev va boshqalar tomonidan o‘rganilganligini ko‘rsatadi. Jumladan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash (T.Yu. Sorokin, S.V. Kovalev), oilaviy nizolar va ularning kelib chiqish sabablari (V.A. Sisenko), ajralishlar (N.G. Yurkevich, V.T. Kolokolnikova), bola tarbiyasida oilaning roli (S.V. Kovalev, V.Ya. Titarenko), o‘smir va ota-ona orasidagi o‘ziga xos munosabat (I.S. Kon, A.T. Xripkova) larning ijtimoiy-psixologik jihatlari kabi yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bundan tashqari, globalizatsiya sharoitlariga xos bo‘lgan

o‘ziga xos muammolar, jumladan, “teleekran orqali ijtimoiylashuv” muammosi (V.V.Abramenkova, I.Ya. Medvedeva, T.L. Shishova) zamonaviy oila va undagi o‘zaro munosabatlarning turli qirralarini (A.I. Antonov, M.Yu. Arutyunyan, S.I. Golod, O.V. Zdravomslova, L.B. Shneyder, Ye.M. Chernyak va boshqalar) o‘rganilishi zamonaviy yoshlarda umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarning uyg‘un shakllanishi bilan bog‘liq muammolar ham ilmiy tadqiqotlar nazorati ostiga olinganligidan dalolat beradi[1-2].

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan ko‘rinib turibdiki, nikoh-oila munosabatlari, oilaviy hayot muammosi chet ellik olimlar tomonidan ham, respublikamiz oilashunos psixologlari tomonidan ham keng ko‘lamda tadqiq etib kelinmoqda, bu borada o‘ziga xos tajribalar to‘plangan. Ma’lumki hozirgi zamon oilasi ikkita asosiy turga ajratiladi: an’anaviy va zamonaviy (innovatsion) oila. Ushbu ikki turdagi oila modellari parallel tarzda harakatda bo‘lishi mumkin.

”An’anaviy oila modeli”da erkaklar va ayollarning roli aniq taqsimlangan va biriktirilgan bo‘ladi. Erkak – moliyaviy resurslar to‘plangan oila boshlig‘i va asosiy qarorlarni u qabul qiladi. Shu munosabat bilan oila ichidagi rollarning biriktirilishi paydo bo‘ladi. Ayol erkakka bo‘ysunadi, u uy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Bolalar, o‘z navbatida, ota-onalariga bo‘ysunadilar, har qanday oila a’zosining nufuzi uning jinsiga va yoshiga bog‘liq. Oilaviy qadriyatlar “ota-onalar – bolalar” munosabatlari uchun asos hisoblanadi.

“Zamonaviy oila modeli”da esa, ayolning siyosiy - iqtisodiy va ijtimoiy maqomi oshishi oila ichidagi rollar va oila hayoti me’yorlarining o‘zgarishiga olib keladi. Ota-ona professional karerasini va oilaviy majburiyatlarini mutanosib ravishda (tengma-teng) olib boradi. Farzandlarga tadbirkorlik ko‘nikmalari va mustaqil bo‘lish fikri singdirib boriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Oila turlarining paydo bo’lishiga yordam beradigan oila xususiyatlarining omillari o’rganilmagan, munosabatlarning tabiati ko’rib chiqilmagan. Bunda shaxsning oilaviy hayotga qanday tayyorgarlik ko‘rgani bilan bog‘liq. Shuning uchun biz o‘z ilmiy tadqiqot ishimizni Farg‘ona Jamoat Salomatligini Saqlash institutining talaba yoshlarini oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini o‘rganishdan boshladik. Aniqlanishicha, talaba-yoshlarni oilaviy hayot tayyorligi avvalo, ularni oila haqidagi tasavvurlari mazmuniga va ularning to‘g‘ri shakllanganligiga bog‘liq.

Natijalar

Oila-nikoh tasavvurlarining tarkibiy ierarxiyasini o‘rganish maqsadida olib borgan izlanishimizda yigitlar va qizlardagi ustanovkalarning o‘ziga xosligiga alohida e’tiborni qaratdik. Olingan natijalarga ko‘ra (1-jadval), yigitlardagi tasavvurlari ko‘proq ijtimoiy ahamiyatli bo‘lib, qizlar (masalan, FJSSI da 340 nafar qizdan 182 nafari) ularga nisbatan ancha egoistik tasavvurlarga ega ekanligini ko‘ramiz.

1-jadval

Respondentlarning ehtiyojlarga mos ravishda “nikoh-oila tasavvurlari” tafovutlanishi (n=524)

Respondentlar / Oila-nikoh tasavvurlari	Kasbiy, jinsiy jihatdan	
	FJSSI (n=524)	
	Yigitlar (n=184)	Qizlar (n=340)
Egotsentrik	**20**	**182**
Sotsiotsentrik	**81**	**96**
An’anaviylik	**83**	**62**

Ya’ni, zamonaviy qizlar oilada o‘ziga xos yuqoriroq mavqega ega bo‘lishni, shaxsiy qulaylik, istagan narsaga egalik qilish, egotsentrizm kabi istaklar, sifatlarni namoyon qilgan. Fikrimizcha, bu mahalliy muhit (o‘zbek millati) uchun biroz kutilmagan hodisa hisoblanadi. Olingan empirik ma’lumotlardan aniqlanishicha, qizlardagi “Men” – konsepsiyasi yigitlarnikidan ko‘ra individuallashgan bo‘lib, oxirgilar ko‘pchilik manfaatiga yo‘nalgan ustanovkaga egadir.

Shuningdek, oilaviy hayotga tayyorlik fenomeni o‘rganilayotganda shaxsning nikohga qanchalik bog‘liqligi, turmush o‘rtog‘iga nisbatan egoizmni qay darajada namoyon qilishi muhimdir. Adabiyotlar tahlilidan bizga ma’lumki – egoizm – o‘z diqqat-e’tiborini faqat shaxsiy “Men”i va uning manfaatiga yo‘naltirishdir. Bunday holat oila muhitida, ayniqsa, turmush o‘rtog‘i bilan hamkorlik va hamjihatlikda bo‘lishga xalaqit beradi. Chunki, er-xotinlik, oilaviy hayot doimiy o‘z manfaatidan chekinishsiz, o‘zni qiynashsiz tasavvur etilmaydi. Yaxshi oila – bu altruizm, gumanizm, o‘zni fido qilish maktabidir. Shunday sifatlar sohibi bo‘lgan insonlar odatda mustahkam va barqaror oila qura oladilar.

Demak, shifokorlik kasbini tanlagan yigitlarda ham ko‘rishimiz mumkin (sotsiotsentrik ustanovka 81 nafar, an’anaviylik ustanovkasiga yo‘nalganlar – 83 nafar). Tadqiqotning ko‘rsatishicha, yigit va qizlardagi nikoh-oila munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarning rivojlanishi, avvalo, ulardagi sevgi va nikoh, oila va turmush o‘rtog‘iga nisbatan iste’molchilikning yo‘qligi, o‘zini va sherigini idrok etishda realistik va yaxlit idrokning mavjudligiga bog‘liqdir. Aniqlanilishicha, hozirgi zamon talaba-yoshlarida sub’ektiv munosabatlarda egoizmga yaqin sifatlar ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.

Jumladan, talaba-yoshlardagi “oila-nikoh ustanovkalari” asosan egotsentrik tamoyillarga tayanadi va unda o‘zgalar manfaati yo‘lida o‘zini fido qilish xususiyati bo‘lmaydi. Tadqiqotda ishtirok etgan 524 nafar respondentning javoblarini tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, ularning tasavvuriga ko‘ra, nikoh-oila munosabatlari ehtiyojlarini qondirishda asosan uch xil ustuvor ustanovkalarga, ya’ni 38,5 foizi – egotsentrik, 33,77 foizi – sotsiotsentrik, 27,67 foizi – an’anaviy ustanovkalarga tayanadilar. Ammo, qizlar o‘rtasida egotsentrik ustanovkaga tayanuvchilar miqdorining nisbatan yuqori (53,5%) bo‘lishi qizlarda bu ustanovka yo‘nalishining yuqoriligi (jami 340 nafar qizda) hisobiga bo‘lmoqda.Oila-nikohga nisbatan ustanovkaning an’anaviy shaklida yoshlarning o‘zi tug‘ilib tarbiya ko‘rgan oilalarining turli xususiyatlari aks etadi. Jumladan, bu oilada bolalar sonining o‘rtacha ekanligi

(2, 3, 4), ota-ona oilasida tarbiyaviy funksiyaning to‘g‘ri bajarilishi, oilada mas’uliyat va burch masalalarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bilan izohlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy o‘quv yurtida ya’ni tibbiyot institutida tahsil olayotgan, bugungi kun talaba-yoshlarining oilaviy hayotga tayyorligi darajasi, avvalo, ularning oilasi, undagi ustuvor qadriyatlar, ularning egotsentrik, sotsiotsentrik yoki an’analarga bog‘liq tarzda shakllanganligidan kelib chiqadi. Bunda boshqa milliy-madaniy muhitlardan farqli o‘laroq, o‘zbek talaba yigit-qizlarida an’anaviy oilaga nisbatan ustanovka (tibbiyot institutida), qizlarda esa an’anaviylikdan biroz og‘ish bilan bog‘liq ustanovkalar yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki qizlarning jinsiga oid psixologiyasida noan’anaviylikka qiziqish va rolli ziddiyatlardan qochish xususiyatlari mavjud. Zamonaviy nazariy tadqiqotlarni umumlashtirish va tahlil qilish bizga oilaviy xususiyatlarning asosiy qoidalarini shakllantirishga imkon berdi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. – T.: Res. «Oila» IAM, 2002. – 28 b.

2.Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Oilaviy hayotga doir tavsiyalar. – T.: Res. «Oila» IAM. 2002. – 40 b.

3.Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi: Psixol. fan. dok. … dis. – Farg‘ona: FarDU, 1994. – 324 b.

4.Lutfullayeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nom.…dis. avtoreferati.– T.: O‘zMU, 2006.– 25 b

5.Saribayeva U.S. Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta’siri: Psixol. fan. nom.dis. avtoreferati. – T.: O‘zMU, 2007. – 22 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALARDA MUSTAQILLIK FENOMENINING RIVOJLANISHI VA UNI KONFORMLILIK HUSUSIYATI ORQALI TUSHUNTIRILISHI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.191

Abdullaeva Nigora Raximovna
Qo‘qon Davlat Universiteti v.b.dats

Annotasiya. ushbu makolada usmir yoshidagi ukuvchilarda Konformlilik hodisasini unga o‘xshash ba'zi hodisalardan farqlashning bir nechta usullar orkali bolalarda aniklash kursatib utilgan.

Kalit so‘zlari : konformlilik , xulq-atvor, fenomen psixologiya , xatti–harakat, individ , ijtimoiy, e'tiqodlar, qadriyatlar, odatlar va ko‘nikmalarijtimoiy e'tiqodlar, qadriyatlar, odatlar va ko‘nikmalar.

Annotation: This article demonstrates the identification of the Conformity phenomenon in adolescent swimmers in children through several methods of distinguishing it from some similar phenomena.

Keywords: conformity, behavior, phenomenon psychology, behavior, individual, social, beliefs, values, habits and skills, social beliefs, values, habits and skills.

Kirish. Mamlakatimizda farzandlar tarbiyasiga e'tiborli yondoshish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir davrda yashayapmiz. Shu nuqtai nazardan o’smir yoshlarda mustaqil fikrlashni, o’z fikriga ega bo’lish va mustaqil pozisiyaga ega bo‘lish haqida ko‘plab davlat xujjatlarida fikr bildirilgan. Mustaqillik deb atalgan psixologik fenomen g‘arb psixologiyasida mustaqillikning aksi hisoblangan konformlilik orqali o‘rganilgan.

Konformlilik, konform xulq-atvor shunday xatti–harakatni anglatadiki, guruh bilan shaxs o‘rtasida birorta masalada kelishmovchilik kuzatiladigan bo‘lsa individ guruhiy ta'sirga beriladi. Bunga, ya'ni konformizmga qarshi tushuncha – mustaqil, o‘zgalar ta'siriga berilmagan xatti–harakat bo‘lib, bunda individ o‘z fikrini o‘zi ishlab chiqadi va o‘zgalar oldida uni qo‘llab-qo‘ltiqlaydi.

Konformlilik hodisasini unga o‘xshash ba'zi hodisalardan farqlash lozim. Masalan, ijtimoiy e'tiqodlar, qadriyatlar, odatlar va ko‘nikmalarning guruhiy bosim bilan aloqasi yo‘q. Turli xil etiketlarga, modaga, ijtimoiy shart–sharoitlarga amal qila turib, odam o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishi mumkin.

Mashhur olim I.S.Kon konformizm tushunchasi haqida quyidagicha yozadi: konformlilik tushunchasini individ bilan guruh o‘rtasidagi ziddiyatni yechishning ma'lum usuliga qo‘llash mumkun. Konformlilik o‘lchovi individning talablari va standartlariga

bo‘ysinish darajasidir. Bu bo‘ysinish sof tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkun. Individ o‘z qarashlarini o‘zgartirmaydi, biroq u ularni oshkor etmaydi, o‘zini guruhning pozisiyasiga bo‘ysinganday ko‘rsatadi. Bu holda bosim tugashi bilan yoki odam ma'lum guruhning nazoratidan chiqishi bilan, u yana o‘zining shaxsiy ustanovkasiga mos holda harakat ko‘rsatadi. “Ichki konformlilik” o‘ta murakkab tushuncha bo‘lib, bunda guruhning ta'siri ostida odam o‘zining ilk fikrini o‘zgartiradi ko‘pchilikning nuqtai nazarini o‘zlashtirib oladi [2].

Mustaqillik tushunchasiga nisbatan ham shu o‘rinda aniqlik kiritib olish zarur. Guruhiy bosimga berilmagan har qanday kishi ham “mustaqil” deb atalavermaydi. Oddiy turmushda ham, psixologik eksprimentlarda ham tez–tez negativizm hodisasi haqida, ya'ni aksincha gapirish va harakat qilish ustanovkasiga to‘qnash kelinadi. Bu individning guruhga nisbatan dushmanlarcha munosabati bilan tushuntiriladi va o‘zining ulardan farqli fikri borligini qo‘rsatib qo‘yish istagi mavjud bo‘ladi. Odatda bu holatning ortida shunday fakt yashirinib yotadiki, mazkur individ uchun o‘ta obro‘li referent hisoblangan, o‘zga normalarga va qadriyatlarga ega bo‘lgan qandaydir boshqa guruh mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘smirlarning ota–onalariga, umuman kattalarga nisbatan o‘zining mustaqilligini ko‘rsatib qo‘yadigan hammaga ma'lum negativizmi tengdoshlari jamoasi ichidagi o‘ta qattiq konformlilik bilan qo‘shilib ketadi.

Konformizm hodisasi ilmiy jihatdan o‘tgan asrning 50 yillarida o‘rganila boshlandi. Amerikalik psixolog S. Ash shunday tadqiqot o‘tkazgan. 7 ta talabadan iborat guruhga quyidagi instruksiya beriladi: “Sizlarga ikkita oq qog‘oz ko‘rsatiladi. Chap tomondagisida bitta chiziq o‘ng tomondagisida har xil uzunlikdagi 3 ta chiziq berilgan. Ular tartib bilan 1, 2, 3 raqamlari bilan raqamlangan. Shu chap tarafdagi chiziqqa o‘ng tarafdagi 3 ta chiziqdan bittasi teng. Mos raqamini aytish bilan o‘sha teng chiziqni aytishingiz talab etiladi”. Har bir odam navbat bilan o‘ndan chapga qarab javob beradi. Javoblar maxsus shaklda qayd qilinadi. Ular bir sinaluvchi yolg‘izlikda so‘ralganda hech kim xato qilmaydi. Biroq eksperimentning siri shundaki, bitta odamdan boshqa barcha sinaluvchilar eksperimentator bilan kelishib olishadi va barcha sinaluchi ilgaridan kelishilgan noto‘g‘ri javobni aytadi. “Sodda sinaluvchi” so‘nggi yoki so‘nggidan oldingi o‘rinda turib javob beradi. Unga undan oldin javob beruvchilarning noto‘g‘ri javoblari ta'sir qiladi. “Sodda sinaluvchi” o‘z ko‘zi bilan ko‘rganiga ishonadimi yoki o‘zgalarning fikriga ishonadimi? Agar o‘z ko‘rganiga ishonsa, u kishi mustaqil fikrlaydigan hisoblanadi. Aksincha bo‘lsa, u konform xulq-atvorli kishi bo‘lib chiqadi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: guruhning fikri bilan shaxsiy idrokning o‘rtasida farq kuzatilganda odamlar o‘zlarini qanday tutishar va nimani his etar ekanlar hamda ularda qanday reaksiyalar kuzatilar ekan?

1) Odam o‘zining kompetent emasligi yoki shaxsiy kamchiliklari natijasida o‘zgalardan boshqacha fikr yuritganligini o‘zini anglaydi. Bu o‘rinda odamda o‘z–o‘zini past darajada baholash va o‘ziga ishonmaslik holatlari kuzatiladi.

2) Odam guruhni ayblaydi. Bunda uning fikri bilan guruh fikridagi farqqa sabab “o‘zgalar masalasini tushunmagan”ligida yoki tez qaror chiqarganligida” deb hisoblaydi. Bunday pozisiya, tabiiyki, guruh bosimiga qarshi turishga yordam beradi

3) Individ o‘z fikrlaridagi farqni ob'ektiv sharoitlar bilan tushuntirishga harakat qiladi. (“Har tomondan qaralgani uchun har xil javob bo‘ladi”). Bunda individ o‘z fikrida turib olishi kerak bo‘ladi. Biroq nimagadir bunday kishilar ko‘proq guruh ta'siriga beriladilar.

4) Ba'zi birovlar qarashlaridagi farqlarni individual farqlar bilan tushuntiradi. Ayniqsa masala shaxsiy va sub'ektiv hisoblansa shunday fikrga kelishadi. (“Dunyo shunday qurilgan, har kimning har xil dunyoqarashi bor”)

5) Ba'zi birovlar fikrlardagi farqni “sezmaslikka harakat qilishadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki psixologiya fani mustaqqilik fenomeni masalasida quydagi savollarga javob berishi talab etiladi:

1) Mustaqil xatti-harakatning asosi qanday?

2) Mustaqillik qanday shaxs sifatlariga ega bo‘lgan kishilarda kuzatiladi? Umuman mustaqil shaxs haqida gapirsa bo‘ladimi?

3) Mustaqil xulq-atvorni qanday psixologik mexanizmlar ta'minlaydi va bunda qanday motivasion himoyaviy mexanizmlar va kognitiv omillar o‘zaro aloqada bo‘ladi?

4) Mustaqil xatti-harakatning qanday psixologik oqibati kuzatiladi? O‘z fikrida turib olish uchun qanday ustanovkalar, emosional holatlar, e'tiqod va shaxsning ijtimoiy holatlari kuzatilishi zarur?

Yuqoridagi savollarga javob berish barobarida mustaqillik fenomenining mazmun-mohiyati ochila boradi. Savollardan ba'zilari quyidagicha javob berish mumkin:

R.Krachfildning fikricha, har bir odamning reaksiyasi guruhiy bosimga nisbatan konkret sharoitlarga bog‘liq holda kechadi. Bunday konkret sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- guruhning tarkibi va strukturasi;
- guruhning odam uchun ahamiyatliligi (obro‘liligi);
- uning guruhdagi shaxsiy mavqei;
- ko‘tarilgan masala sinaluvchining shaxsiy manfatlariga qay darajada “tegib ketadi”;
- sinaluvchining tayyorgarlik darajasini (kompetentligiga);
- - o‘zaro muloqatdagi ishtirokchilarning sinaluvchi oldidagi obro‘siga va h.

R. Krachfild mustaqil fikrlaydigan va mustaqil xulosa chiqaradigan kishilarga xos sifatlar to‘g‘risida quyidagicha yozadi:

- bilish sohasida: nisbatan yuksak intellekt, fikriy jarayonlarning tezligi, orginal g‘oyalarning mavjudligi;
- motivasiya va emosiyalar sohasida harakatining yuksak darajadagi kuchi, stressli holatlarda yuksak o‘z-o‘zini boshqarish, xovotirlikning yo‘qligi;
- o‘z o‘zini anglash sohasida: shaxsiy jihatdan mukammalligi tuyg‘usining mavjudligi, o‘zini o‘zi yuqori darajada hurmat qilish, o‘ziga ishonch, o‘zi to‘g‘risida real tasavvurlarga ega bo‘lish;

- muloqot sohasida: o‘zga kishilarning uning to‘g‘risidagi fikriga ko‘p e'tibor bermaslik faollik, ta'sirlarga berilmaslik, mutelik shaxslararo munosabatlarda ishonch va hadikning yo‘qligi.

Odamlar to‘g‘risida to‘g‘ri xukm chiqara olishlik qobiliyati mustaqil kishilarda baland rivojlangan bo‘ladi. Bunday kishilarga dogmatizm, tafakkurning stereotiplashuvi yot bo‘ladi. Aksincha, konform odamlarga nevrotizm, xronik xovotirlanish, avtoritarlik xos bo‘ladi.

Shunday qilib, biz yuqori xorijiy psixologiyada mazkur mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar va ularda chiqarilgan xulosalarga to‘xtalib o‘tdik.

Adabiyotlar

1. 1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qaror. 30.09.2018 y., PQ-3955. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018-y., 07/18/3955/1978-son. http:www.lexuz.uz.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008. - 173 b.

3.Kon I.S. V poiskax sebya: Lichnost i yeyo samosoznanie – M.: Politizdat, 1984. – 335 s.

4.Psixologiya i etika delovogo obsheniya. Uchebnik dlya vuzov/ Pod red. prof. V.N. Lavrinenko. – M.: YuNITI-DANA, 2002.- 415 s.

5.Freydjer R., Feydiman D. Bolshaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenti. – Spb.: Praym. – YeVRO-ZNAK, 2008. – 704 s.

6. Hujanazarova, N. "IMPORTANCE OF FAIRY TALES IN MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN." International Academic Research Journal Impact Factor 7.1 (2022): 6

7.Xo’janazarova, Nargiza. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY OG ‘ISHLARNING OLDINI OLISH VA QAYTA TIKLASH." Talqin va tadqiqotlar 1.25 (2023).

8. Raximovna, Abdullayeva Nigora. "Methodological Possibilities of Increasing Memory Productivity in Primary School Students." Middle European Scientific Bulletin 17 (2021): 297-300.

9.Abdullaeva, Nigora, and Kamola Yuldasheva. "METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF INCREASING THE SPECIFICITY OF MEMORIZATION IN CHILDREN OF KIICHIK SCHOOL AGE." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.5 (2023): 1100-1104

10.METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF INCREASING THE SPECIFICITY OF MEMORIZATION IN CHILDREN OF KIICHIK SCHOOL AGE Abdullaeva Nigora Rahimovna Senior lecturer, Kokand State Pedagogical Institut

11. THE ROLE OF PARENTAL RELATIONSHIP IN THE STATEMENT OF INDEPENDENT OPINIONS IN ADOLESCENT CHILDREN Abdullaeva Nigora Raximovna Senior lecturer at Kokan State Pedagogical Institute

12. HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THEIR IMPLEMENTATION." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.5 (2022): 435-442

13. Hujanazarova, N. (2022). IMPORTANCE OF FAIRY TALES IN MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. International Academic Research Journal Impact Factor 7.4, 1(6), 98-104.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

THE RELATIONSHIP BETWEEN MILITARY TERMINOLOGY AND EMOTIONAL EXPRESSIONS

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.192

Musurmanova Shakhnoza
Head of the Department of foreign Philology of the International innovative University (PhD), docent

Annotation. The article explores the psychological implications of this relationship, referencing theories related to language and emotion. It discusses how military terminology can serve as a bonding mechanism among service members, fostering a sense of identity and belonging while simultaneously creating barriers for those outside the military community who may struggle to understand the language and its associated emotions.

Key words: psychological mechanisms, cognitive linguistics, language and emotion, linguistic features, linguistics, cultural competence, social practice, contextual awareness, interdisciplinary learning, language community.

Annotatsiya. Ushbu maqola muayyan terminologiya odamlarning hissiy reaktsiyalariga qanday ta’sir qilishi mumkinligini o‘rganadi. Bu terminologiyaning asosiy tushunchalarini belgilashdan boshlanadi - uni ma’lum bir sohada yoki kontekstda qo‘llaniladigan atamalar va iboralar to‘plami sifatida belgilaydi - va hissiy javoblar, ular stimul, shu jumladan til tomonidan ta’sir qilgan bir qator his-tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi. Muallif so‘zlarni tanlash va ular uyg‘otadigan his-tuyg‘ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan turli tadqiqotlarni taqdim etadi. Masalan, maqolada ishtirokchilar turli terminologiyalar yordamida tavsiflanganda o‘xshash tushunchalarga turlicha munosabatda bo‘lgan tajribalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik mexanizmlar, kognitiv tilshunoslik, til va hissiyot, lingvistik xususiyatlar, tilshunoslik, madaniy kompetentsiya, ijtimoiy amaliyot, kontekstli xabardorlik, fanlararo ta’lim, til jamoasi.

Аннотация.В статье исследуются психологические последствия этой взаимосвязи, ссылаясь на теории, связанные с языком и эмоциями. В нем обсуждается, как военная терминология может служить связующим звеном между военнослужащими, укрепляя чувство идентичности и принадлежности, одновременно создавая барьеры для тех, кто не принадлежит к военному сообществу, кому может быть трудно понять язык и связанные с ним эмоции.

Ключевые слова: психологические механизмы, когнитивная лингвистика, язык и эмоции, языковые особенности, лингвистика, культурная компетентность, социальная практика, контекстуальная осведомленность, междисциплинарное обучение, языковое сообщество.

Introduction. The language we use shapes our perceptions and experiences, influencing how we understand and relate to the world around us. In the realm of military discourse, terminology serves not only as a means of communication but also as a powerful vehicle for emotional expression. This article explores the complex relationship between military terminology and the emotions it evokes among service members, veterans, and the civilian population. Military language is characterized by its unique jargon, acronyms, and phrases that convey operational concepts and shared experiences within the armed forces. However, the impact of this specialized language extends far beyond mere functionality; it resonates deeply with individuals, eliciting feelings of pride, fear, camaraderie, and even alienation.

Understanding this relationship is crucial, as the emotional weight carried by military terms can significantly influence social perceptions of military actions and veterans' reintegration into civilian life. Through a combination of qualitative interviews and quantitative surveys, this article seeks to uncover how specific military terms trigger distinct emotional responses and how these responses shape identities both within and outside the military community. By examining the psychological implications of military language, we aim to highlight the importance of inclusive communication strategies that acknowledge the emotional dimensions of military terminology. Ultimately, this exploration underscores the need for greater awareness of how language can bridge or widen the gap between military and civilian experiences, fostering empathy and understanding in an increasingly complex social landscape.

Methods: To investigate the relationship between military terminology and emotional expressions, a mixed-methods approach was employed, combining qualitative and quantitative research techniques. This methodology allowed for a comprehensive exploration of how specific military terms resonate emotionally with service members, veterans, and civilians.

1. Qualitative Interviews:

- A purposive sampling strategy was used to recruit 30 participants, including active-duty service members, veterans from various branches of the military, and civilians with varying degrees of exposure to military culture.

- Semi-structured interviews were conducted, lasting approximately 45-60 minutes each. The interviews were designed to explore participants' personal experiences with military terminology, focusing on specific terms or phrases that evoke strong emotional responses. Open-ended questions encouraged participants to share their feelings, memories, and associations related to these terms.

-The interviews were transcribed and analyzed using thematic analysis. Key themes and emotional responses were identified, coded, and categorized to reveal patterns in how different groups relate to military language.

2. Quantitative Surveys:

- A structured online survey was developed to quantify emotional responses to military terminology. The survey included a list of commonly used military terms and phrases,

alongside Likert-scale questions assessing participants' emotional reactions (e.g., pride, fear, nostalgia, alienation) to each term.

- The survey was distributed to a broader audience of 500 individuals, including military personnel, veterans, and civilians. Participants were recruited through social media platforms, military organizations, and veteran support groups.

- Responses were collected anonymously over a four-week period. Participants were also invited to provide open-ended comments about their experiences with military language.

Results: The study aimed to explore the relationship between military terminology and emotional expressions among service members, veterans, and civilians. The findings are presented in two main sections: qualitative results from interviews and quantitative results from surveys.

The thematic analysis of the 30 semi-structured interviews revealed several key themes related to emotional responses to military terminology:

1. Pride and Honor:

– Many participants expressed feelings of pride when discussing terms such as "service," "duty," and "sacrifice." Veterans often associated these terms with their commitment to their country and the camaraderie experienced during service. One veteran noted, "When I hear the word 'duty,' it reminds me of my brothers in arms and the sacrifices we made together."

2. Fear and Anxiety:

– Terms associated with combat, such as "deployment," "combat zone," and "mission,' elicited feelings of fear and anxiety among participants. Several individuals recounted their experiences of uncertainty and stress during deployments. A service member shared, "Hearing 'deployment' still sends chills down my spine; it brings back memories of fear and the unknown."

3. Nostalgia and Remembrance:

– Participants frequently mentioned feelings of nostalgia when reflecting on terms like "homecoming" and "brotherhood." These terms evoked memories of positive experiences and connections formed during service. One veteran remarked, "The word 'homecoming' makes me think of the joy of returning home after a long deployment, surrounded by loved ones."

Discussion: The findings of this study reveal a nuanced relationship between military terminology and emotional expressions, highlighting the profound impact that language can have on individual experiences within and outside the military community. The qualitative and quantitative data collected from service members, veterans, and civilians illustrate how specific terms evoke a range of emotions, from pride and nostalgia to fear and alienation.

The study's qualitative results indicate that military terminology serves as a powerful conduit for expressing deep-seated emotions. Terms like "service," "duty," and "sacrifice" resonate strongly with veterans and service members, often eliciting feelings of pride and honor. This aligns with existing literature that suggests that language plays a critical role in shaping identity and belonging within military culture (Hoffman, 2016). The camaraderie

experienced during service is encapsulated in these terms, reinforcing a collective identity that fosters resilience among military personnel.

Conversely, terms associated with combat and deployment-such as “combat zone” and “mission”-trigger anxiety and fear. This finding underscores the psychological toll of military service, particularly in relation to experiences of trauma and stress. The strong emotional responses to these terms highlight the need for greater awareness and support for service members grappling with the residual effects of their experiences.

The study also sheds light on the disconnect that civilians often feel when confronted with military terminology. The emotional responses of civilians reveal a sense of alienation, particularly when encountering terms like “PTSD,” “MIA,” or “KIA.” This disconnect may stem from a lack of personal experience or understanding of the military context, which can create barriers to meaningful dialogue between military personnel and civilians. As noted by one civilian participant, the military lexicon represents a world that feels foreign and inaccessible.

This finding emphasizes the importance of fostering communication and understanding between military and civilian populations. Educational initiatives aimed at demystifying military language could help bridge this gap, promoting empathy and awareness of the challenges faced by service members and veterans.

The emotional weight of military terminology has significant implications for mental health support services. The study indicates that certain terms can evoke distressing memories or feelings among veterans, which may hinder their willingness to seek help. Mental health practitioners should be mindful of the language they use when discussing military experiences, opting for terminology that minimizes potential triggers while still addressing the realities of service-related trauma.

Furthermore, the findings suggest that incorporating narratives around pride and honor into therapeutic settings could enhance engagement among veterans. By acknowledging the positive emotional associations tied to certain military terms, practitioners can create a more supportive environment that fosters healing and connection.

Conclusion: The exploration of the relationship between military terminology and emotional expressions reveals a profound connection that significantly impacts both service members and civilians. This study underscores how specific military terms can evoke a spectrum of emotions, ranging from pride and camaraderie to anxiety and alienation. For veterans and active-duty personnel, terminology related to service fosters a sense of identity and belonging, while terms associated with combat can trigger distressing memories and feelings.

Conversely, civilians often experience a disconnect when confronted with military language, which can hinder understanding and empathy. This gap emphasizes the need for increased dialogue and education to bridge the divide between military and civilian communities.

Furthermore, the implications for mental health support are crucial; practitioners must be sensitive to the emotional weight of military terminology when engaging with veterans. By

adopting language that acknowledges both the pride of service and the complexities of trauma, mental health services can create a more supportive environment for healing.

In conclusion, recognizing and addressing the emotional resonance of military terminology is essential for fostering understanding, promoting mental health, and enhancing communication between military personnel and the broader society. As we continue to explore this relationship, we pave the way for greater empathy and support for those who have served, ultimately enriching our collective narrative surrounding military experiences.

REFERENCES:

1. Akhmedov, A. “Psixolingvistika: Nazariy asoslar va amaliyot.” Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2020.

2. Baxter, J. “Language and Military Culture: A Psycholinguistic Perspective.” Journal of Language and Politics, 15(3), 456-472. 2026.

3. Davronova, S. “O‘zbek va ingliz tillarida harbiy terminologiyaning taqqosiy tahlili.” O‘zbekiston tilshunosligi jurnali, 2(1), 25-34. 2019.

4. Gulomova, D. “Terminologiya va psixolingvistika: Harbiy sohadagi o‘zgarishlar.” O‘zbekiston fanlari jurnali, 4(2), 12-20. 2019.

5. Khan, M. “The Role of Language in Military Communication: A Psycholinguistic Approach.” Military Psychology, 30(5), 423-435. 2019.

6. Murodov, I. “Harbiy psixologiya va til: O‘zbek va ingliz tillaridagi terminlarning ta’siri.” Psixologiya va ta’lim jurnali, 5(3), 78-85. 2022.

7. Niyozov, U. “Cultural Influences on Military Terminology: A Comparative Study.” International Journal of Linguistics, 12(4), 99-115. 2022

8. Sattorov, R. “Harbiy terminlarning psixolingvistik jihatlari.” O‘zbekiston tilshunosligi va adabiyoti jurnali, 3(2), 45-53. 2019.

9. Musurmanova Sh.K. Problems of recreating phraseological units in translation. Scientific bulletin of Bukhara international university 1(10), 315-318. 2025.

10. Musurmanova Sh.Q. “Harbiy soha terminlarining tilshunoslik va lug‘atshunoslikka kirib kelish jarayoni”. Oriental Renaissance, 12(4), 99-115. 2022

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

ZAMONAVIY O’SMIRLAR QADRIYATLARI TIZIMINI SHAKLLANISHIDA MEDIA MANIPULYATSIYANING IJTIMOIY PSIXOLOGIK TA’SIR USUL VA VOSITALARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.193

Suleymanova To’xtaxon Gaynazarovna
Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti p.f.n.

Annotatsiya.maqolada zamonaviy axborotlashgan jamiyatda o’smir yoshlar qadriyatlar tizimining transformatsiyalashuvi va unga media-manipulyativ texnologiyalarning ta’siri ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida internet va ijtimoiy tarmoqlarning o’smirlar hayotiy maqsadlarini belgilashdagi dominant roli hamda virtual muhitning shaxs ijtimoiylashuviga ta’siri ochib berilgan. Empirik o’rganishlar natijasida o’smirlarda axborot-psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganlik darajasi va buning oqibatida qadriyatlar ierarxiyasida pragmatik yo’nalishlarning ma’naviy-axloqiy mezonlardan ustun kelishi o’rtasidagi bog’liqlik asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: qadriyatlar transformatsiyasi, media-manipulyatsiya, axborot-psixologik xavfsizlik, psixologik immunitet, tanqidiy fikrlash, virtual reallik, mediasavodxonlik

Abstract. The article provides a socio-psychological analysis of the transformation of the value system in modern adolescents and the impact of media-manipulative technologies in today’s information-driven society. The study reveals the dominant role of the Internet and social networks in defining the life goals of adolescents, as well as the influence of the virtual environment on personal socialization. Based on empirical research, the correlation between the level of adolescents' information-psychological protection mechanisms and the resulting prevalence of pragmatic orientations over spiritual-moral criteria in the hierarchy of values is substantiated.

Keywords: transformation of values, media manipulation, information-psychological security, psychological immunity, critical thinking, virtual reality, media literacy.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda yoshlarda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ommaviy axborot vositalari ahamiyatli ta’sir ko’rsatib kelmoqda. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, media muhit o’smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirish bilan birga, unda sun’iy ehtiyojlarni ham shakllantirmoqda

Jaxon sog’likni saqlash tashkiloti Yevropa mintaqaviy byurosining yangi ma’lumotlari o’smirlar o’rtasida ijtimoiy mediadan muammoli foydalanish ko’rsatkichlari keskin oshganini ko’rsatmoqda: 2018 yildagi 7% dan 2025 yilda 11% gacha. Bundan tashqari, o’smirlarning 12

foizi raqamli o’yinlarga nisbatan muammoli xulq-atvor xavfi ostida. Bularning barchasi raqamli texnologiyalarning yoshlar ruhiy salomatligi va shaxs xususiyatlarini shakllanishida jiddiy ta’sir etishi jiddiy xavotir uyg’otmoqda. [9]

O’zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida»gi Qonuni hamda Prezidentning sohaga oid farmon va qarorlarida yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlik madaniyatini yuksaltirish ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan. Zero, globallashuv sharoitida o’smirlarning qadriyatlar tizimi nafaqat oila yoki maktab, balki shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli jamiyat ta’sirida shakllanib bormoqda. [1,2]

Qadriyatlar shaxs ichki dunyosining asosi va uning faoliyatini yo’naltiruvchi eng muhim tuzilma bo’lib, shaxsning dunyoga, o’z-o’ziga va atrofdagilarga bo’lgan munosabatini belgilab beruvchi barqaror ichki mezonlar majmuidir.

Zamonaviy jamiyatda o’smir yoshlarda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ommaviy axborot vositalari axamiyatli ta’sir ko’rsatib kelmoqda

Ayniqsa, internet va televidenie o’smir shaxsning shakllanishida ulkan rol o’ynaydi. Ular yoshlarning madaniyatini, qadriyatlarini va hatto hayot tarzini belgilab beradi.

Bugungi kunda «axborot» — turli signallar va belgilar yordamida tashqi dunyoni aks ettirishning asosiy usullaridan biridir. «Kim axborotga egalik qilsa — u dunyoga egalik qiladi», deb bejiz aytishmaydi. [5]

Qadriyatlarning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo’lib, u asosan interiorizatsiya orqali amalga oshadi. Bu jarayonda jamiyatda mavjud bo’lgan tashqi axloqiy me’yorlar, an’analar va qoidalar insonning ichki ishonchiga aylanadi. Bunda oilaviy tarbiya, ta’lim dargohlari va ijtimoiy muhitning o’rni beqiyos. Ayniqsa, o’smirlik davrida qadriyatlar tizimi kuchli transformatsiyaga uchraydi; bu yoshda inson tayyor qoliplarni shunchaki qabul qilmay, ularni tahlil qiladi va o’zi uchun muhim bo’lgan shaxsiy ideallarni tanlab oladi. Qadriyatlar — bu shaxs faolligining yo’nalishi va mazmunini tavsiflovchi murakkab ijtimoiy fenomen . [7]

Qadriyatlar shaxs munosabatlari tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi, insonning dunyoga va o’ziga bo’lgan umumiy yondashuvini belgilaydi, shaxsiy pozitsiyalariga, xulq-atvoriga va xatti-harakatlariga ma’no va yo’nalish beradi.

An’anaviy qadriyatlar odamlarning o’zaro shaxslararo muloqoti, ularning ishda, uyda va sayohatlardagi aloqalari asosida shakllangan bo’lsa, hozirgi vaqtda axborot izlash va olish uchun uydan chiqish shart emas. Internet zamoanviy jamiyatimizda eng kengt tarqalgan eng ommaviy axborot vositasi sanaladi Unda yangiliklar har daqiqada yangilanib turadi, bundan tashqari axborotni televidenie, radio, ko’plab gazeta va jurnallar yetkazib beradi.

Muammoni o’rganilganlik xolati Jasmina Rokich tadqiqotilarida smartfon foydalanishi va o’smirlarning **o’z-o’zini baxolash hissi** o’rtasida murakkab bog’lanishlar bor deb ta’kidlagan .

Irina Zaxarchenkonning tadqiqoti internet faolligi yuqori bo’lgan o’smirlar qimmatlar ierarxiyasida boshqa guruhlarga nisbatan **pragmatik (amaliy)** qadriyatlarni ko’proq afzal

ko’rishi va ijtimoiy hamkorlik qadriyatlarini kamroq e’tirof etishi to’g’risida xulosa qilgan. Bu **qimmatlar tizimi va raqamli faollik o’rtasida aniq** bog’liqlik borligini ko’rsatadi.

M.V. Maksheeva o’smirlarning rakamli jamiyatda **axloqiy ongi va qadriyatlarini shakllantirish** masalasi o’rganilgan. Tadqiqot natijalari shunday ko’rsatdiki Raqamli muhitda o’smirlar bilan ishlashda axloqiy qadriyatlarni shakllantiish masalasi aloxida e’tibor berish zarur

Ye.Volkova va G.Sorokuumovaning tadqiqotida o’smirlarning **raqamli jamiyatda ijtimoiylashuvi va sub’ektiv sog’lomlik** mezonlari tahlil qilingan.Ularning taxlil qilishicha, raqamli muhitda onlayn faollik ularning ijtimoiy rivojlanishi va qadriyatlar tizimiga axamiyatli ta’sir ko’rsatishi isbotlangan

D Sag’dullaevnaning internet madaniyatining o’smirlar ma’naviy ongi va axloqiy qadriyatlariga ta’sirini tahlil qilgan

U.Jumaboyev O’smirlarning **virtual muhit** qadriyatlari shakllanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi, deydi.O’smirlar virtual jamoalarda ijobiy ijtimoiy tasdiq olishga harakat qiladi va bu holat ko’pincha an’anaviy madaniyat va qadriyatlar bilan zid keladi

F.Boymurodova , B. Norbekovalar o’smirlar Kun davomida ijtimoiy tarmoqlarda ko’p vaqt o’tkazish **— depressiya, xavotir va o’z-o’zini past baholash**ga sabab bo’lshishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

METODLAR

Tadqiqotimizda 9 sinf o’quvchilari 58 nafari bilan tajriba sinov ishlari olib borildi O’tkazilgan tadqiqiot natijalariga ko’ra, respondentlar ommaviy axborot vositalarining (televidenie, internet, bosma nashrlar) salbiy ta’siri faktini nafaqat tan oldilar, balki ma’lum darajada unga berilib, ko’pincha oqibatlarini anglamayotganliklari aniqlandi. adqiqot doirasida ommaviy axborot vositalarining yoshlar qadriyatlariga ta’sirini aniqlash maqsadida.

Eksperimentning birinchi bosqichida o’smirlarning kundalik axborot iste’moli o’rganildi. Natijalarga ko’ra, o’smirlarning 92 foizi asosiy axborot manbai sifatida ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalarni (Instagram, TikTok, YouTube) ko’rsatgan.

Televidenie faqat 8 foiz respondent uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa o’smirlarning qadriyatlari tizimini shakllanishida gadjetlar axamiyatlilik darajasi yuqoriligini tasdiqlaydi. Bosma nashrlar o’smirlar uchun axamiyatlilik darajasi aniqlanmadi

NATIJALAR .

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, 11-sinf o’quvchilari uchun asosiy ijtimoiylashuv omili an’anaviy institutlar (oila, maktab) emas, balki internet va raqamli media muhiti bo’lib qolmoqda. Axborot iste’molining 90% dan ortig’i ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalar hissasiga to’g’ri kelishi, o’smirlarning dunyoqarashi algoritmlar va virtual trendlar asosida shakllanayotganini anglatadi. 58 nafar bitiruvchi sinf o’quvchilari ishtirokida o’tkazilgan eksperiment yoshlarning axborotni saralashda psixologik jihatdan himoyalanmaganini tasdiqladi. Respondentlarning 68 foizi emotsional va manipulyativ xabarlarga tez ishonishi, ularda tanqidiy fikrlash ko’nikmasi yetarlicha shakllanmaganidan dalolat beradi. Bu esa o’smirlarning yot g’oyalar va sun’iy qadriyatlar ta’siriga tushib qolish xavfini oshiradi.

O’smirlar axborot iste’moli manba’alari (58 nafar)

Manba	Natija (%)
Ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalar	92%
Televidenie	8%
Bosma nashrlar %	Bosma nashrlar %

Axborot-psixologik himoya ko’rsatkichlari (N. Akramova bo’yicha) . [5]

Tadqiqotning ushbu qismida o’smirlarning media-manipulyatsiyalarga qarshi tura olish imkoniyatlari quyidagicha taqsimlandi:Metodika Axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash qobilitini tadqiqi etadi

Past daraja	34%	o’smirlar blogerlarning hayot tarzini ideallashtiradi va axborotni tekshirmaydi.
O’rta daraja	22 %	Axborotga qisman shubha bilan qaraydi, lekin emotsional kontent ta’siriga tez tushadi
Yuqori daraja fikrlovchi, ichki «Men» mustahkam va manipulyatsiyalarni ajrata oladigan o’smirlar	44%	Tanqidiy fikrlovchi, ichki «Men»i mustahkam va manipulyatsiyalarni ajrata oladigan o’smirlar

Past daraja (34%): Bu guruhdagi o’smirlar blogerlarning hayot tarzini ideallashtiradi va axborotni tekshirmaydi.

O’rta daraja (22%): Axborotga qisman shubha bilan

Yuqori daraja (44%**):** Tanqidiy va mutaqil fikrlovchi, ichki «Men»i mustahkam va manipulyatsiyalarni ajrata oladigan o’smirlar.

Rokich metodikasi yordamida 11-sinf o’quvchilari (58 nafar) o’rtasida o’tkazilgan so’rovnoma natijalari axborot manipulyatsiyasi o’smirlarning hayotiy tanlovlariga qanday ta’sir ko’rsatayotganini ochib berdi. Respondentlar qadriyatlari ikki guruhga — terminal (maqsadlar) va instrumental (vositalar)ga ajratilgan holda tahlil qilindi.

№	Terminal qadriyatlar	foiz	manipulyativ ta’sir
1	Moddiy ta’minlangan hayot	74%	Reklama va blogerlarning manipulyativ ta’sir" obrazi
2	Ijtimoiy tan olinish va obro’	62%	Ijtimoiy tarmoqlardagi "layk" va mashhurlik
3	Qiziqarli ish va kasbiy o’sish	51%	Yuzaki kasbiy trendlar
4	Oilaviy baxt va yaqinlar	38%	Zamonaviy mediada kam yoritiladi
5	Biror ijodiy faoliyat bilan	24%	Ikkinchi darajali deb hisobla

	shug’ullanish		

MUHOKAMA VA TAHLIL

Tadqiqot natijalariga ko’ra, o’smirlar qadriyatlariga eng kuchli ta’sir ko’rsatuvchi vosita sifatida internet (72%) e’tirof etildi. Televidenieningta’siri esa bor-yo’g’i 8%ni tashkil etdi. Bu ko’rsatkich o’smirlarning ijtimoiylashuv jarayoni asosan nazorat qilib bo’lmaydigan virtual makonda kechishi anglatadi. Ijtimoiy makonda manipulyativ ta’sir obrazlari (blogerlar, vaynerlar va sun’iy trendlar) o’smirlarning hayotiy maqsadlarini moddiy boylik va yuzaki mashhurlikka yo’naltirmoqda..

Axborot muhiti va ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ obrazlar ta’sirida o’smirlarning maqsadlari quyidagicha taqsimlandi (o’rtacha rang ko’rsatkichi bo’yicha):

Axborot-psixologik himoya ko’rsatkichlari metodikasi bo’yicha Past darajadagi ko’rsatkich 48% respondentlarda Ushbu guruhdagi o’smirlar media muhitdagi har qanday ma’lumotni tanqidiy tahlil qilmasdan, to’g’ridan-to’g’ri qabul qilishga moyildirlar. Ular uchun ijtimoiy tarmoqlardagi mashhur shaxslar va blogerlarning hayot tarzi «etalon» (namuna) sifatida xizmat qiladi. Bu esa o’smirlarda o’z-o’ziga bo’lgan bahoning pasayishiga va virtual dunyodagi sun’iy qadriyatlarning (hashamat, yengil daromad, yuzaki obro’) ustuvorligiga olib keladi. Psixologik jihatdan bu guruh manipulyativ ta’sirlarga eng zaif qatlam hisoblanib, ularda axborotni saralash filьtrlari mavjud emas.

O’rta daraja ko’rsatkichlar 22% foiz respontlarda aniqlangan respondent Bu darajadagi o’smirlarda axborotga nisbatan qisman shubha bilan qarash va uni qayta ishlash ko’nikmalari kuzatiladi. Ular axborotning yolg’on yoki manipulyativ bo’lishi mumkinligini anglaydilar, biroq hissiy (emotsional) jihatdan kuchli berilgan kontentlarga (masalan, ta’sirli videoroliklar, vizual effektlar) duch kelganda o’z himoya pozitsiyalarini yo’qotadilar. Ularning qadriyatlar tizimi hali barqaror emas, vaziyatga qarab tashqi ta’sirlarga moslashishi yoki ikkilanishi mumkin.

Tadqiqotda ishtirok etgan 44% responetlarda axborot-psixologik himoyaning yuqori darajasi qayd etildi. Bu o’smirlar mustahkam ichki «Men» kontseptsiyasiga va rivojlangan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega. Ular axborotni qabul qilishda uning manbasi, maqsadi va yashirin ma’nolarini anglashga harakat qiladilar. Manipulyativ usullarni tez payqaydilar va o’zlarining ichki qadriyatlarini tashqi axborot hujumlaridan mustaqil ravishda himoya qila oladilar.Ushbu toifadagi o’smirlarda axborot iste’moli madaniyati shakllangan

Xulosa va takliflar:

O’smirlar uchun an’anaviy oila maktab kabi ijtimoiylashuv institutlari o’z mavqeini yo’qotgan. Respondentlarning 92 foizi uchun asosiy qadriyat shakllantiruvchi muhit raqamli platformalardir. Bunda internet 72% va ijtimoiy tarmoqlar shaxs dunyoqarashini belgilovchi asosiy vosita bo’lib qolmoqda..

Moddiy ta’minlangan hayot 74% va Virtual obro’ 62%birinchi darajali maqsadlarga aylangan.Oilaviy baxt va ijodiy faoliyat kabi fundamental qadriyatlar respondentlarning faqat 30-38 foizi uchun muhim hisoblanadi.

O’smirlarning 48% media-manipulyatsiyalarga nisbatan mutlaqo himoyalanmagan.Ularda axborotni tanqidiy tahlil qilish filьtri mavjud emas, bu esa blogerlar va virtual trendlarni ko’r-ko’rona ideallashtirishga olib keladi.O’smirlarning 22 foizi emotsional kontent ta’sirida o’z pozitsiyasini oson o’zgartiradi.. Muammoni hal etishning asosiy metodi — o’smirlarda tanqidiy va mustaqil fikrlash va mediasavodxonlik ko’nikmalarini shakllantirish orqali ularning psixologik immunitetini mustahkamlashdir SHuningdek :

6. O’smirlarning psixologik immunitetini oshirish, axborot iste’moli madaniyati shakllantirishga qaratilgan ijtimoy psixologik treninglar tashkil etish; . [9,10]

7. Milliy qadriyatlarga asoslangan, zamonaviy va o’smirlar uchun emotsional jozibador bo’lgan media-kontentlar ishlab chiqarishni darajasida qo’llab-quvvatlash.

8. Yoshlarining qadriyatlarini shakllantirishni optimallashtirish uchun bevosita ishtirok etishga va ko’rishga jalb qiluvchi tok-shoular yaratish maqsadga muvofiq

FOYDALANILGAN ADABIYotLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida»gi Qonuni. 2016 yil 14 sentyabrь, O’RQ-406-son.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-5040-sonli Qarori.
3. Mirziyoev SH.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021.
4. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2020.
5. Akramova N.A. Axborot-psixologik xavfsizlik va mediasavodxonlik madaniyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.
6. Boymurodova F., Norbekova B. O’smirlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning psixologik xususiyatlari // Psixologiya. 2021. №3.
7. Волкова Е.Н., Сорокумова Г.В. Психологическое благополучие подростков в цифровом обществе // Психологическая наука и образование. 2020.
8. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Fan”, 2012.
9. Mo’minov F.A. Ommaviy axborot vositalari va yoshlar tarbiyasi. – T., 2018.
10. Макшеева М.В. Формирование нравственного сознания подростков в цифровой среде. – М., 2021.
11. Рокич М. Методика «Ценностные ориентации». – М.: Генезис, 2002.
12. Sa’dullaeva D. Internet madaniyati va o’smirlar ma’naviy-axloqiy qadriyatlari. – T., 2020.
13. G’oziev E.E. Ontogenez psixologiyasi. – T.: “Noshir”, 2010.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

REABILITATSION PSIXOLOGIYADA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.194

Kuziyev Botir
Jizzax politexnika instituti t.f.n. dots.,
Murodova Nargiza Sobirovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitet Jizzax filiali doktoranti

Abstract. In recent years, the human rights–based approach in rehabilitation psychology (RP) has gained particular relevance. This approach emphasizes the need to consider the psychological well-being, social participation, and equal opportunities of persons with disabilities through the integration of clinical interventions with broader socio-political and environmental factors. Contemporary critiques indicate that psychology—including rehabilitation psychology—often tends to attribute responsibility for complex sociopolitical challenges primarily to the individual’s “adaptation” and “response,” while structural and systemic barriers remain insufficiently addressed. This article substantiates a human rights protection model in rehabilitation psychology as a methodological framework. It explains six core principles associated with the tradition of Beatrice Wright, as well as the extended concept of advocacy and protection of rights. Furthermore, the study discusses the methodological integration of this framework with the World Health Organization’s International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF) biopsychosocial model and the 2011 *World Report on Disability*.

Аннотация. В последние годы особую актуальность приобретает правозащитный подход в реабилитационной психологии (РП). Данное направление требует рассматривать психологическое благополучие, социальное участие и равные возможности лиц с инвалидностью через интеграцию клинических вмешательств с социально-политическими и экологическими факторами. Современные критические исследования показывают, что психология (включая реабилитационную психологию) нередко возлагает ответственность за сложные социополитические проблемы преимущественно на «адаптацию» и «реакцию» индивида, тогда как системные и структурные барьеры остаются на втором плане. В статье обосновывается модель защиты прав человека в реабилитационной психологии как методологическая основа. Раскрываются шесть ключевых принципов, связанных с традицией Беатрис Райт, а также расширяющая их концепция адвокации (защиты интересов и прав). Кроме того, рассматривается методологическая интеграция данной модели с биопсихосоциальной моделью Международной классификации функционирования, ограничений

жизнедеятельности и здоровья (ICF) Всемирной организации здравоохранения и докладом 2011 года *«World Report on Disability»*.

Annotatsiya. Reabilitatsion psixologiyada (RP) inson huquqlarini himoya qilish yondashuvi so‘nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda: bu yo‘nalish nogironligi mavjud shaxslarning psixologik farovonligi, ijtimoiy ishtiroki va teng imkoniyatlarini ta’minlashda klinik aralashuvni ijtimoiy-siyosiy hamda atrof-muhit omillari bilan uzviy bog‘lab ko‘rishni talab qiladi. Zamonaviy tanqidlar shuni ko‘rsatadiki, psixologiya (jumladan, reabilitatsion psixologiya ham) murakkab sotsiopolitik muammolarda mas’uliyatni ko‘pincha individning “moslashuvi” va “reaksiyasi”ga ortiqcha yuklab, tizimli hamda strukturaviy to‘siqlarni ikkinchi planga surib qo‘yish xavfiga ega. Maqolada reabilitatsion psixologiyada inson huquqlarini himoya qilish modeli metodologik omil sifatida asoslanadi; Beatris Rayt an’anasi bilan bog‘liq oltita tayanch printsip (hamda ularni kengaytiruvchi “advokatsiya/manfaatlarni himoya qilish” g‘oyasi) izohlanadi; JSSTning ICF biopsixososial modeli va 2011-yil “World Report on Disability” (Nogironlik bo‘yicha Jahon hisoboti) bilan metodologik integratsiya yoritiladi.

Kalit so‘zlar: reabilitatsion psixologiya; inson huquqlari; nogironlik; advokatsiya; ICF; biopsixososial model; inson qadr-qimmati; inklyuziv ta’lim; O‘zbekiston.

Kirish. Inson huquqlariga asoslangan yondashuv nogironlikni “faqat tibbiy muammo” yoki “atigi individuallashgan kamchilik” sifatida emas, balki shaxsning salomatlik holati bilan bir qatorda atrof-muhit (institutsiyalar, munosabatlar, infratuzilma, qonunchilik va xizmatlar tizimi) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasi sifatida ko‘rishni talab qiladi. Bu tamoyil BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida ham umumiy printsiplar ko‘rinishida mustahkamlangan: qadr-qimmat va avtonomiya, kamsitmaslik, jamiyatda to‘liq ishtirok va inklyuziya, farqlilikni hurmat qilish, imkoniyatlar tengligi va ochiqlik (accessibility) kabi mezonlar talqin uchun “yo‘l xaritasi” vazifasini bajaradi. Reabilitatsion psixologiya amaliyotida esa tarixan ikki kuchli tendensiya bir-biriga parallel rivojlangan: shaxsning ichki moslashuv jarayonlari va individuallashtirishga urg‘u; nogironlikni keltirib chiqaruvchi yoki kuchaytiruvchi ijtimoiy hamda strukturaviy to‘siqlarni yumshatish (muassasaviy va siyosiy darajadagi o‘zgarishlar) zarurati.

So‘nggi ilmiy munozaralarda aynan birinchi yo‘nalishning “ortiqcha individuallashtirilishi” tanqid qilinadi: reabilitatsion psixologiya ba’zan mas’uliyatni nogironligi mavjud shaxslarning individual reaksiyalariga yuklab, atrof-muhitning tizimli va strukturaviy muammolarini yetarli darajada hisobga olmasligi mumkin. Shu sababli inson huquqlarini himoya qilish tamoyillari reabilitatsion psixologiya amaliyoti uchun muhim metodologik asos sifatida qaraladi [1]. Biroq amaliyotda reabilitatsion psixologiya har doim ham inson huquqlarini himoya qilishga oid aniq yo‘riqnomalarga ega emas — ayniqsa advokatsiya (manfaatlarni himoya qilish), siyosatga ta’sir, institutlararo hamkorlik va tizimli to‘siqlarni kamaytirish bo‘yicha kompetensiyalar bo‘yicha formal tayyorgarlik cheklanganligi ta’kidlanadi.

Nazariy muammo va huquqlarga asoslangan yondashuv. Nogironlik masalasida “tibbiy model” va “ijtimoiy model” qarama-qarshiligi ilmiy adabiyotda keng muhokama qilingan: tibbiy model ko‘proq “nuqson/impairment”ni asosiy sabab deb olib, aralashuv markaziga shaxs tanasi va funksiyasini qo‘yadi; ijtimoiy model esa nogironlikni ko‘proq jamiyatdagi moslashmagan muhit, stigma va to‘siqlar mahsuli sifatida talqin qiladi. Amaliy reabilitatsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash uchun bu qarama-qarshilikdan ko‘ra integrativ, biopsixososial “ko‘prik” muhimroq: insonning hayot sifati va ishtiroki salomatlik holati bilan birga atrof-muhit omillari (fizik, ijtimoiy, munosabatlar, siyosat va xizmatlar) bilan dinamik o‘zaro ta’sirda shakllanadi. Shu nuqtada huquqlarga asoslangan yondashuv reabilitatsion psixologiya uchun ikki metodologik natija beradi: Birinchidan, klinik holatni faqat simptom yoki “moslashuv qiyinligi” sifatida emas, balki kamsitmaslik, teng ishtirok, ochiqlik va avtonomiya kabi huquqiy-me’yoriy mezonlar bilan uyg‘un tahlil qilish zarurligini belgilaydi. Ikkinchidan, psixologik aralashuvning “maqsad funksiyasi” shunchaki “normal holatga qaytarish” emas, balki shaxs tanlovlari va hayotiy maqsadlari bilan mos keladigan ishtirokni kengaytirish, to‘siqlarni kamaytirish va qadr-qimmatni himoya qilishga yo‘naltiriladi.

Beatris Rayt an’anasi va reabilitatsion psixologiyaning tayanch printsiplari. Reabilitatsion psixologiyada inson huquqlarini himoya qilishni metodologik “tayanch”ga aylantirish uchun sohada tarixan shakllangan foundational printsiplar muhim nazariy resursdir. Zamonaviy sharhlarda aynan shu printsiplar reabilitatsion psixologiya amaliyotini “individga haddan tashqari yuklash”dan muvozanatli, tizimli yondashuvga burishda yo‘l ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Ushbu yo‘nalishda quyidagi oltita asosiy printsip alohida ahamiyat kasb etadi:

1. shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqa;
2. “o‘zga” va “yot” tushunchalari o‘rtasidagi farq;
3. nogironlikka moslashish jarayoni;
4. psixologik resurslar;
5. tana holatini sezish va anglash;
6. inson qadr-qimmati.

Mazkur ro‘yxat zamonaviy manbalarda quyidagicha nomlanadi: person–environment relation; insider–outsider distinction; adjustment to disability; psychological assets; self-perception of bodily states; human dignity.

Bu printsiplar reabilitatsion psixologiya rivojida klassik meros sifatida shakllangan bo‘lib, ularni qayta ko‘rib chiqish va kengaytirish zarurligi ham alohida urg‘u sifatida qayd etiladi [1].

Oltita printsipning huquqiy-metodologik mazmuni quyidagicha talqin qilinishi mumkin. Birinchidan, shaxs–muhit o‘zaro aloqasi nogironlikni “faqat shaxs xususiyati” emas, balki muhitdagi to‘siq va qo‘llab-quvvatlovchi omillar bilan birlikda tahlil qilishni talab qiladi; ICF ham aynan funksionallikni sog‘liq holati, shaxsiy omillar va muhit omillari o‘rtasidagi dinamik interaksiya sifatida ta’riflaydi.

Ikkinchidan, “o‘zga/yot” farqi (insider–outsider) nogironligi mavjud shaxslarning tajribasini “ichki” nuqtai nazardan tushunish, stereotipik taxminlarni kritik tekshirish va “tashqi” (outsider) pozitsiya orqali yo‘l qo‘yiladigan kamsituvchi talqinlardan ehtiyot

bo‘lishni anglatadi; bu, amaliyotda, til (stigmatizatsiyalovchi atamalar), diagnostik taxminlar va “normativ” standartlar bilan ishlashda ehtiyotkorlikni kuchaytiradi. Uchinchidan, moslashish jarayoni printsipi moslashuvni faqat “individ ichidagi bosqichlar” ketma-ketligi sifatida emas, balki to‘siqlar, resurslar, xizmatlarga kirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rishga undaydi. To‘rtinchidan, psixologik resurslar (assets) printsipi reabilitatsion amaliyotni “nuqsonlar ro‘yxati” bilan cheklab qo‘ymasdan, kuchli tomonlar, kompetensiyalar va moslashuv resurslarini aniqlash hamda kuchaytirishga yo‘naltiradi; reabilitatsion psixologiya an’anasida klinik portretni faqat disfunktsiya asosida qurish muammoli ekanligi ham ta’kidlangan. Beshinchidan, tana holatini sezish va anglash printsipi (self-perception of bodily states) nogironlik tajribasida tanaviy signallar, og‘riq, charchoq, sensor tajriba va ularga kognitiv-emotsional munosabat o‘zgaruvchan (malleable) ekanini, demak, psixoedukatsiya, kognitiv yondashuvlar, stressni boshqarish va moslashuvchan ko‘nikmalar orqali funksional holat hamda farovonlikni qo‘llab-quvvatlash mumkinligini ko‘rsatadi. Oltinchidan, inson qadr-qimmati printsipi reabilitatsion psixologiyaning etik yadrosini tashkil etadi: u shaxsning avtonomiyasi, hurmat, diskriminatsiyadan xoli munosabat va jamiyatda to‘liq ishtirok huquqlarini klinik qarorlar (maqsad qo‘yish, reja tuzish, risk va xavfsizlik muvozanati) bilan bog‘laydi. Shuningdek, zamonaviy psixologlar inson manfaatlarini himoya qilishni (advokatsiya) reabilitatsion psixologiyaning yettinchi asosiy printsipi sifatida e’tirof etadilar [1]. Bu yondashuv advokatsiyani “faqat individual bemor doirasida yordam” sifatida tor talqin qilmasdan, nogironlik hamjamiyati bilan hamkorlikda, lived experience (shaxsiy tajriba) yetakchiligida, institutlar va siyosat darajasida ham to‘siqlarni kamaytirishga qaratilgan keng kompetensiya sifatida ko‘radi.


International Classification of Functioning, Disability and Health va World Report on Disability: metodologik integratsiya 2011-yil 9-iyun kuni New York Citydagi United Nations Headquartersda World Health Organization va World Bank hamkorligida tayyorlangan “World Report on Disability” taqdim etilgani nogironlik masalalariga zamonaviy, dalillarga asoslangan va huquqlarga mos yondashuvni shakllantirishda muhim burilish bo‘ldi [2]. Hisobot “insonning funksionalligi”ni markazga qo‘yib, nogironligi bor shaxslar hayotida uchraydigan to‘siqlarni (sog‘liqni saqlash, reabilitatsiya, ta’lim, bandlik, qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar va muhit) yengish bo‘yicha dalillarni jamlaydi va siyosat-amaliyot uchun “aniq tavsiyalar” beradi; JSST sahifasida bu tavsiyalar soni to‘qqizta “konkret” yo‘nalish sifatida qayd etiladi. Hisobotning metodologik asosi sifatida International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF) qabul qilingan bo‘lib, u 2001-yil 22-may kuni JSSTning 54-sessiyasida (WHA54.21) a’zo davlatlar tomonidan rasman ma’qullangan [3].

ICFning markaziy g‘oyasi — sog‘liq holatini tavsiflash uchun yagona xalqaro til va standart yaratish, hamda tashxis (kasallik)dan kelib chiqib hayotiy ishtirokni “avtomatik” taxmin qilish o‘rniga, real funksionallik va kontekstni baholashga o‘tishdir. ICF faoliyat va ishtirok (activities/participation), tana funksiyalari va tuzilmalari, shuningdek muhit omillarini (barrier/facilitator) birlashtirib, nogironlikni dinamik va ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida

tushuntiradi. Muhim jihat: ICF faqat klinik tasnif emas — u inson huquqlari mandatlarini (jumladan, nogironlar huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni) amalga oshirish va monitoring qilish uchun ham konseptual “instrument” bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi; ya’ni huquqlarga asoslangan yondashuvni amaliy baholash va ma’lumot tizimlariga bog‘lash imkonini beradi. Hisobotga International Society of Physical and Rehabilitation Medicine ham faol pozitsiyadan munosabat bildirgan: tahliliy maqolalar va yo‘l xaritalarida ushbu jamiyat “World Report on Disability”ni kelgusi faoliyati uchun yo‘riqnoma sifatida qabul qilgani, tavsiyalarni tarqatish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha mas’uliyatni e’tirof etgani qayd etiladi.

Reabilitatsion psixologiyada inson huquqlarini himoya qilish modeli. Bizning fikrimizga ko‘ra, psixologiya sohasida inson huquqlarini himoya qilish modeli reabilitatsion psixologiya uchun asosiy metodologik omil bo‘lib xizmat qiladi hamda nogironligi mavjud shaxslar bilan ishlashda yuqoridagi printsiplarni yanada samarali qo‘llash imkonini beradi. Bunday modelning vazifasi — klinik yordamni huquqiy-etik mezonlar va tizimli to‘siqlarni kamaytirish strategiyalari bilan “bir tizim”ga keltirishdir.

MODEL SXEMASI



Modelning umumiy maqsadi: nogironligi mavjud shaxslar bilan ishlash jarayonida inson huquqlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash va reabilitatsion yondashuvni integratsiyalash orqali shaxsning ijtimoiy faolligi va psixologik farovonligini ta’minlash [4]. Bu maqsad ICFning “funktsionallik va ishtirok” markazli yondashuvi hamda “World Report on Disability”ning muhitni yaxshilash va to‘siqlarni yengish orqali hayot sifatini oshirish g‘oyalari bilan mos keladi. Modelning metodologik mexanizmi sifatida uch darajali integratsiya taklif etiladi. Birinchi daraja — mikro daraja (klient va yaqin tizim): huquqlarga mos psixodiagnostika, kuchli tomonlarni aniqlash, moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish,

tanaviy tajriba va stressga munosabatni boshqarish, shuningdek qaror qabul qilishda avtonomiyani qo‘llab-quvvatlash. Ikkinchi daraja — mezo daraja (xizmatlar va institutlar): reabilitatsiya jamoasi (tibbiyot, pedagogika, psixologiya, ijtimoiy xizmatlar) o‘rtasida umumiy til va me’yorlarni yaratish; ICF asosida muhit to‘siqlari (attitudinal, institutsional, infratuzilmaviy)ni identifikatsiya qilish; “capacity–performance” tafovuti orqali muhitni o‘zgartirish imkoniyatlari ustida ishlash. Uchinchi daraja — makro daraja (siyosat va hamjamiyat): advokatsiya kompetensiyasi orqali kamsitishni kamaytirish, ochiqlik va inklyuziyani kuchaytirish, xizmatlarga kirishni yaxshilash, hamda nogironligi bor shaxslarning o‘zlarini (lived experience) yechimlar dizayni va baholash jarayonlariga jalb etish. Bu, zamonaviy reabilitatsion psixologiya uchun “yettinchi printsip” sifatida taklif etilayotgan advokatsiya g‘oyasining amaliy ifodasidir. Shu munosabat bilan asosiy printsiplarga qo‘shimcha ravishda quyidagi yo‘nalishlarni ham taklif etish mumkin:

- ijtimoiy shaxs psixologiyasi;
- sog‘liq psixologiyasi;
- reabilitatsion muolaja;
- psixoterapiya;
- hamshiralik amaliyoti.

Bu fanlararo kengayish reabilitatsion psixologiya foundational printsiplarining turli professional maydonlarda qo‘llanishi zarurati bilan uyg‘un: reabilitatsiya sharoitida psixologik yondashuv tibbiy reabilitatsiya, psixiatriya/psixoterapiya va hamshiralik amaliyoti kabi sohalar bilan uzviy hamkorlikda samaraliroq bo‘lishi qayd etiladi.

O‘zbekistonda amaliy kontekst va institutsional imkoniyatlar. O‘zbekistonda reabilitatsion psixologiya va umuman nogironligi mavjud shaxslar huquqlarini ta’minlash yo‘nalishida so‘nggi yillarda normativ-huquqiy hamda institutsional asoslar tizimli ravishda kuchaytirildi [5]. Bunga, avvalo, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlariga oid milliy qonunchilikning qabul qilinishi va xalqaro majburiyatlarning ratifikatsiyasi kiradi. Xususan, 2020-yil 15-oktabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-641) qabul qilingani milliy yondashuvni huquqlar va kafolatlar doirasida tizimlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, 2021-yil 7-iyun kuni Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi Qonun (O‘RQ-695 / LRU-695) qabul qilingani O‘zbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlarini mustahkamladi. Inklyuziv ta’lim yo‘nalishida ham normativ bazaning shakllangani reabilitatsion psixologiya amaliyotini kengaytiradigan muhim omildir: 2020–2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ularning ta’lim olish huquqini kafolatlash va ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgani qayd etiladi. Ta’lim muassasalari infratuzilmasi va xizmatlarida psixologik qo‘llab-quvvatlash elementlari ham normativ hujjatlarda ko‘zda tutilgan: ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va turli ko‘rinishdagi psixologik yordam ko‘rsatish uchun professional psixologik yordam xonalarini tashkil etish belgilangan. Xalqaro tashkilotlar ham O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning kengayishi va bolalar uchun imkoniyatlar oshirilishini ijobiy baholab, bu jarayon ta’lim tizimi

sifatini oshirish uchun muhim omil ekanini urg‘ulaydi. Ushbu institutsional o‘zgarishlar reabilitatsion psixologiyada inson huquqlarini himoya qilish modelini amaliyotga joriy etish uchun “tayyor muhit” yaratadi: (a) huquqiy asos; (b) ta’lim va ijtimoiy xizmatlar tizimida inkluzivlikka o‘tish; (c) psixologik xizmatlar komponentini bosqichma-bosqich institutsionallashtirish. Biroq model to‘laqonli ishlashi uchun advokatsiya bo‘yicha formal tayyorgarlik, ICF asosida baholash ko‘nikmalari, hamda xizmatlararo koordinatsiya (mezo daraja) amaliy mexanizmlarini kuchaytirish ham zarur.

Xulosa. Reabilitatsion psixologiyada inson huquqlarini himoya qilish modeli — bugungi ilmiy-amaliy ehtiyojlarga javob beradigan integrativ yondashuv bo‘lib, u nogironlikni shaxs va muhit o‘zaro ta’siri sifatida ko‘rish, kamsitmaslik va qadr-qimmatni himoya qilish, shuningdek advokatsiyani amaliy kompetensiya sifatida kuchaytirish orqali “individga ortiqcha yuklash” riskini kamaytiradi. ICF va “World Report on Disability” bu model uchun kuchli metodologik tayanch beradi: funksionallik va ishtirokni dinamik baholash, muhit omillarini “bar’yer/fasilitator” sifatida kodlash, hamda siyosat-amaliyot darajasida to‘siqlarni yengishga qaratilgan tavsiyalar reabilitatsion psixologiyaning huquqlarga mos standartlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi huquqiy va institutsional o‘zgarishlar (nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari bo‘yicha qonunchilik, xalqaro konvensiya ratifikatsiyasi, inklyuziv ta’lim konsepsiyasi va psixologik xizmat infratuzilmasi) reabilitatsion psixologiya amaliyotida inson huquqlarini himoya qilish modelini mahalliy sharoitga mos implementatsiya qilish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andrews, Erin E.., Pilarski, Carrie R.., Ayers, Kara., & Dunn, Dana S.. (2023). Advocacy: The seventh foundational principle and core competency of rehabilitation psychology. Rehabilitation Psychology, 68(2), 103–111. https://doi.org/10.1037/rep0000492

2. World Health Organization., & World Bank. (2011). World report on disability (325 bet; ISBN: 978-92-4-156418-2). World Health Organization. 2026-yil 6-martda olindi: https://www.who.int/publications/i/item/9789241564182

3. World Health Assembly. (2001, 22-may). International classification of functioning, disability and health (WHA54.21 rezolyutsiyasi; 1 bet). World Health Organization. 2026-yil 6-martda olindi: https://apps.who.int/gb/ebwha/pdf_files/WHA54/ea54r21.pdf

4. World Health Organization. (2024, 22-aprel). Rehabilitation [Fakt varaqasi]. 2026-yil 6-martda olindi: https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/rehabilitation

5. O‘zbekiston Respublikasi. (2020, 15-oktabr). Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida (O‘RQ-641). LexUZ. 2026-yil 6-martda olindi: https://lex.uz/uz/docs/-5049511.

Qo‘shimcha manbalar

World Health Organization. (sana aniqlanmadi). International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF) (onlayn ma’lumot sahifasi). 2026-yil 6-martda

olindi: https://www.who.int/standards/classifications/international-classification-of-functioning-disability-and-health

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

UDK: 159.9.075
ORCID: 0009-0009-1150-6991

IJTIMOIY TARMOQQA TOBE SHAXSLAR PSIXOLOGIYASINING NAZARIY TADQIQOT TAHLILLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.195

Otamuratov Rustam Uskanovich,
Guliston Davlat universiteti tayanch doktoranti,
rustamota1989@gmail.com

Annotatsiya. Ijtimoiy media zamonaviy odamlarning kundalik hayotida tobora muhim rol o‘ynab, bizning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ijtimoiy muloqotni afzal ko‘rish jonli muloqotdan ko‘ra ko‘proqni tashkil etadi. Ijtimoiy tarmoq vositalari kishilarning turmush tarzi, muloqoti, qiziqishlari va psixologiyasiga sezilarli darajada ta’sir etishni eplamoqda. Brogan sayin ijtimoiy tarmoqda vaqt o‘tkazish va imkoniyatlarining kengligi unga nisbatan qiziqishning ortishiga saba bo‘lmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqqa tobe kishilarning psixologiyasini avvaldan qilingan tadqiqot ishlarini sintez va talqinini empirik ma’lumotlarga asoslanib yoritishdan iborat.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoq, addiksiya, xarakter, analitik sharh, onlayn, mediya, psixika, sotsial, real dunyo, virtual muhit.

Аннотация. Социальные сети играют все более важную роль в повседневной жизни современных людей и становятся неотъемлемой частью нашей жизни. Предпочтение социального общения выходит за рамки простого общения в реальном времени. Инструменты социальных сетей оказывают значительное влияние на образ жизни, общение, интересы и психологию людей. Увеличение времени, проводимого в социальных сетях, и широта их возможностей приводят к росту интереса к ним. Цель данной статьи — обобщить и интерпретировать предыдущие исследования психологии людей, зависимых от социальных сетей, на основе эмпирических данных.

Ключевые слова: социальная сеть, зависимость, характер, аналитический обзор, онлайн, медиа, психика, социальный, реальный мир, виртуальная среда.


Abstract. Social media is playing an increasingly important role in the daily lives of modern people and is becoming an integral part of our lives. The preference for social communication is more than just live communication. Social networking tools are having a significant impact on people's lifestyle, communication, interests, and psychology. The increasing amount of time spent on social networks and the breadth of their capabilities are leading to an increase in interest in them. The purpose of this article is to synthesize and

interpret previous research on the psychology of people addicted to social networks based on empirical data.

Keywords: social network, addiction, character, analytical review, online, media, psyche, social, real world, virtual environment.

KIRISH. Ijtimoiy mediya zamonaviy odamlarning kundalik hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘pchilik uchun onlayn muloqot yuzma-yuz muloqotdan ko‘ra keng tarqalganligi sababli, ijtimoiy mediya muloqotda jiddiy o‘rin egallay boshladi. Insonlaring hayot tarzi, munosabati, tili, qiziqishlari va psixikasiga ta’sir qilmoqda. Internet jahon axborot tarmog‘i orqali yoshlarning hayotiga xavf solayotgan, ularni ongiga salbiy ta’sir qiluvchi axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan ijobiy ishlar olib borilmoqda [1]. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jiddiy tarzda ortmoqda hamda dunyo aholisining uchdan bir qismidan ortig‘ini domiga oldi. Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlar statistikasi foydalanuvchilarning umumiy sonining o‘rtacha yillik 10% ga o‘sishini xabar qiladi. “Ayni paytda aholi, ayniqsa yoshlarimiz turli ma’lumotlarni asosan internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda” – deydi malkatimiz rahbari [2]. Bular oarsida yoshlar ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarga qiziqish bildirmoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tadqiqotchilar orasida ushbu hodisani va uning foydalanuvchilar hayotining barcha jabhalariga, jumladan, psixologik va ijtimoiy sohalarga ta’sirini o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi. Biz ushbu muammoning jamiyatda psixologik tadqiqotlarda bugungi kungacha olingan natijalarni qisqacha ko‘rib chiqamiz. Biz faqat ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinish, sadoqat va/yoki qaramlikning psixologik jihatlarini o‘rgangan tadqiqotlarga e’tibor qaratamiz. Xususan, “do‘stlik” tushunchasi ijtimoiy tarmoq abonentlari tomonidan o‘zgartiriladi va virtual dunyoda real hayotdagidan boshqacharoq ma’noga ega bo‘ladi [3]. Har bir kishining do‘sti mavjud, bu virtual makonda ham mavjud bo‘lib, virtual dunyodan foydalanuvchilarning har ikkinchi o‘smirning virtual do‘sti bor, ular bilan ota-onalar (35%), do‘stlar va o‘qituvchilar (51-53%) va sevishganlar (47%) bilan munosabatlari haqidagi o‘z tashvishlarini baham ko‘rishadi” [4].



1-rasm. Virtual foydalanuvchining virtual do‘stiga o‘z tashvishlari sababi haqidagi beradigan ma’lumotlari.

Taniqli rus olimi Yu.D.Babayeva va boshqalar ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning bir qator ijobiy jihatlarini ta’kidlaydilar. Bunga ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot aloqa to'siqlarining yo'qligi, muloqotning mozaik va parchalanib ketgan tabiati, muloqotdagi o'ziga xos odob-axloq qoidalari va o'ziga xos tili bilan tavsiflanishi yordam beradi [5; 17]. Ko'pgina o'smirlar vaqt va vaziyat ustidan nazoratni yo'qotib, ma'lum bir faoliyatga sho'ng'ishadi, zavqlanish hissini boshdan kechirishadi [6]. Umuman qaralsa, turli olimlar inson psixologiyasiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirini ijobiy va salbiy taraflarini yortishga harakat qiladi. Quyida berilgan jadvalda qisqacha olimlarning ishlari va ularning firklarini izohini beramiz.

1-jadval.

Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs psixologiyasiga ta’sir etish jihatlarini taqqoslash jadvali

Ta’siri	Tadqiqotchi	Ta’sir mexanizmi
Ijobiy	Yu.D. Babaeva	Ko‘pgina o‘smirlar uchun o‘zlarining referent guruhi bilan bog‘lanish imkoniyati muhim, ba’zan hatto yo‘qolib, aralashib ketish, guruh qadriyatlarini baham ko‘rish va o‘zlarini xavfsizroq his qilish uchun ham. Ushbu onlayn o‘zini tasdiqlashni muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf etish va ijtimoiy doiralarni kengaytirishga qaratilgan psixologik trening shakli sifatida ko‘rish mumkin, bu esa ko‘plab o‘smirlar uchun qiyinchilik tug‘diradi
	Gulevich	Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot to‘siqlarning yo‘qligi, muloqotning hissiyligi, zavqlanish, vaqt hissini yo‘qotish va vaziyatni nazorat qilish hissi bilan tavsiflanishi bilan bog‘liq
Salbiy	Rozanov, Raximkulova,	Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik depressiya va xavotir bilan bog'liq. Bundan tashqari, eng qaram va faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida depressiya va xavotir alomatlari tezroq rivojlanadi.
	Godik	Bolalar “zararsiz” ko‘rinadigan ijtimoiy tarmoq sessiyalarida ishtirok etayotganda xavfli materiallarga duch kelishadi. Bunday materiallarni ko'rish (ongli ravishda yoki ixtiyoriy ravishda) bolalarning ruhiyati va xatti-harakatlariga salbiy ta'sir qiladi

Olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarning amaliy va ilmiy natijalarini tahlil qilish oqibatida olimlarning ijtimoiy tarmoqlarga tobelik kishilar psixologiyasida ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ijtimoiy tarmoq tobeligi jins tafovutlariga bir xil darajada ta’sir etiadi.

S. L. Dailey, K. Howard va S. M. P. Roming tomonidan o‘tkazilgan regressiya tahlili shuni ko‘rsatdiki, yosh va jins ijtimoiy mediaga qaramlikka ta’sir qiladi [7]. C. S. Andreassen, S. Pallesen va M. D. Griffiths bu topilmani batafsil bayon qilib, yosh ijtimoiy mediyadan foydalanish intensivligiga teskari bog‘liqligini, erkaklar video o‘yinlarga, ayollar esa ijtimoiy mediyaga sezilarli darajada moyil ekanligini ta’kidladilar [8]. I. S. Abbasi yoshning ijtimoiy mediaga qaramlik bilan salbiy bog‘liqligini aniqladi [9]. D. Blackwell va boshqalar tomonidan ierarxik regressiya modelida yoshlar ya’ni yoshi kichiklar ijtimoiy mediyadan foydalanish boshqalarga qaraganda yuqori deyilgan [10].

2-jadval

Jins tafovutlari bo‘yicha tahlil xulosalari jadvali

Tadqiqot natijalari				
T / r	**Tadqiqotchilar**	**Erkaklar**	**Ayollar**	**Farq yo‘q**
1	Rumpf. L. Chung, Oberts va boshqalar		+	
2	Qam E. va Isbulan O. A, L.Y.Lin	+		
3	O. Afacan va N. Ozbek, V. Benson, C. Hand va R. Hartshorne			+

Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smir qizlar va umuman ayollar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikka ko‘proq moyil deyilgan bo‘lsa, boshqa bir tadqiqotlarda bunig aksini ta’kidlashadi. Ba’zi tadqiqotlardan farqli o‘laroq yosh yoki jinsga qarab farqlarni aniqlamagan yana boshqa olingan tadqiqot ma’lumotlari mualliflarni ijtimoiy mediaga qaramlikda gender jihatidan sezilarli farq topmaganliklari haqida xulosa chiqarishga olib keldi [11].


3-jadval

Ijtimoiy tarmoqqa tobelikka olib keluvchi omillar tahlili

Tadqiqot natijalari						
T/r	**Tadqiqotchilar**	**Tashvish**	**Yolg‘izlik**	**Xiyonat**	**Imitatsiya**	**Anonimlik**
1	Al Mamun, Griffiths, M. Dalvi-Esfahani O.Baltichi, Andreassen		+			
2	Baltaci va J. Brailovskaia va J. Margraf	+	+			
3	Dalvi-Esfahani va O.Baltachi, Rozanov, R	+				

	Masthi, S. Pruthvi va M.S.Phaneendra					
4	I. S. Abbasi			+		
5	C. Longobardi, M. Settanni va M.A. Fabris				+	
6	Bergmann va Baier, Brighi, John, Nesi va boshqalar, Peng va boshqalar, Sorrentino va boshqalar, Van Hee					+

N.R.Masthi, S.Pruthvi va M.S.Phaneendra Hindistonning Bangalor shahridagi o‘tkazgan tadqiqotini taqdim etadilar. Ishtirokchilar orasida ijtimoiy tarmoqlarga tobelikning uchrashi 36,9%ni tashkil etdi, bu xususiy va davlat maktablari orasida teng taqsimlangan. Eng ko‘p aniqlangan sog‘liq muammolari ko‘zning charchashi va charchoq (38,4%), g‘azab (25,5%) va uyqu buzilishi (26,1%) edi. Chekish, alkogol va tamaki iste'mol qilish, nosog‘lom oziq-ovqat iste’moli va xavotir ijtimoiy tarmoqlarga tobelik uchun muhim xavf omillari ekanligi aniqlandi [12; 18].



2-rasm. Ijtimoiy tarmoqning inson salomatligiga ta’siri

4-jadval

Ijtimoiy tarmoqqa tobelikka olib keluvchi omillar tahlili

Tadqiqot natijalari					
T/r	**Tadqiqotchilar**	**Ko‘zning charchashi va charchoq**	**G‘azab**	**Uyqu buzilishi**	**Psixopatiya**
1	N.N.R Masthi, S. Pruthvi va MS	+	+	+	

	Phaneendra				
2	M.A. Al Mamun va M.D. Griffits			+	
3	Dewi va Shensa			+	
4	Priyadarshini va boshqalar	+			
5	K.L. Chung,				+

NATIJALAR VA MUHOKAMA. So‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlar va ruhiy va psixologik salomatlik muammolari o‘rtasidagi potentsial bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining haddan tashqari undan foydalanishda namoyon bo‘ladigan davomiy majburiy xatti-harakatlari tobeligi psixologlar orasida uning halokatli oqibati tufayli xavotirlarni uyg‘otmoqda. V. Apaolaza, P. Hartmann, C. D’Souza va A. Gilsanz tomonidan olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bunday majburiy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish stressga olib keladi [13]. Ijtimoiy tarmoqlardan tez-tez foydalanish va stress o‘rtasidagi bog‘liqlik boshqa tadqiqotlarda ham ko‘rsatilgan [14]. Ko‘plab ijtimoiy tarmoqlarga tobe shaxslarning psixologiyasi ham borgan sari muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Tadqiqotlar nevrotizm va ekstroversiyani onlayn faoliyat va ijtimoiy tarmoqlarga tobelikdagi individual farqlarni tushuntiruvchi omillar sifatida ko‘rsatmoqda. D. Marengo, I. Poletti va M. Settanni tomonidan yozilgan maqolada onlayn olingan ijobiy fikrlar darajasi (ya’ni, “layklar” soni) ushbu vositachilik effektini vositachilik qilishda rol o‘ynashi mumkinligi haqidagi qo‘shimcha gipotezani sinab ko‘rishdi [15; 16].

XULOSA. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarda tobelikning yuzaga kelishi bir qator mezonlarga bog‘liq ekanligini aytish mumkin. Gender jihatlar, yosh va ta’lim olish darajasi bular ichida ahamiyatli tomonlariligini yuqorida keltib chiqdi. Ijtimoiy tarmoqqa tobelik asosan kishilardagi tashvish, depressiya, anonimlik, xiyonat va ijtimoiy izolyatsiya kabi holatlarga ham aloqadorligi mavjud. Tobelik nafaqat psixologik jihatlarga balki salaomatlikning psixofiziologik taraflariga ham turli darajada ta’sir etishi ko‘rib chiqildi. Aynan charchash va ko‘zning charchashi, uyqu buzilishlari, g‘azab va psixopatiya belgilarining avj olib rivojlanishi ham ijtimoiy tarmoqqa tobe shaxslarda uchrashi mumkin. Bundan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridagi tobelik inson organizmining butun tizimiga ta’sir etishi mumkinligini aytsak bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2022 yildagi SQ-545-IV-son., https://lex.uz/docs/-6063181

2. Mirziyoyev, Sh. M. O‘zbek tili targ‘iboti haqida nutqidan., 2019.

3. Milova, E.A. (2012). The influence of social networks on personality psychology. Interexpo GEO-Siberia, (6), 88. (In Russ.)

4. Soldatova, G.U., & Teslavskaya, O.I. (2018). Features of interpersonal relations of Russian adolescents in social networks. National Psychological Journal, 3(31), 12-22. (In Russ.)

5. Babaeva, Yu.D., Voiskunsky, A.E, & Smyslova, O.V. (2000). Internet: Vozdeistvie na lichnost'. In A.E. Voiskunskii (Ed.), Gumanitarnye Issledovaniya v Internete (pp. 1139). Mozhaisk: Mozhaisk-Terra Publ. (In Russ.)

6. Gulevich, O.A. (2008). Psikhologiya kommunikatsii. Moscow: Moscow Psychological and Social Institute Publ. (In Russ.)

7. Dailey, S.L, Howard, K., Roming, S.M.P., Ceballos, N., & Grimes, T. (2020). A biopsychoso-cial approach to understanding social media addiction. Human Behavior, 2(2), 158-157. https://doi.org/10.1002/hbe2.182

8. Andreassen, C.S., Pallesen, S., & Griffiths, M.D. (2017). The relationship between addictive use of social media, narcissism, and self-esteem: Findings from a large national survey. Addictive behaviors, 64, 287-293. https://doi.org/10.1016/j.addbeh.2016.03.0069.

9. Abbasi I.S. Social media addiction in romantic relationships: Does user's age influence vulnerability to social media infidelity? // Personality and Individual Differences. 2019. Vol. 139. Pp. 277-280. https://doi.org/10.1016/j.paid.2018.10.038

10. Blackwell D., Leaman C., Tramposch R., Osborne C., LissM. Extraversion, neuroticism, attachment style and fear of missing out as predictors of social media use and addiction // Personality and Individual Differences. 2017. Vol. 116. Pp. 69-72. https://doi.org/10.1016Zj.paid.2017.04.039

11. Afacan, O. (2019). Investigation of Social media addiction of high school students. International Journal of Educational Methodology, 5(2), 235-245. https://doi.org/10.12973/ijem.5.2.235

12. Masthi, N.N.R., Pruthvi, S., & Phaneendra, M.S. (2018). A comparative study on social media usage and health status among students studying in pre-university colleges of urban Bengaluru. Indian Journal of Community Medicine, 43(3), 180-184. https://doi.org/10.4103/ijcm.IJCM_285_17

13. Apaolaza V., Hartmann P., D'Souza C., Gilsanz A. Mindfulness, compulsive mobile social media use, and derived stress: the mediating roles of self-esteem and social anxiety // Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking. 2019. Vol. 22. No. 6. Pp. 388-396. https://doi.org/10.1089/cyber.2018.0681

14. Atroszko P.A., Balcerowska J.M., Bereznowski P. et al. Facebook addiction among Polish undergraduate students: validity of measurement and relationship with personality and well-being // Computer in Human Behavior. 2018. Vol. 85. Pp. 329-338. https://doi.org/10.1016/j.chb.2018.04.001

15. Marengo D., Poletti I., Settanni M. The interplay between neuroticism, extraversion, and social media addiction in young adult Facebook users: testing the mediating role of online activity using objective data // Addictive Behaviors. 2020. Vol. 102. 106150. https://doi.org/10.1016/). addbeh.2019.106150

16. Otamuratov, R. U., & Otamuratova, S. A. (2021). Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. In *МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИХДТЛАРИ Республика илмий-амалий конференция материаллари туплами* (Vol. 494).

17. Uskanovich, O. R. (2022). Psixologiyada xavotirlanishning ilmiy-psixologik xususiyatlari. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.

18. Otamuratov, R. U. Kasbiy tanlovlardagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari. *ГЛОБАЛ ДУНЁДА ПСИХОЛОГИЯ ФАНИ: НАЗАРИЯ ВА*.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

QIRG‘IZ OILALARIDAGI IJTIMOIY-MADANIY MULOQOTNING KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR MOTIVATSION SOHASIGA TA’SIRI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.196

Usmonova Shoira Siddiqovna
Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi o`qituvchisi
shoirausmonova27@gmail.com
+99890 626-07-95

Annotatsiya. Ushbu maqolada qirg‘iz millatiga mansub oilalardagi ijtimoiy-madaniy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv motivatsiyasiga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri yoritilgan. Tadqiqot davomida M.V. Matyuxina metodikasi yordamida o‘quvchilarning motivatsion sohasi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qirg‘iz oilalaridagi an’anaviy tarbiya va "el-jurt" oldidagi mas’uliyat hissi bolalarda ijtimoiy motivlarning ustuvorligini ta’minlaydi. Maqola yakunida o‘qituvchi va ota-onalar uchun o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga qaratilgan etnopsixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘quv motivatsiyasi, ijtimoiy-madaniy muhit, qirg‘iz oilasi, kichik maktab yoshi, etnopsixologiya, muloqot xususiyatlari, an’anaviy tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat, bilish faolligi, shaxsiy ma’no.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности социально-культурного общения в кыргызских семьях и его психологическое влияние на учебную мотивацию учащихся начальных классов. В ходе исследования с помощью методики М.В. Матюхиной была проанализирована мотивационная сфера учащихся. Результаты показали, что традиционное воспитание в кыргызских семьях и чувство ответственности перед обществом обеспечивают приоритет социальных мотивов у детей. В завершение статьи разработаны этнопсихологические рекомендации для учителей и родителей, направленные на повышение познавательной активности учащихся, что способствует повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: учебная мотивацияю, социально-культурная среда, кыргызская семья, младший школьный возраст, этнопсихология, особенности общения, традиционное воспитание, социальная ответственность, ознавательная активность, личностный смысл.

Abstract. This article examines the characteristics of socio-cultural communication in Kyrgyz families and its psychological impact on the educational motivation of primary school

students. During the study, the motivational sphere of students was analyzed using M.V. Matyukhina's methodology. The results showed that traditional upbringing in Kyrgyz families and a sense of responsibility towards the community ensure the priority of social motives in children. At the end of the article, ethno-psychological recommendations for teachers and parents aimed at increasing the cognitive activity of students are developed, which contributes to the effectiveness of the educational process.

Keywords: Learning motivation, socio-cultural environment, kyrgyz family, primary school age, ethno-psychology, communication characteristics, traditional upbringing, social responsibility, cognitive activity, personal meaning.

KIRISH. Kichik maktab yoshi inson kamolotida fundamental bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga o‘tish amalga oshadi. Bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabati nafaqat maktab muhitiga, balki u mansub bo‘lgan etnik guruhning ijtimoiy-madaniy muhitiga ham bog‘liq.

Qirg‘iz xalqi uzoq asrlik ko‘chmanchi madaniyat, jamoaviylik va kattalarga hurmat tamoyillariga asoslangan boy tarbiya tajribasiga ega. Bugungi kunda globallashuv jarayonida milliy oilalardagi muloqot tizimi o‘zgarmoqda, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning motivatsion sohasiga (ichki va tashqi motivlar) ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolaning maqsadi — qirg‘iz oilalaridagi o‘ziga xos muloqot modellarining o‘quvchi yutuqlariga ta’sirini psixologik jihatdan ochib berishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘quv motivatsiyasi muammosi jahon va mahalliy psixologiyada fundamental o‘rin tutadi. Xususan, L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, bolaning oliy ruhiy funksiyalari, jumladan, motivatsiyasi ham ijtimoiy muhit va madaniy vositalar ta’sirida shakllanadi.

Qirg‘iz oilalaridagi ijtimoiy-madaniy muhitni o‘rgangan tadqiqotchi S.A.Akaeva ta’kidlashicha, qirg‘iz etnosida bolani ijtimoiylashtirishda "el-jurt" (jamiyat) oldidagi mas’uliyat hissi yetakchi o‘rin tutadi. Bu esa o‘quvchida "mening yutug‘im — oilamning yutug‘i" degan jamoaviy motivni yuzaga keltiradi.

O‘zbekistonlik psixologlardan E.G‘.G‘oziyev o‘quv faoliyati subyektining shakllanishida oilaviy muloqot stili hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan. Qirg‘iz millatiga mansub oilalarda muloqot ko‘pincha an’anaviy qadriyatlar (masalan, "oqsoqollar" pand-nasihati) orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon A.N.Leontyev nazariyasidagi "shaxsiy ma’no" (lichnostniy smisl) tushunchasi bilan bog‘lanadi: bola uchun o‘qish shunchaki bilim olish emas, balki ajdodlar an’anasini davom ettirish va oilaviy iyerarxiyada o‘z o‘rniga ega bo‘lish vositasidir.

Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, J.U.Chirmoshev ishlari) qayd etilishicha, qirg‘iz oilalarida "ota" figurasi qat’iy intizom va maqsadga intiluvchanlikni ramziylashtirsa, "ona" va "buvi" obrazlari hissiy qo‘llab-quvvatlash orqali ichki motivatsiyani oziqlantiradi. Tadqiqotimiz natijalarini tahlil qilar ekanmiz, qirg‘iz oilalaridagi muloqotning o‘ziga xos "psixologik kodi" mavjudligini ko‘ramiz. Bu kod quyidagi uchta ustunga tayanadi:

1. "Uyat" va "Nomus" kategoriyalari:

Qirg‘iz oilaviy muloqotida "Uyat bolot" (Uyat bo‘ladi) iborasi tez-tez qo‘llaniladi. Bu kichik maktab yoshidagi bolada tashqi ijtimoiy nazoratni shakllantiradi. Ma’lumotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, 45% o‘quvchilar yomon baho olishdan emas, balki bu baho orqali ota-onasining yuzini yerga qaratishdan qo‘rqishadi. Bu motivatsiyaning salbiy ko‘rinishi bo‘lib tuyulsa-da, aslida u bolada kuchli ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘otadi.

2. Og‘zaki muloqotdagi "Shejere" (Shajara) an’anasi:

Qirg‘iz oilalarida yetti otasini bilish va ajdodlar bilan faxrlanish muloqotning ajralmas qismidir. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar shuni ko‘rsatdiki, o‘z shajarasini yaxshi biladigan va oilaviy qahramonlik hikoyalari muhitida o‘sgan bolalarda "Muvaffaqiyatga intilish" motivatsiyasi boshqa tengdoshlariga qaraganda 18% yuqori.

3. Muloqotdagi "Mehnat-O‘qish" sintezi:

Qirg‘iz milliy mentalitetida bilim amaliyot bilan bog‘lanadi. Ota-onalar ko‘pincha "O‘qimasang, chorvaga qaray olmaysan" yoki "Bilimli odam yaylovni ham aqlli boshqaradi" kabi pragmatik muloqot uslubidan foydalanishadi. Bu kichik maktab yoshidagi bolada o‘quv predmetlariga nisbatan hayotiy (utilitar) qiziqishni oshiradi.

NATIJALAR

Tadqiqotimiz davomida qirg‘iz millatiga mansub 2-4-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘quv motivatsiyasining ustuvor yo‘nalishlari o‘rganildi. M.V. Matyuxina metodikasi asosida olingan natijalar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

1-jadval

Qirg‘iz millatiga mansub o‘quvchilarda o‘quv motivlarining sinflar kesimidagi dinamikasi (o‘rtacha ball hisobida)

Motivlar guruhlari	2-sinf (n=40)	3-sinf (n=40)	4-sinf (n=40)	O'rtacha ko'rsatkich
Ijtimoiy motivlar (mas’uliyat, burch)	4.2	4.5	4.7	4.46
Bilish motivlari (qiziqish, mazmun)	3.8	3.9	4.1	3.93
Muvaffaqiyat motivlari (yutuqqa intilish)	3.5	3.8	4.2	3.83
Tor shaxsiy motivlar (maqtov,	4.0	3.7	3.2	3.63

Motivlar guruhlari	2-sinf (n=40)	3-sinf (n=40)	4-sinf (n=40)	O'rtacha ko'rsatkich
baho)				

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2-sinfdan 4-sinfga o‘tgan sari "Ijtimoiy motivlar" (oila va el-yurt oldidagi burch) ko‘rsatkichi barqaror o‘sib borgan (4.2 dan 4.7 gacha). Bu qirg‘iz oilalarida bolaning ulg‘ayishi bilan unga yuklanadigan ijtimoiy mas’uliyatning ortishi bilan izohlanadi. "Tor shaxsiy motivlar" (faqat baho uchun o‘qish) esa aksincha, pasayib borishi kuzatildi (4.0 dan 3.2 gacha).

Oila ichidagi muloqot subyektlarining bolaga ta’sirini aniqlash maqsadida "Mening o‘qishim kim uchun muhim?" degan proyektiv so‘rov o‘tkazildi. Natijalar quyidagicha taqsimlandi:

2-jadval

Oila a’zolari bilan muloqotning o‘quv motivatsiyasiga ta’sir darajasi (% hisobida)

Muloqot subyekti	Ta'sir kuchi (Yuqori)	Motivatsiya turi
Ota va bobolar	68%	Intizom, kelajakdagi mavqe, burch
Ona va buvilar	75%	Hissiy qiziqish, fanlarga muhabbat
Aka-ukalar	42%	Raqobat, o‘zaro yordam
Mahalla/Qarindoshlar	35%	Ijtimoiy obro‘, "uyat" faktori

Qirg‘iz oilalarida ona va buvilar bilan muloqot bolada o‘qishga nisbatan "hissiy bog‘liqlik"ni yaratsa, ota va bobolar bilan muloqot "strategik maqsadlar" (katta bo‘lsang kim bo‘lasan?) shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, bobolarning o‘gitlari (oqsoqollar maktabi) bolada o‘z milliy o‘zligini anglash orqali bilim olishga bo‘lgan hurmatni oshiradi.

MUHOKAMA

Tadqiqotimizning muhim jihati shundaki, qirg‘iz oilalaridagi "Jamoaviy muloqot" uslubi bolada "Men" emas, balki "Biz" tushunchasini shakllantiradi. Bu o‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyatini shaxsiy yutuq emas, balki butun oila (urug‘)ning yutug‘i sifatida idrok etishiga olib keladi.

Biroq, bu yerda psixologik ziddiyat ham mavjud. Agar bola o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, u buni "oilamga xiyonat qildim" deb og‘ir qabul qilishi (affekt

holati) mumkin. Shu sababli, qirg‘iz oilalaridagi ijtimoiy-madaniy muloqotda bolaning individual qobiliyatlarini ham hisobga olish, faqat "majburiyat" emas, balki "shaxsiy qiziqish"ni ham rag‘batlantirish tavsiya etiladi.

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qirg‘iz o‘quvchilarida ijtimoiy motivlar (ota-ona oldidagi mas’uliyat, oila sha’nini himoya qilish) ustuvorlik qiladi. Bu "el-yurt oldida uyatga qolmaslik" (uyat) va "ota-onaga rahmat keltirish" kabi milliy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Qirg‘iz oilalaridagi muloqotning psixologik ta’siri quyidagi uchta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Og‘zaki ijod va rivoyatlar: Oilaviy davralarda "Manas" kabi dostonlar yoki ajdodlar jasorati haqidagi hikoyalar bolada o‘zlikni anglash va kuchli bo‘lishga (bilim orqali ham) intilishni uyg‘otadi.

Kattalarga itoat (Iyerarxiya): Ota va bobolarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan talabchanligi o‘quvchida "tashqi ijobiy motivatsiya"ni shakllantiradi.

Mehnat tarbiyasi bilan bog‘liqlik: Ko‘p hollarda o‘quv motivatsiyasi real hayotiy ko‘nikmalar (chorvachilik, hunarmandchilik) bilan parallel olib boriladi, bu esa bolada amaliy bilimga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Biroq, haddan tashqari qat’iy iyerarxik muloqot ba’zi bolalarda tashabbuskorlikning pasayishiga va faqat "buyruq uchun o‘qish" fenomeniga sabab bo‘lishi mumkinligi aniqlandi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qirg‘iz oilalaridagi ijtimoiy-madaniy muloqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham motivatsion resurs, ham psixologik mas’uliyat manbai hisoblanadi. Milliy qadriyatlarga asoslangan muloqot tizimini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Etnopedagogik resurslardan foydalanish: Dars mashg‘ulotlarida (ayniqsa, tarbiya va o‘qish darslarida) qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi, shajara an’analari va "Manas" dostoni fragmentlaridan "Muvaffaqiyatli shaxs modeli" sifatida foydalanish. Bu bolada o‘z ajdodlariga munosib bo‘lish motivini ("Shaxsiy ma’no") shakllantiradi.

"Oila — Maktab" muloqot zanjirini mustahkamlash: Pedagoglar o‘quvchi yutuqlarini baholashda oiladagi iyerarxik tuzilmani (ota va bobolar nufuzini) hisobga olishlari lozim. Maktabdagi "Ota-onalar majlisi" formatini "Oqsoqollar va ota-onalar bilan muloqot" shakliga o‘zgartirish orqali boladagi ijtimoiy mas’uliyatni ijobiy yo‘nalishga burish mumkin.

Psixologik xavfsizlikni ta’minlash: Boladagi "Uyat bo‘ladi" (Uyat bolot) faktorining salbiy ta’sirini (affekt, qo‘rquv) kamaytirish uchun maktab psixologlari ota-onalar bilan individual suhbatlar o‘tkazishi zarur. Bunda e’tibor "faqat natija"ga emas, balki bolaning "shaxsiy harakati va rivojlanishi"ga qaratilishi tavsiya etiladi.

Amaliy-utilitar qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlash: Qirg‘iz oilalarida bilimning amaliyot (mehnat) bilan bog‘liqligini hisobga olib, dars topshiriqlarini hayotiy muammolar yechimiga yo‘naltirish (masalan, chorvachilik hisob-kitoblari yoki milliy hunarmandchilik loyihalari orqali matematika va texnologiyani o‘rgatish).

Genderni inobatga olgan muloqot: O‘quvchining hissiy ehtiyojlarini qondirishda ona va buvilarning "yumshoq muloqot" kuchidan, strategik maqsadlarni belgilashda esa ota va bobolarning "qat’iy muloqot" uslubidan pedagogik jihatdan muvozanatli foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Изд-во Смысл, Эксмо, 2005. – 512 с

2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.

3. Акаева С.А. Этнопсихологические особенности воспитания детей в современной киргизской семье. // Вопросы психологии. – Бишкек, 2021. – №3. – С. 45-52.

4. Ғозиев Э.Ғ. Муомала психологияси. – Тошкент: Университет, 2001. 5.Чирмошев Ж.У. Психология воспитания в кыргызской этнопедагогике. – Бишкек, 2018.

6.Матюхина М.В. Мотивация учения младших школьников. (Классическое издание). – М.: Педагогика, 1984.

7. Sattorov M. Etnopsixologiya: darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. – 240 b.

8. Isakova A. Social and cultural influence on student's achievement in Central Asian families. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Vol. 24, Issue 05. – P. 1205-1212.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

UDK: 612.014.4
ORCID: 0009-0004-9802-4488

ФУНКЦИОНАЛ СИНАМАЛАР АСОСИДА ИНСОН ОРГАНИЗМИНИНГ АДАПТАЦИОН ПОТЕНЦИАЛИНИ БАҲОЛАШНИНГ ФИЗИОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.197

***М.А.Худжанова**, доц., Самарқанд Зармед университети, Самарқанд*
***М.И.Хазратқулова**.доц., КИУТ Самарқанд филиали, Самарқанд*
***О.Б.Алимова**, асс., Озода Бекмуродовна СамДТУ, Самарқанд*
***Р.Ф.Мардонқулова** Самарқанд Зармед университети, Самарқанд*

Аннотация.Сўнгги йилларда глобал иқлим ўзгариши, ҳаво ҳароратининг барқарор ошиб бориши, урбанизация ва турмуш тарзининг ўзгариши инсон организмининг адаптацион тизимларига кучли таъсир кўрсатмоқда. Психоэмоционал зўриқишнинг ортиши ва жисмоний фаолликнинг камайиши ташқи муҳит омилларига мослашиш механизмларининг издан чиқишига олиб келмоқда. Бу ҳолат айниқса қуруқ ва иссиқ иқлимга эга ҳудудларда яшовчи аҳоли учун долзарб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси иқлим шароити юқори ҳарорат, паст намлик ва узоқ давом этувчи иссиқ мавсум билан тавсифланади. Бундай муҳитда терморегуляция тизими, юрак-қон томир ҳамда автоном нерв тизимига тушадиган физиологик юклама сезиларли даражада ортади. Натижада организмнинг функционал захиралари тезроқ сарфланиб, адаптация жараёнлари кескинлашиши мумкин.

Организмнинг функционал ҳолатини баҳолашда функционал синовлар кенг қўлланилади. Адаптация физиологияси соҳасида Р.М. Баевский томонидан ишлаб чиқилган концепцияга кўра, функционал синамалар ички муҳит барқарорлигини сақлаш учун сарфланадиган физиологик кучланиш даражасини аниқлаш имконини беради. Бу усуллар соғлом ҳолат билан патологик ўзгаришлар ўртасидаги чегара ҳолатларни эрта аниқлашда муҳим аҳамиятга эга.

Ушбу мақолада Ўзбекистон иқлим шароитида инсон организмининг ривожланишининг турли ёш даврларида функционал синовлар асосида асосий физиологик кўрсаткичларни аниқлаш ва адаптация даражаларини баҳолаш хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: психоэмоционал зўриқиш, адаптацион потенциал, автоном регуляция, интеграл индекс, адаптация, стресс, ортостатик синов.

Аннотация. В последние годы глобальные климатические изменения, устойчивый рост температуры воздуха, урбанизация и изменения образа жизни оказывают значительное воздействие на адаптационные системы организма человека. Усиление психоэмоционального напряжения и снижение уровня физической активности приводят к нарушению механизмов приспособления к факторам внешней среды. Данная проблема особенно актуальна для населения, проживающего в регионах с жарким и засушливым климатом.

Климатические условия Республики Узбекистан характеризуются высокими температурами, низкой влажностью воздуха и продолжительным жарким сезоном. В таких условиях существенно возрастает физиологическая нагрузка на системы терморегуляции, сердечно-сосудистую систему, а также автономную нервную систему. В результате функциональные резервы организма расходуются быстрее, а адаптационные процессы приобретают напряжённый характер.

Для оценки функционального состояния организма широко применяются функциональные пробы. Согласно концепции адаптационной физиологии, разработанной Р. М. Баевским, функциональные пробы позволяют определить уровень физиологического напряжения, затрачиваемого на поддержание стабильности внутренней среды организма, то есть гомеостаза. Данные методы имеют важное значение для раннего выявления пограничных состояний между нормой и патологией.

В данной статье рассматриваются вопросы определения основных физиологических показателей и оценки уровней адаптации организма человека в различные возрастные периоды развития на основе функциональных проб в условиях климата Узбекистана.

Ключевые слова: психоэмоциональное напряжение, адаптационный потенциал, автономная регуляция, интегральный индекс, адаптация, стресс, ортостатическая проба.

Annotation: In recent years, global climate change, a steady increase in air temperature, urbanization, and changes in lifestyle have exerted a substantial impact on the adaptive systems of the human body. Increased psycho-emotional stress and reduced levels of physical activity contribute to the disruption of mechanisms responsible for adaptation to environmental factors. This issue is particularly relevant for populations living in regions with hot and arid climates.

The climatic conditions of the Republic of Uzbekistan are characterized by high ambient temperatures, low air humidity, and a prolonged hot season. Under such conditions, the physiological load on thermoregulatory mechanisms, the cardiovascular system, and the autonomic nervous system increases significantly. As a result, the functional reserves of the organism are depleted more rapidly, and adaptive processes become strained.

Functional tests are widely used to assess the functional state of the human body. According to the concept of adaptation physiology developed by R.M. Baevsky, functional tests allow for the determination of the level of physiological strain required to maintain the stability of the internal environment, that is, homeostasis. These methods are of considerable

importance for the early detection of borderline states between normal physiological function and pathology.

This article addresses the determination of key physiological indicators and the assessment of adaptation levels in different age periods of human development based on functional tests under the climatic conditions of Uzbekistan.

Keywords: psycho-emotional stress, adaptive potential, autonomic regulation, integral index, adaptation, stress, orthostatic test.

КИРИШ.Адаптация — инсон организмининг ташқи ва ички муҳит омиллари ўзгаришига жавобан функционал тизимлар фаолиятини қайта ташкил этиш орқали гомеостазни сақлашга қаратилган физиологик жараёндир. Ушбу жараённинг самарадорлиги эса организмнинг адаптацион потенциали билан белгиланади.

Адаптацион потенциал организмнинг ташқи таъсирларга мослашиш жараёнида функционал захираларни сафарбар этиш, регулятор механизмларни фаоллаштириш ва функционал тизимлар ўртасидаги мувофиқлашган жавобни таъминлаш қобилиятини ифодаловчи интеграл кўрсаткич ҳисобланади. Адаптацион потенциал қанчалик юқори бўлса, адаптация жараёни шунчалик самарали кечади ва организм функционал барқарорликни узоқ муддат сақлаб қолади.

Тадқиқот мақсади: Функционал синовлар натижалари асосида инсон организмининг адаптацион потенциалини баҳолашнинг физиологик моделини ишлаб чиқиш.

Тадқиқот вазифалари;

Турли ёш гуруҳларида асосий функционал кўрсаткичларни аниқлаш. Функционал синовлар вақтида физиологик жавобларни таҳлил қилиш. Юрак-қон томир ва автоном регуляция кўрсаткичларининг ўзаро боғлиқлигини аниқлаш. Адаптация даражаларини таснифлаш. Адаптацион потенциалнинг интеграл индексини ишлаб чиқиш.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Ф.З. Меерсон таълимотига кўра, адаптация стресс-реакциянинг босқичли ва динамик жараёни бўлиб, у организмнинг ташқи муҳит омилларига жавобан функционал захираларини сафарбар этиши билан тавсифланади. У адаптацияни биринчи навбатда ҳимоя-мослашув механизмларининг фаоллашуви, кейинчалик эса функционал тизимларнинг барқарор қайта ташкил этилиши сифатида изоҳлайди. Бу жараёнда энергетик таъминот, нейрогуморал регуляция ва вегетатив нерв тизими фаолияти ҳал қилувчи аҳамият касб этади [1,3].

АҚШ физиологи A.C. Guyton концепциясига мувофиқ, инсон организми яхлит функционал тизим сифатида фаолият кўрсатади ва унинг барқарорлиги қон айланиш, нафас олиш ҳамда метаболизм тизимларининг ўзаро мувофиқлашган жавоби орқали таъминланади. Муаллиф функционал синамаларни айнан шу тизимлар ўртасидаги интегратив муносабатларни намоён этувчи физиологик модел сифатида талқин қилади. Guyton назариясига биноан, адаптация – бу алоҳида орган ёки тизим фаолияти эмас, балки бутун организм даражасида шаклланадиган динамик мувозанат ҳолатидир [5].

W.F. Ganong эса адаптация жараёнида нейрогуморал регуляциянинг устувор ўрнини таъкидлаб, функционал синамалар вақтида кузатиладиган физиологик ўзгаришлар марказий нерв тизими ҳамда эндокрин тизимнинг мувофиқлашган фаолияти натижаси эканлигини кўрсатади. Муаллифнинг фикрича, стресс ва жисмоний юкламаларга жавобан юзага келадиган юрак-қон томир, нафас ва метаболик ўзгаришлар гипоталамо-гипофизар-адренал тизим орқали бошқариладиган ягона интеграл жавобни ифодалайди [6].

Шу нуқтаи назардан қаралганда, инсон организмининг адаптацион потенциали ташқи ва ички муҳит омилларига мослашиш қобилиятини ифодаловчи интеграл физиологик кўрсаткич ҳисобланади. У организм функционал тизимларининг мувофиқлашган фаолияти, регулятор механизмларнинг самарадорлиги ва функционал захиралар даражаси билан белгиланади. Амалиётда инсоннинг функционал ҳолати кўпинча юрак уриши частотаси, артериал қон босими, нафас олиш кўрсаткичлари каби алоҳида параметрлар орқали баҳоланади. Бироқ бундай ёндашув организм адаптацион имкониятларининг тўлиқ манзарасини акс эттира олмайди.

Шу боис, функционал синамалар (Руфье синамаси, Гарвард степ-тести, ортостатик синов ва бошқалар) асосида адаптацион потенциални тизимли ва интеграл баҳолашга қаратилган физиологик модел яратиш замонавий физиологиянинг долзарб илмий муаммоларидан бири ҳисобланади. Бундай интеграл ёндашув инсон организмининг функционал ҳолатини аниқроқ баҳолаш, эрта функционал бузилишларни аниқлаш ҳамда профилактик тадбирларни илмий асослаш имконини беради.

Тадқиқот объекти ва предмети: Тадқиқотда 18–60 ёшдаги шартли соғлом шахслар иштирок этиб уларда жисмоний зўриқишда организмнинг юрак-қон томир, автоном нерв ва нафас тизимларининг функционал ўзгаришлари ўрганилди. Контингент ёш, жинс ва жисмоний фаоллик даражасига кўра стратификация қилинди. Барча текширувлар Ўзбекистон Республикасининг иқлимий ва ижтимоий шароити ҳисобга олинган ҳолда, бир хил стандарт протокол асосида ўтказилди. Хона ҳарорати 18–22 °C, нисбий намлик ўртача 40–60% ни ташкил қилиб, барча функционал синовлар эрталабки соатларда ўтказилди.

Асосий функционал тадқиқот усуллари сифатида руфье синамаси, Гарвард степ-тести, ҳамда ортостатик синов усулларидан фойдаланилди.


Руфье индекси, Гарвард индекси ва ортостатик реакция кўрсаткичлари асосида организмнинг адаптацион потенциали интеграл шкала бўйича баҳоланди. Индикаторлар корреляцион таҳлил ёрдамида ўзаро боғлиқликда кўриб чиқилди ва статистик таҳлил қилинди. Ишончлилик даражаси $p<0,05$ деб қабул қилинди.

НАТИЖАЛАР ВА МУХОКАМА. Тадқиқот натижаларига кўра, турли ёш гуруҳларида Руфье индекси қийматлари ишончли фарқ қилди. Ёш ошиши билан юрак-қон томир тизимининг жисмоний юкламага реактивлиги пасайиш тенденциясини кўрсатди.

Гарвард индекси кўрсаткичлари жисмоний чидамлилик даражасини акс эттириб, ёшга боғлиқ равишда пасайиш динамикасини намоён этди.

Ортостатик синов натижалари автоном нерв тизими реактивлигининг ёшга боғлиқ камайишини кўрсатди.

Функционал синовлар натижаларини интеграция қилиш орқали адаптацион потенциал индекси ҳисобланди. Ёш ошиши билан интеграл кўрсаткичнинг пасайиши аниқланди ($p<0,05$).



Ёш гуруҳларига кўра функцнонал кўрсаткичлар

* $p<0,05$

Олинган натижалар инсон организмининг адаптацион имкониятлари ёшга боғлиқ равишда камайишини кўрсатди. Бу ҳолат юрак-қон томир ва автоном нерв тизимларининг функционал захиралари чекланиши билан изоҳланади.

Баевский (Р.М.) томонидан таклиф этилган адаптация концепциясига мувофиқ, организмнинг функционал захиралари ташқи юкламаларга жавоб сифатида сафарбар қилинади. Мазкур тадқиқот натижалари Руфье ва Гарвард тестлари орқали аниқланган кўрсаткичлар Баевский таърифлаган адаптацион резервлар динамикасига мос келди.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (WHO) томонидан белгиланган жисмоний фаоллик ва функционал ҳолат мезонлари билан таққосланганда, 18–35 ёш гуруҳидаги кўрсаткичлар халқаро меъёрларга яқин экани, 45 ёшдан кейин эса пасайиш тенденцияси аниқланди.

Олинган натижалар асосида ёш ошиши билан симпатик-парасимпатик мувозанатнинг бузилиши организм адаптацион захираларининг камайишига олиб келиши аниқланди ва бу ҳолат функционал синовлар орқали эрта диагностика қилиниши мумкинлиги кўрсатиб берилди.

ХУЛОСА. Замонавий концепцияларга кўра, автоном нерв тизимида симпатик-парасимпатик мувозанат бузилиши адаптацион имкониятларнинг камайишига олиб келади. Ортостатик синов натижалари мазкур назарияни тасдиқлаб, ёш ошиши билан вегетатив реактивликнинг пасайишини кўрсатди. Мазкур тадқиқот методологияси

Ўзбекистон шароитида функционал синовлар асосида инсон организмининг адаптацион имкониятларини илмий асосланган ҳолда баҳолаш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Баевский Р.М., Берсенева А.П. Оценка адаптационных возможностей организма и риск развития заболеваний. – М.: Медицина, 1997. – 265 с.

2. Баевский Р.М. Проблемы адаптации и учение о здоровье // Физиология человека. – 2000. – Т. 26, №2. – С. 5–15.

3. Меерсон Ф.З. Адаптация, стресс и профилактика. – М.: Наука, 1981. – 278 с.

4. Меерсон Ф.З., Пшенникова М.Г. Адаптация организма к экстремальным условиям среды. – М.: Медицина, 1988. – 312 с.

5. Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology. – 13th ed. – Philadelphia: Elsevier, 2016. – 1145 p.

6. Ganong W.F. Review of Medical Physiology. – 25th ed. – New York: McGraw-Hill, 2018. – 768 p.

7. М.А.Худжанова. Психоимоционал зўриқишнинг юрак-қон томир фаолиятига таъсирини ўрганиш. «Фундаментал фанларнинг замонавий тиббиёт фанлари ривожига қўшган ҳиссаси» Республика илмий-амалий анжуманининг материаллар тўплами.25-26 апрел 2025 г.

8. М.А. Худжанова. О.Б. Алимова. Юрак-қон томир реактивлигининг темпераментга боғликлиги. “Таълим жараёнини рақамлаштириш истиқболлари ва муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. Тошкент – 2025.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

TIBBIYOT TALABALARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.198

Tursunbekova Nozima
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot talabalarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Sog‘liqni saqlash tizimida samarali muloqot kasbiy muvaffaqiyatning muhim omili sifatida qaralib, bo‘lajak shifokorlarning bemor, hamkasb va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarida kommunikativ madaniyatning o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari – empatiya, ijtimoiy persepsiya, refleksiya, verbal va noverbal muloqot ko‘nikmalari, nizolarni konstruktiv hal etish qobiliyati kabi jihatlar ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan asoslab beriladi. Shuningdek, guruhiy dinamika, ijtimoiy identifikatsiya, rolli o‘yinlar, trening texnologiyalari va interfaol ta’lim metodlarining talabalar kommunikativ salohiyatini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada oliy tibbiy ta’lim jarayonida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning samarali yo‘llari hamda uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar yuzasidan ilmiy xulosalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetentlik, tibbiyot talabalari, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, empatiya, ijtimoiy persepsiya, refleksiya, muloqot madaniyati, kasbiy kompetensiya, interfaol ta’lim, trening texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические механизмы развития коммуникативной компетентности у студентов медицинских вузов. В системе здравоохранения эффективное общение рассматривается как важнейший фактор профессионального успеха, раскрывается роль коммуникативной культуры в взаимодействии будущих врачей с пациентами, коллегами и обществом. С социально-психологической точки зрения обосновываются структурные компоненты коммуникативной компетентности, такие как эмпатия, социальная перцепция, рефлексия, навыки вербального и невербального общения, способность конструктивного разрешения конфликтов. Также раскрывается значение групповой динамики, социальной идентификации, ролевых игр, тренинговых технологий и интерактивных методов обучения в развитии коммуникативного потенциала студентов. В статье представлены научные выводы о эффективных путях формирования коммуникативной компетентности в системе высшего медицинского образования и психологических факторах, влияющих на её развитие.

Ключевые слова: оммуникативная компетентность, студенты-медики, социально-психологические механизмы, эмпатия, социальная перцепция, рефлексия, культура общения, профессиональная компетенция, интерактивное обучение, тренинговые технологии.

Abstract. This article analyzes the socio-psychological mechanisms of developing communicative competence in medical students. In the healthcare system, effective communication is considered a key factor of professional success, and the role of communicative culture in the interaction of future doctors with patients, colleagues, and society is highlighted. From a socio-psychological perspective, the structural components of communicative competence are substantiated, including empathy, social perception, reflection, verbal and nonverbal communication skills, and the ability to resolve conflicts constructively. The importance of group dynamics, social identification, role-playing activities, training technologies, and interactive teaching methods in enhancing students’ communicative potential is also discussed. The article presents scientific conclusions on effective ways of forming communicative competence in higher medical education and the psychological factors influencing its development.

Keywords: communicative competence, medical students, socio-psychological mechanisms, empathy, social perception, reflection, communication culture, professional competence, interactive learning, training technologies.

KIRISH. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari — bu shaxsning muloqot jarayonida empatiya, refleksiya, pertsepsiya va identifikatsiya kabi omillar orqali samarali o'zaro ta'sir o'rnatish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Ular shaxslararo munosabatlarni aniglash, his-tuyg'ularni tushunish va vaziyatga mos muloqot strategiyasini tanlashni o'z ichiga oladi. Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi sharoitida shifokor faoliyati nafaqat chuqur kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki yuksak darajadagi kommunikativ kompetentlikni ham talab etadi. Tibbiy yordam samaradorligi ko‘p jihatdan shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot sifati, o‘zaro ishonch, empatik yondashuv va to‘g‘ri axborot almashinuvi bilan belgilanadi. Shu bois tibbiyot talabalari tayyorgarligida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari, tibbiyot sohasida innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi shifokordan nafaqat professional malaka, balki turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot o‘rnata olish, murakkab vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlash, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Ayniqsa, tibbiyot talabalari uchun klinik amaliyot jarayonida bemorlar, ularning yaqinlari hamda tibbiy jamoa a’zolari bilan to‘g‘ri kommunikatsiya o‘rnatish kasbiy ijtimoiylashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tibbiyot talabalari kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muammosi psixologiya, pedagogika va tibbiy ta’lim metodikasi kesishgan nuqtada shakllangan ko‘p qirrali ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlik tushunchasi dastlab

lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida izohlangan bo‘lsa, keyinchalik u shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy samaradorligini belgilovchi integrativ sifat sifatida talqin qilina boshlandi. Ijtimoiy-psixologik yondashuv doirasida Lev Vigotskiyning ijtimoiy-kultural nazariyasi shaxs rivojlanishida muloqot va hamkorlikning yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Uning fikricha, bilim va ko‘nikmalar ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi, bu esa tibbiyot talabalari tayyorgarligida interfaol metodlarning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, Karl Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan gumanistik yondashuv empatiya, samimiylik va shartsiz qabul qilish tamoyillarini samarali muloqotning psixologik asosi sifatida talqin etadi.

Tibbiy ta’limga oid tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlikning klinik samaradorlikka bevosita ta’siri alohida qayd etiladi. Bemor bilan ochiq va ishonchli muloqot o‘rnatish tashxis qo‘yish aniqligini oshiradi, davolash jarayoniga rioya etish darajasini yaxshilaydi hamda shifokor-bemor munosabatlarida ijobiy psixologik muhitni ta’minlaydi. So‘nggi yillarda ilmiy manbalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda simulyatsion ta’lim, rolli o‘yinlar, refleksiv tahlil va trening texnologiyalarining samaradorligi keng yoritilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida tizimli, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan metodologik tamoyillarga tayanildi. Kommunikativ kompetentlik murakkab integrativ tuzilma sifatida qaralib, uning motivatsion, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Empirik bosqichda psixodiagnostik metodlar, kuzatish, suhbat, anketa va o‘z-o‘zini baholash usullaridan foydalanildi. Talabalarning empatiya darajasi, ijtimoiy persepsiya xususiyatlari, refleksiv qobiliyati hamda nizolarni hal etish strategiyalari aniqlanib, olingan natijalar statistik tahlil qilindi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari doirasida kommunikativ trening dasturi ishlab chiqilib, interfaol mashg‘ulotlar orqali talabalar bilan amaliy ishlar olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, shaxslararo muloqot konsepsiyalari hamda kasbiy kompetensiya modeliga tayanildi. Bu yondashuvlar kommunikativ kompetentlikni nafaqat individual sifat, balki ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanuvchi dinamik jarayon sifatida talqin etish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari tibbiyot talabalari orasida kommunikativ kompetentlik darajasi turlicha ekanligini ko‘rsatdi. Ayrim talabalar yuqori empatiya va refleksiya ko‘rsatkichlariga ega bo‘lsa-da, ba’zilarida muloqot jarayonida ishonchsizlik, ijtimoiy tashvish yoki nizoli vaziyatlarda qiyinchiliklar kuzatildi. Ayniqsa, klinik amaliyotning dastlabki bosqichlarida bemor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish jarayonida psixologik to‘siqlar namoyon bo‘lishi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari asosida o‘tkazilgan kommunikativ trening mashg‘ulotlari talabalar muloqot madaniyatining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi. Rolli o‘yinlar, vaziyatli masalalar va guruhiy muhokamalar talabalar faolligini oshirib, o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirdi. Refleksiv tahlil mashg‘ulotlari esa o‘z xatti-harakatlarini baholash va xatolardan xulosa chiqarish qobiliyatini mustahkamladi. Natijalar

shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan tashkil etilganda ijobiy dinamikaga ega bo‘ladi. Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar – identifikatsiya, empatiya, ijtimoiy taqlid, refleksiya va guruhiy qo‘llab-quvvatlash omillari ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlaydi.

Tibbiyot talabalari kommunikativ kompetentligining rivojlanish ko‘rsatkichlari

1-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Tajribagacha holat (%)	Tajribadan so‘ng (%)	O‘zgarish dinamikasi	Izoh
1	Empatiya darajasi (yuqori ko‘rsatkich)	32	61	+29	Trening mashg‘ulotlari va rolli o‘yinlar natijasida bemorni tushunish qobiliyati oshdi
2	Ijtimoiy persepsiya aniqligi	38	66	+28	Guruhiy muhokamalar va vaziyatli tahlillar samarali ta’sir ko‘rsatdi
3	Refleksiv qobiliyat	35	63	+28	O‘z-o‘zini tahlil qilish va fikr-mulohaza almashinuvi rivojlandi
4	Verbal muloqot ko‘nikmalari	41	72	+31	Nutq ravonligi va fikrni aniq ifodalash ko‘rsatkichlari yaxshilandi
5	Noverbal muloqot samaradorligi	37	68	+31	Mimika, imo-ishora va tana tilidan ongli foydalanish kuchaydi
6	Nizolarni konstruktiv hal etish	29	59	+30	Konfliktologik vaziyatlar bilan ishlash natijasida ijobiy siljish kuzatildi
7	Ijtimoiy ishonch va o‘ziga ishonch	34	70	+36	Psixologik to‘siqlar kamaydi, klinik muloqotda erkinlik oshdi

Izoh. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tajriba-sinov dasturi asosida tashkil etilgan kommunikativ trening mashg‘ulotlari barcha asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan. Ayniqsa, verbal va noverbal muloqot ko‘nikmalari hamda ijtimoiy ishonch darajasida sezilarli o‘sish kuzatilgan. Bu esa ijtimoiy-psixologik mexanizmlar

– empatiya, refleksiya, identifikatsiya va guruhiy qo‘llab-quvvatlash omillarining samarali ishlaganini tasdiqlaydi. Natijalar tibbiyot talabalari uchun kommunikativ kompetentlikni maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirish zarurligini hamda interfaol metodlarning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tibbiyot talabalari kommunikativ kompetentligini rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, samarali muloqot ko‘nikmalari shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda ta’lim muhitining ijtimoiy-psixologik sharoitlariga ham bog‘liqdir. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayoni uzluksiz, tizimli va amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilgan bo‘lishi zarur. Oliy tibbiy ta’lim tizimida kommunikativ treninglarni o‘quv rejasiga kiritish, klinik fanlar bilan integratsiyalashgan holda simulyatsion mashg‘ulotlarni kengaytirish, talabalar refleksiv madaniyatini rivojlantirish hamda o‘qituvchilarning shaxsiy namunasini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, talabalar o‘rtasida psixologik qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish, jamoaviy hamkorlikni rag‘batlantirish va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish kommunikativ kompetentlikning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abulkhanova-Slavskaya, K.A. Shaxs faoliyati va hayot strategiyasi. – Moskva: Nauka, 1991.

2.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

3.G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

4.Qodirov B.R. Kasbiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

5.Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2012.

6.Yuldashev B.A. Tibbiyot psixologiyasi va deontologiya asoslari. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2019.

7.Raximov A.R. Pedagogik mahorat va kommunikativ kompetentlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

8.Olimov S.S. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

OILADA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNING ASOSIY OMILLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.199

Akramova Feruza Akmalovna
Nizomiy nomidagi O’zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti, Psixologiya kafedrasi, psixologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratishning asosiy psixologik omillari yoritib berilgan. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish – bu oila a’zolari o‘rtasida ishonch, mehr-oqibat, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tushunish muhitini shakllantirishdan iborat ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Oila, sog‘lom psixologik muhit, oila a’zolari, ishonch, mehr-oqibat, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, muhit, shakllantirish, ma’naviy, ruhiy va ijtimoiy barkamollik.

Аннотация.В статье рассматриваются психологические факторы создания здоровой психологической среды в семье. В основе статьи лежит утверждение, что создание здоровой психологической среды в семье заключается в создании атмосферы доверия, доброты, взаимоподдержки и взаимопонимания между членами семьи.

Ключевые слова: Семья, здоровая психологическая среда, члены семьи, доверие, доброта, взаимоподдержка, формирование, духовное, психическое и социальное благополучие.

Abstract. The article examines the psychological factors of creating a healthy psychological environment in the family. The article is based on the assertion that creating a healthy psychological environment in the family consists in creating an atmosphere of trust, kindness, mutual support and understanding between family members.

Keywords: Family, healthy psychological environment, family members, trust, kindness, mutual support, formation, spiritual, mental and social well-being.

Kirish. Oila - insonning ijtimoiy hayotidagi asosiy bo‘g‘inlardan biri, jamiyatning eng muhim institutidir. Oila har bir insonning ilk ijtimoiy makoni hisoblanadi, unda insonning ma’naviy qadriyatlari, madaniy an’analari va axloqiy qoidalari shakllanadi. Oila jamiyatda shaxsni tarbiyalash, uning rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatli bo’lib, oiladagi sog‘lom muhit jamiyat uchun mustahkam poydevor, kelajakda mustahkam va barqaror jamiyat yaratishga yordam beradi.

Oiladagi sog‘lom psixologik muhit nima? Sog‘lom psixologik muhit – bu oila a’zolari o‘rtasidagi ijobiy aloqalar, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va ishonch asosida qurilgan muhitdir. Bunday muhit oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini, ruhiy barqarorliklarini va umumiy hayot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik muhit faqatgina munosabatlarga emas, balki

bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirishga, o‘smirlar tarbiyasiga va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi sog‘lom muhit bolalarning psixologik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sog‘lom muhitda o‘sgan farzandlar ijtimoiy, ma’naviy jihatdan mustahkam bo‘lib, hayotda o‘ziga ishonchli va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanadilar. Oiladagi muhabbat va ishonch bolalarning kelajakda o‘z oilalarida ham yaxshi muhit yaratishiga yordam beradi.

Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratishning ahamiyati esa oila a’zolari o‘rtasidagi emotsional qo‘llab-quvvatlash, ulashish va turli holatlarni tushunish jamiyatda barqaror, emotsional barkamol shaxslarni tarbiyalashga yordam beradi. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish – bu oila a’zolari o‘rtasida ishonch, mehr-oqibat, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tushunish muhitini shakllantirishdir. Bunday muhitni yaratish har bir a’zoning ma’naviy, ruhiy va ijtimoiy barkamolligiga xizmat qiladi va salbiy vaziyatlardan himoya qiladi.

Sog‘lom muhitda tarbiyalangan bolalar emotsional va psixologik jihatdan barqarorroq bo‘lib, tashqi ta’sirlarga nisbatan chidamli bo‘ladilar. Ularda ijtimoiy-ma’naviy mezonlarga mos xulq-atvor shakllanadi va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasi o‘sadi.

Shu bois O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: “Bola ota-ona qo’lida bir ¬omonatdir”, “Agar farzandimizga to’g’ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo’lib turmasak, ularni ilmu hunarga o’rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo’yishimiz hech gap emas”, - deb ta’kidlashi oila muhitini risoladagidek tashkil etish orqali jamiyat farovonligiga erishish, ya’ni “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” kontseptual g’oyani hayotga tatbiq etishga qaratilganligi bejiz emas.

Darxaqiqat, oila – har bir shaxsda bolaligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu istaklar, qadriyatlar kamol topadigan, ming yillar davomida shakllangan o’zbek xalqining qadriyatlari va ma’naviy merosi ravnaqini ta’minlovchi tarbiya maskanidir.

Farzandlar o’z uylarida kuzatgan ma’naviy muhitdan nusxa oladilar. “Oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag’ritosh” bo’lib o’sadi.

Ilmiy-amaliy tadqiqot doirasida “Kelajakda qurilajak oilangiz o’z oilangizga o’xshashini istarmidingiz?” mazmundagi so’rovnoma o’tkazildi. Undagi ishtirokchilarning qariyb 35 foizi o’z oilasidagi muhitdan qoniqmasligini bayon qilishgan. Xo’sh, bu nimadan dalolat? O’sha oilalarning notinchligidan, farzandlarning o’z ota-onalari xulq-atvoridan qoniqmasligidan dalolat emasmi?! Axir ota-onalar bolani dunyoga keltirganliklari uchun emas, uni odobli ahloqli qilib voyaga yetkazganliklari uchungina olqishga sazovor bo’ladilar.

Oila muhiti bola tarbiyasi va kelgusi kamolotining asosidir. Oilalarda ma’naviy – ijtimoiy muhitni o’rganilganda “Farzand tarbiyasi uchun kim ko’proq mas’ul?” savoliga bildirilgan fikrlarni tahlil etsak, ota, ona, ota va ona mas’ulligi eng asosiy ekanligi e’tirof etildi: 31,0 foiz – “ota”, 35,0 foiz – “ona”, 22,0 foiz “ota-ona” ko’rsatkichlari eng yuqori darajada ko’rindi. Bu holat oilalardagi ota, onalarni farzandlar tarbiyasida namuna va ibrat

bo’lishi zarur ekanligini, ularni maslahat va fikrlari bilan to’g’ri yo’lga boshlashlarida, har tomonlama andoza bo’lish sifatlariga ega bo’lishini taqozo etadi.

Oilalarning nosog’lomligi, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga, bunday nosog’lom psixologik muhitli, nizo-janjalli, o’zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bolada ham keyinchalik nafaqat o’z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o’zi yashagan jamiyatga nisbatan ham shafqatsiz, zolim, xudbin, har xil jamiyat manfaatlari, yurt manfaatlariga zid bo’lgan har xil salbiy tashqi kuchlar ta’siriga oson beriluvchan shaxsning shakllanishiga, shu asosda esa o’z oilasi, o’z xalqi, o’z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo’lishi mumkin.

Farzandlar tarbiyasi ota-onani eng katta va mas’uliyatli vazifalaridan biri sanaladi. Bu vazifaga e’tiborsizlik kelajakda jamiyat taraqqiyotiga xavfli ta’sirni keltirib chiqaradi. Tarbiya qisqa muddatda va birdaniga singdiriladigan jarayon emas, uni yillar davomida o’z vaqti va yoshida berib borish talab etiladi. Bugungi farzand tarbiyasida “o’zini qay darajada ko’ra olayotgan” ota-onalarni o’rganish uchun “Farzandlaringiz tarbiyasiga yetarli e’tibor berayapsizmi?” savol bo’yicha natijalarga e’tiboringizni qaratamiz. Savolimizga 86,0 foiz ota-onalar “ha” degan ta’kidni bildirishdi. Bu ota-onalarni farzandlari tarbiyasiga bo’lgan mas’ulligini his eta olishini, o’zlarini farzandlari kamolotidagi ishtirokidan ko’ngli to’layotganligini bildiradi. “Yo’q” javobini belgilash 7,0 foizda va “javobi yo’q” tanlanishi 7,0 foizda ko’rinadi.

Demak, ota-onalar orasida farzandlari tarbiyasini o’z tasavvurlari va imkoniyatlari doirasida olib bora olmayotganligini tan olayotgan, o’zlarini balki bu masalada tajribasiz, no’noq his etayotganliklarini va bu holat ularda norozilik tuyg’ularini keltirib chiqarayotganligini ko’rsatadi. Ota-onalar aniq va ko’ngli to’ladigan javobni bera olishmagani, farzandlari hayotida o’zlari ibrat bo’la olmayotganidan, ularni tarbiyasidagi ishtirokidan ko’ngillari to’lmayotganidan ham darak beradi. Bu borada ota-onalarni ota-onalikka munosib o’rgatish, tarbiya borasidagi ilmlarini kengaytirish va zarur tavsiyalarni berish masalasiga jiddiy e’tibor qaratishimiz kerakligi ko’rindi. Buning uchun ota-onalarning bilimlarini oshirish, ularda sog’lom tafakkur va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ota-onalardan farzand oldidagi, el-yurt oldidagi ma’naviy burchini to’g’ri anglashni, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an’analarimizning eng nodirligini turmushga singdirish orqali bolalarda insoniy munosabatlarni shakllantirishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqoza etadi.

Zero Hadisda, “Hech bir ota o’z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, - deb qayd etilishi ham bejiz emas. Shuni unutmasligimiz lozimki, farzandimizning dunyoqarashi shakllanishida, unda ijobiy va salbiy xislatlarning paydo bo’lishida, eng avvalo, oila “xamirturush” vazifasini bajaradi.

Oila muhitini sog’lomlashtirishga qaratilgan mazkur omillar mujassamlashgan oila, bizning nazarimizda, doim farovon va barqaror bo’ladi. Bunday sog’lom muhitda voyaga yetgan farzandlar esa jamiyat rivojiga o’zining salmoqli ulushini qo’sha oladi. Bu borada ushbu jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

1. Oilada ota o’rnining ahamiyatli ekanligi. Turmushda erkakning yetakchiligi mentalitetimizda yetakchi o’rin tutadi. Erkak kishi o’z xulq-atvori bilan oilada to’kis muhit yaratishi, farzandlarida axloqiy sifatlarni tarbiyalashi lozim. Ota farzandning ko’z o’ngida namunali shaxsga aylanmas ekan, bunday oila hech qachon mukammal bo’lmaydi. Xalqimizda azal-azaldan “Ota bo’lish oson, lekin otalik qilish qiyin” degan naql bor. Farzandlarimiz otasi bilan faxrlanishi, undan o’rnak olishi zarur;

2. Oilada milliy qadriyatlar ustuvor bo’lishi zarurligi. Buyuk ajdodlarning tarbiyaga, oila va undagi axloqiy muhitga doir odob-axloq mavzusidagi “Qobusnoma”, “Hikmatnoma”, “Qutadg’u bilig”, “Hayrat ul-abror”, Hadisi Sharifda berilgan hikmatlarni farzandlar bilan birgalikda mutolaa natijasida farzandlarda ijobiy xislatlar shakllana borishini bilish kerak.

3. Onalarning farzandlar tarbiyasiga ko’proq vaqt ajratishi lozimligi. Oiladagi tarbiyada farzand o’z xususiyatlari, salohiyatining 60% ni onadan olishi, onaning fazilatlari, ma’naviy yetukligi va zakovat belgilari bolaga o’tishi isbotlangan xaqiqatligini nazarda tutish muhimdir.

Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o’zgarish va ma’naviy islohotlar jamiyatda komil-barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir, bu esa o’z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a’zosini tarbiyalash hamdir.

Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish oila a’zolari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va jamiyatga barkamol shaxslarni tayyorlash uchun zarurdir. Bu na faqat shaxsiy, balki jamiyat uchun ham muhim bo‘lgan sog‘lom, barkamol shaxslarni tarbiyalashga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild. – T.: «O’zbekiston», 2018. – 592 b.

2. Akramova F.A. Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. - T.: «Shams ASA», 2014 - 185-b.

3. Akramova F.A. Oilada sog’lom psixologik muhitni tarkib toptirish – jamiyat barqarorligining asosi sifatida // Zamonaviy ta’lim. 2017 № 12, B. 4-15.

4. Akramova F.A. Oilada ma’naviy muhitni shakllantirishda xotin-qizlarning roli. - T.: «Nixol Print», 2016. - 42-b.

5. Андреева Т.В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2004. - 243 с.

6. Новиков П.Р. Межличностные отношения в семейной жизни // Семейная психология. - 2012. - № 9. - С. 143-150.

7. Шнейдер Л.Б. Семейная психология / Л.Б. Шнейдер. — М.: Академический проект, 2005. - 768 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

YOSHLIK DAVRIDA MOTIVATSIYA VA SHAXSIY RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.200

Qo‘qon davlat universiteti.
Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.n. PhD
Mamayusupova Iroda Xamidovna
va Qo’shma ta’lim 1- kurs magistranti
Yuldasheva Gulnozaxon Sobitjon qizi
irodamamayusupova7777@gmail.com
Tel: (91)1404247

Annotatsiya. Ushbu maqolada 14-22 yoshli insonlar misolida motivatsiya va shaxsiy rivojlanishning psixologik omillari empirik va nazariy jihatdan o‘rganilgan. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Deci va Ryan), Banduraning o‘z-samaradorlik konsepsiyasi va Eriksonning rivojlanish bosqichlari nazariyasi asos qilib olingan. 178 nafar ishtirokchi bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari korrelyatsion tahlil, ko‘p o‘zgaruvchili regressiya va psixometrik testlash orqali o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya va o‘z-o‘zini baholash akademik yutuqning asosiy prediktorlari hisoblanadi (R^2=0.61). Natijalar asosida 5 modulli korreksion dastur ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, ichki motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, o‘z-o‘zini baholash, yoshlik davri, korreksion dastur, psixometrik shkala.

Аннотация.В данной статье на примере людей в возрасте 14–22 лет эмпирически и теоретически исследованы психологические факторы мотивации и личностного развития. В качестве теоретической основы использованы теория самоопределения (Деси и Райан), концепция самоэффективности Бандуры и теория стадий развития Эриксона. Результаты исследования, проведённого с участием 178 респондентов, были проанализированы с использованием корреляционного анализа, множественной регрессии и психометрического тестирования. Полученные результаты показывают, что внутренняя мотивация и самооценка являются основными предикторами академической успеваемости (R^2 = 0.61). На основе полученных результатов была разработана коррекционная программа, состоящая из 5 модулей.

Ключевые слова: мотивация, внутренняя мотивация, личностное развитие, самооценка, подростковый и юношеский возраст, коррекционная программа, психометрическая шкала.

Abstract. This article empirically and theoretically examines the psychological factors of motivation and personal development among individuals aged 14–22. The study is based on

Self-Determination Theory (Deci & Ryan), Bandura’s concept of self-efficacy, and Erikson’s theory of developmental stages. The results of a study conducted with 178 participants were analyzed using correlation analysis, multiple regression, and psychometric testing. The findings indicate that intrinsic motivation and self-esteem are the main predictors of academic achievement ($R^2 = 0.61$). Based on these results, a five-module correctional program was developed.

Keywords: motivation, intrinsic motivation, personal development, self-esteem, adolescence and youth, correctional program, psychometric scale.

KIRISH. Yoshlik davri — 14 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan muddatni qamrab oluvchi, inson hayotidagi eng muhim psixologik o‘zgarishlar yuz beradigan davr hisoblanadi. Bu davrda shaxs o‘z identifikatsiyasini shakllantiradi, qadriyatlar tizimini qayta ko‘rib chiqadi va kelajakka doir maqsadlarni belgilaydi. Motivatsiya esa ushbu jarayonning markaziy psixologik mexanizmi sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg’otadi (Erikson, 1968; Deci & Ryan, 2000).

Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yoshlar o‘rtasida akademik va shaxsiy motivatsiyaning pasayishi globalmiqyosda kuzatilmoqda. OECD (2023) ma’lumotlariga asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘quvchilarning 38% o‘rta ta’lim tugagach o‘zining kelajak maqsadlarini aniq belgilamaganligi qayd etilgan. O‘zbekistonda o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlar ham yoshlar o‘rtasida motivatsion inqiroz, maqsadsizlik va shaxsiy rivojlanish to‘siqlarini ko‘rsatmoqda (Yunusova, 2021; Rashidova va Toshpo‘latov, 2022).

Ushbu muammolar nafaqat akademik muhitda, balki professional va shaxsiy hayotda ham sezilarli oqibatlarga olib keladi. Shu boisdan yoshlik davrida motivatsiya va shaxsiy rivojlanishning psixologik omillarini empirik jihatdan o‘rganish, diagnostika usullarini takomillashtirish va samarali korreksion dasturlar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — yoshlik davrida motivatsiya turlari va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi psixologik munosabatlarni empirik tadqiqot orqali aniqlash, korreksion dastur modelini ishlab chiqish va korrelyatsion-statistik tahlil asosida ilmiy xulosalar formulalashdan iborat.

NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR

O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory)

Deci va Ryan (1985, 2000) tomonidan ishlab chiqilgan O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (OBN) motivatsiyaning sifatini uning manbai va xususiyatlariga qarab farqlaydi. Nazariyaga ko‘ra, motivatsiya uchta asosiy psixologik ehtiyoj qondirilganda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi: avtonomi (mustaqil qaror qabul qilish), kompetentlik (o‘z qobiliyatlariga ishonch) va bog’liqlik (ijtimoiy aloqalar).

OBN motivatsiyani ikkita asosiy turga ajratadi: ichki motivatsiya (intrinsic motivation) — faoliyat o‘z-o‘zidan qiziqarli va qanoatlantirarli bo‘lganda paydo bo‘ladigan rag’bat; tashqi motivatsiya (extrinsic motivation) — tashqi mukofot, jazolash yoki ijtimoiy bosim ostida shakllangan rag’bat. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya barqaror, yuqori sifatli natijalar, ijodkorlik va psixologik farovonlik bilan ijobiy bog’liq (Ryan & Deci, 2017).

Banduraning o‘z-samaradorlik nazariyasi

Albert Bandura (1977, 1986) tomonidan taklif etilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya o‘z-samaradorlik (self-efficacy) tushunchasini markazga qo‘yadi. O‘z-samaradorlik — insonning muayyan vazifani muvaffaqiyatli bajara olishiga bo‘lgan ishonchi. Banduraga ko‘ra, ushbu ishonch to‘rtta manbadan oziqlanadi: oldingi muvaffaqiyat tajribalari, kuzatib o‘rganish (modeling), og’zaki ishontirish va fiziologik holat.

Yoshlik davrida o‘z-samaradorlik yuqori bo‘lgan o‘quvchilar yangi vazifalardan qo‘rqmaydi, muvaffaqiyatsizliklardan saboq oladi va motivatsiyani uzoq vaqt saqlab qoladi. Aksincha, past o‘z-samaradorlik muammolardan qochish, vazifalarni bajarmaslik va akademik motivatsiyaning pasayishiga olib keladi (Schunk & Pajares, 2009).

Eriksonning psixosotsiyal rivojlanish nazariyasi

Erik Erikson (1950, 1968) shaxsning 8 bosqichli psixosotsiyal rivojlanish modelini taklif qilgan. Yoshlik davriga to‘g’ri keladigan beshinchi bosqich — "Identifikatsiya va rol chalkashligi" (12-20 yosh) — o‘zlikni anglash, jamiyatdagi o‘z o‘rnini topish va maqsadlar tizimini shakllantirish bilan bog’liq.

Eriksonning ta’kidlashicha, bu bosqichni muvaffaqiyatli o‘tish "ego-identifikatsiya" hosil bo‘lishiga olib keladi — ya’ni inson o‘zini kim ekanligini, qanday qadriyatlarga ega ekanligini va qaysi yo‘lda bormoqchi ekanligini aniq anglaydi. Identifikatsiya inqirozi esa motivatsiyasizlik, yo‘nalishsizlik va shaxsiy rivojlanish to‘siqlarining asosiy psixologik mexanizmi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tanlov va protsedura

Tadqiqot 2023-2024 o‘quv yilida Toshkent shahrining 3 ta oliy ta’lim muassasasi va 2 ta akademik litseyi negizida o‘tkazildi. Umumiy tanlov hajmi — 178 nafar ishtirokchi (n=178): 85 nafar 18-22 yoshli talabalar (yoshlik guruhi) va 93 nafar 14-17 yoshli o‘smirlar (o‘smirlar guruhi). Ishtirokchilarning 54.5% qiz, 45.5% o‘g’il bolalar edi. Tasodifiy tanlov usuli qo‘llanildi, barcha ishtirokchilar ixtiyoriy asosda qatnashdi va ma’lumotlar konfidentsialligi ta’minlandi.

Psixometrik vositalar

1. Academic Motivation Scale (AMS-C 28, Vallerand et al., 1992): Akademik motivatsiyani uch o‘lchamda o‘lchaydi: ichki motivatsiya (IM), tashqi motivatsiya (TM) va motivatsiya yo‘qligi (amotivatsiya). 28 ta moddan iborat, 7 balllik Likert shkalasi.

2. Rosenberg Self-Esteem Scale (RSES, 1965): 10 ta moddan iborat global o‘z-o‘zini baholash shkala. 4 balllik javob formati. Jami ball 10-40 orasida. Alfa Kronbax koeffitsienti tadqiqotimizda $\alpha=0.84$.

3. Goal Orientation Scale (Elliot & McGregor, 2001): Maqsad yo‘nalishini to‘rt o‘lchamda baholaydi: o‘zlashtirish-yaqinlashish, o‘zlashtirish-qochish, natija-yaqinlashish, natija-qochish.

4. Spielberger State-Trait Anxiety Inventory (STAI, 1970): Tashvishni holat va xususiyat darajalarida o‘lchaydigan 40 modli shkala. Tadqiqotda faqat xususiyat tashvishi (trait anxiety) ishlatildi.

5. General Self-Efficacy Scale (Schwarzer & Jerusalem, 1995): 10 ta moddan iborat umumiy o‘z-samaradorlik shkala. 4 balllik format, jami 10-40 ball.

Statistik tahlil

Ma’lumotlar IBM SPSS Statistics 27.0 dasturida qayta ishlandi. Qo‘llangan statistik usullar: tavsifiy statistika (M, SD), Pearson korrelyatsiya koeffitsienti, ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiya tahlili (stepwise metod), mustaqil guruhlar uchun t-test va psixometrik ko‘rsatkichlar (ichki izchillik, test-retest ishonchliligi). Statistik ahamiyatlilik chegarasi $p<0.05$ darajasida belgilandi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLIL

Motivatsiya shkalalarining psixometrik tahlili

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, AMS shkalasining barcha komponentlari yuqori ichki izchillikka ega ($\alpha = 0.79–0.87$). Ichki motivatsiya o‘rtacha ball bo‘yicha ($M = 4.21$) tashqi motivatsiya ($M = 3.05$) va motivatsiya yo‘qligidan ($M = 1.87$) statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ($p < 0.001$).

1-jadval. Motivatsiya shkalalarining psixometrik ko‘rsatkichlari va korrelyatsiyalari

Shkala / Ko‘rsatkich	Ichki motivatsiya	Tashqi motivatsiya	Motivatsiya yo‘qligi
O‘rtacha ball (M)	4.21 ± 0.43	3.05 ± 0.61	1.87 ± 0.55
Alpha Kronbax (α)	0.87	0.81	0.79
Test-retest (r)	0.84**	0.76**	0.71**
Maqsad yo‘nalishi bilan r	0.68**	0.29*	-0.41**
O‘z-o‘zini baholash bilan r	0.72**	0.34*	-0.53**
Akademik yutuq bilan r	0.65**	0.41*	-0.47**

*Eslatma: ** $p < 0.01$; * $p < 0.05$. M — o‘rtacha qiymat, SD — standart og’ish.*

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, ichki motivatsiya maqsad yo‘nalishi ($r=0.68$, $p<0.01$), o‘z-o‘zini baholash ($r=0.72$, $p<0.01$) va akademik yutuq ($r=0.65$, $p<0.01$) bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega. Motivatsiya yo‘qligi esa shu ko‘rsatkichlar bilan salbiy bog’liqlik ko‘rsatadi ($r=-0.41$ dan -0.53 gacha).

4.2. Yosh guruhlararo taqqoslama tahlil

Talabalar va o‘smirlar guruhlarini solishtiruvchi t-test natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Yoshlar guruhida umumiy o‘z-o‘zini baholash ($M=3.74$ vs $M=3.29$; $t=4.87$, $p<0.001$),

akademik o‘z-tasvir (t=5.21, p<0.001) va emotsional barqarorlik (t=5.64, p<0.001) statistik jihatdan sezilarli yuqori.

2-jadval. Yoshlar va o‘smirlar o‘rtasidagi psixologik ko‘rsatkichlar taqqoslanmasi

Ko‘rsatkich	n=85 (yoshlar)	n=93 (o‘smirlar)	t-statistika	p-qiymat
Umumiy o‘z-o‘zini baholash (M±SD)	3.74 ± 0.52	3.29 ± 0.68	4.87	< 0.001
Akademik o‘z-tasvir (M±SD)	3.91 ± 0.47	3.44 ± 0.59	5.21	< 0.001
Ijtimoiy o‘z-tasvir (M±SD)	3.55 ± 0.61	3.38 ± 0.74	1.63	0.105
Emotsional barqarorlik (M±SD)	3.68 ± 0.55	3.12 ± 0.72	5.64	< 0.001
Ichki motivatsiya bilan r	0.71**	0.63**	—	—

*Eslatma: M — o‘rtacha qiymat, SD — standart og’ish; ** p < 0.001.*

E’tiborli natija shuki, ijtimoiy o‘z-tasvir ko‘rsatkichi ikkala guruhda sezilarli farq ko‘rsatmaydi (t=1.63, p=0.105), bu ijtimoiy muhitning ikkala yosh guruhida ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, ichki motivatsiya bilan o‘z-o‘zini baholash o‘rtasidagi korrelyatsiya har ikkala guruhda ham kuchli (r=0.71 va r=0.63).

Korrelyatsion tahlil natijalari

3-jadvalda asosiy psixologik o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya matritsi keltirilgan. Matrits tahlili motivatsiya va shaxsiy rivojlanish tizimining ichki tuzilishini ochib beradi.

3-jadval. Psixologik o‘zgaruvchilar korrelyatsiya matritsi (Pearson r, n=178)

O‘zgaruvchi	1	2	3	4	5	6
1. Ichki motivatsiya	—	0.54**	0.68**	0.72**	-0.31**	0.61**
2. Tashqi motivatsiya		—	0.29*	0.34*	0.18	0.41**
3. Maqsad yo‘nalishi			—	0.66**	-0.44**	0.58**
4. O‘z-o‘zini baholash				—	-0.57**	0.65**
5. Tashvish					—	-0.48**

O‘zgaruvchi	1	2	3	4	5	6
darajasi						
6. Akademik yutuq (GPA)						—
Eslatma: * p < 0.05; ** p < 0.01; n = 178. GPA — o‘rtacha akademik ball (4.0 shkala asosida).						

*Eslatma: * p < 0.05; ** p < 0.01. Diagonal bo‘yicha — o‘zgaruvchi o‘zi bilan.*

Matritsa tahlili quyidagi asosiy naqshlarni ko‘rsatadi: birinchidan, ichki motivatsiya (1) barcha ijobiy ko‘rsatkichlar bilan kuchli, tashvish bilan salbiy bog’liq; ikkinchidan, o‘z-o‘zini baholash (4) va maqsad yo‘nalishi (3) o‘rtasida o‘rtacha kuchli aloqa mavjud (r=0.66); uchinchidan, tashvish (5) barcha akademik ko‘rsatkichlar bilan salbiy korrelyatsiyada.

Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya tahlili

Akademik yutuqning prediktorlarini aniqlash maqsadida stepwise ko‘p o‘zgaruvchili regressiya tahlili o‘tkazildi. 4-jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, model umumiy dispersiyaning 61% ini izohlaydi (R^2=0.61, F=53.8, p<0.001).

4-jadval. Akademik yutuqni bashorat qiluvchi ko‘p o‘zgaruvchili regressiya tahlili

Prediktor	B	SE	β	t	p
Ichki motivatsiya	0.41	0.07	0.38	5.86	< 0.001
O‘z-o‘zini baholash	0.33	0.08	0.29	4.13	< 0.001
Maqsad yo‘nalishi	0.28	0.09	0.24	3.11	0.002
Tashvish darajasi	-0.22	0.07	-0.19	-3.14	0.002
Tashqi motivatsiya	0.14	0.08	0.12	1.75	0.082
Model: R^2 = 0.61, F(5,172) = 53.8, p < 0.001. Bog’liq o‘zgaruvchi: akademik yutuq (GPA).					

Eslatma: B — standartlashtirmagan koeffitsient; SE — standart xato; β — standartlashtirilgan koeffitsient.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya (β=0.38, p<0.001) va o‘z-o‘zini baholash (β=0.29, p<0.001) eng kuchli prediktorlar hisoblanadi. Tashvish darajasi salbiy prediktor sifatida ishlaydi (β=-0.19, p=0.002). Tashqi motivatsiya statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmagan prediktor bo‘lib chiqdi (p=0.082).

KORREKSION DASTUR: METODIKA VA SHKALA ASOSIDA YONDASHUV

Dastur kontseptsiyasi

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan korreksion dastur uchta asosiy nazariy tamoyilga tayanadi: (1) O‘z-o‘zini belgilash nazariyasining ichki motivatsiyani rag’batlantirish prinsipi; (2) Banduraning o‘z-samaradorligini oshirish metodologiyasi; (3) Kognitiv-xulq-atvor terapiyasining (CBT) maqsad qo‘yish va rekonstruktsiya usullari.

Dastur 5 moduldan iborat bo‘lib, 12 hafta davomida 24 ta sessiya o‘tkazishni nazarda tutadi. Har bir modul aniq psixometrik ko‘rsatkichlarga asoslanib, o‘zgarishni raqamli tarzda kuzatadi.

5-jadval. 5 modulli korreksion dasturning tuzilishi va maqsad ko‘rsatkichlari

№	Modul nomi	Asosiy usullar	Davomiyligi	Maqsad ko‘rsatkich
1	**O‘z-o‘zini anglash va shaxsiy resurslar**	Refleksiya, jurnal yuritish, SWOT-tahlil	2 hafta (4 sessiya)	O‘z-o‘zini baholash +0.4
2	**Maqsad qo‘yish va rejalashtirish**	SMART-maqsadlar, vizualizatsiya, amaliy mashqlar	2 hafta (4 sessiya)	Motivatsiya intensivligi +0.5
3	**Emotsional intellekt va stress-menejment**	CBT elementlari, mindfulness, nafas mashqlari	3 hafta (6 sessiya)	Tashvish -0.6
4	**Ijtimoiy kompetentlik va muloqot**	Rol o‘yinlar, guruh muhokamasi, ijtimoiy trening	2 hafta (4 sessiya)	Ijtimoiy o‘z-tasvir +0.3
5	**Yutuq va mustahkamlash**	Portfolio tuzish, natijalarni baholash, kelajak rejasi	3 hafta (6 sessiya)	Barcha ko‘rsatkichlar integratsiyasi

Eslatma: Maqsad ko‘rsatkichlar AMS, RSES va STAI shkalalarida kutilayotgan o‘rtacha o‘zgarishni ko‘rsatadi.

Shkala asosida monitoring va korreksiya

Har bir modul boshlanishida va yakunida quyidagi shkalalar qo‘llaniladi: AMS (motivatsiya darajasi), RSES (o‘z-o‘zini baholash), STAI-T (tashvish darajasi). Agar ishtirokchi maqsad ko‘rsatkichga erisha olmasa, individual korreksion rejim taklif etiladi. Individual korreksiyada qo‘shimcha CBT sessiyalari, ota-ona yoki o‘qituvchilarni jalb etish va guruh dinamikasidan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Dasturning amaliy samaradorligini baholash uchun pre-test va post-test strategiyasi qo‘llaniladi. Pilotlash natijalari (n=34, sinov guruhi) ichki motivatsiyada o‘rtacha +0.72 ball,

o‘z-o‘zini baholashda +0.58 ball va tashvish darajasida -0.64 ball o‘zgarishni ko‘rsatgan (barcha farqlar $p<0.05$).

MUHOKAMA VA NATIJALARNING TALQINI

Tadqiqot natijalari O‘z-o‘zini belgilash nazariyasining asosiy qoidalarini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Ichki motivatsiyaning akademik yutuq bilan eng kuchli aloqada bo‘lishi ($r=0.65$, $\beta=0.38$) Ryan va Deci (2017) ning ko‘plab xalqaro tadqiqotlari bilan hamohang. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida tashqi motivatsion vositalar (baho, mukofot) yetarli bo‘lmay, o‘quvchilarning ichki qiziqishini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

O‘z-o‘zini baholashning ikkinchi eng kuchli prediktor ekanligi ($\beta=0.29$) Bandura nazariyasini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqotimizda talabalar ($M=3.74$) va o‘smirlar ($M=3.29$) o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgani ($p<0.001$) yoshlik davrida o‘z-o‘zini baholashning rivojlanib borishi jarayonini tasdiqlaydi.

Tashvish darajasining salbiy prediktor ekanligi ($\beta=-0.19$) Spielberger (1972) va boshqalarning stressni akademik faoliyatga ta’siri to‘g’risidagi topilmalariga mos keladi. Bu natija korreksion dasturlarda stressni boshqarish modulini kiritish zarurligini asoslaydi.

Muhim cheklov sifatida quyidagilarni ta’kidlash lozim: o‘zini o‘zi hisobot berish metodlari ijtimoiy maqbullik tarafkashligiga moyil; kesimli dizayn sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga imkon bermaydi; tanlov bir nechta shahar muassasalari bilan cheklangan, shu boisdan umumlashtiruvchi xulosalarga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqot yoshlik davrida motivatsiya va shaxsiy rivojlanishning psixologik omillarini kompleks empirik va nazariy jihatdan o‘rgandi. Asosiy xulosalar:

1. Ichki motivatsiya akademik yutuq va shaxsiy rivojlanishning eng kuchli psixologik prediktori hisoblanadi ($\beta=0.38$, $R^2=0.61$). Ta’lim muhitida ichki motivatsiyani rag’batlantirish strategik ahamiyatga ega.

2. O‘z-o‘zini baholash va maqsad yo‘nalishi o‘rtasidagi kuchli korrelyatsiya ($r=0.66$) shaxsiy rivojlanish intervensiyadalarida ushbu komponentlarni birgalikda yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Yoshlar (18-22 yosh) va o‘smirlar (14-17 yosh) o‘rtasida o‘z-o‘zini baholash va emotsional barqarorlik bo‘yicha statistik ahamiyatli farqlar mavjud, bu guruhga oid differentsial yondashuv zarurligini bildiradi.

4. Ishlab chiqilgan 5 modulli korreksion dastur psixometrik shkalalar asosida monitoring qilish imkonini beradi va pilotlash natijalarida ijobiy samaradorlik ko‘rsatgan.

Amaliy tavsiyalar sifatida: ta’lim muassasalarida motivatsiyani diagnostika qilish tizimini joriy etish; o‘qituvchilar uchun ichki motivatsiyani rag’batlantirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish; psixolog va pedagog hamkorligida korreksion dasturlarni amalga oshirish; longitudinal tadqiqotlar orqali uzoq muddatli ta’sirni kuzatib borish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bandura, A. (1977). Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change. Psychological Review, 84(2), 191-215.

2. Bandura, A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Prentice-Hall.

3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. Springer.

4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268.

5. Elliot, A. J., & McGregor, H. A. (2001). A 2x2 achievement goal framework. Journal of Personality and Social Psychology, 80(3), 501-519.

6. Erikson, E. H. (1950). Childhood and society. Norton.

7. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and crisis. Norton.

8. OECD (2023). Education at a Glance 2023: OECD Indicators. OECD Publishing, Paris.

9. Rosenberg, M. (1965). Society and the adolescent self-image. Princeton University Press.

10. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2017). Self-determination theory: Basic psychological needs in motivation, development, and wellness. Guilford Press.

11. Schunk, D. H., & Pajares, F. (2009). Self-efficacy theory. In K. R. Wentzel & A. Wigfield (Eds.), Handbook of motivation at school (pp. 35-53). Routledge.

12. Schwarzer, R., & Jerusalem, M. (1995). Generalized Self-Efficacy scale. In J. Weinman, S. Wright, & M. Johnston (Eds.), Measures in health psychology (pp. 35-37). NFER-NELSON.

13. Spielberger, C. D. (1970). STAI manual for the state-trait anxiety inventory. Consulting Psychologists Press.

14. Vallerand, R. J., et al. (1992). The Academic Motivation Scale: A measure of intrinsic, extrinsic, and amotivation in education. Educational and Psychological Measurement, 52(4), 1003-1017.

15. Rashidova, N., & Toshpo‘latov, B. (2022). O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida motivatsion holat va akademik muvaffaqiyat: Empirik tahlil. O‘zbekiston psixologiya jurnali, 14(2), 45-62.

16. Yunusova, M. (2021). Yoshlik davrida shaxs identifikatsiyasi va maqsad qo‘yish muammolari. Toshkent: Fan nashriyoti.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

O‘SMIRLIK DAVRIDA REFLEKSIYANI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.201

N.I.Xalilova
Renessans ta’lim universiteti
“Pedagogik ta’lim va psixologiya”
kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada o‘smirlik davrida refleksiyani namoyon bo‘lishining psixologik omillari, qonuniyatlari hamda mexanizmlari borasidagi fikrlari ilgari surilgan. Unga ko‘ra, o‘smirlik davrida refleksiyani o‘zini o‘zi anglash tizimi bilan aloqadorlikda rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan. Shuning bilan birga o‘smir shaxsida refleksivlik yo‘nalishlari o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlar empirik jihatdan tekshirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smir shaxsi, refleksiya, o‘zini o‘zi anglsh, o‘z-o‘ziga, boshqa insonlarga, o‘tmishdagi faoliyatga, hozirgi faoliyatga, kyelajakdagi faoliyatga, boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga, ijtimoiy rivojlanish, jadalligi, kengligi, ichki dunyosini anglash.

Аннотация. В статье выдвинуты мнения о психологических факторах, закономерностях и механизмах проявления рефлексии в подростковом возрасте. По его словам, раскрыты особенности развития рефлексии в подростковом возрасте в связи с системой самосознания. Вместе с тем, эмпирически проверены аспекты взаимосвязи между направлениями рефлексивности личности подростка.

Ключевые слова: личность подростка, рефлексия, самосознание, понимание себя, других людей, прошлой деятельности, текущей деятельности, будущей деятельности, сотрудничества и общения с другими, социального развития, интенсивности, широты, понимания внутреннего мира.

Abstract. The article presents thoughts on the psychological factors, patterns, and mechanisms of reflection manifestation in adolescence. According to it, the features of the development of reflection in adolescence in connection with the system of self-awareness are revealed. At the same time, the aspects of the relationship between the directions of reflexivity in the personality of adolescents were empirically investigated.

Keywords: adolescent personality, reflection, self-awareness, self-awareness, awareness of oneself, other people, past activity, current activity, future activity, cooperation and communication with others, social development, intensity, breadth, inner world.

Kirish. Ma’lumki, refleksiya atamasiga doir izohlar uchun umumiy aloqador tushuncha o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi kuzatish, o‘zining holatini anglash va shu kabilar hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, mazkur jaryonlarning shakllanishi rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan 7-8 yoshda yuz bera boshlaydi.

O‘smirlik davri o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi uchun faol davrdir. Uning rivojlanish vositasi esa shaxsiy refleksiyadir. O‘smir o‘zini o‘zi anglashini yangi material bilan boyitish orqali o‘zini o‘rganishni chuqurlashtirib boradi. U o‘zining shaxs xususiyatlari, atrofdagilar bilan munosabati, imkoniyat va intilishlari, kuchli va kuchsiz tomonlarini o‘rganib boradi. Refleksiya kelajak va o‘tmishni bir-biri bilan bog‘laydi, bolalikdagi kattalik hayoti haqidagi kutishlarini taqqoslab ko‘radilar. Refleksiyaning mazmunli rejasi juda keng bo‘lib, o‘smir atrof-olamni, boshqa insonlarning o‘zini o‘zi va shaxsiy refleksiyasini tahlil qiladi. Refleksiyaning muhim xususiyati uning boy emosionalligidir. Tez o‘zgarayotgan tashqi ko‘rinish, o‘zini boshqalar bilan idrok qilish, o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyat va qobiliyatlar doimo refleksiyaning fokusida bo‘ladi hamda kuchli kechinmalarni vujudga keltiradi, natijada ularning o‘zi ham refleksiyalanadi.

O‘smirlik davri refleksiyasining yana bir muhim xususiyati uning erkin assosiatsiyalanishidir. O‘smir o‘zining ruhiy kechinmalari va tashqi vaziyat ta’sirida turli yo‘nalishlardan kelayotgan fikrlari bilan band bo‘ladi. Biroq, refleksiyaning markazida uning o‘zi, ya’ni shaxsi turadi. Aynan refleksiyada o‘zini o‘zi identifikatsiyalash ehtiyojini qondiradi, uni hammadan ko‘proq o‘zining “Men”i qiziqtiradi. O‘smir “Men”ini tushunishga harakat qiladi, “Men kimman?” degan savolga javob topishi mazkur davrning eng asosiy muammosi hisoblanadi.

Shubhasiz, refleksiv qobiliyatlar barcha o‘smirlarda bir xil emas. O‘smirlik davrida refleksiyaning jadalligi va kengligi bolalikdagi oilaviy tarbiya, oilaviy an’analar, yaxshi kitoblar o‘qish va ularni muhokama qilish, boshqa kishilarning fikrlari va kechinmalariga e’tiborli bo‘lish, olamning yaratilishidan hayratga tushish kabi omillar ta’siri bilan bevosita bog‘langandir. Biroq, barcha o‘smirlar uchun xos bo‘lgan xarakterli holat - ularga tabiat tomonidan berilgan qisqa vaqt ichida o‘zini ma’naviy jihatdan yuqori darajaga ko‘tarish imkoniyatiga egaligidir.

Ta’kidlash joizki, L.I. Bojovichning fikriga ko‘ra, bu davrda o‘zini faqatgina o‘zigagina xos bo‘lgan, boshqalardan ajralib turuvchi sifatlarga ega shaxs sifatida anglash ehtiyojlari va qobiliyatlari paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadigan o‘zini o‘zi anglashning yangi bosqichi yuzaga keladi. Mazkur davr o‘smir shaxsida o‘zini o‘zi namoyon qilishi va o‘zini o‘zi tarbiyalashga intilishi kuchayadi [2].

Shuningdek, L.I.Bojovich o‘smirlarda aynan refleksiyaning rivojlantirilishi o‘zini o‘zi anglashning yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keladi deb hisoblaydi. Aytish mumkinki, o‘smirlik davrida refleksiya shiddat bilan rivojlanadi, bu esa uning o‘zini bilish jarayonlarida (tafakkur, xotira, diqqat va boshqalar) insonlar bilan muloqot va xulqida o‘zining shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo‘luvchi sifatida tadqiq etilishiga imkon beradi.

Ma’lumki, A.Buzeman o‘z tadqiqotlarida L.S.Vigotskiy fikriga asoslanib, o‘smirlik davrida refleksiya rivojlanishini xarakterlovchi 3 ta holat mavjudligini qayd etadi:

Birinchidan, refleksiya va unga asoslangan o‘zini o‘zi anglash o‘smir shaxsida rivojlanishiga qaratilgan bo‘ladi. O‘zini o‘zi anglash nafaqat anglash fenomeni sifatida olinadi balki, kengroq tarzda biologik va ijtimoiy o‘zlashtirilgan variant sifatida ko‘riladi. A.Buzemanning ta’kidlashicha, refleksiya ildizini tirik olamdan chuqur izlash kerak, uning biologik asoslari hamma joyda nafaqat tashqi olamni aks ettirishi, balki organizmning o‘zini o‘zi aks ettirishi bilan namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, A.Buzeman tomonidan o‘smir o‘zini o‘zi anglashining rivojlanganligi bilan ijtimoiy rivojlanish o‘rtasida aloqa mavjudligi alohida qayd etiladi. Uning fikrlariga ko‘ra, o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi madaniy muhit uning ruhiy hayotining qaysidir tomoni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, o‘zini o‘zi anglash tahlil ostiga olinmaydigan qandaydir metafizik mavjudlik sifatida emas, balki u refleksiyani o‘zi tomonidan sub’yektga o‘zgartiruvchi obraz sifatida ta’sir ko‘rsatish mumkinligiga e’tibor qaratishiga chaqiradi [8].

O‘smirlik davrida insonga o‘z olamiga kirish, o‘z fikrlari, hislari va xatti-harakatlarini tahlil qilish alohida zavq bag‘ishlaydi.

Ta’kidlash joizki, o‘smirlarda refleksiyaning psixologik xususiyatlarini o‘rganish muammosini quyidagi jihatlarini aniqlashtirish mumkin:

-pedagogik jihati o‘smirlarda refleksiyaning yuqori darajasi uning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish dinamikasini anglashning zaruriy shartlaridan biri sanaladi;

-ijtimoiy jihati – shaxsning ichki (refleksiya) va tashqi faol ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kirishishdagi muvaffaqiyatlar bilan bog‘liq. Bu ularda ehtimolli nizoli vaziyatlarni ogohlantirish va kommunikativ to‘siqlarni bartaraf etish imkonini beradi;

-psixologik jihatiga ko‘ra, refleksiya o‘smir tomonidan o‘zining ichki dunyosini anglashning shakli sifatida namoyon bo‘luvchi shaxsiy rivojlanishning samaradorligi va uyg‘unligini ta’minlaydi [3].

L.S. Vigotskiy, L.I. Bojovich, V.I.Slobodchikova, E.Shpranger, N.I. Gutkina, S.Yu.Stepanova va boshqalarning fikriga ko‘ra, refleksiya o‘smirlik davrida yangilanish sifatida ajratib ko‘rsatiladi. Mazkur yangilanish shaxs psixik rivojlanish jarayoni nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Jumladan, bola dastlab o‘zini o‘zi anglaydi, o‘zini yaxlit shaxs sifatida tasavvur qiladi hamda o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyatini tarkib toptiradi.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra, refleksiya - bu o‘smir ongida o‘zi bilan ro‘y beradigan jarayonlarning aks ettirilishidir. Refleksiya va o‘zini o‘zi anglashning yuzaga kelishini rivojlanishi yangi tamoyilga, ya’ni psixik jarayon va xulq-atvorni ichki tartibga solishga ega bo‘ladi. O‘smirda refleksiyaning rivojlanishi faqatgina o‘zining ichki shaxsiy o‘zgarishlari bilan chegaralanib qolmay, uning yuzaga kelishi bilan o‘smir boshqa kishilarni nisbatan keng va chuqur tushunadigan bo‘ladi [7].

E.Eriksonning fikriga ko‘ra, o‘smir oldidagi rivojlanishning asosiy vazifasi – shaxsiy identivlik, o‘ziga xoslikni shakllantirish, o‘zini shaxs sifatida anglagan holda o‘zining fikrlari, hislariga hamda umuman o‘z shaxsiga munosabat bildirishini talab qiladi.

Ta’kidlash joizki, shaxsiy refleksiya - bir tomondan o‘smirning qadriyati – ma’naviy yo‘nalganlik negizida refleksiv jarayonlarni tashkil etish usuli sifatida o‘zining yangi obrazini

tuzishga, ikkinchi tomondan, esa olam to‘g‘risidagi adekvat bilimlarni o‘zlashtirishda namoyon bo‘luvchi ijtimoiy predmetli olam bilan munosabatlarni ta’minlaydi [4].

Yu.M.Lineskiyning ta’kidlashicha, o‘smirlik davridagi shaxsiy refleksiya ularning erishgan imkoniyatlari hamda rivojlangan refleksiv qobiliyatiga bog‘liq. Tadqiqot jarayonidan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘smirlardagi refleksiv qobiliyatini rivojlantirishni tadqiq etishdan iborat [4].

Tadqiqotchi P.P.Blonskiy ham o‘smirlik davridagi refleksiya, ya’ni o‘zini o‘zi anglash va baholash muammosiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, u muammoni tafakkurni rivojlanganlik darajasiga bog‘lagan holda tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, o‘smirlikda tafakkurning rivojlanib borishi o‘z xatti-harakatlari va intellektual faoliyatini nazorat qilishga o‘rganadilar [1].

Refleksiya hissi va uning o‘smir shaxsida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarni V.G.Maralov izlanishlarida ham ko‘rish mumkin. Tadqiqotchilar o‘smirlik davrida namoyon bo‘luvchi refleksiya hissini o‘z-o‘zini “aks ettirish” qirrasi deb ta’riflaydilar. Uni tadqiq etishda esa to‘rtta asosiy yo‘nalish, ya’ni o‘smir faoliyatidagi hamkorlik, kommunikatsiya, shaxsiy intellektuallarni hisobga olish kerak. Unga ko‘ra, refleksiya quyidagicha amalga oshadi:-anglash o‘z qarashlarini o‘ziga qaratish;

-o‘ylash;

-yangi bilimlarni olish yoki noaniq bilimlarni aniqlash maqsadida boshqa bilimlarni tahlil qilish;

-ongli o‘zini o‘zi kuzatish;

-hayot faoliyatida o‘zini o‘zi namoyon qilish;

-inson tomonidan o‘ziga yo‘naltirilgan tahlil va boshqalar [5].

Ma’lumki, L.I. Bojovichning fikriga ko‘ra, o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi anglashning yangi bosqichi yuzaga keladi. Bunda o‘smir o‘zini boshqalardan farqli xususiyatlarga ega shaxs sifatida anglashga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatlar yuzaga keladi. Buning natijasida o‘smirlarda o‘zini o‘zi namoyon qilish, o‘zini o‘zi tasdiqlatish kabi xususiyatlar yuzaga chiqadi [2].

L.I. Bojovichning fikriga ko‘ra, o‘smirlik davrida refleksiyaning rivojlanishi o‘zini o‘zi anglashning yangi bosqichiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan o‘smirlik davriga kelib, refleksiya jadal ravishda rivojlanadi hamda u bilish jarayonlarini (xayol, diqqat, xotira, tafakkur) va o‘z shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilishga yordam beradi. A.Buzemanning ta’kidlashicha, L.S.Vigotskiy bo‘yicha o‘smirlik davridagi refleksiyani tavsiflovchi 3 ta xususiyat mavjud:

-birinchidan, refleksiya o‘smir rivojlanishi bilan birgalikda kechadi;

-ikkinchidan o‘zini o‘zi anglay boshlaydi. A.Buzemanning ko‘ra, refleksiyaning ildizlari hayvonot dunyosiga borib taqaladi; o‘zini o‘zi ikkinchidan o‘zini o‘zi anglay boshlaydi. A.Buzemanning fikricha, refleksiyaning ildizlari hayvonot dunyosiga borib taqaladi; o‘zini o‘zi anglash va ijtimoiy rivojlanish o‘zaro bog‘liq hodisalardir. Uning fikriga ko‘ra, o‘zini o‘zi anglash ijtimoiy muhitga bevosita bog‘liq hisoblanadi;

- uchinchidan o‘zini o‘zi anglash metafizik hodisa sifatida qaralmaydi. U refleksiyaga bevosita ta’sir ko‘rsatib, sub’yektga bevosita bog‘liq bo‘ladi [8].

Refleksiya yordamida shaxsda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish tajribasi yuzaga kela boshlaydi. Bu qadriyatli fikrlash jarayoni bilan bevosita bog‘liq sanaladi. Shuningdek, u shaxsni tashqi shart-sharoitlarga moslashishga yordam beradi. Asosiysi psixikaning boshqa imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlarni ham yaratib beradi. O‘smirlik davrida shaxs o‘z olamiga sho‘ng‘ib ketishi natijasida o‘z fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini o‘ylashdan zavq oladi. O‘smir o‘zgalar bilan munosabat va muloqot qilish natijasida refleksiyani amalga oshiradi. Unda atrofdagi hodisa fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslikka nisbatan ichki dialog yuzaga keladi. U bu kabi fikr va qarashlarni inkor etadi yoki qabul qiladi [6].

Refleksiya o‘zini o‘zi anglash jarayonini maqsadga muvofiq va anglangan bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, refleksiya o‘smir hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi nazorat qilish va o‘zini ichki dunyosini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, shaxsni muloqotchan, ijtimoiy faol bo‘lishida ham refleksiya ahamiyatlidir. Refleksiyasi rivojlangan o‘smir shaxsini o‘z oldiga ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni qo‘ya olishi va o‘z maqsadlariga erishish yo‘llarini topishiga qodirdir. Ko‘p hollarda shaxs atrof-muhitni anglashiga bo‘lgan qobiliyat va ijtimoiy qadriyatlarni anglay olish xususiyati muloqot va faol hayotda muhim axamiyatlidir.

Ma’lumki shaxs shakllanishi o‘ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Ayniqsa, shaxsning o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tarbiyalash kabi refleksiv jarayonlarni rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Shu bois, tadqiqotda xususan, turli yosh davrlarida refleksivlikni rivojlanganlik darajasini tekshirish maqsadida “Refleksivlik darajasini aniqlash” (V.V.Ponamaryov) metodikasi va “Refleksivlikning ustuvor strategiyalarini o‘rganish” so‘rovnomasi yordamida empirik maьlumotlar to‘plandi.

Dastlab mazkur metodika har bir yosh davr nuqtai nazaridan alohida-alohida tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks etirildi.

1.-jadval

O‘smirlik davrida refleksivlik darajalarini namoyon bo‘lish xususiyatlari (K.Pirson korrelyasiyasi mezoni bo‘yicha)

Refleksivlik yo‘nalishlari	**O‘z-o‘ziga**	**Boshqa insonlarga**	**O‘tmishdagi faoliyatga**	**Hozirgi faoliyatga**	**Kelajakdagi faoliyatga**	**Boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga**
O‘z-o‘ziga	1	0,53**	-0,06	0,01	0,09	0,06
Boshqa insonlarga	0,53**	1	-0,05	-0,11	0,09	-0,01

O‘tmishdagi faoliyatga	-0,06	-0,05	1	0,20**	0,05	0,02
Hozirgi faoliyatga	0,01	-0,11	0,20**	1	0,09	0,12
Kelajakdagi faoliyatga	0,09	0,09	0,05	0,09	1	0,18*
Boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga	0,06	-0,01	0,01	0,12	0,18*	1

izoh: *r≤0,05, ** r≤0,01

Metodika natijalariga ko‘ra, o‘smirlar guruhida o‘z-o‘ziga yo‘nalganlik va boshqa insonlarga yo‘nalganlik bilan (r=0,53; r≤0,01) kuchli darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. O‘z navbatida boshqa insonlarga yo‘nalganlik (r=0,53; r≤0,01) bilan ham kuchli darajada bog‘liqlik mavjudligi tajriba natijalarida qayd etildi. Natijalardan ko‘rinadiki, o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi anglash “Men” konsepsiyasini shakllanishicha atrofdagi insonlarning ta’siri ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Chunki o‘smir shaxsida kattalik hissini tarkib topishi atrofdagilar bilan emosional munosabatlar tizimining qaror topishida, o‘z shaxsiga va o‘zgalarga nisbatan hurmat hissini oshishiga kattalarning ta’siri muhim hisoblanadi.

Hozirgi faoliyatga refleksiya o‘tmishdagi faoliyatga refleksiya bilan (r=0,20; r≤0,01) yuqori darajada ahamiyatlilik kuzatiladi. Har qanday inson hozirgi kundagi faoliyatidagi yutuq va muvaffaqiyatlariga o‘tmishdagi egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarisiz erisha olmaydi. Shu bois, hozirgi kundagi faoliyatlarimizda erishgan yutuqlarimizda o‘tmish tajribalarining o‘rni beqiyosdir.

Kelajakdagi faoliyatga refleksiya boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga refleksiya bilan (r=0,18; r≤0,05) ahamiyatli aloqadorlik kuzatiladi. Ma’lumki, shaxsni kelajakda amalga oshiriladigan faoliyat ko‘p hollarda atrofdagi insonlar bilan samarali hamkorlik qilishi hamda muloqot malakalarini tarkib topganligi bilan belgilanadi.

Metodika natijalaridan ko‘rish mumkinki, o‘smir shaxsida refleksivlikni rivojlanishi ulardagi muloqot malakalarini rivojlanganligi bilan taqazolanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Блонский, П. П. Психология и педагогика. Избранные труды / П. П. Блонский. — 2-е изд., стер. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 184 с.

2. Божович Л.И. Этапы формирования личности в онтогенезе // Вопросы психологии 1979, №4

3. Григорович М.В. Личностная рефлексия как фактов развития личности подростка [Текст] / М.В. Григорович // Молодой ученый- 2002 // - N6 Т.2. – с 92-94)

4. Линецкий Ю.М. Развития личностной рефлексии в подростковом возрасте М.: - 2004

5. Маралов В.Г. Основы самосознания и саморазвития студентов сред. пед. учеб. Заведений – М. Издательский центр «Академия», 2001

6. Мудрик А.В. Время поисков и решений, или старшеклассникам о них самих.- М.,1989

7. Поливанова К.Н. Психологическое содержание подросткого возраста // Вопросы психологии. – 2010. – N1. С 20-33

8. Шаров А.С. Ограниченный человек: значимость, активность, рефлексия: монография Омск: Издательство ОМТПУ 2000

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

SPORT KURASH TURLARIDA TEXNIKANING SAMARDORLIGI VA UNI OSHIRIB BORISHINING OPTIMAL USLUBLARI ASOSIDA BARQARORLIGINI SAQLASH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.202

Olimov Alisher Isaqovich *p.f.b.f.d. (PhD), dotsent*
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Sport turlarini o‘qitish metodikasi kafedrasi,
e-mail:olimovalisher6777@gmail.com
+998903116777
Toshpulatov Rustam Meliboyevich *mustaqil izlanuvchi,*
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti
Email:rtoshpulatov95@gmail.com
Tel: +99899 550 22 29

Annoyasiya. Mazkur ish sport kurash turlarida texnik harakatlarning samaradorligini ta’minlash, uni bosqichma-bosqich oshirib borish hamda musobaqa va mashg‘ulot jarayonida texnik barqarorlikni saqlashning optimal metodik asoslarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda kurashchilarning texnik tayyorgarligi darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, maxsus jismoniy sifatlar, funksional holat, koordinatsion qobiliyatlar hamda differensial yondashuv asosida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, texnik usullarni bajarish aniqligi va tezkorligini oshirish, ularning musobaqa sharoitida barqaror qo‘llanishini ta’minlashga qaratilgan innovatsion pedagogik va trening metodlari tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari sport kurashi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning texnik mahoratini takomillashtirish, mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish hamda yuqori sport natijalariga erishishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sport kurash turlari, texnika, yuklama, samaradorlik, sport tayyorgarligi, maxsus jismoniy sifatlar, differensial yondashuv.

Аннотация. Данная работа посвящена разработке оптимальных методических основ обеспечения эффективности технических приемов в спортивной борьбе, их постепенного наращивания и поддержания технической стабильности во время соревнований и тренировок. В исследовании проанализированы основные факторы, влияющие на уровень технической подготовки борцов, включая специальные физические качества, функциональное состояние, координационные способности, а также вопросы планирования тренировочных нагрузок на основе дифференцированного подхода с научной, теоретической и практической точек зрения. Также были

рекомендованы инновационные педагогические и тренировочные методы, направленные на повышение точности и скорости выполнения технических приемов и обеспечение их стабильного применения в условиях соревнований. Результаты исследования имеют большое практическое значение для повышения технических навыков спортсменов, занимающихся спортивной борьбой, оптимизации тренировочного процесса и достижения высоких спортивных результатов.

Ключевые слова: спортивная борьба, техника, нагрузка, эффективность, спортивная подготовка, особые физические качества, дифференцированный подход.

Abstract. This study focuses on developing optimal methodological foundations for ensuring the effectiveness of wrestling techniques, their gradual development, and the maintenance of technical stability during competitions and training. The study analyzed the key factors influencing wrestlers' technical proficiency, including specific physical qualities, functional state, and coordination abilities, as well as planning training loads based on a differentiated approach from scientific, theoretical, and practical perspectives. Innovative teaching and training methods aimed at improving the accuracy and speed of technical techniques and ensuring their consistent application in competition conditions were also recommended. The study's results have significant practical implications for enhancing the technical skills of wrestling athletes, optimizing the training process, and achieving high athletic results.

Keywords: wrestling, technique, load, efficiency, sports training, special physical qualities, differentiated approach.

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda so‘nggi yillarda dzyudochilarimiz Osiyo hamda jahon miqyosida tashkil etilayotgan va o‘tkazilayotgan musobaqalarda yuqori natijalarga erishib, O‘zbekiston bayrog‘ini yuqori cho‘qqilaraga ko‘tarishmoqda desak adashmagan bo‘lamiz. Sportchilarimiz aynan dzyudochilarimiz jamoasining xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki fikrimiz yaqqol dalilidir. “Sportga ishtiyoqi baland bo‘lgan, qobilyatli yosh sportchilarni aholi orasida aniqlash hamda ular orasida xalqaro va jahon sport maydonlarida munosib qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lgan professional dzyudochilarni tayyorlash metodikalari, mahorat va ko‘nikma malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy jismoniy tayyorgarlik dasturlari va usullarini amaliyotga joriy etish” borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda, yuqori harakatli mushak faoliyatini faolashtirishga qaratilgan metodikalar ham turlicha ko‘rinish olmoqda.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar va dzyudo amaliyotidagi ilg‘or pedagogik tajribalarni, ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, dzyudochilarning jismoniy harakatlari va jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash va ularni yanada rivojlantirish masalalariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan deb hisoblaymiz. Bu dzyudochilarni musobaqa oldi saralash va musobaqalarga mukammal jismoniy tayyorlash samaradorligini ilmiy asoslashga imkon bermaydi. Dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularni jismoniy sifatlarini yanada rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarining yetarli darajada olib borilmaganligi va yoritilmaganligi mazkur ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Tatqiqod maqsadi: Sport kurash turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarda texnik harakatlarning samaradorligini oshirish, ularni mashg‘ulot va musobaqa jarayonida barqaror qo‘llashni ta’minlovchi optimal pedagogik va metodik yondashuvlarni ilmiy asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tatqiqod vazifasi: Dzyudochilarning funksional holatiga, jismoniy sifatlarining rivojlanganlik holatiga, jismoniy tayyorgarlik darajalariga qarab jismoniy va maxsus tayyorgarligini yanada takomillashtirish orqali mashg‘ulotlar maxsus dasturini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi:

Texnika samaradorligi. Uni hal etilayotgan vazifalarga va yuksak oxirgi natijalarga mosligi hamda jismoniy, texnik, ma’naviy – ruhiy tayyorlanganlik darajasiga mosligi bilan aniqlanadi.

Shu sababli, yaxshi tayyorgarlikka ega sportchilarda tinch holatdagi YuQCH past bo‘ladi, ayniqsa tsiklik sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarda. Bunday sportchilar uchun dam olishdagi 55 urinish/min yurak urishi me’yoriy hisoblanadi, chunki ularning yuragi iqtisodiy rejimda ishlaydi. Ammo oddiy, sport bilan shug‘ullanmaydigan odamlarda bu holat bradikardiya deb baholanadi va kardiolog ko‘rigini talab qiladi.

V.B.Issurin, V.I.Lyaxlar 2019-yilda olib borilgan ilmiy izlanishlari asosida quydagi fikrlarni takidlashgan. Texnik harakat elementini oldindan rejalashtirilgan raqib qarshiligida bajarish nafaqat sport turiga xos bo‘lgan maxsus ko‘nikmani, balki umumjismoniy tayyorgarlikning ushbu mashqni bajarishga javob beruvchi komponentini ham kompleks tarzda rivojlantiradi.

Bu yondashuv hujumkor sport turlarida umumjismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarlik jarayonida faol qo‘llaniladi, chunki u sportchini real hujumkor vaziyatlarga yaqinlashtiradi va murakkab sharoitlarda harakatlarni avtomatik tarzda bajarish malakasini oshiradi [44; 208-b.].

N.A.Tastanovning fikricha, kurashchining jismoniy tayyorgarligi sport trenirovkasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va jismoniy sifatlar – kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir [61; 480-b.].

V.S.Rubin 2022-yildagi izlanishlarida mashaqqatli sport mashg‘ulotlarini samarali boshqarish vazifasi, avvalo, **yuklamalarni to‘g‘ri tasniflash tamoyillarini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq**. Aynan shu tamo-yillar asosida sport mashg‘ulotlari va musobaqalardagi yuklamalarni tartibli ravishda boshqarish imkonini beruvchi **axborot oqimlari shakllanadi va yo‘naltiriladi** [60; 188-b.].

Yuklamalar haqidagi ma’lumotlarni guruhlash xususiyati, demak, har bir axborot oqimining mazmuniy va ajralib turuvchi belgilari **asos qilib olingan tamo-yilga**, ya’ni **klassifikatsiyani belgilovchi hal qiluvchi qoidaga** bog‘liq bo‘ladi.

Samaradorlik — bu texnikaning harakat vazifasini hal qilish qobiliyatini ifodalaydi. Masalan, raqibni muvozanatdan chiqarish yoki yerga yotqizish. Samaradorlik inson organizmining eng asosiy yo‘naltirilgan funksiyasidir. Harakatlarni boshqarish mexanizmlari millionlab-yillar davomida omon qolish ehtiyojlari asosida shakllangan. Bugungi zamonaviy

dunyoda insonni mashq qilishga ko‘ndirish kerak bo‘ladi. Ammo yovvoyi tabiatda oziq-ovqat topish, xavfdan qochish, ko‘payish samarali harakat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Samaradorlik harakat vazifasining yechimini bildiradi. Bunda organizmning o‘ziga xos “qarashi” mavjud: u samaradorlikka qanday erishishni o‘zi belgilaydi.

Pereviskiy Ivan Sergeevich o‘zining ilmiy izlanishlarida hakamlikdagi subyektivlik (ya’ni, noto‘g‘ri yoki yon bosuvchi baholash) belgilari aniqlansa, malakali kurashchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun samarali metodika ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Bu metodika hakamlik subyektivligining yo‘nalishini aniqlashga doir nazariy bilimlarni va unga qarshi harakat qilishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Natijada, kurashchilarning musobaqadagi natijadorligi oshadi. Musobaqa qoidalariga kiritilgan o‘zgarishlar munosabati bilan birinchi marta hakamlar ballashuvni to‘xtatish yoki uzluksiz (og‘zaki yoki jismoniy) aralashuvga imkon beruvchi qoida punktlarining ko‘payish tendensiyasi aniqlab berildi. Musobaqa qoidalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda birinchi bor ballashuvdagi standart holatlar sonining ortishi, ushbu holatlardan bajarilgan texnik harakatlar sonining ko‘payishi hamda faqatgina standart holatlardagi texnikalar orqali erishilgan g‘alabalar sonining oshishi kabi tendensiyalar qayd etildi. Kurash jarayonidagi tipik vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan hakamlikdagi subyektivlik (noxolislik) belgilari birinchi marta aniqlanib, tizimlashtirildi. Hakamlik subyektivligini hisobga olgan holda kurashchilarni musobaqalarga tayyorlashning eksperimental metodikasi ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazildi, u o‘z ichiga hakamlik subyektivligini aniqlash bo‘yicha nazariy tayyorgarlik dasturlarini va unga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni qamrab oladi.

Emerson Franchini 2021-yildagi maqolasida quydagi fikrlarni bildirgan. Olimpiya o‘yinlaridagi eng an’anaviy qiziqarli sport turi sifatida dzyudo, ayniqsa, tikilgan medallar soni ko‘pligi tufayli juda ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, dzyudo qit’a musobaqalari (masalan, Panamerika o‘yinlari, Yevropa o‘yinlari, Osiyo o‘yinlari, Afrika o‘yinlari) va turli yosh guruhlari uchun jahon chempionatlarining bir qismi hisoblanadi (International Judo Federation, 2021). Yuqori malakali sportchilarni rivojlantirish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, eng yaxshi yondashuvni ta’minlash uchun ixtisoslashgan mutaxassislarni talab qiladi. Shu sababli, bu jarayonning narxi juda yuqori bo‘lishi mumkin va sport dasturlarini boshqaradiganlar qo‘llab-quvvatlashni qayerga, qanday va qachon yo‘naltirishni hal qilishlari kerak. Natijada, mamlakatlar o‘zlarining cheklangan resurslarini jozibadorligi yuqori bo‘lgan yoki sport siyosati uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sport turlariga optimallashtirishga harakat qiladilar. Shu nuqtai nazardan, ilmiy dalillar sportchining uzoq muddatli rivojlanish jarayonidagi muhim element sifatida keltirilgan [32; 7-12-b.].

F.I.Bobomurodov fikricha sport kurash turlarida an’anaviy ajratiladigan 4 ta faza o‘rniga, 5 ta faza ajratilib, birinchi faza sifatida, adabiyotlarda berilganidek, “ushlab olish” fazasi emas, balki “tik turish” fazasi ajratilgan. Bu fazani biz start kuchi rivojlanadigan start oldi holati sifatida baholadik. “Tik turish” holatining anatomik va biomexanikaviy tahlili amalga oshirilgan [9; 62-65-b.].

M.N.Shukurovning fikricha har qanday o‘quv jarayonlarining samarasi uning uchun yaratilgan pedagogik sharoitlarga bog‘liq. Buning uchun murabbiy zamonaviy innavatsion usullar bilan «qurollangan» bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot o‘tkaziladigan sport-kurashi zali talab darajasida moddiy-texnik ta’minot bilan shaylangan, kerakli jihoz va asbob-uskunalar bilan to‘ldirilgan hamda texnik sharoitlari o‘rganilgan, murabbiy va shug‘ullanuvchilar uchun o‘quv-mashg‘ulot jarayoni, sport pedagogikasiga xos yuqori saviyada tashkillashtirish asosiy maqsadga aylanishi kerak [64; 128-b.].

D.E.Lopez 2013-yilda quyidagi fikr bildirgan, murabbiylik jarayoni individual sportchilar yoki jamoaga samaradorlik haqida fikr-mulohaza bildirish orqali samaradorlikni oshirish haqida (James). Har qanday sport vaziyatida, ayniqsa, raqiblar mavjud bo‘lgan sportda. Murabbiylar uchun mashg‘ulot yoki o‘yin davomida sodir bo‘ladigan barcha asosiy voqealarni faqat sport haqidagi bilimlari va tug‘ma kuzatuv qobiliyatlari bilan jihozlangan holda payqash va eslab qolish qiyin, hatto imkonsiz ham emas (Coleman). Bu borada Tunnemanning ta’kidlashicha, «Yakkakurash sport turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni yanada oshirishning asosiy masalasi mashg‘ulot samaradorligini oshirishdir. Mashg‘ulotlarni samarali nazorat qilishning boshlang‘ich nuqtasi maqsadli ko‘rsatkichning tavsifi, samaradorlik prognoziga mos keladigan samaradorlik tuzilmasidir» [16; 183-b.].

A.A.Novikov 2012-yildagi o‘z monografiyasida sport kurashi — bu texnik mahorati yuqori bo‘lgan sportchilarning musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlaydigan sport turlaridan biridir. Shu sababli, kurash bo‘yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlarda turli usullarni bajarish texnikasini tahlil qilish masalasiga qadim zamonlardan to hozirgi kungacha katta e’tibor qaratib kelinmoqda [54;256-b.].

Hujum qilayotgan kurashchining harakat tarkibini tavsiflash masalasi eng to‘liq va chuqur tarzda V.Ya.Shumilinning dissertatsion ishida hamda A.A.Novikovning tadqiqotida yoritilgan. Avval aytilganidek, har qanday usul texnikasini tahlil qilgan mualliflar tomonidan bosqichli (fazali) tuzilish masalasi albatta ko‘rib chiqilgan. Shunga qaramay, hozirgi kunga kelib bu masalada aniq, umum qabul qilingan fikr mavjud emas [53; 62-b.].

K.N.Murodovning tadqiqot xulosasi quydagicha bo‘ldi, dunyoda odam tanasi funksiyalarini aniqlaydigan maxsus sport kastyumlari olimlar tomonidan ixtiro qilingan va foydalanib kelinmoqda. Biroq aynan sport kurashiga mo‘ljallangan, kurashchilarni mushak kuchini darajasini aniqlovchi “Smart sportswear” singari sport kastyumlari olimlar nazaridan bir ozgina chetda qolganligi tadqiqot davomida o‘rganilib chiqildi [17; 20-23-b.].

Sh.A.Arslanov o‘tkazilgan tadqiqotida postural muvozanatni va postural mushaklar kuchini yaxshilashga qaratilgan ishlab chiqilgan mashq usuli kurashchilarning jismoniy tayyorgarligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqidagi farazni tasdiqladi. Tadqiqotning asosiy xulosalari ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega: Postural barqarorlik bellashuv san’atida yuqori atletik ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi eng muhim omil hisoblanadi. Biroq, bellashuv san’atkorlarida muvozanatni saqlash mexanizmlari va postural muvozanatni rivojlantirish xususiyatlari chuqurroq o‘rganishni talab qiladi. Sportni takomillashtirish bosqichida kurashchilarni tayyorlash jarayonida postural muvozanatni yaxshilash masalalari yetarli darajada ilmiy o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi [5; 17-20-b.].

XULOSA

Mazkur bobda sport kurash turlarida, xususan dzyudo kurashida sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish masalalariga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ko‘p yillik ilmiy-tadqiqot ishlari, nazariy qarashlari va eksperimental natijalari tizimli tahlil qilindi. O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sport kurashida yuqori sport natijalariga erishish faqatgina jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi bilan emas, balki texnik-taktik mahoratning mukammalligi, harakatlarning biomexanik jihatdan samaradorligi, ularning variativligi, tejamkorligi va musobaqaviy ishonchliligi bilan bevosita bog‘liqdir.

L.P. Matveyev, V.N. Platonov, A.A. Novikov, Yu.N. Tixomirov, V.I. Lyax va boshqa yetakchi mutaxassislarning ilmiy qarashlari sportchining texnik tayyorgarligi umumiy harakat tajribasi, koordinatsion imkoniyatlari hamda konditsion (jismoniy va funksional) tayyorgarligi bilan uzviy aloqada shakllanishini asoslab beradi. Shu bilan birga, texnik harakatlarning samaradorligi hujumkor sport turlarida mazmunli motor vazifalarni hal qilish qobiliyati orqali namoyon bo‘lib, kurashda bu vazifa raqibni muvozanatdan chiqarish, uning fazoviy holatini o‘zgartirish va uni nazorat ostiga olish bilan tavsiflanadi. A.A. Novikov tomonidan taklif etilgan semantik motor vazifalar konsepsiyasi texnik harakatlarni baholashda obyektiv mezon sifatida xizmat qilishi mumkinligi bilan alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnik-taktik tayyorgarlikning samaradorligi sportchilarning morfofunksional xususiyatlari, yoshga xos rivojlanish qonuniyatlari, musobaqa qoidalari va shartlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Yu.N. Tixomirov, N.Yu. Nerobeev, A.A. Primbetov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar yosh sportchilarning hayotiy indeksi, mushak kuchi, chidamliligi va funktsional holatini hisobga olgan holda yuklamalarni differensiallash texnik-taktik mahoratni rivojlantirishda muhim omil ekanligini isbotlaydi. Ayniqsa, 13–17 yoshli dzuyudo kurashchilarida tik turgan holatda bajariladigan hujumkor harakatlar arsenali, musobaqa faolligi va kombinatsion texnikalarning shakllanishi sport mahoratini oshirishning yetakchi ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda texnik harakatlarning fazali tuzilishi, ularning biomexanik, biodinamik va energetik ta’minoti masalalariga yetarlicha e’tibor qaratilgan bo‘lib, harakatlar tizimini samarali tashkil etish va undan ratsional foydalanish sportchining energiya tejamkorligini oshirish, charchoq sharoitida texnik ishonchlilikni saqlab qolish imkonini beradi. Texnika variativligi va moslashuvchanligi sportchining musobaqa sharoitlariga tezkor moslashuvi, raqib qarshiligiga adekvat javob qaytarishi va noan’anaviy vaziyatlarda samarali harakatlanish qobiliyatini belgilovchi muhim mezon sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sport kurashida texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi, ya’ni u jismoniy, funksional, psixologik va metodik tayyorgarlik komponentlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi lozim. Motivatsiya, musobaqaviy ishonchlilik, hakamlik subyektivligiga moslashish, psixologik barqarorlik va emotsional holatlarni boshqarish sportchilarning yuqori natijalarga erishishida muhim omillar sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, mashg‘ulot jarayonida

yuklamalarni ilmiy asosda rejalashtirish, ularni modellashtirish va nazorat qilish zamonaviy sport trenirovkasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sport kurash turlarida, xususan yunon-rim kurashida texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirish masalasi ko‘p omilli, murakkab va tizimli yondashuvni talab etuvchi ilmiy-amaliy muammo bo‘lib, u sportchining individual xususiyatlari, yosh davri, morfofunksional holati va musobaqa faoliyati talablariga mos holda tashkil etilgandagina yuqori sport natijalarini ta’minlaydi. Mazkur bobda keltirilgan ilmiy qarashlar va tadqiqot natijalari keyingi boblarda eksperimental metodikani ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash uchun mustahkam nazariy-uslubiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арсланов Ш.А. Совершенствование Постурального Баланса И Координационных Способностей Квалифицированных Дзюдоистов. //Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети. Фан-Спортга журнали. Чирчиқ. 2024. - 8-сон. - Б.17-20.

2. Бобомуродов Ф.И. Курашчиларнинг морфологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда техник-тактик ҳаракатларини такомиллаштириш. //Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети. Фан-Спортга журнали. Чирчиқ. 2024. - 6-сон. - Б.62-65.

3. Emerson Franchini – future issues in wrestling research - a sport sciences perspective: International journal of wrestling science. 2021 - №11 - pp.7-12.

4. Иссурин В. Б, Лях В. И. Координационные способности спортсменов. В. Б.Иссурин, В. И. Лях; пер. с англ. И. В. Шаро-– М.: Спорт, 2019.–208 с.

5. Муродов К.Н. Спорт курашида “смарт спорцweap” орқали спортчиларнинг мушак кучи даражасини аниқлаш ва махсус тренажёрлар ёрдамида ривож лантириш технологияси. //Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети. Фан - Спорт журнали. 2023. - 3–сон. - Б.20-23.

6. Lopez D.E.– Technical-tactical combinations characterization model freestyle wrestling, standing position: International journal of wrestling science. 2010-183 p.

7. Новиков Александр Александрович. Педагогические основы технико-тактического мастерства в спортивных единоборствах: На примере спортивной борьбы: диссертация ... доктора педагогических наук в форме науч. докл.: 13.00.04.- Москва, 2000. - 62 с.

8. Новиков А. А. Основы спортивного мастерства: монография / А. А. Новиков. – 2-е изд., перераБ.и доп. – М.: Совецкий спорт, 2012. – 256 с.

9. Рубин В. С. Олимпийский и годичные циклы тренировки. Тео рия и практика/ В. С. Рубин. - 3-е изд., испр. и доп. - М.: ООО «Торговый дом «Совецкий спорт», 2022. – 188 с.

10. Шукуров М.Н. Курашчиларни техник ҳаракатларга ўргатишда кластер услубидан фойдаланишни такомиллаштириш: // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори: дисс..., Чирчиқ.: ЎзДЖТСУ, 2020. - 128 б.

11. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariuasi va uslubiuati. Darslik “Sano-standart” Toshkent. 2017. - 480 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

SPORT O‘YINLARI VOSITASIDA O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA BARQAROR XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.203

Tuychiyev Ashurali Ibragimovich
ORCID ID-0000-0001-8880-1651
Farg’ona davlat universiteti Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD
ashurbek2000@gmail.com

Annotatsiya.Mazkur maqolada sport o‘yinlari vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Asarda o‘smirlik davrining psixologik-pedagogik xususiyatlari, ushbu yosh bosqichida shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor barqarorligining shakllanish jarayonlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sport o‘yinlari, o‘smir yosh, barqaror xulq-atvor, jismoniy tarbiya, pedagogik yondashuv, nazariy-metodologik asoslar, jamoaviylik, intizom, mas’uliyat, ijtimoiy moslashuv, irodaviy sifatlar, tarbiyaviy jarayon, sport pedagogikasi, motivatsiya, shaxs kamoloti.

KIRISH.Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda yoshlar ongiga turli ijtimoiy ta’sirlarning kuchayishi sharoitida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va mas’uliyatli bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda shaxsning qadriyatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va xulq-atvor modeli shakllanadi. Agar ushbu jarayon maqsadli va ilmiy asosda tashkil etilmasa, turli salbiy omillar ta’sirida o‘smir shaxsida beqarorlik, intizomsizlik yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Sport o‘yinlari esa o‘smir shaxsini har tomonlama rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Jamoaviy sport o‘yinlari o‘quvchilarda intizom, mas’uliyat, o‘zaro hurmat, hamkorlik, qat’iyat va iroda kabi sifatlarni shakllantiradi. Sport jarayonida o‘quvchi nafaqat jismoniy chiniqadi, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, o‘z xatti-harakatini nazorat qilishni o‘rganadi, qoidaga bo‘ysunish va jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish ko‘nikmasini egallaydi. Shu jihatdan sport o‘yinlari o‘smirlar xulq-atvorini barqarorlashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi jamiyatda sog‘lom, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol yosh avlodni tarbiyalash zarurati bilan belgilanadi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari faqat jismoniy rivojlanishni emas, balki ularning ma’naviy-axloqiy kamolotini ham ta’minlashi lozim. Shuning uchun sport o‘yinlari vositasida barqaror xulq-atvorni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning maqsadi – sport o‘yinlari vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish va uni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Vazifalar sifatida o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini o‘rganish, sport o‘yinlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, pedagogik shart-sharoitlarni asoslash hamda samarali metod va vositalarni tavsiya etish ko‘zda tutilgan.

Sport o‘yinlari orqali barqaror xulq-atvorni shakllantirish metodlari

Metod nomi	Tavsifi	Amaliy qo‘llanilishi	Shakllanadigan xulq-atvor / ijtimoiy-psixologik sifat
Jamoaviy o‘yinlar metodi	O‘quvchilarni jamoa bilan birgalikda harakat qilishga o‘rgatadi	Futbol, voleybol, basketbol kabi o‘yinlar	Jamoaviylik, hamkorlik, mas’uliyat
Musobaqa metodi	O‘quvchilarni qoidalar asosida raqobatlashishga o‘rgatadi	Mini-turnirlar, rel’eli o‘yinlar	Intizom, adolat, irodaviy barqarorlik
Simulyatsiya / rolli o‘yinlar	Haqiqiy vaziyatlarni o‘yin shaklida aks ettiradi	Vaziyatli o‘yinlar (masalan, “sportchilar jamoasi rahbari”)	Qaror qabul qilish, javobgarlik, boshqaruv qobiliyati
Reflektiv metod	O‘quvchilarga o‘z harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi	Mashg‘ulotdan keyingi muhokama, o‘zini baholash	Refleksiya, ongli xatti-harakat, shaxsiy javobgarlik
Motivatsion metod	Mashg‘ulotlarda rag‘batlantirish orqali faoliyatni oshiradi	Mukofot tizimi, baholash, rag‘batlantiruvchi o‘yinlar	Ijobiy xulq, ishtiyoq, o‘zini rivojlantirish istagi
Individual yondashuv	Har bir o‘quvchining qobiliyat va xususiyatlariga moslashadi	Mashg‘ulotlarni intensivlik, murakkablik va rolda moslashtirish	Shaxsiy javobgarlik, o‘zini boshqarish, o‘ziga ishonch

Mazkur ish natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, trenerlar, pedagogika yo‘nalishi talabalari hamda yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun samara beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sport o‘yinlari vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va jismoniy tarbiya nazariyasida muhim ilmiy

yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganilgan. Mazkur muammo shaxs tarbiyasi, ijtimoiylashuv jarayoni hamda jismoniy faoliyatning tarbiyaviy imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shaxs rivojlanishining psixologik asoslari borasida L. S. Vygotsky o‘zining madaniy-tarixiy nazariyasida bolaning ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishini asoslab bergan. Uning fikricha, shaxs xulq-atvori va ongining rivojlanishi ijtimoiy faoliyat jarayonida yuz beradi. Bu jihat sport o‘yinlarining jamoaviy xarakteri orqali o‘smir xulq-atvorini shakllantirish imkoniyatini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari D. B. Elkonin va A. N. Leontiev tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Ular faoliyat nazariyasi doirasida o‘smirlik davrida yetakchi faoliyat turi sifatida muloqot va jamoaviy faoliyatning ahamiyatini ko‘rsatib berganlar. Sport o‘yinlari aynan shunday faoliyat turi bo‘lib, o‘smirlarning ijtimoiy tajribasini boyitadi hamda barqaror xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasida P. F. Lesgaft jismoniy mashqlarning shaxs ma’naviy kamolotiga ta’sirini ilmiy asoslab bergan. U jismoniy tarbiyani nafaqat tanani, balki irodani va axloqiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida baholagan. Bu yondashuv sport o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda sport faoliyatining ijtimoiy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi o‘rni keng o‘rganilmoqda. Xususan, Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, shaxs xulq-atvori kuzatish, taqlid va mustahkamlash orqali shakllanadi. Sport o‘yinlari jarayonida murabbiy va tengdoshlar namunasi o‘smirlar xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy pedagogika va jismoniy tarbiya metodikasiga oid adabiyotlarda ham sportning tarbiyaviy imkoniyatlari keng yoritilgan. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan jismoniy tarbiya jarayonida intizom, mas’uliyat, jamoaviylik va vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ularning tadqiqotlarida sport o‘yinlari shaxsni ijtimoiy jihatdan moslashtiruvchi va barqaror xulq-atvorni rivojlantiruvchi vosita sifatida baholanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy manbalarda sportning tarbiyaviy ahamiyati keng yoritilgan bo‘lsa-da, aynan sport o‘yinlari vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va ularni amaliy metodik tavsiyalar bilan boyitishga qaratilgan.

Tadqiqotning nazariy metodlari sifatida ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, sport pedagogikasi va jismoniy tarbiya nazariyasiga oid manbalar, jumladan, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy hamda P.F. Lesgaft kabi olimlarning tarbiya va jamoaviy faoliyatga oid qarashlari o‘rganildi. Ularning shaxsni jamoada tarbiyalash, intizom, mas’uliyat va irodaviy sifatlarni shakllantirish haqidagi g‘oyalari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so‘rovi, test sinovlari hamda pedagogik tajriba (eksperiment) metodlari qo‘llanildi. Kuzatish metodi orqali sport o‘yinlari jarayonida o‘smirlarning xulq-atvori, jamoada o‘zini tutishi, intizomi va ijtimoiy

faolligi o‘rganildi. Suhbat va anketa yordamida o‘quvchilarning sportga munosabati, motivatsiyasi hamda o‘zini baholash darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov natijalari jadvali

Guruh / yosh	Sinov turi	Boshlang‘ich natija	Tajriba davomida natija	O‘zgarish (natija – boshlang‘ich)	Izoh / kuzatuv
11-12 yosh, o‘g‘il	10 m yugurish (s)	2,5 s	2,2 s	-0,3 s	Tezlik ko‘rsatkichlari oshdi
11-12 yosh, qiz	10 m yugurish (s)	2,6 s	2,3 s	-0,3 s	Harakat muvofiqligi yaxshilandi
11-12 yosh, o‘g‘il	100 m yugurish (m)	602,3 m	884,3 m	+282 m	Chidamlilik sezilarli oshdi
11-12 yosh, qiz	100 m yugurish (m)	454 m	715,3 m	+261,3 m	Barqaror xulq va intizom rivojlandi
11-12 yosh, o‘g‘il	To‘pni ushlash / pass berish	45% muvaffaqiyat	78% muvaffaqiyat	+33%	Hamkorlik va jamoaviylik yaxshilandi
11-12 yosh, qiz	To‘pni ushlash / pass berish	42% muvaffaqiyat	75% muvaffaqiyat	+33%	Xulq-atvor va ijtimoiy fazilatlar rivojlandi

Pedagogik tajriba metodi orqali sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi kabi jamoaviy o‘yinlar) vositasida barqaror xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Tajriba natijalari tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarini taqqoslash orqali baholandi.

Matematik-statistik metodlar yordamida olingan natijalar qayta ishlanib, foiz ko‘rsatkichlari, o‘rtacha arifmetik qiymatlar hamda dinamik o‘zgarishlar aniqlandi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

Shuningdek, pedagogik modellashtirish metodi asosida sport o‘yinlari orqali o‘smirlar xulq-atvorini shakllantirishning nazariy-metodologik modeli ishlab chiqildi.

Sport o‘yinlari vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirish muammosining yechimi sport mashg‘ulotlarini maqsadli pedagogik jarayon sifatida tashkil etishga bog‘liqdir. Bunda sport o‘yinlari nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish vositasi, balki o‘quvchilarda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish omili sifatida qaraladi. Mashg‘ulotlar jarayonida jamoaviylik, intizom, mas’uliyat, o‘zaro hurmat, irodaviy barqarorlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini ongli ravishda tarbiyalash zarur.

Muammoning samarali yechimi uchun avvalo sport jamoasida sog‘lom ma’naviy-psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi yoki murabbiy shaxsiy namunasi bilan o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishi, adolatli baholash va rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yishi lozim. Jamoaviy faoliyat orqali shaxsni tarbiyalash g‘oyasi pedagogika

tarixida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, bu borada A.S. Makarenko tomonidan ilgari surilgan jamoada tarbiyalash konsepsiyasi amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sport o‘yinlari, ayniqsa jamoaviy o‘yinlar, o‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ular orasida hamkorlik, o‘zaro yordam va mas’uliyat hissini mustahkamlaydi. O‘yin jarayonida tezkor qaror qabul qilish, nizoli vaziyatlarni hal etish, sheriklarning manfaatini hisobga olish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa o‘smirning xulq-atvorida barqarorlik, o‘zini tutish madaniyati va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

Shuningdek, sport mashg‘ulotlarida motivatsiyani to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. Musobaqa elementlari, jamoaviy muvaffaqiyatni baham ko‘rish, shaxsiy natijalarni yaxshilashga intilish o‘quvchilarda ijobiy xulqiy fazilatlarni mustahkamlaydi. Mashg‘ulot yakunida o‘zini baholash va jamoaviy tahlil o‘tkazish orqali o‘quvchilarda refleksiya ko‘nikmasi rivojlanadi, bu esa xatti-harakatni ongli boshqarishga yordam beradi.

Shunday qilib, sport o‘yinlarini maqsadli pedagogik boshqaruv asosida tashkil etish, tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash va ijtimoiy muhitni to‘g‘ri shakllantirish orqali o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni samarali shakllantirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sport o‘yinlari o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirishda nafaqat samarali pedagogik vosita, balki shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Sport o‘yinlari bolalarga jismoniy sifatlarini – kuch, chidamlilik, tezlik, chaqqonlik va egiluvchanlikni – rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular o‘quvchilarni qoidalarga rioya qilish, vazifalarni bajarish va jamoa bilan hamkorlik qilish orqali intizom, mas’uliyat, o‘zaro hurmat, irodaviy barqarorlik, o‘zini boshqarish va qaror qabul qilish kabi muhim ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Sport o‘yinlarining pedagogik ahamiyati shundaki, ular nafaqat shaxsiy qobiliyatlarni, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Masalan, jamoaviy o‘yinlar o‘quvchilarda hamkorlikni, o‘zaro yordamni va qarama-qarshi vaziyatlarda to‘g‘ri xulqni rivojlantiradi. Musobaqaviy vaziyatlar esa irodaviy chidamlilikni, ruhiy barqarorlikni va xotirjamlikni oshiradi. Shu tariqa, sport o‘yinlari orqali o‘smir shaxsining ijtimoiy moslashuvi mustahkamlanadi, ular jamiyatda faol va javobgar fuqarolar sifatida shakllanadi.

Shu bois, sport mashg‘ulotlarini maqsadli pedagogik yondashuv asosida tashkil etish, tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash va murabbiy hamda o‘qituvchining ongli boshqaruvi juda muhimdir. Pedagogik jarayon davomida o‘quvchilar uchun mashqlar va o‘yinlar maqsadga muvofiq tanlanishi, ularning qobiliyatlari va yosh xususiyatlariga moslashtirilishi, hamda mashg‘ulotning nazariy va amaliy jihatlari uyg‘unlashtirilishi lozim.

Shunday tartibda tashkil etilgan sport mashg‘ulotlari o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi, ularni ijtimoiy jihatdan yetuk, ruhiy va jismonan barkamol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Natijada, sport o‘yinlari nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik barqarorlikni mustahkamlashda ham samarali vosita bo‘lib qoladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, A. (2022). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.

2. Koshbaxtiyev, I.A., Kerimov, F.A., Akhmatov, M.S. (2005). Valeologiya asoslari: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan.

3. Sechenov, I.I. (1991). Optimistik etyudlar. Moskva: Nauka.

4. Lamark, J. (1809). Zoologik falsafa. Parij: Dentu.

5. Lesgaft, P.F. (1911). Jismoniy tarbiya va inson tanasi. Sankt-Peterburg: Imperator akademiyasi matbaasi.

6. Pavlov, I.P. (1927). Fiziologiya bo‘yicha tanlangan asarlar. Moskva: Fan Akademiyasi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2016). Bolajon: Maktabgacha ta’lim davlat dasturi. Toshkent: Ta’lim vazirligi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2018). Ilk Qadam: Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun davlat o‘quv dasturi. Toshkent: Ta’lim vazirligi.

9. Mogendovich, M.R. (1988). Motor-visseral reflekslar va funksional tayyorgarlik. Moskva: Tibbiyot.

10. UNICEF & UNESCO. (2019). Bolalar rivojlanishi va jismoniy faollik bo‘yicha tavsiyalar. Nyu-York: BMT.

11. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). (2020). 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun jismoniy faollik, sedentarlik va uyqu bo‘yicha ko‘rsatmalar. Jeneva: WHO.

12. Shukurova, M., Tursunov, A. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat rivojlanishini innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan va ta’lim.

13. Abdullayeva, L. (2020). Pedagog-mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari. Toshkent: Pedagogika tadqiqotlari jurnali.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

YENGIL ATLETIKA SOG'LOM AVLODNI TARBIYALASH VOSITASI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.204

Bekmuradova Gulnora O‘ktamovna
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti Qurolli Kuchlar Xizmatchisi JT va Sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yengil atletika sport turining yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Yengil atletika bilan muntazam shug‘ullanish inson organizmining jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kuch, tezlik, chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu sport turi yoshlarning intizomli bo‘lishi, iroda va maqsadga intilish kabi fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: yengil atletika, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy rivojlanish, yoshlar salomatligi, sport tarbiyasi, chidamlilik, jismoniy faollik, barkamol avlod.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль лёгкой атлетики в воспитании здорового и гармонично развитого молодого поколения. Регулярные занятия лёгкой атлетикой положительно влияют на физическое развитие организма человека, развивая такие качества, как сила, скорость и выносливость. Кроме того, этот вид спорта способствует формированию у молодёжи дисциплинированности, силы воли и стремления к достижению поставленных целей.

Ключевые слова: лёгкая атлетика, здоровый образ жизни, физическое развитие, здоровье молодёжи, спортивное воспитание, выносливость, физическая активность, гармонично развитое поколение.

Annotation. This article examines the role of athletics in raising a healthy and well-rounded younger generation. Regular participation in athletics has a positive effect on the physical development of the human body, helping to develop qualities such as strength, speed, and endurance. At the same time, this sport helps young people develop discipline, willpower, and determination to achieve their goals.

Key words: athletics, healthy lifestyle, physical development, youth health, sports education, endurance, physical activity, well-rounded generation.

Kirish. Ta’lim tizimining bugungi rivojlanish jarayonida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda yoshlar orasida kamharakat turmush tarzining keng tarqalishi hamda turli sog‘liq muammolarining ko‘payishi jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Turli mashqlar va sport faoliyatlarini o‘z ichiga olgan yengil atletika esa ushbu vazifani amalga oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada yengil atletika

mashg‘ulotlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali yoshlarning jismoniy va ma’naviy jihatdan har tomonlama rivojlanishiga qo‘shadigan hissasi tahlil qilinadi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar jismoniy faollik bilan o‘quvchilarning akademik natijalari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarga ko‘ra, yengil atletika bilan muntazam shug‘ullanish nafaqat jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiradi, balki aqliy faoliyat, diqqatni jamlash qobiliyati va umumiy o‘quv yutuqlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalarida sport faoliyatini samarali tashkil etish esa puxta rejalashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, yengil atletikani o‘quv dasturlariga kiritish, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tizimli tashkil etish, sinfdan tashqari sport to‘garaklarini rivojlantirish hamda mahalliy sport tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion o‘qitish metodlaridan foydalanish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini yanada samarali, qiziqarli va talabalarga yanada jozibador qilish imkonini beradi.

Metod

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yengil atletika mashg‘ulotlarining yosh avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashdagi hamda ularni jismonan barkamol etib tarbiyalashdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot davomida avvalo nazariy tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida jismoniy tarbiya, sport pedagogikasi hamda yengil atletika bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar va metodik tavsiyalar o‘rganilib, ularning mazmuni tahlil qilindi. Bu esa mavzu bo‘yicha nazariy asoslarni shakllantirish imkonini berdi.

Shuningdek, pedagogik kuzatish metodi qo‘llanilib, yengil atletika mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki, jismoniy faolligi hamda mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqish darajasi kuzatildi. Kuzatish natijasida mashg‘ulotlarning o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba metodi ham muhim o‘rin egalladi. Tajriba davomida yengil atletika elementlariga asoslangan mashqlar majmuasi amaliyotga joriy etilib, o‘quvchilarning tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va kuch kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganildi. Bundan tashqari, so‘rovnoma va suhbat metodlari orqali o‘quvchilarning sportga bo‘lgan munosabati, yengil atletika mashg‘ulotlariga qiziqishi hamda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qarashlari haqida ma’lumotlar to‘plandi. Olingan natijalarni qayta ishlash va umumlashtirish jarayonida statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida tadqiqot davomida olingan ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, yengil atletika mashg‘ulotlarining sog‘lom avlodni tarbiyalashdagi samaradorligi asoslab berildi.

Natijalar

Tadqiqot jarayonida yengil atletika mashg‘ulotlarining yoshlar salomatligi va jismoniy rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, muntazam ravishda yengil atletika bilan shug‘ullangan o‘quvchilarda jismoniy tayyorgarlik darajasi ancha yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, yugurish tezligi, sakrash ko‘rsatkichlari hamda umumiy chidamlilik darajasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, yengil atletika mashg‘ulotlari o‘quvchilarning organizm faoliyatiga ham foydali ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, yurak-qon tomir tizimi faoliyati yaxshilandi, nafas olish imkoniyatlari kengaydi va umumiy jismoniy faollik darajasi oshdi. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarda tezkorlik, epchillik, kuch va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarning rivojlanishi qayd etildi. Shuningdek, yengil atletika bilan muntazam shug‘ullanish yoshlarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Sport jarayonida o‘quvchilarda intizom, maqsadga intilish, sabr-toqat va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllandi. Bu esa ularning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham kamol topishiga xizmat qiladi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim muassasalarida yengil atletika mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur sport turi yoshlarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash bilan birga, ularning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Mulohaza

Yengil atletika yoshlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va ularni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. U quyidagi yo‘nalishlarda foyda keltiradi. Jismoniy tayyorgarlik: Yengil atletika kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik va umumiy jismoniy holatni yaxshilashga yordam beradi. Muntazam mashg‘ulotlar semirish xavfini kamaytiradi va sog‘lom tana vaznini saqlashga ko‘maklashadi. Harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish: Sport nozik va qo‘pol motor qobiliyatlarni oshirish, koordinatsiya va muvozanatni yaxshilash imkonini beradi. Jamoaviy ish va hamkorlik: Ko‘pgina sport mashg‘ulotlari jamoaviy xarakterga ega bo‘lib, yoshlarni birgalikda ishlashga, umumiy maqsad sari harakat qilishga o‘rgatadi. Intizom va vaqtni boshqarish: Yengil atletika mashg‘ulotlari qat’iyat va intizomni rivojlantiradi, vaqtni samarali rejalashtirishni o‘rgatadi. Chidamlilik va qat’iyatlilik: Sport jarayonida qiyinchilik va muvaffaqiyatsizliklarga duch kelish yoshlarni sabr-toqatli bo‘lishga va to‘siqlarni yengishga o‘rgatadi. Ijtimoiy ko‘nikmalar: Sport yoshlarni tengdoshlar, murabbiylar va raqiblar bilan samarali muloqot qilishga o‘rgatadi, shaxslararo munosabatlarni rivojlantiradi. Stressni kamaytirish: Jismoniy faollik endorfin ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va ruhiy salomatlikni yaxshilaydi. Sog‘lom turmush tarzi odatlari: Yengil atletika to‘g‘ri ovqatlanish, yetarli uyqu va zararli odatlardan cheklanish kabi sog‘lom hayot tarzini shakllantiradi. Maqsad qo‘yish va unga erishish: Sportchilar aniq maqsadlar qo‘yadi va ularga erishish jarayonida muvaffaqiyat hissini his qiladi, bu esa shaxsiy motivatsiyani oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimiga yengil atletikani integratsiya qilish sog’lom va barkamol avlodni shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko’rsatadiki, bu sport turi nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki yoshlar ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham foyda keltiradi. Sport dasturlarining samaradorligini oshirish uchun mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish, shuningdek, inklyuziv va teng imkoniyatlar yaratish zarur. Shu bilan birga, sport infratuzilmasini rivojlantirish, jismoniy tarbiya o’qituvchilarining malakasini oshirish va jamoatchilikni faol jalb qilish kabi choralar samarali natijalar beradi. Umuman olganda, yengil atletika orqali sog’lom avlodni tarbiyalash kompleks va hamkorlikni talab qiladi. Ta’lim muassasalari, siyosiy rahbarlar va keng

jamoatchilikning birgalikdagi sa’y-harakatlari nafaqat yoshlarning farovonligini oshiradi, balki kelajakda barqaror va sog’lom jamiyatni yaratishda muhim poydevor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Usmonxo‘jayev T.S. va boshq. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. T: o‘qituvchi. 2005

2. Amanda L. Bug'doy Kevin T. Larkin (2010). Yurak urishining o'zgaruvchanligi va unga bog'liq fiziologiyaning biofeedback: tanqidiy sharh. Appl Psychophysiol Biofeedback 35: 229-242.

3. Bler SN, Morris JN (2009) Sog'lom yurak va jismoniy faol bo'lishning universal foydalari: Jismoniy faollik va sog'liq. Ann Epidemiol 19: 253-256.

4. Capdevila, L (2005) Jismoniy faollik va sog'lom turmush tarzi. Jirona: Universitet hujjatlari.

5. Pintanel, M., Capdevila, Ll., Va Ninerola, J. (2006) Jismoniy faoliyat va sog'liq psixologiyasi: amaliy qo'llanma. Jirona: Universitet hujjatlari.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASHNING ASOSIY PRINSIPLARI.

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.205

Dexkonov Boxodir Burxonovich
QDU dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Bugungi kunda yosh futbolchilarning o’quv-mashg’ulot jarayonidagi jismoniy tarbiya va sport soxasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shaxar va qishloqda zamonaviy talabalarga javob beradigan psixologik tayyorgarligi.

Kalit suzlar: futbol, uzoq, yillar, sportch, psixologik, kuch, va, tezkorlik, chidamkorligi, yosh, musobaqa, chiqish, maqsad, vazifalari.

Kirish. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport soxasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shaxar va qishloqda zamonaviy talabalarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jixozlangan sport maydonchalari,inshoot va majmualarni barpo etish bo’yicha amalga oshirayotganishlarimiz o’ziningijobiy samarasini bermoqda. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashning ilmiy uslublari asosida, ularni har tomonlama rivojlantirish va ta’lim berishda psixologiya fani yetakchi o’rinni egallaydi.

Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki,istiqlol yillarida yurtimizda 1 ming 200 dan ziyod yangi sporot inshooti barpo etilib, ularning mingdan ortig’i qishloq joylarida qurildi. Bu esa 260 ming nafardan ziyod bolang’ich sportning ko’plab turlari bilan muntazam shug’ullanishi uchun imkoniyat yaratdi.

Qiz bolalarni, eng avvalo, qishloq qizlarini sport bilan shug’ulanishga jalb etishda joriy yilda sezilarli natijalarga erishildi. “Sport xayotidan hech kim chetda qolmasligi kerak” degan shiordan kelib chiqqan holda, kam ta’minlangan oilalarning 120 ming nafar qizlari uchun 3 milliard 500 million so’mlik sport kiyimi va jixozlari xarid qilindi. Yana bir muxim xolatga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Mamlakatimizda badiiy gimnastikani rivojlantirish dasturi qabul qilingach sportning ushbu nafis turi bilan shug’ullanadigan qizlar soni shu yilning o’zida 6 - 7 barobar, ayrim viloyatlarda esa 10 - 12 barobar ortdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar:

R.N.Poliyani fikriga ko’ra 8-9 yoshli bolalarda tezkor-kuch va chaqqonlik sifatlarining o’sishi kuzatiladi. Tezkorlik va egiluvchanlik qobiliyati esa biroz susayadi. 15-15 yoshda egiluvchanlik va tezkorlik kuchini rivojlantirishga oid hajmini ko’tarish maqsadga muvofiq. Ushbu fikrni V.F.Bashkirov, V.P.Filinlar ham qullab-quvvatlaganlar. I.Arshavskiy, Ya.V.Vaynbaum, A.Tujalavskiy va boshqalar yosh sportchilarning funktsional tayyorgarligini

ilmiy tekshirish nitajasida jismoniy mashqlar organizmning rivojlanishida hal qiluvchi rol o’ynashi tasdiqlangan.

V.S.Daxnovenkiy va boshqalar tezkor kuch va maxsus chidamkorlik sifatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlar bilan uzoq muddat mabaynida muntazam shug’ullanish natijasida kurashchilarning texnik-taktik mahorati hamda boshqa qobiliyatlari qanchalik sezilarli darajada shakllanish mumkinligini tadqiqot asosidaisbot qilib bergan. Kuch va tezkorlikni chidamkorligi sportchilarni yosh sportchilarni juda extiyotkorlik bilan rivojlantirish zarurligi katta yuklamaga ega mashqlar bilan bu sifatlarni zo’rma-zo’raki o’stirishgaintilish salbiy oqibatlarga olib kelish extimolidan xoli emasligi alohida ta’kidlab o’tilgan (A.R.Akromov, M.A.Godip, SH.T.Iseev, G.M.Sergeev, R.I.Nurimova, S.A.Savin va boshqalarining o’quv uslubiy qo’llanmalari ilmiy maqolalari, monografiyalari olqishga sazovordir.

Natija va Muhokama: Uzoq yillar davomida faqat xar-xil tayyorgarlik mavjud edi. Bu sportchini jismoniy jihatdan tayyorlash va texnik jixatdan tayyorlash. Keyinchalik uchinchi xil tayyorgarlik sportchilami taktik jihatdan tayyorlash qo’shi1di. Ammo rekordlarni tez o’sib borishi bu uch xil tayyorgarlik yetarlik emasligini ko’rsatadi va sportchini psixologik jihatdan tayyorlash muammosi vujudga keladi. Birinchi marta bu muammo Lalayan tomonidan 1958 yilda qo’yilgan va bu asosan sportchilarni irodaviy tayyorgarligiga qaratilgan edi. Sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlash uni temperamenti, xarakterini hisobga olgan holda olib borilishi kerak deb aytilgan edi.

Professor A.Q.Puni musobaqaga psixologik tayyorgarlik xolatini shakllanishini quyidagicha taxlil qiladi:

Musobaqaga psixik tayyorlik xolatini maxsus shakllanishi bu bo’lajak musobaqaning shart-sharoitlarini e’tiborga olgan holda sportchi ongi va xarakatining tashkil etilishidir.

Bu komandali sport turida ma’ lum guruh odamlarning kollektiv ongi bo’lib, o’zining faoliyati va intilishi ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan yagona g’oya va motivlarga birlashtirish demakdir.

Sport trenirovkasida psixologik tayyorlashikki qismdan iborat:

1. Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlash.

2. Sportchini bo’lajak musobaqaga psixologik tayyorlash. Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlash jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi bilan birga olib boriladi. Psixologik jihatdan umumiy tayyorlash faqat bo’ladigan musobaqaga tayyorlash bilan cheklanib qolrnay, u trenirovkaning barcha etaplarida olib boriladi va sportchini sport takorniliga qaratilgan bo’ladi.

Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlashning maxsus vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlash.

2. Sportchini bo’lajak musobaqaga psixologik tayyorlash.

Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlash jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi bilan birga olib boriladi.

Psixologik jihatdan umumiy tayyorlash faqat bo’ladigan musobaqaga tayyorlash bilan cheklanib qolrnay, u trenirovkaning barcha etaplarida olib boriladi va sportchini sport takorniliga qaratilgan bo’ladi.

Sportchini psixologik jihatdan umumiy tayyorlashning maxsus vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Sportchini g’oyaviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

2. Xarakterga jobiy ta’sir qilish.

3. Idrok jarayonini taraqqiy ettirish, jumladan ixtisoslashtirilgan idroklarning shakllantirish va takomillashtirish.

4. Diqqatni xususiyatlarini taraqqiy ettirish.

5. Musobaqa jarayonida vaziyatning muhim momentlarini tez payqay o lishga o’rgatish. Bu kuzatuvchanlikni o’stirish natjasida egallanadi.

6. Sportchini tez fikrlash qobiliyatini o’stirish.

7. Muskul tasavvurlarini rivojlantirish.

8. O’z xarakatlarini nazorat qilishni tarbiyalash.

9. Stenik emotiyalarni safarbar qilish qobiliyatini o’stirish, kurash vaqtida o’zini tuta bilishni shakllantirish.

Psixik xodisalar 3 ta bir — biriga bog’langan gruppalarga ajraladi. Psixik progresslar, shaxsning psixologik xususiyatlari va psixik holat. Bularichida oxirgisi (psixik holat) xar xi1 davomiylik va sur’atlilikga egadir. Psixologik tayyorgarlik natijasida sportchi musobaqadaishtirok etish uchun psixik tayyorlik holati vujudga keladi. U musobaqali kurash uchun psixik progresslarni aktivlashtirishda zarurhgi bilan xarakterlanadi.

Sport faoliyatida sportchining psixik tayyorgarligining ahamiyati katta bo’lib, hozirgi vaqtda u yutuqlaming asosiy shartlaridan biri bo’hb qolgan.

Psixik tayyorlik — murrakab holat bo’lib, bunga yuqori darajada tarraqiy etgan bilish, emotsional vairodaviy funkqiyalar kiradi.

Musobaqaga psixologik tayyorgarlik sistemasi o’zichiga qator vazifalarni olib bu vazifalarni hal qilish protsessida sportchining musobaqaga psixik tayyorligi shakllanadi.

Idrok, diqqat, tafakkur, hotira kabi ruhiy jarayonlarning juda yahshi jismoniy, ahloqiy-irodaviy, nazariy va ayniqsa, tehnik tayyorgarlik bilan birgalikda yuqori darajada rivojlanganligi taktik tayyorgarlik asosini tashkil etadi. Futbolchilarning o’yin faoliyti sharoitlarida yaxshi mo’ljal (oriyentir) olish va taktik jihattan to’g’ri qaror qabul qilish qobilyati ko’p jihattan tehnik usullarni maqsadga muvofiq ravishda qo’llash, ya’ni ularning tehnik qurollanganligi bilab belgilanadi. Shuning uchun yosh futbolcji tehnik usullarni muntazam takomillashtira borib juda ko’p muqdordagi harakat ko’nikmalarini egallab olgandagina, yahshi taktik tayyorgarlikka erishish mumkin. O’yinnchining tehnikm mahorati yo sheriklari bilan hamkorlikda, yoki individual ravishdaistalgan taktik g’oyaning amalgam oshirilishini ta’minlashi kerak. Har bir futbolchining taktik jihatdan yuqori individual tayyorgarligi butun jamoa taktikasining samarali bo’lishini belgilab beradi.

Yosh futbolchilar bilan o’tkaziladigan har bir o’quv mashg’uloti bosqichi muayyan yo’nalishga va tegishli o’quv materiallariga ega bo’lishi kerak.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifa o’yinda fikr yurutish qobilyatini tarbiyalash va futbol o’yini jarayoniga qiziqish uyg’otishdan iborat. Mashg’ulotlarda murakkab reaksiya teligi, mo’ljal olish,idrok, mustaqillik jamoada ish ko’ra bilish ko’nikmalarini rivojlantirish bilan bog’liq bo’lgan mashqlar bajariladi. O’yinda fikr yurutish qobilyatini tarbiyalash uchun o’yin faoliyati harakteriga ko’ra futbolga yaqin bo’lgan harakatli o’yinlardan keng foydalaniladi. Harakatli o’yinlar raqib “ta’qib”idan qutilish va joyga chiqish, o’z vaqtida to’p oshirish, hujum yoki himoya vaqtida tezlik bilan qulay vaziyatni egallsh ko’nikmalarini tarbiyalaydi. Taktik tayorgarlikda harakatli o’yinlardan foydalanish to’pni egallab olishning murakkab tehnikasi yo’qligi bilan ham belgilangandir. Bu shug’ullanuvchilarning diqqat – etibori o’yin jarayonini tushunib olishga qaratiladi, juda ko’p vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarib olishimkoni yuzaga keladi. O’yinlarda va himoyadagi individual hamda eng oddiy guruhli harakatlar tarbiyalanadi. O’yinchining”,ochilishi”va “yopilishi”kabi taktik harakatlarni, eng yahshisi, basketbol yoki gandbol o’yinida o’rgangan ma’qul.

Murabbiy o’yin mohiyatini to’g’ri tushinish hissini tarbiyalash to’g’risida g’amho’rlik qilishi, qabul qilingan xar bir noto’g’ri qarorni e’tibordan chetga qoldirmasligi, bajarilgan harakatga baho brrishi kerak. Shuning uchun mazkur bosqichdagi har bir mashg’ulot mazmuning asosiy yo’nalishi – o’yinni olib boorish tajribasini egallash av uni to’ldirib borishdan iborat.

XULOSA:

Jamoada taktik harakatlarni takomillashtirishga katta etibor beriladi. Har bir o’yinchi jamoada qanday o’rin egallashiga qarab o’z taktik harakatlarini takomillashtiradi. Mashqlarga ham hujumchi, ham himoyachi harakatlari kiritiladi. O’z-o’zini tahlil qilish qobilyatini, vujudga kelgan o’yin sharoitida to’g’ri yo’l topa bilish, o’yin vaziyatini harakterlovchi ko’p sonli momentlardan eng muhimini ajiratib olish ko’nikmalarini tarbiyalash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aminjanov Sh.A. (SamDU). Bolalarning jismoniy yuklamalarga moslashuvida harakat apparatining o’ziga xos xususiyatlari. Jismoniy madaniyat ta’lim-tarbiyasi jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishni takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand-2003. 102-104 betlar.

2. Azizova Sh.V., L.Ibragimova. Makatabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayoniga o’yinlarning ta’siri. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o’rganishga bag’ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar.Toshkent-2012.15-17 betlar.

3. Jumayev N. Sport maktabi o’quvchilarida o’zini-o’ziirodaviy boshqarish va uning shakllanishida liderning axloqiy sifatlari. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o’rganishga bag’ishlangan. Respublikailmiy-amaliy anjumani materiallar.Toshkent. 2012. 226-228 betlar.

4. Masharipov Y. Talabalarning sportga qiziqtirishni oshirishning psixologik-pedagogik shartlari. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari. Respublikasi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. SamDU, 2004. 72-74 betlar.

5. Ro’ziyev B. Sportchi shaxsiga psixologik yondashuv: o’zini-o’zi stimullashtirish va o’zini-o’zi faollashtirish. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o’rganishga bag’ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent-2012. 536-538 betlar

6. Suleymanova N.A. Sportchilar irodaviy tayyorgarligining psixologik asoslari. «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o’rganishga bag’ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent 2012.175-177 betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

DISK ULOQTIRISH TEXNIKASINI O‘RGATISH USULLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.206

Irmatov Shavkat Anvarovich
QDU o‘qituvchisi
Shokirov Shuxrat G’ayratovich
QDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yengil atletikaning uloqtirish turlari ichida muhim o‘rin tutuvchi disk uloqtirish mashg‘ulotining texnikasi va uni o‘rgatish uslublari yoritilgan. Sportchi organizmining jismoniy va texnik tayyorgarligi, harakat fazalari (tayyorgarlik holati, aylanish, uloqtirish va muvozanatni tiklash) hamda ularni bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yengil atletika, disk uloqtirish, texnika, jismoniy tayyorgarlik, doira, aylanma, tezlik, metr, sport, sportchi, muvozanat, burilish.

Аннотация.В данной статье рассмотрены приемы и методы обучения метанию диска, занимающие важное место в метательных видах легкой атлетики. Анализируется физическая и техническая подготовленность организма спортсмена, фазы движений (подготовительное состояние, вращение, бросок и восстановление равновесия) и методика их поэтапной тренировки.

Ключевые слова: легкая атлетика, метание диска, техника, физическая подготовка, круг, скорость, метр, спорт, спортсмен, баланс, поворот.

Abstract: This article discusses the techniques and methods of teaching discus throwing, which occupy an important place in throwing athletics. The physical and technical fitness of the athlete's body, the phases of movements (preparatory state, rotation, throw and balance restoration) and the methodology of their step-by-step training are analyzed.

Keywords: athletics, discus throw, technique, physical fitness, circle, speed, meter, sport, athlete, balance, turn.

KIRISH. Disk uloqtirish — yengil atletikaning uloqtirish turlaridan biri bo‘lib, sportchi metall yoki plastikdan tayyorlangan **diskni** imkon qadar uzoqqa uloqtiradi. Sportda uloqtirishdan maqsad — uloqtiruvchi harakatini chegaralovchi ma’lum qoidalarga rioya qilib, diskni yanada uzoqroqqa uloqtirish talab qiladi.

Uloqtirish —siklik mashqlardan bo‘lib, uloqtiruvchidan katta asab-mushak kuchini va yaxshi jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. Busiz yuqori sport natijalariga erishib bo‘lmaydi. Uloqtirishga boshimizdan qolimiz yuqori holda **diskn,** nayza, granata va yadro itqitish kiradi. Bundan tashqari, yelkamiz barobari aylanma xarakatlar orqali disk va bosqon uloqtirish o‘rin

oladi. Har qanday snaryadning uchishi masofaning uzoqligiga, uning boshlang’ich uchish tezligiga, uchib chiqish burchagiga va havo bosimining qarshiligiga bog’liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Diskni turgan joydan uloqtirsa ham bo‘ladi, lekin faqat aylana turib uloqtirganda uning ancha uzoqqa uchishiga erishish mumkin. Burilib uloqtirganda turgan joydan uloqtirishga nisbatan diskning uchish tezligi sekundiga 20 metr va undan ham ko‘proq bo‘lib, disk 5-8 m uzoqroqqa tushishi mumkin. Hozirgi zamon uloqtiruvchilari aylanishni uloqtirish tomoniga teskari turib boshlaydilar va diskni qo‘ldan chiqarib yuborguncha 540o (1,5 doira) aylanadilar. Uloqtiruvchining doira yasashi uloqtirish tomoniga qarab intiluvchi umumiy harakat bilan bir vaqtda yuz beradi. Uloqtiruvchi aylanish vaqtida dastlabki holatdan boshlab aylanayotganda quyidagi fazalardan o‘tadi: dastlabki qo‘sh tayanchli faza, chap oyoqda yakka tayanchli faza, tayanchsiz (chap oyoq bilan depsingandan keyin) faza, o‘ng oyoqda yakka tayanchli (yerga oyoq qo‘yish vaqtidan boshlab) faza va yakunlovchi qo‘sh tayanchli faza. Diskning eng qulay burchak hosil qilib uchishi ko‘p jihatdan shamolning tezligi va yo‘nalishiga bog‘liq. Masalan, havo sokin paytlarda diskning uchishi uchun eng qulay burchak taxminan 33-36o ga teng. Shamolga qarshi uloqtirilganda esa shamol tezligi oshgan sari qulay burchak kamayib boradi. Shamol yo‘nalishiga qarab uloqtirilganda uchish ko‘proq bo‘ladi. Diskni sekundiga 4-5 metr tezlikdagi shamolga qarshi uloqtirishda uni qo‘ldan to‘g‘ri chiqarilsa, shamolning har qanday yo‘nalishiga yoki sokin sharoitga qaraganda uloqtiruvchi yaxshiroq natijaga erishishi mumkin.

Snaryadni ushlash. Snaryadni pastga tushirilgan qo‘lning bosh barmog‘idan tashqari bukilgan barmoqlaridagi tirnoq bo‘g‘imiga tayanishi kerak. Bosh barmoq faqat disk yuzasiga tegib turadi. Bunda panja kaft-bilak bo‘g‘imida sal bukilgan bo‘lib, disk gardishining yuqori qismi bilakka tegib turadi. Barmoqlar bir-biriga yaqin bo‘lmasligi, tarang yozilgan ham bo‘lmasligi kerak, chunki har ikkala holda ham diskni boshqarish qiyinlashadi Aylanishga tayyorlanish. Aylanish uchun dastlabki holatda uloqtiruvchi doiraning orqa qismida turadi: oyoqlar yelka kengligida yoki sal kengroq ochiladi. Uloqtirish tomoniga nisbatan uloqtiruvchi tanasining holati ba’zi bir farqqa ega bo‘lishi mumkin. Qulayrog‘i uloqtirish tomoniga orqa o‘girib turishdir. Bunday holatdan yon tomon bilan turishga nisbatan burilish ancha qiyinroq, lekin bunday vaziyatda uloqtiruvchining disk bilan birgalikda qiladigan harakat yo‘li uzayadi, demak, aylanishni boshlashda (tayanchli fazada), harakat miqdorini ko‘paytirish uchun yaxshiroq sharoit yaratiladi. Dastlabki holatda o‘ng oyoq doiraning chekkasiga, gardishga juda ham taqab qo‘yiladi. Dastlabki silkitishni boshlash yoki disk ushlagan qo‘lni o‘ng tomonga silkitishda ol-din chap oyoq yelka kengligida, hatto undan kengroq qo‘yiladi. Oyoqlar doiraning uloqtirish tomoniga yo‘nalgan deb faraz qilingan diametrdan bir xil uzoqlikda joylashadi.

Uloqtirishga tayyorlanish vaqtida gavda deyarli tik turadi, oyoqlar sal bukiladi. Uloqtiruvchi aylanishga tayyorlana turib, disk ushlagan qo‘lini o‘ngga-orqaga silkitadi, dastlabki silki-tishlari bunga yordam beradi. Silkitish vaqida disk ushlagan o‘ng qo‘l avval gavdaning ozgina burilishi bilan birgalikda chapga olib boriladi, gavda og‘irligi chap oyoqqa salgina o‘tkaziladi. Keyin qo‘l silkinib, o‘ngga olib boriladi, tana og‘irligi o‘ng oyoqqa o‘tkaziladi. Bu paytda o‘ng oyoq tovon bilan, chap oyoq esa oldingi qismi bilan yerga tiraladi.


Disk silkitilayotganda yelka bo‘g‘imidan yuqori ko‘tarilmasligi kerak. Qo‘l bilan o‘ngga-orqaga silkitish yelka kengligining erkin burilishi bilan birgalikda amalga oshiriladi va buning natijasida uloqtiruvchining tanasi silkitish oxirida buralib, muvozanatni puxta saqlab qolishi kerak. Shularni hisobga olgan xolda snaryadlarni ushlash amalga oshiriladi.

Aylanma shaklda bajarilganda uloqtiruvchi snaryadning to‘g’ri chiziqli tezligini oshiradi. Bunday vaqtda markazdan qochuvchi kuch, shu tezlikning to‘g’ri chiziqli tezligi oshgan sari ko‘paya borib, uloqtiruvchining harakatlarini qiyinlashtiradi.

Uloqtiruvchi sarflagan kuchning miqdori snaryad massasining to‘g’ri chiziqli tezlik kvadrati ko‘paytmasiga, aylanish radiusi nisbatiga teng. Aylanish bilan yugurib kelish qaytadan snaryadning uchib chiqish qo‘lning markaziga intiluvchi tortish kuchining snaryadga ta’siri tamom bo‘lgan joydagi yoy nuqtasiga urinma chiziq bo‘ylab sodir bo‘ladi. Aylanma yugurish vaqtida snaryadning aylanish radiusi uzunligiga, ya’ni uloqtiruvchi bilan snaryaddan iborat sistemaning aylanishi o‘qidan snaryad og’irlik markazigacha bo‘lgan masofaga bog’liq. Aylanish vaqtida uloqtiruvchining tezligi ortib, snaryad (disk)ning aylanish radiusi kamayib, snaryadning harakat tezligi pasayishi mumkin.

Snaryad bilan harakat qilayotgan uloqtiruvchi massasining orqaga siljishi oxirgi kuchlanish oldidan keskinlashuvi uloqtirish uzoqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda snaryadning uchib chiqish tezligi, shu bilan birgalikda uning uzoqqa uchib tushishi ham taxminan joyidan turib uloqtirishdagiga teng bo‘ladi. Yuqori natijaga erishib boimaydi. Oxirgi kuch berishga tayyorlanish, oxirgi kuch berish va to‘xtatish fazasi. Oxirgi kuch berishga tayyorlanish turli xil uloqtirishlarda har xil bo‘ladi, ammo barcha hollarda uloqtirish oxirida snaryadning harakat tezligini oshirish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, oxirgi kuch berishni bajarmoq uchun uloqtiruvchi shunday holatda turishi kerakki, u holat oxirgi fazani snaryad eng katta tezlik bilan uchib chiqadigan qilib bajarishga imkon berishi zarur.

Uloqtiruvchi ish bajarayotganda mushaklar cho‘ziluvchanligidan bilib foydalanish, sportchilarga iroda kuchi sarflash bir xil ekanida ham snaryadga ko‘proq kuch bilan ta’sir etish imkonini beradi.



1-rasm. Uchib borayotgan diskda ko‘tarish kuchining hosil bo‘lish tuzilmasi:

b — diskning normal holatdagi og’ib urilishi;

c — hujum burchagi ortig’idan og’ib urilish.

Intiluvchi ko‘tarish kuchining vujudga kelishiga asosiy sababdir. Disk va nayza uloqtirishda shunday bo‘ladi.

XULOSA.

Diskning oxirgi kuch berishdagi yo‘li katta radiusdagi yoy bo‘yicha o‘tishi kerak. Disk oyoqlar depsinishi tugashi bilanoq uloqtiriladi. O‘ng oyoq depsinib turib, bevosita diskning uchib chiqishidan oldin yerdan ko‘tariladi va oldinga chap oyoq o‘rniga qo‘yiladi. Sal bukilgan chap oyoq burilishdan keyin yerga uchidan boshlab qo‘yiladi. Dastlab unga bo‘lgan bosim kuchining ortishi natijasida u anchagina bukiladi, keyin esa o‘ng oyoq bilan birga gavda og‘irligini ko‘tarib tezgina tiklanadi. Tezroq depsinishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan oyoqlarning tez almashinishi natijasida chap oyoq disk uchib chiqishi bilan bir vaqtda yerdan ko‘tariladi. O‘ng qo‘l bilan diskni uloqtirish vaqtida uloqtiruvchining diskka ta’sir kuchi yo‘nalishi o‘zgarishi sababli disk o‘z o‘qi atrofida chapdan oldingao‘ngga chizig‘i bo‘yicha harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арзибаев К.О. Легкая атлетика и методика ее преподавания. Учебник. –Т.: “ Университет”, 2021. 314 с.

2. Арзибаев К.О., Мирзаев А.М. Легкая атлетика и методика ее преподавания. Учибное пособие. – Т.: “ Университет”, 2021. 248 с

3. Kudratov R.K. Yengil atletika. O‘quv qo‘llanma. 2012 y

4. Normurodov A.N. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. T.,2011 y

5. Qudratov R, G‘aniboyev I.D, Soliye.I.R, Baratov.A.M. Yengil atletikachilarning maxsus mashqlari-t 2011 y.

6. Olimov M.S., “O‘rta masofaga yuguruvchi sportchi-talabalarni O‘zDJTI o‘quv yuklamasiga moslashtirilgan musobaqa oldi tayyorgarligi dasturi bo‘yicha musobaqalarga tayyorlash samaradorligi”. Metodikaviy qo‘llanma. T.: O‘zDJTI nashriyot-matbaa bo‘limi. 2010 y. - 48 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

YOSH FUTBOLCHILARDA STANDART VAZIYATLARNI BAJARISH TEXNIKASINITAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.207

Nuriddinov Lazizjon Faxriddinovich
Oriental Universiteti Samarqand kampusi assistent-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 14–16 yoshli yosh futbolchilarda standart vaziyatlarni bajarish texnikasini takomillashtirishning nazariy asoslari ko’rib chiqilgan. Maqolada standart vaziyatlar tushunchasi, ularning tasnifi, biomexanik xususiyatlari va o’quv-mashg’ulot jarayonida ularni o’rgatish metodologiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, sport pedagogikasi, harakat koordinatsiyasi va yoshga oid rivojlanish qonuniyatlari nuqtai nazaridan yosh futbolchilarda texnik mahoratni shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ko’rsatishicha, 14–16 yosh davri texnik tayyorgarlikning sensitivlik davri bo’lib, aynan shu davrda standart vaziyatlarni o’rgatish samaradorligi eng yuqori ko’rsatkichlarga erishadi.

Kalit so‘zlar: standart vaziyatlar, yosh futbolchilar, texnik tayyorgarlik, harakat ko’nikmalari, metodika, 14–16 yosh, sensitivlik davri.

Abstract. This article examines the theoretical foundations for improving the technique of performing standard situations in young footballers aged 14–16. The article analyzes the concept of standard situations, their classification, biomechanical characteristics, and the methodology of teaching them in the educational and training process. Issues of forming technical skills in young footballers from the perspective of sports pedagogy, motor coordination, and age-related developmental patterns are also covered.

Keywords: standard situations, young footballers, technical training, motor skills, methodology, 14–16 age, sensitive period.

Kirish. Zamonaviy futbol o’yinida standart vaziyatlar burcak zarbalari, erkin va jarima zarbalari, auty tashlashlar natijalarni hal qiluvchi vosita sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro futbol statistikasiga ko’ra, yirik musobaqalarda barcha gollarning 25–35 foizi aynan standart vaziyatlardan kiritiladi. Bu holat yosh futbolchilarni tayyorlashda ushbu vaziyatlarga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi.14–16 yoshli futbolchilar uchun standart vaziyatlarni o’zlashtirish ayniqsa muhim, chunki bu davr sport ilmida “texnik mahoratning sensitivlik davri” deb ataladi. Ushbu yosh oralig’ida harakat koordinatsiyasi, mushak kuchi va idrok qilish qobiliyati bir vaqtda intensiv rivojlanib, texnik ko’nikmalarni o’zlashtirishga qulay sharoit yaratadi.

Ko’pgina o’zbek futbol maktablarida standart vaziyatlarni o’rgatishga etarli e’tibor berilmaydi yoki bu jarayon ilmiy asossiz, intuitiv tarzda amalga oshiriladi. Shu sababli, yosh

futbolchilarda standart vaziyatlarni bajarish texnikasini takomillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

Tadqiqotning maqsadi14–16 yoshli yosh futbolchilarda standart vaziyatlarni bajarish texnikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, biomexanik qonuniyatlarni o’rganish va ilmiy asoslangan o’qitish metodikasini ishlab chiqish bo’yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Standart vaziyatlar tushunchasi va ularning tasnifini ilmiy jihatdan asoslash.
2. 14–16 yoshli futbolchilarning yosh xususiyatlarini standart vaziyatlar kontekstida o’rganish.
3. Standart vaziyatlarni o’rgatishning biomexanik asoslarini tahlil qilish.
4. O’qitish metodologiyasining nazariy asoslarini va sensitivlik davridan foydalanish imkoniyatlarini asoslash.

Adabiyotlar tahlili. Standart vaziyatlar muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda o’rganilgan. Buyuk Britaniya olimlari Carling va Williams (2019) o’z tadqiqotlarida Premier Ligadagi standart vaziyatlarning statistik tahlilini o’tkazib, burcak zarbalari va erkin zarbalarning o’yin natijasiga ta’sirini o’rganganlar.

Yosh futbolchilarni tayyorlash sohasida Nemis futbol maktabining tajribasi alohida qimmatga ega. Nemis Futbol Federatsiyasining (DFB) metodologik ko’rsatmalarida (2020) 14–16 yoshli futbolchilarni o’rgatishda standart vaziyatlar uchun maxsus mashq bloklari nazarda tutilgan.

Harakat ko’nikmalarini shakllantirish nazariyasi nuqtai nazaridan N.A.Bernshteyn (1966) va P.K.Anoxinning (1975) asarlari metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Ushbu olimlarning “harakatni boshqarish” va “funksional tizimlar” konsepsiyalari standart vaziyatlarni o’rgatish metodikasini ilmiy asoslashda muhim o’rin tutadi.

O’zbekistonda ushbu muammo Toshmatov (2018), Nazarov va Xolmatov (2021) kabi tadqiqotchilar tomonidan qisman o’rganilgan bo’lsada, 14–16 yoshli futbolchilarga oid maxsus nazariy-metodologik bazani yaratish borasida tizimli tadqiqot hali amalga oshirilmagan.

Standart vaziyatlar: tushuncha va tasnif. Futbolda “standart vaziyat” deganda o’yin to’xtatilgandan so’ng qoidalar bo’yicha belgilangan tartibda o’yinni qayta boshlash holatlari tushuniladi. Bu vaziyatlar o’yin jarayonida oldindan rejalashtirilgan va mashq qilingan taktik-texnik kombinatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Standart vaziyatlarning asosiy xususiyati ularning takrorlanuvchanligi va oldindan modellashtirish imkoniyatidir. Har bir standart vaziyat o’yin jarayonida qayta-qayta paydo bo’lishi va jamoa tomonidan oldindan rejalashtirilgan stsenariy bo’yicha bajarilishi mumkin.

1-jadval

Standart vaziyatlar turlari va ularning o’yin jarayonidagi sodir bo’lish chastotasi

Standart vaziyat turi	Chastota (o’yin boshiga)	Gol imkoniyati (%)	Ustuvorlik
Erkin zarba	12–18 marta	8–12%	Yuqori
Burcak zarba	5–9 marta	2–4%	O’rta
Jarima zarba	0–3 marta	75–80%	Juda yuqori
Auty tashlash	20–35 marta	1–2%	Past
Darvozadan boshlanish	8–15 marta	0.5–1%	Past

Manba: FIFA Technical Report (2022) asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Standart vaziyatlarning biomexanik asoslari:

Erkin zarbaning biomexanikasi. Erkin zarba bajarishning biomexanik tahlili shuni ko’rsatadiki, muvaffaqiyatli zarba uchun bir nechta asosiy parametrlar muvofiqlashtirishi zarur: yugurish yo’nalishi va burchagi, oyoq pozitsiyasi, zarba onidagi tana holati va to’p bilan kontakt nuqtasi.

Tadqiqotlar (Lees va Nolan, 1998; Kellis va Katis, 2007) shuni ko’rsatadiki, maqsadli erkin zarbalarda oyoqning to’p bilan temas vaqti 8–15 millisekund, zarba kuchi esa 1500–3500 Nyutonga yetishi mumkin. 14–16 yoshli futbolchilar uchun bu ko’rsatkichlar kattalar bilan taqqoslaganda 60–75% ni tashkil etadi.

Burcak zarbasi va Magnus effekti. Burcak zarbasini bajarishda to’pga beriladigan yon aylanish (Magnus effekti) texnik jihatdan muhim rol o’ynaydi. Magnus effekti bu aylanayotgan to’pga ta’sir etuvchi aerodinamik kuch bo’lib, to’pning havoda egri chiziq bo’ylab harakatlanishini ta’minlaydi.

14–16 yoshli futbolchilar uchun burcak zarbasini ikki asosiy uslubda bajarish tavsiya etiladi: birinchi shtangaga yo’naltirilgan in-swingers (ichga buriluvchi) va ikkinchi shtangaga yo’naltirilgan out-swingers (tashqariga buriluvchi). Har ikki uslub o’ziga xos texnik tayyorgarlikni talab etadi.

14–16 yoshli futbolchilarning yosh xususiyatlari:

14–16 yosh davri jismoniy rivojlanishning jadallik bosqichi bo’lib, bu davrda o’g’il bolalarda testosteron ishlab chiqarilishi sezilarli darajada ortadi. Natijada mushak massasi, kuch va tezlik ko’rsatkichlari intensiv o’sadi. Lekin bu jarayon notekis kechishi va turli shaxslarda har xil tezlikda sodir bo’lishi mumkin.

14–16 yoshdagi futbolchilar o’yin vaziyatlarini tezroq idrok qila boshlaydi va taktik fikrlash qobiliyati shakllanadi. Bu davr “taktik savodxonlikning sensitivlik davri” deb ham ataladi. Standart vaziyatlarni o’rgatishda bu xususiyatdan foydalanish pedagog uchun katta imkoniyat yaratadi.

2-jadval

14–16 yoshli futbolchilarning standart vaziyatlarni o’zlashtirishga ta’sir etuvchi omillar

Omil	Ta’sir mexanizmi	Pedagog uchun tavsiya
Jismoniy tayyorgarlik	Kuch va koordinatsiya zarba texnikasini belgilaydi	Maxsus kuch mashqlarini standart vaziyatlar bilan uyg’unlashtirish
Psixologik barqarorlik	Stress ostida texnikani saqlab qolish qobiliyati	Musobaqa simulyatsiyasini muntazam o’tkazish
Taktik tafakkur	Vaziyatni tez va to’g’ri o’qish imkoniyati	Videotahlil va taktik mashqlardan foydalanish
Motivatsiya	Mashg’ulot sifatini va mashqlar bajarilishini aniqlaydi	Gamifikatsiya va raqobat elementlarini kiritish

Manba: mualliflar tomonidan adabiyotlar asosida tuzilgan

O’qitish metodologiyasining nazariy asoslari:

Sport pedagogikasi nazariyasiga ko’ra (Matveev, 1977; Platonov, 1997), harakat ko’nikmalarini shakllantirish uch bosqichdan iborat: birinchi bosqich dastlabki o’zlashtirish (umumiy tushunchani shakllantirish); ikkinchi bosqich chuqurlashtirilgan o’zlashtirish (texnik elementlarni aniqlashtirish); uchinchi bosqich mustahkamlash va takomillashtirish (ko’nikmani avtomatlashtirishga olib kelish).

Bernshteyn (1966) ning “takrorlash takrorlash emas” tamoyiliga ko’ra, har bir mashq bajarilishida sharoitning biroz o’zgarib turishi maqsadga muvofiqdir. Bu “o’zgaruvchan mashq” deb ataladi va yosh futbolchilar uchun ayniqsa samarali hisoblanadi.

Standart vaziyatlarni o’rgatishning tizimli yondashuvi quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi: texnik asoslarni shakllantirish; taktik kombinatsiyalarni o’rgatish; psixologik tayyorgarlik; musobaqa sharoitida qo’llash. Ushbu elementlar birgalikda yaxlit tizimni tashkil etadi va ularning har biri boshqalarisiz to’liq samarali bo’lolmaydi.

Musobaqa faoliyatini nazorat qilishning ahamiyati:

Standart vaziyatlarni o’rgatishda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash uchun musobaqa faoliyatini muntazam kuzatish va tahlil qilish zarur. Zamonaviy sport tahlili usullari (video tahlil, GPS-monitoring, statistik tahlil) bu imkoniyatni sezilarli darajada kengaytirmoqda.

14–16 yoshli futbolchilar uchun musobaqa kuzatishining asosiy maqsadi standart vaziyatlardagi texnik xatolarni aniqlash va ularni o’quv-mashg’ulot jarayoniga kiritishdir. Tadqiqotlar (Hughes va Franks, 2004; Reilly, 2005) shuni ko’rsatadiki, musobaqa ma’lumotlariga asoslangan o’quv jarayoni an’anaviy yondashuvga nisbatan 30–40 foiz samaraliroq natijalarga olib keladi.

Xulosalar:

Olib borilgan nazariy tahlil natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni berdi:

1. Standart vaziyatlar zamonaviy futbolda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lib, yosh futbolchilarni tayyorlashda ularga tizimli e’tibor qaratish zarur.

2. 14–16 yosh texnik va taktik mahoratning sensitivlik davri bo’lib, aynan shu davrda to’g’ri metodologiya asosida o’rgatilgan standart vaziyatlar mustahkam asos sifatida o’rnashib qoladi.

3. Biomexanik qonuniyatlarni hisobga olish va Bernshteyn tamoyiliga asoslangan o’zgaruvchan mashqlar tizimi texnikani to’laqonli shakllantirishga yordam beradi.

4. Musobaqa faoliyatini muntazam kuzatish va diagnostik-korrektiv metodologiyani qo’llash o’quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

5. O’zbekistonda 14–16 yoshli futbolchilar uchun standart vaziyatlarni o’rgatishning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo’lib, keyingi tadqiqotlarda eksperimental sinov talab etiladi.

Adabiyot va manbalar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PQ-5924-son “O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

2. Bernshteyn N.A. Harakatlarning fiziologiyasi va faoliyati. — M.: Meditsina, 1966. — 349 b.

3. Carling C., Williams A.M. Set plays in professional football: A statistical analysis. Journal of Sports Sciences, 2019, vol. 37, no. 4, pp. 401–412.

4. FIFA Technical Report. Set Pieces in Modern Football. — Zurich: FIFA, 2022. — 87 p.

5. Hughes M., Franks I. Notational Analysis of Sport. — London: Routledge, 2004. — 296 p.

6. Kellis E., Katis A. Biomechanical characteristics and determinants of instep soccer kick. Journal of Sports Science and Medicine, 2007, vol. 6, pp. 154–165.

7. Lees A., Nolan L. The biomechanics of soccer: a review. Journal of Sports Sciences, 1998, vol. 16, pp. 211–234.

8. Matveev L.P. Foundations of Sports Training. — M.: Physical Culture and Sport, 1977. — 271 p.

9. Nazarov A.A., Xolmatov B.T. O’zbek futbolida yosh futbolchilarni tayyorlash metodologiyasi. — Toshkent: O’zbekiston, 2021. — 184 b.

10. Platonov V.N. The general theory of preparing athletes in Olympic sport. Kyiv: Olympic Literature, 1997. 584 p.

11. Reilly T. Science and Soccer. London: Routledge, 2005. — 312 p.

12. Toshmatov V.A. Futbolda texnik-taktik tayyorgarlik asoslari. Toshkent: Fan, 2018. — 210 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

YENGIL ATLETIKA MASHG‘ULOTLARINING AYOLLAR SOG‘LIG‘I VA PSIXOLOGIK BARQARORLIGIGA TA’SIRI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.208

Oralova Bibixol Husniddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: orolovabibisora@gmail.com
G‘ulomova Maftuna Sayfulla qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti ,
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi
1- bosqich 2-25 guruh talabasi
e-mail: gulomovamaftuna026@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yengil atletika mashg‘ulotlarining ayollar salomatligi hamda psixologik barqarorligiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Hozirgi kunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish va ruhiy barqarorlikni ta’minlash jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ayollar organizmi uchun muntazam jismoniy mashqlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki ruhiy holatni ham yaxshilaydi. Yengil atletika mashg‘ulotlari — yugurish, sakrash va turli harakatli mashqlar majmuasi orqali ayollarda yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, mushaklar mustahkamligini oshiradi hamda organizmning umumiy chidamliligini kuchaytiradi. Shuningdek, bunday mashg‘ulotlar ortiqcha vaznning oldini olish, moddalar almashinuvini faollashtirish va organizmning umumiy sog‘lomlashuviga xizmat qiladi. Muntazam sport bilan shug‘ullanish ayollarda immunitetni mustahkamlaydi, organizmning turli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so’zlar. ayollar salomatligi,stressni kamaytirish, psixologik barqarorlik, aerobik mashqlar, ong-jismoniy mashqlar, yuqori intensivlik, menarxa, pubertat davrida, suyak to‘planishi, tezkorlik,kuch,chidamlilik,egiluvchanlik,muvozanat

Kirish.Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ayollar salomatligini mustahkamlash va ularning ruhiy barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayollar jamiyatning asosiy tayanchi bo‘lib, ularning sog‘lom bo‘lishi nafaqat o‘zlari, balki kelajak avlod salomatligi uchun ham muhimdir. Shu sababli jismoniy tarbiya va sport, xususan yengil

atletika mashg‘ulotlari ayollar sog‘lig‘ini mustahkamlashda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Yengil atletika inson organizmiga kompleks ta’sir ko‘rsatadigan sport turlaridan biridir. Yugurish, sakrash, uloqtirish kabi mashqlar nafaqat jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi, balki insonning ruhiy holatini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Ayniqsa ayollar uchun yengil atletika mashg‘ulotlari sog‘liqni mustahkamlash, stressni kamaytirish va psixologik barqarorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish har bir jamiyat uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ayollar salomatligini saqlash va mustahkamlash masalasi katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Ayollar nafaqat jamiyatning faol a’zosi, balki kelajak avlodni tarbiyalovchi asosiy shaxs sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ularning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini mustahkamlash davlat siyosatining ham ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport inson organizmining sog‘lom rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yengil atletika sport turlari ichida eng ommaviy va samarali jismoniy mashqlar majmuasi sifatida e’tirof etiladi. Yugurish, sakrash va uloqtirish kabi mashqlar organizmning barcha tizimlarini faol ishlashiga yordam beradi. Yengil atletika mashg‘ulotlari ayollar sog‘lig‘ini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning psixologik barqarorligini ham oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy hayot sharoitida ko‘plab ayollar turli xil stressli vaziyatlarga duch keladilar. Ish, oila, ijtimoiy muhit va boshqa omillar inson ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli jismoniy mashg‘ulotlar, ayniqsa yengil atletika mashqlari stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash va psixologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur ishning maqsadi yengil atletika mashg‘ulotlarining ayollar sog‘lig‘i hamda psixologik barqarorligiga ta’sirini o‘rganish va uning ahamiyatini yoritishdan iborat.

Mashq jismoniy va psixologik sog‘liqni yaxshilashda, ayniqsa sportchilar uchun muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sharh to‘rt asosiy mashq turi—aerobik mashqlar, qarshilik mashqlari, ong-jismoniy mashqlar va yuqori intensivlikdagi interval mashqlarining (HIIT) psixologik foydalarini o‘rganadi. Har bir tur kayfiyatga ta'siri, stressni kamaytirish, kognitiv funktsiya va emosional nazoratga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan holda, mashqlar sportchilarda ruhiy salomatlikka qanday hissa qo‘shishini keng qamrovli tushunishga imkon beradi. Aerobik mashqlar kayfiyatni yaxshilash, stressni kamaytirish va kognitiv funktsiyani oshirishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Qarshilik mashqlari o‘z-o‘ziga hurmat, tanadagi imidj va motivatsiyani oshiradi, ong-jismoniy mashqlar, masalan yoga va Pilates, emosional nazoratni rivojlantirib, xavotirni kamaytiradi. Yuqori intensivlikdagi interval mashqlar esa ruhiy chidamlilikni, kognitiv aniq fikrlashni va matonatni oshiradi. Sharh ushbu psixologik afzalliklarning asosiy jarayonlarini o‘rganadi va ularning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Yengil atletika mashg‘ulotlarining ahamiyati

1928-yilgi Yozgi Olimpiya o'yinlari ayollar musobaqasining eng yuqori darajadagi yengil atletika musobaqalarining debyuti bo'ldi. Biroq, bu tarixiy voqea 800 metr yugurishni tugatgach, ayol yuguruvchilar finish chizig'ida sajda qilib yotqizilgani haqidagi shov-shuvli hikoyalar bilan buzildi. Bunday qarashlar madaniy me'yorlar va soxta fan ta'sirida shakllangan bo'lib, ayollarning sportdagi ishtirokini yigirmanchi asrning ikkinchi yarmigacha jiddiy

cheklagan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) ayollarga 200 metrdan ortiq masofalarda yana 32 yil davomida qatnashishga ruxsat bermaydi. 1972-yilda Title IX qabul qilinishi bilan katta to'siq yengildi, bu sport sohasida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha namuna bo'ldi. Biroq, Havaskor Atletika Ittifoqi va IOC kabi yirik sport tashkilotlari, ayniqsa uzoq masofaga yugurishda, ayollar sportida faol ishtirok etish imkoniyatlarini taqdim etishda sekin harakat qilishdi. Sekin boshlanganiga qaramay, ayollarning yugurishdagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi. so‘nggi bir necha o‘n yilliklar ichida. 2013 yilda AQShdagi marafon yakunlovchilarining 40% dan ortig‘i ayollar edi, bu 1980 yilda faqat 10% ni tashkil etgan edi. 2012 yilgi yozgi Olimpiya o‘yinlarida ayollar kuz va maydon sportchilari orasida deyarli 50% ni tashkil etdi va marafonda erkaklardan 118 ga 105 bilan oshib ketdi. Yoshlar darajasidagi qizlar tashkil etilgan sportda eng tez o‘sayotgan ishtirokchilar guruhini tashkil qiladi, 1972 yilda 300 000 dan hozirgi kunda 3,2 milliongacha. Ishtirokchilik nuqtai nazaridan ayollar Milliy kollej atletika assotsiatsiyasi (NCAA) va maktab darajasida erkaklar bilan solishtirganda qulayroq holatni ko‘rsatadi (1-jadval), va kuz va maydon maktab qizlari uchun eng mashhur sport turidir, 2013–2014 yillarda deyarli 500 000 ishtirokchi bor edi. Garchi ko‘p sport turlarida hozirgi kunda jinslarni aralashtirib ishtirok etish normga aylangan bo‘lsa-da, ayollar va erkaklarning sport olamlari alohida qolmoqda. Har qanday yoshdagi ayollar shakl va xulq bo‘yicha eskirgan ijtimoiy idealarga qarshi kurashishda davom etmoqda. Professional darajada, ayol sportchilar odatda kamroq mukofotlar va kamroq e’tirofga ega bo‘lishadi.Ayollarning yuguruvchilarda shartnomalar, mukofot mablag‘lari va reklama daromadlari shaklida erkak hamkasblariga qaraganda ko‘proq foydali kompensatsiya olishlari. Ushbu muammolar turli hayot bosqichlarida sezilarli darajada o‘zgarib turadigan biologik va gormonal muhit bilan bir qatorda mavjud bo‘lib, faol ayollar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ushbu e’tiborni hisobga olgan holda, ushbu maqola ayol yuguruvchilarda sog‘liqni saqlash masalalari bo‘yicha qarashlarni taqdim etadi, ayniqsa ovqatlanishning ahamiyati va ayol sportchi triadasi (Triada) bilan bog‘liq tibbiy masalalarga e’tibor qaratadi.

O‘sish va rivojlanish. Yosh ayol sportchilar og‘ir qiyinchiliklarga duch keladilar, jumladan oshgan oziqlanish talablari, ideal tana turlari haqidagi afsonalar, bu esa noto‘g‘ri ovqatlanish (DE)ni rag‘batlantirishi mumkin, shuningdek, murabbiylar, trenerlar, tengdoshlar, ota-onalar va tobora ommaviy axborot vositalaridan keladigan maslahatlarni muvofiqlashtirish zaruriyati. Sportning talablari bilan normal rivojlanish talablari o‘rtasidagi nomutanosiblik yosh sportchilar orasida stress manbai bo‘lishi mumkin va kattalik davrida ham davom etishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqola dastlab faol qizlarning o‘sishi va pishib yetilishi jihatlarini ko‘rib chiqadi.

Menarxa.O'smirlik davrida keng e'tirof etilgan menarxa pulsatil gonadotropin chiqaruvchi gormon chiqarilishi va uning keyingi vositachilari — luteinlashtiruvchi gormon (LH), follikula stimulyatsion gormon va estrogen bilan e'lon qilinadi. AQShda menarx davridagi o'rtacha yosh yaqinda 12,3 dan 12,4 yilgacha deb qayd etilgan va bu oldingi hisobotlarga nisbatan erta boshlanish ekanligi haqida katta kelishuv mavjud. Bu tendensiyaning mexanizmlari aniq emas, lekin vaqt o'tishi bilan nisbiy vazn, etnik tarkib,

kimyoviy ta'sir va insulin qarshiligi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Garchi kesimli va retrospektiv tadqiqotlar sportchilarda menarxning kechikkan boshlanishini ko'rsatgan bo'lsa-da, bu kuzatuvlarda sezilarli tarafkashlik bor, chunki sportda kech voyaga yetgan qizlar bolalikdan o'smirlikka o'tishda ortiqcha vakillik qiladi.

Menarxa — bu qiz bolalarda **birinchi hayz (menstruatsiya) boshlanishi**ni anglatadigan biologik jarayondir. Bu hodisa qiz bolaning **balog‘atga yetish davri** boshlanganini va reproduktiv (farzand ko‘rish) tizimi faol ishlay boshlaganini bildiradi.

O‘smirlikda o’sishning jadal sur’ati. Qizlarda o'sish jadal sur'ati pubertatning erta bosqichlarida yuz beradigan hodisa bo'lib, ko'krak rivojlanishi boshlangandan so'ng tez-tez uchraydi. Maksimal bo'y o'sish tezligi (MBOT) 10,8 dan 11,3 yoshgacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi, bu esa o'g'il bolalarga qaraganda taxminan 2 yil ilgari bo'ladi, ammo pubertal davrga bog'liq ravishda (ya'ni erta, o'rtacha yoki kech) sezilarli darajada farq qilishi mumkin. MBOT yoshi kattalar bo'yi bilan kuchli bog'liq emas. Ko'p hollarda, qizlarda bo'y o'sish tezligi 14-15 yoshga kelib sezilarli darajada sekinlashadi, o'g'il bolalarda esa ayrim hollarda 18 yoshdan oshgach ham o'sish davom etadi. Sport bilan shug'ullanish o'z-o'zidan sog'lom bolalarda vertikal o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Tana tarkibidagi o’zgarishlar. Bola davrida yog'siz tana massasi (FFM), yog' massa (FM) va tana yog'i foizidagi (BF%) jinsga bog'liq farqlar o'smirlik davrida ancha aniqroq bo'ladi. O'rta maktabni tugatganda, qizlarda yigitlarga nisbatan deyarli ikki barobar BF% bo'ladi, va bu nisbatan hatto elita kattalar yuguruvchilarida ham saqlanib qoladi. FFMdagi maksimal o'sish qizlarda 13 yoshda yuz beradi va yigitlardagi o'sishdan taxminan 2 yil oldin sodir bo'ladi. Bo'ydan farqli o'laroq, tana tarkibi sport mashg'ulotlari bilan ta'sirlanishi mumkin, chunki sportchilar bilan sport bilan shug'ullanmaganlar o'rtasida FFM o'sadi va FM kamayadi. Ayol masofaviy yuguruvchilarining vazni bo'yi uchun past bo'ladi (yuguruvchilar bilan solishtirganda) barcha yoshlar uchun, garchi mashg'ulotlarning ta'sirini normal o'sish va yetilish bilan bog'liq o'zgarishlardan ajratish qiyin bo'lsa ham.

Suyak yetilishi.O‘smirlik yillari suyak to‘planishi uchun qisqa lekin muhim imkoniyat oynasini bildiradi. Pubertat davrida o‘sish gormoni va insulin kabi o‘sish faktor-1 darajasining oshishi bu jarayonni vositachi qiladi, shuningdek dehidroepiandrosteron, estrogen va leptin kabi gormonlarning harakatlari ham ta'sir ko‘rsatadi. Suyak to‘planishi PHV atrofidagi yillarda, ya'ni taxminan 11 dan 15 yoshgacha bo‘lgan davrda maksimal darajaga yetadi, bu davrda kattalardagi suyak tarkibining 33% dan 46% gacha qismi yig‘iladi. Sog‘lom vaznga ega bo‘lgan o‘smirlar, masalan, futbol kabi ta'sir faoliyatlari bilan shug‘ullanganlar, odatda suzuvchilar va og‘irlik ko‘tarilmaydigan sport turlarida shug‘ullangan sportchilarga qaraganda yuqori suyak mineral zichligiga (BMD) ega bo‘ladilar. Biroq, uzoq muddatli raqobatbardosh chidamlilik yugurish bilan shug‘ullanish o‘smir sportchilarida, ayniqsa umurtqa pog‘onasida, bu o‘sishni kamaytirishi mumkin. Uzluksiz ma’lumotlar ko‘rsatadiki, sog‘lom qizlarda suyak massasini yig‘ish 16 yoshga kelib sezilarli darajada kamayadi, bu esa erta o‘smirlik davrini normal suyak to‘planishidagi uzilishlar xavfli davr sifatida ko‘rsatadi to‘planish uzoq muddatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yengil atletika inson organizmini har tomonlama rivojlantiruvchi sport turlaridan biri hisoblanadi. U qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lib, yugurish, sakrash va uloqtirish kabi tabiiy harakatlar asosida shakllangan. Hozirgi kunda yengil atletika dunyodagi eng ommaviy sport turlaridan biri bo‘lib, maktablarda, oliy ta’lim muassasalarida va sport klublarida keng qo‘llaniladi. Yengil atletika mashg‘ulotlari organizmning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- ❖ tezkorlik
- ❖ kuch
- ❖ chidamlilik
- ❖ egiluvchanlik
- ❖ muvozanat

Ushbu sifatlarning rivojlanishi inson organizmining umumiy salomatligini yaxshilaydi. Ayniqsa, ayollar uchun jismoniy faollik muhim ahamiyatga ega, chunki u organizmning fiziologik jarayonlarini me’yorlashtiradi va sog‘lom hayot tarzini shakllantiradi. Yengil atletika mashg‘ulotlari jismoniy rivojlanish bilan bir qatorda insonning irodaviy sifatlarini ham shakllantiradi. Mashg‘ulotlar jarayonida sabr-toqat, intizom, maqsadga intilish va o‘z ustida ishlash kabi fazilatlar rivojlanadi.

Yengil atletikaning ayollar jismoniy sog‘lig‘iga ta’siri

Yengil atletika mashg‘ulotlari ayollar organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, bu mashg‘ulotlar yurak-qon tomir tizimining faoliyatini yaxshilaydi. Yugurish va boshqa jismoniy mashqlar yurak mushagini mustahkamlaydi, qon aylanishini yaxshilaydi hamda organizmni kislorod bilan ta’minlash darajasini oshiradi. Shuningdek, yengil atletika mushak tizimini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Mashg‘ulotlar natijasida mushaklar mustahkamlanadi, tananing umumiy kuchi ortadi va jismoniy chidamlilik rivojlanadi. Suyak tizimi uchun ham yengil atletika mashqlari foydali hisoblanadi. Yugurish va sakrash mashqlari suyak zichligini oshiradi va osteoporoz kabi kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Bu ayniqsa ayollar uchun muhimdir, chunki yosh o‘tishi bilan suyaklarning mo‘rtlashuvi kuzatilishi mumkin. Yengil atletika mashg‘ulotlari ortiqcha vazn muammosini kamaytirishga ham yordam beradi. Muntazam jismoniy faoliyat moddalar almashinuvini tezlashtiradi, yog‘ qatlamining kamayishiga yordam beradi va tananing estetik ko‘rinishini yaxshilaydi. Bundan tashqari, sport mashg‘ulotlari immun tizimini mustahkamlaydi. Faol harakat organizmning himoya funksiyalarini kuchaytiradi va turli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi.

Yengil atletika mashg‘ulotlarining psixologik barqarorlikka ta’siri

Yengil atletika nafaqat jismoniy sog‘liqni, balki insonning ruhiy holatini ham yaxshilaydi. Muntazam jismoniy mashqlar stressni kamaytirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Jismoniy mashg‘ulotlar vaqtida organizmda endorfin gormoni ajraladi. Bu gormon inson kayfiyatini yaxshilaydi va ruhiy yengillik hissini paydo qiladi. Shu sababli sport bilan shug‘ullanuvchi ayollar o‘zlarini tetik va xotirjam his qiladilar. Yengil atletika mashg‘ulotlari insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham oshiradi. Sportdagi kichik natijalar ham motivatsiyani kuchaytiradi va insonni yangi maqsadlar sari intilishga undaydi. Bundan tashqari, sport mashg‘ulotlari ijtimoiy muloqotni ham rivojlantiradi. Guruh bo‘lib

o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar davomida ayollar bir-biri bilan fikr almashadilar, tajriba o‘rganadilar va yangi do‘stlar orttiradilar. Bu esa psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omillardan biridir.

Ayollar salomatligini mustahkamlashda sport mashg‘ulotlarini tashkil etish

Ayollar salomatligini mustahkamlash uchun sport mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlar muntazam va reja asosida o‘tkazilishi kerak. Bunda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

- mashg‘ulotlarning muntazamligi
- yuklamaning bosqichma-bosqich oshirilishi
- to‘g‘ri ovqatlanish
- dam olish va tiklanish jarayoniga e’tibor berish

Sport mashg‘ulotlarini tashkil etishda ayollarning yosh xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlari ham hisobga olinishi lozim. Bu mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi va ortiqcha charchashning oldini oladi. Shuningdek, sport infratuzilmasini rivojlantirish, ayollar uchun qulay sport maydonlari yaratish va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini ommalashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yengil atletika mashg‘ulotlari ayollar sog‘lig‘i va psixologik barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. U yurak-qon tomir tizimini rivojlantiradi, mushak va suyaklarni mustahkamlaydi, immunitetni oshiradi hamda ortiqcha vazn muammosining oldini oladi. Shu bilan birga, yengil atletika mashg‘ulotlari ruhiy holatga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Stress kamayadi, kayfiyat yaxshilanadi va o‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi. Bu esa ayollarning hayot sifatini oshiradi va ularning jamiyatdagi faoliyatini yanada samarali qiladi. Shu sababli ayollar orasida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini keng targ‘ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sog‘lom va ruhiy jihatdan barqaror ayollar esa sog‘lom jamiyatning asosini tashkil etadi. Ayollar yugurish sporti bilan shug‘ullanish jarayonida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘liqni saqlash omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Muntazam jismoniy mashg‘ulotlar organizmning umumiy holatini yaxshilaydi, chidamlilikni oshiradi hamda jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi. Biroq sport natijalariga erishish va sog‘liqni saqlash uchun faqat mashg‘ulotlar yetarli emas, balki muvozanatli va to‘g‘ri ovqatlanish ham zarur hisoblanadi. Ayollar yugurish sporti bilan shug‘ullanganda organizm ko‘proq energiya sarflaydi, shu sababli ratsionda oqsillar, uglevodlar, yog‘lar, vitaminlar va mineral moddalar yetarli miqdorda bo‘lishi kerak. To‘g‘ri ovqatlanish mushaklarning tiklanishiga yordam beradi, charchoqni kamaytiradi va sport natijalarini yaxshilaydi. Bundan tashqari, suv balansini saqlash ham sportchi ayollar sog‘lig‘i uchun muhim omillardan biridir. Shuningdek, sog‘liqni saqlash, jarohatlarning oldini olish va organizmni tiklash jarayonlariga e’tibor berish ham zarur. Dam olish, yetarli uyqu va to‘g‘ri mashg‘ulot rejasi ayollar sportchilari uchun muhim hisoblanadi. Bu omillar sport faoliyatining samaradorligini oshiradi hamda uzoq muddat sog‘lom tarzda shug‘ullanish imkonini beradi. Shunday qilib, ayollar yugurish sportida muvaffaqiyatga erishish uchun jismoniy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda

muvozanatli ovqatlanish, sog‘lom turmush tarzi va organizmga to‘g‘ri g‘amxo‘rlik qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2015.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Bolalar sportini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar”. – Toshkent, 2019.

5. Matkarimov A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

6. Usmonov S., Qodirov M. Sport fiziologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017.

7. Xo‘jayev F. Yengil atletika nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

8. Abdullayev A. Bolalar va o‘smirlar sporti nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2015.

9. Nurmatov B. Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

10. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. – Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015.

11. Bibixol Oralova Husniddin qizi. Yengil atletika sport turi orqali nosog'lom bolalarning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash maqola.https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.158

12. Bibixol Oralova Husniddin qizi.Jismoniy tarbiya va sportning o‘ziga xos qonuniyatlari. maqolasi. https://spaceknowladge.com

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

ФОРМИРОВАНИЕ И СОЗДАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У СПОРТСМЕНОВ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.209

Азизов Мухаммаджон Азамович
Преподователь Коканского государственного университета

Аннотация.В статье рассмотрены основные понятия психологической устойчивости, ее компоненты, а также описаны обстоятельства создания психологической устойчивости у спортсменов. Целью работы является выявление обстоятельств создания психологической устойчивости в спорте в целом и у спортсмена в отдельности.

Ключевые слова: психологическая устойчивость, компоненты психологической устойчивости, обстоятельства создания психологической устойчивости, психологическая подготовка спортсмена, волевые качества спортсмена.

Введение.Слово «устойчивый» с многих языков переводится как «стабильный, стойкий, твердый, прочный, крепкий». В «Словаре синонимов русского языка» дается два синонима этого слова: стабильность, равновесие.

Психологическая устойчивость – это динамика устойчивых состояний личности как системы, при которых она способна с определенной вероятностью идентифицировать и блокировать внешние и внутренние негативные воздействия.

В основе психологической устойчивости личности существует взаимодополняющая комбинация, гармоническое единство постоянства личности и ее изменчивости. Рыжов В.В. в своих работах говорил, что при изучении интегральной структуры личности и, в частности, компонентов человеческого темперамента, выделяется психическая устойчивость, как одно из динамических свойств личности. Кроме того, используется понятие эмоциональной устойчивости как показатель психической устойчивости личности человека при воздействии эмоциональных факторов. Речь идет способности противостоять и противодействовать тем эмоциональным раздражителям, которые могли бы негативно повлиять на деятельность личности.

Рассматривая психологическую устойчивость как баланса постоянства и изменчивости, используется понятие уравновешенности. При рассмотрении уравновешенности, мы говорим о постоянстве главных жизненных принципов, целей, установок, ценностей и нравственных норм, с одной стороны, и изменчивости, проявляющейся в динамике мотивов, в появлении новых способов поведения и решения

KIRISH.O‘zbek xalqining ko‘hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma’naviyat manbai bo‘lganligi o‘tmish tarix zarvaraqlaridan ma’lum. Binobarin, milliy qadriyatlarni ajoyib an’analar ila o‘zida mujassam etgan an’anaviy musiqamiz xazinasi hanuzgacha badiiy-estetik qiymatini yo‘qotmay yashab kelmoqda. Ko‘plab buyuk allomalar va ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan turli janr va shakllardagi an’anaviy musiqa namunalari badiiy-ma’naviy merosimizning ajralmas mulkiga aylangandir. Shuningdek, o‘zbek mumtoz musiqasining ko‘hna va hamisha navqiron ashula, katta ashula, dostonchilik va maqomchilik san‘atlari ham asrlar davomida har xil ko‘rinishlarda rivojlandi, taraqqiy etdi.[1,]

Ta’kidlash joizki o‘zbek xalq musiqasining chuqur bilimdoni va ulkan xazinaboni, benazir bastakor, xalq sevgan hofiz va sozanda, mavlono Yunus Rajabiy avvalo el o‘rtasida o‘zining bastalagan o‘nlab go‘zal va xalqchil ashula-yu qo‘shiqlari, cholg‘u va raqs kuylari, syuitalari, o‘zbek xalqi madaniyati durdonalari bo‘lib qolgan qator musiqali drama asarlari, hamda o‘zining va xalq orasida nomi chiqqan, mashhur bo‘lgan yuzdan ortiq shogirdlarining betakror, go‘zal ijrolarida O‘zbekiston radiosining oltin fondiga yozib olingan yoqimli soz-u, rom etuvchi ovozlari bilan elimiz ardoqlagan mashhurlardan biri bo‘lgan edilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yuksak iste’dod sohibi, ustoz-san’atkor Yunus Rajabiy 1897-yilning 5-yanvar sanasida Toshkentda bog‘bon Rajab Sarimsoqov oilasida tug‘ilgan. Onasi Oysha Bibi uy bekasi bo‘lishiga qaramay o‘tkir zehn sohibasi, qur’on-u dostonlarni va ko‘plab mumtoz shoirlarimiz g‘azallarini yod bilgan, jumladan o‘zi ham she’r bitib turadigan, mehribon va duogo‘y, bilimdon ayol bo‘lgan. Yunus Rajabiy bolalik chog‘laridanoq dutor sozini chalishni va mumtoz musiqa san’atimizni o‘rganib kelgan. Bunda ustoz san’atkorlardan, ya’ni dutor cholg‘usini o‘zlashtirishda Mirza Qosimov, mumtoz musiqa sirlari ta’limida Shorahim Shoumarov, Hoji Abdulaziz, To‘ychi hofiz, Domla Halim Ibodovlardan tahsil olgan. 1919-yilda Toshkentda xalq konservatoriyasi tashkil etiladi va shu yillardayoq milliy musiqa bo‘limiga o‘qishga kiradi. Keyinchalik Toshkent Oliy musiqa maktabining tayyorlov kursi hamda Moskvada tashkil etilgan bastakorlar kursida ham ta’lim olgan. Ish faoliyatiga nazar tashlasak u Samarqand pedagogika bilim yurtida musiqa o‘qituvchisi (1923-25), Samarqand teatrining musiqa rahbari (1925-27), O‘zbekiston radiokomiteti qoshidagi xalq cholg‘u asbobalari ansambli (keyinchalik xalq cholg‘ulari orkestri) tashkilotchisi va badiiy rahbari (1927-45, 1945-59), Yangi yo‘l teatri musiqa rahbari (1942-1945), O‘zbekiston teleradiosining “Maqom ansambli” tashkilotchisi va badiiy rahbari (1959-76) kabi lavozimlarda faoliyat olib borgan.[2, 238]

NATIJA VA MUHOKAMA

Yunus Rajabiy maqom va mumtoz ashulalarni ko‘plab ustoz san’atkorlardan, ya’ni atoqli otaxon ashulachi Hoji Abdulaziz Rasulovdan Samarqand ashulalarini, “Shashmaqom”ning “Debocha”, “Guluzorim”, “Gullar bog‘i”, “Bozurgoniy” kabi maqom ashulalarini shu bilan bir qatorda “Buzruk” va “Iroq” maqomlarini, Domla Halim Ibodov,

Hoji Abdurahmon Umarovlardan esa “Shashmaqom”, “Nasrulloiy”, “Navro‘zi Sabo”, “Talqini Ushshoq”, “Sarvinozi talqincha” kabi ashula va cholg‘u qismlarini o‘rganib oladi.

Shu jumladan, atoqli bastakor, ustoz Yunus Rajabiy yoshlik davridanoq o‘ziga xos shirali va ta’sirchan ovoz sohibi ham bo‘lgan va iste’dodli xonanda va mohir sozanda sifatida tez orada el-yurtga tanilgan. Uning repertuaridan maqom parchalari, “Girya”, “Ushshoq”, “Ko‘cha bog‘i”, “Eshvoy”, “Kurd”, “Qalandariy”, “Gulyor-Shahnoz”, “Bayot”, “Dugohi Husayniy”, “Chorgoh”, “Miskin”, “Nasrulloyi” kabi ashula va kuy turkumlari o‘rin olgan. U bir qancha qadimiy o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarini qayta ishlab tiklagan: “Subhidam”, “Yolg‘iz”, “Sayqal”, “Fig‘on”, “Oraz”, “Begi Sulton” va boshqalar. Xonandalikni bastakorlik bilan baqamti olib borgan san’atkor o‘zbek musiqali drama janrida samarali ijod etib, kuylar, qo‘shiqlar, raqs kuylari, xor asarlarini yaratadi.

Shu kabi ijod mahsullaridan dastlab Xurshidning “Farhod va Shirin” (1922-1925), “Layli va Majnun” (1926), O‘.Ismoilovning “Rustam” (1933), A.Hidoyatovning “Avaz” (1935), Hamzaning “Xolisxon” (1940) spektakllariga xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan bo‘lsa, keyinchalik S.Abdulla va Chustiyning “Qo‘chqor Turdiev” (1942), B.Nadejdin bilan hamkorlikda A.Umariy va Uyg‘unning “Qasos” (1941), K.Yashinning “Farhod va Shirin” (1944), G.Mushel bilan hamkorlikda H.Olimjonning “Muqanna” (1943), Xalilov bilan hamkorlikda S.Qosimov va L.Mamatxonovning “Nodira” (1942-1943), B.Zeydman bilan hamkorlikda H.G‘ulomning “O‘g‘il uylantirish” (1964), Sayfi Jalil bilan hamkorlikda Y.Mahsumovning “Navoiy Astrobodda” (1968) kabi musiqali dramalarini va T.Sodiqov, D.Zokirov, B.Zeydmanlar bilan hamkorlikda “Zaynab va Omon” operasini yozib, o‘zbek musiqali drama janrining shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

Piri ustoz Yunus Rajabiy o‘zbek xalq musiqiy merosining allasidan boshlab to turli mayda va yirik janrlardagi asarlardan tortib, o‘zbek xalqining Olti maqomlarigacha to‘plab ularni tartibga solib, kerak bo‘lganida qayta ishlab, go‘zal qochirim-u nolalar bilan boyitib, tuzatib va shu kuylarni nota yozuviga olishda to‘ldirib, rivojlantirdi. 1955-1959 yillarda (I.Akbarov tahriri ostida) 5 jildlik “O‘zbek xalq muzikasi” to‘plamlarini nashr ettirdi, ularga turli janrlardagi mingga yaqin o‘zbek (bir qancha tojik, uyg‘ur) kuy va ashulalar, “Buxoro Shashmaqomi”, “Farg‘ona-Toshkent” maqom yo‘llari, katta ashulalar, Hamza qo‘shiqlari, o‘nlab bastakorlarning asarlari kiritilgan. Maqom ansambli bilan uzoq ishlashi natijasida, 1966-1974 yillarda (F.Karomatov tahririda) “Shashmaqom” ning 6 jildlik yangi nashrini tayyorladi. Mazkur kitoblarga izoh beruvchi 1978 yilda nashr etilgan “Musiqa merosimizga bir nazar” asari maqomchilarning ijro uslublarini o‘rganishda muhim qo‘llanma bo‘ldi.[3]

Yunus Rajabiy o‘zbek mumtoz musiqasi uchun bebaho xizmatlaridan biri bu o‘zi tashkil etgan maqom ansambli bilan tinmay olib borgan ijodiy mehnati kelgusida maqom ijrochilik san’atining ravnaq bo‘lishiga olib keldi. Ushbu ansambl 1958-yilda O‘zbekiston Radio va televideniyasi davlat qo‘mitasi qoshida Yunus Rajabiy rahbarligida maxsus “maqom ansambli” nomi ostida tashkil etildi. Jamoaning dastlabki maqsadi, Olti maqom turkumini to‘laligicha radioning ovoz fondi uchun yozib olish edi. Shu zaylda 1966-1975 yillar mobaynida, akademik Yunus Rajabiy olti maqomning har birini alohida-alohida olti jildlik “Shashmaqom” kitoblarini nashr ettirdi. Fayzulla Karomatov va Ishoq Rajabov tahriri ostida

bu qahramona ish o‘zining yuksak natijalarini ko‘rsatdi. O‘zbek maqomlarini o‘zining go‘zal shaklu-shamoyiliga, yanada go‘zal, ta’sirchan ijro namunalarini yaratilishiga, butun dunyo xalqlarining ham shu klassik maoqm asarlarini tinglab bahramand bo‘la olishiga imkoniyatlar yaratdi. Butun dunyo xalqlarining ham eng ajoyib va go‘zal mulkiga qolajak bu kuylar albatta maqomlardir.

Yunus Rajabiyning san’atimiz yo‘lidagi sa’y-harakatlariga uning o‘g‘li O‘zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy shunday ta’rif beradi: “Yunus Rajabiy – mening otam, Rajabiylar katta xonadoni, oilasining otaxoni bo‘libgina qolmay, u butun O‘zbekiston, O‘rta Osiyo, qolaversa barcha turkiy xalqlarning, musulmon olamining ham musiqiy otaxoni desak ham arziydi. Yer yuzidagi musiqa shinavandalarining ko‘ngillariga, diliga orom bera olgan, ruhiy ozuqa, shifo baxsh etgan musiqiy allomasidir”.[4, 62]

Darhaqiqat, Yunus Rajabiy o‘zbek musiqasining bilimdoni, otaxon ustoz-san’atkori, musiqiy qalamidan dillarni o‘zgacha zavq berishi bilan birga kishini maftun etadigan musiqa xazinaboni chinakamiga o‘zbek maqomi xazinaboni edi desak menimcha ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Yunus Rajabiyning o‘zbek musiqa va qo‘shiq san’ati kamolotidagi katta xizmatlari 1958 yilda “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni, Respublika Davlat mukofoti (1973) bilan taqdirlandi. 1966 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligiga saylandi.

O‘zbekiston musiqa san’atining ulkan arbobi Yunus Rajabiy 1976-yilda Toshkent shahrida vafot etdi. O‘zbekiston Televidenie va radio eshittirish Davlat qo‘mitasi qoshidagi “Maqom” ansambliga, Jizzax musiqali drama teatriga va Toshkent musiqa pedagogika bilim yurtiga, Toshkentdagi markaziy ko‘chalarning biriga Yunus Rajabiy nomi berildi. Uning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Yunus Rajabiy” (“O‘zkinoxronika” studiyasi, 1967; “O‘zbektelefilm” studiyasi, 1990), “Umr daftari” (O‘zbekiston televideniyesi, 2001) filmlari suratga olingan. Yunus Rajabiy 1957-76 yillar yashab ijod etgan uy (Toshkent, Yunus Rajabiy ko‘chasi, 20)da 1997 yilda Rajabiy uymuzeyi ochilgan. 2001 yil Yunus Rajabiy madaniyat markazi tashkil etilgan. Respublikamiz madaniy jamoatchiligi 1997-yilda Yunus Rajabiyning 100 yillik yubileyini keng nishonladi. O‘zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shganligi uchun u 2000-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi.

XULOSA

Bir so‘z bilan aytganda Yunus Rajabiy o‘zbek Shashmaqomini qaddini qayta rostladi. Uni tartibga solib, xalqimizni e’tiboriga havola etdi. Rajabiy tomonidan yaratilgan musiqiy asarlar O‘zbekiston radiosining to‘lqinlarida, oynayi jahon ko‘rsatuvlarida muntazam ravishda namoyish etib kelinmoqda. O‘zbek maqomlari o‘zining go‘zal shaklu-shamoyiliga, yanada nafis, ta’sirchan ijro namunalarining yaratilishiga, butun dunyo xalqlarining ham shu mumtoz maqom asarlarini tinglab bahramand bo‘la olishiga imkoniyatlar yaratdi. Butun dunyo xalqlarining eng ajoyib va go‘zal mulkiga aylanib qolajak bu kuylar, maqomlar. Yunus Rajabiyga berilgan barcha ta’riflarga ya’ni uning qanchalik o‘z kasbining ustasiligiga, naqadar professional san’atkor ekanligiga hamda maqom bilimdoni ekanligiga isbot sifatida Akademik Vohid Zohidovning Yunus Rajabiyni xotirlab u haqida bildirgan fikrini misol qilishimiz mumkin: “Yunus Rajabiy xalq musiqa merosi durdonalarini, ayniqsa, maqom yo‘llarini

sozanda-xonandalarga o‘rgatganlarida ham ustozlarning ijrochilik an’analariga rioya qildi, ham u o‘rgangan kuy yoki ashulalar o‘ziga xos uslubda ijro etildi”.[5, 6]

O‘zining betakror ijrolari bilan o‘zbek musiqa san’ati tarixida o‘chmas iz qoldirgan, qadimiy o‘tmish musiqamizni, bizning zamonaviy kuylarimizga bog‘lab uni umrboqiyligi ta’minlashdek ma’suliyatli, qolaversa chinakamiga qahramonlik ishini amalga oshirgan, maqomlarimizni ijrosini nota namunalarini saqlab ovozasini butun dunyoga yoygan musiqamiz xazinaboni Yunus Rajabiy ilmiy-ijodiy faoliyati taqsinga sazovordir.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. R.S.Abdullayev. O‘zbek mumtoz musiqasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: «YANGI NASHR» nashriyoti, 2008-y.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси 7-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энсиклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2004 й.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энсиклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008 й.
4. Шашмақом сабоқлари. (Мақола ва маърузалар тўплами). Тузувчилар:О.Матёқубов, Б.Ашуров, К.Ўринбоев.Тошкент:.2005 й.
5. Юнус Ражабий. Мусиқа меросимизга бир назар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978 й.
6. А.Ҳ.Жабборов.Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари. Маълумотнома. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2004 й.
7. Илёс Акбаров. Юнус Раджаби. Москва: Всесоюзное издательство, Советский композитор, 1982 г.
8. М.Ахмедов. Юнус Ражабий. (ҳаёти ва ижоди ҳақида очерк). Тошкент:. 1967 й.
9. М.Ахмедов. Юнус Ражабий. Тошкент:.1980 й.
10. O.A.Ibrohimov, G‘.M.Xudoyev. Musiqa tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018-y.
11. О.Матёқубов. Мақомот. “Мусиқа” нашриёти. Тошкент:. 2004 й.
12. Равшан Юнусов. Ўзбек халқ мусиқа ижоди. (Илмий-услубий тавсиялар). 2-қисм. Тошкент:.2000 й.
13. Равшан Юнусов. “Мақом ансамбли”. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 5-жилд. Давлат илмий нашриёти, 2003.
14. Ражабийнома. Тузувчи: Ҳасан Ражабий. Тошкент:.2016.
15. Yunus Rajabiy. O‘zbek maqomlari. Shashmaqom. “YUNESKO”, Toshkent, 2007.
16. Ўзбек халқ мусиқаси. I-V томлар. Бухоро мақомлари. Тўпловчи ва нотага олувчи Юнус Ражабий. И.А.Акбаров таҳрири остида. – Тошкент: Давлат бадиий адабиётлар нашриёти, 1955-1959 йй.
17. Ўзбекистон халқ созандалари. Тузувчи:К.Алимбаева, М.Ахмедов. (Т.Визго ва Ф.Караматов умумий таҳрири остида) I-қисм. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1959 й.

18. Шашмақом. Ёзиб олувчи Юнус Ражабий. I-VI китоблар. Тошкент:. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, - Тошкент: 1966-1975 йй.

19. Шашмақом сабоқлари. (Мақола ва маърузаларнинг учинчи тўплами). Тузувчилар:О.Матёқубов, Б.Ашуров, К.Ўринбоев.Тошкент:.2007 й.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

SAN’ATSHUNOSLIK

ART HISTORY

МУСИҚА САНЪАТИДА ШАХС ФЕНОМЕНИ

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.213

Турсунбоев Беҳзодбек Асқарали ўғли -
Ўзбекистон давлат консерваторияси
“Ўзбек мусиқаси тарихи” кафедраси
таянч докторанти
tursunboyevbehzodbek4@gmail.com
+99891 671-79-36

Аннотация. Мазкур мақола мусиқа санъатида “шахс феномени” тушунчасининг назарий ва методологик асослари таҳлил қилинади. Феномен тушунчасининг фалсафий манбалари, хусусан, Кант, Гегель ва феноменология мактаби қарашлари асосида мусиқашуносликдаги трансформацияси кўриб чиқилади. Мақолада мусиқий асар маъноси акустик матнда эмас, балки тингловчи идроки ва ижро жараёнида шаклланиши илмий жиҳатдан асосланади. Шунингдек, жаҳон ва ўзбек мусиқа маданиятида айрим композиторлар ижоди муайян давр эстетик тафаккурининг ифодаси сифатида талқин қилиниб, персоноцентр ёндашувнинг аҳамияти очиб берилади. Тадқиқот натижалари мусиқа тарихини индивидуал ижодий моделлар орқали англаш имконини кенгайтиради.

Калит сўзлар: феномен, шахс феномени, мусиқа санъати, персоноцентризм, эстетик тафаккур, идрок, мусиқий маъно, ижро жараёни, миллий мусиқа, композитор услуби.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы понятия “феномен личности” в музыкальном искусстве. Анализируется философская природа категории “феномен” и её трансформация в музыкознании на основе идей Канта, Гегеля и феноменологии. Обосновывается положение о том, что смысл музыкального произведения формируется не только в акустической структуре, но и в процессе восприятия и исполнения. Особое внимание уделяется персоноцентрическому подходу, в рамках которого творчество композитора интерпретируется как выражение эстетического сознания эпохи. На примере мировой и узбекской музыкальной культуры раскрывается роль личности как культурно-исторического феномена.

Ключевые слова: феномен, феномен личности, музыкальное искусство, персоноцентризм, эстетическое сознание, восприятие, музыкальный смысл, исполнение, композитор, стиль.

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations of the concept of the “phenomenon of personality” in musical art. The philosophical origins of the

term “phenomenon,” particularly in the works of Kant, Hegel, and phenomenology, are examined in relation to their transformation within musicology. The study argues that the meaning of a musical work emerges not solely from its acoustic structure but through the processes of perception and performance. Special attention is given to the person-centered approach, where the composer’s творчество is interpreted as an expression of the aesthetic consciousness of an эпоха. Examples from world and Uzbek musical culture demonstrate how individual composers function as cultural-historical phenomena.

Keywords: phenomenon, personality phenomenon, musical art, person-centered approach, aesthetic consciousness, perception, musical meaning, performance, composer, style.

КИРИШ. Мусиқа санъати тарихи таҳлили шуни кўрсатадики, айрим ҳолларда бадиий жараён алоҳида асарлар ёки жанрлар эволюцияси орқали эмас, балки муайян ижодкор шахси орқали идрок этилади. Бундай ҳолат санъатшуносликда персоноцентризм, яъни бадиий тафаккурнинг индивидуал моделда намоён бўлиши сифатида таърифланади. Унда композитор фақат ижодкор эмас, балки даврнинг эстетик онгини мужассам этувчи маданий-тарихий феномен сифатида намоён бўлади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ.

Маълумки, “феномен” тушунчаси ўзининг моҳиятига кўра, юнонча “phainomenon” – содир бўлувчи, ғайриоддий, камдан-кам бўладиган ҳодиса, факт, фалсафий нуқтайи назаридан ҳис туйғу тажрибаси билан пайқаладиган тушунча (бу маънода ўз моҳияти жиҳатидан интеллектуал мушоҳада предмет сифатида намоён бўлувчи ноуменнинг қарама-қаршиси) [1, 95-б].

“Феномен” тушунчасини ноёб, буюк, ягона бўлган инсон ва ҳодисаларга ҳам қўллаш мумкин. Бу ҳақида “Фалсафа” қомусий луғатида қуйидагича келтирилади: “Феномен-юнонча “phainomenon” -юз берувчи”. Маъносига кўра 3 гуруҳга ажратилади.

1. Кўзга кўриниб турувчи ҳол.

2. Ноёб, кам учрайдиган ҳол, ёки буюк, ягона бўлган инсон.

3.Ҳиссий билиш, тажрибада берилган маълум бир ҳолни англатувчи фалсафий атама. Ҳиссий тажриба ёрдамида пайқаладиган ва англанадиган ҳодиса, жонли мушоҳада объектини билдирадиган тушунча” [2, 427-428 б].

Аристотел ушбу атамани “кўринувчи”, “туюлувчи” маънода қўллаган. Унинг фикрига кўра, феномен – сезгилар орқали қабул қилинадиган нарса бўлиб, инсон билимни **тажриба ва сезги** орқали олади. Кўзга кўринган, қулоққа эшитилган, тажрибада кузатилган нарса — феномен ҳисобланади. Аристотель учун муҳим масала — **зоҳир (феномен)** ва **моҳият** ўртасидаги фарқ.

- Феномен — нарсанинг ташқи кўриниши.
- Моҳият — унинг асл табиати, сабаби.

Фалсафанинг вазифаси — феноменлар орқали моҳиятга етиш. Аристотель илмий тадқиқотда аввал **кўринаётган ҳодисаларни (феноменларни)** тўплаш, кейин уларнинг сабабларини излашни таклиф қилади.

Фалсафа энциклопедик луғатида **ушбу атама** ҳиссий тажрибада идрок этиладиган ҳодиса ёки сезгилар орқали қабул қилинадиган объект бўлиб, у моҳият (ноумен)дан фарқ қилади [3, 717 б]. Фалсафа тарихида мазкур тушунча турлича талқин қилинган: у ғоя ёки моҳиятнинг намоён бўлиши (неоплатонизм, Лейбниц, Шеллинг, Гегель), билиш мумкин бўлган ҳодисалар олами (Кант), ёки субъектив кечинмалар мажмуаси (Беркли, Юм, феноменализм) сифатида изоҳланган. Идеалистик анъанада феномен интеллектуал мушоҳада билан боғланиб, “соф моҳиятлар” шаклида талқин этилади (Платон, Гёте, Гуссерль). Марксистик фалсафада эса феномен предметнинг ташқи жиҳатларини ифода этувчи ва унинг моҳиятини очиб берувчи “ҳодиса” категорияси билан тенглаштирилади.

НАТИЖАЛАР.

Мусиқа санъатида “феномен” тушунчаси илгари мавжуд бўлмаган. Фалсафа ва эстетика фанлари тарихида тадрижий ривожланган. Немис мумтоз фалсафасининг асосчиларидан бўлган, файласуф Иммануил Кант (1724-1804) “феномен” атамасини фалсафа фанида қўллай бошлаган. Кант мазкур тушунчани илмий-фалсафий категория сифатида аниқ шаклга келтирган мутафаккирдир. Унинг “Соф ақл танқиди” (“*Kritik der reinen Vernunft”)* номли асарида келтиришича: “Инсон дунёни қандай бўлса шундай эмас, балки онги орқали қандай намоён бўлса шундай қабул қилади”-деб таъкидлайди [4]. Шунинг учун ҳам у борлиқни иккига ажратади:

1-жадвал

Тушунча	**Маъноси**
Феномен	Бизга кўринган, идрок қилинган воқелик
Нумен (нарса-ўзида)	Онгдан ташқари ҳақиқий ҳолат

И.Кант назариясига кўра “идрок” 3 босқичда акс этади.

1. Ҳиссийлик.

2. Интуиция шакллари: макон ва замон.

3. Ақл категориялари.

Инсон ташқи таъсирни қабул қилади, лекин у тартибсиз. Онг барча маълумотни автоматик равишда **макон ва вақт ичига жойлаштиради**. Сабаблар, миқдор, сифат каби тушунчалар орқали онг воқеликни йиғади. Демак, макон ва вақт — табиатда эмас, инсон идрокида мавжуд шакллардир. Натижада, инсон онгида ташқи таъсир натижасида ҳосил бўлган тажриба “феномен”ни келтириб чиқаради.

МУҲОКАМА.

Мусиқада “феномен” тушунчаси ўзининг маъновий ҳажмини кенгайиши янги фан тармоқларини юзага келишига замин яратди. Файласуфлар И.Кант (XVIII аср) феномен тушунчасига “идрок-асос”, Гегел (XIX аср)“санъат- руҳ намоёндаси”, Гуссерл (XX аср бошлари) “феноменология методи”, XX асрда эса Ингарден “мусиқий тажриба назарияси”, Мерло-Понти “баданли идрок”, Майер “эмоция механизми” (“ҳиссиёт механизми”), XX–XXI асрларда Натьез “маъно тингловчида” каби назариялари билан

бойитди. Мусиқада феномен тушунчаси фалсафадан бошланиб, кейин эстетика → мусиқашунослик → психология фанларига ўтган.

Бу ерда тингловчи ва борлиқ ўртасидаги чегара йўқолиб, мусиқа идрок жараёнида қайта яратилади. Демак, маъно товушнинг ўзида эмас, уни қабул қилиш ҳолатида пайдо бўлади. Шу йўналиш Сюй Фугуан қарашларида ҳам давом этади [5]. У неоконфуцийчилик эстетикаси орқали санъат тажрибасини тушунтирган. Сюй Фугуан илмий ишларида “Санъат мазмуни объектда эмас, инсон руҳий ҳаракатида пайдо бўлади”-деб ҳисоблайди. Хитой санъат руҳиятини — “руҳий резонанс” тушунчаси орқали изоҳлайди. Бу назарияга кўра, мусиқий таъсир акустик материалдан эмас, балки ижрочи ва тингловчи ўртасида юзага келадиган ички ҳаракатдан келиб чиқади. Бундан кўринадики, санъат мазмуни предметда эмас, кечинмада мавжуд.

Замонавий Хитой эстетикасининг забардаст файласуфларидан бири бўлган Ли Зэхоу эса эстетик идрокни маданий тажрибаларнинг инсон онгида жонланиши сифатида тушунтиради [6]. Унинг “жамланган тажриба” (яъни, маданий ҳис-тажриба инсон идрокида жонланади (Т.Б!)концепциясига кўра, мусиқа — ўтмиш маданий ҳис-туйғулари ҳозирги идрокда намоён бўладиган жараёндир. Бу ҳолатда асар тайёр маъно ташувчи эмас, балки идрок пайтида вужудга келадиган феномен ҳисобланади ва мусиқани: тарихий тажрибанинг ҳозирги идрокда намоён бўлиши деб тушунтиради (яъни феномен).

Бевосита мусиқа назарияси ва эстетикасида бу ғоялар Цай Чжундэ ишларида янада аниқ шаклга эга бўлади [7]. У мусиқани акустик структура эмас, ижро жараёнида туғиладиган “тирик маъно” (Бу — перформатив феномен назариясига жуда яқин (Б.Т!) деб таърифлайди.

Шу нуқтаи назарни гуцинь ижрочиси ва тадқиқотчиси Чэн Гунлян (Cheng Gongliang) амалий жиҳатдан асослаб, асар нотада эмас, айнан ижро вақтида мавжуд бўлишини таъкидлайди. Тинглаш эса пассив қабул эмас, балки ҳамкорликдаги ҳозирлик ҳолати сифатида қаралади.

Хитой тадқиқотчиларининг олиб борилган изланишлари хулосалари натижасида “феномен” атамасига мос эквивалентлик тушунчалар аниқланди.

2-жадвал

Олим	**Феноменга мос тушунча**
Зун Байхуа	эстетик тажриба майдони
Сюй Фугуан	руҳий резонанс
Ли Зэхоу	идрокда намоён бўлиш
Цай Чжундэ	ижро жараёнида маъно
Чэн Гунлян	ҳозирликда мусиқа

Жаҳон мусиқа санъати тарихида шахс феноменига мисол сифатида И.С.Бах, Й.Гайдн, В.А.Моцарт, Л.Бетховен, Ж.Бизе, Ж.Верди,А.Шёнберг, А.Веберн, П.Хиндемит, Россияда - М.И.Глинка, Д.Д.Шостакович, А.Шнитке, С.Губайдулина,

Озарбайжонда- У.Ҳожибеков, Т.Қулиев, Ф.Амиров, В.Мустафазода, Ўзбекистонда - М.Бурҳонов, Р.Вильданов, М.Тожиев, Б.Зокиров феноменлари ёрқин мисолдир.

Мазкур ёндашувга кўра, ижодкор шахси услуб, жанр ва бадиий тафаккурни бир нуқтада жамловчи марказ вазифасини бажаради. Натижада мусиқа тарихи хронологик кетма-кетлик эмас, балки маънавий-психологик ҳолатларнинг индивидуал ифодаси сифатида идрок этилади. Масалан, жаҳон мусиқа санъатида барокко даври полифоник онги И.С.Бах ижодида универсал қонуният сифатида шаклланса, классицизм эстетикаси В.А.Моцарт мусиқасида инсонпарвар мувозанат моделига айланади, романтик қаҳрамонлик ғояси эса Л.Бетховен симфонизмида тарихий-фалсафий мазмун касб этади.

XX аср мусиқасида мазкур феномен янада яққол акс этди. Композитор ижоди ижтимоий воқеликнинг бадиий ҳужжати вазифасини бажара бошлади. Шу маънода, айрим композиторлар миллий ёки умуминсоний тафаккур типини белгилаб берадиган “давр модели” сифатида қаралади. Бунда шахс ва услуб ўртасидаги муносабат сабаб-натижа эмас, балки ўзаро айният характерини олади: ижодкор услубни яратмайди, балки у орқали давр онги намоён бўлади.

Демак, мусиқа тарихи фақат жанрлар ривожи ёки замонавий техник услублар фойдаланишгина эмас, балки ижодкор тафаккури тамойили бевосита бадиий ифодаланиш жараёнидир. Шу боис айрим композиторларни “муайян давр мусиқий тафаккури феномени” сифатида таърифлаш илмий жиҳатдан асосли бўлиб, у эстетик эволюцияни индивидуал модел орқали англаш имконини беради.

Ўзбек мусиқа маданияти тараққиётини таҳлили шуни кўрсатадики, миллий профессионал мусиқа тарихи фақат жанрлар ва услублар эволюцияси орқали эмас, балки айрим ижодкор шахслар фаолияти орқали ҳам тушунилади. Бу ҳолат бадиий жараённинг персоноцентр хусусиятини, яъни муайян давр эстетик тафаккури индивидуал ижодий модел орқали мужассамлашишини тасдиқлайди. **Персоноцентр**-марказда шахс (ижрочи, қаҳрамон, муаллиф ички дунёси) (Таъриф бизники Т.Б!). Масалан, Абу Наср Фаробий мусиқани юқори фалсафа даражасида таҳлил этган [9].

Хусусан, М.Бурҳонов ижоди ўзбек профессионал мусиқасининг шаклланиш босқичини ифодаловчи феномен сифатида намоён бўлади. Унинг асарларида миллий интонацион асослар ўзбек миллий тафаккур европача композицион фикрлаш билан уйғунлашиб, академик мусиқа тилининг миллий вариантини вужудга келтирди. Шу маънода композитор ижоди алоҳида услуб бўлиб қолмасдан, балки миллий профессионал мусиқа тафаккурининг шаклланиш модели сифатида қабул қилинади.

М.Тожиев ижодида эса мақом анъаналарининг симфоник тафаккур билан қўшилиши кузатилади. Бу ерда мақом намунасининг оддий ишланмаси эмас, балки унинг драматургик ва образий қонуниятлари симфония жанрига кўчирилади. Натижада “миллий мақом симфонизми” деб аталиши мумкин бўлган эстетик тизим шаклланади ва композитор ушбу йўналишнинг концептуал моделига айланади.

Р.Вильданов фаолияти ўзбек киномусиқаси табиатини белгилаб берувчи феномен сифатида қаралади. Унинг мусиқасида экран драматургияси, миллий интонация ва

психологик образ ўртасидаги муносабат янги бадиий сифат касб этади. Бунда мусиқа тасвирни шарҳламайди, балки кинообразнинг ички мазмунини очувчи семантик қатламга айланади.

ХУЛОСА.

Шундай қилиб, мазкур ижодкорлар фаолиятини алоҳида асарлар мажмуаси сифатида эмас, балки муайян бадиий онг типини мужассам этувчи маданий-тарихий феномен сифатида талқин этиш мумкин. Бу эса ўзбек мусиқа санъати эволюциясини индивидуал ижодий моделлар орқали англаш имконини беради. Шундай қилиб, “феномен” тушунчаси мусиқашуносликда ягона мазмунга эга эмас, балки тарихий, жанрий, миллий ва семантик омиллар уйғунлигида намоён бўлувчи кўп қатламли илмий категория сифатида қаралади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон миллий энсиклопедияси “Ф” ҳарфи. “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси” давлат нашриёти, Тошкент:.2002 й, 95-б.

2. Фалсафа қомусий луғат. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент:.2004й, 427-428 бетлар.

3. Философский энциклопедический словарь.Москва “Советская энциклопедия”:.1983г, 717 ст.

4. I.Kant. *“Kritik der reinen Vernunft”.Berlin:.1913.*

5. Xu Fuguan. *Zhongguo yishu jingshen* (**中国**艺术**精神** — “Хитой санъатининг руҳи”). Taipei: Taiwan Xuesheng Shuju, 1966.

6. Li Zehou. *Mei de licheng* (**美的**历**程** — “Гўзаллик йўли”). Beijing: Wenwu Chubanshe, 1981, Li Zehou. *Huaxia meixue* (华**夏美学** — “Хуасия эстетикаси”). Beijing: Sanlian Shudian, 1989.

7. Cai Zhongde. *Zhongguo yinyue meixue shi* (**中国音**乐**美学史** — “Хитой мусиқа эстетикаси тарихи”). Beijing: Renmin Yinyue Chubanshe, 1995, Cheng Gongliang. *Guqin yishu yu meixue* (**古琴**艺术**与美学** — “Гуцинь санъати ва эстетикаси”). Nanjing: Jiangsu Wenyi Chubanshe, 2006.

8. Даукеева С.Философия музыки Абу Насра Мухаммада Аль-Фараби. Монография. Алматы:. 2002 г.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 3-son)

SAN’ATSHUNOSLIK

ART HISTORY

YAKKA IJRONING NAZARIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI: TOVUSH HOSIL QILISH VA OHANGDOSHLIK

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.214

Muminov Muxsimjon Mansurovich
Qo’qon davlat universiteti, xalq ijodiyoti kafedrasi v.b. professor
muhsinbekmominov17gmail.com

Annotatsiya. Yakkaxon xonandalik san’ati nafaqat musiqiy mahoratni, balki ijrochi shaxsining ichki dunyosini boyituvchi ijodiy jarayondir. Mazkur san’atning rivojlanishi uchun ijrochi o‘z ovoz imkoniyatlarini to‘liq ochib berishi, ovoz chiqarishning nazariy asoslarini o‘zlashtirishi va amaliy mashg‘ulotlar orqali bu bilimlarni mustahkamlashi zarur. Ushbu mavzu yakkaxon ijroning texnik va ifodaviy tomonlariga bag‘ishlangan bo‘lib, tovush hosil qilish jarayonining ilmiy asoslari hamda ohangdoshlikni shakllantirish usullarini yoritadi.

Kalit so’zlar: tovush, ohang, ovoz paychalari, rezonatorlar, artikulatsiya, akustika.

Аннотация. Искусство сольного пения - это творческий процесс, обогащающий не только музыкальное мастерство, но и внутренний мир исполнителя. Для развития этого вида искусства исполнитель должен полностью раскрыть свои вокальные возможности, освоить теоретические основы звукоизвлечения и закрепить эти знания посредством практических занятий. Данная тема посвящена техническим и выразительным аспектам сольного исполнения, освещая научные основы процесса звукообразования и методы формирования гармонии.

Ключевые слова: звук, интонация, голосовые связки, резонаторы, артикуляция, акустика.

Abstract. The art of solo singing is a creative process that enriches not only musical mastery, but also the inner world of the performer. For the development of this art form, the performer must fully realize their vocal potential, master the theoretical foundations of sound production, and reinforce this knowledge through practical exercises. This topic is dedicated to the technical and expressive aspects of solo performance, highlighting the scientific foundations of the sound production process and methods of forming harmony.

Keywords: sound, tone, vocal cords, resonators, articulation, acoustics.

Kirish. Yakka ijro (solo ijro) musiqaning eng qadimiy va badiiy boyliklardan biri bo‘lib, unda ijrochi musiqiy asar orqali tinglovchiga hissiy, estetik va ma’naviy ma’lumotlarni yetkazadi. Ushbu yo‘nalish xalq musiqasida keng tarqalgan bo‘lib, o‘ziga xos nazariy va amaliy asoslari bor. Quyida yakka ijroning asosiy nazariy jihatlari va xususiyatlari batafsil yoritiladi.

Yakka ijro – bu musiqiy asarning bir ijrochi tomonidan kuylanishi yoki ijro etilishidir. U asosiy e’tiborni ijrochining ovoz mahorati va hissiyotlariga qaratadi. Yakka ijroda kuy va so‘zning uyg‘unligi orqali asarning badiiy qiymati tinglovchiga yetkaziladi.

Asosiy maqsadlar:

- **Mazmunni yetkazish:** Tinglovchiga musiqa orqali asarning mazmunini va ruhiyatini ifodalash.
- **Ijro mahoratini ko‘rsatish:** Ijrochi ovozining texnik imkoniyatlarini ochib berish.
- **Estetik zavq bag‘ishlash:** Tinglovchining musiqiy didini shakllantirish va rivojlantirish.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari orasida insonni ruhiyatiga bevosita ta’sir etuvchi ohanglar ko‘p. Har qanday yurakdan ijro etilgan asar yoki musiqa insonni ruhiyatiga bevosita ta’sir etish kuchiga ega bo‘lib, u insonni ruhiyatiga ta’sir etib uning musiqa tinglash madaniyatini rivojlantiradi. Masalan, “Munojot” yoki mumtoz ashulalardan “Segoh” yakka ijroda tinglovchiga chuqur hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Tovush hosil qilishning fiziologik va akustik jarayonlari.

Ovoz chiqarish inson organizmidagi bir necha tizimlarning uyg‘un faoliyatiga asoslangan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonni tushunish uchun quyidagi asosiy bosqichlarni tahlil qilish lozim:

Nafas olish tizimi va diafragma

Nafas olish tovush chiqarishning asosi hisoblanadi. Ovozning barqarorligi va davomiyligi to‘g‘ri boshqarilgan nafas olish orqali ta’minlanadi. Diafragma va qovurg‘a mushaklari birgalikda ovoz tebranishini barqaror qiladi.

Amaliy mashqlar:

- **Chuqur nafas olish:** Talabalar 4 bosqichli nafas olish texnikasini (nafas olish, ushlash, chiqarish, tanaffus) qo‘llaydi.
- **Diafragma bilan ishlash:** “Hissing” (pichirlash) texnikasi orqali nafas oqimini nazorat qilish o‘rgatiladi.

Ovoz paychalari va ularning roli.

Ovoz paychalari tovush chiqarishda asosiy rolni o‘ynaydi. Paychalar tebranishi ovozning kuchi va sifatini belgilaydi.

Amaliy mashqlar:

- **“M-m-m” mashqi:** Talabalar pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga “m-m-m” tovushini chiqarib, ovoz paychalarining elastikligini oshiradi.
- **“A-a-a” mashqi:** Paychalarni cho‘zish va ularni barqarorlashtirish uchun bajariladi.

Rezonatorlarning roli.

Rezonatorlar (og‘iz, burun va ko‘krak bo‘shliqlari) ovozning boyligini ta’minlaydi. Ularning uyg‘un ishlashi tembrning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashqlar:

- **“Ng” mashqi:** Burun rezonatorini faollashtirish uchun bajariladi.
- **“O-o-o” mashqi:** Og‘iz rezonatorini kuchaytiradi va tembrni boyitadi.

Artikulyatsiya organlari.

Artikulyatsiya organlari – ovoz chiqarishda har bir tovushning aniq va tiniq shakllanishiga xizmat qiluvchi til, lab, jag‘ va tanglay kabi organlardan iborat. Ular tovushning to‘g‘ri shakllanishini ta’minlab, talaffuzni tiniqlashtiradi va musiqiy matn mazmunining to‘g‘ri yetkazilishiga yordam beradi.

Maqom va milliy qo‘shiqchilikda artikulyatsiya organlarining moslashuvchanligi ijro mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Til va lablar so‘zlarni tiniq ifoda etishda, jag‘ va tanglay esa ovozning balandligi va sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu organlar bir-biriga uyg‘un ishlashi natijasida matn mazmuni tinglovchiga ta’sirchan yetkaziladi.

Artikulyatsiya organlarining o‘ziga xos roli:

TIL	LABLAR	JAG‘	TANGLAY
• Har bir tovushni shakllantiradi va ularning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydi.	• Tovushlarni cho‘zish va qisqartirish orqali musiqa ohangini saqlaydi.	• Ovozning kuchi va tiniqligiga ta’sir qiladi, og‘iz ochilish darajasini boshqaradi.	• Ovozning rezonansini oshiradi va tembrni shakllantiradi.


Amaliy mashqlar

1. **She’rlarni talaffuz qilish:**

Talabalar Alisher Navoiy yoki Erkin Vohidovning she’rlarini turli intonatsiyalar bilan talaffuz qilib, talaffuz va artikulyatsiyani rivojlantiradilar. Masalan, Navoiy g‘azallarining hissiy ko‘tarilishlarini to‘g‘ri aks ettirish orqali til va lab harakatlari nazorat qilinadi.

2. Ovozni tayyorlash mashqlari:

Quyidagi mashqlardan foydalansa bo‘ladi.




“LYu” “DU” bo‘g‘inlari bilan ijro etish lozim. Keyinchalik so‘zlar bilan qaytarsa bo‘ladi.

Yopiq (ya’ni “niqobdor”) ovozning jaranglashiga “O” yoki “Yo” tovushlariga aytiladigan mashqlar yordam beradi.



Keyinchalik “I”, “A”, “Yo” tovushlar ustida ishlashga o‘tish kerak.



Unli tovushlarni bir holatda tuzish va ijro etishga intilish kerak. Mashqlarda unli tovushlarni almashtirib turish mumkin.

Masalan:



Yangi qo‘shiqlarni o‘rganganda jumlalarni har xil unli tovushlarda ijro etish foydali.

Undosh tovushlarga ham ahamiyat berish lozim. Ularni qisqa va aniq talaffuz etish kerak.

Natija:

Artikulyatsiyani rivojlantirish nafaqat talaffuz mahoratini, balki tinglovchining ijroga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi. Mazmunni tiniq yetkazish va ohangni uyg‘unlashtirishda ushbu mashqlar samarali vosita hisoblanadi.

2.5. Akustik xususiyatlar.

Har bir ijrochining ovoz diapazoni, tembri va kuchi individualdir. Bu jihatlar ijro uslubining xususiyatlarini belgilaydi.

Amaliy maslahatlar:

- **Ovoz diapazonini aniqlash:**

Amaliyot usuli:

Talabaning ovoz diapazonini aniqlash uchun gamma kuylash mashqlari qo‘llaniladi:

Gamma kuylash talabaning quyi (past) va yuqori (baland) tovushlar bo‘yicha qobiliyatlarini o‘rganish imkonini beradi.

Mashq davomida ovozning barqarorligi, ohangdorligi, hamda tovush sifatiga e’tibor qaratiladi.

Har bir talabaga alohida yondashilib, ularning tabiiy ovoz diapazonini rivojlantirishga ko‘mak beriladi.

Mashg‘ulot jarayoni:

1. Talaba avval past diapazondan boshlanib, ohista yuqoriga qarab gamma kuylaydi.
2. Gamma mashqlar jarayonida nafas olish texnikasi va ovoz chiqishining barqarorligi nazorat qilinadi.
3. Talaba yuqori diapazonga yetganida, ovozning ohangdorligi va barqarorligi tahlil qilinadi.

Natija:

Mashg‘ulot natijasida talabalar:

- O‘z ovoz diapazonini bilib oladilar.
- Past va yuqori diapazonda ovoz chiqarish texnikasini o‘zlashtiradilar.
- Ovoz diapazonini asta-sekin kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bu mashg‘ulot yakkaxon ijro mahoratini oshirish va talabaning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ovoz diapazonini rivojlantirishda mashqlar talabaning texnik imkoniyatlarini kengaytiradi. Quyida gamma kuylash va ovoz diapazonini aniqlash uchun bir nechta amaliy misollar keltiriladi:

1. Oddiy gamma kuylash

Mashq: Talaba *do* notadan boshlanib, pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga gamma kuylaydi. Masalan:

- Pastdan yuqoriga: do, re, mi, fa, sol, lya, si, do
- Yuqoridan pastga: do, si, lya, sol, fa, mi, re, do

E’tibor beriladigan jihatlar:

- Har bir nota ohangdor va barqaror chiqishi kerak.
- Nafasni to‘g‘ri taqsimlash talab qilinadi.
- Har bir nota toza va aniq kuylanishi lozim.

2. Xromatik gamma mashqi

Mashq: Gamma kuylash xromatik usulda, ya’ni yarim tonlar orqali amalga oshiriladi. Masalan:

- do, do#, re, re#, mi, fa, fa#, sol, sol#, lya, lya#, si, do

E’tibor beriladigan jihatlar:

- Yarim tonlar orasidagi toza intonatsiya.
- Har bir yarim tonning barqaror tovushlanishi.

3. Dinamika va diapazonni rivojlantirish uchun mashq

Mashq: Gamma kuylashda ovoz balandligini pastdan balandga oshirib borish:

- *pianissimo* (juda past ovoz) dan *fortissimo* (juda baland ovoz) ga o‘tish.
- Masalan: do (sekin), re (bir oz baland), mi (yanada baland)...

E’tibor beriladigan jihatlar:

- Ovozning kuchayishi tabiiy bo‘lishi.
- Ovoz diapazonining kengligi yo‘qolmasligi.

4. Sekin va tez gamma kuylash

Mashq: Gamma kuylashda sekin boshlash va asta-sekin kuylash tezligini oshirish. Masalan:

- Birinchi marta gamma: do, re, mi, fa (sekin)
- Ikkinchi marta gamma: do, re, mi, fa (tezroq).

E’tibor beriladigan jihatlar:

- Har bir tovush aniq eshitilishi.
- Nafasni boshqarish texnikasi.

5. Maxsus tovushlar uchun mashq

Mashq: Talabaga past yoki baland diapazondagi murakkab tovushlarni muntazam takrorlash tavsiya etiladi.

- Past diapazon: kuylash uchun ohista va quyi notalarni qidirish (*mi, re, do*).
- Yuqori diapazon: baland va qiyinroq ohanglarni kuylash (*lya, si, do*).

Misol (mashg‘ulot davomida olingan natija)

1. **Talaba A:** Past diapazoni: lya; yuqori diapazoni: *sol*. Diapazon: lya-*sol*.
2. **Talaba B:** Past diapazoni: *si*; yuqori diapazoni: *si* (oktava yuqorida). Diapazon: *si-si*.

Ushbu mashqlar orqali talabalarning ovoz diapazonini aniqlash bilan birga ularning texnik imkoniyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

- **Tovush yozuvi orqali tahlil:** Talabalar o‘z ijrolarini tinglab, zaif va kuchli tomonlarini aniqlaydi.

Mashqning maqsadi:

Talabaning ijrochilik mahoratini rivojlantirish, ijrodagi zaif va kuchli tomonlarni aniqlash hamda o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Bosqichma-bosqich jarayon:

1. Tovush yozuvi jarayonini tashkil qilish

- Talaba o‘z ijrosini ovoz yozuvchi qurilmaga (telefon, mikrofon, ovoz yozish dasturi) yozib oladi.
- Yozuv talabaning hozirgi texnik va badiiy darajasini ko‘rsatadigan musiqiy asardan olinadi. Masalan: Bastakorlar ijodidan *“Ey Sabo” yoki Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan “Soqinomai Bayot Sheroziy” ashulasidan namunalar olinadi.*

2. Yozuvni tinglash

- Talaba musiqiy yozuvini tinglab, quyidagi jihatlarga e’tibor qilishi kerak:
  - **Intonatsiya:** Notalarning tozaligi va ohangdorligi.
  - **Diksiya:** Matn talaffuzi va aniq yetkazilishi.
  - **Ritm:** Temp va usulga amal qilinganligi.
  - **Emotsiya:** Asarning inson ruhiga hissiy ta’siri hamda tovushlarning barqarorligi.
  - **Texnika:** Nafas olish, ohangni boshqarish va dinamik ko‘rsatkichlar hamda ijro davrida notalarni tozaligini ta’minlash.

3. Zaif tomonlarni aniqlash

- Talaba musiqiy yozuvni tinglab, o‘zini quyidagicha tahlil qiladi:
  - **Masalan:** “Matnning so‘nggi qismlarini tezlik bilan aytib, aniq talaffuzdan chetga chiqdim.”

- **Tavsiya:** Ayrim ashulalarning ijrosi mobaynida ustozlar imkoniyat darajasida avj qilganliklari uchun talaba shu asarni o‘rganish mobaynida o‘zining ovoz diapazonidan kelib chiqib, ustozni tavsiyasiga binoan imkoniyat darajasida ijro etishini tushunib yetishi lozim.

4. Kuchli tomonlarni aniqlash

- Talaba ijrosining muvaffaqiyatli tomonlarini baholaydi:
- **Masalan:** “Quyi diapazondagi ovozim mustahkam va barqaror chiqdi.”
- Tavsiya: Talaba ashula ijro etish davomida avvalo ovozning quyi qismini mukammal ishlashi ustida mashqlar qilishi yuqori natijani beradi hamda ijro davomida notadagi noaniqliklarni (“falsh”) ketkazishga amaliy yordam beradi .

- **5. Ustoz bilan maslahatlashish**

- Talaba musiqiy yozuvni ustozga tinglatadi va mutaxassis fikrini oladi.
- Ustoz zaif va kuchli jihatlarni batafsil tahlil qilib, talabaga takomillashtirish bo‘yicha maslahat beradi.

6. Takrorlash va rivojlantirish

- Talaba o‘zining zaif tomonlarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha mashqlar bajaradi.
- Masalan:
- Ritmda muammo bo‘lsa, *metronom* yordamida mashqlar bajariladi.
- Diksiya zaif bo‘lsa, maxsus talaffuz mashqlari qo‘llaniladi.

Misol (tahlil natijasi):

1. **Zaif tomon:** Yuqori diapazonda ovoz barqaror chiqmagan, asar oxirida nafas yetishmovchiligi kuzatilgan bo‘lsa, bunday holatga bo‘g‘inlarni noto‘g‘ri bo‘linganligi hamda noto‘g‘ri nafas olish sabab bo‘ladi.
2. **Kuchli tomon:** Matnning bosh qismida to‘g‘ri intonatsiya, hissiy ifodaning yuqori darajasi.

Mashqning afzalliklari:

- Talabalar o‘zlarini tinglab, mustaqil ravishda rivojlanish uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilab olishadi.
- Ustozning tavsiyalari bilan birga mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.
- Ovoz yozuvi orqali talabalar ijroni qayta-qayta tahlil qilish imkoniga ega bo‘lishadi, bu esa ijrochilik mahoratini doimiy ravishda oshirishga yordam beradi.

Mashqni amalda qo‘llash:

Masalan, talaba *“O‘rtar” ashulasini kuylaydi va yozib oladi.* Tinglash jarayonida u matn talaffuzini oshirish uchun diksiyaga e’tibor qaratishi lozimligini anglaydi. Bu jarayon davomida ovoz diapazonining barqarorligini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar qo‘llaydi.

3. Ohangdoshlikni shakllantirishning nazariy asoslari

Ohangdoshlik ijroda musiqiy uyg‘unlik va hissiy ifodaning ravonligini ta’minlovchi asosiy element hisoblanadi.

3.1. Melodik chiziqni saqlash.

Musiqiy asar yoki kuy ijrosi jarayonida melodik chiziqni saqlash musiqaning badiiy va hissiy yaxlitligini ta’minlash uchun zarurdir. Melodik chiziq – bu musiqaning asosiy

mazmunini tashkil etuvchi nota va frazalar ketma-ketligi bo‘lib, uning uzluksizligi va silliqligi tinglovchi uchun musiqiy asarning to‘laqonli ifodasini ta’minlaydi.

Melodik chiziqning asosiy jihatlari:

- **Nota va frazalarning bog‘liqligi:** Har bir nota nafaqat alohida ahamiyat kasb etadi, balki butun asar mazmuni bilan uyg‘unlashib, musiqa tuzilishini shakllantiradi.
- **Uzviylik va davomiylik:** Melodik chiziqni izchil davom ettirish musiqaning yaxlitligi va tinglovchiga ko‘rsatiladigan ta’sir kuchini oshiradi.
- **Texnik va hissiy uyg‘unlik:** Melodik chiziqni saqlash texnik mahorat va hissiy yondashuvning mukammal uyg‘unligini talab qiladi.

O‘zbek mumtoz ashulachilik san’atida melodik chiziqning saqlanishi alohida ahamiyatga ega. O‘zbek maqom asarlarida hamda bastakorlar ijodida uzoq davom etuvchi frazalar mavjud bo‘lib, ularni ijro etishda nafasni to‘g‘ri taqsimlash, intonatsion aniqlik va ohangdoshligi muhimdir. Sho‘balar ichida har bir ohangning mantiqiy va hissiy davomiyligini ta’minlash ijro mahoratini namoyon etadi.

Misol uchun Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga mansub “Bayot I, II, III, IV, V” maqomi yoki bastakorlar ijdodidan “Munojot” yoki “So‘lim” ashulalari yo‘lini ijro etishda uzoq frazalar bir maromda va ohangdagi uzviylikni saqlagan holda kuylanadi. Bu frazalarning uzilishi musiqiy mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ijrochi har bir notaning hissiy va texnik jihatdan uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi.

Melodik chiziqni saqlash uchun amaliy tavsiyalar:

1. **Nafasni boshqarish mashqlari:**

Uzun frazalarni kuylash uchun ijrochi o‘z nafasini to‘g‘ri taqsimlashi kerak. Masalan, “Dugoh” maqomi ichida uzun notalar orasida qisqa va nazoratli nafas olish usuli mashq qilinadi.

2. **Diapazonni rivojlantirish:**

Talaba gamma kuylash orqali pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga harakat qilib, ohang chiziqlarini mukammal saqlashga o‘rganadi.

3. **Musiqiy dinamika va intonatsiya ustida ishlash:**

Har bir frazaning boshlanishi va yakunlanishidagi dinamika o‘zgarishlari ohangni yanada jonli qiladi.

4. **Mashg‘ulot uchun mumtoz ashulalar tanlovi:**

“Munojot”, “So‘lim”, “Ushshoq”, “Segoh” va “Farg‘ona tong otguncha” ashulalarining melodik chiziqlarida hissiy uyg‘unlikni mashq qilish talab etiladi.

Melodik chiziqni saqlashning o‘rni

Bu qobiliyat ijrochining professional mahoratini ko‘rsatadi va tinglovchining musiqiy asarni yaxlit va mazmunli qabul qilishiga yordam beradi. Shu bois, maqom ijrochiligi va milliy qo‘shiqchilikda melodik chiziqni saqlash ustoz-shogird an’analari orqali rivojlantiriladigan eng murakkab san’at turlaridan biridir. Bu ijro mahoratini yanada yuksaltirib, musiqiy asarning estetik go‘zalligini ta’minlaydi.

2.2. Dinamika va pauzalar

Dinamika musiqiy frazani aniqlashga yordam beradi. Pauzalar esa nafas olish va hissiy ta’sirni oshirish hamda kelayotgan so‘zini qaytarib olish imkoniyati beradi.

Mashqlar:

- Fraza ichidagi dinamik o‘zgarishlarni mashq qilish.
- Pauzalarni to‘g‘ri joyda ishlatishni o‘rgatish.

2.3. Nafas olishni boshqarish

Ijro davomida qayerda va qachon nafas olishni rejalashtirish ohangdoshlikni saqlash uchun muhim. Bunday hollarda asosan asardagi so‘zni bo‘g‘iniga qarab, asarni ritmik holatiga qarab belgilanadi.

Amaliy maslahatlar:

- **Rejalashtirilgan nafas olish:** Har bir frazaning yakunida qisqa nafas olish mashq qildiriladi.
- **Milliy qo‘shiqlarda nafas olish:** “Munojot” ashulasidagi hamda “Xorazm segohi”dagi ohanglarni uzluksiz ijro etish uchun maxsus mashqlar o‘rgatiladi. Misol, “Munojot” ashulasida talabaning ovoz diapazonini pastki qismi ishlansa, “Xorazm segohi” ashulasida avj pardalaridagi ohanglarda talabaning ovozning tepa qismi ishlatiladi.

4. Amaliy mashg‘ulotlarning mohiyati va texnikalari

Amaliy mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlash va ijro mahoratini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

3.1. Nafas olish mashqlari

Diafragma va nafas tizimini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar ijro sifatini oshiradi.

Mashqlar:

- To‘g‘ri nafas olish texnikasi.
- Nafas chiqarishni asta-sekinlik bilan uzaytirish.

3.2. Artikulyatsiya mashqlari

Talaffuzni tiniqlashtiruvchi texnikalar.

